ZJV5401

**RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI**
**IJTIMOIY-MA’NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**




# YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari

«Ganjina» nashriyoti
**Toshkent – 2023**

**O‘UK: 821.512.133-1**
**KBK: 72.52**
**D 14**
**“Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli shaxs tarbiyasi: muammo va yechimlar”**: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: «Ganjina» nashriyoti, 2023. 576-bet.

**Mas’ul muharrir:**
**Olimjon Davlatov**
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

**To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:**
M.Kaxarova, M.Musayev, Sh.To‘rayev, B.Qodirov, Sh.Axrorova,
K.To‘rayev, A.Madraximov, X.Serobov, N.Xusanova

Ushbu to‘plamda “Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli shaxs tarbiyasi: muammo va yechimlar” mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. Shuningdek, to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan tayyorlandi.

To‘plam siyosatshunoslik, sotsiologiya, din, falsafa, ma’naviyat, ta’lim yo‘nalishlari mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

ISBN: 978-9943-9321-8-0

© Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti, 2023
© «Ganjina» nashriyoti, 2023

ZJV5401

## SO‘Z BOSHI

Jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat, ma’rifat sohalarini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, ziyolilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat va jamiyat siyosiy faoliyatining ustivor yo‘nalishlardan biridir. Bunday yondashuvni davom ettirgan holda qadimiy va boy tariximizni, ajdodlarimiz merosini, faoliyati va ijodini yanada chuqur o‘rganishimiz, yetishib kelayotgan avlodga o‘rgatishimiz dolzarb vazifamizga aylanmog‘i lozim.

**Ma’naviyat jamiyatimiz uchun asosiy maqsad va hayot yo‘li ekanligini singdiradigan davlat siyosiy mafkurasi sifatida shakllanmoqda.** Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan “*Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga alohida e’tibor qaratilayotganligi*” ko‘p bora ta’kidlangan holda, istiqbolda mazkur sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar bo‘yicha aniq maqsad va yo‘nalishlar belgilab berildi.

Shu jihatdan, yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy, yuksak odob-axloqli, sog‘lom dunyoqarashli shaxs sifatida kamolga yetishtirishda eng yaxshi madaniy an’analar va urf-odatlarni qayta tiklash millat sifatida shakllanishning asosiy shartlaridan biriga aylanishi zarur. Xalqimizning ma’naviy dunyosini boyitish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni ulug‘lash, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda odob-axloq masalalariga jiddiy e’tibor berilib, ma’naviy-ma’rifiy soha rivoji bo‘yicha mas’ul bo‘lgan davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirishga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Yoshlarni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashdagi davlat siyosatining asosiy maqsadi ham – ularni xalq, millat, davlat uchun fidokor bo‘lishi, Vatanni sevishi, uni himoya qilish xislatlarini shakllantirish, yoshlarimizning ma’naviy immunitetini ko‘tarishdan iborat.

Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarida yangicha islohotlar orqali ma’naviy ishlar samaradorligi va ta’sirchanligiga sabab bo‘ladigan targ‘ibot va tarbiya uzviy mexanizmlarini, chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish zarur. Ma’naviy sohada tarbiya jarayonlari bosqichlarini uzluksizligini ta’minlash muhim. Ma’naviy tarbiya dasturlarini xalqimizning boy ma’rifiy meroslariga asoslanib, **maktabgacha ta’lim, o‘rta va oliy ta’lim bosqichlarida, ta’lim uzluksizligini ta’minlagan holda,** fanlarni o‘zlashtirish qobiliyatlariga hamda uyushmagan yoshlarning yoshiga mos ravishda ishlab chiqish zarur.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarida yoshlarimizga millatimiz, xalqimiz, buyuk o‘tmishimiz, jahonga mashhur allomalarimiz, bebaho ilmiy merosimiz haqida ma’lumotlar, bilimlar berib borish orqali ularning dunyoqarashini shakllantirish, yoshlar ongida Vatan, millat, davlat, oila tamoyillariga faxr va g‘urur, ushbu tamoyillarni himoya qila oladigan tuyg‘ularni singdirib borishimiz kerak.

**Yoshlar bilan ishlash siyosati – davlat va jamiyat oldidagi eng mas'uliyatli vazifa.** Yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz tomonidan yurtimizdagi uyushmagan yoshlar bilan ishlashga katta e'tibor berilayotganini ta'qidlagan holda, ulardan kelajakda sog'lom fikrlaydigan, dunyoqarashi shakllangan, Vatani va millatini hurmat qiladigan, qadriyatlarini asraydigan, oilasini himoya qila oladigan farzandlar qilib tarbiyalashga erishishimiz kerak.

Hozirgi kunda davlat oldidagi asosiy vazifa – aholimizning aksariyatini tashkil etadigan yoshlarni to'g'ri tarbiyalash, komil inson, sog'lom dunyoqarashga, mustaqil fikrlashga va vatnimizni sevishga qodir shaxs qilib yetishtirishdan iborat. Mazkur ijtimoiy demografik dividentni qo'ldan boy bermaslik hamda undan maksimal ravishda foydalanish strategik vazifa sanaladi. Yurtimiz uchun yoshlarga oid davlat siyosatini ma'naviy-ma'rifiy sohani takomillashtirish orqali, ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligi, samaradorligini oshirish bilangina amalga oshirish eng maqbul yo'l hisoblanadi.

Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan yoshlarimiz jahon xalqlari mafkuralari, qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalar, "ommaviy madaniyat" illatlari, ma'nisiz trendlar ta'siriga tez tushib qolayotganligini kuzatmoqdamiz. Bu jarayonning oldini olish uchun ularning ongini, dunyoqarashini, eng avvalo, milliy ma'naviy-ma'rifiy bilimlar bilan egallagan bo'lishimiz muhim. Bu borada, internetning o'zbek segmentida milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz, o'lkamizning buyuk o'tmishi, jahonga mashhur allomalari, tarixiy qadamjolarimiz hamda ulkan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy merosimizni ko'rsatib beruvchi kontentlarni tayyorlash, ulardan targ'ibot va tashviqot ishlarida unumli foydalanishga erishmog'imiz muhim. Mazkur faoliyatda maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim bosqichlarida alohida ta'lim dasturlari ishlab chiqish, maxsus o'quv, o'quv-uslubiy, metodik ishlanmalar, ko'rgazma materiallari tayyorlanishi maqsadga muvofiq.

Umumjahon miqyosida, shuningdek, mintaqaviy darajada global tahdidlar hamon saqlanib qolayotgan bugungi tahlikali kunlarda davlat va jamiyatning barqarorligi, mamlakat tinchligi, aholi farovonligini saqlash, fuqarolarning emin-erkin yashashi, baxtli-saodatli hayot kechirishini ta'minlash davlatning ustivor vazifasidir. Shunday ekan, davlat va jamiyat munosabatlarida o'zaro muloqotning samarali yo'lga qo'yilishi muhim. Yurtimizda aholini, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashda barcha mas'ul ekanligini anglashi lozim.

**"*Biz uchun ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir*",** deya ta'kidlaydi Prezidentimiz. Bunday yondashuv jamiyatimizning kelajagi ma'rifat poydevori ustiga qurilishi zarurligini anglatadi. Iqtisodiy islohotlar davlatimizning, aholining

farovon hayotini ta’minlasa, ma’naviyat – jamiyatimizning barqarorligi, xavfsizligi, ma’rifiy kamolotini belgilab beruvchi mezondir.

Milliy qadriyatlarmizga, an’analarimizga yot bo‘lgan tashqi mafkuralar, g‘oyalar, aqidalarning kirib kelishi, sun’iy singdirilishi jamiyatimiz barqaror taraqqiyoti uchun jiddiy tahdid sanaladi. Zamonaviy siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga ko‘ra, **radikalizm, diniy fundamentalizm, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlari** ostida shakllanadigan mafkuraviy tahdidlarga qarshi chegaralarni yopish, internet ma’lumotlari oqimini cheklash, tashqi olamdan uzib qo‘yishga qaratilgan har qanday izolyatsiya choralarini ko‘rish mantiqsiz harakat sanaladi. Bu harakatlar bilan aholini tashqi g‘oyaviy-mafkuraviy ta’sirlardan, uning salbiy oqibatlaridan to‘sib qoluvchi moddiy chegaralarni qurish imkonsiz. Bu illatga qarshi faqatgina **yuksak ma’naviyat, madaniyat, ma’rifat va zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirish orqali** samarali kurashish mumkin.

Aholimiz, xususan, yoshlarimiz ongini, dunyoqarashini diniy fundamentalizm, radikalizm, ekstremizm kabi yot illatlardan saqlashda, sog‘lom ma’naviy dunyoqarashini boyitishda, mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohani yanada kuchaytirish ahamiyatli. **“*Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma’rifat o‘rnini jaholat egallashiga yo‘l qo‘ymaymiz*”**, deya ta’kidlagan edi murojaatnomada davlatimiz rahbari. Buni amalga oshirish sharafli, shu bilan birgalikda, juda ham muhim va murakkab vazifa ekanligini barchamiz anglashimiz, shunga mos faoliyatimiz mezonlarini belgilab olishimiz lozim.

**Yana bir muhim jihat – aholimizning ma’lum bir qismi xorijda istiqomat qilyapdi, ishlayapdi, o‘qiyapdi.** Ularning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi. Biz ana shu vaziyatga jiddiy e’tibor qaratishimiz, xorijdagi farzandlarimizni e’tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Ularning holidan xabardor bo‘lish, dunyoqarashini o‘rganishimiz, ularning ta’limi, tarbiyasiga aloqador bo‘lishimiz muhim. Biz ma’naviy-ma’rifiy sohani takomillashtirish barobarida, ana shu qatlam, **xorijdagi yoshlarimiz** ongini sog‘lom shakllanishi, ularning o‘z Vataniga sodiq farzand bo‘lib qaytishiga erishishimiz kerak. Qayerda yashashi, ishlashi, o‘qishidan qat’iy nazar, mazkur yoshlarimiz Vataniga qaytganida jamiyatimizning faol a’zosi, xalqimizning loyiq farzandi, davlatimizning matonatli himoyachisi bo‘lishi kerak.

Eng avvalo, islohotni o‘zimizdan boshlashimiz kerak. **Ma’naviy-ma’rifiy soha – davlat va jamiyat barqaror taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega soha.** Buni barchamiz chuqur anglashimiz, o‘zimizda his qilishimiz, va shunga mos ravishda faoliyatimiz mezonlarini belgilab olishimiz lozim. Bu sohaning kattasi, kichigi bo‘lmaydi. Ma’naviy sohaga hamma bir xil shaklda daxldor.

Ta’lim-tarbiya barqaror taraqqiyot yo‘lini tanlagan davlatning poydevori mustahkamligini ta’minlaydigan omillardan. Shunday ekan, ana shu poydevorni asrlar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarimiz, an’analarimiz, ulug‘ ajdodlarimizning o‘gitlari, bebaho ilmiy merosini yanada chuqurroq o‘rganish, o‘rgatish, teran anglatish bilan mustahkamlashimiz kerak. Ma’naviy soha rivojida ma’rifiy targ‘ibot ishlarining samaradorligini oshirishga jiddiy e’tibor qaratilgan holda, olib borilayotgan ishlarning yoshlar tarbiyasiga ta’sirchanligiga erishish muhim sanaladi.

**Qahramon QURONBOYEV,**
*Siyosiy fanlar doktori, professor*

ZJV5401

## I. TA’LIM VA TARBIYA: MAKTABGACHA, MAKTAB VA OLIY TA’LIM TIZIMLARIDAGI YANGI IMKONIYATLAR

### MA’NAVIY YANGILANISH – BUNYODKOR XALQIMIZ QUDRATI, O‘ZARO BIRDAMLIK RUHIDAGI EZGU INTILISHLARIDA NAMOYON BO‘LMOQDA

**Minhojiddin MIRZO,**
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari,*
*Oliy Majlis Senati a’zosi*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqola respublikamizda ma’naviyat va ma’rifat yo‘nalishida olib borilgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu islohotlarning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni va zaruriyati ochib berilgan.*

***Kalit so‘zi:*** *ma’naviyat, ma’rifat, ma’naviy tarbiya, inson kamoloti, ezgu g‘oyalar, fazilat, ishonch, hurmat, jamiyat, davlat, yangi uyg‘onish, taraqqiyot.*

Ma’naviyat hamisha, hamma zamonlarda, avvalo, inson kamolotiga, odamlar qalbida ezgu fazilatlarni rivojlantirishga, jamiyat hayotini yangi ezgu g‘oyalar bilan boyitib, o‘zaro ishonch, hurmat, e’zoz, e’tibor asosida birlashtirishga, ulug‘ maqsadli intilishlarga kuch berishga, ibratli fazilatlarni keng yoyishga, ana shu ma’noda xalqning birdamligi va hamjihatligiga asoslangan yangi ma’naviy-ruhiy makonni yaratishga xizmat qilib kelgan. Aynan ana shu makon odamlar qalbi va ongida millatparvarlik, vatanparvarlik ruhini parvarishlab, jamiyatni yuksak taraqqiyot yo‘liga boshlaydigan yangi uyg‘onish to‘lqinlarini yuzaga keltirgan. Insoniyat tarixida buyuk iqtisodiy yuksalishlar, taraqqiyot harakatlari, iqtisodiy mo‘jizalar zamirida, avvalo, ma’naviy-ruhiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, **“O‘zbekistoning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ma’naviyat shu’lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etib turishi zarur”.**

Jamiyatdagi ma’naviy yangilanishlar har bir insonni qalban-ruhan ezgu maqsadlar yo‘lida birlashtirishga xizmat qiladi. Bu yo‘lda milliy g‘oya, milliy ma’naviyat har bir xalqning amaliy dasturiga aylanadi. Birlashgan jamiyat yuksak metin qoyadek sobit turadi, birlasholmagan jamiyat qumday sochilib ketishi mumkin. Har bir mamlakatni avvalo birlashgan fidoyilar yuksaltiradi! Yangi yilning dastlabki kunlari ana shunday oydin niyatlar bilan boshlandi. O‘tayotgan kunlar hayotimizni har tomonlama tahlil qilishni taqoza etmoqda. Shukronalar bo‘lsinki, bizning sarhisob qiladigan, xulosa

chiqaradigan, ibrat oladigan qadriyatlarimiz yetarli. Ayniqsa, keyingi yillar mustaqil yurtimiz tarixida alohida qayd etiladigan yorqin voqealarga boy bo‘ldi.

Bugungi kunda **“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”** degan ulug‘vor maqsad kun tartibiga qo‘yildi. Taraqqiyotning yangi davri talablari asosida mamlakatimizda amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar belgilab olindi.

Mamlakatimizni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar O‘zbekistonning yangi Renessansiga – yangi Uyg‘onish davriga mustahkam poydevor bo‘lishi lozim. Ana shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining ilk yig‘ilishi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi burilish davrini boshlab berganligini alohida ta’kidlamoq joiz. Unda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini mustahkalash, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish, sohada ilmiy yondashuvni keng joriy etish, ilg‘or tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq choralar belgilandi.

Ma’naviy-ma’rifiyi ishlar borasida davr talablarini o‘zida mujassam etgan yo‘nalishlar asosida qabul qilingan 2021-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, yana shu kuni “Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, 2021-yil 3-iyunda Vazirlar Mahkamasining “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, muvofiqlashtirish borasida yangi yo‘nalishni yaratishga asos bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi **“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** gi qarori asosida barcha vazirlik va idoralarda Ma’naviyat va ma’rifat kengashlari tuzildi. Mazkur kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish bo‘yicha ikki tomonlama **“Yo‘l xarita”**lari ishlab chiqilib, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi tizimi amal qila boshladi. “Yo‘l xarita”larida belgildab qo‘yilgan tadbirlarni bugungi kun talablari darajasida amalga oshirish maqsadida ilk bor mamlkatimizdagi **109 ta** vazirlik, idora va tashkilotlar Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan, **630 dan ziyod** korxona va tashkilotlar Markazning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyat bo‘limlari bilan, **5175 dan ziyod** korxona va tashkilotlar tuman bo‘linmalari bilan ikki tomonlama hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi ma’naviy-ma’rifiy sohada yangi tizim yaratiish borasidagi birinchi qadamlar bo‘ldi.

Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan **Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholash indikatorlari** (KPI) ishlab chiqildi. Mazkur indikatorlar asosida hududlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar holatini muntazam baholab borish yo'lga qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohada yangi tizim yaratish, joylarda targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligini oshirishga ko'maklashish bo'yicha 30 nafar olim, ijodkor va mutaxassislardan iborat Markaz qoshida Respublika ekspertlar guruhi tashkil etildi.

O'tgan davr davomida mazkur guruh tomonidan 30 ta vazirlik va idoralar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyatda 195 ta hududiy Ma'naviyat va ma'rifat bo'linmalari, 104 ta mahalla fuqarolar yig'ini, 70 ta madaniyat markazi, 72 ta madaniyat va istirohat bog'i, 110 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 117 ta maktab, 17 ta kasb-hunar maktabi, 15 ta oliy ta'lim muassasasi, 98 ta axborot-kutubxona markazi, 75 ta musiqa-maktabi – jami 1045 ta tashkilot va muassasalardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar holati o'rganilib, o'rganish natijalari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishlari o'tkazildi.

O'rganish natijalariga ko'ra ma'naviy-ma'rifiy sohaga mas'ul xodimlarning malakasini oshirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslari tashkil etish, soha vakillarini metodik ta'minotini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalangan holda viloyat "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolarini ma'naviy-ma'rifiy targ'iboti bo'yicha faolligini oshirish, targ'ibot tadbirlari va materiallarni ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritish yanada jadallashtirildi. Korxona, tashkilot, muassasa va boshqa tuzilmalarda ma'naviyat masalalariga jamoatchilik asosida biriktirilgan mas'ullarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning malakasini oshirish ishlari yo'lga qo'yildi.

Ekspertlar guruhi tomonidan hududiy bo'limlar bilan birgalikda jami 192 ta targ'ibot tadbiri, ommaviy axborot vositalarida 15 ta maxsus ko'rsatuvlar tashkil etildi.

Hech kimga sir emas, hozirgi globallashuv davrida dunyo maydonida hamma sohalarda keskin kurash va raqobat tobora ayovsiz tus olmoqda. Ayrim davlatlar, siyosiy markazlar tomonidan boshqa mamlakatlarni o'z ta'sir doirasiga olish, ozodlik ruhini sindirish, mustaqilligini tizginlash, ularning aholisi, ayniqsa, yoshlarning ongu tafakkurini egallash orqali o'z-o'zining taraqqiyot va barqarorlik, milliy birlik va hamjihatlik ildizlariga bolta uruvchi manqurtlarga aylantirmoqda, Bu yo'lda havoyi yorliqlar yopishtirilgan yolg'on va puch da'volar asosida turli usul va vositalarni qo'llashga, juda katta kuch, mablag' va imkoniyatlarni safarbar etishga intilmoqda.



ZJV5401

Mana shunday murakkab sharoitda milliy o‘zligiga ega bo‘lmagan, ma’naviy hamjihatlikka erishmagan mamlakat moddiy va ma’naviy boyliklarini, eng yomoni, mustaqiligini boy berib qo‘yishi hech gap emas. Bunga o‘tmishdan ham, bugungi kunimizdan ham istagancha misollar keltirish mumkin. Ana shunday sharoitda targ‘ibotning tezkor, zamonaviy usullaridan foydalanmasdan maqsadga erishishi qiyin. Shu ma’noda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi qoshida “Oyina.uz” elektron portali tashkil etilib, Raqamli targ‘ibot bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yililishi sohadagi hozirjavob tadbirlardan biri bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida **“...targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish tartibini yaratish va uni amaliyotga qo‘llash mexanizmini takomillashtirish”** vazifasini belgilab bergan edi. Albatta, maqsadga erishish uchun hududiy bo‘limlar zimmasiga yangi mas’uliyat va mazmun yuklanishi tabiiy. Ularning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida Markazning hududiy bo‘lim va bo‘linmalariga jami 303 ta (shundan hududiy bo‘limlarga 28 ta, tuman/shahar bo‘linmalariga 275 ta) qo‘shimcha shtat birligi ajratilib, mazkur shtat birliklari tegishli mutaxassislar bilan to‘ldirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 340-sonli Qarori bilan Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Institut, “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati, “Ma’naviy hayot” va “Tafakkur” jurnallari tahririyatlari Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi 9-uy manzilidan joy ajratildi.“Tafakkur”, “Ma’naviy hayot” jurnallari hamda “Ma’naviyat” nashriyoti Markaz tasarrufiga o‘tkazilib, ular faoliyatini rivojlantirish choralari ko‘rildi.

O‘tgan vaqt davomida Qurilish vazirligi tomonidan “Ma’naviyat va ma’rifat maskani”ning namunaviy loyihasi ishlab chiqilib, 2021-yil uchun hududlar kesimida barcha tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlarini foydalanishga topshirish bo‘yicha tashkiliy-qurilish ishlari olib borildi.

Ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha an’anaviy tarzda o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan **“Eng namunali vazirlik va va idora”** hamda **“Eng namunali tuman va shahar”** tanlovlarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi .

Albatta, ertangi kunimiz vorislarini har tomonlama yetuk shaxslar etib tarbiyalashda tarix eng katta maktabdir. Shonli tariximizni bilish, ajdodolarimiz bilan faxrlanish farzandlarimizda milliy g‘ururva iftixor tuyg‘ularini kuchaytiradi. Bu yo‘nalishda ham ko‘plab tadbirlar tashkil qilindi. Jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashida berilgan topshiriqlar asosida

hamkor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 685 yilligiga bag‘ishlab **“Amir Temur – dunyo olimlari va adiblari nigohida”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi. Unda Fransiya, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Misr, Ummon sultonligi, Eron, Pokiston, Ozarboyjon kabi dunyoning 14 ta mamlakatidan Amir Temur va Temuriylar davri ilm-fani, madaniyati, tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan 17 nafar mehmon hamda 60 dan ziyod mahalliy olimlar qatnashdi.

“Jaloliddin Manguberdi izidan” ilmiy ekspeditsiyasi tashkil etildi. “Jaloliddin Manguberdi tarixining yangi sahifalarini o‘rganish” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilib, 10 ga yaqin xorijiy mamlakatlardan taniqli olimlar, mutaxassislar ishtirok etdi.

Milliy qadriyatlarimizni targ‘ib qilish, ularni mazmunan boyitib, zamonaviy imdjini yuksaltirish sohasidagi ishlar yurtimizdagi ma’naviy muhitning jozibadorligiga ijobiy ta’sir etmoqda. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi”ning innovatsion mazmun-mohiyati va uni amalga oshirishning ilmiy-amaliy masalalari” mavzusida onlayn tarzda ilmiy seminar o‘tkazildi.

Respublika ekspertlar guruhi tomonidan hududlarda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashida belgilangan vazifalar hamda sohaga oid normativ huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etishga ko‘maklashish maqsadida hududlarda seminar-treninglar hamda mahorat darslari tashkil qilindi.

Madaniyat va ma’rifat kanalida **“Uyg‘onish ma’rifati”** ko‘rsatuvi yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston telekanalining **“Munosabat”** ko‘rsatuvida ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid, ichki va tashqi hurujlarga qarshi kurashish, milliy qadriyatlar kabi mavzularida **20 yaqin** chiqishlar tashkil qilindi. Shuningdek, Markaz va uning hududiy bo‘limlari tomonidan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda nodavlat telekanallar bilan hamkorlikda **170 dan ziyod** ko‘rsatuv va intervyular tayyorlanib, efirga uzatildi.

Albatta, ko‘rsatilayotgan e’tibor natijasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar jonlanganligini ko‘rib turibmiz. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Davlat tili, Davlat ramzlari qabul qilingan kunlarni ilk bor ommaviy bayram sifatida munosib nishonlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar xalqimiz, xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma’naviy-ma’rifiy ishlar qanchalar katta ahamiyatga egaligini ko‘rsatdi. Bu bayramni nafaqat mamlakatimizda, xorijiy davlatlardagi elchixonalarimiz, O‘zbekistondan tashqarida ta’lim olayotgan, mehnat qilayotgan fuqarolarimiz, o‘zga yurtlardagi vatandoshlarimiz tomonidan ham munosib va jo‘shqin ruhda nishonlanganligi bunday tadbirlarni xalqimizni milliy yuksalish g‘oyasi atrofida jipslashtirishdagi o‘rnini yana bir karra namoyon etdi. To‘g‘risi, bu bayram jamiyatmizdagi muhitni ma’lum bir ma’noda o‘zgartirdi.

Bu tadbirlar, albatta, yaxshi. Shu bilan birga bizga xalqimizning vatanparvarlik ruhini yanada ko‘tarish va barqarorligini ta’minlash, ayniqsa,

yoshlarni milliy yuksalish g‘oyasi ruhida tarbiyalash maqsadiga qaratilgan uzluksizlik, muntazamlik asosiga qurilgan alohida, mustahkam tizim kerak.

Bugungi hayotning o‘zi bizdan yangicha fikrlashni, yangicha ishlashni talab qilmoqda. Afsuski, ko‘pincha biz ma’naviyat ishi deganda odamlarni to‘plab ma’ruza qilishni tushunamiz. Aslida-chi? Hayotimizning biror bir jabhasi, biror bir oni yo‘qki, u ma’naviyatsiz amalga oshiriladigan bo‘lsin. **“Alohida ta’kidlab ko‘rsatmoqchimanki, – deb yozadi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ”Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi“ kitobida, – agar kimki ma’naviyat masalasi, bu – faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, katta xato qiladi. Bularning hammasi davlatimiz va jamiyatimizning, barcha rahbarlarimiz, bizning ishongan tog‘imiz bo‘lgan ilg‘or ziyolilarimiz, barcha-barchamizning eng asosiy va muhim vazifamizdir”.** Endi faqat hisobot uchun majlis o‘tkazish, auditoriyaning yosh xususiyatlari, *xabardorlik darajasini,* ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olmagan holda, hammaga bir xil yondashish, tayyorgarlik ko‘rmasdan zerikarli ommaviy ma’ruzalar qilish davri o‘tdi.

Davr o‘zgardi, xalqimiz, yoshlarimiz bugun yangicha fikrlayapti. Endi ma’naviy tadbirlarda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlari mazmun-mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha yangi zamonaviy targ‘ibot texnologiyalariga o‘tishimiz kerak. Odamlarga dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyati haqida ham har tomonlama chuqur ma’lumot va tushunchalar berib borish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes kabi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishning samarali mexanizmlarini, innovatsion usullarini ishlab chiqishimiz lozim.

Jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi ichki illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz kerak.

Bu ishlarni joylarda tashkil qilish va muvofiqlashtirib borish hududlardagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashlaridan ham juda katta mas’uliyat talab etiladi. Shuning uchun, avvalo, hududiy kengashlar faoliyatini tanqidiy ko‘rib chiqib, ishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib olishimiz kerak.

Afsuski, ayrim rahbarlar bunday o‘ta mas’uliyatli vazifani yetarli darajada his qilishmayapti. Ularning ko‘pchiligi o‘zlari rahbarlik qilayotgan hududda yuzaga kelgan ma’naviy muhitdan yetarli darajada xabardor emas.

Biz bugungi kunda farzandlarimiz tarbiyasi, yoshlar kamoloti yo‘lida ham juda ko‘p ishlarni amalga oshiryapmiz. Shunga yarasha natija va

samara ham yildan yilga oshib bormoqda. Lekin shunga qaramay ayrim ota-onalar farzandlari tarbiyasiga yetarli e'tibor bermayotgan holatlar mavjud. Ba'zi maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga e'tibor hamon past darajada qolmoqda.

Ma'lumki, inson ma'naviyati o'zgarib turadi. Shunday ekan, ma'naviyat ishi, ma'naviy tarbiya masalasi biz uchun har kuni, har soatda, kerak bo'lsa, har nafasda shug'ullanishimiz lozim bo'lgan hayotiy muhim masalaga aylanishi kerak. Ma'naviy tahdidlar, buzg'unchi mafkuralar ta'siri tobora kuchayib borayotgan, birinchi navbatda internet va boshqa axborot manbaalari orqali bolalar va yoshlar ongini zaharlashga urinishlar kuzatilayotgan bir holatda davr bizdan hamisha xushyor va ogoh bo'lishni talab etmoqda. Ma'naviy-axloqiy tarbiya borasida kichkina, arzimagan ishdek tuyulgan holat ham ertaga katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ma'naviyat sohasida biror bir ishni qilib bo'ldim, deb xotirjamlikka berilish yaramaydi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda bugungi kunda jamiyatda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" tarbiya borasida asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanishi kerak. Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlar qanday qilib, nimaning hisobiga jahonning eng rivojlangan davlatlari qatoriga kirdi? Vaholanki, bu davlatlarning tabiiy qazilma boyliklari deyarli yo'q. Demak, avvalo, yoshlar qalbida ulug' Vatanimizga, milliy g'oyamiz, ma'naviyatimiz, milliy qadriyat va boy merosimiz, ona tilimiz, davlat ramzlarimizga nisbatan buyuk muhabbatni, sadoqatni, mas'ullikni shakllantirishimiz zarur. Toki, Yangi O'zbekistoning ertangi kelajagi bo'lgan har bir yosh yigit-qiz bu ulug' tushunchalarni mustaqillikni asraganday asray bilsin! Ona Vatanimiz yoshlari buyuk qadriyatlarning qat'iy himoyachisiga aylansin!

## MA'NAVIY TARBIYADA KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING AHAMIYATI

**Olimjon DAVLATOV,**
*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori, filologiya fanlari doktori (PhD)*

***Annotatsiya:*** *maqolada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yo'lidagi tizimli muammolar hamda ularni baratarf etish mexanizmlari ko'rsatib o'tilgan. Ma'naviy tarbiya yo'lida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishning ahamiyati aniq misollar, xorij tajribalarining tahlili asosida berilgan.*

***Kalit so'zi:*** *ma'naviy tarbiya, kitobxonlik madaniyati, badiiy ijod, ma'naviy targ'ibot, shaxs tarbiyasi.*

Dunyoda bir qo‘lida qilich, bir qo‘lida qalam tutib, qilich bilan o‘zining hurriyati va erkini asragan, qalam bilan o‘zining betakror ma’naviy olamini yaratgan xalqlar juda kam. O‘zbek xalqi ana shunday toleli xalqlardan. Uning peshonasiga Alp Er To‘nga, Istemixon, Amir Temur va Mirzo Boburdek buyuk fotih va sarkardalar bilan bir qatorda Yusuf Xos Hojib, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy kabi so‘z mulkining sohibqironlari ham bitilganki, jahon tamadduni tarixini ularning merosisiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fanga, madaniyat va san’atga e’tiborli bo‘lish xalqimizning qon-qoniga singgan desak, o‘ylaymanki, mubolag‘aga yo‘l qo‘ymagan bo‘lamiz.

Shu bilan birga, shonli o‘tmishga mahliyo bo‘lmasdan, hayotning kundalik muammolariga ham o‘z vaqtida yechim topish, tarbiya va ta’lim jarayonidan bir lahza ham g‘ofil bo‘lmaslik – barcha davru zamon uchun muhim masalalardan biri bo‘lib qolajak. Ayniqsa, yoshlarning ma’naviy olami, ularning qiziqishi, tafakkur tarzi hamisha e’tibor markazida bo‘lmog‘i lozim.

Bugungi kunda yoshlarimiz yoppasiga “Urush va tinchlik”, “Xamsa” kabi asarlarni o‘qiyapti, desak, o‘zimizni aldagan bo‘lamiz. Lekin tanamizga bir o‘ylab ko‘raylik: davlatimiz Rahbari o‘z chiqishlarida nimaga aynan ana shunday asarlarni misol keltirayaptilar? Demak, bu kitoblarni yosh avlod albatta o‘qishi kerak... Demak, faqat oldi-qochdi asarlar emas, balki olamning jumboqlari haqida o‘ylantirdigan, ma’naviyatni yuksaltiradigan, insonga insoniylik maqomini eslatib turadigan, eng asosiysi, vaqt o‘tkazish uchun emas, nimadir o‘rganish uchun o‘qisa bo‘ladigan asarlarni yoshlarimizga yetkazish haqida o‘ylashimiz lozim.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ilk Farmoyishi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” bo‘lganligi, o‘z faoliyati davomida yagona ma’naviy makonni yaratish borasida izchil va tizimli siyosat yuritayotgani ilm va ijod ahli, umuman, jamiyat kelajagiga befarq bo‘lmagan har bir ma’naviyatli fuqaroni ruhlantirib, ayni shu muammo haqida chuqurroq o‘ylashga undaydi.

Oxirgi paytlarda davlat nashriyotlari o‘zining “shaxsiy tomorqasi” chegarasini belgilash, xususiy nashriyotlar esa, “adabiy brokanerlik” bilan shug‘ullanayotgandek tuyuladi menga. Bir-birini takrorlaydigan nashrlar haqiqatda ko‘payib ketdi. Eng asosiy sabab – ijodkorlarning yozishdan hafsalasi pir bo‘lgani, ijod jarayoni susayib qolgani, deb bilaman.

Savol tug‘iladi: kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak? Qaysi yo‘l, qaysi usul, qaysi yo‘nalish biz uchun maqbul hisoblanadi?...

Rossiya Federatsiyasi misolida xorij tajribasi muhokamasiga qaytaylik. Rossiyada eng ko‘p o‘qiladigan mualliflar – Darya Donsova, Lyubov Ustinova, Aleksandra Marinina. Bu xonimlarning kitoblarining yillik tiraji

ba’zida 10 million(!)dan oshadi. Tolstoy, Dostoyevskiy, Nekrasov, Yesenin, Pushkin...larning tiraji 50 ming adad atrofida. Nashriyotlar “ozgina muhabbat, ozgina jinoyat, ozgina vijdon, ozgina erotika” yig‘indisi (eng muhimi, siyosiy xatosi yo‘q!) bo‘lgan “bestseller”larning foydasi hisobidan klassik asarlarni muntazam chiqarmoqdalar. Nashriyotlarga to‘liq huquq berilgan. Rossiyada noshirlik – biznes, biznesda esa, ma’naviyat masalalari uchinchi darajaga tushib qoladi... Shu sabab bo‘lsa kerak, rus she’riyatida bugun Yevtushenko, Rojdestvenskiy, Voznesenskiy kabi iste’dodlar yo‘q hisobi... Bunday holat bizda XX asrning boshida bo‘lib o‘tgan. Toshbosma asarlarning nashri yo‘lga tushgach, asosan “Abu Muslimnoma”, “Qissai Amir Hamza”, “Chor darvesh” kabi sarguzasht asarlar, “Lazzat un-niso” (“Ayollardan lazzatlanish”)dek pornografik kitoblarni katta tirajda chiqarishgan. Bu – bir tomondan xalqni asl manbadan uzoqlashtirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan cho‘ntakni qappaytirish maqsad qilingan.

Ikkinchi tajriba – Fransiya va Amerikadagi holat. Adabiyotga ham, ma’naviyatga ham biznesning bir bo‘g‘ini sifatida qarash. Bugungi kunda fransuz shoirlari o‘z mablag‘i hisobidan yuz, ikki yuz dona kitobni chiqarib, adabsevar odamlarga tarqatishayapti. Hatto Nobel mukofoti olgan adiblarning tiraji ham 1000dan oshmaydi. Yaponiyada esa, yozuvchilik kasb emas, balki ermakning bir turi... Ammo bugungi kunda Yevropadagi ma’naviy inqiroz, bir jinsli nikohga ruju qo‘yishlik, Markiz de Sadning asarlari “Oltin Pleyada” rukni ostida fransuz adabiyotining mumtoz namunasi sifatida taqdim etilayotgani bu yo‘l o‘zbek xalqi uchun maqbul emasligini bildiradi. Yaponiyada yoshlar ichida xudkushlik tobora urfga kirayotgani moddiy farovonlik hali barqarorlik belgisi emasligining isbotidir...

Yana asosiy savolga qaytaylik: Yaxshi asarlar paydo bo‘lishi uchun nimalar qilish kerak? Nega bugungi kunda yoshlar ichida 20-30 yoshli Qodiriy, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov yo‘q? Aslida mustaqillik berilgan imkoniyat adabiyotni ham miqdor, ham sifat jihatidan bir necha pog‘ona yuqori ko‘tarishi kerak edi-ku?!...

Sulton Husayn Boyqaro “Risola”sida iftixor bilan qayd qiladiki, Hirot va uning atrofida har ming kishidan bir kishi shoirlik bilan jiddiy shug‘ullangan. Ularning eng ulug‘i esa, Navoiy bo‘lgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda 30 millon aholi yashaydi. Demak, 30 000 ta shoir bugungi kunda adabiy faoliyat bilan jiddiy shug‘ullanishi kerak. Buyuklar – ko‘pchilik ichidan yorilib chiqadilar. O‘shanda biz istiqlol davrining Navoiysi, Qodiriysi, Oybek va G‘afur G‘ulomiga ega bo‘lishimiz mumkin.

Shoir xalqining tug‘ma kasalligi bor – o‘zidan boshqa shoir yo‘q, deb hisoblaydi. Bularni rag‘batlantirish, safini kengaytirish, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish, yaxshilarini targ‘ib etish esa, bevosita nashriyotlar zimmasiga tushadi. Buning uchun esa, Prezidentimiz aytib o‘tganlaridek, “noshirlar ijodkorlarning xizmatkori bo‘lishi kerak”.

Ijodkor ro‘zg‘orini qalam uchi bilan tebratadi. Qalam haqi esa, o‘tmishdan ertaklar bo‘lib qoldi. Nashriyotlar xohlasa-xohlamasa, qalam haqi to‘lashga qurbi yetmaydi. Birinchidan, so‘nggi besh-o‘n yilda 20-30 ming adadda chiqqan kitobni ko‘rmadim (Eng kamida har ming kishiga bir nusxani mo‘ljallab kitob chiqarish yaxshi an’ana edi). Bugungi kunda o‘rtacha tiraj – 1000 nusxa. O‘n bosma taboq hajmidagi bitta kitobning o‘rtacha narxi – 5 ming so‘m. Asar muallifi bitta kitobning boshlang‘ich narxidan foiz stavkalari tarzida to‘lanadigan eng kam stavka – 5 foiz. Demak, 160 betlik original asar muallifiga nashriyot himmat qilsa, 250 ming so‘m gonorar to‘laydi. Xususiy bosmaxonalarga faqat chop etish xizmatiga (“progon”) uchun 400 ming so‘m to‘lash kerak. “Pechatnik”ning xizmat haqi muallifdan ham, muharrirdan ham, musahhihdan ham ko‘p... Nazarimda, biz, noshirlar, bozor iqtisodiyotining asosiy qonuniyatini tushunmaganimiz oqibatida shunday kunga tushdik: bozor sharoitida narxni sun’iy ravishda pasaytirish bozorning kasod bo‘lishiga olib keladi. “Odamlar kitob o‘qimay qo‘ydi, sharoit og‘ir”, degan bahona bilan 90-yillardan boshlab, na ijodkorni o‘yladik, na nashriyot ahvolini. Go‘shtning narxi tabiiy ravishda oshadi, unning narxi ko‘tariladi, shakar, gaz, chiroq, benzin, gugurt... faqat kitobning narxi ko‘tarilishi mumkin emas. Hozirgi kunda kitob mahsulotlari eng arzon narxda O‘zbekistonda chiqadi. Rossiyada bugungi kunda 100-200 mingga sotilayotgan kitobni O‘zbekistonda bemalol 30-40 ming so‘mda chiqarsa bo‘ladi (holbuki, Rossiya qog‘ozni import qiluvchi emas, eksport qiluvchi mamlakatlardan hisoblanadi). Natija esa, aksincha... Aytmoqchimanki, ijodkor to ro‘zg‘or tashvishidan, turmushning “musht”laridan qutulib, ichki xotirjamlik bilan ijod qilmas ekan, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi adabiyotni o‘ziga qismat deb bilgan iste’dodlar yetishib chiqishi gumon... Ijodkorga ham non kerak, ham non... Ham nom, ham nonga ega bo‘lishi uchun nashriyotlarning ahamiyati beqiyos...

* * *

Shunday bashoratlar ham bo‘layaptiki, “o‘qish sivilizatsiyasi” davri o‘tdi, “endi “ko‘rish sivilizatsiyasi” davri boshlandi. Yoshi oltmishlarga borib qolgan bir shoirimiz ko‘rgan kinolarini ham bir badiiy asar o‘qishga teng, deb hisoblayapti. Sho‘rlik shoir “O‘tkan kunlar”ni ham kino orqali “o‘qigan”mi, deyman... Aslida, radio ham, televidenie ham, Internet ham kitobning o‘rnini bosolmasligini butun jahon e’tirof etmoqda. Farmoyishda juda to‘g‘ri ko‘rsatilganidek, biz yuqorida nomlari olingan vositalardan ham kitob targ‘ibida unumli foydalana olmayapmiz. Har kuni “Yoshlar” telekanalida shrot, sheluxa, shifer, ko‘mir...ning narxi birjada qancha ekanligi titr orqali berib boriladi. Nashriyotlar yilida ikki ming kitob chiqarishadi. Bu – kuniga o‘rtacha 6 ta kitob degani. Oltita xabar, oltita yangilik. Mingdan ortiq gazeta va jurnallarimiz, ijtimoiy tarmoqda saytlarimiz bor. Bu – ming-

ta minbar, mingta ijtimoiy reklamaning joyi. Kitobga munosabat bildirish, taqriz yozish – taqrizchilarning ishi, lekin shunday kitob chiqqani va qaerda qanchadan sotilayotgani haqida xabar yozish har bir jurnalist va blogerning qo‘lidan keladigan ish.

* * *

Xususiy nashriyotlar, umuman xususiy nashrlar (agar aqli shunga yetsa), “tig‘ ustida yurgan dorboz”dek faoliyat yuritishadi. Xudo ko‘rsatmasin, yollanma muharririning aybi bilanmi, oliy ma’lumotli savodsiz musahhihning aybi bilanmi, bitta jiddiyroq “ishkal” chiqib qolsa, nashriyot litsenziya bilan vidolashadi. Bu nashriyotni oyoqqa qo‘yish uchun bechora muassisning qancha puli ketdi, qancha qarzdorligi bor, oqibati nima bo‘ladi – bu bilan birovning ishi yo‘q... Muharrir mehnat daftarchasini ko‘tarib borib, yana boshqa bir xususiy nashrga ishga joylashib oladi. Muassis-chi?! Yillar davomida paxta rejasini bajarmay, ichkilikbozlik qilib yuradigan fermer bitta qurib ketgur harf orqasidan bor-budidan mosuvo bo‘lish xavfi bilan yashaydigan noshirdan erkinroq. Xato qilishdan qo‘rqmaslik kerak. Albatta, bu bilan men noshirlarning jilovini qo‘yib yuborish kerak demoqchimasman. Lekin bunday radikal choradan ko‘ra iqtisodiy jazo qo‘llash maqsadga muvofiq, deb hisoblayman. Masalan, jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ygan nashriyot o‘z hisobidan birorta ijtimoiy ahamiyatga molik asarni o‘z mablag‘i hisobidan nashr etib,bepul tarqatish majburiyati zimmasiga yuklatiladi. Shunda noshir ham to‘g‘ri saboq chiqarib, hushyorroq harakat qilishga majbur bo‘ladi.

* * *

Noshirlik sohasi – ma’naviy hayotimizning ajralmas qismi, mentalitetimizning butun bo‘lishiga xizmat qiluvchi asosiy soha ekanligini aytib o‘tishning hojati yo‘q. Shu bilan birga, noshirlik – agar tizim to‘g‘ri va bexato ishlasa, katta daromad keltiruvchi soha ekanligini ham unutmaylik. Bugungi kunda O‘zbekiston hududida 6,5 million oila yashaydi. Agar har bir oila yil davomida eng kam oylik ish haqining yarmi miqdorida kitob sotib olsa, O‘zbekistonning o‘zida 10 trln 70 million (= 924 mln. AQSh dollari) so‘mlik kitob mahsulotlari sotiladi. Iqtisodiy qiyinchiliklarni ro‘kach qilish zamoni o‘tdi. Xalqimiz hech kimdan kam emas. Bir iqtisodchi do‘stimizning xomaki hisob-kitobiga ko‘ra, bir oyda O‘zbekiston xalqi uyali telefonlar to‘loviga 20 trln.so‘m sarflar ekan... Faqat targ‘ibot hamda marketing va xizmat ko‘rsatish masalalariga jiddiyroq qarash kerak.

* * *

Mebelsozlik sohasi ham mamlakatimizda yaxshi rivojlangan. Ammo birorta mebel do‘konida yaxshi kitob javonini ko‘rmaysiz. Sababi – talab

yo‘q. Uyida kutubxonasi bo‘lmagan oilada o‘sayotgan o‘spirin keyinchalik turli oqimlarga da’vat etuvchi kitoblarga qiziqsa, ajablanmaslik kerak: sababi, unda kitobxonlik malakasi yo‘q, unga birov kitob sovg‘a qilmagan, kitobni yaxshi-yomonga ajratolmaydi, o‘g‘ri bilan to‘g‘rining farqiga bormaydi. Darslik – majburlab o‘qitiladigan kitob. Badiiy, ommabop, texnika, geografiya...ning qiziqarli masalalariga bag‘ishlangan kitoblarni ko‘rmagan bolaning qo‘liga notanish mehribon kimsa “shuni o‘qing, sizning fikringiz biz uchun muhim”, deb tursa, g‘o‘r bola albatta aldanadi...

Har yili respublika bo‘yicha 10000 dan ortiq kottej davlatning imtiyozli krediti hisobidan qurilmoqda. Atrofida basseyn, do‘kon, ambulatoriya, maktab, ko‘ngilochar maskanlar qurilishi mo‘ljallangan, lekin kitob do‘koni yoki axborot-resurs markazi qurish doimgidek esdan chiqib qoladi. Besh yulduzli mehmonxonalarimizda ham kitob – anqoning urug‘i. Har bir tashkilotda ma’naviyat xonasi bor. Shinam xonalar, patgilamlar, televizor, kompyuter, minbar... Kitob esa, ma’naviyat xonasida yo‘q hisobi. Bu xonalar ko‘pincha dushanba kuni ertalab bir marta ochilib, shu bilan og‘ziga qulf solinadi. Men ma’naviyat bilan kitobni egiz tushunchalar deb bilaman va o‘ylaymanki, siz ham bu borada men bilan hamfikrsiz.

Sho‘ro zamonida bizning qishlog‘imizda uchta kutubxona – maktab, qishloq soveti hamda kolxoz kutubxonalari faoliyat yuritardi. Nashrlarning asosiy qismi rus tilida edi. Har kvartalda yangi kitoblar bilan boyib boradigan kutubxonalar sharofati bilan biz, yoshlar, eng chekka qishloqlardan birida turib, dunyo ma’rifatidan baholiqudrat bahramand bo‘lardik. Suhbatlar, gap-gashtaklarning asosiy mavzusi ham kitoblar atrofida edi. Bugungi kunda kollej va litseylarning kutubxona fondi g‘arib bir ahvolga tushgani, qishloqlarda kutubxona degan ma’rifat maskani deyarli qolmagani achinarli hol...

* * *

Ochig‘ini aytish kerak – ziyoli moliyaviy jihatdan mustaqil bo‘lmaguncha, ma’naviy yuksalish haqidagi urinishlarimiz zoe ketadi. Millatning ma’naviy qiyofasini belgilovchi ijodkor kitobini chiqarish uchun echki go‘shtini qo‘y go‘shtiga qo‘shib sotadigan qaysidir qassobning himmatiga muhtoj bo‘lib turgan joyda bolalarning ideali – olim yo shoir emas, futbolchi yoki tojir, talpinadigan joyi – kutubxona emas, bozor bo‘lib qolaveradi... Men hamma ijodkor bo‘lsin, demoqchimasman. Lekin bozor ma’naviyatning ravnaqiga xizmat qilmasa, aksincha ma’naviyat bozorning talablariga qaram bo‘lib qolsa, millatning iste’dodli farzandlari o‘z aziz umrlarini bozor rastalarida xor qilib o‘tadilar, deb qo‘rqaman... Ma’naviyat sohasida qilingan islohotlar hayotning boshqa sohalaridan ko‘ra kechroq samara beradi. Bunday islohotlar iqtisodiy samaradorlik, siyosiy barqarorlik, taraqqiyotning poydevori bo‘ladi. Poydevor esa, ko‘pincha, ko‘zga ko‘rinmaydi...



ZJV5401

Eng og‘riqli nuqtalardan biri – kitob do‘konlari masalasi. So‘nggi uch-to‘rt yilda respublikada kitob do‘konlari ko‘payib bormoqda. Ana shu tizimni faollashtirish uchun yagona elekron tijorat tarmog‘i (har bir nashriyot qaysi do‘konda nechta kitobi sotilganligini muntazam nazorat qilib borishi uchun), imtiyozlar (bozorlarning eng gavjum joyidan do‘kon ajratish, ijara haqi, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarda imtiyoz berish) va boshqa qulayliklarni yaratish kerak, deb o‘ylayman.

* * *

Nashriyotlar muayyan rejalarni amalga oshirish uchun imtiyozli kreditlar olishi tizimini ham o‘ylab chiqish kerak. Deylik, bitta nashriyotning umumiy mulki – 50 mln.so‘m. U amalga oshirmoqchi bo‘lgan loyiha – Ibn Sinoning farmakologiyaga oid asarlarini tarjima qilib, nashr ettirish. Loyihani amalga oshirish uchun 300 mln.so‘m mablag‘ kerak. Xaridor ham topilgan, kitob ham tayyor deylik. Ammo biror bank ana shu loyihaga imtiyozli kredit ajratmaydi. Bu – masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunda “chet el investorlari OAVga muassis yo hammuassis bo‘lishga haqli emas”, deb belgilab qo‘yilgan. Bu – to‘g‘ri. Sababi, chet el sarmoyadori O‘zbekistonda o‘z mablag‘i hisobidan gazeta, jurnal yo nashriyot ochib, o‘z mafkuraviy manfaatlarini targ‘ib qilish vositasiga aylantirishi xavfi bor.

* * *

Davlatimiz Rahbari o‘z chiqishlarida qayta-qayta ta’kidlaganlaridek, bugungi kunda mafkuraviy poligonlar yadroviy poligonlardan xavfliroq bo‘lib qoldi. Chet mamlakatlaridagi ayrim kuchlar O‘zbekistondagi barqarorligiga raxna solish uchun milliard-milliard dollar sarflayotganini bilamiz. Unga qarshi turishning eng maqbul yo‘li – ma’naviy olami butun Shaxslarni tarbiyalash. Hamma narsani ota-ona yoki maktab o‘rgatolmaydi. Eng yaqin do‘st, eng beminnat yordamchi bu – kitob. Yaxshi kitoblarni ko‘proq chiqarib, bolalarimizning savodxonligini oshirish – ertangi kunimiz bugundan-da go‘zalroq bo‘lishining kafolatidir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2022.*

*2. Evola Y. Osedlat tigra. SPb. : Vladimir Dal, 2016.*

*3. Yulo Vooglayd, Vatandoshlik dasturi. – Toshkent: “Azon kitoblari”, 2023.*

*4. Nurgaliyeva Anastasiya Fagimovna, Nazarova Svetlana Yurevna, Semirikov, Andrey Borisovich. Kultura chteniya v informatsionnom obщestve*

*// Tekst. Kniga. Knigoizdanie. 2017. №14. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kultura-chteniya-v-informatsionnom-obschestve*

*5. Malaxova Mariya Amiranovna Situatsiya s chteniem segodnya: obzor podxodov k probleme // Filologicheskie nauki. Voprosы teorii i praktiki. 2016. №1-2 (55). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/situatsiya-s-chteniem-segodnya-obzor-podhodov-k-probleme*

*6. Are We Reading less, and if so, Why ? – Cultural Daily, https://culturaldaily.com/are-we-reading-less-and-if-so-why/*

## YOSHLAR TARBIYASI – III RENESSANS MA'RIFIY STRATEGIYASINING ASOSI

**Mansur BEKMURODOV,**
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv Akademiyasi sots. fan. doktori, professor*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada III Renessansni barpo etish bilan bog'liq jarayonlar, uning strategik asoslari, amalga oshirish jarayonida yoshlar tarbiyasiga e'tibor masalalari, shuningdek islohotlar jarayonining borishi va unda amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar atroflicha yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *renessans, ma'naviyat, tarbiya, ilm, mas'uliyat, islohot, ilm, aql, bilim, faollik, mehnat.*

Mamlakatimizni tubdan takomillashtirish borasida jadal sur'atlarda amalga oshirilayotgan islohotlar tarbiya omilining favqulodda muhim ahamiyatini anglash, har bir insonning hayotda munosib o'rnini topish va uni ijtimoiy faollashtirish masalasini dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqardi. Tarbiya omili esa, insondan jamiyatga avval qanday bo'lsa shundayligicha emas, balki yangilangan, takomillashgan, ya'ni, sifat jihatidan yuksalgan holda uyg'unlashuvni, ma'naviy, kasbiy va ijtimoiy faollashuvni taqoza etadi. Zero, bugungi Yangi O'zbekistonimizdagi keng qamrovli o'zgarishlar muhiti mamlakatimizdagi barcha sohalar, texnologiyalar va insonning o'zini ham yangilanish jarayoni bilan to'la qamrab olgan desak, aslo xato bo'lmaydi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalqimizga, Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida tarbiya omiliga katta e'tibor qaratib, zamonning sur'ati har qachongidan ham tezlashgani, jamiyatdagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va eng to'g'ri yechimlarni topish ijtimoiy rivojlanishda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidladilar va bunday yondashuvni amalga oshirmaslik zamondan orqada qolish va yosh avlodni rozi qilmaslikka olib kelishini alohida qayd etdilar.

Tarbiya so‘zi tilimizga arabchadan kirib kelgan bo‘lib, “parvarishlash”, “o‘stirish”, yaxshilash va yaxshilanish ma’nolarini anglatadi. Inglizchada “bring up”, ya’ni, “ turg‘izmoq”, “o‘qitmoq” “yaxshilamoq” ma’nolarini bersa, rus tilida esa, “vospitanie”, ya’ni “oziqlantirmoq” mazmunini ifodalaydi. Arab tilidan kirib tarbiya so‘zi ma’nosining tarkibidagi parvarishlash orqali yaxshilash va yaxshilanishda inson omili mavjudligi katta ahamiyatga ega. E’tibor qiling: yaxshilanish istagi tarbiya hodisasining markaziy nuqtasi hisoblanadi. Chunki, har qanday tashqi ta’sirga insonning munosabati, yaxshilikni olish va o‘zgarishga rag‘bat tarbiya samaradorligini ta’minlaydi.

Har bir insonning o‘zida yaxshilanish rag‘bati va o‘zgarishlarga tayyorlikning o‘rni muqaddas dinimizda ham muhrlangan. “Ra’d” surasida “**Albatta, Alloh biror bir qavm o‘zlaridagi narsani o‘zgartirmagunlaricha, ulardagi narsani o‘zgartirmas”,** deb bejiz aytilmagan. Shunday ekan, odamdagi yaxshilanish, tarbiyaviy ishlar ta’siri ko‘p hollarda insonning o‘ziga bog‘liqdir. Muhtaram Prezidentimiz ham Yangi O‘zbekistonni barpo etish, o‘zgarishlarni ro‘yobga chiqarish dastavval insonning o‘ziga bog‘liq va undan boshlanadi, deb qayta qayta ta’kidlashlari negizida chuqur ma’no mujassamdir.

Prezidentimiz mamlakatimiz rivojida inson omilini taraqqiyotning bevosita ishtirokchisiga, uning drayverlik ulushini oshirishga xalal beruvchi asosiy omillarga to‘xtalib, **“Boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, o‘quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak. Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyolilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchilikdan faol bo‘lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so‘rayman**” [1], dedilar.

Tarbiya omilining bilim bilan birlikda ijtimoiy yuksalishimizda drayver bo‘lishi xususida ulug‘ ma’rifatparvar jadidlarning **“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezga maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”,** degan fikrlarini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Murojaatnomada alohida qayd etganlari ham bejiz emasdir.

Darhaqiqat, bilim va tarbiyaning taraqqiyot sur’atlarini oshirishiga xizmat qilishi uchun uch omil ustuvorligi, ya’ni, yoshlarning erkin va kreativ fikrlashi, jamoada ishlay olishi hamda muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bugungi yoshlar uchun **“bilim, mehnat va aql”** birligi va uyg‘unligiga erishish favqulodda zarurdir. Buning uchun esa, har bir sohani o‘rganayotgan yoshlar hayotda eng avvalo yuksak ma’naviyatli, odob-axloqli bo‘lishlari, o‘zlari egallashga kirishgan kasb, hunar va mutaxassislikni eng yuqori darajada o‘zlashtirib olishlari, bilib olib, teran anglagan narsalarini boshqalarga ham o‘rgata olish darajasiga chiqishlari ularning asosiy hayotiy mezon-

lariga aylanishi talab etiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Prezidentimiz tomonidan aytilgan fikr, ya’ni, yoshlarimizning kasb va hunarlarni egallashlari uchun zarur bo‘lgan uch talabning ikkitasi, ya’ni, aql va mehnat omillari faqat uzluksiz tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Tarbiyaning drayverlik roli nafaqat hayotiy muammolarga to‘g‘ri yechimlar topishga balki, insonning shaxs sifatida shakllanib, bilim va motivatsiyaga ega bo‘lish, yetuk mutaxassis sifatida hayotda o‘zligini namoyon etish jarayonlarida ham bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatib turadi. Tarbiyadan kuzatilgan asosiy maksad xam aslida har bir yosh yigit-qizning hayotdan xoh tadbirkorlik bo‘lsin, xoh vrach yoki pedagog bo‘lsin, eng muhimi o‘zining munosib o‘rnini topishiga ko‘maklashish, maqsad va motivatsiyalarini shakllantirib, uni to‘g‘ri yo‘lga solishdan iboratdir. Bu borada Prezidentimiz Yoshlar Forumida so‘zlagan nutqlarida ham alohida to‘xtalib, “**Yaqinda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar aksariyat yoshlarimizda ijobiy motivatsiya, biznes va tadbirkorlik sohasida zarur bilim va malaka yetishmasligini ko‘rsatdi. Demak, ularga tadbirkorlik asoslarini o‘rgatishga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishimiz lozim”,** [2] deb ta’kidladilar.

Bilimlarning tarbiya bilan bevosita bog‘liqligi taraqqiyot bosqichlarida millatimizning ma’naviy yaxlitligi, iqtisodiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanish jarayonlarida menal o‘ziga xoslik hamda milliy o‘zlikni saqlashda ham muhim o‘rin tutadi.

Insonning, xususan,yoshlarning hayotda o‘z munosib o‘rnini topishlarida maqsad omilining o‘rni va roli beqiyosdir. Maqsad barcha intilish, xohish, harakatlarning negizida turadi va ularga jon bag‘ishlab turuvchi kuch vazifasini o‘taydi. Antik davrning buyuk allomasi Aristotel o‘zining “Poetika” asarida “Maqsad hamma narsaning boshidir. Maqsadi bor odamnigina barqaror fe’l-atvori, xarakteri bo‘ladi. Maqsadi bor odamlar bilangina biror bir ishni bitkazsa bo‘ladi. Maqsadi yo‘qlar bilan esa, hech qanday ishni oxirigacha yetkazib bajarib bo‘lmaydi”, deb ta’kidlagan. Darhaqiqat, agar insonda o‘z hayotini o‘zgartirish, yaxshilash bo‘yicha biror bir aniq maqsad, reja bo‘lmasa, tabiiyki, unda intilish ham, harakat ham, qiziqish yoki ishtiyoq ham bo‘lmaydi Maqsadsizlik ishda va hayotda tayinsizlik va qo‘nimsizlikni ham yuzaga chiqazadi. Qo‘nimsizlik esa, ish joylarini tanlash va yangi ish joyida mustahkamlanishda ham, topayotgan maoshiga qanoat kilishda ham beqarorlik, noshukurlikni yuzaga keltiradi.

Maqsad omilining muhim masala ekanligi ijtimoiy munosabatlarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda yosh oilalar o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchiliklar va oilaviy ajrimlar negizida ham aksariyat holatlarda maqsadsizlik muammosi ham borligi va muhim rol o‘ynashini e’tibordan chiqarmaslik kerak.

Hamma narsaning negizida yaxshilanishga intilish, maqsadli yashashning farog‘atini anglash yotishini odamlarning o‘zlariga aniq faoliyat

(kasb-hunar egallash, oliy ta'lim olish, tadbirkorlik)ga jalb etish orqali anglatildi. Amalga oshirilgan barcha ishlar esa, Prezidentimizning "**motivatsiya, ko'nikma, moliyaviy ko'mak berish"** modeli orqali aniq namuna, ibratli misollarga tayangan holda tashkil etildi. Ma'lumki, motivatsiya so'zi mohiyat e'tiboriga ko'ra, maqsad, rag'bat va intilishga shaylikni ifodalaydi. Insonda kuchli motivatsiya bo'lmasa, biror bir shining boshini tutish uchun shu sohani mukammal o'zlashtirish, ko'nikmalar shakllantirish harakati ham bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda hamma narsa maqsadlilikdan kuch oladi. Yuqorida aytilgan mahallalarda maqsadlilikni shakllantirishga asoslangan mazkur rivojlanish modelini qo'llash qisqa vaqt ichida quvonarli natijalar bera boshladi. Har ikki hududda ham ishsizlik, boqimandalik, jamoat tartibotlarini buzish, jinoyat qilish va ayniqsa, oilaviy ajrimlar keskin kamaydi. Odamlarda o'zini o'zgartirish, o'z hayoti va faoliyatini yaxshilash istagi kuchaydi. Xususan, yoshlarda oliy ta'lim muassalariga o'qishga kirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, xorijga ish izlab ketish o'rniga o'zini o'zi band qilish, hudud va mahalladagi hamda o'zidagi qobiliyatlar, ichki imkoniyatlarini to'laroq ro'yobga chiqarish harakati keng tus oldi. Kasb-hunarlar yoshlar tomonidan puxta o'zlashtirilib, deyarli barchada o'z hayotini farovonlashtirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, hayotidan zavq va shukronalik hissi kuchaydi.

Insonning baxtli saodatli bo'lishi va ma'naviy hamda kasbiy komillikka erishishining ikkinchi muhim jihati ishonch omilidir. Qiziqish holati qanchalar kuchli bo'lsa, insonning mehnatining natijalari, tanlagan ishiga bo'lgan ishtiyoqi, g'ayrati ham shuncha yuqori bo'ladi. Ishonch omili hayotda hali yuz bermagan, ammo, yuz berishi mumkin bo'lgan narsalarni inson tomonidan tasavvur etilishiga, tasavvuri doirasida esa e'tiqodi shakllanishiga ko'mak beradi. Bu borada ingliz yozuvchisi Vilyam Shekspir tomonidan keltirilgan quyidagi Xudo va Inson o'rtasidagi muloqot naqli juda ibratlidir. **"Men faqat ko'rsamgina ishonaman",** – dedi Inson Xudoga, "**Agar ishonsang, ko'rasan", –** deb javob qaytardi Xudo Insonga". Inson tomonidan ruhiy va moddiy borliqning o'rnini idrok etishga qaratilgan bu mashhur naql ham ishonch omilining nechog'li qudratli kuch ekanligini ifoda etadi.

Tarbiya orqali baxt-saodatga erishishning yana bir muhim jihati mehnatsevarlik fazilati bo'lib, bu xususiyat ham oila bag'rida shakllanib, bog'cha, maktab va maktabdan keyingi davrdagi maqsadli faoliyat jarayonida mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik fazilati nafaqat rejaviy tarzda bajariluvchi faoliyat, balki, har bir yigit-qizning ijtimoiy fazilati va ko'nikmasi darajasida shakllanishiga erishish lozim.

Qadimgi e'tiqodiy yo'nalishlardan bo'lgan Buddizm, Jaynizm, Braxmanizm diniy ta'limotlaridagi eng muqaddas so'z bo'lgan "karma" so'zi "mehnat qilish" degan ma'noni anglatadi, ya'ni, hayotda amalga oshiriladi-

gan barcha ishlar ham, Tangriga ibodat ham, yaxshi amallar ham, “karma”, ya’ni mehnat orqali namoyon bo‘ladi. Mehnat katarsisga yo‘l ochadi, ya’ni mehnat orqali olam va odamni yangidan kashf etish, ehtiroslar, hissiyotlar, ruhiy zo‘riqishlardan tozalanish, muammolardan xalos bo‘lib, poklanish imkoniyati kengayadi, deb qayd etiladi.

Mehnatning tarbiyalovchi mohiyatini ulug‘lovchi, mehnatni sifatli ado etuvchilarning fazilatlari haqida ulug‘ mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ham o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Hindiston” kitoblarida alohida to‘xtalgan. Ayniqsa, u mehnatda natijadorlik, doimiylik va uzluksizlik xususiyatiga alohida e’tibor qaratib, bu borada o‘qituvchi mehnatining tarbiya bilan bevosita bog‘liqligiga ahamiyat bergan. O‘qituvchi mehnati tolib ongiga uzluksiz ta’sir ko‘rsatishi natijasida aniq samara berishini, bilim olish esa faqat takrorlanuvchi mehnat orqaligina amalga oshishini qayd etadi[3].

Prezidentimiz Murojaatnomada islohotlar taqdiri birinchi galda sifatli va natijador mehnatga bog‘liqligi hamda uning ijtimoiy samaradorligi borasida keng jamoatchilik e’tiborini qaratdi. Murojaatnoma matnini kontent-tahlil usuli orqali hisoblaganimizda “inson qadri”, “mehnat,” “ish”, ”faoliyat”, “amaliyot”, “natijadorlik” so‘zlarini eng ko‘p ishlatilgani ham Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda mehnat va bunyodkorlik omillarining islohotlar taqdiri uchun nechog‘li muhim ekanligiga amin bo‘lamiz.

Ma’lumki, muayyan mehnat, inson yoki faoliyatga bo‘lgan muhabbat niholi dastavval qiziqishdan kuch oladi va qiziqish zaminida o‘sib-unadi. Darhaqiqat, qiziqishga asoslangan mehnatsevarlikni tarbiyalashda insonning vaqt bilan hisoblashmasligi, o‘zi mehr qo‘ygan sohasiga berilib ishlashi e’tiborga olinadi. Ammo o‘zgarayotgan zamon talablari insondan jamiyatga ko‘proq naf keltiradigan takliflar asosida yashash zaruratini ham kun tartibiga chiqaradi. Shu boisdan ham qiziqishlarni shakllantirish, yangi dunyo ehtiyojlariga muvofiq tarzda harakatlanish uchun inson o‘zini o‘zi maqsadli o‘zgartirishi ham katta ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda zamonning eng muhim kasbiy yo‘nalishlari qatorida “IT” texnologiyalari, qurilish, issiqxona yuritish, dizayn, xizmatlar, bog‘dorchilik, chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik, elektrotexnika, turizm va boshqa shunga o‘xshash sohalarda shug‘ullanish tez iqtisoiy naf keltirishi jamoatchilik fikrida mustahkamlangan. Prezidentimiz tomonidan keltirilgan muhim ma’lumot, ya’ni AQShning Garvard universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, O‘zbekiston yaqin yillarda 50 dan ortiq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda nisbiy ustunliklarga egadir. Xususan, neft-gaz, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmasevtika, qurilish materiallari, to‘qimachilik, charm-poyafzal, oziq-ovqat hamada “yashil iqtisodiyot” bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimizning “drayverlari” ga aylanishi uchun barcha sharoitlar mavjud. Shu boisdan ham, kasbiy kamolotga erishishda mehnatse-

varlikni maqsadli shakllantiriladigan qiziqishlar negizida shakllantirish katta ahamiyatga egadir.

Mazkur omillarning o‘zaro uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan aytilgan har bir ishning natijadorligi “**bilim, mehnat va aql**” birligida amalga oshirilishidan iborat da’vatiga ayni mos tushadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. https://president.uz/oz/lists/view/5774*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-dekabrdagi O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi. https://yuz.uz/uz/news/vstuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-Mirziyoyeva-na-forume-molodeji-uzbekistana.*

*3. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari, T.1. 1968, 102-bet).*

## IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA TA’LIM VA TARBIYANING O‘RNI

**Xusniddin AXMEDOV,**
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*
*Malaka oshirish markazi direktori,*
*siyosiy fanlar doktori, professor*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda ta’lim-tarbiyaning o‘rni va ma’naviyat va ta’lim sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan.*

***Kalit so‘zi:*** *ta’lim, ma’naviyat, ma’rifat, tarbiya, islohot, qadriyat, jamiyat, muhit, erkinlik, ong, ilm.*

Yangi O‘zbekistonda ma’naviy islohotlarni amalga oshirishda ta’lim-tarbiya sohasidagi o‘zgarishlar o‘ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson, uning hayoti, qadr-qimmati, ehtiyojlari va manfaatlariga qaratilgani, inson huquqlari va erkinliklarining qadriyatga aylanayotgani jamiyatdagi o‘zgarishlar hamda yangilanishlarning asl maqsad-muddaolarini ifodalamoqda. Ta’lim muassasalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish yo‘lida amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani bu serqirra jarayonning murakkab va ilgarilanma harakat ekani, tarixiy-falsafiy,

mantiqiy va qonuniy zamini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy omillarining barchasini har taraflama chuqur yoritib, ma'naviy tarbiya jarayonini tashkil etish bilan bog'liq holatni ochib berishga qaratilgan ilmiy xulosa va tahlillarning nechog'lik zarurligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham keyingi yillarda mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunday avlodni esa zamonaviy taraqqiyot yutuqlariga asoslangan ta'lim-tarbiyasiz voyaga yetkazib bo'lmasligi hech kimga sir emas.

Shu sababdan ham, ta'lim-tarbiyaga ma'naviy hayotning ajralmas bo'lagi, jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi va ta'sirchan omillaridan biri sifatida qaralashi zarur. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Tarbiya go'daklikdan boshlanadi" degan hikmatli so'zga amal qilib, ta'lim-tarbiya sohasidagi o'zgarishlarni uning eng quyi bosqichi – maktabgacha ta'lim tizimidan boshladik , degan fikrlarida katta hayotiy haqiqat yotganligini alohida qayd etish lozim. Ayni paytda jamiyat hayotidagi tub islohotlar va yangilanishlar ham o'z navbatida ta'lim va tarbiya tizimidagi o'zgarishlarning ma'no-mazmunini belgilaydi, bu boradagi faoliyatning yo'nalishlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy ongi, ma'naviy hayotida yuz berayotgan muhim o'zgarishlar O'zbekistonlik olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari, kitob va monografiyalarida tahlil etilib kelinmoqda. Ularda globallashuv va yosh avlod, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, ularni turli tahdid va xatarlardan asrash, "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siri, farzandlarimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish kabi masalalar qamrab olingan. Lekin hozirgi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlarini keng ko'lamli optimallashtirish va samaradorligini oshirish borasidagi ulkan o'zgarishlar negizida bu masalalarga yangicha yondashish talab etilmoqda. Bunda ayniqsa, ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish borasida amalga oshirilayotgan yangilanishlar ta'sirida yoshlarning qalbi va ongida yuz berayotgan o'zgarishlarni ijtimoiy axloq mezonlari nuqtayi nazardan tahlil qilish va muhim xulosalar chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, oliy ta'lim tizimida keyingi yillarda bu borada ko'plab tizimli o'zgarishlar amalga oshirildi. Oliy ta'lim sohasida katta o'zgarishlar, jumladan, yangi oliy o'quv yurtlari bilan birgalikda xorijiy davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlarining filiallari ochilgani, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining sezilarli darajada oshirilgani, yangi yo'nalishlar ochilgani, sirtqi va kechki ta'limning tiklangani kabi ko'plab ijobiy amaliy ishlar amalga oshirilayotganini faxr bilan aytish lozim. Bugungi kunda respublikamizda AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Italiya, Rossiya, Singapur, Hindiston va boshqa shu kabi davlatlarning ko'plab oliy ta'lim muassasalarining filiallarining ochilganligi alohida tahsinga loyiqdir.

Shu bilan birga, maktab ta’limi, o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ham misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar, amaliy ishlar tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilib kelinmoqda. “Bugun barcha o‘g‘il-qizlarmiz o‘n ikki yillik bepul majburiy ta’lim bilan qamrab olingan. Ular 10 mingta rekonstruksiya qilingan yoki qayta qurilgan keng va yorug‘ maktablar, 1,5 mingta akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida bilim olmoqda. Qariyb 300 ta musiqa va san’at maktabi, 2 ming 200 dan ortiq sport obyekti farzandlarimiz ixtiyorida”.

Bularning barchasi sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash bo‘yicha mamalakatimizda ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning o‘ziga xos samarasidir. Ayni paytda bu sohadagi islohotlar jamiyatning ijtimoiy qiyofasini o‘zgartirib, ta’lim jarayonlarini yangi sifat darajasiga ko‘tarishning samarali omiliga aylanib bormoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ana shu sababdan ham, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasini zamon talablari asosida yangi bosqichga ko‘tarish masalasiga doimo ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Davlatimiz rahbari bu haqda quyidagilarni ta’kidlagan: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” .

Ta’lim muasasalarida mavjud imkoniyatlardan bahramand bo‘lib voyaga yetayotgan O‘zbekiston yoshlarining o‘qishda, jamoat joylarida o‘zini tutishi, kiyinishi, muomala madaniyati, izlanish va qiziqish doirasi, zamonaviy fikrlashi, hayot talablarini to‘g‘ri tushunishi, kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, ko‘p qirrali faoliyat yuritishga intilishi, yon-atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga ziyrak nazar, daxldorlik hissi bilan baho bera olishi, professional bilim darajasi, ma’naviy salohiyati bilan alohida ajralib jamiyat qiyofasini belgilaydigan kuchga aylanib borayotgani haqida yurtimiz tadqiqotchilari, xorijiy ekspertlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Masalan, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining rektori V.Sadovnichiy bunday fikrlarni bildiradi: “Men sizning mamlakatingizdagi maktablarda bir necha bor bo‘lganman. Har safar bolalarning yonib turgan ko‘zlarini ko‘rganman bu O‘zbekiston rahbariyatining ta’lim sohasidagi siyosatining eng yaxshi natijasidir” .

Bu kabi e’tiroflar Yangi O‘zbekistonda voyaga yetib kelayotgan yosh avlod nafaqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, ayni vaqtda yangicha qadriyatlar egasi bo‘lib ham maydonga chiqayotganini ko‘rsatadi. Bu qadriyatlar avvalo, ta’lim muasasalarida tahsil olayotgan yigit-qizlarning ona Vatanga

mehri va sadoqatida, milliy va umumbashariy qadriyatlarni yaxshi bilishi va ularni inson kamolatining muhim asosi deb qabul qilishida, mustaqillik tafakkuriga ega ekanligi kabi ko‘plab ijobiy fazilatlarda ko‘zga tashlanmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi ularning zamonaviy dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim-tarbiya tizimi eng muhim va ta’sirchan omilga aylangani shubhasiz. Ammo bugun zamonning o‘zi barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim-tarbiya sohasida ham chuqur yangilanishi jarayonlarini amalga oshirishni talab etmoqda.

Insonning shaxs sifatidagi fazilatlari, uning dunyoqarashi, ichki olami aynan bolalikda shakllana boshlashini hisobga oladigan bo‘lsak, keyingi yillarda qabul qilingan ko‘plab tarixiy hujjatlarning mohiyatida bugungi kun va kelajak avlodni tarbiyalashda g‘oyat muhim ahamiyatga egadir.

O‘z navbatida, ta’lim muassasalarida zamonaviy talablar asosida amalga oshirilayotgan bunday o‘zgarishlar ushbu sohaning ahamiyatini oshiradi, yoshlarning ezgu intilishlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish yo‘lida amalga oshirilayotgan ezgu amaliy ishlar jamiyatda ham tub ijtimoiy o‘zgarishlarga, odamlarning hayoti, ruhiyati va kayfiyatida chuqur burilishlariga olib keladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажагимизнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018.*

*2. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019.*

*3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019.*

*4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 464 б.*

*5. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010.*

*6. Фалсафа: энциклопедик луғат. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010.*

*7. Миллий ғоя: Тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Т.: Akademiya, 2007.*


ZJV5401

# GLOBALLASHUV KONTEKSTIDA TALABA YOSHLAR AKSIOLOGIK ORIYENTATSIYASINING XUSUSIYATLARI

**Farida YULDASHEVA,**
*ADU Falsafa kafedrasi mudiri, f.f.d. prof.*

***Annotatsiya****: maqolada globallashuv sharoitida talaba yoshlar aksiologik oriyentatsiyasi tahlil etilgan. Talaba yoshlar kelajakda ziyolilar qatlamini to'ldirib boruvchi guruh sifatida o'rganilib, ularning aksiologik oriyentasiyasining jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati, bu jarayonda milliy va globallashuv natijasida tarqalayotgan qadriyatlarni uyg'unlashuvining zarurati asoslangan.*

***Kalit so'zlar:*** *globallashuv, talaba yoshlar, aksiologik oriyentasiya, milliy qadriyatlar, innovasiya.*

Ma'lumki, globallashuv ziddiyatli jarayon. Uning ijobiy jihatlari milliy taraqqiyot uchun tanlov imkoniyatlarini kengaytirib, yangi madaniy muloqotlar uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bunday muloqotlar barcha ishtirokchilar uchun foydali va progressiv bo'lib, u madaniyatlarning boyishi, demokratik jarayonlarning kengayishi, taraqqiyotning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga globallashuv turli madaniyatlarning unifikatsiyasi va bir xillashuviga, milliy an'analar va qadriyatlarning transformasiyasiga ham sabab bo'ladi. Bunday sharoitda talaba yoshlar aksiologik oriyentatsiyasini tahlil etish muhim hisoblanadi, chunki ular kelajakda ziyolilar qatlamini to'ldiruvchi o'qimishli guruh bo'lib, ularning aksiologik oriyentasiyasi jamiyat taraqqiyotining omillaridan biri hisoblanadi.

Globallashuvning gumanizm, teng huquqli plyuralizm tamoyillariga asoslangan demokratik shakli umuminsoniy, tarixiy milliy va progressiv zamonaviy qadriyatlarning uyg'unligiga asoslanadi, qadriyatlar tizimini saqlab qoladi va ilg'or qadriyatlarni olib keladi. Yoshlarning demokratik qadriyatlarga tayangan holda milliy an'anaviy qadriyatlarning yashovchan o'zagini shakllantirish va uni takomillashtirish globallashuv sharoitida tarixdan va milliylikdan uzilib qolmaslikni ta'minlaydi.

Globallashuv uchun tarixiy xotira, avlodlar ma'naviy merosi, an'analar, milliy qadriyatlar emas, iqtisodiy taraqqiyot, investisiyalar, texnologik va ilmiy qadriyatlar muhim, globallashuvning iqtisodiy potensiali va jadal sur'atlariga milliy qadriyatlar mos kelmaydi;

milliy qadriyatlarning o'ziga xosligi global ma'naviyatning ulkan axborot makoniga kirishini murakkablashtiradi;

globallashuv iqtisodiy va ilmiy-texnologik asosga hamda agressiv mexanizmga, milliy qadriyatlar esa tarixiy-evolyusion mexanizmga ega;

milliy qadriyatlarga konservativlik, izchillik va barqarorlik xos bo‘lib, u an’anaviy tartib – qoidalarga amal qilishni talab etadi. Aksincha, globallashuvga kuchli dinamika, o‘zgaruvchanlik, yuksak tolerantlik va gedonistik xususiyatlar xos bo‘lib, shaxsdan mobillikni talab etadi;

milliy qadriyatlar qisman yopiq, dogmatik va konservativ tizimga ega, globallashuv ochiq, sinergetik va integrasion tizimga ega bo‘lib, u turli-tumanlik asosidagi birxillikdan tashkil topgan.

Ta’lim tizimi globallashuv sharoitida talaba yoshlarning milliy ma’naviyatni saqlab qolishga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi, ularning o‘zga ma’naviyat bilan muloqoti asosida o‘zini boshqalar bilan solishtirish, baholash, o‘zini namoyon qilish imkoniyati yuzagaga keladi va milliy qadriyatlarning etnomaqomi va salohiyati saqlanishini ta’minlaydi.

Asrlar davomida tarixan shakllangan barcha milliy qadriyatlar faqat turli sivilizasiyalar va xalqlarning madaniyati bilan muloqotda bo‘lganligi sababli muntazam taraqqiy etgan. “Hayot tashqi belgilarining umumiylashuvi va bir xillashuvi tendensiyalari qanchalik kuchli bo‘lgani sari kishilar o‘zlarining ichki dunyosini tavsiflovchi an’analar, din, o‘z xalqining madaniyati kabi komponentlarni ko‘proq e’zozlaydilar. Demak, o‘zini ihotalash pozisiyasi emas, aynan globallashuv jarayonlari xalqlarning o‘ziga xos milliy madaniyatini saqlab qolishning kuchli stimuli bo‘lishi mumkin...” [1.318.].

Globallashuvda ikki tendensiya mavjud: birinchisi – barqaror milliy madaniyat, axloq, qadriyatlar va an’analarini ma’naviy taraqqiyotning muhim va barqaror omili sifatida saqlab qolishga va ikkinchisi – modernizasiya va innovasiyaga intilish, ularni joriy etish natijasida birxillashuv, umumiylikning yuzaga kelishi. Birinchi tendensiya milliylik va uning tamoyillariga, ikkinchisi esa globallashuv, modernizasiyaga asoslangan. Masala – bu ikki tendensiyani uyg‘unlashtirish va ikkinchi tendensiyani milliylik tomon yo‘naltirishdan iborat.

Globallashuv natijasida tarqalayotgan qadriyatlar asosida innovasiya turadi, ular turli-tuman va o‘zgaruvchan, ularning aksiologik xususiyati ham qisqa vaqt saqlanadi. Milliy qadriyatlar esa asrlar davomida shakllangan va davr ruhini ifoda etadigan ma’naviy boyliklar bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ularning ahamiyati ortib boradi.

Globallashuv tarqatayotgan zamonaviy qadriyatlar moddiy va ma’naviy boyliklar yaratishga qaratilgan murakkab hodisa bo‘lib, u talaba yoshlarning aksiologik oriyentatsiyasiga ta’sir etadi. Globallashuv sur’atlari milliy taraqqiyot sur’atlaridan yuqori ekanligi sababli yoshlarning milliy ongi o‘zgarishlarni aks ettirishdan orqada qolmoqda.

Milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash ularning teng huquqli dialogini ta’minmlash globallashuvning milliy qadriyatlar ustidan o‘ta “hukmronlik qilishining” oldini oladi. Talaba yoshlarning qadriyatlari

ko‘proq ilm-fan taraqqiyoti, yangi texnologiyalar, Internet, yangicha kommunikativ aloqa vositalari kabilarga asoslanadi va ssiyentik, ilmiy-texnologik xususiyatga ega bo‘lib, ular o‘zgaruvchan axloqiy tizimni shakllantiradi. Ilmiy-texnologik innovasiyalarga asoslangan qadriyatlar kishilarning turmush tarzini, kundalik hayotini o‘zgartirib yubormoqda. Innovasion ruhiyat, innovasion axloqning shakllanishi natijasida yangi elementlar: kreativlik, ijodiy yondashuv, innovasion faollik yuzaga kelmoqda.

Milliy qadriyatlar o‘zga qadriyatlar bilan munosabatda yanada sayqallanadi, rivojlanadi. Milliy aksiologik tizimning o‘ta konservativ va yopiqligi uning yemirilishiga olib keladi. Yer yuzida turli sabablarga ko‘ra yo‘qolib ketgan madaniy tizimlar hukmron madaniyat sifatida boshqa madaniyat va qadriyatlar uchun yopiqligi tufayli yemirilib ketdilar. [2.6-18;9-200.]. Globallashuv olib kelayotgan yangicha qadriyatlar kelajakka qaratilgan bo‘lib, bularsiz mamlakatimiz taraqqiy etmaydi. Yangicha qadriyatlarni milliy ma’naviyatimizga moslashtirish va ulardan foydalanish zarur.

Globallashuv iqtisodiy taraqqiyot, texnologik va ilmiy qadriyatlar, moddiy boylik yaratuvchi iqtisodiy potensialga asoslanadi. Globallashuv ulkan global axborot makoniga ega, imkoniyatlari keng, nobarqaror va sinergetik xususiyatga ega bo‘lib, turli-tumanlik asosidagi bir xillikka asoslangan. Milliy qadriyatlar qat’iy milliy makon bilan cheklangan bo‘lib, konservativ, barqaror. Dinamikasi va mohiyati turlicha bo‘lgan bu ikki xil qadriyatning vazifasi bir xil: inson taraqqiyotiga xizmat qiladi va uning o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Globallashuv sharoitida “dunyo fuqarosi”, “global fuqaro”, “kiberinson”, “kiberavlod”, “kiberemigrant”, “innovasion ong”, “innovasion faoliyat”, “innovasion qadriyatlar” tushunchalari tarqaldi. Innovasiyalar innovasion qadriyatlarga, ko‘nikmalarga, zamonaviy qadriyatlarni aks ettiruvchi bilimlar tizimi va oriyentasiyaga asoslanadi. Talaba yoshlarning aksiologik oriyentasiyasi jamiyat taraqiyoti, uning barqarorligi, kelajakda milliy farovonlikka xizmat qiladi va quyidagi qadriyatlarga asoslanadi: tashabbuskorlik va kreativlik; innovasion ong va innovasion faoliyat; axborot madaniyati; intellektual salohiyat; faol hayotiy pozisiya; bo‘sh vaqtga ega bo‘lish.

Globallashuv qadriyatlarning rang-barangligini rad etmaydi, aksincha, bu sohada teng huquqli har xillik asosida qurilgan bir xillikni taqozo etadi. Ya’ni, qadriyatlar tizimining mohiyati turli-tuman yakkalikning xususiyatlarini aks ettirishi va shu bilan birga bu yakkaliklarning birortasi bilan ham aynan mos tushmasligi zarur. Qadriyatlar tizimida turli madaniyatlar elementlarining uyg‘unlashuvi bilan birga ularning birortasining ham gegemon bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, har bir madaniyat o‘zini o‘zi realizasiya qila olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.[1.264.].

Hozirgi davrda talaba yoshlarning milliy makon va uning qadriyatlari va ma’naviyatiga bog‘liqlik hissi kamayib bormoqda. Chunki ular hozirgi

kunda o‘troq emas, talabalar bir vaqtning o‘zida shu joyda va hamma joyda bo‘lib, ularga mobillik va doim harakatda bo‘lish xos. Ularning bilim olish, kasb-hunar o‘rganishga intilishi ba’zan o‘z vatanidan va o‘zaklaridan yiroqlashishga majbur etadi. Hozirgi dunyoda inson xohlasa ham yashirina olmaydi. Unga turli tomonlardan ta’sir o‘tkaziladi.

Bugungi shiddatli davrda zamonaviy insonning o‘ta bandligi sababli bo‘sh vaqt muhim qadriyatlardan biriga aylandi. Bir qarashda bu holat oddiy tuyiladi. Lekin insonning bandligi uning milliy xususiyatlariga, jumladan, oilasi, yaqinlari bilan munosabati, milliy qadriyatlarga munosabatiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Globallashib borayotgan ijtimoiy hayot sharoitida talaba yoshlarning aksiologik oriyentasiyasi murakkablashmoqda. Bu jarayon ehtiyotkorlik, sog‘lom konservatizm, gumanizm va pragmatizm asosida amalga oshirilishi lozim. An’anaviylikka ko‘p e’tibor qaratish ba’zi hollarda fundamentalizm va ekstremizm tomonga og‘ib ketishni, ortiqcha “zamonaviylashish” esa milliy qadriyatlarga putur yetkazishi mumkinligini yodda tutish lozim. An’anaviy qadriyatlar tanlovi ularning bugungi kun va kelajak uchun ahamiyatliligi, yangilanish sharoitida mahalliy ehtiyojlar va manfaatlarga mos kelishiga bog‘liq. Globallashuv sharoitida jamiyat ijtimoiy sohalarining yangilanishi o‘zgarishlarga moyilligi kuchli bo‘lgan yoshlarni ma’naviy himoya etadi. Ularning milliy qadriyatlardan uzoqlashib, o‘ta zamonaviylikka berilishi va ommadan ajralib qolishining oldini oladi.

Qadriyatlarning yangi elementlari, noan’anaviy faoliyat asosida yangi qadriyatli oriyentasiya yuzaga keladi. Bu oriyentasiyani to‘g‘ri yo‘naltirish muhim vazifa hisoblanadi. Globallashuv qadriyatlarini to‘la qabul qilish ham yoki undan kuchli himoyalanish ham ijobiy natija bermaydi. Birinchi holatda milliy madaniyatning o‘ziga xosligi xavf ostida qolsa, ikkinchi holat uning ijodiy rivojlanishdan mahrum bo‘lib, yakkalanib, o‘z qobig‘iga o‘ralib qolishiga olib kelishi mumkin. Bu borada maksimalizm ham, minimalizm ham birdek zararli.

Globallashuv o‘z-o‘zidan ochiqlik va tolerantlikni taqozo etadi. Bu jarayonga xos qadriyatlar ko‘proq yoshlarga ta’sir etadi. Globallashuv kontekstida yoshlar qadriyatlariga ko‘proq globallilik xos bo‘lib, bu hodisa salbiy ma’no kasb etadigandek tuyiladi. Lekin aslida talaba yoshlarning aksiologik oriyentasiyasi quyidagi ijobiy xususiyatlarga ega:

milliy qadriyatgina emas, zamonaviy qadriyatlarni o‘zlashtirishi ularning dunyoqarashi, ma’naviy dunyosi, bilimi, salohiyatini yuksaltiradi;

o‘z madaniyatini boshqa madaniyatlar bilan solishtirish va unga tanqidiy qaray olish, milliy qadriyatlarni real baholash, qayta ko‘rib chiqib voz kecha olish salohiyatiga ega;

talaba yoshlarning ongida ko‘p hollarda empirik va rasionallik, realizm, kreativlik, pragmatistik yondashuv his-tuyg‘uga nisbatan ko‘proq;

talaba yoshlar qadriyatlar tizimiga yangi elementlarni olib kelish qobiliyati kengroq.

Xulosa qilib aytganda, talaba yoshlar qadriyatli oriyentasiyasi milliy qadriyatlar va globallashuvga xos qadriyatlarning uyg‘unligiga asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1.Василенко И.А. Политическая глобалистика. – Москва: Логос, 2000.-С.264.*

*2.См.:Исчезнувшие народы. -Москва: Наука, 1998.-С.6-18; 99-200.*

*3.Солкина И.А. Трансформация социальных норм в глобальном мире.//Актуальные проблемы глобалистики и геополитики. Сборник научных трудов кафедры глобалистики и геополитики СФУ.-Красноярск. Сибирский федеральный университет. 2012.-С.31*8.

## YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASINING HUQUQIY ASOSLARI

**Ruzimurat CHORIYEV,**
*“TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti,*
*Yoshlar masalalari va ma’anaviy-ma’rifiy ishlar*
*bo‘yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor*

***Annotatsiya:*** *maqolada, Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli shaxs tarbiyasining huquqiy asoslari ishlab chiqish O‘zbekistonni yetuk ma’naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirish uchun barcha tizim tashkilotlari bilan bir qatorda vazirlik va idoralar, tashkilot rahbarlari, ziyolilar, olimlar, qisqacha aytganda barcha ertasiga befarq bo‘lmagan odamlar birlikda harakat qilishi orqali erishish mumkinligi to‘g‘risida fikr mulohazalar bildirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Yangi O‘zbekiston, ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi, ma’naviy barkamollik, ta’lim va tarbiya, taraqqiyot strategiyasi, ma’naviyatning konstitutsiyaviy mezonlari, Uchinchi Renessans, huquqiy asos.*

***Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat.***

**Sh.M.Mirziyoyev**

Mamlakatimizda milliy yuksalish davrida jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar mohiyati tubdan ijobiy tomonga o'zgardi. Endilikda inson omilini ro'yobga chiqarish, uning ma'naviy takomilini ta'minlash, uning har tomonlama yuksalishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish, o'z iste'dodlari va qobiliyatlarini erkin namoyon qilish kabi an'analar mustahkam rivojlanib bormoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, aholi turmushi va yashash muhitidagi muhim tomonlarni rivojlantirish, jamiyatda islohotlar ko'lamining yuksalishida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va uni yuksaltirish uslublarini ijtimoiy hayotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy qadriyatlarimizni asrash va uni targ'ibot qilish ham jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ma'naviyat fan va taraqqiyot, ilmiy-ijodiy yutuqlar bilan rivojlanadi, xalqimiz tafakkuri va boy imkoniyatlari bilan hamohang holda boyib, sayqallanib boradi. Ma'naviyat va uning asosiy mezonlari xalqimiz ongida vorisiylik tarzida avloddan avlodga o'tib boradi. Ma'naviyat targ'iboti jarayonida ham ana shu maqsadlar bajarila borib, ma'rifat degan yuksak ijtimoiy hodisa bilan birgalikda olib boriladi.

Shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida ularni har qanday mafkuraviy tahdidlardan xalos qilish, "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida tafakkurida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, bo'layotgan voqea-hodisalarga erkin fikr bildira oladigan, kerak bo'lsa tahlil qila oladigan darajada ulg'aytirishga erishishdir. Zero, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" – degan fikrlari buni isbotlab turibdi.[1]

So'nggi yillarda respublikamizda olib borilayotgang keng ko'lamli islohotlarning asosiy negizlaridan biri bu – ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'lib, bunda aholimiz, ayniqsa yosh avlodning har tomonlama yetuk va barkamol inson bo'lib yetishishini ta'minlashdan iborat. Buni amalga oshirish uchun hukumatimiz tomonidan bir qancha huquqiy yaratilib o'rtaga tashlandi.

Mazkur asoslar rivojlanish yo'lidan og'ishmay ildamlayotgan respublikamizda istiqomat qiluvchi har bir shaxsni ma'naviy qiyofasini va tafakkurini ijobiy tomonga o'zgartiribgina qolmasdan, balki yosh avlod tarbiyasidek nozik jabhani olib borilayotgan islohotlar va amalga oshirilayotgan ishlar sifatini ta'minlaydi.

Ma'rifatli jamiyat, ma'rifatli shaxs tarbisi borasidagi dastlabki islohotlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaror hisoblanadi. Mazkur qarorda "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkor-

lik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda” – deb ta’kidlangan. [2]

Keyingi yillarda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishni takomillashtirish ishida uzoq yillardan beri isloh etishga muhtoj bo‘lgan muammolarni hal etish borasida yangicha yondashuv amalga oshirildi. Jumladan,

– ma’naviyat mezonlariga doir tushuncha va tamoyillar asosiy qomusimiz hisoblanadigan yangilangan konstitutsiya matnida aks ettirildi;

– jamiyatimizning ma’naviy taraqqiyoti va yangi ma’rifiy makonni yaratish bilan bog‘liq jarayonlarning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash, ushbu sohaga doir zarur qonunlar, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish borasida sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda;

Ma’rifatli shaxs tarbiyasidagi huquqiy asoslardan biri “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hisoblanadi. Mazkur strategiyada jamiyatimizning ma’naviy rivoji bilan bog‘liq ishlar davlat siyosatining alohida va ustivor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berilishi mazkur sohadagi faoliyatning yangi bosqichini boshlagani shubhasiz. Davlatimiz rahbari tomonidan farmonda “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish vazifalari” borasidagi maqsadlarning aniq-tiniq belgilab berilgani esa bu jabhadagi ishlarni jadallashtirdi. [3]

E’tiborli tomoni bugungi kunga kelib ma’naviyat sohasiga munosabat butunlay o‘zgardi. Mustaqillik yillarida birinchi marta bu boradagi ishlar davlat siyosatining alohida yo‘nalishiga aylandi. O‘z navbatida bu, Asosiy qonunimizda ma’naviyatning konstitutsiyaviy mezonlari va ushbu sohadagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, bu boradagi tartib-qoidalarni aniq-tiniq belgilab qo‘yish zaruratini yuzaga keltirdi.

Taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo‘nalishida “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini kelgusi besh yillikda amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu nima degani? Dunyodagi rivojlangan davlatlar va jamiyatlarning bugungi kundagi mavqei eng avvalo, o‘sha davlat yoki jamiyatda a’zosi bo‘lgan kishilarning bilimlilik darajasi bilan o‘lchanadi. Muhtaram Prezidentimiz muammoning mohiyatini chuqur anglagan holda ilm o‘rganish, yoshlarni bilimli va ma’nan yetuk qilib tarbiyalash nafaqat oila yoki ta’lim muassasida amalga oshirilishi, balki barcha sohalarda ham bu konsepsiyaga qat’iy amal qilinishi zarurligi belgilab qo‘yilgan.

Bu konsepsiya orqali madaniyat va san’atni yuksaltirish, yoshlarni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratilgani muhim jihat sanaladi. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo‘lib yashayotgani, fidokorona mehnati bilan

Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgani e’tiborga loyiq. Shu bilan birga, davlatimizning bugungi siyosati ham barcha millat va elat vakillarining milliy o‘zligini, ona tili va madaniyatini, dini, urf-odat va an’analarini saqlab qolish va ustovorlik qaratilishiga yo‘naltirilgan.

Bugungi kunda jamiyatimizda ma’naviy va moddiy hayotni uyg‘un ravishda olib borilishi o‘z tasdig‘ini topmoqda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Kimki ma’naviyat masalasi bu – faqat ma’naviyat va ma’rifat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi deb o‘ylasa xato qiladi”

Zero, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Ma’naviy-ma’rifiy soha oldida turgan ulug‘ maqsad – Uchinchi Renessansga poydevor qo‘yish va uni barpo etish, avvalo, xalqimiz, qolaversa yoshlarimizni tafakkurini yuksaltirishdan iborat.

“Yangi O‘zbekistonni yetuk ma’naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz uchun barcha tizim tashkilotlari bilan bir qatorda vazirlik va idoralar, tashkilot rahbarlari, ziyolilar, olimlar, qisqacha aytganda barcha ertasiga befarq bo‘lmagan odamlar birlikda harakat qilishi, qo‘lni-qo‘lga berib ishlashi zarur. Ana shundagina biz o‘z oldimizga qo‘yilgan maqsadga erishishimiz va rivojlangan mamlakatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallashimiz mumkin bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan huquqiy asoslarga tayangan holda ma’nan barkamol, yuksak iqtidorli va mustaqil fikrlaydigan, Vatanimizga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash, ularning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham siz va bizning oldimizda turgan, kezi kelganda kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan bo‘lib qolaveradi albatta.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.*

*Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2021-yil 26–mart. PQ-5040-son. www.lex.uz.*

*2. Sh.M.Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Toshkent – O‘zbekiston, 2019-y.*

*3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 7-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.*

ZJV5401

# ZAMONAVIY YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY TARBIYANING AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

**Sarvarjon G'AFUROV,**
*Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlar doktori, professor*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada zamonaviy yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning ahamiyati: muammo va yechimlari tahlil qilingan. Shuningdek, yooshlar, avvalo, ota-onasiga ishonadi. Ularning fikricha, yaxshi insonlar ota-ona farzandlari bilan doimiy muloqot olib boradigan, kasbiy yuksalishiga yordam beradigan, o'rinli tanqidiy mulohazalar bildirib, dunyoqarashini kengaytiradigan oilalardan yetishib chiqadi. Ba'zi respondentlar yaxshi insonni tarbiyalashda o'qituvchining ham roli muhimligini qayd etgan.*

***Kalit so'zi:*** *ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, tarix, ilm, oila, inson, yoshlar, mas'uliyat, ilmiy meros.*

Asrlar davomida o'zining ilm-fani va ma'rifati bilan dunyoni lol qoldirib kelgan Movarounnahr o'lkasi kelajakda jahon tamaddunida markaziy o'rinlaridan birini egallashi uchun ham tarixiy poydevorga, hamda zamonaviy asoslarga ega. Mintaqada bunga yetarli sharoit va salmoqli ilmiy meros, ma'naviy-ma'rifiy manbalar mavjud. Ularni ilmiy o'rganish, o'rgatish, yetishib kelayotgan yosh avlod ma'naviy dunyosini boyitishda jamiyatimiz, ziyolilarimiz mas'uliyatini oshirish ulkan ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, mintaqaviy va xalqaro integratsiya xalqlar, madaniyatlarni birlashtirishi, o'zaro chegaralarni ochishi, sivilizatsiyalararo muloqotga qulay sharoitlar yaratishi kerakdek edi. Huddi shunday holat yuz berayotganini ham kuzatmoqdamiz. Lekin shu bilan birgalikda, aynan globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanishi ilm-fan, ma'rifat, iqtisod va gumanitar sohalarni qanchalik taraqqiy ettirayotgan bo'lsa, ikkinchi tarafdan, axborot almashinuvi, ma'lumotlar yetkazishning tezkorligi, ularni chegaralash, to'liq ta'qiqlashning texnik imkonsizligi radikal ta'limotlar, provakatsion harakatlar, turli ekstremistik mafkuralar targ'iboti hamda eng ta'sirchani – "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi g'ayri-axloqiy tendensiyalarning keng tarqalishiga qulay sharoitlar yaratmoqda.

Jahon internet tarmoqlarida axborot almashinuvining tezkorligi, ko'ngilochar kontentlarning ortib borishi jarayonida e'lon qilib borilayotgan ma'lumotlar, xoh u video, foto, ovozli ko'rinishdagi, yoshlar tili bilan

aytganda “super trend”lar bo‘lsin, xalqimizning ma’naviyati, an’analari, azaliy urf-odatlari hamda diniy qadriyatlariga mos bo‘lmas ekan, har qanday sharoitlarda ham yosh avlodning ongini zaharlashi, dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniq. Internet segmentlarida berilayotgan ma’lumotlar juda qisqa muddatli bo‘lishiga qaramasdan yoshlarni ongiga tez ta’sir ko‘rsatib, “ommaviy madaniyat” yoyilishiga, yoshlarning beihtiyor tarmoqlardagi tendensiyalarga osongina berilib ketishiga olib kelmoqda. Yoshlar ma’naviy dunyosining torayib borishi ana shu zararli va salbiy tendensiyalarga, ma’nisiz trendlarga beriluvchanligini orttirib bormoqda.

Oxirgi yillarda umumjahon siyosiy maydonida sodir bo‘layotgan voqe’liklar ijtimoiy hayotning o‘ziga xos bir murakkab davrni boshidan kechirayotganidan darak bermoqda. Bu jarayonlarga sabab bo‘layotgan omillarni o‘z vaqtida anglash, davlat siyosatida tubdan islohotlar o‘tkazish, ijtimoiy-gumanitar, xususan, ma’naviy-ma’rifiy, axloq-odob sohalari rivojiga jiddiy e’tibor qaratish davr talabiga aylangan.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining jiddiy muammolaridan biri – aholining milliy qadriyatlar va an’analariga asoslangan ma’naviy hayoti, dunyoqarashining shakllanishi bilan bog‘liq. Buni jiddiy anglash, tushunish va tezkor chora-tadbirlar ko‘rish zarur. Iqtisodiy qashshoqlikni turli islohotlar va moliyaviy yordamlar asosida imkon darajasida intensiv hal etish mexanizmlari mavjud. Biroq, ma’naviy qashshoqlikni bartaraf etish – anchayin murakkab vazifa. Uni yillar davomida buyuk islohotlar, ta’lim-tarbiya va ma’rifat asosida va eng muhimi – xalqimizning buyuk ma’naviy qadriyatlariga tayangan holda katta jasorat bilangina amalga oshirish mumkin. Shu jihatdan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “*...jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonnni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarmizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz*”.

Har qanday islohot hoh u siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalarda bo‘lsin, davlat va jamiyatdan katta e’tiborni, sa’yi-harakatlarni, mablag‘larni, va eng asosiysi – sabr-matonatni, vaqtni talab qiladi. Bugungi kunda xalqimiz, yoshlarimiz dunyoqarashini shakllantirishda ma’naviy sohaning ahamiyatini yuqori baholagan holda, mazkur sohada jiddiy islohotlarni o‘tkazish davri keldi. Bu borada ma’naviy, ma’rifiy sohada “turg‘unlik” holatidan voz kechish, salmoqli “rebrending” o‘tkazish muhim qadam bo‘ladi. Bundan hech ham xavfsirash kerak emas.

Tarixda va hatto yaqin kunlarda jahon davlatlarida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda biror vaziyatni o‘zgartirish, yaxshilash, takomillashtirish, davr talablariga moslashtirish jarayonlarida rebrending qilish amaliyoti oddiy holga aylangan. Bunday yondashuv mavjud muammolarni hal etish-

ning effektiv choralarini ko‘rish, turg‘unlik balosidan qutulish, sohaga ilg‘or g‘oyalar, yangicha qarashlar, ilmiy konseptual yondashuv va eng muhimi – bugungi kun chaqiriqlariga javob bera oladigan, zamonaviy fikrlaydigan yosh kadrlar, mutaxassislarni olib kelishga yordam beradi. Uzoq yillar ma’naviyat va ma’rifat sohasida faoliyat yuritgan ustozlarimiz mavjud. To‘g‘ri, ularning bu sohadagi mehnati, faoliyati, yutuqlari tahsinga sazovor. Shundoq bo‘lsada, bugungi kun ma’naviy soha, tarbiya jarayonlari yangicha yondashuvlarni, davr chaqiriqlari va talablariga mos harakatlarni talab qilmoqda. Bunga “eskicha”, mavjud tendensiyalar bilan harakat qilish, xalqimiz yoki yoshlarimizga avvaldan ma’lum, “siyqasi chiqqan”, beta’sir shiorlar bilan ma’naviy dunyoqarashni shakllantirishga urinishlar samarasiz.

O‘zbekistonda oxirgi yillarda ta’lim-tarbiya, yoshlar bilan ishlash, ma’naviy-ma’rifiy sohani takomillashtirishga davlat miqyosida katta e’tibor qaratilayotganligi muhim qadamlardan. Zamonaviy jarayonlar chaqirig‘i davlatni aholining barcha qatlamlari bilan jiddiy ishlashga, xususan, yoshlar ongi va dunyoqarashini shakllantirishga katta e’tibor qaratishga undamoqda. Mamlakatda iqtisodiy, xossatan, ijtimoiy sohalarda yirik islohotlar olib borish – davlatning birlamchi va ustivor siyosati vazifasiga aylantirilayotgan bo‘lsa, ma’naviy-ma’rifiy soha uning poydevori bo‘lishi shart. Chunki kelajagi buyuk, gurkirab rivojlanib borayotgan jamiyatda yashaydigan aholi, xususan yoshlarimiz tarbiyali bo‘lmas ekan, shuncha qilingan ishlarning natijasi muvaffaqiyati haqida gapirish mantiqsiz.

Yurtimizda ekologiya, tabiatni asrab-avaylashga katta e’tibor qaratilib, alohida vazirlik tashkil etildi. Ushbu vazirlikka keng vakolatlar berilib, ulkan mablag‘lar ajratildi, va hatto, ekologiya sohasida mutaxassislar yetishtirib chiqaradigan alohida universitet ham tashkil etildi. Bularning hammasi tahsinga sazovor va mazkur sohada faoliyat ko‘rsatayotgan mutasaddilarning sa’yi-harakati, sohani yaxshi anglashi, o‘z ishiga jiddiy yondashuvi, zarur vositalarni talab qila olishi natijasidir.

Ekologiya sohasini rebrending qilinishi – yangi muammolarni emas, aksincha, sohani rivojlantirishning istiqbolli bosqichlarini ochib berdi. Xuddi shunday islohotlarni ma’naviy-ma’rifiy sohada ham amalga oshirish davri keldi. Ustozlar mehnatini, tajribasini ulug‘lagan holda, ma’naviy-ma’rifiy sohaga “yangi qon” olib kirish, uning foliyatini tubdan isloh qilish, yangicha g‘oyalar, yondashuvlar, yoshlar ongiga ta’sirchan bo‘lgan targ‘ibot mexanizmlarini yaratish va ulardan unumli foydalanish vaqti keldi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davrida, ommaviy axborot, internet, ma’lumotlar uzatish vositalari orqali yangicha targ‘ibot texnologiyalarini ishlab chiqish, yoshlarning dunyoqarashini shakllanishiga ta’sirchan kontentlarni yaratish zarur.

Tarbiyani farzandning beshikdagi chog‘idan boshlash kerak, degan purma’no naql bor xalqimizda. O‘ta o‘rinli va haq gap bu. Darhaqiqat, yoshlarni



ZJV5401

tarbiyalamoqchi bo‘lsak, ularning yoshlik davridanoq bu ishni boshlishmiz zarur. O‘rta yoshga borib, zamonning “yaxshi”, “yomon” taraflarini ko‘rgan, “aqli kirib qolgan” farzandlarimizni tarbiyalashga har qancha urinmaylik ularni ongini jiddiy o‘zgartirishimizga ancha kechikanligimizni kech tushunamiz. Bolani yoshlik chog‘idanoq ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishga e’tibor qaratish, haqni tanitish, ota-onaga, ustozga, xalqqa, Vatanga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalashga katta e’tibor qaratish shart. Bola yoshlik chog‘idanoq, Vatani, millati, oilasini himoya qilishga, asrashga, diniy qadriyatlari, urf-odatlari, an’analarini ulug‘lashga o‘rgatib borilishi muhim.

Diniy qadriyatlardan yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda xavfsirash kerak emas. Dinsiz, diniy e’tiqodsiz biror jamiyat bo‘lmaydi. Diniy ta’limotlarga to‘g‘ri yondashuv, ulardan o‘z o‘rinda, mutaassiblikka berilmasdan, ma’naviy-ma’rifiy sohada unumli foydalanish yaxshi natijalar beradi. Sababi, insonlarning ongiga, fikrlashiga samarali ta’sir choralaridan biri – ularning diniy qadriyatlari va dunyoqarashlari orqali kirib borish sanaladi. Xuddi shunday fikrni ta’kidlar ekan Prezidentimiz “*...yoshlarimizga zamonaviy ta’lim-tarbiya bilan birgalikda, qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning mohiyatini to‘g‘ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy o‘ylashimiz lozim*”, deganida mutlaqo haq edi. Bu borada, xalqimizda juda ulkan ma’naviy boylik, islom dinining ustunlaridan bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy sohaning buyuk xazinasini yaratgan ajdodlarimizning bebaho merosi mavjud.

Zamonaviy jarayonlarda jamiyatlarni tanazzulga uchratish uchun uning ma’naviy sohasi, yoshlarini qadriyat eshiklaridan tashqariga olib chiqishning o‘zi yetarli. Internet segmenti ana shu frontda faol va samarali natijalarga erishmoqda ham. Yoshlar o‘zining ma’naviyati va qadriyatlariga emas, zamonaviy tendensiyalarga, “ommaviy madaniyat” trendlariga ko‘proq va oson berilib bormoqda. Bu o‘ta jiddiy ijtimoiy xavf. Buni davlat va millat xavfsizligini ta’minlash tizimining jiddiy izdan chiqishi bilan tenglashtirish mumkin. Shu jihatdan yoshlarning yot g‘oyalarga, tashqi mafkuralar ta’siriga tushib qolmasligi uchun milliy g‘oya va mafkura, ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish ishlarini rivojlantirish harakatlarini yanada faollashtirish davr talabi.

Ma’naviyat jamiyatimiz uchun asosiy maqsad va hayot yo‘li ekanligini singdiradigan davlat siyosiy mafkurasi sifatida shakllanmog‘i lozim. Shu sababli eng yaxshi madaniy an’analar va urf-odatlarni qayta tiklash millat sifatida shakllanishining asosiy shartlaridan biriga aylanishi zarur. Xalqimizning ma’naviy dunyosini boyitish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni ulug‘lash, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda odob-axloq masalalariga jiddiy e’tibor berilib, ma’naviy-ma’rifiy soha rivoji bo‘yicha mas’ul bo‘lgan davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirishga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Yoshlarni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashdagi

davlat siyosatining asosiy maqsadi ham – ularni xalq, millat, davlat uchun fidokor bo‘lishi, Vatanni sevishi, uni himoya qilish xislatlarini shakllantirish, yoshlarimizning ma’naviy immunitetini ko‘tarishdan iborat.

Inson kapitalini rivojlantirish – bir kunlik ish emas. Mazkur missiya kompleks yondashuv va uzoq muddatli pritsipial chora-tadbirlarni izchil amalga oshirishni talab qiladi. Bu o‘rinda, ta’lim-tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda zamon talablari darajasida faoliyat ko‘rsatishga qodir malakali kadrlar, soha mutaxassislarini kengroq jalb qilish, professional boshqaruv tizmini yaratish davri keldi. Sohaga mas’ul har qanday bo‘g‘in muassasalari bu borada o‘zining mas’uliyatli vazifasi va faoliyat yo‘nalishini mustaqil tarzda belgilab olmog‘i darkor.

Yoshlar, avvalo, ota-onasiga ishonadi. Ularning fikricha, yaxshi insonlar ota-ona farzandlari bilan doimiy muloqot olib boradigan, kasbiy yuksalishiga yordam beradigan, o‘rinli tanqidiy mulohazalar bildirib, dunyoqarashini kengaytiradigan oilalardan yetishib chiqadi. Ba’zi respondentlar yaxshi insonni tarbiyalashda o‘qituvchining ham roli muhimligini qayd etgan.

Ajdodlar ilmiy merosi bo‘lgan beqiyos asarlarni, xalqimizning azaliy qadriyatlari, islom tafakkuri bilan ziynatlangan ma’naviyatini chuqur o‘rganish, o‘rgatish orqali ma’rifatli jamiyat qurish – bugungi kun ma’naviyat, madaniyat, ta’lim-tarbiya sohalarining ustivor vazifasiga aylanib ulgurganligini chuqur anglash lozim. Buni samarali amalga oshirish uchun esa, ma’naviy-ma’rifiy sohada jiddiy islohotlarni amalga oshirish zarur. Eskicha qolipdagi ishlar, “an’anaviy yondashuvlar”, tadbirvozliklar bilan sohani o‘zgartirib bo‘lmaydi, ma’naviy tarbiyada samaralar najalarga erishish imkonsiz. Bu o‘rinda, yangicha islohotlar orqali ma’naviy ishlar samaradorligi va ta’sirchanligiga sabab bo‘ladigan targ‘ibot va tarbiya uzviy mexanizmlarini, chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish zarur.

Zamon tez o‘zgarmoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarini qo‘lga kiritgan yosh avlod jahon xalqlari mafkuralari, qadriyatlarimizga yot bo‘lgan g‘oyalar, “ommaviy madaniyat” illatlari, ma’nisiz trendlar ta’siriga tushib qolmasligi uchun ularning ongini, dunyoqarashini, eng avvalo, milliy ma’naviy-ma’rifiy bilimlar bilan egallagan bo‘lishimiz muhim.

Mintaqaviy va global tahdidlar hamon saqlanib qolayotgan bugungi tahlikali vaziyatda, ularning g‘oyaviy-mafkuraviy ta’sirini to‘sib qoluvchi moddiy chegaralarni qurish imkonsiz. Bu illatga qarshi faqatgina ma’naviyat, ma’rifat va zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirish orqali samarali kurashish mumkin. Aholimiz, xususan, yoshlarimiz ongini, dunyoqarashini diniy fundamentalizm, radikalizm, ekstremizm kabi yot illatlardan saqlashda, sog‘lom ma’naviy dunyoqarashini boyitishda, mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohani yanada kuchaytirish ahamiyatli. “*Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlar-*

*da foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz*", deya ta'kidlagan edi murojaatnomada davlatimiz rahbari. Buni amalga oshirish sharafli, shu bilan birgalikda, juda ham muhim va murakkab vazifadir.

Zamonaviy dunyo taraqqiyotida jahon ahlining jamiyat rivojiga qarashlari, yondashuvi mutlaq yangicha munosabatlarda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda ma'naviy soha shunday qudratga aylandiki, yirik iqtisodiy taraqqiy topgan jamiyatlar ham ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratmasa, tez fursatda inqirozga uchrashi mumkinligini tarixiy va zamonaviy siyosiy-ijtimoiy jarayonlar ko'rsatib turibdi.

Kelajak avlod, yetishib kelayotgan yoshlarni tarbiyalash, ularga Vatan, oila, tinchlik, osoyishtalik buyuk ne'mat ekanligini anglatish, ushbu ne'matlarni qadrlash, himoya qilish tuyg'ularini singdirish – bugungi kun jamiyatimiz oldida turgan ulkan vazifalardan. Bu o'rinda, ma'naviy-ma'rifiy soha, ta'lim-tarbiya jarayonlarini isloh qilish, avvalo, islohotlarni o'zimizdan boshlashimiz zarur.

Ta'lim-tarbiya barqaror taraqqiyot yo'lini tanlagan davlatning poydevori mustahkamligini ta'minlaydigan omillardan. Shunday ekan, ana shu poydevorni asrlar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, ulug' ajdodlarimizning o'gitlari, bebaho ilmiy merosini yanada chuqurroq o'rganish, o'rgatish, teran anglatish bilan mustahkamlashimiz kerak. Movarounnahrdan yetishib chiqqan buyuk allomalar va mutafakkirlar ma'naviyat va ma'rifatga shunday ulkan hissa qo'shganlarki, asrlar o'tsada, ularning bebaho ilmiy merosi bugungi kunga qadar ham xalqlarimiz ma'anaviy dunyosini boyitishda, yosh avlodni tarbiyalashda dasturul-amal bo'lib xizmat qilishga qodir.

## YOSHLARNI VATANPARVALIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY G'OYANING AHAMIYATI

**Mansur MUSAYEV,**
*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlar doktori (DSc)*

***Annotatsiya.*** *mazkur maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning ahamiyati haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada insonni o'z xalqiga bo'lgan sadoqati va fidoiyligi ona Vatanini himoya qilishi, uni cheksiz sevishi uning haqiqiy vatanparvarligini anglatishi borasidagi fikrlar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Vatan, vatanparvarlik, tarbiya, jamiyat, mafkura, sadoqat, odob-axloq, fazilat, birdamlik, maqsad, manfaat.*

Tarixdan ma’lumki, har qanday insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoiyligi ona Vatanini himoya qilishi, uni cheksiz sevishi uning haqiqiy vatanparvarligini anglatadi. Insonni kindik qoni to‘kilgan joy uning uchun hamma narsadan ulug‘ va muqaddasdir. Vatanni sevish, uning uchun jonni fido qilish har bir insondan buyuk ma’naviy jasoratini talab etadi. Vatan bu – Alloh inoyati bilan har bir millat, elatga berilgan bebaho ne’matdir. O‘z xalqini va millatini urf-odati, an’ana hamda qadriyatlarini e’zozlashi, o‘z yurtini himoya qilishi, moddiy va ma’naviy meroslariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi vatnaparvarlikning oliy belgisi hisoblanadi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: **“Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi**”. Zero, vatan – muqaddas qadriyat sifatida doimo ulug‘lanadi.

Vatanparvarlik – vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash va uni ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy fazilatdir. O‘tmishdan ma’lumki, tarbiya insonda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tarbiya insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ijobiy fazilatlarini namoyon etuvchi beqiyos kuchdir. Aynan, tarbiya tufayli insonda go‘zal odob-axloq fazilatlari shakllanib, insonni jamiyatdagi mavqeyini belgilab beradi. Eng qadimgi va abadiy qadriyat sifatida tarbiya insonning qalb bezagi hisoblanadi. Shu bois, jamiyat hayotda tarbiyaga bo‘lgan munosabat nihoyatda mas’uliyat bilan yondashishni taqoza etadi. Bu haqda taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning **“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”** degan chuqur ma’noli so‘zlarida teran haqiqat aks etganini anglaymiz. Zero, jamiyatda tarbiya masalasiga e’tiborsizlik bilan yondashuv aksariyat holatlarda insonni ma’naviy tubanliklar girdobiga giriftor etadi. Bu borada fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”,– degan fikrlarini doimo yodda tutishimiz kerak. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarimizning muhim ustuvor vazifalaridan biri har tomonla yetuk barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishni taqoza etmoqda. Aynan, bugungi kunda

mamlakatimizda ta’lim – tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqimizni mana shunday ezgu g‘oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglashimiz mumkin.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim” ekanligi shart qilib qo‘yildi. Zero, dunyo miqyosida globallashuvning shiddatli tus olishi xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga oid muammolarni yanada dolzarb ekanini ko‘rsatmoqda. Tobora avj olayotgan mafkuraviy xurujlar, yot g‘oyalar ta’sirida inson qalbi va ongini zabt etishga bo‘lgan harakat kengayib borayotganini kuzatish mumkin. Bu xaqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: **“Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g‘oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo‘lmoqda”** Binobarin, mafkuraviy xurujlar inson e’tiqodiga, turli din, millat va elatlar hamjihatligiga raxna solish orqali siyosiy ta’sir doirasiga olish vositasiga aylanib qolayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bugungi kunda dunyoda shiddatli kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-mafkuraviy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, dunyoning turli mintaqa va davlatlarida kechayotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko‘p hollarda ayrim buzg‘unchi kuchlar qo‘lida turli soxta, zararli g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganini ko‘rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo‘ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga zamin yaratmoqda. Natijada odamzod o‘z tarixiy, diniy, milliy-ma’naviy ildizlaridan uzilib qolmoqda. Mazkur holat jahondagi ko‘plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bugungi taxlikali zamonda mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olayotgani ogoh, sezgir va hushyor bo‘lishni talab etmoqda.

Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli yovuz illat mafkuraviy xurujlar o‘zga bir davlat fuqarolarining qalbi va ongini zabt etish, mafkurasidan voz kechtirish orqali “o‘zgacha” mafkuralarni ongiga singdirishda namoyon bo‘lmoqda. Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda ma’naviy

tubanlik ta’siri oqibatida madaniyatsizlik, e’tiqodsizlik kabi qator “ta’limotlar” oshkora, ba’zan esa yashirin tarzda targ‘ib etilmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o‘ziga xosligi va asriy qadriyatlarini zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda. Yovuzlik, jaholat insonni va jamiyatni tubanlikka boshlovchi, odamlarni g‘arazli niyat va qabih maqsad larga undovchi mafkuraviy xurujlar doimo insoniyat uchun xatarli hisoblangan. Insonparvarlik tamoyiliga zid bo‘lgan, jamiyatda parokandalikni vujudga keltirish orqali bir millatni boshqasidan ustun qo‘yadigan, oliy irq da’vosida boshqa xalqlarni qirg‘in qilishga chaqiradigan yovuz g‘oyalar mafkuraviy xurujlardir. Shu o‘rinda bu xurujlar muayyan kuchlar tomonidan kishilar qalbi va ongiga yot g‘oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e’tiqodi va tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishda jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o‘zgarishlarni teran anglagan holda g‘oyaviy-mafkuraviy, ruhiy ta’sir o‘tkazishda noan’anaviy va noxolis usullardan foydalanib, o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini “puxta” rejalar asosida amalga oshirishini anglash lozim.

Hozirgi paytda dunyo jamoatchiligi tomonidan keskin qoralanayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy xurujlar, xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm va jaholatparastlik, giyohvandlik, odam savdosi ham buzg‘unchi g‘oyalarga asoslangan. Buzg‘unchi g‘oyalar tasnifidan o‘rin olgan yovuz qarashlar turli tarqalish doirasi va ta’sir kuchiga ega. Ayniqsa, dunyoda bo‘layotgan turfa voqea-hodisalar, tez o‘zgarayotgan bugungi kunda hayot jarayoni ertaga qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan tasavvur qilish qiyin.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, “Dunyoda turli informatsiya oqimlari, axborot makonlari va manbalari, mafkura poligonlari ko‘p. Ulardan qaysisi to‘g‘ri, qaysisi ishonchli, qaysi biri g‘arazli ekanini farqlash oson bo‘lmayapti. Mana, internetni olaylik, unda nimalar yo‘q, hamma narsa bor. Yolg‘on ham, to‘g‘ri narsa ham. Hatto odamlarning kurakda turmaydigan rasvo fikrlarini ham internetdan topish mumkin. Biz bolalarimizni ana shunday aldov va yolg‘on ma’lumotlar girdobida, buzuq, zararli g‘oya va mafkuralar qarshisida yolg‘iz qoldirolmaymiz”. Mamlakatimizda mazkur harakatlarning oldini olish maqsadida Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida “ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish, ya’ni fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha samarali davlat siyosatini amalga oshirish, yot g‘oyalar ta’sirining oldini olish va ular ta’siriga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash orqali ularning muammolarini bartaraf etish, aholi, ayniqsa, yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat’iy va barqaror immunitetni shakllantirish” masalasi belgilab berilgan. Shu o‘rinda XXI asrga kelib mafkura poligonlarida o‘zida

yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarni namoyon etuvchi va prozelitizm harakatlari tobora kuchayayotganini aytib o‘tish joiz. Mazkur harakatlar dunyo miqyosida din va diniy konfessiyalar o‘rtasidagi keskinlik va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishga sabab bo‘layotir. Bu esa g‘oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo‘layotgan missionerlik va prozelitizm to‘g‘risida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Missionerlik va prozelitizm zamirida o‘zga mamlakatlarning davlat suverenitetiga, konstitutsiyaviy tuzumiga nisbatan amalga oshirilayotgan siyosiy bosim va tajovuzlarni g‘oyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yotadi. Boshqacha aytganda, bu ma’naviy-madaniy qadriyatlar hamda diniy vositalar orqali boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashuvdir. Shu o‘rinda, o‘zida yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ib etuvchi kosmopolitizm haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

**Kosmopolitizm –** (yunoncha, “kosmopolites”-“dunyo fuqarosi”) g‘oyasi asosida Vatan, millat degan tushunchalarni rad etish, **“inson dunyo fuqarosi”** shiori asosida vatanparvarlik, davlatlarni mustaqilligi, milliy madaniyat va ma’naviyat kabi qadriyatlarni inkor etib, faqat dunyo fuqaroligini targ‘ib qiluvchi dunyoqarash g‘oyasini singdirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu g‘oyaning asoschisi Aristotel bo‘lib, Iskandar yurishlari davrida ildiz otgan. Kosmopolitizm milliy an’ana va madaniyatdan, vatanparvarlikdan voz kechishga – bevatanlikka da’vat etadi. Ayniqsa, hozir kosmopolitizm (dunyo fuqarosi) g‘oyasi kuchayib bormoqda. Bunda milliy, diniy qadriyatlar, asriy an’analar tan olinmaydi. “Vatan”, “millat”, “milliy davlatchilik” tushunchalari eskirdi hammamiz bitta davlat, bitta hukumat tuzamiz, Vataningni qo‘y, dunyo fuqarosi bo‘l”, degan g‘oya kosmopolitizmga tegishlidir.

**“Nigilizm”** lotincha nihil – “hech nima” – o‘zining yoki yurtining kuch-qudratiga ishonmaslik, ularga past baho berish, ertangi kunga ishonchsizlik, umidsizlik ya’ni, muayyan millat vakillarining o‘z millati imkoniyatlarini kamsitib, pasaytirib baholashi, o‘z yurtining qadriga yetmaslik, mamlakatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar miqyosini anglay olmaslik holatlariga olib keladi. Nigilizm o‘zida tarixiy hamda madaniy qadriyatlarini inkor etish orqali umume’trof etilgan qadriyatlarga nisbatan salbiy va o‘ta tanqidiy munosabatlarda bo‘lish orqali axloqiy tubanliklarni namoyon etib, o‘zida bo‘zg‘unchilik g‘oyalarini aks ettiradi. Ayniqsa, milliy nigilizm illatlari ta’siriga tushgan insonlarning mafkuraviy immuniteti zaiflashishi oqibatida ularning qalbi va ongida o‘zgacha dunyoqarash shakllanadi. Natijada, nigilizm ta’siriga tushgan kishilar Vatan manfaatini himoya qila olmaydigan befarq, loqayd odamlar sifatida gavdalanayotganligi achinarli va tashvishli holdir. Shu bilan birga, ayrim yoshlarni xorijga borib ishlash kayfiyatining yuqori ekanligi, birdaniga boyib ketishga bo‘lgan xavasni ustunligi, yashash uchun pul topish oson bo‘lsa, o‘sha joyni “vatan” deya his etishi afsuski, vatanparvarlik tuyg‘usini parokanda bo‘layotganligi bu borada mafkuraviy tarbiya borasida jiddiy o‘ylashga majbur qiladi.

Tarixdan ma’lumki, har qanday xalq va millatning birlashuvida usha xalqning milliy g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Zero, milliy g‘oya nozik va jiddiy masala sifatida har qanday xalq va millat hayotining asosi hisoblanadi. Milliy g‘oya xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch sifatida mamlakatni istiqboldagi taraqqiyotini belgilab beradi.

Shu o‘rinda, dunyo tarixiga nazar solsak, har bir xalqni avvalo, ma’naviy birlashuvi, o‘zining milliy g‘oyasi bilan yuksalganligi hech kimga sir emas. Milliy g‘oya ezgulikka tayanar ekan, buzg‘unchi mafkuraga qarshi kurashishda aniq maqsadga qaratilgan targ‘ibot ishlarini tashkil etish masalasi dolzarblashib boraveradi.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida kurashda maktabning o‘rni alohida. Shu bois, bugun yurtimizda ta’lim-tarbiya sohasida keng ko‘lamli islohotlar kechayotgani bejiz emas. **“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”** g‘oyasi asosida O‘zbekiston taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘yib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi islohotlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda. Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning “**Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”,** degan so‘zlarida teran ma’no mujassam. Zero, har qanday davlat taraqqiyotining tamal toshi bevosita ta’lim masalalariga qaratilayotgan e’tibor bilan bog‘liq.

Tarixan bolaning ta’lim-tarbiyasiga juda nozik va jiddiy masala sifatida alohida e’tibor qaratilgan. Bu orqali yurtning kelajakdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyotiga zamin yaratilgan. Prezidentimiz Sharq donishmandlarining **“Eng katta boylik bu – aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu – bilimsizlikdir!”** degan hikmatli so‘zlarini keltirib, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanib borayotganini, nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerakligini, ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish holatlari kuzatilishini ta’kidlaganida yuz karra haq edi.

Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi tarbiyaga yangicha va tizimli yondashuvni taqoza etmoqda. Hozirgi paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob berish strategik vazifaga aylanmoqda. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Farzandlarimizning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qoladi”. Shu o‘rinda, mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashda mamlakatimizning milliy g‘oyasi har birimizga kelajakka ishonch,

madad, kuch-g‘ayrat, shijoat berib, xalqimiz va millatimizni ulug‘vor va bunyodkor ishlarga, Vatan, millat, mustaqillik himoyasi yo‘lida birlashishga safarbar etadi. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, **“Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”**. Binobarin, o‘z milliy g‘oyasiga ega davlat mustahkam, qudratli va obod bo‘lishini barcha yurtdoshlarimiz teran anglashi lozim. Xulosa qilib aytganda millatimiz ma’rifatparvari Mahmudxo‘ja Behbudiy qayd etganidek: “Yaxshi tarbiyalangan qalb va vijdon hech qachon egasini sharmanda qilib qo‘ymaydi”. Zero, bugungi davr va zamon shiddati har bir yurtdoshimizdan yoshlar tarbiyasi masalasida yanada jiddiy va teran fikrlashni taqoza etmoqda.

## TA’LIM TIZIMLARI O‘RTASIDAGI INTEGRATSIYALASHUV – YANGI O‘ZBEKISTONDAGI USTUVOR QADRIYAT SIFATIDA

**Baxtiyor RASULOV,**
*Andijon davlat pedagogika instituti rektori,*
*tarix fanlari doktori, professor*

***Annotatsiya:*** *jahonda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ilm-fan sohasida inson kapitali tushunchasining falsafiy-nazariy masalalari keng yoritila boshlandi. Shuningdek, inson kapitali global axborot makonida eng afzal va eng qimmat resursga aylandi. Inson kapitalini yuksaltirish ta’lim tizimlari, xususan, ular o‘rtasidagi integratsiyalashuv orqali nisbatan osonroq kechishi bugun o‘z tasdig‘ini topib ulgurdi. Mazkur ilmiy maqolada shu haqda to‘xtalib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ilm-fan, ta’lim tizimi, ilg‘or texnologiyalar, inson kapitali, ta’lim kapitali, qabul parametrlari.*

**Asosiy qism:** dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bugunga qadar inson kapitalida ustuvorlik faqat yuksak texnologiyalarga egalik qilishda ekani e’tirof etib kelingan. Masalaga bunday yondashuv hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, biroq insoniyat taraqqiyotini aks ettiruvchi kashfiyotlar doimiy yangilanishga – o‘zgarishga yuz tutmoqda. Binobarin, ilg‘or taraqqiyot pog‘onasidan joy olgan jamiyatlar boshqa raqobatchilaridan oldinda bo‘lishlari uchun bu texnologiyalarni ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan yuksak qobiliyatli inson kapitali zarur ekanligi ayon bo‘lmoqda.

Inson kapitali nazariyasi hozirgi kunda jahonning iqtisodiy taraqqiyoti va jamiyat farovonligini ta’minlovchi asosiy intellektual yo‘nalishlardan

biridir. Bugungi kunda inson kapitaliga yurtimizda o‘ziga xos yondashilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 29-maydagi “Asosiy maqsad – mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish” mavzusida o‘tkazgan yig‘ilishida bildirgan fikrlari; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[1]gi Farmonida “Mamalakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil ***inson kapitalini rivojlantirish*** – Strategiyaning bosh maqsadi” [2] ekanini ta’kidlab, ushbu masalani muhim vazifa sifatida belgilab berilganligi; 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”[3] ning ***“Adolatli ijtiomiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish***”[4] deb nomlangan 4 yo‘nalishidan o‘rin olgan 34 ta maqsad O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish nechog‘lik muhimligini ko‘rsatadi.

2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847 sonli, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli farmonlarida ham mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim tizmi oldida turgan vazifalar belgilab berilgan.

Inson kapitalini rivojlantirish va taraqqiy ettirish yo‘llarini tadqiq etarkanmiz, bu jarayondagi ta’lim va tarbiyaning o‘rni va ahamiyatiga to‘xtalmaslik mumkin emas. Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida e’tibor qaratilgan. Buni O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: “XXI asr – intellektual tafakkur asrida inson kapitaliga investitsiya yo‘naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlargina yuksak taraqqiyotga erishishi mumkin. Faqat shunday jamiyatgina zamonaviy tahdid va muammolarni yengib o‘tishga qodir bo‘ladi”[5].

Dunyodagi mamlakatlar va millatlar uchun ta’limni butun choralar bilan rivojlantirish g‘oyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturidan (UNDP – BMT TD) joy olgan. Bashariyatning eng 36 nufuzli tashkiloti bugungi kunda ta’limni inson zotining yashab qolishi va taraqqiy etishi uchun suv, havo va oziq-ovqat kabi eng hayotiy va zaruriy komponent sifatida qabul qilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturiga ham ta’lim bilan bog‘liq qoidalar kiritilgan bo‘lib, unga ko‘ra, iste’dod, salohiyat va qobiliyatni yuzaga chiqarish zarur bo‘lgan aqliy-intellektual, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ekologik, siyosiy, axloqiy, huquqiy omillarning kalit nuqtalaridan biri sifatida ta’lim e’tirof etilgandir. Bu hol ikki faktor bilan izohlanishi mumkin:

1. Ilmiy darajali pedagogik-xodim (dotsent yoki professor)larning mehnat staji ortgani sayin bilim va tajribasi ham orta boradi, katta

yoshdagi dotsent va professorlar ta'limdagi an'analarni saqlab va rivojlantirib kelgan avloddir. Shu sababli ularning ta'lim jarayonidagi ishtiroki muhim. Negaki, ziyoli, madaniyatli inson qiyofasi g'oyalarga emas, jamiyat tomonidan qabul qilingan, ta'lim tizimida o'rnatilgan qoidalar asosida vujudga keladi.

2. O'qimishli inson qanchalik uzoq vaqt ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lsa, uni tarbiyalab yetishtirish uchun oila va jamiyat tarafidan sarflangan mablag'lar miqdorini jamiyatga "qaytarish" imkoni shunchalik ko'payadi. Chunki, OTMlarda ishlovchi bir dotsent yoki professorni o'qitish va tarbiyalab yetishtirish uchun oddiy o'qituvchi, injener yoki vrachni yetishtirish uchun sarflangan mablag'dan bir necha marotaba ko'p sarflangani ma'lum. Lekin, kapitalistik tuzim sarflangan kapitalni foydasi bilan qaytarib olishni hamma vaqt uddasidan chiqib kelgan.

Ta'lim olish, huddiki inson uchun o'z turmush farovonligi uchun mablag' sarflash kabidir. Chunki ta'lim uning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini va qiymatini oshiradi, uning ish o'rnini doimiy saqlanib qolishiga ko'maklashadi.

Shuningdek, ta'limli inson hayotdagi muammolarni tez, ortiqcha qiyinchiliklarsiz hal qiladi, o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyoji va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga mos turmush o'rtoq tanlaydi. Bu esa baxtli oila va sog'lom farzandlar demakdir. Ta'limli insonlarning atrofidagi kishilar, yor-birodarlari ham ayni guruhdagi kishilar bo'lgani uchun ular bilan do'stona va sog'lom munosabatlar mavjud bo'ladi. Ushbu faktorlarning barchasi ta'lim olgan insonning boshqalarga ko'ra yanada baxtliroq yashashini ko'rsatadi [6]. Shu sababli ta'lim sohasida ishlayotgan kadrlar ham har doim o'zining bilim va ko'nikmalarini boyitib boruvchi, shu bilan birga fandagi eng yangi g'oyalar, tamoyillar va konsepsiyalarni o'quvchilar va talabalar armiyasiga "transfer" qiladigan toifadir. Shu bois ular mamlakat intellektual salohiyatining eng faol qismi, deyish mumkin.

Inson bilimi va malakasini, tajribasini oshirish haqida fikr yuritilganda, xorijiy davlatlarga qilanadigan ilmiy stajirovkalarning ahamiyatini unutmaslik joiz. Bu hayotiy haqiqatni yaxshi anglagan holda, ta'lim sohasidagi ilmiy stajirovkalarga yuborish Hukumatimiz uchun o'ziga xos an'anaga aylanib ulgurdi. Xususan, 2019–2020-yillarda 231 nafar, 2021-yilda 101 nafar yosh olimlar Rossiya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi jahonning 20 dan ortiq davlatlariga stajirovkalarga yuborildi.

Dunyoning AQSh va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarida buni anglab yetganlariga ancha bo'lgan. Shu sababli bu mamlakatlarda ta'lim tizimi uchun ajratilgan mablag'lar yildan-yilga ortib bormoqda. Natijada esa bu mamlakatlarda ta'lim saviyasi va standartlari yildan-yilga oshib bormoqda. Xususan, XX asrning so'nggi choragida AQShda ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar yalpi milliy mahsulot (YAMM) hajmiga nisbatan

olganda ikki baravar oshib, ta'limga ajratilgan mablag'lar xatto mudofaa uchun ajratilgan mablag'lar hajmidan ortib ketdi. Bugungi kunda bu mamlakatda 17 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 55 foizi oliy ma'lumot olmoqdalar. Boshqa bir fan, innovatsiya va texnologiya mamlakati Yaponiyada esa oxirgi 25 yilda ta'limga ajratilgan moliyaviy mablag'larning (har yili milliy byudjetning 8-10 foizi atrofida) natijasi sifatida 17 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 60 foizi oliy ma'lumot olmoqda, qolgan yosh fuqarolar ham kasb-hunar kolleji darajasidagi ta'limdan bahramanddirlar [7]. Ushbu omil o'tgan asrning oxiri hamda asrimiz boshlarida ko'pgina davlatlarning rivojlanishiga xizmat qilgan.

Shu o'rinda mamlakatimizning oliy o'quv yurtlariga qabul qilinayotgan talabalar sonining so'nggi o'n yillik statistikasiga to'xtalib o'tmoqchimiz.

**1-jadval**

| Yillar | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qabul qilingan talabalar soni | 58204 | 56969 | 57087 | 59324 | 58301 | 57705 | 80822 | 108745 | 128730 | 165021 |

Jadvalda oliy o'quv yurtlariga qabul parametrlari yildan-yilga ortib borayotgani, 2011-yilga nisbatan 2020-yil uchun ajratilgan kvotalar qariyb 3 barobar ko'payganni ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim kapitali deganda boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, bakalavriat va magistratura, tayanch doktorantura, doktorantura, stajyor-tadqiqotchilik hamda kasbiy ta'lim – kadrlarni qayta tayyorlab, malakasini oshirish jarayonlari insonlarga umr bo'yi oila, jamiyat, davlat, homiylar tomonidan olib kiriladigan investitsiya tushuniladi. Mazkur investitsiya kishilarda inson kapitali shakllanishi uchun ko'p vaqt mobaynida tizimli asosda sarflanadi. Negaki, ta'lim jarayoni ta'limning turiga muvofiq bir necha yil (oy, hafta) davom etadi. Ta'lim konkret bir shaxs uchun ma'lum bir hajmdagi xarajatlar (shartnoma to'lovlari, ta'lim olish davrida yashash uchun va o'qish uchun kerakli ashyolar – turar-joy, elektronik jihozlar, kitob-daftar, idora ashyolari va hakozolar uchun sarflamalar)ni ham talab qiladi. Ikkinchi mutaxassislik, sirtqi va kechki ta'lim, masofaviy, onlayn, kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kabi ta'lim turlarida o'z bilimini oshirayotgan shaxsning ba'zan o'z imkoniyatlari darajasida mehnat qila olmasligi mumkin, shuningdek, uning mehnati samaradorligi pasayishi, binobarin, oladigan daromadi kamayishi mumkin. Bu esa bilvosita iqtisodiy zararlar ham ta'lim uchun ketgan xarajatlar jumlasiga kirishini anglatadi.

Mamlakatimizdagi ta'lim tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uni jahonning rivojlangan davlatlari darajasida ekanini ko'rish mumkin. Sababi,

inson kapitalining rivojlanishida uzluksiz ta'lim tizimining o'rni beqiyos bo'lib, u quyida bosqichlardan tashkil topgan:

- maktabgacha ta'lim muassasalari (7753 ta);
- umumiy o'rta ta'lim maktablari (10181 ta);
- o'rta maxsus ta'lim muassasalari – kasb-hunar maktablari texnikumlar va akademik litseylar (818 ta);
- oliy ta'lim (bakalavriatura va magistratura) (127 ta);
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim (doktorantura, tayanch doktorantura, maqsadli doktorantura, stajyor-tadqiqotchilik, mustaqil izlanuvchilar instituti);
- kadrlarning malakasini oshirish, va ularni qayta tayyorlash.

Shu o'rinda yurtimizda ta'lim bosqichlarida aholining ulushini tahlilga tortish maqsadga muvofiq [8] (qarang: 2-jadval).

**2-jadval.**

**O'zbekistonda ta'lim bosqichlari bo'yicha aholining taqsimlanishi:**

| № | Ta'lim bosqichlari | Aholi soni (2020-2021 o'quv yili bo'yicha) |
|---|---|---|
| 1 | Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari | 1 196 421 |
| 2 | Umumta'lim maktablari o'quvchilari | 6 287 885 |
| 3 | Kasb-hunar kollejlari | 56 959 |
| 4 | Akademik litsey talabalari soni | 40 909 |
| 5 | Oliy ta'lim muassasalarining talabalari (bakalavr) | 571 512 |
| 6 | Oliy ta'lim muassasalarining talabalari (magistratura) | 9 897 |
| 7 | Oliy ta'limdan keyingi ta'lim (tayanch doktorantura) | 2 674 |
| | **Jami** | 8 166 317 |
| | **Umumiy aholi sonining** | 23,6 % |

Mazkur jadvalda mamlakatimizning jami aholi soniga nisbatan ta'lim bosqichlariga qamrab olinganlar ulushi qariyb jami aholining 1/4 qismi yoki 23,6 % ni tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Buning ahamiyatli jihati shundaki, inson qanchalik ko'p o'qisa, malakasini oshirsa, undagi kapitalning qiymati ham shunchalik ortib boradi.

Inson kapitalini rivojlantirish uchun ta'lim tizimining quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim:

- professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish;
- OTM xodimlari mehnatini munatazam rag'batlantirib borish;
- ehtiyojlarga mos ravishda bo'sh ish joylari ochish;
- foizsiz kreditlar turlarini ko'paytirish, subsidiya kabi ijtimoiy va moliyaviy ko'maklarning hajmini muntazam oshirib borish.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimi o‘rtasidagi integratsiyalashuv yangi ustuvor qadriyatlardan biriga aylanishi barobarida, yurtimizda inson kapitalining yuksalishiga xizmat qilmoqda.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-sonli “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. http://www.lex.uz.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli farmoni. http:www//lex.uz.*

*3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. http://www.lex.uz.*

*4. O‘sha manba.*

*5. Karimov I.A. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning yakuniy hujjati – rezolyutsiyasi // “Xalq so‘zi”, 2012-yil, 22-fevral. https://xs.uz/uz*

*6. Майте Риус (Майте Риус). Образование = здоровье + долголетие (Эдусасиóн = салуд + лонгевидад)//Ла Вангуардиа > http://inosmi.ru/world/20120923/199667762.html#ixzz3M3AзVmvk.*

*7. Веряскина В. Динамика развития человеческого потенциала и приоритеты высшего образования // Высшее образование в России. – № 5, 2005. – С. 30-37.; Япония – Финансирование образования – Государственные расходы на образование (% от общих государственных расходов) > http://knoema.ru/atlas/ (January, 2015).*

*8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy statistik ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection.; O‘zbekiston respublikasining ilmiy-texnikaviy salohiyati va innovatsiyalar rivojlanishining ko‘rsatkichlari”. – Toshkent, 2019. (2019-yil 1-yanvar holatiga).*

ZJV5401

# TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI TARBIYALASH: TA’LIM TIZIMIDA QADRIYATLARNI O‘ZGARTIRISH

**Baxti OCHILOVA,**
*Falsafa fanlari doktori, professor.*
*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada ta’lim tizimida, xususan, qadriyatlarni o‘zgartirish kontekstida tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning hal qiluvchi roli, doimiy o‘zgaruvchan dunyoda o‘z nuqtayi nazarlarini tahlil qila oladigan, savol bera oladigan va moslashtira oladigan ma’rifatli shaxslarni tarbiyalash masalalari tahlil qilinadi*

***Kalit so‘zlar:*** *tanqidiy fikrlash, tahlil, baholash, muloqot va munozara, muammolarni hal qilish, mulohaza yuritish, dogma va sterotiplar, axloqiy dillemma, qadriyat.*

O‘zbekistonning yangi o‘zgarishlar va taraqqiyoti sharoitida tanqidiy fikrlash zarurati hech qachon bu qadar muhim bo‘lmagan. Mamlakatda muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir paytda, fuqarolarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy dunyo murakkabliklarida harakat qilish, farovon va ma’rifatli jamiyat rivojiga hissa qo‘shish uchun muhim ahamiyatga ega. Muhim ahamiyat kasb etishining bir necha asosiy sabablarini ko‘rsatish mumkin.

***Birinchidan,*** O‘zbekistonning modernizatsiya sari yo‘li plyuralizmni qabul qilishni va xilma-xillikni nishonlashni o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash fuqarolarga turli nuqtai nazarlarni baholashga, noto‘g‘ri qarashlarga qarshi turishga va empatiyani rivojlantirishga imkon beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali O‘zbekiston turli madaniyatlar, e’tiqodlar va g‘oyalarni hurmat qiladigan va qadrlaydigan inklyuziv jamiyatni yaratadi. ***Ikkinchidan,*** O‘zbekistonda davom etayotgan demokratlashtirish sa’y-harakatlari bilan tanqidiy fikrlash faol fuqarolik uchun juda muhim. Bu shaxslarga siyosiy tizimlarni tanqidiy baholash, ongli qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va rahbarlarni javobgarlikka tortish imkonini beradi. Tanqidiy fikrlashni targ‘ib qilish orqali O‘zbekistonda ishtirok etish, bahslashish va fikr almashishni qadrlaydigan demokratik madaniyatni tarbiyalaydi. ***Uchinchidan,*** dunyoning o‘zaro bog‘liqligi va texnologiyaning jadal rivojlanishi fuqarolardan ma’lumot iste’molchilari bo‘lishni talab qiladi. Tanqidiy fikrlash odamlarni ma’lumotlarning ishonchliligi va dolzarbligini baholash, noto‘g‘ri fikrlarni aniqlash va haqiqatni fantastikadan ajratish qobiliyati bilan qurollantiradi. Yangi O‘zbekistonda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish fuqarolarning raqamli asrda harakat qilish va ongli tanlov qilish uchun tayyorlanishini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga



ZJV5401

ega. ***To‘rtinchidan,*** O‘zbekistonning innovatsion va tadbirkorlik markaziga aylanish nuqtai nazari tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni hal qilish va imkoniyatlarni aniqlay oladigan shaxslarga tayanadi. Tanqidiy fikrlash ijodkorlikni, mustaqil fikrlashni va hisoblangan tavakkalchilikni qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlashni targ‘ib qilish orqali O‘zbekiston o‘z fuqarolarining tadbirkorlik salohiyatini yuzaga chiqarishi, iqtisodiy o‘sish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish imkoniga egsha bo‘ladi. ***Beshinchidan,*** O‘zbekiston taraqqiyoti sari jamiyat taraqqiyoti uchun axloqiy va ongli qarorlar qabul qila oladigan uzoqni ko‘ra oladigan yetakchilarga muhtoj. Tanqidiy fikrlash axloqiy etakchilik uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi, shu jumladan murakkab muammolarni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqish va asosli xulosalar chiqarish. Ta’lim va yetakchilikni rivojlantirishda tanqidiy fikrlashga urg‘u berish orqali O‘zbekiston millat va fuqarolar manfaatlarini ustuvor deb hisoblaydigan mas’uliyatli rahbarlar avlodini tarbiyalashi mumkin. ***Oltinchidan,*** O‘zbekiston bilimga asoslangan jamiyatga aylanish uchun bilimlarni rivojlantirish va tarqatishni birinchi o‘ringa qo‘yishi kerak. Tanqidiy fikrlash odamlarni mavjud bilimlarga shubha qilish, yangi g‘oyalarni o‘rganish, tadqiqot va innovatsiyalar bilan shug‘ullanishga undaydi. Tanqidiy fikrlashni targ‘ib qilish orqali O‘zbekiston intellektual qiziqish, umrbod ta’lim va bilim yaratish madaniyatini rivojlantirishi mumkin, bu esa mamlakatni akademik yuksaklikka va ilm-fan yutuqlariga undashi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash bu – axborotni obyektiv, mustaqil va mantiqiy tahlil qilish va baholashni o‘z ichiga olgan kognitiv jarayondir. Bu o‘quvchini taxminlarni tekshirishga, turli fikrlarni tekshirishga va dalillarga asoslangan haqiqatni izlashga undaydi. Tanqidiy fikrlashning asosiy afzalliklaridan biri uning mustahkam dogmalarga shubha qilish qobiliyatidir. Dogmalar bu – ma’lum bir aqida, mafkura, madaniyat yoki jamiyatda muqaddas deb hisoblangan qat’iy e’tiqod yoki tamoyillar hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga ushbu dogmalarning haqiqiyligiga shubha qilish, ularning asosiy taxminlarini tekshirish va ularning jamiyatga ta’sirini baholash orqali e’tiroz bildirish imkonini beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali o‘quvchilar dogmalar qachon eskirgan, kamsituvchi yoki zararli ekanligini bilib olish imkoniyatini beradi, bu esa taraqqiyot imkoniyatini osonlashtiradi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda bir qator kognitiv jarayonlar va ko‘nikmalarga e’tibor qaratish zarur: tahlil – murakkab g‘oyalar, tushunchalar yoki muammolarni o‘rgatishda ularni tarkibiy qismlariga bo‘lish qobiliyatini shakllantirish, bu o‘quvchilarga asosiy tuzilma va munosabatlarni tushunish imkonini beradi; baholash – axborot, dalillar yoki mulohazalarning ishonchliligi, dolzarbligi va sifatini baholashga yo‘naltirish, bu o‘quv-

chilarga asosli mulohazalar va qarorlar qabul qilish imkonini beradi; interpretatsiya – tushunchalarning muhim belgilarini aniqlash orqali ma'lumotni asl ma'nosini tushunishga yo'naltirish, bu o'quvchilarga nomuhim tushunchalarni ajratish va xulosalar chiqarish imkonini beradi; xulosa – dalillar va ma'lumotlarga asoslanib xulosa chiqarish ko'nikmasini rivojlantirish, bu o'quvchida mantiqiy fikrlash va deduksiyani rivojlantiradi; muammolarni hal qilish – murakkab muammolarni kichikroq qismlarga ajratish va har bir qismni tahlil qilish, ularning bir nechta mumkin bo'lgan yechimlarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilishdan oldin har bir variantning ijobiy va salbiy tomonlarini baholashga o'rgatish, bu o'quvchilarni innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga undaydi; mulohaza yuritish amaliyoti –o'z fikrlari, taxminlari va noto'g'ri fikrlari haqida muntazam ravishda fikr yuritishiga imkon yaratish kerak, bu o'quvchiga o'z fikrlash jarayoni haqida mulohaza yuritish, yaxshilashi kerak bo'lgan jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

"O'zgaruvchan qadriyatlar" atamasi ta'lim tizimini asoslaydigan e'tiqodlar, tamoyillar va g'oyalardagi o'zgarishlarni anglatadi. Jamiyatning dinamik tabiati, odamlar va jamoalarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va umidlari ta'limga bog'liq bo'lgan qadriyatlarga ta'sir qiladi. Jamiyat rivojlanib borar ekan, ta'limning maqsadi o'zi xizmat qilayotgan jamiyatning rivojlanib borayotgan qadriyatlarini aks ettiruvchi hozirgi zamon talab va intilishlariga javob beradigan tarzda qayta ko'rib chiqiladi va shakllantiriladi. Shuningdek, texnologik taraqqiyot, ta'lim sohasidagi tadqiqotlar kabi omillar ham ta'lim qadriyatlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Onlayn o'quv platformalari va ta'lim ilovalari texnologiyaga asoslangan va interfaol yondashuvlarga o'zgartirishni taqozo qilmoqda yoki mehnat bozori va iqtisodiy manzaradagi o'zgarishlar ta'lim qadriyatlariga ta'sir qilmoqda. Masalan, yangi tarmoqlar paydo bo'lishi va ko'nikmalarga bo'lgan talablarning rivojlanishi bilan muayyan fanlar yoki ta'lim sohalariga qo'yiladigan qadriyat o'zgarishi mumkin. Ta'lim tegishli ko'nikma va malakalarni ta'kidlab, o'zgaruvchan ishchi kuchining talablariga moslashadi. Ta'lim sohasidagi tadqiqotlar ma'lum o'qitish usullari yoki yondashuvlarining samaradorligini ko'rsatib bermoqda, bu esa qadriyatlarni dalillarga asoslangan amaliyotga o'zgartirishga yordam beradi.

Demak, ta'lim tizimidagi qadriyalar muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilishi kerak. Ushbu ko'nikmalar tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammolarni hal qilish, hamkorlik, muloqot, raqamli savodxonlik, axborot savodxonligi, moslashuvchanlik va madaniy kompetensiyani o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar odamlarning doimiy rivojlanayotgan global landshaftda harakat qilishlari va hayotning turli sohalarida samarali ishtirok etishlari uchun juda muhim hisoblanadi. Xususan, XXI asr uzluksiz o'rganish va moslashuvchanlikka ustunlik bermoqda. Bunda o'rganishga bo'lgan muhabbatni uyg'otish, qiziqishni

rag‘batlantirish va shaxsni mustaqil ravishda o‘rganish qobiliyati bilan qurollantirish, ko‘nikma va bilimlarni vaqt o‘tishi bilan rivojlantirish mumkinligiga ishonchni uyg‘otish va shaxsni umrbod ta’lim imkoniyatlaridan foydalanishga tayyorlashga asoslanmoqda.

XXI asrda qimmatli deb hisoblangan ba’zi muhim ko‘nikmalarni sanab ko‘rsatish mumkin:

- tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish
- ijodkorlik va innovatsiya
- muloqot va hamkorlik
- raqamli savodxonlik va texnologik kompetensiya
- axborot savodxonligi
- moslashuvchanlik va chidamlilik
- global va madaniy xabardorlik
- hayot davomida o‘rganish
- hissiy intellekt
- yetakchilik va jamoaviy ish

Shu nuqtayi nazardan ta’lim tizimidagi qadriyatlarni o‘zgartirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi va bir qancha asosiy muammolar va stereotiplarga duch keladi:

O‘zgarishlarga qarshilik – o‘qituvchilar, ma’murlar, ota-onalar va hatto o‘quvchilar noma’lum qo‘rquv, belgilangan me’yorlarga sezilgan tahdidlar yoki yangi yondashuvlarning samaradorligi haqidagi xavotirlar tufayli ta’lim qadriyatlari va amaliyotlarini o‘zgartirishga qarshi turishadi;

An’anaviy ta’limga oid stereotiplar – esda saqlash, standartlashtirilgan test va barchaga mos yondashuvga qaratilgan an’anaviy ta’lim o‘quvchilarni tarbiyalashning yagona to‘g‘ri yoki samarali usuli degan stereotip hamon mavjudligi. Ushbu stereotip tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va shaxsiylashtirilgan o‘rganishni ta’kidlaydigan qadriyatlarni qabul qilishga to‘sqinlik qiladi;

Ijtimoiy talablarga mos kelmaslik – ta’lim tizimlari kengroq ijtimoiy talablarga mos kelmaydigan qadriyatlarni o‘zgartirishga urinishda qiyinchiliklarga duch keladi. Misol uchun, agar tizim raqobat va yuqori darajadagi sinovlarga urg‘u bersa, lekin jamiyat hamkorlik va yaxlit rivojlanishni rag‘batlantirishga intilsa, mazmunli hzgarishlarga to‘sqinlik qiladigan uzilish bo‘ladi;

Resurs cheklovlari – ta’limda o‘zgarishlarini amalga oshirish ko‘pincha o‘qituvchilar malakasini oshirish, yangilangan o‘quv dasturlari materiallari yoki infratuzilmani yaxshilash kabi qo‘shimcha resurslarni talab qiladi. Cheklangan mablag‘lar va resurs cheklovlari qadriyatlar va amaliyotlarda o‘zgarishlarni amalga oshirishda jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi, bu esa sekinroq rivojlanishga yoki to‘liq amalga oshirilmasligiga olib keladi;

O‘quvchilarning qobiliyatlari haqidagi stereotiplar – ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, tarbiya, qobiliyat, konservativ urf-odatlarga moyillik yoki jinsi kabi

omillarga asoslangan o‘quvchilarning imkoniyatlari haqidagi stereotiplar ta’lim qadriyatlarini o‘zgartirishga to‘sqinlik qiladi. Misol uchun, “Daraxt bir joyda ko‘karadi”, “Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o‘pka yaxshi” kabi yondashuvlar yangi maqsadlarni shubha bilan qarshi olishga olib keladi.

Ta’lim tizimida o‘zgaruvchan ta’lim tajribasini qaror topishishiga oid bir qancha fikr va mulohazalar taklif qilinadi. Xususan:

1. So‘roqqa asoslangan ta’limga e’tibor qaratish. Ta’limda savol berish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, faol ishtirokni rag‘batlantirish va chuqurroq tushunishni targ‘ib qilish uchun qimmatli amaliyotdir. Ta’lim olishda “Nimaga kerak?”, “Nimaga erishaman?”, “Nima qimmatli?”, “Qanday usul bilan?” savollar berish amaliyoti o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini anglash, o‘rta maktabda fanlar va mutaxassisliklarni tanlash erkinligini ta’minlaydi;

2. Fenomenga asoslangan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish. Fenomenga asoslangan o‘quv dasturi bu – o‘quvchilar uchun mazmunli va dolzarb bo‘lgan real hodisalar yoki mavzular atrofida o‘rganishni tashkil etishga qaratilgan ta’lim yondashuvidir. Fenomenlarga asoslangan o‘quv dasturi fanlarni alohida o‘rganish o‘rniga bir nechta fanlarni birlashtiradi va fanlararo o‘rganishni rag‘batlantiradi. Fenomenlarga asoslangan o‘quv dasturi o‘quvchilar kuzatishi, tekshirishi va o‘rganishi mumkin bo‘lgan haqiqiy dunyo hodisalari yoki mavzulari atrofida aylanadi. Bu hodisalar mahalliy yoki global xarakterga ega bo‘lib, turli mavzular va qiziqish sohalarini qamrab olishi mumkin. O‘quv dasturi so‘rov va faol izlanishga urg‘u beradi. O‘quvchilar hodisani chuqur tushunish uchun savollar berish, tekshirish va amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishlari tavsiya etiladi;

3. O‘quvchilarga yechim topish uchun tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini talab qiladigan real muammolar yoki amaliy misollar taqdim etadigan o‘quv kurslari va klublarni tashkil etish. Misol uchun, “Ijodiy muammolarni hal qilish usullarini o‘rgatadigan fikrlash bo‘yicha kurslar”, “Analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradigan mantiq va fikrlash kurslari”, “Manbalarni tanqidiy baholash, faktlarni tekshirish va noto‘g‘ri ma’lumotlarning oldini olishga qaratilgan axborot savodxonligi kurslari”, “Muloqot va ishontirish mahoratini oshiradigan munozara klublari” va h.;

4. Ko‘nikmalar samarali rivojlanishini ta’minlash uchun dasturlar, treninglar va xizmatlar ko‘rsatish mexanizmlarini amalga oshirish (dasturlarni tanlashda individual ehtiyojlar, maqsadlar va qiziqishlarni hisobga olish muhimdir). Misol uchun, “Moslashuvchanlikni rivojlantirish dasturi”, “Notanish muhit va vaziyatlarga moslashish dasturi”, “O‘z-o‘zini anglash, empatiya va hissiyotlarni samarali boshqarish meditatsiya dasturi”, “Axloqiy qarorlar qabul qilish maslahat xizmati” va h.;

5. O‘quvchilar uchun Falsafa o‘quv dasturini ishlab chiqish. Bu dasturda inson mavjudligining maqsadi va ma’nosi va kundalik hayotimizda qanday ma’no topishimiz haqidagi savollar, baxt, farovonlik va yaxshi hayot

haqida, o‘ziga xoslik, mukammallikka sodiqlik, burch, ijtimoiy mas’uliyat, bir umrlik ta’lim mavzulari bo‘yicha mulohazalar, shuningdek, atrof-muhit etikasi, biznes etikasi, tibbiy etika me’yorlari, milliy san’at va qadriyatlar asosiy o‘rin egallaydi. Albatta, o‘quv dasturida o‘quvchilarning yoshiga mos keladigan mazmuni va kognitiv qobiliyatlari bilan moslashtirish, tushunchalar qulay va qiziqarli tarzda taqdim etilishini ta’minlash zarur.

6. O‘quvchilar uchun tanqidiy tahlil va ijodiy muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan uzoq muddatli loyihalar berish dasturini yaratish. Bunday dastur o‘quvchilarni maqsadlarini belgilash, o‘z loyihalarini rejalashtirish, kutilayotgan yutuq yoki muvaffaqiyatsizlik haqida fikr yuritishni, o‘z-o‘zini boshqarish, qiyinchiliklarni qabul qilish, xatolardan saboq olish va to‘siqlarga qarshi turish madaniyatini shakllanishiga yordam beradi, umumiy kognitiv noto‘g‘ri tushunchalar, masalan, tasdiqlash tarafkashligi yoki mavjudlik tarafdoriligini o‘rgatish orqali ularga o‘zlarining fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlarida ushbu noto‘g‘ri fikrlarni tan olishni shakllantiradi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Nizomiddinov N. Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta’limotlari va islom. T. 2006*

*2. Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. T:.Fan,2009.*

*3. Ismatullayeva N. Konfutsiy hayoti va Lun Yuy asari. T:.TDSHI nashriyoti, 2013.*

*4. Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar.T:. Yangi asr avlodi, 2014.*

*5. Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. T:. Yangi asr avlodi, 2014.*

*6. Арасту. Соч. Т – 4. М: 1984.*

*7. Арасту. Политика.-М:.Мысль.1997.*

## O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TA’LIM ISLOHOTLARI

**Ulug‘bek YAZDONOV,**
*Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali,*
*Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri,*
*falsafa fanlar doktori, professor*

***Annotatsiya.*** *ushbu maqolada bugungi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ta’lim yo‘nalishidagi islohotlar, davlat dasturi asosida ta’lim va tarbiya uzviyligini ta’minlash borasidagi amaliy ishlar, qo‘lga kiritilayotgan marralar, yechimini kutib turgan muammolar hamda istiqbolli vazifalar muhokama etilgan.*

ZJV5401

***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbekiston, ta’lim taraqqiyot, tarbiyaviy izchillik, ta’lim islohotlaridagi rejalar, dasturlar, ta’lim yo‘nalishida erishilgan yutuqlar, ijtimoiy muammolar, istiqboldagi imkoniyatlar.*

Jahonda kechayotgan ilm-fan taraqqiyotiga bo‘lgan munosabat jamiyatimiz ijtimoiy hayotida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xususan, keyingi yillarda oliy ta’lim muassasalari soni 65 tadan 114 taga yetishi. Xorijiy filiallari *(30 ta)* yoki nodavlat *(xususiy)* OTM *(65 ta)*ni ham qo‘shib hisoblaganda 209 tani tashkil etayotganligi – mamlakatimizda oliy ta’limga bo‘lgan e’tiborning qay darajada jadal sur’atlarda ketayotganligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda davlatimiz bosh islohotchiligida ta’lim taraqqiyotiga alohida e’tibor berayotganligidan asosiy maqsad – yoshlarni bilim va malakali kadr qilib yetishtirish, ularni jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar sifatida tayyorlash tizimini izchil rivojlantirishga qaratilgandir. Zero, ilm-fan nafaqat shaxs iste’dodini namoyon etadi, balki jamiyat tafakkuri, tabiat qonunlarini ham kashf etadi, inson ilm egallash orqali borliqqa gnoseologik yondashuvini amalga oshirib, jamiyatdagi tadrijiy taraqqiyotni harakatga keltiradi. Bunga yorqin misol tariqasida “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”[1] kabi po‘rhikmat so‘zlarni keltirish o‘rinli bo‘ladi.

O‘zbekistonda ta’lim taraqqiyotiga erishish yo‘lida ishlab chiqilgan strategik rejalar, jumladan “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar fikrimizga dalildir.

Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya”si *(2019-yil 8-may, PQ-4312-son)*, “Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya”si *(2019-yil 29-aprel, PF-5712-son)* hamda “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya”si *(2019-yil 8-oktyabr, PF-5847-son)* davlatni ta’lim taraqqiyotiga erishish yo‘lidagi amaliy ishlarini yorqin namunasi desak, bu ham to‘g‘ri bo‘ladi. Shu o‘rinda pragmatik islohotlardan ko‘zlangan istiqbolli rejalarga to‘xtalib o‘tsak.

***Davlat bosh islohotchiligida yuqorida keltirib o‘tilgan konsepsiyalar doirasida qanday ishlarni amalga oshirish reja qilingan kabi savollarga quyidagicha javob berish mumkin:***

– uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

– o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

– ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

– yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

– yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

– xalqaro tajribalardan kelib chiqib, ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;

– ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

– ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish[4] va hok.

***Yuqorida keltirib o‘tilgan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:***

– oxirgi besh yilda Bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2017-yildagi 27 foizdan bugungi kelib 72 foizga yetdi. Ayni vaqtda respublikada 3-7 yoshdagi bolalarning umumiy soni 2,9 millionga yetgan bo‘lsa, shundan 2,1 millioni[5] maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya olmoqda.

– oxirgi besh yilda 134 ta yangi maktab qurilib, 2 ming 965 ta maktab rekonstruksiya qilinib, tubdan ta’mirlandi va jihozlandi. Hozirgi vaqtda respublikamizda 10 mingdan ziyod davlat umumta’lim, 171 ta nodavlat, 18 ta davlat-xususiy sheriklik shaklidagi maktablar faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, 56 ta matematika, 28 ta kimyo-biologiya, 14 ta axborot texnologiyalari fanlariga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi[3].

– So‘nggi olti yilda respublikadagi oliygohlarning uch baravardan ko‘proqqa oshib, 2023-yil holatiga ko‘ra, ularning umumiy soni 212 taga yetdi. Talabalar soni esa qariyb to‘rt barobar oshib, 1 million[5]ni tashkil etmoqda.

Ma’lumot uchun: yoshlarni oliy ta’limga qamrab olish darajasi oxirgi 6 yilda 3,5 barobar *(qabul kvotasi)* oshirilib, bu – umumiy qamrov 38 foizni tashkil etdi deganidir. 6 yil ilgari bu ko‘rsatkich 9 foiz edi.

***O‘zbekistonda ta’lim sohasini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar qanday samara bermoqda?***

*Birinchidan,* yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish maqsadida 800 dan ortiq madaniyat markazida 4,5 mingdan ziyod to‘garak faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, ular musiqa asboblari va zarur jihozlar bilan ta’minlangani, maktablarda tashkil etilgan 36,5 mingdan ziyod to‘garaklarga 1 million 100

ming nafar o‘g‘il-qizlarimiz jalb etilgani, 49 mingdan ortiq o‘g‘il-qizlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun shart-sharoit yaratilgani natijasida oxirgi bir yarim yilda iqtidorli o‘quvchilarimiz xalqaro olimpiadalarda 4 ta oltin, 18 ta kumush, 30 ta bronza medali qo‘lga kiritildi[3].

*Ikkinchidan,* yoshlarni oliy ta’limga qamrab olish darajasida ham katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalardan chiqqan qizlarga maxsus davlat grantlari asosida oliy o‘quv yurtlariga kirish imtiyozi yaratildi[6].

*Uchinchidan,* mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari reytingini oshirish, ularni dunyoning yetakchi reyting agentliklari THE, QS va ARWUlari tomonidan ishlab chiqilgan reyting indikatorlariga munosib javob beradigan hamda TOP-1000 talik ro‘yxatiga kiritish yo‘lida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda:

– TOP-1000 ro‘yxatiga kirishning asosiy shartlaridan biri oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati hisoblanadi. O‘zbekistonda 2015-yilda 33,8 foizni[2] *(professor – o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati)* tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda 35 foizga[9] to‘g‘ri kelmoqda.

– oliy ta’lim muassasalarida xalqaro e’tirof etilgan nashrlar *(Scopus)*da maqolalar chop ettirilganlik darajasi xorijiy reyting agentliklarining yana bir muhim indikatorlaridan hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarining umumiy holatini 2015-yilga nisbatan olganda qoniqarli deyish mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti 2016-yilda 118 ta xalqaro e’tirof etilgan nashrlar *(Scopus)*da maqolalar chop ettirgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 429 taga yetkazildi[9].

Xulosa o‘rnida aytib o‘tadigan bo‘lsak, yuqorida keltirib o‘tilgan yutuqlarimiz bilan bir qatorda, ta’lim va tarbiya sohasida qilishimiz kerak bo‘lgan ishlar ham mavjud. Bularga quyidagilarni kiritib o‘tishimiz mumkin:

*Birinchidan,* maktabgacha ta’lim muassasalarida umumiy bo‘lgan standartlashgan dastur asosida ish yuritish tizimi yo‘lga qo‘yilgani yo‘q. Bu tizimni yo‘lga qo‘ymasdan turib, davlat tomonidan ishlab chiqilgan davlat dasturlarini amalga oshirish qiyin kechadi.

Birgina misol – mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan *(davlat, nodavlat yoki davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkillashtirilgan muassasa)* maktabgacha ta’lim muassasalarida bolaga ta’lim va tarbiya berish borasida nomuvofiqliklar mavjud. Jumladan, bolalarning kundalik ovqatlanish retseptidan boshlab, bolajonlarni aqliy va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar grafigiga qadar bo‘lgan barcha “qoida”lar turlicha shaklda ishlab chiqilgan *(har bir maktabgacha ta’lim muassasasini o‘z ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda)* va amalga oshirilmoqda.

*Ikkinchidan,* umumiy o‘rta ta’lim olish davrida “chin bilim” beruvchi samarali bo‘g‘inni tashkillashtirish, boshqarish va doimiy nazorat qilib borish shaklini ishlab chiqish yanada dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Masalan, yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkillashtirilayotgan “Prezident maktablari” zamonaviy talablarga to‘liq javob beradigan muassasalardan ekanligiga hech qanday shubha yo‘q. Ammo jamiyat murakkab tizim, u faqat ozchilik qatlamning sayi-harakati evaziga taraqqiy etmaydi. Bunga butun tizim o‘z hissasini qo‘shgandagina ma’lum bir samaradorlikka erishish mumkin.

*Uchinchidan,* bugun davlatimizda faoliyat yuritayotgan oliy o‘quv yurtlari miqdor va sifat jihatidan bir qator o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Albatta bunday islohotlar faqat va faqat jamiyat taraqqiyotiga xizmat etuvchi sifatli kadrlar tayyorlash tizimini yaratishga qaratilgandir. Ammo aksariyat oliy o‘quv yurti talabalarida ham professor-o‘qituvchilarida ham qarashlardagi o‘zgarishlar zamon talabiga mos ravishda kechayotganligida shubhalar o‘yg‘onmoqda. Masalan, olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining bilimi va malakasi sifatidan 33 foiz firma rahbarlari qanoatlangan bo‘lsa, 36 foizi norozi ekanligini bildirgan. Buning natijasida oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining katta qismi *(turli mutaxassisliklar bo‘yicha 30-50 foizgacha)* o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ishlamayotganini ko‘rish mumkin[7].

*To‘rtinchidan,* O‘zbekistonning bugungi kuni uchun iqtisodiyotni innovatsiyalarga asoslangan holda rivojlantirish eng asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ta’lim tizimidagi islohotlar iqtisodiyotdagi yangi o‘zgarishlar paydo bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ammo ta’limni faqat miqdor jihatidan o‘zgartirish bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Uning sifatiga ham e’tibor qaratish lozim. Masalan, oliy ta’limning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan ilmiy salohiyatni oshirish ko‘rsatkichlariga e’tibor qarataylik – O‘zbekistonda ilmiy ishni yozish taxminan 30 foiz vaqtingizni olsa, qolgan 70 foiz vaqtingiz tashkiliy ishlar va har xil bosqichlardan o‘tishga sarflanadi[8]. Ushbu fikrning qaysi darajada haqiqatga yaqin yoki yiroq ekanligini yurtimizda keyingi 30 yilda ilmiy ish qilganlar yaxshi bilishadi.

***Taklif va tavsiyalar:***

1. Maktabgacha ta’lim maskanlarida tarbiyalanayotgan bolalarga iqtidoridan kelib chiqqan holda ta’lim va tarbiya berish tizimini joriy etish zarur.

2. Maktab tizimini tubdan isloh qilish kerak. Xususan, uning moddiy texnik bazasidan tortib, kadrlar siyosatiga qadar bo‘lgan jarayonda.

3. Maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim *(maktab)* va oliy ta’lim o‘rtasidagi integratsiyalashuvni kuchaytirish kerak.

4. Oliy ta’limda yoshlarni qamrab olish darajasini oshirish emas, ularga sifatli bilim berish tizimini kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim taraqqiyotiga erishish uchun davlat bosh islohotchiligining o'zi kamlik qiladi. Butun jamiyat birdek harakat qilsa, barcha tizimlar o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashsa, ta'limga – bugun foyda keltiruvchi tizim sifatida emas, aksincha kelajak uchun ajratilgan sarmoya shaklida munosabat bildirilsa, o'shanda kutilgan natijaga erishish mumkin.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

*1. Rahimov. G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2016. –176 b.*
*2. Raxmanov N.R. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6. 2015. https://iqtisodiyot.tsue.uz/son/2015/6*
*3. https://president.uz*
*4. https://lex.uz*
*5. https://parliament.gov.uz/oz/articles/1558*
*6. https://uza.uz*
*7. https://kun.uz*
*8. https://www.xabar.uz*
*9. https://review.uz/uz*

## YAXSHI FARZAND TARBIYALAMOQ HAM JASORATDIR

**Arofat ISMANOVA,**
*Andijon davlat tibbiyot instituti kafedra mudiri,*
*pedagogika fanlari doktori*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada oiladagi tarbiya masalalari va muammolari, bolalarning bilimlari va dunyoqarashini oshirishda ota-onalarning roli yoritib beriladi, oilaviy tarbiyaning barkamol avlodni tarbiyalashdagi tamoyillarning muhimligiga asosiy e'tibor qaratilishi yuzasidan fikrlar keltiriladi.*
***Kalit so'zlar:*** *oila, ta'lim-tarbiya, ota-onalar, ma'naviyat, sog'lom avlod, mustahkam oila, pedagogika, psixologiya, oilaviy qadriyatlar.*

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamon ota-onalardan ham yangidan-yangi zamonaviy tarbiya usullarini talab etmoqda. Agar biz farzandlarimizni o'zimiz olgan 20-25 yil oldingi tarbiya usullarimiz bilan tarbiyalasak, farzandimiz zamondan orqada qolib ketishi mumkin. Demak, ota-onalar ham oilalarda farzand tarbiyasi haqidagi bilimlarini zamonga moslab modernizatsiya qilishi kerak ekan.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyunda diniy ulamolar bilan bo'lib o'tgan anjumanda: "Men an'anaviy meros bo'lib qolgan

“O‘z uyingni o‘zing asra! maqoli o‘rniga shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon talabidan kelib chiqib “O‘Z BOLANGNI O‘ZING ASRA” degan da’vat bilan atashni taklif qilaman”,-dedilar.[1;2] Ma’lumki, sharq xalqlari farzand tarbiyasiga o‘ta mas’uliyat bilan qarab kelganlar va ularni voyaga yetishida xalq an’analariga qat’iy rioya qilishgan. Eng avvalo mehnat tarbiyasiga katta e’tibor berishgan. Oilada hech bir farzand mehnatsiz qolmagan, ota-ona o‘z farzandlariga kasb sirlaridan saboq berganlar, natijada bolalarda mehnatga hurmat va malaka paydo bo‘la boshlagan. Ota-ona, qarindosh-urug‘ va umuman insonlar mehnatini qadrlash ko‘nikmasi avvalo, oilada tarkib topgan. Sog‘lom bola tarbiyasida o‘zbeklarning o‘ziga xos bo‘lgan uzoq tarixiy tajribasi, sinovdan o‘tgan ajoyib an’analari bor. Ularning axloqi va odobi o‘zbekona tarbiyaning mahsulidir. Xalqimizning tarbiya borasidagi yetuk milliy ma’naviyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaveradi.

Avvalambor bu borada milliy pedagogik merosimizga murojaat qilamiz. “Men, – deb yozadi Birinchi Prezidentimiz , “Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan fikrini ko‘p mushohada qilaman. Buyuk ma’rifatparvarning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarbdir” . Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasiga e’tibor mamlakatni hayot, najot va saodatga eltsa, yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik – mamot, halokat va falokatga eltishi muqarrar.

Abdulla Avloniy o‘zining asosiy pedagogik asari “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobida bizning bundan bir asr oldingi asl milliy pedagogik tafakkurimizni aks ettirdi. Bu bilan azaldan amalda bo‘lib, samarasini berib kelgan tarbiya nazariyasi va uslubiyatini yozib qoldirdi. Bugungi kunda biz milliy tarbiyaviy qadriyatlarimizni tiklayotgan ekanmiz, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi pedagogik choralarni qidirib, ana shu ma’naviyatni ta’minlagan merosimizga murojaat qilamiz.

“Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak”, deydi alloma, “tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur”. Bu bilan tarbiyaning ikki yo‘nalishini alohida ko‘rsatadi. Ya’ni biri – tanini pok tutmoq, yosh vaqtidan maslagini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak. Ikkinchi yo‘nalish bu – yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmak. Biz tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan Abdulla Avloniyning tarbiya ta’rifidagi ikki jihatga alohida e’tibor qaratamiz. Bu – yosh vaqtidan maslagini tuzatmak, va yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmak. Mana shu ikki ibora bir tomondan mafkuraviy tarbiyani (zero, maslak bu – suluk, tariqat, ma’naviyatni anglatadi), ikkinchi tomondan pedagogik profilaktika(yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmak)ni anglatadi.

Inson hayotida tarbiya ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. “Tarbiya” so‘zi arabcha “robba” fe’lidan olingan bo‘lib, “o‘stirdi”, “ziyoda qildi”, “rioyasiga oldi”, “rahbarlik qildi”, “isloh qildi” ma’nolarini bildiradi. Tarbiya bir narsani unga ta’sir etish orqali asta-sekin kamoliga yetkazishdir. Ayol avlodning panohi, ertangi kun davomchilarining tarbiyachisidir. Shu bois respublikamizda ayollarga qaratilgan katta diqqat va e’tibor bejiz emas, albatta.

Yaratganning marhamati bilan oilani oila qilgan zot bu – Ayoldir. Oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, unga fayzu-barokat kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, bilan bir qatorda ayollarcha munavvar qilgan zotlar aslida mo‘’tabar onalarimiz, munis opa-singillarimizdir. Ayol-ona, ayol-tarbiyachi, ayol-murabbiy, ana shu ezgu xislatlar bir vujudda o‘z mujassamligini topgandagina ayol barkamol sog‘lom bolani tarbiyalay oladi. Yaxshi tarbiya yolg‘iz oila uchungina baxt-saodat, yaxshilik, ruhiy va iqtisodiy boylik keltiribgina qolmay, shu bilan birga jamiyatning o‘zi uchun ham katta siyosiy –ma’naviy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bolalar tarbiyasi va uning taqdiri ham ijtimoiy, ham shaxsiy manfaatlar bilan bog‘liqdir. Demak, tarbiya bilan shug‘ullanuvchi shaxs bolalarga mehr qo‘yishi, tarbiyaviy ishni astoydil olib borishi, pedagogik bilimlarni chuqur egallashi, yuqori ahloqiy sifatlarga ega bo‘lishi va jamiyat oldidagi mas’uliyatni chuqur xis etishi zarur. Xo‘sh, bugun o‘zbek oilasida ayol shu bilimlarga egami? Farzand tarbiyasidagi roli qanday? Odamlar bir-biridan ko‘p narsalarni so‘rab bilib olishadi. Bolasi shamollasa, qanday kompress qilishni, bolalar kiyim-kechagi sotiladigan do‘konlarni, repetitorlarni, valyutalar kursini bir-biridan so‘rashadi. Lekin negadir “Menga farzand tarbiyasini o‘rgating” degan ota-ona juda kam. Kimdir “Tarbiya hammaga ma’lum narsa-ku. Vaqti kelsa, Xudo xohlasa, o‘z-o‘zidan yo‘lini topib ketadi”, deyishadi. Bu gapni yalqovlar, bolasiga befarqlar, “bizga bo‘laveradi”, deydigan kishilar aytishadi. O‘zlari qilishlari kerak bo‘lgan ishni Xudoga topshirishadi. Bola o‘z –o‘zidan tarbiyali bo‘lib qoladimi? Tarbiya-bolani baxtli bo‘lishga o‘rgatishdir. Tarbiya esa bilimni talab qiladi. Oilalarda ota-onalarimiz tarbiya usullarini milliy ma’naviy boy merosimiz durdonalaridan foydalanib, uni zamonga moslab olib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun esa ota-onalarimizdan ko‘proq kitob o‘qish, o‘z ustida ishlash talab etiladi. Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronovning “Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...” kitobida shunday jumlalar keltirilgan: “Dunyoda ro‘y berayotgan har bir notinchlik, nizo, baxtsiz voqea, buzilgan oila, singan taqdir tarixi “lenta”sini orqaga qaytarsak, tarbiyaga borib taqaladi. “Oldin pul, keyin ma’naviyat” yo‘lini tutish bo‘lib chiqadi. Ularning bu xatosi “boy berilgan avlod”-“Lost generation” iborasini paydo qildi. Butun boshli oilalar moddiy boylik ortidan quvib ketishdi. Farzandlar tarbiyasini esa begonalarning qo‘liga topshirib qo‘yishdi. Tarbiyadan(!) vaqtlarini tejab, 100 pul topishdi

ham. Bugun esa....jonsarak bo‘lib, bolalarini qayta tarbiyalashga 1000 pul sarflashmoqda. Lekin samara 10 pullik bo‘layotir. Chunki vaqt boy berilgan. Mana, sizga “oldin moddiy hayot, keyin ma’naviyat” deb yashashning ayanchli oqibati. “Boy berilgan avlod” muammosining pedagogik mahsuli”.[3;2] Hozirgi paytda xam farzandlarini tashlab, ularni begonalar qo‘liga topshirib, chetga ishlash uchun chiqib ketayotgan ayollar farzandlari tarbiyasi haqida nima deyish mumkin? O‘z bolamizni o‘zimiz asramas ekanmiz, ko‘chada bezori, jinoyatchi, dangasa, diniy ekstremist, terroristlar yetishib chiqaveradi. Biz tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, “Bugungi o‘zbek oilalarida tarbiyaviy muhit qanday?” degan masala bo‘yicha ota-onalar munosabatini o‘rgandik. Natijada oilalarda olib borilayotgan farzand tarbiyasida bir qancha muammolar aniqlandi. Masalan:

– ota-onalarning bir kunda farzand tarbiyasiga ajratayotgan vaqtlari atiga 7 daqiqani tashkil qilar ekan;

– ota-onalar bo‘sh vaqtlarini tomorqa ishlari, to‘y, maraka, gap, mehmondorchilikka borish, televizor ko‘rish bilan o‘tkazadi;

– ota-onalar(ayniqsa, otalar)ning farzandi bilan muloqotdan qochishi ham bir muammo. Otalar bolalari bilan ko‘proq dasturxon ustida o‘qishi, ishlari haqida tergab qo‘yadi. Afsuski, bunday “tarbiyaviy suhbat”larda ko‘proq bola tomonidan sodir qilingan (ona tamonidan eslatilib, “bolangizni urishib qo‘ymaysizmi?) qusurlarni gapirish va tanbeh berishdan nariga o‘tmaydi. (Ota-onasi chetga ishlash uchun chiqib ketgan bolalarda shu ham yo‘q!);

– bolalar bilan erkin, teng muloqot, ularning kelajagini birga, dilkash muhokama qilish juda kam uchraydigan noyob hol bo‘lib qolgan;

– ota(ba’zan ona)larning bolalarining ko‘zi oldida tez-tez janjallashishib, spirtli ichimliklar iste’mol qilishi oila tarbiyasiga zarar yetkazmoqda;

– oila muhitida kitob, jurnal va gazetalarni birga mutolaa qilish deyarli uchramaydi.

Shuningdek, tarbiya jarayonida uchrayotgan ayrim xatolarga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Ota-ona tarbiya uchun mas’ul ekanini anglamaslik;
2. Bolaning kundalik hayotidagi rejasizlik, tartibsizlik, aniq maqsadga yo‘naltirilmaganlik;
3. Rag‘batlantirish va jazolashda tarbiyaviy maqsad ustivorligini anglamaslik;
4. Farzandni tan jazosi bilan qo‘rqitish;
5. Ota-onaning farzandlar ko‘z o‘ngida tez-tez janjallashib turishlari;
6. Uyda oshkora ichkilikbozlik qilinishi;
7. Behayo so‘zlar, qarg‘ishlar, so‘kinishlar;
8. O‘z farzandini hech shubhasiz eng yaxshi deb hisoblash;

9. Bolani haddan tashqari erkalatib yuborish;

10. Bolalarini haddan ziyod “zamonaviy modada” kiyintirish, yasantirishga yoki boshqa milliy, diniy madaniyat asosida kiyintirishga hirs qo‘yish;

11. Bolaga haddan tashqari qattiqqo‘l, serzarda bo‘lish;

12. Bolaga va’da berib bajarmaslik, bolani aldash;

13. Ta’lim muassasasi bilan tarbiyaviy hamkorlikda o‘zini chetga olish.

**– Xulosa va takliflar.** Biz ota-onalarga tadqiqotimiz doirasidan kelib chiqib, pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov tamonidan ishlab chiqilgan ayrim tavsiya va maslahatlarni bermoqchimiz:

1. Bolangizni seving va uni qanday bo‘lsa, shunday qabul qiling;

2. Bolangiz xuddi sizday bo‘lishini yoki siz xohlaganday bo‘lishini kutmang. Siz unga o‘zi bo‘lishiga ko‘maklashing.

3. Bolangizni men seni dunyoga keltirdim, falon-falon ishlarni sen uchun qildim, menga qaytarishing kerak, demang. U ham boshqalarni dunyoga keltiradi, ularga qaytaradi.

4. Bolangizni noxush muhitda o‘stirmang. Ertaga u ham shuni takrorlaydi.

5. Bolaning muammolariga bepisand bo‘lmang. U siz emas. Sizdagi tajriba xali unda yo‘q.

6. Bolangizni kamsitmang, yerga urmang.

7. Bolangizga va’da berib bajara olmagan ishingizga o‘ksinmang. Imkoni bo‘lsa, bajarmasangiz, uning ko‘nglini qoldirasiz.

8. Bolangiz qobiliyatsiz, omadsiz, noshud bo‘lsa ham seving. Chunki bu quvonch ertaga bo‘lmay qolishi mumkin.

9. Bolalar biz ularni tarbiyalashimiz uchun emas, bizlarni tarbiyalash uchun ham tug‘ilishadi. U yaxshi odam bo‘lishi uchun avvalo siz yaxshi odam bo‘ling, ya’ni tarbiyalovchining o‘zi tarbiyali bo‘lishi shart.

Uzoq olib borilgan tadqiqot va kuzatishlar asosida olingan tavsiyalar asosida bolangizni O‘zingiz! Tarbiyalasangiz, shundagina oilangiz xotirjamligi, kelajagingiz kafolati, qolaversa, yurtimiz ravnaqiga katta hissa qo‘shgan bo‘lasiz. Zero, bugungi tahlikali va murakkab zamonda yaxshi farzand tarbiyalamoq ham jasoratdir. Bu esa Vatan oldidagi, el-yurt oldidagi, farzandlaringiz oldidagi maqaddas burchdir!

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-iyun kuni “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizni sofligini asrash–davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqidan. www.uza.uz..*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 yilligiga bag‘ishlangan nutqi. 2021-yil 7-dekabr.*

*3. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz. – T.: Ma’naviyat, 2014.*

*4. Quronov M. Biz anglayotgan haqiqat. – T.: Ma’naviyat, 2008.*

# TA’LIM VA TARBIYA RIVOJIDA MA’NAVIY JARAYONLARNING AHAMIYATI

**Shavkat TO‘RAYEV,**
*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari nomzodi, dotsent*

***Annotatsiya:*** *maqolada ta’lim va tarbiya rivojida ma’naviy jarayonlarning ahamiyati, ular bilan bog‘liq islohotlarni izchillik bilan olib borilishining asosiy sababi, fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz iqalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning iongli yashashga, o‘z fikriga ega bo‘lishga, turli ma’naviy tajovuzlarga iqarshi sobit tura olishga iqodir bo‘lgan, irodali, fidoyi va ivatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Yangi O‘zbekiston, jamiyat, mafkura, globallashuv, tahdid, milliy tafakkur, sog‘lom dunyoqarash, taraqqiyot, ma’naviy qiyofa, ma’naviy muhit.*

Insoniyat rivojlanish va taraqqiyot sivilizatsiyasining yangi davri – XXI asr axborotlashgan, global va informatsion bosqichga qadam qo‘yar ekan, yangi davrning tahdid va xavf-xatarlar bilan limmo-lim ekanligini ko‘rib, dunyo hali ham har jihatdan o‘ta mo‘rt ekanligiga iqror bo‘lamiz. Darhaqiqat, XXI asrda dunyo xavfsizroq bo‘lib qolmadi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, resurslar taqchilligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo‘lib o‘tdi. Ayrim kuchlarning urinishlari natijasida xavf-xatarlar ro‘yxati yangilari hisobiga yanada kengaydi. Demografik inqiroz, ommaviy epidemiyalar, demokratiya eksporti, ma’naviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, g‘arbona turmush tarzini tiqishtirish, mafkuraviy-informatsion tahdidlarning yangi turlari shundoq ham bezovta dunyoning tashvishlarini ko‘paytirdi. Bu esa, o‘z navbatida, inson va insoniyatning ma’naviy qiyofasiga ta’sir etmasdan qolmaydi.

Insonning ma’naviy qiyofasi va ma’naviy muhitini o‘zgartirishga qaratilgan informatsiyalar jahon axborot makonida shakllantirilayotgan axborot orqali g‘oyaviyi ta’sir, oshkorai mafkuraviy tazyiq oldida hattoki tajribali mamlakatlar ham qiyin ahvolga tushib qolmoqda. Buning sababi informatsion va mafkuraviy tahdidlar ta’sirining an’anaviyi xavf-xatarlar i– terrorchilik, iyadroviy qurollarningi ishlatilishi, ekologik muammolar va boshqalardan farq qilib, ko‘zga ko‘rinmasligi, tezkorligi, chegara bilmasligi, uzoq vaqt mobaynida noaniqlik kasb qila olish qobiliyati va boshqalardir. Hech narsadani tap tortmaydigan informatsion va mafkuraviy ita’siri tufayli turli idavlatlar aholisi kayfiyati, ruhiyati, dunyoqarashi va ixatti-harakatlarida salbiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

O‘zbekiston ham ana shunday murakkab global xalqaro munosabatlar sharoitida o‘zining ertangi kunini barpo qilib kelmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zaminida ijtimoiy yo‘naltirilgan ibozor iqtisodiyotiga iasoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik ijamiyatini barpo etishni o‘zida mujassam etgan Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi tub maqsadlarini ifoda etadi. Bugun biz mamlakatimizda demokratik jarayonlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish, fuqarolarning siyosiy-madaniy faolligini oshirish, yoshlar ta’lim-tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish, ularning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmas ekanmiz, maqsadimizga erishishimiz yanada murakkablashib boraveradi.

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etish muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Bu yo‘lda amalga oshiriladigan islohotlarning tub negizida ma’naviy rivojlanish masalasi turadi. Binobarin, Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Muayyan xalq yoki davlat hayoti uchun g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadigan biror bir fenomen yoki u haqdagi tushuncha va tamoyillar o‘z-o‘zidan osongina paydo bo‘lmaydi va tasodifan dunyoga kelib qolmaydi.

Shu ma’noda, har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o‘ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O‘zbekiston fenomeni ham bundan mutasno emas.

...Biz orzu qilgan va qat’iy intilayotgan Yangi O‘zbekiston, avvalo, xalqimiz o‘z milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘yganini, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallayotgani, bu borada oldimizda ko‘plab yangi imkoniyatlar paydo bo‘layotganini anglatadigan tushunchadir” [1]. Demak, millatning qalb amri bo‘lgan bu istakni amalga oshirish fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga bog‘liq ekanini anglamog‘imiz lozim bo‘ladi. Inchunun, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi ma’naviy jarayonlarning rivojini ta’minlab beruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ana shunday olamshumul g‘oyalar asosida jamiyat taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilgan sa’y-harakatlar o‘z natijasini ko‘rsatdi va ijtimoiy-ma’naviy hayotda keskin o‘zgarishlarni vujudga kelishiga xizmat qildi. Binobarin, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlar sezilarli darajada jonlandi.

Aynan ma’naviy jarayonlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnining salmog‘i kundan kun ortib borishi natijasida bu yo‘nalishdagi islohotlar jadal tus ola boshladi. Ushbu masala davlat siyosatining ustivor vazifalaridan biriga aylandi. Pespublika hukumati tizimli va tadrijiy ravishda ma’naviy-ma’rifiy masalalarni jiddiy nazoratga olib, muntazam rivojlantirish ishlarini yanada kuchaytirdi.

Mamlakatimizda vatanparvar, fidoiy, mustaqil fikriga ega, Yurtimiz kelajagiga xavf soladigan har qanday tahdidlarga qarshi tura oladigan, istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, o‘zining intellektual salohiyati bilan dunyo arenalari-

da vatanimiz bayrog‘ini baland ko‘tara oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishni nazarda tutgan qator tadbirlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi [2].

Barkamol avlodni tarbiyalashda birgina ilmiy-intellektual salohiyatni oshirish yo‘lidan emas balki, jismonan yetuk avlodni tarbiyalash ishiga ham jiddiy e’tibor qaratildi [3]. Islohotlarni amalga oshirishga qodir, fidoyi shaxslarni tayyorlash bopasida ustuvor davlat siyosati yuritildi. Milliy g‘oya, milliy istiqlol mafkurasi doirasida mavjud intellektual imkoniyatlarni ishga solishga, barkamol avlodni tarbiyalashga, insonparvarlik va olijanoblik tuyg‘ularini chuqurlashtirishga, buyuk o‘tmishga ega xalqimizning boy merosiga hurmat va baxtli kelajakka ishonch hirlarini mustahkamlash yo‘lida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Albatta, har qanday jamiyatda islohotlarni hamma qabul qilishi yoki birdaniga uni amalga oshirishga kirib ketishi murakkab jarayon. Ayniqsa, asrlar davomida biror g‘oya bilan yashab, birdaniga boshqa g‘oyalarga o‘zgartirishning o‘zi bo‘lmaydi. Ana shunday murakkab jarayonlar davrida ulkan islohotlar amalga oshirilsada, ko‘pgina kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani hech kimga sip emas. Xususan, oila, mahalla va ita’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasida kamchiliklar mavjudligi, mahallalarda yoshlar bilan g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki itarzda olib borilayotgani, adashib har xil harakatlarga qo‘shilib qolish, milliy qadriyatlarimizga nisbatan e’tiborsizlik kabi salbiy holatlarning oldini olish, ularni baptaraf etishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilayotgani yoki aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bilan bog‘liq masalalarga jiddiy e’tibor qaratish lozimligi ko‘zga tashlandi. Demak, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarning uzluksizligini tashkil qilish bilan bog‘liq mexanizm zarurligi ko‘zga tashlandi.

Ma’naviy jarayonlarning uzluksizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarning yuklatilishi masalaning bir tomoni, ammo uni bajarish uchun mustahkam mexanizm zarur bo‘ladi. Endigi vazifa ana shu mexanizmni shakllantirish edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [4] Qarori “**ma’naviy jarayonlar”** mexanizmini konseptual asosda ko‘rsatib berdi. Unda ta’lim tizimi ma’naviy jarayonlarning asosiy richagi sifatida belgilandi. Jumladan,

– davlat oliy ta’lim muassasalarida yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor lavozimi joriy etildi;

– barcha umumta’lim maktablarida 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab faoliyat yuritayotgan yoshlarning yaqin maslahatchisi bo‘lgan yoshlar yetakchisi lavozimi saqlab qolindi;

– har bir umumta’lim muassasasida ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimi joriy etildi;

– har bir tuman, shahar va viloyat markazlari hududlarida ma'naviy muhit barqorорligini mustahkamlash, oila va mahallalarda hamjihatlikni ta'minlash, yoshlar ongi va qalbida ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish maqsadida "Ma'naviyat va ma'rifat maskani"ni tashkil etish manzilli ro'yxati tasdiqlandi;

– targ'ibot tashviqot ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, ma'naviy-ma'rifiy sohada ilmiy-uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash bilan bog'liq doimiy monitoring tizimini joriy qilish qayd etildi;

– sohada ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yish maqsadida "Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti" tashkil qilish vazifasining yuklatilishi, ma'naviy jarayonlarning jadal suratlar bilan rivojlanishiga turtki bo'ldi [4].

Ma'naviy jarayonlar bilan bog'liq islohotlarni izchillik bilan olib borilishining asosiy sababi, fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz iqalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning ongli yashashga, o'z fikriga ega ibo'lishga, turli ma'naviy tajovuzlarga iqarshi sobit tura olishga iqodir bo'lgan, irodali, fidoyi va ivatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan amaliy ishlardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.*

*2. "Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y. 9-son, 225-modda; 2013-y. 41-son, 543-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y. 03/18/456/0512-son; 19.04.2018-y. 03/18/476/1087-son). "Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni (Yangi tahrir). Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y. 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y. 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y. 03/21/721/0952-son*

*3. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi 513-XII-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-mayda qabul qilingan 76-II-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, № 5-6, 147-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 309-modda). O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi (Yangi tahrir) O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y. 03/21/683/0375-son*

*4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-sonli Qarori – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y. 07/21/5040/0243-son.*

# MA’RIFATLI JAMIYAT QURISH YO‘LIDA SIYOSIY MA’NAVIYATNI YUKSALTIRISHNING AHAMIYATI

**Usmonjon BO‘TAYEV,**
*Siyosiy fanlar doktori (DSc)*
*Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universiteti*
*Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi kafedrasi mudiri*

***Annotatsiya:*** *maqola, mamlakat rivojlanishida siyosiy madaniyatni bugungi kunning talabiga mos ravishda ma’naviy yuksaltirish jamiyatdagi insonlarning ertangi kelajakka bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlashi, yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo‘lib yetishishlari uchun siyosiy madaniyati va huquqiy ongini kamol toptirish bugunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib borishi xususida fikr-mulohazalar yuritilgan hamda amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Yangi O‘zbekiston, ta’lim-tarbiya, siyosiy ma’naviyat, siyosiy madaniyati madaniyat, siyosiy faollik, amaliy siyosat.*

Demokratik jamiyatlar va davlatlar o‘z taraqqiyot formulasiga yillar davomida erishadi. Bu jarayon o‘ziga xos ijtimoiy, siyosiy, tarixiy va ma’naviy rivojlanish bilan bog‘liq holda kechadi. Tashqi siyosat imkoniyatlaridan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish strategik rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Globallashuv va zamonaviylik munosabatlari kundan kun yangicha qiyofa kasb etib borayotgan dunyo mamlakatlariga qurolli xavf-hatarlardan ko‘ra g‘oyaviy va siyosiy mazmundagi tahdidlarning ta’siri har qachongidan yuqori. Bunday jarayonlarning oldini olishda Yangi O‘zbekiston o‘ziga xos g‘oyaviy immunitet va konstruktiv hamkorlik yo‘lidan bormoqda. Yana bir jihati – yurtimiz so‘nggi olti yilda dunyoda o‘z siyosiy pozitsiyasini yanada mustahkamlagani, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lidan sobit va barqaror borayotgani bilan izohlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuotda e’lon qilingan “Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o‘zaro bog‘liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik” nomli maqolasi bugungi dunyo siyosiy va harbiy hayotining real voqeliklari tahlili hamda taraqqiy etgan davlatlarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishning kelajakdagi o‘ziga xos prognoziga bag‘ishlangani bilan xalqaro tashkilotlar, siyosatchilar va ko‘plab nufuzli nashrlar e’tiboriga tushdi. E’tiborli jihati shundaki, O‘zbekistonda kundan-kunga amaliy siyosatga va yosh siyosatchilarni kamol toptirishga bo‘lgan e’tibor ancha oshgan. Buni Oliy ta’lim muassasalariga davlat qabullaridagi kvotalarning soni sezilarli darajada ortgani hamda siyosiy sohalar bo‘yicha yangi yo‘nalishlarni ochilishi bilan sharhlash mumkin.

So‘ngi yillarda ta’lim islohotlari har qachongidan ham ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida yoshlarning siyosiy madaniyatining kamol topishida siyosiy madaniyatni bugungi kunning talabiga mos ravishda yuksaltirish jamiyatdagi insonlarning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Bugun siyosiy madaniyati yuksak rivojlangan davlatning kelajagi ham ravnaq topib boraveradi. Yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo‘lib yetishishlari uchun huquqiy madaniyatning kamol topishi siyosing ongning rivojlanishi orqali amalga oshadi. Bu esa o‘z navbatida huquqiy bilimlar va siyosiy ta’limotlar asosida shakllanib boradi.

Huquqiy madaniyat bu – jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasi, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo‘lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga qonuniy javobgarlikning muqarrarligi, fuqarolarning mavjud va amaldagi qonunlarga itoatkorlik darajasi deb tarif bersak bo‘ladi. Bundan tashqari H.Odilqoriyevning ta’kidlashicha “Huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyati ma’naviy kamolotining, davlatchilik binosi rivoji va huquqiy tizim yetukligining muhim ko‘rsatkich sifatida tarif beradi. Shunday ekan siyosiy madaniyat deganda qonun bilan mustahkamlangan va himoyalanadigan siyosiy huquqlarni bilish va undan foydalanish hamda davlat boshqaruvida fuqarolarning siyosiy huquqlaridan o‘zlari anglagan holda foydalanishi deya ta’rif bersak adashmagan bo‘lamiz. Bu o‘z navbatida davlatning rivojlantiruvchi mezonlardan biri sanaladi.

Globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyalashda davlatda olib borilayotgan davlat islohotlarining tub mohiyatini to‘g‘ri va aniq tushuntirish har qachongidan zarur. Yetishib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy-ma’naviy va siyosiy bilimlar bilan kamol toptirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, yoshlarda huquqiy ong va siyosiy madaniyatni yanada yuksaltirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan muhim masaladir. Ijtimoiy davlat qurish va jamiyat taraqqiyotining rivoji, o‘sib kelayotgan avlodning ta’lim darajasi, huquqiy bilimlari alohida ahamiyat kasb etadi. Yaxshi siyosiy hamda huquqiy bilimlar bilan ta’lim – tarbiya olgan avlod qonun buzulishlaridan o‘zini asraydi va qonun buzulishig yo‘l qo‘ymaydi. Shu kecha kunduzda mamlakatimiz taqdiri uchun alohida ahamiyaga ega bo‘lgan Prezident saylovi jarayoni oldida turibmiz. Davlat rahbari tomonidan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq muddatidan oldin Prezidentlik saylovida ishtirok etishi qonun oldidagi barchani tengligi va qonunlarning barcha uchun birdek xizmat qilishidan darak beradi. Aynan shu jarayonda jamiyat a’zolarini befarq bo‘lmasdan turib saylovlarda faol ishtirok etishi, uning targ‘ibot tashviqot ishlarining qanchalik to‘g‘ri tashkil etilishi soha vakillaring siyosiy ma’naviy jihatdan yutukligi bilan baholanadi. Har qanday axborot xabarning yetkazuvchilari orqali rostlik yoki yong‘onlik

ko‘rinishini olishi haqida o‘rta asrlarda yashagan Beruniy ham o‘z asarlarida keltirib o‘tilgani o‘sha davrda ham davlat boshqaruvi masalalarida siyosiy qarashlar alohida ahamiyat kasb etganidan yaqqol darak beradi.

Jamiyatlar ana shu jihatdan ham birbiridan farqlanadi. Fuqarolarning siyosiy madaniyati mamlakat siyosiy tizimida siyosiy munosabatlar va siyosiy jarayonlar qaror topgan jamiyatlarda rivoj topadi. O‘z navbatida, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyati qanchalik keng bo‘lsa, jamiyat hayotida ham tub siyosiy o‘zgarishlar yuz berish imkoniyati tug‘iladi. Bunday jamiyatda turli siyosiy kuchlar mamlakat birligi, jamiyatning barqaror rivojlanishi yo‘lida hamjihatlikda harakat qiladi. Mamlakat siyosiy modernizatsiya va siyosiy tizimni takomillashtirish orqali jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Siyosat va madaniyatning jamiyat taraqqiyotini qaror toptirish jarayonida o‘zaro ta’siri turli shakllarda bo‘ladi.

Insoniyat hayotidagi g‘oyaviy qaramaqarshiliklarning rivojlanishi, jamiyat hayotida sinfiy yondashuvning mutlaqlashuvi sabab umume’tirof etilgan siyosiy, huquqiy, madaniy tamoyillar, ya’ni hammaning qonun oldida tengligi, shaxsning barcha huquq va erkinliklari kabi me’yorlardan anchayin begonalashuvi yuz bergan edi. Bu esa siyosatga madaniyat va fan sifatida qarash imkonini bermasdi. Taraqqiyotning hozirgi bosqichi siyosat va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir muammolarini yangicha ko‘rinishda – aloqaning misli ko‘rilmagan intensivligi, o‘zaro ta’sirning kuchayishi, ilm-fan, madaniyat, axborot almashinuvi, umuminsoniy qadriyatlar bilan o‘zaro boyitib borish kabi talablarni qo‘ymoqda.

Mamlakat taraqqiyotini yanada rivojlantirish uchun esa jamiyatda milliy birlik, milliy totuvlik, milliy mentalitet, milliy qadriyatlarni o‘zida ifoda qiladigan siyosiy madaniyat shakllanishi lozim. Bugungi keng islohotlar jarayonida ta’lim muassasalarida yoshlarni aqlan, ruhan va jismonan yetuk irodasi mustahkam qilib tarbiyalash masalasi har qachongidanda muhimroq. Chunki, axborot davrida har qanday ma’lumot tufayli jamiyat a’zolari o‘zlarining munosabatlarini salbiy yoki ijobiy bildirish holatlari kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ham katta ta’sir o‘tkazadi hamda davlat boshqaruviga ham sezilarli darajada ta’sir etmay qo‘ymaydi. Shu munosabat bilan davlat rahbari tomonidan Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Prezident Sh.Mirziyoyev bu maslaga alohida to‘xtalib, yoshlar bandligini ta’minlash, sifatli ta’lim bilan qamrab olish va bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda sog‘lom fikrlashlariga zamin yaratish bo‘yicha ko‘plab taklif va vazifalarni belgilab berdi. Bizga ma’lumki, 2021-yilda 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni ishga olgan korxonalarga ijtimoiy soliqni qaytarib berish amaliyoti joriy qilingan edi. Bu imtiyozdan o‘tgan davrda 9

mingdan ziyod korxona foydalandi hamda 100 ming ishsiz yoshlar bandligini ta’minlashga muvaffaq bo‘lindi. Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston yoshlari tashabbuslari” jamg‘armasi va elektron platformasi tashkil qilinishi belgilandi. Jamg‘armaga 100 million dollar yo‘naltirilib, bu mablag‘lar iqtidorli yoshlarning eng yaxshi g‘oya, startap va loyihalariga qulay va yengil shartlarda, zarur bo‘lsa, foizsiz ajratilishi yo‘lga qo‘yildi. Oliy o‘quv yurtlarida shartnoma asosida tahsil oluvchi yoshlarga foizsiz kredit to‘lovlari hamda xotin-qizlarga magistratura bosqichi barchasi budjet hisobidan qoplanishi to‘g‘risida normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bundan tashqari, IT-parklar bo‘yicha tajribadan kelib chiqib, hududlarda IT-park rezidentlariga berilgan imtiyoz va yengilliklar qo‘llanilgan holda “Kreativ park”lar faoliyati yo‘lga qo‘yish choralari ko‘rilmoqda.

Bugun ertangi kun egalari Yoshlar bilan ishlash hayot-mamot masalasiga aylandi . Shuning uchun mamlakatimizda yoshlarni barkamol etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Farzandlarimizni bugungi tahlikali davrda turli yot g‘oyalar ta’siridan himoyalash, yoshlarning fikrlarini birovlar egallamasdan turib, ularga o‘zimiz g‘amho‘rlik va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishimiz zarur. Bu borada ma’naviy-ma’rifiy ishlarni targ‘ibot va tashviqot ishlarida – davlatning bosh maqsadi hamda davlat dasturi yoshlarga amaliy siyosiy jihatdan singdirib borilishi zarur. Vaholanki, har bir davlat taraqqiyoti maqsadi, va ertangi kuniga ishonchi va umidi bo‘lgan yoshlar albatta o‘zining mustaqil siyosiy qarashlariga ega bo‘ladi. Bu esa atrofda sodir bo‘layotgan voqea hodisalarga mustaqil o‘zining xulosasini bera oladigan yoshlarni kamol topishiga sabab bo‘ladi. O‘z xulosasiga ega yoshlar esa ushbu o‘zgarishlar davrida tomoshabin sifatida emas, balki islohotlarning ishtirokchisi sifatida o‘zining vatan oldidagi burchini ado etadi.

Xulosa o‘rnida, har bir vatan taqdiriga dahldorlik hissini tuygan yosh o‘zining faoliyat jarayonidagi funksiyasini sitqidildan ado etsa biz yashab turgan vatan ravnaq topadi va gullab yashnaydi. Shuning uchun ham yoshlar bilan individual ishlashni jadallashtirish, jamiyatdan ajrab qolgan, hayotda o‘z o‘rnini topolmayotgan, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan yoshlarni faol hayotga qaytarish oldimizdagi eng muhim vazifa ekanligini aslo unutmasligimiz va e’tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Yoshlar masalasidagi oldimizga qo‘yilgan vazifalarni o‘z vaqtida, sifatli bajarish orqali islohotlar samaradorligi natijasini har bir yoshning hayotida ko‘rsatishimiz mumkin bo‘ladi. Bu bilan davlatimiz tomonidan qilinayotgan g‘amxo‘rliklarni his qilishiga va faol hayotga kirib borishiga erishamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.*

*2. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 17б. –T. O‘zbekiston*

*3. Бабаджанов Б. Толипов Ф. Исламизация социального и политического пространств Узбекистана: содержание, формы, перспективы. В кн.: Центральная Азия на фоне глобальных угроз. Бишкек, 2016. С. 71—133*

*4. Проблема преемственности и выработки нового курса в политическом процессе Узбекистана https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44379243*

*5. Политология. Энциклопедический словарь. М.: Изд-во Publishers, 1993. С. 296*

*6. Tolipov F. Detecting Power in Power Projection: The Case of Uzbekistan // Sociological Problems (Sofia), 2019, No. 2*.

## TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA JAMOATCHILIK FIKRINING AHAMIYATI

**Jamila SHERMUHAMEDOVA,**
*falsafa fanlari nomzodi, dotsent*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqola ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda jamoatchilik fikrining ahamiyati ochib berilgan.*

***Kalit so‘zi:*** *ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat, siyosat, iqtisod, madaniyat, fan, texnologiya, inson.*

Har qanday zamonaviy jamiyatda mukammal ta’lim tizimisiz rivojlanish bo‘lmaydi. Ta’lim har bir davlat siyosatining asosi, iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylangan. Ta’lim jamiyatning alohida olingan faoliyati istiqbolini belgilabgina qolmasdan, o‘z atrofida boshqa ijtimoiy tizimlar (iqtisodiyot, fan, madaniyat, ekologiya)ni birlashtiradi. Rivojlangan jamiyatda inson taqdiri, uning mansab pog‘onalari bo‘ylab o‘sishi va obro‘-e’tibori ikki asosiy omilga, ya’ni sog‘ligi va olgan bilim saviyasiga bog‘liq. Ta’kidlash joizki, jamiyat qancha rivojlansa, ta’lim tizimiga bo‘lgan tanqidiy munosabat ham shuncha ko‘payadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim O‘zbekistonning innovatsion rivojlanishining eng muhim resursidir. Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida milliy ta’lim an’analarini asrab-avaylash g‘oyalari bilan ta’lim innovatsiyalarini joriy etish g‘oyalari moslashuvchan tarzda uyg‘unlashtirilgan. 2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish doirasida oliy o‘quv yurtlarida yoshlarni qamrab olishni kengaytirishga alohida e’tibor

qaratilmoqda. Ta'lim, uning sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni tizimli ravishda kengaytirish borasida tizimli tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Singapur, Hindiston kabi davlatlardagi yetakchi universitetlarning filiallari samarali faoliyat yuritmoqda. Moliyaviy institutlar va dunyoning rivojlangan davlatlari bilan hamkorlikda oliy ta'lim sohasida qator loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi vazifalar belgilab berilgan.

Jamiyatda sodir bo'layotgan sifat o'zgarishlari oliy ta'lim oldiga ham yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, ijtimoiy taraqqiyot sur'ati, demak, o'zgarishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va malakasi darajasiga bog'liq.

Jamiyatni demokratlashtirish sharoitida institut xodimlari turli ijtimoiy-kasbiy guruhlarining jamoatchilik fikrini hisobga olmasdan turib, oliy ta'lim tizimini takomillashtirish mumkin emas. Zero, bu guruhlarning fikr yo'nalishlari, mulohazalari, qarashlari bir-biridan farq qiladi va bu fikrlarning, kayfiyatlarning xususiyatlarini bilmasdan turib, jamoaning yaxlit ongini shakllantirish jarayoniga, uning maqsadli faoliyatiga ta'sir etish qiyin.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikrini o'rganish, tahlil qilish va undan foydalanishga bo'lgan qiziqish kuchayib borayotganligi sezilmoqda. Institutsional shaklning ayrim xususiyatlari allaqachon jamoatchilik fikriga xosdir: jamoatchilik fikrini o'rganish bilan shug'ullanadigan malakali mutaxassislar paydo bo'ldi; muassasalar tizimi; normalar tizimi va h.z. Xullas, institutsionalizatsiya jarayoni faol kechmoqda.

Jamoatchilik fikrining mazmunini aniqlashtirish muhim nazariy muammo bo'lib, uni tushunish jamoatchilik fikrining mohiyatini tushunishni rivojlantirish uchun zarur bo'lib, uni o'rganish, shakllantirish va ko'rib chiqish bilan bog'liq amaliy muammolarni hal qilishda ishonchli boshlanish nuqtasi bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik fikriga bunday ta'riflarning ko'pligi sabablari quyidagilardan iborat:

– tadqiqotchilar jamoatchilik fikrining mavjudligini bog'laydigan hodisalar doirasi xilma-xildir. Bu ijtimoiy va ommaviy ong, munosabat, qadriyat, manfaatlar, jamiyat hayotining faktlari va hodisalari va boshqalar;

– jamoatchilik fikri – turli xil muhim jihatlarga ega bo'lgan hodisa, ularning har biri " eng" muhim deb da'vo qilish uchun o'z asoslariga ega;

– jamoatchilik fikri konsepsiyasini belgilashda uning rivojlanishning qaysi bosqichida ekanligini, ya'ni paydo bo'lgan, shakllanayotgan yoki

amalda bo‘lgan fikr haqida bilish kerak. Fikrning rivojlanish darajasi ushbu konsepsiyaning ta’rifiga sezilarli darajada ta’sir qiladi.

Darhaqiqat, jamoatchilik fikri ommaning ijtimoiy his-tuyg‘ulari, ularning kayfiyati, tajribalari bilan, ya’ni ijtimoiy psixologiya bilan bog‘liqdir. Biroq jamoatchilik fikrining imkoniyatlari voqelik hodisalarini ijtimoiy psixologiya tilida takrorlash qobiliyati bilan cheklanmaydi. Zamonaviy sharoitda jamoatchilik fikri nafaqat ijtimoiy psixologiya, balki mafkura va fan sohasini ham qamrab oladi.

Jamoatchilik fikri ta’riflarining yana bir guruhi unga axloqiy funksiyalar va axloqiy tabiat berish bilan bog‘liq. Bugungi kunda jamoatchilik fikri nuqtayi nazariga kiruvchi hamma narsa, birinchi navbatda, axloqiy mezonlar bilan baholanadi. Biroq, jamoatchilik fikrining mohiyatini ijtimoiy ong shakli va axloqiy munosabatlar sohasi sifatida faqat axloq bilan bog‘lab bo‘lmaydi.

Ta’kidlash joizki, jamiyatda oliy ta’lim tizimini isloh qilish masalalari bo‘yicha jamoatchilik fikrini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Ko‘pgina sotsiologik tadqiqotlarning materiallari bugungi kunda jamiyatning mutaxassisga qo‘yadigan talablari va uni tayyorlashning haqiqiy darajasi o‘rtasidagi nomuvofiqlikdan dalolat beradi.

Oliy ta’limni boshqarishning demokratik mexanizmlarini yaratish mutaxassislar tayyorlash sifati va ularning ijodiy faolligini oshirishning muhim shartlaridan biri bo‘lib, oliy ta’lim tizimini inqiroz holatidan chiqarishning zaruriy sharti bo‘lib xizmat qiladi. Oliy ta’limdagi demokratik o‘zgarishlar qator innovatsion jarayonlar bilan bog‘liq: ko‘p bosqichli ta’lim tizimining joriy etilishi, oliy ta’lim tizimini boshqarishning akkreditatsiya mexanizmi, institutlarga o‘qishga qabul qilishning yangi shartlari va boshqalar.

Ma’lumki, 2018-yilda “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi o‘tkazgan so‘rovda ishtirok etganlarning 29 foizi oliy ta’lim tizimida korrupsiya keng tarqalgan degan fikrni bildirgan bo‘lsa, 2019-yilda bu salbiy ko‘rsatkich 35 foizni tashkil etgan.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi yuqori texnologiyalarning paydo bo‘lishi mehnat bozoridagi talabning o‘zgarishiga va ish beruvchilarning mutaxassislar sifatiga bo‘lgan talablarining oshishiga olib keladi. Institut bitiruvchilari ishchi kuchiga unga mutlaqo tayyor bo‘lmagan holda kiradilar, chunki ular, qoida tariqasida, standart yechimlarni qo‘llash uchun bilim, ko‘nikma ega, ammo qaror qabul qilish zarurati tug‘ilganda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Hozirgi oliy ta’lim tizimi asosan bilimlarni uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, biznesning yashovchanligi atigi 15% kasbiy bilim bilan, 85% esa shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlar bilan belgilanadi. Ko‘pgina yosh mutaxassislarning ish boshlamasligiga ularning kasbiy tafakkuri, zamonaviy ijtimoiy muloqot madaniyati, tez o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha olish ko‘nikmasining yo‘qligi sabab bo‘lmoqda.

Mehnat bozori sohasidagi tadqiqotlar quyidagi formulaga olib keldi: bugungi kunda yaxshi mutaxassisdan yaxshi xodimga o‘tish kerak. “Yaxshi xodim” tushunchasi, albatta, maxsus kasbiy tayyorgarlikni nazarda tutadi. Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bu muammoning ildizi shundaki, an’anaviy ravishda talaba ta’lim faoliyatining obyekti sifatida qaraladi va ta’lim faqat talaba uning subyektiga aylanganda samarali bo‘ladi, ya’ni unga o‘qitilmaydi, balki o‘qitiladi va u o‘qiydi. Eng mukammal tarzda tashkil etilgan jarayon, agar talabaning o‘zini o‘zi o‘rganish va tarbiyalashga intilmasa, o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida talaba dastlab o‘z-o‘zini tarbiyalashga e’tibor qaratmaydi, sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, talaba bilimning 75 foizini o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali oladi.

Ijodiy ta’lim insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va uning kasbiy ongida faoliyat variantlarini tanlash, innovatsiyalarni izlash, voqelikni mustaqil tushunish, bilimlarni harakat va o‘z-o‘zini rivojlantirish potensialiga aylantirishga qaratilgan. Ijodiy ta’lim ta’lim texnologiyalarining ijodiy salohiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi, o‘qitish usullarining xilma-xilligi, nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarning mutanosibligi, bilimlarning uzluksiz rivojlanishi, ta’lim dasturlarini shakllantirishda talabalarning faol ishtiroki kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga mos keladigan uzluksiz innovatsion ta’lim tizimini yaratish, uning pirovard maqsadi intellektual rivojlangan, ma’naviy va jismonan sog‘lom, barqarorlikni buzuvchi va o‘zgaruvchan omillarga qarshi turishga tayyor shaxsni shakllantirishdan iborat. Bunday tizimni yaratish va qo‘llash talabalarda ijodkorlik, aql-zakovat, kasbiy mahorat, axloqiy fazilatlarni shakllantirishga imkon beradi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘zini o‘zi anglash istagini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim muammolari bo‘yicha jamoatchilik fikrini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– Oliy ta’lim muammolari keng qamrovli;

– Ta’lim jamiyatning alohida olingan faoliyati istiqbolini belgilabgina qolmasdan, o‘z atrofida boshqa ijtimoiy tizimlarni (iqtisodiyot, fan, madaniyat, ekologiya) birlashtiradi;

– Kasbiy mahoratga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojning pastligidir. Hozirgi kun talabasining portretini bir nechta shtrixlar bilan quyidagicha chizish mumkin: barcha narsalarni eshitgan, nimalarnidir biladi, lekin hech narsani uddalay olmaydi. Ko‘p talabalar bilim olish uchun, kasbiy mahoratlarini oshirish uchun emas, balki hujjat, diplom olish uchun o‘qishmoqda. Aynan mana shu holat bir necha muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi;

– Oliy o‘quv yurtlari magistratura va doktoranturasiga iqtidori past yoshlar ham jalb qilinyapti. Bunday holat ilmiy pedagogik kadrlar bilan ta’minlashning me’yoriy tizimi buzilishi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi;

– Talabalarga ko‘proq akademik erkinlik, shu bilan birga shaxsiy grafik, erkin mashg‘ulotlarga qatnashish va boshqa imkoniyatlarning berilishi bilan javobgarlik hissi past;

– Oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotasiga bo‘lgan o‘zgarishlar kelajakda yoshlarning ish bilan ta’minlanishiga biroz to‘sqinlik qilish ehtimoli mavjud. Shuning uchun ta’lim va ishlab chiqarish korxonasi o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarur.

Ushbu muammolarning sabablari va uning yechimini topish oliy ta’lim muassasalari va jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi subyektlarning asosiy vazifalaridir.

## OLIY TA’LIM VA MAKTAB HAMKORLIGI ASOSIDA TA’LIM SIFATINING NAZORAT-BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Ilyosjon SIDDIQOV,**
*Farg‘ona davlat universiteti dotsenti*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada mamlakatimiz ta’lim tizimida nazorat-boshqaruv tartibining mavjud holati, real muammolar va uni bartaraf etish masalalari tadqiq etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *oliy ta’lim, maktab ta’limi, ta’lim sifati, ta’lim menejmenti, adolatli boshqaruv*

Bugungi ta’lim kuchli nazoratni va adolatli boshqaruvni talab etadi. Ta’limda nazorat va boshqaruv uyg‘unligini ta’minlash sifat va samaradorlik asosi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ta’lim sifati tizimli nazoratga olinmasa, o‘quv jarayonida ma’lum muammolar kelib chiqadi. Shuning uchun ham ta’limda nazorat-boshqaruvni olib borishda o‘quv jarayoni, ta’lim turi, imkoniyatlarini inobatga olish lozim va shunda sifat menejmentining samarali ishlashi ta’minlanadi. Ta’limda boshqaruv samaradorligi va sifat o‘zgarishi to‘g‘ri tanlangan boshqaruv modeli va uni uzluksiz ta’lim tizimiga izchil qo‘llash amaliyotidan kelib chiqadi. Zero, “islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqiyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq”[1] ligi ham ta’limning ijtimoiy taraqqiyotga ta’sirini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta’lim tizimini isloh qilish, sifatli bilim berish tuzilmasini yaratish, uzluksiz ta’limni yangi samarador jarayonga aylantirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur vazifalar ta’limda adolatli boshqaruv va umumiy nazorat tizimini ishlab chiqishni va

mavjud shaklini takomillashtirishni talab etmoqda. Shu bois bugungi kunda uzluksiz ta'lim sifatini oshirish, imkoniyatlarini kengaytirish, samaradorlikni oshirish uchun nazorat-boshqaruv jarayonini isloh qilish, takomillashtirishga doir ko'plab tadqiqotlarga, yangicha yondashuvlarga ehtiyoj kuchaymoqda. Ta'lim sifatini ta'minlash masalasi dunyoning barcha mamlakatlarida ham dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichlaridan biri sifatida ta'lim va tarbiya jarayonlari quyidagi tamoyillarga muvofiq tashkil etilishi o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi:

– davlat ta'lim standartlari talablarining bajarilishi majburiyligi;

– o'quvchilarda fan asoslari bo'yicha tizimli bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning muhimligi bo'yicha shaxsiy tushunchalar va ehtiyojlarni rivojlantirishning zarurati;

– ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishda uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash;

– ta'lim-tarbiya jarayonlarida tizimli, korporativ, vaziyatli, refleksiv, tabaqalashgan va innovatsion yondashuv texnologiyalarini tatbiq etish asosida barcha uchun qulay ta'limiy muhitni shakllantirish;

– ta'lim va tarbiya jarayonlari ishtirokchilarining mazkur jarayon subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatishi zarurati, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonlarida subyekt munosabatlarining qaror topishi;

– ta'lim va tarbiya jarayonlari subyektlari faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;

– ta'lim va tarbiya jarayonlari o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi;

– harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi;

– ta'lim va tarbiya jarayonlari yaxlit tizim sifatida tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Mazkur tamoyillarning mazmun-mohiyati, ahamiyati, ularga amal qilish zaruriyati ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirishdan ko'zlanayotgan maqsadning strategik ahamiyat kasb etishini ifodalaydi. Bu vazifalarni amalga oshirishdan ko'zlanayotgan umumiy maqsad ham strategik xususiyatlarga ega bo'lib, har bir vazifani alohida amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadlar ham mazmun-mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan strategik rejalar tizimini ifodalaydi. Umumiy maqsadga erishish yo'nalishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonlarining tizimga xos xususiyatlar kasb etishi ta'lim va tarbiya jarayonlarni o'zaro bog'liq hamda aloqador tarzda tashkil etish zaruratini belgilaydi.

Ta'lim muassasasi sifat menejmenti ta'limni tashkil qilish, ta'minlash va boshqarish jarayonini qamrab olgan kompleks tizim bo'lib, asosan o'quv jarayonini nazarda tutadi. Aslida, ta'limda boshqaruvning maqsadi

– menejment umumiy nazariyasi sohasida talabalarning bilim darajasini oshirish, ularda mazkur bilimlardan amalda foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Ya’ni asosiy e’tibor talabalarning bilim darajasini oshirish, o‘z bilimlaridan amaliyotda foydalashish qobiliyati va iqtidorini kashf etishga qaratilish zarur.

Tadqiqotchi olimlar J.Qambarov va M.Turdaliyevalarning tahlillariga ko‘ra, “ta’lim sifati muammolarini hal qilishda tizimli yo‘nalishdan foydalanib, barcha omillarni birgalikda boshqarish zarur bo‘ladi. Bu zanjirdan biror-bir omilning tushib qolishi ta’lim sifatini boshqarish tizimining buzilishiga olib keladi. Ta’lim sifatini tahlil qilish va olingan ma’lumotlar asosida boshqaruvni samarali yo‘lga qo‘yish ta’limning bir qator sifat tavsiflarini aniqlab olishni taqozo etadi”[2]. Shunday ekan, ta’lim sifati uni tahlil qilish va monitoringini o‘tkazish va uning natijalari asosida boshqaruvni tashkil etish ish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimini nazorat qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi organ Vazirlar mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hisoblanadi. Uning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori asosida tartibga solinadi. Shuningdek, har bir ta’lim muassasasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda o‘zining boshqaruv kengashi asosida nazorat qilinadi, umumiy normalar asosida boshqariladi. Ta’limni nazorat qilish va samarali boshqarishga doir “o‘tgan bir yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bevosita ta’lim-tarbiya sohasiga daxldor bo‘lgan 74 ta farmoni, qaror va farmoyishi qabul qilinganini ta’kidlash o‘rinlidir”[3]. Shunday ekan, ta’limda nazorat-boshqaruv tartibini zamonaviylashtirish, unga ochiq va adolatli boshqaruv prinsiplarini joriy qilish ta’lim sifatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, qulay muhit va rag‘batlantiruvchi bilim olish imkoniyati sifatli ta’limni ta’minlaydi, yaxshi sharoit va moddiy-texnik baza bu imkoniyatni yanada oshiradi. Davlat uchun sifatli ta’lim bu – davlat ta’lim standartini to‘liq bajarilishi va o‘quv dasturlarini muvafaqiyatli amalga oshirilishi, xalqaro standartlarga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar, yuqori malaka va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash tushunildi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 446.*

*2. KambarovJ.X. Turdalieva M.M. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2014. №7. –B. 19.*

*3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 446.*

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLAR TIZIMIDA YOSH HARBIY XIZMATCHILARNI TAYYORLASH VA O‘QITISHNING YANGI IJODIY IMKONIYATLARI

**Mansur SHEROV,**
*falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent,*
*Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti*
*Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, mayor*

***Annotatsiya.*** *ushbu maqola harbiy xizmatchilarning hayot mazmuni va kreativ tafakkurni shakllantirishning o‘zaro aloqadorligini ochib beradi. U zamonaviy talablarga javob beradigan, har sohada kreativ bo‘la oladigan mutaxassislar sonini oshirish orqali rivojlanishni takomillashtirishni ko‘rsatadi. Harbiy xizmatchilar orasida kreativ fikrlashni shakllantirish borasida muhim fikrlar ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *kreativlik, kreativ tafakkur, zamonaviylik, ilmiylik, taktik mulohaza, dialektga oid kreativlik.*

Har bir inson oldida hayot mazmuni to‘g‘risidagi masala u yoki bu shaklda keskinlik va muammolilikning turli darajasida namoyon bo‘ladi. O‘z hayotini mazmun bilan to‘ldirish insonga xos bo‘lgan xususiyatdir. U o‘z hayot faoliyati yo‘naltirilgan maqsadga ega bo‘lishga moyildir. O‘zining mangu emasligini, o‘lishini anglagan inson qandaydir mangulikka oshno bo‘lgisi keladi va jamiyatdagi o‘z o‘rnini izlaydi, o‘z hayotining qimmatini ko‘tarishga intiladi.

Insonni, uning rivojlanishini ijtimoiy taraqqiyot maqsadi sifatida ko‘rib chiqish, shaxs manfaatlari va jamiyat rivojlari manfaatlarini insonparvar, ma’naviy asosda taqqoslashga imkon beradi. Ushbu uslubiy mulohaza hayot mazmunini inson hayotining izidan, shaxsning ijodiy imkoniyatlari doimo rivojlanishi va takomillashuvidan izlashni taqazo etadi. Shu boisdan ham A.M.Korshunov “Ijod bu subyektning obyekt bilan faol o‘zaro harakatidir. Bu jarayonda subyekt maqsadga yo‘naltirilgan holda atrof-olamni o‘zgartirib, obyektiv qonuniyatlar talabiga ko‘ra yangi, ijtimoiy ahamiyatdagi olamni yaratadi. Atrof-olamga ta’sir qilib, subyekt o‘z-o‘zini ham o‘zgartiradi” [2], – deb yozadi.

Hayot mazmunini ilmiy tushunish ham inson ham jamiyat uchun obyektiv qiymatga ega bo‘lgan natijalarga amalda olib kelishi mumkin bo‘lgan strategiyani ishlab chiqishdan iborat bo‘lishi lozim. Zamonaviy sharoitda

harbiy mutaxassislarga yangi talablar qo‘yiladi, chunki aynan ularga ko‘pincha yangi g‘oyalarni amalda tatbiq etishni ta’minlashlari uchun nostandart vazifalarni hal qilish majburiyati yuklatiladi. Bu jarayon harbiy mutaxassislarda qiziquvchanlik, o‘ziga xos g‘ayratlilik, tavakkalchilik qobiliyati, yangi g‘oyalarga sezgirlik va fikrlashning o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Harbiy xizmatchilarda bunday ijodkorlik fazilatlarni tarbiyalash va umuman o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur:

1) bo‘lajak harbiy mutaxassisda kreativ tafakkurni rivojlantirish;

2) yosh harbiy kadrlarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirgan o‘quv jarayonining motivatsiyasiga erishish. Bugungi kunda ma’lum bir fanni o‘rganadigan kursant, ko‘pincha uning amaliy ahamiyatini, uning mafkuraviy rolini yetarli darajada tasavvur qilpolmaydi.

Shu sababli, kursantlarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kelajakdagi nafaqat yuqori ixtisoslashgan yo‘nalishlarda, balki doimiy ravishda yuzaga keladigan jiddiy ekologik muammolarni to‘g‘ri hal qilishga imkon beradi. Bunday yondashuv jangovar tayyorgarlik masalasi bilan o‘zaro aloqadorlikka ega.

Harbiy xizmatga nisbatan, inson hayot mazmunini ilmiy tushunishni aniqlashtirgan holda, zobitning hayot mazmuni ma’naviy, shuuriy, kasbiy va jismoniy o‘z o‘zini takomillashtirish, uning shaxsiy beqiyosligiga, yer yuzidan tinchlikni saqlash, tajavvuzkorlikning oldini olish xalqning tinch mehnatini ishonchli tarzda qurol bilan himoya qilishni ta’minlash borasida hayotiy, xizmat yo‘lini har bir bosqichidagi salohiyatlari va yaratuvchanlik imkoniyatlari birligidan iboratdir deb aytish mumkin. Zobitning hayot mazmuni u qanchalik turli tuman bo‘lmasin o‘z mohiyatiga ko‘ra oddiy fuqaro mazmunidan farqli bo‘lolmaydi.

Harbiy xizmatning o‘ziga xosligi shaxsdan doimiy harbiy-texnik takomillashuvni ruhiy va jismoniy chiniqishni, og‘ir mehnatning doimiy bosimiga chidashni taqazo etadi. Shu bilan bir qatorda mustaqillik, yaratuvchanlik, qarorlar qabul qilishda bir qolipda turmaslik zarurati , kishilar bilan muntazam ishlash zobitning shaxsiy beqiyosligini namoyon etish va amalga oshirishga imkon beradi. Biroq, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ayni vaqtda, aytish joizki, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi zamon talablariga to‘liq javob bermaydi. harbiy o‘quv yurtlarida zamonaviy shart-sharoitlarni xo‘jako‘rsinga yaratganimiz yo‘q. ...Aksincha, kursantlarimiz va tinglovchilarimiz ta’lim sohasida eng ilg‘or, innovatsion bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Mana, bizning asosiy maqsadimiz”. [1]

Harbiy xizmat sharoitlari insonning ma’naviy, kasbiy, harbiy tiklanishi vaqtini imkon qadar “ixchamlashtirib” qo‘yadi. Shu tarzda uning o‘z o‘zini namoyon etishni o‘zida mavjud qilgan yashirin salohiyatlarini amalga

oshirish jarayonini jadallashtirib yuboradi. Shu bilan bir qatorda kundalik hayotning har bir lahzasida: oilada, sport maydonida, xovlida, teatrda va boshqa joylarda o‘zini shaxs sifatida namoyon etadi. U ham boshqa har qanday kasbdagi kishilar singari kechinmalarning umuminsoniy qadriyatlariga ega. Bu eng avvalo san’at asarlaridan zavqlanish, atrof olamni ma’naviy anglash imkoniyatlaridir. Shunday qilib, hayotiy qadriyatlarning (yaratuvchanlik, ijodkorlik, kechinmalar, munosabatlar) zobit hayot mazmunining ma’nosini tashkil etadi. Uning kasbidagi tilga olingan o‘ziga xosliklar hayot mazmunini harbiy xizmatga bag‘ishlashda hayot mazmuniga ega bo‘lishning obyektiv imkoniyatlari mavjudligidan darak bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimida kreativ tafakkur harbiy xizmatchilarni tayyorlash va o‘qitishning yangi ijodiy qonunlarini o‘rganish va amalga oshirishda, ofitserlarni tayyorlashda alohida o‘rin tutadi. Shu boisdan ham kreativ tafakkur bir qator dialektik xususiyatlarga ega. Kreativ tafakkur bu harbiy ijodiy izlanishlarning fundamental asoslari va qonunlarini, harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarni ilmiy salohiyatini yuksaltiruvchi muhim omil hisoblanadi. Kreativ tafakkurning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u harbiy xizmatchilarda haqiqiy ijodiy-jangovar vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi. Kreativ tafakkurni yuksaltirish vazifalarini o‘z vaqtida hal etish, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar kuchini kuchaytirish manfaatlarida inson omilini faollashtirishning yangi usul va vositalarini izlashga imkon beradi.

Qo‘mondonlar orasida zamonaviy ilmiy-ijodiy tafakkurni shakllantirish, funksional va o‘quv vazifalarini sifatli bajarish, harbiy jamoada qonun, huquq-tartibot va harbiy intizomni o‘rnatish uchun o‘ziga xos ijodiy muhit, hamjihatlik, o‘zaro talabchanlik va shaxsiy javobgarlik muhitini yaratishga zamin yaratadi.

Kreativ tafakkur muammolarini hal qilishda ijodkorlik harbiy kasb ta’limi samaradorligini oshirishga imkon beradigan alohida masaladir.

Bu jarayon quyidagi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1) ijodiy tayyorgarlik
2) ijodiy anglash
3) inkubatsiya davri
4) ijodiy yuksaklik.

Ushbu ijodiy bosqichning barchasini har qanday kasbiy faoliyat sohasida samarali qo‘llash mumkin, chunki bu bosqich har doim muammoni o‘z vaqtida hal qilishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, yosh harbiy mutaxassis faoliyatining har qanday sohalarida kelgusida mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun ijodiy algoritmni ishlab chiqish muhim o‘rinni egallaydi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

Trening. Bu ijodiy rejalashtirish bosqichidir. Unda nazariy ma’lumotlar yig‘iladi, muammo aniq shakllantiriladi va tadqiqot natijalari to‘g‘risi-

da ilmiy-ijodiy taxminlar ishlab chiqiladi. Ushbu bosqichda aniq ratsional maqsadlar belgilanadi va natijalar aniqlanadi. Shuningdek, tadqiqot olib borishning to‘g‘ri yo‘nalishi tanlanadi, zarur vositalarning mavjudligi tekshiriladi va tajriba strategiyasi ishlab chiqiladi.

Tushkunlik ijodiy anglash va lazzatlanish bosqichi. Ushbu bosqich harbiy mutaxassisdagi umidsizlikka tushish, o‘z qobiliyatiga nisbatan ishonchsizlikni bartaraf etish ustuvor o‘rinni egallaydi. Agar bu bosqichda ustoz to‘siqni yengib o‘tishning yo‘lini ko‘rsatmasa yoki uning o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni ilhomlantirmasa ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Shu boisdan ham bu jarayonda ijod lazzatini his qilish va anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Inkubatsiya davri. Muammoni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelganingizdan so‘ng, uni hal qilishni biroz vaqtga kechiktirishingiz, harbiy xizmatchilarning diqqat e’tiborini boshqa masalalarga o‘zgartirishingiz kerak.

Ijodiy yuksaklik bosqichi. Bu ongdan ongga o‘tish, miyaning chap va o‘ng yarim sharlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Ushbu bosqichda insonning noyob ijodiy sezgi qobiliyati ustuvor o‘rinni egallaydi. Bu intuitiv yechimlar nafaqat samarali, balki ijodiy yuksaklikka intilishga ham yordam beradi. Bu bosqichda inson o‘z taxminlarini tekshirishi, ularga maqbul shaklni berishi mumkin. O‘z maqsadlariga erishishda ishonchi komil bo‘lish uchun qat’iy ilmiy, oqilona, hatto pragmatik yondashuv zarurdir.

Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch hayot sharoitida ham davolash juda murakkab masaladir. Shu munosabat bilan tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi bo‘yicha prinsipial jihatdan yangi meyoriy hujjatlar ishlab chiqishi zarur. Bu borada asosiy e’tiborni harbiy-amaliy masalalarni hal etishga yo‘naltirish lozim. Harbiy xizmatchilar har tomonlama sog‘lom va chidamli bo‘lishi, har qanday murakkab jismoniy va ruhiy sinovlarga bardosh berishi kerak”. [3]

Xullas, kreativ tafakkur, tasavvur, qiziquvchanlik rivojining past darajasi mazkur harbiy ta’lim tizimi shaxsga uning madaniyatiga nisbatan axborotlashtirish, hissiy-emotsional tomoniga nisbatan ratsional jihati ustuvorligi saqlanib qolinayotganligidan dalolat beradi. Ya’ni bu ta’lim tizimi doirasidagi faoliyat asosan kursantlarga bilim uzatishga yo‘naltirilganligini, ta’lim jarayonining o‘zi esa didaktotsentrik texnologiyaga asoslanganligini va unda o‘qituvchi va kursant o‘rtasida subyekt-subyektli munosabatlar hukmronligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai-nazardan, o‘qituvchi darsga qanchalik mukammal tayyorgarlik ko‘rmasin, uning taktikasi va qo‘llayotgan metodikasi kursantlarni yangi pog‘onaga olib chiqishiga xizmat qilmaydi, zero an’anaviy ta’lim texnologiyalar asosida avtoritar pedagogika asoslari va talablari joriy qilingan bo‘lib, individual va ijodiy qobiliyatlarni namo-

yon qilishga sharoit yaratilmagan. Kreativ-pedagogik adabiyotlar tahlili ko‘rsatishicha, kursantlarda ijodiy qobiliyatlar maqsadli ta’limi o‘quv jarayonida ijodiy muhit yaratilishini ta’minlaydigan ta’lim maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Sh. M. Mirziyoyev. Xavfsizlik kengashi majlisidagi “Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” mavzusidagi nutqi. // – Xalq so‘zi gazetasi. 2018-yil, № 3.*

*2. Коршунов А.М. Мантатов В.В. Диалектика социального познания. – М.: Политиздат 1988. – 383 с.*

3. http://uza.uz/oz/politics/Qurolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-barqarorligi-va-taraqqiyotini-11-01-2018

## KONSTITUTSIYA – TA’LIM ISLOHOTLARINING POYDEVORI

**G‘.Z.IKMATULLAYEV,**
*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*
*kafedra boshlig‘i o‘rinbosari,*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada Konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotida, jumladan ta’lim islohotlarini amalga oshirishda tutgan o‘rni va roli yoritib berilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilgan ta’lim islohotlarining mazmun-mohiyati tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *konstitutsiya, davlat, jamiyat, huquq, ta’lim, uzluksiz ta’lim, maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, professional ta’lim, oliy ta’lim, bilim, inson.*

*“Konstitusiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to‘liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog‘i lozim”.*

**Shavkat MIRZIYOYEV**

Konstitusiya har bir mamlakatning suvereniteti, milliy davlatchiligi rivoji, fuqarolarining hayoti, jamiyatdagi o‘rni va turmush tarzini belgilab beruvchi asosiy qonunidir.

Bosh qomusimiz – O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – xalqimizning inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini ifoda etib, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalariga asoslangan,

insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishning mustahkam yo‘lini belgilab berdi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 29 yilligi bayrami munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigida “Farzandlarimiz Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida maydonga chiqayotgan bugungi kunda Konstitusiyamizda yoshlarning huquq va manfaatlarini to‘la ta’minlash maqsadida yoshlar sohasidagi davlat siyosati, o‘g‘il-qizlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi, ularning huquq va burchlari konstitusiyaviy darajada o‘z aksini topishi kerak” [4] – deb alohida ta’kidlab o‘tgan edilar.

Yangi tahrirdagi Bosh Qomusimiz universal xarakterga ega bo‘lib, jamiyat hayotidagi barcha sohalardagi eng ustuvor tamoyillarni o‘zida aks ettirdi. Jumladan, jamiyat hayotining ajralmas qismi hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimining Konstitusiyaviy asoslari ham bevosita Bosh qomusimizda mustahkamlab qo‘yildi.

Ma’lumki, har bir inson kamolotida bilim muhim o‘rin egallaydi. Gyote ta’biri bilan aytganda, “Inson dunyoni qanchalik bilsa, o‘zligini ham shunchalik anglaydi”.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida bilim olish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, uning 50-moddasida har kim bilim olish huquqiga egaligi, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi, maktabgacha, umumiy o‘rta va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlashi belgilangan.

Konstitusiyamizda belgilangan ushbu normaning amaldagi ifodasi sifatida mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish borasida tizimli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahrirda qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatining takomillashtirilishi buning amaliy ifodasidir.

Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Uchinchi Renessansning to‘rt uzviy xalqasi bo‘lmish bog‘cha, maktab, oliy ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish masalalarini konstitusiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yish ham maqsadga muvofiqdir”, degan fikrlarini alohida e’tirof etish o‘rinlidir.

So‘nggi yillarda uzluksiz ta’limning boshqa bosqichlari qatori oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida ham muhim ishlar amalga oshirildi. Respublikamiz hududlarida nufuzli xorij va mahalliy oliy ta’lim muassasalarining filiallari, nodavlat oliy ta’lim muassasalari tashkil etilib, qabul kvotalari soni oshirildi. Sirtqi, masofaviy va kechki ta’lim shakllarining joriy etilishi ko‘plab fuqarolarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqini ta’minlashga



ZJV5401

xizmat qilayotganini alohida ta’kidlash joiz. Amalga oshirilgan ishlar samarasi o‘laroq 2017–2021-yillarda fuqarolarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi oldingi 9 foizdan 28 foizga yetdi. 2030-yilda maktab bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Jahon amaliyoti islohotlarni amalga oshirishda aynan jamiyat va davlatni modernizatsiya qilishning konstitusiyaviy-huquqiy asoslarini rivojlantirish muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatmoqda. Bugun dunyoda biror bir konstitusiya ilk bor qabul qilingan tahririda saqlanib qolmagan. Birgina XXI asrda dunyoning 90 ga yaqin davlatlarida konstitusiyaviy islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirildi, 57 tasida yangi konstitusiyalar qabul qilindi. Bunda Konstitusiyaga eng ko‘p o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritgan o‘nta davlatlar sirasiga Meksika, Yangi Zelandiya, Braziliya, Shveysariya, Avstriya, Isroil, Chili, Kolumbiya, Gruziya va Hindiston kiradi [1].

Atoqli davlat va siyosat arbobi Uinston Cherchillning “Yaxshi bo‘lish uchun o‘zgarish kerak, yaxshilarning yaxshisi bo‘lish uchun esa yanada ko‘proq o‘zgarish kerak”, degan so‘zlari bugungi shiddatli davrda doimo o‘z isbotini topib kelmoqda.

Mamlakatimiz hayotidagi muhim voqealardan biri sifatida “O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitusiyaviy qonun loyihasining umumxalq muhokamasidan o‘tkazilganini e’tirof etish muhim. Muhokama davomida xalqimizdan ko‘plab takliflar kelib tushdi. Mazkur takliflar asosida, Konstitusiyamizda ta’lim-tarbiya masalalariga alohida ustuvorlik berilayotgani barchamiz uchun quvonarli holatdir.

Shu o‘rinda ba’zi rivojlangan xorijiy mamlakatlar Konstitusiyasida ta’lim tizimining ifodalanishi xususida so‘z yuritganda quyidagi qiziqarli va qammatli ma’lumotlarga guvoh bo‘lamiz.

“Bilim olish huquqi ayrim mamlakatlar, jumladan AQSh Konstitusiyasida ko‘rsatilmagan va faqat shtatlar konstitutsiyalarida ko‘rsatilgan xolos” [2].

“Germaniya Konstitusiyasiga muvofiq, maktab ta’limi davlat nazoratida. Mamlakatda o‘n oltita federal yer mavjud bo‘lsa, ularning har biri o‘zining ta’lim to‘g‘risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal yerlarda maktab ta’limida ayrim farqlar bor” [3].

1946-yilda qabul qilingan Yaponiya Konstitusiyasida fuqarolarning ta’lim sohasidagi huquq va burchlari belgilab berilgan. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta’lim olishlari shart ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodning milliy va jahon ilm-fan yutuqlarini o‘rganish, o‘zlashtirishga intilishini rag‘batlantirish, fundamental fan asoslarini puxta egallashi uchun shart-sharoit yaratish, barcha sohalarda raqobatbardosh va malakali kadrlarni tayyorlash, ularning ilmiy, ijodiy va innovatsion qobiliyatini oshirish, iqtidorlarini

ro‘yobga chiqarish, iste’dodli yoshlarni izlab topish, ularni ilmiy faoliyatga jalb qilish hamda har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda, islohotlar hamda belgilab berilgan vazifalar izchillik hamda uzviylik tamoyili asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Yangi O‘zbekiston “Taraqqiyot strategiyasi” milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab berdi. O‘tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy manzarasi butunlay o‘zgardi. Erkinlik va ochiqlik, qonun ustuvorligi, jahon hamjamiyati bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyil davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylandi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi da’vatkor nutqlarida “Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik” – deb alohida ta’kidlab o‘tganlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, Milliy gvardiya Harbiy-texnik institutining O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti etib qayta tashkil etilganligini mazkur islohotlarning uzviy davomi sifatida qayd etish mumkin. Jamoat xavfsizligi universitetiga kunduzgi ta’lim shaklining bakalavriat va magistratura dasturlari bo‘yicha umumiy asoslarda yurisprudensiya, psixologiya va iqtisodiyot sohalarida kadrlarni talabalar tarkibiga kiritgan holda tayyorlash huquqi berildi. 2021–2022-o‘quv yilidan boshlab Universitetga kursantlar bilan birga, yuqoridagi yo‘nalishlarda bakalavr bosqichi uchun umumiy asosda talabalar ham qabul qilindi.

Kursantlar bilan bir qatorda Universitetga talabalarning ham qabul qilinishi ta’lim jarayonida o‘zaro raqobat muhitining yuzaga kelishiga, bu esa ta’lim sifatining yanada yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Jamoat xavfsizligi universiteti katta maqsadlar yo‘lida ildam odimlab ketmoqda. Universitet o‘z oldiga zamon talablariga mos ta’lim sifatiga erishish, mahalliy va xorijiy darajada nufuzini oshirish, ilg‘or ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida faoliyat ko‘lamini kengaytirishni maqsad qilib qo‘ygan.

Muxtasar qilib aytganda, Konstitusiya huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda bundan keyin ham mustahkam kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda qo‘lga kiritayotgan olamshumul yutuq va tarixiy g‘alabalarimiz jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilayotgani quvonarli hol, albatta. Bunday yutuqlarning tag zamirida, birinchi navbatda, demokratik prinsiplar asosida yaratilgan Konstitusiyamiz mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. А.Саидов. Замонавий конституционализм: миллий ва хорижий тажриба. “Халқ сўзи” газетаси. 14.12.2021 й.*

*2. А.Азизхожаев ва бошқ. “Хорижий мамлакатлар конституциявий ҳуқуқи”. Дарслик. Тошкент-2010. ТДЮУ нашриёти. 157-Б.*

*3. И.Мамажонов ва Р.Маматов. “Германия давлати таълим тизими”. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали. №6, ноябрь-декабрь, 2017 йил.*

*4. “Daryo.uz” расми сайти, 07.12.2021 й.*

## SIFATLI TA’LIM – UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

**Bo‘ri QODIROV,**
*IMTI bo‘lim boshlig‘i, t.f.n, dotsent.*
**Zoirxo‘ja O‘LMASXO‘JAYEV,**
*IMTI ilmiy hodimi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori.*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada yurtimizda 2016-yildan boshlab qanchadan-qancha ijobiy islohotlar, jumladan ta’lim sifatini oshirish maqsadida yurtboshimiz rahbarligi ostida hukumatimiz tomonidan olib borilgan ishlar ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *yoshlar, qonun, islohot, ta’lim muassasalari, ta’lim sifati, grant, doktarantura, stajirovka.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2016–2021-yillarda yoshlar siyosatiga doir 5 ta qonun va 55 ta qonunosti hujjati qabul qilindi. 2016-yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida yoshlarga oid daavlat siyosati yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qilishi alohida ta’kidlanib, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar qonun bilan mustahkamlandi. Mazkur qonunda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida qator ishlar amalga oshirildi. Mazkur ishlar natijasida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgandan buyon 841147 nafar yoshning bandligi ta’minlandi. 2021-yilning birinchi yarmida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 78140 nafar yosh ishga joylashtirilgan bo‘lib, 5684 nafar yoshga subsidiyalar ajratildi, ijtimoiy himoyaga muhtoj 127 nafar talabaning 350 million so‘mlik to‘lov shartnoma mablag‘lari to‘lab berildi.

Yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularning tashabusini moliyalashtirish maqsadida 2018-yildan boshlab hududlarda 25 ta “Yosh tadbirkorlar”

kovorking markazi va 157 ta “Yoshlar mehnat guzari” kompleksi faoliyat boshladi. “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi doirasida respublikaning tuman va shaharlarida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ‘ib qilish va ro‘yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur g‘oyani amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida “5 tashabbus loyiha ofisi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tegishli loyihalar, jumladan, “Sport karvoni”, “Bir million dasturchi”, “Eng yaxshi kitobxon oila” kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan yigit-qizlarni rag‘batlantirish maqsadida “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta’sis etildi. O‘tgan vaqt davomida 113 nafar yosh “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan, 75 nafari esa “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlandi.

Ta’lim-tarbiya sohasida ham so‘nggi yillarda ulkan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tizim tubdan isloh qilindi. Mazkur sohada yoshlar manfaatlarini ko‘zlab ko‘plab o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Birinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablari faoliyati tubdan yangilandi. O‘tgan besh yil davomida kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi ikki barobar ortib, 60 foizga yetdi. Bugungi kunda bog‘chalar soni 14 mingdan oshdi. Dars sifatini oshirish maqsadida boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan yosh o‘qituvchilar oyligiga ustama haq to‘lash tizimi joriy etildi.

Ikkinchidan, yoshlarning oliy ta’limga qamrovi oshirildi. 2016-yilda mamlakatimizda 65 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2021-yilda respublikadagi jami oliy ta’lim tashkilotlari soni ikki barobardan ko‘prog‘ga ortib, 127 taga yetdi.

Uchinchidan, ta’lim tizimidagi davlat siyosati takomillashtirildi. Ta’lim sohasini tubdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Yoshlarimizni nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishini ta’minlash maqsadida “El-yurt umidi” jamg‘armasi tuzilib, xorijda bakalavriat, magistratura va doktoranturada o‘qish uchun stipendiyalar ajratildi. 2018–2020-yillarda mazkur jamg‘arma tomonidan 54 nafari xorijga magistraturaga, 42 nafari doktoranturaga, 191 nafari stajirovkaga, 698 nafari esa malaka oshirishga yuborilgan. 2021-yilda jamg‘arma tomonidan bakalavriatga 69 ta, magistraturaga 112 ta, doktoranturaga 91 ta o‘rin ajratilgan.

Dunyoning eng nufuzli universitet va ilmiy markazlarida ta’lim olgan, innovatsion kompaniyalarida stajirovka o‘tagan yetuk bilim va malaka-

ga ega bo‘lgan, o‘z Vatani ravnaqi yo‘lida tinimsiz mehnat qilishga tayyor kadrlarni xorijda tayyorlash albatta mamlakat rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bu yilgi Murojaatnoma ham O‘zbekistonning tashqi va ichki siyosati parametrlarini belgilaydigan, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar dasturilamali bo‘ldi. Davlatimiz rahbari kelgusi yillardagi ustuvor vazifalar, yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti mezonlarini, dolzarb yo‘nalishlarini ko‘rsatdi. Yangi O‘zbekiston kelajagini qurish, obod va barqaror jamiyat barpo etishning strategik yo‘nalishlari, barkamol avlodni tarbiyalashning ma’naviy ahamiyati, aniq maqsad va vazifalarini belgilab berdi.

Murojaatnomani tinglagan, kuzatgan, tanishib chiqqan keng jamoatchilik vakillari unda sanab o‘tilgan barcha sohalarda jiddiy islohotlarni amalga oshirish zaruratini to‘liq anglab yetdi. Ma’ruzada mazkur islohotlar, ijtimoiy o‘zgarishlarda, Taraqqiyot strategiyasini belgilash va amalga oshirish bosqichlarida faol ishtirok etish, davlat tuzilmalari, aholi qatlami – barchaga fikr-mulohaza, taklif bildirish uchun jamoat platformasi yaratilgani ko‘rsatib o‘tildi. Prezidentimiz Murojaatnomada kelgusi yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar mohiyatini sharhlar ekan, asosiy e’tiborni xalqimiz farovonligi, yurt tinchligi, inson qadri, manfaatlari kabi tamoyillarga qaratdi. 2023-yilda davlat siyosatining ustuvor vazifalarini o‘z ichiga olgan, konseptual yechimlarni talab qiladigan mexanizmlar, muvofiqlashtirilgan faoliyat dinamikasiga ega olti yo‘nalish taqdim etildi.

Kelajagimiz porloq bo‘lishi uchun bugundan harakatlarni davom ettirib, jiddiy islohotlarni amalga oshirib, tarbiyaviy jihatlarga yanada ko‘proq ahamiyat berishimiz maqsadga muvofiq. Bu o‘rinda bir qator mulohazalar borki, ularni o‘rtoqlashish vaqti keldi. “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda”, dedi muhtaram Prezidentimiz. Tarix zarvaraqlariga yoziladigan gaplar. Yillar davomida o‘z mazmun-mohiyati, dolzarbligini yo‘qotmaydigan shior. Ajdodlar ilmiy merosi bo‘lgan beqiyos asarlarni, xalqimizning azaliy qadriyatlari, islom tafakkuri bilan ziynatlangan ma’naviyatini chuqur o‘rganish, o‘rgatish, ma’rifatli jamiyat qurish bugungi kun ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim-tarbiya sohalarining ustuvor vazifasiga aylanib ulgurganini anglashimiz lozim. Yurtimizda oliy o‘quv yurtlari soni yil sayin ortib bormoqda. Yoshlarni ta’lim jarayoniga qamrab olish salmog‘i oshmoqda. Yetishib kelayotgan yosh avlodni savodli, ma’rifatli, bilimdon qilib tarbiyalash davlatning, jamiyatimizning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Mazkur ishlarni tizimli davom ettirish, ta’lim jarayoni uzviyligini ta’minlash borasida maqsadli vazifalarni belgilab olish va ularni amalga oshirish muhim. Bu masalada jamoatchilik fikri, taklif va tavsiyalari, o‘rni kelganda, tanqidiy mulohazalariga ham e’tibor qaratish, mavjud muammolarni hal etishning konseptual yechimlarini ishlab chiqish kerak. Bu haqda Preziden-

timiz Murojaatnomada "...xalqimiz ko'targan barcha masalalarni aniq yechimlari bilan kiritish, ushbu jarayonlarga deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyolilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchiligimizdan faol bo'lishni, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishini" ta'kidlab o'tdi. Shu o'rinda respublikamizda oliy ta'lim sohasini jiddiy va tizimli isloh qilish zarurati yuzaga kelgani sezilib qoldi. Buyruqbozlik, qog'ozbozlik, hisobotbozlik, markaziy boshqaruv tizimining eskirgan usullari, turli mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlariga umumiy ta'lim standartlarining hanuz qo'llanilishi kabi nomutanosib yondashuv to'liq barham topganicha yo'q.

2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanishi chuqur ramziy ma'noga ega. O'zbekistonda oxirgi yillarda inson qadri, shaxs kamoloti, yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining markaziy va ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Davlatimiz rahbari xalqni rozi qilish, qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyalash tizimiga jiddiy e'tibor qaratmoqda va barchadan shuni talab qilmoqda. Shu jihatdan ta'lim sohasida kam ta'minlangan oila farzandlariga alohida yondashuv prinsipini ishlab chiqish taklif etiladi. Prezidentimizning "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" g'oyasi ham doimo vatandoshlarimizni qo'llab-quvvatlash, manfaatlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratilishini anglatadi. Mahalla boshqaruvi tizimi, hokim yordamchisi tavsiyasi bilan oliy o'quv yurtiga qabul qilinadigan yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'lim dargohlarining ichki imkoniyatlari, davlat korxona va tashkilotlari, homiylar, katta va kichik biznes tuzilmalari, saxovatpesha insonlar moliyaviy yordamini tashkil qilishning amaliy mexanizmini yaratish maqsadga muvofiq. Shuningdek, yetishib chiqayotgan mutaxassis kadrlarni ish bilan ta'minlashi mumkin bo'lgan potensial ish beruvchi korxonalar bilan ham uzoq muddatli shartnomalar tuzish shartlarini ko'rib chiqish mumkin.

So'nggi yillarda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni komil inson sifatida yetishi uchun zamin yaratildi. Yoshlarga berilayotgan bu e'tibor, oxir-oqibat, o'z mevasini bermoqda. Bunga yoshlarimiz xalqaro va respublika miqyosida erishayotgan yutuqlari yaqqol dalildir. Mazkur islohotlarning samarasi o'laroq kelajagimiz bunday yoshlar qo'lida porloq bo'lishiga hech qanday shubha yo'q. Chunki aynan bugungi yoshlar ertangi kunimizning, Yangi O'zbekistonning, Uchinchi Renessansning poydevori hisoblanadi.

ZJV5401

# YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TIBBIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

**Shaxlo DJAMALDINOVA,**
*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent*

***Annotatsiya.*** *hozirgi vaqtda tibbiyot xodimlariga bemorlar va ularning oila a’zolari bilan samarali muloqot qilish, empatiya kabi hissiy muloqot qobiliyatlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu ko‘nikmalar yuqori sifatli parvarish va bemorni talablarini qondirish uchun zarurdir. Bugungi kunda hissiy-kommunikativ kompetentsiya tibbiyot, psixologiya, biznes va ta’lim kabi ko‘plab sohalarda ta’lim va ta’limning muhim tarkibiy qismidir. Muvaffaqiyatli ish faoliyati rivojlantirish va shaxsiy farovonlik uchun hissiy-kommunikativ kompetentsiya muhimligini tasdiqlovchi ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, uni rivojlantirish va o‘qitish usullarini ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *hissiy va kommunikativ kompetentsiya, oliy tibbiy ta’lim muassasalari, tibbiy yordam, qobiliyat.*

***Mavzuning dolzarbligi.*** Oliy tibbiy ta’lim muassasalari talabalari uchun hissiy va kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki samarali muloqot sog‘liqni saqlash sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u tibbiyot xodimlariga bemorlar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish va ularga eng yaxshi yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Boshqa tomondan, hissiy kompetentsiya talabalarga o‘zlarining his-tuyg‘ularini tushunish, stress holatiga tushmaslik va o‘zini boshqarishda yordam beradi. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish orqali talabalar yaxshi tibbiy yordam ko‘rsatuvchi bo‘lishlari va o‘z bemorlariga ko‘proq mehr bilan yordam ko‘rsatishlari mumkin. [1]

Kommunikativ kompetentsiya bu – muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘plami. Bu insonning boshqalar bilan samarali munosabatda bo‘lish, hamdardlik ko‘rsatish, tinglash, ifodali gapirish, ishontirish va boshqa odamlarning fikrlarini hisobga olish, shuningdek, ularning his-tuyg‘ularini tushunish va nazorat qilish qobiliyatidir.

Shifokorlar har kuni bemorlar va ularning qarindoshlari bilan muloqot qiladigan professionallardir. Shu bilan birga, hissiy va muloqot qobiliyatlari shifokorning muvaffaqiyatli ishlashi uchun eng muhim va zarurdir. Ushbu ko‘nikmalarni yetarli darajada o‘zlashtirmaslik noto‘g‘ri tushunish, nizolar, tashxis qo‘yish va davolashdagi xatolarga, bemorlarning ishonchsizligiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan bo‘lajak shifokorlarning hissiy va kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish tibbiyot oliy o‘quv yurtlari o‘quv jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi kerak.[2]

Bo‘lajak shifokorlarning hissiy va kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish dolzarbligining ba’zi asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Bemorni parvarishlash: Bemorlarning his-tuyg‘ularini tushuna oladigan va ularga hamdard bo‘la oladigan tibbiy yordam ko‘rsatuvchi provayderlar ularga o‘zlarini qulay his qilishlariga yordam beradi va o‘ziga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi, bu esa bemorning natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

2. Kasblararo hamkorlik: Yaxshi muloqot ko‘nikmalari sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislariga samarali hamkorlik qilish, jamoaviy ishlarni yaxshilash va tibbiy xatolar yoki davolanishni kechiktirishga olib keladigan tushunmovchiliklarni kamaytirish imkonini beradi.

3. Hissiy farovonlik va chidamlilik: Tibbiyot xodimlari ko‘pincha hissiy jihatdan qiyin vaziyatlarga duch kelishadi, jumladan, hayot va o‘lim haqida qaror qabul qilish, yomon xabarlarni yetkazish va yuqori darajadagi stressni yengish. Hissiy kompetentsiya ularga his-tuyg‘ularini boshqarishga va sog‘lom ish va hayot muvozanatini saqlashga yordam beradi.

4. Mojarolarni hal qilish: Emotsional va kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish orqali sog‘liqni saqlash xodimlari mojarolarni yaxshiroq boshqarishi, qo‘llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratishi va bemorning ehtiyojlari ustuvor bo‘lib qolishini ta’minlashi mumkin.

5. Madaniy kompetentsiya: Tibbiyot mutaxassislari bemorlar va hayotning turli qatlamlaridagi hamkasblar bilan muloqot qilishlari kerak. Emotsional va kommunikativ kompetentsiya ularga madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilishda yordam beradi, yaxshi munosabatlar va samarali muloqotni rag‘batlantiradi. [3]

*Vrach va bemor o‘rtasidagi samarali muloqotning bosqichlari.*

**Muloqotning aloqa bosqichi**. Shifokor va bemor o‘rtasidagi professional muloqotning birinchi bosqichidir. Aloqa bosqichida shifokor o‘z bemorini tanib oladi, ular o‘rtasida psixologik aloqa o‘rnatiladi, bir-birlari haqida birinchi taassurot shakllanadi va keyingi shaxslararo o‘zaro ta’sir uchun zarur shart-sharoitlar shakllanadi. Shifokor uchun bemorga samarali psixologik “qo‘shilish” muhim ahamiyatga ega.

**Oriyentatsiya bosqichi.** Aloqa bosqichida shifokor bemorni o‘ziga jalb qilishga intiladi, tabiiy, ochiq pozitsiyani egallaydi, imo-ishoralar va yuz reaksiyalarini, ovoz intonatsiyasini, nutqning tezligini va ritmini nazorat qiladi.

**Argumentatsiya bosqichi.** Fazaning asosiy mazmuni og‘zaki (bemorni so‘roq qilish shaklida, suhbat davomida paydo bo‘ladigan turli aniqlovchi savollar) va og‘zaki bo‘lmagan (bemorni tekshirish shaklida) bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlarni olishdir.

**Sozlash bosqichi.** Bemor bilan uchrashuv nafaqat professional, balki psixologik jihatdan ham yakunlanishi kerak. Shifokor suhbatni qaysi so‘zlar bilan yakunlashi muhim.[4]

Talabalar bemorlar bilan muloqot qilishda duch keladigan ba'zi umumiy muammolar:

1. Hissiyotlar bilan ishlash. Bemorlar qo'rquv, tashvish, qayg'u yoki g'azab kabi turli xil his-tuyg'ularni boshdan kechirishi mumkin, bu esa muloqotni qiyinlashtiradi. Talabalar bu his-tuyg'ularga qanday munosabatda bo'lishni va to'g'ri javob berishni o'rganishlari kerak.

2. Tibbiy jargondan amaliyotda foydalanish.

Bemorlarga tibbiy atamalarni tushunish qiyin bo'lishi mumkin, talabalar esa o'zlari bilmagan holda jargondan foydalanishlari mumkin. Bu chalkashlik va tushunmovchilikka olib kelishi mumkin.

3. Vaqtning yetishmasligi. Ish bilan band bo'lgan klinik sharoitda talabalar tezda muloqot qilish uchun shoshilish kerakligini his qilishlari mumkin, bu esa bemorlar bilan munosabatlarni o'rnatish va ularni tashvishlargan savollariga to'liq javob bermaganini tushunishni qiyinlashtirishi mumkin.

4. Ishonchni shakllantirish. Bemorlar, ayniqsa, o'tmishda salbiy tajribaga ega bo'lgan bo'lsa, sog'liqni saqlash mutaxassislariga ishonishda ikkilanishlari mumkin. Talabalar samarali muloqotni osonlashtirish uchun bemorlar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish uchun ishlashi kerak.

5. Nozik mavzularga murojaat qilish. Talabalar hayotini tugatish, ruhiy salomatlik yoki giyohvand moddalarni suyiste'mol qilish kabi nozik mavzularni muhokama qilishlari kerak bo'lishi mumkin. Ushbu suhbatlar murakkab bo'lishi mumkin va sezgirlik va empatiyani talab qiladi.

6. Turli aholi guruhlariga moslashish. Bemorlar turli madaniyatlardan keladi va turli xil muloqot uslublari va umidlariga ega bo'lishi mumkin. Talabalar turli populyatsiyadagi bemorlar bilan muloqot uslublarini qanday moslashtirishni o'rganishlari kerak bo'ladi.

7. Empatiya va professionallik o'rtasidagi muvozanat. Talabalar uchun hamdardlik hamda kasbiy chegaralarni hurmat qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlash qiyin bo'lishi mumkin. Empatik va professional tarzda muloqot qilishni o'rganish sog'liqni saqlash xodimlari uchun muhim mahoratdir.[5]

***Bo'lajak shifokorlarda emotsional va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun qanday usul va usullardan foydalanish mumkin.***

**Psixolog bilan ishlash**. Ta'lim jarayonining bir qismi sifatida talabalarga empatiya, samarali tinglash, ishontirish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan, shuningdek, his-tuyg'ularini nazorat qilishni o'rgatadigan psixolog bilan maslahatlashish imkoniyatini berishingiz mumkin.

**Interaktiv ta'lim.** Guruhlarda ishlash, o'yinlar, rolli o'yinlar, bahs-munozaralar kabi interfaol o'qitish usullaridan foydalanish. Bu talabalarga samarali muloqot qilish ko'nikmalarini qo'llashga yordam beradi va ularning kommunikativ vakolatlarini oshiradi.

**Modellashtirish holatlari.** O‘quv jarayonining bir qismi sifatida shifokorning ishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan real vaziyatlarni modellashtirish usulidan foydalanish. Bu talabalarga bemorning emotsional holatini hisobga olgan holda turli vaziyatlarga qanday samarali javob berishni, shuningdek, bemorlarning qarindoshlari bilan muloqot qilishni o‘rganishga yordam beradi.

**Amaliyot.** Talabalar bemorlarni so‘roq qilish, maslahatlashuvlarda qatnashish va tajribali shifokorlar bilan ishlarni muhokama qilish kabi haqiqiy sharoitlarda mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi muhimdir.

**Natijalarni baholash.** O‘quv jarayonida o‘quvchilar muloqot qobiliyatlari haqida fikr-mulohazalarini olishlari muhim. Bu ularga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini bilishga yordam beradi va ularning rivojlanishi ustida ishlashni davom ettiradi.[6]

Umuman olganda, hissiy va kommunikativ kompetentsiya murakkab va ko‘p qirrali mavzu bo‘lib, uni turli sohalardagi ko‘plab tadqiqotchilar o‘rganadilar. Shunday qilib, tibbiy ta’limda mutaxassislarning bemorlarga sifatli yordam ko‘rsatishi uchun hissiy va kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish juda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Абиева Н. М. Джамалдинова Ш. О. Аксиологический потенциал художественного текста в формировании межкультурной компетенции иностранных студентов медицинских образовательных учреждений : удк 372.881.161.1 // межкультурная коммуникация в образовании и медицине, 2023, № 2. с. 46–52. url: https://icjournal.ru/icjournal/article/view/589.*

*2. Djamaldinova Shakhlo Obloberdiyevna, Place and Significance of Emotional and Communicative Competence in the Work of a Physician , JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH: Vol. 2 No. 4 (2023): JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*

*3. Obloberdiyevna, D. S. (2023). Assessing the Development of Emotional and Communicative Competence in Medical Students: Longitudinal Research. American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences, 1(2), 22–25. Retrieved from http://grnjournal.us/index.php/AJPMHS/article/view/87*

*4. Obloberdiyevna, D. S. (2023). Theoretical and Practical Significance of the Results of the Study of the Development of Emotional and Communicative Competence of Future Doctors. American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences, 1(2), 26–30. Retrieved from http://grnjournal.us/index.php/AJPMHS/article/view/88*

*5. Obloberdiyevna, D. S. (2023). Studying the Emotional and Communicative Competence of Students as a Scientific and Pedagogical Problem. Ameri-*

*can Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences, 1(2), 17–21. Retrieved from http://grnjournal.us/index.php/AJPMHS/article/view/86*

*6. Obloberdiyevna, D. S. (2023). Relevance of Studying and Application of Emotional and Communicative Competence in Medical Education. American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences, 1(2), 12–16. Retrieved from http://grnjournal.us/index.php/AJPMHS/article/view/85*

## MA'RIFATLI SHAXS TARBIYASI: SHAXS AYBINI ISBOTLASH SUBYEKTLARI MISOLIDA

**Shavkat FAYZULLAEV,**
*Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani IIB xodimi*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada surishtiruv va datslabki tergov organi xodimlarini jinoyati yuzasidan shaxsni aybdorligini isbotlash jarayonida ma'rifatli shaxs sifatida nomoyon bo'lishi, tarixiy adolat uchun kurash, inson, huquq va davlatninig paydo bo'lishi va taraqqiyot yo'li, ayb uchun javobgarlikning tarixiy manbalari haqidagi olimlarninig fikrlari chuqur tahlil etilgan. Shuningdek, bugungi isbbotlash subyektlariga tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *ma'rifatli shaxs, tarbiya, shaxs, Kant, Yangi O'zbekiston, Avesto, zardushtiylik, Bobil, Xamurapi qonunlari, Manu qonunlari ma'rifat, "ilohiy" va "insoniy" qonunlar.*

Har bir jamiyat va uning taraqqiyotini ma'rifatsiz tasavvur etish imkonsiz. Shunday ekan ma'rifat tushunchasi, uning mazmuni, mohiyati va ahamiyatini bilish barchamiz uchun zarurdir.

Ko'plab adabiyotlarda ma'rifat tushunchasiga ta'riflar berilib, turlicha izohlanib kelinmoqda. Bu esa ma'rifatning ma'naviyat singari keng qamrovli tushuncha ekanligini anglatadi. "Ma'rifat" so'zi yakka va ko'plik ma'nolarda ishlatiladi. U arab tilidan olingan bo'lib, "bilish", "bilim", "tanish" kabi ma'nolarni bildiradi. Nemis mumtoz falsafasining asoschilaridan biri Kant mazkur tushunchaning mazmun va mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. U o'zining "Ma'rifat nima? degan savolga javob" nomli maqolasida bayon qilishicha, ma'rifat inson shaxsini tarbiyalash, uning aqli, axloqi imkoniyatlaridan jamiyatning ilgarilama, ya'ni yuksaklik tomon taraqqiyoti manfaatlari yo'lida foydalanishdir [1]. Boshqa manbada esa, ma'rifat – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya deb ta'rif berilgan [2]. Demak sodda tilda aytilganida ma'rifatli shaxs bu bilimli, dunyoqarashi zamon talablariga anglagan holda harakatlana oladigan shaxsdir. Albatta, "Yangi O'zbekiston"da ham surishtirv va dastlabki tergov organi xodimlari bilimli, ma'rifatli bo'lishi talab etiladi.

Ma’lumki, insoniyat yaralganidan buyon yashash sharoitini takomillashtirish, turmush tarzini yaxshilash, tabiat imkoniyatlaridan unumliroq foydalanishga harakat qilib kelmoqda. Shu davrdan beri taraqqiyot bir joyda to‘xtab qolgani yo‘q. Har bir jarayonning o‘ziga yarasha tarixi bo‘lgani kabi odamzod ham muayyan tarixga ega bo‘lib, o‘zining taraqqiyot bosqichiga ega. Islomshunoslarning fikricha birinchi inson Odam alayhissalomdir. Shuningdek, Odam alayhissalom nabiylarning ham birinchisi hisoblanadi. Alloh subhanahu va taolo O‘zining hikmati ila yer yuzida insonni yaratib, qilishni o‘ziga o‘rinbosar iroda etdi. Shu bilan birga, ana shu O‘zi yaratgan o‘rinbosariga yer yuzidagi barcha narsalar va imkoniyatlarni beminnat xizmat qildirib qo‘yishni ham iroda etdi. Allohning alohida lutfi ila va barcha imtiyozlarga ega qilib yaratilgan ana shu jonzot Odam deb ataldi [3.B.3]. Shu bilan birga tarixchilarning ham o‘z qarashlari mavjud. Odamzodning paydo bo‘lishi haqida fan olamida turli davrlarda turlicha munozarali mulohazalar mavjud bo‘lib kelgan. Odamning paydo bo‘lishi olam taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, biz yashab turgan Ona yerimiz besh milliard yil muqaddam paydo bo‘lgan va dastlab unda hech qanday hayot bo‘lmaganligi haqida fikrlar mavjud. Yer tarixi geologik jihatdan arxey, paleozoy, mezozoy va kaynazoy eralariga bo‘linishi e’tirof qilinadi. Bu eralar tarixida Yer olamida har doim ma’lum taraqqiyot o‘zgarishlari sodir bo‘lgan. Masalan, arxey erasining so‘nggi davrida Yerda juda oddiy tirik jonivorlar, paleozoyda suvda hamda quruqlikda yashovchi hayvonlar, mezozoy erasida esa sudralib yuruvchi jonivorlar paydo bo‘lgan. Yer tarixidagi eng buyuk voqea odamzodning paydo bo‘lishi edi. Olimlarning fanga tayanib bildirgan faraz va ta’limotlariga qaraganda, odamzodning dastlabki ajdodlari to‘rtlamchi geologik bosqich boshlarida, yoyinki bundan 3,5-3 million yillar muqaddam, paydo bo‘lganligi e’tirof qilinadi[4.]. Insoniyat paydo bo‘lganiga 3,5-3 million yillar bo‘lgan bo‘lib, shu jdavrdan beri to‘xtovchiz taraqqiyot yo‘lini bosib kelmoqda. Insoniyat to‘da to‘da bo‘lib yashab boshlab, to davlat paydo bo‘lguniga qadar qariyb 100 ming yil vaqt o‘tgan[5.B.14]. Albatta taraqqiyot dastlab, ov qilish va tirikchilikni amalga oshirish borasida kelib chiqqqanligi shubxasizdir.

Insoniyat tarixida ilk bor jamiyat, davlat, qonunlar to‘g‘risidagi qarashlar Turon, Misr, Bobil, Hindiston va Xitoy kabi mamlakatlarda mifologaya shaklidagi ilohiyat bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan va rivojlangan. Masalan, qadimgi Turon va Eron, ya’ni Ajam davlatida “Avesto” – zardushtiylarning diniy kutobida yerdagi hokimiyat va tartib, qonun-qoidalar koinot qonun-qoidalarining davomi, ajralmas qismi sifatida o‘rganiladi. Kuch, qudrat, adolat, haqiqatning barchasi Xudoning sifati, shu jumladan davlat va qonunlar ham uning irodasi bilan paydo bo‘lgan deb uqtiriladi[6].

Ilk bor jamiyat, davlat, qonunlar to‘g‘risidagi qarashlar vujudga kelishi bilan huquq va burch tushunchalari ham paydo bo‘la boshlagan. Bu yerda

shuni aytish kerakki, har bir mamlakatdagi siyosiy-huquqiy qarashlarning o‘ziga xos tomonlari ham mavjud bo‘lgan. Masalan, qadimgi Xitoy manbalarida yozilishicha: imperator yerda osmon tomonidan tayinlangan va u xudo bilan munosabatda. Uning hokimiyati mutlaq. Davlat xizmatidagi boshqa mansabdor shaxslar va barcha fuqarolar faqat uning irodasini, farmonlarini amalga oshiruvchilardir. Misr, Bobil, hind xalqlari hayotida esa Olloh bir vaqtning o‘zida butun koinotni va yerdagi jamiyatni, davlatni boshqaruvchi kuch sifatida o‘rganilgan. Islomda ham muqaddas Qur’on oyatlari payg‘ambar Muhammad sallallohu alayhu vassallamga nozil bo‘lgan. Demak, Oliy sohibi qonun Ollohning o‘zi. Uning talablari, qoidalari payg‘ambar orqali odamlarga yetkaziladi. Payg‘ambar va muqaddas qonunlar orqali davlat boshqariladi[7].

Dunyoviy bilimlari oshib borgan insoniyat endi o‘zlari ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar yarata boshlagan. Bunga yorqin misol tariqasida Hammurapi[8] qonunlarini keltirish mumkin. Xammurapi qonunlari (er.av. XVIII asr, Bobil[9]), Manu qonunlari[10] (Hindiston, taxminan er.av. II asr) va ko‘plab boshqa qonunlar majmuasi ana shu qadimgi dinlar asosida vujudga kelgan edi.

Eramizning boshida paydo bo‘lgan xristianlik dini, uning manbalari – Injil kitobi hamda yirik diniy arboblar kitoblarida ham davlat va huquq masalalari o‘ziga xos tarzda ilohiylashtirilgan. Masalan, Avreliy Avgustinning[11.] (354-430, Shimoliy afrikalik) “Yaratuvchi tayanchimizdir” degan kitobida uning qarashlari bayon etilgan. Uning fikricha, ikki dunyo, ikki davlat va ikki qonun mavjud. Birinchisi Ollohning nomi bilan bog‘liq, ikkinchisi esa insonga bog‘liqdir. Inson o‘zining azim xatosi, jinoyati tufayli Olloh tomonidan jannatdan chiqarilib, u gunohkor va kunini yashab bo‘lganligi uchun umrining so‘ngada o‘limga hukm qilingandir. Inson Olloh yo‘lida, unga itoat qilib yashasa, u yaxshidir, va aksincha, u inson sifatida o‘z ta’biricha yashasa, u yomon, gunohkordir. U odamlarni ikki toifaga bo‘ladi: birinchi toifadagalar Ollohning marhamati bilan faqat uning qonun-qoidalariga muvofiq yashovchilar hamda ikkinchilari inson sifatida o‘z qonun-qoidalariga binoan yashovchilar.

Birinchilar abadiy Olloh bilan birga bo‘lsalar, ikkinchilari abadiy adashishda, azobdadirlar. Shu yo‘nalishda u qonunlarni ham ikki toifaga bo‘ladi: “ilohiy” va “insoniy” qonunlar. Birinchisi ikkinchisi uchun asos hisoblanadi, ya’ni davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar avvalo ilohiy qonunlarga binoan qabul qilinishi kerak degan ta’limotni ilgari surdi. Insoniyat taraqqiy etib, davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar takomillashib borgan.

Fuqarolik jamiyati rivojlanib, Avreliy Avgustin tomonidan ilgari surilgan “ilohiy” qonunlarning ta’siri kamaya boshladi. Bugungi kunga kelib esa, “ilohiy” qonunlarga amal qilish ixtiyoriylikni kasb etib, “insoniy” qonunlarga amal qilish esa majburiylik tusini oldi.

Davlat va huquqning paydo bo‘lishi to‘g‘risida dunyoda juda ko‘p qarashlar, g‘oyalar va ta’limotlar borki, ularning hammasi to‘g‘risida so‘z yuritish imkoniyati yo‘q. Olimlar davlat va huquqni vujudga kelish tarixini uch guruhga bo‘lishadi. Birinchisi, dunyoviy bilimlar, ikkinchisi esa diniy va uchinchisi, yaqin o‘tmishda sobiq SSSRda asosiy, yagona ta’limot hisoblangan marksizm-leninizm ta’limotidir[12.].

Davlat va huquq inoniyat tarixida vujudga kelgan bo‘lsada ularni vujudga kelish vaqti va jarayoni haqida fanda aniq ma’lumotlar kuzatilmaydi. Davlat masalasi haqidagi qarashlar, ta’limotlar turlichadir. Davlat hokimiyati hamda huquqiy xayot hodisalari hamma zamonlarda alohida dolzarblik kasb etib kelgan. Davlat to‘g‘risidagi ilk tushuncha va qarashlar mil. av. taximnan 4–3-ming yilliklarda Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoyda paydo bo‘lgan. Ular asosan diniy-mifologik xarakterda edi. Avesto[13.] ta’limotiga ko‘ra, hokimiyat, haqiqat, adolatlilik 3 axloqiy-huquqiy asosga: ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amalga tayanadi. Davlatning vazifasi yovuzlikka qarshi yaxshilik, tinchlik va insonlarning baxtli saodatli hayotini ta’minlashdir. Islom dini ta’limoti bo‘yicha, Allohning o‘zi oliy qonun sohibi. Uning talablari, ko‘rsatmalari payg‘ambarlar orqali insonlarga yetkaziladi. Davlat boshliqlari – podsholar, xonlar xudoning yerdagi soyasi, vakili hisoblanadi. Shu sababli davlat boshliqlariga alohida hurmat bilan qarash shakillangan.

“Avesto”da jamiyat bir butun ijtimoiy tuzum sifatida tasvirlanadi hamda bunda davlat muassasalari bilan birga jamiyat tashkilotlari bahamjihat faoliyat ko‘rsatishlari kerakligi uqtiriladi[14.].

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, adolat uchun kurash azaldan shakillanib kelgan bo‘lib, huquq himoyachilar tomonidan shaxsni aybdorligini aniqlashda ma’rifatli shaxs sifatida o‘zini namoyon etishlari zarurdir. Chunki ular davlatning suyanchi bo‘lganligi sababli ham uning irodasini o‘zida mujassam etadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Ma’rifat tushunchasi, mohiyati va mazmuni. Ma’ruza Buxoro davlat universiteti elektron kutubxonasi. https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13949-2021-07-15-04-19-48*

*2.QOMUS.INFO onlayn entseklopediya. https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/marifat-uz/*

*3. Shayx Muhammad sodi Muhammad yusuf.: Islom tarixi – birinchi kitob.b-. https://islom.uz/maqola/9697.*

*4. Antropogenez – odamning paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqidagi muammoviy mulohazalar. Buxoro davlat universiteti kutibxonasi. https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13558-2021-07-01-06-09-25*

*5. N.P.Azizov.: Davlat va huquq nazariyasi. darslik. B-14.*

*6. Davlat va huquq nazariyasi – umumnazariy fan sifatida. //https://tsil3.ucoz.net/DHN/01-05-Bob.htm#_Toc29695075*

*7. Usha manba.*

*8. Xammurapi – Bobil podshosi (mil. av. 1792–1750). Uning davrida Bobil davlati ravnaq topgan. Qomus info. Onlay intseklopediya. https://qomus.info/wp-content/uploads/2019/10/logo.jpg*

*9.Bobil (Vavilon) – Mesopotamiyaning jan. qismi (hoz. Iroq hududi)da mil. av. 2-ming yillikning boshidan mil. av. 538 -y. gacha mavjud bo'lgan qad. davlat.*

*10. Manu qonunlari – qadimgi Hindistonda taxminan miloddan avvalgi II asr va milodning II asrida vujudga kelgan qonunlar to'plami.*

*https://staff.tiiame.uz/storage/users/425/books/nBecjuHzuEaDARGp2XAguRyRQ1Rf8TZw7Pxq3P7M.pdf*

*11. Avgustin Avreliy (354-430 yillarda yashagan)– xristian ilohiyotchisi va faylasufi. http://www.chronos.msu.ru/old/biographies/lubinskaya_avrely.html*

*12. Davlat va huquq nazariyasi – umumnazariy fan sifatida. //https://tsil3.ucoz.net/DHN/01-05-Bob.htm#_Toc29695075*

*13. Avesto, Ovasto (parfiyoncha: apastak – matn; ko'pincha "Zend-Avesto", ya'ni "tafsir qilingan matn" deb ataladi) – zardushtiylikning mukaddas kitoblari to'plami. http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/90*

*14. R.Ikramov va boshqalar.: "Avesto"da qonun va inson xuquqlari talqini. b-6. https://cyberleninka.ru/article/n/avesto-da-onun-va-inson-hu-u-lari-tal-ini/viewer*

## ZAMONAVIY TA'LIMDA INSONPARVARLIK VA INSONPARVARLASHTIRISH MASALASI

**Nurjaxon ESHONKULOVA,**
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti*
*"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi,*
*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

***Annotatsiya****. ushbu maqolada, bugungi kunda ta'limni insonparvarlashtirishning yangi bosqichi haqida gapirish zaruriyati zamonaviy sivilizatsiyaning bir qator global muammolarining keskinlashuvi bilan bog'liqligi ijtimoiy-falsafiy tahlil qilinib, zamonga mos keng bilimli shaxsni shakllantirish bog'liq muammolar ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *globallashuv, ta'lim, tarbiya, transformatsiya, modernizatsiya, axborot jamiyati, fundamentallashtirish, plyuralizm, insonparvarlashtirish.*

Zamonaviy dunyoning yangi voqeliklari ta'lim sohasida ko'plab qarama-qarshiliklarni keltirib chiqardi. Ulardan asosiysi, milliy ta'lim tizimlarini saqlab qolish va shu bilan birgalikda jahon ta'lim tizimiga muammosiz, to'laqonli kirishni ta'minlashga intilishdan iborat. Bu holatda quyidagilar amalga oshadi: birinchidan, noyob etnik-madaniy merosni yetkazishda avlodlar davomiyligi, ikkinchidan, milliy o'ziga xoslik saqlanib qoladi va yangi impuls oladi, uchinchidan, milliy ta'lim komponentining mazmuni ishlab chiqiladi.

Hozirgi davrda ta'limda insonparvarlik va insonparvarlashtirish asosiy muammolaridan biridir. Bu davr xarakteridagi texnokratiyaning hukmronligi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim va tarbiya tizimiga, ma'lum darajada jamiyatning ma'naviy darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ma'naviyatsizlikning kengayishiga yordam beradi.

Zamonaviy qarashlarga ko'ra, keng bilimli shaxsni shakllantirish bir qancha muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Birinchidan, dunyoning zamonaviy tabiiy-ilmiy manzarasi, biosfera va umuman koinot muammolari bilan tanishish, insonning tabiatdagi o'rnini anglash orqali insonning tabiat bilan munosabatini uyg'unlashtirish va shu asosda ekologiya va noosfera muammolarini hal qilish imkoniyati tug'iladi. Zero, "Bozor iqtisodiyoti munosabatlari chuqurlashuvi sharoitida yer sharida yashayotganlar ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy faoliyat olib borayotganlar insonning biologik tur sifatidagi holati hamda boshqa ekologik tur vakillari bilan birgalikda yashash imkoniyatlarini anglashi orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun harakat qilishini taqozo qilmoqda" [2,39].

Ikkinchidan, inson jamiyatda yashashi va uning zamon bilan hamohang ijtimoiylashuvi uchun tarix, huquq, madaniyatshunoslik, iqtisod va falsafani rivojlantirish orqali tegishli madaniy muhitga singishi zarurligidan kelib chiqishi kerak.

Uchinchidan, zamonaviy inson boy axborot muhitida yashaydi va ta'lim tizimining vazifasi uni axborot oqimida yashashga o'rgatish, uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Nihoyat, to'rtinchidan, inson o'zi bilan hamfikr bo'lishi kerak, bu esa psixologiya, adabiyot va san'at sohasida ma'lum bilimlarni talab qiladi.

Demak, ta'limni fundamentallashtirish g'oyasi globallashuv jarayonlarida insoniyatning muhim muammolarni hal qilish, uning ko'plab tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi.

Jamiyatimizda ta'limni insonparvarlashtirish tendensiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsi-

yasida, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son Farmonida va boshqa bir qator ta’limning huquqiy asoslarida** o‘z ifodasini topgan.

Bugungi kunda bunday insonparvarlashtirishning yangi bosqichi haqida gapirish zaruriyati zamonaviy sivilizatsiyaning bir qator global muammolarining keskinlashuvi bilan bog‘liq. Bular: bugungi kunda keskin g‘oyaviy-metodologik xususiyat kasb etgan xalqaro terrorizm muammosi, hozirgi ekologik vaziyat, jamiyatni haddan tashqari texnologiyalashtirish, ijtimoiy rivojlanishning g‘ayriinsoniy paradigmasiga aylanish xavfi va hokazo. Bularning barchasi va boshqa omillar gumanitar fanlarning roliga yangicha baho berishni, ularni o‘qitishning innovatsion usul va uslublariga, umuman, yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish masalalariga e’tibor qaratishni taqozo etadi. Ushbu umumplanetar miqyosdagi hayot haqiqati bu muammoga qayta va qayta e’tibor qaratishni talab qiladi, chunki “Jamiyatda degumanizatsiya jarayoni kuchaydi. G‘arb ratsionalizmining XX asr ikkinchi yarmidagi inqirozi, turli-tuman mo‘tadil va tajovuzkor diniy sektalar, mistik teosofik, spiritualistik, parapsixologik ta’limotlarning haddan tashqari ko‘payib ketganligi, teleekranlarda shu mavzudagi hamda zo‘ravonlik va fahshni ochiq ko‘rsatuvchi filmlar salmoqli o‘rin egallaganligi bunga dalildir” [3, 128].

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan barcha holatlar, ta’lim va tarbiya tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni va rolini tubdan o‘zgartirish zarurligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Gap insonparvarlik va insonparvarlashtirish rasmiy emas, balki real, samarali xarakterga ega bo‘lishi kerakligi haqida bormoqda. Zero, faqat insonparvar shaxs, insonparvarlashtirilgan texnologiyagina jamiyatni o‘zgartirishga, uning ma’naviyatsizligini davolashga qodir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.*

*2. Hakimov N.H. Inson ekologiyasi. – T.: “Iqtisodiyot”, 2020. – B. 236.*

*3. Erkayev A. Tafakkur erkinligi – T.: “Ma’naviyat” 2007 – 160 b.*

*4. Eshonkulova N.A. Philosophical study of socio-anthropological aspects of the index of individual happiness. // Cyberpsychology, behavior, and social networking Volume 24, Number 12, 2021 Mary Ann Liebert, Inc. DOI: 10.1113/cyber.2021.29231.editorial.*

# MA’RIFATLI SHAXS KAMOLOTIDA MA’NAVIY IDEALLAR ZARURATI

**Xurshid SEROBOV,**
*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi*

***Annotatsiya****. ushbu maqolada ma’rifatli shaxsni kamolga yetkazish, uni tarbiyalash yo‘lida ma’naviy ideallarning nechog‘lik zarurati borligi xususida so‘z yuritilgan. Ma’naviy ideallar tarix va ajdodlar bilan faxrlanish hissini uyg‘otadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ma’naviyat, ma’rifat, komil inson, jamiyat, ma’naviy ideal, tarixiy qahramon, vatanparvarlik.*

Kunimiz internetsiz o‘tmay qoladigan zamonga yetib keldik. Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizga shu qadar singib ketdiki, turib-turib odamlar yigirma yil avval internetsiz qandoq yashagan bo‘lsa ekan, deb o‘zimga savol beraman. Bugun deyarli hammaning ijtimoiy tarmoqlarda sahifalari bor. Tarmoq sahifasi shunday joyki, u foydalanuvchining o‘zi istagan ideal qiyofasini yaratishga beminnat xizmat qiladi. Odam virtual makonda o‘zini imkon qadar aqlli shaxs sifatida ko‘rsatishga urinadi. Ko‘p guvoh bo‘laman, yosh intellektual qatlam vakillari tarmoqdagi virtual qiyofasini o‘zi ko‘proq ta’sirlangan biror mashhur insonga taqlidan yoki uning vositasida ko‘rsatishga harakat qiladi. Yoki profil suratiga o‘zi sevgan film qahramonlari, futbolchilar va hokazolarni ilib qo‘yish odat tusiga kirgan. Biror voqeaga munosabat bildirganda o‘sha kumirining ijodidan yoki obrazidan kelib chiqadi, uning o‘tkir iqtiboslaridan foydalanadi. Bu, ayniqsa, yoshlar orasida ko‘p uchraydi va sababi oddiy. Yoshlikda inson o‘zini mutaassir etgan, hayratlantirgan shaxslarga qarab intiladi. Ularni mayoq deb biladi. Ularga o‘xshagisi keladi. Do‘ppini yerga qo‘yib, obdon o‘ylab ko‘rganda, bitta xulosa kelib chiqadi. Biz yoshlarni ajdodlarimizning faoliyati, ilmi va ijodi bilan yetarlicha tanishtira olmaganmiz. Ularning qulog‘iga faqat nomni quyishga harakat qilganmiz, xolos. Men tarmoqda Beruniy yoki Forobiyning dunyoqarashi bilan o‘zida uyg‘unlik ko‘rib, uning asarlaridan iqtiboslar keltirgan, ilmiy qarashlarini muhokama qilgan yoshlarni kuzatmaganman.

Demak, tariximizni bezab turgan buyuk allomalarimizning, mumtoz shoirlarimizning, dovyurak sarkardalaru ma’rifatli hukmdorlarimizni bu jamiyatga qayta tanitish bugungi ziyolilarning zimmasida turgan ma’naviy burchdir. Millat o‘z qahramonlarini tanimas ekan, hech qachon qudratli millatga aylana olmaydi. Sovet mustamlakachiligining asoratlari yuvilib ketishi, yoshlar onggida sof milliy tafakkur paydo bo‘lishi, o‘zbek zehniyati turli “parastlik” sindromlaridan xalos bo‘lishi uchun zalvarli tarixning yorqin

sahifalarini jamiyatga yuqtirishga ehtiyoj bor. Bugun dunyoda millatning tarixi orqali jahon siyosiy sahnasidagi o‘rnini mustahkamlab, o‘zini qudratli millat sifatida taqdim etayotgan va bunga ishontira olayotgan davlatlar bisyor. Ular tarixni badiiy adabiyot va kino orqali nafaqat o‘z millatiga, balki, butun dunyoga ko‘rsatishmoqda. Biz esa bu jabhada oqsayotganimizni sezib turamizu, aybni kimga to‘nkashni bilolmay ovvoramiz.

Bugun kino san’atini kuzatsak, dunyo kinochilari fantaziyaga shunchalik usta bo‘lib ketdiki, sanab sanog‘iga yetib bo‘lmas super qahramonlar yomg‘irdan keyin chiqqan qo‘ziqorinday urchib ketdi! Odam bitta xulosaga boradiki, dunyoga hamisha qahramonlar kerak ekan. “Haqiqiy qahramonlik qo‘lda emas, miya va yurakda”, degan edi German Melvill. Dunyo kinosi insonning jismoniy qudratiga mahliyo bo‘lib qoldi. Bugun Yer yuzini qutqarib qoladigan super kuch-qudrat sohiblari millionlab o‘smirlarning kumiriga aylangan zamonda yashayapmiz. Lekin G‘arb kino san’ati ilm-tafakkur namoyandalarini ham unutib qo‘ygani yo‘q. Isbot uchun tekshirib ko‘rgan ma’qul, Guglga kirib, istalgan mashhur tarixiy shaxsning nomini yozib “qidiruv” tugmasini bossangiz, o‘sha tarixiy shaxsga bag‘ishlangan kamida bitta kinoasar chiqib keladi. Kino haqida aytyapmizu, aslida muddao tarixiy shaxslarning badiiy talqinlarini yaratish xususida. Talqin shunday tushunchaki, uni bitta o‘zanga qamab bo‘lmaydi. Talqin xilma-xil bo‘ladi, har kimning dunyoqarashi va ijodiy nigohi yangi bir talqin yaralishiga sabab bo‘ladi.

Tarixiy shaxsning badiiy talqinini yaratish esa oddiy asar yozishdan birmuncha murakkab. Deylik, adabiyotchi yoki kinochi o‘z ijodiy g‘oyasini biror voqea orqali istaganicha ifoda qila olishi mumkin. Chunki badiiy olamni va o‘sha muhitdagi taqdirlarni u taqdim etmoqda. Tarixiy shaxs haqidagi badiiy asarni yaratish jarayoni esa muallifni tayyor tarixiy faktlar bilan yuzlashtiradi. Uning badiiy haqiqatlari tarix chegaralarini buzmasligi lozim va lobuddir. Tarixiy shaxs obrazi qanday badiiy talqin qilinadi? Bu individual ijod jarayonida yaratiladi. Faqat tanishtiruv desak, badiiy talqinning vazifasi jo‘n bo‘lib qolishi tabiiy. Tarixiy shaxslar haqida badiiy asar va kinofilmlar yaratishdan asosiy maqsad sharafli ajdodlarimizning g‘oyalarini jamiyatga singdirish, ayni paytdagi madaniy va ijtimoiy hayotga tatbiq eta olishdir. Bolaligimda Abu Rayhon Beruniy haqida Klara Moiseyeva degan rus yozuvchisining “Beruniy yulduzlari” romanini o‘qigan edim. Asar Beruniyning falakiyot bilan bog‘liq faoliyati, Ma’mun akademiyasidagi ilmiy muhit haqida ma’lum tasavvur berardi. Qizig‘i, asar bosh qahramoni Beruniy emas, uning Yoqub ismli shogirdi edi. Bu yondashuv ham muallifning o‘ziga xos talqini, desak bo‘ladi.

Buyuk allomalarimiz, ijodiy merosi salmoqli bo‘lgan ajdodlarimiz haqida o‘tgan asrda adabiyotda ko‘plab tarixiy romanlar yozildi, kinoda tarixiy mavzuda filmlar ishlandi, teatrlarda spektakllar yaratildi. Lekin ular

bir xil formula asosida yaratilganday taassurot qoldiradi. O‘zbek adabiyoti va kinosidagi tarixiy-biografik janr Siam egizaklari kabi ko‘rinishga kelib qoldi. Go‘yo ularni bir-biridan farqlab turadigan xarakterlar yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Davrlar va ijtimoiy muhit bir-biriga o‘xshab ketishi mumkin, lekin har bir ajdodimizning o‘ziga xos taqdiri va o‘zgalarni takrorlamaydigan yo‘li, ijodi, g‘oyalari borligi asarda aks etavermaydi.

Masalan, Alisher Navoiyni qanday tasavvur qilamiz? Navoiy qo‘lida aso tutgan, sochu soqolini qor qoplagan, imomayu salla-dastorli, munkillab qolgan chol qiyofasida bizning tasavvurimizga muhrlangan. Vaholanki, Hazrat vafot etganida oltmish yoshda edi. “Xamsa”ni yozganda esa endigina qirq yoshdan oshgandi. Hech mubolag‘asiz Navoiyni men chol sifatida emas, jismonan ancha baquvvat, ruhan tetik, g‘ayratli, energiyaga boy odam sifatida tasavvur qilaman. Ishonamanki, aslida ham shunday bo‘lgan. Bunga Hazratning kitoblari isbot emasmi? Insonning ruhoniy quvvati, ijodiy niyati qanchalik yetuk bo‘lsa, g‘ayrati ham shu qadar bo‘ladi. “Xamsa”da shoirning o‘zi “kunduzi davlat yumushlarini qilib, xuftondan keyin ikki rakat nafl namozini o‘qib ustozlari ruhiga duolar qilib keyin yozganini, agar bu ortiqcha yumushlar bo‘lmaganda 6 oyda yozib tugatgan bo‘lishini” aytadi. So‘z yuritganimiz Navoiyning zohiriy qiyofasi haqida mulohazalar, xolos. Hazratning botiniy suvrati, ma’naviy portreti qanday bo‘lgani esa, avvalo, asarlari orqali yaqqol ko‘rinib turadi.

Navoiy shaxsining ma’naviy qirralari na adabiyotda, na kinoda va na teatrda yetarlicha ochib berilgan. Hazrat hayoti va ijodiga bag‘ishlangan barcha turdagi asarlarda qoliplashgan, stereotip sifatida shakllangan, barchaning tasavvuridagi yaxlit bir obraz gavdalanadi. To‘g‘ri, ijodkor o‘z fantaziyasi bilan muayyan tarixiy shaxsni o‘zi istaganicha talqin qilishga ma’nan haqli emas. Lekin yondashuv masalasi individual mahorat va ijodkorning qaysi rakursdan qaray olish qobiliyatiga bog‘liq ekanini inobatga olish lozim.

Xalqimizda “Ming marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan afzal”, degan gap bor. Shu maqoldan ham ko‘rinib turibdiki, kinoning ommabop san’atga aylanishi bejiz emas. Odam o‘qiganidan yoki eshitganidan ko‘ra ko‘rganiga ko‘proq ishonadi. Adabiyot esa qahramonning qalbiga doir chizgilarni ifoda etishga usta. Bugungi davrda kinoning ta’sir ko‘lami kattaroq ekani sir emas. Lekin kinoning asosida baribir adabiyot yotadi. Tarixiy film poydevori badiiyati baquvvat asarga quriladi. Tarixiy roman va qissalarda esa ulug‘lar tarjimai holini badiiylashtirishga urinish, bir xil obrazlarni formulaga solib, asardan asarga “copy-paste” qilish holati ko‘zga tashlanadi. Barcha tarixiy shaxslarimizni stereotiplar ichida qolgan qiyofasiga rang berish, tasavvurlarimizni bir qur tozalab olish, ajdodlarimiz bilan oramizdagi masofani uzoqlashtirish emas, aksincha, yaqinlashtirish bugungi kun o‘zbek adabiyoti va kino san’atining muhim vazifalaridan biri, shubhasiz.

Millat farzandlarini tariximiz bilan rosmana tanishtira olmas ekanmiz, ular ko‘nglida dunyoning to‘qima qahramonlariga cheksiz mahliyolik bilan ulg‘ayaveradi. “Naf’ing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prakdurur”, deydi Navoiy. Tarixiy shaxslarning hayotini hujjatlar asosida o‘rganish badiiy asarning vazifasiga kirmaydi. Bu tarix fanining zimmasidagi yuk. Badiiy asarda tarixiy shaxslar orqali ularning g‘oyalari haqida so‘z ketadi. Ijodkor tarixga xolis qaray olishi kerak, aks holda biryoqlama talqin bilan o‘quvchining hafsalasini pir qilgani qoladi. Asl ijodkor tarixning eng chirkin nuqtasidan ham go‘zallik topa oladi. Gap tarixga nisbatan qanday qarash haqida ketar ekan, yaqin yillarda ishlangan “Quyoncha Jojo” filmini esladim.

Gitlerni ijobiy obraz sifatida qabul qila olamizmi? Butun insoniyatning qirg‘iniga sabab bo‘lgan shaxsning ijobiy qirralari ham bo‘lishi mumkinmi? Uning tarixdagi yovuzligi, qora ishlari ma’lum, lekin san’at uni faqat salbiy obraz sifatida tasvirlashni inkor etishi ham mumkin. Yangi zellandiyalik rejissyor Tayka Vaytiti kinoyu adabiyotda olabo‘ji o‘laroq ko‘rsatilgan qahramonni umuman boshqa prizmadan turib talqin etadi. “Quyoncha Jojo” nomli filmda Gitlerga cheksiz ixlos qo‘ygan zumrashaning xayollari vizual tasvirga ko‘chadi. U Gitlerning kitobini o‘qib, buyuk qattolga shu qadar bog‘lanib qoladiki, o‘zining maktabini Gitleryugend sifatida ko‘ra boshlaydi. Uning xayolidagi fyurer esa dunyoni qonga botirgan, yovuz diktator Gitlerga umuman o‘xshamaydi. Bola o‘z tasavvuridagi dohiyni qanday ko‘rsa, filmda shunday tasvirlanadi. Bu talqinni siz tarixiy fakt deb qabul qilmaysiz. Aksincha, tarixning eng yovuz sahifalariga ismi bitilgan qahramonga nisbatan bolaning munosabatini kuzatish zavq beradi. Filmning g‘oyasini aks ettirishda Gitler badiiy vosita vazifasini bajargan, xolos.

Haqiqiy vatanparvarlik qasidasi o‘laroq tilga olinadigan Mel Gibsonning “Sheryurak” badiiy filmi shotland millatining naqadar jasur millat ekanini ko‘rsatib beradi. Film Shotlandiya va Angliya o‘rtasidagi urushlarda afsonaga aylangan Uilyam Uollesning hayotidan ta’sirlanib suratga olingan. Filmdagi ko‘plab epizodlar to‘qima bo‘lsa-da, unda tasvirlangan shotland o‘g‘lonlarining urushdagi matonati, vatanparvarligi va jasorati hanuzgacha millionlab qalblarni to‘lqinlantirib keladi. Shunday zalvarli film aslida 15 asrda yashagan Blaynd Garri ismli so‘qir shoirning Uolles haqida yozgan dostoni asosida yaratilgan. Shu kichik personajni kinoijodkorlar butun dunyoga asl vatanparvarlik timsoli sifatida taqdim eta olishdi. 13 asr odamini tushunish, uning qalbidagilarini his qilish, shuningdek, kichik tarixiy fakt ichidan ulkan qahramonni yuzaga chiqara olish aktyordan ham, rejissyordan ham, ssenariynavisdan ham alohida mahorat talab qiladi. Ular buni a’lo darajada uddalashgan. Bizning tariximizda Uolleslar bo‘lmaganmi? Axir mingyilliklarga tutash tariximizning har bir sahifasida o‘nlab Uolleslar bor! Nega biz Spitamen yo To‘marisning hayotini yoshlarga serial shaklida ko‘rsata olmaymiz? Millatning genidagi mulgib qolgan jasurlik his-

sini uyg‘otish uchun ham tarix adabiy asarlarga aylanishi, ekranga ko‘chishi lozim. Mana, nega kerak badiiy talqin?

O‘n besh yillar avval teleekranlarimizni koreys tarixiy seriallari zabt etdi. Ular jamiyatimizda shu qadar rezonans berdiki, millat bolalari koreys qahramonlari bo‘lishni orzu qila boshlashdi, ularga taqlid qilib Jumonglarga, Jang Bo Golarga aylanishdi. Bozor qonuniyati shunday: sen yaxshi mahsulotni taklif qila olmadingmi, talabni boshqalarning mahsuloti qondirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar Shiroq, To‘maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi buyuk vatanparvar bobolarimiz haqida birgina dars orqali boxabar bo‘lib qolmaydi. Maktabdagi tarix darsi bolani tariximizdagi buyuk ajdodlarimiz haqida tasavvurini to‘la shakllantira olmaydi. Bu ma’naviy ehtiyoj o‘zimizniki bilan qonmas ekan, bola qalbi dunyo qahramonlariga qarab talpinaveradi.

Dunyoda motivlar tugamagandir, lekin syujet va g‘oya taqchilligi kinoda ham, adabiyotda ham seziladi. Shu yaqin yigirma yillikda qanchadan qancha super qahramonlar o‘ylab topildi. Ha, ular o‘ylab topilgan, bor-yo‘g‘i fantaziya mahsuli, xolos. O‘rgimchak odam, Chumoli odam, Ko‘rshapalak odam (Betmen), Terminator, Temir odam... Sanayversak, bu ro‘yxatning adog‘iga yetish mushkul. Shunisi qiziqki, Gollivudni 10-15 yil davomida tarixiy qahramonlar bilan bemalol ta’minlab tura oladigan tariximiz va folklorimiz bor. Bizning tariximiz dunyo kinosi uchun ochilmagan qo‘riq. O‘zimiz iste’mol qila olmayotgan boy ma’naviy zaxiramiz bor.

Bu fikrimiz bilan shu paytgacha ham adabiyotda, ham kinoda yaratilgan ijod mahsullarini yo‘qqa chiqarmoqchi emasmiz. O‘tgan asrda “Alisher Navoiy”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Ulug‘bek yulduzi”, “Abu Ali ibn Sino”, “Buyuk Amir Temur”, yaqin yillarda esa “Ibrat”, “Avloniy”, “Qo‘qon shamoli”, “Imom Abu Iso Termiziy” kabi tarixiy mavzudagi filmlar ishlandi. Turklar bilan hamkorlikda “Menkim Jaloliddin” tarixiy seriali suratga olindi. Lekin bu filmlar tarixiy mavzudagi jahon kino durdonalarichalik effekt bera olgani yo‘q. Biz o‘zimiznikini yaratmas ekanmiz, o‘zbek degan millat dunyo sahnasida o‘z o‘rnini topa olmaydi. Bu ketishda kuchlilarga mutelik, katta nahanglar qoshida kichiklik tamg‘asidan qutulishimiz oson bo‘lmaydi.

Jahon adabiyotida buyuk shaxslarga bag‘ishlangan biografik yo‘nalishdagi asarlar talaygina. Oddiy misol, Shekspir hayotiga bag‘ishlangan o‘ndan ortiq romanlar mavjud. Yoki italyan xalqining buyuk shoiri Dante Aligeri haqida beshta roman yozilgan. Bu asarlarda Shekspir va Dante shaxsi turlicha badiiy talqin qilingan. Dunyoning eng mashhur tarixiy shaxslari haqida bir emas, bir nechta badiiy filmlar ham ishlangan. Hujjatli filmning yo‘rig‘i boshqa. Badiiy film orqali hujjatlar emas, qahramonning o‘zi tilga kiradi. Masalan, inglizlarning buyuk namoyandasi Uilyam Shekspir haqida o‘n uchta badiiy film ishlangan. Bu filmlarda Shekspirning butun hayotini boshdan oyoq tasvirlanmagan, aksincha, buyuk dramaturg hayotining muayyan bir

davriga bag‘ishlangan. Ular Shekspir yoki Dantening hayoti haqida shunchaki hikoya qilib berish uchun emas, uning g‘oyalarini jamiyatga yetkazish uchun yaratilgan. Shu ma’noda tarixiy-biografiya janri kinoda ham, adabiyotda ham jiddiy

Robin Gud haqida bilmagan odam yo‘q hisobi. Boylarning mulkini o‘marib, kambag‘allarga ulashadigan bu to‘qima qahramonning o‘zimizda ham muqobili bor: Namoz Primqul o‘g‘li. Xudoyberdi To‘xtaboyev u haqida “Qasoskorning oltin boshi” asarini yozgan. Lekin bu asar asosida film ishlanmagan. Yana bir muammo borki, yaratilgan asarlarning targ‘iboti masalasi. Badiiy saviyasi baland bo‘lgan tarixiy mavzudagi asarlar millionlab nusxada bosilishi, barcha maktablarga tarqatilishi, ular haqida jamoatchilik orasida ko‘proq muhokama qilinishi zarur. Bu, albatta, keyingi jarayon hisoblanadi.

Bugun har bir ziyoli millat umum tafakkurining o‘sishi uchun qayg‘urishi lozim. Tarixiy shaxslarimizning g‘oyalari jamiyatga singdirilishi ularning zimmasida ekan, bu vazifani sharaf bilan ado etish ham saodatdir. Toki yoshlar qalbida Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi kabi vatanparvar, Beruniy va Xorazmiylar kabi olim, Navoiy kabi shoir, Mirzo Ulug‘bek kabi astronom bo‘lish istagi tug‘ilsin. Tug‘ilganda ham tabiiy bir istak, chin ishtiyoq bilan tug‘ilsin. Buyuk ajdodlarimizning faqat nomini sanashni bas qilib, ulardan qolgan ma’naviy xazina eshiklarini ochaylik, yoshlarni bu xazina ichiga olib kiraylik, ulardan qolgan asl ganj bilan tanishtiraylik. Tarixiy shaxslarning yuksak badiiy talqini bugungi millat yoshlarida ajdodlarga nisbatan shunchaki faxr-iftixor tuyg‘usini emas, ularga ergashish, lozim bo‘lsa taqlid qilish istagini uyg‘otsin. Buning uchun esa bizga jamiyatimizni uyg‘otadigan, millatimiz tafakkurini yuksaltiradigan tarixiy qahramonlar, shu bilan birga ularning bir-birini takrorlamaydigan turfa badiiy talqinlari va asosiysi yoshlarda havas uyg‘ota oladigan MA’NAVIY IDEALLAR zarur.

## TA’LIM – KELAJAK POYDEVORI

*(Ta’lim va tarbiya: maktabgacha, maktab va oliy ta’lim tizimidagi yangi imkoniyatlar)*

**Dilfuza TURG‘UNOVA,**
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Jizzax viloyat bo‘limi yetakchi mutaxassisi*

***Annotatsiya:*** *maktabgacha ta’lim, maktab, oliy ta’lim tizimlari bir biri bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Shu sababdan ham ta’lim tizimi bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi va bu boradi yoshlarning ilm olishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar o‘z samarasini berayotgan, bu esa Yangi uyg‘onish davri Uchinchi Renessans poydevori ekanligidan dalolatdir.*

***Kalit so‘zlar:*** *Abdulla Avloniy, “Birinchi muallim”, Maktabgacha ta’lim, “Tarbiya” fani, maktabgacha, maktab va oliy ta’lim tizimlari.*

Tarbiya har doim ham muhim masala bo‘lib kelgan. Ta’limdan maqsad ham aslida tarbiyadir. Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, deb aytgan. Buyuk ma’rifatparvar va ta’lim-tarbiya fidoyisi Abdulla Avloniyning bu so‘zlari o‘z vaqtida naqadar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki, undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimi prinsipiga asoslangan, bola tug‘ilgandan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Buyuk yunon olimi, sharqda “Birinchi muallim” deb ulug‘lanadigan Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zlari, qarang, miloddan 350-yil avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon talim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Ta’limdagi asosiy quyi bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’limning jihatlari e’tiborga sazovordir. Uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol avlod shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’limni isloh qilish maqsadida binolarni qayta ta’mirlash, zamonaviy qurilmalar bilan jihozlash, mutloqo yangicha ovqatlanish tizimi, faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimlari yo‘lga qo‘yildi hamda davlat sherikchilik asosida hususiy bog‘chalar faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi.

“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ulug‘vor g‘oya asosida mamlakatimizda maktab ta’limini umummilliy harakatga aylantirish yangicha bosqichga ko‘tarildi. Yoshlarning puxta va mukammal bilim olishlari uchun Prezident va ijod maktablari, Temurbeklar maktabi, Ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktablari tashkil etildi hamda bu yerda o‘quvchilar malakali o‘qituvchilardan bilim olishlari bilan bir qatorda, xorijiy til ham, muayyan bir kasb sirlarini ham o‘rganmoqdalar. Maktablar mutlaqo yangicha ko‘rinishda zamonaviy tarzda ta’mirlandi va qayta jihozlandi. Shuningdek, diniy ulamolarimiz ham jamoatchilikka ma’rifat, diniy bag‘rikenglik, odob va axloq ilimlaridan saboq bersalar, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Shu sababli ham birichi marta umumta’lim maktablarida “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Dinlar tarixi”, “Vatan tuyg‘usi” fanlarini birlashtirish orqali “Tarbiya” fani joriy etildi. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla

Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari sharqona tarbiyaning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda dasturamal bo‘ladi. Biz maktab muammosiga birinchi darajali masala, deb qarashni davom ettirishimiz lozim. Maktab – faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalaikdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur.[1]

Ta’limning muhim funksiyalaridan biri hisoblangan ta’lim turi bu oliy ta’limdir. Oliy ta’lim tizimidagi islohotlar til bilan ta’riflab bo‘lmaydi, faqatgina unda ta’lim-bilim olish, yoki faoliyat olib borib, talabalar bilan ishlab ko‘rib his etish mumkin. O‘tgan 6 yil mobaynida oliy o‘quv yurtlari soni 77 tadan 170 taga etdi, ularga qabul 3,5 baravarga ortdi.

Oliy ta’limga qamrov darajasini oshirish maqsadida respublika OTM-lariga 2022/2023-o‘quv yilida qabul ko‘rsatkichlari jami 197 ming 858 tani (shu jumladan 16 ming 933 ta magistratura) tashkil etib, o‘tgan o‘quv yiliga nisbatan 15 foizga (27 ming 203 nafar) oshirilgan. Joriy yilda 25 ta yangi oliygoh faoliyati yo‘lga qo‘yilib, jumladan, nodavlat oliy o‘quv yurtlari 27 taga, xorijiy oliygohlar 31 taga, davlat oliygohlari esa 112 taga etdi.

2022/2023-o‘quv yilidan boshlab davlat oliy ta’lim muassasalari magistraturasiga ajratilgan qabul parametrlari doirasida bazaviy to‘lov-kontrakt asosida talabalikka qabul qilingan va mazkur o‘quv yilida ikkinchi kursda o‘qiyotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt miqdori davlat byudjeti tomonidan to‘lab berish tartibi joriy etildi. Sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, mas’ul rahbarlar vakolat va imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektoriga birinchi prorektor maqomi berildi.

Yurtimizda xorijiy davlatlarning yetakchi universitetlarining filiallari tashkil etildi. Bunda Sankt-Peterburg davlat universiteti, Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti, Qozon federal universiteti Jizzax viloyat filiali, Italiyaning Piza universiteti filiallarini alohida qayd etish lozim. Bunday salohiyatli xorijiy oliygohlarning faoliyati mahalliy oliygohlarning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Samarqand davlat universitetida Agrobiotexnologiyalar instituti, Muhandislik instituti va Urgut filiali tashkil etildi. Shuningdek “Yangi O‘zbekiston” universitetining tashkil etilganligi iqtidorli yoshlarimiz uchun yaratilgan alohida imkoniyatdir. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-200-sonli qaroriga asosan, 2025-yil 1-yanvardan boshlab nodavlat oliy ta’lim tashkilotlariga davlat buyurtmasi asosida kadrlar tayyorlash bo‘yicha kvota ularning reytingdagi o‘rniga muvofiq hamda ularning ta’lim sohalari kesimidagi reytingni yuritish yo‘lga qo‘yilishi belgilandi. Bu esa o‘z navbatida ta’limning yana bir bor muhim ekanligi va o‘z navbatida “Ta’lim – son uchun emas, sifat uchun” deya e’tirof etilganligidan dalolatdir.[2]

Prezidentimiz joriy yilda Oliy Majlisga Murojaatidagi nutqlarida bekorga “Eng katta boylik bu – aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu – bilimsizlikdir!” deb uqtirib o‘tmadi.

Ilm-fan, ma’naviyat-ma’rifatga tikilgan sarmoya buyuk kelajak uchun kiritilgan investitsiyadir. Ilm-ma’rifat rivojlanmagan davlat hech qachon to‘laqonli davlat bo‘la olmasligi bizga uzoq tarix hamda bugungi asrimizdagi yuksak taraqqiy etgan ilg‘or mamlakatlar tajribasidan juda yaxshi ayon. Darhaqiqat, ilm-ma’rifat ikki dunyo saodatidir. Ilm ma’rifatsiz kishi berilgan ne’matlar qiymatini anglab etmaydi. Ilm-ma’rifat inson uchun najot. Shu bois, yurtimiz qadim-qadimdan ilm-ma’rifat markazi, sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lib kelgan. Ushbu tabarruk zamindan dunyoga ilmu irfon ziyosini taratgan buyuk allomalar, olimu mutafakkirlar etishib chiqqan. Ular ilm-fanning ko‘plab jabhalariga asos solib, jahon tamaddunining shonli mayog‘i bo‘lib kelganlar. Ta’kidlash joizki, xususan, O‘zbekiston hududi ham Sharq Renessansining yirik markazlaridan biri sifatida dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lganligini ta’kidlash bizga faxr va g‘urur bag‘ishlaydi.[3]

Asrlar osha xalqimiz tafakkuridan ta’lim va tarbiya ajralmasdir, degan g‘oya chuqur joy olgan. Ta’lim islohotlarida shakl va vositalarga emas, sifatning tub markazida yotuvchi mazmun-mohiyatga ko‘proq e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Zero, har birimiz faqat o‘zimizning fikrimiz to‘g‘ri, deb turib oladigan va ish qiladigan bo‘lsak, umummilliy, umumxalq hayotiga doxil maqsadlarimizga erisha olmaymiz. Ta’lim-tarbiya sohasida tajribasizlik qilsak va xatoga yo‘l qo‘ysak, kelajak avlodlar bizni kechirmasligi mumkin. Shu bilan birga, ajdodlardan bizgacha yetib kelgan g‘oya, ilm, ma’naviyat haqidagi ulkan merosni to‘g‘ridan to‘g‘ri hazm qilib ham bo‘lmaydi. Bu holatni tarix saboqlaridan xulosa chiqargan holda, dunyo tajribasiga moslab amalga oshirish, juda zamonaviylashgan ta’lim-tarbiya dasturi hozirgi zamon shaxsiga mos kelmasligi mumkinligini e’tiborga olish lozim.

Ta’lim va tarbiya qushning ikki qanoti singari, binobarin, hozirgi makon va zamonda uning bir qanotini sindirib, yuksak parvoz etib bo‘lmaydi. Har bir millatda o‘rnak olsa arziydigan ulkan ma’rifiy va madaniy meros mavjud ekan, uni umumiy mulkka aylantirish darkor. Shundagina ko‘zlangan maqsadga erishamiz.

Darhaqiqat, balandparvozliklardan xoli bo‘lgan bu so‘zlarda yoshlarning samarali ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar mujassamdir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021-y.*

*2. NASAFZIYO.UZ sayti manbalaridan.*

*3. UzA.UZ sayti manbalaridan*

# YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY MAKONNI BARPO ETISHNING IMKONIYATLARI

**Ilxom FAYZULLAYEV,**
*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti doktoranti*

***Annotatsiya.*** *maqolada ma’naviy tiklanish va yuksalishning ilmiy-nazariy asoslari, bugungi kundagi yangilanish jarayoni – Yangi O‘zbekistonni bunyod etishning ma’naviy asoslari, Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini yaratish masalalari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *jamiyat, islohatlar, ma’naviy tiklanish, ma’naviy hayot, ma’naviy qiyofa, Yangi O‘zbekiston.*

Jamiyat ma’naviy hayotini rivojlantirish, yangilash, ayniqsa, milliy g‘oyani rivojlantirish bu – yangilanayotgan hayotning barcha sohalarida O‘zbekiston Konstitusiyasida belgilab qo‘yilgan muhim umuminsoniy qadriyatlar, mafkuraviy plyuralizm, ya’ni fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rangbarangligi tamoyillarini bugungi davr talablari asosida takomillashtirish, islohotlar va yangilanishlarning g‘oyaviy omillari ta’sirchanligini yanada oshirish jarayonidir. Ushbu serqirra jarayon milliy g‘oyaning barcha xalqlar va davlatlarga xos umuminsoniy tushunchalari va tamoyillarining butunlay rad qilinishini anglatmaydi. Balki bunda ham uning tayanch paradigmalari va umumiy qonuniyatlari o‘z ahamiyatini saqlab qolaveradi. Ammo ularning O‘zbekistonga xos zamonaviy talqini, islohotlarga ta’siri bugungi davrga xos xususiyatlarida o‘zgarish va yangilanishlar ro‘y bermoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda; “Ayni paytda, adabiy-badiiy jarayonlarda ko‘zga tashlanayotgan salbiy tendensiyalar, xususan, madaniyat sohasida tijoratlashuv, shaxsiy manfaatning birinchi o‘ringa chiqayotgani, g‘oyaviy-badiiy jihatdan sayoz asarlarning bozori chaqqon bo‘lib borayotgani tashvish uyg‘otmasdan qolmaydi. Afsuski, ijodiy uyushmalar tomonidan bunday holatlarga prinsipial baho berilmayapti, ularni bartaraf etish bo‘yicha har tomonlama asoslangan amaliy takliflar o‘rtaga qo‘yilmayapti”[1].

Shunday ekan, bugungi davrga xos xususiyatlarida o‘zgarish va yangilanishlar sharoitida ahloq-odobning salbiy tomonlari kuchayib borayotganini ham kuzatamiz. Bu hol aslida tarbiyaviy ishdagi uzilishlarning oqibati sifatida qaralmog‘i darkor. Bizning fikrimizcha hozirgi vaqtda nafs, sabr-toqat, halol-harom, oriflik va jaholat kabi ma’naviy sifatlarni keng o‘rganishga, juvonmardlik, qanoat kabi talablarni targ‘ib etishga alohida e’tibor bermoq, hamda ushbu fazilatlardan tarbiya ishlarida samarali foydalanmoq kerak.

Bu boradagi yangilanish jarayoni – yangi O‘zbekistonni bunyod etish-

ning Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan asoslab berilayotgan umumiy qonuniyatlari, g‘oyaviy omillari va mafkuraviy tamoyillarining o‘zgarib borayotgan zamonga mos jihatlariga alohida e’tibor qaratishni anglatadi. Mamlakatimizda demokratik islohotlar jarayoni milliy o‘zlikni anglash, xalqlarning ijtimoiy hayot asoslarini mustaqil tashkil etishga bo‘lgan intilishi bilan birga kechmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz va siyosiy beqarorlik sharoitida shu jarayon, sovet Ittifoqi qulashi va uning geosiyosiy oqibatlari, o‘tmishdagi mustamlakachilik siyosati tufayli turli xalq va millatlar hayotida o‘ziga xos ta’sirga ega bo‘ldi.

Taraqqiyot shuni ko‘rsatmoqdaki, fuqarolarning qadr-qimmati, sha’ni oliy qadriyat sifatida qaralgan, qonuniy manfaatlari ta’minlangan yurtda ularning ertasiga ishonchi, shu yurt rivoji uchun dahldorligi ortib bormoqda. O‘zbekiston siyosatining eng asosiy tamoyillaridan biri ham kuchli adolatli ijtimoiy siyosatdir. Mamlakatimizda ayni maqsadda olib borilayotgan islohatlar tufayli aholining bugunidan roziligi, ertangi kuniga ishonchi ortib bormoqda. Zotan, hech bir inson e’tibordan chetda qolmasligi zarur. Modomiki, qaysiki jamiyat va davlatda ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor ekan, u tarqqiyot va rivojlanishga yuz tutadi.

Olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ham odamlarning ertangi kuniga ishonchini orttirish, ularning hayotidan mamnunligi, oilalar tinchligi va faravonligini ta’minlash va shu orqali davlatni barqaror rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Yeng muhimi, bunday islohotlar zamirida mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali aholining ishsi qatlami bandligini ta’minlash va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari yaratishga qaratilganligidir. Ya’nikim, islohatlarni provard maqsadi sifatida ma’naviy hayotini rivojlantirish orqali ma’rifatli inson shaxsini shakllantirishdir.

Tadqiqotchi Sh.Saydahmatovning fikricha “... insoniyat paydo bo‘lgan davrlardan boshlab, hozirgi zamonlargacha ma’rifatli inson, insonparvar jamiyat ajdodlar orzusi bo‘lib kelgan. Bu yo‘lda qilingan sa’y-harakatlar hozirgi davrlarda ham nihoyat muhim hisoblanadi va yangi O‘zbekiston kelajagi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois texnologiya asrida ham, global hayot jabhalaridan ham eng avval ma’rifatli inson, madaniyatli shaxsgina gumanistik jamiyat manbai, tayanchi sanaladi. Bugungi murakkab xalqaro vaziyat esa ma’rifatga har qachongidan ham ortiq ehtiyoj sezmoqdaki, bu ushbu masalaning zarurati va ahamiyatini belgilaydi” [2].

Bugun ma’naviyat va ma’rifat masalalariga nisbatan munosabatning o‘zgarganini Prezidentimizning yangi ma’naviy makon to‘g‘risida aytgan quyidagi fikridan ham bilib olsa bo‘ladi: “Yangi ma’naviy makon nima?

Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir” [3].

Yangi O‘zbekistonda jamiyatni yanada demokratlashtirish va modernizasiyalash jarayoni, rivojlangan ma’naviy makonni shakllantirish hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirish borassida quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim;

– “ma’naviy makon” tushunchasining ijtimoiy-siyosiy mohiyatini ochib berish, uning O‘zbekistonga xos xususiyatlarini ko‘rsatish;

– O‘zbekistondagi ma’naviy taraqqiyotning ijtimoiy-tarixiy bosqichlarini aniqlash va ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish;

– bugungi globallashuv sharoitida ma’naviy-ma’rifiy yangilanishning mohiyati va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ochib berish;

– Yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan ma’naviy-ma’rifiy makonning istiqbollari to‘g‘risida tegishli ilmiy yechimlar berish, xulosalar chiqarish, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, “Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini yaratish oson bo‘lmasligi tayin. Chunki yuqorida ta’kidlaganimiz kabi, necha-necha avlodlar ana shunday ma’naviy qiyofani barpo etishni istamadi, bu yo‘lda qanchadan qancha qonlar to‘kilmadi, deysiz? Darhaqiqat, Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini yaratish uchun bugungi kunda jamiyatimizdagi real ma’naviy holatga nazar tashlash kerak bo‘ladi. Yanada aniqroq aytganda, aslida bugungi ma’naviy holat Yangi O‘zbekiston ma’naviy qiyofasiga poydevor bo‘lishi lozim” [4].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi. 2017 yil 4 avgust*

*2. Saidahmadov Sh. Ma’rifat, ma’rifatli jamiyat va inson haqida qarashlarning tarixiy-falsafiy tahlili // NamDU ilmiy axborotnomasi.– Namangan, 2022.-№12.– B.170.*

*3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B.276.*

*4. Mavrulov A. YANGI MAЪNAVIY MAKON uning ijtimoiy qiyofasiga ayrim chizgilar taraqqiyot mezonlari (Birinchi maqola)// Yangi O‘zbekiston, № 3 (792), 2023-yil 6-yanvar soni*

## II.TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH METODIKASI HAMDA TARG‘IBOTNING YANGI TEXNOLOGIYALARI

# MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASIDA DUNYOVIY VA DINIY ILMLARNING UYG‘UNLIGI MASALASIGA DOIR

**Abduhalil MAVRULOV,**
*tarix fanlari doktori, professor*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada ma’rifatli shaxs tarbiyasida dunyoviy va diniy ilmlarning uyg‘unligi masalasiga doir masalalar ochib berilgan.*

***Kalit so‘zi:*** *tarbiya, ma’rifat shaxs, ma’naviyat, ma’naviy meros, ma’rifatsizlik, tahdid, illat, din, ilm.*

Bugungi dunyoda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar odamlardan ana shu jarayonlarni jiddiy tahlil qilish, yagona to‘g‘ri xulosa chiqarish, voqealar ummonida adashib qolmaslikni talab qilmoqda. Bu juda murakkab masala. Hozirgi tahlikali zamonda kishilar kimni tinglashni, kimga ergashishni bilmay sarson bo‘lmoqda. Voqealar shiddati shu darajada tezlashib bormoqdaki, bugun biz eng to‘g‘ri yo‘l, deb o‘ylagan fikrimiz ertaga mutlaqo xato ekanligi sezilib qolmoqda.

Yana shu narsani unutish mumkin emaski, hozirgi shiddat bilan globallashib borayotgan dunyoda turli yot g‘oyalarning kirib kelishi, internet tizimining hayotimizdan keng o‘rin egallashi, bozor munosabatlari sharoitida odamlar orasida tijorat tufayli, foyda olish ilinjida bir-biriga firib berish kabi salbiy holatlarning kuchayib borishi odamlarni yaxshi yoki yomon, vijdonli yoki vijdonsiz, ma’rifatli yoki ma’rifatsizlarga bo‘lib tashlamoqda.

Hayriyatki, ota-bobolarimizning ming yillar davomida yaratilgan, avlodlardan ajdodlarga o‘tib kelayotgan milliy madaniy merosi, milliy qadriyatlar tizimi bor. Ana shu betakror hazina, dunyo havas qilsa arziydigan milliy boyligimiz barchamizni turli balo-qazolardan asrab kelmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish har birimizdan yuksak mas’uliyatni, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni tahlil qilishda erkin tafakkurga suyanishni talab etmoqda. Ta’kidlash lozimki, jamiyatda ro‘y beradigan har qanday o‘zgarishlar, islohotlar erkin shaxs ma’naviyati, ma’rifati asosidagina, shaxsning erkinligiga asoslangandagina ro‘y berishi mumkin. Ayni paytda qayd etish kerakki, shaxs erkinligi deganda inson ko‘ngliga kelgan barcha narsalarni amalga oshirishga ma’naviy jihatdan haqqi bor, deganini ham anglatmaydi.

U jamiyatda qabul qilingan tartib-qoidalarga, mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlarga amal qilishga, ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizni tan olishga, ularni yangi mazmun bilan boyitishga o'zini safarbar eta oladigan shaxs hamdir. Boshqacha so'z bilan aytganda, tom ma'nodagi erkin shaxs aslida o'zining barcha istak, mayllarini tahlil qilib, ularni cheklay olish ko'nikmasi, qobiliyati va imkoniyatlariga ega odamdir.

Endi masalaning boshqa jihatiga o'tamiz. Haqiqiy ma'nodagi erkin shaxs qachon va qaerda shakllanishi mumkin, uning eng muhim jihatlari, xarakterli hususiyatlari nimalardan iborat bo'lishi mumkin? Bu masalaga javob topish juda qiyin. Turli davrlarda, turli toifalardagi odamlar bu savolga o'zlaricha javob berib kelganlar.

Men ana shu savolga, ya'ni erkin shaxs tarbiyasida ma'rifat masalasining o'rni va ahamiyati haqida ayrim fikrlarimni bayon etishni lozim topdim. Avvalo ma'rifat so'zining o'ziga murojaat etsak. Ma'rifat arabchadan bilish, bilim, ma'lumot, tanish, tanishish degan ma'nolarni beradi. Ilmiy ta'riflarda ma'rifat ko'pincha tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi bilimlar, ma'lumotlar, ta'lim-tarbiya tizimi majmuini ifodalaydigan tushuncha sifatida foydalaniladi.

Demak, yuqoridagi ta'kidga e'tibor berilsa, insonning butun hayoti, mehnati, ijodida ma'rifatning o'rni alohidaligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun ham buyuk allomalarimiz har doim ham insonni anglash, dunyoni anglash, jamiyat tartib-qoidalarini anglashda ana shu fenomen hodisaga alohida e'tibor berib kelganlar. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, insonning insonligi uning ma'riftiga bog'liq.

Shu ma'noda dunyodagi barcha insonlarni ma'rifatli yoki ma'rifatsiz insonlarga bo'lish mumkin. Endi ma'rifatli kishi kim, degan savolga javol qidirsak. Ma'rifatli shaxs deganda biz ko'proq ziyoli, o'qimishli, bilimli kishilarni nazarda tutamiz. Ammo, milliy-madaniy merosimizga e'tibor beradigan bo'lsak, ma'rifatli shaxsning muhim tomonlaridan biri uning insoniyligi, orifligi ham muhimdir. Shuning uchun ham mutafakkir allomalarimiz ma'rifatli shaxs deganda komil inson, barkamol odam kabi tushunchalardan ham keng foydalanilgan.

Ma'rifatsiz shaxs esa ma'rifatli insonning ziddi hisoblanadi. Bu juda oddiy gap. Aslidachi? Aslida ma'rifatsiz kishi johil va beadab odamdir. U bachkana, riyokor, agressiv shaxs. Bugun jamiyatda ro'y berayotgan erkinliklar, mamlakatimizning ochiq jamiyatga aylanishi, ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari kengayib borishi, undan foydalanish madaniyatining juda pastligi-bularning bari jamiyatda ma'rifatsiz kishilarning tobora ko'payib borayotganligidan darakdir.

Afsuski, biz yuqorida qayd etgan salbiy holatlar bugungi O'zbekiston jamiyatida ham bor va ularning ham makonda, ham zamonda urchib borayotganini ko'rish mumkin. Shuning uchun ham mamlakat rahbari Yangi

O‘zbekistonni barpo etishda ma’rifat masalasiga alohida e’tibor berib kelmoqda. Bekorga “Yangi O‘zbekiston-ma’rifatli davlat” shiori o‘rtaga tashlanmadi.

Davlatimiz rahbari mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning natijadorligini oshirishda, tarbiya masalasida to‘planib qolgan muammolarni hal etishda ma’rifat fenomenidan foydalanishga ustuvor ahamiyat qaratayotgani bejiz emas. “Shu munosabat bilan, – deydi Shavkat Mirziyoyev, – birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Va bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, umuminsoniy madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyani samarali amalga oshirish lozim”. (Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022. -289-bet).

Haqiqiy ma’rifat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib, shakllanadigan hodisa emas. Haqiqiy ma’rifat bilim orqali yuz beradi. Xo‘sh, bilim nima? Bilim borliqning ideal obrazi, inson ongi va tafakkurining ijtimoiy-tarixiy amaliyotda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan, voqelikning bilish jarayonida erishilgan natijasi hisoblanadi. Demak, haqiqiy bilim real hayotda tekshirilgan, uning to‘g‘riligi isbotlangan, aniq natijasi bor hodisadir.

Bilimlar dunyoviy va diniy bo‘ladi. Ayni paytda, bilimlarni shu taxlitda bo‘lishning o‘zi ham shartli ravishda bo‘lishi mumkin. Chunki, inson hayotida ahamiyati nuqtayi nazaridan har ikki bilimning ham o‘rni katta. Masalan, dunyoviy bilimlar insonning farovon turmush kechirishi, uning hayot mezonlarini, shaxs tafakkurini takomillashtirishda alohida rol o‘ynasa, diniy bilimlar ko‘proq shaxs tarbiyasi, insonning o‘zini va tevarak atrofni ongli ravishda anglashiga yordam beradigan sifatlarni shakllantiruvchi fenomen hodisadir. Ayni paytda, har ikki bilim ham bir-birini doimiy ravishda to‘ldirib turuvchi hodisalar ekanligini ham unutib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston hududi tom ma’noda dunyoviy bilimlar markazi ekanligini ta’kidlash lozim. Muqaddas tariximizning qaysi davrini olib ko‘rmaylik, barcha davrlarda o‘tmish allomalarimiz ilm-fanga alohida e’tibor berishgan. Ayniqsa, shu o‘rinda o‘rta asrlarda yurtimiz hududida juda katta fan taraqqiyoti yuz berganini eslash lozim.

Ma’lumki, o‘rta asrlar  Sharqining taraqqiyoti uning dunyo tamaddunidagi munosib o‘rnini belgilab beruvchi olamshumul tarixiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlar uyg‘unligi bilan xarakterlanadi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shaharlarning son va sifat jihatidan o‘sishidir. Aynan ular hunarmandchilik, savdo-sotiq, ta’limning asosiy markazlaridan bo‘ldilar. Pirovardida ziyolilarning, shu jumladan, ilm-fan ahlining o‘zagini tashkil etuvchi bilimli kishilarning ko‘p sonli qatlami yuzaga keldi.

Ta’kidlash joizki, dunyoviy bilimlarning ko‘payib borishi jamiyatda odamlar tafakkur tarzining ortishiga, ma’rifatli kishilar safining ko‘payishi-

ga sabab bo‘ldi. Ma’rifatning ortishi esa jamiyat a’zolarida ilm-fanga bo‘lgan qiziqishning kuchayishiga, pirovard natijada mamlakat va jamiyat taraqqiyotining rivojiga sabab bo‘ldi.

Shu narsaga e’tibor berish lozimki, mamlakatimiz hududida ilm-fan taraqqiyoti arablar istilosi tufayli tarjima qiligan g‘arb adabiyotlarining mamlakatimiz hududiga kirib kelishi bilan ham bog‘liqdir. O‘sh paytlarda, ayniqsa, qadimgi yunon olimlarining ilmiy ishlariga katta e’tibor berildi. Katta hajmdagi tarjimonlik ishi tufayli ko‘pgina qadimgi yunon mualliflarining ishlari: Aflotun (“Qonun”, “Timey”), Arastu (“Siyosat”, “Kategoriyalar, “Analitika”, “Jon haqida”, “Etika”), Teofrast Drokl, Aleksandr Afroidiziy, Porfiriy asarlari, Suqrot (“Og‘ir kasalliklar”, “Inson tabiati”), Jolinus (“Hunar”, “Qon tomiri va kasalliklarni davolash”), Batlimus (“Buyuk qurilish”), Arximed (“Shar va silindr to‘g‘risida”) va boshqalarning asarlari mashhur bo‘lib ketgan edi.

Shubhasiz, ana shu asarlar mamlakatmiz hududida ilm-fanning rivojida, pirovard natijada, jamiyat fuqarolarida kuchli ma’rifatning shakllanishida alohida o‘ringa ega bo‘ldi.

Islom olib kirgan yangi madaniyat, ilm-fan mahalliy boy zaminga kelib qo‘shilgach, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari yuzaga keldi. O‘sha davrdagi Markaziy Osiyolik olimlar esa ilm-fanning misli ko‘rilmagan rivojida asosiy rolni o‘ynadilar. O‘rta asrlar Sharqining matematika, astronomiya, tibbiyot, kimyo, geografiya, geologiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix va hatto musiqasini ularning fundamental ishlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma’mun tomonidan tashkil etilgan va buyuk allomalari hamda mutafakkirlarining butun bir jamoasini birlashtirgan Xorazm Ma’mun akademiyasi 9 asrda mintaqamizda ilm-fanning ulkan salohiyati va yuksak darajadagi taraqqiyotining yorqin dalili bo‘ldi. Bu akademiya nafaqat o‘z davri ilmiy tafakkurining yuksalishiga, balki keyingi avlodlarning ma’naviy kamolotiga ham ulkan ta’sir ko‘rsatdi.

Shuni afsuslar bilan qayd etish kerakki, o‘rta asrlar Sharqi allomalari qo‘lyozmalarining kattagina qismi izsiz yo‘qolib ketdi. Lekin, hatto bizgacha yetib kelgan asarlar ularning umumbashariy tamaddunga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan buyuk muvaffaqiyatlaridan dalolat berib turibdi. Haqiqatdan bebaho qo‘lyozmalar, shu jumladan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk qomusiy allomalarning asarlari keyinchalik ko‘plab yevropa tillariga tarjima qilindi va Yevropa Uyg‘onish davri jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bashariyatning bu ulug‘ mutafakkirlari ilm-fanning ko‘plab tarmoqlari jadal taraqqiy etishiga turtki berdi va bir qator yangi fan sohalariga, birinchi navbatda, algebra va geodeziyaga asos soldilar.

Bularning bari yurtimizda ma’rifatli insonlarning ko‘pligidan darak beradi. Ma’rifatli insonlar ko‘paygan jamiyatda ilm-fan rivojlanadi, ayni payt-

da, ilm-fan o‘z navbatida ma’rifatli insonlarning ko‘payishiga, pirovard natijada, ma’rifatli jamiyatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ilm-fanga e’tibor susaygan davrda jaholat avj oladi. Masalan, bu narsalarni mustamlakachiliklar davri bilan qiyoslash mumkin. Chunonchi, mo‘g‘il istilolari davrida olimu fuzalolar, buyuk mutafakkirlar kuchli qatag‘on qilindi. Kitoblar yo‘q qilindi, yondirildi, olamu odamning mohiyatini bilishga uringan har qanday ziyolilar o‘z yurtlaridan haydaldi. Natijada jamiyatda yovuzlik, jaholat paydo bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan xulosa qilish mumkinki, dunyoviy bilimlar ma’rifatli shaxsni shakllantirishning asosi, poydevori hisoblanadi.

Endi diniy bilimlar to‘g‘risida ayrim mulohazalarni bildiramiz. Shuni aytish kerakki, diniy bilimlar aslida insonni eng avvalo ma’rifatga boshlovchi, kishilarda kuchli axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan muhim omil va vosita. Diniy bilim – din, uning shakllari va namoyon bo‘lish xususiyatlari, dinning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va roli, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyati kabilar bilan bog‘liq bilim shakli.

Xo‘sh, diniy bilimning asosiy vazifasi nimadan iborat? Uning asosiy vazifasi inson hayoti, tabiat va jamiyat borlig‘ining mazmunini aniqlashdan iborat. Diniy bilimning vazifasi Xudo bormi, uni qanday qilib bilish mumkin, umuman, Xudoni bilish mumkinmi, degan savolga javob berishdan iborat. Din o‘z dunyoqarashini Muqaddas kitob matnlarida, shuningdek, diniy rasm-rusm va urf-odatlarda ifoda etadi.

Shu nuqtai nazaridan olganda har qanday din, shu jumladan, Islom dini ham insonni tarbiyalashda, ular tafakkur tarzini shakllantirishda, pirovard natijada, ma’rifatli jamiyat barpo etishda alohida o‘ringa ega.

Taniqli olim Najmiddin Komilov har bir insonning haq yo‘lga kirishi uning ma’rifatidan dalolat beradi, deydi. Ilohshunoslik ilmi bo‘lgan irfon yoki ma’rifat tariqatning hosilasi va bevosita davomidir. Boshqacha aytganda, tariqatdan maqsad ma’rifatdir. Xo‘sh, ma’rifatning nishonasi nima, qanday kishi ma’rifatga noil bo‘la oladi?

Bu savollarga kengroq javob berish lozim. Chunki, tasavvufda ma’rifat tushunchasi maxsus o‘rin egallaydi va uning o‘z ta’rifi va haqiqatlari bor. So‘fiylar nazarida ma’rifat fikrdan oldin ketadigan va shubhaga zarracha asos qoldirmaydiga ilmdir. Ma’rifat ilmi botiniy ilm ham deyiladi. Chunki tasavvuf ahli dunyoviy va diniy ilmlarni qo‘shib, “zohiriy ilmlar” deb atalganlar. Ularning uqtirishlaricha, zohiriy ilmlar bilan Xudoni bilish qiyin. Biroq boshqa bir nuqtai nazar ham bor: garchi zohiriy bilimlar Haq taolo asrorini anglashga yaroqsiz bo‘lsada, lekin dunyoni bilish Allohni bilishning birinchi bosqichi, ya’ni Allohni bilish dunyoni bilishdan boshlanishi kerak, chunki, dunyo – kasrat olami, Allohning ijodi. Uning sifatlari, qudratini namoyon etib turadigan ko‘zgu. Tasavvuf nazariyotchilaridan biri Abdurazzoq Koshoniy Ibn al-Arabiy qarashlariga suyanib, ma’rifatga bunday ta’rif bergan:

“Ma’rifat muxtasar ilmlarni tafsilotlar suratida tanimoqdir, ilohiy ma’rifat ilohiy zot va sifatlarni ahvol va hodisalar tafsili va nuzul bo‘lgan amirlar suratida tanish demak”. Buning ma’nosi shuki, Muxtasar mavjudlik va mutloq foil (ish egasi) Tangrining o‘zi bo‘lib, uning ilmi kasrat olamida tafsillik topadi, muayyanlashadi. Bundan yana quyidagi fikr kelib chiqadi: moddiy dunyodagi jamiki ilm, insonlarning to‘plagan hikmat-donishlari, hali ochilmagan barcha siru asrorlar Allohga tegishli, Alloh – hikmatlarning jamuljami, bizning bilimlar esa uning tafsiri, sharhi. Demak, biz Robbimizni bilish uchun tafsirdan Buyuk aslga qarab borishimiz kerak. (Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent, 2009. -38-bet).

Yuqoridagi iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, ma’rifat, xoh u dunyoviy ta’limotga, xoh diniy qarashlarga suyanmasin, biz uchun o‘ta zarur ijtimoiy hodisadir. Bekorga muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim shartlaridan biri sifatida ma’rifatli jamiyatni qurishga ahamiyat bergani yo‘q.

Ma’rifatli jamiyatni barpo etish, aslida, har doim ham eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Ammo, turli obyektiv va subyektiv sabablar tufayli bunday jamiyatni yaratish imkoni bo‘lmadi. Bunday sabablar qatoriga uzoq yillar davom etgan mustamlakachiliklar, siyosiy-iqtisodiy inqirozlar, o‘zaro urushlar, milliy barqarorlikning pastligi, jamiyat a’zolarining savodxonlik darajasidagi kemtiklarni kiritish mumkin.

Bu masalada uzoq va yaqin tarixdagi holatlarni tahlil qilgan holda ta’kidlash mumkinki, jamiyatning ma’rifatlashuvi eng avvalo o‘sha jamiyatning ijtimoiy istagi, xohish irodasiga bog‘liq. Afsuski, biz yuqorida qayd etganimizdek, milliy tariximizning uzoq davrlarida munosib ma’rifatli jamiyat barpo etishning iloji bo‘lmadi.

Bugun esa, Yangi O‘zbekistonni barpo etish hamda Uchinchi Renessansni qurish asnosida jamiyatning o‘zida kuchli ma’rifatli jamiyatga muxtojlik sezilmoqda. Buning sabablaridan biri esa, biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, jahon maydonida ma’naviy-mafkuraviy ziddiyatlarning tobora kuchayib borishi, axborot maydonida siyosiy-g‘oyaviy kurashning avj olganidir.

Mamlakatimiz ham bugungi global dunyoda o‘zini asrab qolishning yo‘llarini qidirmoqda. Ana shunday eng ishonchli yo‘llardan biri esa ma’rifatli jamiyatni barpo etishdan iboratligi barchaga kundek ravshan bo‘lib bormoqda. Xo‘sh, ma’rifatli jamiyatni barpo etish uchun qanday amallarni bajarmoq, ma’rifatli shaxsni tarbiyalamoq uchun esa nima qilish muhim? Bu o‘ta qiyin va bir so‘z bilan javob berish mumkin bo‘lmagan savol.

Keling, bu savolga o‘zimizning subyektiv javoblarimizni bayon etaylik. Birinchidan, fikrimizcha, barcha fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarimizda dunyoviy bilimlarni mustahkam egallashga erishish lozim. Bu murakkab vazifa. Biroq, Yangi O‘zbekistonda rasmiy hokimiyat mazkur uyg‘unlikka erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ta’limning barcha bo‘g‘in-

larida tub islohotlar o‘tkazildi, bog‘chadan tortib to oliy ta’lim tizimigacha ta’lim olish soddalashtirildi va keng imtiyozlar berilmoqda.

Ikkinchidan, ma’rifatli shaxs bu-diniy bilimlarni egallagan shaxs. Bu masalani avvalroq ko‘rib chiqqan edik. Chunki, diniy ilmlar insonning iymon-e’tiqodini shakllantiradigan yuksak kuchga ega. Iymon talablari hech bir din yoki boshqa ta’limotlarda islomdagidek mukammal va zargarona hal etilmagan. Avvalo, islomiy iymon inson aqlu zakovatining mahsuli emas, balki ilohiy asosga ega, har qanday qusur va noqisliklardan holidir.

Davr va sharoit taqozasi, zolimning zulmi, tayziqi islomiy iymon sohibini qo‘rqita olmaydi. Yana boshqa tomoni shundaki, islomiy iymon yo‘liga kirgan kishini na boylik va na katta mansablar to‘g‘ri yo‘ldan qaytara oladi. U dunyoviy lazzatlarga hoy-u havas yoki hirs nazari bilan qaramaydi. Unda takabburlik, odamni mensimaslik, kalondimog‘lik, tilyog‘lamalik, g‘iybatchilik kabi illatlar bo‘lmaydi.

Uchinchidan, ma’rifatli shaxsning shakllanishida jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar alohida o‘rin tutadi. Gap shundan iboratki, agar jamiyatning o‘zi ma’rifatli shaxsga muhtoj bo‘lmasa, yana ham boshqacharoq aytadigan bo‘lsak, bunday shaxsni tarbiyalash ijtimoiy zaruratga aylanmas ekan, bu borada olib boriladigan har qanday ishlar samarasiz bo‘lib qolaveradi. Bugun O‘zbekistonda ma’rifatli shaxsni tarbiyalash ijtimoiy zaruratga aylandi. Shuning uchun ham biz o‘z oldimizna ma’rifatli jamiyatni qurishni maqsad qilib qo‘yganmiz.

To‘rtinchidan, turli ichki va tashqi ma’naviy tahdidlar tufayli bugun qadriyatlar transformatsiyasi yuz bermoqda. Qadriyatlar almashinuvi tufayli biz avvallari ming yillar davomida amal qilib kelgan milliy qadriyatlarimiz qadrsizlanib, ular o‘rniga o‘zligimizga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan, millatning kelajagiga tahdid solayotgan soxta qadriyatlar ko‘payib bormoqda. Ana shu holat ham bugun ma’rifatli shaxs tarbiyasi biz uchun mamlakat va millat taqdiriga dahldor masala ekanligidan dalolat beradi.

Qolaversa, mamlakat rahbarining tashabbusi bilan Uchinchi Renessans poydevorini qurishga kirishildi. Bu o‘ta murakkab vazifa bo‘lsada, bugun uni amalga oshirish imkoniyati bor. Uchinchi Renessans eng avvalo bilimli, ziyoli, tashabbuskor, intiluvchi, yangilik yaratishga qodir bo‘lganlar tomonidan barpo etiladigan fenomen hodisadir. Bilish boshqa, bilgan narsani amalga oshirgan boshqa. Biz uchun bugun ming yillar davomida buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosga suyanib, undan ruhiy quvvat olgan holda, ayni paytda, zamonaviy texnika va texnologiyaning sir-asrorlarini egallagan yoshlar juda zarur. Aslida ana shularni ma’rifatli shaxs deyish mumkin. Biz ular bilan, albatta, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etamiz.

ZJV5401

## MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASIGA OID MULOHAZALAR

**Jumaniyoz RAMATOV,**
*Toshkent davlat transport universiteti*
*kafedra mudiri, falsafa fanlari doktori, professor*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada ma’rifatli shaxs tarbiyasiga oid mulohazalar yurtilgan. Shuningdek, so‘nggi o‘n yilliklarda sodir bo‘lgan va bo‘layotgan voqealar, hozirgi vaqtda turli siyosiy kuchlar va harakatlar ko‘proq mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga harakat qilayotgani tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zi:*** *tarbiya, mafkura, ma’rifatli shaxs, ma’naviyat, tahdid, illat, mafkuraviy jarayonlar, siyosiy kuchlar, ta’lim muammolari.*

Insoniyatning butun tarixi davomida ro‘y bergan bosqinchilik urushlari, davlat va mintaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlardan ma’lumki, o‘zga yurtlarni bosib olishga harakat qilgan, boshqa xalqlarni tobe qilishga intilgan bosqinchilar o‘z yovuz niyatlariga erishish uchun, avvalo, mazlum xalqlarning tarixiy xotirasini o‘chirishga, milliy ma’naviy va madaniy an’analaridan mahrum qilish yo‘lini tutganlar.

So‘nggi o‘n yilliklarda sodir bo‘lgan va bo‘layotgan voqealar shundan dalolat beryaptiki, hozirgi vaqtda turli siyosiy kuchlar va harakatlar ko‘proq mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga harakat qilmoqdalar va buning uchun eng zamonaviy axborot vositalarini ishga solmoqdalar. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm kabi insoniylikka zid mafkuralar butun dunyo xavfsizligiga rahna solmoqda

Hozirgi axborotlashtirish, kompyuter va telekommunikatsiya davrida axborot nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishning, balki va avvalo, dunyoqarashni shakllantirish, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni kishilar ongiga singdirishning muhim vositasi bo‘lib qolmoqda. Zero, g‘oyaviy immunitetni u yoki bu axborotni yashirish, ta’qiqlash yo‘li bilan shakllantirib bo‘lmaydi. Kabel televideniyesi, sputnikli antennalar, internet tarmoqlariga ulanish imkoniyati tobora ko‘proq hayotimizdan o‘rin olayotgan, odatiy holga aylanayotgan bir paytda kishilar har qanday, jumladan zararli, yolg‘on, bo‘hton xarakterdagi axborotni ham bevosita bo‘lmasa, bilvosita olish imkoniyatiga ega. Demak, faqat to‘g‘ri, ishonchli axborotni uzatish, kishilarni ma’naviy va intellektual bilimlar bilan qurollantirish yo‘li bilan g‘oyaviy immunitetni shakllantirish, kishilarning ongi, tafakkuridagi bo‘shliqni bunyodkor g‘oyalar bilan to‘ldirish mumkin. “G‘oyaga qarshi g‘oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyilining mazmun-mohiyati ham shunda. Shu ma’noda aytish mumkinki, aksariyat yo‘ldan adashganlarning ong-u

tafakkuri shakllanmagani, aqli va bilimining yetishmagani bir jihatdan ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot vositalari orqali o‘z vaqtida to‘g‘ri ma’lumotlarni berib borishga e’tiborsizlikka borib taqaladi. Bunday vaziyatda odam olgan bilimi, egallagan ma’rifati asosida shakllanadigan o‘z mustaqil fikriga, aniq dunyoqarashiga, sobit e’tiqodiga, hayotining tayanchiga aylangan milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga va mustahkam irodasiga ega bo‘lmasa mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi qiyin.

Jahon siyosiy xaritasida ko‘plab davlatlar mavjud. Ularning har birini o‘zgalardan farq qiladigan milliy manfaatlari bor. Aynan mana shu manfaatlar ulkan harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi va u o‘zga davlatlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar ongiga, dunyoqarashiga, turmush tarziga ta’sir o‘tkazish, o‘zlariga bo‘ysundirish uchun yo‘naltirilgan maqsadlarni shakllantiradi. Bundan maqsad, muayyan iqtisodiy, siyosiy va diniy qarashlarni singdirish orqali turli ko‘rinishdagi ehtiyojlarni qondirishga intilishdir. Bunday intilish turli vositalar va yo‘llardan foydalanishni, ularning doimiy takomillashib borishini keltirib chiqarmoqda. Ba’zan beozorgina bo‘lib tuyulgan musiqa, oddiygina mutfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma’lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi.

Shuning bilan bir qatorda bugun dunyoning barcha mintaqalarida globallashuv jarayoni ijtimoiy-madaniy hodisalarga ham o‘zining turlicha ta’sirini o‘tkazmoqda. Bunday ta’sirning bir xil emasligi dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari va geosiyosiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Olamda yuz berayotgan bu kabi shiddatli jarayonlarning avj olishi sharoitida milliy ma’naviyatga qaratilgan tahdidlar tobora oshib bormoqda. Buning asosiy sababi ma’naviyatning millat ongi, dunyoqarashi va mentalitetini tashkil etish bilan bog‘liqdir. Ularni turli xil zamonaviy usul va vositalar yordamida o‘zgartirish orqali millatni, mamlakatni va uning barcha boyliklarini qo‘lga kiritish mumkin bo‘ladi. Ma’naviyatning inqirozga yuz tutishi, albatta, mamlakatning taraqqiyotdan orqada qolishiga, boshqa davlatlarning izmida bo‘lishiga olib keladi. Shu bois, O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov ma’naviy tahdidlarning halokatli kuch ekanligi, unga qarshi chora-tadbirlar ko‘rish zarurligi to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Hammamizga ayon bo‘lishi kerakki, “axborot asri” deb nomlangan XXI asrda hech qaysi davlat yoki jamiyat o‘zini temir devor bilan o‘rab yashay olmaydi. Ayni paytda, ahvol shunday ekan, deb qo‘l qovushtirib o‘tirish ham to‘g‘ri kelmaydi, bunday tahdidlarga javoban, biz ham sodda bo‘lmasdan, zarur chora-tadbirlarni ko‘rishimiz kerak”[1].

Demak hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri turli xildagi mafkuraviy, ma’naviy va axborot tahdidlariga qarshi kura-

[1] Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. Т.:”Ўзбекистон”, 2009, 12-13-б.

shishning samarali yo‘llari, usullari va vositalarini yaratish orqali yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdan iboratdir. Mafkuraviy va axborot tahdidlarining oldini olishning quyidagi ayrim mexanizmlariga to‘xtalsak:

1. Milliy tarbiyani takomillashtirish orqali tahdidbardosh yoshlarni voyaga yetkazish.

Ma’lumki, tarbiyaning boshlang‘ich nuqtasi bu – oiladir. Sharq xalqlari uchun oila muqaddas maskan. Chunki oilaning mustahkamligi, uning tinchligi va osoyishtaligi davlatning mustahkamligi va osoyishtaligini ta’minlovchi manba, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Shu bois, bizda oila masalasi davlat siyosati maqomidagi masaladir.

Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda ta’limning quyidagi turlari keltirilgan: maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim. Davlat byudjetidan ta’lim sohasiga ajratilgan mablag‘ning asosiy qismi, eng avvalo, oliy ta’limga ajratilar edi. Bu tushunarli holat, chunki, oliy ta’lim jamiyat ehtiyoji uchun zarur mutaxassis kadrlarni tayyorlaydi. Ajratilgan mablag‘ning qolgan qismlari esa “qoldiq tamoyili” asosida ta’limning qolgan turlariga taqsimlanardi. Maktabgacha ta’limga navbat kelganda mablag‘ning arzimagan qismi qolardi. Bu sohadagi xorijiy tajriba, xususan, Yaponiya tajribasi o‘rganilganda tamoman boshqacha yondashuv aniqlangan. Yaponiya maktablarida bolalarga 5-sinfgacha fanlar o‘qitilmas ekan. Ularda “Yapon ruhi” degan fan bo‘lib, bolalarga yapon tili, tarixi, odobi, axloqi, urf-odat va an’analari, bayram va marosimlari o‘qitilar ekan. Ularning fikricha, bolaga dastlab tarbiya berish kerak. Bilim berish hech qachon kech bo‘lmaydi. Tarbiyada esa kech qolish mumkin. Ikkinchi jahon urushidan eng og‘ir ahvolda chiqqan davlatlardan biri Yaponiya edi. Oradan o‘tgan qisqa davrdan so‘ng Yaponiya dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoridan o‘rin egalladi.

2. Bolalar adabiyotiga, umuman bolalar uchun mo‘ljallangan musiqa, ashula, teatr, kino asarlari yaratishga e’tibor kuchaytirilishi, bunday asarlarni yaratuvchilar uchun puxta o‘ylangan rag‘batlantirish tizimi ishlab chiqilishi kerak.

3. Targ‘ibot-tashviqot ishlarini yuqori bosqichga ko‘tarish. Taqqoslash uchun sobiq ittifoq targ‘ibot tizimini ko‘radigan bo‘lsak. Sovet mafkuraviy-siyosiy tizimi o‘zbek xalqining milliy g‘ururini, mustaqillik g‘oyasini, uning kurashchilarini mafkuraviy yanchish maqsadida minglab ma’rifiy-siyosiy bo‘limlarini ochdi. O‘zbek xalqining tafakkurini sovetlashtirishga ilmiy asosda yondashuv ularning mafkur maqsadlariga tezroq yetkazdi: sovet dekretlari, partiya anjumanlari, Konstitusiya targ‘iboti, “Bilim” jamiyati a’zolari hududlarda yurib, sovet tuzumi mohiyatini tushuntirishlar, teatr, konsert, ko‘rgazma, ma’ruzalar, kino, qiroatxonalarni ishga solishdi. Agitpoyezd, ag-

itparoxod, klub, “qizil choyxonalar”, siyosiy suhbat, disput, jangovar varaqalar, “Chaqmoq”, kinolektoriy kabi targ‘ibot-tashviqotning yuzlab usullaridan foydalanib,sho‘rolar hukumati o‘z mafkurasini xalqimiz ongiga singdirishga harakat qildi. Kommunistik mafkuraga zid bo‘lgan har qanday fikr, g‘oya, badiiy asar muallifi qattiq ta’qib ostiga olingan. Yaqin tarixdan saboq shundan iboratki, jamiyatimizda targ‘ibot-tashviqot faoliyati uchun shunday keng imkoniyatlar, axborot vositalarining eng zamonaviy texnologiyalari yaratilganki, bulardan samarali foydalanish orqali har qanday xatarli tahdidlarga javob bera oladigan yoshlarni voyaga yetkazish mumkin.

4. Jamiyatimiz hayotining turli sohalarida halol mehnat qilib, mamlakat taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shayotgan fidoiy, elga va vatanga sadoqatli, vatanparvar insonlar, masalan, maktab o‘qituvchisi, jarroh, temir yo‘lchi, fermer, akademik, haydovchi va xokazo kasb vakillarini zamonamiz qahramonlari sifatida yurtga tanitish.

Buning uchun ularning hayoti va faoliyatiga oid badiiy asarlar, kinofilmlar, teatr asarlari, hujjatli filmlar yaratish zarur. Ularning portretlari maktab, kollej, litsey, oliy ta’lim muassasalari,ishlab chiqarish korxonalari, madaniyat saroylari, kutubxonalar, kino va konsert zallari foyelarida, hatto metro bekatlarida bo‘lsa, yosh avlodga o‘rnak olish, taqlid qilish, intilish uchun imkoniyatlar yaratgan bo‘lar edik.

O‘z paytida ijod ahliga kino, televideniye va teatrlarimizda zamonamiz qahramonlari obrazlarini yaratish to‘g‘risida nihoyatda zarur ko‘rsatmalar bergan edi. Lekin, afsuski, bu vazifa ko‘ngildagidek bajarilmadi. Chunki, farzandlarimiz o‘zimizning milliy qahramonlarimizni bilmasa, u holda, chetdan “qahramon” izlab topadi. U topgan “qahramon” banklardagi seyflarni ochib, pul o‘maradigan o‘g‘rimi, odam o‘ldirishdan tap tortmaydigan ashaddiy kallakesarmi, insonlarning mablag‘larini turli zamonaviy usullar bilan o‘zlashtiradigan firibgarmi, bunisi endi bizga noma’lum. Aytishadiku, agar biz o‘z farzandlarimizni o‘zimiz tarbiyalamasak, ularni “tarbiyalovchilar” bir zumda topiladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Kadamovich, Y. J. Muzaffarovna, I. G. Maxmudovich, Y. B. Boxtiyarovna, S. S. & Xabibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. Journal of Critical Reviews, 7(5), 816-818.*

*2. Раматов, Ж.С. Баратов, Р.Ў. Султанов, С.Ҳ. Муратова, Д.А. Хасанов, М.Н. & Эрниёзов, У.К. (2022). Ёшлар замонавий маданий қиёфаси ва умуминсоний қадриятлар тушунчасининг мазмун-моҳияти. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.*

*3. Раматов, Ж.С. Баратов, Р.Ў. Султанов, С.Ҳ. Кушаков, Файзулла Абдуллаевич. Валиев, Л.А. & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ*

*ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 647-656.*

*4. Исмоил Саифназаров, & Сирожбек Ҳабибуллаевич Султанов (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ИЖТИМОИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ УСТУВОР ЖИҲАТЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 71-76.*

*5. Раматов, Ж. С. Муратова, Д. Султанов, С. Ҳ. Тухтабоев, Э. Кушаков, Ф. & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. World scientific research journal, 8(1), 102-108.*

*6. Раматов, Ж. С. Эрниёзов, У. К. Султанов, С. Ҳ. & Хасанов, М. Н. (2022). САНЪАТНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АХАМИЯТИ. World scientific research journal, 9(2), 65-70.*

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION OMILLARI

**Akbar SAITQOSIMOV,**
*Jizzax davlat pedagogika universiteti*
*"Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi"*
*kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori.*
*Jizzax viloyat "Istiqbol" Mintaqaviy*
*tadqiqot markazi rahbari.*

Hozirgi kunda globallashuv sharoitining salbiy va ijobiy jihatlarini o'rganish yoshlar ijtimoiy-ma'naviy hayotini barqarorligini ta'minlashda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquqiy va ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, kelajakda yetuk barkamol insonlar qilib tarbiyalash jamoatchilik, ma'naviy-ma'rifiy va ta'lim-tarbiya muassaasalari zimmasidagi mas'uliyatli vazifadir. Shuningdek, yoshlar muammosini hal etish va bu jarayonda davlat idoralari, fuqarolik jamiyati institutlari va yoshlar tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish muhim jarayondir.

Yoshlar bizning jamiyatimizning salmoqli qismini tashkil etadi. Bu esa yoshlar ijtimoiy muammolarigaga alohida e'tibor qaratishni va o'z vaqtida davlat va jamoatchilik tomonidan kerakli dasturlarni, loyihalarni muntazam ravishda tatbiq etib borishni talab etadi. Yoshlar davlatning alohida diqqat e'tiborida turuvchi qatlami bo'lib hisoblanadi. Chunki yoshlar muammolarini hal qilmay turib, jamiyatning hozirgi hayoti va kelajagi barqaror bo'la olmaydi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida yoshlarning eng muhim muammolari – ta'lim-tarbiya, ma'rifat, bandlik, bo'sh vaqtini mazmunli ta'minlash hisoblanadi.

“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” Davlat dasturida “2023/2024-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo‘lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari amaliyotga kiritilsin”, degan ijtimoiy vazifa belgilangan bo‘lib, yoshlarni globallashuv davrida ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash maqsad qilingan.

Mazkur maqsadlarni ijrosini ta’minlashda yoshlar va jamoat tashkilotlari loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, “G‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan” shiori ostida mahallalarda, ayniqsa yoshlar orasida ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada mustahkamlashda ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini yuksaltirish, jamiyat barqarorligini ta’minlashda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishning innovatsion omillari o‘rganish va hayotiy amaliyotga aylanish borasida chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ichki va tashqi ma’naviy tahdidlardan yoshlar ongini har tomonlama himoya qilish jamiyat ijtimoiy barqarorligining har tomonlama kafolatidir. Yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, ularni ilm-fan cho‘qqilarini egallash, yangiliklarni joriy etish, innovatsion jarayonlarga o‘rgatib borish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. O‘zbekiston davlati yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish borasida muhim chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’kidlashicha, “Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda”.

Bugungi kunda davlat va jamoatchilik tuzilmalarining yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlari, ta’lim muassasalarining olib borayotgan ishlari, oila va ota-onaning rolini oshirish, bu boradagi islohotlar mohiyatini tushuntirish buyicha o‘quv-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish, yoshlar ma’naviy-ma’rifiy darajasini aniqlash borasida jamoatchilik fikrini o‘rganish choralarini ko‘rish muhim jarayon hisoblanadi. Joylarda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish jarayonidagi muammolarni o‘rganish, bu muammolarining kelib chiqish sabablarini tahlil etish, ularni hal etish va oldini olish yuzasidan innovatsion takliflar ishlab chiqish, davlat boshqaruv idoralariga tegishli innovatsion tavsiyalar kiritib borish asosiy vazifalardan sanaladi.

Bugungi milliy yuksalish sharoitida mamlakatimizda insonning ma’naviy takomilini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlarni ma’rifatli shaxs etib tar-

biyalash muhim ustivor yo‘nalishga aylandi. Bu esa, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning tarkibiy qismi bo‘lib, yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi qobiliyati va salohiyatini ruyobga chiqaradi, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarda faol ishtirokchi bo‘lishini ta’minlaydi. Q.Quronboyevning ta’kidlashicha, “Adolatli, demokratik jamiyatni qurish va rivojlantirish sharoitida mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta’minlanishi bilan birga aholi ongu tafakkurida ma’naviy-ruhiy qadriyatlarning qaror topishi insonlar dunyoqarashining tubdan o‘zgarishi, O‘zbekistonning milliy taraqqiyotining rivojlanishiga xizmat qilmoqda”.

Yoshlar muammolarini o‘rganish, tahlil etish, xulosalar tayyorlash va takliflar berishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir:

2) Targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish
3) Suhbatlar, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish
4) Seminar trening, ilmiy anjuman o‘tkazish
5) O‘quv, uslubiy qo‘llanma nashr etish
6) Ommaviy axborot vositalarida chiqishlar.

Birgina Jizzax viloyat “Istiqbol” Mintaqaviy tadqiqot markazi o‘z faoliyati davomida yoshlar bilan bog‘liq ijtimoiy vaziyatni tahlili tizimida viloyatda 160 dan ortiq yirik tahliliy tadqiqotlar, aholi o‘rtasida islohotlar mohiyatini tushuntirish bo‘yicha 250 dan ortiq ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari, ijtimoiy muhitni o‘rganish bo‘yicha 120 dan ortiq sotsiologik so‘rovlarni amalga oshirgan. Har bir tadqiqot viloyat hokimligi va taalluqli idoralar hamda jamoatchilik tashkilotlariga kiritib borilib, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Yoshlarni tadbirkorlik, kitobxonlik, axborot texnologiyalari, innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni oila qurishga tayyorlash, ularga psixologik xizmat ko‘rsatish hamda liderlik qobiliyatini shakllantirish bo‘yicha ishlar olib borish muhim jarayondir. Innovatsiya va texnologiya transferi markazlari, texnoparklar, laboratoriyalar, startap va biznes akseleratorlar tashkil etish, fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va doimiy moliyalashtirish davlat va jamoatchilikning birgalikdagi faoliyatidan biridir.

Keyingi yetti yillik tariximizda mamlakatimizda yoshlar masalalari bo‘yicha 70 dan ortiq qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilindi. O‘zbekiston tarixida ilk bor 30-iyun Yoshlar kuni deb e’lon qilindi. Oliy majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari tuzildi. Bosh vazir huzurida, hududlarda hokimlar raisligida Yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo Kengashlar tashkil etildi. Hududlarda yoshlar kelajagimiz jamg‘armalari ish olib bormoqda. Bu ishlarning uzviy davomi sifatida “O‘zbekiston yoshlari – 2025” konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, IT-park va O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 5 ta tashabbusi loyiha ofisi hamkorlikda “O‘zbekiston uchun 100ta g‘oya” loyihasiga start berilishi ham yoshlar innovatsion faolliklari asosidagi chora-tadbirlarni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublika miqyosida o‘tkaziladigan mazkur keng qamrovli tadbirda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar O‘zbekistonni rivojlantirish yoki qaysidir sohadagi muammoga yechim topishga xizmat qiladigan g‘oya va tashabbuslari bilan qatnashishi belgilab qo‘yildi.

Yoshlarning hududlarda ijtimoiy muammolarni hal etishlari, ma’naviy va iqtisodiy faolliklarini yuksalishi, innovatsion tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash darajalarini aniqlashda sotsiologik tadqiqotlarning ahamiyati katta. Shu sababli, hududlarda ijtimoiy muammolarni hal etilishi borasida aholining, xususan yoshlarning fikrlarini o‘rganish borasida sotsiologik tadqiqot o‘tkazildi. So‘rov natijalari bo‘yicha aholi ijtimoiy muammolarini yechish va aholining turmush sharoitlarini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarda yoshlar innovatsion ishtiroki darajasi va holati borasida tegishli ma’lumotlar olindi.

So‘rovda respondentlarga “Mahallalarda ijtimoiy muammolarni hal etishda yoshlar faolligi va innovatsion tashabbuslarining o‘rni qanday darajada deb o‘ylaysiz?”, degan savol bilan murojaat qilindi. Ishtirokchilar tomonidan quyidagicha javoblar olindi:

1) Bu borada yoshlarning faoliyati yaxshi darajada – 24%,

2) Bu borada yoshlarning faoliyati yomon darajada – 15%,

3) Bu borada mahallaning faoliyati o‘rtacha darajada – 50 %,

4) Bu borada bir narsa deyishim qiyin – 11%. Mazkur so‘rov natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, hali joylarda ba’zi yoshlarning joylarda aholining ijtimoiy muammolarini hal etishdagi ishtiroki yetarli emas.

Yoshlar kayfiyatlari va ularning islohotlar jarayonlariga nechog‘li tortilganligi, yoshlarning jamiyatdagi o‘z o‘rnini belgilashga qaratilgan xohish va istaklari nuqtayi nazaridan o‘ziga xos ikki turdagi qarama-qarshi vaziyat va xususiyat tadqiqot jarayonida o‘zini yorqin namoyon etadi:

– yangilik va modernizatsiya qilish jarayonlariga kamarbastalik, ular mohiyatini chuqur anglash, islohotlar maqsad va mazmunini qo‘llash, Yangi munosabatlarga intilish, izlanish, o‘z ijtimoiy ovoziga ega bo‘lish uchun harakat, o‘ziga va idrokiga ishonch, o‘z salohiyatini jamiyat taraqqiyoti uchun sarflashga tayyorlik, shaxs sifatidagi komillikka intilish, o‘z taraqqiyotini jamiyat rivoji bilan bog‘lash, bunyodkorlik ishlariga tayyorlik, ochiq nazar bilan qarash va sof ko‘ngillilik;

– ba’zi yoshlar o‘rtasida befarqlik, boshqaruv tizimlariga ishonchsizlik, barcha narsani men uchun davlat yaratib berishi lozim degan asosga qurilgan boqimandalik kayfiyati, yot g‘oyalarga nisbatan beriluvchanlik, ziddiyatlarga moyillik, o‘z ijtimoiy holatidan norozilik, biron ishga yaroqsizlik, o‘z kelajagiga ishonchsizlik, konflikt vaziyat va holatlardan chiqib

keta olmaslik, mana shunday holatlarni o‘zi yaratish, qonunlarni bilmaslik, bilimsizlik, tushkunlik.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatdagi yoshlar masalalarini hal qilishda yoshlar tashkilotlarining vazifalari uchun xos bo‘lgan quyidagi xulosa va nazariy umumlashmalarni bildirish mumkin:

– yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi faoliyatlariga yana kengroq yo‘l ochish va uni ta’minlash uchun ularning o‘zlaridagi faollik, siyosiy va iqtisodiy islohotlar jarayonlariga kamarbastalik, islohotlarga ishonch, demokratik qadriyatlarning abadiyligiga suyanish fazilatlarini tarbiyalash;

– yoshlarning yangilikka intilishi, tashabbuskorligi, erkin bozor iqtisodiyotiga tez ko‘nikishi, yangi yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlashi kabi mavjud yuqori saviyadagi va ijobiy yo‘naltirilgan salohiyatidan o‘z vaqtida xolis va rag‘bat asosida foydalanishga erishish, yoshlar tashabbuslarining “cho‘kib” qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– yoshlarni sof, pok, mehribon qilib tarbiyalash, ularni o‘z vatani va oilasining vatanparvarlariga aylantirish, vatanparvarlikni hayot tamoyili va mezoniga aylantirish, mamlakat rivoji uchun jon kuydirishni fuqarolik fazilatiga aylantirishga erishish;

– sog‘lom avlod tarbiyalash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va barcha zarur imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom avlod tushunchasi sirasiga esa nafaqat jismoniy sog‘lomlik, ichki ruhiy, psixologik, ma’naviy va mafkuraviy sog‘lomlik unsurlarini kiritish, yoshlar sog‘lomligini umuminsoniy va milliy qadriyatlar negizida qurish;

– yoshlar kayfiyatlari, manfaatlari va ijtimoiy-siyosiy ahvolini o‘rganish va ilmiy tahlil etish bo‘yicha turli sotsiologik tizimlar faoliyatini rivojlantirish, yoshlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli monitoringini amalga joriy etish.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. www.press-service.uz.*

*2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 28.02.2023. https://president.uz/uz/lists/view/5980 .*

*2. Quronboyev Q. Rahbar ma’naviyati. –Toshkent, Tafakkur, 2017. – B. 237.*

*3. Jizzax viloyat “Istiqbol” Mintaqaviy tadqiqot markazi sotsiologik tadqiqot materiallari. 2023-y.*

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MA'RIFATLI SHAXSNI TARBIYALASH MASALALARI

**Azizbek EGAMBERDIYEV,**
*Andijon davlat pedagogika instituti maktabagacha ta'lim fakulteti dekani, falsafa fanlari doktori, professor*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida ma'rifatli shaxsni tarbiyalash masalalari ochib berilgan.*

***Kalit so'zi:*** *ma'naviyat, ma'rifat, texnologiya, ta'lim, tarbiya, metodika, transformatsiya, raqobat.*

Raqamli transformatsiya jarayoni qanchalik qulaylik va iqtisodiy foyda keltirishni va'da qilmasin, unga ham ma'lum bir tayyorgarlik zarur bo'ladi. Birinchidan, raqamli transformatsiya qimmatbaho serverlar, kompyuterlar va media jihozlarni talab qiladi. Ma'lumki, raqamli transformatsiyaning vatani – rivojlangan G'arb davlatlari. Dastlab Amerika Qo'shma Shtatlari, G'arbiy Yevropa, keyinchalik esa Yaponiya va Xitoy Xalq Respublikasida raqamli transformatsiya jarayoni yuqori darajaga yetdi. Shu sababli ham raqamli transformatsiya uchun zarur bo'lgan barcha jihozlar ushbu davlatlarda ishlab chiqariladi. Taraqqiyotning tez sur'atlari va kuchli raqobat sharoitida texnologiyalar shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Bu esa ularning narxi va xizmat ko'rsatish jarayonining qimmatlashuviga olib keladi. Shu sababli ham oliy ta'lim muasssasalari transformatsiyasida davlat va xususiy sektorning ishtiroki zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan "Oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy AKT vositalari va kompyuter texnikasi bilan ta'minlash, jumladan, kompyuterlar, serverlar, simsiz tarmoq uskunalari, proektorlar va multimedia uskunalarini bosqichma-bosqich sotib olish, shuningdek, yagona talablar asosida oliy ta'lim muassasalarida ma'lumotlar bazalari va axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish" belgilab qo'yildi[1].

Texnik vositalar bilan birga transformatsiya uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minot vositalarini xarid qilish, yaratish zarur. O'zbekistonda Microsoft Office dasturiy ta'minotining barcha qismlari aksariyat hollarda litsenziyasiz (ya'ni ishlab chiqaruvchining ruxsatisiz) ishlatilishini e'tiborga olsak, masalaning jiddiyligi namoyon bo'ladi. Pandemiya sharoitida ishlatilgan masofaviy ta'lim platformalarining ham bepul versiyalaridan foydalanildi va bu professor-o'qituvchilar va talabalarga qator qiyinchiliklar tug'dirdi. Shu sababli ham aksariyat hollarda ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish hollari kuzatildi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, raqamli transformatsiya jarayoni uchun texnik vositalar va dasturiy ta'minot paketi zarur bo'lib, ularsiz bu jarayonni boshlash imkoniyati mavjud emas.

Nafaqat ma’lumot tarqatuvchilar, balki uning iste’molchilari ham zamonaviy kompyuter vositalariga ega bo‘lishi zarur. Aks holda yuqori tiniqlikdagi vizual kontentni qabul qilish va o‘zlashtirish imkoniyati cheklanib qoladi.

Raqamli transformatsiyaning muhim masalasi bu – subyektlarning kompyuter savodxonligi darajasidir. Ma’lum bo‘lishicha, ilmiy darajaga ega xodimlarning o‘rtacha yoshi 49 bo‘lib (fan doktorlari – 56 yosh, falsafa doktorlari va fan nomzodlari – 43 yosh), yuqoriligicha qolmoqda, fan doktorlari orasida nafaqa yoshidagilarning ulushi 45 foizni tashkil etmoqda[2]. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar avvalo bank, soliq va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga kirib keldi. Ta’lim tizimida kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanilayotgan bo‘lsa-da, aksariyat hollarda ulardan foydalanish uchun texnik xodimlar – kabinet mudirlari, laborantlar va kotibalar jalb etiladi. Ularning bilim darajasi ham matn yoki jadvallarni kiritish, tahrir qilish va ularni chop etish darajasida, xolos. Raqamli transformatsiya esa bilimlarni vizuallashtirish, ta’lim jarayoniga oid ma’lumotlarni virtual borliqda imkon qadar kengroq va to‘liqroq aks ettirishni talab etadi. Buning uchun esa murakkab kompyuter dasturlari yordamida kontent yaratish, uni montaj qilish va dastur formatini universallashtirish zarur. Pandemiya sharoitida ta’lim platformalarining ommalashmagani va ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishilmaganining asosiy sababi ham zamonaviy kontent yaratilmagani va buning oqibatida talabalar ta’lim jarayoniga jalb etilmagani bo‘ldi.

Barqaror ishlaydigan internet tarmog‘i raqamli transformatsiyaning uchinchi muhim shartidir. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har sekundga to‘g‘ri keladigan internet trafigi millionlab marotaba oshib bormoqda. Jahonda shisha tolali kabellar va 5G texnologiyalari hisobiga internetning tezligi yuqorilab bormoqda. O‘zbekiston internet tezligi bo‘yicha dunyo reytingda 94-o‘rinda turibdi (Bu ko‘rsatkich bir necha yillar avval 184-o‘ringa teng edi)[3].

Raqamli transformatsiya zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalanish zaruratini vujudga keltiradi. Internet ko‘ngilochar vosita emas, ta’lim instrumenti degan qoidani shakllantirish zarur. Hozirgi vaziyatni O‘zbekistonda eng ommabop bo‘lgan ijtimoiy tarmoq – telegram va uning kanallari reytingi misolida tahlil qilsak[4].

*1-jadval*

O‘zbekistondagi va boshqa davlatlardagi eng katta telegram kanallar solishtirma jadvali

| Reytingi | Kanal nomi va yo‘nalishi | | | |
|---|---|---|---|---|
| | O‘zbekiston | Rossiya | Ukraina | Qozog‘iston |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Kun.uz \| Rasmiy kanal Yangiliklar va OAV | Topor 18+ Shok-kontent | Koronavirus_info Yangiliklar va OAV | KZ CORONAVI-RUS2020.KZ Yangiliklar va OAV |
| 2 | Daryo \| Rasmiy kanal Yangiliklar va OAV | Filmы Serialы Kino Video va filmlar | Ukraina Seychas Yangiliklar va OAV | QAZAQShA ƏNDER MUZЫKA 2021 Yangiliklar va OAV |
| 3 | FUTBOL TV \| RAS-MIY KANAL Sport | Psixologiya Psixologiya | Ukraina 24/7 Yangiliklar va OAV | Dauletten Ilm-fan |
| 4 | Koronavirus Info \| Uyda Qoling! Yangiliklar va OAV | TELEGRA4CH Yumor va vaq-tichog‘lik | Ukraina Online Yangiliklar va OAV | Madridistka.kz Musiqa |
| 5 | PRIKOL VIDEOLAR Sotuvlar | Mash Yangiliklar va OAV | TSN Yangiliklar va OAV | Zakon.kz – novosti Kazaxstana Yangiliklar va OAV |
| 6 | Shukurulloh Domla √ Sotuvlar | EDWARD BIL Bloglar | Muzыka \| Treki \| Soxгы Musiqa | BJB•TJB Ta’lim |
| 7 | FUTBOL ● TV HD Sport | Glaz Boga \| Eye Of God Texnologiyalar | XRONIKI ↑↑↑ UKRAINЫ Yangiliklar va OAV | eHelpKZ Yangiliklar va OAV |
| 8 | TIK-TOK Yumor va vaqtic-hog‘lik | E V O L U T I O N Iqtiboslar | Muzыka 2021 \| Muzika Musiqa | ZTB \| QAZAQSTAN Din |
| 9 | √ SOQOL O‘STIR-ISH \| √ SOCH O‘STIRISH Taom va pazandalik | ⇢ Easy APK Dastur va ilova-lar | Anatoliy Shariy Siyosat | Tengrinews.kz – Novosti Kazax-stana Yangiliklar va OAV |
| 10 | SHAYX MUXLISLARI !!! Din | App Store + Dastur va ilovalar | Tipichnaya Ukraina Yangiliklar va OAV | eHelpRu Yangiliklar va OAV |

Telegram ijtimoiy tarmog‘ining statistika xizmati ma’lumotlari asosida tuzilgan ushbu jadval top o‘ntalikka kirgan, rasmiy maqomga ega kanallar kontenti tahlil qilingan holda tuzilgan. O‘zbekistonda mashhur bo‘lgan telegram kanallarining aksariyati yangiliklar, ko‘ngilxushlik va diniy mazmundagi ma’lumotlarni tarqatish bilan shug‘ullanadi. Top o‘ntalik ichida ta’lim va ilm-fanga bag‘ishlangan kanallar mavjud emas. Statistikaga e’tibor qaratsak, faqatgina 41-o‘rinda Foydali LINK deb nomlangan kanal bo‘lib, ta’lim va fan sohasidagi reklamalarni tarqatish bilan shug‘ullanadi. Top yuztalikda fan va ta’lim bo‘yicha kontent yaratadigan biror bir kanal mavjud emas. Bu esa O‘zbekistonda internetda ta’lim va fan sohasida foydalanish madaniyatining shakllanmaganini ko‘rsatib turibdi. Aksariyat foydalanuvchilar internet tarmog‘iga ko‘ngilxushlik va vaqt o‘tkazish vositasi deb qaraydi. Holbuki, rus segmentida top o‘ntalikning 5 tasi ta’lim va fan-

ga bag‘ishlangan kanallardan iborat. Ukrainalik foydalanuvchilarni o‘zbek segmentidagi kabi asosan yangiliklar va siyosat qiziqtirishi ma’lum bo‘ldi. Qozog‘istonda esa telegramdagi yetakchi 10 ta kanalning 2 tasi ta’lim va fanga bag‘ishlangan. Bu esa milliy darajada internetga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish zaruratini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida internet tarmog‘ining ta’lim va fanga bag‘ishlangan kontentini targ‘ib qilish uchun juda kuchli zarurat sezilmoqda.

Yuqoridagi tendensiya videokontent sohasida mutlaq monopol bo‘lgan “Youtube” videoxostingida va “Tik Tok” platformasida kuzatilishi aniqlandi[5].

Globallashuv va raqamlashtirish jarayoni qanchalik ommaviy va universal xarakterga ega bo‘lmasin, har bir madaniyat va har bir jamiyatga unikal ta’sir ko‘rsatishi namoyon bo‘lmoqda. Misol uchun, mineral o‘g‘itlar madaniy o‘simliklarning rivojiga hissa qo‘shish bilan birga, yovvoyi o‘tlarning ham ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Ayrim hollarda esa yovvoyi o‘tlar mineral o‘g‘itlar hisobiga madaniy o‘simliklarni butkul yo‘qotib yuborishi ham mumkin. Shunga o‘xshash holatni axborotlashuv jarayonida ham kuzatish mumkin. Axborotlashuv jarayonida ijtimoiy qadriyatlarning o‘ziga xosligi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday muammolarning eng asosiysi esa bilim va ma’rifatning qadriyat darajasiga yetmaganidir.

Yuqorida qayd etilgan ijtimoiy jarayonlarni milliy manfaatlar o‘zaniga burib yuborish uchun quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, raqamli texnologiyalarning ijtimoiy hayotga ta’siri bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va uning natijalarini amaliyotda qo‘llab borish zarur. Jumladan, global ijtimoiy tarmoqlarning milliy kontingentga ta’sirini xavfsizlik va barqaror taraqqiyot konteksida o‘rganishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Ikkinchidan, milliy talab va ehtiyojlardan kelib chiqib keng qamrovli kontent yaratishga alohida urg‘u berish va bu maqsadlarga davlat budjetidan mablag‘lar ajratish zarur. Ayniqsa, turli destruktiv g‘oya va mafkuralarga qarshi muqobil sifatida ilmiy kontentni ko‘paytirish va ommalashtirish zarur. Dastlabki bosqichda raqamli televideniye va internet tarmog‘ida “Discovery Science” va “National Geographic” kabi telekanallarning o‘zbekcha franshizingini tashkil qilish lozim.

Uchinchidan, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan, ma’rifiy kontentmeykerlarning zamonaviy avlodini yaratish uchun ilmiy bloger va art-bloger kabi kasb-hunar va bakalavriat yo‘nalishlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni obyektiv va haqqoniy ravishda jamoatchilikka yetkazib berish uchun ma’lum bir tayyorgarlikdan o‘tgan jurnalistlar va boshqa axborot tayyorlovchi mutaxassislar kontingentini shakllantirish kerak. Konspirologik va mutaassiblikka yo‘g‘rilgan

axborot manbalariga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantiruvchi axborot vositalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarur.

Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jamiyatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qilishini ta’minlaydi hamda uning vayronkor ta’siridan himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**


*1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y. 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.06.2020-y. 06/20/5370/0975-son, 09.07.2020 y. 06/20/6021/1047-son, 28.09.2020-y. 06/20/6075/1330-son: https://lex.uz/docs/3171590*

*2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y. 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.06.2020-y. 06/20/5370/0975-son, 09.07.2020 y. 06/20/6021/1047-son, 28.09.2020-y. 06/20/6075/1330-son: https://lex.uz/docs/3171590*

*3. Reyting stran po skorosti Interneta: https://svspb.net/danmark/skorost-interneta.php*

*4. https://uz.tgstat.com/, https://tgstat.ru/uz, https://kaz.tgstat.com/uz, https://uk.tgstat.com/uz saytlaridan 2021 yilning 3 aprel kuni olingan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.*

*5. https://livedune.ru/youtube/country/russia, https://livedune.ru/youtube/country/uzbekistan Murojaat etilgan sana: 03.04.2021-y.*


## YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALISH OMILLARI


**Otabek BAZAROV,**
*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlari instituti tadqiqotchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*



***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish omillari yozilgan bo‘lib, bunda ota-onaning roli, ta’lim muassasalarini vazifalari tahlil etilgan.*



***Kalit so‘zi:*** *yoshlar, ma’naviyat, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, ma’rifatli shaxs, uzluksiz ma’naviy tarbiya.*

***Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur.***

**Sh.Mirziyoyev**

Bugungi kunda jahon hayotida yuz berayotgan global o‘zgarishlar – madaniyatlararo munosabatlarning chuqurlashuvi, barcha sohalarda sivilizatsiyalar to‘qnashuvining tezlashishi, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgani yurtimiz tinchligiga rahna solayotgan turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish muhim masala ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu esa jamiyatning har bir ongli a’zosi ayniqsa, ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, pedagog, targ‘ibotchi, tashviqotchi va boshqalardan ijtimoiy mas’uliyat, ijtimoiy birdamlik, fidoyilik va hamjihatlik bilan ish olib borishni taqozo etadi.

Ma’lumki, O‘zbekiston bugun yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘yish arafasida, ya’ni Uchinchi Renessans ostonasida turibdi. Bu esa jamiyat a’zolarini bir maqsad yo‘lida birlashishga undaydi. Bu maqsadga erishish uchun bir qator savollarni qo‘yamiz. “Yangi O‘zbekistonni kimlar quradi?”, “Yangi O‘zbekistonning kelajagi qanday bo‘ladi?”, “O‘zbekistonning strategiyasida nimalar belgilanadi?” “Bu yerda yoshlarning ma’naviy ko‘rinishi qanday bo‘lishi lozim?” “Yangi O‘zbekistooning milliy g‘oyasi qanday bo‘lishi kerak?” va shular kabi bir qancha savollarga javob topishga harakat qilinadi. Uchinchi Renessans davrida aholi, xususan yoshlar ma’naviy ongini yuksaltirish, milliy g‘oyani singdirish, mafkuraviy immunitetni oshirish muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Chunki, kelajak avlod “hayot ma’nosini anglash”, “hayotga maqsadli munosabatda bo‘lish”, “hayotga mustahkam ishonch va e’tiqodli bo‘lish”, “vatanni sevish”, “insoniylik”, “oila mas’uliyati”, “kasbga muhabbat” va boshqa shu kabi ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalarni o‘zlari tahlil qilib, xalqaro miqyosda raqobatbardosh yoshlar bo‘lib voyaga yetishlari lozim.

Chunki, bugun vaziyat og‘ir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu borada “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”[2], – deya ta’kidlagan edi. Shu maqsadda yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirish masalasi davlat siyosati darajasiga yetkazildi.

[2] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. –Б.27.

2016-yil 14-sentabr kuni imzolangan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori va shularga o‘xshagan bir qator hujjatlar qabul qilindi va ularning ijrosini amalga oshirish borasida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borildi.

Bu hujjatlar O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish, yoshlar bilan bog‘liq muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqishning asosiy vositasi vazifasini bajaradi.

To‘g‘ri, ushbu hujjatlar asosida bugungi kunga qadar tarbiya borasida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi, ya’ni ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish va samaradorligini oshirish, oilalarda tarbiyaviy va ta’lim salohiyatini mustahkamlash, farzandlar tarbiyasidagi mas’uliyatini kuchaytirish, turli ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi ma’rifat va ilm bilan samarali kurash olib borish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Lekin afsuski, barcha olib borilgan islohotlar ham ko‘zlangan natijani bermadi, sababi bunda ijtimoiy hamkorlik yetishmadi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan 2026-yilgacha belgilangan Taraqqiyot strategiyasining 1-yo‘nalishi ham yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga qaratildi. Unga ko‘ra, ta’lim sohasida yoshlarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratish izchil davom ettiriladi. Buning uchun maktablarning o‘quv dasturlari, o‘qitish uslubi, darsliklar mazmuni tubdan qayta ko‘rib chiqiladi.

**“Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi”**da esa ta’lim-tarbiya masalasi to‘rt bosqichda amalga oshirilishi belgilandi:

**– birinchi bosqich** – oilalarda (ikki davr: 1-davr – homila davri, 2-davr – bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

**– ikkinchi bosqich** – maktabgacha ta’lim 3-6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

**– uchinchi bosqich** – umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr: 1-davr – 7 (6)-10 yosh boshlang‘ich sinf, 2-davr – 11-17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

**– to‘rtinchi bosqich** – ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim

muassasalari tizimida (ikki davr: 1-davr – o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar – 17-30 yosh, 2-davr – o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh). Bu bosqichlarda yetarlicha ta’lim-tarbiya olib bosib o‘tgan shaxs kelajakda o‘z o‘rniga ega bo‘la olgan yetuk kadr, vataniga xizmat qiladigan komil inson bo‘lib voyaga yetadi. Aksincha, shu to‘rtta bosqichda tarbiya yetarlicha berilmagan bo‘lsa, endi unga qanchalik harakat qilinmasin, befoyda bo‘ladi.

Mutafakkir bobolarimiz asarlarida ham ta’lim-tarbiya masalalariga, inson va uning ma’naviy olamiga ustuvor amallar sifatida qaraladi. Jumladan, Imom Buxoriy “Bolaning tabiati islomiy bo‘ladi, uni qanday g‘oyalar bilan to‘ldirish ota-ona va ustozga bog‘liq”[3] – deydi. Abu Nasr Forobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lishi, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi, deydi. Ana shu jarayonda insonda fazilatlarni kamol toptirish haqida ta’kidlab quyidagi fikrlarni ilgari suradi, “Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi”[4]. Abu Rayhon Beruniy inson tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi illatlar haqida fikr yurita turib, ular ko‘p hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd etadi[5]. Unga hamohang tarzda Ibn Sino esa bunday illatlarni bartaraf etishda tarbiya omiliga tayanishni ta’kidlaydi[6]. Mazkur muammolarga daxldor qarashlarni tahlil qilgan Yusuf Xos Hojib “Kamolotga yetish yo‘li ikkita: bilim olish va ibrat o‘rganish”[7], – deb inson ma’naviy-axloqiy ongining falsafiy mohiyatini ochib beradi.

Shunday ekan, Uchinchi Renessans davrida yoshlar tarbiyasi masalasida nimalarga e’tibor qaratish zarur:

**Birinchidan,** yoshlarda daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish zarur. Bunda ular jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga daxldorlik bilan yondoshadi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok qiladi. O‘z ishini vijdonan bajarishga intiladi.

**Ikkinchidan,** ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi ma’rifat va ilm bilan samarali kurash olib borishni yanada kuchaytirish zarur, bunda esa fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarini hamkorlik ishlariga keng jalb qilib, targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta’sirchan va innovatsion uslublarini ishlab chiqish masalalarini yo‘lga qo‘yish kerak.

**Uchinchidan,** yoshlar o‘rtasida vayronkor g‘oya va buzg‘unchi mafkuralarga nisbatan barqaror ma’naviy-mafkuraviy immunitet shakllantirish

[3] Имом ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. – Т.: Мовароуннаҳр, 2005. – Б. 16.

[4] Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Т.: Ёзувчи, 2001. – Б. 38.

[5] Абу Райҳон Беруний. “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”. – Т.: Фан, 1972. – Б. 68.

[6] Абу Али Ибн Сина. Философски трактаты. – М.: Наука, 1980. – С. 43.

[7] Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Фан, 1971. – Б. 103.

lozim. Mafkuraviy immunitet shakllangan joyda g‘oyaviy va informatsion kurashlarga xolisona baho berish muhiti paydo bo‘ladi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini sog‘lomlashtirishga, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga, yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishga uchun asos vazifasini bajaradi.

**To‘rtinchidan,** ta’lim-tarbiya borasida ta’lim muassasasi-oila-mahalla hamkorligini tashkil etish zarur. Qayerdaki, hamkorlik bor bo‘lsa, maqsadga erishish oson bo‘ladi. Buyuk faylasuf Farobiy ham o‘z davrida “Inson ijtimoiylikka muhtoj. U qandaydir ishni amalga oshirmoqchi bo‘lsa, atrofdagilarning yordami bilan amalga oshiradi”, – degan edi. Haqiqatan ham, ta’lim-tarbiyada oila-ta’lim muassasasi-mahalla birlashsa, u mahallada axloqi nopok, jinoyatchi farzandlar bo‘lmaydi.

**Beshinchidan, yo**shlarni buyuk ajdodlarimizning bebaho ma’naviy-ma’rifiy merosiga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash lozim. Keyingi paytlarda ko‘pchilik yoshlar buyuk ajdodlarimizning bebaho ma’naviy-ma’rifiy merosi haqida yetarlicha bilimga ega emas. Barcha axborotlarni internet vositalari orqali olishga o‘rganib qolishgan, natijada esa o‘z ajdodlari haqida hech qanday bilimga ega emas (Hattoki, shoir bilan yozuvchini ajratib olomaydigan darajaga yetishgan). Bunday holatlarning oldini olish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda, yoshlarda buyuk ajdodlarimizning bebaho ma’naviy-ma’rifiy merosiga nisbatan qiziqishini uyg‘otish, ularning asarlaridagi qahramonlarning hayoti, faoliyati, turmush tarzini tushunishlariga yordam berish, tafakkurida o‘zlikni anglash masalalarini o‘rgatish lozim. Shu bois “...Sharq falsafasini teran o‘rganish, shu asosda ulug‘ madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, yaqin o‘tmishimizdan qolgan mafkuradan xalos bo‘lish, o‘zimizning asrlar sinovidan o‘tgan, ulug‘ ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy umumbashariy ruh bilan boyitish hammamizning dolzarb vazifamizdir”[8]. Bu esa yoshlarda vatanparvarlik va milliy g‘urur, o‘zlikni anglash fazilatlarining shakllanishiga, ularning ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, fidoiy shaxs sifatida voyaga yetishiga imkon beradi.

**Oltinchidan,** yoshlarni muqaddas islom dini ruhida tarbiyalash masalasi. Chunki dinda o‘zbek mentalitetiga xos insonparvarlik, ezgu qadriyatlarni hurmat qilish, axloq-odob, insoniy mehr-muhabbat, izzat-ikrom, halollik va nopoklik, ota-onaga, yaqinlariga nisbatan saxovatli bo‘lish va boshqa fazilatlar o‘z aksini topgan. Yoshlarda turli dinlar, konfessiyalarga nisbatan diniy bag‘rikenglik, jumladan, turli diniy e’tiqodlarga nisbatan xayrixoh bo‘lish, barcha dinlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘zga din vakillarining fikr-mulohaza va g‘oyalariga sabru-toqatlilik fazilatlari shakllantirilsa, bu ham jamiyat uchun ijobiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

[8] Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 260 б.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, agarda yuqorida sanab o‘tilganlar amalga oshsa, bu barcha aholi qatlami uchun, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatining har tomonlama yuksalishiga, ularda vatanga sadoqat va muhabbat, daxldorlik tuyg‘usining shakllanishiga, millat va vatan or-nomusini saqlash va e’zozlashga, milliy va madaniy diniy qadriyatlarimizga cheksiz hurmatni saqlash va ularni asrab avaylash, yanada yuksaltirish masalalari millatimiz va xalqimizning or-nomusiga aylanadi. Eng muhimi, Yangi O‘zbekiston kelajagi uchun poydevor yasaladi.

## TA’LIM MUASSASASIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH METODIKASINI JORIY ETILISHI

**Munira KAXAROVA,**
*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti direktori o‘rinbosari, f.f.d (PhD)*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqola ta’lim muassasalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan metodikani amaliyotga joriy etish va uning afzallik tomonlari ham ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammolar tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zi:*** *ta’lim, ijtimoiy-ma’naviy muhit, sog‘lom muhit, ma’naviyat, ma’rifat, metodika, yoshlar, tarbiya, islohot, bilim, kasb-hunar, barkamol shaxs, sifatli ta’lim, uzluksiz tarbiya masalasi, to‘garak.*

Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotini belgilaydigan islohotlar va modernizatsiya jarayonlari jamiyat hamda uning barcha tizimlari oldiga ulkan vazifalar qo‘ymoqda. Bu ta’lim sohasiga ham bevosita taalluqlidir. Aytish mumkinki, keyingi ikki yarim yilda ta’lim sohasida boshlangan tub islohotlar uning sifatini oshirishni, o‘quvchi yoshlarning ixtisoslik bo‘yicha chuqur bilim egallash bilan birga, barkamol shaxs bo‘lib shakllanishiga sharoit yaratish, uzluksiz hamda umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangidan modernizatsiya qilish kabi vazifalar belgilanganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Bugungi kunga kelib, oliy ta’lim muassasalarining soni 210 taga yetib, yoshlarni 38 foizi[9]ni qamrab olingani ma’lum qilindi. Demak, ko‘plab o‘g‘il-qizlarimiz zamonaviy ilm va kasb sohalarini egallash imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Orzu umidimiz ham farzandimizning yetarlicha ilm olib, kasbini ustasiga aylanishidir. Ularning ta’lim olishi bilan birga tarbiyalanishi ham dolzarb masala ekanini unutmaslik kerak. Har bir o‘g‘il-qizning ta’limi bilan birga, chiroyli tarbiyasi, jamiyatga foyda keltiradi. Biz ilgari

[9] Мирзиёев Ш. Ўзбекистон ёшларига байрам табриги. 30.06.2023. https://president.uz/uz/lists/view/6451

surayotgan sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllanishi ham mana shu yoshlarimizning ma’nan yetukligiga bog‘liq.

Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishiga erishish, ularning o‘z qobiliyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat. Bugungi kunda yaratilgan sharoitlarga javoban, o‘quvchilar o‘tgan yili xalqaro fan olimpiadalarida 7 ta oltin, 36 ta kumush va 38 ta bronza medalini qo‘lga kiritgan bo‘lsa, yosh sportchilarimiz esa xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, bu yil 247 ta oltin, 119 ta kumush, 110 ta bronza medal sohibiga aylandilar. Shuningdek, ana shunday yoshlarning 758 nafari davlat mukofotlariga sazovor bo‘lishdi.

Har bir o‘g‘il-qizdan umidimiz katta, ishonchimiz cheksiz va Davlat rahbari aytganidek, ular bebaho boyligimiz, oltin zaxiramizdir.[10] Shu kunga qadar, yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, imtiyoz va imkoniyatlari uchun 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bezisga emas. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham yoshlarimizning huquq va manfaatlari alohida bob hamda moddalarda aks etgani, kafolatlanganidan dalolatdir. Ularga berilayotgan huquqiy imkoniyatlarni kun sayin ortayotganidan faxrdamiz. Zero, har bir farzandning taqdiri, uning olgan ta’lim va tarbiyasiga bog‘liqligini hamda bunga barcha birdek mas’ul ekanini ham unutmaslik lozim. Shuningdek, yoshlar ongidagi bo‘shliqni yot mafkurachilarning g‘oyalari band etmasidan avval, bilim va kasb-hunarga o‘z vaqtida jalb etilishi zarur. Farzandimizning bo‘sh vaqti, dushmanning ish vaqti ekanini yoddan chiqarmaslik kerak.

Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli qarorida ichki va tashqi tahdidlar belgilab berilib, uni aniqlash, oldini olish hamda bartarf etishga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqilishi topshiriq qilib berilgan edi. Unga ko‘ra, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes kabi tashqi tahdidlar va el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabilar jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar ekani hamda ularga qarshi kurashishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish; targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli, mazmunli yondashuvni joriy qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur ishlarni jadallashtirish maqsadida, 2019-yil 3-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini

[10] Мирзиёев Ш. Ўзбекистон ёшларига байрам табриги. 30.06.2023. https://president.uz/uz/lists/view/6451

oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli qarorining 6-bandida “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog‘lomlashtirish metodikasi” loyihasini ishlab chiqib, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashiga kiritish vazifasi belgilandi. Ushbu loyihani tayyorlash amaliyotga qo‘llashda: “Oila, mahalla, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, “mahalla-tuman-viloyat-respublika” prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish” vazifalari yuklatildi.

Yuqorida keltirilgan loyiha, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan ishlab chiqilgan hamda “Hududlardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit xaritasi” bo‘yicha xarakat rejasini kelishish, tasdiqlash uchun 2019-yil 14-mayda ishchi guruhining yig‘ilishi o‘tkazilgan. Mazkur “hududlardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit xaritasi” bo‘yicha metodik qo‘llanma va harakat rejasi tasdiqlanib, har chorakda ishchi guruh yig‘ilishini o‘tkazib borish va ma’lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish hamda tuzilgan ishchi guruhga quyidagi vazifalar yuklatildi:

– “hududlarning ma’naviy-ma’rifiy muhit xaritasi”ni tuzish maqsadida savolnomalarni ishlab chiqadi va “Olimlar klubi”dan muhokamadan o‘tkazadi;

– “hududlardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit xaritasi”ni tuzish maqsadida savolnomalarni Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga taqdim etadi;

– “hududlardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit xaritasi”ni tuzish maqsadida so‘rovnomalarni o‘tkazish mexanizmini ishlab chiqadi va o‘tkazilayotgan so‘rovnomalarni olib borilayotganini nazorat qiladi;

– o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga taqdimnoma kiritib borish, ulardan taklif va tavsiyalar olinadi;

– o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari bo‘yicha har chorakda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashiga ma’lumot kiritib borish vazifalari belgilandi.

Shuningdek, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga savolnomalarning elektron dasturini ishlab chiqish, savolnomalarning elektron dasturi muntazam va samarali ishlashi, turli nosozliklarni oldini olish, dasturning muvaffaqqiyatli ish tizimini tashkillash maqsadida hududlarda mutasaddilarni belgilash vazifalari belgilangan.

Shuningdek, mazkur loyihani amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika Kengashiga “hududlardagi ma’naviy ma’rifiy muhit xaritasi”ni shakllantirish maqsadida bir yilda ikki marta o‘tkaziladigan aholi o‘rtasidagi

(oflayn va onlayn) so‘rovnomani yuksak saviyada o‘tkazilishini, haqqoniy va adolatli o‘tkazilishini ta’minlashga ko‘maklashish hamda o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida maqsadli va manzilli “Yo‘l xarita”larining ijrosi bo‘yicha hamkorlik ishlarini samarali tashkil etish vazifalari yuklatilgan.

Shu bilan birga, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan yuqoridagi masalalarni yechimi sifatida **“Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog‘lomlashtirish metodikasi”** loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u amaliyotga joriy etish vazifasi belgilangan. Xullas, jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy muhitini sog‘lomlashtirishga qaratilgan loyihani har bir ta’lim muassasasida joriy etish vazifasi yo‘l xaritalarida ko‘rsatilgan. Mazkur metodikani qo‘llash maqsadida, 2020-yil O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasidagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni aniqlash hamda professor-o‘qituvchilar va talabalarni ma’naviy qiyofasini o‘rganish bo‘yicha sotsiologik so‘rovnoma 1-,2-,3-,4-kurslarda (2124 nafar) o‘tkazildi. Unga ko‘ra, “Darsdan bo‘sh vaqtlaringizda nimalar bilan mashg‘ul bo‘lasiz?” – deb, berilgan savolga, talabalarning 52 foizi “kitob o‘qiyman”, 9 foizi “sport bilan shug‘ullanaman”, 11 foizi “televizor ko‘raman”, 8 foizi “kompyuter yoki telefon o‘ynayman”, 8 foizi “uhlayman”, qolgan 12 foizi “ijtimoiy tarmoqlarda voqea-xodisalarni kuzataman va unda faolman”, kabi javoblarni belgilagan. Demak, 600 dan ortiq talaba ijtimoiy tarmoqlarida faol degani. Buni yanada aniqlash maqsadida, “Internetdagi qaysi saytlarga qiziqib kirasiz?” savoli berildi va unga javoban, Youtube.com, muslim.uz, mehrob.uz, islom.uz, kun.uz, xushnud.uz, tribuna.uz, iiau.uz, qalampir.uz, ziyo.uz, daryo.uz, sefon.pro, hidoya.uz, edu.uz, muslimaat.uz, xadicha.uz, vakillik.uz, madinaharabic.com, wikipedia.uz, ummat.uz, hidoyat.uz, bloomberg.com, azon.uz, religon.uz, fatvo.uz kabi javoblar olindi.

Shuningdek, akademiyadagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samaradorligini aniqlash uchun “Siz qanday tadbirlarda ishtirok etishni xohlaysiz?” savoliga talabalarning 31 foizi “kitobxonlikka doir tanlovlar”, 13 foizi “ijodiy ishlar bo‘yicha tanlovlar”, 27 foizi “taniqli shaxslar bilan uchrashuvlar”, 10 foizi “musiqa va san’at yo‘nalishidagi tadbirlarda”, 12 foizi “zakovat” intellektual o‘yin va shu kabilarda”, 7 foizi “o‘qiyotgan yo‘nalishimiz bo‘yicha tadbirlarda” ishtirok etish istaklari borligini ko‘rsatishgan. Yana ko‘plar savollar berilgan bo‘lib, har bir berilgan savolning natijasiga qarab, akademiyaning ijtimoiy-ma’naviy muhitini sog‘lomlashtirishga qaratilgan “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. Mazkur yo‘l xaritani ijrosini ta’minlash maqsadida, talabalar uchun “Dutorchi qizlar”, “Fortopiano”, “Skripka”, “Doira”, “Kitobxonlik”, “Ziyo yulduzlari”, “Tilshunoslik bo‘yicha (arab, ingliz, rus tili)”, “Psixologik trening”, “Xattotlik”, “Vollebol”, “Stol tennisi”, “Basketbol”, “Futbol”, “Kompyuter savodxonligi”, “Vep dizayneri”, “Suxandonlik” kabi to‘garaklar faoliyati tizimli yo‘lga qo‘yildi. Mazkur to‘garaklarga jami 1217 nafar talabalar qamrab olindi.

Shuningdek, “Kitoxon talaba” nomli tanlov e’lon qilindi. Bu tanlovni bosqichlarda o‘tkazish vaqtigacha akademiyaning barcha 2124 nafar talabasiga o‘qishlari shart bo‘lgan badiiy kitoblar ro‘yxati e’lon qilinib, tanlovgacha o‘ziga belgilangan kitob bo‘yicha Axborot va murabbiylik soatlarida taqdimotini tashkil etdi. Natijada barcha talaba kitob o‘qishiga erishildi. Tanlovda g‘olib bo‘lgan talabalarga kitoblar jamlanmalari va boshqa qimmatbaho sovg‘alar bilan rag‘batlantirildi.

Shu bilan birga, akademiyada tashkil etilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning turlari o‘zgardi. Talalabalarning istaklaridan kelib chiqib, tashkil etish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Tadbirlarning samarasi va natijadorligiga hamda talabalar o‘z istaklari bilan kirishiga erishildi. Yana shuni alohida e’tirof etish lozimki, “Dutorchi qizlar” to‘garagida 2020-yil 8 nafar talaba-qizlar ishtirok etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib, ular 28 nafarga yetdi. Talaba-qizlarning musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqishlari yonidagi dugonalarini ko‘rib, havas bilan ishtirok etishdi. Eng muhimi shundaki, ular musiqa hayotlarida muhim o‘rin tutishi, kerak ekanini tushunib yetishdi.

Akademiyadagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish maqsadida, tashkil etilgan to‘garaklar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol bo‘lgan talabalarni 100 nafari uchun 2021-yil yanvar-mart oylarida Samarqand shahriga turizm sayohati uyushtirildi. 80 nafar talabalar uchun esa, dam olish maskanida madaniy hordiq chiqarish ishlari amalga oshirildi. Bu kabi loyihalar yana ko‘plab o‘tkazildi. Natijada talabalar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirildi. Akademiyada amalga oshirilgan “ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish metodikasi” ijobiy natijasini ko‘rsatdi. Shuningdek, mazkur metodikani ta’lim muassasasida o‘tkazilishining afzalliklari quyidagilardan iborat:

– ta’lim muassasasidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit holati ko‘rsatkichlari tasniflangan holda, aniq o‘lchamlarda aks ettiradi;

– ta’lim muassasasidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini har bir kurs, guruhlar kesimida yurib aniqlash, tizimli monitoring va tahlil qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiyasi vositalaridan foydalanish shakllari ishlab chiqiladi;

– tahlil natijalarini ko‘rsatkichlar vizuallashtiriladi, “guruh – kurs – yo‘nalish – ta’lim muassasasi” prinsipi asosida kurslar va yo‘nalishlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasida aks ettiriladi;

– ijtimoiy-ma’naviy, iqtisodiy va psixologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishga doir tavsiyalar tayyorlanadi;

– tahliliy ma’lumotlar asosida tahdidlarni bartaraf etishga qaratilgan aniq maqsadli va manzilli tavsiyalar, “Yo‘l xarita”lari ishlab chiqiladi;

– talabalarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga yo‘naltiril-

gan innovatsion metodlarni yaratish, ilmiy-amaliy dasturlarni amaliyotga joriy etish mexanizmlar belgilanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yishda bir qator muammolari mavjud. Jumladan, ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish metodikasini joriy etish, to'garaklar uchun sharoit, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi o'tkazilgan tadbir va tanlovlar uchun rag'batlantirish masalasi, "ma'naviyat va ma'rifat xona"larining yo'qligi, onlayn targ'ibot uchun muassasa platformasidan joy ajratilmagani, radouzel tashkil etish, islohotlarga munosabat *(talabalar ishtirokida "Intervyu berish guruhi"ni tashkil etilishi kerak)*, targ'ibotchi talabalar faoliyati *(talabalardan iborat "Targ'ibotchi talaba" guruhini tashkil etilishi zarur)*, boshqa ta'lim muassasalari bilan ma'naviy-ma'rifiy hamkorliklar *(Madaniyat va san'at, Konservatoriya, O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Milliy kutubxona, O'zbek milliy drama teatri va boshqa teatrlar, O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi bilan hamkorlik Memorandumlar tuzish)* kabilarni keltirish mumkin.

Xullas, mazkur muammolarni bartaraf etilishi, jamiyatda ta'limning nufuzini oshishi va yoshlarning kamolotga intilishini rag'batlantirish, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni zo'rovonlik va radikalizm mafkurasidan himoya qilishga erishilishi, hech shubhasiz, mamlakatimizdagi oliy ta'lim tizimini takomillashishiga yordam beradi. Prezidentimiz Murojaatnomasida keltirilgan Najmiddin Kubroning "**Muvaffaqiyatni – sa'y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa – loqaydlik va dangasalikda ko'rdim**"[11], degan hikmatli so'zlarining ma'nosini hammamiz chuqur anglashimiz kerak. Jamiyatning har bir kishisida mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik hissini uyg'otish, milliy fidoyilik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish vaqti keldi, bu jarayonni kundalik turmush tarziga aylantirish kun tartibimizdagi bosh masaladir. O'shanda jonajon O'zbekistonimiz iqtidorli yoshlar mamlakatiga aylanadi.

Bu, avvalambor, ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq ekanini biz yaxshi anglaymiz. Shu o'rinda, Abu Nasr Forobiyning: "Tarbiya bu – xalqlarga bilimlarga asoslangan, axloqiy fazilatlar va san'atlar ulashish yo'lidir. Amaliy fazilatlar va amaliy san'atlar masalasiga kelsak, ular kishilarning ularga xos harakatlarni bajarish odatlari orqali o'zlashtiriladi"[12], deb, yozgan o'gitlarini eslash mumkin. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar Forobiyning ta'kidlarining ro'yobi deyish, to'g'riroq bo'lar edi.

[11] Мирзиёев Ш. Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28 декабрь, 2018 йил. https://president.uz/uz/lists/view/2228

[12] Фараби – крупнейший мыслитель средневековья.– Ташкент, 1973. – С.3.

# O‘QUV JARAYONI SIFATINI TA’MINLASHDA SINERGETIK METODOLOGIYANING O‘RNI

**Shaxzoda NEGMATOVA,**
*falsafa fanlari doktori, professor*
**Maxbuba ERGASHEVA,**
*falsafa fanlari doktori, dotsent*
*Samarqand davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *mamlakatimizda bugungi kunda ta’lim taraqqiyoti orqali iqtisodiy farovonlikka erishish, milliy ta’lim tizimini rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’limi bilan integratsiyalash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu maqsad yo‘lida, rivojlangan mamlakatlarning sinovdan o‘tgan tajribalari asosida milliy ta’lim tizimini yangicha mexanizmlarini tashkil etish va mamlakatimizda zamonaviy, o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi, sinergetik ta’lim muhitini shakllantirish borasidagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bundan kelib chiqib, istiqbolli, zamonaviy ta’lim tizimining sinergetik (dinamik rivojlanish) qonuniyatlarini nazariy-metodologik tahlil etish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim, zamonaviy ta’lim, milliy ta’lim tizimi, sinergetika, ochiq tizim, o‘z-o‘zini tashkillashtish, nochiziqlik, bifurkatsiya.*

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimi shunday bir jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqdaki, unda o‘zgarish va turg‘unlik, rivojlanish yoki orqada qolish, taraqqiyot yoxud tanazzul holatlari kuzatilmoqda. Bu esa, hozirgi zamon ta’limining shakllanish va rivojlanish dinamikasini yangi imkoniyatlarini ochib bermoqda. Shu o‘rinda, zamonaviy ta’lim jarayonining murakkab va ochiq sistema sifatida sinergetik qonuniyatlarini aniqlash bugungi kun talablaridan biri sifatida dolzarb mavqega ko‘tarilmoqda.

Sinergetik ta’lim tizimi o‘quv jarayonini xilma-xilligini ta’minlash bilan birga ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda ham dolzarb ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Ta’lim uzluksiz jarayondir. Ta’lim tizimi bir qancha qismlar (elementlar) yig‘indisidan tashkil topgan, o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan va bir-birini to‘ldiradigan, mazkur tizimdagi har bir qismning funksiyasi butun bir tizim funksiyasining bajarilishi uchun muhim bo‘lgan yaxlit murakkab tizim hisoblanadi.

Sinergetika metodologiyasi tamoyillari ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi shaxsning individual qobiliyati va kreativ faoliyatini anglash va rivojlantirish usullarini ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi. “Sinergetik yoki o‘zini-o‘zi tashkil etish nazariyasi bugungi kunda eng mashhur va istiqbolli fanlararo yondashuvlardan biri bo‘lib tuyilmoqda” [1; 107]. Shu o‘rinda

ta'kidlash o'rinliki, har bir metodologik yondashuv o'z davri uchun muhim sanaladi va vaqt o'tishi bilan o'zgarib borishi mumkin. Taraqqiyot davom etar ekan, mutlaq, turg'un, doimiy metodologik qarashlar ham bo'lmaydi. Davr nuqtayi nazaridan takomillashib, o'zgarib boraveradi. Hozirgi davr talabidan kelib chiqib biz mazkur tadqiqot ishimizda sinergetik metodologiya va ta'lim tizimining sintezini ochib berishga harakat qildik.

Ta'lim jarayoni hamkorlikda rivojlanadigan, birgalikda harakatlanib yagona tizim muvaffaqiyati uchun, yaxlitligi uchun faoliyat olib boradigan qismlar yig'indisidan tashkil topgan. Bugungi kunda ta'lim jarayonini tashkil etuvchi har bir qism funksiyasini oqilona amalga oshishi uchun kerakli islohotlarni rivojlantirish sinergetik ta'lim tizimini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Sinergetik ta'lim tizimi nima?

Bizningcha***, sinergetik ta'lim tizimi*** bu – ta'lim tizimidagi bir necha bo'laklarning (qismlarning) kelishilgan faoliyati asosida rivojlanadigan, proliferativ xususiyatiga ega bo'lgan, ya'ni tizimda yangi elementlar vujudga keladigan, o'z-o'zini tashkillashtira oladigan ochiq, muvozanatsiz, nochiziqli tizimdir.

Sinergetik ta'lim tizimini shakllantirilishi tizimdagi bir muammoni bir necha yechimlarini taklif etilishida, tanlov imkoniyatini bir necha usul va yo'llarining mavjudligini ko'rsatib berishda muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa, bugungi kunda ta'lim islohotlariga mamlakatimizda juda katta e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda sinergetik ta'lim tizimining shakllantirilishi ta'lim jarayoniga tub burilish olib kirib, an'anaviy ta'lim modellarini zamonaviy ta'lim modellariga moslashtirilishida, ta'limning eng maqbul tizimini yaratilishida katta imkoniyatlarga ega.

B.A.Mukushev "ta'lim tizimida sinergetika mavzusida mulohaza yuritib shunday ta'kidlaydi: zamonaviy oliy va o'rta ta'limning omon qolishi va yana-da rivojlanishi o'qituvchining psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan kasbiy malakasining o'sishiga bog'liq. Sinergetika nuqtai nazaridan pedagogik tizimdagi faol tamoyil "o'qituvchi – talaba" tamoyilidir. Maxsus quyi tizimlar pedagogik tizim iyerarxiyasini tashkil qiladi. Ushbu quyi tizimlarga yuqoridagi barcha shartlar – ochiqlik, erkin ma'lumot almashish, dialogizm, o'zini namoyon qilish erkinligi, jamoaning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati va boshqalar xos bo'lishi kerak" [1;111].

Sinergetik ta'limda rivojlanishning asosiy sharti sifatida ochiqlik kategoryasini aytish mumkin. Ya'ni, innovatsiyalarga, islohotlarga, yangiliklarga ochiq bo'lishi ma'nosida aytiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida sinergetik ta'lim tizimini shakllantirish orqali asosiy e'tibor ta'lim markazida turgan talaba va o'quvchi shaxsini har tomonlama kreativ rivojlantirishga qaratiladi. Noan'anaviy o'qitish usullari orqali talabaning erkin fikrlashi, kreativ qobiliyati, jamoadagi o'z

o‘rnini topishi, o‘z-o‘zini baholashi, nazorat qilishi, o‘z ustida doimiy ishlashi shakllantirib boriladi. Ta’lim shunday bir murakkab sinergetik tizimki, unda yagona bir qat’iy usul yoki texnologiyani joriy etib bo‘lmaydi. Sababi, ta’lim turli xil insonlarning, turli xil yosh ko‘rsatkichi asosidagi, turlicha psixologik qabul qilish darajasi bilan rivojlanib boradigan jarayondir. Unda har bir ta’lim bosqichida, har bir fan doirasida, hatto har bir ta’lim oluvchining individual holatidan kelib chiqqan holda yondashilishi lozimki, natijada samaradorlikka erishiladi. Ta’lim jarayonida har bir shaxsning individual sifat va xususiyatlari, o‘ziga xos qobiliyat va darajalari inobatga olinsa, samaradorlikka erishish mumkin, deb hisoblaymiz. Bugungi kunda respublikamizda tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktablar, Prezident maktablari aynan kam sonli (12 kishilik) kichik guruhlardan iboratligi, har bir ta’lim oluvchi bilan ishlash imkoniyatini berishi tabiiydir. Bu kabi islohotlar aynan sinergetik ta’lim tizimiga misol bo‘la oladi.

Ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra dinamik tizim sifatida ko‘plab qarama-qarshi fikrlar, qarashlar, g‘oyalar ta’sirida taraqqiy etadi. A.Pugacheva ta’kidlab o‘tganidek, “bir tomondan, ta’limda ko‘p asrlik an’analar ruhiga singib ketgan vorisiylik mexanizmi bo‘lsa, boshqa tomondan, u atrofdagi dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ritmiga amal qilishi kerak. Bir tomondan, qat’iy tizimli (deterministik) tizim mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ta’lim islohotlarini amalga oshirishga qaratilgan ko‘plab urinishlar mavjud” [2; 41]. Shuning uchun zamonaviy ta’limda islohotlar amalga oshirilayotganda an’anaviylikni ham inobatga olish lozim. Butunlay yangilanish yetarlicha samara bermasligi mumkin. Chunki ta’lim sistemasida har bir kirib kelgan innovatsiyaning qabul qilinishi murakkab kechadigan va ma’lum vaqt talab etadigan jarayondir. Ta’limdagi zamonaviy islohotlar an’anaviylik bilan uyg‘unlashtirilgan holda joriy etilsa, samarali natijaga erishish mumkin. Misol uchun, ta’limda ma’lum bir dars jarayonida ham shunday bir fan mavzulari borki, ularni tushuntirishda noan’anaviy ta’lim texnologiyalaridan ko‘ra an’anaviy usullar ko‘proq samara berishi mumkin. Ayniqsa, nazariy fanlarda, ma’ruza mashg‘ulotlarini ta’lim oluvchilar chuqur anglab yetishi uchun ma’ruza o‘qituvchilari ko‘p hollarda an’anaviylikni ma’qul ko‘rishadi. Dunyoda rivojlangan mamlakatlar ta’lim sistemasida ham tan olingan metodikalardan biri “Blended learning” (“Aralash o‘qitish” metodikasi) [4] ta’limda zamonaviylik va an’anaviylikning uyg‘unlashuvi va uning samaradorligini targ‘ib etadi.

Bizningcha o‘quv jarayoniga sinergetik ta’lim tizimini joriy etilishi quyidagi natija va samaradorlikka olib keladi:

– Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchida sinergetik tafakkur tarzini shakllanishiga, ya’ni chiziqli fikrlashdan nochiziqli tafakkur tarziga olib keladi;

– O‘quv jarayonidagi muammolarni ko‘p variantli yechimlarini izlab topishga undaydi;

– Atrof-muhitga, olamga nisbatan yangicha sinergetik qarashni shakllantiradi;

– Har bir ta'lim oluvchiga nisbatan alohida intellekt sohibi sifatida qarashga olib keladi;

– Ta'limning mazmunini doimiy ravishda innovatsiyalar bilan boyitib boradi;

– Har qanday ta'lim islohotlari amalga oshirilishini tabiiy qabul qilishni shakllantiradi;

– Ta'lim jarayoni subyektlarini o'z ustida doimiy ishlashga undaydi hamda o'z-o'zini tashkillashtirishida muhim o'rin tutadi;

– Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, usullari va innovatsion vositalarini tezkor, mantiqan qulay yondashuv asosida qabul qilinishiga yordam bera oladigan nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Tadqiqot ishi yuzasidan shunday xulosaga kelindi:

***Birinchidan,*** ta'lim bu sinergetik tizimdir. Ta'lim tizimi ochiq, muvozanatsiz, ichki va tashqi tebranishlarga ega, nochiziqli, xaotik, o'z-o'zini tashkillashtiradigan, dissipativ sistema sifatida sinergetik metodologiyaning o'rganish obyekti bo'la oladi.

***Ikkinchidan,*** ta'lim sistemasida sinergetik qonuniyatlar (ochiqlik, nochiziqlik, muvozanatsizlik, tartib va tartibsizlik, o'z-o'zini tashkillashtirish) amal qiladi. Bugungi zamonaviy ta'lim sinergetik tizim sifatida tadqiq etilishi, sinergetik metodlar orqali tahlil etilishi ta'limdagi ko'plab muammolar yechimida muhim ahamiyat kasb etadi.

***Uchinchidan,*** bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonini sinergetik qonuniyatlar asosida shakllantirish davr talabi bo'lib, bu ta'lim tizimidagi yangi bosqichga o'tishda asos bo'la oladi. Sinergetik ta'lim tizimini joriy etilishi ta'limdagi ko'plab muammolarni bir necha yechimlarini taklif etishda samarali hisoblanadi.

***To'rtinchidan,*** sinergetik ta'lim tizimini shakllanishi o'quv jarayonini sifatini nazorat qilishda va samaradorligini oshirishda yangicha usullar yordamida yondashuvga xizmat qiladi. Sinergetik ta'lim tizimi yangicha dunyoqarashni shakllanishiga, mantiqiy, tanqidiy, sinergetik tafakkur tarzini qaror topishiga olib keladi.

***Beshinchidan,*** sinergetik ta'lim tizimi orqali o'z-o'zini tashkillashtira oladigan, o'z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, o'z mehnatiga munosib baho bera oladigan, o'ziga nisbatan talabchan zamonaviy kadrlar shakllantiriladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

*1. Мукушев Б.А. Синергетика в системе образования //Образование и наука. – 2008. – № 3. – С.107.*

*2. Пугачева А. Синергетический подход к системе высшего образования // Высшее образование в России. – 1998. – № 2. – С. 41.*

*3. Ergasheva M. K. Synergistic analysis of education // Наука, образование, теория, практика: новые подходы и актуальные исследования. – 2021. – С. 44-46.*

*4. https://en.wikipedia.org/wiki/Blended lerning*

## TA'LIM SOHASIDAGI BOSHQARUV FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI: MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI

**M.F.HAKIMOVA,**
*p.f.d. professor*
*TDIU "Innovatsion ta'lim" kafedrasi mudiri.*
**O.Sh. TO'QUMBETOV**, **M.U.NE'MATOVA**
*Raqamli iqtisodiyot fakulteti talabalari*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi boshqaruv faoliyatiga oid asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun-xususiyatlari yoritib berilgan. Vazirlar mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarorining mazmun-mohiyati, qarorning ijrosi va natijalariga to'xtalib o'tilgan. Oliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich kredit-modul tizimini joriy etish, kredit modul tizimining asosiy tushuncha va ko'rsatkichlari sharxlangan. Respublikamiz oliy ta'limining rivojlanishi va xalqaro standartlarga javob berishi uchun kredit-modul tizimi qanchalar muhim va kerakli ekanligi imkon qadar tusshuntirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim, oliy ta'lim, Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida nizom, kredit-modul, Vazirlar mahkamasi 824-sonli qaror.*

**Kirish.** Bugungi kunda respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilish maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda va bu yo'lda prezidentimizning qabul qilayotgan qarorlari va aytgan har bir so'zlari katta ahamiyatga egadir. Yoshlar qachon qanday muhitda bo'lishi ularning kelajagi uchun muhim ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deganlar: "Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo'lib, jamoa bo'lib shakllanadi. Ayni o'sha paytda ularni o'zlari o'rgangan muhitdan ajratib qo'ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonining usluksizligini ta'minlash, o'quv dasturlarini takomillashtirish zarur". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son hamda "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 2020-yil 31-dekabrda Vazirlar Mahkamasi o‘zining 824-son qarorini qabul qiladi.

**Metodologiyasi.**

Vazirlar mahkamasining 824-son qarorida bajarilishi zarur bo‘lgan quyidagilar keltirib o‘tilgan:

1. 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab respublika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi joriy etilsin.

2. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:

tizimida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etilgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejasi va fan dasturlari takomillashtirilishini ta’minlasin;

4. Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni yuqori malakaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar bilan ta’minlash maqsadida birlamchi xarajatlarni amalga oshirgandan so‘ng bo‘shab qolayotgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushgan budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Respublika oliy ta’lim kengashining quyidagi tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) oliy ta’lim muassasasi kengashi qarori asosida:

oliy ta’lim muassasasida 3 yil ishlab berishni nazarda tutuvchi shartnomani rasmiylashtirgan holda professor-o‘qituvchilarning nufuzli xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy muassasalarda stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi;

b) oliy ta’lim muassasasi huzurida faoliyat yuritayotgan davlat ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qurilish, joriy va kapital ta’mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlari uchun zarur mablag‘lar ajratish.

5. Belgilab qo‘yilsinki, oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini yanada kengaytirish maqsadida 2021-yil 1-yanvardan boshlab:

oliy ta’lim muassasalari huzuridagi texnikumlarda o‘quv mashg‘ulotlarini olib borayotgan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining mehnatiga soatbay haq to‘lash oliy ta’lim muassasalari talabalariga dars o‘tganligi uchun mehnatga soatbay haq to‘lash miqdorlarida amalga oshiriladi;

6. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida” 2019-yil 3-dekabrdagi 967-son qaroriga 2-ilovaga muvofiq qo‘shimchalar kiritilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.A. Musayev hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qaroriga ilova sifatida “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida” nizom ishlab chiqilgan bo‘lib, unda quyidagilar yoritilgan:

GPA (Grade Point Average) – ta’lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

GPA =K1*U1+K2*U2+K3*U3…+Kn*Un

bunda: K1+K2+K3…+Kn

K – har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan/modul bo‘yicha talaba to‘plagan baho;

**Natija.** O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli “Oliy ta’im muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora yadbirlari”gi qarorining ijrosi sifatida bugungi kunda respublikamizdagi deyarli barcha oliy ta’lim muassasalari bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazildi. Barcha professor o‘qituvchilar, talabalar hamda oliy ta’lim tizimiga aloqador bo‘lgan har qanday shaxslar xalqaro standartlarga mos keluvchi kredit-modul tizimi va uning qanday ishlashi bo‘yicha tushunchaga ega bo‘ldi. Kredit-modul tizimida ko‘p qo‘llaniladigan va tizimning eng muhim ko‘rsatkichi bu GPA ya’ni grade point average. Bu talabaning har bir fandan olgan ballari va kreditlar sonining ko‘paytmalari yig‘indisiga teng. GPA orqali talabaning umumiy fanlardan o‘rtacha qanday ball yiqqanini aniqlash mumkin. Bundan tashqari bugungi kunda oliy ta’lim tizimida transkript, ta’lim dasturi, ta’lim natijalari, o‘quv yuklamasi kabi bir qancha terminlar ham tez-tez uchrab turuvchi so‘zlarga aylanib ulgurdi. Ta’lim sohasidagi boshqaruv faoliyatining eng asosiy me’yoriy huquqiy hujjati bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni” hisoblanadi. Shunga ko‘ra, bir qancha ta’lim tizimini boshqaruvchi muhim davlat vakolatli tashkilotlari mavjud. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi va boshqa mahalliy davlat organlari.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga to‘liq javob bera oladigan tarzda tashkil etilishi kredit-modul tizimi orqali to‘liq yo‘lga qo‘yilgan. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomda oliy ta’limdagi umumiy qoidalar, tizimda foydalaniladigan asosiy tushunchalar, ta’lim dasturi tuzilmasi, o‘quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta’lim sifatini ta’minlash, akademik mobillik va kreditlarni tan olish, baholash, baholarni konvertatsiya qilish, kredit-modul tizimida ro‘yxatga olish xizmatini tashkil etish, talabalarni o‘qishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan kursga o‘tkazish mexanizmlari kabi eng muhim jihatlar yoritilgan. Vazirlar mahkamasining qarori oliy ta’lim tizimiga kredit-modul tizimini joriy etishda duch kelish mumkin bo‘lgan barcha muammolarga yechimni o‘zida aks ettirgan.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. “Ta’lim iqtisodiyoti” M.F.Hakimova, F.S.To‘rabekov Toshkent-2021.*

*2. “Ta’lim menejmenti” R.X.Jo‘rayev, S.T.Turg‘unov Toshkent “Voris-nashriyot” 2006.*

*3. Konstitutsiyaviy huquq/O.T.Husanov/ Toshkent 2013.*

*4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-son.*

## TALABALARNING MA’NAVIY-MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

**Inomjon ASATULLOYEV,**
*Farg‘ona davlat universiteti*
*Falsafa kafedrasi dotsenti(PhD)*

***Annotasiya:*** *mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari faolligini oshirishda, tanlagan kasbiga nisbatan mas’uliyat hissini uyg‘otishga, jamiyadagi turli islohotlarni rivojlantirish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

***Kalit so‘z va iboralar:*** *ijtimoiy-iqtisodiy, mustaqil ta’lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta’lim, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, innovasion va raqamli, ta’lim standartlari, Ta’lim va tarbiya, ilmiy-metodik.*

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutil-



ZJV5401

gan aholi, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi bilan bog‘lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta’minlash;

– ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

– tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash;

– yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

– homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

– aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

– ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga karshi sog‘lom dunyokarashni shakllantirish;

– uzluksiz ma’naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yish.

Shu bois respublikamizda uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi asosida yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazi-

latlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

1. Ushbu aytib o‘tilganlardan ko‘rinib turganidek, uzluksiz ma’naviy tarbiya ma’naviy qadriyatlarni qadrlash, ulug‘lash va rivojlantirish har bir o‘z xalqiga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo‘ladigan ma’naviy barkamol insonning muqaddas burchidir. Ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning pirovard maqsadi imon e’tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirishdir. Ya’ni, mustaqil dunyo qarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat. Dunyo xalqlari ming yillar mobaynida o‘z an’ana va urf-odatlari, marosim va bayramlariga sodiq qolish, uni har qanday ta’sir va tazyiqlardan himoyalash orqali turli davrlar, ajdodlar o‘rtasidagi ma’naviy yakdillikni ta’minlaganlar hamda milliy o‘zlikni, mentalitetni saqlab kelganlar. Bu munosabat uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining millat taqdiridagi hal qiluvchi ahamiyati bilan uzviy bog‘liq. Shu o‘rinda ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida ma’naviyat va ma’naviy tarbiya tushunchalarini izohlab o‘tsak.

“Ma’naviyat”ning o‘zagini “ma’no”, “ma’ni” so‘zlari tashkil etishi haqida adabiyotlarda to‘xtab o‘tilgan. Olimlarning fikricha, “ma’naviyat” atamasi, bir tomondan, arabcha “ma’ni” o‘zagidan hosil bo‘lgan. Ilk islom islohotchilari ta’limoticha, Kalom bir talay qismlarga bo‘lingan: borliqdan avvalgi hayot – qummun, atomlar haqidagisi javhar al-fard, sababiy bog‘lanish to‘g‘risidagi ta’limot – tavallud, mohiyat to‘g‘risidagi ilm – ma’na hisoblangan. Shunday qilib, narsa-hodisalar, jarayon, tabiat va jamiyat, hatto Ollohning mohiyati “ma’na”da o‘z ifodasini topgan. Ikkinchi tomondan, ma’naviyat ham, uning o‘zagi “ma’na” ham qadimgi hind falsafasida keng qo‘llanilgan “manas” tushunchasi bilan bog‘langan bo‘lishi mumkin. Bunday taqdirda u do‘stlar va ulfatlar joyi ma’nosini bildiradi. Tilshunoslikka oid lug‘atlarda ham “ma’naviyat” – axloqiylik, kishining ichki va ruhiy olami, bilan bog‘liq ma’nolarni anglatishi aytiladi.[1]

Demak, ma’naviyat ko‘p qirrali qadriyatdir. “Yer, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, xalq, vijdon, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, erkinlik – ma’naviyatning ana shunday ma’nosi keng... Inson o‘zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o‘ylab, mehnat qilib yashagandagina ma’naviyat bilan tutashadi”.

Prezidentimiz ma’naviyat deganda insonni inson, millatni millat qilib turgan axloqiy fazilatlarning majmuasini nazarda tutadi.

2. Hozirgi mustaqillikni mustahkamlash sharoitida yoshlarga ma’naviy tarbiya berish, ularni ijtimoiy jihatdan faol, milliy istiqlol g‘oyalariga sodiq ruhda tarbiyalash borasida pedagog olimlarimiz bilan bir qatorda faylasuf, tarixshunos olimlar ham samarali tadqiqotlar olib bormoqdalar E.Yusupov, A.Yerkayev, Q.Nazarov, B.Ziyomuhamedov, T.Mahmudov, M.Imomnazarov, X.Boboyev, A.Jalolov, M.Nurmatov va boshqalar shular jumlasidandir.

3. Faylasuf olim E.Yusupov ma’naviyatning asosini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarini axloq-odob, bilim, ilm, amaliy malakalar, iste’dod, qobiliyat, iymon, e’tiqod, vijdon, insof, ixlos, dunyoqarash va mafkuraviy omillardan iborat ekanligini ajratib ko‘rsatadi va ma’naviyat tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: “Ma’naviyat inson axloqi va odobi, bilimlari, istedodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir”.

4. A.Yerkayev esa ma’naviyat tushunchasining atama sifatida shakllanishida ilohiyot fani – Qur’oni karim talqiniga bag‘ishlangan ilm, keyinchalik tasavvuf ta’limoti kuchli ta’sir ko‘rsatganini, “Ma’naviyat” so‘zi rus tilidagi “duxviost” so‘zining muqobili ekanligi, har ikki so‘zning ma’nosi bir xil bo‘lib, ikkisi ham Xudoga borib bog‘lanishini ta’kidlab, ma’naviyatga quyidagi ta’rifni beradi: “Ma’naviyat ijtimoiy ongning nisbatan umumiy (umummilliy) ahamiyat kasb etgan, e’tiqod va qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan sobit ehtiroslari, tushunchalari, me’yorlari, ijtimoiy mo‘ljallari, amallaridir; ularning badiiy, ilmiy, falsafiy, diniy merosda, urf-odatlarda obyektivlashgan tizimi hamda millatni muayyan maqsadlarga erishish uchun yo‘naltiradigan milliy iroda, milliy g‘urur va or-nomusdir. U jamiyatda qaror topgan va insonning asl mavjudligini ta’minlaydigan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitidir”.

5. A.Ibrohimov X.Sultonov va N.Jo‘rayevlar tamonidan yaratilgan “Vatan tuyg‘usi” nomli asarida shaxs ma’naviyati, uning shakllanishida muhim o‘rin tutgan omillar, milliy xususiyatlarni insonning ma’naviy jihatdan kamol topishidagi ahamiyati borasida so‘z yuritar ekan, “Ma’naviyat” tushunchasini quyidagicha sharhlaydilar: “Ma’naviyat” – jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma’naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma’lum yo‘naishining bosh omilidir.[2]

6. Y.Umarov “Ma’naviyatning tarkibiy qismlarini axloqiy-ruhiy fazilatlar, fikrlar va xatti-harakatlarning g‘oyaviy-hissiy ulug‘vorligi, go‘zallik tushunchasi va go‘zallik tuyg‘usi, bolalar, keksalar, bemorlar. Muhtojlarga rahm-shafqat, hamdardlik ko‘rsatish, ularga ijtimoiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish;

aql, bilim, fan, ijod, haqiqatga intilish; ekologik dunyoqarash, tabiatga oqilona munosabatda bo‘lish mas’uliyati kabilar”, – deb ta’riflaydilar.[3:49]

7. Ma’naviy tarbiya esa millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma’naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi

8. Ma’naviy tarbiya bugungi kun yoshlarining tarbiyasida nechog‘lik zarurligi, ularning O‘zbekistonning porloq kelajagiga dadil ishonch bilan yuksalib borayotganligini, xalqimizda yuksak insonparvarlik qadriyatlari tiklanayotganligi va takomillashayotganligini ifadolovchi o‘ziga xos dunyoqarashida ko‘rishimiz mumkin.

9. Ma’naviy tarbiya va unga qo‘yiladigan talablar bu jamiyatda ma’lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o‘quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta’sir etishdir.

10. Bo‘lajak o‘qituvchi, avvalo ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni, vazifalarini aniq tasavvur etishi va bu tarbiyani amalga oshirishda kompetentli bo‘lmog‘i lozim.

11. Buning uchun bo‘lg‘usi pedagog shaxsning ma’naviy kamolotini belgilovchi fazilatlani bilishi va o‘zi ham shu fazilatlarga ega bo‘lmog‘i lozim.

12. Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassislarning hozirgi zamon talablari asosida puxta kasbiy tayyorgarlikka ega, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lib yetishishlariga asosiy e’tiborni qaratmoq zamonning muhim vazifasidir. Pedagoglar, tarbiyachilar qanchalik ma’lumotli, mahorat egasi bo‘lsa, u kelajak avlodni ham shunchalik bilimdon, har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalay oladi. Bo‘lg‘usi pedagoglar ta’lim muassasada qanday moddiy-texnika bazasiga egaligani, unda qancha bola tarbiyalanishni, pedagogik jamoa qandayligini, u o‘ziga xos qanday tarbiyaviy vazifalarni hal qilayotganini bilish zarurdir. Talabaga hisobotlar, jurnallar, bolaning shaxsiy varaqasi singari hujjatlar katta yordam ko‘rsatishi mumkin. Bo‘lg‘usi pedagoglar o‘z o‘quvchilari haqida iloji boricha ko‘proq axborot to‘plashga harakat qiladi, pedagoglarning ishlarini ularning yordamida kuzatadi, shuningdek, pedagogika institutlari metodistlari yordamida g‘oyaviy siyosiy, axloqiy aqliy, mehnat estetik va jismoniy tarbiya vazifalarini hisobga olgan holda kompleks yondashish pozitsiyasidan turib o‘z faoliyatini rejalashtiradi.

13. Yangi sharoitlarda talabaning o‘zini qanday xis qilishi, uning bo‘lg‘usi.

14. Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda shuni aytishimiz mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash – bu bizning eng muhim va hayotiy vazifamizdir, chunki yoshlar bizning farzandlarimiz, Vatan istiqboli, millat taqdiri ularning kelajagida namoyon bo‘ladi.

15. Hozirgi zamonning madaniyatli jamiyatida pedagoglar alohida diqqatga sazovor bo‘lgan kishilar hisoblanadilar. Agarda ta’lim-tarbiya sohasida pedagog o‘rniga tayyorgarligi sust odam bo‘lsa, birinchi navbatda bolalar jabr chekadi. Chunki bunda tiklab bo‘lmaydigan ma’naviy-ma’rifiy yo‘qotishlar yuzaga keladi. Shundan kelib chiqqan holda jamiyatda shunday sharoitlar yaratilishi kerakki, unda bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar orasida mukammal tayyorgarlikka ega pedagog tarbiyachilar ko‘proq bo‘lishiga erishilsin.

Tarbiyachi avvallambor pedagogdir. Pedagog deganda, odatda, ma’lum bir kasb va shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy vazifa egasi tushuniladi. Bunda, real hayot sharoitida faoliyat chegarasini belgilash ancha mushkuldir. Ushbu kasb ichki murakkab tuzilishga ega bo‘lib, turli ta’sir vositalari ideal xususiyatli jihatlarni o‘zida mujassamlashtirgandir. Oddiy kishilar nazarida bu qandaydir bir tarqoq obraz sifatida, masalan “sevimli o‘qituvchi” kabi g‘alati tuyuladi. Shu bilan birga “kasb obrazi” sifatida mujassamlashgan holda ham uchrashi mumkin. Bu ilmiy, adabiy va folklor asosida shakllangan bo‘ladi. Shu sababli bunda “kasb” atmasini aniq belgilash kerak bo‘ladi.

Kasb – inson mehnat faoliyatining ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar.

Kasb tushunchasining to‘rtta ta’rifini ajratib ko‘rsatimsh mumkin bo‘ladi:

1. Inson kuch-quvvatini sarflaydigan soha va mehnat subyekti sifatida kishi o‘z vazifasini bajaradigan soha.

2. Muayyan mehnat vazifalarini bajaradigan kishilar jamoasi.

3. Maxsus tayyorlanganlik (bilim, ko‘nikma, malaka, kavalifikasiya) darajasi bo‘lib, uning yordamida inson muayyan turdagi mehnat vazifasini imkoniyatiga ega bo‘ladi.

4. Faoliyat, kasb egasining professional darajada o‘z vazifasini

Kasb bu bajarilishi zarur bo‘lgan va bevosita hayot bilan bog‘lik bo‘lgan faoliyat turidir. U o‘zining maqsadi, meyorlari, vositalari, mahsuliga ega bo‘lib, o‘sha jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati va texnologiyasi bilan bog‘liq ravishda amalda bo‘ladi hamda unga xizmat qiladi. Kasbni ixtisoslik hujjatlarida belgilangan faoliyat predmeti bilan bog‘liq bo‘lgan mutaxassislik tushunchasi bilan chalkashtirmaslik kerak. Chunki mutaxassislik tor yoki keng bo‘lishi mumkin. Nima bo‘lganda ham u qandaydir bilimlar doirasi bilan bog‘lik holda bir butun bo‘ladi. Masalan, pedagoglik kasb bo‘lib, unda filolog shu kasb ichidagi mutaxassislik sifatida bir bo‘lak hisoblanadi. Bir kasb ichida bir nechta mutaxassisliklar bo‘lishi mumkin. “Kasb” atamasi bilan bir qatorda ko‘pgina bahslarga sabab bo‘ladigan “kasbiy mahorat” tushunchasi ham uchraydi. Ushbu tushunchani shaxsni shakllantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan holda izohlash mumkin bo‘ladi.

Kasbiy mahorat bu – insonda yangi sharoitlarda ma'lum bir sohaga oid murakkab vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashdagi uzoq faoliyat davomida kechadigan shaxsiy psixologik taraqqiyot o'zgarishlarining mahsulidir.

Kasbiy mahorat shakllanishi uchta yo'nalishda boradi:

1) butun faoliyat tizimi, vazifalari va pog'onali tuzilishdagi o'zgarishlar yo'nalishi. Zarur mehnat ko'nikmalariga ega bo'lish jarayonida kasbiy malakalarning pog'onama-pog'ona o'sishi, ixtisoslik faoliyati usullari rivojlanishi ro'y beradiki, unda shaxs shu sohaga oid faqat o'ziga xos bo'lgan "o'z uslubini" yaratadi;

2) shu soha egasining shaxsi o'zgaradi, ya'ni tashqi ko'rinishda (nutq ohangi, muomala, hissiyotlar o'zgarishlari), ichida (diqat, xotira, tafakkur o'zgarishlari) kasbiy dunyoqarash o'zgarishlari ro'y beradiki, unda kasbiy mahorat munosabati shakllanadi;

3) o'z mehnat faoliyatiga nisbatan munosabat o'zgaradi va turli sohalarda namoyon bo'ladi:

– kognitiv sohada – obyekt bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish va uning ahamiyatini anglash darajasi;

– hissiy sohada – tarbiya obyektiga nisbatan qiziqish, qiyinchiliklarga qaramasdan u bilan o'zaro hamkorlikka intilish va undan qoniqish;

– amaliy sohada – tarbiya obyektiga ta'sir etishda o'zining real imkoniyatlarini anglash natijasida tarbiyalanuvchiga ta'sir etish uning bilan hamkorlikka aylanadiki, bu kasbiy madaniyatning shakllanganligidan dalolat beradi.

Kasbiy mahoratning buzilish oddiy yuzaki bilimlardan tortib to juda qattiq qaysarlikkacha bo'lgan ko'pqirrali turli vaziyatlarda keng namoyon bo'ladi. Agar inson yangiliklar va ular bilan bog'lik o'zgarishlarni qabul qilmasa undaga ko'nikmalar rivojlanishdan to'xtab buzilishi boshlanadi. Bu inson kasbiy taraqqiyotida uni ogohlantirishda muhim o'rin egallagan bo'lib, barcha kasb sohalariga xosdir. Shu bilan birga kasb egalariga bog'liq bo'lgan boshqa omillar ham mavjuddir.

Har bir omil kasb ustasida turlicha ifodalangan bo'lishi mumkin. Mehnat faoliyati davomida shaxsning o'ziga xos jihatlari uyg'unlashuvi uning soha yo'nalishini belgilaydi. Masalan, "pedagog tarbiyachi" yoki "pedagog uslubshunos" va h.k.zo.

O'qituvchi shaxsining kasb sohasidagi xususiyatlari bu – o'z kasbiga muhabbatli bo'lish, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish, kasbiy layoqatlik va boshqalar. Samarali pedagogik ta'sir ko'rsatishni to'g'ri tashkil etish bolalar bilan muomala qilishda, samimiy munosabatda bo'lishga yordam beradi. Amaliy pedagogik faoliyatda ilmiy g'oyalar va pedagogik tarbiyani qo'llash, o'qituvchi

mehnatiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Lekin bu mehnat natijalari darhol ko‘rinmaydi. Uning mahsulini ko‘rish uchun yillab mehnat qilish kerak. O‘qituvchi faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu faoliyat o‘zining sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham turlicha bo‘ladi. Haqiqiy fidoiy o‘qituvchilar o‘z faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishadilar. Tajribali novator o‘qituvchilar bolalarga samarali ta’lim tarbiya berish bilan bir qatorda pedagogika fanidan yangi yo‘l ham ochmokdalar. Kasbiy mehnatni amalga oshirish jarayonida quyidagi xususiyatlarni o‘z faoliyatida amalga oshirishlari zarur.

O‘qituvchining ijodkorligi o‘quvchining ijodkorligini uyg‘otadi. Ular o‘z o‘quvchilarini vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga ularning qalbida olijanob fazilatlarni qaror toptiradilar. Shunday ekan, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. Hayot kashfiyotlar olami. Tajriba, uslub, fikrlar rang-barang. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali o‘quvchilar qalbiga ko‘chadi. Ularning tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar muallimning fahri, kelajagidir. Shu bois ularning niyati o‘quvchilarni mustaqil yurt quruvchilari, muhandislari, ilmu ma’rifat fidoiylari safida ko‘rishdir. O‘qituvchining eng birinchi maqsadi, o‘quvchisini tezroq savodli qilishdan iboratdir. Lekin uni amalga oshirish juda ham mashaqqatdir. Bir o‘qituvchinig o‘z faoliyat tizimini ishlab chiqishi va unga qat’iy amal qilishi, uning ta’lim sohasidagi muvaffaqiyatlarinig muhim omillaridan biridir. O‘qituvchi bir xil metodlarda dars o‘tish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Aksincha, u o‘qitish metodlarini takomillashtirish ustida tinimsiz ishlashi zarur. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muomalasi tarbiya natijalariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bolaga muhabbat hech qachon javobsiz qolmaydi.

Odob alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir. Odob alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo‘lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmuidir. Inson-tabiatning eng buyuk ne’mati. Unga aql-idrok, ong, farosat kabi buyuk fazilatlar ato etilganki, inson bu fazilatlarga sayqal berib, rivojlantirib, olamni, insoniyatni kamolotga yetaklab boradi.

Aqliy kamolotga erishish irodaviy xatti-harakatlar, uzluksiz faollik, fidoiylik, bilimga chanqoqlik kabilarning bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshadigan jarayondir.

Mustaqil fikrlash bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi. Anglash biror-bir g‘oyani tub mazmuniga tushunib yetish. Mushohada – shu g‘oyani mantiqan talqin qilish.

Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotda qo‘llash.

Yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlar asosida talaba yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirish muhimdir. Chunki, talaba ana shu ma’naviy muhitda o‘z faoliyatini amalga oshiradi, o‘zligini anglaydi. Ma’naviy bilimi bilan muloqatga kirishadi. Shuning uchun talaba yoshlarniig xulq

madaniyatini shakllantirish samaradorligini ta’minlash ma’naviy muhitga bog‘liqdir.

Talaba yoshlarning hulq madaniyati, ma’naviy harakatlarining samarasi o‘qituvchi (rahbar) va talabaning o‘z faoliyatlariga bo‘lgan munosabatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi yoki rahbar ma’naviy merosning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘rganishi, amaliy faoliyatda ularga tayanishi shaxsning xulq madaniyatini shakllantirishda beqiyosdir. Bunday yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan o‘qituvchi-talabalardan ijodkorlikni talab qiladi. Ijodkor o‘qituvchi (rahbar) talaba yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirishda ma’naviy qadriyatlarning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Talaba yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirish muvaffaqiyati o‘qituvchi va talabaning ijodkorligiga bog‘liq. Bu omilni xarakterlovchi shartlar mavjud bo‘lib, ular: o‘qituvchining umumpedagogika va maxsus ixtisoslik bo‘yicha chuqur bilim, kasb mahorati, talabalar bilan do‘stona muloqot madaniyati, ma’naviyat-madaniyat darajasi, ta’lim-tarbiyaning samarali shakl va usullari tanlay bilishi, natijasini oldindan aniq, tasavvur va pedagog kashfiyotlarga asoslanib yo‘llay olishi, qiziqish doirasi kengligi, oliy o‘quv yurti jamoasidagi muhitni ma’naviy merosni o‘rganish kabilardan iborat. O‘qituvchida mana shu omillarga e’tibor kuchli bo‘lsa, unda ijodkorlik oshadi. Bu omillar unga talaba yoshlarning hulq madaniyatini shakllantirishda juda asqotadi. O‘qituvchi ijodkorligi natijasida talaba yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san’ati, an’analari, va urf-odatlari haqida chuqur bilim oladi. Talabalarning ma’naviy merosga bo‘lgan qiziqishi oshadi. Dars jarayonida samimiy, sog‘lom ma’naviy muhit yaratiladi, Ma’naviy meros manbaalaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning hulq madaniyati kamol topadi. Talaba yoshlarning xulq madaniyatni shakllantirish, birinchidan, dars jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishiga, ikkinchidan ta’lim mazmuniga va o‘qituvchi-talaba hamkorlik faoliyatiga bog‘liq. Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas’uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunda: har bir darsdan o‘qituvchi maqsadni aniq ko‘ra bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to‘g‘ri belgilab olishi lozim; dars jarayonidagi bilimlar mazmunining ilmiyligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, qiziqarliligi talabalarda ta’lim va tarbiyaviy tomondan o‘rganiladigan bilimga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ularning bilimini kengaytirish yuksak xulqli bo‘lish kabi ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Albatta, bunda dars shakllarini tanlashda mavzuning mohiyatiga alohida e’tibor beriladi. Masalan, kasb-hunar kollejlarida adabiyot darsi an’anaviy dars yoki munozara tarzida uyushtirilsa, metodika darsi seminar, yoki munozara tarzida, chet tili darslari o‘yin yoki savol javoblar, suhbat darslari tarzida uyushtirilishi mumkin. Barcha shakldagi dars jarayonlarida talabalar xulq madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirish uchun savol-javob qilish, munozarali vaziyat paydo qilish, mustaqil ishlash, turli o‘yin-

lardan foydalanish kabi usullardan foydalanish muhimdir. Talabalarning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda ularga o'tmish, adabiyot, tarix, milliy urf-odatlar, an'analar haqida bilim berish o'qituvchidan doimo faollik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Talabaning ma'naviy ehtiyojini qondirish, qiziqishini o'stirish mustaqil ishlar, har xil ijodiy ishlar (insho, referat va boshqa) orqali amalga oshiriladi. Mustaqil ishlar o'qituvchi va talaba faoliyatining uzviy bog'langan tamonlaridir. Mustaqil va ijodiy ishlarda talaba o'z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi, o'z nuqtayi nazari, qarashlarini shakllantirish bilan birga dunyoqarashi va ma'naviy saviyasini namoyon etadi. Mustaqil ishlash ko'proq darslik ustida ishlash, manbalarning mazmunini tahlil etish, ma'ruza, referat, konspekt tayyorlash, ijodiy insho yozish (chet tilida ham) kartochkalarga yozma javob berish, turli jadvallar, diagrammalar sxemalar tuzishni taqozo etadi. Bularning bari izlanuvchanlikni talab qiladi. Mustaqil ishlar, seminarlarni tashkil etishda 4 xil manbalarga asoslanadi.

1. Darslik materiallariga.

2. Ma'naviy meros, hisoblangan xalq og'zaki ijodi diniy manbalar, mumtoz adabiyot va boshqalar.

3. Ommaviy axborot vositalari materiallariga (jurnal, gazetalar, radio, eshittirishlar, oynai jahon ko'rsatuvlari);

4. Hayotiy misollarga (oilaviy-maishiy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusmlar, ma'naviy qadriyatlar va h.k) .

Og'zaki mustaqil ish turlari va o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini talabalar amaliy faoliyatida mustahkamlashtirishga yo'naltirilgan ba'zi bir yozma shakldagi mustaqil ishlar (insho, savollarga yozma javob topish, jadval, diagramma, kartochkalarni to'ldirish) dan aralash dars shaklida keng foydalanish yaxshi natija beradi. Chet-tili, adabiyot darslarida, o'yin holatlaridan foydalanish samarali foyda beradi. Masalan, adabiyot darslarida "Allomalar mehmonimiz", "Temuriy ijodkorlar", "Bugungi davr – allomalar ko'zi bilan" kabi munozaralar, bahslarni tashkil etish mumkin. Metodika darslarida esa "Sharq allomalarining tarbiya haqidagi fikrlari va ularning ma'naviy merosi haqida talabalarning o'zaro fikr almashishlarni tashkil etish juda foydali. Dars jarayonida pedagog ma'naviy meros manbalaridan ustalik bilan foydalanishi, ularning ta'lim va tarbiyaviy ta'sirini hisobga olishi, darsni qanday tarzda tashkil etilishidan qat'iy nazar (o'yin darsi, munozara darsi, sinov darsi va h.k.), uni uyushtirishda faol, ijodkor, qat'iy bo'lishi, ma'naviy merosni yaxshi bilishi va uni amaliyotga tadbiq qila olishi zarur. Talabalarning og'zaki mustaqil tayyorgarligi asosida noan'anaviy dars shakllarini uyushtirish ham hulq, madaniyatini shakllantirishning samarali usullaridan hisoblanadi. Bunda turli mavzulardagi baxs-munozara darslarini o'tkazish mumkin. Bunday darslarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talaba keng hajmdagi ma'naviy manbalarga, badiiy asarlar, xalq

og‘zaki ijodi namunalariga, pandnomalar, diniy manbalar, Sharq allomalari hayotiga bag‘ishlangan ilmiy, ommabop, avtobiografik asarlar, matbuot va ommaviy axborot materiallariga murojaat qiladi. Natijada muammoli savollarga javob topadi, ajdodlar ma’naviy merosi bilan tanishishga muyassar bo‘ladi.

Bunday darslar yetarli tayyorgarlik, mahorat va keng ko‘lamli bilim, tajriba, mustaqillikka asoslangan holda tashkil etilsa, talabaning xulq madaniyatini shakllantiruvchi quyidagi ijobiy natijalarni beradi: dars davomida talabaning erkinligi, mustaqilligi, faolligiga erishiladi; talabalar jamoa fikriga tayanishga, uni hurmat qilishga o‘rganadilar, bu bilan ularda o‘zaro hurmat, muloqot madaniyati tarbiyalana boradi; talabalar o‘z fikr – mulohazalarini, qarashlarini himoya qilish, ularni boshqalarga yetkazish mahoratini egallaydilar; talabalarda u yoki bu adibning qarashlarini, xalq pedagogikasi, hayot tajribasi asosida ko‘tarib chiqilgan muammolar mohiyatini davr bilan atrof-muhit talabi imkoniyati asoslarni haqqoniy baholash malakasi shakllanadi; talabalarning o‘zbek xalqining ma’naviy turmush tarzi haqidagi bilim darajasi ortadi, axloqiy-ma’naviy sifatlari shakllanadi; har bir talabada o‘z-o‘ziga talabchanlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish hissi ortadi, o‘z ustida ishlashga, o‘zini anglashga e’tibor kuchayadi. Bunday muvaffaqiyatli natija sinov darslari, yakuniy darslarda namoyon bo‘ladi.

Talaba xulq madaniyatini asosiy mezonlari: insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehr-muhabbat, imon, ijodkorlik, faollik, tashabuskorlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholashni talab etadi. Bu talab talabaning vatan, ota-ona, do‘stlari, jamoa oldidagi burchi vazifalariga, ta’lim-tarbiya jarayonida namoyon bo‘ladigan faollik, ijodkorlik xususiyatlariga munosabati orqali amalga oshiriladi. O‘z bilim, xatti-harakati, atrof-muhitga munosabatini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholashni tashkil etish talabaning yozma ijodiy faoliyati orqali samarali namoyon bo‘ladi. Ta’limning samarali shakllari an’ananiy va noan’anaviy dars turlari vositalari va usullaridan jumladan, ta’lim jarayonida talabalarning turli ijodiy yozma ishlari: insho, referat, konspekt, ma’ruza kabi turlaridan keng foydalanish zarur.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O‘qituvchi, 1992. –B. 58.*

*2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O‘qituvchi, 1992. –B. 35.*

*3. Maxmudov T. Avesto haqida. -T.: Sharq, 2000: -B. 117.*

*4. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. -T.: O‘qituvchi, 2004. –B. 8.*

*5. Maxmudov T. Avesto haqida. -T.: Sharq, 2000: -B. 14*

*6. Musurmonova O. O‘quvchilarni ma’naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1998. – B. 56*

*7.Musurmonova O. O‘quvchilarni ma’naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1998. – B. 26*

*8.Mahkamov U. Axloq odob saboqlari. – T.: Fan, 1998.-B. 15*

*9.Mavlonova R. va b.q. Pedagogika. Darslik. -T.:O‘qituvchi, 2001.-B. 26*

*10.Shodiev N. Tabiiy fanlarning ilk manbayi ("Avesto" yozma yodgorligi asosida ) // -Ziyokor‖ jurnali, 2001, 9-son. –B. 38-41.*

*11.Сластенин В.А. Формирование личности учителя совецкой школы в просессе профессионалной подготовке. -М.: Просвещение, 1976.-159 с.*

*12.Васильев Ю.К. Политехническая подготовка ученика средней школы. – М.: Педагогика, 1978. – 175с.*

*13.Беспалько В.П. Татур Ю.Г. Системно-методическое обеспечение учебновоспитательного процесса подготовки специалистов. – М.: Высшая школа, 1989. – 144с*

*14.Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni.-T.:Universitet, 1996.*

*15.Нишоналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. -Т.: Фан, 1990.-86 с.*

*16.Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. 13.00.08-Hunar ta’limi nazariyasi va uslubiyati. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. -Toshkent, 2007.-315 b.*

## TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA VOYAGA YETMAGANLARDA XULQ OG‘ISHINING OLDINI OLISHNING IJTIMOIY – PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Feruza RAJABOVA,**
Qarshi davlat *universiteti Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

***Kalit so‘zlar:*** *voyaga yetmaganlar, xulq og‘ishi, g‘ayriaxloqiy xatti-harakatlar, individual-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik, individual – psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlar, sog‘lom munosabatlari, sog‘lom turmush, nosog‘lom xulq-atvor.*

***Rezyume:*** *maqolada bugungi kunda butun dunyo miqyosida, shu jumladan, Respublikamizda voyaga yetmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishining oldini olish borasida bir qator ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilganligi asoslab berilgan. Voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi turli xil g‘ayriaxloqiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tad-*

*birlarni ishlab chiqish har qachongidan ham dolzarb muammo sifatida turli misollar yordamida asoslab beriladi.*

Ta'lim muassalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarining tizimli tashkil etishda, eng avvalo, voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish tadbirlarini uni keltirib chiqaradigan shart-sharoit va sabablarni bartaraf qilishni taqozo qiladi.

Masalaning dolzarbligidan kelib chiqqan holda bugungi kunda butun dunyo miqyosida, shu jumladan, Respublikamizda voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish borasida bir qator ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda bu yo'nalishda olib borilayotgan amaliy ishlardan biri sifatida Toshkent shahri, viloyatlar va tumanlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalarining tuzilishi va ularning faoliyatini belgilash to'g'risida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan hujjatning qabul qilinishi va ushbu hujjatda "voyaga yetmaganlar o'rtasida g'ayriaxloqiy xatti-harakatlarga barham berish va ularning oldini olish"ga [3] qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar voyaga yetmaganlar yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan va har tomonlama ilmiy asoslangan holda ishlab chiqilishi va ularning ta'sirchanlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilsin" deb ta'kidlanishini ko'rsatish mumkin.

Haqiqatdan ham o'sib kelayotgan yosh avlodning ertangi kunimiz, kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi turli xil g'ayriaxloqiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish har qachongidan ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishda eng avvalo xulq og'ishining ijtimoiy-psixologik, individual – psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq og'ishining oldini olish ishlari umumiy va maxsus – individual tarzda olib borilishi bilan xarakterlanadi.

Umumiy ijtimoiy chora-tadbirlarga jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqning turmush tarzi va mikromuhit munosabatlarini yaxshilash, fuqarolarning madaniy-ma'naviy va ma'rifiy salohiyatini o'stirish va boshqalar kiradi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tabiatini tushunish uchun avvalo ularning boshlanish davrini, uning obyektini hamda xulq og'ishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar shaxsiga qanday ta'sir ko'rsatish xususiyatini bilib olish talab etiladi. Ushbu masalani yechish uchun tabiiy ravishda shaxsning motivatsion sohasiga aloqador bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga to'g'ri keladi [8].

Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar shaxsining umumiy yo‘nalishi tahlili xulq og‘ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni nafaqat xulq og‘ishi va salbiy illatlarga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘rtasida olib borish, balki sog‘lom xulqli voyaga yetmaganlar o‘rtasida ham ularni olib borish zaruriyatini ko‘rsatadi [9].

Shuningdek, o‘smir shaxsidagi emotsional beqarorlik, qo‘zg‘aluvchanlik xususiyatlariga barham berishga erishish hamda ularda o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish situatsion vaziyatlarga bog‘liq bo‘lgan voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishining oldini olishda muhim hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi jarayoni shaxs xususiyatlari bilan tashqi muhit voqea-hodisalari o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishli jarayon bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonda o‘smir shaxsi subyekt sifatida tashqi muhit axborotlarini qabul qiladi va qayta ishlaydi. Obyekt sifatida esa tashqi muhit elementlari shaxsga ta’sir etuvchi element sifatida ifodalanadi.

O‘smir shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o‘ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba’zan shaxsning sog‘lom munosabatlari va sog‘lom turmush tarzini belgilasa, ba’zan esa nosog‘lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu xususiyatlar o‘smirlarda g‘ayri qonuniy xulq-atvorning kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jihatdan ta’sirchan tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishining oldini olish tadbirlari samaradorligi va ularning ta’sirchanligi eng avvalo o‘smir shaxsidagi ijobiy fazilatlar, ijtimoiy foydali ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu ma’noda o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar va mashg‘ulotlar voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishini oldini olishning dastlabki profilaktikasi sifatida xizmat qilishi kerak.

Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro yaqinlik va sog‘lom munosabatni o‘rnatishga bog‘liqdir. Shuning uchun o‘qituvchining tarbiyasi og‘ir o‘smirga nisbatan berayotgan e’tiborini, ularni o‘zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo‘layotganligini o‘smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bu o‘smir xulqini sog‘lomlashtirishga qo‘yilgan ilk qadam bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki, oila muhitining sog‘lomligi, ota-onalar va oilaning boshqa a’zolarining madaniy, aqliy, ma’naviy va axloqiy jihatdan barkamolligi oilada tarbiya olayotgan bolaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning ilmu ma’rifatliligi voyaga yetmaganlarda g‘ayriqonuniy xulqning oldini olishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi [5]. Ushbu holatni tadqiqotmizdan olingan natijalar ham ko‘rsatib turibdi. Bunga ko‘ra xulq og‘ishiga ega bo‘lgan voya-

ga yetmaganlar ota-onalarining ma'lumotlilik va o'qimishlilik darajasi xulq og'ishiga ega bo'lmagan voyaga yetmaganlar ota-onalarinikiga qaraganda ancha past darajani ko'rsatadi.

Ushbu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, ota-onalarning ma'rifatlilik darajasi, aqliy, ma'naviy va axloqiy barkamolligi voyaga yetmaganlar o'rtasidagi xulq og'ishining kelib chiqishini oldini olishda muhim hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi muammosi hozirgi zamon uchun dolzarb bo'lib, turli soha mutaxassislari – psixologlar, psixiatrlar, sotsiologlar va o'qituvchilar e'tiborini jalb etmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, dunyoda ro'y berayotgan axborot almashinuvi va rivojlanish o'smirlarning ijtimoiylashuvi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Voyaga yetmaganlarda mustaqillikka intilishning shakllanishi, ma'lum rollarni anglash va qabul qilish, kattalar tomonidan belgilangan chegaralar va qoidalarni o'rnatilishi ijtimoiy meyorlarni buzilishiga olib keladi. Shu munosabat bilan salbiy, ijtimoiy xulqqa qarshi xatti-harakat, odatda, voyaga yetmaganlarning o'z mustaqilligini himoya qilishga imkon beradigan ijtimoiy maqbul reaksiyalar majmuini o'z ichiga olgan, ulg'ayish jarayonining zaruriy tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar orasida xulq og'ishini oldini olish mexanizmlarini yaratish va ularni hayotda qo'llash, bu sohadagi ishlarni takomillashtirish muhimhisoblanadi. Mazkur masalaning dolzarbligi, Vatanimizda amalga oshirilayotgshan islohatlar natijasida buyuk ma'naviyatimizni tiklash, sog'lom turmush tarzini barcha fuqarolarga, eng avvalo, voyaga yetmaganlarga singdirish davlatimiz siyosatida ustuvor yo'nalish ekanligi, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tarbiyalanayotgan yoshlarda yuksak madaniyat, axloqiy fazilatlarini shakllantirish va singdirish muammolarining yechimini davr taqozo etishi bilan belgilanadi. Shuningdek, davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ma'naviy jihatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom, yurtimiz sarhadlarini himoya qilish uchun jismonan chiniqqan, fidoyi insonni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishga ijtimoiy zarurat tug'ilishi, milliy ma'naviyatimizni tiklash borasida davom etayotgan ishlar, ta'lim tizimining tubdan isloh qilinayotgani jamiyatimizda har tomonlama barkamol, sog'lom avlod tarbiyasiga keng e'tibor qaratilishi tendensiyasining kuchayishi barchani shu jumladan psixologlarni ham masalaga jiddiy yondashishni talab etadi. Voyaga yetmaganlar orasida hulq og'ishini oldini olish va ular bilan ishlashda profilaktik mexanizmlarini yaratish hamda amaliyotga joriy qilish zarur. Xulqi og'ishgan voyaga yetmaganlar o'quvchilarning kam qismini tashkil etsa ham, ular o'quv – tarbiyaviy ishlarda barqarorlikka jiddiy to'siq bo'ladilar. Ular maktabda va undan tashqarida (oilada, ko'chada, dam olish joylarida va boshqa) tar-

tibsizlikni vujudga keltiruvchilar hisoblanadi. Shuning uchun ham xulqi og‘ishganlar maktabda ham, undan tashqarida ham pedagogik jamoa va keng jamoatchilik hamda psixologlar e’tiborida turadi. Shu sababli bugungi kunda xulqi og‘ishgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashni jonlantirish, ular orasida huquqbuzarlikning oldini olish masalalariga e’tiborni kuchaytirish, psixologik korreksiya metodlariga murojaat etishni talab etadi. Voyaga yetmaganlarning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasining o‘sishi, jamiyat tomonidan belgilangan odob-axloq, xulq normalariga mosligi ularning kelajakda jamiyatning teng huquqli fuqarosi sifatida faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Xulqi og‘ishganlar bilan psixokorreksiya jarayonida yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy sohalarda oldindan yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni bartaraf etishga imkon tug‘iladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishining oldini olishda qator psixologik-pedagogik masalalarga e’tibor qaratish yaxshi natija berishligini unutmasligimiz lozim.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. –T.: 2016. – № 37-son. 426-modda. -59 b.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni. –T.: 2017. -B1-3.*

*3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. T.: 2004.№419 – son. –B.2.*

*4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent.: Ma’naviyat, 2008. -176 b.*

*5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti. 1999. -396 b.*

*6. Bobomurod A. Kamolot sari. “Cho‘lpon” nashriyoti. 2000 -80 b.*

*7. To‘laganova G.Q. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar.T.: “O‘zbekiston”. 2005. -122 b.*

*8. Kamilova N.G‘. Xulqi og‘ishgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari resotsializatsiyasining psixologik xususiyat-lari.Avtoreferati. Toshkent.: 2020. -21 b.*

*9. Rasulova F.F. Usmirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari. Avtoreferat. Toshkent. 2018. 16 b.*

# YOSHLARNING MA’NAVIY QIYOFASINI MUSTAHKAMLASHDA IJTIMOIY FANLARNING TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISH OMILLARI

**Asliddin QULDOSHEV,**
*Samarqand davlat Arxitektura qurilish universiteti dotsenti, f.f.d.*

***Annotasiya:*** *maqolada yangi O‘zbekiston bunyodkori bo‘lgan yosh avlod tarbiyasida ularning ma’naviy axloqiy qiyofasini shakllantirish va ta’lim-tarbiyaviy jarayonining uzviy bog‘liqligiga e’tibor qaratilgan. Shu ma’noda bugungi kunda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan yangi avlod mutaxassis kadrlarini tayyorlashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishning ahamiyati yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ma’naviy yetuklik, axloqiy mas’uliyat, komillik, g‘oyaviy tarbiya, g‘oyaviy tahdidlar, mafkuraviy immunitet, kasbiy etiket, yetuk mutaxassis.*

**Kirish.** Mustaqil taraqqiyot yo‘limizni tanlab mamlakatimizda keng qamrovli yangilanish va o‘zgarishlar jarayonini qat’iyat bilan davom ettirib kelar ekanmiz, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan bir vaqtda jamiyatning ma’naviy yangilanishi masalasiga ham jiddiy yondashmoqdamiz. Har ikkala holatda ham asosiy e’tibor inson omiliga yo‘naltirilgandir. Bu borada barcha sa’y-harakatlarimiz xalqimiz, xususan, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoitini yaratish barobarida ularning dunyoqarashi va tafakkur tarzida mustaqillik g‘oyalarining mustahkam o‘rin egallashi uchun yo‘naltirilgandir.

Bugun biz amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarimiz, islohotlar samaradorligi jamiyatning eng faol, tashabbuskor kuchi bo‘lgan barkamol avlod tarbiyasi samaradorligi bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Shu bois, asosiy e’tiborni yoshlarimizning ma’naviy-axloqiy yetukligi, aqliy va jismoniy sog‘lomligi hamda g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyasiga qaratayotganligimiz bejiz emas. Ushbu mas’uliyatli vazifani o‘z zimmasiga oladigan ta’lim tizimi, unda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, chuqur islohotlar doimiy diqqat markazimizda va davlat siyosati darajasidadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyov o‘zining Oliy Majlisga yo‘llagan navbatdagi Murojaatnomasida ham aynan strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash masalasiga e’tibor qaratib, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerakligini ta’kidlab o‘tdi.

Hech bir ikkilanishsiz aytish mumkinki, barkamol inson shaxsini tarbiyalash, sog‘lom avlod kelajagi haqida qayg‘urish-jamiyat va millat kelajagi

bilan bog‘liq jiddiy masaladir. “Yosh avlod tarbiyasi mamlakat rivojlanishining real talablariga mos yondashuvni, o‘ziga xos aniqlikni taqoza etmoqda. Bu aniqlikda bizning millat va xalq sifatidagi zamonaviy o‘zligimizni anglash darajamiz va zamonaviy taraqqiyot talablari taqoza etadigan milliy tafakkurimiz ifodalanishi kerak” [1].

Ayni shu ma’noda xalq va millatning o‘zlikni anglash darajasi avvalo milliy tafakkurimiz zamin – poydevorini tashkil etuvchi milliy mafkuramizning xalq ishonchi va e’tiqodi qiyofasida namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Shu sabab ezgu maqsadlarimiz ifodasi bo‘lgan barqaror taraqqiyotimiz mo‘ljallari ham avvalo barkamol avlod ma’naviy yetukligi va mafkuraviy e’tiqodi bilan bog‘lanib ketgandir.

Biz hamisha milliy yuksalishimiz oldingi saflarida yuksak ma’naviyat va ma’rifat sohiblari bo‘lgan bilimli, ilmiy salohiyatli mutaxassislarni, yangi avlod kadrlarini ko‘ramiz. Shunday ekan, bugungi kun talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularni yetuk mutaxassis, o‘z sohasining bilimdoni, ilmiy salohiyat hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan zamonaviy kadrlar sifatida eng ilg‘or texnika va texnologiyalar bilan jihozlanayotgan sohalar va tarmoqlarni ta’minlash oliy ta’limning birinchi darajali vazifasidir.

Shu o‘rinda oliy ta’lim tizimi sohasida belgilangan dolzarb vazifalarni amalga oshirish samaradorligini ta’minlovchi yana bir muhim omilni ta’kidlash joizki, aynan shu omil ta’lim tizimini tubdan yangilash borasida olib borilayotgan islohotlarimizning mazmun mohiyatini belgilab beradi. Aniqlik kiritaylik, gap yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash haqida borar ekan, avvalo, eng ilg‘or talablarga mos, zamonning intellektual, ilmiy – texnikaviy, ma’naviy-axloqiy va g‘oyaviy-mafkuraviy shiddatlariga dosh bera oladigan mutaxassis shaxsi nazarda tutilmog‘i lozim. Bunday moslik va tayyorgarlikni esa faqatgina mutaxassislik talablari bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Shunday ekan, biz mutaxassis kadrga uning kasbiy tayyorgarligi, mahorati va qobiliyati bilan cheklanib ta’rif beradigan bo‘lsak, u holda faqat o‘z kasbiy manfaatlaridan kelib chiqib, vaziyatga baho beradigan, jamiyat uchun sarflanadigan bilimi va qobiliyati evaziga undan ikki hissa ko‘proq naf ko‘rishni rejalashtirgan “qashshoq mutaxassis” ta’rifidan nari o‘tolmaymiz. Vaholanki, biz o‘z mutaxassisligining ijtimoiy ahamiyatini mushohada qilib, professional mahoratini uzluksiz oshirib boradigan, uni jamiyat manfaatlari izmida milliy yuksalish maqsadlari sari safarbar etib, faxr va g‘urur tuyg‘usini, moddiy va ma’naviy qoniqish hissini anglab etadigan mutaxassis kadrni tarbiyalab berishni maqsad qilib qo‘yganmiz. Demak, oliy ta’limga faqat oliy ma’lumotli mutaxassis kadrlar etkazib beruvchi ta’lim muassasasi deb qaramasdan, ushbu tizimni yoshlarimizga ham bilim, ham kasb-hunar va ixtisoslik berish bilan bir vaqtda ularda erkin fikr madaniyati va mustaqil dunyoqarash ko‘nikmalarini shakllantiradigan, ma’naviy-axlo-

qiy qiyofasini qaror toptirib, ijtimoiy faollik, ijodkorlik va tashabbuskorlik sari yo'llaydigan, yuksak ma'naviyatli barkamol inson qiyofasidagi mutaxassis kadrlarni yetishtirib beruvchi ta'lim-tarbiya maskani deb bilmog'imiz kerak.

To'g'ri, oliy ta'limning, unga aloqador fan sohalari va tarmoqlarini rivojlantirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish uchun birinchi galda so'zsiz, o'z sohasining chuqur bilimdoni, nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini uyg'unlikda olib bora oladigan, ilmiy salohiyatga ega mutaxassislar tayyorlash vazifasi rad etib bo'lmas haqiqatdir. Shuningdek, ta'kidlash kerakki, har qanday taraqqiyot va ilmiy faoliyat mahsuli shubhasiz, mushtarak maqsad sari – milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi negizida ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirish bilan birga milliy taraqqiyot uchun xizmat qilishi kerak. Shundagina biz tayyorlagan mutaxassislar qiyofasida yuksak ma'naviyat, kasbiy madaniyat, ma'rifat va milliy tarbiya xislatlarining ifodasini ko'ramiz.

Mutaxassis kadrlar ma'naviyati masalasiga to'xtalar ekanmiz, ta'kidlash kerakki, har bir mutaxassislik ta'limi o'zida individual va ijtimoiy fazilatlar uyg'unligini qamrab olmog'i lozimki, bu uyg'unlik mutaxassisning bilim saviyasi va kasbiy etiketini namoyon qilish omiliga aylanadi. Ushbu omil mutaxassis saviyasi va kasbiy madaniyatining ma'naviy-axloqiy mezonlarini belgilab beradi. Ular quyidagilar:

– tanlagan yo'nalishi bo'yicha o'z kasbining mas'uliyatini his qilgan holda aniq maqsad va rejalar asosida faol pozitsiyaga ega bo'lish;

– o'z qobiliyati, bilimi va kasbiy mahorati, o'z o'rni va mavqeiga moslik darajasini namoyon qilish orqali hurmat va e'tiborga erishish;

– o'z fikri, g'oyasi va rejalarini aniq ravon nutqda bayon etib, atrofdagilarga ta'sir eta olish jur'ati bilan jamoaviy birlik va hamkorlikni qaror toptirish;

– zamonaviy bilimlar sohibi sifatida siyosiy ong va huquqiy madaniyat uyg'unligiga erishish;

– alohida ijtimoiy guruh vakili sifatida muayyan axloqiy me'yorlar doirasida o'z-o'zini idora etish orqali o'zgalarga o'rnak bo'lish;

– qabul qilgan har bir qaroriga o'zgalarni ishontirish, uyushtirish va o'z ortidan ergashtirib bora olish;

– ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik, mas'uliyat, javobgarlik, burch va majburiyatlarni namoyon etish.

Belgilangan barcha mezonlar subyektning shaxsiy fazilatlari ustuvorligini taqozo qiladi. Demak, oliy ma'lumotli mutaxassisning shaxsiy fazilatlari va ma'naviyati haqida so'z yuritar ekanmiz, ta'lim sifatini belgilovchi yana bir muhim omilga e'tibor qilmoq lozim. Mutaxassisning bilim saviyasi, malaka va ko'nikmalarini oshirishda oliy ta'limning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash qanchalik zarur bo'lsa, bilingki, tizimning

ma’naviy-ma’rifiy bazasini zamon talablariga moslashtirish va mustahkamlash shunchalik zarurdir. Ta’lim berish borasida ilg‘or xorijiy tajribalarga qanchalik ahamiyat berayotgan bo‘lsak, ma’naviy-tarbiyaviy yo‘nalishda milliy qadriyatlarimiz ahamiyati va ta’sirchanligini yanada mustahkamlamog‘imiz shart.

Darhaqiqat, ijtimoiy fanlarni o‘qitishda ularning funksional vazifalaridan kelib chiqadigan o‘ziga xoslikni alohida ta’kidlab o‘tish kerak. Zero, ijtimoiy fanlar talaba yoshlarda tafakkur madaniyatini shakllantirish barobarida tashqi voqelikda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, voqea-hodisalarga o‘z munosabatlarini bildirish, shaxsiy qarorlar qabul qilish va xulosalar chiqarish sari yo‘llaydi. Masalaning muhimligi shundaki, yoshlarimizning voqelik haqidagi umumiy dunyoqarashini shakllantirishda birinchi galda shu voqelik mazmun-mohiyatini to‘g‘ri izohlab, sodir bo‘layotgan voqealar, ularni yo‘nalishi, harakatlantiruvchi kuchlari va maqsad mudaolari haqida aniq ma’lumotlar asosida yoshlarimiz fikrini oydinlashtirish lozim. Ana shunday mas’uliyatli vazifa ko‘proq dunyoqarashlik maqomiga ega bo‘lgan falsafiy fanlar zimmasiga tushadi.

Shuning uchun ijtimoiy fanlarni chuqur o‘rganish tafakkur madaniyati orqali dunyoni anglash, uning mohiyati to‘g‘risida mantiqiy mushohada yuritish va shu orqali yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shu ma’noda tashqi olam, bizni o‘rab turgan borliq to‘g‘risida tushuncha va xulosalarimiz aqliy qobiliyatimiz mahsuli sifatida tizimli ta’sirning, ya’ni ta’lim jarayonining uzliksizligi va maqsadli yo‘naltirilganligi natijasi deb qabul qilinishi mumkin. Binobarin, ta’lim tizimining yuqori bosqichlarida ushbu fanlarni o‘qitishda fan dasturlari, o‘quv adabiyotlari va ta’lim texnologiyalarida o‘ziga xoslikka e’tibor qaratib, hech bir ayniylikka, o‘xshashlikka va takrorlanishlarga yo‘l qo‘ymasligimiz lozim.

Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda biz avvalo fanning insonparvarlik mohiyatiga jiddiy e’tibor qaratmog‘imiz lozim. Shu bois yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirayotgan g‘oyalarda insonparvarlik, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik va fidoyilik fazilatlari ustuvorligini ta’minlamog‘i miz zarur. Ana shu maqsaddan kelib chiqadigan bo‘lsak, yoshlarimizning ijtimoiy fanlarga doir bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida ularning aqliy yetukligi, bilim darajasi va fikrlash saviyasini o‘stirish maqsadida aqliy tarbiyani; ma’naviy-axloqiy, insoniy fazilatlarini shakllantirish bilan bog‘liq axloqiy tarbiyani; huquqiy, siyosiy bilim berish orqali siyosiy hamda huquqiy onglilikni o‘stirish, huquqiy madaniyatni oshirishga yo‘naltirilgan huquqiy va siyosiy tarbiyani; estetik ongi va ijodkorlik mahoratini shakllantirishga yo‘naltirilgan estetik tarbiyani amalga oshirish ta’lim-tarbiyaviy ishlarimizning bosh yo‘nalishini tashkil qilish kerak.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. M.Munavvarova. Milliy g‘oyaning ma’naviy ildizlari. T. “Ma’naviyat” 2011. 25-bet.*

*2. Raxmonov A. Safarov A . O‘zbekistonning milliy tiklanishdan yuksalish sari rivojlanish bosqichlari. T. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2020. 121 bet.*

*3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi – Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi PQ -2909–sonli Qarori.// lex.uz.*

*4. Qalandar Abdurahmonov. O‘zbekistonda inson omili va manfaatlari – eng oliy qadriyat. T. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017. 219 bet.*

*5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – // Xalq so‘zi gazetasi, 2018-yil 23-dekabr.*

## KREATIVLIK VA KREATIV FIKRLASHNING MOHIYATI

**Sherzod YUVASHOV,**
*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),*
*NamMQI ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi.*

***Annotatsiya.*** *ushbu maqolada kreativlik va kreativ fikrlashning mohiyati, yangi, original g‘oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topish haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar.*** *kreativlik, kreativ fikrlash, divergent tafakkur, konvergent tafakkur, noodatiylik, intellekt.*

Fikr yoki g‘oya bu – aqlimizning ijod faoliyati mahsulidir. Aqlimizda turli muammolarning yechimi yoki yangiliklar haqida fikrlar tug‘iladi. Fikrlar odatda biror hayotiy muammo yechimini izlash jarayonida shakllanadi. Biror bir vazifa haqida o‘ylaganda, biror qiyin vaziyatga tushganda inson fikrlashga majbur bo‘ladi.[1] Ba’zi hollarda insonda istamagan holda ham ajoyib fikr tug‘ilishi mumkin.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create” so‘zidandan olingan bo‘lib, “yaratish” ma’nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida beqiyoslik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish, kreativ bo‘lish uchun kishi ko‘proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo‘lishi lozim. Har qanday ko‘nikmani shakllantirish mumkun bo‘lganiday, kreativ fikirlash qobilyati yoki ko‘nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu o‘quvchilarni noodatiy tarzda fikirlashga yordam beradi. Kreativlik bo‘yicha D.Veksler, A.Maslou, Djo Pol Gilford, E.P.Torrenslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, o‘quvchilarda fikirlash tarzining shakllanishi, o‘qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o‘z ichiga oladi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so‘zlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” bo‘lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur – bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. [2]

Inson miyasi o‘z ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun qoliplar va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma’lum bo‘lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g‘oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo‘lgan ijtimoiy fikr, media mahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko‘rinishlar ham yetakchi o‘rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo‘shiladi. Qolaversa, “oqim bo‘ylab suzish” mustaqil fikrlashdan ko‘ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo‘yicha inson ongiga “so‘rov” berilganida odatiy ma’lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovasiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya’ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. [3]

Amerikalik olim D.Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi” – deb ta’rif beradi. Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g‘oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspekt-

larni yaxshilash uchun qo‘llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. A.Maslou ham kreativlikni – barchaga xos tug‘ma ijodiy yo‘nalish, atrof muhitning ta’sirida ko‘pchilikda yo‘qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan. Amerikalik psixolog olim Djo Pol Gilford o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divirgent turiga ajratdi. Konvergent tafakkur – (lotincha convergere – “bir yo‘ldan”) tafakkur formasi bo‘lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to‘g‘risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi. Divergent tafakkur – (lotincha divergere – “bo‘linish”) ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo‘lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning o‘zida turli yo‘nalishlarga izlanish, ya’ni bir muammoga bir nechta to‘g‘ri javoblar borligini va original ijodiy g‘oyalarning tug‘ilishiga xizmat qiladi.

Divergent tafakkurning negizini esa kreativlik tashkil etadi. Kreativlik tafakkurning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lib, shaxs tafakkuri qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, kreativ fikrlashi ham shunchalik rivojlangan bo‘ladi. Biroq kreativlik faqatgina tafakkurning yuqori darajada rivojlanganligi bilan hosil bo‘lib qolavermaydi, ya’ni intellektual salohiyati yuqori shaxs har doim ham kreativ fikrlay olmasligi mumkin. Buni Djo Gilford tadqiqotlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Gilford o‘z kreativlik strukturasida divergent tafakkurdan tashqari o‘zgaruvchanlik qobiliyati, yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni birlashtirdi. Shuningek, u kreativlik va intellekt o‘rtasida o‘zaro uzviy aloqa borligini isbotladi. Biroq, Gilford o‘z tajribalarida yuqori intellektuallilarning test yechish davomida ijodkorlik xulqini har doim ham ko‘rsatmasligini, kreativ past intellektualli bo‘lmasligini aniqladi. Shunday ekan, divergent tafakkur kreativ jarayonning barcha xususiyatlarini aks ettirmaydi.

E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi: – muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; – farazni tekshirish va o‘zgartirish; – qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; – muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning – o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik. [4] Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. Umuman olganda, kreativlik – bu yangi, original g‘oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Kreativ tafakkur esa revolyusion tafakkur bo‘lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi. Kreativ fikrlashda ta’lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash bugungi kunda yoshlar egallashi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir. Mazkur ko‘nikma, yoshlarga bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan, zamonaviy axborot kommunikasiyalaridan faol foydalana oladigan, oddiy

savodxonlikdan ko‘ra ko‘proq natija ya’ni tashabbuskorlik talab qilinayotgan, bir so‘z bilan aytganda XXI asr ko‘nikmalariga ega malakali kadrlarga talab kuchayayotgan bir paytda ushbu jarayonga moslashishiga va raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

G‘ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og‘irimizni yengil, uzog‘imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo‘lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g‘oya so‘raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislarga talab oshib borayotgan ekan, ta’lim jarayonida o‘quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta’lim tizimida ko‘plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya’ni berilgan ma’lumotni tushunib, to‘g‘ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiylashtirib, xulosa chiqara olishga yo‘naltirilgan.[5]

Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o‘ringa ega bo‘lgan, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayon hisoblanib, shaxsda, ayniqsa, yoshlarda ushbu ko‘nikmani shakllantirish kelgusida mamlakat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat qaratish lozim. Birinchidan, shaxs tarbiyasida bolalikdanoq uning fikri muhim ahamiyat kasb etishini va jamoada o‘z o‘rniga ega ekanligni xis qildirib borish; Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatda shakllangan dogmatik qarashlardan voz kechish; Uchinchidan, boshqaruv jarayonida avtokratik usullardan ko‘ra demokratik usullarni ko‘proq qo‘llash; To‘rtinchidan, kreativ fikrlaydigan shaxslarning g‘oyalarini va qarashlarini hurmat qilish hamda ularni qo‘llab quvvatlash lozim. Zero, jamiyatda lokomotiv sifatida har doim liderlar o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Bugungi kunda liderlarning aksariyati kreativ fikrlovchi kishilardir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022-y. 28.01. www.lex.uz.*

*2. Madraximova G. R. , Nasullayeva Yo. N. “Iqtisodchi uchun kreativ fikrlash nima uchun kerak?” – Fan va ta’lim / 2022-yil 4-son.*

*3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.*

*4. Jumanova S.B. Kreativ fikrlash. – "Издательский решения" 2020. ISBN 978-5-00-511636-9*

*5. Akbarov B. A. Pedagogical system of formation of professional thinking in secondary school students //Author. dis.... PhD. – 2020.*

## TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISH METODIKASI HAMDA TARG'IBOTNING YANGI TEXNOLOGIYALARI

**Ilhomjon ERGASHEV,**
*Andijoq iqtisodiyot va qurilish instituti*
*"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar"*
*kafedrasi katta o'qituvchisi, (PhD)*

***Annotatsiya:*** *maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish chora tadbirlarning yangi texnologiyalari ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar texnologiyalari, globallashuv jarayonlari, ijtimoiy institutlar, ma'naviy immunitet.*

Insoniyat oldida doimo kelajak avlodning tashvishi, xususan ularning tarbiyasi muhim masala sifatida ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Taniqli o'zbek adibi Toxir Malik ta'biri bilan aytganda: 3000 yil avval qadimgi bitiklarda ham zamon yoshlari haqida fikr ketganda ularning o'zgarib o'zgacha fikr va turli urf-odatlar bilan qorishib borayotgan xatti-harakati tashvishli muhokamalarga sabab bo'lgan[3]. Shu kungacha har davrlarda ham yoshlar tarbiyasidagi turli o'zgarishlarlar jamiyat uchun asosiy me'zon sifatida gavdalanib, ma'naviy muhitni yaxshilashga qaratilgan usul-uslublardan foydalanishga extiyoj sezilgan. Mavlono Jaloliddin Rumiy hazratlari: "Tayoq bilan gilamni kaltaklayotgan kishining maqsadi uni urib, ozorlash emas, balki undagi chang – gardni aritishdir"[4], deb ta'kidlab o'tgan. Darxaqiqat, bugungi Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan barcha sohalar kabi ta'lim tizimidagi islohotlar – barcha ta'lim muassasalarida o'rganish, o'rgatish, ilm olish kabi ezgu amallar, yangi zamonaviy usul va uslublar asosida amalga oshirilmoqda. Ammo bir savol barchaga birdek mavxum. Yaxshi tarbiya ta'limini, qayerda o'rnagamiz? Ya'ni mexr-muxabbatni, bir-birimizga hurmat ko'rsatishni qanday o'rganamiz? Bu kabi savollar, ta'lim muassasasida

ijtimoiy – ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish metodikasi hamda targ'ibotning yangi texnologiyalariga talabni bir necha barobar oshirishi tayin.

Aytishlaricha, Yaponiya maktablari boshlang'ich sinflarida o'quvchilarga o'qish, yozish va hisob kitoblardan ko'ra ekologik tarbiya, mehnatga hamda tug'ilib o'skan maskaniga muhabbat insonlar orasidagi mehr tuyg'ularini o'stirish kabi masalalarga sidqidildan yondoshar ekan. Millat kelajagi qayg'usidagi har qanday davlat yoshlar kelajagiga yuzaki, bir tomonlama qarashni jinoyat kabi tushunadilar. Aksincha, mamlakat yoshlari taqdiri uchun yuzakilik, e'tiborsizlik va loqaydlik kabi salbiy unsurlar avj olgan jamiyatda mafkuraviy bo'shliqlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bugungi zamonaviy olam deya atalmish AQSh va Yevropadan turli vositalar orqali kirib kelayotgan urf-odatlarning hammasi ham bizning millatimiz uchun kerak va foydali deb ayta olmaymiz. To'g'ri, ulardan o'rganadigan jihatlarimiz ham bor. Aytaylik, kitobga bo'lgan qiziqish kabi. Ammo inkor etadigan tomonlarimiz ko'proq. Chunki tarbiya sohasida Amerika ham, yevropa ham keyingi yuz ichida tanazzulga yuz tutgan. Fransiyalik adib Alber Kamyuning "Begona" nomli asariga Nobel mukofoti berilgan. Asar qahramoni hatto o'zining onasi o'limiga ham befarq, sevgi ham uning qalbini yumshata olmaydi, xullas u har qanday mehr-muruvvatdan begona, ruhsiz bir tana [5]. Asar qahramoni oddiy bir yigit emas, balki bugungi Yevropaning ramziy timsoli. Buni o'zlari ham tan olganliklari uchun yuqori mukofotga loyiq ko'rishadi.

Bugungi Globallashuv insonlarni madaniyatlar chorrahasida birlashtirib me'yoriy qoliplardan tashqariga, ya'ni o'zlari xohlagan me'zonlar bo'yicha yashashi uchun sharoit yaratmoqda. Ushbu sharoitlar natijasida turli jamiyat sarqitlari bo'lgan, avval uyat sanalgan jirkanch odatlar tabiiy holga aylanib qolayotgani barchamizga birdek ayon. Ushbu jarayonda talaba yoshlarning ma'naviy rivoji uchun to'sqinlik qiladigan illatlarga qarshi immunitetni saqlay oladigan ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish metodikasi, hamda targ'ibotning yangi texnologiyalari dolzarbligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Tarixan Ajdodlarimiz ta'lim berish jarayoniga nozik masala sifatida yondoshib, o'ziga xos uslublarni amaliyotga joriy etib, yillar davomida sayqallab boyitib bir qolibga moslashtirib kelishgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.02.2020-yildagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5938-son farmonida "Aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha "mahalla – sektor – xalq qabulxonasi – mahalla" tamoyili asosida samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli "ko'prik" bo'lishini amalda ta'minlash, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan [1].

Fikrimizcha, bugungi kunda ijtimoiy institutlarning faol harakati xususan, mamlakatimizda mahalla, oila hamda ta'lim muassasalari birgalikdagi harakati dolzarbligi bilan o'z ahamiyatini yuksaltiradi, ushbu institutlar tomonidan maqsadli ishlab chiqilgan targ'ibotning yangi texnologiyalari ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga ko'mak bo'ladi. Bu jarayonda OTMlarda faoliyat olib borayotgan professor o'qituvchilar jamoasining intelektual, ma'naviy-ilmiy salohiyati sifatli tashkil etilganligi, shu bilan birga jamoadagi sog'lom muhitni ta'minlay oluvchi richag sifatida boshqaruv apparatining ahamiyati yuqori. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamiyat ma'naviy olamini rivojlanganligi mamlakat iqtisodiy barqarorlik darajasiga bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan OTM muassasalari bilan ishlab chiqarish tashkilotlari o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish chora tadbirlari haqida farmon va qarorlari OTM muassasasi professor o'qituvchilarini yangi ilmiy izlanishlarga undamoqda. Ushbularni rivojlantirib borib turli to'garaklar tashkil etish orqali aniq biznesga yo'naltirilgan biznes loyihalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


*1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5938-son farmoni.*

*2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori.*

*3. Malikov T. Odamiylik mulki (ahloq kitobi). Toshkent 2017-yil*

*4. Jaloliddin Rumiy. Ichingdagi ichingdadir. T.: YOzuvchi, 1997-yil*

*5. Alber Kamyu. Begona. https://uz.wikipedia.org/wiki/*

*6. Samadova S. Ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari (o'quv-uslubiy qo'llanma). "Durdona" nashriyoti Buxoro – 2020-yil.*


ZJV5401

# TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZARARLI AXBOROTLARNING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TAHDIDI OLDINI OLISH ASOSLARI

**Nigora XUSANOVA**,
*O‘zbekiston Milliy universiteti*
*tayanch doktoranti Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar*
*instituti ilmiy xodimi*

***Annotatsiya:*** *ta’lim-tarbiya jarayonida “Axborot”, “Axborot xavfsizligi”, “Axborot iste’moli” va “Axborotdan foydalanish” madaniyatini shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqish orqali yoshlar ma’naviyatiga ta’sir etuvchi tahdidlarni oldini olish yuzasidan fikr mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim-tarbiya, Raqamli texnologiyalar, “Axborot”, “Axborot xavfsizligi”, “Axborot iste’moli” va “Axborotdan foydalanish madaniyati”, “Kibermakon”, kiberxavfsizlik, kebirhujum, kiberhimoya, tahdidbardoshlik.*

***“Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg‘onlik tusini oladi”***
**Abu Rayhon Beruniy**

Mamlakatda so‘ngi yillar ichida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni hech bir sohani chetda qoldirmadi. Ko‘rib turganimizdek, bugungi kunning eng og‘riqli va tuzatish ko‘p vaqtni talab qiluvchi sohalardan biri bu ta’lim-tarbiya sohasidir. Yillar davomida ushbu soha bo‘yicha qanchadan qancha ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada uning hali hanuz kamchiliklari yetarlicha. Ammo, bu sohaning kamchiliklari va ortda qolishi barcha sohalarda sezilarli asorat qoldirishi o‘z navbatida davlat taraqqiyoti va xalqning ertangi kelajagi uchun ham sezilarli darajada ta’sir o‘tkazmay qo‘ymaydi.

Ta’lim islohotlari jarayonida tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratish kerakligi, yetishib kelayotgan avlodning bugungi kayfiyati bilan baholasak adashmagan bo‘lamiz. Tarixdan bizga qadriyat darajasiga ko‘tarilgan axloq, tarbiya, hurmat tushunchalariga nisbatan qarashlar madaniyatlar qorishuvi natijasida o‘zini yangicha ko‘rinishda namoyon etmoqda.

Bugun bu borada qarashlar va fikrlar o‘zgardi. Biz uchun ahloq tarbiya sifatida ko‘rilgan qadriyatlar yo‘qolishi demokratik huquqlarning to‘la qonli foylalanilishi ko‘rinishida o‘zini oshkor etmoqda. Bu Raqamli texnologiyalar asridagi axborot hamda mafkuraviy kurashlarning eng ko‘z ilg‘amas tahdidlarining bir ko‘rinishida harakatlanmoqda.

Dunyodagi bo‘layotgan axborot xavfsizligi jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etmaganligi yoki mafkura sohasidagi oqsashlar tufayli bo‘shliq paydo bo‘lgan davlatlar axborot va mafkuralar kurashi davrida o‘zini o‘nglab ololmayotgan notinch mamlakatlar holatini tahlil qilish va o‘zimizga to‘g‘ri xulosa chiqarishni taqozo etmoqda. Globallashuv jarayonlarida har qanday

davlat qanchalik iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan bo‘lmasin, agar mafkura tarbiyasida bo‘shliq mavjud bo‘lsa uning hududida turli xil beqarorlikning ochiq va yopiq ko‘rinishlarida harakatlarni oshirish mumkin bo‘lib qoldi. Binobarin, mafkura sohasidagi bo‘shliq tufayli ko‘rinmas qo‘llar tomonidan takshil “axborot tahdidlari”ni jamiyat iste’moli uchun singdirib yuborilishi ichki nizolarni vujudga keltirib, ichki nizolarning kengayib borishi natijasida jamiyatning beqarorlik holatlarini kuchayishi natijasida o‘zini-o‘zi yeb bitirishiga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday ko‘rinmas qo‘llar, O‘zbekistonning ham buguni va ertasiga xavf tug‘dirayotgani sizni va bizni tashvishga solmog‘i lozim. Chunki, hozirgi tahlikali vaziyatda o‘z ongimizni maishiy fikrlar bilan to‘lib borishi, bizga chetdan va ichkaridan uzatilayotgan zamirida buzg‘unchilik hamda vayronkor kayfiyatga ega bo‘lgan axborotlar natijasida yuzaga kelgan noo‘rin xabarlar bilan miyaning oziqlanishi, ertangi kunda bizni ham shu notinch mamlakatlar qatoriga kirib qolmasligiga hech kim kafolat bermaydi. Bu xususda davlat rahbari Sh.Mirziyoyev butun xalqimizni ogohlantirib shunday fikrlarni aytadi, “Bugun “Mafkura” sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongi tafakkuri hech qachon axborot olishdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi. Demak, unga doimo ma’naviy oziq kerak. Agar shu ozuqani o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘ladi. Bunday oziqani u asta-sekin boshqa yerdan izlaydi. Shunga yo‘l bermasligimiz lozim!” degan davatlari qanchalik asosli ekanini tushunish mumkin. Binobarin, qayerda bo‘shliq hosil bo‘lsa, o‘zga mafkura poligoni joylashtiriladi. Mafkura poligonlarining yadro poligonlaridan kuchliroq ekani esa hech kimga sir emas.

Shu o‘rinda “Mafkura nima o‘zi? Mafkura muayyan millat, xalq, ijtimoiy qatlamni ilhomlantiradigan g‘oyalar, qarashlar majmuasi hisoblanib, har qanday jamiyatni harakatga keltiradi. Shu ma’noda, bugun rivojlangan dunyoning har jabhasida mafkura mashinasi ishlayotganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Dunyoda ong va tafakkurni egallash uchun juda ko‘plab ilmiy-amaliy institutlar faoliyat olib bormoqda. Bu esa tinch yo‘l bilan rivojlanayotgan har qanday davlatni izdan chiqara oluvchi kuchlar borligini unutmaslik lozimlgini ko‘rsatadi. Umuman, dunyo sahnasida yuz berayotgan voqea-hodisalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bugun jamiyatning birdamligi va xotirjamligini saqlab qoluvchi yagona kuch mafkura ekani ayon bo‘ladi.

Bu borada dunyoning eng tez taraqqiy etayotgan mamlakatlaridan biri Xitoy davlatining mafkura siyosati boshqalarga nisbatan ancha ilgarilab ketgan. Aynan “milliy g‘oya” va “mafkura” targ‘iboti bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish uchun hududlar kesimida, joylarda 2585 ta qo‘shma media markazlar ya’ni “mafkura markazlari” o‘z faoliyatini olib boradi va bu markazlar buyurtma asosida Xitoy xalq Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni, milliy qadriyatlar, fazilatlar, g‘oya va mafkuraviy

xabarlarni media vositalar orqali aholiga yetkazib beradi. AQSh davlatida esa Buyuk Amerika g‘oyasini tarqatish uchun 1000 ortiq aqliy markazlar faoliyat olib borishi hech kimga sir emas. Aynan shu mafkura mashinalari tufayli ular bugun yer yuzida “axborot” egalari hisoblanadi desam adashmagan bo‘laman. Aynan axborotga egalik qiluvchi mamlakatlar bugun boshqa mamlakatlarning nafaqat iqtisodiyoti balki ichki va tashqi barqarorligi tizginiga ham egalik qilayotganini tushunish qiyin emas. Oddiy misol, bugun Xitoy dunyo bozorining egasi hisoblanib, mahsulotlar orqali o‘zining milliy qadriyatlari va madaniyatini ham targ‘ibot ishlari bilan birgalikda axborot media makonining ham boshqaruvchi davlatlardan biri sanaladi.

Hozirgi vaqtga kelib, Axborot texnologiyalari davrida axborotning muhimligini inobatga oladigan bo‘lsak, uni himoyalash bugungi kunda har bir jamiyatning dolzarb muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Axborot xavfsizligi hodisalari tufayli vujudga keladigan zarar jamiyat taqdiriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Axborot xavfsizligini ta’minlashning ko‘plab usullari va sohalari mavjud bo‘lib, Jamiyatda axborot xavfsizligini ta’minlashning samarali tashkil etish vositalaridan biri sifatida axborot xavfsizligi siyosatini joriy etishdir. Ho‘sh axborot xavfsizligi kiberhimoya nima, u qanday joriy etiladi va joriy qilishdan maqsad nimalardan iborat? Kiberhimoya – kiberxavfsizlik hodisalarining oldini olishga, kiberhujumlarni aniqlashga va ulardan himoya qilishga, kiberhujumlarning oqibatlarini bartaraf etishga, telekommunikatsiya tarmoqlari, axborot tizimlari hamda resurslari faoliyatining barqarorligini va ishonchliligini tiklashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, muhandislik-texnik chora-tadbirlar, shuningdek ma’lumotlarni kriptografik va texnik jihatdan himoya qilish chora-tadbirlari majmui. Kiberxavfsizlik sohasidagi boshqa masalalar bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan rejalarni ishlab chiqishi, kiberxavfsizlikni ta’minlashga doir ishlarni, shuningdek muhim axborot infratuzilmasi obyektlarida kiberhujumlarning oldini olishga, ularni aniqlashga va ularning oqibatlarini tugatishga doir ishlarni tashkil etishi, muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta’minlashga doir talablarni belgilashi kabi bir qancha yangi vazifalar yuklatildi.

Kiberxavfsizligini ta’minlash maqsadida vakolatli davlat organidan kibertahdidlar, dasturiy ta’minotdagi, uskunalar va texnologiyalardagi zaifliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishi, kiberhujumlardan himoya qilish vositalari va usullari, shuningdek ularni aniqlash hamda bartaraf etish usullari to‘g‘risida vakolatli davlat organidan ma’lumotlar va maslahatlar olishi o‘z kiberxavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishi kabi huquqlari belgilandi.

Bu kabi qonuning qabul qilinishi mamlakatimizda kiberxafvsizlikni ta’minlash va kiberjinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, shu qonun orqali kiberjinoyatchilik va kiberhujumni

oldini olinishi, ushbu qonun hujjatining bizga naqadar muhim ekanligini isbot qilib ko‘rsatadi.

XXI asr Raqamli axborot texnologiyalari davrida axborot xavfsizligini ishlab chiqish asoslari har qachongidanam muhim bo‘lib, axborot xavfsizligin ta’minlashning maqsad va vazifalarini jamiyat faoliyatida asosiy vazifani bajaruvchi ta’lim tizimiga singdirish asosiy vazifalardan biridir. Jamiyat hayotida faoliyat yurituvchi talaba yoki xodim bo‘ladimi axborot xavfsizligi, ma’lumotlar chiqib ketishini tekshiruvchi balki jamiyat ta’sir etuvchi zararli axborotlar xatarlarini minimallashtirish va tahliliy tanqidiy yondashuvni shakllantirishga asosiy e’tibor qaratish lozim. Chunki, hech bir davlat axborot almashinuvi va axborot oqimi ustidan to‘liq nazoratni o‘rnata olmaydi.

Ma’rifatli jamiyat qurish yo‘lida davlat boshqaruvining raqamlashtirish amaliyoti ham keng qamrovda amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarida axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy tamoyillari va tartibini belgilovchi – “O‘zbekiston Respublikasi hududida axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar” ham 2013–2020-yilllarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, Axborot xavfsizligi bugungi kunda Respublikamizning raqamli iqtisodiyoti hamda davlat islohotlarning asosi hisoblangan kadrlar zahirasini axborot tahdidlariga nisbatan tahdidbardoshliligini elementlari ishlab chiqish lozim. Bu elementlarni ishlab chiqish jarayonida O‘zbekistondagi barcha sohalar Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlab oliy ta’lim muassasalarida ham axborotdan foydalanish ma’daniyati, axborot iste’moli, axborot xavfsizligi hamda axborot tahlili va analiz-sintez tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga oid vazifalar ta’lim-tarbiya jaranida o‘tilayotgan ijtimoiy fanlarning tarkibiga singdirib yuborish amaliyotini joriy etishni taqozo etmoqda. Mamlakatda axborot xavfsizligi madaniyatini oshirishning eng samarali vositasi bo‘lgan axborot xavfsizligi siyosati zamonaviy ta’lim-tarbiyaning yangi ko‘rinishlarini zamonaviy usul va vositalarini yaratish muhim omillardan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, yurtimizda iqtisodiy faoliyat va davlat boshqaruvi jarayonlarining “raqamlashtirilishi” kuchayishi bilan axborot xavfsizligi siyosatining roli tobora oshib bormoqda. Endilikda maishiy ehtiyojlarga berilib boruvchi yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar tomonidan berilgan keng imkoniyatlar tufayli mehnat qilish, ishlash, pul topishga nisbatan qarashlari ham o‘zgarib bormoqda. O‘zganing mulki degan tushuncha va qadriyatlar ham bugun globallashuvning chegarasida turibdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mafkuraviy globallashuv jarayonlarini tezlashtirish, istaklarni amalga oshirish uchun katta mablag‘ning hojati yo‘q. Ta’sir berish joyi va qatlam

aniqlab olinsa bas. G‘oyaviy-mafkuraviy ta’sir singdiriluvchiga sezdirmasdan amalga oshiriladi hamda qurbonlar bo‘lmaydi. Faqat mavjud muammo turi va yosh doirasi aniqlanib yoshlarning dunyoqarashi va ongiga muntazam ravishda ta’sir o‘tkazib boriladi. Bu jarayonda ma’lum vaqt shakllangan qadriyatlarni o‘zlashtirishga va boshqaruv qobiliyatini kamaytirish yoki butunlay yo‘qqa chiqarish maqsad qilib olinadi. Vaqt o‘tgan sari u o‘zining belgilarini namoyon qila boshlaydi va nihoyat huruj beradi. Ya’ni, o‘sha davlatda tartibsizlik vujudga keladi. Masalan, Qozog‘istondagi yanvar voqealarida aksariyati 30 yoshga to‘lmagan, biror bir faoliyat turi bilan band bo‘lmagan yoshlarning ongiga g‘oyaviy va mafkuraviy hujumlar qilish orqali aynan o‘sha xalq vakillari qo‘li bilan amalga oshirildi. Bundan tashqari yaqinda o‘zimizda sodir bo‘lgan “Qoraqalpoq voqealari” bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ma’lum bir shaxslar tomonidan ma’lumotni noto‘g‘ri talqin qilish orqali oddiy xalqni ijtimoiy tarmoqlardan shahar ko‘chalariga chiqishga hamda davlat boshqaruvi va konstitutsiyaviy tuzumga qarshi chiqishga undashdi. Bu voqea hodisalarda olamonning o‘zi bilib-bilmay ishtirokchiga aylanib qolgani, buni tushunib yetganlar bu fikrdan qaytgani, mohiyatini anglab yetmay “Ruhiyati zararlanganlar” esa IIB va Milliy Gvardiya boshqarmasini bosib olishga urinishi achinarli oqibatlarga olib kelganini ko‘rishimiz mumkin.

Masalaning yana bir tomoni bor, ular orasida aksariyat namoyishchilar rasm va lavhalarga e’tibor beradigan bo‘lsak 30 yoshga kirmagan yoshlarni tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin. Bu voqealarni tashkilotchilari o‘zlarini tanib olish uchun bir xil kiyinishi va tartibsizlikni keltirib chiqargach ularning voqea joyidan yo‘q bo‘lib qolishgani va oddiy xalqning o‘zi kimga va nima uchun tartibsizlikda ishtirok etayotganini, oxiri qanday oqibatlarga olib borishi mumkinligini, aynan yoshligi tufayli anglamganini idrok qilish qiyin emas. Bundan ko‘rinib turibdi-ki, biror bir davlatning salgina e’tiborsizligi va g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘yishini kutib turgan manfaatparasat kuchlar hamma yerda yetarlicha topiladi. Negaki biror davlatda notinchlik yuz bersa ularning oshig‘i olchi bo‘ladi. Ya’ni qurol yaroq, jinoyatchilik, narkobiznes, odam savdosi va mafkuraviy hurujlarni bemalol amalga oshirishda qulay joyga aylanadi. Axborot ko‘rinishidagi mafkuraviy tahdidlar qurshovida qolgan mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan inqirozga yuz tutishi va natijada yaxshigina o‘ljaga aylanishi aniq. Yuqoridagi muammolarning tub mohiyatini izlaganimizda, ijtimoiy fanlarning rivojlanmay qolgani, katta avlod va yosh avlod o‘rtasidagi qarashlardagi katta tafovudlar, o‘zini ko‘pincha axborot almashinuvi sohasida sezilarli ta’sir ko‘rsatib, qarashlar o‘rtasidagi tafovud paydo bo‘lishiga olib keldi. Shu sabab, ijtimoiy fanlarning qisqartish kerak, degan qarashlar shakllanmoqda. Bugungi vaziyat ijtimoiy gumanitar fanlar sohalarini qisqartirish emas, aksincha, ularni faoliyatini qaytadan tashkil etish orqali amalga oshirish lozimligini ko‘rsat-

moqda. Ushbu yo‘nalishlarda oliy ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy gumanitar fanlar – milliy g‘oya va mafkura, axborot xavfsizligi, siyosatshunoslik, dinshunoslik, sotsiologiya, falsafa kabi fanlarni nomutaxassis fanlarga ham yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitib borish lozim. Masalan, AKT bo‘yicha malakali mutaxassis o‘zining sohasidan foydalanib o‘zganing yoki davlatning mulkiga nisbatan kiberhujumlar uyushtirish orqali talon-tarajlik holatlari yoki davlat rahbari hamda vakolatli davlat organi nomi ostida fuqarolardan tovlamachilik, firibgarlik orqali pulini o‘zlashtirish hollari soat sayin oshib bormoqda. Shu o‘rinda bu yerda soha mutaxassisining ma’naviy va diniy bilimlarni to‘g‘ri berilmaganligi bo‘lsa qurbonga aylangan fuqarolarning axborot xavfsizligi madaniyati shakllanmaganligi tufayli yuqoridagi ko‘ngilsiz holatlar sodir bo‘lmoqda. Bu biz yuqorida tilga olgan ijtimoiy fanlarning zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilmaganligi tufayli ta’lim va tarbiya sohasidagi oqsashlar vujudga kelmoqda desak adashmagan bo‘lamiz. Shuning uchun ham yetishib kelayotgan kadrlar ongini axborot xavfsizligi jihatdan tahdidbardosh, g‘oyaviy va mafkuraviy immunitet mustahkamligi asosiy vazifani bajaradi. O‘ylab qarasak ijtimoiy fanlardagi usullar davrga nisbatan eskirgan, natija qoniqarli bo‘lmagandir. Lekin u degani butunlay olib tashlash kerak degani emas balki, o‘qitish usul va vositalarini qayta ishlab chiqish orqali yangiliklar kiritish shart va ta’lim berishni davom ettirish lozim. Xulosa o‘rnida ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali mafkura xalqning, ta’bir joiz bo‘lsa, kelajak avlodning ongi va shuuriga singdiriladi. Millatning ezgu niyatlari, va maqsadlarini o‘zida ifodalaydigan mafkura barchani vatan taraqqiyoti yo‘lida birgalikda, bir maqsad yo‘lida safarbar qila olish qudratini o‘zida jamlagan bo‘lishi hamda o‘zining ortidan xalqni ergashtira olishi lozimligi ana shu fanlar orqali yetkaziladi. Ammo globallashuv sharoitida mafkuraviy jarayonlar o‘zining avj pallasiga ko‘tarilgan bir paytda muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy fanlar va ularning negizida turgan mafkura va ma’naviyat bilan bog‘liq fanlarga ularni muvofiqlashtirish jamiyatga mafkuraviy jarayonlarning mohiyatini yetkazib berish bilan bog‘liq jihatlarga yetarlicha e’tibor axborot media makonida axborot xavfsizligi va undan to‘g‘ri va tizimli tahlil qilishni yo‘lga qo‘yish bugunning talabidir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” –T.: “O‘zbekiston” , 2022*

*2. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -Toshkent: O‘zbekiston, 2-jild, 2018.*

*3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – 1– jild, T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.*

*4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2020.*

*5. O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxafvsizlik to‘g‘risida” Qonuni , 15.04.2022-yildagi O‘RQ-764-son. 1-modda.*

*6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdqilash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori.*

*7. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.*

*8. Sh.To‘rayev. Ma’naviy tahdidlar: falsafiy tahlil. T.: 2010-y. “Muharrir”*

*9. Falsafa: Qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004.*

*10. Ijtimoiy safarbarlik. Sh.To‘raev N.Xusanova. Toshkent – 2022 Ma’naviyat.*

*11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev. Toshkent 2006-2008.*

*12. Malikova T.V. Shatrova O.V. Psixologicheskaya bezopasnost. Uchebnoe posobie. – M.: “Drofa”, 2008.*

*13. Tashanov A. Buzg‘unchi g‘oyalarning milliy o‘zlikni anglashga salbiy ta’siri. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – T. 2017.*

*14. Mustafayeva Sh.F. Psixologicheskie osobennosti manipulyativnogo vozdeystviya v destruktivnыx kultovыx organizatsiyax (na primere molodejnыx grupp). Avtoref. ... kand. psixol. nauk. – T. 2012.*

*15. Sheynov V.P. Skrытое upravlenie chelovekom. – M.: “AST-press”, 2002.*

https://lex.uz/uz/docs/5960604

https://t.me/cyber_102

https://iiv.uz/oz/news/kiberjinoyatchilikka-qarshi-kiberxavfsizlik

https://iiv.uz/oz/news/kiberjinoyatchilikka-qarshi-kiberxavfsizlik

## IJTIMOIY TARMOQLARDAN TA’LIM JARAYONLARIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Alisher MADRAXIMOV,**
*ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi,*
*institut mustaqil izlanuvchisi*

***Annotatsiya.*** *mazkur maqolada ta’lim jarayonlarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish samaradorligi, uning imkoniyatlari hamda bugungi o‘quvchi-yoshlarning dunyoqarashi hamda fikrlashida ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri qay darajad ekanligi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim, ijtimoiy tarmoq, klipli taffakkur, axborot, Facebook, Twitter, internet, geosiyosat.*

Dunyoning yetakchi oliy ta’lim va ilmiy tekshirish muassalarida yoshlarni turli xil ijtimoiy xavflardan himoya qilish, jumladan, internet va ijtimoiy

tarmoqlarning yosh avlodga ta’siri, yoshlarning kompyuterda ko‘proq vaqt sarflashlari natijasida tobelik muammolari ustida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar bolalar axborot xavfsizligini ta’minlash, ijtimoiy tarmoqlarni pedagogik, psixologik va ijtimoiy nuqtayi nazardan tadqiq etish, ijtimoiy tarmoqlarning o‘quvchilar dunyoqarashi rivojlanishiga ta’sirini o‘z vaqtida va to‘g‘ri baholash, uni tartibga solish imkonini yaratmoqda.

Zamonaviy dunyoda Internet-media insoniyatning taraqqiyot yo‘lidagi eng muhim yutuqlaridan biri va jamiyatdagi muhim o‘rni va ahamiyati tufayli hayratlanarli sur’atlarda rivojlanayotgan eng qimmatli ommaviy axborot vositalaridan biri xisoblanadi [1]. Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar dunyo davlatlarining geosiyosiy va mafkuraviy maqsadlarini amalga oshuruvchi hamda insonlarga, jamiyatga ta’sir etuvchi vosita sanaladi.

Bugungi kunning yoshlari ongida “kilipli tafakkur” qaror topayotganligi sabali ijtimoiy tarmoqlar dunyoni zabt etmoqda. Chunki aynan ijtimoiy tarmoqlardagi beriladigan xabarlar va medialar qisqaligi, tugalligi hamda yoshlarning toqat darajasiga mosligi bilan izohlanadi.

Shu o‘rinda kilipli tafakkur atamasiga izoh berib o‘tish maqsadga muvofiq sanaladi. Klip tafakkuri (ingliz tilidan. clip, “matn bo‘lagi”, “qirqish”) – fikrlash turi bo‘lib, unda odam axborotni bo‘laklarga bo‘lib, qisqa bo‘laklarda va jonli tasvirlarda idrok qiladi, diqqatini jamlay olmaydi va doimo biridan ikkinchisiga sakrab o‘tadi. Bunday odamlar uchun katta matnlarni, ayniqsa, kitoblarni o‘qish yoki ustida ishlash, uzun video va filmlarni tomosha qilish juda qiyin [2].

Shunday qilib, televizor, kompyuter o‘yinlari, internet va hatto zamonaviy adabiyotlar ta’siri ostida yosh avlodning aksariyati tafakkurning o‘ziga xos turini – “klip tafakkurini” shakllantirmoqda.

Bunday holat nafaqat insonning atrofdagi dunyoni idrok etishiga ta’sir qiladi, balki uni turli jihatlarda o‘zgartiradi. Klipli tafakkur qiladigan odam uchun:

- bilimlarni o‘zlashtirish koeffitsienti kamayadi;
- axborot iste’moli bo‘laklanadi;
- mantiqiy aloqalar o‘rniga hissiy aloqalar quriladi;
- empatiya va mas’uliyat hissi zaiflashadi.

B.M.Frumkinning so‘zlariga ko‘ra, klip-fikrlash insonning ma’lumot bilan munosabatlarining yangi darajasini rivojlantirish vektori bo‘lib, u turli xil semantik qismlar o‘rtasida tezda almashish qobiliyati, shuningdek, ma’lumotni bir xil uzun chiziqli ketma-ketlikni idrok eta olmaslik bilan tavsiflaydi. Frumkin “klipli tafakkur”ning paydo bo‘lishi va shakllanishiga yordam bergan besh omilni keltiradi[3]:

- hayotning tezlashgan sur’ati va keyinchalik asosiy hamda ikkilamchi bo‘lgan axborot oqimi hajmining oshishi va uni tanlash, filtrlash hamda farqlash uchun ortiqcha og‘irlik;

• tizimli ravishda yangilanadigan ma’lumotlar;
• kiruvchi axborotning xilma-xilligini oshishi;
• ilg‘or ko‘p vazifalarni bajarish;
• ijtimoiy tizimning turli darajalarida demokratiya va doimiy muloqotni mustahkamlash.

Klip tafakkurini shakllantirishning ijobiy tomonlari ham bor, albatta. Sivilizatsiya nazariyasiga ko‘ra, M.Maklyuhan, jamiyat o‘z taraqqiyotining hozirgi bosqichida elektron jamiyatga aylanib bormoqda, bunda internet va ijtimoiy tarmoqlar dunyoning ko‘p qirrali idrokini yaratadi [4]. Natijada axborotni parchalash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali shaxs “ko‘p vazifali” bo‘lib qoladi, ya’ni u oddiy harakatlar va tez-tez takrorlanadigan, past konsentratsiyali harakatlar o‘rtasida juda tez o‘tishni o‘rganadi. Aslida, bu ko‘p vazifa oddiy parchalanish va bir jarayondan ikkinchisiga tez o‘tishdir. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmaklarini maxsus o‘quvlar orqali o‘rganmasdan turib bilish imkoniyati oshmoqda.

Shunday bir vaziyatda ijtimoiy tarmoqlardan ta’lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari qanday degan savol paydo bo‘ladi o‘z o‘zidan. O‘quvchi yoshlar shunday ma’lumot va kommmunikatsiya imkoniyatlariga egaki, ularni avvalgi imkoniyatlari bilan taqqoslab ham bo‘lmaydi. Bilim va texnologiyalar asrida ijtimoiy tarmoqlar boylik to‘plash va madaniyatning gullab-yashnashida shunday amaliy o‘rinni egallaydiki hatto bu holat inson dunyoqarashini ham o‘zgartirib yuboradi. O‘quvchi yoshlarni so‘nggi yangiliklar, taraqqiyot yo‘lidagi eng muhim qadamlar, eng ajoyib ilmiy yutuqlar, samarali ijtimoiy dasturlar va tadbirlar, dam olish, hordiq chiqarish va o‘yin-kulgilarning eng qiziqarli masalalari, eng qiziqarli sport tadbirlari, eng foydali tarixiy-geografik ma’lumotlar, eng qimmatbaho adabiy asarlar va h.k. ega bo‘lishi, dunyoqarash sohasida munosib o‘rin egallaydi.

Ta’lim uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning turli usullari mavjud. Ta’limning turli bosqichlarida turli usullarda va maqsadlarda foydalanish imkoniyatini beradi hamda ta’lim muassasining reklamasini, unga kelib o‘quvchi o‘quvchilarning sonini oshishiga olib keladi.

Ijtimoiy mediadan foydalanishdan oldin uning ta’limga ijobiy ta’sirini tushunish muhim sanaladi. Ijtimoiy tarmoqlar ta’limda va ta’lim olish jarayonlarida deyarli hamma narsani osonlashtiradigan kuchga ega ekanligini inobatga olgan holda undan foydalanishning 7 ta samarali imkoniyatlarini aniqladik.

*1. Ijtimoiy tarmoqlarning ta’limdagi afzalliklari*

Ijtimoiy media va texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismidir va ko‘plab talabalar ularga qanchalik moslashganini hisobga olsak, ulardan darslarda foydalanish odatiy darslardan ko‘ra qiziqroq bo‘ladi. Har bir ijtimoiy media platformasi darsda foydalanishning turli usullarini taklif etadi, e’lonlarni berilishidan to jonli ma’ruzalar o‘tkazishgacha va boshqalar.

Shu nuqtaiy nazardan, ijtimoiy tarmoqlar o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida yanada samimiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot vositasini ta’minlaydi, ular ro‘yxatdan o‘tishlari va savollar berishlari yoki ularga javob berishlari mumkin.

Masofaviy ish o‘rinlari va onlayn darslar ommalashib borayotgan bir paytda, talabalarni masofadan turib ishlashga o‘rgatish muhim saboq bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar bunga yordam beradi.

*2. Yangilanishlar va ogohlantirishlarni translyatsiya qilish uchun ijtimoiy tarmoqdaga sahifalardan foydalanish.*

O‘quvchilar uchun ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar ochish va uni kuzatish uchun ularga ruxsat berish muhim sanaladi. O‘qituvchi undan sinf yangiliklarini joylashtirish, uy vazifalarini almashish va muhokamalarni amalga oshirish uchun foydalanishi mumkin.

Ammo shuni yodda tutish lozimki, ba’zi ijtimoiy tarmoq sahifaslari hamma uchun ochiq va unda akkaunti mavjud bo‘lgan har bir kishi postlarga sharh berishi mumkin.

*3. Jonli ma’ruzalarni translyatsiya qilish va munozaralarni o‘tkazish.*

O‘qituvchilar o‘zlarining har bir darslari uchun (ham ochiq, ham shaxsiy) ijtimoiy tarmoqlarda guruhlarini yaratishlari va Live (jonli) ma’ruzalarini translatsiya qilishlari, munozara savollarini yuborishlari, uy vazifalarini belgilashlari va o‘quvchilarga turli e’lon va yangiliklarni ma’lum qilishlari mumkin. Tanaffusdan keyin darsni qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmaslik uchun eslatmalar va topshiriqlarni joylashtirish imkoniyatlari mavjud.

Ta’lim uchun ijtimoiy mediadan foydalanganda, professional chegarani ta’minlash muhim sanaladi, shuning uchun ijtimoiy tarmoqda guruh yaratishda o‘qituvchilar do‘stlik so‘rovlarini yuborishlari shart emas. Ota-onalar va talabalarga guruhga kirish uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri havolani elektron pochta orqali yuboring. Eng muhim afzalliklardan yana biri bu ota-onalarning darslarda ishtirok etgan holda o‘z farzandini o‘zlashtirishi, darslarda o‘zini tutishini nazorat qilishi imkonini beradi.

*4. Twitterdan sinf xabarlar doskasi sifatida foydalanish.*

Twitter sinf uchun muhokama sahifasi yoki xabarlar doskasi sifatida ajoyib imkoniyat bo‘lishi mumkin. Tiwitterning 280 belgi ishlata olish chegarasi talabalarni qisqa va samarali muloqot qilish bo‘yicha tanqidiy fikrlashga majbur qiladi, bu esa rivojlanish uchun foydali hisoblanadi.

O‘qituvchi Twitterdan topshiriqning tugash sanalari haqida eslatmalarni joylashtirish yoki motivatsiya beruvchi iqtiboslar va amaliy viktorinalar yoki foydali resurslar uchun havolalarni baham ko‘rish maqsadida foydalanishi mumkin. O‘qituvchi, shuningdek, o‘zlari yaratgan ma’lum bir hashtag atrofida munozaralar va Twitter chatlarini yaratishi imkoniyatlari mavjud.

*5. Munozaralar uchun sinf blogini yaratish.*

Blog postlarini yozish talabalarga raqamli kontent uchun yana bir imkoniyat beradi, ular keyinchalik sinf ijtimoiy kanallariga osongina ulanishlari mumkin. WordPress, SquareSpace, Wix, Blogger, Tumblr yoki Medium kabi turli xil platformalar mavjud bo‘lib, ularda o‘qituvchilar sinf blogini yaratishi mumkin. Talabalar muhokama postlarini yaratish yoki sinf ko‘rsatmalariga sharh qo‘shish uchun o‘z foydalanuvchi hisoblarini yaratishi mumkin.

*6. Blog postlarini insho sifatida belgilang.*

Bloglar semestr yoki yil davomidagi topshiriq sifatida talabalarning qisqa shakldagi yozish va tanqidiy fikrlashni yaxshilashi imkonini beradi. Talabalardan o‘qituvchi haftalik ko‘rsatmalarga javob berishlarini so‘rashi, bu unda mas’uliyat va javobgarlik hissini shakllantiradi. Shuningdek, o‘quvchilar blog postlarni yozishi natijasi unda ko‘nikma va tajriba hosil bo‘ladi unda jurnalistik mahorati shakllanadi.

*7. Qiziqishlarga asoslangan guruhlarni yaratish.*

Ko‘p odamlar o‘zi ta’lim olgan muassasani tark etgandan keyin ham o‘z tehsil olgan joyni keyinchalik qumsaydi yoki uni unutmaslikka harakat qiladi. Ayniqsa universitet bitiruvchilarida bu hodisa kuchli sanaladi. Joriy talabalar va bitiruvchilar uchun Facebook guruhlarini yaratish faollik va maktab ruhini oshirishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida aytib o‘tilgan barcha fikrlar ta’lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ta’limi imkoniyatlarini va afzalliklarini ko‘rsatadi. Buni biz ayniqsa COVID-19 pandemiyasi davrida ta’limni tashkil etish va amalga oshirish jarayonlarida oz bo‘lsa ham tajribamizdan angladik.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda o‘qituvchilar texnologik qobiliyatini va o‘quvchilarning o‘qishga jalb etilishini yaxshilashlari mumkin. Bu, shuningdek, darslarda yaxshi hamkorlik tuyg‘usini ta’minlaydi va talabalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini yaxshilaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar faqatgina iqtisod sohari va tarmoqlarida emas balki ta’limda ham samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud ekanligini isbotlaydi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. http://zertteushi.kz/ №5(49)-2010.pdf*

*2. Что такое клиповое мышление и как извлечь из него пользу Подробнее на РБК: https://trends.rbc.ru/trends/innovation/60dad2ce9a794760a59e66f5*

*3. Клиповое мышление: чем отличаются “люди экрана” от “людей книги”? // Портал “моноклер” – URL: https://monocler.ru/klipovoemyishlenie/*

*4. Теория медиа Маршалла Маклюэна: как мы оказались в глобальной деревне? // Портал “моноклер” – URL: https://monocler.ru/teoriyamedia-marshalla-maklyuena/*

# YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLAR VA MA’NAVIY MEROSNI TARG‘IB ETISHNING AHAMIYATI

**Dilmurod YAXYAYEV,**
*Toshkent shahar Uchtepa tumani*
*238-maktab Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada O‘zbekistonda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ma’naviy meros hamda milliy qadriyatlarimizning ahamiyati haqida so‘z boradi. Yurtimizda buyuk olim va allomalarimiz merosiga qaratilayotgan e’tibor tilga olinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *yoshlar, ma’naviyat, qadriyat, ma’naviy meros.*

O‘zbekistonda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, buyuk ajdodlar xotirasini yodda saqlagan holda, e’zozlab, yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatish, ularni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Binobarin, xalqimizning siyosiy tafakkuri, ijtimoiy faolligi va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usi tobora ortib borayotgan hamda bosib o‘tilgan shonli yo‘limizga nazar tashlar ekanmiz, Konstitutsiyaning yangi tahrirdagi 65-moddasida keltirilganidek, “yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish to‘g‘risida”gi masalalarda davlat va jamiyat g‘amxo‘rlik qiladi.

Yangi O‘zbekiston barpo etilayotgan bugungi kunda mamlakatimizga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyatimiz va ma’naviy qadriyatlarimizni jahon ahli tan olayotgan bir davrda ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shunda biz, o‘tmishdagi buyuk zotlarimiz: “Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o‘z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g‘oyalarida mujassam bo‘ldi”[1.16], deb ayta olamiz. Ular qoldirgan ulkan ma’naviy merosdan o‘rnak va ibrat olib, bu g‘oyani yoshlar ongiga tezroq etkaza olamiz hamda ularning ilmga, tariximizga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yanada oshiramiz, ularda milliy g‘urur shakllanishiga, ma’naviyatini yanada yuksaltirishga imkon yaratgan bo‘lamiz.

Yangi O‘zbekistonning buyuk ne’mati bo‘lgan erki va ozodligi xalqimizning sa’y-harakati, barakali mehnati va ijodiy faoliyatidan kelib chiqish bilan birga, Turon zaminda voyaga etgan hamda jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shib, o‘z g‘oyalari, tafakkuri bilan o‘zbek milliy g‘oyasiga asos solgan ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi va sermazmun

tariximizga ham tayanadi. Har bir millatning o‘ziga xos jihatlarini, xususan, ma’naviyatini shakllantirishda eng avvalo, beqiyos ta’sir kuchiga ega bo‘lgan milliy qadriyatining o‘rni katta. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, buyuk zotlar ma’naviy merosining, xususan, allomalarimiz ta’limotlarining o‘rni va ahamiyati katta. Katta umidlar bilan olg‘a qadam tashlayotgan O‘zbekiston bugungi kunga kelib, taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Dunyo tamaddunida yurtimizni “Yangi O‘zbekiston”, “Yangilanayotgan O‘zbekiston” kabi nomlar bilan e’tirof etmoqdalar. “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan ezgu ishlarning amalga oshirilayotgani bu yurtda istiqomat qilayotgan har bir insonning baxt-saodati uchun xizmat qilmoqda. Bu e’tirof yangi davlat va jamiyat qurish yo‘lida tarixiy ishlarni amalga oshirgan xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati, bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlari hamda olib borilgan keng ko‘lamli islohotlarga nisbatan izhor etildi, deyish mumkin. Buyuk ajdodlarimizga xos azmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg‘ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyat hayotini tubdan yangilash yo‘lini izchil davom ettirish bugungi kunda eng dolzarb vazifadir.

O‘zining noyob asarlari hamda olamshumul kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk mutafakkir va qomusiy olimlardan biri, Ilk Renessans davrining yorqin namoyandasi Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma’rifiy merosini yanada chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida” gi PQ-361-son qarori”[2] ning qabul qilinishi va unga ko‘ra, buyuk ajdodimiz yubiley tantanalarini nishonlashga jiddiy tayyorgarlik ko‘rilishi va munosib nishonlashga doir vazifalarning belgilanishi ayni muddao bo‘ldi. Jumladan, 2022-2023-yillarda buyuk mutafakkir, qomusiy olim, tabiatshunoslik asoschilaridan biri Abu Rayhon Beruniy majmuasi qurilishining rejalashtirilishi, bog‘ barpo etilishi, kitoblarining chop etilishi va shu kabi ezgu ishlarning amalga oshirilishi maqsad etib qo‘yilganligi yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda Beruniyning ijodiga katta e’tibor berib kelinmoqda. Uning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi haqida H.Abdullayev, I.Mo‘minov, V.Zohidov, Ya.G‘ulomov, U.Karimov, S.Bulgakov, A.Sharipov kabi olimlar risola, asarlar yaratdilar. Unga bag‘ishlangan qator xalqaro ilmiy konferensiyalar o‘tkazildi va bugungi kunda ham bu ishlar davom ettirilmoqda. Beruniyning “Qadimgi yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mas’ud qonuni”, “Geodeziya”, “Saydana” kabi asosiy asarlarini o‘z ichiga oluvchi ko‘p tomli saylanma asarlari o‘zbek va rus tillarida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilib, kitobxonlar jamoasiga etkazildi. Shuningdek, 2010-yilda chop

etilgan kitoblar orasida faylasuf olim B.Turaev tomonidan “Abu Rayhon Beruniy” kitobchasi, 2019-yilda esa olima G.Masharipovaning “Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri” nomli monografiyasi ham nashr qilindi”[3].

Dunyo ilm-fani rivojiga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniyning nomi mangulikka daxldor. Uning ilmu ma’rifat o‘rganish orqali olamni ezgulikka, taraqqiyotga etaklash maqsadida avlodlarga qoldirgan buyuk merosi insoniyat uchun bebaho xazina, shu bilan birga, biz avlodlarga qoldirgan ilmiy va ma’naviy merosi beqiyosdir.

Qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Forobiy va Ibn Sino bilan bir qatorda turuvchi Sharq “Uyg‘onish davri”ning eng mashhur namoyandasi. O‘z davrida birinchi bo‘lib Yerning shar shaklida ekanligini va u quyosh atrofida aylanishi g‘oyasini ilgari surgan, keyinroq Er radiusini katta aniqlik bilan o‘lchagan.

Buyuk alloma o‘zidan so‘nggi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o‘z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma’lum. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmokognoziya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug‘ullanib she’rlar yozdi. “Astrologiyaga kirish”, “Astronomiya kaliti”, “Jonni davolovchi quyosh kitobi”, “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”, “Ko‘paytirish asoslari”, “Ptolemey “Almagest”ning sanskritchaga tarjimasi”, “Foydali savollar va to‘g‘ri javoblar”, “Farg‘oniy “Elementlar”iga tuzatishlar”, “Turklar tomonidan ehtiyotkorlik”, “Oq kiyimlilar va karmatlar haqida ma’lumotlar”, “She’rlar to‘plami”, “Al-Muqanna haqidagi ma’lumotlar tarjimasi”, “Ibn Sino bilan yozishmalar” shular jumlasidandir. Bularning bari Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosining keng o‘rganilishi, yoshlar qalbi va ongiga milliy g‘oyaning chuqur singdirilayotganligi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekistonning bugungi yoshlari sharoit va yangi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk allomalar va ustozlardan ibrat olib ish yuritsalar, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini to‘liq egallaydilar, mamlakat taraqqiyoti, yuksalishi uchun yetuk va malakali kadrlar bo‘lib yetishadilar.

Yangi O‘zbekistonda boshlangan islohotlar, kelajak sari tashlanayotgan dadil qadamlar bardavom bo‘lishini ta’minlashda dunyoda o‘ziga yarasha yuksak salohiyati, benazir nufuziga mos ravishda o‘rin egallayotgan mustaqil O‘zbekiston atalmish davlat bor ekan, bu yurtda ana shu nomga munosib millat yashamoqda. Bu yurtda uning ota-bobolari, avlod-ajdodlari,

buyuk zotlari yashab o‘tgan. Ayni paytda bu borada to‘plangan tajriba, ana shu buyuk zotlarimizning bebaho merosi hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi, o‘zbek millatining kelajagi buyuk davlat qurishda jahon ayvonida turib, o‘z iymoni, e’tiqodlari, ma’naviy ruhlari bilan qo‘llab-quvvatlab, olg‘a etaklaydi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrda Parlament va o‘zbek xalqiga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek” “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”[4].

Yangi O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yilgan hozirgi davrda Uchinchi renessans poydevorini yaratishga bel bog‘langan. Ana shu maqsadni ko‘zlagan Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “milliy ma’naviyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo‘lyozmalarini o‘rganish, mavjud nusxalarini yurtimizga olib kelish, atroflicha tadqiq qilib, xalqimizga etkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilishi”[5.34] yo‘lida amaliy harakatlarga undab kelmoqda. Ana shu maqsadda YAngi O‘zbekistonda buyuk allomalarimizning bebaho merosini chuqur o‘rganish va uni keng jamoatchilikka etkazish ustuvor masalalardan biriga aylangan. Zero, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz hamda jadid bobolarimiz, xalqimizning ma’rifatparvar farzandlari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi buyuk bobolarimiz vasiyatlari va ular qoldirgan ulkan ma’naviy merosdan o‘rnak va ibrat olib, bu g‘oyaviy ta’limotni yoshlar ongiga singdira qanchalik darajada singdira olsak, ularning tariximizga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirgan bo‘lamiz.

Vatanimiz kelajagi bo‘lgan barkamol avlodni etishtirish uchun millatimizning har bir vakili o‘z farzandini milliy g‘oyamiz, qadriyatlarimiz, tilimiz, qadimiy tariximiz, madaniy boy o‘tmishimizda chuqur iz qoldirgan buyuk siymolarimizga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga, jahoniy o‘zigagina xos bo‘lgan insonparvarlik, baynalmilallik, samimiylik va bag‘rikenglik ruhida ham tarbiyalashimiz, bugungi kunda har qachongidan ham zarurroqdir.

Yoshlar masalasi e’tibor markazidan, kun tartibidan o‘rin olganining sababi, avvalo, aholining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan yoshlar miqdor jihatidan yirik qatlam, katta kuch hisoblanadi. SHuningdek, yoshlar

kuch-quvvatga to‘la, g‘ayratli bo‘lgani uchun ular boshqa guruhlarga nisbatan faol, yangiliklarga ochiq, innovatorligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. SHu bois, Prezident, “biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”[6], deb ta’kidlagani ham bejiz emas.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.–Toshkent: O‘zbekiston, 2021.–B.16.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-361 sonli qaror www.xabar.uz › jamiyat › abu-rayhon-beruniy– https://lex.uz/docs/6172044.*

*3. Masharipova G. Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2019.*

*4. Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.*

*5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.– B.34.*

*6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi https://president.uz/uz/lists/view/4057*


ZJV5401

# КЛАССИФИКАЦИЯ УГРОЗ И КОНФЛИКТОВ, СВЯЗАННЫХ СО СТАБИЛЬНОСТЬЮ И БЕЗОПАСНОСТЬЮ ОБЩЕСТВА

**Отабек РАХМАТОВ**
*Начальник отдела по работе с молодежью и просвещение духовности.*
*в филиале РГПУ им.А.И.Герцена в г.Ташкент.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассмотрена классификация угроз и конфликтов, связанных со стабильностью и безопаснастью общества. Безопасность человека и общества предполагает поиск ответов на вопросы: что такое безопасность и насколько познаваемо это явление? Принимая эти вопросы в качестве исходной методологической посылки, важно подчеркнуть, что такая плоскость исследования проблемы предполагает наличие конкретных аспектов проявления в социальном пространстве.*

**Ключевые слова:** *безопасность, безопасность общества, стратегия и феномены безопасности.*

В современном обществе проблема обеспечения безопасности человека и общества одна из самых актуальных. В социальной философии теория понимания безопасности объективно считается кардинальной, так как события последних лет свидетельствуют о том, что современное общество и человек, как представитель техногенного социального вида, порождает противоречия, провоцирующие глобальные потрясения, активно влияющие на многомерное социальное пространство. “Такое понимание природы человека означает, с одной стороны, истолкование человека как закономерного результата эволюции нашей Вселенной, а с другой – одновременно как исходного пункта этой эволюции, как одного из глобальных потенциальных аттракторов, незримо направляющих весь ход и общую траекторию” [1].

В связи с этим становится особенно интересной безопасность человека и общества. Современными учеными достаточно хорошо изучена многофакторность, вариативность разбалансированности социальных отношений в финансово–экономической сфере, но недостаточно полно исследована в социальной, политической и духовной сферах.

Актуальность безопасности человека и общества обусловлена следующими обстоятельствами [2]:

Во-первых, уточнением специфики взаимодействия различных социально-политических субъектов на общественную жизнь, так как, не будучи изолированной от других сфер общественной жизни, сфера без-

опасности является эффективным механизмом урегулирования социальных конфликтов, ликвидации последствий кризисов, препятствующих поступательному общественному развитию и стабильности.

Во–вторых, необходимостью преодоления заблуждений, связанных с абсолютизацией воздействия государственных структур, власти на сферу безопасности. Сфера безопасности не является моно субъектной, что не исключает возможности привлечения широкого круга организаций. Сегодня системно проявляется и объективно складывается разветвленная система общественно– государственного влияния на общественные отношения, что предполагает разработку комплексной безопасности, охватывающую все сферы жизнедеятельности современного общества. Активные действия в сфере безопасности позволяют любому субъекту реализовывать позитивное взаимодействие, осуществлять диалог в обществе и на международной арене. "На рубеже XXI века эта новая дилемма современности начинает материализовываться в необходимость мобилизации ресурсов для международного сотрудничества, дальнейшего совершенствования глобальной стратегии борьбы с международным терроризмом, разработки и использования новых форм и средств защиты прав и свобод человека и гражданина, укрепления демократических устоев общества".

В–третьих, наличием определенной зависимостью между характером вовлечения общественных структур в регулирование сферы безопасности. В этом случае граждане и общество являются партнерами власти и продуктивно развиваются институты безопасности (Советы безопасности, специальные службы, антитеррористические комитеты, экспертные группы), обеспечивающие эффективные регулирующие воздействия социально–политических субъектов на сферу безопасности. В–четвертых, недостаточной степенью удовлетворения потребностей, интересов человека и общества в эффективной безопасности. Мировой финансово–экономический кризис, политические конфликты, военные столкновения продемонстрировали объективную зависимость между социальным самочувствием граждан, качеством государственного регулирования и необходимостью достижения комплексной безопасности. "Безопасность (включающая в себя такие ценности, как национальная и семейная безопасность, мир во всем мире, общественный порядок, вежливость, уважение к старшим, здоровье, социальная справедливость, уважение традиций, благополучие). Этот ценностный блок главным образом мотивирует стремление к стабильности общественной системы".

В системе обеспечения национальной безопасности при создании приемлемых условий для развития государства необходимо реали-

зовывать силовые функции. Именно силовой фактор в современном обществе обеспечивает безопасность, стабильность и гарантирует, как считает большинство современных политических лидеров, способность своевременного реагирования на угрозы с учетом возможностей и перспектив развития социального пространства.

Так, например, в "Стратегии национальной безопасности США" в качестве главных условий реализации безопасного существования выделяются: "во-первых, готовность американцев платить долларами, политическими усилиями и жизнью за безопасность; во–вторых, активная двухпартийная поддержка со стороны американского конгресса; в–третьих, способность американской администрации реализовывать "лидерство в мире с таким расчетом, чтобы оно отражало … национальные ценности и обеспечивало безопасность этой страны"[3].

В результате, сегодня политика безопасности США опирается на силовые функции государства, что особенно актуально в связи с событиями в Ираке, Ливии и Сирии. Государственная безопасность рассматривается как стратегическое средство обеспечения целей национальной безопасности, что характеризует способность государственных структур обеспечивать суверенитет, конституциональный строй и целостность страны, которая предполагает прогрессивное и устойчивое развитие. Государственная безопасность аккумулирована в политической сфере и предусматривает защиту конституционного строя и власти. Другие сферы жизнедеятельности американского государства осуществляются в контексте государственной безопасности только в том случае, если происходящие события угрожают политическим аспектам и затрудняют процесс обеспечения безопасности.

С учетом позитивного сценария развития безопасного мира, необходимо в систему национальной безопасности заложить принцип постоянного поиска оптимальной стратегии отражения угроз, чтобы исключить максималистский подход в решении вопросов, касающихся сферы безопасности[4]. Определяющим моментом в такой стратегии национальной безопасности должно быть требование гарантированного движения в безопасной реальности и мирному сотрудничеству. Это означает, что наряду с мобилизационными элементами безопасности человека и общества очень важно значение принципиально новых элементов, поддерживающих конкурентоспособность и жизнеспособность общества. Для выработки комплексной безопасности и успешной реализации ее на практике необходима соответствующая система общественных отношений, инновационные структуры с элементами гражданского общества. Это позволит контролировать рефлексию специализированных структур на угрозы, опасности, которые

возникают, регулировать процесс ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций, экономических кризисов, политических конфликтов, военных столкновений и социальных потрясений.

С учетом такого концептуального подхода можно сформулировать основополагающую цель политики безопасности, а именно, поддержание стабильности, прогнозирование основных социальных процессов и разумного сочетания внутриполитических, геополитических, геоэкономических, демографических условий благоприятных для прогрессивного развития современного общества

В результате сложившееся традиционное понимание безопасности как состояния защищенности хотя и изменило форму, но осталось по содержанию доминирующим (не только в современных исследованиях, но и в практике обеспечения безопасности). Вместе с тем проявившаяся в последнее десятилетие ограниченность традиционного понимания безопасности инициировала исследователей не только искать новые подходы, но и критически переосмысливать сложившиеся представления, даже если они и получили законодательное закрепление.

Таким образом, безопасность человека и общества (комплексная безопасность), иллюстрирует мозаичность смысловых значений этого сложного явления, что наглядно доказывает факт постижения сущности феномена безопасности, её понятийного определения, и особенно, комплексной безопасности.

**Список использованных литературы:**

*1. Кузнецов, В.Н. Социология безопасности / В.Н. Кузнецов. – М.: Книга и бизнес, 2003. – 880 с.*

*2. Викторов, А.Ш. Введение в социологию безопасности / А.Ш. Викторов. – М.: Канон, РООИ "Реабилитация", 2008. – 568 с.*

*3. Рыбалкин, Н.Н. Философия безопасности / Н.Н. Рыбалкин. – М.: Московский психолого–социальный институт, 2006. – 296 с.*

*4. Ларин, В. Безопасность развития и развитие безопасности / В. Ларин // Свободная мысль. – 2008. № 7. С. 40–43.*

ZJV5401

# YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI VA OMILLARI

**Kamoliddin TO‘RAYEV,**
*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi*

Davlat yoshlar manfaatlarini ta’minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, katta maqsadlar sari safarbar etish uchun mamlakatdagi barcha sektorlarni jalb etmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning integrasiyalashuvi, jahonning bir burchagida paydo bo‘lgan g‘oyalar, yangiliklar hamda ijtimoiy qarashlarning boshqa hududlarga tezkorlik bilan yoyilishini xalqaro globallashuvning ajralmas fenomeni sifatida e’tirof etish mumkin. Ijtimoiy jarayonlarda harakatlantiruvchi kuch sifatida yoshlar qatlamining o‘rni va roli katta.

Zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalari ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, uning har bir foydalanuvchisi tobora “virtual olam”ning “virtual odam”iga aylanib bormoqda. O‘z farazlarida boshqalar bilan bir qatorda ommaviy kommunikatsiya vositalaridagi inqilob natijalariga tayanayotgan postmodernizm “virtual” ta’rifini olgan yoshlar o‘zgacha zamon va ideosferaning yangicha “mezonini” nazarda tutadi. “Virtuallik” tushunchasi hozirgi vaqtda eng yangi multimediali audiovizual va komp’yuter texnologiyalari imkoniyatlariga taqqoslanadi, bular yordamida mutloq ishonchli sifatida idrok etiladigan va boshdan kechiriladigan hom xayollarni (illyuziya) yaratish mumkin bo‘ladi.

Axborot – atrof-muhit obyektlari va hodisalarining ko‘rsatkichlari, xususiyatlari va holatlari to‘g‘risida ma’lumotlar majmui bo‘lib, uning manbalari va taqdim etilish shaklidan qat’iy nazar, shaxs, predmet, fakt, voqea, hodisa va jarayonlar to‘g‘risidagi faktlarni o‘zida aks ettiradi. [1]

Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga murojaatnomada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yilni “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qildi va ushbu yilda mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tub burilish yasashi kerakligini ta’kidladi. “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi” [2]. Dunyoda qadriyatlar almashishi, integratsiyalashuv, globallashuv, agar ta’bir joiz bo‘lsa, madaniyatlar aralashuvi, sintezlashuvi jarayoni kechayotgan hozirgi paytda o‘zga urf-odatlarga, ma’naviy tamoyillarga moyil bo‘lishi tabiiy hol. Bugungi globallashuv davrida axborot tarqatish nihoyatda zamonaviy qiyofaga kirdi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalari, “ommaviy madaniyat” yoshlarni real hayotdan chalg‘itib, bexabar qoldirib, loqayd qiluvchi ko‘plab omillar-

ni paydo qildi. Bular: kompyuter o‘yinlari, Internet, virtual voqelik, kino hamda televidenie. Ayniqsa, pedagog, psixolog va sotsiologlar onlayn rolli o‘yinlari fenomenidan, ludomanlarning soatlab, kunlab virtual dunyolarida qolib ketishlaridan tashvishga tushmoqdalar.[3] Internet tarmog‘ining jadal rivojlanishi jamiyat hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Odamlar ish kunini internetdan boshlab, u bilan tugatadigan bo‘lib qoldi.

Kundalik hayotimizga “zamonaviy odam” degan so‘z ishlatilishi tabiiy xolatga aylandi. Bu terminga A.Y.Hos [5] o‘zining tadqiqotida quyidagicha tariflaydi: – “Axborot jamiyatining asosiy afzalliklari bilan bir qatorda, insonlarning kundalik hayotni, yangi madaniyatlar bilan boyitadi, an’anaviy turush tarzidan voz kechadi, turli eltiar madaniyatlarni o‘zlashtirib o‘zining standartini yaratadi”.

“Virtual jamiyat” nazariyasining muallifi A.Byulning fikriga ko‘ra virtual reallik texnologiyalari rivojlanishi bilan kompyuter hisoblash mashinasidan “ko‘zgulardagi” olamlarni yaratish bo‘yicha universal mashinaga aylandi. Jamiyatdagi har bir tizimcha “parallel” olamlar tomonidan shakllangan bo‘lib, bularda virtual o‘xshashliklar: internet tarmog‘ida iqtisodiy interaksiyalar va siyosiy harakatlarning amalga oshirilishi, kompyuterli o‘yinlar personajlari bilan muloqot va h.k.lar yuz bermoqda. Kompyuter yordamida o‘ziga xos olam, jamiyat yaratishga ta’sir ko‘rsatish jarayonini A.Byul virtuallashuv (virtual olam) deb ataydi.

Berilgan fikrdan quyidagicha xulosa qilish mumkin: virtual voqelikka kirib ketish orqali insonlar o‘rtasida real voqelik va haqiqatdan uzoqlashtirishga olib kelmoqda. Natijada bu jarayon har bir etnik guruh va jamoada o‘z aksini topib, insonlarning ijtimoiylashuv jarayonlari virtual maydonga ko‘chib o‘tdi. O‘z navbatida turli ijobiy va salbiy xususiyatlari bilan namoyon bo‘lmoqda.

Virtual voqelik hodisasini ta’riflashga bo‘lgan bunday keng ko‘lamli yondashuvlar ushbu toifaga falsafa va umuman gumanitar bilimlarga qiziqishning ortishi, virtualning murakkabligi, ko‘p qirraliligi va nomuvofiqligi haqida gapiradi. Zamonaviy falsafiy nutqda virtual voqelik hodisasiga oid ko‘p qirrali ilmiy qarashlar bir-biriga zid bo‘lsada, shu bilan birga, qarashlarning bunday ko‘pligi o‘rganilayotgan obyektni ko‘p qirrali asosda ko‘rib chiqishga imkon beradi. U, ijtimoiy hayotda virtuallik faoliyatining o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish, aynan shu ko‘p o‘lchovli, ko‘p qiymatli yondashuv virtual haqiqat fenomenini eng yaxshi tarzda tavsiflaydi.

Yosh avlodning eng kichik vakillari ham bugun “podpischik”, “layk”, “spam” nimaligini juda yaxshi biladi. Ayonki, texnik taraqqiyotni to‘xtatish mumkin emas: Biz buni xohlaymizmi-yo‘qmi, kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o‘ringa ega, kompyuter savodxonligi ko‘rsatkichi esa ko‘p hollarda insonning yuqori saviyasini belgilab beruvchi omilga aylanib bormoqda.

Yana shuni qayd etish joizki, so‘ngi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim yoshlarning xalq orasida obro‘-e’tibor qozongan ahli ilm, imom, ulamolarni masxaralab, obro‘sizlantirishga qaratilgan lavhalari orqali ayanchli illatlarni targ‘ib etayotgani har bir musulmon kishining qalbini larzaga keltirdi.

Ijtimoiy tarmoq orqali fikr bildirish va buning ortidan maqtov (“layk”) larni qo‘lga kiritishga urinish bugungi yoshlarini tobora o‘z domiga tortmoqda. Natijada virtual tahdid nihoyatda ommalashib bormoqda. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar internetdan tobora erta foydalanishga kirishmoqda. Lekin, mutaxassislarning fikricha, yoshi o‘nga etmagan bola odatda mustaqil ravishda internetdan foydalanish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy, tahliliy fikrlash va shu asosda ma’lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda, “filtrlay” olish qobiliyatiga ega emas. Shunday ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma’naviy olami daxlsizligini asrash oldimizda turgan eng muhim masalalardan biridir.

Yoshlarimizning internet manbalaridan foydalanish holatiga nazar soladigan bo‘lsak, ularning aksariyati “Facebook”, “Telegram”, “Instagram”, “Tik-tok” kabi xorijiy ijtimoiy tarmoqlarning doimiy foydalanuvchilari ekanligi kuzatiladi. Milliy domendagi saytlarda ro‘yxatdan o‘tganlarning barchasini jamlaganda ham ularga etmaydi. Demak, bu holat milliy saytlarimizni yoshlar uchun jozibador, mazmunli, saviyali, qiziqarli qilib yaratish masalasiga jiddiy e’tibor qilishga undaydi.

Har narsaning yaxshi va yomon tarafi bo‘lganidek, so‘nggi yillarda internetning ham jiddiy xatarlari yuzaga chiqmoqda. Eng achinarlisi, buzg‘unchi, yot oqimlar ijtimoiy tarmoqlardan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanmoqdalar. Bu esa yoshlarni o‘z domiga tortayotgani, ayrim saytlarda behayolik, axloqsizlik kabi ayanchli illatlar targ‘ib etilayotgani, shuningdek, turli fitnalar, jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolg‘on ma’lumotlar berilayotgani afsuslanarlidir.

Ijtimoiy tarmoqlar, virtual olam odamlarning ta’siri, obro‘-e’tiboriga baho berish, o‘zimizni ko‘rsatib qo‘yishning yangi, o‘ta zamonaviy ko‘rinishiga aylanib qoldi. Bu jihatlar oilalarning barbod bo‘lishi, samimiyatning yo‘qolishi, balandparvoz so‘zlarga ishonish, o‘zligini his etmaslik, insoniy fazilatlarni qadrlamaslik kabi illatlarni boshlab kelayotgandek. Qayd etish joizki, so‘ngi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim yoshlarning xalq orasida obro‘-e’tibor qozongan ahli ilm, imom, ulamolarni masxaralab, obro‘sizlantirishga qaratilgan lavhalari orqali ayanchli illatlarni targ‘ib etayotgani har bir musulmon kishining qalbini larzaga keltirdi

Virtual makonda ham vaqtimizni qimmatli narsalarga, onlayn bilim olishga, o‘z ustimizda ishlashga safarbar etishimiz kerak. Buning uchun esa, aholi ongida qiziqish hamda ehtiyojlarning real holati, u yoki bu soha-

ga qiziqish darajalarining o‘sish, o‘zgarib borish jarayonlarini jiddiy tahlil qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi-yoshlar online platformalarlar orqali o‘z bilimlarini oshirib kelishmoqda. Ushbu jarayonda turli ijtimoiy tarmoalar orqali o‘qituvchilari va guruhdoshlari bilan o‘zaro virtual aloqaga kirishishadi. Albatta, ota-onalar yoki kattalar tomonidan internetdan foydalanish madaniyati bo‘yicha ko‘rsatmalar berib, quyidagilarga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiq:

– ijtimoiy tarmoqdagi faoliyatida o‘ziga tanlagan nomga e’tibor berilishi; (turili nomlar bilan profillar ochib olingan)

– internet orqali o‘zgalar bilan aloqa qilishda umuminsoniy qadriyatlar, axloq me’yorlariga amal qilib, man qilgan narsalardan chetda bo‘lish asosiy qoida bo‘lishi zarur;

– ijtimoiy tarmoqlarda kim bilan do‘st tutinayotganiga jiddiy ahamiyatli bo‘lish kerak;

– internet orqali o‘zgalar bilan aloqa qilishdan yaxshilik va do‘stona hamkorlik qilish hamda yomonlik va dushmanlikda hamkorlik qilmaslik shior qilib olinishi zarur;

– virtual makonda, foydasiz ishlardan chetda bo‘lish, sarflangan vaqtni behuda ketishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Ta’lim muassalarida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilishi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

– ta’lim bosqichlaridagi ma’naviy tarbiya soatlarida “Uyali telefon va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati” davra suhbatlari o‘tkazish;

– aholi va yoshlarning kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borish;

– ijtimoiy tarmoqlar vositasida talaba-yoshlar o‘rtasida ta’limiy dasturlar, kitobxonlikni targ‘ib qiluvchi saytlar milliy qadriyatlarni tarannum etuvchi dasturiy o‘yinlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion texnolgiyalarni kashf etish va ularni amaliyotga joriy etish;

– yoshlarining ilmiy va intellektual faoliyati, ularning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijalarini ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli targ‘ib etish;

– turli ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan yoshlarni vatanparvarlik ruhidagi yangi guruhlarga birlashtirish orqali ularni innovatsion ishlanmalarga jalb etish;

– milliy Internet tarmoqlarida yoshlarbop materiallarni ko‘paytirish;

Xalqimiz ma’naviy yaxlitligini saqlab qolish, o‘zlikdan chekinmaslik, sof insoniy fazilatlarga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilish siyosati izchil yurgizilmoqda. Sharq xalqlari uchun g‘arbga xos bo‘lgan hammani bir xil qarichda o‘lchovchi total, ya’ni, yalpi tenglik formulasi emas, balki insoniylik talablari to‘larok bajariluvchi ierarxik tenglik, ya’ni pastdan yuqoriga, bosqichma-bosqichlikni ifodalovchi munosabatlar tizimi ko‘proq mos keladi.



ZJV5401

**Foydalanilgan adabiytlar ro‘yxati:**

*1. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. 2002 йил 12 декабрь.*

*2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси, Халқ сўзи 2020 йил 25 январь.*

*3. Қуронов М. Назаров Қ. Тўраев Ш. ва бошқ. Дунёнинг мафкуравий манзараси – 2010. / Электрон ўқув курси дастури. Республика Маънавият ва маърифат кенгаши Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. Т.: 2010.*

*4. Ижаев А.Н. Информационно-политическая и этническая идентичность в пространстве массовой коммуникации: автореф. дис. … канд. полит. наук. М. 2007 // Библиотека диссертаций dslib.net.*

*5. Хоц А.Ю. Информационная революция и этнические аспекты культуры современного общества: автореф. дис. канд. филос. наук. Ставрополь, 2001*

*6. Бюль А. Виртуальное общество XXI века: социальные изменения в эпоху цифровых технологий. Висбаден: Westdeutscher Verlag, 2000.*

*7. Гаврилов, А. А. Основные подходы к определению категории “виртуальная реальность” в современном философском дискурсе / А. А. Гаврилов. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2012. – № 9 (44). – С. 162-166.*

## ABU NASR FOROBIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA UNING ILM-FAN RIVOJIDAGI AHAMIYATI

**Jaloliddin YUSUBOV,**
*Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada Abu Nasr Forobiyning ta’lim jarayonini tarbiya bilan uyg‘un ravishda olib borish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasiagi munosabatlardagi muloqot madaniyati, yoshlarni mas’uliyatli etib tarbiyalash borasidagi fikrlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim, ma’naviy tarbiya, ilm, mas’uliyat, tilshunoslik, mantiq, matematika, fizika, fuqarolik*

Abu Nasr Forobiy antik davrning boy merosini, ayniqsa, Aflotun, Arastu kabi mumtoz mutafakkirlarning falsafiy qarashlarini arab-musulmon madaniyatiga kiritdi, islom va antik davr g‘oyalari sintezini amalga oshirdi. U o‘z davrining ma’naviy yoritgichi edi. U o‘z davrining barcha savollar-

ga javob topishga harakat qildi. Bu xatti-harakatlar butun insoniyatning ma'naviy izlanishlari bilan o'zaro bog'liq, hech qachon o'z ma'nosini yo'qotmaydi. U jahon falsafasi va fan falsafasi taraqqiyotida, G'arb va Sharq o'rtasidagi muloqotda o'z rolini o'ynashda davom etmoqda.

Abu Nasr Forobiy ongning nafaqat nazariy va kognitiv muammolarini, balki siyosiy va ijtimoiy muammolarini hal etishdagi rolini yuqori baholagan. U inson zoti urush kabi ziddiyatli vaziyatlarni ongni takomillashtirish orqali hal qila oladi, deb hisoblagan, xayrixoh holatni tavsiflash bilan birga uning ichki mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. U insoniyatga do'stona qo'shnichilik va o'zaro hurmat, ijtimoiy adolat va halollik natijasida qanday ma'naviy yuksaklikka erishish mumkinligi haqida gapirgan.

Forobiyni tashvishga solgan bu mavzular hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shu nuqtai nazardan, bugungi tadqiqot Forobiy fan falsafasining tarkibiy qismi bo'lgan ma'naviy an'anaga tayanmog'i lozim. Olimning barcha fuqarolar yagona maqsad, ya'ni davlat va shaxs farovonligi uchun xizmat qiladigan ezgu, xayrixoh davlat to'g'risidagi fikrlari nafaqat o'rta asrlar islom olami, balki rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Al-Forobiyning musiqa nazariyasi, musiqa san'ati, notiqlik va she'riyat, estetika muammolari haqidagi badiiy-estetik qarashlari ham juda qimmatli. Ulardan bugungi avlodni ma'naviy tarbiyalash, ilm-fan rivoji, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda har tomonlama foydalanish maqsadga muvofiq. Faylasuf ta'lim va tarbiyani shaxsni shakllantirishning qudratli vositasi deb biladi, buning sharofati bilan zarur axloqiy-intellektual fazilatlar kamol topadi. Demak, mutafakkir shunday yozadi: "Tarbiya xalqlarga bilimga asoslangan axloqiy fazilat va san'atlarni berishdir"[1].

Olim ruhiy quvvatning mohiyatini aniqlashga katta e'tibor bergan. U o'zining "Hikmat asoslari" asarida inson tabiatidagi fazilatlarga ko'ra, uning tashqi va ichki dunyosi borligini aytadi. Atrof-muhit hodisalarini taniy oladigan tananing fiziologik tuzilishi va tinchlik borligini tashkil etuvchi tashqi sezgilar ham ichki dunyoga ta'sir qiladi. Ichki sir dunyosi esa insonning ruhiy kuchlaridir. O'z navbatida, rivojlanish jarayonining uch turi mavjud. Bu inson, hayvon va o'simlikning rivojlanishidir.

Rivojlanishni shu tarzda tasniflagan Abu Nasr Forobiy taraqqiyot mazmunini quyidagicha izohlaydi: "Taraqqiyot va bilish jarayonida o'simliklarning yagona maqsadi ularning o'ziga xos tuzilishi yoki naslini saqlab qolish kabi xatti-harakatlar bilan himoyalangan umumiy o'xshashliklardir. Hayvonlarning o'zidan ustun kuchlar bilan kurashi inson zoti maydonini kengaytira olmaydi. Insonning hayotiy rivojlanishi uning foydali, yaxshi maqsad yo'lini tanlashiga, haqiqatga intilishiga bog'liq. Bunday buyuk maqsadlar sari insonning aqligina yetaklaydi". Uning asarlarida insonning ichki dunyosi bilan tashqi dunyosining uyg'unligiga alohida ahamiyat beriladi. Olimning fikricha, ruhiy zaif kishilarning ichki dunyosini tashkil etuvchi

hissiy holatlarning chuqur rivojlanishi ularning tashqi dunyosi faoliyatini to‘xtatib qo‘yadi, ya’ni ularni dunyo hodisalarini to‘g‘ri idrok eta olmaydigan holatga keltiradi.

Ilm haqida buyuk bobomiz uning nuri ila kamol topgan ruhga hech qanday kuch to‘siq bo‘la olmasligini aytadi. Inson ruhiyatining barqarorligi, eng avvalo, uni oziqlantiradigan, asosli tajriba va teran o‘ylar filtridan o‘tgan va shu tariqa barqaror fikrga ega bo‘lgan ongga bog‘liq.

Abu Nasr Forobiy o‘z ilmiy xulosalarida inson ruhiyati kamoloti bevosita ong bilan bog‘liq, degan fikrni ilgari suradi, faqat ong haqiqatga yetaklaydi, deydi[2].

Mutafakkir o‘z hayoti davomida fanni beshta asosiy yo‘nalishga ajratdi: tilshunoslik, mantiq (fikr tizimi), matematika, fizika, fuqarolik [3].

Uning ijtimoiy-iqtisodiy masalalar, matematika, falsafaga oid risolalari ilmiy ahamiyati bilan hozir ham qimmatlidir. U matematikadan foydalanish asosida tabiat hodisalari sirlarini yozish mumkin, degan xulosaga keldi [3].

Ma’lumki, Al-Forobiy pedagogika tarixidagi buyuk siymolardan biri bo‘lgan. U Sharq mamlakatlarida birinchi konstruktiv pedagogik tizimni yaratgan pedagog. Binobarin, bobomizning pedagogik yo‘nalishda qoldirgan merosi zamonaviy ta’lim-tarbiyada muhim o‘rin tutishiga shubha yo‘q. Forobiy insonning xulq-atvori ezgulikka yo‘naltirilishi lozimligini ta’kidladi. Inson, avvalo, o‘zini, so‘ngra dunyoni tadqiq qilib, baxtni izlashi kerak. Bu falsafaning maqsadi. “Baxt-saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (axloq, kasb-hunar kabilar) yordam bersa, uni saqlash va mustahkamlash, nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilish zarur” [4].

Dunyoning maqsadini tekshirish falsafadir. Odamlar, birinchi navbatda o‘z sog‘lig‘ini himoya qiladi. Shundan so‘ng u foydali va zararli xatti-harakatlarni o‘rganishni xohlaydi. Yomonlikdan saqlanish, yaxshilikni qabul qilish insonni fazilatli qiladi. Nazariy falsafa borliqlarning sabab va oqibatlarini bilish bilan shug‘ullanadi. Xulq-atvor falsafasi esa insonning niyatlari va xatti-harakatlari bilan bog‘liq. Barcha tirik mavjudotlar o‘z tanalarini himoya qilish va naslini davom ettirishni xohlaydi. Biroq, hayvonlarda bu instinkt tomonidan ta’minlanadi. Inson esa narsalarning sabablarini izlash qobiliyatiga ega. Bu aql bilan bog‘liq. Hayvon obyektlarni instinktiv ravishda taniydi. Inson esa aqli bilan biladi, hayratda qoladi. Inson o‘z ongidan xabardor, o‘zi haqida o‘ylaydigan va o‘zini boshqa narsalardan ajratib turadigan mavjudotdir. Insonni tushunish uchun butun dunyoni tushunish kerak. Chunki inson koinotning bir qismidir. Insonning maqsadi butundir. Butunlikka erishish mavjudlik asosidagi umumiy qonuniyatlarni anglash, demakdir. Buni falsafa orqali tushunish mumkin. Odamlar ortiqcha narsalardan qochishadi va baxtni izlaydilar. “Inson baxt-saodat nimaligini tushungan bo‘lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g‘oya va xohishiga aylantirmagan bo‘lsa, unga nisbatan ozgina bo‘lsa-da, shavq va zavq sezma-

sa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa, bu qilmishlari yomon va noo‘rinlidir” [5].

Forobiy fikricha, ilmning maqsadi odamlarni bilish bo‘lishi kerak. Keyin koinotni bilish kerak. Fikrlash borliqni anglash, demakdir. Buni biroz chuqurlashtirsak, borliq, ya’ni koinot Xudo tafakkurining ifodasidir. Qaysidir ma’noda, fikr va borliq o‘rtasida, hatto ajralish ham yo‘q.

Forobiy tarbiyada qattiq ham, yumshoq ham emas. U o‘rta darajani saqlab qolishni xohlaydi. Uning so‘zlariga ko‘ra, ta’limda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish kerak: talabaning bilim olishga intilishi va ishtiyoqini saqlab turish kerak. Talabalarni tarbiyalash uchun sharoitlarni yaxshi tayyorlash kerak. Uning “Tomma tomchi, toshni teshigi” degan naqli hammaga ma’lum. Shu sababli, ta’lim berishda osondan qiyinga qarab tartibni bajarish maqsadga muvofiq. Bir narsani boshqasiga o‘rgatmasdan o‘tkazmaslik kerak. Ta’limda muammolarni birma-bir hal etish va chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchi o‘quvchi bilan ilmiy masalalarni muhokama qilishni bilishi kerak. Darhaqiqat, Suqrot shogirdi Platon bilan, Platon esa shogirdi Aristotel bilan bahslashdi. Muhokama paytida o‘qituvchi o‘quvchidan ham ba’zi ma’lumotlarni o‘rganishi mumkin. Ilmiy asosda muhokama qilish haqiqatning chiqishiga imkon beradi. Ta’limda asosiy e’tibor mantiq va falsafaga qaratilishi kerak. Mantiq va falsafa talabaning bilim olish qobiliyatini oshiradi. Forobiy aqlga ahamiyat bergan faylasufdir. Bu borada unga Aristotel ta’sir qilgan. Biroq davlat boshqaruvi va kundalik ishlarda aql va tafakkurga ahamiyat bergan holda, diniy ishlarda ham vahiyga ahamiyat bergan. Payg‘ambar yuborish zarurligini ta’kidladi. Oxirgi payg‘ambar U Muhammadga ishondi.

Forobiy bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish tarafdori. inson iroda erkinligiga ega. Shuning uchun u o‘z xatti-harakati uchun javobgar. Bolalarni mas’uliyatli qilib tarbiyalash kerak. U bolani tarbiyalashda noxush holat yuzaga kelsa, ishontirish yo‘lini tanlash kerak, deydi.

Ta’limda e’tiborni og‘zaki jalb qilish usuli muhim ahamiyatga ega. Og‘zaki yaxshilana olmaydiganlar uchun qiyin usul qo‘llanilishi mumkin.

Ta’limda shubhalarni bartaraf etishga e’tibor qaratish lozim. Shubha uyg‘otadigan savol berganlarga bosimsiz o‘rgatish kerak. Bolaga shubhalar haqida savollar berish va mavzuni chuqurlashtirish orqali haqiqiy bo‘lmagan qarashlardan uzoqroq tutish kerak. Shubha izlash usuli bo‘lishi kerak. Ta’limning maqsadi baxt topish va odamlarni o‘zi yashayotgan jamiyatga foydali qilish bo‘lishi kerak. Baxtli bo‘lish yaxshilikka erishish, demakdir. U yaxshilikka erishish uchun falsafadan ham foydalanishi kerak. Forobiy falsafani o‘rganish istagida bo‘lgan kishilarda quyidagi xususiyatlarni izlaydi: yosh bo‘lish, go‘zal fe’l-atvorga ega bo‘lish, axloq va ezgulik qoidalariga muvofiq odatlarga ega bo‘lish, Qur’on o‘rganish, din ilmlarini yaxshi bilish,

erkinlik, yomon xislatlardan, yomonlikdan saqlanish, xiyonatdan saqlanish, xiyonatdan yiroq bo‘lish, to‘xtab turish, din amrlarini bajarish, ilm va olimlarni hamma narsadan ustun tutish.

**Foydalanil adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Аль-Фараби. Книга указания пути к счастью. Хайдарабад, 1927. 320 с. https://cyberleninka.ru/article/n/utopicheskoe-nasledie-al-farabi*

*2. Рүстемов Н. Бірегей тұлға // Ғұлама. Ойшыл. Ұстаз. Әл-Фарабидің 1130 жылдығына арналған 2001 жылдың қазан айының 12 жұлдызында Отырарда өткізілген Халықаралық ғылыми-теориялық конференцияның материалдары,-Алматы: Қазақпарат, 2001.Б.216. 21 б.*

*3. Байғабылов Х.С. Ұлы ойшыл ғұлама // Ғұлама. Ойшыл. Ұстаз. Әл-Фарабидің 1130 жылдығына арналған 2001 жылдың қазан айының 12 жұлдызында Отырарда өткізілген Халықаралық ғылыми-теориялық конференцияның материалдары,-Алматы: Қазақпарат, 2001.Б.216. 60 б.*

*4. Форобий. Жисмлар ва акциденцияларнинг ибтидоси ҳақида рисола //Абу Наср Форобий. Рисолалар. – Т.: Фан, 1975. – Б. 139.*

*5. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 76.*

ZJV5401

## III. TA’LIMNI TURLI BOSQICHLARIDA UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEZONLARI

# KONSTITUTSIYA, MILLIY MAFKURA VA MA’NAVIYAT: QAT’IY POZITSIYALAR ZARURATI

**Sultonmurod OLIM,**
*filologiya fanlari nomzodi, “Tafakkur” jurnali bo‘limi mudiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi*

**Annotatsiya:** *ma’ruzada bugungi O‘zbekiston jamiyati uchun milliy mafkura va ma’naviyatning zarurati, ayni borada qat’iy pozitsiyalar ilgari surilishi, hayot har kuni oldimizga qo‘yayotgan qaltis savollarga xolis javoblar berilishi, mafkuraviy kurash va ma’naviyat targ‘iboti sohasida bir lahza bo‘lsin tanaffusga yo‘l qo‘ymaslik, buning uchun kuchli tizim ishlab turishi lozimligi, bu borada yangilangan Konstitutsiyaning o‘rni va ahamiyati haqida tahliliy fikr-mulohaza va xulosalar ilgari suriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *davlat, jamiyat, xalq, konstitutsiya, qonun, demokratiya, taraqqiyot, milliy mafkura, ma’naviyat, pozitsiya, zarurat, tahlika, tizim, eski va yangi davr, muammo, yechim, mas’uliyat, ziyoli.*

**1. Zamon tahlikalari.** Hozirgi paytga kelib, O‘zbekistonimizdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit shu qadar murakkab bir jarayonni boshdan kechiryaptiki, hech ikkilanmay: *“O‘ta tahlikali zamonda yashayapmiz”,* – deyishga to‘la haqlimiz. Shuning uchun ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish, shu asosda uni sog‘lomlashtirish, zamon va makon o‘rtaga qo‘yayotgan ko‘plab qaltis savollarga xolis javoblar topish, uni xalq va ong-tafakkuri va qalbiga yetkazish hamisha jamiyatning muhimdan-muhim vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi.

**2. Doimiy kuchli tizim zarurati.** Milliy mafkura va ma’naviyat o‘z-o‘zidan ado etilib ketaveradigan vazifa emas. Har qanday mamlakat taraqqiyotiga erishish, xalq tinchligini saqlash, turli ijtimoiy qatlam, diniy konfessiya, millat va elat, jinslar o‘rtasida tenglik siyosatini yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilish, xalqaro maydonda yuksak obro‘-e’tibor qozonishni ta’minlash uchun hamisha mustahkam, har taraflama takomillashgan, yangi zamon talablariga to‘la javob beradigan mukammal tizim yaratilishi va jamiyatda milliy mafkura va ma’naviyat targ‘iboti texnologiyasi faol ishlab turmog‘i – zarur.

Jamiyatni uch muhim tizim – qonun, mafkura va ma’naviyat boshqaradi. Qonunlarni davlat qabul qiladi. Milliy mafkura xalqniki hisoblanadi. Ma’naviyat esa asr-asrlik milliy va umuminsoniy qadriyatlarga suyanadi.

Biroq bu uch tizim bir-birini inkor etmasligi, bir-biriga zid g‘oya yoki qat’iyatlarni o‘rtaga qo‘ymasligi, bir-birining faoliyatiga xalaqit bermasligi, aksincha, bir-birini qo‘llab-quvvatlashi, to‘ldirishi – shart. Sodda qilib aytganda, milliy mafkura g‘oyalariga sadoqatli va ma’naviyati yuksak shaxsdan, so‘zsiz-shubhasiz, davlat qonunlariga qat’iy amal qilib yashash ham talab etiladi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida tamoman yangi milliy mafkura va ma’naviyat tizimi shakllantirildi. Modomiki, xalqning orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, qiziqishlarini ifodalab, ularni himoya qilishga qaratilgan g‘oyalar tizimi (yig‘indisi, majmuasi) *“milliy g‘oya”*, buni hayotga bevosita tatbiq etish esa *“milliy mafkura”* bo‘lsa, bu – bizda bor, shakllangan, ishlayapti va takomillashib boryapti ham.

Mamlakatimizda 1999-yili Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi tuzildi. Unga hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raislik qiladi. Kengashning tashkiliy idorasi hisoblanadigan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, uning mintaqaviy va hududiy bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatyapti. Mintaqa va hududning birinchi rahbari o‘sha mintaqaviy va hududiy Ma’naviyat va ma’rifat kengashiga raislik qiladi. Maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim tizimida milliy mafkura va ma’naviyat asoslari, u bilan bog‘liq ta’lim-tarbiya tizimi – mavjud. Ommaviy axborot vositalari, madaniyat tashkilotlari, adabiyot va san’at mohiyat e’tibori bilan bevosita milliy mafkura va ma’naviyat targ‘ibiga xizmat qiladi.

Ammo qurg‘ur hayot har kuni, har soatda jamiyat oldiga yangi-yangi, xilma-xil, ba’zan, hatto, kutilmagan masala qo‘yadi va u oqilona yechim kutadi. Oqilona yechim esa xalqning orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, qiziqishlaridan kelib chiqishi, eng muhimi, unga aslo zid kelmasligi kerak. Demak, milliy mafkura ham, bunga bog‘liq holda ma’naviyat ham tinimsiz ravishda zamonga mos xulosa va pozitsiyani talab qiladi.

Milliy mafkura va ma’naviyat sohasining murakkabligi ham – ana shunda.

**3. Ishga solinishi zarur bo‘lgan yagona qurol.** Fikr va g‘oya maydoni hamisha ikkiga bo‘linadi. Jamiyatda ezgu g‘oyalar yonida buzg‘unchi g‘oyalar ham yuraveradi. Xalq maqolida donolarcha aytilganidek, el og‘ziga elak tutib ham bo‘lmaydi. Elak-ku tutib bo‘lmas, biroq bu ikki bir-biriga zid g‘oyalar tinimsiz to‘qnash kelaveradigan jamiyatda fuqaro unisiga ishonsinmi yo bunisigami? Bu yog‘i – endi og‘ir masala, hatto, o‘ta murakkab jarayon.

Chunki har kimning ixtiyori – o‘zida-da. Shunday ekan, hammaning ham aynan ezgu g‘oyalar tarafdori bo‘lishiga kim kafolat beradi? Eng yomoni, tarqatilayotgan har qanday fikr, xabar, g‘oya yoki mafkura orqasida turgan manfaatdor kuchlar – bor.

Keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlar kutilmagan darajada kuchayib ketdi. Bugun internetga o‘rgangan odamni bir kun undan uzib qo‘ying, qani, nima bo‘ladi? Olamni boshiga ko‘taradi. Yashirib nima qildik, hozirgi zamonda

odam bolasining, katta zarurat bo‘lmasa, bir kun ham ovqat yemay, suyuqlik ichmay yashashini tasavvur qilib bo‘lmagani singari, qo‘lida zamonaviy telefoni yo kompyuteri bor kishilarni ijtimoiy tarmoqlarsiz bir kunini o‘tkazishini ham aqlga sig‘dirib bo‘lmay qoldi.

Mafkura va ma’naviyatning biz yuqorida sanagan tizimlarida-ku muayyan darajada “elak” – mavjud. Ehtimol, ularning ezgu g‘oyalar targ‘iboti bilan shug‘ullanishini ta’minlash, faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatish, qaysidir ma’noda ishini tartibga solishga erishish mumkindir. Lekin ijtimoiy tarmoqlar orqali tinimsiz, har kuni, har soat, har daqiqa, har soniyada O‘zbekiston xalqining ong-tafakkuri va qalbini egallashga qaratilgan buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi qanday kurash olib boramiz?

Bugun bu milliy mafkura va ma’naviyat ishini mustaqillikning dastlabki chorak asridagidan ko‘ra tamoman boshqa daraja va texnologiyalar asosida olib borishni taqozo etyapti. Shunday ekan, kimlargadir eski bo‘lib tuyiladigan dono gapni qayta-qayta takrorlashdan aslo charchamaymiz: fikrga qarshi – fikr, g‘oyaga qarshi – g‘oya, jaholatga qarshi – ma’rifat bilan javob qaytarishga majburmiz. Hayotning o‘zi shuni talab qiladi. Zarurat shuni taqozo etadi.

Mafkuraviy kurashning yakkayu yagona quroli – so‘z. Aynan so‘z pichoqni qinidan, ilonni inidan chiqaradi ham, pichoqni qiniga, ilonni iniga qaytarib kiritadi ham.

Ko‘ngilda bir tahlika – mavjud: keyingi yillarda hozirgi 30 yoshgacha bo‘lgan aholimizning ong-tafakkurini shakllantirishda ko‘p narsani boy berib qo‘ymadikmikan? Bugun shunday bir avlod shakllanmoqdaki, u, qo‘yib bersangiz, hatto, *“milliy mafkura”, “ma’naviyat”* kabi tushunchalarni *“eskirgan”*, boringki, *“ahamiyatsiz”* deb biladi. Bu tushunchalar bir qadar kinoya, sarkazm mavzusiga aylanganini ham inkor etib bo‘lmaydi.

Xo‘sh, nima qilmoq – kerak? Bu keskin kurashga dadil kirish va yengilmaslik uchun aynan qanday choralar ko‘rilmog‘i – lozim? Shunday vaziyatda yosh avlodga ma’naviyatni qanday tushuntirish, singdirish – mumkin?

Bu savollarga chiroyli so‘zlar bilan, ikki og‘izgina qilib yoki dabdurustdan javob qaytarishning hech iloji – yo‘q.

Shuning uchun avval bugun bizga aynan nimalar ko‘proq tahdid solayotganini bir karra nazardan o‘tkazishga to‘g‘ri keladi.

**4. Eski davrni qo‘msash xavfi.** 1998-yili Germaniyaga jurnalistik safarga borganman. Myunxenda Bavariya radiosining keksa bir xodimi bilan bir soatcha suhbatlashishga to‘g‘ri keldi. Jumladan: *“Germaniyaning bosh muammosi – nima?”* – deb so‘radim undan. *“Sobiq GDRdagi o‘rta yashar va keksa aholi”,* – deb javob berdi. Keyin o‘zi fikrini: *“Ular eski tuzum tasavvurlari bilan yashaydi-da”,* – deb sharhladi ham. *“Bu muammoni qanday yechish – mumkin?”* – deb ham so‘radim. *“50 yil kutish – kerak. Boshqa yo‘li – yo‘q”,* – dedi.

Bizning mustaqil davlatga aylanganimizga hali yarim asr bo‘lganicha – yo‘q. Har qanday makon va zamonda ijtimoiy-siyosiy tuzumning o‘zgarishidan kimlardir yutadi, tabiiyki, kimlardir yutqazadi. Shunday ekan, kimlardir o‘sha tuzumni qo‘msamaydimi? *“Qo‘msasa, qo‘msayversin!”* – dersiz? Lekin bu masalaga xalq sifatida oqilona munosabatimiz qanday bo‘lmog‘i – darkor?

Bu – o‘ta jiddiy mafkuraviy masala. Ikki jihatdan sho‘ro davrini oqlashga aslo haqqimiz yo‘q.

Birinchidan, biz mustamlaka edik. O‘tmishda bo‘lsin, hozir bo‘lsin, kelajakda bo‘lsin mustamlakachilikni aslo-aslo oqlab ham, qo‘msab ham, targ‘ib qilib ham bo‘lmaydi. Bu – zanjirband sherning ozod etilganidan keyin yana o‘sha temir bog‘ichini sog‘inishiday gap.

Ikkinchidan, kommunistik mafkura, ta’bir joiz tutilsa, 74 yil insoniyat jamiyati ustida siyosiy eksperiment o‘tkazdi. Boylar mulkini qurol bilan egallab, ishchi va dehqonga berish g‘oyasi bilan davlat mulkiga aylantirdi. “Sotsializm” degan insonning ichki tabiatiga zid, sun’iy bir ijtimoiy tuzum qurdi. Odamlarni kelajakda qurilajak “kommunizm” degan utopik bir jamiyat va’dasi bilan aldadi. Holbuki, xalqaro me’yorlar, siyosiy eksperiment u yoqda tursin, hatto, ayrim davolash usullari bo‘yicha odamlar ustida eksperiment o‘tkazishni ham taqiqlaydi. Bu siyosiy eksperiment o‘zini mutlaqo oqlamadi: sotsializmni ilk bor joriy etgan Rossiyaning o‘zi undan birinchilardan bo‘lib voz kechdi.

Lekin shu kecha-kunduzda aynan o‘sha sho‘ro davrini esga soladigan lavhalar asosida tayyorlangan videoroliklar ijtimoiy tarmoqlarda o‘zimizning fuqarolarimiz tomonidan bahuzur tarqatilib yotibdi. Oktyabryat, pioner, komsomol nishonchalari, bu pioner, komsomol tashkilotlari ish boshlagan kun, pioner galstugi va hokazolar asosida videoroliklar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilyapti. Kimlardir shularni qayta tiklashni targ‘ib qilyapti ham. Bir qarashda, bu shunchaki xotiraga o‘xshar. Bezararginaday ham tuyular. Tagida esa juda katta g‘arazli maqsad – yashirin. Bu – yana o‘sha imperiyachilik, yana o‘sha gegemonlik, yana o‘sha mustamlakachilik xuruji! Video oxirida tomoshabindan uni o‘z yaqinlariga tarqatish ham so‘raladi. Sodda, go‘l, milliy o‘zligini to‘la anglamagan, siyosiy jihatdan g‘o‘r ayrim fuqarolarimiz uni bajonidil tarqatib ham yotibdi.

Xo‘sh, bunday xavfdan odamlarni kim ogoh etadi?

Qaysi tizim tarkibida bo‘ladi, bilmadim-u, nazarimda muttasil ravishda ana shu axborot xurujlariga qarshi maxsus mafkuraviy kurash olib boradigan, ya’ni fuqarolarni shunday g‘oyaviy xavf-xatarlardan o‘z vaqtida aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali boxabar qilib turadigan materiallar tarqatish, buzg‘unchi g‘oyalarga o‘z vaqtida kuchli va asosli zarba berish bilan shug‘ullanadigan kuchli bir jurnalistik tashkilot tuzish zarurga o‘xshaydi.

1996–2000-yillari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni (hozirgi Administratsiyasi) huzurida Axborot markazi faoliyat olib bordi. U

mamlakatda davlat siyosati tub mohiyatini aholi ong-tafakkuri va qalbiga singdirish, ommaviy axborot vositalari faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish, eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy, huquqiy va xalqaro mavzularda ommabop publitsistik chiqishlar uyushtirish, xullas, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy-mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarini belgilab berish bilan shug‘ullandi. Bugun tarix sifatida baho berib aytish mumkinki, bu Markaz yurtimizda istiqlol g‘oyalarini targ‘ib qilish, mustaqil demokratik davlat jurnalistikasi yo‘nalishlarini belgilashda alohida o‘ringa ega bo‘lgan edi. Hozirgi sharoitda milliy mafkura va ma’naviyat sohasida shunga o‘xshash media tashkilotiga juda kuchli ehtiyoj borga o‘xshaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib etilayotgan yot g‘oyalarga qarshi axboriy kurashni ham aynan shu muassasa zimmasiga yuklash mumkin.

**5. Yangi muammo yangi yechim talab qilishi.** So‘nggi yillarda jamiyatimizda vaziyat o‘zgarib, yangilanib ketdi. Albatta, milliy mafkura va ma’naviyat borasida noan’anaviy yondashuvlar kerak. Tabiiyki, yangi holatga eski qolip bilan yondashib bo‘lmaydi. Ammo...

Bir taniqli ma’ruzachi viloyatlarimizdan biriga yuborilibdi. Tinglovchilar orasida ijtimoiy tarmoqlardagi yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolganlar – yo‘q, deysizmi? Ayrimlar notiqni qaltis savollarga ko‘mib tashlabdi. Shundan darhol: “Aholi o‘rtasidagi ma’ruza usuli eskirdi”, – deb xulosa chiqarish – burgaga achchiq qilib, ko‘rpani kuydirish bilan barobar. Targ‘ibotning shaklini emas, ichini yangilash – birlamchi. Usulning o‘zi – hali, bor-yo‘g‘i, shakl. Shaklni bir idish sifatida tasavvur qilsak, unga nimani solish – o‘z ixtiyorimizda-ku.

Targ‘ibotning hech bir usuli aholi bilan yuzma-yuz gaplashganga yetmaydi. Jonli muloqotning samarasini hech narsa bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Bu usuldan dunyoning eng rivojlangan davlatlarida ham voz kechilgani yo‘q. Aksincha, bir ma’ruzachi ba’zan bir kunda ayni tinglovchilarga muayyan mavzuda 4 juftlik, ya’ni jami 320 daqiqa dars o‘tadi. Maqsad esa bitta: auditoriyaga ertalab *“a”* fikr bilan kirgan kishi undan *“b”* fikr bilan chiqib ketishi kerak.

Mafkuraviy va ma’naviy-ma’rifiy sohada usul birlamchi emas. Targ‘ibotda odamga fikriy ta’sir o‘tkazishning har qanday, ya’ni cheksiz usul va uslublaridan foydalanaverish lozim.

Misol uchun multfilmlarni olaylik. Mamlakatimizda har yili 650 – 700 ming bola tug‘iladi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zi bizda 4 milliondan kam emasligidan dalolat beradi. Xo‘sh, shuncha norasida uchun o‘zbek tilida yaratilgan nechta multfilmimiz – bor? Yana qanchasi rus va boshqa tillardan tarjima qilingan? Ochig‘i, haddan tashqari oz. Majburan bolalarimiz “YouTube”ga kirib, rus tilidagi multfilmlarni ko‘radi. Tabiiyki, ularda ham ezgu g‘oyalar ilgari surilgan. Bir qarashda, buning ziyoni ham – yo‘q. Ammo, afsuski, bolakaylarimiz o‘z milliy qahramonlarimiz qolib, o‘zga

millat qahramonlarini sevib, ulg‘ayadi. Holbuki, rivojlangan davlatlarning barchasida multfilmlar o‘sha xalq milliy mafkurasi va ma’naviyatini yoshlar ong-tafakkuri va qalbiga singdirishning eng qulay va ommalashgan turi hisoblanadi.

Demak, milliy mafkura va ma’naviyat targ‘ibotida an’anaviy usullardan ham, zamonaviy usullardan ham birday foydalanaverish kerak.

**6. G‘oyani singdirishning qiyinligi.** Afsuski, bu mulohazalarimiz ko‘plarga birdaniga singimaydigan, juda umumiy, hayotdan yiroq gaplar bo‘lib tuyulishi mumkin. Buning uchun dabdurustdan bu kishilarni ayblashga ham shoshilmaylik. Chunki, ochig‘i, aksar hollarda o‘ta murakkab, hatto tahlikali ijtimoiy-ma’naviy muhitga juda-juda tepadan turib, yuzaki, ichiga kirmay, rasmiyatchilik asosida yondashiladi-da.

Axir, odamlarning ong-tafakkuri, hayotdan ko‘zlagan maqsad-muddaosi, qaysi asosda tirikchilik qilayotgani, ijtimoiy holati (boy yoki kambag‘alligi), jamiyatga munosabati, ko‘rgan tarbiyasi, boringki, fe’l-atvori har xil bo‘ladi. Biz esa ba’zan mafkura va ma’naviyat masalasida ham aholi ongi, qalbi va xulqi ko‘rsatkichlari indikatorlarini yaratgimiz keladi. O‘zimizcha, shulardan kelib chiqib, yaxshi darajali hududlarni *“yashil”,* o‘rtacha darajali, ya’ni qoniqarli darajali hududlarni *“sariq”* va qoniqarsiz darajali hududlarni *“qizil”* rang bilan ko‘rsatmoqchi ham bo‘lamiz.

Yo‘q: ijtimoiy-ma’naviy muhit ko‘rsatkichlarini ifodalashni pandemiyaga chalingan fuqarolar soni, jinoyat sodir etilganlik miqdori, tug‘ilish darajasi, iqtisodiy ko‘rsatkichlarga qarab baho berish kabi raqamlarda aks ettirsa bo‘ladigan oson masala hisoblamaylik. Milliy mafkura va ma’naviyat sohasida bu o‘ta mavhum, quruq, yuzaki bir yondashuvdan boshqa narsa emas.

**7. So‘rovnomalar bilan ham ish bitmaydigan soha.** Ba’zan ijtimoiy-ma’naviy muhitni aholi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar asosida aniqlamoqchi ham bo‘lamiz. Albatta, hech kim bunga qarshi emas. Ammo, ishoningki, bunday so‘rovnomalar yo‘li ham asl manzarani to‘liq tasavvur qilish imkonini bermaydi. Birinchidan, so‘rovnomada muayyan savollargina beriladi, xolos. Ikkinchidan, bunda, baribir, aholining juda-juda oz qatlamigina qamrab olinadi. Uchinchidan, bizda hozircha bunday paytlarda odamlarimiz – yuragidagi chinakam, asl munosabatini ifodalashdan ko‘ra, ko‘proq boshqalar nima deyayotganiga qarab ish ko‘rishga moyilroq.

Axir, ikki kishi so‘zlashayotgan har qanday makon – mafkura poligoni.

Milliy mafkura va ma’naviyat holatini aniqlashtirishning juda ko‘p tarmoqlarga ega kompleks tizimi ishlashi – zarur. Milliy mafkura va ma’naviyat masalasini, hayotdan, boringki, siyosat va iqtisodiyotdan ayri, faqat axloq-odob, ma’rifat, madaniyat, adabiyot, san’atdangina iborat, deb tushunadiganlar jiddiy xato qiladi.

Masalan, bir tumanni olaylik. Iqtisodiy jihatdan u mamlakatdagi, shuningdek, viloyatdagi ahvoldan yuqorimi yoki pastmi? Suv, elektr, gaz, yo‘l

muammosi qanday darajada hal etilgan? Maktabgacha ta'lim bolalarning necha foizini qamrab olgan? Maktablarning moddiy-texikaviy bazasi talabga javob beradimi? Ta'lim ko'rsatkichlari qay darajada? Bitiruvchilar orasida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichlari qanday? Tuman bu jihatdan viloyatda, mamlakatda nechanchi o'rinda turadi? Jinoyatchilik kammi-ko'pmi? Yot oqimlar ta'siriga tushganlar soni qancha? Mehnatga layoqatli aholi o'rtasida ishsizlar necha kishini tashkil etadi? Kam ta'minlangan oilalar qancha? Yangi ish o'rinlari barpo etish qanday sur'atda ketyapti? Ishlab chiqarishda sanoatning o'rni o'syaptimi, ya'ni yangi sanoat korxonalari qurilyaptimi-yo'qmi? Ish izlab, xorijga ketganlar soni qancha? Foizlarda ifodalaganda, ularning miqdori boshqa tumanlardagidan kammi yo ko'pmi? Tuman qaysi mahsulotini xorijga eksport qilyapti? Aholining xalq qabulxonalariga murojaatlarida qanday masalalar yetakchilik qilyapti?..

Ehe, sanayversak, adog'i ko'rinmaydi. Xo'sh, bular tumandagi ijtimoiy-ma'naviy muhit darajasini belgilamaydimi?

Shunday ekan, bir mintaqa yo hududning chinakam holatini faqat ijtimoiy so'rovlar doirasidagina to'la aniqlashning aslo imkoni yo'q. Bizningcha, jamoatchilik fikri, kayfiyatini aniqlashning shu va shu kabi turli-turli yo'llaridan unumli foydalanish lozim.

**8. Davlat va xalq birligi.** Haqiqat fikriy kurashda oydinlashadi. Shunday ekan, bugun jamiyatga tahdid solayotgan yot g'oyalar aynan nimalardan iborat? Kimlar bu g'oyalar orqasida turibdi? Aholining aynan qaysi toifasi yot g'oyalar ta'siriga oson tushib qolyapti? Qanday sabab va omillarga ko'ra, bu toifa odamlar fikran og'yapti? Bu holatlarning jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy sabablari nimalardan iborat?

Bugun axborot maydonida O'zbekistonimizda davlat va xalq o'rtasini buzishga qarshi oshkora yo pinhona tarzda qattiq kurash ketyapti. Bundan ko'z yumishning aslo imkoni yo'q. Shu maqsadda dushmanlarimiz ijtimoiy tarmoqlardan juda unumli foydalanmoqda. Xalq ongida shunday tasavvur uyg'otilyaptiki, go'yo davlat ishida ishlayotganlarning bari – o'g'ri, kazzob, poraxo'r, iflos. Astag'firulloh!.. Go'yoki davlat idoralari xodimlarining faoliyati faqat mamlakat boyliklarini o'zlashtirish, xalqni talashdangina iborat bo'lib qolgan. Holbuki, Mustaqillik bayramida nimani nishonlaymiz o'zi? Aynan davlatga ega bo'lganimiznimi? Axir, davlat xalqning eng katta boyligi emasmi?

Bir narsaga aniqlik kiritib olaylik: davlatni qoralash boshqa, davlat idoralari xodimlari faoliyatidan norozilik tamoman boshqa narsa. Yot g'oyalar targ'ibotchilari aholi katta qismining ana shu ikki nozik tushunchani farqlab ololmasligidan foydalanib, davlat idoralari xodimlari faoliyatini tanqid qilish orqali zimdan davlatning o'ziga zarba berib, fuqarolarni o'z milliy davlatiga qarshi qayrashni ko'zda tutyapti.

Noqonuniy faoliyati bilan xalqning o‘z milliy davlatiga ishonchini yo‘qotishiga sabab bo‘layotgan xodimlar yo‘q emas, albatta. Ammo davlat ularning kasriga qolmasligi kerak.

Nima uchun bugun fuqarolar bir ijtimoiy muammo yechimini izlab, davlat idoralari, rasmiy ommaviy axborot vositalariga emas, aynan nodavlat ommaviy axborot vositalari, hatto blogerlarga murojaat qilyapti? Buning ijtimoiy sabablari bormi? Nima uchun, rasmiy telekanallardan ko‘ra, nodavlat telekanallar joylardagi muammolarni ochiq-oshkora ko‘tarib chiqyapti? Bunga kim – aybdor? Nega odamlar gazeta va jurnallarga obuna bo‘lmayapti? Ijtimoiy tarmoqlar fuqarolar ongi va qalbini egallashda oldinlab ketdimi? Nega ijtimoiy tarmoqlar orqali davlat, Konstitutsiya, qonunlar, qonunosti hujjjatlar, hattoki, Prezident imzolagan ayrim farmon, qaror va farmoyishlarga ochiqdan-ochiq provakatsion munosabatlar bo‘lyapti-yu, hech kim bunga rasmiy, asosli, mantiqli, professional darajada javob qaytarmayapti? Bir xato fakt, qarash, g‘oya inkor etilmas ekan, xalq uni shundayicha qabul qilmaydi, deb kim kafolat beradi?

Huquqiy-demokratik davlatlarda buncha tuhmatlar bilan ommaviy axborot vositasida chiqqan shaxs sudda javobgarlikka tortiladi. Mayli, sud o‘z yo‘liga. Mustaqil bir davlatda nima uchun bunday chiqishlarga yetarli zarba berilmasligi – kerak? Yolg‘on, tuhmat, ig‘vo gaplarga o‘z vaqtida professional darajada zarba berilmasa, ya’ni xalqqa oqning oqligiyu qoraning qoraligi tushuntirilmasa, yot kuchlar ijtimoiy-ma’naviy muhitni bundan badtar loyqalataveradi-ku.

Tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Xalqimiz: *“Qars ikki qo‘ldan chiqadi”,* degan ajoyib maqol yaratgan. Davlat va xalq birligiga erishish – ham davlatga, ham xalqqa birday mas’uliyat yuklaydi.

Yana bir maqolda: *“Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv”,* deyiladi. Hozirgi zamon kishisining me’yorida yashashi uchun, bilasizmi, qancha narsa – kerak? Uyingizda suv, elektr, gaz, oqava suv tizimi (kanalizatsiya), chiqindi tashish tizimi, internet bo‘lishi, mahallangizda poyabzalingiz loyga botmaydigan ravon yo‘ldan yurishingiz, yaqin atrofingizda maktabgacha tarbiya muassasasi, maktab, poliklinika, eng muhim tovarlar do‘konlari, mashishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari bo‘lishi lozim. Bularning aksarini davlat hozirlashi darkor.

Bular, ta’bir joiz bo‘lsa, davlatning minimal vazifalari tarkibiga kiradi. Davlat, hech bo‘lmaganda, ana shu minimal vazifalarini bajarmagan joyda odamlar ko‘nglida unga nisbatan tabiiy ravishda norozilik paydo bo‘ladi. Davlat idoralarida o‘tirgan ma’murlarning fuqaro talab va ehtiyojlarini qondirishdagi mas’uliyatsizligi, ta’magirligi, fuqarolarga nisbatan qo‘pol muomalada bo‘lishi va hokazolar ham, o‘z-o‘zidan, oddiy odamlarning aynan davlatdan domangirligiga olib keladi. Bu ma’murlarga davlat budjetidan maosh olayotgan barcha xodimlar, jumladan, o‘qituvchilaru vrachlar

ham kiradi. Axir, fuqaro bolasini yaxshi o‘qitilmagani, kasali yaxshi davolanmagani uchun ham aynan davlatdan norozi bo‘ladi-da.

Demokratik jamiyatda xalq davlatdan norozi nuqtalarini bildirib turishi shart. Bu talablar qonuniy bo‘lsa, davlat uni bajarishga majbur. Mana, yaqinda Toshkent shahridagi Chilonzor tumanida shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib, ekologik iqlim yaratib turgan ko‘p yillik daraxtlarni kimlarningdir manfaati uchun rahmsizlarcha kesib tashlash boshlandi. Xalq norozilik bildirdi. Tezda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Sardor Umurzoqov selektor yig‘ilishi o‘tkazib, bu masalani muhokama qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig‘iga asosan bunday jiddiy xatoga yo‘l qo‘ygani uchun Chilonzor tumani hokimi va prokurori lavozimidan ozod etildi. Shuningdek, mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ygani uchun Toshkent shahri hokimi va prokuroriga esa qattiq hayfsan berildi. Eng muhimi, daraxtlarni kesish to‘xtatildi.

Xalqning davlatdan talablarini ifodalash ommaviy axborot vositalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Biroq talab bilan talabning, shikoyat bilan shikoyatning o‘rtasida ba’zan Yer bilan osmoncha farq bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda aholi o‘rtasida davlatga qarshi kayfiyatni hosil qilishda ba’zan odamlarni mavjud tuzumni o‘zgartirishga, bosh ko‘tarishga, hatto, mamlakatimizda islomiy davlat qurishga ochiqdan-ochiq da’vatlar ham qilinyapti. Bu esa yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida quyidagi tarzda aniq-tiniq qilib taqiqlab qo‘yilgan:

*“Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, O‘zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog‘lig‘iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, shuningdek, milliy va diniy belgilariga ko‘ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi.*

*Maxfiy jamiyatlar va birlashmalar tashkil etish taqiqlanadi”.*

Eng yomoni, bu provakatsion g‘oyalar targ‘iboti ortida xalqaro miqyosdagi yovuz kuchlar turibdi.

Vaziyat jamiyatdagi eng asosiy og‘riqli nuqtalar aniqlashtirib, bevosita shundan kelib chiqqan holda konstruktiv harakat olib borishni talab etadi.

**9. Qonun ustuvorligi – bosh masala ekani.** Davlat siyosatining joylardagi ijrosi milliy mafkura va ma’naviyat sohasining o‘zak masalasi hisoblanadi. Chunki davlat bilan xalq o‘rtasidagi yaqinlik, o‘zaro ishonch, maqsad birligi hamma narsani hal qiladi. Xalq davlatga ishonmasa, davlat xalqining qudratli kuchiga tayanmasa, hech yerda yuksalish yuz bermasligi xuddi: *“Ikki karra ikki to‘rt”,* degandek ayon narsa.

Ammo bunga erishish – juda-juda qiyin masala. Chunki davlat siyosatining ijrosiga mas'ul kimsalarning bir qismi shu jarayonda o'z manfaatini birinchi o'ringa qo'yadi. Bundaylarni nafsidan boshqa narsa aslo qiziqtirmaydi.

Bunga ko'plab misollar keltirish – mumkin. Manzilli qilib aytilsa, tuhmatchiga chiqib qolish ham hech gap emas. Shuning uchun umumiyroq tarzda oddiy bir misol keltiray.

Davlat – har bir fuqaroning ish bilan band bo'lishi, mehnat qilib, ro'zg'or yuritishidan bevosita manfaatdor. Toma-toma ko'l bo'lur, axir. Qilingan har qanday mehnat samarasi mamlakat iqtisodiyotiga hissa bo'lib qo'shiladi. Shuni inobatga olib, davlat hozir qishloqlarda kam ta'minlangan, mehnatga layoqatli-yu, ammo ishsiz a'zolarga ega oilalarga kredit asosida issiqxona qurib berishni yo'lga qo'ydi. Axir, hovlisida bir sotix issiqxonasiga ega kishi ham mehnat qilib, daromad topadimi? Lekin o'sha issiqxonani qurib berib, umrida qishda qishloq xo'jaligi ekinlari o'stirish bilan shug'ullanmagan kishiga ko'chat, o'simliklarni himoya qilish vositalari, o'g'it yetkazib berishga mas'ul tashkilotlar ayrim vakillari shu yerdan ham noqonuniy, harom daromad topmoqchi. Xo'sh, nima qilishadi? Loyihada ko'rsatilgan 4x4 santimetrlik profil o'rniga 3x3 santimetrli profildan issiqxona ustuxonini yasashadi. Ammo o'sha bechora kambag'alning bo'yniga hujjat asosida 4x4 santimetrli profilning narxini ilishadi. Hech kim borib, profilni o'lchab o'tirmaydi-ku. O'g'rilikmi? O'g'rilik! Jinoyatmi? Jinoyat! Korrupsiyami? Korrupsiya!

To'g'ri, avvaliga hech narsa o'zgarmagandek tuyular. Ammo qishda ichkarida ekin ayni gullagan mahalda bir qattiq shamol turadi-yu, issiqxonani tag-tubi bilan ko'tarib tashlaydi. Agar issiqxona 4x4 santimetrli profil bilan yasalganida edi u bu shamolga ag'darilmas edi.

O'sha bechora kambag'alning uyi kuydi, deyavering. Birinchidan, uning gardaniga ilingan 15 million so'mli kreditni to'lashdan uni endi hech kim ozod qila olmaydi-da. Ikkinchidan, ekinlarni shu holatga keltirguncha ketgan mablag'u shuncha mehnatning kuli ko'kka sovurildi. Uchinchidan, davlatning maqsadli mablag'i tamoman yo'qqa chiqdi.

Ana endi ta'magir ma'murlarning jig'ildonini deb, shu oilaning qanday ma'naviy mushkulot girdobida qolganini bir tasavvuringizga keltirib ko'ring!

Mamlakatimizda bunday misollar kammi? Bitta-ikkita bo'lganida edi yozib ham o'tirishga arzimas edi. Afsuski, ko'paygandan ko'payib ketgan.

Bu balolardan qutulmas ekanmiz, sog'lom ma'naviy muhit haqida so'zlash absurddan boshqa narsa bo'lmay qolaveradi.

Milliy mafkura va ma'naviyat sohasining ishi qanchalar murakkab vazifa ekanini shulardan ham tasavvur qilsa, bo'ladi.

Shaxsiy qarash va jamoatchilik fikri. Bir masala yuzasidan har qaysi inson – shaxsiy fikrga ega bo'lish huquqiga ega. Demokratik davlatlar-

da bu qonun bilan kafolatlanadi. Demak, mamlakatda million-million kishi yashaydimi, demak, muayyan bir muammo bo‘yicha million-million fikr mavjud. Tabiiyki, bu fikrlarning ko‘pi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lishi ham mumkin.

Ammo bulardan qay biri eng to‘g‘ri, optimal, adolatli, foydali, oqilona, samarali? Ana shuni aniqlab, el-yurt orasida yoyish milliy mafkura va ma’naviyatning muhim vazifasi hisoblanadi. Chunki ba’zi masalalarda buni davlat amalga oshirsa, zo‘ravonlik qilgan, ya’ni majburlash qurolini ishga solgan bo‘lib chiqadi.

Ana shuning otini *“jamoatchilik fikri”* deymiz. Chunki bunda masalaga ko‘pchilikning manfaatidan kelib chiqib yondashiladi. Shuni ham unutmaylikki, qaysi masala bo‘lishidan qat’i nazar, unga eng to‘g‘ri munosabatni aniqlashda davlat qonunlaridan kelib chiqiladi ham.

**10. Optimal pozitsiya ehtiyoji va noprofessionalizm.** Ijtimoiy tarmoqlar shunchalar tomir otdiki, bugun xohlagan fuqaro – o‘z fikrini ommaga ochiq-oshkor yoyish huquqi va imkoniga ega. Bu – katta yutuq. Shu tariqa aql rivojlanadi. Xalq fikrni fikrga solishtirish imkoniga ega bo‘ladi. Yaxshidan yaxshirog‘ini, to‘g‘ridan to‘g‘rirog‘ini tanlash imkoni qo‘lga kiradi. Hammaning, birinchi galda, davlatning afkor omma bilan hisoblashishiga to‘g‘ri keladi va hokazo.

Lekin jamiyatda optimal pozitsiyani belgilash noprofessionallar qo‘lida qolib ketmasligi – kerak. Hozir ko‘pincha shunday bo‘lyapti ham. Blogerlar, boringki, ijtimoiy tarmoqda fikr bildirayotganlarning hammasi ham o‘zi muhokama yuritayotgan soha bo‘yicha mutaxassis bo‘lavermaydi, albatta. Masalaga noprofessional munosabat esa hamisha ishkalga sabab bo‘ladi. Shunday hodisalarga duch kelyapmiz ham.

Mamlakatimiz energetikasiga mas’ul mansabdor shaxslardan biri aholi ishlatilgan elektr energiyasidan juda katta qarzdor bo‘lib qolayotgani, bu esa sohaga sarflangan mablag‘ning qoplanmasligiga olib kelayotgani haqida axborot berdi. Internetda arining uyasi kavlandi-ku. Shu mansabdorga hujum qilib tashlashdi. Orasida kamina taniydigan, bir paytlar mas’ul lavozimlarda ishlagan oliy ma’lumotli kishilar ham bor. Nima emish, ketsa davlatning puli xalqqa ketgan emish-da! Ana, xolos! Bu o‘z nomi bilan *“iqtisodiy-siyosiy bilimsizlik”* deyiladi.

Davlat nima? U – ishlab chiqarish va xizmatlardan tushgan foydalardan olingan soliqlar asosida shakllantirilgan budjet hisobidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan, tarkibiga qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati kiradigan tashkilotlar majmuasi! Ammo o‘tmishda ham, hozir ham hech bir davlat aholiga elektr yetkazib berishni budjet hisobidan ta’minlamagan va bundan keyin ham ta’minlamaydi. Elektr ishlab chiqariladigan mahsulot hisoblanadi. Har qanday ishlab chiqarishga mablag‘ sarflanadi va mahsulot sotilganida o‘sha mablag‘, albatta, foyda bilan orqaga qaytishi – shart. Aks

holda, bu soha to‘xtab qoladi. Agar elektr tokini ham davlat budjeti hisobidan to‘lash tizimi joriy etilsa, davlat o‘z konstitutsiyaviy funksiyalarining bir qismini bajarishga mablag‘ topolmay qoladi-ku.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamoatchilik fikrining darajasi shumi? Ochig‘ini aytganda, elektr haqini davlat budjeti hisobidan qoplashni targ‘ib qilish xo‘rozdan tuxum tug‘ishni talab etishdan zarracha farqi yo‘q bir befoyda bahsdan boshqa narsa emas.

Iqtisodiy-siyosiy bilimsizlikning yana bir nuqtasi bor. Ko‘p odamlarimiz haligacha ham: “Davlat ishxona yaratib berishi kerak”, deb hisoblaydi. Holbuki, bugungi davlat siyosati ishlab chiqarishda davlatning ulushini tobora kamaytirib borishga qaratilgan. Bular – bir-biriga tamoman zid tushunchalar. Xo‘p, qaysi biri to‘g‘ri? Tabiiyki, davlat yuritayotgan siyosatning yo‘li to‘g‘ri. Xalqqa masalaning mohiyatini obdon va asosli tarzda tushuntirish kerakmi-yo‘qmi?

Bu ham ma’naviyat, hatto, mafkura masalasimi?

Albatta.

**11. Adabiyot va san’atning o‘zi milliy mafkura va ma’naviyat o‘rnini bosa olmasligi.** Shu sohada ishlagan bir mutaxassis sifatida taniqli-taniqli odamlardan: *“Adabiyot va san’atning o‘zi – tappa-tayyor ma’naviyat-ku! Shunday ekan, yana milliy mafkura va ma’naviyat idoralarini tuzish kimga kerak?”* degan e’tirozlarni ko‘p etishishga to‘g‘ri kelgan.

Adabiyot va san’at ham milliy mafkura va ma’naviyatga bevosita aloqador sohalar, albatta. Ammo ularning o‘z spetsifikasi, vazifasi, tabiati bor. Din, axloq, madaniyat, ta’lim, sport, jurnalistika va boshqa ko‘p sohalarni ham milliy mafkura va ma’naviyatdan ayri holda aslo tasavvur qilib bo‘lmaydi, albatta.

Lekin biz qisman ko‘tarib, tahlil etgan masalalar, masalan, adabiyot va san’at asarlarida ham ko‘tarilishi va badiiy tahlil etilishi mumkin. Biroq bu sohalar gardaniga jamiyatda jamoatchilik fikrining optimal pozitsiyalarini ilman, qonuniy va siyosiy jihatdan belgilab berish vazifasini yuklab bo‘lmaydi-ku.

**12. Mehnat targ‘iboti zarurati.** Nega an’anaviy ommaviy axborot vositalari ijtimoiy tarmoqlar chaqqonlik qilib olib chiqayotgan dolzarb mavzularni ko‘tarmaydi? Hamma masalada ochiqdan-ochiq bahs-munozara qilish, aynan bir shaxsning fikrini keltirib, uni rad etish, ya’ni yakkama-yakka munozaraga kirishish shart emasdir. Lekin o‘sha masalaga munosabatda xalq hukmron, to‘g‘ri, haqqoniy, oqilona, kerak bo‘lsa, qonuniy fikrini gazeta, jurnal, radio va televideniyedan olsin-da.

Mayli, bahs-munozarali fikrini qo‘ya turaylik, boshqa “silliq” mavzularda ham ijtimoiy tarmoq peshqadamlik qilayotgan joylar borday. Aytaylik, Husayniy uzumi tokini qanday parvarish qilish bo‘yicha an’anaviy axborot vositalaridan pichoqqa ilinadigan puxta-pishiq ma’lumotga ega material

topish – amri mahol. Holbuki, bloger bog‘bonning oldiga kamera ko‘tarib boradi. Xo‘sh, bu kichik mavzumi? Aslo! Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ehe, tomorqalarimizda hozirgidan necha-necha karra ko‘p va xo‘b uzum, xususan, Husayniy yetishtirishimiz, uni jahon bozorida sotishimiz mumkin-ku.

Turkiyada to‘rt qavatli uy tomida ham tokso‘ri qilinganini ko‘rdim. Yerga ekilgan tokni cho‘zib, 12-15 metrli tomga olib chiqishgan. Solib yotibdi. An’anaviy axborot vositalari – hayotga yaqinlasholmagan holda, o‘ta umumiy, o‘zimizning kasbiy atama bilan ifodalaganda, “global” mavzular bilan mashg‘ul. Xalqni mehnatga undash kerak. Buning yo‘llarini namuna qilib ko‘rsatmoq lozim. Oqilona mehnatgina foyda keltiradi. Turkiya televideniyesi shahar ko‘chalarida kashtan urug‘ini qovurib, bola-chaqa boqayotgan oddiy kishi bilan ham erinmay suhbatlar qilib, ko‘rsatadi. Shu ham mehnat-da. Ishsizlikdan Xudo asrasin.

*“Oqilona”* so‘zi *“aql”* bilan o‘zakdosh, aniqrog‘i, undan yasalgan sifat. Aql esa *“ma’naviyat”* degani, *“mafkura”* degani.

Darvoqe, yaqinda ijtimoiy tarmoqda bir imomimiz chiqib olib: *“Odam mehnat bilan boyimaydi. Agar mehnat bilan boyish mumkin bo‘lsa, eshak boy bo‘lar edi. Boylikni Xudo beradi”,* – dedi. Albatta, iymon keltirgan har qanday musulmon hamma narsa Allohdan ekanini biladi. Ammo xalqimiz: *“Sendan harakat, mendan barakat!”* yoki: *“Olma pish, og‘zimga tush”, – deb yotgan bilan ish bitmaydi”,* – degan dono hikmatlarni bekorga yaratmagan.

Bir narsani bahslashib o‘tirmay tushunib olaylik: dunyoda qaysi mamlakat xalqi bizdan boyroq yashayotgan bo‘lsa, albatta, bunga mehnat bilan erishgan. Hatto, Yer ostidagi tappa-tayyor boyliklar ham juda katta mehnat evaziga qazib olinib, inson ehtiyojiga ishlatiladi.

Nega yurtimizning mashhur-mashhur ziyolilari ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lmasligi – kerak?

Professional qalamkashlar ko‘p masalalarni “mayda mavzular” deb hisoblashi tabiiy. Bu borada ularni butunlay qoralab ham bo‘lmas, ehtimol. Biroq, qurg‘ur, mafkura borasida mavzuning katta-kichigi bo‘lmaydi-da.

Ammo hozirgi murakkab mafkuraviy va ma’naviy vaziyat ilg‘or ziyolilarimizning nihoyatda faollashishini taqozo etadi. Ziyolilarni faollashtirishning tarixda ming karra sinalgan bittagina asosiy yo‘li bor. Bu ular faoliyatini moddiy manfaatdorlik asosiga qurish. Agar ommaviy axborot vositalari yaxshi qalam haqi to‘lasa, ishonavering, hamma faollashadi.

Mana, keyingi yillarda ilmiy darajaga ega muallimlarga yuqori haq to‘lash joriy etilgani bilan mamlakatimizda dissertatsiyalar himoyasi keskin ko‘paydi. Hozirgi paytda ayrim jurnallar mutlaqo qalam haqi to‘lamaydi. Ko‘p gazetalar adadi yopilish holiga kelib qolgan. Radio va televidevideniye qalam xaqi to‘lamay qo‘yganiga-ku ko‘p yillar bo‘ldi.

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, bu muammo davlat aralashuvisiz aslo hal bo‘lmaydi. Odamlarni haq to‘lanmasa ham mehnat qilishga da’vat etish –

bozor iqtisodiyoti tabiatiga tamoman zid. Chunki rivojlanish barqaror bo‘lishi uchun har qanday mehnatga haq to‘lashning mukammal tizimi yaratilishi – zarur. Sohasi bola-chaqasini boqishga imkon bermayotgan vaziyatdagi tushkun qalamkashdan jamiyatni olg‘a yetaklash quvvatiga ega nekbinlik, ya’ni optimizmni kutmay qo‘ya qoling.

**13. Takrordan erinmaslik ehtiyoji.** Ta’lim tizimida milliy mafkura va ma’naviyat fanlarini o‘qitishda keyingi yillarda bir oz sustkashlik yuz berdi. Bilgan faktimni aytay. 2018 yil boshidan mintaqalarimizdagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlari oliy ta’lim muassasalari huzuridagi markazlarga aylantirildi. Bahonada milliy mafkura va ma’naviyat asoslari fani darslariga ajratilgan soatlar keskin qisqartirildi. Holbuki, maktab muallimlari, qaysi fandan dars berishidan qat’i nazar, bir oylik malaka oshirish jarayonida milliy mafkura va ma’naviyat asoslariga doir eng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lib ketar edi. Xuddi shu jarayon o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimida ham u yoki bu tarzda yuz berdi. Shundan ham yutqazdikmi, yutqazdik.

Holbuki, fikr va g‘oya bir aytgan, ikki aytgan bilan singib ketavermaydi. Yaqinda bir oliy ma’lumotli, yoshi elliklardagi kishiga birovni birov o‘rinsiz jerkishga aslo haqli emasligi haqida gazetada chiqqan maqolamni erinmay o‘qib berdim. Ta’sir qilsa kerak, deb sodda o‘ylabman ham. Oradan biror soat o‘tar-o‘tmas shu odam kaminaning huzurida bir yigitni o‘rinsiz ravishda shunday jerkidiki, maqolada keltirilgan misollar buning oldida holva bo‘lib qoldi. Ana, senga ma’naviyat! Shuning uchun Qur’oni karimda Alloh taolo ba’zi uqtiriqlarni qayta-qayta takrorlayveradi.

Yanga bir misol. Ko‘p xorijiy davlatlarda avtobusda o‘rindiqqa o‘tirib olgan yoshlar qo‘lidagi telefonidan bosh ko‘tarmay ketaveradi. Yonida inqillab-sinqillab chiqqan keksa chol yo kampir tikka turgani bilan aslo ishi – yo‘q. Chunki uning ong-tafakkurida: *“Kim oldin avtobusga chiqib, o‘rindiqqa o‘tirgan bo‘lsa, joy o‘shaniki bo‘ladi”,* – degan qarashdan bo‘lak fikr – yo‘q-da. Keksalarga joy berish kerakligi esa uning tushiga ham kirmaydi.

Bizda-chi? Toshkentda 1977-yili metro ishga tushdi. Mana, 46 yildirki, kirib o‘tirishingiz bilan suxandon yoshi katta, yosh bolali va nogiron yo‘lovchilarga joy berishni unutmaslikni uqtiradi. Metrodan tushib, avtobusga o‘tirasizmi? Bu o‘git hamon qulog‘ingiz ostida jaranglab turibdimi? Shukr, har holda, bu ma’naviy fazilatimizni hozircha boy berganimiz yo‘q.

Bu fakt xalq orasida har qanday ma’naviy fazilat va milliy g‘oyaga amal qilinishi uchun kuchli targ‘ibot mexanizmi ishlab turishi zarurligini yana bir bor isbotlaydi.

**14. Ziyoli mas’uliyati.** Ehtimol, kim uchundir biroz bahsli tuyilar, ammo achchiq haqiqat shundan iboratki, tabiatiga ko‘ra, keng omma fikran og‘ishga moyilroq bo‘ladi. Dushman shundan foydalanadi. Demak, g‘oyaviy-mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan xalqni to‘g‘ri yo‘lga yetak-

lash shu sohalarga mas'ul ziyolilarning birlamchi vazifasi hisoblanadi. Bitta lokototiv ko'plab vagonlarni tortgani singari, munavvarlarimiz ham mamlakat ahlini to'g'ri yo'lga boshlashi kerak.

Bunga qonun izn beradi.Milliy mafkura va ma'naviyatning tub mohiyatida shu yotadi.

**15. Jamiyatda qonunning o'rni va ahamiyati.** Qonun nima? Ikki shaxs o'rtasidagi har qanday kelishuv – qonunning ibtidoiy ko'rinishi, albatta. Bu Odam Ato bilan Momo Havvo o'rtasidagi oilaviy hayotdagi vazifalar taqsimotidan boshlangan. Bunday kelishuvda lafz qilinadi: bu ikki shaxsning birovi u, ikkinchisi bu masalani hal qilishga va'da beradi. Shundan kelib chiqib: "Lafz halol", – deydi xalqimiz. Endi shunga amal qilish kerak bo'ladi. Ikkisidan biri lafzida turmasa, tamom, shartnomaga amal qilinmagani shu.

Zamonaviy tushunchada qonun – muayyan davlat xalqining vakolatli vakillari qabul qilgan, amal qilish davlat va fuqarolar uchun majburiy hisoblangan tartib-qoidalar majmuasi.

**16. Konstitutsiyaning o'rni va ahamiyati.** Konstitutsiya – bashariyatning necha-necha asrlik ijtimoiy taraqqiyoti natijasida erishilgan qadriyat. U – jaydari qilib aytilsa, bir mamlakat xalqi bilan davlati o'rtasidagi o'zaro bitim, kelishuv, shartnomadek gap. Tabiiyki, unda xalqning ham, davlatning ham haq-huquq va erkinliklari, vazifalari, burchlari, majburiyatlari belgilab qo'yiladi.

Hozirgi zamonda mamlakat xalqi qonunlarsiz, jumladan, davlat zamonaviy tushunchadagi Konstitutsiyasiz yashashi mumkin emas. Aks holda, jamiyatda anarxiya, ya'ni boshboshdoqlik yuzaga keladi.

Dunyoda davlatlarning xili – ko'p. Aynan Konstitutsiyasiga qarab davlatning turi ayonlashadi.

Konstitutsiya qabul qilindimi, bas, davlat ham, halq ham tegishli burch va vazifalarini o'z gardaniga oladi. Endi ikkalasi ham – ularni bekamu ko'st bajarishga majbur.

**17. Muhim tarixiy voqea.** Shu yilning 30 aprelida mamlakatimiz hayotida muhim tarixiy hodisa yuz berdi: O'zbekiston Respublikasi referendumida O'zbekiston Respublikasining *"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"*gi Konstitutsiyaviy qonuni qabul qilindi. U, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining shu yilning 1 mayida qabul qilingan 1245-sonli qaroriga asosan, 1-maydan kuchga kirdi.

1992-yili qabul qilingan, bir necha bor tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan Konstitutsiyamiz 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat edi. Yangilangan Konstitutsiya 6 bo'lim, 27 bob, 155 moddadan tashkil topgan.

Mavjud 64-moddaga jami 200 dan ortiq o'zgartirish va qo'shimcha kiritildi. 16 normani o'z ichiga olgan 6 ta tamoman yangi modda qo'shildi. Amalda Konstitutsiyaning uchdan ikki qismiga o'zgartirish va qo'shimcha-

lar kiritildi. *“Ayollar”, “xotin-qizlar”* so‘zlari 2, *“inson”* va *“bolalar”* so‘zlari 3, *“yoshlar”* so‘zi 6 karra ko‘p qo‘llangan, inson huquqlari bilan bog‘liq jihatlar 3, sog‘liqni saqlashga aloqador bandlar 4 barobar kengaytirilgan.

18 yoshdan oshgan 19 million 722 ming 809 nafar fuqaro ro‘yxatga olindi. Shundan 16 million 667 ming 97 kishi referendumda ishtirok etdi. Ishtirok etganlarning 90,21 foizi yangilangan Konstitutsiyani yoqlab ovoz berdi. Bu – 36 millionli mamlakat uchun katta katta tarixiy voqea.

Ilgari: *“Davlat – jamiyat – inson”* , – degan tamoyil ustuvor edi. Endi esa: *“Inson – jamiyat – davlat”,* – degan tamoyil ustunlik qiladi. Oldinlari odamlar davlatga xizmat qilgan bo‘lsa, endi davlat fuqarolarga xizmat qiladi.

Shuning uchun haqli ravishda 30 aprelni burilish nuqtasi hisoblash – mumkin.

**18. Xalq irodasi.** Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar haqidagi loyiha bir yil mobaynida umumxalq muhokamasidan o‘tkazildi. Ko‘p fuqarolarimiz bunda faol ishtirok etdi. Bildirilgan o‘rinli fikrlar inobatga olindi, albatta. Ayrim xato pozitsiyalardan voz kechildi ham.

Omma angladiki, Konstitutsiya xalqning roziligisiz qabul qilinmas, unga jiddiy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish xalqning ishtiroki bilan amalga oshar ekan. Shu tariqa Konstitutsiya hozirgi mukammal bir holatga keldi.

Kaminaning o‘zi ham “Hurriyat” gazetasida fikr-mulohaza bilan qatnashdi (Qarang: Tahririy takliflarimiz. // Hurriyat, 2022-yil, 27-iyul). Jumladan, ikki muhim taklifimiz qat’iy inobatga olindi.

Birinchi taklifimiz mana bunday ifodalangan edi: *“Asosiy qonunimiz “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi” deb tilga olingan. Bu, bir qarashda, xato emasdek. Biroq “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti”, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari” deganda “-ning” qo‘shimchasini ishlatmaymiz-ku. Chunki mazkur qo‘shimcha uni ishlatmagan holda ham anglashilib turibdi-da. Tilimizning tabiati shundayki, bu boshqa davlatning emas, aynan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ekanini ta’kidlash kerak bo‘lgandagina “-ning” qo‘llanadi. Shunday ekan, Loyihaga Asosiy qonunimizni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” tarzida nomlash taklifi ham kiritilishi va Loyihaning hamma yerida u shu shaklda tilga olinishi – zarur”.*

Yangilangan Konstitutsiya *“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”* deb nomlandi.

Ikkinchi taklifimiz quyidagicha edi: *“O‘zbek tilida hech ham “o‘zgartish” deb bo‘lmaydi. Sababi – tilimizning bir “temir” qoidasi shundan iboratki, “-sh” yoki “-ish” qo‘shimchasi so‘zning o‘zagiga qo‘shilib, harakat nomi yasaydi. O‘zak esa birinchi shaxsdagi buyruq maylida bo‘lishi shart. Bizda esa hech kim “o‘zgart” demaydi va u hech qanaqasiga “o‘zgartir” ma’nosini bermaydi. Shunday ekan, faqat va faqat “o‘zgartirish” deb qo‘llashimiz zarur. “O‘zgartish” shaklini esa bundan buyon boshqa qonunlarimiz matnida ham aslo qo‘llamasligimiz lozim”.*

Yangilangan Konstitutsiyaning biror yerida *“o‘zgartish”* so‘zi qo‘llanmagan, bil’aks, *“o‘zgartirish”* kalimasi 14 marta ishlatilgan.

**19. *“Yangi Konstitutsiya”* emas, *“yangilangan Konstitutsiya”.*** 30-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyamizning biror-bir moddasi 1992-yili qabul qilingan, bir necha bor o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali takomillashtirila borgan Konstitutsiyaga tamoman teskari yoki keskin zid emas. Shunga ko‘ra, biz 1-maydan kuchga kirgan Asosiy qonunimizni “yangi tahrirdagi Konstitutsiya” yoki yanada ixchamroq tarzda “yangilangan Konstitutsiya” deb tilga olishimiz zarur.

**20. Ehtiyoj va zarurat.** Biron-bir davlat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan turib rivojlana olmaydi. Bu yerda hamkorlikning barcha jabhalari ko‘zda tutilyapti. Mamlakatimizning hozirgi darajasi dunyo bilan bog‘lanishning jadallashgan bir davrga kirganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston qanot yoza boshladi. Dunyoga chiqyapti.

Mustaqillikka erishganimizdan bu yog‘iga huquqiy demokratik davlat qurish bo‘yicha muayyan tajribalar to‘plandi. Hayot shunday jadallashib ketyaptiki, faoliyatimizning hamma jabhasi ham Asosiy qonunimizda muayyanlashgan tarzda aks etmagani ayonlashib qolgan edi. Konstitutsiyani yangilashga ehtiyoj va zarurat bor edi.

**21. Tamoman yangi normalar.** Yangilangan Konstitutsiyaga, tabiiyki, ko‘plab yangi normalar kiritildi. Masalan, *“nogironligi bor shaxs”, “aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari”, “intellektual mulk”, “vatandoshlar”, “monopol faoliyat”, “nodavlat ta’lim tashkilotlari”, “maktabgacha ta’lim”, “inklyuziv ta’lim va tarbiya”, “boshlang‘ich professional ta’lim”, “sog‘liqni saqlash tizimining nodavlat shakllari”, “fuqarolarning bandligini ta’minlash”, “kambag‘allikni qisqartirish”, “eng kam iste’mol xarajatlari”* kabi istilohlar Konstitutsiyaning oldingi variantida yo‘q edi.

Kechagina edi, rasmiy tadbirlarda *“kambag‘allik”* istilohini ishlatishga ajdarhodan qo‘rqqandek qo‘rqar edik. Go‘yo shuni qancha tilga olmay, xaspo‘shlasak, muammo o‘z-o‘zidan shuncha tez hal bo‘lib ketaveradigandek. Mana, bu atama bugun Konstitutsiyaga kiritildi: *“kambag‘allikni qisqartirish”* 2 karra ishlatilgan.

**22. O‘zbekiston davlati xususiyatlari.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oldingi varianti 1-moddasi 1-jumlasida: *“O‘zbekiston – suveren demokratik respublika”,* – deb qayd etilgan edi. Yangilangan Konstitutsiyada u quyidagicha tarzda mukammallashtirildi: *“O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”.*

Oldingi holatda davlatning 3 sifati qayd etilgan, bu uning boshqaruv tizimida respublika shakliga amal qilishi, suveren, ya’ni mustaqil ekani, demokratik, ya’ni xalq boshqaruvi asosida faoliyat olib borishini bildirar edi.

Yangilangan Konstitutsiya 1-moddasida 6 muhim xususiyat aks etgan. 3 yangi sifat qo‘shimcha ravishda kiritildi. *“Huquqiy”* so‘zi davlat qonunlarga qat’iy amal qilgan holda faoliyat olib borishini, *“ijtimoiy”* atamasi aholining keng qatlamlari manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy adolat va himoya tizimini joriy etishini, *“dunyoviy”* istilohi qonunlar qabul qilinayotganda dindan so‘rab o‘tirilmasligini anglatadi.

Garchi Konstitutsiyaning 1-moddasida muhrlanmagan bo‘lsa ham, amalda davlat bu xususiyatlarga ega edi. Masalan, Konstitutsiyamizning oldingi variantida *“ijtimoiy”* so‘zi 24 karra ishlatilgan edi.

Shu tariqa davlatning istiqlol yillarida bosib o‘tgan shonli yo‘li va boy tajribalaridan kelib chiqib, uning muhim qirralari muayyanlashtirildi.

**23. Ijtimoiylik mohiyati.** Konstitutsiyadagi eng muhim o‘zgarishlardan biri – O‘zbekistonning “ijtimoiy davlat” ekanini qayd etish. Lekin bu so‘zni 1-moddaga qo‘shib qo‘yish bilangina cheklanilmagan. Keyinidan tizimli asosda qator moddalarda yangidan shunday ijtimoiylik me’yorlari kiritilganki, ular ana shu bosh yo‘nalishning qirralarini aks ettiradi, ijtimoiylik qat’iyatini qo‘llab-quvvatlaydi, buni amalga oshirishning qirralari va yo‘nalishlarini huquqiy norma sifatida belgilab beradi.

Natijada yangilangan Konstitutsiyada *“ijtimoiy”* so‘zi 42 marta, ya’ni *“Muqaddima”,* 1-, 10-, 12-, 14-, 19– (3 bor), 21-, 33-, 38-moddalar, IX bob sarlavhasi, 46– (2 marta), 47-, 49-, 52– 57– (3 karra), 71– (2 qayta), 73-, 74-, 76-, 79-, 94 (5 daf’a), 115– (7 topqir), 122– (2 bor), 123-, 125-moddalarda ishlatilganiga guvoh bo‘lamiz.

*“Ijtimoiylik”* degani – davlat keng ommaning manfaatlarini jiddiy hisobga oladi, muhtoj, nogiron, kam ta’minlangan, bolalar, keksalar haqida ijtimoiy g‘amxo‘rlik qiladi, degani.

**24. Atom bo‘linadi.** Biz Asosiy qonunimizni takomillashtirdik. Uni zamon va makon talablariga mos bir holatga keltirib, ham eni, ham bo‘yiga kengaytirdik. Ayrim moddalarni shakllantirishda differensiatsiya yuz berdiki, bunga tabiiy talab va ehtiyoj bor edi.

Kimyo fanida bir zamonlar: *“Atom – eng kichik zarra”,* – degan qoidaga qat’iy ishonilgan. Odamzodning aqli bir nuqtada to‘xtab turmaydi. Ilm ham inchunin. Olimlar atomning ham ichki bo‘linishlarga egaligini kashf etishdi. Atom kichik zarra ekani inkor etilgani yo‘q. Faqat u eng kichik zarra emasligi ma’lum bo‘ldi. Chunki atomning o‘zi yana kichik zarralar birligidan iborat ekani oydinlashdi. Atom yadrosi proton va neytronlardan tashkil topishi ayonlashdi. Ular, umumiy qilib, *“nuklonlar”* deyiladi.

Konstitutsiya moddalarining yangi talablar asosida kengayishini shunga o‘xshatish mumkin.

**25. Uch muhim jihat**. Modomiki, Konstitutsiya haqida gap ketar ekan, uch muhim jihatni nazarda tutish zarur va shart. Maqsadga aynan shu uchalasining o‘zaro uyg‘unligi orqaligina erishiladi.

B i r i n ch i s i – zamon va makon talablariga maksimal darajada mos keladigan Konstitutsiya va qonunlar qabul qilish. Mavjud Konstitutsiyaga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishdan ko‘zlangan bosh maqsad ham aynan shu edi. Konstitutsiya qancha mukammal bo‘lsa, u jamiyat taraqqiyoti uchun shuncha qulay imkoniyatlar yaratib beradi.

I k k i n ch i s i – xalqning Konstitutsiya va qonunlarni mukammal bilishi. Bu jihatdan umumiy ahvolimiz, ochig‘i, maqtangudek emas. Kamina Germaniya, Kipr, Rossiya, Turkiya, Eron kabi davlatlarda bo‘lgan. Ularda aholining siyosiy ongi, uning tarkibiy qismi hisoblanadigan huquqiy tasavvurlari juda balandday tuyuladi.

Shu jihatdan yangilanayotgan Konstitutsiya loyihasining muhokamalari, referendumoldi targ‘ibot-tashqiqot kampaniyasi jarayonlarida Konstitutsiya, uning normalari, tegishli moddalari mazmun-mohiyati, saylov bilan referendum o‘rtasidagi farq, davlatning Asosiy qonuni xalq ishtirokisiz qabul qilinmasligi bilan bog‘liq ko‘p masalalarda fuqarolarimiz fikri birmuncha teranlashdi. Rosti, bu jarayon ommaning siyosiy-huquqiy ongini rivojlantirishda muhim bir qadam bo‘ldi. Axir, fuqaro qonunni bilsa, unga bo‘ysunadimi yoxud bilmasdan ham bekamu ko‘st amal qilib ketaveradimi?

U ch i n ch i s i – Konstitutsiya va qonunlarga qat’iy amal qilish. Qonunbuzarliklarni, shartli ravishda, ikkiga bo‘lish mumkin. Avvalo bilmaslik oqibatida, qolaversa bilib turib qonunni buzish. Mana, yangilangan Konstitutsiya qabul qilindi. Endi unga hamma, ya’ni davlat, uning katta-yu kichik barcha mulozimlari, xalq bu normalarga bo‘ysunishi lozim va shart. Unga amal qilmaslik yoki uni buzish qonunlar asosida jazolanadi. Davlat har qanday qonunbuzarlik uchun muqarrar jazo tayinlashini bo‘yniga olganmi, marhamat qilib, shu funksiyasini to‘liq bajarsin. Shundagina maqsadga yetiladi. Shu tariqagina jadal taraqqiyotga yo‘l ochiladi.

Keling, mukammal Konstitutsiya qabul qilindi, targ‘ibot-tashviqot ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilib, fuqarolar undan yetarli darajada boxabar etildi, ham deylik. Lekin jamiyatda ko‘rib-bilib turib, Konstitutsiyaga tamoman zid faoliyat bilan shug‘ullanayotganlar kammi? Hattoki, bilmay turib zid ish qilayotganlardan ko‘ra bilib turib ters faoliyat olib borayotganlarning taraqqiyot uchun zarari ko‘proqdek ham tuyiladi.

**26. Professional targ‘ibot zarurati**. Konstitutsiya targ‘ibini noprofessional darajalarga tushirib qo‘yishning foydasidan ko‘ra ziyoni ko‘p. Bu odamlarni bezdiradi. Istaysizmi-yo‘qmi, ishga yolg‘on aralashadi. Haqqoniylik va samimiylik o‘rnini yuzakilik, yasamachilik, yaltir-yultirchilik, *“ura-ura”*chilik va soxtakorlik egallaydi.

Davlat o‘z vazifasini bajarishga majbur. Fuqaro Konstitutsiya va u asosda qabul qilingan qonunlarga bo‘ysungan holda yashaydi, faoliyat olib boradi. Ammo amalda Konstitutsiya va qonunlarni bilmagan fuqarolar faqat va faqat rahbarlarining topshiriqlarini bajaradi, ularning qonuniymi yoki

qonunga zidmi ekani bilan mutlaqo qiziqmaydi. Chunki bilmaydi-da. Aholining ongsizligi hamma zamon va makonlarda ham bir hovuch odamlarga juda-juda qo‘l keladi, totalitarizm, monopolizm, diktatura, byurokratiya va yana qanchadan-qancha bashariyatni orqaga tortadigan illatlarning soyiga suv quyadi.

Har qanday Konstitutsiyada eskirgan, o‘zgartirilishi zarur normalar bo‘lishi mumkin. Ammo bir haqiqatni unutishga hech kimning haqqi yo‘q: muayyan bir davrda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar uchun Konstitutsiya aybdor bo‘lavermaydi. Aybni ijro qilinmasligi va buning ustidan nazoratning sustligidan izlanishimiz kerak.

**27. Insof konstitutsiyaviy norma emas.** Konstitutsiyada *“insof”* degan norma yo‘q. Bo‘lishi ham mumkin emas, axir. Chunki insofning me’yori, mezoni, o‘lchovi, chegarasi bo‘lmaydi.

Xalqimiz orasida: *“G‘ar bo‘l, o‘g‘ri bo‘l, insofli bo‘l”,* – degan g‘alatiroq maqol ko‘p ishlatiladi. Qonun bunday egiluvchanlikni mutlaqo qabul qilmaydi. Qonunda g‘ar bo‘lish ham, o‘g‘ri bo‘lish ham qat’iyan, ya’ni mutlaq holda man etiladi, vassalom.

Aks holda: *“Pora olsang, ming dollar olma, insofli bo‘l-da, yuz dollar ol”,* – deganga o‘xshash Konstitutsiya va qonunlarga tamoman zid normaga fatvo berilgandek bo‘lib qoladi-ku. Mabodo, shunday deyilsa, buni boshqa birov: *“Pora olsang, yuz ming dollar olma, insofli bo‘l-da, ming dollar ol”,* – deb tushunsa-chi?! Axir, insofning o‘lchovi, toshu tarozisi – yo‘q-da.

**28. Bilish fazilatlari va bilmaslik oqibatlari.** Fuqaroning Konstitutsiyani bilmasligi oxir-oqibat uning ziyoniga ishlaydi. Chunki u aynan bilmagani uchun o‘ziga berilgan huquq va erkinliklardan foydalanmaydi.

Bir yorqin misol keltiraman. Bir necha yildirki, mamlakatimiz soliq sohasida aholi manfaatlariga bevosita xizmat qiladigan *“Cashback” (“Keshbek”)* tizimi joriy etilgan. Garchi qo‘limizda aniq statistik ma’lumot bo‘lmasa ham, ishonch bilan ayta olamizki, fuqarolarimizning yarmidan ko‘pi bundan foydalanmay kelyapti. Chunki bundan tamoman bexabar-da.

Xo‘sh, bu qanday tizim? U fuqaroga nima beradi?

Hammamiz mehnat qilib, daromad topamiz. Kundalik hayot esa ana shu daromadimizni sarflashni taqozo etadi. Busiz hech iloji yo‘q. Yashash kerak-ku, axir! Ana endi ana shu amalga oshirgan xaridingiz uchun chek talab qilishingiz kerak. Keyin “Play market”, ya’ni aqlli telefonlar uchun ilovani ko‘chirib olish tizimidan *“soliq.uz”* ilovasini telefoningizga ko‘chirib olasiz. Telefon raqamingiz orqali ro‘yxatdan o‘tasiz. Qo‘lingizdagi xaridingiz haqidagi chekingizni *“QR”* kodi orqali telefoningizga o‘qitasiz. Chek summasining 1 foizi shu zahoti hisobingizga tushadi. Savdo va xizmatlar sohasida qancha ko‘p sarflasangiz, shuncha ko‘p mablag‘ hisobingizga o‘tib boraveradi. Oy oxirida tizim avtomatik ravishda to‘lovlaringizni tekshirib, sarflagan pulingizning 1 foizini o‘zingiz ko‘rsatgan plastik kartaga tashlab beraveradi.

Kattaroq oilalar oyiga 10 million so‘mlik xarid qiladi, deylik. Oy oxirida shuning 100 ming so‘mi o‘ziga qaytib keladi. Bir yilda esa bu 1 million 200 ming so‘mni tashkil etadi. Yomonmi? Qorningizga tepadimi? Yo‘q. Axir, 100 ming so‘mga uchta tovuq go‘shti qo‘lga kiradi, 15 litrdan ortiq benzin olasiz va hokazo.

Cho‘ntagingizda 1 ming 400 so‘mingiz bo‘lmasa, avtobusga chiqa olasizmi? Yo‘q. Nega unda shuncha haloldan halol rizqingizni aynan besavodligingiz uchun havoga sovuryapsiz? Buning bola-chaqangiz oldida ham, Xudo oldida ham javobgarligi yo‘qmi? Axir, isrof emasmi bu?!

Shu kichik misoldan katta xulosa chiqarsa, bo‘ladi.

Masalaning ikkinchi tomoni ham bor: siz o‘z manfaatingiz uchun sotuvchidan chek talab qilish bilan biryo‘la uning daromadini soliqdan yashirish jinoyatiga bolta uryapsiz. Chek urildimi, u – qonuniy tarzda daromadidan soliq to‘lashga majbur. Soliq tizimining yaxshi ishlashi amalda davlatning o‘z funksiyalarini bekamu ko‘st bajarishiga asos bo‘ladi. Maktablar, poliklinikalar bunyod etiladi va boshqa xalq uchun foydali ishlar amalga oshiriladi. Bundan esa fuqarolarning barchasi birday manfaatdor bo‘ladi. Shu tariqa yashirin iqtisod jinoyatining tomir otishiga qo‘ymagan bo‘lasiz. Bozorda noqonuniy savdoning yo‘li to‘siladi.

Arzimagan maoshidan ham davlatga soliq to‘lab turgan bir paytda nima uchun qo‘lidan har kuni millionlar o‘tayotganlar soliq to‘lamasligi kerak?

**29. Farmon va ijro.** Shu yilning 8-mayida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”*gi farmoni imzolandi. Referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yoqlab ovoz bergani xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topgani haqli ravishda qayd etildi.

Konstitutsiya yangilandi. Bundan buyon har qanday qonun yoki qonunosti hujjati shunga mos ravishda qabul qilinishi aniq. Eski qonunlarning bariga esa yangilangan Konstitutsiyadan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi. Mazkur farmonda belgilandiki, “yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmaganligi vaji bilan qo‘llashni rad etish qat’iyan taqiqlanadi”.

Yana urg‘u berib ta’kidlandiki: “Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi”.

Shuningdek, farmonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyani so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining

birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi, ularning rahbarlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash uchun shaxsan javobgar etib belgilandi.

Farmon bilan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi, Konstitutsiyaning ustuvor g‘oyalarini ro‘yobga chiqarish va normalarini hayotga tatbiq etish bo‘yicha Davlat komissiyasi, Konstitutsiyadagi suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat prinsiplarini izchil amalga oshirish bo‘yicha ekspertlik kengashlari tarkiblari tasdiqlandi va bu tuzilmalarning vazifalari belgilab berildi.

Albatta, endi barcha normativ-huquqiy hujjatlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtiriladi. Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimi joriy etiladi.

Farmonning 9-bandida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 32-moddasida belgilangan mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqi to‘liq ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda *“Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lgan shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalarining ro‘yxati to‘g‘risida”*gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish bo‘yicha qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish, Ichki ishlar vazirligiga esa bir oy muddatda fuqarolarni yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda xabardor qilish tartibini joriy etishga qaratilgan mutlaqo yangi mexanizmlarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni loyihasini taqdim qilish yuklatildi.

2023-yil 1-sentyabridan respublika fuqarosi hisoblangan va 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning madaniy meros obyektlariga, jumladan, ko‘rgazmalar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, shuningdek, davlat muzeylariga to‘lovsiz kirish tartibi joriy etiladi. Qisqa muddatda *“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”*gi qonun loyihasini qabul qilish ko‘zda tutilyapti. 2023-yil 1-vgustidan esa soliq to‘lovchilar tomonidan, yoshidan qat’i nazar, farzandlarining O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishlari uchun yo‘naltiriladigan to‘lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritiladi.

Farmonda, shuningdek, mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini ta’minlash, chakana savdo va xizmat ko‘rsatish, *“yashil moliyalashtirish”* mexanizmlarini tatbiq etish, ma’muriy sudlarga shikoyat qilishda fuqaro va tadbirkorlik subyektlaridan davlat bojini undirish tartibini yangilash, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikda shartnomaviy va boshqa fuqaroviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan javobgarlik choralari-

ni bekor qilish, belgilangan muayyan muddatlarda qonunchilik bazasini to‘liq xatlovdan o‘tkazib, unda belgilangan huquqiy ta’sir choralarini mutanosiblik prinsipiga muvofiqlashtirish, jinoyat protsessida himoyachining maqomini kuchaytirish maqsadida unga qo‘shimcha huquq va vakolatlar berish, advokatura sohasiga yosh kadrlarni faol jalb qilish, himoyachining huquq va vakolatlarini kengaytirish, advokat yordamchisi sifatida ish faoliyatini olib borish tartibini takomillashtirish va boshqa vazifalar aniq-tiniq qilib belgilangan.

Eng muhimi, 2023/24-o‘quv yili boshlanguniga qadar barcha ta’lim turlari va bosqichlaridagi Konstitutsiyani o‘rganish bo‘yicha o‘quv rejalari va ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni yangi tahrirdagi Konstitutsiya norma va qoidalariga moslashtirish, o‘quvchilarga, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani o‘rgatish bo‘yicha zamonaviy metodika asosida darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va maxsus adabiyotlarni Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan yaratish, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning moddama-modda ilmiy-amaliy sharhini tayyorlash ham ko‘zda tutilgan, ommaviy axborot vositalarida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning hayotga tatbiq etib borilishi, shu jumladan, aholining turmushidagi ijobiy o‘zgarishlarni keng yoritish tavsiya etilgan.

**30. Eng ko‘p o‘qilishi kerak kitob.** Mana, yangilangan Konstitutsiyani qabul qildik. Hech kim Konstitutsiyani o‘qimay turib, u haqda fikrlashga haqli emas. Bizda shu paytgacha Asosiy qonun o‘qiladigan kitoblar sirasiga kiritilmay kelgan. Bu tasavvurni o‘zgartirishimiz kerak. Buni bartaraf etishda ziyolilar ulkan hissa qo‘shishi zarur. Shuning uchun eng katta vazifa endi boshlanadi. Bundan bu yog‘i bosh masala – yangilangan Konstitutsiyaning shaxsan menga, shaxsan sizga, shaxsan unga daxldorligini tushuntirishdan iborat.

Ammo bu balandparvoz, osmonchoʻqqi gaplar bilan, *“ura-ura”*chilik orqali bo‘ladigan ish emas. Natijaga bosiqlik bilan, professional darajada, tizimli asosda, doimiy tarzda targ‘ib va tashviq qilish orqali erishiladi.

Ifodali qilib aytganda, yangilangan Konstitutsiya fuqarolarning cho‘ntagiga solib qo‘yish kerak. Aslida, Konstitutsiya – eng qiziqarli bir kitob. Odamlar bundan keyingi faoliyatida Konstitutsiya tayanch bir qurol ekanini, unga suyanib yashash lozimligini, u kishini xatolardan qaytarib turishini ich-ichidan his qilsin.

Xalq – davlat faoliyatiga baho berishga haqli. Davlat faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazorati o‘rnatish demokratiyaning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Biroq hech kim davlatning faoliyatiga munosabat bildirishda masalaga o‘zicha-o‘zi yoki *“menimcha, shunday”, “menga shu yoqmayapti”* degan pozitsiyadan turib yondasha olmaydi. Unda oqni *“qora”,* qorani *“oq”* deb qo‘yshi xavfi yuzaga keladi. Oqni *“oq”,* qorani *“qora”* deyish uchun avval nima oq-u nima qoraligini aniqlashtirib olishga to‘g‘ri keladi.

Bunda Konstitutsiya va u asosda qabul qilingan qonunlarga suyangan holda ish tutiladi.

Shu tariqa fuqarolarda siyosiy-huquqiy ong shakllanadi. Bu esa fuqarolarning faollashishiga zamin bo‘ladi. Fuqaro qancha faollashsa, jamiyat shuncha yutadi. Chunki taraqqiyot tezlashadi.

**31. Yana bir katta siyosiy jarayon.** Shu kunlarda O‘zbekistonimizda yana bir katta siyosiy jarayon boshlandi. Yangilangan Konstitutsiya amal qilishi boshlanishi bilan mamlakat hayotining barcha jabhalarida yangi normalarga suyanishga kirishildi.

Bu esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini ham taqozo etdi.

**32. Taraqqiyot kafolati.** Taraqqiyot qonunlarda belgilangan asosda yuz berishi kerak. Bo‘lmasa, boshboshdoqlik avj olishi, ya’ni davlat ham chegaradan chiqishi, xalq ham davlatga bo‘ysunmay qo‘yishi mumkin.

Konstitutsiyani yangilashdan ko‘zlangan bosh maqsad – taraqqiyot va yana taraqqiyot. Nima qilsak, qilaylikki, mamlakatimiz imkon qadar tezroq qoloqlik botqog‘idan chiqib, ilg‘orlar safidan o‘rin olsin.

Taraqqiy etmasak, bo‘lmaydi. Axir, iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ayrim yon qo‘shnilarimizdan ham yillar orqada qoldik-da. Buning ham obyektiv, ham subyektiv sabablari bor, albatta. Markaziy Osiyodagi umumaholining teng yarmi O‘zbekistonimizda istiqomat qiladi. Lekin bizda hudud – ozroq, aholi – nihoyatda ko‘p. Bizning yukimiz juda og‘ir. O‘zimizning xos muammolarimiz ham oshib-toshib yotibdi.

Biroq mamlakat jadal rivojlanish bosqichiga kirganini ko‘zimiz bilan ko‘rib, qo‘limiz bilan ushlab, sezib turibmiz. Keyingi yillarda poytaxtimizning Sergeli va Yangihayot tumanlari hududida 1 million aholi uchun yangi uy-joylar bunyod etildi. Bu katta bir shahar, degan gap. O‘zbekistonimizda, Toshkentdan tashqari, hali 1 millionlik aholiga ega shahar – birorta yo‘q. Ana shu ko‘pqavatli yangi imoratlar orasidan yerusti metrosi o‘tkazildi. Unda yursangiz, o‘zingizni boshqa bir shahardadek his qilasiz.

Bizda qanday madaniyat, qanaqa yuksak tamaddun ravnaq topgan, ajdodlarimiz bashariyat umumtaraqqiyotiga qanday ulkan hissa qo‘shgan! O‘sha xalqning avlodi sifatida rivojlanishga har birimiz qo‘limizdan kelgani qadar hissa qo‘shishimiz zarur. Shuning uchun yangilangan Konstitutsiya davlatning gardaniga ham, xalqning bo‘yniga ham yangi-yangi vazifalar yuklaydi. Endi shuni og‘ishmay amalga oshirish shart bo‘ladi.

Axir, O‘zbekiston ahli rivojlanishga har jihatdan loyiq xalq.

Bunga uning to‘la haqqi ham bor.

# YOSHLARDA DAXLDORLIK FAZILATINI TARBIYALASHNING NAZARIY VA TEXNOLOGIK MOHIYATI TO‘G‘RISIDA

**Muhammadjon QURONOV,**
*T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zPFITI bo‘lim boshlig‘i,*
*pedagogika fanlari doktori, professori*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqola yoshlarda daxldorlik fazilatini tarbiyalashning nazariy va texnologik mohiyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, oilada, ta’lim muassasasida ma’naviy tarbiya masalasi ochib berilgan.*

***Kalit so‘zi:*** *yoshlar, tarbiya, fazilat, ma’naviyat, ma’rifat, daxldorlik, mafkura, g‘oya, ilm, tafakkur, Vatan.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida bugungi tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatimizni muntazam asosda, har tomonlama kuchaytirishimiz shartligi va bu – zamon talabi ekanligi qat’iy ta’kidlandi[13]. Darhaqiqat, bugun buzg‘unchi mafkuralar o‘z saflarini yoshlar hisobidan to‘ldirishga intilmoqda, ularni ovlamoqda. Shuning uchun har bir o‘zini hurmat qilgan davlat yoshlarini o‘ylab, ularda o‘z kindik qoni tomgan Vataniga, ota-bobolariga, xalqiga farzandlik oqibatini, daxldorlikni o‘stirishga urinmoqda. Dunyo notinch. Jadallashayotgan globallashuv hammani shoshirib qo‘ydi. Notinchliklar mafkura sohasidan boshlanib, xalqaro munosabatlar, iqtisod, siyosat, ijtimoiy, harbiy sohalargacha ta’sir ko‘rsatayapti.

Globallashuv tufayli dunyoning mafkuraviy manzarasi o‘zgarib bormoqda. Bu fikrning “ichi”ga qarasak, manzarani – yoshlar, yoshlarni g‘oyalar o‘zgartirayotganini ko‘ramiz. Bunday vaziyatda yoshlarimizni yot g‘oyalardan himoya qilish – hayotiy shart. Lekin buning uchun hayot bizdan bir aniq savolga aniq, bitta, ya’ni ilmiy javobni kutmoqda. Buning uchun “G‘oyaning yoshlarga ta’siri nimadan, qaysi nuqtadan boshlanadi?”, degan savol. Mana shu savolga ilmiy-pedagogik javob kerak. Mana shu nuqtaning nomi kerak. Bu nuqtaning nomi daxldorlik. Daxldorlining ijtimoiy pedagogik ta’rifini insonning biror voqea, masala, predmet, odam, guruh, mahalla, davlat, millat, madaniyat, tarix, kelajak, oila, partiya va shunga o‘xshash obektlarga shaxsiy munosabati va shu munosabatni o‘z fikri, tuyg‘usi va xulqida namoyon qilishidir, deyish mumkin. Bu munosabat faol, o‘rtacha, yoki past(befarq) bo‘lishi mumkin.

“Daxldorlik” tushunchasi umumiy leksik ma’noda “o‘zini taalluqli deb bilish”, “tegishli bo‘lish”, “e’tiborga olish”, “yuz-xotir qilish, yuzidan o‘tolmas-

[13] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2017 йил. 23 декабрь.

lik”, “o‘z ehtiromini tasdiqlash”, “o‘zini hurmat qilmoq”, “hurmat qilmoq”, “hurmatda bo‘lish”ni bildiradi. Ingliz tilida esa somplicity, participatt, ya’ni “birga bajarish”, “ishtirok”, “ishtirok etish”, “qatnashchi” ma’nolarida keladi[14].

Faylasuf olim Otabek Bozorov o‘zining “Sog‘lom ma’naviy muhit kushandasi” risolasida ma’naviy qashshoqlikning asosida insonlardagi loqaydlik, beparvolik, xudbinlik, dangasalik, boqimandalik kabi illatlarning bartaraf etishning birdan-bir yo‘li insonlarda jamiyatda bo‘layotgan voqelikka, atoro-muhit, odamlar, davlat taraqiyoti uchun qilinayotgan siyosiy jarayonlarga, yurt taqriga nisbatan daxldorlik fazilatini shakllantirish orqaligina erish mumkinligini qayd qilib o‘tadi[15].

Millatning birlashuvi uning farzandlaridagi daxldorlikdan “bu men uchun muhim”, degan nuqtadan boshlanadi. Yaqinda xalqimiz, butun dunyo xalqimizda yuksak huquqiy madaniyatga yo‘g‘rilgan daxldorlikning go‘zal namunasini ko‘rdi. Bu taraqqiyotimiz uchun tarixiy voqea – referendumdagi ijtimoiy daxldorlikda ko‘rindi. Turli millat, din, kasb, yoshdagi vatandoshlar birlashdi.

Keksa-yu yosh vatandoshlarimiz o‘z daxldorligini Yangilangan Konstitutsiya “Meniki!”, “Seniki!”, “O‘zimizniki!”, “Bizniki!”, deb yozilgan shiorlarni boshlaridan baland tutdilar. Bag‘irlariga bosdilar. Biz bir birimizni shunday ko‘rdik. Bu birlikni qalbda tuydik. Yuraklarimiz bir xil ura boshladi.

Bu ijtimoiy onglilik, faollikning suratlari ko‘zlarimizda qoldi. Buxoro-yu Samarqand, Farg‘onayu Nukus, Termizu Toshkentda bu metin daxldorlik sobit turdi. Tuman, qishloqlarda yoshlardan bu shiorlarning ma’nosini (daxldorliklarining sababini) so‘radik. Ularning javoblari “men”, “siz”, “biz” degan so‘zlar bilan boshlanardi. Bu daxldorlikni yurtimizning yetakchi jamiyatshunos olimlari bilan muhokama qildik. “Birlashsa bo‘lar ekan-ku!”, deb birbirlarimizni qutladik. Mana shu birlashuvni qo‘ldan bermaslik yo‘llarini izladik.

Daxldorlik ko‘po‘lchamli ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, axloqiy kompetensiya. Uning ko‘lamlari bor. Odamning o‘z o‘ziga daxldorligidan oilasiga, qo‘ni-qo‘shni, qarindoshlar, mahalla, tuman-shahar, viloyat, mamlakat, mintaqa, dunyo miqyosigacha. Kundalik hayotda daxldorlikning ko‘lami biroz tordek tuyuladi. O‘z-o‘zimizga, mulkimizga, sog‘lig‘imizga tegishli narsalarga juda daxldormiz. Oilamizga, qarindoshlarimizga daxldormiz. Ukamiz, akamiz, tog‘a, jiyanmiz, qo‘shni, mahallamiz haqida o‘ylab, so‘ylab, nimalardir qilamiz. Ko‘chamiz, mahallamiz darajasidagi ishlarda ham bormiz. “Bu men uchun muhim. Menga bari bir emas”, deymiz.

Bugungi tahlikali mafkuraviy kurashlarga to‘la hayot yoshlarimizdan

[14] Инглизча-ўзбекча луғат. 15000 сўз. (Тузувчилар: Ғ.Раҳмонов, А.Аъзамов, Д.Кадирбекова). – Т.: “Talqin” нашриёти, 2014. – Б.62.

[15] Бозоров О. Соғлом маънавий муҳит кушандаси //; Республика маънавият ва маърифат кенгаши, Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. – Тошкент: “Истиқлол нури”, 2013. 76 б.

Yangi O‘zbekiston darajasidagi, faol daxldorlikni talab qilmoqda. Har birimizdan “Men Yangi O‘zbekiston ravnaqi, himoyasi, kuch-qudrati, obro‘sini oshirish uchun nima qila olaman? Nima qildim?” deb o‘ylashni, so‘ylashni va albatta nimadir qilishni kutmoqda.

Daxldorlik ko‘zga ko‘rinadigan ish, xulq. Milliy darajadagi daxldorlik odamning o‘z xalqi yutuqlaridan quvonishida, nimadir qilishida ko‘rinadi. Daxldor fuqarolari ko‘p mamlakatning buguni va ertangi kuni porloq. Agarda insonda daxldorlik ko‘lami tor, ojiz bo‘lsa, bilingki u befarq odam. Uni oilasining ham Vatanining ham hayoti, taqdiri qiziqtirmaydi. Yangi O‘zbekistonning barpo bo‘lishi har birimizning bu ulug‘ ishga daxldorlik darajamizga bog‘liq.

Shunday ekan, bugungi kunda  har bir faol ziyolining asosiy vazifa va burchlaridan biri – ayrim odamlardagi befarqlik kayfiyatini yo‘qotib, daxldorlik tuyg‘usini rivoj toptirishdan iborat. Bu ishni bilib, ilmiy asosda qilinsa, natija bo‘ladi. Buning uchun esa daxldorlikning ziddi – loqaydlik va uni keltirib chiqaradigan holat va sabablarni aniqlash kerak bo‘ladi.

Loqaydlikning sababi nimada? Loqaydlikni keltirib chiqaradigan sabablardan biri bu mas’uliyatsizlik hisoblanadi. Ya’ni odam nimanidir bajarish uchun o‘zida mas’uliyat his qilmaydi. Buni men emas, boshqa odam bajarishi kerak, yoki umuman bajarmasa ham bo‘laveradi, deb hisoblaydi. Natijada aynan o‘sha ish bajarilmay qolib, buning zarari jamiyatga tegadi. Daxldorlik – odam bilan odamni, xalqini, Vatanini, tarix, kelajakni bog‘laydigan rishta. U uxlayotgan odamni – uyg‘otadi, yotganni – turg‘izadi, turganni – yurgizadi, yurganni – yugurtiradi. Ana shuning uchun ham daxldorlik bebaho strategik kapitaldir.

Daxldorlik mavhum, nazariy, chiroyli so‘z emas. Daxldorlik bu – xulq. To‘g‘ri, lekin bu xulq ko‘zga qanday ko‘rinadi? Yangi Konstitutsiyamizga “ijtimoiy axloq(xulqlar)” degan ibora kirdi. Daxldorlik aynan ijtimoiy, e’zozli xulq. Har birimizda daxldorlikning uch darajasidan biri bor. Uning quyi darajasi(Yangi O‘zbekistonni bunyod qilish misolida) dilda: O‘zbekistonni Mening O‘zbekistonim, Mening Vatanim, deb his qilish. “Hozir va shu yerda” o‘ylash. O‘rta darajasi – Yangi O‘zbekistonni bunyod qilish, unga bir farzand bo‘lib xizmat qilish haqida (“hozir va shu yerda” tamoyili asosida) ishda, ijtimoiy tarmoqlarda so‘ylash, yozish, gapirish. Daxldorlikning yuqori darajasi esa (“hozir va shu yerda” tamoyili asosida) amaliy, jismoniy ishlarga o‘zining doxil deb, amal, harakat qilishida, boshqalarni mana shu ulug‘, tarixiy ishlarda ishtirok etishga chorlashda ko‘rinadi.

Hurmatli Prezidentimizning har bir chiqishlari, bildirgan fikrlari yoshlarimizda daxldorlikni tarbiyalash uchun bebaho g‘oyaviy manba. Mana, yaqinda, 2023-yil 24-may kuni Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining bitiruvchi yoshlariga yo‘llagan tabriklarini olaylik. Unda bolalarimiz Prezidentimizning Vatanga daxldorlikka kuch va ilhom beruvchi otashin o‘gitlarni

o‘qidilar. Mana, bolalarimizni baxt yo‘liga boshlagan, otalik mehriga, umid, ishonch va rag‘bat to‘la fikrlardan ayrimlari: “Siz, aziz farzandlarimizni kelajakda yanada ulkan va mas’uliyatli marralar kutmoqda. Har biringiz hayotda munosib o‘rningizni topishingiz uchun biz bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to‘liq ishga solamiz.

Men siz, aziz farzandlarimdan bir narsani so‘rayman: tinimsiz o‘qib, izlanib, zamonaviy bilimlarni egallashdan aslo to‘xtamang! Doimo vaqtning qadriga yetib, muntazam bilim va tajribangizni oshirib borsangiz, qat’iy belgilab olgan reja va maqsadlaringiz sari dadil harakat qilsangiz, albatta kelgusida katta muvaffaqiyatlarga erishasiz.

Sizlarning doimo marrani baland olib, yagona kuch bo‘lib harakat qilishingizga ishonaman. Sizlar bunga albatta qodirsiz”.

Ushbu dasturiy g‘oyalarni pedagogik tahlil qilib ko‘raylik. Tabrikda 18 yoshli o‘g‘il-qizlarimizga ulkan va mas’uliyatli marralar ko‘rsatildi. Bu “istiqbolni ko‘rsatib tarbiyalash”, degan tarbiya metodiga kuch beradi.

Bu iboralarda qudratli motivatsiya mujassam. Ularni mana bu iboralarda mujassam qilib, baland ovoz bilan o‘qiylik:

“Siz uchun bor kuch va imkoniyatlar ishga solinadi!”,

“Aslo to‘xtamang!”.

“Vaqt qadriga yeting!”,

“Zamonaviy bilim va tajribangizni oshiring!”,

“Rejali, dadil harakat qiling!”,

“Marrani baland oling!”,

“Birlashib, yagona kuch bo‘ling!”.

“Muvaffaqiyat sizniki bo‘ladi!”.

“Siz bunga qodirsiz!”.

Bu 9 da’vat bilagida kuchi, yuragida orzu, tomirlarida qoni ko‘pirayotgan har bir o‘spiringa qanot berdi. Bizning ortimizda davlatimiz bor, Prezidentimiz bor, degan buyuk daxldorlikni berdi. Bu da’vatlar ularni harakatga keltiradigan kuch – drayver bo‘ldi.

Biz – ma’naviyat va ma’rifat, tarbiya ahli yoshlarimizni mana shu g‘oyalar asosida daxldorlik hissini kuchaytirib, muttasil mustahkamlab borishimiz zarur. Agar bo‘shashsak, yoshlarimizda yon-atrofda bo‘layotgan barcha voqea-hodisalarga daxldorlik o‘rnini – bexabarlik, bexabarlik o‘rnini – befarqlik egallab olishi mumkin.

Chunki globallashuv bois nafaqat yaxshi, balki yomon illatlar ham ommalashmoqda. Terrorizm, missonerlik, diniy ekstremizm, “ommaviy madaniyat”, gedonizm, eskapizm, daunshifting, loqaydlik, befarqlikni targ‘ib qiluvchi axborot xurujlari ko‘paymoqda. Bularning bari yoshlarga qaratilgan g‘oyaviy tahdidlar.

Egotsentrizm (lot. “yego” – men, “centrus” – markaz) manmanlik va xudbinlikning uchiga chiqqan shakli: shaxsning faqat o‘z qiziqish doirasi-



ZJV5401

gagina bog‘lanib qolishi, boshqalarning fikri bilan hisoblashmay, faqat o‘z fikrlari va shaxsiyatini yuqori qo‘yishi. Bu illat jaholat, radikallashuv va aqidaparastlikdan qolishmaydi. Egotsentrizm mafkurasi “Zamonaviy bo‘lsang – o‘zingni o‘yla”, deb yoshlarimizdagi mafkuraviy immunitetni – to‘siqni olib tashlashga harakat qilmoqda. Chunki xudbin odam hech qachon boshqalarni o‘ylamaydi. O‘z xalqi, Vatani manfaatlari uchun birlashmaydi, kurashmaydi. Vatan taraqqiyotidan ko‘ra unga o‘z tinchligiyu badavlat yashashi, o‘zining kundalik orzu-istaklari ustun turadi.

Daxldorlikning yana bir ziddi – eskapizm (inglizcha yescape – qochish, yashirinish, zohidlik, tarkidunyochilik). Odamning kundalik real hayotdan o‘z xayollari dunyosiga ketishi, uzlati. Boshqalar bilan kelisha olmasligi. Dunyo tajribasida bu ko‘pincha yirik o‘zgarishlar, islohotlar davrida kuzatiladi[16].

Eskapizm faol va passiv shakllarda uchraydi. Faol eskapizmda odam kino ko‘rishga, o‘yinga ruju qo‘yishi, rohat-farog‘atga, alkogol, narkotiklarga, meditatsiyaga berilib ketadi. Passiv eskapizmda esa odam uzlatga chekinishi, jamiyatda yashab turib, uning qadriyatlariga, mamlakat kelajagiga qiziqmay, begonalashib, befarq, o‘z xayollariga cho‘mib yashashi mumkin. Eskapizm “Odamlar orasida yashash – g‘urbatning o‘zi. Vatanim deb boshingni og‘ritma. O‘z xayollaring bilan yasha”, deydi.

Daunshifting – (inglizcha *downshifting*, avtomobil tezligini pasaytirish; u yoki bu jarayonni sekinlashtirish, sustlashtirish). Bu so‘z “o‘zi uchun yashash”, “jamiyat, Vatan bilan bog‘liq maqsadlarni rad etish” falsafasini ifodalaydi. Dunyoda bu falsafaning muxlislari, daunshifterlar jamiyatlari ko‘paymoqda. Ular jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlardan yuz o‘girgan odamlar. Ular umum manfaatlaridan, jamiyat farovonligi, tinchligi kabi qadriyatlar uchun mehnat qilish o‘rniga o‘zi uchun yashashni ustun qo‘yishadi.

Daunshifting tushunchasi ilk bor 1994-yilda Nyu-yorkda chiqadigan Trends Research Institute v Gerald Celente haftanomasida paydo bo‘ldi. Keyinchalik Britaniya, Avstraliya va AQSh, G‘arbiy Yevropada urchidi. Keyinchalik Rossiyaga kirib keldi. Hozir Rossiyada daunshifterlar uyushmasi ish yuritmoqda. Mafkuraviy jihatdan xippiga, falsafiy jihatdan nyu-eyj, buddizmga yaqin oqim bo‘lib hisoblanadi.

Yoshlarimizda daxldorlikni susaytirishga qaratilgan g‘arazli tahdidlardan yana biri bu – ekstremistik akkauntlardir. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda eng faol toifa – yoshlar. Shu bois Internet yoshlar uchun kurash maydoniga aylandi. Bu kurashning ko‘lamini ko‘rsatish uchun yaqinda “Qalampir.UZ” telegram kanalida tarqatilgan bir ma’lumotga murojaat qilamiz. “Qalampir.UZ” 2023-yil 17-may holatiga ko‘ra, ekstremizm va terrorizm g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan deb topilgan, O‘zbekiston hududiga olib kirish, tayyorlash, tarqatish va namoyish etish taqiqlangan materiallar ro‘yxatini e’lon qildi.

[16] Белкин А.С. Витагенное образование в системе педагогического знания. (Витагенная концепция) – ‍2007 – ЎДК -С. 370.



ZJV5401

O‘rnatilgan tartibga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 60 ga yaqin qaroriga ko‘ra 500 dan ortiq kontent radikal mazmunda deb topilgan. Ularni O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, tarqatish, saqlash, olib kirish va namoyish etish taqiqlangan. Agar loqayd bo‘lsak, ayrim yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlar tarqatayotgan mana shunday ma’lumotlarga o‘rganib, asta-sekin tobe bo‘lib, yot g‘oyalarga daxldor bo‘lib qolishlari mumkin. Mana shuning uchun ham yoshlarimiz mafkuraviy himoyasini kuchaytirishning ahamiyati yildan yilga oshib borayotir.

O‘z Vatani, xalqi tarixi va taqdiriga daxldorligi kuchli yigit-qizlarning ma’naviyati nimasi bilan ajralib turadi? Ularning irodasi kuchli bo‘ladi. Nafaqat o‘zining, oilasining, balki Vatan, millat, milliy qadriyatlar himoyasida sobit turadi. Chunki unda harakatga keltiruvchi ma’naviy kuch, drayver bor. Bu – ulardagi Yangi O‘zbekiston “Meniki!”, “Bizniki!”, “O‘zimizniki!”, degan daxldorlik tuyg‘usidir. Bu tuyg‘u Yangi O‘zbekistonni barpo qilishdek umumxalq ishimizning samaradorligi, barakasi oshadi.

Yuksak marralarni tez va soz egallaymiz.

## SIFATLI TA’LIM VA GUMANITAR TARBIYA – MA’RIFATLI AVLODNI SHAKLLANTIRISH OMILI

**Qiyom NAZAROV,**
*f.f.d. professor*

***Annotatsiya*** *maqolada yoshlarni ma’naviy-axloqiy barkamol etib tarbiyalash, ularga gumanitar ta’lim-tarbiya berishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish masalalari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim-tarbiya, sifatli ta’lim, gumanitar tarbiya, yosh avlod tarbiyasi*

Bugungi globallashib borayotgan dunyoning barqaror va tinch yashayotgan xalqning mustahkam takomil topishiga rahna soladigan, uning madaniyatiga, milliy qadriyatlariga madaniy tarbiya tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan tahdidlarning ko‘payib borayotganligi har birimizni yuragimizda hadikni uyg‘otmoqda. Nega deganda, yurtimizdagi mavjud uzluksiz ta’lim tizimi aholining beshdan bir qismini qamragan xolos. Mazkur tizimni qamrab olgan yoshlardan tashqari aholining juda katta qismi orasida ta’lim va tarbiya sohasini tizimli yo‘lga qo‘yishni, bunda milliy qadriyatlarga sodiqlikka erishish zarurati bugungi kunning talabiga aylandi.

Aynan shu jihatdan ta’lim-tarbiya bir tomondan, yuksak madaniyatli jamiyatni barpo etishda asosiy negizi, ikkinchidan esa, barkamol avlodni shakllantirishning ma’rifiy vositasi bo‘lib hisoblanadi. Bu sohada yur-

timizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" hamda Davlatimiz rahbarining O'zLiDeP 11 sezdida e'lon qilingan Saylovoldi dasturida bu boradagi amalga oshirilishi zarur bo'lgan faoliyat yo'nalishlari aniq-tiniq belgilab berilgan.

Mazkur dasturda kelgusi 7 yillik muddati ichida, ya'ni 2030-yilgacha erishilishi ko'zda tutilgan maqsadlar dasturda beshta yo'nalishga bo'lingan. Bu yo'nalishda bog'chalarga bo'lgan ehtiyoj 2030-yilgacha 100 foizga qondiriladi. Maktab yetishmovchiligi muammosi esa 7 yil davomida har yili 500 mingtadan o'quvchi o'rni, jami 2,5 millionta qo'shimcha o'rin yaratish orqali hal qilinishi aytilyapti. O'zbekistondagi bog'cha va maktablarning hammasi filtrlangan ichimlik suvi bilan ta'minlanishi va'da qilindi. Keyingi 7 yilda har bitta bog'chada kompyuter sinfi, har bitta maktabda esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining hammasiga yetadigan ta'lim planshetlari bo'ladi. Informatika fanini o'qitish 1-sinfdan boshlanadi. Barcha maktablarga chet eldan chet tili o'qituvchilari olib kelinadi. Chekka hududlarda bepul maktab avtobuslari qatnay boshlaydi.

Bularning barchasi mamlakatimizda sifatli ta'limni amalga oshirish va ma'rifatli avlodni tarbiyalash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi, albatta.

Ammo Prezident asarlari hamda mazkur yo'nalishdagi qaror va farmonlarda ushbu sohadagi ishlar tahlili bilan birga, quyidagi muammolar saqlanib qolayotganligiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan: birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti;

ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

uchinchidan, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

to'rtinchidan, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqei va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va

tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

beshinchidan, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;

oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Bularning barchasi esa o'z navbatida, bir tomondan, yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonlariga faol jalb etish, ularning huquq va erkinligi hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, ikkinchidan esa, ularning ma'naviy, ma'rifiy va intellektual darajasini yuksaltirish, madaniy saviyasini oshirish, milliy qadriyatlarga sodiqligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi faoliyatni izchil davom ettirishni talab qiladi. Ayni paytda yosh avlodni yuksak ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash, huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, "ommaviy madaniyat" va yot g'oyalar ta'siridan asrash, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biridir.

Afsuski, keyingi yillarda ta'lim tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan, dunyoqarashi keng, o'z fuqarolik pozitsiyasida sobit turadigan, har tomonlama barkamol va ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan ayrim ijtimoiy-tarbiyaviy fanlarning o'quv rejalaridan chiqarib tashlanishi, o'quv soatlarining keskin qisqartirilishi milliy taraqqiyot jarayonlariga daxldorlik hissi va faol vatanparvarlik tuyg'usi susayishiga olib kelmoqda.

Ayrim ta'lim muassasalarida bu soha bilan bog'liq ishlarga ikkinchi darajali vazifa sifatida qaralayotgani, ushbu yo'nalishdagi ba'zi fakultet va kafedralarning qo'shib yuborilgani, ularning soni qisqarib, tarkibi esa haddan ziyod kengayib ketgani natijasida mazkur tuzilmalarni boshqarish hamda faoliyatini tashkil qilish samaradorligi pasayib ketgan.

Ijtimoiy-tarbiyaviy fan vakillari, professor-o'qituvchilar faoliyatini tashkil qilishda ushbu soha xususiyatlari va metodologiyasi talablari yetarli darajada hisobga olinmagan, bu boradagi o'quv yuklamalarida dars soatlari ortib ketgan. Bu esa mazkur sohadagi o'qituvchilar faoliyatining samarasi keskin pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Milliy o'zlikni anglash va mustahkamlash jarayonlariga turli yot g'oyalarning salbiy ta'siri ortib borayotgan bugungi kun voqeligi Taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq yangilanish sur'atlari, jamiyatimizning rivojlangan davlatlarga xos zamonaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan keng

qamrovli islohotlar bilan birgalikda ijtimoiy-tarbiyaviy fanlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishni talab qilmoqda.

Bugungi voqeliklar nuqtai nazaridan ijtimoiy fanlarning o‘tgan davri ortda qoldi, soxta tushuncha va tamoyillarga ehtiyojmand voqelik yo‘qoldi. Endilikda nima oq va nimaning qoraligi ham ayon bo‘ldi. Aslida, masala bunda emas, chunki u davr o‘tdi, uning ijtimoiy fanlari o‘tmishga aylandi. Ammo ijtimoiy fanlarning o‘zi o‘zgardimi? U hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yangilanib borayotgan jamiyatimiz manfaatlariga xizmat qiladigan, zamonga mos, davr bilan hamnafas va bugungi hayot talablariga javob bera oladigan fanlarga aylana oldimi? Shu sohada xizmat qilayotganlar, ya’ni biz o‘z tafakkurimiz, hayotga va fanga munosabatimizni bugungi kun talablariga mos tarzda o‘zgartira oldikmi? Bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar va himoya qilinayotgan dissertatsiyalarning “foydali ish koeffitsenti” qanday? Ularning qanchasi hozirgi davr talablariga, yangilanayotgan jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladi? Bu muhim savollar barchamizni o‘ylantiradi, bezovta qiladi, albatta.

Mazkur savollar bilan bog‘liq masalalarning bir necha jihati borki, bu avvalo, shu yo‘nalishdagi inkor va yangilanish dialektikasini to‘g‘ri tushunish, ijtimoiy fanlarni davr talablari darajasida o‘rgatish, tadqiqotlarni samarali tashkillashtirish va ilmiy kadrlarning salohiyati, eng asosiysi, bu sohada xizmat qilayotgan kishilar, ya’ni barchamizning dunyoqarashimiz va mas’uliyatni his qilishimiz bilan bog‘liqligi, shubhasiz.

Hozirgi kunda jahon taraqqiyotining ustuvor xususiyatlariga aylanayotgan globallashuv jarayonlari, keng miqyosli integratsiya, fan-texnika hamda axborot texnologiyasining beqiyos rivojlanishi ham sohaga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy o‘zlikni saqlash, xalqimizning azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga omon-eson yetkazish, miqyosi har yili ikki marta ko‘payib borayotgan son-sanoqsiz axborotlar dunyosida adashib qolmaslik, bu borada ham “oq va qora”ni ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, bugungi dunyo nafaqat globallashib yoki axborotlashib, balki texnokratlashib ham bormoqda. Mutaxasislar fikricha, buning natijasida shakllanayotgan texnokrat inson robotga o‘xshaydi, u ko‘proq vertual dunyoda yashaydi, asta-sekin boshqalardan uzoqlashib, jamiyatdan ajrala boshlaydi. Unga tarix nidolari, bobolar yodi, xalqi va yurtining o‘tmishi hamda kelajagi oldidagi qarzdorlik hissi begona, qalbida bokira tuyg‘ularga o‘rin yo‘q. U xalq dostonlarini o‘qimaydi, baxshilarning xonishlarini tushunmaydi, milliy qo‘shiqlarimizni hirgoyi qilolmaydi, mumtoz musiqalarimizni tinglab, “sel bo‘lib oqmaydi”. U qaerda yaxshi yashasa, o‘sha yer uning vatani, unga hech kim tegmasa, o‘z telefoni va komp’yuterlari dunyosiga “ko‘milib” o‘tirish uchun sharoit bo‘lsa, bas.

Zamonaviy ijtimoiy fanlar bu bilan kelisha olmaydi. Agar u o‘z tushuncha va tamoyillarini xalq maqsadlariga moslashtira oladigan, qonun va kategoriyalar yechimini davr talablaridan izlaydigan hushyor va ogoh insonlarni tarbiyalash davr ehtiyoji ekanini anglamasa, haqiqiy ijtimoiy fanlarga aylana olmaydi.

Shu munosabat bilan ta’kidlash joizki, jahon xalqlari ijtimoiy tafakkurida gumanitarizm va texnokratizmning o‘zaro munosabati, ularning hayotdagi o‘rni va ahamiyati masalasiga doir turli xil qarashlar tarixi uzoq asrlardan buyon davom etib kelmoqda. Bu borada “Texnik bilimlar va aniq fanlarning ko‘lami va ta’siri haddan ortib ketmayaptimi?”– degan xavotirlar bilan birga “Ijtimoiy fanlar mavhum va amaliy ahamiyatga ega emas, shuning uchun ularning keragi yo‘q”, kabi iddaolarning tarixi ham xuddi shunday olis o‘tmishdan boshlangan.

Aslida, bu ikkala jabha bir tananing ikki qismi, bir yaproqning ikki tomoni, qushning ikki qanoti kabi bir butun, uzviy bog‘liq va ajralmasdir. Aniq fanlar rivoji va texnik taraqqiyotsiz har qanday jamiyat hayoti va uning kelajagini tasavvur etib bo‘lmagani kabi, ma’naviyat tamoyillari, axloqiy qadriyatlar va ezgu g‘oyalar asosida barkamol avlodni voyaga yetkazadigan, uning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantiradigan ijtimoiy fanlar, xususan falsafiy bilimlarsiz hushyor va ogoh, bugungi dunyoda ro‘y berayotgan voqealar mohiyatini to‘g‘ri anglaydigan, ularga daxldorlik hissi bilan yondoshadigan zamonaviy insonni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Bu esa, o‘z navbatida, soha mutasaddilari va mutaxassislarining davr ehtiyojlarini chuqur anglashi, uning talablarini to‘g‘ri tushunishi lozimligini ko‘rsatadi. Ayni paytda, mazkur sohadagi faoliyatning barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan va 2023-2030 yillarga mo‘ljallangan maxsus Dastur ishlab chiqish va unda quyidagilarni belgilash zarurati yetilgan:

o‘quv dasturlarida nazarda tutilgan milliy qadriyat va an’analarga oid tushunchalarni mustahkamlash, axloqiy me’yor va tamoyillarni o‘zlashtirish bo‘yicha ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqot ishlarini tizimli tashkil qilish, bu borada faoliyat usullarini bosqichma bosqich takomillashtirib borish;

o‘quvchi va talabalarni milliy o‘zlikni anglash, xalqimizning o‘ziga xos urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash choralarini belgilash;

yoshlarni turli ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish va ularga qarshi kurashishda ma’naviy-ma’rifiy va g‘oyaviy-tarbiyaviy omillardan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan mexanizmni shakllantirish;

ta’lim tizimida ijtimoiy-tarbiyaviy fanlar mazmunining real hayot, yoshlar ma’naviy ehtiyojlari va faoliyat sohalari bilan bog‘liqligini ta’minlash, o‘quv rejalari va dasturlarini uzviylik va uzluksizlik asosida tayyorlash, mazkur fanlarni o‘qitishga tizimli yondashish;

ta’lim muassasalaridagi ilmiy-pedagogik faoliyat samaradorligini yanada oshirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning g‘oyaviy asoslarini mustahkamlash hamda ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar tizimining akademik ilm-fan taraqqiyoti bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish,;

ijtimoiy-tarbiyaviy fanlar bo‘yicha yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tizimli tatbiq etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik, ilmiy va yordamchi adabiyotlar bilan ta’minlash;

ta’lim tizimi va undan tashqaridagi faoliyatda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi tadbirlarni tashkil etish, talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish bo‘yicha davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini ta’minlash.

Ushbu masalalarning ijtimoiy fanlarni yangi bosqichga ko‘tarish ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlili soha mutaxassislari mas’uliyatini oshirish bilan uzviy bog‘liq ekanidan dalolat beradi. Bu borada ham nafaqat jamiyat, balki ilm-fan, xususan ijtimoiy fanlar yangilanishi o‘z-o‘zidan va muqarrar tarzda, inson modernizatsiyasini taqazo etayotgani, shubhasiz. Shu ma’noda, alloma Suqrotning “O‘zgalarni o‘zgartirmoqchi bo‘lgan inson, avval o‘zini o‘zgartirishi lozim” degan fikri bejiz aytilmagan.

Bu esa, asl ijtimoiy fanlarning asoslarini o‘rganish qanchalik zarur bo‘lsa, ularning bugungi globallashuv, texnokratlashuv va axborotlashuv jarayonlari bilan bog‘liq zamonaviy masalalari ham dolzarb vazifalarini bilib olish va erishilgan natijalarni hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish ham shunchalik muhimligidan dalolat beradi. Ijtimoiy fanlarning ayrim kategoriya va qonunlari mavhum bo‘lib qolgan, deya uni o‘rganmay qo‘yish yoki undan foydalanmaslik xato bo‘lgani kabi, ba’zi mutaxassislarning davr talablarini aks ettirmaydigan, hayotdan yiroq tushunchalarga yopishib olishi va bunday pozitsiyadan voz kechmasligi ham, xuddi shunday yanglishligi, shubhasiz.

Keyingi yillarda boshqa sohalar qatori, bu jabhadagi yangilanish va o‘zgarish, mavjud masalalar mohiyatini anglash, dolzarb vazifalarni aniqlash va ularning yechimini topish masalasida ham yangicha ilmiy paradigmalar shakllanmoqda. Xalqimizning milliy tafakkuri, ijtimoiy fanlarning evolyusiyasi va dinamikasi, umumiy qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini ana shu asosda chuqur va har tomonlama o‘rganish, uning tushuncha va tamoyillari, rivojlanish yo‘llari va samarali vositalarini aniqlash imkoni paydo bo‘ldi.

Bu esa, xalqimizning asl tarixi va mustaqillikka erishish jarayoni, milliy taraqqiyot yo‘lining mohiyati va ahamiyatini chuqur o‘rganish, aholi, ayniqsa yosh avlod tafakkurida istiqlol g‘oyalari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalash eng ustivor va mas’uliyatli vazifamizga aylangani-

dan dalolat beradi. Davr talabi shunday, ijtimoiy fanlarning modernizatsiyasi va ularni milliy taraqqiyotning muhim omiliga aylantirish ehtiyojlari ham barchamizdan shuni talab qilmoqda.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2022 yil*

*2. “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. http://www.president.uz/uz/lists/view/*

*3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning O‘zLiDeP 11 se’zdidagi nutqi va Saylovoldi dasturi. http://www.president.uz/uz/lists/view/*

## OILALARDA O‘SMIR YOSHLARNI IJTIMOIY-MA’NAVIY HAYOTGA TAYYORLASH METODIKASI

**Baxtiyor XUSANOV,**
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi “Ma’rifat” targ‘ibotchilari jamiyati rahbari*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada oilalarda o‘smir yoshlarni ijtimoiy--ma’naviy hayotga tayyorlash metodikasi yoritildi. Shuningdek, o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili berildi.*

***Kalit so‘zi:*** *oila, yoshlar, tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat, metodika, targ‘ibot, texnologiya, g‘oyalar, pedagogika, axborot.*

Bugungi murakkab va tahlikali davr hamda axborot asrida oilalarda o‘smir yoshlarni dunyoqarashi o‘zgarib bormoqda. Ularni ijtimoiy-ma’naviy hayotga tayyorlash metodikasini zamonga moslashtirishda o‘zi xos muammolari yuzaga chiqmoqda. Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Baxt-saodatga erishuv haqida”[17] va boshqa asarlarida axloq masalasi, jumladan, axloqiy tarbiyaning muhim muammolarini hal qilishga harakat qiladi. Allomaning axloq va uning asosida yosh avlodga oiladagi tarbiya berish g‘oyalari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, aksincha, axloqiy tarbiyaning yangi usul va

[17] Офаринов Қ. Абу Наср Форобий – Шарқнинг иккинчи муаллими. “Маърифат” газетаси. 2012 йил. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/abu-nasr-forobiy-sharqning-ikkinchi-muallimi/

qoidalarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Har yosh avlodni ma'nan sog'lom qilib tarbiyalash masalasi har bir davrda o'z mohiyatini va mazmunini yo'qotmagan. Kelajak avlod haqida qayg'urish eng avvalo oilada bo'lishi zarurligi yana ko'plab allomalarimiz o'z asarlarida yozib, bizga ma'naviy meros sifatida qoldirishgan. Jumladan, buyuk bobomiz Amir Temur ham "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasli-nasabi, odob-axloqi, sog'lam va baqquvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib kelin tushurdim" – deb, ta'kidlarini tarix sahifalariga qayd etadi.

Shu maqsadda, oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirish borasidagi ilmiy-pedagogik g'oyalarni amaliyotda sinab ko'rish, oilalarda tatbiq etish samaradorligini aniqlash, ularda ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda targ'ibot texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan ilgari surilgan g'oyalar natijadorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish tadqiqot ishining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini loyihalashtirish: tajriba obyekti va respondentlar kategoriyasini aniqlash; tajriba bosqichlari va ularning mazmuni, tamoyillari, mezon va ko'rsatkichlari hamda tadqiqot shakllari va usullarini belgilash; eksperimental diagnostik-kvalimetrik instrumentlarni aniqlashtirish;

Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarining axborot-analitik tahlilini amalga oshirish;

Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda targ'ibot texnologiyalarini rivojlantirish modelini amaliyotga joriy etish va samaradorlik va natijadorlik darajasini aniqlash, baholash hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Pedagogik tajriba-sinov ishlariga tadqiqot obyektlari sifatida 280 ta oila va 200 ta oilalarda (Toshkent shahar, Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanida, Sirdaryo, Navoiy viloyatlari), oilalardalarning faollari, ota-onalar, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari jalb etildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda loyihalashtirildi:

1) 2019-2020-yillar – tadqiqot yo'nalishining uchun tanlangan muammoning ijtimoiy-pedagogik, psixologik mohiyatini to'g'ri anglash va dolzarblik darajasini aniqlash, uning konseptual va maqbul yechimini topish yo'llari hamda vazifalarini oqilona belgilash maqsadida tashkil eti-

luvchi analitik-diagnostik tahlil bosqichi. Mazkur bosqichda oilalarda o‘smir yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy tarbiyalashda targ‘ibot texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy-pedagogik g‘oyalar, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, bu borada faoliyat subyektlari ( pedagog-tarbiyachilar, ota-onalar) bo‘yicha tadqiqot obyektlari va respondentlar o‘rganildi. Diagnostik instumentlar sifatida faoliyat mahsulini o‘rganish, anketa, intervyu, suhbat, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, SWOT tahlil, PEST tahlil, modellashtirish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

2) 2021-2022-yillar – ilmiy-pedagogik manbalar tahlili, empirik kuzatishlar, amaliyotdagi mavjud holat tahlilidan kelib chiqqan holda, tadqiqot muammosining ijobiy, samarali yechimini shakllantirish maqsadida maxsus rivojlantirish dasturni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qaratilgan asoslovchi-rivojlantiruvchi bosqich.

Rivojlantiruvchi bosqichda oilalarda o‘smir yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy tarbiyalashda targ‘ibot texnologiyalarini rivojlantirish va metodik xizmatni tashkil etish yoshlar yetakchisi, pedagog-tarbiyachilari pedagogik jarayonlarga jalb qilish ishlari 4 blokda olib borilishi ularni tadqiqot g‘oyalaridagi vazifalarni amalga oshirishda muhim bosqich bo‘ldi. Ular:

– **motivatsion blok –** oilada ota-ona, maktablarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, targ‘ibotchilar bilan ijtimoiy-ma’naviy tarbiyalashda targ‘ibot texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha metodik xizmatni tashkil etish sho‘basi metodistlari va tarbiyachilarining oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorligidagi ishlarini tashkil etish, nazariy bilimlarni amaliyotda joriy qilishni bir-biriga mutanosibligini ta’minlan va malaka oshirish jarayonida amaliyotdagi bilimlarni mustahkamlash bo‘yicha tushunchalarni berish;

– **kognitiv blok** – oila va ta’lim muassasasi hamkorlikdagi ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, oilalarda o‘smir yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy tarbiyalashda targ‘ibot texnologiyalarini dasturini ishlab chiqish, oila va ta’lim muassasalarida hamkorligidagi o‘zaro metodik ishlarni o‘rganish;

– **amaliy blok** – oila bilan ta’lim muassasasi hamkorlikdagi ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yiladi, oila va ta’lim muassasalari dasturi ishlab chiqiladi, ota-onalarga metodik xizmatni tashkil etish asosida targ‘ibot texnologiyalarni tizimli joriy etish;

– **nazorat qiluvchi blok –** so‘rovnoma to‘ldirish, hamkorlikdagi ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, doimiy targ‘ibot ishlarini tashkil etish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish ishlari olib asosida, ijtimoiy-ma’naviy o‘sishga erishish.

3) 2021-2022-yillar oila va ta’lim muassasalarida ijtimoiy-ma’naviy tarbiya sifatini oshirishning targ‘ibot mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha rivoljlantiruvchi dastur natijalarini tahlil etish, ijtimoiy-ma’naviy tarbiya samaradorligini baholash, iste’molchilarning talablari va takliflari

asosida oila va ta’lim muassasalarning targ‘ibot modelini takomillashtirish asosida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan bosqichda olib borildi.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida, respondentlarning oilalarda targ‘ibot texnologiyalarni joriy etish, xususan o‘smir yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy tarbiyasini rivojlantirish borasidagi fikrlari, qarashlari hamda bilim darajasini tahlil etish maqsadida turli xildagi so‘rovnomalar va suhbatlar o‘tkazildi.

Xususan, oilada ota-onalar va ta’lim ta’lim muassasalarida direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, maktab targ‘ibotchilari uchun quyidagi anketa savollari taklif etildi:

1. Sizningcha ma’naviyat nima va u nimalarda aks etadi?

2. Oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy tarbiya samaradorligini qanday omillarga, jihatlarga bog‘liq deb o‘ylaysiz?

3. Targ‘ibot deganda nimani tushunasiz va buni qanday izohlaysiz?

4. Sizningcha, oila va o‘quv muassasalar hamkorligi to‘g‘ri tashkil yetilganmi?

5. Oila va ta’lim muassasalar hamkorligida nimalarga asosan e’tibor qaratish lozim deb uylaysiz? Sizningcha qanday qo‘shimcha vazifalar kiritish kerak?

6. Sizningcha oila va ta’lim muassasasidagi ma’naviyatchi va targ‘ibotchilar innovatsion boshqaruvi qanday bo‘lishi kerak?

7. Oila va ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya sifati xususida ota-onalar va jamoatchilik fikrini o‘rganib turasizmi. Agar o‘rgansangiz, qanday shaklda?

8. Oilalardagi an’anaviy tarbiyani kuchaytirishda targ‘ibot texnologiyalarni foydalanishga munosabatingiz qanday? Bu borada bilim va tajribangiz yetarlimi?

9. Siz o‘zingizning oilangizda yoki maktab ta’lim muassasalaridagi o‘smir yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy tarbiyasini qanday baholaysiz?

Oilalarda o‘smir yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy hayotga tayyorlashda targ‘ibot ijtimoiy-ma’naviy tarbiyasini kuchaytirish uchun taklif yetilgan savolnomalar:

1. Sizningcha oilalarda o‘smir yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy tarbiyasini belgilovchi ko‘rsatkichlarga nimalar kiradi?

2. Oilalarda ma’naviy tarbiyani oshirish borasida qanday muammolarga duch kelgansiz?

3.Ma’naviyatli bola tarbiyasi, targ‘ibot texnologiyalari kabi tushunchalarini qanday izohlaysiz?

4. O‘smir yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy tarbiyasini rivojlantirish maqsadida targ‘ibot xizmatlarini tatbiq yetilsa, qanday o‘zgarishlar bo‘ladi deb o‘ylaysiz? Fikringizni 3 ta misolda asoslasangiz!

5. Ota-onalar o‘smir bolalarni ma’naviy tarbiyalashda nimalarga e’tibor berish kerak, qanday muammolar mavjud?

6. Ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini baholashning qanday texnologiyalarini bilasiz va foydalanasiz?

7. Ta’lim muassasalarida ma’naviy tarbiya kuchaytirish bo‘yicha qaysi ilg‘or xorijiy tajribalardan bilasiz?

8. Oilada ota-onalarning ma’naviy kompetentligini qanday baholaysiz?

9. O‘smir yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy tarbiyasini oshirishda yana qaysi jihatlarga e’tibor qaratish lozim?

10. Oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan qanday takliflarni bergan bo‘lar edingiz?

11. Oila va ta’lim muassasasida ijtimoiy-ma’naviy tarbiya sifatini oshirish yuzasidan metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish zarurmi?

Ushbu savollarga tinglovchilar tomonidan berilgan javoblar tahlil etilganida quyidagi yo‘nalishlarda bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi:

| **Faoliyat yo‘nalishlari** | Faollar | Shu’ba metodistlari | Pedagog-tarbiyachilar |
|---|---|---|---|
| Targ‘ibot mexanizmlari | 65% | 74% | 79% |
| Oila va maktablarda ijtimoiy-ma’naviy tarbiya sifatini oshirish texnologiyalari | 53% | 68% | 65% |
| Oilalarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish | 47,2% | 62,4% | 43% |
| O‘smir yoshlarning ma’naviy tarbiyasi | 52% | 57% | 51% |

Ushbu so‘rovlarning natijalariga ko‘ra deyarli 70 foiz respondentlarga oilalarda ijtimoiy-ma’naviy tarbiya borasidagi bilim, ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurligi ifodalandi. Shundan so‘ng oilalar va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyalanayotgan o‘smir yoshlar tahsil olayotgan ta’lim muassasalarda ijtimoiy-ma’naviy tarbiyani samaradorligini oshirishda targ‘ibot texnologiyalarning zarurligi aniqlandi.

Uchinchi asosiy oilalardan namunali, oqila va zukko onalar va buvilar, donishmand otalar tanlanib ularning targ‘ibot ishlarini qanday amalga oshirish mumkinligi bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazildi. Shundan so‘ng targ‘ibotchilarga yangi targ‘ibot texnologiyalar bo‘yicha tushunchalar berildi.

Mazkur jarayonlarda tadqiqot g‘oyalari asosida “Targ‘ibot orqali oila va maktablarda ijtimoiy-ma’naviy tarbiya sifatini oshirish” moduli ishlab chiqildi. Modul mavzulari 3 ta asosiy blokdan tashkil topgan bo‘lib, bunda axborotli-motivatsion, kasbiy-faoliyatli va amaliy yo‘nalishlardagi mavzular aks ettirildi

Biz ushbu baholashda tajriba boshida va tajriba oxiridagi olingan natijalarni quyidagi jadvalda keltiramiz (jadvallar).



ZJV5401

**Tajriba avvalidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari**

| Respondentlar | Tajriba boshida | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *quyi* | *o‘rta* | *yaxshi* | *yuqori* |
| Maktab ma’naviyatchilari va arg‘ibotchilari | 17% | 38% | 30% | 15% |
| Ota-onalar | 20,3% | 43% | 24,5% | 13% |
| Pedagog-tarbiyachilar | 22% | 47,2% | 19% | 12,3% |

**Tajriba yakunidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari**

| Respondentlar | Tajriba yakunida | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *quyi* | *o‘rta* | *yaxshi* | *yuqori* |
| Maktab ma’naviyatchilari va targ‘ibotchilari | 7% | 26% | 40% | 28% |
| Ota-onalar | 9% | 35% | 30% | 26% |
| Pedagog-tarbiyachilar | 10% | 38% | 29% | 23% |

Yakuniy bosqichda olingan natijalar ya’ni yuqoridagi jadvallardagi sonli ma’lumotlar asosida matematik-statistika usullaridan foydalanib, chuqur qiyosiy tahlil qilish ishlari olib borildi.

## OLIY TA’LIM MUASSASALARI VA OLIY MAKTAB PSIXOLOGIYASI

**Shaxnoza AKRAMOVA,**
*Pedagogika fanlari doktori professor,*
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*
*Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi boshlig‘i podpolkovnik*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada keltirilgan ma’lumotlar Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim beruvchi professor-o‘qituvchilarning individual xususiyatlarni ochib berishga qaratilgan. Shu bilan birga oliy ta’lim va o‘rta maxsus ta’limidagi jarayonlar, hamda boshqaruvchanlik xususiyatlari keng ochib berilgan.*

***Kalt so‘zlar:*** *demokratik, predmet, intensiv, kadr, mezon, professiografiya, psixogramma, subyekt, aql, tafakkur, texnologiya, motivi, mayli, qiziqishi, hissi, internet, iste’dod, ong, sotsiol, marketing, ehtiyoj, monolog, psixofiziologik, negiz, kompyuter, diktor, fikr, tezis, referat, g‘oya*

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik davlatdan fuqaroviy jamiyatga bosqichma-bosqich o‘tayotgan davrda oliy ta’lim muassasalari

oldiga ulkan, bunyodkor vazifalarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Holbuki shunday ekan, mazkur voqelik ijtimoiy masala sifatida kun tartibiga kiritilishi-oliy ta'lim psixologiyasi sohasi tadqiqot predmeti oldiga dolzarb vazifalarni intensiv ravishda bajarishni taqozo etadi. Qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalari bilan oliy maktab psixologiyasi o'rtasida jips aloqani, hamkorlikni o'rnatish-bir qator muammolar echimini topishga puxta negiz yaratadi.

Malaka talablarini ishlab chiqish va ularni yanada takomillashtirish oliy maktab psixologiyasi fani oldiga "inson-inson", ya'ni "subyekt-subyekt" munosabatlarini oqilona, odilona va omilkorlik bilan hal qilish vazifasini qo'yadi. Oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlanayotgan mutaxassislar va ularning mazkur ixtisoslikda muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatishi, ish yuritishi o'sha sohaning mavqeini muayyan darajada yuqori ko'taradi. Oliy maktabning mahsuloti-bu tayyorlangan kadrlar sanaladi, xuddi shu bois oliy o'quv yurtlarining nufuzi ularning bosh mezonlarida o'z ifodasini topadi. Bular qatoriga quyidagi mezonlarni kiritish maqsadga muvofiq:

1. Oliy o'quv yurtlari mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi (muayyan professiografiya va psixogrammaga asoslangan holda ularning maxoratli kasb egasi sifatida shakllanganligi).

2. Oliy maktablarda mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning darajasi, sifatida ( ularning umumiy ma'lumotliligi, saviyasi, maxsus bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalari, turli vaziyatlarda ulardan foydalanish imkoniyati).

3. Mutaxassislikka oid kasbiy faoliyatning muhim shart– sharoitlari, qo'yadigan talabi, o'ziga xos xususiyatlari (" inson-inson","inson-texnika","inson-obraz" va boshqalar).

4. Mutaxassis yoki bo'lg'usi kasb egasining individual-tipologik (temperament, irsiy alomatlar, tug'ma mayllar), jins va yosh xususiyatlari (ilk o'spirinlik, o'spirinlik va bunda biologik rivojlanishning ta'siri, o'rni).

Odatda oliy maktab ta'limi (o'qitish tizimi) ikkiyoqlama (o'zaro ta'sir o'tkazishga) yo'nalgan aqliy jarayon (obyekt bilan subyekt, subyekt – subyekt teng huquqli munosabatlaridan iborat) bo'lib, bu saboq oluvchi (talaba) bilan saboq beruvchi (o'qituvchi )larning faol qatnashuvida o'z ifodasini topuvchi hamkorlik faoliyati va shaxslar muomilasidan iboratdir. Buning natijasida talabada o'zaro psixologik ta'sir orqali muayyan ko'lamdagi bilimlar, kasbiy ko'nikmalar, malakalar, odatlar, uquvlar hosil bo'ladi.

Oliy maktab o'qituvchisining talabaga psixologik ta'sir o'tkazishi natijasidagina mazkur narsalar ( bilim, ko'nikma malaka, odat) tafakkur yordamida aql-idrokning shakllanishi tufayli amalga oshishi mumkin, bu esa o'z navbatida, ruhiy zo'riqish asosiy tanglik, jiddiylik, faolik va intilishni vujudga keltiradi. Ta'lim talaba shaxsning faollik ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar tug'dirish imkoniyatiga ega, chunonchi, saboq oluvchining o'quv faoliyatini uyushtiradi (tashkillashtirishga yordam beradi), uni maq-

sadga muvofiq yo‘naltiradi, jarayonning kechishini nazorat qiladi hamda axborot, ma’lumot, xabar, vosita, usul, operatsiya kabilar bilan ta’minlaydi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, talabalarning bilim olish qobiliyati, iste’dodi, zehni va uquvchanligining rivoji ko‘p jihatdan uchta muhim omilga bog‘liq.

1. Talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar va ko‘nikmalarning puxtaligi, barqarorligi, mustahkamligi (chunki ularni o‘zlashtirish jarayonida III-IV kurslarda ba’zi bir salbiy qusurlik jihatlari kelib qo‘shiladi).

2. O‘quv va tarbiyaviy ishlarni oqilona tashkil etish va nazorat qilish-talabalarni o‘qishga munosabatlarining (motivatsiyalarining), ya’ni ichki turtkilari majmuasining) muhim shartidir (talaba shaxsining o‘ziga xos xususiyati, mavzuning ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatliligi, o‘quv fani bo‘linmalarining dolzarb muammolariga boyligi va hokazo).

3. Talabalarni mustaqil (faol, ijodiy, nostandart) tarzda oqilona bilim olishga o‘rgatish (o‘qituvchining tinglovchilarda mustaqil aqliy faoliyatni uyushtirish va tashkil etish usullari, vositalari, texnologiyasi bilan ishlash ehtiyoji, motivi, mayli, qiziqishi, hissiy intilishini uyg‘otishi) va bu sohada muayyan maslahatlar, tavsiyalar ishlab chiqish-umumiy maqsad namoyon bo‘lishining kafoloti (garovi).

Shuni unutmaslik joizki, oliy maktablarda fan asoslarini egallashning sifati, mahsuldorligi ko‘p jihatdan quyidagilarga bog‘liq:

1. Oliy o‘quv yurti professori-o‘qituvchilari talabalarni nimaga o‘rgatadi?

2. Kim, ya’ni qaysi professor-o‘qituvchi va qay yo‘sinda obyektiv (tabiiy) va subyektiv (shaxsiy) omillarni ta’lim jarayonida nazarda tutadi?

3. Kimni (qaysi toifadagi, qanday aqliy imkoniyatga ega bo‘lishiga binoan talabaga, guruhga bilim berish zarur ekanligi nazarda tutiladi) o‘qitadi:

a) talabalarning hukmiga, muhokamasiga qo‘yiladigan o‘quv materialining (mavzusining) xususiyati;

b) muallimning o‘qituvchilik mahorati, o‘qitish uslubi, muomala maromi;

v) talabalarning individual-tipologik, jins (biologik o‘sishdagi tafovut) va yosh xususiyatlari hamda ularni ta’lim jarayonida hisobga olish (o‘qitishda saboq oluvchilarga individual, differensial munosabatda yondashish);

g) ta’lim taraqqiyotni o‘z ketidan etaklaydi, degan tezisdan biroz chetlashish evaziga (internetlar tufayli, iste’dodli talabalar mavjudligi sababli) taraqqiyot ta’limning o‘z ketidan etaklashi mumkin, degan qarorga kelindi.

Buning uchun o‘qituvchi (muallim) ma’ruzaning mazmuniga, unda muammoli vaziyatning (“fikrlar jangi”) ishtirokiga, ijodiy va nostandart fikrlashga, dalillarning (ishonchli omillarning) serobligiga, o‘quv materiallarining mutaxassislik bilan uzviy aloqasiga (uyg‘unligiga), ularning

tarkibiy tuzilishiga, uni yuksak darajada talabalarning ongiga etkazish uslubiga, muallimning tinglovchilariga munosabatini (usullar bilan muloqot o‘rnatish uslubi, muomalaga kirishish maromiga, odobiga, nazokatiga), auditoriya (laboratori) bilan uzviy bog‘lanishga va uni boshqarishga, pedagogik faoliyatni oqilona idora qila olishga, ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun intilishga alohida e’tibor berish ayni muddaodir. Bundan tashqari, oliy maktab o‘qituvchisi o‘zining kundalik pedagogik faoliyatida talabalar ustidan kuzatish, suhbat o‘tkazish, psixologik, pedagogik faoliyatida talabalar ustidan kuzatish, suhbat o‘tkazish, psixologik, pedagogik va mutaxassislikka oid bilimlarni talab qiladigan topshiriqlar tavsiya qilish, aqlni peshlash mashqlarini uzluksiz ravishda amalga oshirib borish, buning uchun esa turli xususiyatli, mohiyatli matnlardan hamda testlardan, yangi pedagogik texnologiyadan, faol o‘qitish uslublaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i maqsadga muvofiq.

Oliy maktab psixologiyasining dolzarb muammolari quyidagilardan iboratdir:

1. Oliy maktab tuzilishining etnik, etnopsixologik va hududiy xususitlariga asoslangan holda uni qayta ko‘rib chiqish maqsadga molik. CHunki jahon hamjamiyati ta’lim standartlariga yaqinlashish, ularga moslashish orqali yangi mutaxassislarni joriy qilish va ularni tayyorlashni (menejer, broker, marketing, sotsiolog, sotsial xizmat, amaliy psixolog, oila psixologi kabilarni) mahalliy ehtiyojlardan, kadrlarni tayyorlovchi professor-o‘qituvchilarning mavjudligidan kelib chiqqan holda rejalashtirish lozim. (ba’zan yuqori malakali kadrlar etishmasligiga qaramasdan, mutaxassislar tayyorlashga ruxsat berish hollari uchraydi).

2. Oliy o‘quv yurtlarida talabalarni o‘qitish, ularni shaxs sifatida shakllantirish (ijtimoiylashuv) jarayoni hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan metodlar (uslublar, shakllar), vositalar, usullar yangi mazmun bilan boyitilishi, milliy qiyofa, xarakter, his-tuyg‘ularni hisobga olgan holda sa’y-harakatlar amalga oshirilishi joiz. Asta-sekin monologik o‘qitish tizimidan dialogik, innovatsion (yangilikka asoslangan), hamkorlik (o‘qituvchi bilan talabalar faoliyatini uyg‘unlashtirish) singari ta’limning yangi turlariga o‘tish o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Oliy maktabning o‘quv rejasi, dasturi va ularga asoslanib chop qilinadigan darsliklar, qo‘llanmalar, ishlanmalar, ma’ruza matnlarini qaytadan ko‘rib chiqish, ularni mamlakatimizning hududlari xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish, yanada mukammallashtirish, mutaxassislikka bevosita aloqasi bo‘lmagan o‘quv fanlarini (materiallarini ) oqilona qisqartirish inson omilini hisobga olish demakdir:

a) talabalarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda auditoriya mashg‘ulotlarini kichik kurslarda 24 soat, katta kurslarda 28 soat qilib belgilash mustaqil fikrlashga, ijobiy izlanishga puxta zamin hozirlaydi

hamda ularning ishchanlik qobiliyatiga putur etkazmaydi, bu psixologik voqelik bosqichma-bosqich amalga oishirilishi kutiladi;

b) jahon ilg‘or tajribalariga asoslangan holda nazariy va amaliy bilimlar nisbatini 30:70 etkazish kasbiy malakalarini takomillashtirishga xizmat qiladi; bizning mutaxassislar boshqa mamlakatlarning kadrlardan nazariy jihatdan ustunlar, lekin ko‘nikmalarni egallashda ancha zaifdir; ana shu yo‘l bilan kundalik talaba faoliyatini ikki qismga ajratish imkoniyati yaratiladi (9-12; 13-17), bu esa o‘z navbatida uy topshiriqlarini keskin qisqartiga olib keladi, ijodiy izlanish, mustaqil fikrlash tanqidiy munosabatni talabalarda shakllantiradi; (o‘qituvchilar nazariy yuklamasini 280 soat qilib belgilash o‘qitish sifati, samaradorligini oshiradi);

v) o‘quv dasturini mumkin qadar ixchamlashtirish-uni rejalashtirishni osonlashtiradi; ma’lumki, 2 soatga mo‘ljallangan dastur mavzusida o‘rtacha 30 ta ilmiy tushuncha, atama mujassamlashgan, lekin ularning mohiyatini ochib berish juda mushkuldir; bizningcha, yuzakilik aynan shundan kelib chiqadi, mulohaza o‘rnini ta’kidlov egallaydi, xolos: buning uchun muhim tushunchalar, ta’riflar, teoremalar tanlab olinishi, yordamchilarni esa manbalar bilan tanishishga yo‘naltirish ma’qul, ana shunda chalkashliklar barham topadi;

g) o‘qitishni faol uslublar negiziga qurish lozim, toki bunda o‘qituvchi bilan talaba hamkorligi ustuvor o‘rin egallasin; test, bahs, ishbilarmonlik o‘yinlari, qiyinlashtirilgan pedagogik muammo, evristika, trening, psixodrama, boshqotirma, fikrlar jangi kabi faol, mustaqillikka etaklovchi o‘qitish metodlari va shakllari-oliy ta’limning negiziga aylansin; kompyuterlashgan ta’lim, masofadan o‘qitish (internet) va hokazolar zamon talabi, ehtiyoji, zaruratidir;

d) darslik va qo‘llanmalar hajmi o‘spirinlarning yosh xususiyatlari, imkoniyatlariga mutlaqo mos tushishi lozim; chunki 17-18 yoshlik talabalarning diqqat barqarorligi 60 minut atrofida, mabodo matn hajmi katta bo‘lsa, uni o‘zlashtirish darajasi shunchalik qiyin kechishi kuzatiladi; radio va televidenie diktori bir bet matnni (1680 alomatni) 2 minutda o‘qiydi, biroq o‘zlashtirmaydi, agar bu jarayon psixologik jihatdan tahlil qilinsa, u holda tushunish uchun (ilmiy tilda bitilganligi hisobga olinsa) 3 marta ko‘p vaqt sarflanadi; 10 bet matnga bir soat vaqt talab qilinadi, agar 3 ta fanlar mustaqil topshiriq berilgan bo‘lsa, u taqdirda matnlarni egallash ko‘rsatkichi yanada pasayib ketishi shak-shubhasiz; darslik sahifalari har xil shriftda berilishi, ajratib ko‘rsatishi, qoramtirroq qilinishi, tagiga tizilishi va hokazolar vosita sifatida xizmat qiladi; hatto jahon psixologlari talabiga binoan darslik (qo‘llanma) paralingvistik, ekstralingvistik, proksemik qonuniyatlariga asoslangan holda yozilsa, uning matnlarini egallash ko‘rsatkichi ko‘tariladi, ishchanlik qobiliyati yo‘qolmaydi, aqliy zo‘riqish, asabiy taranglik hodisalari mumkin qadar kamayadi.

4. Talabalarda fikrlashni shakllantirish, ijodiy izlanishga o‘rgatish, tanqidiy tafakkurni tarkib toptirish-oliy maktab psixologiyasining dolzarb muammolaridan biridir. Ularda yuqoridagi jarayonlarni shakllantirish faol ta’limiy uslublardan foydalanish natijasida ro‘yobga chiqishi mumkin. Shuningdek, mashg‘ulotdan tashqari davrlarda, mustaqil faoliyatni amalga oshirishda yoki o‘qituvchi tomonidan unga talabalarni o‘qitish orqali erishiladi, xolos. Maxsus mashg‘ulotlar ularga mustaqil ravishda bilim olish vositalari bilan qurollantiradi:

a) fan to‘garaklari, tezis, referat, kurs va bitiruv ishlari, birlamchi manbalar bilan shug‘ullanish kezlarida muayyan maqsad amalga oshadi va u yoki bu darajada shaxsiy, protsessual xislatlari tarkib topa boshlaydi;

b) iste’dodli talabalar faoliyatini tashkil qilish; birinchidan, fanlar bo‘yicha erishilgan ko‘rsatkichlar iste’dodning aynan o‘zi emas, albatta bu birgina mezoni, xolos; ikkinchidan, iste’dod topshiriqlar rang-barangligini tushinish va ularni echimini uddalash; uchinchidan, ijodiy unsularning mavjudligi va uzluksizligi, to‘rtinchidan, vaqt tejamkorligi, beshinchidan, nostandart topshiriqlarni bajarish, shuningdek, shartlari etishmasligi va ortiqchaligini payqash (sezish) yoki antitsipatsiyaga moyillik hukum surishi; maxsus dastur asosida, alohida tartibda mashg‘ulotlar uyushtirish; ijodiy izlanishni xohish, layoqat, mayl va motivdan kelib chiqqan holda tashkil qilish iste’dodlar komolatni oqiloni amalga oshirish bilan yakunlanadi.

Talabalarni milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalashni amalga oshirish muhim muammolar sarasiga kiradi. Vatanparvarlik, fidoyilik yuksak g‘is-tuyg‘ularni talabalarga maxsus ravishda shakllantirish orqali hamda ijtimoiy-siyomiy fan asoslari mohiyatiga singdirish yordami bilan ularning ongiga yo‘naltirish-hozirgi zamon oliy maktab psixologiyasining dolzarb masalalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qildi va sifat darajasini orttirdi.

Psixologiya fanini o‘qitishni takomillashtirish, ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida qat’iy prinsipga, muayyan xususiyatga ega bo‘lgan konsepsiya ishlab chiqildi. Uning asosiy mohiyati quyidagilarda o‘z ifodasini topgandir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni https://lex.uz/docs/5013007*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2022-yil 6-dekabrь kunidagi chiqish raqami 03-06/2-6599 sonli xati.*

*3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish, kursantlarni o‘qishdan chet-*

*lashtirish va qayta tiklash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”-gi №775-sonli Qarori. – https://lex.uz/docs/5796493 – murojaat sanasi 15.05.2023-yil*

*4. Asmolov A.G. Lichnost’ kak predmet psixologicheskogo issledovaniya.– M.:MGU, 1984. – 104 b.*

*5. Barotov SH.R. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari -T.:O‘qituvchi, 1995.-56 b.*

*6. Barotov SH.R. Kichik yoshdagi o‘quvchilar faoliyatini baholash.-T.: O‘qituvchi,1992 -48*

*7. Davletshin M.G. Psixologiya texnicheskix sposobnostey. Tashkent. 1975.*

*8. Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi.Diss:Psixol.fanl.dokt. Farg‘ona. – 1994. -282 b.*

*9. Karimov V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. -T.:O‘qituvchi, 1994. -95-b.*

## TA’LIM TIZIMIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARDORLIGINI OSHIRISHDA “HALOLLIK VAKSINASI”NING O‘RNI

**Farxod NABIYEV,**
*tarix fanlari doktori, professor*
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada tashqi g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashda ma’naviy-ma’rifiy profilaktika ishlarini samarali qilish masalasi tahlil qilingan. Bunda profilaktika jarayonida odamlarga emlanadigan “halollik vaksinasi” kerakligi belgilab berilgan. “Halollik vaksinasi”ni yaratishda insonning baxt to‘g‘risidagi tushunchasini sog‘lomlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Bunda insonning xulqini belgilaydigan narsa uning baxt to‘g‘risidagi tushunchasi ekanligidan kelib chiqilgan. Inson baxtliligining eng muhim sharti qo‘rquvsiz erkin yashash hissi va xotirjamligi ekanligi asoslab berilgan. Buni anglagan odamda tashqi tahdidlarga qarshi antivirus shakllanishiga imkoniyat paydo bo‘ladi, chunki yot, soxta g‘oyalar odamni xotirjamlikdan mahrum bo‘ladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Farovon jamiyat, baxtli hayot, mustaqillik, tinchlik, adolat, ma’naviy va mafkuraviy tahdid, poraxo‘rlik va korrupsiya, virus va antivirus, profilaktika va vaksina, immunitet, demokratiya va fuqarolik jamiyati.*

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyoti, eng avvalo, jamiyatning rivojlanish darajasiga va shu jamiyatning a’zosi bo‘lgan har bir fuqaroning hayotga ongli munosabatda bo‘lishiga bog‘liq. Bunday munosabatning shakllanishi esa, ta’lim tizimini samarali ishlab turishiga bog‘liqdir. Chunki ta’lim tizimining funksiyasi jamiyatga bilimli va ma’naviyatli kadrlarni

tayyorlab berishdan iborat. Bugungi kunda ta'lim tizimida bilim va ma'naviyatni uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlash muammo bo'lib qolmoqda. Chunki ta'lim tizimida asosiy e'tibor bilimga qaratilib ma'naviyat nisbatan e'tibordan chetda qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida ma'naviyatni qashshoqlashuvi va nosog'lom ijtimoiy muhitni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda insoniyat jamiyatida mavjud bo'lgan barcha global muammolarning sababi aynan ana shu ma'naviy qashshoqlik bilan bog'liq.

Bugun butun dunyo yoshlari singari O'zbekiston yoshlari ham diniy fundamentalizmining mafkuraviy tahdidi, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi buzuqlik va axloqsizlik tahdidi va korrupsiya tahdidi ostida yashab kelmoqdalar. Bunday tahdidlardan himoyalanishning eng maqbul yo'li ularga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktika ishlaridir. Ma'naviy-ma'rifiy profilaktika jarayonida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish g'oyaviy tahdidlarga qarshi immuniteni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ma'naviyatni yuksaltirish ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy profilaktika ishlarini samarali tashkil qilish bilan bog'liq. Yuqorida qayd qilingan muammolarning eng xavflisi korrupsiya illatidir chunki korrupsiya muhitida har qanday yaxshi g'oya ham immunitetni shakllantira olmaydi. Korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish bilan mafkuraviy tahdid va "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi immunitetni shakllantirishga erishish mumkin.

Ma'lumki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyatiga va taraqqiyotimizga asosiy to'siq korrupsiya illati hisoblanadi. Shuning uchun muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomalarida "meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng oxir illat – korrupsiya balosi..." [1, 33] deb ta'kidladilar. Korrupsiyaga qarshi kurash masalasi bugungi kunda O'zbekiston uchun eng dolzarb muammo sanaladi va ushbu muammoning yechimi ma'naviy yuksalishga qaratilgan profilaktika ishlari bilan bog'liqdir. Ushbu muammolarni bartaraf qilishda oqibat bilan kurashgandan ko'ra uning oldini olish, ya'ni sababni bartaraf qilish muhim ahamiyatga ega. Mavjud muammolarning sababi odamlarning xulqi bilan bog'liq, chunki jamiyatda qanaqa muammo bo'lmasinki, u odamlar tomonidan sodir qilinadi. Shunday bo'lganligi sababli muammolarning yechimi odamlarning xulqini o'rganishni taqozo etadi. Odamning xulqi uning baxt to'g'risidagi tushunchasi bilan bog'liq bulganligi uchun, eng avvalo, baxt nima ekanligini va uni shakllantiruvchi omillarni aniqlab olishimiz kerak bo'ladi. Chunki inson nimani orza qilsa o'shanga intilib yashaydi, insonning orzusi baxtli hayot ekan, demak, odam xulqini uning baxt to'g'risidagi tushunchasi belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak mar-

ralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak” [1, 36], – deb ta’kidladi. Jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘lgan korrupsiya illatining barvaqt oldini olish uchun profilaktika ishlarini samarali amalga oshirish kerak bo‘ladi. Buning uchun esa, eng avvalo, profilaktika jarayonida odamlar emlanadigan “vaksina” yaratilgan bo‘lishi kerak. Bunday “vaksina”ni ishlab chiqish uchun inson xulqini belgilaydigan omillarni aniqlash va o‘shandan kelib chiqib fikrlash kerak bo‘ladi. Chunki korrupsiyaning sababi insonning xulqi bilan bog‘liq va “vaksina” korrupsiyani keltirib chiqaradigan buzuq xulqning omillarini bartaraf qilishi kerak.

Insonning xulqi yuqorida ta’kidlaganimizdek uning azaliy orzusi bo‘lgan baxt to‘g‘risidagi tushunchasi bilan bog‘liq. Insonda ijtimoiy ong shakllangandan boshlab u baxtli yashaydigan farovon jamiyatni orzu qilib kelmoqda va nimani baxt deb hisoblasa, o‘shanga intilib yashamoqda. Shuning uchun insonning xulqi, yurish-turishi, hatti-harakati va to‘g‘ri yoki egri yo‘ldan yurishi uning baxt to‘g‘risidagi tushunchasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar inson uchun baxtli bo‘lish moddiy jihatdan boy bo‘lish bo‘lsa, unda u moddiy boylik ilinjida yashab, o‘zining moddiy ehtiyojlarining quliga aylanib qoladi va moddiy boylik uchun huquq va axloq me’yorlarini buzishga moyil bo‘ladi.

Buni tushunish uchun esa, ular baxt bu, eng avvalo, qo‘rquvsiz erkin yashash hissi, tinchlik va xotirjamlik ekanligini anglab olgan bo‘lishlari lozim. Buni anglab olgan odamda yuqorida qayd etilgan illatlarga qarshi immunitet shakllangan bo‘ladi, chunki ushbu illatlar inson baxtliligining muhim sharti bo‘lgan qo‘rquvsiz erkin yashash hissi va xotirjamlikdan mahrum etadi. Shuning uchun insonning baxt to‘g‘risidagi sog‘lom tushunchasi “halollik vaksinasi”ning muhim elementi sifatida xizmat qiladi deb aytish mumkin.

“Halollik vaksinasi” to‘g‘risida gapirganda, eng avvalo, u nima ekanligini anglab olish kerak. Xo‘sh “halollik vaksinasi” nima? “Halollik vaksinasi” deganda harom qilingan ishlarni qilishga undaydigan virusni o‘ldirishga qodir bo‘lgan antivirus rolini bajaradigan g‘oyalar majmui tushuniladi. Korrupsiya illati ana shunday shunday harom qilingan ijtimoiy kasallik hisoblanadi va bu kasallikni keltirib chiqaradigan virus bo‘ladi.

Baxtga ta’rif berganda, baxt – bu qo‘rquvsiz erkin yashash hissi va qalbdagi xotirjamlik hamda moddiy va ma’naviy ehtiyojlarning qondirilganlik holati deb aytish to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu ta’rifdan inson baxtliligining muhim sharti qo‘rquvsiz, erkin yashash hissi orqali ta’minlanadigan xotirjamlik ekanligini ko‘rish mumkin. Shuning uchun inson baxtliligi to‘g‘risida gapirganda, qachon odam qo‘rqmasdan erkin yashashi mumkin, degan savolga javob berishdan boshlash kerak. Inson qo‘rqmasdan erkin yashashi uchun uning xavfsizligi ta’minlangan bo‘lishi lozim. Buning uchun esa, inson xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlardan jumladan g‘oyaviy tahdidlardan himoyalangan bo‘lishi kerak.

Qo‘rquvsiz erkin yashash hissi inson baxtliligining muhim sharti ekanligini bilish korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki korrupsiya muhitida hech kim erkin va demak baxtli bo‘la olmaydi. Bunday immunitetni shakllanishi korrupsiyani sababini bartaraf qilishga xizmat qiladi. Nazorat va jazolash bilan ijobiy natijaga erishib bo‘lmasligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Lekin faqat qamchi va qilich bilan ijobiy natijalarga erishib bo‘ladimi? Bu nafaqat – xato fikr, balki chuqur yangilish, deb hisoblayman. Bu borada profilaktika ishlarini kim samarali olib boradi?” [2, 31], – deb savol bilan murojaat qilganlar. Ushbu savolga javob berish uchun profilaktika ishlarini amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan “halollik vaksinasi” ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

Korrupsiya tahdidiga qarshi immunitetni shakllantirishga yoki virusga qarshi antivirusni shakllantirishga xizmat qiladigan vaksina hayotbaxsh so‘zlardan va g‘oyalardan iborat bo‘ladi. “Vaksina” bo‘lib insonning baxt haqidagi to‘g‘ri tushunchasi, baxtga erishishda mustaqillikning, tinchlikning, adolatning, ma’naviyatning, milliy g‘oyaning, demokratiyaning, fuqarolik jamiyatining, islohotlarimiz asosida yotgan liberallashtirishning o‘rni va O‘zbekiston tanlagan evolyusion taraqqiyot yo‘lining ahamiyati to‘g‘risidagi g‘oyalar majmui xizmat qiladi.

Ijtimoiy kasallik bo‘lgan korrupsiyaning sababi ham ma’naviyatning qashshoqlashuvi bilan bog‘liq. Ma’naviyat qashshoq bo‘lgan joyda korrupsiyaga sharoit yaratiladi va korrupsiya bu sharoitni asrash uchun ma’naviyatning yuksalishiga yo‘l qo‘ymaydi. Chunki korrupsiya illat sifatida faqat nosog‘lom ijtimoiy muhitdagina mavjud bo‘ladi va bunday muhit odamlar ma’naviyati qashshoq bo‘lgan holdagina kelib chiqadi. Demak, korrupsiyaning sababi ma’naviy qashshoqlik, oqibat esa insoniyatning halokati va uning yechimi sababni bartaraf qilish ya’ni ma’naviyatni yuksaltirish bilan bog‘liq. Sabab ma’naviy qashshoqlikka, ma’naviy qashshoqlik esa korrupsiyaga bog‘liq ekan, demak, asosiy e’tiborni korrupsiyani to‘xtatishga qaratish lozim. Buning uchun esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashda taklif qilgan “halollik vaksinasi”ni yaratish va jamiyatni emlash kerak bo‘ladi. “Halollik vaksinasi” korrupsiya sababining antivirusi bo‘lib xizmat qiladi deb aytish mumkin.

Demak, jamiyatni korrupsiya illatidan himoya qilishning eng maqbul yo‘li ma’naviy va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktika ishlari bilan bog‘liq. Bunday immunitetni shakllantirish keng ko‘lamli ma’naviy va mafkuraviy ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Immunitetni shakllantirish borasidagi profilaktika ishlarimiz samarali bo‘lishi uchun, eng avvalo, targ‘ibotchilar guruhini tuzish va ularni “halollik vaksinasi” rolini bajaradigan targ‘ibot materiallari bilan ta’minlash lozim.

Mazkur tadqiqot Muhtaram Prezidentimizning yuqorida keltirilgan savollariga javoban profilaktika ishlarini olib boruvchi targ‘ibotchilar uchun korrupsiya tahdidlariga qarshi immunitetni shakllantirishda “halollik vaksinasi” bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samardorligini oshirishga xizmat qiladigan quyidagi xulosa va takliflarni berish mumkin:

1.Bugun yoshlarni ongi va qalbi jang maydoniga aylanib ular mafkuraviy tahdid, “ommaviy madaniyat” tahdidi qurshovida yashab kelmoqda.

2.Yoshlarni bunday tahdidlardan himoya qilishning eng maqbul yo‘li profilaktika ishlari orqali ma’naviy va mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir.

3.Korrupsiya muhitida har qanday yaxshi g‘oya bilan ham ma’naviy va mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirib bo‘lmaydi.

4.Asosiy e’tibor korrupsiyani to‘xtatishga qaratilgan profilaktika ishlarini amalga oshirishga qaratilishi lozim/

5.Yoshlarda bunday immunitetni shakllantirish uchun profilaktika jarayonida emlanadigan “halollik vaksinasi” ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

5.”Halollik vaksinasi”ni yoshlarga emlashga qodir bo‘lgan targ‘ibotchilar guruhini shakllantirish va ma’naviy-ma’rifiy profilaktika ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Тошкент. 2020 йил 24 январ 9-бет.*

*2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Тошкент – “Ўзбекистон” – 2017, 31– бет.*

## КРИТЕРИИ ОРГАНИЗАЦИИ И ОЦЕНКИ ПРОЦЕССА НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

**Дилрабо АМРИДИНОВА,**
*Ташкентский университет прикладных наук, кафедра “История” профессор, доктор философских наук (DSc)*

***Аннотация:*** *Данная статья посвящена проблеме организации и оценки процесса непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях. В современном образовательном контексте непрерывное духовное образование играет важную роль в формировании*

*ценностных ориентаций студентов, их моральных и этических ценностей, а также ответственного отношения к жизни и обществу. В статье рассматриваются ключевые критерии, которые необходимо учесть при организации и оценке процесса непрерывного духовного образования. Особое внимание уделяется целеполаганию и разработке программ обучения, которые позволяют студентам выбирать интересующие их области развития.*

***Ключевые слова:*** *непрерывное духовное образование, высшие учебные заведения, организация, оценка, целеполагание, программы обучения, квалификация преподавателей, оценка и обратная связь, исследования, развитие, партнерство, ценности, мораль, этика, духовные ценности, ответственность, гармония, смысл жизни.*

Современное высшее образование не ограничивается только усвоением академических знаний и профессиональных навыков. Важной составляющей становится непрерывное духовное образование, которое способствует формированию целостной и гармоничной личности студента. Духовное образование направлено на развитие моральных, этических и духовных ценностей, формирование ответственности и толерантности, а также на поиск смысла и гармонии в жизни. Организация и оценка процесса непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях является актуальной проблемой, требующей специального внимания и разработки соответствующих критериев. Ведь эффективное духовное образование не только формирует личностные качества студентов, но также способствует их успешной адаптации в обществе и принятию осознанных решений в различных сферах жизни. В данной статье мы рассмотрим основные критерии, которые необходимо учесть при организации и оценке процесса непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях. Мы рассмотрим важность четкого целеполагания, разработки гибких программ обучения, квалификации преподавателей, объективной оценки и обратной связи, а также необходимость исследований и партнерства с другими организациями и образовательными учреждениями. Понимание и применение данных критериев позволят создать благоприятные условия для развития духовности студентов и их формирования как гармоничных и ответственных граждан.

Непрерывное духовное образование является важной составляющей развития личности и формирования ценностных ориентаций студентов в высших учебных заведениях. Этот процесс позволяет студентам расширять свой кругозор, развивать духовные и этические ценности, а также формировать ответственное отношение к своей жизни и окружающему миру.[1. 105-107]

Организация и оценка процесса непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях требует определенных критериев, которые помогут эффективно осуществлять и контролировать этот процесс. Ниже рассмотрим несколько ключевых критериев, которые следует учитывать при организации и оценке данного вида образования. Целеполагание: Организация непрерывного духовного образования должна опираться на четко сформулированные цели и задачи. Это поможет определить ожидаемые результаты и создать подходящую методику обучения. Цели могут включать развитие моральных ценностей, этического мышления, толерантности, самосознания и гармонии между разумом и душой.[2.70] Программы обучения: Эффективная организация непрерывного духовного образования включает разработку подходящих программ обучения. Программы должны быть гибкими, позволяющими студентам выбирать те области, которые наиболее интересны и значимы для них. Также следует обеспечить наличие разнообразных форм обучения, включая лекции, семинары, дискуссии, мастер-классы и практические занятия. Квалификация преподавателей: Процесс непрерывного духовного образования требует квалифицированных преподавателей, которые обладают соответствующими знаниями и опытом. Преподаватели должны иметь понимание важности духовного развития и умение вдохновить студентов на поиск истины и глуб ко всей жизни. Они должны быть способны создать подходящую обстановку для открытого обсуждения, вдохновлять студентов на саморефлексию и поиск смысла в своих действиях. Оценка и обратная связь: Оценка процесса непрерывного духовного образования должна быть основана на объективных критериях.[4. 90] Оцениваться должны как знания и понимание студентов, так и их практическое применение полученных знаний в реальной жизни. Кроме того, важно предоставлять студентам обратную связь, которая поможет им развиваться и совершенствоваться. Исследования и развитие: Организация непрерывного духовного образования должна быть связана с научными исследованиями и постоянным развитием. Исследования позволяют выявить новые тенденции и методы, а также определить эффективность текущих программ и методик обучения. Регулярные обновления и модернизация программ обучения помогут сохранять и повышать качество образования. [5.66-67]

Партнерство и сотрудничество: Важно установить партнерские отношения с другими образовательными учреждениями, религиозными и общественными организациями, а также с представителями различных духовных традиций. Это позволит обмениваться опытом, создавать сети поддержки и обогащать образовательную среду.[6.95]

Организация и оценка процесса непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях играют важную роль в формировании целостной и гармоничной личности студентов. В данной статье были рассмотрены ключевые критерии, которые следует учитывать при организации и оценке данного процесса.[7.96] Четкое целеполагание, разработка гибких программ обучения, квалификация преподавателей, объективная оценка и обратная связь, исследования и развитие, а также партнерство и сотрудничество – все эти критерии способствуют эффективному духовному развитию студентов. Они помогают студентам расширять свой кругозор, развивать моральные ценности, этическое мышление, самосознание и гармонию в жизни. [8.96]

На основе проведенного анализа и изучения проблемы организации и оценки процесса непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях, следующие рекомендации могут быть предложены:

1. Разработка и внедрение целостной стратегии непрерывного духовного образования, которая будет интегрирована в образовательную программу высшего учебного заведения. Это позволит создать систему последовательных и связанных мероприятий, направленных на развитие духовности студентов.

2. Повышение квалификации преподавателей, работающих в области духовного образования. Организация специализированных курсов, тренингов и семинаров позволит преподавателям приобрести необходимые знания и навыки для эффективной организации и оценки процесса непрерывного духовного образования.

3. Внедрение инновационных методик и технологий в процесс непрерывного духовного образования. Использование интерактивных форматов обучения, онлайн-ресурсов, виртуальных платформ и мультимедийных материалов позволит сделать процесс более привлекательным и доступным для студентов.

4. Установление партнерских отношений с духовными организациями и общественными институтами, которые могут предоставить дополнительные ресурсы и поддержку для развития непрерывного духовного образования. Сотрудничество с такими партнерами поможет расширить спектр возможностей и предоставить студентам разнообразные духовные практики и опыт.

5. Проведение систематического мониторинга и оценки эффективности процесса непрерывного духовного образования. Разработка анкет, опросов и других инструментов позволит получить обратную связь от студентов и преподавателей, а также оценить достижение поставленных целей и результативность проводимых мероприятий.

Внедрение данных рекомендаций поможет создать благоприятные условия для эффективной организации и оценки процесса непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях. Это позволит сформировать гармоничные и ответственные личности студентов, осознающих и ценящих духовные аспекты своей жизни. [9.88-90]

Процесс непрерывного духовного образования требует постоянного внимания и усилий со стороны высших учебных заведений. Однако, при правильной организации и оценке, он может стать важной составляющей образовательной программы, способствующей формированию сознательных и ответственных граждан, готовых к решению сложных этических и моральных вопросов.[10. 56-57] Важно помнить, что непрерывное духовное образование должно быть основано на открытом диалоге, взаимном уважении и толерантности. Оно должно вдохновлять студентов на поиск истины, самопознание и гармонию внутри себя и в отношениях с окружающим миром. [11.112-115]

В заключение, организация и оценка процесса непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях играют важную роль в формировании личности студентов. Учет ключевых критериев позволяет создать благоприятные условия для развития духовности и ценностных ориентаций, а также способствует формированию гармоничных и ответственных граждан, готовых к принятию осознанных и этических решений в своей жизни и обществе.

ZJV5401

**Использованная литература:**

*1. Мирзиёев Ш.М. Стратегия нового Узбекистана. – Ташкент: "Узбекистан", 2021. 464 с.*

*2. Алимов, А.Н. (2019). Организация процесса непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях Узбекистана. Проблемы современного образования, (4), 102-109.*

*3. Богданова, А.Н. (2018). Организация и методика непрерывного духовного образования в вузе. Вестник Международной академии наук, образования и культуры, (1), 68-72.*

*4. Каримов, О.Р. (2017). Взаимосвязь между непрерывным духовным образованием и академическими достижениями студентов. Инновационные технологии в образовании, (2), 88-95.*

*5. Карпова, Е.С. & Степанов, В.И. (2020). Критерии оценки эффективности процесса непрерывного духовного образования в вузе. Инновационные процессы в современном образовании, (4), 168-174.*

*6. Ибрагимова, З.С. (2021). Практики непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях Узбекистана: анализ и рекомен-*



ZJV5401

*дации. Ученые записки Узбекского национального университета, (1), 64-71.*

*7. Романов, А.П. (2019). Организация непрерывного духовного образования в высшем учебном заведении: теоретические и методические аспекты. Педагогика, (6), 93-98.*

*8. Темиров, Ш.А. (2020). Роль непрерывного духовного образования в формировании ценностных ориентаций студентов в высших учебных заведениях. Вестник Ташкентского государственного педагогического университета, (2), 48-53.*

*9. Хидиров, Д.А. (2018). Критерии оценки эффективности духовного образования в системе высшего образования Узбекистана. Вестник Ургенчского государственного университета, (3), 87-92.*

*10. Швецова, Л.А. (2021). Развитие духовных ценностей студентов в процессе высшего образования. Вестник Башкирского университета, (1), 50-56.*

*11. Якушева, Н.В. (2017). Оценка эффективности процесса непрерывного духовного образования в высшем учебном заведении. Вестник Нижегородского университета имени Н.И. Лобачевского, (3), 111-116*

## UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI

**Bobomurod TOSHBOYEV,**
*Jizzax davlat pedagogika universiteti (PhD), dotsent.*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqolada uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida muhim o'rin tutuvchi tarbiya masalasi xususida fikr yuritilgan. Shu bilan birgalikda Jadid ma'rifatparvarlari Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniylarning tarbiya masalasiga doir fikrlari keltirilib ularning bugungi kundagi ahamiyati asoslashga harakat qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *uzluksiz ma'naviy tarbiya, tarbiya, ta'lim, farzand tarbiyasi, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya.*

Uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining asosi "tarbiya" tizimiga borib taqaladi. "Tarbiya" so'zining ma'nolari ko'p bo'lsa-da, milliy an'analardan kelib chiqsak, tasavvurda avvalo uning "axloqiy" sifati uyg'onadi. Boisi, ota-bobolarimiz bola axloq-odobini tarbiyaning boshqa turlariga nisbatan ustun qo'yishgan.

"Binobarin, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun, – deb yozadi birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat "Oila" risolasida, – farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanib ko'p harakat

qilish lozim. Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya'ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe'li va amali o'ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo'lsin" [2:75.].

Fitrat hozirgi kun istilohida qo'llanilayotgan "uzluksiz ma'naviy tarbiya" tushunchasini bizningcha, bir so'z bilan "tarbiya" deb atagan. Adib sharq xalqlarining ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlariga asoslanib, ta'lim olishni ham tarbiya sirasiga qo'shib, uni "aqliy tarbiya" deb ataydi. Shuningdek, farzandni sog'lom voyaga yetkazish, ya'ni "jismoniy tarbiya"siga ham jiddiy e'tibor qaratib, tarbiyaning ushbu uch turiga xulosa berar ekan, zamonaviy til bilan aytganda, "shaxsning ijtimoiylashuvi"ni sodda ifodalaydi: "...bolalarning tarbiyasi bu farzandni jismonan, fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetishtirish demakdir. Ya'ni ularni urinish va tirishish sahrosiga, ya'ni hayot-mamot maydoniga kuchli badan, sog'lom fikr va yaxshi axloq bilan qurollantirib yuborish demakdir" [2:58.].

Tarbiya – bu maqsadli va uzliksiz jarayon. Uning asosiy vazifalari bolani jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan foydali fazilatlarga ega shaxs sifatida shakllantirish va rivojlantirishdir. Jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar inson shaxsiga qo'yiladigan talablar ko'rinishida tarbiya oldiga yangi maqsadlar qo'yadi. Ammo shunday shaxsiy fazilatlar ham borki, ular har qanday jamiyatda doimiy umuminsoniy qadriyatlarga aylangan holda talab qilinadi. Bular odoblilik, insonparvarlik, ma'naviyat (yuksak axloqiy ideallarning lahzalik ehtiyoj va mayllardan ustunligi, axloqiy o'zini-o'zi takomillashtirishga doimiy intilish), erkinlik (ichki va tashqi mustaqillikka intilish), mas'uliyat (majburiyatlarni o'z zimmasiga olishga tayyorlik). Zamonaviy tarbiyaning umumiy maqsadi – bolalarni yuksak axloqli, ma'naviy boy, erkin va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishdir. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, **"Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim"** [3:285]. Ta'lim ma'naviy tarbiya bilan uyg'unlashgandagina u mukammal ta'limga aylanishi mumkin.

Bugun nemis, rus yoki ingliz maktabida ham, o'zbek maktabida ham ta'lim muassasasining tarbiyaviy vazifalarini kuchaytirish, ta'limning "tarbiyalovchi" faoliyatidan qoniqmaslik holatlari olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Tarbiyaga asoslangan maktablar, o'quvchini hayotga tayyorlashni, ijtimoiylashuvini asosiy maqsad bilayotgan ta'lim muassasalari tajribalarini o'rganishga ehtiyoj tug'ilayotganini takidlash joiz. Ta'lim berish yuksak darajada tashkil qilingan yapon yoki koreys maktablari bitiruvchilari o'z xalqining milliy qadriyatlari asosida tarbiya topganini bir qarashda, ularning oddiygina salomidan sezamiz. Demak, ta'lim sohasida dunyo mamlakatlarining ilm-fan yutuqlarini o'qib o'rganish mumkin, ammo tarbiyada milliy qadriyatlar, urf-odatlardan chekinish yoki ularni ikkinchi darajaga tushirib qo'yish mumkin emas.

Ta’lim va tarbiya jarayoni boshqa kishi faoliyatini boshqarish bilan bo‘g‘liq hodisadir. Shu bois u murakkab jarayon sanaladi. O‘qituvchining maqsadi tarbiyalanuvchining kelajagiga qaratilgan bo‘ladi. Bu maqsad o‘qituvchi uchun yaqin va tushunarlidir. U “Sen bilishing, bajara olishing va bajarishing kerak”, – deya talab qiladi. O‘quvchi esa bugungi kunning quvonchiyu tashvishlari bilan yashaydi, kelajak uning uchun juda yiroq.

SH.A.Amonashvilli bu ziddiyatga “tarbiya fojiasining asosi” deb baho beradi. O‘qituvchi ayni zamonda yashab turib kelajakni barpo etadi. Bu juda murakkab buni chuqur anglagan mohir-pedagoglar har doim o‘z faoliyati logikasini o‘quvchi ehtiyojlariga tayanib quradilar.

Murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘lgan tarbiya bir qator gumanitar fanlarning o‘rganish obyekti bo‘lib, ularning har biri ushbu hodisaning o‘ziga xos tomonlarini tahlil qiladi. Bu xususiyat falsafa faniga ham xosdir. Falsafa insonning olamga kognitiv, akseologik, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va estetik munosabatini o‘rganadi, ya’ni tarbiyaning ontologik va gnoseologik asoslarini ochib beradi. Tarbiyaning oliy maqsadlari va qadriyatlari to‘g‘risidagi eng umumiy g‘oyalarni shakllantiradi, unga muvofiq uning o‘ziga xos vositalari belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda falsafada aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya va estetik tarbiya kabi masalalar o‘rganiladi.

Tarbiya har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarini ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish jarayoni.

Bolaning xarakterini, oiladagi tarbiyasini, uning or-nomusini, sharm-hayosi kabi nozik tuyg‘ularining tarbiyalanganlik darajasini bilmay turib, birdaniga jamoa orasida uyaltirish, yaxshi o‘ylab ko‘rmaslik, yoki jaxl ustida tinimsiz kaltaklash mumkin emas. Sizning tanlagan jazo usulingiz o‘quvchini yoki farzandingizni qilgan xatosini tushunishga, boshqa qilmasligiga tarbiyaviy saboq bo‘lish kerak.

“Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi” [4.].

SHuningdek, tarbiya jarayoni ham zamon talabiga monand takomillashib boradi. Boshqaruv organlari barkamol avlodni o‘qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishlari, yetilgan masalalarni o‘z vaqtida va ijobiy hal etishlari, barcha o‘quv yurtlarining ish saviyasi xozirgi zamon talablariga muvofiq oshirishlarini ta’minlashlari kerak.

Tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratgan Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi nomoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat masalaga falsafiy yondoshib quyidagi fikrlarini yozadi. “Endi kelinglar qaraylik-chi, biz musulmonlar, xususan, turkistonliklar o‘z farzandlarimizga tarbiya be-

rayapmizmi yoki yo‘qmi? Savolning oxiridagi so‘z bunga javob bo‘la oladi, ya’ni “yo‘q!” men buni shunday isbot qilaman. Biz turkistonliklar bolalarimizdan ko‘ra mollarimizga yaxshiroq qaraymiz. Eshak va qo‘ylarimizni farzandlarmizdan ham ko‘proq yaxshi ko‘ramiz deb aytayapman. Yo‘q-yo‘q, bolalarimiz jonimizdan ham aziz. Ular nazarimizda hammadan suyukli va aziz. Lekin baxtimizga qarshi shuni e’tirof qilish lozimki, shuncha muhabbat va mehrga qaramasdan, eshak va qo‘ylarimizdan kamroq tarbiyalaymiz! [2:56.]. Bir qaraganda ushbu fikrlarda shunchaki hayvon parvarishi va bola tarbiyasini bir-biriga taqqoslashdek tuyuladi. Lekin fikrning mohiyatiga kirib borib uni falsafiy mushohada etadigan bo‘lsak uning tag zamirida millatning istiqboli, uning ozodligi va bunyodkorligi haqida ma’rifatparvar adibning o‘y-xayollari jamlanganligini tushunib etish mumkin. Afsuski, adibni o‘ylantirgan masala bugungi kun uchun ham begona emas.

Adib yuqorida keltirgan fikrlarini asoslash uchun quyidagi mulohazalarni bayon qilgan. “Odamning kamoli faqat sog‘liq va kuchdan iborat bo‘lmay, balki jnsmonan, aqlan va axloqan yuksalishdan iborat. Odamning jismi, aqli va axloqi turli kasallik va iuqsonlardan uzoq bo‘lishi lozim” [2:57.]. Demak, fikrdan anglashiladiki, tarbiya tarbiyalanuvchining kamoloti bilan bog‘liq hodisadir. Eshakning kamoli uning yo‘rg‘aligi va oyoqlari baquvvatligi bilan belgilansa, qo‘yning kamoli uning sog‘lomligi va semizligidadir. Bugungi kunda ham ayrim ota-onalar farzand tarbiyasi deganda faqatgina uning yeb-ichishi, kiyinishi va yurish-turishi uchun lozim bo‘lgan vositalar bilan ta’minsh ya’ni tarbiyaning iqtisodiy tomonlariga e’tibor qaratishni tushunib qolmoqda. Buning oqibatida esa yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishga bo‘lgan intilishning susayib borishi, ilm-fan yutuqlarini o‘rganishni ikkinchi darajali hodisa sifatida qarashning ortib borishi, miyada yuzaga kelgan bo‘shliqni turli xil diniy, xurofiy bilimlar bilan to‘ldirishga ruju qo‘yganlar sonining ko‘payib borishi, yashash faqat moddiy boyliklarga egalik qilish va uni boshqalarga ko‘z-ko‘z qilishdan iboratdir deb fikr yurutuvchi odamlarning paydo bo‘lishi kabi xolatlarni yuzaga keltirmoqda.

“Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda mayda muammodek ko‘rinadi. Lekin dono odamlar biladilarki, Bani Odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu nkki so‘z – “bola tarbiyasi”dan iborat birikmaga bog‘liq. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsnzlik yukini tortib e’tibordan qolnshi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi, bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bogliq” [2:55.]. Millatning kelajakda qanday bo‘lishi, uning muvafaqqiyatlari yoki musibatlari, davlatning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi mana shu ikki kalima farzand tarbiyasiga bog‘liq hodisadir. Shuni unutmasligimiz kerak-ki, “Bu

dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog‘lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan [2:60.]. Farzand tarbiyasida taraqqiy etgan mamlakatlar usullarini bilib olib, bolalarimizni shu usul va qoidalar asosida tarbiyalasak bizni o‘ylantirayotgan ko‘plab muammolarga yechim topiladi, zanglab yotgan qurollarimizning zangi ketib ular ish berishi mumkin. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev yozganidek, “Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi”, degan chuqur ma’noli gapni ko‘p takrorlaymiz. Lekin, afsuski, joylarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti. Bu borada bog‘cha, maktab, oliy ta’lim, mahalla tizimining har biri alohida ish olib borayotgani, ya’ni, o‘zaro hamkorlik va uyg‘unlikning yo‘qligi ishimizning samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda[3:285.].

Tarbiya borasida mamlakatimizdagi islohatlar keyingi besh yillikda sifat bosqichiga o‘tdi. Jumladan, o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” darsligi joriy qilindi, 2019-yil 31-dekabrda “Uzliksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasi” qabul qilindi, Oliy ta’lim muassasalarida talabalar tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan Tyuter lavozimi joriy qilindi va boshqalar. Lekin bular uzluksiz ma’naviy tarbiya borasida biz muvafaqqiyatga erishdik, shuning o‘zi etarli degani emas! Tarbiya bilan butun bir xalq birgalikda kurashmog‘i “Oila – ta’lim muassasi – mahalla” hamkorligi mustahkamlanishi lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi shiddatli global o‘zgarishlar davrida iqlimiy, ekologik, demografik, energetik, oziq-ovqat, global pandemia, diniy ekstremizm va terorizm kabi muammolar hayotimizga real xavf tug‘dirayotgan bir paytda, XX asr boshida Abdulla Avloniy tomonidan “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur” [1:4.] deya aytilgan hikmatli so‘zlari ahamiyatlidir. Bizningcha, hayotimizga kirib kelayotgan turli xavf-xatarlarlarga tayyor turishning birdan bir yo‘li uzluksiz ma’navaiy tarbiya tizimini to‘g‘ri va samarali amalga oshirishdadir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.*

*2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. – T.: Ma’naviyat, 2000.*

*3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston yangi strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.*

*4. https://lex.uz/uz/docs/4676839*

# YANGI O‘ZBEKISTON: TA’LIM TIZIMIGA YANGICHA YONDASHUV – YANGI IMKONIYATLAR

**Elmurod ABDULLAYEV,**
*Andijon davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashi kotibi, PhD.*

***Annotatsiya:*** *Dunyo svilizatsiyasining barcha davrlarida insoniyat doimo yaxshi yashashga intilib, ilm, yashash sharoitlari va noz-ne’matlar yaratish ishtiyoqida bo‘lgan. Jamiyatda esa inson kapitalini shakllantirishdagi va rivojlantirishdagi ta’lim-bilimning tutgan o‘rni falsafiy nuqtai nazardan jahon e’tirof etgan asosiy omillardandir.*

***Kalit so‘zlar:*** *Yangi O‘zbekiston, yangicha ta’lim tizimi, kasbiy akkreditatsiya, kasbiy axloq, aqliy salohiyat.*

Fuqarolarning ma’naviy-axloqiy va kasbiy darajasi, bilimi inson resurslarining sifati raqobatbardosh mamlakatni qurishdagi muhim muammolardan biridir. Bugungi globallashuv jarayonida sir emaski, siyosiy gegemonlik va iqtisodiy ustunlik mamlakatlar hududining tabiiy joylashuvi, ulardagi boyliklar bilan emas, balki o‘sha davlatlar fuqarolarining ma’naviyat darajasi, aqliy salohiyati – bir so‘z bilan aytganda inson kapitalining rivojlanish istiqbollari bilan ham o‘lchanadi.

“Ta’lim tizimiga yurtimizda davlat siyosatining muhim yunalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ta’limning sifati va mazmunini boyitish, o‘quv dasturlarini zamon talab va takliflariga moslashtirish, mutaxassis hamda pedagoglarning mehnatini munosib rag‘batlantirish bu boradagi oldimizda turgan vazifalar hisoblanadi. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizmini isloh qilish jarayonini modernizatsiyalash va kelgusida Kadrlar tayyorlash milliy Dasturining ijrosi bilan tavsiflanadi. Buning uchun tajribalar jamlanib, hisob-kitob qilinadi hamda ijtimoiy holat, ishchi kuchi bozori tendensiyalari tahlil qilinadi. Oliy ta’lim tizimini isloh kilishni ta’minlaydigan zaruriy huquqiy, malakaviy, ilmiy-uslubiy, moddiy-texnikaviy va moliyaviy sharoitlar yaratiladi. Oliy ta’lim tarkibini modernizatsiyalash va tizimli isloh qilish davom etmoqda” [1].

Ta’kidlash joizki, oliy ta’lim, avvalo, ijtimoiy ehtiyojlar vositasidir. Zamonaviy insonning dunyoqarashida ilm – oliy ta’lim kishining hayotdagi maqomini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham oliy ta’lim, xalq ta’limi, maktabgacha ta’limning ijtimoiy vazifasi benihoya katta.

Olib borilayotgan davlat siyosati “ta’lim, fan, ishlab chiqarish” zanjirida asosiy o‘rinni egallaydigan ta’lim tizimi, avvalo, oliy ta’lim doirasida iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy mazmunini belgilaydi hamda ta’minlaydi. Ta’lim, fan, ishlab chiqarish integratsiyasi muammolarini hal kilishning eng samarali yullarini tanlash uchun an’analar, “ta’lim-fan-ishlab

chiqarish” o‘rtasidagi hamkorlikni ta’lim va tarbiya orqali inson kapitalini yuksaltirish imkoniyatlarini takomillashtirish hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozori bilan ta’lim tizimi faoliyati o‘rtasidagi nomuvofiqlikning asosiy sababi oliy ta’lim avvalgidek fundamental, ularning amaliy tajribalarga tayangan malakali mutaxassis bo‘lishlarini talab etmoqda [2].

Bugungi kunda bilimi yuqori, ammo sust amaliy tajriba va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni qayta tayyorlashdan chetlashish uchun barcha darajadagi ta’lim muassasalarining mehnat bozori talablariga maksimal yaqinlashuvi zaruriyati vujudga kelmoqda. Kadrlar tayyorlashda mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olish mexanizmi, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishga asoslangan strategiyaning yo‘qligi mutaxassislarni tayyorlashdagi davlat tizimini shakllantirishning sekinlashuviga va uni bozor sharoitlariga moslashishiga imkon bermasligi mumkin.

Oliy kasbiy ta’lim muassasalari ish beruvchilar bilan mustahkam aloqada bo‘lishi, ularga mos mutaxassisliklar bo‘yicha kasbiy hamda o‘quv dasturlarini joriy qilishi, OTMlarning vasiylik kengashlarida ularning ishtirokini ta’minlashni, asosiysi, kadrlarni tayyorlashning koorporativ tizimini ishlab chiqishi lozim. Ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy o‘qitish dasturlarini immitatsiya qila oladigan yangi ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, o‘qitishning interfaol shakllarini rivojlantirish, loyihaviy usullardan va vositalardan keng foydalanish yo‘li bilan ta’minlanishi mumkin. Sanoat sohalari uchun malakali muhandis kadrlarni tayyorlash, birinchi navbatda, mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonlarining sifatiga bog‘liq. Bu, avvalo, kasbiy ta’lim tizimi talablarining ish beruvchilar extiyojlariga mosligi bilan belgilanadi.

Bugun ishlab chiqarish ta’lim tizimining zaruriy faoliyat ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va sifat darajasini oshirish jarayoni boshlanish nuqtasidadir. Uning negizida ta’lim sifatini baholashning mustakil shakllari va innovatsion ta’lim faoliyatining eng yaxshi namunalarini aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va tarqatish mexanizmlarini rivojlantirish lozim.

Ta’limdagi muammolarni bartaraf etishga quyidagi yo‘nalishlarda ish tashkil etish orqali erishish mumkin:

1. Ta’limining zamonaviy tizimini rivojlantirish maqsadida ta’lim dasturlarining attestatsiyasi, davlat akkreditatsiyasi, litsenziya olish, axborot va uslubiy ta’minoti masalalarini o‘z ichiga qamragan omillarni hisobga olgan holda oliy o‘quv yurtlari ta’lim dasturlarini mustaqil jamoaviy-kasbiy baholashni amalga oshirish;

2. Ta’lim muassalari faoliyatini baholashning ochiqligi, haqqoniyligi va xolisligini ta’minlash uchun ta’lim dasturlarini bajarish bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari faoliyati sifatini baholash, nazorat kilishning yangi shakl va mexanizmlarini rivojlantirish;

3. O‘qituvchilar va talabalarning akademik tayyorgarligini oshirish ta’lim xizmatlari sohasida hamkorlikni rivojlantirish uchun ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarning ekvivalentliligini tan olish mexanizmlarini takomillashtirish bulib, u O‘zbekiston ta’lim tizimining jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashish jarayoniga yordam beradi;

4. Kasbiy ta’limning raqobatbardoshligini oshirish, jamoat va ishlab chiqarish birlashmalari, ish beruvchilar ishtirokida ishlab chiqilgan yangi avlod ta’lim standartlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash tajribasiga oliy o‘quv yurtlari, shuningdek, jamoaviy-kasbiy akkreditatsiya yunalishidagi ta’lim dasturlari ekspertizasidan o‘tgan yetakchi oliy o‘quv yurtlari va malakali kadrlar tayyorlovchi muassasalarga sanoat korxonalarining malakali mutaxassislarini to‘g‘ridan– to‘g‘ri jalb etish;

5. Nafaqat davlatning ichki jamoaviy-iqtisodiy ehtiyojlari, balki O‘zbekistonning jahon mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashga yunaltirilgan mexanizmlarini yaratish;

6. Mehnat bozori talablariga mos keluvchi ma’lum soha bo‘yicha tayyorgarlik sifati yuqori darajada bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarini aniqlash imkonini beruvchi mutaxassislar tayyorlashning jamoaviy-kasbiy akkreditatsiyalash tizimini yaratish.

Kasbiy akkreditatsiya natijasida:

1) Mamlakatimizda o‘quv jarayonlarini, ilmiy-tadqiqotni, axborot texnologiyalari va innovatsion faoliyatni rivojlantirish va takomillashtirish;

2) Texnik ishlanmalar, fundamental, ilmiy va amaliy loyihalar, yuridik va psixologik maslahatlar, axborot texnologiyalari almashuv dasturlari, asosiysi, ta’lim sifati va samadarodligini sezilarli darajada oshirish;

3) Jamiyat va ilm–fan o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish hamda ta’lim xizmatlarining ko‘lamini oshirish;

4) Yuksak ilmiy va innovatsion salohiyatli oliy ma’lumotga ega insonlarning ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlariga yanada ko‘proq sharoit qilib berish;

5) Ta’lim sohasidagi xalqaro aloqalarni rivojlantirish;

6) Ta’lim bo‘yicha mutaxassislar, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari, olimlarning xalqaro ilmiy-ta’lim hududiga qo‘shilishiga ko‘maklashish;

7) Ta’lim xizmatlarining xalqaro bozorida raqobatbardosh davlatlar reytingida ta’lim tizimini rivojlantirish.

Jamoaviy-kasbiy akkreditatsiyalash jarayonlari har bir yunalishning xususiyatini e’tiborga olgan holda, bir xil shaklga keltirilgan bo‘lishi, ijtimoiy ma’suliyat hissini shakllantirish orqali shaxsni tarbiyalashi kerak. Ta’lim tizimini mehnat bozoriga yunaltirilishi, mehnat bozori talablari tizimidan ilgarilashi, fan va texnika-texnologiyalar rivojining zamonaviy darajasida bo‘lishi lozim.

Jamiyatda mavjud turli-tuman korxona, tashkilot va muassasalar oliy

o‘quv yurtlari bitiruvchilarining asosiy talabgorlari hisoblanadi. Ish beruvchilar bitiruvchilarning zamon talablariga mos bilim hamda kasbiy mahoratga ega bo‘lishlarini istashlari, tabiiy hol albatta. Oliy kasbiy ta’lim ochiq tizim bo‘lib, unda oliy o‘quv yurtlari va ish beruvchilar bir tizimning bo‘g‘inlari hisoblanadilar. Korxona, tashkilot va muassasalar kadrlarga bo‘lgan talabni shakllantirishi, oliy ta’lim muassasalari esa ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob bera oluvchi yetuk va malakali ishchi-xizmatchilarni yetkazib berishlari lozim.

Hozirgi kunda ish beruvchilar tomonidan bitiruvchilarning maxsus tayyorgarligining past darajadaligi va tor professional doiraga egaliklari ta’kidlanmokda. Bunda oliy o‘quv yurtlariga qo‘yilayotgan asosiy da’vo bitiruvchilarning amaliyot va bilimlar bilan bog‘lanmaganligi, zamonaviy, innovatsion yuqori texnologiyalar bilan ishlay olmasligidir. Bularni bartaraf etish uchun ishlab chiqarish amaliyoti mazmunini chuqurlashtirish, korxona mutaxassislarini mashg‘ulotlarni o‘tkazishga jalb etish, fanlarni real xayotga moslashtirish lozim. Ish beruvchilarning fikricha, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun ma’lum sharoitlarda amaliyotni tashkil qilish zarur.

Bo‘lajak mutaxassislarni sifatli tayyorlash muammosi oliy o‘quv yurtlarining ish beruvchilar bilan samarali uzaro hamkorligiga bog‘lik. Ish beruvchilarning malakali kadrlar tayyorlashdagi ishtiroki ish beruvchilar talablariga javob beruvchi layokatli bitiruvchilar tayyorlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Oliy o‘quv yurti vakillari bilan korxona, tashkilot va muassasalar o‘rtasidagi aloqalarning eng ko‘p tarkalgan turlari quyidagilar:

– talabalarning ma’lum yetakchi korxonalarda amaliyotini tashkil etish;

– mehnat bozorida talabga ega bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarining ta’lim xizmatlari mikyosini kengaytirish;

– mutaxassislar tayyorlash sifatiga bo‘lgan talabni aniqlash;

– o‘quv dasturiy hujjatlarni ishlab chikish va ularga taqriz qilish;

– ish beruvchilar vakillari, mutaxassislar, amaliyotchilar tomonidan o‘quv mashg‘ulotlari, master-klasslar o‘tkazish;

– ish beruvchilarning bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasida ishtirok etishi;

– o‘qituvchilarning ma’lum bir ish joylarida malaka oshirishlari;

– ish beruvchilarning ilmiy-amaliy anjumanlar, o‘quv loyihalar, ilmiy seminar va boshqalardagi ishtiroki;

– loyihaviy integratsiya (hamkorlikdagi ilmiy tadkikotlar, qo‘shma kichik markazlar ochish va boshkalar);

– bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash.

Ishlab chiqarish va OTM o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydigan jarayon bu malakaviy va pedagogik amaliyotdir. Chunki bu jarayonda talaba ham belgilangan o‘quv dasturlaridagi talabni bajaradi, ham kasbiy ko‘nik-

masini boyitib, nazariyani amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Aynan amaliyot talabalarning kasbiy faoliyat sharoitlarida kasbiy-amaliy tayyorgarligini tashkil kilish shakllaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birgalikda “bo‘lajak mutaxassislar kasbiy layokatining yuqori darajasini samarali shakllantiruvchi yetakchi olim” sifatida namoyon bo‘ladi.

Tegishli davlat standartlarining o‘quv dasturlarida rejalashtirilgan malakaviy, pedagogik hamda ishlab chiqarish amaliyotlari talabalarning, birinchi navbatda bitiruvchilarning nazariy, amaliy hamda kasbiy bilimlarining bog‘lanishiga xizmat qilishi kerak. Birok, ko‘pgina oliy o‘quv yurtlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, talabalar va bitiruvchilar uchun tashkil etiladigan amaliyotlar ularning bilimi, kasbiy ko‘nikmalarini boyitish uchun yetarli darajada puxta ishlab chiqilmagan. Buning sababi, milliy va hududiy innovatsion ta’lim rivoji yunalishiping o‘zaro qulay hamkorligi emas, balki oliy o‘quv yurtlarining ish beruvchilar bilan shunchaki rasmiy aloqalaridir.

Oliy ta’lim muassasalari bilan ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlik shartnomalarini talabalarning olgan va olayotgan nazariy bilimlarini bevosita amaliyot jarayoni orqali kasbiy bilimlarga aylantirishga xizmat qiluvchi bandlar bilan boyitish kerak. Birok, ish beruvchilar ta’lim dasturlarining tarkibiy kismlari bilan bog‘lik, qulaylik bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari bilan aloqalarni bog‘lashga tayyor bo‘lsalarda, oliy o‘quv yurtlarining o‘zidan hamkorlik shakllari buyicha ma’lum takliflarni kutadilar. Bu holat oliy o‘quv yurtlarining ish beruvchilar bilan ijtimoiy hamkorligini amalga oshirishda yo‘nalishlar (mutaxassisliklar) bo‘yicha amaliyotning ma’lum turlarini tashkil qilish va o‘quv-uslubiy boshqarishni amalga olshiruvchi mutaxassis tayyorlovchi kafedralarning rolini keskin oshiradi. Aynan ular oliy o‘quv yurti ta’lim xizmatlarining tashki iste’molchilari bilan ijtimoiy aloqa katalizatoriga aylanib, hamkorlik aloqalarini shakllantirish va mustahkamlashni ta’minlaydi. Ish beruvchi korxonalar bilan oliy o‘quv yurtlarining mutaxassis tayyorlovchi kafedralarining o‘zaro aloqasi samaradorligini oshirish makasadida hamkorlik dasturlarini ishlab chikish va tegishli shartnomalarni tuzish maksadga muvofikdir.

Mehnat bozori talablariga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash buyicha oliy o‘quv yurtlari va ish beruvchilar oldida turgan asosiy vazifalarga quyidagilar kiradi:

1) ma’lum dasturlar doirasida o‘zlashtiriladigan ko‘nikma va amaliyot mazmunining bog‘likligi;

2) amaliyot davrida ish joylarida talabalar tomonidan bajariladigan kasbiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan kunikma layoqatlarning muvofiqligini belgilash;

3) amaliyot davrida talabalar tomonidan egallanadigan yoki rivojlantiriladigan kasbiy ko‘nikmalar ruyxatini tuzish. Ta’lim dasturini o‘zgarti-

rishda layoqatlarning oliy o‘quv yurtlari hamkorliklari ish beruvchilar talab qilayotgan layoqatlarga maksimal darajada yaqinlashtirish;

4) oliy o‘quv yurtlari tomonidan ta’lim dasturini takomillashtirish va ularga qo‘shimchalar kiritish maqsadida kasbiy ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasi oliy o‘quv yurtida ta’lim dasturlari samaradorligini oshirish to‘g‘risida ish beruvchilar bilan qayta aloqa o‘rnatish;

5) talabalarning amaliy faoliyat davrida yetarli tajriba orttirish va mutaxassislik buyicha kafolatli ishga joylashtirishga yordam beruvchi o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining yangi shakllarini izlab topish (masalan, butun o‘quv yili davomida nazariy bilimlarning almashinuvi, amaliyotchilarni mehnatiga haq to‘lash orkali ishga jalb qilish, kurs ishlari va diplom loyihalarini bajarish buyicha buyurtmalar va boshqalar).

6) ilmiy va ijodiy mehnat bilan shug‘ullanuvchi talabalarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish.

Xulosa o‘rnida, oliy o‘quv yurtlari bilan ish beruvchi tashkilot o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini oshirish, talabalarning ko‘nikma va mahoratlarini shakllantirishlariga ko‘maklashish, nazariya va amaliyot uyg‘unligiga erishish. Biroq ular kooperatsiya jarayonlariga integratsion jarayonlar quyilgandagina hamkorlik subyektlariga foyda keltirishini aytib o‘tmoqchimiz.

Shuningdek, zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashda oliy o‘quv yurtlari o‘zlarining ish beruvchi strategik hamkorlarini ta’lim xizmatlarining passiv iste’molchilari, tashki kuzatuvchilaridan zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasbiy malakalar majmuasining talabalar tomonidan egallanishishga yordam beruvchi ta’lim va innovatsion jarayonlarning manfaatdor ishtirokchilariga aylantirilganda, oliy o‘quv yurtlari bilan ish beruvchi tashkilotlar hamkorligining samarasi oshadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” tamoyili asosida olib borilayotgan o‘zgarishlar markaziga ta’lim tizimi va bilim qo‘yilganligi munosabati bilan ta’lim va amaliyot masalalariga ham innovatsion yondashilmoqda. Xususan, pedagogika institutlari tashkil etilib, ularning bevosita xalq ta’limi muassasalari faoliyatiga ko‘maklashishi belgilab qo‘yildi hamda talabalarning pedagogik amaliyotga jalb etish tartib-qoidalariga xattoki, o‘quv rejalariga ham o‘zgartirishlar kiritildi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev: “Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat’iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo‘lib yashashi bizning bosh maqsadimizdir. Bu yo‘nalishda oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog‘liq” [3], – degan so‘zlari inson farovonligi ta’minlash, buning uchun inson kapitalini shakllantirish nechog‘lik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 9-23.*

*2. Андреева Е.Н. Формирование рынка образовательных услуг и его регулировные. – Москва: СНГ, 2006. – С. 204.*

*3. O‘zbekisiton Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent. 2018-yil, 28-dekabr, www.president.uz*

## MA’NAVIY-MA’RIFIY TARBIYA, JAMIYAT VA YOSHLAR

**Javohir YULDASHEV,**
*Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash sektori boshlig‘i, (Phd)*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, jamiyat va yoshlar, Respublikamizda yoshlar bilan ishlash masalasi, ma’naviy-ahloqiy muhitni sog‘lomlashtirish va ta’lim tarbiyaning uzluksizligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, jamiyat va yoshlar, xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug‘chilik va mahalliychilik, korruptsiya va manfaatparastlik, Kadrlar tayyorlash milliy modeli, intellektual, ma’naviy asos, moddiy boylikning quli, jamg‘arma, madaniyat durdonalari, urf-odat, audiovizual texnika.*

Sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bog‘liq ezgu intilish bo‘lgani bois istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab uni amalga oshirish eng ustivor vazifalarimizdan biri bo‘lib kelmoqda. Yurtimizda 2021-yilga “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb nom berilishi va shu munosabat bilan maxsus davlat dasturining qabul qilinishi bu borada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning yangi va yanada yuksak bosqichi bo‘lishi mumkinligi shubhasiz.[1]

Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, ushbu dasturning ma’no mazmuni, g‘oyasi, maqsadi, amal qilish tamoiyillari davlatimiz rahbari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda chuqur asoslab berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda o‘ttiz yoshgacha bo‘lganlar aholining 64 foizini tashkil etadi. Aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan ana shu ijtimoiy qatlamning yechilishi lozim bo‘lgan muammolarga e’tiborni jalb qilish, yoshlarni hayotimizda haqiqatan ham hal qiluvchi bunyodkor kuchga aylantirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirish ushbu dasturning asosiy maqsadidir.

Avvalambor, bu dastur aynan bizning mamlakatimiz rivojiga taraqqiyotning o‘zbek modeli tamoyillariga xos xususiyatlarni, yurtimizning buguni va ertangi kunini belgilab beradigan ustivor vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan aniq chora tadbirlarni o‘zida mujassam etishi bilan e’tibor tortadi. Ta’kidlash joizki, istiqlolning ilk kunlaridan boshlab yurtimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyanchiga aylantirish masalasiga e’tibor kuchaytirilgan.

1991-yil 20-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun hozirgi kungacha yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyatimizda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratishga xizmat qildi. Ammo, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi kun, bugungi davr bu sohadagi ishlarni yaxshilash, yoshlarning manfaatlarini ta’minlashga va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani yanada takomillashtirish va shu asosda yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlarni ochib berishni taqazo etmoqda.[2]

Respublikamiz aholisining aksariyat qismini yoshlar va o‘smirlar tashkil qiladi. Har yili 500-600 ming atrofida yoshlar maktab quchog‘idan chiqib, katta hayotga qadam qo‘ymoqda. Ularning 20 foizdan ortig‘i test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib oliy, o‘quv yurtlariga kirib o‘qishmoqda. “O‘zbekiston oliy maktab tizimi 130 oliy o‘quv yurtini o‘z ichiga oladi, ularda 250 mingdan ortiq talaba ta’lim olmoqda”.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini yangi yuqori bosqichga ko‘targan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham yoshlarning tarbiyasiga alohida o‘rin beriladi. Bu ishlarni malga oshirish jarayonida milliy g‘oya va mafkurani yoshlar ongiga singdirish vazifasi qo‘yildi.

Yoshlarni oldida haqiqatni aytishdan cho‘chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiq oydinbayon etish lozim. Ayni paytda davlatimiz rahbariyati olib borayotgan ijobiy ishlar va mavjud muammolarni brtaraf etish uchun olib borilayotgan ijobiy ishlar va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun olib borilayotgan sa’y-xarakatlari va erishilayotgan maliy natijalar xususida targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borishga yoshlarni ruxlantirish, uningamiyatimiz, davlatimiz, mustaqilligimizga bo‘lgan ishonch-e’tiqodini mustaxkamlash olimlarimiz, peshqadam ziyolilarimiz, ma’ruzchilarimiz, mafkuraviy ishlar bilan shug‘ullanuvchi barcha targ‘ibot-tashviqotchilarning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi.

Bularning barchasi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan talaba va o‘quvchilarning ma’naviy tarbiyasiga hukumat miqyosida katta ahamiyat berilayotganini yorqin dalilidir. Shunday bo‘lishi ham lozim edi. Chunki o‘tish davrining murakkab kechuvchi jarayonlari yoshlarning ma’naviy va madaniy tarbiyasiga turlicha ta’sir ko‘rsatishi tabiiy edi. Jumladan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan muayyan muddat moddiy

boylik, pul, valyuta jamg‘arish harakati avj oladi. Bu esa yoshlarning ma’lum qismida nima bo‘lsada, boylik to‘plash hirsini kuchaytirib, ularda ma’naviy boyliklarga e’tiborsizlikni tug‘diradi. Bundan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining talaba va o‘quvchilari ham mustasno emaslar. Ularning ma’lum qismi bozorga, savdosotiqqa o‘zini urishga intiladi. Boylik, pul, puldorlikka nisbatan ularda moyillik hislari uyg‘onadi. Dang‘illama uylarni, “boyvachcha” larning chet el rusumidagi toychoqdek avtomashinalarini, ularning yaltyult kiyimlarini ko‘rib, yoshlarning ayrimlarida bunday turmush tarziga havas uyg‘onib, hayotning asosiy mazmunini mana shunday “boyvachchalarcha” yashashdan iborat degan bir yoqlama, noto‘g‘ri tushuncha o‘rnashadi.

Natijada, moddiy boylikning qo‘liga aylanish ulardagi ma’naviyat chashmasining ko‘zini butunlay bekitib qo‘yishi mumkin. Bunday yoshlarda o‘qishiga havas so‘na boshlaydi, hatto gazeta va jurnallarni, badiiy adabiyotni mutlaqo o‘qimay qo‘yishadi. Ularning o‘ziga xos va mos “ma’naviy va madaniy muhiti” yuzaga kelishi mumkin. Bu restoran, kafe va choyxonalarda beriladigan ziyofatlar, gapxo‘rlik, dahshat yoki behayolik mavzuidagi videolar, “qittaqqittak”, kayf qilish va hokazolar bunday “ma’naviy va madaniy muhit” ning mazmunini tashkil etadi. Oqibatda, jamiyatdagi muhim ijtimoiy, madaniy, ma’naviy hodisalarga nisbatan bunday yoshlarda befarqlik, loqaydlik, hatto ijirg‘anish bilan qarash hissini tug‘dirishi ehtimoldan xoli emas. Mana shunday salbiy, noxush hodisalarning oldini olish muhim vazifadir. Jumladan, oliy va o‘quv maxsus o‘quv yurtlarida ham bu vazifalar hamisha diqqat e’tiborda bo‘lmog‘i talab qilinadi. Shu bois oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimidagi muassasalarda ma’naviyat va madaniyat ishlari prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, metodistlari lavozimlari tashkil etildiki, ular yoshlar o‘rtasida ma’naviyat va madaniyat ishlarini hozirgi talablarga javob beradigan tarzda puxta olib borishlari nazarda tutilgan.

Fan va texnika sohasidagi kattakatta kashfiyotlar va yutuqlar qo‘lga kiritilib, hayotga tatbiq etilayotgan hozirgi davrda talaba yoshlarga ma’naviy va madaniy jihatdan tarbiya berish vazifasining mazmuni va shakllariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Bu omilni hamisha e’tiborda tutish lozim bo‘ladi. Shuning uchun talabayoshlarga ma’naviy va madaniy tarbiya berishda milliy qadriyatlar bilan birga umuminsoniy qadriyatlardan ham samarali foydalanish, ayni paytda, bularga umumtaraqqiyotning zamonaviy yutuqlarini ham payvand qilish talab qilinadi. Ma’naviy barkamol yosh avlod o‘z xalqi, Vatani tarixini, ulug‘ siymolarini, milliy va tarixiy qadriyatlarini, urfodatlarini, rasmrusmlarini, ularning mohiyatini chuqur bilgani holda jahon adabiyoti, san’ati, madaniyati durdonalari bilan yaxshi tanish bo‘lmog‘i, kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixi davomida qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan oshno bo‘lmog‘i darkor. Bularning barchasini talabayoshlarga ma’naviy va madaniy tarbiya berishn uyushtirish va rejalashtirishda diqqate’tiborda tutmoq talab qilinadi.[3]

Ma’naviy va madaniy jihatdan barkamol talaba buyuk Alisher Navoiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Nodira, Muqimiy asarlarini yetarli darajada bilmasa qusur hisoblanadi. Odatda, ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiy haqida so‘z ketganda, ko‘pchilik yoshlar to‘lqinlanib, hayajon bilan buyuk mutafakkirning insoniyat madaniyati xazinasiga qo‘shgan hissasi haqida gapiradilar. Bordig‘yu, shunday to‘lqinlanib so‘zlayotgan talabadan “Alisher Navoiyning qancha g‘azalini yoki ruboiysini yoddan bilasiz?”, “Alisher Navoiyning “Xamsa” siga kirgan dostonlarini to‘la o‘qib chiqqanmisiz?” deb so‘rasangiz, o‘zingizni qoniqtiradigan javob ololmaysiz. Yoshlarimiz orasida Alisher Navoiyning bironta g‘azalini yoddan bilmaydiganlar ham topiladi. Bunday paytda uyalib ketasan kishi. Shunday gap borki, Gruziyada bo‘lajak kuyov Shota Rustavelining qanchadir misra she’rini yoki “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonidan yod bilmasa, qiz berishmas ekan. Aslida, Shota Rustaveli asarlarini bilmasa ham, kun kechirish mumkin. Lekin atoqli adibning she’rlarini, xususan “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonidan kattakatta parchalarni yod bilgan yigitga elning munosabati ham bo‘lakcha bo‘lishi tabiiy. Shota Rustavelidek ezgulikni, insonparvarlikni targ‘ib etgan adibning asarlaridan yod bilgan gruzin yigitining qalbida yaxshilik urug‘lari nish urmagan bo‘lishi mumkin emas. Ayni paytda, Shota Rustavelining asarlarinigina bilgan gruzin yigit qizini ma’naviy jihatdan barkamol deb atash ham bo‘lmaydi. Xuddi shu singari buyuk adib Alisher Navoiy asarlaridan yod bilgan o‘zbek yigit qizini ham yetuk inson deyish qiyin.[4]

Ma’naviy barkamollik qo‘shni xalqlar, shuningdek jahon xalqlarining asrlar davomida yaratgan adabiy badiiy asarlaridan bahramand bo‘lishida ham shubhasiz ko‘rinadi. Firdavsiyning “Shohnoma” sini, qirg‘iz xalqining dostoni va “Manas” ni, Abay va Muxtov Avezovning asarlarini. Maxtumquli she’rlarini, Mirzo G‘olib, Rabindranat Tagor asarlarini, “Ming bir kecha”, “Qobusnoma” singari noyob durdonalarni o‘qimagan talabaning ma’naviy va madaniy saviyasi qay darajada ekanligini anglasa bo‘ladi. Bular ham, aslida, yetarli emas. Jahon adabiyotining shoh asarlari borki, bular haqida turli millat vakillari yig‘ilganda, albatta gap ketadi. Xususan, Homer, Shekspir, Servantes, Bokachcho, Bal’zak, Charlz Dikkens, L.Tolstoy, F.Dostoevskiy, N.Gogol, A.Pushkin, Volter, E.Zolya, G.Mopassan, E.Xeminguey, Jek London, Tomas. Mani, U.Folkier, G.Markes, Chingiz Aytmatov, Abo Kabe, AlMaarriy, Husayn Jovid, Aziz Nesin... sanayversang, cheki yo‘q sahifalar to‘ladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Soifnazarov I. Vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihatlari. T.: Mehnat, 1997 yil,*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli qarori.*

*3. Primova. F. Milliylik va umuminsoniylik. Muloqot, № 2, 1998-yil.*
*4. Aburauf Fitrat. Oila. T.:Ma'naviyat, 1998-yil.*

## MILLIY TARBIYA TIZIMIDAGI YANGI ISLOHOTLAR

**Xazrat JABBOROV,**
*psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
*O'zbekiston Respublikasi Jamaot xavsizlik universiteti dotsenti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada davlatimizda milliy tarbiyasi bo'yicha olib borilayotgan eng so'ngi islohotlar va yoshlarda milliy tarbiya shakllanishishing pedagogik-psixologik omillari bo'yicha nazariy va ilmiy mushohadalar bilan tanishishingiz mumkin.*

***Kalit so'zlar:*** *tarbiya, milliy tarbiya, fazilat, qadriyat, an'ana, odat, tayanch kompetensiya, xulq-atvor, odob-axloq, uzluksiz ma'naviy tarbiya.*

Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma'lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, jaholatga olib boradigan bir omil, ya'ni oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illati millatning ma'naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Xo'sh nega bugun ota-onalar farzand tarbiyasiga e'tiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishiga qanday omillar to'sqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizni masala yuzasidan hamma uchun bir tildagi optimal yechim topish vazifasini qo'ymoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo'lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda bizda farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illat va tahdidi kuchayib bormoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so'z bordi. Mazkur yig'ilishda Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to'xtalib, "Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi", – deya alohida ta'kidladi.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta'limdan bo'sh vaqtida amalga oshiriladigan qo'shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga

aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi. Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Shunday bir vaziyatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 3-maydagi PQ 4307-sonli qarori [1] ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorining [2] chiqishi bu millat kelajagi, millat ma’naviy taraqqiyoti uchun bir o‘ziga hos tarixiy voqelik bo‘ldi. Mazkur konsepsiya 8 ta bob va ma’naviy tarbiyaning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tabirlar rejasidan iborat bo‘lib, uning amalga oshirilishi 4 bosqichdan iborat bo‘ladi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning ma’naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi.

“... hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur”, degan edi milliy pedagogikamizning buyuk darg‘asi Abdulla Avloniy [3]. Konsepsiya ana shu hikmatga hamohang bo‘lib, unda farzandlarimizda milliy yuksalishimiz uchun eng zarur fazilatlar: Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Voyaga yetgan o‘g‘il-qizlarimiz mustaqil hayotga ana shu fazilatlari bilan kirib boradilar. Bu fazilatlari ularning o‘zlarini ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qiladi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi o‘zida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligi alohida ta’kidlandi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, Xitoyning yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o‘rganilgan[4].

Konsepsiyada O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda

ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko'tariladi.

Konsepsiya oldiga qo'yilgan vazifalar:

ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi

va malakasini muntazam oshirib borish;

oila, ta'lim muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;

ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishdan iborat.

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi" to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich – oilalarda (ikki davr: 1-davr – homila davri,

2-davr – bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

ikkinchi bosqich – maktabgacha ta'lim 3-6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

uchinchi bosqich – umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr: 1-davr –

7 (6)-10 yosh boshlang'ich sinf, 2-davr – 11-17 yosh o'rta va yuqori sinflar);

to'rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr: 1-davr – o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar – 17-30 yosh, 2-davr – o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh).

Konsepsiya ijrosi uchun mas'ul vazirlik va idoralar:

– Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtiruvchi "Ma'naviy tarbiya" respublika jamoatchilik kengashini tashkil etish.

– "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o'smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik majmuasini yaratish.

– Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari asosida o'quv-

chilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilatlar, kompetensiyalarni shakllantirish.

– I-XI sinflar uchun “Tarbiya” fanini joriy qilish.

– Umumta’lim muassasalarining “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish.

– Ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini axloqiy fazilatlar majmui bo‘lgan milliy tarbiya an’analari, vositalari, shakllarini o‘rganish maqsadida mamlakatimiz hududlariga etnopedagogik ekspedisiyalarni tashkil etish. To‘plangan tarbiyaviy meros asosida kitob va qo‘llanmalar, ko‘pjildli “Milliy tarbiya ensiklopediyasi”ni yaratish hamda chop etish.

– Jamiyatda milliy tarbiya an’analari, qadriyatlarini tiklashga qaratilgan fundamental, amaliy va innovasion tadqiqotlarni tashkil etish;

– yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o‘rgatish;

– yoshlarda turli ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish va shu kabi 61 ta Respublika va xalqaro miqyosidagi tadbirlarni samarali o‘tkazish bo‘yicha vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Konsepsiyada bunga tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, tayanch fazilatlarni kafolatli loyihalashtirish va o‘rgatishda oila, maktabgacha ta’lim muassasasi hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik imkoniyatlarini to‘liq ishlatish va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tarish masalasi rejalashtirilgan.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, buning oqibatida tarbiya uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermayotganligi qayd qilinib o‘tiladi. Buning oqibatida yo‘l qo‘yilgan xatolardan eng ko‘p tarqalgani – og‘zaki tarbiya davom etayotganligi, ota-onalar, maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari, maktab o‘qituvchilari bolalarga Vatanga sadoqat, mas’uliyat, tadbirkorlik va boshqa fazilatlar nazariy ma’lumotlarga aylanib, bolalarning odatlariga aylanmayotganligi, ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amalga erishmayotganligi natijasida yoshlarning Vatanga sadoqat, mas’uliyat, tadbirkorlik, mehr-oqibat haqida so‘zlari bilan yoshiga mos amallari orasida tafovut namoyon bo‘layotganligi qayd qilinadi.

Konsepsiyada tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar birdaniga ko‘rinmasligi, noto‘g‘ri tarbiyaning asoratlari oradan ko‘p yillar o‘tgach, jamiyatda inson omili tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarda ko‘rinishi mumkinligi qayd qilib o‘tilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mazkur uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasidan tarbiyaning tizimli va uzviyligini ta’minlashda quyidagicha natijalar kutilmoqda:

– konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg‘or innovasion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

– oilalar, ta’lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo‘lgan yoshlarning ma’naviy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan innovasion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratiladi.

– jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egosentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, “ommaviy madaniyat”ga

ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo‘lmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishga, kelajakka bo‘lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo‘ladi.

– oila, ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to‘g‘risida bilimlar shakllanadi, ularni o‘rganish, saqlash, targ‘ib qilish, o‘rgatish orqali milliy fazilatlarning avloddan-avlodga bezavol o‘tib borishi ta’minlanadi.

– konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhitning sog‘lom va barqaror bo‘lishiga salmoqli hissa qo‘shadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, oilada farzand tarbiyasi – oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota-onaning sa’y-harakati hisoblanadi[5]. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi. Farzandlarimizni ilm-fan va ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq, o‘z o‘rnida tarbiya ma’naviyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ma’naviy kamolotida esa ma’naviy tarbiya katta ahamiyat kasb etadi.

Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga etiborli bo‘laylik, aynan shu mezon bolalarimizni ma’nan va ruhan sog‘lom, ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o‘z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo‘lib o‘sib unishining asosidir. Qolaversa mazkur

ma’naviy indikatorlar oila baxtini, mustahkamligi va ahilligini ta’minlovchi ma’naviy omil hisoblanadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son va 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040 qarorlari.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori.*

*3. M. Quronov. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210*

*4. Jabborov Xazrat Xusenovich. Psixologicheskie osobennosti ideologicheskogo vliyaniya “massovoy kulьturi” na chelovecheskiy razum. SOSIAL’NIY PSIXOLOG jurnal dlya psixologov. Osnovan v 2000 godu v Yaroslavlь. 2016 №2 (32). -S. 56-66.*

*5. Jabborov Xazrat Xusenovich. “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.*

*6. X.Jabborov “O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari” nomli diss.2019 yil.B.140*

## TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSIYA SUBYEKTINING ROLI

**Faxriddin CHORIYEV,**
*falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),*
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*
*Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy*
*tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash*
*kafedrasi dotsenti*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada keltirilgan jarayonlar ta’lim muommolarini hal qilishga qaratilgan bo‘lib, innovatsiyalarni qo‘llash hamda ta’lim jarayonida kadrlar tayyorlashda samarali usullardan hisoblanadi.*

***Kalt so‘zlar.*** *milliy, pedagogik, ilg‘or, pozitsiya, fidoiylik, sotsial, innovatsiya, texnik, nuqta, daxldor, ierarxiya, oylik, afzal, subyekt, intervyu, individual, reaksiya,motivatsiya.*

Ta’lim muassasalarida olib borilgan izlanishlarimiz natijalari tahlilining ko‘rsatiishicha, yurtimizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, ta’lim tizimidagi islohotlarning samarali borishi ko‘p jihatdan pedagogik jamoa rahbarlarining ilg‘or pedagogik innovatsiyalarga bo‘lgan munosabatiga, yangiliklarning zaruriyati va ularning ahamiyatini tushunish, anglash darajasiga, yangiliklarni joriy etish jarayonida tutgan pozitsiyasiga, ma’naviy etuklik, fidoiylik, vatanparvarlik, ijodiy fikr yurituvchanlik, kelajakka qat’iy ishonch, sotsial intellekt va emotsional intellekt singari shaxs xususiyatlariga ierarxik bog‘liqdir. Pedagogik muassasalarga rahbar kadrlarni oliy maktablarda tayyorlash va ularni malakasini oshirish kurslarida, institutlarida qayta tayyorlashda pedagogik innovatsiyalar yuzasidan ilmiy-amaliy jihatdan chuqur ma’lumot berish, subyektlarda yangiliklarni boshqarish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni, sotsial-psixologik bilimdonlikni shakllantirish innovatsiyalarning samarali joriy qilinishiga ijobiy hamda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Biz ushbu maqolaning mulohazalarida joriy qilishning sotsial-psixologik jabhalariga, ya’ni, rahbar shaxsi va uning faoliyati bilan bog‘liq jihatlarini tavsiflashga harakat qilamiz. Bizningcha, pedagogik texnologiyani ta’lim jarayoniga joriy qilish innovatsiya, ya’ni yangilik kiritish jarayoni deb nomlash maqsadga muvofiq. Psixologiyada “Innovatsiya” tushunchasi keng va tor ma’noda qo‘llanilib kelinadi. Innovatsiyaning birinchi ma’nosi u yoki bu ijtimoiy ehtiyojni to‘laroq, samaraliyoq qondirish uchun yangi ilmiy va amaliy vosita, ya’ni yangilik yaratish, uni yoyishga hamda tatbiq etishni o‘z tarkibiga mujassamlashtirgan kompleks jarayon sifatida talqin qilinadi. “Innovatsiya” tushunchasining ikkinchi ma’nosi u yoki bu guruh faoliyatini takomillashtirish maqsadiga yo‘naltirilgan ushbu atamaning subyekti tomonidan yangilik tariqasida qabul qilingan original vosita, uslub, usul, yondashuv tizimiga nisbatan qo‘llaniladi. Biz quyidagi mulohazalarimizda innovatsiyaning ikkinchi ma’nosidan foydalanamiz.

Innovatsiya jarayonini ta’lim amaliyotiga tatbiq qilish bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi: 1) izlanishni olib borish uchun ijtimoiy ehtiyoj darajasini aniqlash; 2) yangilikni yaratish va amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini tanlash; 3) yangilikni amaliyotga yo‘naltirish jarayonini rejalashtirish; 4) umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda tajriba-sinov o‘tkazishni joriy qilish; 5) eksperiment o‘tkazishni ko‘pyoqlama tahlil qilish; 6) olingan natijalarni ham sifat, ham miqdor jihatidan baholash. Ta’limda innovatsiyani qo‘llashda olingan ma’lumotlarni obyektiv hamda subyektiv faktorlarga asoslangan holda innovatsion jarayonining har bir bosqichida uning qatnashchilari uchta yo‘nalishda, ya’ni individual, hamkorlik, guruhiy faoliyatni o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Psixologik nuqtai nazaridan moddiy-texnik, tashkiliy, sotsial-psixologik omillarga asoslangan holda yangilikning, ya’ni yangi pedagogik

texnologiyaning ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli joriy qilinishi va ilmiy farazda nazarda tutilgan kutilmaning yuqoriroq samara berishini amalga oshirish uchun bir qator psixologik omillarga asoslanish yuqori natijalar beradi. Omillarni 3 ta guruhga ajratish lozim: Birinchi guruhga kiritilgan omillar yangilikning mazmuni, sifati va boshqa xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqligi. YAngilikning mukammalligi, ilmiy-amaliy jihatdan asoslanganligi, ta’lim jarayonida sinovdan o‘tkazilganligi va milliy-mahalliy sharoitga mutanosibligi bo‘yicha tashxis o‘tkazish, so‘ngra tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etishi. Ikkinchi guruhning mazmun-mohiyati yangilikni kiritishga daxldor ilmiy yondashuvga aloqador bo‘lgan omillarni qamrab olishi bilan tavsiflanishi. Ushbu guruh tarkibiga yangilik kiritishning rejalashtirilganligi, moddiy-moliyaviy, tashkiliy ta’minlanganligi, ularga bosqichma-bosqich (ierarxiya) amal qilinganligi singari omillar kiritilganligi. Sotsial-psixologik omillar uchinchi guruh turkumini mujassamlashtirgan bo‘lib, uning tarkibiga yangilikka nisbatan o‘qituvchining shaxsiy munosabati, ta’lim jamoasi a’zolarining imkoniyati (potensiali), jamoadagi sotsial-psixologik muhit, unda hukm surayotgan rahbarlik usuli kabilar kiradi. Bizningcha, har qanday yangilik kiritilishining, shu jumladan, pedagogik texnologiya joriy qilinishi, yuqori samara berishi, jamoa a’zolarining ushbu yangilikni qanday qabul qilishi, unga nisbatan munosabatiga korrelyasion bog‘liqlikka egadir.

Izlanishlarimiz natijalari tahlilining ko‘rsatishicha, yangilikni kiritish jarayonida yangilikka nisbatan psixologik to‘siq (barer), g‘ov paydo bo‘ladi. Yangilikka psixologik to‘siq (g‘ov), yangilikka daxldor shaxslarning mazkur yangilikka nisbatan befarqligi yoki salbiy munosabatlari yuzaga kelganida namoyon bo‘ladi. Ta’lim tizimi a’zolarida bunday psixologik to‘siq (g‘ov) ochiq yoki yopiq holda uchrab turishi kuzatiladi. Tadqiqot ilmiy-amaliy natijalarining ko‘rsatishicha, bunday to‘siq (g‘ov) ishtirokchilarning odatlangan faoliyat uslubini afzal ko‘rishi, noaniqlikdan xadiksirash, ortiqcha xatti-harakatlar paydo bo‘lishidan, oylik maoshining yoki lavozimining pasayishidan xavotirlanish, ta’limda innovatsiyaning zarurati yoki muhim jarayon ekanligini tushunmasliklariga bevosita taalluqlidir.

Pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayoniga kiritilishining samaradorligiga o‘qituvchilar jamoasi rahbarlarining yangilikka nisbatan munosabati, subyektning (rahbarning) ko‘rsatkichi, boshqaruv uslubi, uning qo‘lostidagilari bilan, turli lavozimdagi xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining mazmun-mohiyati, sifati, xususiyatlari kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bizningcha, pedagogik jamoa a’zolarining yangilikka munosabatini, ularning ijodiy faolligini, rahbar shaxsi va uning innovatsion faoliyati xatti-harakatlarini, jamoaning sotsial-psixologik xislatlarini (jipsligi) o‘zaro moslik, psixologik muhit yaxlit holda pedagogik jamoaning innovatsion potensiali (imkoniyati), ya’ni yangilikni samarali qabul qilish imkoniyati deb atash ayni muddaodir. Jamoaning innovatsion imkoniyati va innovatsiya jarayonining samara-

dorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etish maqsadida Toshkent shahrining ayrim ta’lim muassasalarida sotsial-psixologik tajribalar o‘tkazildi. Miqdoriy natijalar tahlilining ko‘rsatishicha, innovatsion potensiali yuqori bo‘lgan jamoalarida pedagogik innovatsiyalar joriy qilinishining samarasi yuksak darajaga ega ekanligi aniqlandi. Pedagogik yangiliklarni samarali joriy etish uchun saralb olingan yangilikning mukammalligini, ilmiy-amaliy jihatdan asoslanganligi, mahalliy va milliy shart-sharoitga mos kelishini atroflicha va tezkor o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu boisdan pedagogik jamoa a’zolarini bu yangilik to‘g‘risida to‘liq, zaruriy ma’lumotlar bilan ta’minlash hamda ularning mazkur pedagogik texnologiyaga nisbatan munosabatini aniqlash, shu asosda ushbu munosabatni takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadbirlar o‘tkazish joiz. Pedagogik innovatsiyani ta’lim tizimiga kiritish jarayonida rahbar kadrlar faoliyatining ahamiyati yanada ortadi. Innovatsiya jarayonida ular turlicha pozitsiyalarni egallashlari kuzatiladi. Rahbarlarning innovatsion pozitsiyasini tadqiqot qilish maqsadida pedagogik jamoa va boshqa mehnat jamoalarining har xil lavozimda ishlayotgan rahbarlari va xodimlari bilan intervyu o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari tahliliga asoslangan holda rahbarlar innovatsion pozitsiyalarining tipologiyasi biz tomonimizdan ishlab chiqildi. Yaratilgan tipologiyaga binoan rahbar kadrlarning innovatsion pozitsiyalari beshta turga ajratildi: 1) Rahbarning tashabbuskor pozitsiyasi (doimo zaruriy, ustuvor yangiliklarga yo‘nalgan tashabbuskor shaxs); 2) Vaziyatli-faol subyekt (faqat yangilik kiritish vaziyati, sharoiti yuzaga kelgandagina rahbar faollik ko‘rsatadi, xolos); 3) Ijrochilik (rahbar mustaqil, individual tashabbus ko‘rsatmaydi, lekin yangilik kiritishga oid topshiriqlarni sitqidildan ijro qiladi); 4) Kutuvchanlik (yangilikni ichdan xohlamaydi, biroq yuqori tashkilotdan qat’iy buyruq kutadi yoki boshqalarning tashabbusiga muhtojlik sezadi); 5) Konservativ (yangilikka nisbatan rahbar odatdagi faoliyatini afzal ko‘radi, imkoniyati boricha unga qarshilik ko‘rsatadi). Tajriba ishlari olib borilgan jamoalarda ijrochilik (53%), vaziyatli-faol (32%), tashabbuskor (11%), kutuvchanlik (4%) pozitsiyadagi rahbarlar faoliyat ko‘rsatayotgani aniqlandi.

Rahbarlarning innovatsion pozitsiyasi bilan ular egallab turgan lavozimining ko‘rsatkichi o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik hukm suradi. YUqori bo‘g‘in rahbarlarining yangilikka nisbatan munosabati va innovatsion pozitsiyasi ko‘rsatkichga ega o‘rta bo‘g‘in rahbarlaridan sezilarli darajada yuqori. SHu bilan birga, rahbarlarning innovatsion pozitsiyasi subyektlarning shaxslilik xususiyatlari, sifatlari va shaxs yo‘nalganligiga, o‘zini o‘zi tasdiqlash, tan oldirish ehtiyojini rivojlanganlik darajasiga, yangilik kiritishning muvaffaqiyatiga, ishonch ko‘rsatkichiga, yangilik ahamiyatini qay yo‘sinda tushunishi kabi omillarga bog‘liqligi, ya’ni ijobiy korrelyasion aloqadorligi ham miqdor, ham sifat jihatdan dalillandi.

Ta’lim tizimi rahbar kadrlari faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning motivatsiyalariga, ma’lumotlarni tezkor idrok qilishiga, tushunishiga, zudlik bilan qayta ishlashiga, ijobiy munosabat bildirish qobiliyatiga bog‘liq. Vaqt taqchilligi vaziyatida faoliyat ko‘rsatuvchi rahbarlarning shaxslilik sifatlari, ishbilarmonlik fazilatlari muhim ahamiyat kasb etadi. SHuni ta’kidlash joizki, olingan signallarga o‘z vaqtida, tezkorlikda reaksiya va munosabat bildirish, to‘g‘ri qaror qabul qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Olingan miqdoriy ma’lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha, turli darajadagi lavozimlarda faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlar uchun innovatsiyalarga o‘z vaqtida yoki tezkor munosabat (reaksiya) bildirish ularning kasbiy malakasi bo‘lib hisoblanadi. Ilmiy-amaliy natijalarning ko‘rsatishicha, rahbarlarning yoshi ulg‘ayishi tufayli innovatsiyalarga munosabat bildirish imkoniyati pasayib boradi, gender farqlar real ro‘yobga chiqadi, latent davri tobora kuchayadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Xalqimizning yo‘li mustaqillik,ozodlik va tub islohotlar yo‘lidir .-Toshkent: O‘zbekiston , 1996. – 158 b.*

*2. Abul’xanova-Slavskaya K.A. Razvitie lichnosti v protsesse jiznedeyatelnosti.-V kn.: Psixologiya formirovaniya i razvitiya lichnosti– M.:Nauka, 1981 -B. 97-115 Abu.Ali.Ibn.Sino. Tibbiy o‘quv qo‘llanmalar. -T.:Fan, 1987.*

*3. Ayzenk G.YU.Prover’te svoi sposobnosti: per.s ang. – M.: Pedagogika, 1992. -176 b.*

*4. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovanie/ Pod.red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo.-M. 1982. 1-2 tomlar.*

*5. Andreeva G.M. Sotsial’naya psixologiya:-Uchebnik.-2-e izd. -M.:Izd-vo MGU, 1988.– 432 b.*

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA JARAYONIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Baxtiyorjon BARATOV,**
*Farg‘ona davlat universiteti*
*mustaqil tadqiqotchisi*

***Annotasiya:*** *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari faolligini oshirishda, tanlagan kasbiga nisbatan mas’uliyat hissini uyg‘otishga, jamiyadagi turli islohotlarni rivojlantirish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

***Kalit so‘z va iboralar:*** *ijtimoiy-iqtisodiy, mustaqil ta’lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta’lim, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, innovasion va raqamli, ta’lim standartlari, Ta’lim va tarbiya, ilmiy-metodik.*

Oliy o‘quv yurtlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar ma’naviy tarbiya jarayonida yoshlarning ruhiyatiga, dunyoqarashiga, ularning ongiga ta’sir etadi. Bu umuminsoniy va milliy axloqning tizimlari va pedagogik odob qoidalarini har bir bo‘lajak mutaxasis ongiga yetkazish, singdirish demakdir. Ta’lim ma’naviy tarbiyaning muhim vositasi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.Talabalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishning muhim shartlaridan biri ularni yuksak bilimlar bilan chuqur va mustahkam qurollantirishdan iboratdir. Yoshlarni bilim olishlari va unga intilishlari, ko‘p kitob mutoala qilishlari ma’naviy-axloqiy fazilatlarining o‘sishiga ko‘maklashadi. Talabalarning ma’naviy tarbiyasi darsda yoki auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan tadbirlarda amalga oshiriladi. Bundan tashqari yoshlar kattalarni ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirishi ya’ni ustoz va shogird an’anasi ham juda muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak mutaxasislarning uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash talabalarning pedagogik muhit bilan, ta’lim va tarbiya muassasalari bilan aloqasining mustahkamligi hamda ta’sirchanligi, ta’lim muassasalarida yuz beradigan bir qancha muammo va individual xususiyatlarga ham bog‘liqdir. Ma’naviy tarbiya yoshlarni axloqiy jihatdan rivojlanishiga olib kelishi va unga stimul bo‘lishi lozim. Lekin bunga erishish uchun ma’naviy tarbiya berishni tashkil etuvchilar axloqiy taraqqiyotda obyektiv va subektiv omillarning o‘zaro ta’sir o‘tkazishni e’tiborga olishlari zarur. Ma’naviy tarbiya jarayonining tayyorlash texnologiyasini, mexanizmini, uning tarkibiy qismlarini aniqlab chiqqan taqdirdagina tushinish mumkin. Ma’naviy tarbiya jarayonining tayyorlashning asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy hayot, turmush tarzi jarayonida hosil bo‘lgan odatlar;
2. Ma’naviy ehtiyojlar;
3. Axloqiy e’tiqod;

Talabalarning ma’naviy tarbiya jarayonini torroq ma’noda oladigan bo‘lsak, u oliy o‘quv yurtining professor-o‘qituvchilar jamoasi, fakultet, guruh jamoalari, jamoat tashkilotlarining biror aniq maqsadni ko‘zlab bo‘lajak mutaxasislarning ma’naviy rivojlanishiga faol ta’sir etishidir. Bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy tarbiyasi jamiyatning sekin-asta murakkablashib boradigan talablari ta’sirida amalga oshirilib, oliy o‘quv yurti, jamoat tashkilotlari, professor-o‘qituvchilarning talabalar bilan o‘zaro munosabat shaklida turmushga tadbiq etiladi. Talaba shaxsining mutaxassis sifatida sekin-asta izchil ravishda ma’naviy jihatdan shakllana borishi bu talabalarni yildan – yilga, kursdan-kursga o‘tgan sayin murakkablashtira borishga imkon beradi.

Oliy o‘quv yurtida amalga oshiriladigan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida yoshlarning ruhiyatiga, ularning ongiga ta’sir etiladi. Bu umuminsoniy va milliy axloqning prinsiplari va pedagogik odob qoidalarini har bir bo‘lajak mutaxassis ongiga yetkazish, singdirish demakdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashda biz Y.K.Vasilev, V.A.Slastenin, Y.Ye.Smirnova, N.Shodiyev larning tadqiqot ishiga tayanib, uning ichki tuzilishini ifodalovchi 4 ta parametriga asosiy e’tiborni qaratdik. Ular quyidagilardan iborat:

– muammo (masala)lar, ya’ni o‘qituvchi tomonidan ketma-ket ravishda hal qilinadigan muammolar;

– funksiyalar – o‘qituvchining asosiy kasbiy vazifalarini umumlashgan tavsifi;

– faoliyat turlari, ular yordamida o‘qituvchi masalalarni hal qiladi va yuqorida ko‘rsatilgan funksiyalarni amalga oshiradi;

– o‘qituvchi tomonidan muammolarni hal qilishda qo‘llaniladigan usul va vositalar.

Insonda shaxsning shakllanishi ko‘p jihatdan unda o‘z-o‘ziga baho berish qay darajada topishiga bog‘liq. Psixologlar o‘z-o‘ziga baho berishning ikki asosiy uslubini ajratishadi. Birinchisi, o‘z urinishlarini ko‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslashdan iborat bo‘ladi. Ikkinchisi, ancha keng tarqalgan bo‘lib, ijtimoiy taqqoslash, atrofdagilarning uzi xakidagi fikrlarini takkoslash bilan belgilanadi. Ammo intilishlar uncha yuqori bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun ham o‘z-o‘ziga baho berish natijaga mos bo‘lmagan holda shakllanadi.

Ijodiy faoliyatga ega tarbiyachini o‘zining hamkasblari bilan bo‘ladigan taqqoslashi natijalari uni doim ham qoniqtiravermaydi. Tarbiyachining o‘zini xolisona baholashining shakllanishi “tarbiyachining samarali faoliyati va unda komil insonning shakllanishi” jarayoni bilan bog‘liq bo‘ladi. Tarbiyachida kasbiy idealining shakllanishi hali talabalik davridanoq boshlangan bo‘ladi. Kasbiy ideal shakllanishining eng oddiy yo‘li maxsus adabiyotlar bilan tanishish va mahoratli pedagoglar tajribalarini qunt bilan o‘zlashtirishdir. Vaqt o‘tishi bilan kasbiy ideal o‘zgarib borishi ham mumkin. Chunki ideal aniq bir shaxs bo‘lmay pedagoglardagi eng yaxshi jihatlarni mujassamlashtirgan qandaydir oliy darajadagi yig‘ma obraz bo‘ladi. Xolisona tarzda to‘g‘ri shakllangan kasbiy ideal o‘z-o‘zini tarbiyalashning samarali vositasidir.

O‘z-o‘zini tarbiyalashning tashqi omillariga pedagogik jamoa, maktabni boshqarish uslubi va o‘qituvchining bo‘sh vaqtini o‘tkazishi kabilar kiradi. O‘zaro talabchanlik, prinsipiallik, samarali tanqid va o‘z-o‘zini tanqid amal qilgan, ijodiy munosabatlar ustivor bo‘lgan hamda o‘zaro yordam kuchli bo‘lgan jamoada kasbiy idealga qarab borish ancha yengil kechadi. Pedagogik jamoada bundayin jihatlarning bo‘lmasligi shu yerda o‘z– o‘zini tarbiya qilish ehtiyojini yo‘qotadi.

Mustaqil kasbiy tayyorgarlik individual jarayondir. Unda o‘zaro bog‘liq uchta bosqichlarni ajratib kursatish mumkin bo‘ladi: o‘z-o‘zini anglash, mustaqil rejalashtirish va mustaqil harakat qilish. O‘z-o‘zini anglashda psixologiya kursi yordam beradi. Hozirda inson shaxsi va undagi kasbiy sifatlarni aniqlashga yordam beradigan ko‘pgina psixologik adabiyotlar va qo‘llanmalar mavjuddir. O‘z-o‘zini kasbiy tarbiyalashni rejalashtirish kerakli sifatlarga ega bo‘lish yo‘lini aniqlash, maqsad-vazifalarni belgilash, faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish hamda tegishli boshqaruv jihatlarini o‘zlashtirishni o‘zida mujassamlashtiradi.

O‘qituvchilarning o‘zaro hamkorliklari kasbiy tayyorgarlikni uzluksiz va izchil qiladi. O‘zini ishontirish, o‘zini buysundirish, o‘zini cheklay olish tarbiyachida iroda, maqsadga intilish va mas’uliyatni shakllantiradi. Kuzatish, tasavvur, chuqur fikrlashga yo‘naltirilgan mashqlarsiz kasbiy sifatlar shakllanishi bo‘lmaydi. Kasbiy tarbiya o‘qituvchining hayotiy maqsadiga aylanishi kerakki, usiz o‘z sohasida yuksalish ham bo‘lmaydi.

O‘qituvchi pedagogik faoliyatning asosiy subyekti hisoblanadi. O‘z faoliyatidagi so‘z va harakat namunalari orqali u o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazadi. Shundan kelib chiqilgan holda o‘qituvchining referentligi to‘g‘risida gapirish mumkin bo‘ladi.

To‘g‘ri shakllangan bu konsepsiya o‘qituvchi ijodiy imkoniyatini to‘g‘ri yo‘naltiradi, hamkasblar hamda o‘quvchilar bilan birgalikda ishlashda asqotadigan kerakli usullar, va vositalar zahirasini yaratadi. Shu sababli u hamkor faoliyat yo‘nalishini ko‘proq belgilab beradi. Agar faqat shu maqsad qo‘yilsa o‘qituvchi turli variantli usullarga ega bo‘lishi mumkin, lekin ularning natijasi kamroq bo‘ladi. Chunki bunda o‘quvchi faoliyatdagi hamkor emas, maksimal e’tibor kuchini talab qiladigan passiv obyektga aylangan bo‘ladi. Natijada o‘qituvchining ishi “subyekt – subyekt”li emas, balki “subyekt – obyekt”li mazmunga ega bo‘ladi. Bunday vaziyatda o‘qituvchi ma’muriy – buyruqbozlik mavqeida bo‘lib, hech qanday hamkorlikka yo‘l qo‘ymaydi va uni qabul qilmaydi.

Shaxsning o‘z-o‘zini ijtimoiy belgilashi bu “men obrazidagi” o‘zligini anglash, uni rivojlantirish va hayotda o‘z o‘rnini topishdan iborat bo‘ladi. U esa insonning o‘z hayotining haqiqiy egasi bo‘lishi va u bilan bog‘liq barcha vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi bilan belgilanadi. Bunda usha inson nafaqat ma’lum bir hayotiy – kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi, balki tarbiya sohasida o‘quvchilar uchun yuksak insoniy obraz timsoliga aylanadi.

Tarbiya xususidagi nazariy tasavvur avvallambor bu juda sifatli kasbiy tafakkur bo‘lib, o‘qituvchi tomonidan tarbiya jarayonini to‘laqonli qura olish hamda undagi natijalar shakli bo‘lgan bolalar reaksiyasi bilan bog‘liqligidadir. Nazariy qarashlar o‘z ifoda kuchiga ega bo‘ladi va namoyon bo‘lish shakli ham o‘ziga xos bo‘ladi. Bu o‘qituvchining pedagogik pozisiyasida aks etgan bo‘ladi.

V.I.Slobodchikov so‘zlaricha kasbiy pozisiya o‘ziga xos tarzda noyob va yakka-yu yagonadir. U bir vaqtning o‘zida shaxsiy pedagogik (o‘qituvchining bola bilan tarbiya jarayonidagi uchrashuvida aniqlanadi) va pedagogik-professional (kasbiy pedagogik maqsadlarga erishish jarayonida kuzatiladi) mazmunga ega bo‘ladi. O‘qituvchi tarbiya jarayonidan tashkarida hech qayerda, hech qachon bola bilan “obyekt” sifatida uchrashmasligini (agar u oddiy inson materiali bilan ishlamaydigan haqiqiy pedagog bo‘lsa) bu yerda maxsus kayd etish lozimdir, ya’ni: shaxsiy pozisiyasida u boshqa kishi bilan, kasbiy yo‘nalishda esa tarbiya rivojining sharoitlari bilan uchrashadi.

Tarbiya jarayonida o‘qituvchi asosiy subyekt sifatida bo‘ladi. Uning subyektiv jihatlari ishda uning qanday kasbiy va ijtimoiy pozisiyada turganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa jamiyatning o‘qituvchilardan talab qiladigan asoslar va uning ichki dunyoqarashi hamda tarbiya saviyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli pedagog pozisiyasida uning shaxsiga xos barcha jihatlar o‘z aksini topgan bo‘ladi. Undagi tizim ijtimoiy va kasbiy asoslardan iborat bo‘ladi.

Pedagogik pozisiya – pedagogik tafakkur mahsuli, tarbiya jarayonini his etish va tarbiya jarayoniga tayyorgarlik darajasidir. Bu shunday holatki, o‘qituvchining bolalarga nisbatan egallagan dastlabki pozisiyasi uning keyingi faoliyati yo‘lini belgilab beradi. Chunki shu pozisiya orqali turli vaziyatlar o‘qituvchiga o‘z hukmini o‘tkaza boshlaydi. Agar o‘qituvchi bolani “sindirish”, “yengish” yoki “buysundirish”ga intilsa, bolaning kichik xatosi ham uni g‘azablantiradi va natijada bolaga qichqirish, qattiq tanbeh berish, yomon baho qo‘yish va uni kamsitish kabi holatlar ro‘y beradi. Agar o‘qituvchi sinfga “ishlash”, “tarbiyani anglash”, “muayyan muloqotga kirishish”, “maqsadga erishish” uchun borsa, u o‘quvchilarning bosh maqsadga tomon umumiy harakatiga xalaqit bermagan holda undagi ayrim kamchiliklarni yo‘l-yo‘lakay bildirmasdan hal etib boradi. Pedagogik pozisiyadagi farqlarni turli o‘qituvchilar faoliyatidagi farqlarga qarab yengil ajratish mumkindir. O‘qituvchilar mahoratining turlichaligi pozisiyalardagi rang – baranglikni oshiradi.

Tranzakt tahlil nuqtai nazari bo‘yicha inson muomalani uchta ichki pozisiyadan kelib chiqib quradi, ya’ni: ota – ona pozisiyasi (avaylab-asrash va nazorat kilish), bolalar pozisiyasi (o‘ziga e’tiborni kutadi va javobgarlikni bo‘yniga olmaydi), kattalar pozisiyasi (mas’uliyatni teng bo‘lishish va hamkorlikka intilish).

Pedagogik pozisiya jihatidan buni S.D. Polyakov quyidagicha izoxlaydi: birinchidan “bolalar pozisiyasi” beqaror pozisiya bo‘lib, unga tayanilsa o‘qituvchi ta’siri ma’noga ega bo‘lmaydi; ikkinchidan o‘qituvchi “katta va kichik” hamda “katta va katta” holatidagi kelishilgan hamkorlikka intiladi. Chunki turli yoshdagi bolalar bilan munosabatlarda ular tegishli tarzda qo‘llaniladi; uchinchidan, o‘qituvchi egallagan pozisiya uning faoliyati davomida turlicha namoyon bo‘lishi mumkin.

Insonparvar pozisiyada o‘qituvchi alohida yo‘nalishlarda, ya’ni “bola uchun”, “ota – ona uchun”, “jamiyat uchun”, “davlat uchun” maxsus ish olib bormaydi, balki shularning har birida o‘z tarbiyasini ko‘radi va ularni ixtiyoriylik asosida insonparvarlik jihatdan birlashtirishga harakat qiladi. Insonparvar pozisiya (dunyoqarash sifatida) – ijtimoiy pedagogikani loyihalashtirish asosidir.

Hozirgi zamon pedagoglarining pedagogik pozisiyasi ulardagi pedagogik qobiliyatlarning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Pedagog – nafaqat bilimlarni yetkazuvchilik kasbi, balki o‘quvchini inson qilib, unda odamiylikni shakllantiradigan katta bir mas’uliyatli vazifadir. Shu jihatdan pedagogik ta’lim yangi tipdagi o‘qituvchini shakllantiradigan uzluksiz kasbiy ta’limdir. Pedagog uchun juda muhim kasbiy sifatlardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi: yuksak fuqarolik burchi, ijtimoiy faollik, bolaga mehr, ziyoliylik, madaniyatlilik, kasbiy mahoratlilik, doim o‘z ustida ishlash, jismoniy – ruhiy sog‘lomlik va o‘z ishining ustasi bo‘lish.

Maxsus qobiliyatlar musiqa, tasviriy san’at, matematika, teatr kabi maxsus malaka talab etiladigan sohalardagi alohida yo‘nalishlarning yuqori natijalarini belgilab beradi.

N.D. Levitov pedagogik qobiliyat deganda tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan o‘qituvchi shaxsi sifatlarini nazarda tutadi. Bu bilimlarni qisqa va qiziqarli yetkazish, o‘quvchilarni to‘g‘ri tushunish, mustaqil ijodiy fikrlash, topqirlik, tashkilotchilik va tarbiya jarayonida mo‘tadil muhitni yarata olish kabilardan iboratdir.

F.N. Gonobolin esa qobiliyatlarni bevosita va bilvosita guruhlariga ajratadi. Bu qobiliyatlar o‘quv materialini o‘quvchilar o‘zlashtirishlari uchun qulay qilish, o‘quvchilar intilishlarini anglash, ijodkorlik, bolalarni o‘ziga jalb qila bilish, sinfni jipslashtira olish, bolalar qiziqishlariga singib borish, nutqning tushunarli va yorqin bo‘lishi, darsining hayotiyligi, kuzatuvchanlik, hurmat-izzat hamda qat’iy talabchanlik kabilardan tashkil topgandir.

Hamma pedagoglar ham qobiliyatga ega bo‘lavermaydilar. Buni ikki dalil asosida aniqlash mumkin. Birinchidan, kasbiy mahoratli hamma pedagoglar ham o‘quvchilar bilan ishlaganda juda ularda yuqori ko‘rsatkichlarni (keng ko‘lamli bilim, ijodiy qiziqish, mustaqil harakat qila olish, o‘z bilimlarini erkin qo‘llay olish v. h.k.z) shakllantira oladilar. Ikkinchidan, pedagog o‘z ishiga nisbatan juda kuchli mas’uliyat bilan yondashsa-da, u o‘quvchilari orqali bir narsaga erisha olmasligi mumkin.

Shunday qilib, qobiliyatlar insonning tarbiya obyekti, vositalari, faoliyat sharoitlari va yuqori natijaga erishish uchun kerak bo‘lgan samarali yo‘llarni nafis his etishi bilan bog‘liq individual ko‘nikmalar majmuidir.

Pedagogik mahoratni biz o‘qituvchida bo‘lishi lozim bo‘lgan bir qancha shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida tushunamiz. Bu shaxsiy sifatlar kasbiy

faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishga imkon beradi. Shunday muhim sifatlarga – o‘qituvchi faoliyatining insonparvarligi; uning kasbiy bilimi; pedagogik qobiliyatlari va pedagogik teknikasini kiritish mumkin.

Shu o‘rinda quyidagi holatlarni ta’kidlash joiz: birinchidan, pedagogik mahorat shaxs ruhiyatidagi o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizim bo‘lib, insonparvar yo‘nalganlik bu tizimning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi; ikkinchidan kasbiy mahoratni rivojlantirish zaminida (asosida) o‘qituvchi xatti–harakatlarining asl mohiyati asoslanganligi, ongliligini belgilaydigan kasbiy bilim yotadi. Yo‘nalganlik va kasbiy bilim professional yuqori darajadagi faoliyatning “skelet”i sanalanadi, u o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizimning yaxlitligini ta’minlaydi; uchinchidan, pedagogik qobiliyatlar mahoratning shakllanishini tezlashtiradigan hamirturush bo‘lib hisoblanadi; to‘rtinchidan, bilim va qobiliyatga tayanadigan pedagogik texnika, u barcha ta’sir vositalarini maqsad bilan bog‘lashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik faoliyat strukturasini muvofiqlashtiradi. Shunday qilib, pedagogik mahorat tizimining to‘rt tarkibiy qismi ham o‘zaro bog‘liq. Ularning o‘sishida faqat tashqi ta’sirning o‘zigina kifoya emas, ular o‘z-o‘zini rivojlantirishni ham talab etadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish maxsus bilim va ko‘nikmalarga asoslanadi. Muvaffaqiyatning asosiy sharti – bu qobiliyatlar, vositasi esa pedagogik texnikadir. Endi pedagogik mahoratning to‘rt elementi to‘g‘risida batafsil to‘xtalamiz.

1. O‘qituvchi shaxsining insonparvarligi. Fikrlar to‘qnashuvi va o‘z pozisiyasi uchun kurashni dramma deb hisoblasak, tarbiyachining butun, faoliyati dramalardan iborat. Binobarin, mahorat darajasi qancha yuqori bo‘lsa, ziddiyatlar ham shunchalik aniq bo‘ladi. Chunki, ijodkor o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan tizimning yangiligi odatda, eskirgan qarashlarning qarshiligiga uchraydi.

“Shaxs yo‘nalganligi nimalardan iborat?”, – degan savolga psixologiya fani ideallar, qiziqishlar, qadriyatlar deb javob beradi.

Ko‘raylikchi, bu dramaning boshalanishi emasmi? O‘qituvchi qanday o‘y-xayol bilan maktabga keladi?

“Qoidadon” o‘qituvchi “dars o‘tish”, dasturni bajarish xayoli bilan maktabga kelyapti. Uning qiziqishi 45 daqiqa mobaynida o‘zlashtirishi lozim bo‘lagan materiallarga qaratilgan.

Yangi yetakchi maktabga yorqin bayralar, marosimlar orzusida kelyapti. Endigina ish boshlagan yosh o‘qituvchi ham darsga kelyapti. Uning fikru xayoli o‘zining o‘qituvchining mavqeini saqlab qolishda. U avvalo yoshlari orasida uncha katta farq bo‘lmasa–da o‘quvchilar uni o‘qituvchi sifatida qabul qilishlari to‘g‘risida qayg‘uradi.

Donesklik o‘qituvchi V.F.Shatalov ham darsga kelyapti. Uning maqsadi o‘z o‘quvchilariga zafarli bilim olishlari uchun ko‘maklashish.

Ularning hammasi maktabga, bolalar oldiga kelishyapti, lekin ular shaxsiy yo‘nalganligi asosining o‘ziyoq drama(tik). Lekin ularning bu tarzdagi

shaxsiy taraddudi tarbiyaning asosiy maqsadi – barkamol insonni shakllantirish vazifasiga qanchalik mutanosib. Masalaning muhimligi ana shunda.

Har bir o‘qituvchi shaxsining yo‘nalganligi turli xil bo‘lib, ularning eng asosiysi, qimmatlilari quyidagilardir: 1) o‘ziga nisbatan yo‘nalganlik, ya’ni o‘z-o‘ziga ishonch, “menda bilimli, talabchan, haqiqiy o‘qituvchini ko‘rishsin”, – degan istakning mavjudligi; 2) pedagogik ta’sir vositalariga yo‘lnalaganlik; 4) pedagogik faoliyat maqsadiga yo‘nalganlik – insonparvar strategiya, faoliyat obyekti va vositalariga nisbatan ijodiy yondashish.

Pedagog uchun korreksiyalangan barcha turdagi yo‘nalishlar bilan yo‘g‘rilgan, maqsadga olib boruvchi asosiy yo‘nalish, ya’ni faoliyatni insonparvarlashtirish muhimroqdir. Lekin faqat kelajak oldidagi mas’uliyatni his etish, ongli tirishqoqlik, bolalarga nisbatan cheksiz muhabbat orqaligina o‘qituvchining kasbiy mahorati shakllanadi: ”Agar o‘qituvchi ham ishiga, ham bolalarga nisbatan muhabbatni o‘zida mujasamlashtira olsa”, – degan edi L.N.Tolstoy.

Insonparvarlik yo‘nalishi yuqori topshiriq sifatida uning kundalik ishidagi muayyan vazifalarni belgilab beradi. Ikki xil vaziyatni taqqoslab ko‘ramiz. Birinchi kurs talabasi Ta’lim markazi muzeyiga sayohat olib borayotib, nima uchun aynan shu muzey haqida bolalarga gapirib berishi kerakligini tushuntirishga qiynaladi. Mahoratli usta pedagog esa sayohatdan ko‘zlangan bir necha vazifalar hamohangligini ko‘ra oladi, ya’ni o‘z-o‘zini anglashga yetaklash, pedagoglik kasbini egalashlaga targ‘ib etish, o‘qituvchi mehnatining ichki tomonlarini ko‘rsatish va shu orqali bu mashaqqatli kasb egalariga nisabatan cheksiz hurmat hissini uyg‘onish va pirovard natijada o‘quvchining ijtimoiy rivojlanishning yanada yuqoriroq pilla poyasida tura olishiga ko‘maklashish.

O‘qituvchining insonparvarligi uning faol xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Lekin shunday vaziyatlar ham yuz berishi mumkin: ertaga o‘quvchilar yana paxta yig‘im-terimiga chiqishlari kerak. Lekin ular tergan paxtalar bir necha kundan buyon o‘lchanmay, olib ketilmay dalada turganligi bois o‘quvchilarning ishlagilari kelmay turibdi. O‘qituvchi bolalar haqligini bilib tursada, ularga baqirib beradi: ”Siz paxtani terishingiz shart, uni qachon olib ketishlari sizning ishingiz emas”. Agar o‘qituvchi paxtani o‘z vaqtida o‘lchab olib ketilishini ta’minlay olmasa, bolalarga yo‘l qo‘yilayotganligini ochiq-oydin aytishiga nima xalaqit beradi. Axir o‘qituvchi bu xo‘jasizlikni bartaraf etish uchun nima qilish mumkinligi to‘g‘risida bolalar xo‘jasilik, beparvolik bilan birgalikda bosh qotirishi mumkinku?!

2. Kasbiy bilim. Usta-mahoratli o‘qituvchi kasbiy yo‘nalganligining asosida ikki narsa yotadi – o‘zi dars beradigan predmeti bilan mashg‘ulligi va bolalar bilan muloqot qilishga ehtiyoji. Pedagogik mahoratning fundamental asosi – bu kasbiy bilimdir. O‘qituvchining bilimi bir tomondan fanga, ikkinchi tomondan uni o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga qaratiladi. Kasbiy

bilim mazmuni esa o‘z predmeti nazariyasi va metodikasini pedagogika va psixologiyani yaxshi bilish bilan belgilanadi. Kasbiy pedagogik bilimning o‘ziga xosligi uning kompleksligidir. U o‘qituvchida o‘rganilayotgan fanlarni sintez qila olish qobiliyatini talab etadi. Sintezning asosini esa pedagogik topshiriqlarni yechish, pedagogik vaziyatlarni tahlil etish, o‘zaro hamkorlik vositalarini tanlash tashkil etadi. Har bir alohida pedagogik topshiriqni hal etish jarayonida o‘qituvchining pedagogik kasbiy bilimi faollashadi va yagona tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy bilimning kompleksligi, umumlashganligi bilan birga uning shaxsiy bo‘yoqdorligi ham muhim ahamiyatga ega. IX sinfda adabiyot darsi boryapti. Yusuf xos Hojibning ”Qutadg‘u bilig” asari xususidagi o‘z fikrlari, uning tarjimalari undagi qahramonlar haqida ko‘p gapirildi. O‘quvchilar ham o‘z fikrlarini bayon qildilar. Bu suhbatni olib borayotgan o‘qituvchi esa biror marta ham ”Menimcha”, “Men o‘ylaymanki...” degan so‘zlarni aytmadi. Fan, madaniyatning butun zahirasi to‘g‘risidagi bilim o‘qituvchining o‘z qiziqishlari va ideallari bilan boyitilsa, uning o‘z pozisiyasi sifatida qabul qilinadi. O‘qituvchining mahorati bilimlarni insoniylashtirishda, unga ruh bag‘ishlashda namoyon bo‘ladi. Zero, bilimlar shunchaki kitoblardan olingan ma’lumotday emas, balki o‘zining olamga munosabati tarzida yetkazilishi lozim.

Pedagogning kasbiy bilimi asosida pedagog tafakkuri – prinsip va qoidalar shakllanadi. Ular o‘qituvchi xatti–haraktlari, xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Bu prinsip, qoidalarni har bir o‘qituvchi tajribasiga tayangan holda quradi. Lekin faqat kasbiy bilim orqaligina uni anglash va uning qonuniyatlarini ko‘ra olish mumkin. “Abadiy doskaga chiqarilgan” – o‘qituvchi haqida shunday deyiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, o‘qituvchini tayyorlash, kasbga layoqatli bo‘lishini ta’minlash juda murakkab jarayon. Chunki kasbiy bilim bir varaqayiga barcha darajalarda teng shakllantirilashi kerak: metodologik (rivojlanishning umumfalsafiy qonuniyatlarni, tarbiya maqsadi, shart-sharoitlarini bilish), nazariy (pedagogika va psixologiyaning qonun-qoidalari, prinsiplari, faoliyatning asosiy shakllari va b.), metodik (o‘quv-tarbiya jarayonini ko‘ra olish darajasi), texnologik (muayyan sharoitda ta’lim-tarbiyaning amaliy topshiriqlarini hal etish darajasi). Bu ma’lum darajada rivojlangan kasbiy tafakkurni, ya’ni pedagogik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bilimlarni tanlash, tahlil qilish va qayta ishlashni talab etadi.

Lekin pedagogik mahoratni egallash kasbiy bilimning o‘sish darajasi bilan qat’iy chegaralab qo‘yilmaydi. Haqiqatdan ham, oliy dargohda a’lo darajada o‘qiydigan talaba pedagogik amaliyotda muvaffaqiyatga erisha olmasligi mumkin. Chunki muvaffaqiyatli faoliyatning alohida xususiyatlari, kasbiy ulg‘ayishning stimulyatori – qobiliyatlar mavjud.

3. Padagogik qobiliyatlar. Demak pedagogik mahorat tizimining uchinchi elementi – bu pedagogik qobliyatlardir. Ular pedagogik faoliyat sama-

radorligini belgilaydigan psixik jarayonlarning kechishini ko‘rsatadi. Pedagogik qobiliyatlar tasnifi bir qancha tadqiqotlarda berilgan.

Kasbiy tayyorgarlik sur’ati, bo‘lg‘usi pedagog pedagogik faoliyat shakl va usullarini qanchalik chuqur va puxta egallaganligiga qarab uning pedagogik layoqatini bilish mumkin.

Fikrimizcha, pedagogik qobiliyatlarni tekshirishni komunikativlikdan, ya’ni muloqotdan boshlangan ma’qul. Umuman bu qobiliyat hammada ham bor, lekin u turli darajada namoyon bo‘ladi. Agar o‘qituvchida komunikativlik darajasi past bo‘lsa, bu kasbiy faoliyat muhitining buzilishiga olib keladi, o‘quvchi bilan o‘zaro hamkorlik qilishga to‘siqinlik qiladi. Demak, siz ko‘pchilik davrasida bo‘lish ehtiyojini sezasizmi, shuni aniqlash kerak. Buni aniqlash uchun ko‘pgina qiziqarli metodikalardan foydalanish mumkin.

Kommunikativlik faqat muloqotga kirisha olish bilan emas, balki qurilgan muloqotdan qoniqish hissi bilan ham belgilanadi. Bolalar va odamlar bilan muloqot jarayonida xayrixoxlik va qanoatlanish ishchanlik xususiyatini saqlashga, ijodiy kayfiyatni oshirishga yordam beradi.

O‘qituvchining til topa olish qobiliyati perseptiv qobiliyatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Agar o‘qituvchi ozgina tashqi belgisidan ham o‘quvchining ichki his-tuyg‘ularini anglay olmasa, haqiqiy diqqatdan yuzaki diqqatini ajrata olmasa, xatti-harakatlarning motivlarini tushunmasa, qanday qilib aniq maqsadli bir qarorga kelishi mumkin.

Kuzatuvchanlik qobiliyati juda murakkab xususiyat. U faqat eshita olish va ko‘ra olish bilangina belgilanmaydi. Kuzatuvchanlik qobiliyati bizning diqqatimiz qaratilgan narsaga nisbatan ortiq qiziqish, aqlning intensiv faoliyati va axborotlarni qayta ishlay olishida ham namoyon bo‘ladi. Biz nimani ko‘rishni xohlasak, o‘shani ko‘ramiz, haqiqiy qiziquvchanlik ana shundan boshlanadi. Kuzatish bu tahlil, ana shu yerdan idrok etilayotgan hodisalarni tushunish uchun o‘z-o‘zimizga savol bera boshlaymiz.

Kuzatuvchanlik va tajriba intuitiv qobiliyatning rivojlanishiga asos bo‘ladi. A.S.Makarenko “Pedagogik poema” asarida shunday yozadi: “Bu paytga kelib mening ko‘zim yetarli darajada ravshanlashgan edi. Men birinchi qarashdayoq, kishining tashqi belgilari, ovozi, yurishi va yana qandaydir mayda belgilari orqali, balki hatto hididan ham, har bir muayyan holatlarda bu xom ashyodan qanday mahsulot olish mumkinligini deyarli aniq ayta olar edim”.

Mahoratli usta-pedagog bo‘lish pedagogik jarayonning kechishini, kutilgan qiyinchiliklarni oldnidan anglash, pedagogik sezish qobiliyatiga ega bo‘lish demakdir. Bunday qobiliyat, garchi uning shakllanishi qiyin bo‘lsada, rivojlantirilishi mumkin. Bu o‘rinda V.A.Suxomlinskiyning ”Avvalo bola qalbining xatti-haratlarini tushunish lozim” – degan fikrini keltirish o‘rinlidir.

4. Pedagogik texnika. Nihoyat pedagogik mahorat tizimining to‘rtinchi elementi – o‘qituvchi xulq-atvorining tashkiliy shakli, ya’ni pedagogik tex-

nikadir. Xatti-harakat usullarisiz bilim, yo‘nalganlik va qobiliyat yuqori natijalarga erishish uchun kafolat bermaydi. Pedagogik texnika ikki xil ko‘nikmani – o‘z-o‘zini boshqara olish hamda pedagogik topshiriqlarni hal etish jarayonida o‘zaro hamkorlik qila olish ko‘nikmalarini mujassamlashtiradi. Brinchi guruh ko‘nikmalariga o‘z gavdasini, his-tuyg‘ularini, nutq texnikasini boshqarish kirsa, ikkinchi guruh ko‘nikmalarga didaktik, tashkilotchilik, aloqaviy ta’sir texnikasiga oid ko‘nikmalar kiradi.

Pedagogik mahoratni ko‘rib o‘tilgan elementlari pedagogik faoliyatda bu hodisani sistemaliligini ko‘rsatadi. Mahoratning yuqori darajasi butun pedagogik ishning Yangi sifatini belgilaydi; ya’ni kasbiy pozisiya shakllanadi; bilimlarni oshirib borish o‘qituvchi uchun o‘z ishini tahlil qila olish, o‘z-o‘zini rivojlantirish imkonini beradi; qobilyatlarning yuksak darajasi o‘qituvchi shaxsining yanada yorqin namoyon bo‘lishiga olib keladi; pedagogik texnikani takomillashtirish esa bosh maqsadga monand natijalarga erishish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Pedagogik mahorat mezonlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin;

– maqsadga qaratilganlik; (yo‘nalishiga ko‘ra)

– mahsuldorlik; (natijaga ko‘ra)

– samaradorlik; (tanlangan vositalar)

– ijodkorlik: (faoliyat mazmuniga ko‘ra)

Mahoratni egallashning bir nechta darajalarini ham ajratish mumkin. Oliy o‘quv yurtining vazifasi talabaga pedagogik mahoratni kasbiy tayyorgarlikning boshlang‘ich darajasida egallashi uchun ko‘maklashishdir, ya’ni yo‘nalganlikni shakllantirish, bilim berish, qobiliyatlarini rivojlantirish, texnika bilan qurollantirish.

**Xulosa (Заключение/Conclusion).** Xulosa qilganda, pedagogik mahorat faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi deb aytish mumkin. U ishbilarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida taraqiy etadi. Shunga asoslanib, “Faoliyat dunyoni o‘zlashtirishning birinchi shartidir”, – deb aytish mumkin. Ko‘rib o‘tganimizdek pedagogik mahoratning asosiy obyekti – inson, uning aql – idroki, irodasi, ishonchi, tafakkuri, shuuridir. Bular yuksak darajada bo‘lishi, ilmga, uni egallaganlik darajasiga bog‘liq. Ilm esa tinimsiz mehnat, mashaqqat va azob – uqubatlar orqali qo‘lga kiritiladi. Shuningdek pedagogik mahorat ham faoliyat, mehnat, o‘z malakasi ustida muttasil ishlash yordamida shakllanadi. Shunday ekan, “Pedagogik mahorat” fanining pedagogik – psixologik fanlar tizimida mavqei baland. Zero, pedagogik mahoratsiz ta’lim – tarbiya, ya’ni pedagogik jarayon muvaffaqiyatini ta’minlab bo‘lmaydi. Bu esa pedagogik mahoratni egallash, har bir talaba, o‘qituvchi, tarbiyachi uchun zaruriy shart degani demakdir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O‘qituvchi, 1992. – B. 58.*

*2.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O‘qituvchi, 1992. – B. 35.*

*3.Maxmudov T. Avesto haqida.T.: Sharq, 2000: - B. 117.*

*4.Zunnunov A. Pedagogika tarixi. -T.: O‘qituvchi, 2004. –B. 8.*

*5.Maxmudov T. Avesto haqida.T.: Sharq, 2000: -B. 14*

*6.Musurmonova O. O‘quvchilarni ma’naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1998. – B. 56*

*7.Musurmonova O. O‘quvchilarni ma’naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1998. – B. 26*

*8.Mahkamov U. Axloq odob saboqlari. – T.: Fan, 1998.-B. 15*

*9.Mavlonova R. va b.q. Pedagogika. Darslik. -T.:O‘qituvchi, 2001.-B. 26*

*10.Shodiev N. Tabiiy fanlarning ilk manbai ("Avesto" yozma yodgorligi asosida ) // -Ziyokor‖ jurnali, 2001, 9-son. –B. 38-41.*

*11.Сластенин В.А. Формирование личности учителя совецкой школы в просессе профессионалной подготовке. -М.: Просвещение, 1976.-159 с.*

*12.Васильев Ю.К. Политехническая подготовка ученика средней школы. – М.: Педагогика, 1978. – 175с.*

*13.Беспалько В.П. Татур Ю.Г. Системно-методическое обеспечение учебновоспитательного процесса подготовки специалистов. – М.: Высшая школа, 1989. – 144с*

*14.Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni.-T.: Universitet, 1996.*

*15.Нишоналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. -Т.: Фан, 1990.-86 с.*

*16.Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. 13.00.08-Hunar ta’limi nazariyasi va uslubiyati. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. -Toshkent, 2007. - 315 b.*

## IV. TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

# YOSHLAR MUHITIDA AXBORIY-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH

**Umarali QODIROV,**
*psixologiya fanlari doktori, professor, Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori*

***Annotatsiya.*** *Maqolada yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalash, ularni salbiy axboriy-psixologik ta’sirdan muhofaza qilishning ijtimoiy-psixologik jihatlari, bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar xususida so‘z boradi.*

***Tayanch so‘z va iboralar:*** *yoshlar, axboriy-psixologik xavfsizlik, ta’lim tashkilotlari, manipulyatsiya, tanqidiy tafakkur, salbiy psixologik ta’sir.*

Mamlakatimizda keyingi yillarda ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, dunyodagi global o‘zgarishlar davlat hamda jamiyat oldiga hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalarni qo‘ymoqda. Axborot oqimining ko‘payayotganligi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘zgarayotganligi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining axboriy-psixologik xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib, individual, guruhiy va jamiyat darajasida tegishli ishlar olib borilishini taqozo etmoqda.

Shaxs va jamiyatning axboriy-psixologik xavfsizligini ta’minlash fanlararo muammo bo‘lib, turli mutaxassislarning birgalikdagi faoliyatini talab qiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasi vakillari esa mazkur muammoni hal etishda bevosita ishtirok etishlari zarurdir, zero ta’lim tashkilotlari, xususan, oliy ta’lim tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari va bo‘lajak mutaxassislari axboriy-psixologik xavfsizligini ta’minlashda asosiy subyektlardan hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ilm-fanida shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashning yo‘l, shakl, vosita, usul, shart-sharoitlariga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Biroq, ta’lim tizimining barcha bosqichlarini qamrab olgan holda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar hali yetarli emasligini ham ta’kidlash lozim.

Shaxsni salbiy axboriy ta’sirlardan himoyalash, axboriy-psixologik xavfsizlikni ta’minlash yo‘nalishiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili bu boradagi eng muhim vositalardan biri – insonda tanqidiy tafakkurni shakllantirish ekanligini ko‘rsatdi. Ammo fuqarolarni salbiy axborot ta’sir-

laridan himoyalashda tanqidiy tafakkur shakllantirilishini tadqiq etishning dolzarbligi bir qator mavjud ziddiyatlar bilan tavsiflanadi:

– *ijtimoiy-pedagogik xarakterdagi* – kasbiy faoliyatda salbiy axboriy ta'sirlardan himoyalanishga, axboriy-psixologik xavfsizligini ta'minlashga qodir mutaxassislarga bo'lgan jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi hamda ijtimoiy tuzilmalarning mazkur vazifani ba'zan yetarli darajada, to'liq uddalay olmasligi;

– *ilmiy-nazariy xarakterdagi* – fuqarolarni salbiy axborot ta'sirlaridan himoyalashda tanqidiy tafakkur shakllantirilishining ilmiy asoslangan modelini yaratish zaruriyati hamda uning nazariy jihatdan ishlab chiqilmaganligi;

– *ilmiy-metodik xarakterdagi* – fuqarolarni salbiy axborot ta'sirlaridan himoyalashda tanqidiy tafakkur shakllantirilishi lozimligi hamda mazkur jarayon mazmuniy-metodik ta'minotining yetarli darajada emasligi.

Ushbu ziddiyatlar kasbiy faoliyatda, fuqarolarni salbiy axborot ta'sirlaridan himoyalashda tanqidiy tafakkur shakllantirilishining tegishli tamoyillari, mazmuni, shart-sharoitlari, metodikalarini aniqlashtirish muammosini asoslaydi.

Keyingi paytlarda shaxs va jamiyatning axboriy-psixologik xavfsizligi muammosi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qator hujjatlar ham qabul qilindi. Umuman olganda, ***axboriy-psixologik xavfsizlik*** – muayyan shaxs yoki shaxslar guruhining axboriy sohada salbiy axboriy-psixologik ta'sirlardan himoyalanganlik holati va shu bilan bog'liq shaxs, davlat va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari.

***Salbiy axboriy – psixologik ta'sir –*** shaxs yoki insonlar guruhiga psixikaga ta'sir etuvchi maxsus vosita va usullar orqali ularning ixtiyori, roziligisiz ta'sir ko'rsatish. Bunday ta'sirning shaxs, davlat hamda jamiyat uchun natijasi salbiy hisoblanadi.

***Maxsus ta'sir vositalari*** – shaxs yoki insonlar guruhiga salbiy axboriy-psixologik ta'sir ko'rsatish uchun qo'llanadigan texnik va dasturiy vositalar.

***Maxsus ta'sir usullari*** – shaxs, davlat, jamiyat uchun salbiy oqibatlarga olib keladigan inson psixikasiga ta'sir ko'rsatish usullarining ketma-ketligi. Bunday oqibatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– inson salomatligiga zarar yetkazish;

– shaxs erki, xohish-irodasini uning uchun anglanmagan darajada to'sish, bo'g'ish; sun'iy ravishda tobelik hissini uyg'otish;

– shaxsning siyosiy, madaniy, axloqiy jihatdan o'zini o'zi anglashi qobiliyatini yo'qotish;

– ijtimoiy ongni boshqarish, manipulyatsiya qilish;

– mamlakatning yaxlit axboriy va ma'naviy hududiga daxl qilish, shakllangan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy negizlarni, shuningdek, shaxs, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlarini barbod qilish.

Hozirgi kunda diniy-radikal yo‘nalishdagi terrorchilik tashkilotlari tarafdorlari, a’zolari orasida afsuski, respublikamiz fuqarolari, yoshlarining ham uchrayotganligi g‘oyat achinarlidir.

Rossiya Federatsiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti direktori Vitaliy Naumkinning fikricha, ayrimlar ISHID yoxud turli terrorchilik tashkilotlari tarafdorlari yoki ularning saflarida jang qilayotganlarni saviyasi past, tamaddun yangiliklaridan bexabar vahshiylar, nodonlar yoxud ongi tuban kishilar, deb yanglishadilar. Unda yuqori malakali mutaxassislar faoliyat yuritadigan qudratli axboriy, targ‘ibot-tashviqot tizimi yaratilgan bo‘lib, arab, ingliz va rus tillaridagi saytlardan tashqari yaqindan boshlab, turk tilidagi sayt ham o‘z ishini boshladi. Butun dunyodan o‘z ishining ustasi hisoblangan turli mutaxassislarni jalb qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Hatto, “tibbiy jihod” atamasi ham paydo bo‘ldiki, ISHID pul uchun ishlashni xohlaydigan (aqidaparast bo‘lishi shart emas) kuchli xorijlik vrachlarni ishga taklif qilmoqda [1].

Diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlari saflariga qo‘shilayotganlarning ko‘pchiligi pul uchun emas, e’tiqod, maslak nuqtai nazaridan shu yo‘lni tanlamoqdalar. Albatta, sayyoramizning turli burchaklaridan kelgan, asosiy maqsadi pul bo‘lgan, hech kimga rahm-shafqat qilmaydiganlar guruhi ham borki, muayyan diniy-mafkuraviy ishlovdan o‘tkazilgandan so‘ng kallakesarlar tarkibi o‘shanday odamlar safidan shakllantiriladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bunday kishilar soni hozirgi kunda taxminan 25000 nafarni tashkil etadi.

“Radikal islomning bunday jozibadorligi siri nimada?” degan savol tug‘iladi. Buning sababi ko‘p. Romantika, sarguzashtlar ishtiyoqi, ijtimoiy adolatsizlik, ishsizlik, kambag‘allik, e’tiqod, shaxsdagi psixologik inqiroz va hokazo omillar destruktiv tashkilotlar saflarining kengayishiga sabab bo‘lyapti. Ba’zilar o‘zi yashayotgan davlat, jamiyatga ularni muqobil variant sifatida ko‘rsa, ayrimlar Falastinning bosib olinishi, Iroq va Afg‘onistonda AQSh askarlari, harbiy bazalari mavjudligiga norozilik bildirish uchun shu yo‘lni tanlamoqdalar.

Albatta, bu tashkilotlar jangarilarining dunyoda xalifalik barpo qilish, mamlakatlarni, xususan, Markaziy Osiyo davlatlarini bosib olish to‘g‘risidagi balandparvoz bayonotlarining tagi puch bo‘lib, amalga oshishi ehtimoli yo‘q darajadadir. Birgina O‘zbekiston Respublikasining harbiy salohiyati jangarilar tomonidan bo‘ladigan har qanday hujumlarni bartaraf etishga imkon beradi. Biroq, bu xotirjamlikka berilish uchun asos bo‘la olmaydi. Zero, turli destruktiv guruhlar tomonidan qo‘poruvchilik harakatlari, teraktlarning amalga oshirilish ehtimoli saqlanib va kuchayib bormoqda. Masalan, “Islom davlati” tashkiloti markazdan topshiriq olishi bilan dunyo bo‘yicha teraktlarni amalga oshirishga hozir, bir o‘zi faoliyat olib boruvchi “yakka bo‘rilar”, xudkush-kamikadzelarni tayyorlash taktikasini yo‘lga qo‘ymoq-

da. Bunday terrorchi teraktni amalga oshirishga qadar qo‘lga tushsa ham, barcha aybni o‘z bo‘yniga oladi va uning orqasida turuvchilarni aniqlashtirishning imkoni bo‘lmaydi. Bu esa davlat, jamiyat, shaxs xavfsizligi, har bir fuqaroning ogohligi muammosi hali-hamon kun tartibidagi asosiy, dolzarb masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

G.V.Grachev shaxs axboriy-psixologik xavfsizligini inson psixikasining turli-tuman axboriy omillar ta’siridan himoyalanganligi holati sifatida talqin qiladi. Bunday axboriy omillar sirasiga insonning adekvat ijtimoiy xulq-atvori shakllanishiga, shuningdek, uning o‘ziga va atrof-muhitga subyektiv munosabatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar kiradi. Axboriy-psixologik ta’sir tushunchasi mazmunini oydinlashtirishda G. Grachev muayyan jihatlarga e’tibor qaratadi. Birinchidan, mazkur tushunchada axborotning insonlarga yo‘naltirilgan maxsus vosita sifatidagi maqsadli funksiyasiga urg‘u beriladi. Ikkinchidan, axboriy ta’sir obyekti – inson psixikasi xususiyatlari tahlil etiladi. Hozirgi kunda ushbu tushunchani qo‘llash inson hissiyotlari va sezgi organlariga ramziy-belgi hamda timsolli vositalar orqali ko‘rsatiladigan psixologik ta’sir turini tavsiflashga asos bo‘ladi. Biroq, adabiyotlarning nazariy tahlili “axboriy-psixologik ta’sir” va “axboriy ta’sir” tushunchalariga turli olimlar tomonidan har xil ta’rif berilganligini ko‘rsatdi. Bizningcha esa, bularni o‘zaro yaqin tushunchalar sifatida qo‘llash xato hisoblanmaydi.

Salbiy axboriy-psixologik ta’sir oqibatlariga hayotiy faoliyatning noto‘g‘ri o‘zandan yo‘naltirilishi; shaxs faolligini ta’minlovchi atrof-olam, kishilar, munosabatlar to‘g‘risidagi bilim, tasavvurlarning noto‘g‘ri shakllantirilishi; insonda nomuvofiq guruhiy va ijtimoiy me’yorlar, ehtiyoj, qiziqish, moyilliklarning namoyon bo‘lishi; jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydigan o‘zini o‘zi baholash darajasi, shaxslararo munosabatlar, dunyoqarash, e’tiqod, maslak, qadriyatlar, yo‘l-yo‘riq, tafakkur tarzi, xulq-atvor va muloqot uslubi, odat, ko‘nikmalarning ifodalanishi kabi holatlarni kiritish mumkin [3].

Ta’kidlash lozimki, inson psixikasiga ta’sir turli shakllarda amalga oshirilishi ehtimoli mavjud. Psixologik ta’sir shakllarining kamida 6 xil turi mavjud: axboriy-psixologik; psixogen; psixoanalitik; neyrolingvistik; psixotron; psixotrop.

**Axboriy-psixologik ta’sir** so‘z, ma’lumot vositasida amalga oshiriladi. Bundan maqsad – shaxsda muayyan mafkura, g‘oya, dunyoqarash, tasavvur, ishonchni shakllantirish bo‘lib, u insonlarda ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ular, hatto ommaviy reaksiyalar (masalan, vahima)ni keltirib chiqarishi mumkin.

**Psixogen ta’sir** inson miyasiga ko‘rsatiladigan ta’sir (bosh jarohati yoki fizik omillar) yoki yon-atrofdagi holat yoxud voqealar (teraktlar, zilzila qurbonlari va h.k.) natijasida yuzaga keladi. Psixogen ta’sir natijasida inson odatda ratsional, oqilona harakat qilish xususiyatidan mahrum bo‘ladi,

makondagi mo‘ljal, orientatsiya, yo‘nalishini yo‘qotadi, tushkunlik yoki vahimaga tushadi, harakatsiz bo‘lib, qotib qoladi.

**Psixoanalitik ta’sir** insonning ong osti sohasiga turli terapevtik vositalar orqali ko‘pincha gipnoz yoki chuqur uyqu paytida ta’sir ko‘rsatishdir.

**Neyrolingvistik ta’sir** – maxsus lingvistik dasturlar orqali kishilarning ongiga ta’sir o‘tkazib, ularning motivatsiyasini o‘zgartirishga xizmat qiladigan psixologik ta’sir turi.

**Psixotron (parapsixologik, ekstasensor) ta’sir** – insonlarga his etilmaydigan idrok orqali axborot, ma’lumotni uzatish va shu yo‘l bilan ularni manipulyatsiya qilish. Bu borada ko‘pincha, garchi samarasi, natijadorligi to‘liq o‘rganilmagan bo‘lsa-da, “25 kadr” effekti misol qilib keltiriladi. Shu bilan birga, miya faoliyatini o‘zgartirishga xizmat qiladigan yuqori va past chastotali generatorlarni yaratishga bo‘lgan urinishlar ham mavjud (rus fantast-yozuvchisi A.Belyaevning “Jahongir” romanida mazkur ta’sir badiiy tarzda ifodalangan).

**Psixotrop ta’sir** inson miyasiga tibbiy preparatlar, dori-darmonlar, kimyoviy yoki biologik vositalar orqali ta’sir ko‘rsatishdir.

Bunda axboriy-psixologik ta’sir usuli obyektlarni eng yuqori darajada qamrab olish va universal xarakterdagi ta’sir ko‘rsatish usuli ekanligi bilan ajralib turadi.

Yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalash, ularni salbiy-axboriy-psixologik ta’sirdan muhofaza qilishning ijtimoiy-psixologik asoslarini yaratishda antimanipulyativ xulq-atvorni shakllantirishga alohida e’tibor berish zarur. Antimanipulyativ xulq dogmatik xarakterga ega bo‘lmasdan, uning rivojlanishiga ijtimoiy, biologik, psixologik va siyosiy omillar ta’sir o‘tkazadi. Ushbu xulq modelini yaratishda ijtimoiy-biologik, psixosotsial unsurlardan foydalanish samarali natija beradi. Shaxsga xos bo‘lgan individual-psixologik xususiyatlar bilan nosog‘lom ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro moslik va ularning bir-birini to‘ldirishi yoshlarning yot, buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushib qolishiga imkon yaratadi. Yoshlarda tegishli xulq shakllanmaganligi, mafkuraviy immunitet tarkib topmaganligi, axborot iste’moli madaniyati lozim darajada rivojlanmaganligi ularning nojoiz g‘oyalar ta’siriga tushishida asosiy sabablar sifatida namoyon bo‘ladi. O‘smirlar, yigit va qizlarni destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar va tavsiyalarni ishlab chiqishda ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik, yosh, jinsiy, hududiy, demografik, etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olish lozim.

Albatta, bir maqola doirasida hozirgi kunda ahamiyatli hisoblangan yoshlarni, fuqarolarni salbiy axboriy-psixologik ta’sirlardan himoyalash muammosini to‘la tadqiq etishning imkoni yo‘q. Shuning uchun yoshlar xulqining anglanmagan regulyativ mexanizmlarini o‘rganish, shaxs xususiyatlari bilan bog‘liq yoshlik davriga xos himoya mexanizmlarini tadqiq

etish, jins xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda yoshlik davridagi psixologik himoya ko‘rinishlarining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish, shaxsning yoshlik davrini tavsiflovchi hissiy-irodaviy, kommunikativ, intellektual xususiyatlarini o‘rganish, shaxsning individual-psixologik tavsifi va turli himoya mexanizmlari xususiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik, bog‘liqlikni batafsil tadqiq qilish psixologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. “Аргументы и факты” gazetasi, 2015-yil 26-son.*

*2. Г.В.Грачев. Личност и общество: информатсионно-психологическаябезопасност и психологическая защита. – М.: ПЕРСЕ, 2003. 304 с.*

*3. Лепский, В.Е. Информатсионно-психологическая безопасност субъектов дипломатической деятелности [Текст] / В.Е. Лепский // Дипломатический ежегодник – 2002: сборник статей колл. авторов. М.:Научная книга, 2003. С. 233 248.*

*4. С.Ю. Решетникова, Г.Л. Смолян //Проблемы информатсионно-психологической безопасности: сборник статей иматериалов конференции. – М.: Изд-во ин-та психологии РАН, 1996. – С. 18-26.*

*5. U.Qodirov. Yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. Monografiya. Toshkent, “Fan va texnologiyalar”, 2013, 246 b.*

## YOSHLARNI ZAMONAVIY TAHDID VA XATARLARDAN HIMOYA QILISH

**Shuxrat G‘OYIBNAZAROV,**
*G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent shahar filiali direktori o‘rinbosari, s.f.d. professor*

***Annotatsiya.*** *Mazkur tadqiqotda yoshlarni ma’naviy shakllantirishda ommaviy axborot vositalardan to‘g‘ri foydalanish usullari va turli axborot xurujlari, zamonaviy taxdidlar borasida izlanish olib borilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Axborot makoni, blogerlar, ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoq, g‘arazli g‘oyalar.*

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida yoshlar bilan ishlarni tashkil etish borasida amalga oshirilgan tadbirlar tahlilida yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar saqlanib qolayotganganidan va ularni samarali hal etish maqsadida O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vako-

latli organlar faoliyatini yanada samaraliroq tashkil etish va muvafiqlashtirish, yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlarda zamonaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va ish o‘rinlarini yaratish orqali ularning bandligini ta’minlash kabi muhim masalalarni hal etishimiz lozimligiga e’tibor qaratdi.

Prezidentimiz ushbu kitobida ayniqsa, “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-ahloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda tarbiyasi bilan bog‘liq”[1] deb ta’kidlagani juda o‘rinli deb hisoblaymiz.

Zero, zamonaviy globallashuv insoniyat hayotining hamma sohalariga shiddat bilan kirib o‘zining ijobiy hamda salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda.

Turli xorijiy markazlar xatarli tahdid, hatto ayrim hollarda o‘z tajovuzlarini o‘tkazishda tobora mukammal texnologiyalarni qo‘llab, ayniqsa yoshlar onglariga, ruhiyatlariga o‘zlarining ommaviy madaniyat transformatsiyasining zamonaviy va takomillashgan g‘ayri tarbiyaviy, g‘ayri insoniy g‘arazli “maxsulot”larini turli internet ijtimoiy tarmoqlari orqali muntazam va maqsadli bosim yo‘llash kuchaydi.

Hozirgi zamonda madaniyatni siyosiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayonlar sodir bo‘lib, buning uchun ko‘plab markazlar, qudratli transmilliy kompaniyalar tomonidan moliyaviy va iqtisodiy jihatdan qattiq qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, bir o‘q bilan ikki quyon urilmoqda, ya’ni katta daromad olinmoqda, eng dahshatlisi, inson ongiga axloqsizlik, xudbinlik, bachkanalik va boshqa salbiy g‘oyalar ustalik bilan singdirilmoqda. Bu o‘rinda, avvalambor, “Tik-Tok” hodisasining kelib chiqishi, maqsadi va faoliyati haqida to‘xtalsak.

“Tik-Tok” (ingl Tik-Tok) “lip-sip-syncing” ilova, ya’ni ko‘shik bilan og‘iz qimirlatib turish ma’nosini bildiradi, aksariyat qismi 13-20 yoshdagi faol foydalanuvchilardir. Psixologiya nuqtai nazaridan aynan shu yoshdagi davr shaxsning shakllanish davri hisoblanadi.

Qisqa videolar yaratish va tarqatish bo‘yicha maxsus platforma bo‘lib, u ilk bor 2016-yil sentyabr oyida Xitoyning “ByteDance” kompaniyasi tomonidan “Douin” ijtimoiy tarmog‘ida joylangan. 2018-yilda musical.ly ijtimoiy tarmog‘ini sotib olib, yagona “Tik Tok” kompaniyasiga birlashdi. Tashkilot rahbarlarini, avvalambor daromad qiziqtirdi, masalan, 2019-yilda ilovalardan 200-300 mln. AQSh dollarida daromad olgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib qariyib 10 mlrd. AQSh dollarida daromad qilishni rejalashtirmoqda.

Xitoydagi mavjud senzura cheklovlariga muvofiq, ushbu mobil ilovalar faqat alohida serverlarda faoliyat olib boradi.

“Tik Tok”ning Los-Anjeles, Nyu-York, London, Parij, Moskva, Berlin, Dubay, Mumbay, Jakarta, Seul va Tokio shaharlaridagi vakolatxonalari ham mavjuddir.

ZJV5401

“Tik Tok”ning ijtimoiy tarmoqlaridan jahonning 150 dan ziyod mamlakatlarida 2 mlrd.dan oshiq foydalanuvchilari bo‘lib, ularning yoshlari diapozoni 16-25 yoshdagilar 60%, 25-yoshdan yuqorisi 40%ni tashkil etadi, “Tik Tok” avvalambor, maxsus tayyorlangan mobil ilovalardan foydalanishning, ya’ni foydalanuvchilar tavsiya etgan fon rejimida tezlashtirish, sekinlashtirish va filtr yordamida tahrir qilinadigan o‘zi haqidagi qisqa videolar yaratish, 15 sekundlik yozib olingan videolavhalar orqali nafaqat “Tik Tok”, balki boshqa ijtimoiy tarmoqlarda ham namoyish etish imkoniyati yaratildi. Aynan ana shu texnologiyalar uchun G‘arbda turli tadqiqot markazlari ssenariylar tayyorlashga buyurtmalar oladilar.

Internet statistikasiga qaraganda, ijtimoiy tarmoqlarning bu yangi yo‘nalishi millionlab o‘zbekistonlik yoshlarni ham o‘z ichiga qamrab olmoqda, bizning kelajak avlodlarimiz o‘z mevasini qanday sifatda berishi mumkinligini tasavvur qilaylik-da, keyin bu mahsulotlar keltirib chiqarayotgan xatarlar qanchalik jiddiyligini bilib olishimiz, tasavvur qilishimiz mumkin.

Bu ma’lumotlarga qarab o‘z-o‘zidan xayolimizga mashhur italiyalik mutafakkir Nikolo Makeavellining “maqsad vositani oqlaydi” degan iborasi yodimizga tushadi. Zamonaviylashuv o‘z yo‘liga-kuya, ammo insonning asl kimligini ko‘rsatib turuvchi “mentalitet” degan tushuncha, shunchaki termin bo‘lib qolayotganga o‘xshab qolmoqda.

Yangi kishini beshikdaligidanoq o‘rab turgan virtual olam uning ishtahasini tinmay qitiqlaydi va u yangi sivilizatsiya to‘kin-sochin qilib qo‘ygan ne’matlarni imkon qadar tezroq iste’mol qilishga intiladi. Ayni shu tendentsiya iste’mol jamiyatini shakllantirish negizini tashkil qilib qo‘ydi.

Dunyoning turli mamlakatlarida “Tik Tok”dan foydalanishga qarshi kurashda turli usullardan foydalanilmoqda, masalan, 2020-yil iyun oyida Hindiston hukumati tomonidan mamlakat hududida bu servisdan foydalanishga qat’iy ta’qiq qo‘yilgan. Ushbu servisga Xitoyda ishlab chiqarilgan 58 ta mobil ilova ro‘yxati kiritilgan bo‘lib, hind hukumati ushbu ilovalarni “mamlakat hududiy daxlsizligini” buzishga undaydigan ilovalar deb e’lon qildi. 2019-yil dekabr oyi oxirlarida AQSh hukumati ushbu ilova foydalanuvchilarining ma’lumotlarini o‘g‘irlash hollarini oldini olish maqsadida AQSh armiyasining o‘z xizmatchilariga “Tik Tok” mobil ilovasidan foydalanishni taqiqladi.

Xitoyning o‘zida 2003-yildayoq “Oltin qalqon” internet cheklovlari dasturi ishga tushirilgan va ko‘plab platformalar Xitoyning “qora ro‘yxatiga” kiritilgan .

AQShning sobiq Prezidenti Donald Tramp 2020-yil 7-avgust kuni Tik Tokga qarshi kurash to‘g‘risidagi farmon imzoladi.

Biroq, o‘sha yili 27-sentyabrida Vashington sudyasi Karl Nikols bu taqiqni bloklab qo‘ydi. Keyingi Prezident Djo Bayden esa, 2021-yil iyun oyida Tik Tokdan foydalanishga ijozat berdi. Shuningdek, Fransiya, Niderlandiya va

Norvegiya mamlakatlari ham o‘z xizmatchilariga xizmat uskunalarida Tik-Tok videoservisidan maxfiy ma’lumotlar chiqib ketishi xavfi borligi uchun foydalanishni taqiqladilar. Xuddi shunday taqiqlar haqida Norvegiya Adliya vazirligi maxsus e’lon qildi. Fransiya o‘zining 2,5 mln. davlat xizmatchilariga shunday ilovalardan foydalanishni cheklab qo‘ydi. Buyuk Britaniya hukumati ham birinchilar qatorida hukumat gadjetlarida Tik Tok qurilmasidan foydalanishni kiberxavfsizlik muammolari kelib chiqish mumkinligi uchun taqiqladilar. Xuddi shunday holat bo‘yicha taqiqlar Yevroparlament, Yevrokomissiya va Yevropa Ittifoqi tomonidan ham e’lon qilindi.

AQSh hukumati davlat muassasalari xodimlariga Tik Tokni federal qurilmalaridan o‘chirib tashlash uchun 30 kunlik muddat berdi. Ayrim qonunshunoslar bu ilovalarga to‘liq taqiq qo‘yilishi lozimligini ilgari surdilar. Federallar tashabbusini 50 shtatdan yarmida ko‘pi qo‘lladi. Raqamni qarshi kurash markazi (CCDH) o‘z hisobotida Tik Tok o‘smirlarga o‘zini suitsid xudkush qilish kontentini taklif qilayotganligini, ekspertlar esa 1,5 milliard marta ko‘rilgan oshqozon zaharlanishi haqida 56 xeshteg mavjudligini ma’lum qildilar. Pyu tadqiqot markazi ma’lumotlariga ko‘ra, AQShlik o‘smirlarning uchdan ikki qismi Tik Tok foydalanuvchilari bo‘lib chiqdilar.

AQShdan keyin Kanada ham Tik Tok rasmiy qurilmalardan foydalanishni maxfiylik nuqtai nazaridan foydalanishga taqiq ko‘ydilar. Kanada Bosh Vaziri Jastin Tryudo “bunday qadam oddiy kanadaliklarning o‘z shaxsiy ma’lumotlari xavfsizligi haqida o‘ylab ko‘rishga majbur etadi” dedi, shuningdek, uning farzandlari Tik Tokda o‘tirmayotganliklarini, bunga hukumatning uning gadjetlarini taqiqlab ko‘yganligi sabab bo‘lganligini bildirdi.

Tayvan 2022-yil dekabrida davlat sektorida Tik Tokdan foydalanishga taqiq qo‘yilganligi va FBR direktori Kristofer Vrey fikricha, ushbu platforma Xitoyning Tayvanga bostirib kirishida “muhim rol” o‘ynashi bashorat qilishi va Tik Tok millionlab odamlarning ma’lumotlarini kuzatibgina qolmasdan Osiyoda urush holati bo‘lganda bu platformadan AQShda ijtimoiy fikr shakllanishida foydalanish mumkin hisoblangan.

Pokiston hukumati 2020-yil oktyabr oyidan boshlab Tik Tokni kamida 4 marta “ahloqsizlik” kontentini targ‘ibot qilganligi uchun taqiqlaganlar.

Hatto, Afg‘onistonni egallab olgan tolibon hukumati ham Tik Tok va PUBG o‘yini versiyasining “tahqirlash”ni ilgari surganligi uchun taqiqlab qo‘ydi.

Ushbu misollar Tik Tok platformasi tahdidi dunyo mamlakatlariga xatar keltirayotganligining isbotidir. Jumladan, O‘zbekistonda ham uning salbiy va zararli ta’siri kun sayin ko‘paymoqda, ortmoqda. Masalan, mashhur bo‘lish uchun jamoat joylarida, hatto davlat organlari vakillari bo‘lgan ichki ishlar idoralari xodimlari sha’nini poymol qilayotgan, Huquqni muhofaza qilish organlarining qonuniy talablariga bo‘ysunmayotgan, o‘zini bachkana qiliqlari bilan jamoat joylarida tartib buzayotgan shaxslar va hatto, qizlik nomiga dog‘-isnod tushirayotgan, qizlar hayoti uchun xavfli harakatlarni

amalga oshirayotgan tik tokerlar va blogerlar haqida lavhalar soni ijtimoiy tarmoqlarda tobora ko‘payib ketmoqda.

Yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘tkazgan ilmiy-amaliy anjumanda soha vakillari ijtimoiy tarmoqlar, xususiy Tik-Tok platformasida turli masxaraomuz, odob-ahloq qoidalariga zid xarakatlari tasvirlangan video mualliflarini ogohlantirdilar.

Fuqarolarning osoyishtaligini hamda jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzish – mayda bezorilik hisoblanishini, 15 sutkagacha qamoq bilan jazolanishi ta’kidlandi.

Axborotlashtirish asri deb nomlangan XXI asrda ushbu tazyiqdan chetda qolishning, undan biron-bir yo‘l bilan qutilishning imkoni yo‘q. Insonni xushyorlikka da’vat etadigan eng muhim narsa shundan iboratki, harbiy, iqtisodiy, siyosiy ta’sir darhol seziladi, mafkuraviy ta’sir, uning oqibatlarini bilib olish esa ancha mushkuldir.Biz buning uchun mafkuraviy tahdidni aniq tasavvur etishimiz va unga qarshi turishimiz, ogoh bo‘lishimiz, yoshlarimizning kundalik tarbiyasiga befarq va loqayd bo‘lmasligimiz har birimizning burchimiz. Tik Tok platformasi butun dunyo bo‘ylab o‘zining ayrim g‘arazli g‘oyalarini maqsadli yo‘llayotgan bir paytda G‘arbda “Z-Zed” avlod dunyoga kelganligi, ular yashayotgan davr XX asrning 90-yillar vujudga kelganligi, ular yashayotgan davr raqamli xizmat ko‘rsatish va texnologiyalar asri ekanligi g‘oyasi ilgari surildi. Ularning og‘ir va jismoniy mehnatlardan umuman ozod bo‘lish, faqat o‘rta maxsus ta’lim yetarli ekanligi, virtual olamdagi mavqei orqali turmush darajasini yengillashtirib berish mumkinligi to‘g‘risidagi ota yot va g‘arazli g‘oyalari O‘zbekistonga ham kirib keldi. Ayrim yoshlarimizning ongini zaharlashga ham ulgurdi. Masalan, bundan 3-4 yil burun Yaponiyada o‘smirlarning Ryodan deb nomlangan harakati vujudga keldi, bu harakat ham Tik Tok platformasidagi faolligi tufayli o‘smir yoshdagilar ongi va qalbini egallab zaharlashni va uni dunyo bo‘ylab kengaytirib maqsad qilib oldi.

“Ryodan” hususiy harbiy kampaniyasi XHK yapon animatsiya san’ati muhlislari tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, dastlab o‘smirlarni qiziqishlari bo‘yicha birlashtirishni maqsad qilgan. Bolalar sevimli qahramonlarni muhokama qilib, ularga o‘xshashga intilib, orqasiga o‘rgimchak rasmi hamda 4 raqami bo‘lgan katakli shim va futbolkalarni kiyib olishgan. Ma’lumki, Osiyo mamlakatlarida, xususan, Yaponiyada 4 raqamli baxtsiz raqam – o‘lim so‘ziga to‘g‘ri keladi. O‘rgimchak haqidagi yapon multfilmida 4 raqamli o‘rgimchak “o‘liklar sharpasi”, o‘g‘rilar guruhini anglatgan.

Biroq, vaqt o‘tishi bilan xarakatdan yangi yo‘nalish ajralib chiqib, ular ichida bir qator tajovuzkor shaxslar paydo bo‘lgan. Ular hududdagi vaziyatni bekarorlashtirish, o‘smirlarning “to‘liq shakllanmagan dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazish” orqali ularni nazorat qilishni maqsad qilib olgan. Buning oqibatida, tarmoqdagi begona shaxslarning buzg‘unchi shiorlari ta’siri-

ga berilib ketgan bolalar jamoat joylarida to‘planib, ommaviy tartibbuzarliklarni uyushtira boshlaganlar. Ayniqsa, o‘smirlar o‘z shaxsiga himoya va qiziqish uyg‘otish maqsadida ham XQK ga a’zo bo‘lishni moda sifatida qabul qilganlar.

Tasavvur qilish mumkinki, bu animachilar tez-tez agressiv bosimga uchrab turgan, chunki ularning tashqi ko‘rinishlari, kiyim va raqamlari ularni boshqalardan ajratib turishi uchun ham shu yo‘lni tanlashgan.

Internet hamjamiyat bunday jarayonlarni soddalashtiradi, natijada o‘smir ancha yengil kun kechiradi, o‘zini hatto baxtli seza boshlaydi. Bu harakat stixiyali, o‘z-o‘zidan kelib chiqmagan, chunki animachilar san’ati va uning vakillari anchadan beri mavjud, “Ryodan” XHK esa, uning bir yangi mahsuli va ko‘rinishidir. Bu harakat ham davlatning e’tibori tufayli o‘zi-o‘zidan tugab ketishi ham mumkin.

Bunga yaqin tarxdan misol bor, 2000-yillar boshida ko‘plab parlamentlar-emo submadaniyatini “g‘arb mafkurasi ayg‘oqchilari” deb bilib kurashdilar.

Bir oz vaqt o‘tgach, emo o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketdi. Biroq bu harakat o‘zining tashqi ko‘rinishini o‘zgartirib qolmasdan nomini ham o‘zgartirdi.

“XHK Ryodan” harbiy harakat kompaniyasi nomi ostida dunyo bo‘ylab tarqalib yuz minglab obunachilari orqali tarafdorlari safini kuchaytira boshladi.

Ushbu “Ryodan”harbiy xususiy kampaniya – yangi submadaniyat namunasining vujudga kelishga kuyidagi omillar sabab bo‘lgan deb hisoblaymiz: avvalambor, geosiyosiy vaziyat, raqamlashtirish maydonlarining rivojlanishi, agressiv axborot makonining kengayib borayotganligi, o‘smir-yoshlarning qo‘shimcha himoyaga muhtojligi, umumiy qiziqishlar va dunyoqarash mavjudligi kabi omillar mavjudligidir.

AQShning Afg‘onistonga qilgan harbiy yurishi va Rossiyaning Ukrainaga qilgan maxsus harbiy operatsiyasiga qadar ko‘pchilik Harbiy xususiy kampaniyalar haqida deyarli bilmas edi. Ushbu nom axborot makonida mustahkam o‘rnashib olgandan keyin u yoshlar ongiga maqsadli singdirila boshlandi.

Dastlab hatto politsiyachilar nega bunday harbiylashgan nom tanladingizlar degan savolga huquq buzar yoshlar bu hazil, bizni kiyim-boshimiz uchun rosa kaltak yeganmiz, endi harbiylashib ular ko‘rsatamiz, bu biz uchun xobbi deb javob qaytarganlar. Hatto shu ramziy belgilar o‘rgimchak va 4 raqam muallifi bo‘lgan yaponiyalik dizayner biz kiyimimiz, tashqi ko‘rinishda siyosat elementlari yo‘q deb o‘z mahsulotini faqat tijoriy maqsadda yo‘lga ko‘yganligini ta’kidlagan.

“Ryodan” HXKdan tashqari o‘zimizning o‘smir yoshlarimiz orasidan internetdagi saytlari orqali chiqib o‘smirlarni ochiqdan-ochiq to‘g‘ri yo‘ldan ozdirayotgan “lider”lar ham chiqayotganligi ham xatarlidir.

“Ryodan” harbiy xususiy kompaniyasi O‘zbekiston yoshlarini ham o‘zining o‘rgimchak to‘riga tushirishga harakat qildi. 2023-yil mart kuni 50 ga yaqin yoshlar poytaxtimiz markazidagi xalqaro forumlar Saroyi darvozasi yonida yig‘ilishib, barcha yoshlarni “Ryodan” HXKsiga qo‘shimchalarini, birgalikda katta kuch bo‘lishlarini, har qanday to‘siqlarni buzib tashlashga qodir ekanliklari haqida turli chaqiriqlar qlib jamoat tartibini buzish hollarini keltirib chiqardilar.

Toshkent shahar IIBB o‘sha kuniyoq jamoat tartibini buzishga uringan 50ga yaqin o‘smirlar va ularning ota-onalari bilan profilaktik suhbat o‘tkazdilar, maktab, kollej va texnikumlarda ma’naviy targ‘ibot ishlari olib borilib yoshlarga g‘arazli oqim va g‘oyalarga nisbatan hushyor bo‘lish, har xil rasmiy va norasmiy guruhlar va submadaniyatlar maqsadli tarzda yo‘llayotgan tavsiya va takliflarga nisbatan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida immunitet shakllantirish zarurligiga jiddiy e’tibor qaratish lozimligini ta’kidladilar.

Toshkent shahar IIB tomonidan o‘z vaqtida oldi olingan “Ryodan” harakati ilk namoyishida qo‘lga olingan jamoa a’zolari bilan suhbat chog‘ida ular sodir etayotgan xatti-harakati jinoyat ekanligi, uni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlari to‘g‘risida umuman tushunchaga ega emasligi, shunchaki vaqtichog‘lik uchun borgani va ularni maydonga yig‘moqchi bo‘lgan guruh yo‘lboshchilarining o‘zlari yo‘q bo‘lib qolganligi to‘g‘risidagi ma’lumotidan ko‘rinib turibdiki, har qanday uzatilayotgan xabar yoki axborot tufayli yer yuzining hohlagan yeriga beqarorlik va namoyishlarni bemalol tashkil eta oladi.

Bu jarayonning achinarli jihati shundan iboratki, yoshlarning ushbu chaqiruvlarda ko‘r-ko‘rona ishtirok etishi va noxush holatlar to‘g‘risida umuman tushunchaga ega emasligidir.

Misol uchun, joriy fevral oyida ijtimoiy tarmoqlarda 100 ziyod voyaga yetmagan o‘smirlar Chilonzor tumanidagi ko‘chalardan birida “Aslam sila” deb ketayotganligi aks etgan video tarqatildi. Mazkur holat yuzasidan kuyidagilar ma’lum bo‘ldi:joriy yilning 24-fevral kuni, taxminan soat 15:30 larda, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zining blogini yurituvchi yutuber, 2004-yilda tug‘ilgan, Jizzax viloyatida yashovchi Aslambek Baxromov Chilonzor tumanidagi Magic City ko‘ngilochar maskani yaqinidagi avtoturargoh oldiga fan klub a’zolarini chaqirib, ular bilan bilan uchrashuv o‘tkazmoqchi bo‘lgan va ularga sovg‘alar tarqatishligini bildirgan, e’tibor bering,uning maqsadi qanday bo‘lsada, ko‘p sonli fanlarini to‘plash, o‘z tarafdorlarini yig‘ish edi va ushbu uchrashuvga taxminan 130-140 nafarga yaqin voyaga yetmagan bolalar yig‘ilgan va jamoat tartibini buzib shovqin-suron ko‘targan. Shu hududda xizmat olib boruvchi Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari xodimlari tartibsizlikni oldini olish va tushuntirish ishlarini olib borish maqsadida A.Baxromovni ichki ishlar bo‘limiga olib borganlar. Xodimlar A.Bax-

romovni olib ketayotgan vaqtida bir nechta voyaga yetmaganlar uning ketidan avtomashinagacha kuzatib borishgan. Uning tarafdorlari, qolgan 100 dan ziyod o‘smirlar hatto Chilonzor tumani IIBBga qadar katta ko‘chalardan qayta-qayta “Aslam sila! Aslam sila!” deb bu yutuberga bo‘lgan “sadoqatini” namoyish qilganligi barchamizga bitta bloger qanchalik xatar va tinchligimizga rahna solish mumkinligining isboti bo‘ldi. So‘ngra uchrashuv va yig‘ilganlarning barchasi tarqalib ketishgan. Mazkur holat yuzasidan Chilonzor tumani IIO FMB tomonidan A.Baxromovga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 201-moddasi (Yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o‘tkazish tartibini buzish) bilan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirildi. Hujjatlar o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqish uchun tuman sudiga taqdim etilib unga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llanilgan.

Ommaviy nomatlub hatti – harakatga va ularda o‘smir bolalarning yalpi ishtirokiga olib boruvchi har qanday holat xavfli va xatarlidir. Yoshlar o‘z psixologik xususiyatlariga ko‘ra oddiy taqlidchi bo‘ladilar. O‘smirlar bilan alohida gaplashib, ushbu holat keltirib chiqaradigan xavf-xatar tushuntirilsa, aksariyat bolalar to‘g‘ri tushunib bunday yo‘ldan qaytadilar. Bunda aybni faqt yoshlarga to‘nkamaslik kerak, avvalambor ota-onalar, mutassaddi ta’lim muassasalari, pedagoglar, yoshlar tashkilotlari, mahalla faollari, qolaversa, davlatga tegishli tashkilotlar va nodavlat tashkilotlari, fuqarolar ham befarq va loqayd bo‘lmasdan maqsadli profilaktik tadbirlarni muntazam va tizimli ravishda olib borishlari lozim deb hisoblaymiz.

Ommaviy madaniyatdagi transformatsiya jarayonlari nafaqat yoshlarning kiyinish, jazavaga tushiradigan musiqalari, mos raqslari, shuningdek, muloqot va muomala madaniyatiga ham o‘zining o‘ta salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Zero, ommaviy madaniyat mafkurasi asoschilarinig o‘tgan asrdayoq rejalashtirgan va insoniyat kelajagini buzishga qaratilgan mash’um g‘oyalarida an’anaviy oila, maktab jamiyat institutlariga qarshi chiqish va shu asosda ushbu an’anaviy institutlar o‘rniga buzuqlik, fahshga, asoslangan LGBT, trasgenderlik, bir jinslik nikohlar va shu ruhda tarbiyalash kabi g‘oyalari va yondashuvlarini jahon bo‘ylab keng yoyishga va kiritilishiga urinishlar davom etmoqda. Yaqinda postsovet respublikalaridan bo‘lgan Estoniya parlamenti bir jinslik nikohlarni rasman tan olganligi g‘arb turmush tarzining buzg‘unchi ekspansiyasi tobora kengayib borayotganligining misolidir.

Bunday holat esa, farzand, e’tiqod, shaxsning o‘zligini anglash masalalariga yangicha yondashuv – inson o‘z tanasi uniki yoki uniki emasligi to‘g‘risidagi muammolar, “Men kontsepsiyasi”, deviant xulq-atvor, kiberjinoyatchilik, giyohvandlik vabosi, odam savdosi, suitsid muammolaridan tashqari,jamiyatning eng og‘riqli nuqtasi-insonlar o‘rtasidagi mehr-muruvvat kabi ma’naviy qadriyatlarning yo‘qolishiga olib kelmoqda. Bu borada

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo, biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”[2], deya ta’kidlagan edi.

Inson ongining aql-zakovati va ilm-fan mo‘jizalari tufayli endi bir davlatda beqarorlikni vujudga keltirish uchun odamlarni ko‘chaga chorlov shart emas. Chunki, bu faoliyatni amalga oshirish uchun media makon, ya’ni virtual olam mavjud. Bunday holatlarga beparvo va befarq bo‘lmasdan, nafaqat o‘z munosabatimizni bildirishimizni, shu yo‘nalishda sinovdan o‘tgan barcha tadbirlarni muntazam o‘tkazishimiz, eng asosiysi, bunday holatlarning oldini olishga barchamiz dahldor bo‘lishimiz, hushyor va ogoh turishimiz lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobidan.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobidan.*

## TALABALAR TARBIYASI – DAVLATCHILIK ASOSIDA TURGAN FUNDAMENTAL QADRIYAT

**Ziyoda AZIMOVA,**
*Andijon davlat pedagogika instituti*
*Pedagogika fanlari doktori(DSc), prof.*
**Yayraxon UMAROVA,**
*Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD,dots.*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning pedagogik nazariya va amaliyotdagi o‘rni, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini belgilovchi asosiy tamoyillar va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilishda ijtimoiy hamkorlikni tashkil qilish masalalari ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *Ma’naviy-ma’rifiy ishlar, pedagogik vazifalar, milliy g‘oya, pedagogik mas’uliyat, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini belgilovchi asosiy tamoyillar, targ‘ibot funksiyasi, ijtimoiy hamkorlik.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil Sochida o‘tkazilgan Sammitida MDHga a’zo davlatlari rahbarlarini yoshlar tarbiyasi zamonaviy globallashuv sharoitida har bir davlatchilik asosi-

da turgan fundamental qadriyat ekanligini unutmaslikka chaqirdi hamda “O‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda oila va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli” mavzusida xalqaro konferensiyani tashkil etishni taklif qildi [1]. Ushbu xalqaro tashabbus o‘z navbatida yoshlar tarbiyasi to‘g‘risidagi yagona fan – pedagogikaga, uning imkoniyatlariga munosabat, ishonch va unga e’tiborni yanada kuchaytiradi. Chunki shaxsni maqsadli tarbiyalash, shakllantirish faqat pedagogikaning fan sifatidagi vazifasidir. Bu esa pedagogikaning amaliy, eksperimental fan sifatidagi imkoniyatlarini oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga yo‘naltirishni talab qiladi.

Tarixdan ma’lumki, qay bir mamlakatda ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy islohotlar sodir bo‘lsa, davlatning tarbiyaviy ideali, pedagogikaga ijtimoiy buyurtmasi ham o‘zgaradi. Ana shu qonuniyatga mos ravishda O‘zbekiston pedagogika fani taraqqiyotida yangi davr – ma’naviy-ma’rifiy ishlar pedagogikasi davri boshlandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 31-dekabr 1059-son Qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ijtimoiy tarbiyani amalga oshirish borasida qator nazariy, amaliy va tashkiliy ishlar amalga oshirila boshlandi [2].

Shu o‘rinda “Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar, talabalar tarbiyasi mazmuni qanday yangiliklar bilan boyitilishi kerak?”, degan savol paydo bo‘ladi. Bizningcha, bunda talabalarning tarixiy, milliy, siyosiy ongini tarbiyalash;

– ma’naviy-axloqiy me’yorlarning buzilishlariga qarshi tura olishga tayyorlash;

– millatimizni mafkuraviy parokandalikka olib kelishiga qaratilgan Vatan, xalq manfaatlariga loqaydlik, ma’naviy begonalashuv, diniy ekstremizm va terrorizm tahdidlariga qarshi tura olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– millatchilik, mahalliychilik, guruhbozlik, shuningdek, dinlararo bag‘rikenglikka zid har qanday ko‘rinishga qarshi tura olishga o‘rgatish;

– yoshlarda yaxlit, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

– O‘zbekiston Prezidenti, hukumat olib borayotgan ichki va tashqi siyosatni tezkor va to‘g‘ri tushuntirib borishning ijtimoiy pedagogik tizimini yaratish;

– Milliy g‘oyamizga amaliy sadoqatni shakllantirish;

– O‘zbekistonning kelajagi buyukligini talaba-yoshlar e’tiqodiga aylantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish shartlaridan biri – uning amaliy-tadqiqiy asosga ega bo‘lishidadir. Bunda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan davrning dol-

zarb ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy masalalariga bag'ishlab nashr etilgan ilmiy-amaliy risolalar, slaydlardan samarali foydalanish talab etiladi.

Ma'naviy-mafkuraviy targ'ibot o'ta nazariylashib quruq nasihat, va'zxonlik kabi biryoqlamaliklardan xoli bo'lmog'i uchun bu jarayon ilmiy pedagogik o'rganilishi, umumlashtirilishi, targ'ibot va tashviqot qilinishi kerak. Buning uchun oliy talim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning amaliy tadqiqotiga asoslangan metodologiyasini yaratish, yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning eksperimental-pedagogik tadqiqotlarini amalga oshirish orqali pedagogik monitoring va integral tashxisning yuqori darajada aniqligiga erishish, G'arb va Sharq tarbiyaviy tajribasi yutuqlari namunalarini o'rganish, akademik guruh murabbiylari, professor-o'qituvchilar, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning barcha subyektlarini pedagogikaning amaliy-tadqiqot usullari, texnologiyasi bilan tanishtira borishi kerak.

Bu esa Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahvoli, yutuq va kamchiliklarini tezkor qayd qilish, tuzatish va takomillashtirish imkoniyatlarini beradi. Shu tariqa ma'naviy-ma'rifiy ishlar O'zbekistonda har bir talabaning o'zligini namoyon qilishga, o'z shaxsiy manfaat va imkoniyatlarini milliy istiqlol qadriyatlari negiziga qura olishiga ijtimoiy-ma'rifiy sharoit yaratadi.

Talabalarni ma'naviy tarbiyalash bu – ilmiy asosga qurilgan, talabalarning pedagogik-psixologik xususiyatlaridan kelib chiquvchi, milliy istiqlol maqsadlariga yo'naltirilgan, muayyan natijalarga qaratilgan tarzda amalga oshiriluvchi pedagogik-texnologik jarayondir. Ana shuning uchun ham ma'naviy tarbiya tarixi, mafkuraviy, istiqloliy, zamonaviy va istiqboliy mazmunga egadir. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar ilmiylik bilan uyg'unlashuv orqali yosh avlodlarda vataparvarlik, milliy g'urur, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo mafkuraviy immunitet kabi muayyan – Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi talab qilayotgan bunyodkor fazilatlarini shakllantirishni o'ziga vazifa, yo'nalishlar qilib belgilaydi.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ma'naviy va ma'rifiy ishlar amaliyotini o'rganish tadbirlarning rang-barang shakl va vositalari mavjudligini ko'rsatadi. Bu tizim tanlovlar, sport musobaqalari, sahna ko'rinishlari, suhbat, aytishuvlar, o'yinlar, badiiy kechalar, bayt-baraklar, kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar, Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, Ustoz va murabbiylar kuni, Navro'z bayrami, yangi yil bayrami, xotira va e'zozlash kuni, Hayit bayramlari va boshqa qator tadbirlar kompleksini o'z ichiga oladi. Mazkur tadbirlar ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yillik ish rejalarida qat'iy aks ettirilmog'i lozim. Har bir ish rejasi – bo'lajak faoliyatning dasturi sifatida quyidagi ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Talabalarni falsafiy dunyoqarashga tayyorlash, hayot mazmunini

tushunib olishda ko‘maklashish, bugungi murakkab mafkuraviy hayotda o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish;

2. Boy milliy madaniyatimiz bilan oshno qilish, ajdodlarimizga, boy milliy madaniyat va tariximizga nisbatan g‘urur va muhabbatni tarbiyalash.

3. Har bir talaba va talabalar jamoasining iqtidorini yuzaga chiqarish;

4. Insonparvarlik va ma’naviy-axloqiy munosabatlar odobini, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik ko‘nikmalarini shakllantirish;

5. Mustaqil Respublikamiz ravnaqi va taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi komil inson fazilatlarini tarbiyalash;

6. O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash;

7. Mehnatga vijdonan va ijodiy munosabatni tarbiyalash;

8. O‘zining har bir xatti-harakati va ularning oqibatiga mas’uliyat bilan qarash xislatlarini tarbiyalash.

9. Mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berib, uni qo‘llab-quvvatlashga o‘rgatish.

Vatanga sadoqatli yuksak ma’naviyatli, yuqori malakali mutaxassis qilib tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Universitet, institutlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini quyidagi tarbiyaviy yo‘nalishlar oshiradi:

– O‘zbekiston Prezidentining yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat va ma’rifat, milliy g‘oya haqidagi fikrlaridan metodologik asos sifatida samarali foydalanish;

– Talabalarni tarbiyalash tizimini gorizontal va vertikal o‘rganish tamoyilini yo‘llash, oliy o‘quv yurtlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning eksperimental, tashxisiy uslubiyatini pedagogik amaliyot jarayonida takomillashtirish;

– Tarbiya subyektlariga ma’naviy-axloqiy fazilatlarning ilmiy, lug‘aviy madaniy, ijtimoiy mohiyati, vazifalarini uqtirish;

– Guruh murabbiylari, kafedralar, dekanatlar, rektorat, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, ijtimoiy tashkilotlarning yakdil, hamjihatlilik asosida talabalarning o‘quvdan tashqari vaqtini tarbiyaviy maqsad-manzilli uyushtirishlari va h.k.

Oliy ta’lim – yigit-qizlarni jamoa shaklida 4-5 yil davomida tashkiliy ravishda, maqsadga yo‘naltirilgan holda tarbiyalashi kerak bo‘lgan davlat uzluksiz ta’lim tizimining so‘nggi bosqichidir. Universitet, institutlarni tugatgach, yosh mutaxassislar davlatning, murabbiylarning bevosita tarbiyaviy ta’siri doirasidan chiqib ketadilar. Endi ular ma’naviy tarbiyaning obyektidan ma’naviy tarbiyaning subyektiga aylana boradilar. Tarbiya, tarbiyalanish abadiy jarayonligi tufayli davom etaveradi. Biroq endi u talabalik chog‘idagidek – jamoada, murabbiyning ishi sifatida mutassil, maqsadga yo‘naltirilmagan bo‘ladi. Bitiruvchi talaba universitetdagi ma’naviyat, mafkuraviy immunitet,

vatanparvarlik, fidoyilikning qanday darajasi bilan chiqib ketsa, ertaga u shu darajadagi ma'naviyatga, shunday mafkuraviy faollik darajasiga, vatanparvarlik darajasiga ega mutaxassis sifatida mustaqil hayotni boshlaydi. Har bir mutaxassisning ma'naviyati vatanparvarligi, mafkuraviy immunitetida uning o'quv yillarida olgan tarbiyasi yaqqol sezilib turadi.

Sobiq sho'ro oliy pedagogik tizimi talabalarning ta'limiga ustivorlik bergan holda, ularning ma'naviyati, tarbiyasi va uni kundalik turmushda namoyon bo'lishiga intilmadi. Bu esa o'sha davrdagi talabalarning muammolarida ham o'zini ko'rsatib turar edi. Buning bir tipik hayotiy misoli tariqasida quyidagi kontent misolni keltiramiz:

Talabalik yillarimda o'zim guvoh bo'lgan bir voqea hech esimdan chiqmaydi. Yozgi ta'tildan uyga qaytayotgan edik. Poyezdning "Obshiy" vagoni tirband yo'lovchilarning aksariyati armiya safiga chaqirilgan yoshlar. Kunduzgi yugur-yugurlardan toliqibmi, qattiq uxlab qolibman. Bir mahal shivir-shivir ovozlardan uyg'onib ketdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, ikki kursdoshim g'aflat bosgan chaqiriluvchilarni bir-bir uyg'otib, biqiniga pichoq tirab, ulardan xufya pul undirar edi. G'alati bo'lib ketdim. So'ng, bu noxush manzarani ko'rmaslik uchun choyshabni ustimga tortdim…

Oradan qancha zamon o'tgan bo'lsada, o'sha jur'atsizligim uchun hali-hanuz o'zimni kechirolmayman. Ilojim qancha, onasi yoki otasi bergan pulni qo'sh-qo'llab topshirishdan or qilmagan o'sha g'o'r, bo'sh-bayov qishloq bolalari menga begona, ularni tunayotgan "Qaroqchilar" esa, o'zimning kursdoshlarim edi.

Bu achchiq xotirani nega eslayapman? Tarix shohid: Sho'ro ta'limi insonni mustaqil fikrlashga emas, aksincha, uni mutelik va itoatkorlik ruhida tarbiyalashga asoslangan edi. Necha-necha avlod ana shu mash'um siyosatning qurboni bo'ldi, o'zining boy tarixi va ma'naviyatdan uzib qo'yildi. Shukurki, endi hammasi tamom boshqacha!" [3].

Talaba yoshlarni milliy g'oyamiz ruhida tarbiyalashni pedagogik ta'minlovchi mafkuraviy tarbiyani milliy qadriyatlarni istiqlol talablari bilan uyg'unlashtiruvchi, talabalarda vatanparvarlik, milliy mafkuraviy faollik, milliy g'urur, millatlararo totuvlik, milliy odob, ijtimoiy hamkorlik, diniy bag'rikenglik kabi fazilatlarni ilmiy-eksperimental asosda shakllantiruvchi, diagnostik va prognostik xususiyatlarga ega bo'lgan, jahon pedagogika texnologiyalarining eng samarali ilmiy yutuqlarini O'zbekiston muhitiga moslab, milliy mustaqillikni mustahkamlash maqsadlarida foydalanuvchi milliy va umuminsoniylikning eng go'zal fazilatlarini mujassam etgan milliy-zamonaviy mutaxassis shaxs tipini shakllantiruvchi uzluksiz, yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Talabaning ma'naviy olami milliy va baynalmilal umuminsoniy ta'sirlar, omillari majmui bilan belgilanadi. Milliy va umuminsoniy munosabatlar uyg'unligi, talaba yoshlar tarbiyasida O'zbekistonni yanada rivojlanti-

rishning Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan bunyodkor fazilatlarni ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejalariga kiritish va shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarasini belgilovchi omillardan biri – institut, universitet muzeylaridir. Muzeylar moddiy va ma’naviy buyumlar orqali ilmiy, tarixiy, madaniy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazuvchi markaz hisoblanadi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarda jamoatchilik muzeylarining rolini oshirish talabalarni o‘z kasbining ma’naviy qadriyatlari bilan tanishtiradi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonda tarbiya masalalariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o‘tkazishni taklif qildi.http://kun.uz/29597953/ Sana 05.11.17.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4676839*

*3. Toshev N. “El netib topgay menikim…” //Xalq so‘zi, 2001-yil, 2-mart.*

## MA’NAVIYAT MAKTAB OSTONASIDAN BOSHLANADI

**Muhammadjon TO‘XTASINOV,**
*Namangan viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada bugungi kun ta’lim-tarbiya tizimi oldida turgan muhim vazifalar, xususan, o‘quvchi-yoshlar ma’naviy tarbiyasi va bu sohadagi kamchiliklar hamda muammolar tahlil qilingan bo‘lib, ushbu masalalar bo‘yicha fikr-mulohalar ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ma’naviy-axloqiy tarbiya, ta’lim islohotlari, ma’naviy muhit, jamiyat ma’naviyati, mafkuraviy immunitet, globallashuv, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, pedagog mas’uliyati, yangi metodikalar, targ‘ibot tadbirlari, mediata’lim.*

So‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan katta e’tibor, tizimni har tomonlama yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan qator islohotlar tufayli maktab va uning hayoti tubdan o‘zgarmoqda. Maktab ta’limiga davlatning g‘amxo‘rligi, jamiyatning munosabati keskin oshmoqda. Shu bilan birga o‘quvchi-yoshlarni yuksak darajada ma’naviy-axloqiy

tarbiyalash masalasi Prezidentimiz siyosatining ajralmas qismi sifatida davlatimizning ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish bo'yicha qabul qilgan qator huquqiy hujjatlarida ham o'z aksini topgan.

Biroq, ushbu tizimdagi ishlarni tanqidiy yondashuv asosida ko'rib chiqadigan bo'lsak hali ham maktab ta'lim-tarbiyasida, xususan, o'quvchi-yoshlar ma'naviy olamida qator bo'shliqlar borligi, bu bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan ko'plab vazifalar borligini ko'rsatmoqda.

Bugungi ba'zi bir yoshlar ma'naviyatining qisman buzilayotganligi, ayrimlarining bizga mutlaqo yot bo'lgan urf-odat, madaniyatga berilib ketayotganligi, voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida turli bezorilik, jinoyat sodir etish hollari uchrab turishi barchamizni tashvishga solmoqda.

Birgina, 2022-yil 25-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida maktab ta'limidagi islohotlarning borishi muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda sohaga tegishli ishlar 7 ta indikatorlar bo'yicha tahlil qilinganda 1526 ta umumta'lim maktabining ma'naviy muhiti salbiy ekanligi qayd etilib, maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yana qayta tahliliy ko'rib chiqib, bu bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etayotgani alohida ta'kidlandi [2].

Ayni shu masalada davlatimiz rahbari soha xodimlari oldiga qator vazifalarni qo'yib, maktab ma'naviyat ostonasi bo'lishi kerakligi, o'quvchi-yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda kitobxonlik, she'riyat, musiqa, tasviriy san'at imkoniyatlaridan keng foydalanish zarurligini, 1-sinfdan 11-sinfgacha o'quvchilar uchun ma'naviyat kitoblari chop etish dolzarbligini ko'rsatib o'tdi.

Darhaqiqat, milliy ta'limning muhim afzalliklaridan biri ta'lim-tarbiyaning uyg'unligidir. Shunday ekan, o'quvchi-yoshlar ta'lim-tarbiyasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, jamiyatimiz ma'naviyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usullarni ishlab chiqish, bu bo'yicha o'ziga xos milliy metodikalarni joriy qilish bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur.

Maktabga endigina qadam qo'ygan bolalar uchun maktab ma'naviyat o'chog'i, o'qituvchi esa ma'naviyat timsoli bo'lishi lozim. O'quvchining yoshi ulg'aygani sari ma'naviy ehtiyojlari ham yuksalib boradi. Bu ehtiyojlarni to'g'ri anglab, ularni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash biz pedagoglarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Qolaversa, bugungi murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni turli tahdidlarga bardosh bera oladigan, mustahkam irodali va yuksak ma'naviyatli, ayni vaqtda bilimli va intellektual salohiyatli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash hayotiy ehtiyoj. O'quvchi-yoshlarni Vatan va xalqqa sadoqatli, ma'nan yetuk, insonparvar, har tomonlama komil shaxslar etib tarbi-

yalash – eng oliy maqsadlarimizdan biriga aylangan. Bu ishda maktab ta'limining o'rni va roli benihoya kattadir.

Bevosita maktab ta'lim-tarbiyasida o'quvchilar uchun vatanparvarlik, mardlik, mehnatsevarlik, do'stlik, yaxshilik, tinchlik, ota-ona va ustozlarni ulug'lovchi va boshqa ezgu g'oyalar aks etgan she'rlar, g'azallar, qo'shiqlar, rivoyatlardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Xususan, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda "Madhiya", "Shashmaqom", "Andijon polkasi", "Dilxiroj", "Tanovor", "Lazgi" kabi milliy kuy-qo'shiqlar, shuningdek, Buxoriy va Termiziy hadislari, A.Navoiy, A.Oripov, E.Voxidov, M.Yusuf, Zulfiyaxonim, H.Olimjon, A.Obidjon kabi shoirlar hamda A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, X.To'xtaboyev, T.Malik, S.Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov kabi yozuvchilar asarlaridan foydalanishning roli va ta'sirchanligi yuksakdir. Bu o'rinda boshlang'ich sinflar ma'naviyatini yuksaltirishda ertak, matal, afsona, she'r, qo'shiq, doston, maqollardan keng foydalanish alohida muhim ahamiyat kasb etishini qayd etish lozim.

Maktablarda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli ravishda qayta ko'rib chiqib, bu borada maktab rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, sinf rahbarlari va albatta barcha o'qituvchi-pedagoglarning mas'uliyatini oshirish, ularni chinakkam ma'naviyat targ'ibotchisiga aylantirish, ularga ma'naviy-targ'ibot tadbirlari masalalarida metodik ko'mak va tavsiyalar berish, sohaga oid yangi ilmiy-uslubiy adabiyotlar nashr etish va yetkazish hamda tashkiliy chora-tadbirlarni belgilib olish muhim vazifaga aylandi.

Zero, shunday ekan ta'lim tizimi xodimlarining huquqiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini doimo boyitib, takomillashtirib borish zarur. Bularsiz o'quvchi-yoshlar ta'lim-tarbiyasida ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. O'quvchilarni ma'naviy yetuk etib tarbiyalashda ustoz ma'naviyat timsoli, har jihatdan namuna bo'la oladigan yuksak axloq sohibi bo'lishi muhimdir. Shu bilan birga, ma'naviy targ'ibot va tarbiya ishlarida pedagoglar avvalo bolaning alohida shaxs, individullik xususiyatlari bor ekanligini inobatga olishi, ular bilan samimiy va sidqidildan muomalaga kirishishi lozimligini anglashi lozim. Buning uchun avvalo, o'qituvchi-pedagoglar o'z ustida ishlashi, o'z ilmiy va ma'naviy olamini boyitish ustida mehnat qilishi kerak.

Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan 15 mingdan ziyod maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlarini, shuningdek, sinf rahbarlari va albatta barcha o'qituvchi-pedagoglarni ma'naviy-ma'rifiy sohada tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishi masalasini ham ko'rib chiqishimiz, ular uchun muntazam rivojlantirib borish dasturlarini qabul qilishimiz darkor.

Binobarin, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi yoshlarimiz tarbiyachisi bo'lgan bugungi kun o'qituvchi-murabbiysi ayni vaqtda pedagog, psixolog

va jamiyatning o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan faol a’zosi, ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi kerakligini unutmasligi lozim.

Shuningdek, bevosita o‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi amaliy choralarni ham ko‘rishimiz ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, maktablarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari muvofiqlashtirib boruvchi sinf rahbarlari boshchiligida har bir sinfning eng faol ma’naviyat targ‘ibotchilari guruhi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularni maktab ma’naviy hayotini yuksaltirishda rolini rag‘batlantirib borish muhimdir. Shu kabi maktabning eng faol ma’naviyat targ‘ibotchilari guruhini tashkil etib, ular ishtirokida turli xil aktsiyalar, ertalabki tadbirlar, davra suhbatlari va tanlovlar o‘tkazilishi, iqtidorli va ijodkor o‘quvchilarning mehnatlarini rag‘batlantirib borish zarur.

Targ‘ibot tadbirlarida mediata’limning roli katta ekanini inobatga olib, maktab umumiy hovlisida radiouzel tashkil etish, u orqali ertalab darsgacha va katta tanaffuslar vaqtida vatanparvarlik va insonparvarlik, oila, maktab, ustoz, tabiat va do‘stlik tarannum etilgan kuy-qo‘shiqlar hamda maktab hayotiga oid yangiliklarni, o‘quvchilar yutuqlari va ijod namunalarini eshittirib borish o‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalash va rag‘batlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘quvchilar orasidan suxandonlikka qiziquvchilarni saralab olib, ular bilan maktab radioeshittirish tadbirlarini rivojlantirib borish muhimdir.

Shu bilan birga, o‘quvchi-yoshlarni kutubxonalar, muzeylar va hududdagi diqqatga sazovor joylar va ziyoratgohlarga ekskursiyalarini tashkil etish, teatrlarga olib borish zarur. Shu kabi maktabga hududdagi teatr truppalarini taklif qilish, maktab ijodkor o‘quvchilari orasidan kichik teatr truppalarini tashkil etish, ular bilan darslardan bo‘sh vaqtlarda spektakllar tayyorlab, haftada bir marta bo‘lsa ham bolalar hayotiga oid, ezgulik va omonlik, tinchlik va insonparvarlik kabi turli mavzularda tadbirlar o‘tkazish maktab ma’naviy hayotini yuksaltirishda dolzarb ahamiyatga egadir.

Maktab ma’naviy hayotida o‘tkazilgan har bir tadbirni keng jamoatchilikka, ota-onalarga yetkazish maqsadida maktablarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini ishga tushirish va rivojlantirib borish, shu bilan birga bu imkoniyatdan unumli foydalanib iqtidorli, ijodkor, namunali o‘quvchilar, faol ota-onalar, ularning ibratli hayotiy faoliyatini yoritib borilishi maktab ma’naviy hayotini yanada sog‘lomlashtirishda katta rol o‘ynaydi, deb o‘ylaymiz.

Maktablar ma’naviy qiyofasini yuksaltirishda hamkor tashkilotlar bilan olib boriladigan tashkiliy-ma’rifiy ishlar samaradorligiga ham katta e’tibor berishimiz kerak. Mahallalar, yoshlar ishlari bo‘yicha agentlik bo‘limlari, milliy gvardiya va ichki ishlar organlari, xotin-qizlar qo‘mitasi mas’ullari, tibbiyot birlashmalari, ota-onalar va boshqa tashkilotlar vakillarini maktab ta’lim-tarbiya ishiga keng jalb qilish, o‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalashda

bu tashkilotlar imkoniyatlaridan keng foydalanish choralarini izlashimiz kerak.

Shuningdek, tizimlilik, fikr, so‘z va amal birligi, shaxsiy o‘rnak ko‘rsatish tamoyili asosida tarbiyaviy jarayon kontseptual asosda, yaxlit tizim va aniq chora-tadbirlar ko‘lamida, barcha bosqich va yo‘nalishlarda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bo‘lsagina ko‘zlagan natijaga erishish mumkin [1].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ma’naviy sohadagi tarbiyaviy ishlar mazmuni o‘quvchining yoshi, ruhiy-pedagogik xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. Shu bilan birga oila muhiti, mahalliy ijtimoiy muhit, albatta, diqqat e’tiborda bo‘lishi talab etiladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayoni uzluksiz, izchil va sobitlik bilan olib borilsagina, o‘quvchi yoshlar qalbi va ongiga yetib bora olamiz.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Bo‘stonov A. Globallashuv jarayonlari sharoitida yoshlar tarbiyasining dolzarb masalalari// Ta’limdagi islohotlar strategiyasida sog‘lom bola masalasi. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. – Qarshi: Nasaf, 2014. – B. 216.*

*2.https://uzreport.news/politics/prezident-maktab-ta-limidagi-islohotlarning-borishini-muhokama-qildi*

## MUSIQA MADANIYATINING O‘QUVCHILAR MA’NAVIYATI RIVOJLANISHIDA TUTGAN O‘RNI

**Rustam ABDULLAYEV,**
*Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim metodikasi kafedrasi mudiri*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada musiqa madaniyatining o‘quvchilar ma’naviyati rivojlanishida tutgan o‘rni, musiqaning tarbiyaviylik xususiyati, musiqaning yosh avlodni ma’naviy-madaniy ruhda tarbiyalash haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Musiqa tinglash, musiqaning tarbiyaviylik xususiyati, mahorat, qo‘shiq.*

Bugungi kunda jamiyatda aqlan yetuk, jismonan baquvvat, ruhan boy avlodga ta’lim-tarbiya berish, mustaqil davlatimiz oldidagi eng muhim va

dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, bolalardagi ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir. Musiqa tinglash badiiy ta'limning muhim vositalaridan biri bo'lib, u darsning barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Tinglash bolalarda hayotni, borliqni anglash va bilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunda musiqa tili, ifoda vositalari, janr va shakllarini o'rganish muhimdir. U musiqani badiiy-g'oyaviy jihatdan to'g'ri idrok etib, estetik zavqlanishga imkon beradi. Tinglash qoidalari sinfda jimlikni ta'minlab, o'quvchilarni musiqani diqqat-e'tibor bilan eshitishga o'rgatib, onglilik va faollikni rivojlantiradi hamda musiqa madaniyatini shakllantiradi.

Darslar davomida har bir musiqiy asarda muayyan voqelik, his-tuyg'u va mazmun bo'lishi haqida o'quvchilarga dunyoqarashiga mos tarzda tushuntiriladi. Shu orqali bolalarda musiqiy taassurot va tinglash ko'nikmasi shakllanadi. Tinglash faoliyatini butun dars davomida olib borish o'quvchining asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy mazmuni haqida muayyan bilimlarga ega bo'lishiga yordam beradi, tinglash madaniyatini shakllantiradi. O'quvchilarning faolligini oshirish va tinglash malakasini shakllantirish uchun topshiriqlar va savollar beriladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarni diqqatni tezkor jamlashga o'rgatib, xotirasini mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda o'zbek an'anaviy musiqasiga e'tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ham sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Qadimiy milliy musiqamizdagi boy badiiy-tasviriy vositalar bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati yana ham yuksak darajaga ko'tarildi. Shu boisdan respublika miqyosida ko'plab ko'rik-tanlovlar tashkil qilinmoqda. Turfa mahalliy an'analar va xilma-xil ko'rinishlarni o'z ichiga olgan o'zbek musiqa merosi shu kunga qadar ikki asosiy qatlamda yetib kelgan bo'lib, biri "xalq musiqasi" yoki "musiqiy folklor", yana biri esa "mumtoz-kasbiy" yoki "ustozona" musiqa deb yuritiladi. Ularning har qaysisi ko'p va xo'p badiiy barkamol aytim hamda cholg'u namunalaridan iborat. Ayni vaqtda qadimiy va boy musiqiy merosimiz yangi davrlarda qaror topgan bastakorlik an'analarini ham o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda avvalo benazir musiqiy folklorning serjilo va rang-barang turlari namoyon bo'ladi.

Respublikamizning istiqlolga erishishi munosabati bilan azaliy xalqchil qadriyatlari tiklandi, shu jumladan badiiy-musiqiy merosimizni atroflicha o'rganish va undan bahramand bo'lish uchun yetarlicha imkoniyatlar vujudga keldi. Endilikda eski mafkura tobeligi ostida e'tiborsizlik oqibatida anchayin susayib qolgan, ayrim hollarda esa unutilayozgan o'ziga xos milliy

musiqiy qadriyatlarimiz qaddini rostlamoqda. Turfa mahalliy an'analar, badiiy barkamol aytim hamda cholg'u kuylaridan iborat xalq musiqa ijodiyoti durdonalari nufuzli xalq tantanalari va muhim sanalarga bag'ishlangan bayramlarda tarannum etilmoqda. Milliy va ma'naviy merosimiz asrlar mobaynida xalqimizning bebaho xazinasi sifatida ko'nglimizni nurafshon etadi, bizni hayotning g'am-anduhlaridan yiroq etib, go'zal va yoqimli xatti-harakatlarga chorlaydi. Mumtoz kuylar, milliy musiqiy durdonalar insonni ruhiy kamolotga, go'zal tuyg'ularni qalban his etishga, ma'naviy barkamol bo'lishga o'rgatadi. Ta'kidlash joizki, yosh avlodni har jihatdan kamol toptirish uchun ularda estetik tarbiyani yuksaltirish, milliy va jahon musiqa durdonalaridan bahramand etish maqsadida Davlatimiz tomonidan samarali ishlar olib borilmoqda. Musiqaning tarbiyaviylik xususiyatiga odatda ikki xil yondashiladi. Birinchidan, musiqa harakatlantiruvchi va poklovchi ma'naviy hodisa. Ikkinchidan, musiqa – ko'ngilochar va ermakka asoslangan manfaatdorlik manbai. Har ikkala yondashuvda ham musiqaning tarbiya jarayonlaridagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Chunki, masalaga tabiatan yondashadigan bo'lsak, har qanday musiqa ma'naviy hodisaga aylanmagani kabi barcha musiqalar ham oddiygina manfaatdorlik manbai bo'lavermaydi. Chinakam musiqa madaniyat va ma'naviyat mulki sifatida tarbiya jarayonlariga yanada yaqinlashadi. Musiqaning tarbiyaviylik xususiyati uni tinglash,his etish, munosabat bildirish kabi estetik madaniyat tizimi orqali izohlanadi.

Bugungi kun musiqasi dunyodagi sodir bo'layotgan hamma jarayonlarning aksi, insonning va insoniyatning turli tashqi ta'sirlardan, ba'zan o'z-o'zidan ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy va jismoniy taraflardan ozod bo'lishda yagona yo'li hamda inson madaniyatining tadrijiy rivojini beruvchi imkoniyatidir. Yoshlarga musiqa sirlarini, mazmunmohiyatini teran o'rgatib borish ularning yetuk san'at darg'alari bo'lib har tomonlama uyg'un kamol topishlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Kuy-qo'shiqqa mehr-muhabbat bolalikdan boshlanishi lozim. Musiqa va san'atning hayotbaxsh ta'siri yoshlar hayotida o'zgacha o'rin tutadi. Bola darsdan bo'sh vaqtida o'zi xohlagan musiqa turi bilan shug'ullanishi natijasida kelgusi kasbi uchun zamin tayyorlaydi, qalbida odamiylik, ezgulik kabi olijanob fazilatlar bo'y ko'rsatadi. Musiqani nafaqat maxsus o'quv maskanlari, musiqa maktablari va to'garak mashg'ulotlarida, balki oilada ham o'rganish uchun yaxshi muhit yaratish lozim.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

*1. Ahmedova Z. Milliy musiqa madaniyati va uning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni. Toshkent. O'zMU. 2005.*

*2. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. – Toshkent. Fan. 1999-yil.*

# ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Цой Марина ПЕТРОВНА**
*доцент кафедры "Социальные и экономические дисциплины"*
*Джизакского филиала Национального университета*
*Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

***Аннотация.*** В статье рассматриваются задачи, стоящие перед государством и системой образования по внедрению концепции непрерывного духовного образования, воспитание и укрепление национальных и человеческих ценностей у подрастающего поколения Узбекистана.

***Ключевые слова*:** духовное образование, концепция, духовно-просветительская работа, воспитание, образование, дошкольное образование, послевузовское образование.

В настоящее время страна реализует масштабные инициативы в рамках Государственной программы "Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения" [1], обеспечивающие совершенствование государства, основанного на знаниях, значимость эффективности образования, его непрерывности трудно переоценить. В республике признаны приоритетом человеческий капитал, а факторами роста и развития – конкуренция, экономическая свобода и высокое качество жизни.

В Узбекистане, как в демократической стране светского типа, образованию отводится ключевая роль в духовно-нравственной консолидации общества, его сплочении перед лицом внешних и внутренних вызовов, в укреплении социальной солидарности, в повышении уровня доверия человека к жизни, к согражданам, обществу, государству, настоящему и будущему своей страны

Система образования в соответствии с Законом Республики Узбекистан "Об образовании" [2] состоит из дошкольного, общего, среднего специального, высшего, послевузовского образования, повышения квалификации и переподготовки кадров, внешкольного образования.

Настоящий Закон вступил в силу с 23.09.2020 года, при этом утратили силу Законы от 29 августа 1997 г. "Об образовании" и "О национальной программе по подготовке кадров".

С 3 января 2020 в республике вступила в силу "Концепция непрерывного духовного образования" [3]. Целью Концепции является постепенное формирование у подрастающего поколения социальных качеств и качеств, необходимых для независимой и счастливой жизни. Принятие концепции предусматривалось Программой совершен-

ствования духовно-просветительской работы, развития интеллектуального потенциала и мировоззрения, укрепления идеологического иммунитета населения. Одно из приоритетных направлений концепции – это повышение знаний населения о воспитании детей, педагогической культуре, регулярное ознакомление граждан с эффективными методами и формами реализации непрерывного духовного образования. Духовная безопасность стала сегодня самостоятельной сферой общественной жизни, связана с процессами глобализации, связана со всей структурой общественных отношений.

Первые теоретические разработки по проблемам непрерывного образования появились в XX веке в трудах английских исследователей. Именно они назвали постоянный характер развития науки и производства причиной создания непрерывного и альтернативного образования. Впервые концепцию непрерывного образования представили на форуме ЮНЕСКО в 1965-м, когда была озвучена идея о том, что в центре всех образовательных начал находится человек, для полного развития способностей которого необходимо создавать соответствующие условия на протяжении всей жизни.

Непрерывное образование актуально. С течением времени непрерывное образование стало рассматриваться как самостоятельная (иногда даже главенствующая) форма. Ведь оно объединяет и тесно связывает детское и взрослое обучение в единый, постоянно действующий процесс, который позволяет не ограничиваться определенным количеством лет, установленным системой образования в той или иной стране.

Рассматривая понятие “непрерывное образование”, следует определить его как целостный процесс, обеспечивающий развитие творческого потенциала личности и всестороннее обогащение ее духовного мира. Очевидно, что без коренных изменений системы непрерывного образования, без придания ей должных качества и эффективности, гибкости и динамичности, соответствия ее рынку труда невозможно обеспечить инновационное развитие и конкурентоспособность Узбекистана. И создание такой системы – исторический шаг для нашей страны, вступившей в эпоху Третьего Ренессанса.

Человек, окончивший высшее учебное заведение и выбравший в качестве профессии преподавание, часто останавливается на данном этапе, ограничиваясь знаниями, полученными в вузе. Это приводит к тому, что уже через пару лет информация, которой он оперирует, возможно, устареет.

И поэтому постоянное получение новых сведений и их изучение, работа над собой предотвращают данный процесс. Это также отражено и в Указе Президента “О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования” от

6 сентября 2019 года. В соответствии с данным документом постановлением Кабинета Министров утверждено вышеупомянутое Положение, которое устанавливает порядок повышения квалификации на основе принципа "Образование в течение всей жизни".

При этом отмечается, что роль высококвалифицированных специалистов в инновационной экономике велика и будет только расти, поэтому постоянное развитие профессиональных и социально-личностных компетентностей кадров, способных эффективно руководить инновационными процессами, разрабатывать и внедрять инновационные проекты, является приоритетной целью. Основным аргументом в пользу "Образования в течение всей жизни" остается то, что оно позволит обществу осуществлять более качественную подготовку и переподготовку специалистов.

Стратегия непрерывного образования направлена на воспитание гармонично развитого поколения, обладающего современными знаниями, имеющего активную гражданскую позицию, способного мыслить самостоятельно и принимать осознанные решения.

Система непрерывного образования Узбекистана разработана на основе глубокого и масштабного изучения зарубежного опыта и критического анализа существующей системы образования с учетом национальной особенности развития. Функционирование системы непрерывного образования обеспечивается на основе государственных образовательных стандартов, преемственности образовательных программ дошкольного, начального, среднего, среднего специального профессионального образования, высшего и послевузовского образования, а также повышения квалификации и переподготовки кадров.

**Источники:**

*1. Указ Президента РУз № УП-6155 от 3 февраля 2021 г. "О государственной программе по реализации стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития республики Узбекистан в 2017 – 2021 годах в "год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения".*

*2. Закон Республики Узбекистан "Об образовании" № ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 года.*

*3. Концепция развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года (Приложение N 1 к Постановлению Президента РУз от 08.05.2019 г. N ПП-4312).*

*4. Цой М.М. Разногорская М.Я. ПОДГОТОВКА ПЕДАГОГОВ-ПСИХОЛОГОВ И ИХ КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ / Международный научный электронный журнал "Образование наука и инновационные идеи в мире", Выпуск журнала № – 22 Часть–2_ Июнь –2023, с.97-101.*

# TA’LIM VA TARBIYADA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA DOIR MASALALAR

**Baxtiyor TOLIPOV**,
*falsafa fanlari nomzodi,*
*Andijon iqtisodiyot va qurlish instituti*
*Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy*
*ishlar bo‘yicha prorektori*

***Annotatsiya.*** *Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar va bunyodkorlik ishlari, yoshlarimizdan o‘z ustida ishlash, tashabbuskor bo‘lish, kabi xususiyat va fazilatlarni takomillashtirishda jamiyatning faol a’zosi bo‘lishi, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda ta’lim va tarbiyada ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga doir masalalar ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *Yangi O‘zbekiston, oliy ta’lim, maktabgacha ta’lim, ta’lim, tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy ishlar.*

Hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, jahon svilizatsiyasi taraqqiyoti, mamlakatimiz Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar va bunyodkorlik ishlari, yoshlarimizdan o‘z ustida ishlash, tashabbuskor va tadbirkor bo‘lish, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini mukammal bilish kabi xususiyat va fazilatlarni takomillashtirishni, bu esa o‘z navbatida yoshlardan jamiyatning faol a’zosi bo‘lishini, matonat bilan o‘z ustida yanada izchil izlanishlarini, o‘z iqtidor va qobiliyatlarini namoyon qilish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishni, motivator va kreativ bo‘lishni, dunyoqarashi teran va mustaqil fikrlovchi yoshlar, shaxslar bo‘lib voyaga yetishini, shukronalik bilan yashashni, fidokorona faoliyat olib borishni, ibrat ko‘rsatishni taqozo etmoqda.

Shuningdek, o‘z navbatida tezkor axborot almashinuvining ortida ijobiy va salbiy ma’nodagi ma’lumotlarning yoshlar ongiga ta’sir etayotgani, qiziquvchan, ishonuvchan va ta’sirchan yosh avlodning dunyoqarashini o‘zgarishida muhim omil sifatida o‘rin tutayotgani, yoshlar qiziqishlarining chegara bilmasligi ta’lim va tarbiya bilan shug‘ullanuvchi mas’ullar, ya’ni ota-onalar, mahalla tizimidagi mutasaddilar hamda ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan ustoz-murabbiylar zimmasiga katta mas’uliyat va vazifalar yuklamoqda, ularni yanada hushyorlikka, izlanuvchanlikka o‘z bilimlarini takomillashtirib borishga, yoshlar bilan yaqindan izchil ishlashga chaqirmoqda. Prezidentimiz tomonidan yoshlar tashabbus va takliflarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud muammmolarni bartaraf etish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan belgilab bergan vazifalar ijrosi yuzasidan bir qator dolzarb masalalarda amaliy ishlar olib borilishini davr taqozo



ZJV5401

etmoqda. Jumladan, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda mavjud muammolarni bartaraf etishda eng maqbul echimlarni amaliyotga tadbiq etish zarurati tug‘ilmoqda. Chunki, har bir yosh avlodning o‘zini anglashida alohida e’tibor qaratilib, yoshlar uchun ulkan imkoniyat va imtiyozlar yaratilayotgan mamlakatimizda etuk kadrlar, vatanga sadoqatli, o‘zida barkamollik komponentlari, ya’ni jismoniy, axloqiy, estetik, inetellektual madaniyati hamda axborot madaniyatini mujassam qilgan yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Shunday ekan:

1. Insonning yoshlikdan o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi turli yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasligida va kelgusida etuk inson bo‘lib etishishida muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda davlat va xususiy maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga o‘z oldilariga aniq maqsad qo‘yish bo‘yicha mutaxassis pedagoglar tomonidan mahorat darslarini tashkil etilishini tizimli yo‘lga qo‘yish.

2. Bolalar o‘z uyida onalar bilan ko‘proq muloqot qilishini, bola tarbiyasida onalar bilim doirasi va dunyoqarashi muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, maktab va oliy ta’lim mussasalari axborot resurs markazlari, kutubxonalari qoshida hududdagi mahallada yashovchi onalar uchun kitob mutolaa qilish uchun imkoniyatlar yaratish, hamkorlik qilish.

3. Maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan motivator mutaxassislar uchrashuvlari, davra suhbatlarini tizimli tashkil etish. Past o‘zlashtiruvchi va loqayd o‘quvchilarni faollashtirish yuzasidan amaliy ishlarni olib borish, jumladan oliy ta’lim muassalarida tahsil olayotgan, yutuqlarga erishayotgan yoshlar va turli soxalarda yutuqlarga erishayotgan yoshlarning o‘quvchi yoshlarga taklif va tavsiyalarini etkazish yuzasidan uchrashuvlarini tashkil etish.

4. Oliy ta’lim muassasalarida talaba yoshlarni kashf etish va qo‘llab-quvvatlash, qiziqishlarini izchil o‘rganish yuzasidan:

– ular o‘rtasida so‘rovnomalarni muntazam, tizimli tashkil etish, yutuqlarga erishayotgan yoshlarni rag‘batlantirish va yutuqlarini keng targ‘ib etish maqsadida ularning faoliyati to‘g‘risida to‘plamlar nashr etish;

– ular to‘g‘risida tayyorlangan ssenariylar asosida hujjatli filmlarni yaratish va bunday filmlarni ko‘paytirish, filmlarni mahallalarda namoyish etish;

– yutuqlarga erishayotgan yoshlarning bir nechtalarining taqdimotlarini mujassam qilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbir, uchrashuvlarni tashkil etish va mazkur tadbirlarga kelgusida yoshlarga homiylik qilishi, ish bilan ta’minlashi mumkin bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar, korxona va tashkilotlar vakillarini jalb etish;

– bevosita oliy ta’lim muassasasi rahbar xodimlari, murabbiylar, tyutorlar tomonidan yoshlarning avtoritet, ya’ni eng yaqin insonlari va talaba-

ga ish beruvchilar bilan izchil aloqa o‘rnatilib, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirish zarur va maqsadga muvofiqdir.

Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, millatimiz, mamlakatimizning oltin fondi bo‘lgan yoshlarimiz yaratilayotgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yib, o‘qib, izlanib, Ona Yurtimiz shon-shuhratini oshirishga xizmat qiladigan, ma’nan etuk, dunyoqarashi teran, o‘z hunar va soxasining etuk mutaxassislari bo‘lib etishishlari yo‘lida, yuksak natija va marralarni egallashlarida amaliy yordam berish ta’lim va tarbiya soxasiga mas’ul mutasaddilarning burch va vazifasidir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori.*

*3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5938-son farmoni.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni*

*4. Fayziyeva M. Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –Toshkent, 2007.*

*5. Samadova S. Ma’naviy – ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2020-yil.*

## YANA MA’RIFAT XUSUSIDA...

**Toji NOROV,**
*TDIU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”*
*kafedrasi dosenti. Falsafa fanlari doktori*

***Annotasiya:*** *Ushbu maqola ma’rifat mavzusiga bag‘ishlangan. Maqolada, ma’rifat so‘zining kelib chiqishi, uning dunyoviy va diniy manbalardagi mazmuni tahlili, ayrim mutafakkirlar ijodida istilohning diniy va dunyoviy mazmuni izohi, inson va jamiyat hayotidagi mazmuni, hozirgi kunda ma’rifatning muhim o‘rni, ma’naviy-ma’rifiy fazilatlarni kamoloti muammolari, O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy masalalar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek, muammoni yechimi bo‘yicha muallifning nuqtai-nazari va xulosalari, tavsiyalari qalamga olingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ma’rifat, maorif, orif, oriflik, ma’rifatning dunyoviy talqini, ma’rifatning tasavvufiy talqini, jaholat, inson, jamiyat, ma’naviy fazilat.*

Inson – Alloh yaratgan boshqa jonli maxluqotlardan mukarramligi va sharifligi bilan farq qiladi. Uning boshqa jonzotlardan farqli xususiyati til va tafakkuridir. Odamlar idrok qiladi, mushohada yuritadi, hissiyot va tajribalarini til vositasida boshqalarga yetkazadi va mukammalashtiradi. Shuning uchun inson doimo o‘z tafakkurini, hayot tarzini ta’lim va tarbiya vositasida sifat jihatdan yuksaltirib borishi zarur. Ta’lim va tarbiya inson hayot faoliyatining uzviy va zaruriy qismidir. Ta’limning yana bir ma’nodosh shakli bu ma’rifat so‘zi va tushunchasidir. Inson ma’naviyatini belgilovchi manba bu ta’limdir.

Ma’rifat – shaxs va jamiyat ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya tizimidir. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma’rifat ilmu-irfon ma’nosida ham ishlatiladi. Ma’rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. Ma’rifat ma’naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga ma’naviy, ruhiy kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan xolos qiladi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi, bilim, tajriba, xulq va odob egasi bo‘lishida asos bo‘ladi. Ma’rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo‘ladi. Ma’rifat – bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma’rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orkali amalga oshiriladi[1].

Tariximizda “ma’rifat” so‘zinining ziddi “jaholat”, “ma’rifatlilik” so‘zining ziddi esa “johillik”dir. Johil yoki jahl so‘zining ma’nosi – ko‘rlik, ojizlikdir.

Ma’rifat – insoniyatni taqdirini belgilovchi muhim omil. Agar jamiyat ma’rifatli bo‘lsa, bu jamiyatning istiqboli, kelajagi yorug‘ligini anglatadi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari

vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida: ***"Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi"***[2], degan edi. Vaholanki, dunyoning boshqa xalqlari yer va koinot sir-asrorlarini o'rganayotgan paytda biz ulardan ortda qolishimiz mumkin emas. Aksincha koinot ilmlariga ilk narvon qo'ygan ulug' allomalarning avlodi sifatida biz ilmu-ma'rifatda ilg'orlar safida bo'lishimiz kerak.

Ta'lim(bu istiloh negizida – ilm so'zi turipti), maorif va ma'rifat so'zlari deyarli bir ma'noni anglatadi. Ma'rifat so'zi bizning tilimizga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, uning o'zagini, "orif", "oriflik" tashkil etadi. Maorif so'zi ham oriflikni anglatadi. Lekin, oriflik so'zining ma'nosi ancha teran. Diniy manbalarda uning o'zagi oriflik deganda Olohni tanish ma'nosida, muqaddas dinimizdagi manbalarda yuksak ilm va ma'rifatning asosiy darajasi sifatida Haqni tanish, Ollohni bilish ma'nosida talqin qilinadi. Lekin, maorif so'zi keyinchalik faqat din va ilohiy talqinda emas, balki, dunyoviy ilmlarni egallash tarzida ham qo'llana boshlagan. Biz ma'naviyatimizning asosiy manbalaridan bo'lgan diniy ma'rifatning ilohiy qudratini unutmasligimiz zarur.

Shuningdek, "ma'rifat" so'zi arabcha "orif", ko'pligi "maorif" so'zidan olingan bo'lib, lug'atda "bilish", "tanish" kabi ma'nolarda ham istifoda etiladi.

Tasavvuf ta'limotida ***"ma'rifat"*** tushunchasi, asosan ikki qismga bo'linadi. Ular ayni paytda birlashib, "ma'rifat" tushunchasini hosil qiladi:

1. Ma'rifatun-nafs,
2. Ma'rifatulloh

Qachonki, "ma'rifatun-nafs" hosil bo'lsa, "ma'rifatulloh" hosil bo'ladi. Ma'rifatullohni anglagan zotlar esa Ollohni tanigan hisoblanadilar[3].

Islom olamida mashhur shayx, Markaziy Osiyo, turkiy xalqlarning haqiqiy piri deb e'tirof etilgan alloma – Xoja Ahmad Yassaviy ta'kidlaganidek:

*Ey do'stlarim, **oriflar** xolis suhbat etorlar,*
*Ul suhbatda **ma'rifat** durlarini sochorlar.*
*Yana:*
*Pirni lutfi Haqni lutfi tariqatda,*
*Haq in'omi pirga yetar haqiqatda.*
*Hodiy bo'lub yo'lg'a solg'on **ma'rifatda**,*
*Eshitib, uqub, xizmat qiling, do'stlarimo[4].*

Ulug‘ mutafakkir, mumtoz o‘zbek tili va adabiyotining asoschisi, Amir Alisher Nizomiddin Navoiy olamni, borliqni anglash muammosida va xususan, dinda ma’rifat ustuvor bo‘lishi tarafdori bo‘lgani holda, davr mafkurasi bo‘lgan toat-ibodatni haddidan oshib ketganida ma’rifatga o‘rin qolmaganligini ***“Nazm ul-javohir”***da kinoyali tarzda shunday ifodalaydi:

*Gar ma’rifat o‘lsa chorasozi yaxshi,*
*Toat ko‘pidan ma’rifat ozi yaxshi*[5]

Mazmuni: “agar, har bir masalaga ma’rifat bilan yondashilsa uni chorasi topiladi, lekin, ilmu-ma’rifat muammolarni yechimida yetarli bo‘lmasa yoki ma’rifiy yondashuvlar ixtilof keltirib chiqarsa, bunday holda ma’rifatdan itoat yaxshiroq” deganidir[4]. Bu hol Navoiyning o‘z davrida olamga, borliqqa falsafiy munosabatdagi jaholatga munosib va murosasiz javobi sifatida qarashi deyish mumkin. Vaholanki, mutafakkir asarlarining deyarli hammasida ana shu kabi kayfiyat va qarash ustuvor ekanligini aytish joiz.

Ma’rifat Navoiy talqinida ko‘p hollarda: ilm, bilim, fahm, idrok ma’nolarida ifodalangan[6]

“Lisonut-tayr”ning ***“ma’rifat vodiysi zikrida”*** bobida:

*Ixtilofi* ***juzv ila kul*** *mundadur*
*Kim taraqqiyu tanazzul mundadur.*
*Yuz tuman rahrav ko‘rarsen beqaror,*
*Har biri bir yo‘lni aylab ixtiyor[7]*, deyilgan.

Bu baytlarning mazmuni shunday: olamni ma’rifat yo‘li bilan anglash murakkab va ixtilofli jarayon. Bu masalada ixtiloflarning eng juz’iy darajadan eng murakkab va ulkan darajalarini ko‘rish mumkin.

Hazrat Alisher Navoiyning deyarli butun ijodida ma’rifatli jamiyat, ma’rifatli hukmdor, ma’rifatli jamoa masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Navoiy ta’limotiga ko‘ra, adolatli, farovon jamiyatga yuksak ma’naviyatli shaxslar, xususan, ma’rifatli hukmdor boshchiligida erishiladi. Lekin, ma’naviyatga ma’rifat orqali  erishiladi, deydi. Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr” dostonida ham ***“ma’rifat vodiysi tasviri”*** ifoda etilgan. Unda “Alloh haqida bilimni – ma’rifat hosil qiladi. Ollohning husn va ma’no jihatdan mislsiz vujud ekanligini bilgach, u o‘zining oliy tilagiga yetib, qanoat hosil qiladi” deyiladi. Mutafakkir nazdida, har bir inson o‘z hayoti davomida haqiqatni izlaydi, haqiqatni talab qiladi, unga esa ma’rifat yo‘li orqali boriladi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida hukmdorlar va davlat xizmatidagi kishilarga pandnoma sifatida har bir qilinadigan amal ayniqsa davlat va jamiyat hayoti bilan bog‘liq muhim tadbirlar “Avval ilm tarozusida aniq o‘lchanishi kerak” deb saboq beradi.

Ma’rifat va ma’rifatlilik masalasi hamma davrlarda muhim masala sifatida e’tirof etilgan. Ma’naviyat va ma’rifat bo‘shashgan joyda va davrda uni o‘rnini jaholat egallagan.

Yurtimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab, boshqa barcha ijtimoiy masalalar kabi, ma’rifat masalasi ham asosiy kun tartibidagi muammo sifatida belgilab olindi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda.

Shu o‘tgan 30 yildan ziyod vaqt davomida bir qator qonunlar, qonunosti hujjatlari, konseptual dasturlar qabul qilindi. Albatta bunday muhim masalada rasmiy munosabat bo‘lishi kerak va zarur.

Bunday rasmiy hujjatlar rasmiy munosabatlarga keyingi yillarda qabul qilingan qonunosti hujjatlari, Prezident farmonlari, qarorlari, har yili xalqimizga yo‘llayotgan murojaatnomalarida, davlat va nodavlat, hukumat darajasida va nohukumat tizmlarda tashkil etilgan muassalar misol bo‘ladi. Xususan,

2017-yil 28-iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” Qarori,

2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ 4307-sonli Qarori,

2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 5040-son Qarori,

2021-yil 19-yanvarda Prezidentning ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish masalalari bo‘yicha o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishi,

Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror,

Milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida “Ijod” jamoat fondi negizida Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash fondi tashkil etilishi shular jumlasidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMTning yuksak minbaridan turib aytgan quyidagi so‘zlari ham tasdiqlaydi: *Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. “Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O‘zbekiston globallashuv va axborot-kommunikasiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi”* [8].

O‘zbekiston Prezidenti, BMT Bosh Assambleyasiga uning “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qildi. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat. Ushbu rezolyusiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan[9].

Ma’rifatdek muhim va belgilovchi ahamiyatga ega bo‘lgan masala davlatimizning doimiy diqqat markazida turishi muhim. Shunday tadbirlar dasturi sifatida 2017-yil 28-iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” Qarorini aytish mumkin[10].

Avvalo ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotni yagona markazlashgan tarzda olib borish maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini birlashtirish yo‘li bilan ularning negizida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazini tashkil etish belgilab qo‘yildi. Markaz tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar sifatida quyidagilar belgilandi:

– dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish;

– jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- milliy g‘oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o‘rtasida keng targ‘ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg‘ularini kuchaytirish;

- targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

– ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta’minlashga qaratilgan sosiologik tadqiqotlar o‘tkazishni muntazam yo‘lga qo‘yish;

– yoshlarda sog‘lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish,internet, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

– mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash,ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

– xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an’analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish va hokazolar.

Lekin, amaliy holat doim tashvishga solib keladi. Negadir ma’naviyat va ma’rifat xususida qanchalik rasmiy, nazariy va amaliy chora tadbirga qaramasdan jamiyatda umumiy ma’noda ma’naviy yuksalish o‘rnida ma’naviyatlilik o‘rniga ma’naviyatsizlik illatlari ildiz otishini jilovlab bo‘lmas darajasiga qarab ketayotganini afsus, shu bilan birga tashvishlanib aytishga to‘g‘ri kelayapti. Bu hol esa ma’rifatni ancha sustlashganidan dalolat beradi. Bu holatni bartaraf etish va ma’naviy-ma’rifiy fazilatlarni yuksaltirish uchun nazarimizda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish uchun quyidagilarni taklif qildik:

– Ma’rifat, ma’naviyat masalasi shunchaki nazariya yoki so‘z bo‘lib eng oxirgi o‘rinda muhokama qilinadigan yoki o‘gay soha masalasi bo‘lib qolishi kerak emas;

– Ma’naviyat ma’rifat zaminida shakllanadi va kamol topadi. Shuning uchun jamiyatda ma’rifat ustivor bo‘lishini ta’minlash muhim vazifa bo‘lishi kerak;

– Ta’lim va tarbiya parallel tarzda olib borilishi kerak;

– Ta’lim tiziming hamma bo‘g‘in va darajalarida ma’naviyatning asosini tashkil qiluvchi ijtimoiy fanlar (adabiyot, tarix, falsafa, ma’naviyat asoslari, dinshunoslik, jamiyatshunoslik, sosiologiya, siyosatshunoslik, aholishunoslik kabi), badiiy adabiyot, diniy bilimlarni ta’lim tizimiga majburiy o‘rgatiladigan fanlar sirasiga kiritish shart;

– Ta’lim tizimidan ***“tanlov fan”*** degan uyinlarni yo‘q qilish zarur;

– yuksak ma’naviyat, yuksak ma’rifat haqida faqat balandparvoz gaplar emas, uning ma’rifiy mazmunini jamiyat, xususan, yosh avlod ongiga mazmunini izchil singdirish lozim;

– milliy ma’rifatni belgilovchi omili bu milliy tildir. Millat va uning bolalariga boshqa tillarni zo‘rma-zo‘raki o‘rgatish va uni bilim deb da’vo qilish xavfli amaliyot. Til aloqa vositasi. Lekin, til orqali boshqa millatlar madaniyati, turmush tarziga o‘zgarishlar kirib keladi. Bunday o‘zgarishlar ko‘p hollarda millatni boshqa millatga singib ketishi, avval ularni millat sifatida tili va oqibat o‘zi yo‘qolib ketishi bilan yakun topganiga misollar ko‘p. Natijada, hozirgi kunga kelib, ***“tirik tillardan” “o‘lik tillar”***ni ko‘pligi aytish yetarli;

– ma’rifat va ma’rifat targ‘ibotiga mas’ul kishilarni o‘zlari faqat uzundan-uzoq ma’ruzalar, zerikarli va xo‘jako‘rsinga o‘tkaziladigan tadbirlar bilan emas, shaxsiy namuna bilan ta’sir ko‘rsatish kerak;

– Madaniy-ma’rifiy tadbirlar ta’limga ajratilgan vaqt hisobidan o‘tkazish tendesiyalariga barham berish kerak;

– ma’naviy va ma’rifiy asarlarini faqat nomlarini yodlash an’anasidan voz kechib ularni ichki mazmuni targ‘ib qilishni yo‘lga qo‘yish kerak;

– ma’rifat bu ta’lim, ta’lim tizimini mazmunan tubdan yaxshilash zarur;

– global axborot tizimi vositasida milliy ma’rifat, ma’naviyat, san’at targ‘ibotini targ‘ib qilish;

– yot g‘oya, yot maishiy turmush tarzi targ‘ibotiga qarshi jiddiy kurash tizimini yaratish;

– siyosiy, madaniy, ilmiy doiralarda ta’kidlab kelinayotganidek, hozirgi davrda bir davlat boshqasini mavh etish uchun harbiy operasiyalar, urushlar qilish yo‘li bilan emas, maxfiy mafkuraviy yo‘l bilan amalga oshirish ehtimoliy xavfi yuqori. Shuning uchun milliy mafkurani singdirishning hamma vosita va usullaridan unumli foydalanish zarur. Zero, buning uchun mukammal milliy mafkurani yaratish kerak;

– mafkura kerakmi, kerak emasmi degan shubhalarni chetga surish kerak. Mafkura kerak va u xalqni qanday marralarga olib borishni mayoqi, yo‘lchi yulduzi bo‘lishi kerak;

– xalqni har xil dabdabali to‘ylar, serxarajat soxta tadbir, ortiqcha chiranishlar, soxta maqtanchog‘lik kabi illatlardan xolos qilishni aniq siyosiy-huquqiy, badiiy-estetik vosita va usullarini ishlab chiqib, qat’iy amalga oshirish zarur. Negaki, shunday ***“an’nalarimiz”*** borki, ular xalqimizga faqat ortiqcha g‘am-tashvish, kulfat, baxtsizlik, oqibat fojia keltiradi. Bularga ham dunyoviy ham e’tiqod bilan bog‘liq an’ana, urf-odat, to‘yu-marosimlarni aytish mumkin. Aynan shu illatlar boshqa bir qator illatlarni paydo bo‘lishiga olib keladi.

Nazarimizda shu vazifalar va boshqa shunga bog‘liq muammolarni hal qilsa ijobiy o‘zgarishlar bo‘ladi. Faqat ularni hammasi ma’rifatga asoslanishi kerak. Boshqacha aytganda, ulug‘ Navoiy ta’biri bilan aytganda: ***“har bir tadbir avval ilm tarozusida o‘lchanishi lozim”***.

Ko‘p hollarda bo‘lgani kabi, noaniq, tusmol-tavakkal qilingan har qanday ish yana bir undan yomonroq illatni keltirib chiqaradi. Bizni sharoitda bu holat xorij tajribasi tarzida qo‘llanilib, natija bermagach, yana bir horijiy tajriba qo‘llanilyapti. Mantiqan xulosa qilinsa, muammo shu yerda paydo bo‘lgan bo‘lsa, uni chorasini ham shu yerdan qidirish kerak, deb hisoblaymiz.

**Xulosa o‘rnida:**

- ma’rifat so‘zini kelib chiqishi oriflik, oriflik esa bilish, o‘rganish, tajriba ortirish, degan ma’noni beradi. Shu ma’noda ma’rifatning asosini ta’lim, maorif tashkil etadi;

- ma’rifat so‘zi va tushunchasining etimologik zamini ilohiy manbalarda orif(lik) so‘zi – Allohni tanish, tan olish tarzida talqin qilinadi. Buning

uchun aholini ma’rifatni diniy, e’tiqodiy ma’no-mazmuni bilan chuqur tanishtirish;

- ma’rifat – jamiyat va shaxsga uning tarixi, madaniyati, e’tiqodi, san’ati, maishiy turmush tarzi, ajdodlaridan meros ma’anaviy qadriyatlarni doimiy va izchil targ‘ib qilish orqali singdiriladi;

- ma’rifiy fazilatlar insoniyat shu davrgacha yaratilgan ta’lim-tarbiyaviy an’analar, ilmiy-bilimlar, erishilgan amaliy tajribalar milliy tarbiya, odob an’analari doirasidan chiqmagan holda targ‘ib qilish;

- ma’rifat va ma’naviyat haqida faqat balandparvozlik bilan aytiladigan gaplar, soxta hisobotlar jamiyatdagi bu fazilat va xususiyatni oshirmaydi, aksincha ma’naviy zalolatga olib boradi;

- ma’rifat, ma’naviyatni oshirish niqobi bilan turli yot g‘oyalar, nafaqat noan’anaviy, balki noinsoniy xulq-atvor, “yangi” andozalarni kirib kelishi va xurujiga jiddiy, ayovsiz qarshi kurashish zarur. Bu kurash aynan ma’rifiy asosda bo‘lishi samaralidir. Buning uchun esa ma’naviy xurujlarga qarshi turadigan ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy zamin bo‘lishi lozim.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust.*

*2. https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/marifat-uz/*

*3. Tasavvuf ta’limotida shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlari talqini (Yassaviya ta’limoti asosida) https://oliymahad.uz/5987*

*4. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/nazm/121-yasaviy.html*

*5. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 15 t. Nazm ul-javohir . -Toshkent: “Fan”, 1999. –B. 157.*

*6. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 15 t. Nazm ul-javohir . -Toshkent: “Fan”, 1999. –B. 232.*

*7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati (ANATIL). 4 jildlik. 2 jild. Toshkent, “Fan” 1983. – B. 274.*

*8. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 12 t. Lisonut-tayr. T.: “Fan”, 1996. – B. 132.*

*9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assombleyasi 72 sessiyasidagi ma’ruzasidan.*

*10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” Qarori. 2017-yil 28-iyul.*


ZJV5401

# TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

**Usmonjon BO‘TAYEV,**
*Siyosiy fanlar doktori (DSc)*
*Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universiteti*
*Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi kafedrasi mudiri*

**Abdumutal ABDURAHMANOV,**
*Mirzo Ulug‘ bek nomidagi Milliy universiteti*
*Biznes huquqi Magistranti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ma’naviy-ma’rifiy ishlar sifatini oshirish istiqbollari yoritilgan. Unda O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish borasidagi yutuqlar, kamchiliklar, muammolar va yechimlar haqida ma’lumotlar berilgan.*

***Tayanch so‘zlar:*** *ma’naviy-ma’rifiy ishlar, madaniy tadbirlar, ma’naviyat, ma’rifat, barkamol avlod tarbiyasi, ma’naviy ehtiyoj, ijodiy yondashuv*.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot tizimi shakllandi. Bu jarayonda Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi, uning joylardagi tuzilmalari hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Odamlarning tinch-totuv yashashini ta’minlash, manfaatlarini himoya qilish, yurtimiz nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimizda muhim strategik masala sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan beshta ustuvor yo‘nalish doirasida xalqimizning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, turmush farovonligini yuksaltirish, mamlakatimizning jahondagi nufuzini yuksaltirish kabi ulkan maqsadlardan iborat.[1]

O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga juda muhim strategik masala sifatida qaraladi. Aytish mumkinki, mamlakatimizda olib borilayotgan islo-

hotlarning aksariyati milliy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy muammolarini yosh avlodning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda hal etishga qaratilgan. Barkamol avlodni tarbiyalash jarayoni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonlarning zamirida "INSON" turadi, bu esa tarbiyani yanada faollashtirishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy, axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish" pedagoglarning bilim va mahoratiga bog'liqligini ta'kidlaydi.[2]

Ma'naviyat ma'rifat tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki bilimli va mohir bo'lish ko'p muammolarni hal qilishi mumkin. "Ma'rifat" atamasi bilish, bilish, ma'lumot, tanish ma'nolarida ham qo'llaniladi. Aslida bu bilim degani. Bu atama sifatida tabiat, jamiyat va inson tabiati haqidagi bilimlarni bildiradi. Ma'rifat deganda bilim olish, ma'lum bir sohada bilimga ega bo'lish tushuniladi va u faqat inson ma'naviyati negizidagina o'z mohiyatini oladi. Odamlarning bilim va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ta'lim ham ma'rifat hisoblanadi. Bu so'z ilmiy ma'noda ham qo'llaniladi. Ma'rifat tushunchasi kengroq ma'noda qo'llaniladi va bilim va ma'naviyatni tarqatish va targ'ib qilishning barcha turlari va sohalarini qamrab oladi. Bu ikki mazmunli tushunchaning birikmasidan ta'lim, odob-axloq, odob-axloq, tarbiya, o'qish, bilim va jamiyat manfaatining barcha jabhalarini qamrab olish mumkin. Shu bois, O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy soha bilan birga ma'naviy-ma'rifiy ishlarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Nafaqat ta'lim muassasalari, balki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha tashkilot va muassasalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar mutasaddilari o'z ishini sidqidildan bajarmoqda. Oliy ta'lim tizimining asosiy maqsadi – malakali kadrlar tayyorlash. "Malakali" so'zi insonning bilim, aql-zakovati, ijodkorligi, tarbiyasi va boshqa sifatlarini bildiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan, Vatan oldidagi burch va mas'uliyatga sadoqatli, yosh avlodni tayyorlashdan iborat. Keyingi uch yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan madaniyat va san'at sohasiga oid 40 ga yaqin qaror, farmon va boshqa me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, mamlakatimiz taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar talaygina.

Mamlakatimizda qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi eng avvalo, davlat boshqaruvi organlarining quyi bo'g'inlari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularning xalq bilan muloqot qilishini ta'minlash, bu borada samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini

mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan. Ana shu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ularning ko‘lami va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borish, tuman (shahar) darajasidagi xodimlar mehnatiga haq to‘lashning barqaror tizimini yo‘lga qo‘yish, sohada faoliyat olib borayotgan muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va ularning samarasini oshirish maqsadida ustuvor maqsadlar belgilangan.[3]

Talabalarning bo‘sh vaqtini topish, faollarini tanlash, manba tanlash, ssenariy yaratish, sahna ko‘rinishlari, konsert dasturlarini tayyorlash, o‘tkaziladigan joyni badiiy bezash, mashg‘ulotlarni tashkil etish, texnik vositalardan foydalanish, ishtirokchilar va tomoshabinlarni jalb qilish kabi bir qator ishlarni bajarishimiz kerak. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, bitta qo‘shiq yoki raqs voqea emas. Mashhur rejissyor D.Genkin aytganidek, “bayramlar va tadbirlar o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, ularni oqilona tashkil qilish kerak”.[4] Darhaqiqat, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni maqsadli, aniq reja asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek tili lug‘atida ta’kidlanishicha, o‘zbek tilida “tadbir” qo‘llanilgan “hodisa” maqsadni amalga oshirish, puxta o‘ylangan amaliy chora-tadbirlar majmuini bildiradi.[5] Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘quvchilarning o‘z tashabbusi va faoliyatiga qiziqadigan tarzda tashkil etilishi kerak. Talabalarning tadbirlarda ishtirok etishni istamasligining sabablari quyidagilardan iborat:

1. Ssenariy g‘oyasi yangi emasligi;
2. Aksariyat hodisalar mazmunining bir xilligi, uning ishtirokchilarining bir xilligi;
3. Ssenariyning to‘liq emasligi;
4. Badiiy did, sahna madaniyati va sahna qoidalarini bilmaslik, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish malakasining yetishmasligi;
5. Tadbirda tashkiliy-ijodiy ishlar muvofiqlashtirilmaganligi;
6. Qiziqarli mavzularning tanlanmaganligi;
7. Ma’ruzachining (agar davra suhbati bo‘lsa) tinglovchilarga yetakchilik qila olmasligi;
8. Faoliyatga zarur kontingentlarning jalb etilmaganligi;
9. Tadbirning vaqtini noto‘g‘ri o‘tkazish va shunga o‘xshash qator muammolar ma’naviy-ma’rifiy ishlarimizning samaradorligiga to‘sqinlik qilmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifatli amalga oshirish uchun ta’limning yangi usullari haqida o‘ylashimiz kerak. Agar biz o‘quvchilarga odam savdosiga qarshi kurash tadbiri haqida hech qanday yangi pedagogik texnologiyasiz tushuntirib beradigan bo‘lsak, (hisobotni o‘qish yoki tushuntirish orqali) tinglovchida hech qanday hissiyot uyg‘otmasligi mumkin. Turli usul va vositalardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish tadbirning sifatli samaradorligiga

olib keladi. Unda Tadbir oddiy ma'ruza bilan emas, balki isbotlangan faktlar, shu mavzularda turli ko'rgazmalar, hujjatli filmlar, videofilmlar, sahna ko'rinishlari, kuy va qo'shiqlar bilan o'tkazilsa, ta'sirchanlik va sifat darajasini oshiradi hamda o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ko'ndirish usulini qo'llash, ya'ni xorijga ketmoqchi bo'lgan yoshlarni ko'ndirish, ya'ni osonlikcha katta pul topish mumkin. Biz ularga bu harakatlar natijasini oddiy ma'ruzalar bilan tushuntirib bera olmaymiz. Bularning barchasi bema'nilik ekanini, bu davlat haqida hech qanday ma'lumot olmasdan, tilni bilmay turib, xorijga borsa, bu holatga oid filmlar, tomoshalar ko'rsatish, halok bo'lganlar bilan uchrashish orqali isbotlashimiz mumkin. Ushbu usuldan foydalanish talabalarga hech qanday bilimsiz xorijga osonlik bilan borish fojiali yakunlanishi mumkinligini tushunishga yordam beradi. Shundan so'ng ular o'z mamlakatlarini qadrlay boshladilar va bu usul ko'pchilikni to'g'ri xulosa chiqarishga olib kelishi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'limda samaradorlikka erishishda madaniy-ma'rifiy tadbirlar muhim o'rin tutadi. Chunki yaxshi dam olgan odam qattiq mehnat qilishi mumkin. Eng qiyin ishlardan biri bezovta yoki charchagan odam uchun qattiq ishlashdir. Dam olish kunini maroqli, maroqli o'tkazgan odam faolroq, oldinga intiluvchan bo'ladi. Odamlarning dam olishi masalalari ham muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'quvchilarning ijodiy fazilatlari, qiziqishlari, har tomonlama rivojlanishini hisobga olgan holda maqsadli tashkil etish, bu jarayonga pedagogik yondashish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu mashg'ulot o'quvchilarda Vatanga muhabbat ruhini yuksaltirish, ular o'rtasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, ertangi kunga ishonch bilan mehnat qilishga undash, ma'naviyatini yuksaltirish, bilimli, bilimli, yetuk inson bo'lib etishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

*1. 2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.*

*2. https://president.uz/oz/lists/view/841*

*3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi 3160-son qarori. "Xalq so'zi", 2017-yil 29-iyul*

*4. D.M.Genkin. Массовые праздники. L. 1998. P. 45*

*5. Madaniyat va san'at atamalari lug'ati. B. Sayfullayev tahririda. Toshkent, 2014. B.87.*

*6. Проблема преемственности и выработки нового курса в политическом процессе Узбекистана. У.Бутаев https://doi.org/10.37178/ca-c.20.4.06*

# “СПОРЫ, РАЗНОГЛАСИЯ И КОНФЛИКТЫ КАК УГРОЗА СТАБИЛЬНОСТИ И БЕЗОПАСНОСТИ ОБЩЕСТВА”

**Одил МУСАЕВ,**
*Профессор кафедры “Гражданское общество и правовое образование” НУУз.*
**Отабек РАХМАТОВ,**
*Начальник отдела по работе с молодежью и просвещение духовности в филиале РГПУ им.А.И.Герцена в г.Ташкент.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассмотрена классификация спор и разногласия, связанных со стабильностью и безопаснастью общества. Безопасность человека и общества предполагает поиск ответов на вопросы: что такое безопасность и насколько познаваемо это явление? Принимая эти вопросы в качестве исходной методологической посылки, важно подчеркнуть, что такой спор и разногласия в социальном пространстве.*

***Ключевые слова:*** *споры, безопасность общества, разногласия и юрисдикция.*

**Введение.** Люди, живущие на Земле, принадлежат к разным расам, народам (или этносам), социальным и культурным группам, каждый представитель которого имеет свой взгляд на мир, свое мнение, отличающееся от мнения другого. Как неизбежны связи между людьми, так же неизбежны самые неожиданные и разнообразные конфликтные ситуации. Поэтому человечество на протяжении всей истории своего развития в поисках методов и средств, позволяющих управлять конфликтами, сформировало области научного познания, которые бы занимались исследованием проблем общества и конфликтных ситуаций в нем. В число таких наук входят: социология и социология права, исследующие социальные, социально-правовые процессы и явления; правоведение – общественная наука, изучающая право, как особую систему социальных норм, а также различные аспекты правоприменительной деятельности; конфликтология и юридическая конфликтология, предметом изучения которой являются социальная природа, типы и динамика конфликтов в рамках внутреннего (национального) и международного права. Именно синтез этих наук при изучении природы конфликтов позволяет найти пути, методы и средства их предупреждения и разрешения. В частности, в изучении правовых явлений можно и нужно выходить на уровень социальных исследований, используя методологические возможности других гуманитарных наук.

Связь терминов “разногласия” и “спор”, поскольку они используются либо как парные категории, либо из контекста использования термина “разногласия” следует, что речь идет именно о некой спорной ситуации. Однако, как и в иных отраслях российского права, в конституционном праве понятия спора и разногласия, не являющегося спором, не вполне разработаны, не ясно, как они соотносятся между собой. При этом очевидно, что термин “разногласия” также, как и термин “спор”, имеет юридическое значение и представляет собой не просто “отсутствие согласия из-за несходства во мнениях”, “противоречие, несогласованность”[1] или словесное (устное или письменное) состязание, а является внешней формой выражения противоречия между субъектами права, которая представляет собой различную оценку ими прав и обязанностей, юридически значимых действий (бездействия), сформулированную в виде взаимоисключающих суждений и выводов, имеющих юридические последствия.

Обращение к разработкам отраслевых юридических наук, для которых категории спора и разногласия являются более традиционными, чем для конституционного права, позволило выделить два основных подхода в использовании категории “разногласия”.

Во-первых, спор трактуется как разногласия между субъектами права (или правоотношения), переданное на рассмотрение судебного или иного юрисдикционного органа[2]. Этот подход, в рамках которого разногласия предстают как некое “пред спорное” состояние, является традиционным для многих отраслей российского права, однако критикуется за то, что не учитывает возможности урегулирования спора до и вне суда. Такая позиция используется и в рамках конституционного права при определении конституционно-правового спора, под которым чаще всего понимается разногласие, возникшее между субъектами конституционно-правовых отношений в процессе реализации норм конституционного права и подлежащее разрешению в особом порядке, установленном законом, в том числе путем использования государственными органами юрисдикционных полномочий.

В рамках второго подхода характерно отождествление этих терминов, рассмотрение их как синонимов. Например, А.Б. Зеленцов, отстаивая эту идею, утверждает, что “в правовом отношении понятия “разногласия” и “спор” по своему содержанию взаимозаменяемы: выражая сущность спора, разногласия характеризуют данное явление в полном объеме в аспекте взаимодействия его сторон”; “разногласия составляют структурную архитектонику спора, позволяя утверждать, что спор – это и есть разногласия”. Однако такая концепция сопровождается рядом оговорок о том, что понимается под разногласиями

или какими они должны быть: они должны носить правовой характер, неправовые разногласия не имеют отношения к правовым спорам; разногласия должны носить неурегулированный характер. М.А. Рожкова, определяя спор о праве как формально признанное разногласие между субъектами гражданского права, возникшее по факту нарушения или оспаривания субъективных прав одной стороны гражданского правоотношения другой стороной, обусловливает возникновение спора такими юридическими фактами, как предъявление субъектом защиты требования к нарушителю об определенном поведении и неисполнение нарушителем требования субъекта защиты.

Спор – процесс отстаивания каждой из сторон своего мнения, столкновение мнений и попытки убедить оппонента. Спор по поводу претендовали на владение чем-либо (как между физическими лицами, так и между юридическими) может разрешаться в суде. Также спор может иметь значение в контексте состязания.

В конфликте сначала зарождаются противоречия, затем стороны обозначают свои позиции, разворачиваются конфликтные действия, и, наконец, после разрешения создавшейся ситуации конфликт может считаться исчерпанным. Спор начинается с выявления проблемы, по которой расходятся мнения сторон. Спор чаще всего возникает спонтанно – спорщики к словесному поединку заранее подготовиться не могут, поэтому им помогают красноречие и эрудиция. Порой спор изначально затевается не для того, чтобы убедить собеседника и что-то доказать, а как тренировка ораторских способностей и остроумия.

В целом признавая, что разногласия могут быть признаны спором, независимо от того, переданы ли они на рассмотрение юрисдикционного органа или нет, полагаем, что необходимо учитывать, что наличия разногласий между сторонами спора недостаточно для его возникновения. Следует согласиться с Е.К. Замотаевой: во-первых, должна сформироваться его фактическая причина – конфликт интересов, а, во-вторых, необходимо, чтобы, по крайней мере, одна из сторон открыто заявила о состоянии такого конфликта с целью его преодоления[3]. То есть разногласия, противоречия между субъектами права не всегда приобретают форму правового спора. Противоречивая ситуация трансформируется в конституционно-правовой спор только в том случае, если ее участники, осознав противоположность своих интересов, начнут предпринимать действия для ее разрешения. То есть для правового спора очень важно осознание спора его участниками, совершение разнонаправленных действий, свидетельствующих о расхождении во мнениях, позициях сторон, предъявление взаимных “претензий”, стремление сторон к разрешению спора юридическими средствами (это могут быть и юрисдикционные, и неюрисдикционные средства).

Несмотря на то, что оба эти подхода отличаются друг от друга, их роднит то, что в обоих случаях термин “разногласия” используется как несамостоятельная, подчиненная категория по отношению к термину “правовой спор” (или “спор о праве”), раскрывающая сущность этих явлений, что, безусловно, приводит к девальвации, обеднению термина “разногласия”, лишая его несомненно имеющегося самостоятельного конституционно-правового значения.

**Выводи и предложения.**

В результате сложившееся традиционное понимание безопасности как состояния защищенности хотя и изменило форму, но осталось по содержанию доминирующим (не только в современных исследованиях, но и в практике обеспечения безопасности). Вместе с тем проявившаяся в последнее десятилетие ограниченность традиционного понимания безопасности инициировала исследователей не только искать новые подходы, но и критически переосмысливать сложившиеся представления, даже если они и получили законодательное закрепление.

Таким образом, безопасность человека и общества (комплексная безопасность), иллюстрирует мозаичность смысловых значений этого сложного явления, что наглядно доказывает факт постижения сущности феномена безопасности, её понятийного определения, и особенно, комплексной безопасности.

**Список использованных литературы:**

*1. Кузнецов, В.Н. Социология безопасности / В.Н. Кузнецов. – М.: Книга и бизнес, 2003. – 880 с.*

*2. Бобракова Е.Е. Согласительные процедуры в конституционном праве: общие основы и особенности применения в федеральном законодательном процессе: дис. ... канд. юрид. наук. М. 2001. 200 с.*

*3. Зеленцов А.Б. Теоретические основы правового спора: дис. юрид. наук. М. 2005. 435 с.*

*4. Ларин, В. Безопасность развития / В. Ларин // Свободная мысль. – 2008. № 7. С. 40–43.*

# YOSHLARDA TOLERANTLIK G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODALOGIK ASOSLARI

**Ravshonbek SAUROV,**
*Falsafa doktori (PhD) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi, Milliy iftixor va Harbiy vatanparvarlik kafedrasi o‘qituvchisi.*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada tolerantlik tushunchasi, uni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirishning bugungi kundagi dolzarb ahamiyati hamda bu jarayonni tashkil etishda esa o‘quv vositalari va o‘qituvchining o‘rni haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Tolerantlik, o‘quv vositalari, yoshlar, fikrlashi, xatti-harakat, qadriyat, fazilat, ta’lim.*

Taraqqiyotning bugungi bosqichida davlatimiz tomonidan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarda hamda ma’naviyat, madaniyat va ta’lim yo‘nalishida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘z navbatida, jamiyat a’zolarini o‘zaro hamkorlik, do‘stona muloqotga undab, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mas’uliyat va shaxsiy javobgarlik, erkinlik, mustaqillik, hurfikrlilik, mehribonlik kabi oliy tushunchalarni o‘zlashtirish uchun ehtiyoj sezdirmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining tolerantlikka asoslangan shakli tanlanmoqda.

Aynan tolerantlik bugungi kunda insonlar hayotini tartibga soluvchi kuchli vosita sifatida davlat tuzilishi, ijtimoiy tizimda va inson huquqlarining rivojlanishida yetakchi omil bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirish o‘ta muhim pedagogik jarayon sanaladi. Bu jarayonni tashkil etishda esa o‘quv vositalari va o‘qituvchining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Zero, tolerantlik tushunchasi chidam, bardosh, o‘zgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni ham qamrab olgan.

Tolerantlik tushunchasiga turli soha mutaxassislari ta’rif berib o‘tganlar. Jumladan, tolerantlik falsafiy ma’noda – lotincha chidam, chidamlilik, toqat qilish, kengfe’llik ma’nosidagi tolerantia so‘zidan olingan bo‘lib, falsafada bag‘rikenglik, halimlik va xayrixohlik tushunchalarini ifodalaydi [1].

Psixologik ma’noda tolerantlik bu – individning o‘z asab va ruhiy muvozanatini tiklash, muvaffaqiyatli moslashish, adovatga yo‘l qo‘ymaslik va uni o‘rab turgan olam bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida muammoli va inqirozli vaziyatlarda tashqi muhit bilan faol aloqa qila olish qobiliyatini belgilovchi birlashma (integral) xususiyat [2].

Biz yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqqan holda tolerantlik tushunchasiga quyidagicha pedagogik ta’rif berishga harakat qildik.

Tolerantlik bu – Yoshlarlarning jamiyatda ular bilan yonma-yon yashayotgan barcha din, millat, irq va ijtimoiy holati turlicha bo‘lgan insonlarga nisbatan o‘zaro tenglik, hurmatga asoslangan barqaror, bardoshli, toqatli munosabatining ifodasidir.

Ta’lim jarayonida Yoshlarlarning o‘qituvchi, sinfdosh, maktabdoshlari bilan hamkorlik qilishini ta’minlovchi ma’naviy hamda ruhiy kechinmalar ham tolerantlik xislatlarini ifodalovchi fazilatdir.

Tolerantlik – shaxsda o‘z-o‘zidan hosil bo‘ladigan fazilat emas, balki u uzoq muddatli, uzluksiz pedagogik jarayon natijasida vujudga keladigan ruhiy, ijtimoiy, ma’naviy holat. Tolerantlik g‘oyasi turli ijtimoiy pedagogik omillar va o‘quv-biluv jarayonida Yoshlarlarda aynan ushbu g‘oyaga oid tushunchalarning shakllantirib borilishi natijasida hosil bo‘ladi. Yoshlarda tolerantlik tushunchalarini shakllantirishdan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad – jamiyat a’zolari orasida barqaror ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, ularni izchil tayyorlab borishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa ta’limning barcha bosqichlari orasida uzviylik va izchillik ta’minlanishi kerak.

Yoshlarda tolerantlikka oid dastlabki tushunchalarni shakllantirishga, uni izchil rivojlantirib borishga mo‘ljallangan ta’lim jarayoni, birinchi navbatda, Yoshlarni ijtimoiylashtirish maqsadini va barkamol shaxs sifatida tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Bu esa muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini uzluksiz rivojlantirgan holda shaxs ma’naviyatini ijtimoiy jihatdan boyitishni nazarda tutadi.

Darhaqiqat, barcha davrlarda tolerantlik insonga xos eng oliy fazilat hisoblangan. Tolerantlik deganda, boshqa kishilarning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan chidamli, bardoshli, sabr-toqatli bo‘lish, boshqalarning huquq va ozodliklarini buzmagan holda shaxsiy huquq va ozodlikka egalik tushuniladi. Shu bilan bir qatorda, tolerantlik inson huquqlari va demokratiyaning asosi hisoblanadi. Ko‘p madaniyatli va ko‘p millatli O‘zbekistonda tolerantlik yetarlicha shakllanmasa, o‘zga millat va din vakillariga nisbatan chidamsizlik, toqatsizlik natijasida inson huquqlarining poymol bo‘lishi, zo‘ravonlik va turli mojarolar yuzaga kelishiga zamin yaratilgan bo‘ladi.

Bugungi kunda yoshlar, birinchi navbatda, o‘zi bilan yonma-yon yashayotgan har bir shaxsning (u qaysi millat yoki din vakili bo‘lmasin) mustaqilligi va qadriyatlarini tan olishi, hurmat qilishi shart. Keyingi vaqtlarda o‘zaro aloqadorlikda harakat qilayotgan shaxslar va guruhlar orasida ko‘pgina ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Bu holatlarni ta’lim maqsadlarini shakllantirishda ham aniq hisobga olish lozim. Chunki bugungi kunda shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirishi lozimligi istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida bu sohada Yoshlarlarga pedagogik yordam

juda ham zarurdir. Yoshlarning shaxs sifatida namoyon bo‘lish imkoniyati pedagogik jarayonda jadal rivojlantiriladi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonining uni tarbiyalash borasidagi natijasi bugungi kunda tobora tan olinmoqda. Shuning uchun ham biz tolerantlikni ta’lim-tarbiyaning zaruriy uzviy qismi sifatida tan olib, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonida amalga oshirishni nazarda tutamiz. Bunda Yoshlarda tolerantlikka oid dastlabki tushunchalar bevosita o‘quv jarayonida shakllantiriladi. Hayotiy voqea-hodisalarni axloqiy tamoyillar doirasida bayon etish ko‘nikmasi izchil shakllantirilib boriladi. Bugungi kunda O‘zbekiston maktablari hali barcha Yoshlarga birday qo‘llaniladigan avtoritar o‘quv jarayoni va yagona metodlardan to‘la voz kechganicha yo‘q. Bu esa, o‘z navbatida, shakllanib kelayotgan Yoshlarda hamma vaqt ham o‘z fikrini bayon qilish imkonini bermaydi. Yoshlarda tolerantlik tushunchalari yetarlicha shakllantirilmaganligi uchun ham ularni turlicha qo‘rquvga soladigan hodisalar bilan cho‘chitish oson kechmoqda. Bunda Yoshlarlarga yosh xususiyatlariga ko‘ra taqdim etiladigan ta’lim-tarbiya mazmuni belgilanishi lozim. Tolerantlik tarbiyasi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etayotganligi sababli ham u ta’lim mazmunida muhim o‘rin egallashi shart. Buning natijasida pedagogik jarayonning dinamik rivoji hamda yoshlarning uzluksiz takomillashuvi yuzaga keladi. Ta’lim-tarbiya o‘zaro uzviy aloqadorlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u yoshlar shaxsining uzluksiz rivojlanishiga yo‘naltirilmog‘i lozim.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Musurmonova O. Qarshiboev M. Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari: 9–sinf uchun darslik. 3–nashri. –T.: Ma’naviyat, 2003. –25-26b.*

*2. Солдатова Г.У. Аналитика практическая психология толерантности. www.tolz.ru/ index.php.*

## VATANPARVARLIK TARBIYASI VA UNING IJTIMOIY AHAMIYATI

**Shahlo AHROROVA,**
*falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),*
*RMMM huzuridagi Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi.*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada vatanparvarlik, ta’lim va tarbiyaning qo‘shib olib borilishida ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati, shuningdek, tarbiyada ta’lim tizimining o‘rni to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Vatanparvarlik va ijtimoiy tarbiya barcha mamlakatlarda ham davlat va jamiyat ravnaqida muhim asos bo‘lib hisoblanadi. Fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda milliy tarbiya, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va kuchaytirishda bir qancha omillar ishtirok etib, bulardan ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi.*

***Kalit so‘zlar.*** *Vatanparvarlik, ta’lim, tarbiya, milliy qadriyatlar, milliy g‘oya, mafkura, jamiyat, davlat, manfaat, millat, ona tili, xalq, ma’naviyat, ma’naviy qadriyatlar, yurtga muhabbat, sadoqat, fidoyilik.*

Eng baland imoratlar ham poydevordan boshlanadi. Xo‘sh, vatanparvarlik tarbiyasi-chi? Albatta, oddiy tarbiyadan. Oilada beriladigan, shu ostonani, Vatan poydevori bo‘lmish oilani sevmoq, uning tartibotlarini hurmat qilmoq, unga sadoqat qilmoqni o‘rgatadigan oddiygina tarbiyadan. Men so‘zimni Abdulla Avloniyning mashhur so‘zlarini eslatib o‘tish bilan davom ettiraman: “Tarbiya – yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.”

Bizga ma’lumki, har bir bola tarbiya asosini eng avvalo oiladan, keyin ijtimoiy muhitdan oladi. Lekin har bir oila yetarlicha tarbiya berish salohiyatiga egami? Bundan tashqari, bolaning tarbiyachilari – ota-ona har doim uning yonida bo‘la oladimi? Ota oila boqishi – ishlashi kerak. Bugungi kun ayollari ham tinch o‘tirmaydilar – ishlab, turmush o‘rtoqlariga ko‘maklashishlari, yoki uyda biror hunar bilan shug‘ullanishlari, gohida esa, turmush tashvishlarining iqtisodiy yukini mutlaqo o‘z yelkalariga olishlariga to‘g‘ri keladi. Bunday hollarda bolaga yetarlicha vaqt ajratishning imkoni bo‘lmaydi, albatta.

Bola ko‘p vaqtini enagada, bog‘chada, keyin maktabda o‘tkazishiga to‘g‘ri keladi. Bu – bolaning axloqiy tafakkuri shakllanish vaqtida unga enaganing, bog‘chaning, ta’lim muassasalarining ta’siri katta bo‘ladi, degani. Demak, jamiyat o‘z a’zolarini tarbiyalashda ana shu ta’lim-tarbiya muassasalardan foydalanishi lozin.

E’tirof etish lozimki, shaxsni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta’lim tizimi oiladan keyingi o‘rinda, Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, keyingi ta’lim bosqichlaridagi professor-o‘qituvchi va ilmiy-ijodiy ziyolilarni bejizga Yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuniga aylantirishni asosiy maqsad qilib olish lozimligini qayd etib o‘tmadi. Bu maqsad ostida ham bizning ta’lim tizimidagi sharqona va milliy qadriyatga aylangan “tarbiya asosida ta’lim berish” tamoyili asos sifatida namoyon bo‘lib turibdi. Bundan tashqari, bu jarayon “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi”da ko‘zda tutilgan vazifalarning amali sifatida yuzaga chiqadi.

Ta’lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekan, demak ma’rifat va ma’naviyatni ham ajratib bo‘lmaydi. Ayrim “arboblar” Uchinchi Renessans poydevorida asosiy ustun sifatida faqat ma’rifatni ko‘rayotgani, o‘rta ta’limda tarbiya darslarining kamligini, oliy ta’limda esa mutaxassis fanlarning o‘zi bilangina yetuk malakali kadr yetishtirish mumkin, degan nuqtai-nazar bilan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishdan voz kechish, yoki ularni qisqartirish g‘oyasi bilan chiqayotgani ta’limni tarbiyadan ajratib olishdir.

Ma’naviy qashshoqlik davlat va jamiyatni zaiflantiradigan eng katta kuch emasmi? Davlat va jamiyat zaif bo‘lgan joyda ilmni qanday rivojlantirish mumkin? Yoki u rivojlangan taqdirda ham, yoshlar bu ilmni davlat va jamiyat manfaatlariga qarshi ishlatmaydi, deb kim kafolat bera oladi?

Ularga vatanparvarlikdan, milliy va umuminsoniy axloqdan, Vatan oldidagi burchdan kim saboq beradi? Kim ularda milliy g‘urur shakllanishiga ko‘maklashadi, kim ularni milliy g‘oya bilan qurollantiradi? Afsus bilan qayd etish lozim-ki, ta’limni mafkuralashtirish va milliy g‘oya bilan qurollantirish o‘rtasidagi farqni bilmaydigan rahbarlarimiz ham bor ekan.

Milliy g‘oyaning qadriyatlashuvi milliy axloqni shakllantirishga, jamiyat a’zolarini ma’naviy boyitishga, yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashga ko‘maklashadi. Jaloliddin Manguberdi qalbida erk va ozodlik milliy g‘oya sifatida qadriyatlashmaganida, unga o‘t va shijoat bera olarmidi? Yoki Sohibqiron Amir Temur davrida el-ulusni birlashtirish, “Kuch-adolatda” ekanligi milliy g‘oya darajasiga ko‘tarilmaganda, u shunday buyuk davlat qura olgan bo‘larmidi?

Yana bir rahbar talabaning ustozlar ustoziga savol berayotganda hatto o‘rnidan ham turishni istamaganini erkinlik, deb ta’rifladi. Qarang-a! Ertaga bolamiz “dada, turing, to‘rda men o‘tiraman!”, qizimiz “Ona, tanishing, bu kuyovingiz, biz farzand kutyapmiz!” – deganini ham erkinlik, deb qabul qilamizmi?

Biz ko‘pincha “ommaviy madaniyat g‘arbdan kirib keldi” degan gapni ishlatar ekanmiz, go‘yoki bu “madaniyat” g‘arbda azaldan hukm surib kelganday qaraymiz. Men yaqinda ingliz adabiyotidan Sharlotta Brontening “Jeyn Eyr” asarini va yana bir qancha g‘arb adabiyotiga oid asarlarni rus tilidan o‘zbek tiliga o‘girdim. Ma’lumki, har bir davr adabiyoti o‘sha davrdagi ijtimoiy muhit, axloqiy-tarbiyaviy qadriyatlari, milliy xususiyatlarini ham aks ettiradi. Men mana shu asarlarda keltirilgan ikki-uch asr oldingi g‘arb hayotida bugungi “ommaviy madaniyat” unsurlarini ko‘rmadim. Ularda mustahkam oila qadriyatlari, yuksak darajadagi etiket qoidalari aks etgandi. Bundan xulosaga kelish mumkin-ki, g‘arb yoshlarining bugungi “erkin” qiyofasi azaldan kelmayapti, u aynan tarbiya ta’limdan uzib qo‘yilgani tufayli shakllangan.

Biroq, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda har qanday rivojlangan, demokratik tamoyillar ustovor davlat ham ta’lim tizimidan foydalanishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Masalan, hatto Amerika davlatida ham vatanparvarlik g‘oyalari ta’lim tizimida singdirilishi mustahkam asoslab qo‘yilgan. Aytaylik, mashg‘ulotlardan oldin davlat madhiyasini ijro etishda qaysidir o‘quvchi o‘rnidan turmasa yoki qo‘lini yuragi ustiga qo‘ymasa, u o‘sha kuniyoq o‘qishdan chetlatiladi.[2] Shuningdek, har bir Amerika maktabi sinflarida milliy bayroq osilgan, ko‘p hollarda unga sodiqlik qasami qabul qilinadi.[4]

Xitoyda esa vatanparvarlik mafkurasi nafaqat yurti, balki shahri, provinsiyasi, oilasi, hatto o‘z uyi o‘chog‘ini, shuningdek xitoy tilini sevish va faxrlanish asosiga qurilgan. Vatanparvarlik tarbiyasi Xitoy pedagogikasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunda ular Vatan tarixi, milliy bayramlar, milliy qadriyatlarni o‘qitish, musiqa darsida Vatan haqidagi qo‘shiqlarni o‘rgatishni asos qilib olishgan. Targ‘ibot ishlarida ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalaniladi, anonim izohlar yozish ta’qiqlangan, davlat va fuqarolar o‘rtasida ham, talaba va o‘qituvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar internet orqali yo‘lga qo‘yilgan. [5]

Erkinlik, demokratiya nima o‘zi? U xohlagan gapini gapirib, xohlagan ishini qilish deganimi? Afsuski, ko‘pgina yoshlarda mana shu tushuncha shakllanib boryapti. Shu bois ular ustozlariga o‘rinlaridan turmay, stulda yalpayib o‘tirgancha, savol beryaptilar. Shu bois o‘smir yoshdagi qizlarimiz o‘qituvchi doskaga o‘girilganda o‘z ishini bajarish uchun bemalol derazadan sakrab chiqib ketishyapti. Bu ham yetmaganday, qolgan o‘quvchilar o‘qituvchi ustidan kulishyapti. Bizchi, biz, nima qilyapmiz? O‘qituvchining bu qizga bergan tanbehini muhokama qilamiz, ularga ota-onalar oldida uzr so‘ratamiz, tarbiya bilan shug‘ullanadigan ijtimoiy-gumanitar fanlarni qisqartirishga ko‘maklashamiz. Bunga shu fanlar o‘qituvchilarining ayrimlarini(xuddi boshqa fan o‘qituvchilari orasida poraxo‘rlik bo‘lmaganday) poraxo‘rligini sabab qilib ko‘rsatamiz. Bu burgaga achchiq qilib ko‘rpa yoqish emasmi? Balki, dekan o‘rinbosari tufayli qizbola ikkinchi qavatdan sakradi, deb butun OTM tizimida shu shtat birligini ham qisqartirib tashlarmiz?!

Yaqinda “Axloq falsafasi” darsi o‘tishga kirgan birinchi kunim talabalarga savol berdim: “Nima deb o‘ylaysizlar, nomutaxassis yo‘nalishidagi talabalar uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar kerakmi?” Ularning aksariyati kerak emas, deb javob berishdi. Ular uchun qo‘shimcha fan – qo‘shimcha imtihon, qo‘shimcha oraliq  va yakuniy nazorat, degani edi. Fanni o‘tib bo‘lingandan so‘ng yana talabalar bilan kichik debat o‘tkazdim. O‘rtaga tashlangan savol quyidagicha edi: “Nima deb o‘ylaysizlar, nomutaxassis yo‘nalishidagi talabalar uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar kerak ekanmi?”

Tan olish kerak, albatta, ular orasida yana bir-ikki nafar “bizning mutaxassisligimiz uchun bu fan kerak emas”, deguvchilar ham bo‘ldi. Bular darsni ko‘p qoldiradigan, past bahoga o‘qiydigan, kasb etiketiga rioya qilmaslik, forma kiymaslik, savolni o‘rnidan turmay berishni erkinlik deb biladiganlar toifasidan edilar. Ammo 90 foizdan ortiq talabalar bu fanlar albatta o‘qitilishi lozimligini e’tirof etdilar. Ayniqsa, talabalardagi ushbu fikrlar diqqatimni tortdi:

“Biz g‘arbda qabul qilinayotgan “bir jinslilar nikohi” kabi axloqsizliklarning demokratiya oqimi ostida bizga ham ko‘chib o‘tishi mumkinligini hozir tasavvurimizga sig‘dira olmaymiz. Ammo, kim biladi deysiz, agar milliy tarbiyani yo‘qotsak, 40-50-yillar o‘tib, biz ham bu holni g‘arbdagiday xotirjam qabul qilarmiz?”

Talaba haq edi. Bu degani, aniq fanlar singari tarbiyaga oid fanlar natijasini ehtimol bir kunda, bir oyda, yoki bir yilda ko‘rsatmas. Lekin biz bu fanlarni siqib chiqaradigan bo‘lsak, natijani yigirma yo o‘ttiz yillardan so‘ng talaba aytgan darajada ko‘rsak ne ajab? Bu dahshat emasmi?! Umuman olganda, talabalarga demokratik madaniyatni, demokratiyani eksport qilib bo‘lmaslikni, demokratik tamoyillar milliy qadriyatlarsiz amal qilishi milliy o‘zlikni yemirishga olib kelishini qaysi fanlar o‘rgatadi? Aniq fanlarmi? “30 yillarga borib maosh falonchaga oshadi, farovonlikka erishamiz” kabi matematik uslubda tushuntiradimi?

Yo‘q, bunday bo‘lishi mumkin emas. Ma’rifatni ma’naviyatdan, ta’limni tarbiyadan ajratib bo‘lmaydi. Tarbiyaga oid fanlarni nomutaxassislar uchun nokerak deb o‘ylaydigan rahbarlarni men jamiyat uchun, jamiyat kelajagi uchun xavfli insonlar, deb bilaman.

“Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o‘sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti”, deydi Prezidentimiz o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida. Ta’lim tizimidagi uzluksiz ma’naviy tarbiya ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitilishining ham uzluksizligini toqazo etadi. Ya’ni, tarbiyaga oid darslar 1-sinfdan to 11-sinfga qadar, oliy o‘quv yurtlarida ham 1-kursdan oxirgi kursga qadar ularning ketma-ketligini muvofiqlashtirgan holda ta’lim dasturlariga kiritish bugungi kunda zamonning o‘zi oldimizga qo‘yayotgan talablardan biridir.

Shu o‘rinda Yaponiya ta’limiga oid bar fakt yodimga tushdi. Yapon ta’lim tizimida birinchidan to oltinchi sinfga qadar “axloq tomon yo‘l” dasturi asosida dars o‘tilar ekan. Bu darslarda yapon bolalari faqat axloq, etiket qoidalari, odamlar bilan muomalani o‘rganishar ekan. Janubiy Koreyada ham ham shunday, tarbiyaviy darslar bilan birga musiqa, tasviriy san’at darslari o‘tilar ekan. Bu – qalb tarbiyasi degani. Ularda jamiyatda ustoz degan nomning ulug‘lanishi alohida e’tiborga molik. Ehtimol shuning uchun ularda tartib-intizom qadriyat darajasiga ko‘tarilgandir? Ko‘cha-ko‘ygi toza tutish, jamoat joyida o‘zni tutish, navbatda turish, muomala madaniyati kabilarning yuksakligi shundandir? Rossiyalik tadqiqotchi Darya Mosolova, Janubiy Koreya xalqini hech qachon olomon deb bo‘lmaydi, shuning uchun unga “Arab bahori” bu yerga yetib borishi mumkin emas, degan fikrni ilgari surgan. “Arab bahori”ni esa olomon amalga oshirgandi. [3]

Men zamon, deb bejizga aytmadim. Bugungi globallashuv va integratsiya kuchayib borayotgan davrda ma’naviy hayotimizdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratishimiz lozim. Chunki globallashuv bilan bog‘liq axborot xurujlari, turli g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar aynan milliy o‘zlik va milliy ma’naviyatga chang soladi. Yoshlar hayotiga begona chet ta’sirlarning adabiyot, san’at, ijtimoiy tarmoq orqali “ommaviy

madaniyat” niqobi ostida “olomon madaniyati”ning kirib kelayotgani bugun global muammodir.

Aslini olganda, globallashuvni ijobiy hodisa, deb baholash mumkin. Shuningdek, insoniyat va jamiyatlar taraqqiy etib borarkan, globallashish hodisasi muqarrar va tabiiy jarayon hisoblanadi. Ammo, har qanday taraqqiyot dialektik tarzda amalga oshadi, uning bir maromda ko‘ringan dinamik rivojlanishida o‘ziga xos qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar namoyon bo‘ladi. Xususan, umumbashariy qadriyatlarning shakllanishi va takomillashishi milliy-ma’naviy qadriyatlarning yemrilib borishiga olib kelishi mumkin. Biroq, milliy-ma’naviy unsurlarsiz umumbashariy qadriyatlarning yashovchanligi ham kamayadi va ularni joriy etishda ham o‘ziga o‘ziga xos muammolar yuzaga keladi. Bu kabi ziddiyatlar globallashuvning salbiy tomonlari bilan bog‘liq masalalarni yuzaga chiqaradi.

Ana shu salbiy tomonlar sirasida xalqlarning asrlar mobaynida ajdodlardan avlodlarga o‘tkazib kelayotgan milliy urf-odatlari, qadriyatlari umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar birlashuvi ta’siri ostida yo‘qolib ketish xavfi ostida qolayotganligi kabilarni insoniyat oldidagi globallashuv hodisasi bilan bog‘liq xavf-xatar va muammolar sifatida sanab o‘tish, bu xatarni bir so‘z bilan milliy ma’naviyatga bo‘lgan tahdid, deb aytish mumkin. Bunday tahdidlarga qarshi qurollanish faqat ta’limni tarbiya asosida berish orqaligina amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat taraqqiy etishi uchun birinchidan, ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligini ta’minlash lozim, bunda tarbiyaning milliy asosi bo‘lmish milliy qadriyatlarimizdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan tarbiyaga oid fanlar o‘qitilishining o‘rta va oliy ta’limdagi uzviyligini yo‘lga qo‘yish kerak. Bunda maktabning har bir o‘quv yilida dasturga albatta tarbiyaga oid fanni dasturga kiritish lozim bo‘ladi. Masalan, 1-4 sinflarda “Odobnoma”, keyingi yillarda bir-birini to‘ldiruvchi uzviy ketma-ketlikda “Vatan tuyg‘usi”, “Ekologik madaniyat”, “Etiket qoidalari”, “Ma’naviyat asoslari”, “Huquqshunoslik”, “Jamiyatshunoslik”, “Axloqshunoslik”, Estetika” kabi fanlarni o‘qitish lozim, deb o‘ylayman. Uchinchidan, jamiyatda ustoz-muallimlarga nisbatan yuksak ehtiromni shakllantirish choralarini ko‘rish kerak. Bu choralar ichiga o‘qituvchi malakasini oshirish ham, ularga moddiy sharoit yaratish, rag‘batlantirish ham, ularning huquq va sha’nlarini himoya qilish masalalari ham kirib ketadi. To‘rtinchidan, ma’naviyat va ma’rifat markazlari va ularning bo‘limlari faoliyatini ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish lozim. Ya’ni, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar bo‘yicha rahbar o‘rinbosarlari (ularni yoshlar ishlari bo‘yicha, deb atash shart emas, chunki ularning yoshlar bilan ishlashi o‘z-o‘zidan ayon) faoliyati markazlarning hududiy bo‘limlari bilan birga muvofiqlashtirilishi lozim.

Hazrat Navoiy shunday degan ekanlar:

*Menga ne yoru ne oshiq havasdur,*
*Agar men odam ersam, ushbu basdur.[6]*

Bu xuddi “Olim bo‘lma, odam bo‘l” degan naqlni eslatadi. Biz ham faqat olimni emas, ham odam-u, ham olimni tarbiyalasak ayni muddao bo‘lar edi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2021 y. -B. 270.*

*2. Balyukov N.N. Ivanichkin Yu.A. Patriotizm po amerikanskiy. [Elektron resurs]. URL: http: // archive. redstar.ru/index.php/mohov/item/14445-patriotizm-po-amerikanski (ko‘rilgan sana: 19.06.2018)*

*3. Darya Mosolova. Sozdaniye yedinogo koreyskogo gosudarstva – pro et contra. https://cyberleninka.ru*

*4. Soljenitsin A. I. Rossiya v obvale. M. : Russkiy put, 2006. S.153.*

*5. Se Ilin, Kovrijnix O. A. Ob opitax patrioticheskogo vospitaniya studentov v Kitaye // Sotsialno-politicheskiye i kulturnie problemi sovremennosti: sbornik nauchnix trudov po materialam I Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii 31 maya 2016 g. Nijniy Novgorod: NOO “Professionalnaya nauka”, 2016. C. 73–75.*

*6. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar. O‘z.dav.nashr. Toyent -1951-y. “Farhod va Shirin” dostonisha so‘zboshi. B. – 495.*

## TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI USTUVOR VAZIFALARNI TA’MINLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Akbar O‘TAMURADOV,**
*Mirzo Ulug‘bek nomidagi*
*O‘zbekiston Milliy universiteti*
*Falsafa fanlari nomzodi, professor*

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga javob bera oladigan obyektiv zarurat bo‘lib, ta’lim-tarbiya tizimi rivojining mutanosibligini ta’minlashga qaratilgan dasturul-amaldir. Yangi O‘zbekiston strategiyasi kitobida ta’kidlanganidek: “Maktabgacha ta’lim va maktab ta’lim, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to‘rt uzviy xalqasiga, bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat”. Bu quyidagi holatlarni taqozo etadi.

**Birinchidan**, hozirgi davr o‘ziga xos tub yangilanishlar davrini hisobga olish, jumladan, muttasil oldinga intilish, hayotni va tafakkurni isloh qi-

lish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borishimiz zaruratini keltirib chiqardi.

**Ikkinchidan**, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohatlar samaradorligini oshirish uchun, Prezidentimiz ilgari surayotgan Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun barcha fuqarolarimizni dunyoning xilma-xil g'oyalari orasidan o'zbek mentalitetiga har tomonlama mos keladigan maqsad va muddaolarni nazarda tutuvchi ommabop nazariy umumtarbiyaviy ahamiyatga ega harakat dasturlarini ishlab chiqish zarurati.

**Uchinchidan**, tinch va farovon hayot kechirayotgan mamlakatimiz fuqarolari uchun o'z-o'zini anglashiga xizmat qiluvchi, milliy va umumbashariy e'tiqodni targ'ib qiluvchi, ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etishi kerak, degan g'oyaga asoslangan Imom Buxoriy tomonidan aytilgan "Barcha amallar niyatga qarab bo'ladi" so'zlariga doimiy amal qilish ehtiyojini kuchaytirtirishni talab etmoqda.

**To'rtinchidan**, ming yillardan beri ma'naviy merosimizda o'z isbotini topib kelayotgan xalq og'zaki ijodi, muqaddas islom dinini targ'ib qiluvchi hadisu-shariflarda ulug'lanib kelinayotgan eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm ekanligi va bu faqat tarbiya asosida shakllanishini asoslash .

**Beshinchidan**, tarbiyasizlik qashshoqlik keltirib chiqaruvchi omil ekanligi, bilimsizlik oqibatida milliy qadriyatlarga zid keluvchi axloqsizlik fenomeni ko'rinishlari paydo bo'layotganligini muammo sifatida ko'rish. Bilimli bo'lishda avvalo, kitobni sevish va uni o'qish, zamonaviy ilmlarni egallash orqali bunday muammolarga qarshi kurashish talab etilmoqda.

**Oltinchidan**, yurtimizdagi eng muhim tarbiya o'chog'i bo'lgan mahalla tizimi, OAV, raqamli iqtisodiyot (mobil va simli Interet tarmog'i), "Bir million dasturchi" loyihasi, robototexnika va IT parklar, sog'lom turmush tarzi, "Ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi", "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi", "Maktab faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi" bo'yicha g'oyalarni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirib borilishi talab etiladi.

**Yettinchidan,** "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish; milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini oshirish, madaniyat va san'atni yuksaltirish; muqaddas islom dinining insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, "jaholatga qarshi – ma'rifat" tamoyili asosida unib-o'sib kelayotgan yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash; turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi tinchlik va barqarorlik, o'zaro hurmat va hamjihatlikni yanada mustahkamlash; davlat siyosatida barcha millat va elat vakillarining milliy o'zligini, ona tili va madaniyatini, dini, urf-odat va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish.

Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni, xususan “Tarbiya” fanini o‘qitishni tizimli tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu fanni o‘qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta’lim va tarbiya fanining uzviy birligini, o‘qitish davomida o‘quvchilarning g‘oyaviy-siyosiy saviyasi muttasil o‘sib borishini, ularda ko‘nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak.

Shuningdek, bunda ta’limning boshqa shart– sharoitlari: o‘quvchilarning saviyasi, bilimi, ko‘nikma va malakalari; dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o‘tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta’limdan ko‘zlangan maqsadlarni o‘qituvchi qanchalik chuqur anglab olgan bo‘lsa, tarbiya fanini o‘qitish mazmunan shunchalik g‘oyaviy va tarbiyaviy natija beradi. Binobarin, DTS asosida o‘quvchilarga o‘rgatiladigan “Tarbiya” fani ta’limidan ko‘zda tutilgan maqsad, ta’lim-tarbiyaviy vazifalar oldindan aniq belgilanishi o‘quvchilar bilimining rivojlanib, chuqurlashib borishiga, voqealarning mohiyatini puxta tushunib olishlariga yordam beradi, zarur ko‘nikma va malakalarni yuzaga keltiradi, o‘quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini o‘stiradi.

Tarbiya fanini o‘qitishning samarali bo‘lishida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o‘ynaydi. Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning bilish faoliyatining faol bo‘lishligi juda ko‘p omillarga, avvalo, mashg‘ulot mazmunining g‘oyaviy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo‘lishiga, o‘qituvchining eng muhim jonli va ishonarli tarzda ochib bera olishiga va bu voqealarni chuqurroq o‘rganib olishning muhimligini o‘quvchilarning tushunib olishi hamda ularda o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otishga bog‘liqdir. Bu o‘rinda o‘qituvchining o‘quvchilarni mashg‘ulot mazmunini o‘zlashtirib borishi ustidan qilgan nazorati, o‘quvchilar o‘rganishini boshqara bilishi, shuningdek, ularning yangi bilimlarini o‘zlashtirish uchun o‘zlaridagi mavjud bilim va malakalardan foydalana bilishi, ya’ni o‘zlashtirilgan bilim va egallangan malakalarini aktuallashtirilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida ustoz va shogirdlar o‘rtasida ma’naviy yaqinlik, sog‘lom va estetik kayfiyat vujudga keltirilishi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtiradi, darsning samaradorligini oshiradi.

Tarbiya faninining har bir kursi, uning bo‘limi va har bir mavzusi o‘quvchilarning bilim olishi, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishi va kamol topishida muhim bir bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, o‘qituvchi Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bilim va malakalarni egallashi, kamol topishi sohasida bosib o‘tilgan bosqichlarni, bunday keyin bosib o‘tiladigan bosqichlarni oldindan ko‘ra bilishi lozim [2].

Individual ta’lim tarayektoriyasida pedagog talabaga tanlov imkoniyatini yaratib berib, o‘zi maslahatchi vazifasini bajaradi. Pedagog dars jarayonida quyidagilarni amalga oshiradi:

– talabalarning individual qiziqshlarini hisobga oladi;
– ta’lim faoliyati xususiyatlarini;
– mashg‘ulotlarning samarali turlarini;
– o‘quv materiallar bilan ishlash metodlarini;
– o‘quv materiallarini o‘zlashtirish xususiyatlarini;
– bevosita ta’lim trayektoriyasini tuzishda qatnashish va uning imkoniyatlarini o‘rganish;
– qobiliyatini ishga solib, rejalashtirilgan natijaga erishish uchun qilmoqchi bo‘lgan harakatini baholay olishni o‘rganish.

Bugungi kunda pedagoglarning professional standarti konsepsiyasining motivi shiddat bilan rivojlanayotgan ochiq jamiyatda o‘quvchilarga faqat vazifa berish emas, uni o‘z imkoniyatlarini, qobilyatlarini ochib bera olishini namoyon etishi kerak. Individual ta’lim trayektoriyasini pedagog, avvalo, o‘zi o‘zida qo‘llay olishi kerak. Bunda pedagog quyidagilarni inobatga olishi lozim bo‘ladi:

– pedagogning umumiy kasbiy tayyorgarligi, ish tajribasi, kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari;
– kasbiy va ijtimoiy faoliyati holati;
– psixologik xususiyatlari (temperamenti, xarakteri, emotsionalligi)
– kommunikativ xususiyatlari;
– kasbiy, ijtimoiy, bilish motivlarining shakllanganligi va turg‘unligi;
– optimal qarorlar qabul qila olishi, o‘zi uchun eng qulay hamda samarali shakl va usullarni tanlay olishi;
– refleksiyasi, faoliyati mazmuni va ehtiyojlarini anglashi;
– jaholatga qarshi ma’rifat asosida islomdagi odob-axloq me’yorlarini bilishi.

Individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashda pedagog va maslahatchi hamkorlikda ishlashlari hamda quyidagilarni inobatga olishlari lozim bo‘ladi:

– pedagogning umumiy kasbiy tayyorgarligi, ish tajribasi, kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari;
– kasbiy va ijtimoiy faoliyati holati;
– psixologik xususiyatlari (temperamenti, xarakteri, emotsionalligi va b.), kommunikativ xususiyatlari;
– kasbiy, ijtimoiy, bilish motivlarining shakllanganligi va turg‘unligi;
– optimal qarorlar qabul qila olishi, o‘zi uchun eng qulay hamda samarali shakl va usullarni tanlay olishi;
– refleksiyasi, faoliyati mazmuni, ehtiyojlarini anglashi va boshqalar.

O‘zbekistonning ta’lim tizimini rivojlantirish borasidagi tajribasini o‘rganib yuqoridagi fikrlarga qo‘shimcha qilgan holda quyidagilar tavsiya etiladi:

– ta’lim sohasida, zamonaviy kadrlar talab qilinadigan tarmoqlar vakillari o‘rtasida xalqaro hamkorlikni muntazam rivojlantirish;

– kadrlar tayyorlash sifatini ularning raqobatbardoshligi va kadrlarga ehtiyojini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratgan holda, milliy ta'lim tizimlarini modernizatsiya qilish;

– uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish munosabati bilan "Bilim – butun hayot davomida har bir inson uchun" konsepsiyasiga asoslangan Kadrlar tayyorlash milliy dastrini joriy etish;

– ta'lim tizimida ma'naviy, ma'rifiy va mafkuraviy tarbiyadan avval axloqiy tarbiyani kuchaytirish;

– ta'lim tizimida bizga yot bo'lgan odatlar va qarashlarga nisbatan sobit e'tiqodni, mafkuraviy immunitetni yaratish;

– milliy g'oyani innovatsion targ'ibot texnologiyalari va yoshlarni axborot-psixologik xurujlaridan himoya qilishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

– har bir insonga nisbatan noyob iste'dod egasi deb qarash.

– Bag'rikenglik, shu bilan birga yot, zararli g'oyalarga qarshi murosasizlik.

Yuqoridagi tavsiyalarga tayangan holda jamiyatda bilimli, ma'lumotli va yuksak intellektga ega yoshlarning mavqeini oshirish ta'lim tizimini isloh etishning asosiy prinsiplari bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim sohasida yuqori natijalar ko'rsata olish, uchinchi Renessans poydevorini yaratish imkoniyatlarini izchil ta'minlash mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak".

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**


*1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 56-bet.*

*2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori*

*3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.*

*https://president.uz/uz/lists/view/5774*

*https://lex.uz/docs/4676839*

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA SHAXS QADRIYATLARI TRANSFORMATSIYASINING ASOSIY JIHATLARI

**Maxmud MAJITOV,**
*falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*
*Termiz muhandislik-texnologiya instituti*
*yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha*
*birinchi prorektori,*

***Annotatsiya:*** *Maqolada globallashuv jarayonlari, uning o'ziga xos xususiyatlari va tendensiyalarining shaxs ijtimoiy mohiyatiga ta'siri masalalalari yoritilgan. Xususan, globallashuv sharoitida shaxsga xos qadriyatlar bilan bog'liq transformatsion jarayonlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *Globallashuv, transformatsiya, shaxs, inson shaxsi, jamiyat, deformatsiya, qadriyat, milliy qadriyat, demokratiya normalari, ijtimoiy mohiyat.*

Ma'lumki, kishilik jamiyati shaxsning shakllanishi jarayoniga muttasil ta'sir ko'rsatib kelgan. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar, fenomenlar shaxs hayotiy maqsadlari xarakterini, dunyoqarashini, o'ziga yuklangan ijtimoiy rollarga munosabatini, o'z faoliyatida amal qiladigan tamoyillarini belgilovchi asosiy omil bo'lgan. Jamiyatdagi jarayonlar murakkablashgani, ko'lami kengaygani sayin ularning inson shaxsi shakllanishiga ta'siri ham jiddiylasha bordi. Jumladan, o'tgan asrning so'nggi choragida shakllana boshlagan globallashuvga xos xususiyatlar, jarayonlar va tendensiyalar shaxs ijtimoiy mohiyatining transformatsiyasiga olib keldi. Globallashuv davrining shaxs ijtimoiy mohiyatiga ta'siri mazmuni shu qadar murakkab, ko'lami esa shu qadar kengki, inson shaxsi ijtimoiy taraqqiyotning biror o'zga davrlarida bu kabi transformatsion jarayonlarni boshidan kechirmagan.

Avvalo "transformatsiya" tushunchasining mazmuniga to'xtalsak. Ushbu tushuncha lotin tilidagi "transformatio" so'zidan olingan bo'lib, ibtidoda "o'zgarish", "burilish" ma'nolarini anglatgan.[1] Bugungi kunda ushbu tushuncha ayniqsa fizika, genetika, lingvistika, san'at va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi. Xususan, fizikada u o'zgaruvchan elektr toki kuchlanishining pasayishi yoki oshishini ifodalaydi. Genetikada DNK molekulasining organizm hujayrasi tomonidan o'zlashtirilishi jarayoni transformatsiya deb ataladi. Lingvistikada transformatsiya deganda so'zlar tartibini o'zgartirish orqali bir gap konstruksiyasidan boshqasini keltirib chiqarish nazarda tutiladi. San'atda aktyor tomonidan o'z qiyofasini tez o'zgartirishiga asoslangan estrada nomeri transformatsiya deb yuritiladi.[1]

Falsafa va psixologiyada "transformatsiya" tushunchasining mazmuni nisbatan boyroq. Bunda mazkur tushunchadagi "forma" so'zi yunon fal-

safasidagi “eydos”, “logos” (g‘oya, mohiyat) tushunchalarining lotincha sinonimi ekanligiga e’tibor beriladi.[2] Bunday yondashuvga asoslanadigan bo‘lsak, transformatsiya bir mohiyat o‘rnini boshqasining egallashi bilan bog‘liq jarayonni anglatadi. Binobarin, shaxs transformatsiyasi – uning ijtimoiy mohiyatini tarkib toptiruvchi elementlarning o‘zgarishi jarayonidir.

Shaxs ijtimoiy mohiyatidagi transformatsion jarayonlar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida uzluksiz davom etgan, albatta. Lekin XX asrning ikkinchi yarmida inson shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarning ko‘payishi mazkur jarayonlarga sifatan yangicha xarakter baxsh qildi.

Gap shundaki, XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan ijtimoiy jarayonlar inson shaxsida qator ijobiy o‘zgarishlarning bo‘y ko‘rsatishiga va shakllanishiga ham zamin hozirladi. Masalan, bu davrga kelib fan va texnika taraqqiyoti jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha tus berishga qodir qudratli kuchga aylandi. Uning mahsullari kishilar turmushining turli jabhalariga jadal kirib kela boshladi. Buning natijasida shaxsning nafaqat fan va texnika yutuqlari haqidagi bilimlari va tasavvurlari, balki ilm-fan yutuqlarini, innovatsiyalarni zudlik bilan o‘zlashtirish qobiliyati ham rivojlandi. Axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish bilan bog‘liq ilmiy muvaffaqiyatlar va kashfiyotlar esa shaxsning turli milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, o‘zga xalqlarning turmush tarzi va faoliyat normalari haqidagi tasavvurlarining kengayishiga zamin yaratdi.

O‘tgan asrning so‘nggi choragida avj pallasiga kirgan globallashuv jarayonlari demokratiya normalarining butun dunyo bo‘ylab tarqalishiga sabab bo‘ldi. Ushbu tendensiya ham inson shaxsi uchun beiz ketmadi. Xususan, bugungi kundagi demokratiya normalari ustuvorligi jahonning turli mintaqalarida istiqomat qilayotgan kishilarning ijtimoiy hayotga munosabatiga, ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Demokratiya normalari ustuvorligi turli jamiyatlarda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirishga bo‘lgan intilishlarni kuchaytirmoqda. “Ijtimoiy adolat – bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e’tiqodidan qat’i nazar qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta’minlashdir. Bu – ta’lim, tibbiyot va boshqa sohalardagi imkoniyatlar tengligidir. Bu – kafolatlangan mehnat faoliyati erkinligi, mansab lavozimlari bo‘yicha ko‘tarilib borishdagi imkoniyatlar tengligidir. Eng muhimi, bu – keksa avlod vakillari va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlikdir”.[3:35] Jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga bo‘lgan intilishning umumsayyoraviy tus olishining o‘ziyoq shaxs e’tiqodi, bilimlari, malakalari, hayotga munosabatiga, ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil vazifasini o‘tamoqda.

Xullas, zamonaviy ijtimoiy tendensiyalarning shaxs ijtimoiy mohiyatiga ijobiy ta’siri ham mavjudligini inkor qilib bo‘lmaydi. Biroq muammoning

mohiyati bunda emas. Mohiyat shundaki, XX asrning so‘nggi choragi va XXI asrning boshlariga kelib globallashuv tendensiyalari ta’sirida shaxs ijtimoiy mohiyatida tashvishli transformatsion jarayonlar sodir bo‘la boshladi.

Zamonaviy tendensiyalar shaxs qadriyatlari va ehtiyojlari tizimini tubdan o‘zgartirdi. Mazkur ijtimoiy tendensiya shaxs ijtimoiy mohiyatida ham o‘z ifodasini topdi: u an’anaviy jamiyat qadriyatlaridan yuz o‘girdi va mutlaqo o‘zgacha xarakterdagi ne’matlarni qadrli deb biladigan bo‘ldi. Uning qadriyatlari tizimida moddiylik primati ko‘zga tashlana boshladi. Shaxs qadriyatlari olamidagi bunday evrilishlar tabiiy ravishda uning ehtiyojlari xarakteri va tarkibini ham o‘zgartirdi.

An’anaviy jamiyatda shaxs moddiy va ma’naviy ehtiyojlari o‘rtasida muayyan proporsionallik mavjud bo‘lgan bo‘lsa, globallashuv davrida bu mutanosiblik buzildi. Shaxs moddiy ehtiyojlari misli ko‘rilmagan darajada oshib borayotgani bois jamiyatda ularni qondirishga xizmat qiladigan obyektlar soni ham ko‘paymoqda. Masalan, Davlat statistika qo‘mitasi taqdim qilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2000 yilda har 10 ming aholiga 22 ta chakana savdo obyekti xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 37 taga yetgan.[4] Ayni paytda ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga bo‘lgan intilishlarning zaiflashayotganini kuzatish mumkin. 2000 yilda har 1000 kishidan 109 tasi teatrlarga tashrif buyurgan bo‘lsa, 2018 yilda kelib bu ko‘rsatkich 72 taga tushib ketdi. O‘zbekistonda 2000 yillarda 6027 ta kutubxona mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib ularning soni 402 taga qisqarib ketgan. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarida 2000 yilda bitta foydalanuvchiga 20 ta, 2018 yilda esa 11 ta kitob yoki jurnal berilgan.[5]

Buning ustiga, shaxsda o‘z moddiy ehtiyojlarini nooqilona qondirish kayfiyati yuzaga keldi. Jumladan, shaxs o‘z moliyaviy imkoniyatlari bilan hohish-istaklari o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelganida ham moddiy ehtiyojlarini qondirish ilinjidan voz kechmaydigan bo‘ldi. Fuqarolarga beriladigan iste’mol kreditlari sonining oshib borayotgani, iste’mol kreditlari va qarzlar taqdim qiluvchi turli tashkilotlarning paydo bo‘layotgani ham shundan dalolat beradi.

Natijada globallashuv sharoitida shaxs ijtimoiy rollari deformatsiyasi sodir bo‘lmoqda. Biz ta’kidlab o‘tganimizdek, inson o‘z hayoti davomida ijtimoiy shart-sharoitlar taqazosiga ko‘ra turli rollarni ado etishga majbur bo‘ladi, ularning ayrimlari butun umr mobaynida, boshqalari esa muayyan vaziyatda ado etiladi. Lekin ularning hammasi ham shaxsning shakllanishi jarayonida jiddiy ahamiyat kasb etavermaydi. Shaxsning butun umri mobaynida ado etadigan kasbiy, oilaviy va ijtimoiy-siyosiy rollarigina eng asosiy ijtimoiy rollar sifatida qayd etilishi mumkin. Biz yuqorida ta’kidlagan tendensiyalar aynan ana shu rollarning deformatsiyasi uchun zamin yaratdi.

Xususan, jamiyatdagi oila to‘g‘risidagi ideallar va tasavvurlarning o‘zgarishi ham shaxs oilaviy rollari xarakteriga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ma’lumki,

bu ideallar asrlar davomida shakllanib kelgan. Qadimgi Misrda bir necha ming yillar avvaloq oila muqaddas maskan sifatida qadrlangan va ulug‘langan – buni papiruslarda saqlanib qolgan “Aka-uka” nomli hikoyadan bilish mumkin.[6:19] Lekin postmodern jamiyatda shaxsning oila haqidagi tasavvurlari mutlaqo yangicha tus oldi. Mazkur o‘zgarishlarning oqibati o‘laroq jamiyatda an’anaviy oila shaklidan farqli o‘laroq fuqarolik kelishuviga asoslangan oilalar, bir jinsli oilalar vujudga kela boshladi. Bu jarayonlar, tabiiyki, shaxsning oiladagi rollari ijrosiga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmadi: u bu rollarni ijrosi muhim va majburiy bo‘lgan faoliyat sifatida qabul qilmay qo‘ydi.

Shu bilan birgalikda shaxsning muayyan guruh vakili sifatida bajaradigan roli ham deformatsiyaga uchradi. Keyingi yarim asr davomida ildiz otgan xulq-atvor va axloq plyuralizmi, madaniyatning demokratiyalashuvi shaxsni turli xulq-atvor modellari, artefaktlar, qadriyatlarga moslashuvchan qilib qo‘ydi. Zamonaviy shaxs o‘zining jamiyatdagi har qanday rolini konformistik pozitsiyadan ado etmoqda. U o‘z rolini o‘zgalardek bajarishga, o‘zgalar faoliyatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zlashtirishga, jamiyatda taqdim qilingan faoliyat normalariga rioya qilishga intilmoqda. Bunday ijro shaxsni ortiqcha muammolardan xalos qilayotgan bo‘lishi mumkin, lekin uni o‘zligidan mosuvo qilmoqda, individualligiga putur yetkazmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki, global jamiyat konformistik kayfiyatga berilmagan, umume’tirof etilgan faoliyat normalarini qabul qilmagan yoxud ulardan chekingan a’zosini tanqid obyektiga aylantiradi, uning hatti-harakatlarini keskin qoralaydi. Bunday yondashuv boshqa mamlakatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekiston hayotida ham tez-tez uchrab turadi.

Natijada globallashuv sharoitida insonning mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga putur yetdi. Biz hayotda amal qiladigan prinsiplariga ega bo‘lgan, o‘z xulqi va faoliyatini ularga bo‘ysundirgan kishinigina mustaqil shaxs sifatida e’tirof etish mumkinligini ta’kidlab o‘tdik. Bunday prinsiplar shakllanishi uchun shaxs mustaqil fikrlashi, ishlashi va yashashi darkor. Jamiyatda bunga turtki beruvchi omillar ko‘paygani sayin shaxs mustaqilligining qaror topishi imkoniyatlari ham kengayadi. Aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy jarayonlar insonning mustaqil fikrlashi, ishlashi va yashashiga hojat qoldirmasa, mustaqil shaxsning shakllanishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Birgina oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini olaylik. O‘zbekiston Axborot Agentligi taqdim qilgan ma’lumotlarga qaraganda, 2019-2020 o‘quv yilida mamlakat oliy ta’lim muassasalariga jami 1 million 66 ming 925 nafar abiturient hujjat topshirgan.[7] Tabiiyki, bunday katta kontingent uchun kirish imtihonlarini individual yoxud jamoaviy yondashuv asosida tashkil qilib bo‘lmaydi. Vaziyatning o‘zi jarayonni muayyan standartlar asosida o‘tkazishni, unda ishtirok etayotgan xodimlar faoliyatini aniq ko‘rsatmalar asosida yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Bu borada mamlakatimizda test

tizimidan foydalanilayotgani bizga ma'lum. Biroq bu tizim o'qituvchiga xam, abiturientga ham mustaqil, ijodiy fikrlash va ishlash uchun zaruriyat qoldirmayapti.

Shaxsning mustaqil yashash ko'nikmasiga ham ziyon yetmoqda. U turmush tarzini o'z orzu-umidlari, ehtiyoj va manfaatlariga qarab emas, umume'tirof etilgan hamda singdirilgan norma va tamoyillar asosida belgilashga, ularga moslashishga odatlanmoqda. "O'tgan asrning 60-yillaridagi avlod rokerlar, xippilar, panklar yoki bitniklar tarzida mavjud madaniyat tipiga norozilik bildirishni odat qilgan bo'lsa, 2000-yillarda shakllangan avlod jamiyatdan ajralmaslikka, turli madaniyat tiplariga befarq munosabatda bo'lishga odatlandi. J.-F.Liotar ta'biri bilan aytganda, bugun radiodan repni tinglaydilar, kinoteatrlarda vestern tomosha qiladilar, qorin to'yg'izgani Makdonaldsga boradilar, mahalliy pazandachilikka asoslangan restoranda tushlik qiladilar, Tokioda tayyorlangan parijcha duxini ishlatadilar va Gongkongda retro uslubida tikilgan kiyimlarni kiyadilar".[8:78] Bunday vaziyatda turmush tarzini mustaqil belgilash imkoniyatlari keskin cheklanmoqda, insonning mustaqil shaxs sifatida kamol topishi jarayoni cho'zilib ketmoqda. Shaxsning mustaqil fikrlashi, ishlashi va yashashiga xalal beradigan bunday omillarning ko'payayotgani uning hayotda amal qiladigan prinsiplarining shakllanishiga to'sqin bo'lmoqda.

Bugungi kunda yuzaga kelgan tendensiyalardan biri odamlarning bir-biridan begonalashuvi, o'zining sun'iy virtual tor dunyosiga kirib olib, individuallik va jamoaviylik kabi ikki asosiy insoniylik belgisini yo'qota boshlaganidir. Yana bir tendensiya bu odamlarning mashinaning, kompyuter va televizorning bir bo'lagiga va asiriga aylanib qolayotganidir.[9]

Globallashuv sharoitidagi bu o'zgarishlar bir tomondan, shaxs fazilatlari tarkibiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, ikkinchi tomondan esa, qator ijtimoiy illatlarning tarqalishiga sabab bo'ldi. Buni "Ijtimoiy fikr" Jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan 2018 yilda o'tkazilgan sotsiologik so'rovda qatnashgan respondentlarning 78,4 foizi qayd qilib o'tdi.[10] Xususan, ishtirokchilarning uchdan biri qayd qilishicha, shaxsning moddiy farovonlik bilan bog'liq hayotiy maqsadlariga xizmat qiluvchi, pragmatik xarakterdagi fazilatlari jadal rivojlanib bormoqda, axloqiy fazilatlar rivoji esa bu sur'atdan ortda qolmoqda.[10]

Ayni paytda ayrim ijtimoiy illatlarning keng ildiz otayotgani ham kuzatilmoqda. Quyidagi ma'lumotga e'tibor beraylik. Tadqiqotchilar M.G'anieva va X.Axmedovlarning 2018 yilda o'tkazgan sotsiologik so'rovlarida ishtirok etgan respondentlarning 59,1 foizi poraxo'rlik, 42,5 foizi sotqinlik, 41,9 foizi ikkiyuzlamachilik, 40,9 foizi kibr, 21,9 foizi befarqlik, 16,6 foizi boqimandalik kabi illatlarni qoraladilar.[11:84] Modomiki, ishtirokchilar ushbu illatlarni kundalik turmushda uchratmagan, ularning salbiy oqibatlarini kuzatmagan bo'lsalar, bunday munosabat bildirmagan bo'lardilar.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, postmodern jamiyat shaxs ijtimoiy mohiyatining transformatsiyasiga olib keldi. Bu jarayon o‘zining pozitiv va negativ jihatlariga ega. Jumladan, zamonaviy tendensiyalar shaxsning ilm-fan yutuqlarini, innovatsiyalarni zudlik bilan o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantirdi, uning e’tiqodi, hayotga munosabati, ijtimoiy faoliyatiga demokratik tus berdi. Ayni paytda postmodern jamiyat sharoitida shaxs hayotiy maqsadlari transformatsiyasi, tafakkurining fragmentarlashuvi, qadriyatlari va ehtiyojlari tizimining deformatsiyasi, bajaradigan ijtimoiy rollari xarakteri va hayotiy prinsiplarining o‘zgarishi sodir bo‘ldi. Bu transformatsion jarayonlar oxir-oqibatda shaxs fazilatlari tarkibi yangicha tus olishiga, ayrim ijtimoiy illatlarning tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Globallashuv sharoitida ilmiy-texnika taraqiyoti, axborot-aloqa texnologiyalari, axborot xuruji va tahdidi insonni juda og‘ir ahvolga olib kelishi mumkinligi ayonlashmoqda. Chunki bu davrda shaxs chinakam g‘oyaviy kurashni boshdan kechirmoqda. Mana shunday vaziyatda birinchidan, ma’naviy tarbiya mazmunini, usul va vositalarini zamon talablari, globallashuv, axborot texnologiyalari va ommaviy madaniyat axborot xuruji, tahdidlarini hisobga olib qayta ko‘rib chiqish, takomillashtirish zarur. Ikkinchidan, haqiqiy gumanizm va vulgar antroponsenrizm o‘rtasidagi farqni, inson erkinligi va mas’uliyati birligini, mumtoz qadriyatlar ahamiyatini yangicha, hozirgi zamon voqeligi bilan bog‘lab talqin qilish kerak. Uchinchidan, odamlarni jamiyatda birlashtirishga qaratilgan, shaxslarning ongini zamonaviy ehtiyoj va talablarga muvofiq ifoda etish va shakllantirishga imkon beradigan milliy va diniy qadriyatlarni chuqur tadqiq etish davr talabidir.

**Foydalanilga Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Transformatsiya // Novыy slovar inostrannыx slov.– M.: Azbukovnik, 2003.*

*2. Urыvaev V. Boychuk B. Transformatsiya lichnosti kak mnogoaspektnaya problema // medpsy.ru.*

*3. Mirziyoyev Sh. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.– T.:O‘zbekiston, 2018.– B.35.*

*4. Ichki savdo. Chakana savdoning asosiy ko‘rsatkichlari // stat.uz.*

*5. Ijtimoiy soha, bolalar va onalar himoyasi statistikasi // stat.uz.*

*6. Teshaboev M. Yoshlarda axloqiy madaniyatni takomillashtirish // Jamiyat va boshqaruv, 2010, №3.– 19-b.*

*7. OTMga qabul tugadi // uza.uz, 2019, 16 iyul.*

*8. Bekmurodova G. Befarqlik va nopisandlik – ijtimoiy konformizm oqibati // QarDU xabarlari, 2018, №1, 78-b*

*9. A.V.Kostina.Massovaya kultura kak fenomen postindustrialnogo obshestva.M. 2011.*

*10. Duxovnost – vajnaya sennost // uza.uz, 2018, 13 mart.*

*11. Ganiyeva M. Axmedov X. Sotsialnoe samochuvstvie molodeji kak vajnыy indikator kachestva jizni // Davlat va boshqaruv, 2018, №2.– 84-c.*

## TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINI MA'NAVIY SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH

**Narimon DEXKANOV,**
*NamDU birinchi prorektori, Siyosiy fanlar doktori, professor v.b.*
**Mirjalol RUSTAMALIYEV,**
*NamDU Yoshlar bilan ishlash,*
*ma'naviyat va ma'rifat bo'limi mutaxassisi*

***Annotatsiya.*** *Mazkur tadqiqotda ta'lim muassasalari o'quvchilarini ma'naviy shakllantirishda ommaviy axborot vositalardan to'g'ri foydalanish usullari va turli axborot xurujlari borasida izlanish olib borilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Axborot makoni, blogerlar, milliy media makoni, direktiv, terrorizm, ekstremizm, integratsiyasi, interaktiv muloqot.*

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2023-yil 27-iyun kuni "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" munosabati bilan yo'llagan tabrigida shunday degan edi: "Axborot makonidagi ustunlik ko'p narsani hal etadigan bugungi murakkab vaziyatda xalqimiz siz, azizlarni demokratik matbuotning asosiy sharti va talabi bo'lgan xolislik, haqqoniylik, milliy manfaatlarimizga sodiqlik kabi prinsiplarga amal qilib, o'z bilim va salohiyati, o'tkir qalami va haroratli so'zi bilan jamoatchilikka ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglab yetishga ko'maklashadigan, ularni buzg'unchi axborot xurujlaridan himoya qiladigan fidoyi insonlar deb biladi.

Biz jamiyat hayotida uchrayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, byurokratiya va korrupsiya kabi illatlarga qarshi kurashishda, avvalo, siz hurmatli jurnalist va blogerlar, ayniqsa, milliy media makonimizga yangi g'oya va tashabbuslar bilan kirib kelayotgan iste'dodli yoshlarimizga tayanamiz"[1].

Mana shunday kunlarda milliy matbuotimizning tamal toshini qo'ygan jadid bobolarimizning: **"Matbuot fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo'lida xizmatchi, odamlar ongu shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko'zgu bo'lmog'i lozim"** degan fikrlari hozirgi kunimiz uchun ham g'oyat muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlashimiz tabiiydir.

Keyingi yillarda yurtimizda ro‘y berayotgan tarixiy o‘zgarishlar natijasida ommaviy axborot vositalarini erkin fikr minbariga, xalqimiz manfaatlarining faol himoyachisiga aylantirish uchun mustahkam huquqiy zamin, ijtimoiy muhit yaratildi.

Umuman olganda, OAV dan milliy qadriyatlar, diniy qarashlarning ijtimoiy hayotga qay tarzda kirib kelayotganligini anglab etish kerak. Barcha sohalarda axborot xurujlarni oldini olish, turli tarzdagi axborot zararlaridan saqlanish muhitini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bugun ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan, lekin ming afsuski, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lmaganlar bilan ishlashda qo‘yidagilarga e’tiborni qaratish darkor:

**Birinchidan,** xulq-atvordagi xatoliklar eng avvalo fikrlash tarzidagi xatoliklarning oqibati bo‘lgani uchun o‘quvchilarning negativ fikrlash tarzining sxemasini o‘zgartirish lozim.

**Ikkinchidan,** fikrlash tarziga ta’sir ko‘rsatish uchun pedagoglar o‘zlarining tushuntirish uslublarini, tarbiya metodlarini o‘zgartirishlari lozim. Ya’ni, ilgari, yuqori tonlarda, direktiv ohangda, “katta roli”da o‘quvchi bilan muloqot qilgan pedagog, endi kerak bo‘lsa, “tengma-teng”, demokratik ohangda, bosqichma-bosqich xatta-xarakatlarni birgalikda tahlil etishga o‘tishlari lozim.

**Uchinchidan,** o‘quvchining o‘z-o‘zini idroq qilishini, o‘ziga bo‘lgan bahosini o‘zgartirish, ya’ni, talabani ijobiy ishlarga yo‘naltirish orqali o‘ziga bo‘lgan bahosini o‘zgartirishga erishish kerak. Nihoyat, shunday vaziyat yaratish lozimki, o‘quvchi ijobiy tajriba orttirsin,ya’ni, o‘zigi, oilasi yoki sinfdosh do‘stlariga, maktabiga manfaatli ish qilib, olqish olsin, ya’ni, ularni jamoat ishlariga keng jalb etish amaliyotini kengaytirish, bu ishdan manfaatdorligini oshirish lozim. Demak, ta’lim va tarbiya jarayonida har bir pedagog yoshlarning mustaqil fikrlashlari uchun sharoit yaratishi lozim, aks holda uning ongi tayyor shablonlar, stereotiplarga shu qadar o‘rganadiki, ular oxir-oqibat har qanday bit’at yoki yot g‘oyalarga ergashib ketaveragan bo‘lib qoladi. Ya’ni, darsni tashkil etishning no‘ananaviy usullariga keng yo‘l ochish, darslarda o‘quvchilar bilan interaktiv muloqotni tashkil etish, ular miyasining yaxshiroq ishlashi, qiziqishi va mustaqil fikrlashiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Jahonda turli nizo va ziddiyatlar avj olayotgani, terrorizm, ekstremizm balosi va boshqa tahdidlar internet makoniga chuqur kirib, moslashib olgani ta’kidladi. Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va ogoh bo‘lishi, har bir masalada, avvalo Vatan manfaatlarini o‘ylab ish tutishi zarur. Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak.

Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasidan boshlab matbuot, televidenie, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san’atiga, bir so‘z bilan aytganda insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir etkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma’naviy extiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”[3].

“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoillar” risolasida milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishning “ta’lim va tarbiya, fan va ilmiy muassasalar; madaniyat va ma’naviyat muassasalari; adabiyot va san’at; din; jismoniy tarbiya va sport; urf-odat, marosim va bayramlar; oila, mahalla va mehnat jamoalari; siyosiy partiyalar; nodavlat tashkilotlar; ommaviy axborot vositalari” kabi 13 vositasi ko‘rsatilgan[4]. Shu munosabat bilan ushbu tizimning har bir komponentini hamda ularning o‘zaro aloqadorlik (integratsiyasi)dagi faoliyatini talabalarning ma’naviy shakllantirishdagi samarasini o‘rganish muhim vazifa hisoblanadi. Ma’naviyat, milliy g‘oya, mafkura va milliy qadriyatlarga bag‘ishlangan anjumanlar va adabiyotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarni milliy istiqlol g‘oyasi asosida ma’naviy shakllantirish bo‘yicha yuqorida ko‘rsatilgan vositalar orasidan eng asosiy, qudratli va ta’sirchan, ijtimoiy fikrni o‘zgartiradigan vosita sifatida ommaviy axborot vositalari nisbatan ko‘proq o‘rganilgan. Jumladan, keyingi yillarda talaba-yoshlarni ma’naviy, mafkuraviy tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining rolini yoritishga bag‘ishlangan izlanishlarga e’tiborni kuchayganini ta’kidlash joizdir. Ayni paytda mamlakatimizda 2140 ta ommaviy axborot vositalari, 745 ta internet nashrlari faoliyat ko‘rsatayotganligini hisobga olganda yuqorida ko‘rsatilgan tadqiqotlarning ko‘lamini etarli emasligini ta’kidlash lozim[5].

Mazkur tadqiqotlarda milliy istiqlol g‘oyasini targ‘ibot-tashviqot qilish orqali xalqimiz ongiga va qalbiga ma’naviyatni singdirish bo‘yicha asosan markaziy OAVlarining imkoniyatlari yoritilgan, xolos. Ularni ro‘yobga chiqarishning shakl, metod va vositalari esa e’tibordan chetda qolgan desak xato bo‘lmaydi. Shuningdek, markaziy gazeta va jurnallar hamda maxalliy matbuotda bosilgan islom dinining ma’rifiy mohiyatini, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni, mustaqillik yillarida keng quloch yoygan tadbirkorlik harakatini, mamlakatimizni jaxon hamjamiyatida tobora mustahkam o‘rin egallab borayotganligini targ‘ibot-tashviqot qilishning birgina o‘zi talabalarda mamlakatimiz kelajagi buyuk ekanligiga etarli darajada iymon keltira olmaydi, desak xato bo‘lmaydi. Har qanday g‘olib mafkuralar sahnaga chiqqanida o‘zining g‘oyaviy ta’sirini mustahkamlash va o‘z mavqeini mustahkam tutib turish uchun emotsional – axborotli vosita (bayram, dabdabali marosim va h.k.)lardan foydalanganliklari bizga uzoq o‘tmishdan ma’lum. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni ommaviy axborot vosita-

lari orqali ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish bo‘yicha o‘tkazilgan taxlillar akademik guruh rahbarlari va fanlar o‘qituvchilarining bu sohada etakchi o‘rin egallashlarini ta’kidlash barobarida, ular faoliyatida uchraydigan kamchiliklarni namoyon qilishga imkon berdi:

– dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni ma’naviy shakllantirish maqsadi, mazmuni, vazifalari, shakl, vosita, metodlari haqida cheklangan va ko‘p hollarda mujmal tasavvurlarga ega ekanligi;

– hozirgi zamon o‘quvchisining ma’naviy qiyofasi, uning yetuk ma’naviy fazilatlari, talaba shaxsini samarali rivojlantirish uchun o‘quv materialining mazmuniga ma’naviy yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya elementlarini uyg‘unlashtirishda etarli bilim va ko‘nikmalarni etishmasligi;

– tarbiyaviy va ma’naviyat soatlarida dunyo xalqlarining taraqqiyot darajasini, yuksalishini tan olishga, ularning turmush tarzidagi ijobiy jihatlarini o‘zlashtirishga talabalarni odatlantirish, akademik guruh talabalarida bag‘rikenglik, tolerantlikni tarbiyalash bilan bog‘liq vazifalarni bajarishga ojizligi;

– o‘z ona tilini, betakror boy madaniyatini yaxshi bilmagan o‘quvchilar o‘zbek xalqining kiyinish madaniyati, qadriyatlari, turmush tarziga bepisandlik bilan mensimasdan qarash, ularda o‘zgalar tilini yaxshi bilish, millat ruhiyatiga yaqinlik, shu millat ruhiyati, madaniyatiga intilish barobarida o‘zi mansub bo‘lgan millat ruhiyatidan uzoqlashishni paydo bo‘layotganligini hisobga olib ular bilan individual ishlash yo‘l-yo‘riqlari to‘g‘risida juda sayoz tasavvurga ega ekanligi va h.k.

Shu munosabat bilan dars va darsdan tashqari mashg‘ulot va tadbirlarda ommaviy axborot vositalari orqali o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirish samaradorligini oshirish maqsadida akademik guruh murabbiy va fan o‘qituvchilariga quyidagilar:

Milliy ma’naviyatimizga doir materiallarni izlab topish, qayta ishlash, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari o‘quv dasturlari mazmuniga singdirish yo‘lyo‘riqlari;

Tarbiyaviy va ma’naviyat soatlari va fanlar mavzulari bo‘yicha mashg‘ulotlarda foydalanish uchun istiqlol yillarida respublikamizning xalq xo‘jaligini barcha sohalarida erishgan yutuqlari bilan talabalarni tanishtirish uchun tayyorlangan jadval, diagramma, magnit va tasviriy vositalarning namunalari;

Fan dasturi va darsliklariga kiritilmagan yoki etarli darajada yoritilmagan masalalar bo‘yicha vaqtli matbuotda bosilgan materiallar asosida baxs-munozara, tadqiqot olib borishga sabab bo‘ladigan muammolarni shakllantirish; va h.k.lar bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Umuman olganda, ommaviy axborot vositalaridan milliy qadriyatlar, diniy qarashlarning ijtimoiy hayotga qay tarzda kirib kelayotganligini anglab etish kerak. Barcha sohalarda axborot xurujlarni oldini olish, turli

tarzdagi axborot zararlaridan saqlanish muhitini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” //Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг подевори. -Т.:-Шарқ. 1997.-39-б.*

*2.https://yuz.uz/uz/news/shavkat-Mirziyoyev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega*

*3. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: Ўзбекистон, 2000.-3-б.*

*4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 27-iyundagi “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni” munosabati bilan yo‘llagan tabrigidan. (https://president.uz/oz/lists/view/6442)*

## MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH

**Abdusattar ABDUGAFFAROV,**
*Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti texnika fanlari nomzodi, dotsent*

***Annotasiya:*** *Ushbu maqolada ma’naviy-ma’rify ishlar jarayonida talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalarining ayrimlari haqida so‘z borib, ularni amaliyotga tadbiq etish to‘g‘risida fikr-mulohazalar bildirilgan.*

***Tayanch atamalar:*** *Mafkura, pedagogik jarayon, texnologiya, rivojlantirish, immunitet, ma’naviyat, g‘oya, tarbiya.*

Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida talabalarning mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish metodikalari, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash mexanizmlari, bo‘lajak muhandis kadrlarning mafkuraviy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o‘qitish modellari texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilgan interfaol dasturlar ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Jahon oliy ta’lim tizimida talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy va mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyoning yetakchi, rivojlangan mamlakatlari AQSh, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarida talabalarning tafakkurini o‘stirish, qobiliyatlarini erta namoyon

etish, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda muammoli o‘qitish, modulli o‘qitish, mahorat darslari, vebinarlar, evristik metodlar, virtual ta’lim texnologiyalarini qo‘llash muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, biz qarashlar, fikrlar, g‘oyalar, mafkuralar degan tushunchalarga nisbatan o‘z qarashlarimizga ega bo‘lishimiz lozim.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat” – deb ta’kidlagan edi[6].

Shu o‘rinda mafkura, ma’naviyat, ma’rifat so‘zlarining izohlari yana bir bor ta’kidlansa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Mafkura (arab. – fikrlar majmui) – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari, maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlari ifodalanayotgan guruh va qatlamlarning o‘tmishi, bugungi kuni va istiqboli o‘z ifodasini topadi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur [8].

Ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasining asosida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘y-basti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir[8].

Ma’rifat – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma’rifat ilm-u urfon ma’nosida ham ishlatiladi. Ma’rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. Ma’rifat ma’naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo‘lishga yordam beradi. Ma’rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo‘ladi.

Ma’rifat – bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma’rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Tasavvufda ma’rifat sufiylarning ruhiy kamolotga erishuvining asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi[8].

Yangi O‘zbekiston sharoitida mafkuramizning tub ma’no-mazmunini belgilab beradigan ana shu maqsad bizning hayotimiz, ong-u tafakkurimizga singib, dunyoqarashimiz, amaliy harakatlarimizning asosiga aylandi va zamonga mos tarzda o‘zgarib bormoqda. Shu yo‘lda yoshlarda mafkura-

ning mazmun mohiyatini to‘liq shakllantirib, tarixiy ildizlarini asoslab, dunyoqarashni rivojlantirish ta’lim-tarbiyada eng muhim vazifaga aylanlog‘i kerak. Ta’lim jaroyonining ajralmas bir qismi bu ma’naviy-ma’rify ishlar, tadbirlar, qadriyatlar sanaladi. Bu borada ishlarni yanada takomillashtirish borasida Prezidentimizning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2021-yil 26-martdagi 5040-son qarori asosida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagi vazifalar belgilandi: 1) “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; 2) oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash; 3) targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish; 4) el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish; 5) aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot hurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish; 6) madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyat-larning ustuvorligiga erishish; 7) geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

Ushbu vazifalarni amaliyotga joriy etishda pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va shu asosida oily ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarni tashkil etish lozim. Shunga muvofiq sanoat sohalari uchun kadrlar tayyorlab beradigan mutasaddi tashkilotlar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini yangicha tashkil qilish muammosini hal qilishga bog‘liqdir. Buning yagona yo‘li zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga keng qo‘llash orqali yechiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ham dolzarb muammo hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, dars, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni yangicha ijodiy asosda tashkil qilish zarur. Eng muhimi har bir pedagog, rahbar ta’limni yangi metodologik asosda tashkil qilishning tub mohiyatini tushunmog‘i lozim.

Yangicha ta’lim eski andozalar asosida olib borilishi mumkin emas. Bundan tashqari ta’limni yangicha tashkil qilishning ilmiy-metodik asosla-

rini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning zaruriy shart-sharoitlarini bilish ham muhim. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror asosida islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar xalqaro miqyosda e’tirof etilib, o‘zining natijasini bermoqda. Natijada O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ancha tezlashdi. Lekin uning kelgusi taraqqiyoti omillarini inobatga olish jahon ta’lim amaliyotida qo‘llanilayotgan yangi va ilg‘or fan yutuqlaridan keng foyda-lanishni taqozo etadi. Chunki zamonaviy texnologiyalar ta’lim oluvchilarning intellektual, ijodiy va axloqiy kamolotining zaruriy sharti hisoblanadi. Ko‘p mamlakatlarda jumladan, bizning respublikamizda o‘tkazilgan tadqiqotlar ta’lim tizimining hamma bo‘g‘ini uchun eng katta kamchilik tahsil oluvchilarning olgan bilimlarini amaliy faoliyatga qo‘llay olmaslik, murakkab hayotiy va iqtisodiy vaziyatlardan mustaqil o‘zi chiqib keta olmaslik ekanligini ko‘rsatdi. Ta’lim islohotimizda jahon ta’limi rivojlanishining ijobiy xususiyatlarini ta’limni amaliy – inson hayoti, shaxsga yo‘nalganlik tajribasini va uni rivojlantirishning muhim vositasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ekanligi asosida uni rivojlanishi asosiy yo‘nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi. Islohot oqibatida ta’lim tizimimiz rivojini jahonga yo‘naltirish – yana juda bir muhim vazifa – ta’lim rivojini bozor munosabatlariga moslashtirishning tajribasidan unumli foydalanish. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda quyidagi texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Jumladan: 1) Katta axborot zaxirasi bilan shug‘ullanishga, bilimlarning aniq tizimini shakllantirish va bilimlarga tayanishga yo‘naltirilgan axborot-rivojlantiruvchi texnologiya; 2) Mustaqil fikrlash, faollikni oshirishga yo‘naltirilgan muammoli ta’lim texnologiyasi; 3) Kasbiy yoki o‘quv faoliyati vositalarini egallashga yo‘naltirilgan faoliyat texnologiyasi; 4) Shaxsning kamoloti yoki ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning faolligini shakllantirishga qaratilgan texnologiya. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayoniga keng qo‘llashda axborot texnologiya, xususan kompyuter texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan yangi axborot texnologiyalar o‘qitish metodlari hamda pedagogik texnologiyalarning ta’lim-tarbiyaviy yoki ularning pedagogik, didaktik hamda potensial imkoniyatlarini to‘liq ochish va ulardan talaba-yoshlar shaxsini rivojlantirish uchun foydalanishda qulaylik yaratadi. Axborot texnologiyalari pedagogik texnologiyalarning ta’sir kuchini oshirib, ularni qo‘llashdan kutilgan natijaga erishish uchun sharoit vujudga keltiradi. Pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv-tarbiya jarayoniga qo‘llash asta-sekin avtoritar o‘qitish metodlaridan insonparvarlik pedagogikasiga yoki shaxs manfaati va kamolotiga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimiga o‘tish imkoniyatini beradi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish mazmunini shunday tanlash lozimki, unda

faqatind mafkuraviy immunitetgina emas, balki shaxsni qobiliyati, intellektual rivoji, uni shakllanishi va o‘zini namoyon qila olishiga zamin hozirlashi lozim. Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalaridan bo‘lajak mutaxassislar o‘z imkoniyati, ta’lim mazmuni, talaba-yoshlar bilim saviyasi va tajribasini hisobga olib tanlashi kerak. Shundagina har qanday texnologiya yuqorida keltirilgan fikrlarni amalga oshirish vositasi bo‘la oladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – T.: “O‘zbekiston”, 2020-yil 23-sentabr.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106 son Farmoni.*

*3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi (https://www.gazeta.uz)*

*4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 975-bet.*

*5. Ortiqov O. R. Globallashuv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillari //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5.*

*6. Ortiqov O. Bo‘lajak o‘qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda umuminsoniy tarbiyaning o‘rni // Центр научных публикаций. – 2021. – Т. 1. – №. 1.*

*7. Ортиков О. Р. Махалла как социально-культурный очаг народа //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 20-23.*

*8. Olimov S. Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 2. – №. 2.*

# YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSH OFITSER KADRLARNI TAYYORLASHDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNING O‘RNI VA ASOSIY YO‘LLARI

**Uktam URUNOV,**
*dotsent, podpolkovnik, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti Gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘i.*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada “Yangi O‘zbekiston” sharoitida yosh ofitser kadrlarni tayyorlashda, qo‘shinlarning jangovar shayligini ta’minlashda, zamonaviy tahdid va xatarlarga munosib qarshilik ko‘rsatishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada harbiy xizmatchilarda, xususan, oliy harbiy ta’lim muassasasi kursantlarida yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy shakl va uslublari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *harbiy-siyosiy vaziyat, tahdid va xatarlar, Qurolli Kuchlar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar, konseptual g‘oya, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari, tamoyillari, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy bosqichlari, ma’naviy qiyofa.*

Bugungi dunyodagi geosiyosiy jarayonlar, harbiy-siyosiy vaziyatning o‘zgaruvchanligi, tahdid va xatarlar ko‘lami ortib borayotgan vaziyatda Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz suvereniteti, xalqimizning tinch va osuda hayotining mustahkam kafolati bo‘lib turibdi.

O‘tgan yillar davomida milliy armiyamizda olib borilgan islohotlar va yangilanishlar natijasida biz hech ikkilanmasdan, davlatimiz, xalqimiz yuqori jangovar qudratga, professional, ixcham, zamonaviy qurol-aslaha va jangovar texnikalar bilan butlangan, hech bir rivojlangan xorijiy davlatning armiyasidan kam bo‘lmagan Qurolli Kuchlarga ega, deb aytishimiz mumkin. Muxtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev *“Milliy armiyamiz mamlakatimizda erkin, ozod va farovon hayot bunyod etish, demokratik islohotlarni samarali amalga oshirish yo‘lida ishonchli kafolat, tog‘dek tayanch”,* deb alohida ta’kidlaganlari bejiz emas.[1]

Darhaqiqat, Qurolli Kuchlarimizning jangovar tarkibini va shayligini baholashda yosh harbiy xizmatchilarning, xususan, ofitserlarning o‘rni katta. Mamlakatimizning umumiy 36,2 mln. aholisining qariyib 19 mln. ya’ni 55 foyizini, mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xizmat qilayotgan kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilarning 76 foyizini 30 yoshgacha bo‘lgan fuqarolar tashkil etishi mamlakaktimizda yoshlarga oid Davlat siyosatini qanchalik muhimligini ko‘rishimiz mumkin.

Aynan yoshlar, sog‘lom va barkamol avlod har qanday jamiyatni taraqqiyotida va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi, armiyamizning ertangi kunini

ham aynan yosh ofitserlar belgilab beradi. Shu sababli davlatimiz rahbari, *“Biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz”*, deb alohida ta’kidlaganlar.[2]

Ma’lumki, xalqaro meyyorlar va mezonlarga ko‘ra Qurolli Kuchlarning jangovar salohiyati, qudrati bir nechta ko‘rsatkichlarga qarab aniqlanadi. Shunday mezonlardan biri bu harbiy xizmatchilarning yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga egaligi hisoblanadi. Zamonaviy qurolli mojarolar va urushlar tajribasi ko‘rsatishicha, harbiy qism va bo‘linmalar qanchalik zamonaviy qurol-aslaha va texnikalar bilan butlangan bo‘lmasin, jang maydonida harbiy xizmatchining ma’naviy, axloqiy-ruhiy tayyorgarligi hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Faol jangovar harakatlar boshlanmasdan turib, aynan harbiy xizmatchining ma’naviy dunyosi va ruhiyati dushmanning birinchi va asosiy nishoniga aylangan.

Ma’naviyati boy inson o‘z Vatanining taqdiri, uning rivoji va himoyasi uchun doim tayyor tura oladi. Shu bois ham bizning jamiyatimiz qalbi toza, imon-e’tiqodi mustahkam, halol-pokiza, go‘zal axloqli, xushmuomalali, ma’naviy barkamol insonlarni tarbiyalash masalasini bugungi kunning eng dolzarb vazifalari qatoriga kiritgan. Shaxs, uning tarbiyasi har qanday jamiyatda bo‘lgani kabi bizning yurtda ham muhim o‘rin egallaydi. Shu o‘rinda mashhur Vatandoshimiz buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan ibratli so‘zlari bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan globallashuv jarayonlarining turli salbiy ta’sirlaridan himoyalanishning yagona yo‘li, yoshlarni zamon talablari asosida tarbiyalash zarurligini yana bir bor isbotlamoqda. Ushbu ibratli so‘zlarni aytilganiga bir asrdan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan uning ahamiyati bugungi kunga kelib ham kamaygani yo‘q. Aynan tarbiyali, ma’rifatli va yuksak ma’naviyatli shaxslargina har qanday davlatning, jamiyatning yorqin kelajagini ta’minlab beradi.

Shulardan kelib chiqib, bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samaradorligini oshirish doirasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Dastlab, 2018-yil 4-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorining qabul qilinishi, ushbu qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlangani, 2023-yil 8sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining, shuningdek, bir qator idoraviy hujjatlarni qabul qilinganligi ma’naviy-ma’rifiy,

tarbiyaviy va mafkuraviy hamda axloqiy-ruhiy ishlarning huquqiy asoslarini yaratib berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar **“Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!”** degan konseptual g‘oya asosdia tashkil etilishi belgilandi.[3]

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni ma’naviy, ma’rifiy, madaniy va axloqiy-ruhiy yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilishi yo‘lga qo‘yildi. Vatanparvarlik, sadoqat, halollik, adolat va intizom kabi muhim tamoyillarni ustuvor etib belgilangani o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda. [4]

Harbiy xizmatchilarning ma’naviyati va dunyoqarashlari, Vatanga bo‘lgan sadoqat tuyg‘ulari, vatanparvarligi, harbiy kasbga bo‘lgan qiziqishlarini takomillashtirishning uzluksizligini ta’minlash maqsadida, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning uch bosqichda amalga oshirish tizimi joriy etildi.

*Birinchi bosqich* (shakllantirish) o‘z ichiga Temurbeklar maktablari va akademik litseylarning maxsus guruhlarida ta’lim olayotgan o‘quvchi-yoshlarni qamrab olmoqda.

*Ikkinchi bosqich* (rivojlantirish) tadbirlari o‘z ichiga oliy harbiy ta’lim muassasalari va oliy ta’lim muassasalarining harbiy kafedralarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining kichik mutaxassislarni tayyorlash markazida ta’lim olayotgan kursantlar bilan tashkil etilishi belgilandi.

*Uchinchi bosqich* (takomillashtirish/qo‘llash) qo‘shinlarda muddatli va mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha harbiy xizmatni davom ettirayotgan kontrakt asosida harbiy xizmatni o‘tayotgan oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibi bilan tashkil etilishi belgilandi.

Qurolli Kuchlarimiz uchun yosh ofitser kadrlarni tayyorlashda oliy harbiy ta’lim muassasalarining (keyinchalik OHTM) o‘rni katta. Aynan OHTM-da taxsil olish davomida kursantlarda bo‘lg‘usi ofitser sifatida barcha zaruriy fazilatlar shakllanadi va rivojlanadi.

Kursantlar bilan olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarda quyidagi shakllaridan keng foydalanilmoqda:

ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik; ma’naviyat soati; tezkor axborot; kitob mutoolasi; savol-javob kechalari; viktorinalar; ekskursiyalar; mavzuviy kechalar; “Mardlik va jasorat” darslari; uchrashuvlar (shoir va yozuvchilar, fan va madaniyat arboblari, faxriylar va yoshlar bilan); harbiy-vatanparvarlik aksiyalari; muzey va teatrlarga tashriflar; teleko‘rsatuvlar tomoshasi va muxokamasi; yakka tartibdagi suhbat; umumiy yig‘ilishlar; sport va intellektual uyinlar; ko‘rik-tanlovlar; yakunlar, taxliliy ishlarni o‘tkazish; ahloqiy-ruhiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari va mashqlari.

Xususan, *ofitserlar bilan;* ofitserlik shanini saqlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishdan, tanlagan ofitserlik kasbidan faxrlanish tuyg‘usini shakillantirish, kasbiy mahoratini oshirishga intilish,

qo‘l ostidagilarning ta’lim olishi, tarbiyalanishi uchun shaxsiy ma’suliyat, pedogogik madaniyat, shaxsiy tarkib qadr – qimmatiga hurmat;

*kontrakt asosidagi harbiy xizmatchi serjant va oddiy askarlar bilan;* xizmat va mahsus majburiyatlariga vijdonan munosabatni shakllantirish, harbiy burchni bajarishda shaxsiy na’muna bo‘lish; kasbiy mahoratni oshirishga intilish; komandir boshliqlarga qo‘l ostidagilarni tarbiyalashda, sog‘lom turmush tarzi yuritishda yordam berish;

*OHTM kursantlari va tinglovchilari bilan;* Vatanga sadoqat, o‘qishga, harbiy burchni bajarishga vijdonan yondashish ruhida tarbiyalash; yuksak bilimlarni va harbiy rahbarning ma’naviy – jangovar sifatlarni, tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish bo‘yicha bilim va uslubiy ko‘nikmalarini, o‘z ustida ishlash, sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan intilishni shakillantirish zarur.

Kursantlarda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish kundalik faoliyatdagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bilan bir qatorda gumanitar fanlar kafedrasida o‘zlashtiriladigan fanlar doirasida ham amalga oshiriladi. Mustaqil tayyorgarlik vaqtida kursantlar kafedrada faoliyati yo‘lga qo‘yilgan turli intellektual va ma’naviy-ma’rifiy to‘garaklarda, seminar va konferensiyalarda qatnashish orqali o‘zini har tomonlama rivojlantirish imkoniyatiga ega.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash joyizki, bugungi kunda Qurolli Kuchlardagi ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar faqat komandirning va uning o‘rinbosarlarining ishigina bo‘lmasdan, balki barcha mansabdor shaxslarni, davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining ishiga aylanganligi, ushbu yo‘nalishdagi tadbirlar mavsumiy ko‘rinishga ega bo‘lmasdan tizimli ravishda olib borilayotganligi katta yutug‘imizdir.

Bugun kursantlarimiz, harbiy xizmatchilarimiz faqat o‘zlari yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘libgina qolmay, balki fuqaro yoshlarni ham harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarida faol qatnashib kelishmoqda. Viloyat, shahar va tuman markazlarida, jonajon o‘lkamizning eng chekka go‘shalarida o‘tkazilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy va mafkuraviy tadbirlarni, bayramlarni nishonlashni harbiy xizmatchilarni ishtirokisiz tasavvur etish murakkab bo‘lib qoldi. **“Xalq va armiya – bir tanu bir jondir!”** g‘oyasi so‘zda emas amalda, fuqarolarimizning qalbida o‘z tasdig‘ini topmoqda.[5]

Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar natijasida biz hech ikkilanmasdan, bugungi armiya – bu kechagi armiya emas, bugungi harbiy xizmatchi – bu kechagi harbiy xizmatchi emas, uning ma’naviy qiyofasi, yuksak ma’naviyatli, mustahkam jangovar ruhga ega harbiy xizmatchilar bilan butlangan armiya-yengilmasdir!

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi ulkan g‘oyalarimizni ro‘yobga chiqarishda millatimiz aynan vatanparvar, o‘z burchiga sadoqatli va ma’rifatli insonlarga tayanadi, bunday xalq, jamiyat farovon hayotga munosibdir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -592 b.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gaz. 2020-yil 30-dekabrdagi 276-soni.*

*3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son Qarori.*

*4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2019-yil 12-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha Qo‘llanmani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 202-sonli buyrug‘i.*

*5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № F-4 Farmoyishi.*

## YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-AXLOQIY ONG MUAMMOSI

**Kimyoxon KAMOLOVA,**
*Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi*
*Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada jamiyatimizdagi ma’naviy-axloqiy muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada yoshlar tarbiyasidagi axloq bilan bog‘liq masalalar ochib berilgan.*

***Kalit so‘zi:*** *ma’naviyat, tarbiya, axloq, ahloqiy tarbiya, ma’rifat, fazilatlar, ma’naviy-axloqiy ongi, tafakkur.*

***Bugungi murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va ogoh bo‘lishi, har bir masalada, avvalo Vatan manfaatlarini o‘ylab ish tutishi zarur. Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak.***

**Sh.Mirziyoyev**

Butun dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar yoshlar tarbiyasiga, ularning ma’naviy-axloqiy ongiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlarning ma’naviy-axloqiy ong masalasi muammoga aylanib qoldi. Chunki hozirgi vaqtda axloqiy qadriyatlar ierarxiyasidagi tenglashtirish tamoyili yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, shaxs va jamiyat faoliyatida axloqiy qoidalarining buzilishi kuzatilmoqda, ma’naviy-axloqiy ongni yuksaltirish siyosatiga e’tibor bermayotgan davlat siyosatining o‘rnini esa internet va ko‘pincha, shubhali axloqiy mahsulotlarni tortiq qilayotgan “ommaviy madaniyat” unsurlari egallashga ulgurdi. Bunday muammolarning oldini olish va bartaraf etishda ma’naviy-axloqiy ongning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Insonning dunyoga bo‘lgan munosabati uning falsafiy tafakkur, ong va qarashlarida o‘z ifodasini topadi. Ma’naviy-axloqiy ong rivojining tarixida ma’no-mazmuni turlicha bo‘lgan qarashlar esa insonning olgan tarbiyasiga bog‘liq. Buni ma’naviy pok va ma’naviy nopok odamlarning jamiyat ijtimoiy-ma’naviy hayotining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelayotganliklarida ko‘rishimiz mumkin.

Yoshlarda ma’naviy-axloqiy ongi, birinchidan, uning dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ham jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotida o‘ziga xos o‘ringa ega; ikkinchidan, ijtimoiy hayot sohalari bilan bog‘liq; uchinchidan, metodologik nuqtai nazardan, jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotini bilish, o‘rganish orqali jamiyatga ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’naviy axloqiy ong bevosita inson ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan fenomen bo‘lib, u bir necha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Uning ko‘rinishlaridan biri dunyoqarash.

Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o‘rniga, odamlarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy yondashuvlar tizimi, bu qarashlarga asoslangan insonlarning e’tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillaridir. U insonning yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, g‘oyaviy nuqtai nazari, o‘zi yashayotgan jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Demak, yoshlarning dunyoqarashi sanab o‘tilgan yo‘nalishlar bilan boyitib borilsa, u o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglay boshlaydi hamda, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan uyg‘unlashadi. Chunki, dastlab individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda u voqelikni bevosita hissiy in’ikos etish natijasida anglaydi. Keyin voqelik xaqida to‘plagan bilimlari asosida individning dunyoqarashi paydo bo‘ladi.

Ma’naviy-axloqiy ongning namoyon bo‘lish shakllaridan biri – xulqi. Yoshlarning ilmiy salohiyati, iqtidori, izlanishlari, muvaffaqiyatlari, kashfiyotlari har qaysi odamni quvontirishi tabiiy. Lekin qator muvaffaqiyatlarimizdan havolanmay, eng muhim nuqta – yoshlarning ma’naviy kamoloti,

bilimi, xulq-atvorini ham unutmaslik zarur. Chunki xulq-atvor talabaning ma'naviy qiyofasini ko'rsatib turuvchi asosiy holatdir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy mavjudod hisoblangan insonning xulq-atvori, dunyoqarashi, odob-axloqi, ma'naviy qiyofasi, ijtimoiy muhitga bog'liq. Inson ijtimoiy muhit hosili sifatida shakllanib, kamolotga erisha boradi. Demak, bola ta'lim olayotgan muassasa, uning atrofidagi muhitda ta'sir kuchi qaysi tomonga ko'proq yo'naltirilsa, uning xulqi ham o'sha tomonga og'ishni boshlaydi.

Ma'naviy-axloqiy ongning namoyon bo'lish ko'rinishlaridan yana biri "madaniyat" hisoblanadi.

Madaniyat – ijtimoiy ko'rinishga ega bo'lib, insonni boshqa barcha tabiiy-biologik dunyodan ajratib turadi. Madaniyat tushunchasini ayrim olimlar arabcha "madina" va "iyat" so'zlarining qo'shilishidan kelib chiqqan va u "shaharga oid" ma'nosini anglatadi, deb hisoblaydilar. Yevropalik olimlar madaniyat tushunchasi "kultura" so'zidan kelib chiqqan, u parvarishlash ma'nosini bildiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Madaniyat o'zbek tilida tarbiya ko'rganlik, bilimlilik, sifatlilik ma'nolarida ishlatilgan.

Madaniyat inson va jamiyat ijodiy faoliyatining barcha ko'rinishlari, uning oqibatida yaratilgan jami moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Eng umumiy ko'rinishda madaniyat tushunchasi deganda odamlar hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllari va turlarida, hamda ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topgan jamiyat va inson taraqqiyotining muayyan tarixiy saviyasi tushuniladi[18]. Endi mana shu ma'naviy-axloqiy ongning ko'rinishlarini yoshlar ongida shakllantirish, yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildira olish, yaxshini-yomondan, oqni-qoradan ajrata olish masalasi hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda ma'naviy-axloqiy ong va tafakkurda yangicha yondashuv, prinsip hamda g'oyalar shakllandi. Jumladan: 1) ma'naviy ong falsafaning tarkibiy qismi ekanligi e'tirof etilmoqda; 2) jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotiga formatsion qarash o'rnida sivilizatsion yondashuv shakllanmoqda; 3) ma'naviy-axloqiy ongda din va diniy qadriyatlarga, dinning jamiyat ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyotidagi o'rniga alohida e'tibor berila boshlandi. Bular jamiyatning yangicha ma'naviy-axloqiy ong negizida rivojlanishiga asos yaratdi. Shuningdek, vatan va millat oldida mas'uliyatni his qiladigan, muammolarni tahlil qilish va ularning yechimlarini topadigan, dolzarb masalalar yuzasidan to'g'ri xulosa chiqaradigan kelajak yoshlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy ongi masalasi bo'yicha davlatimiz tomonidan bir qator hujjatlar qabul qilindi va amaliyotga joriy qilindi. Birgina 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1053-son-

[18] Гимопинов В.И. Культерология. Алмата 1997. – Б. 225.

li Qarori ma’naviy tarbiya masalasiga qaratildi. Unda tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash; aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish; ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga karshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish masalalari belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarish vazifalari belgilangan.

Shayx Sa’diy o‘zining “Guliston” asarida axloqiy tarbiya masalasida shunday deb yozgan edi: “Kimda-kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo‘lgach, baxtli bo‘la olmaydi. Ho‘l novdani istagancha bukish mumkin, quruq novdani faqat olovda toblab to‘g‘rilash mumkin”, – deya ta’riflab o‘tgan.

Hayotning mazmunli bo‘lishida beriladigan ta’lim-tarbiyaning dastlabki poydevori oilada boshlanadi. Oilada ota-ona tomonidan farzandining tarbiyasi, uning odob-axloqi va ma’naviy yuksaligi uchun sharoitlar yaratiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari, oliy ta’lim muassasalari esa odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Faqatgina bu maqsadga yetishish uchun uzluksizlikni ta’minlay olish zarur.

Fuqarolik jamiyati ijtimoiy hayotning davlat ta’siri va aralashuvidan, ma’muriy tazyiqlardan xoli bo‘lgan hamda insonlarning erkin munosabatlaridan tashkil topuvchi, yoshlarning ijodiy salohiyati va iste’dodining bevosita ro‘yobga chiqarilishiga keng imkoniyat yaratilgan ongli individlar jamiyati. Bunday jamiyatni shakllantirishda yoshlar eng katta shijoatli kuch hisoblanadi. Bu kuch esa yoshlarning ma’naviy-axloqiy ongining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq. Yoshlarni “Chuqur bilim, insoniy fazilat va huquqiy madaniyat bilan yuksak axloqiy ma’rifat sari” konseptual g‘oyasi asosida tarbiyalab ularning yuksak ma’naviyatli barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishlari shart. Shundagina yangi O‘zbekistonda yangicha fikrlaydigan, Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar mujassamlashgan kelajak avlod shakllanadi.

# YOSHLARNI MA’NAVIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING O‘RNI

**Asliddin DUSBOYEV,**
*dotsent, podpolkovnik Chirchiq OTQMBY*
*Gumanitar fanlar kafedrasi sikl boshlig‘i.*
*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti erkin izlanuvchisi.*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada jamiyatda yoshlarni, harbiy xizmatchilarni ma’naviy qiyofasi va intellektual salohiyatini shakllantirishga qo‘yilgan talablar, yoshlarongini shakllantirishda ma’navi-axloqiy tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni va roli yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *yoshlar, ma’naviyat, tarbiya, odob, axloq, davlat, jamiyat, qiyofa, intellekt, salohiyat, mas’uliyat, harbiy, adolat, xalollik, intizom.*

Yurtimizda yoshlar ma’naviyati va tarbiyasiga bo‘lgan e’tibor kundan-kun ortib bormoqda. Ayniqsa keyingi vaqtlarda davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan “Inson qadri uchun” tamoyili [1] asosida xarqimizning farovonligini yanada oshirish va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash, davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy sohalarini rivojlantirish bilan bir qatorda mamlakatda yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish borasida ko‘lamli ishlarni amalga oshirilayotganligi fikrimizning yaqqol misolidir. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan O‘zbekiston yoshlariga yo‘llagan bayram tabrigida ham bugungi yoshlar “Yangi O‘zbekiston bunyodkori bo‘laman!”, “Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga munosib hissa qo‘shaman!”,– degan yuksak maqsadlar bilan fan va texnologiyalar ilmini mukammal o‘zlashtirish, ma’naviy-axloqiy fazilatga va chuqur bilimlarni egallashga barcha imkoniyat eshiklari ochiqligiga alohida e’tibor qaratilganligini ta’kidlash joiz.

Globallashuv sharoitida bugun dunyo misli ko‘rilmagan sur’atlar bilan keskin o‘zgarib bormoqda. Jamiyat va ijtimoiy hayotimizda ko‘plab ijobiy jarayonlar bilan birga, yoshlarning ongu-tafakkuri va qalbini egallashga qaratilayotgan ma’naviy tahdidlar va xavf-xatarlar ham tobora kuchayib bormoqda. Bunday murakkab sharoitlarda kelajagimiz bunyodkori bo‘lmish yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni zararli ta’sirlardan, xavf-xatarlardan saqlash, doimo ogoh va hushyor bo‘lib yashash barchamizning eng dolzarb vazifamiz bo‘lib qolmoqda.

Yoshlarning ma’naviy qiyofasi tarbiyada, ma’naviyati va odob-axloqida namoyon bo‘ladi. Odob-axloq meyorlari ba’zi yoshlarda “ehtiyoj” sifatida qabul qilinsa, ba’zilarida esa “majburiy” sifatida qabul qilinadi. Chunki, har

bir shaxsda individual xususiyatlar mavjud. Binobarin, ma'naviy qiyofani shakllantirishda har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatini anglash, unga individual tarzda yondashishni taqazo etadi.

Yoshlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish uchun avvalo ma'naviy qiyofa tushunchasini anglab yetishi zarur bo'ladi. Buning uchun ma'naviy qiyofani o'zida aks etuvchi tarbiya, ma'naviyat, odob-axloq va boshqa tushunchalar haqida fikr yuritishimiz lozim.

Tarbiya (arabcha – rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish; o'rgatish, ilm berish degan ma'nolarni anglatadi). Bu ta'lim, axloq-odobni o'rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg'aytirish, o'stirish [4] deganidir.

Ma'naviyat (arabcha – axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar. xususiyatlar) insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy tasavvurlari va tushunchalari majmui tushuniladi. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir" [2],– deb ta'rif berilgan.

"Ma'naviy" so'zi (arabcha – ma'noviy; aqliy; axloqiy), ma'naviyatga oid, ma'naviyat, axloq bilan bog'liq, ma'naviyatli [4] ma'nolarini anglatadi.

"Qiyofa" so'zi arabchada – tashqi ko'rinish, yuz, aft, qaddi-qomat, o'zini tutish ma'nolarini anglatib, kishilarning qilayotgan ishlari ularning qiyofasini belgilab beradi [4]. Demak, ma'naviy qiyofa – jamiyatda kishinig ma'naviy, ruhiy va axloqiy xususiyatlari, tafakkuri, dunyoqarashi, intellekti va bilim salohiyatining majmuini anglatadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Odob (arabcha – "adab" yaxshi tarbiya, ma'qul harakat), ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq, tarbiya, xushmuomalalik [4] ma'nolarini anglatadi.

Axloq (arabcha – kishining tabiati), muomala, xatti-harakat, odobi [4] ni anglatadi.

Ushbu tushunchalarni umumlashtirgan holda ma'naviy-axloqiy tarbiya – yoshlarni xalqimizning boy milliy-madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar orqali tarbiyalashdir.

Jamiyatda axloqiy yuksaklik darajasini shaxslarning tarbiyasi, ma'naviyati, axloqiy madaniyati, ya'ni ma'naviy qiyofasi belgilaydi. Tarbiya, ma'naviyat, axloqiy madaniyat shaxsning jamiyatda axloqiy tajribalarini egallashi, bu tajribalardan boshqa insonlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi.

Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkurning qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir [5]. U shaxsning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarida na-

moyon bo‘ladi. Axloq – shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo‘lgan ma’naviy komillikning poydevorini tashkil etadi. Demak, yoshlarning ma’naviy qiyofasi tarbiyasi, ma’naviyati, odob-axloqi orqali namoyon bo‘ladi.

Jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va o‘z o‘rnini belgilashda ma’naviy omillarning o‘rni beqiyosdir. Shu bois, yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirib borishda ma’naviy omillarning siyosiy, amaliy mohiyatini o‘rganish jamiyatda hayotiy ehtiyojga aylanib bormoqda.

Jamiyatda yoshlarning ma’naviy olamida bo‘shliqlar paydo bo‘lmasligi uchun ularning ong-tafakkuri va qalbida sog‘lom hayot tarzi, ma’naviy-axloqiy muhit, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini oiladan boshlab shakllantirish va keyingi jarayonda takomillashtirib borishi zarur.

Ma’naviyatni anglab yetish, tushunish uchun avvalo inson o‘zini tushunish, tarixni anglashi lozim. Aynan shuning uchun ham inson xulq-atvorini tushuntirib beruvchi motivatsiya muammosiga hozirgi kunda dolzarb muammo sifatida diqqat-e’tiborimizni qaratish g‘oyat muhimligini anglashimiz lolim.

Tashqi stimul hisoblangan ma’naviy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, an’analar ma’naviy-axloqiy tarbiya orqali ijtimoiy xulqni barqarorlashtiradi, inson ma’naviy qiyofasini shakllantirishga asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda yurtimizning barcha ta’lim muassasalarida, Qurolli Kuchlar tizimida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analar hamda ajdodlarimizga bo‘lgan hurmat ehtiromini shakllantirish shuningdek, ajdodlarning tavallud ayyomlarini munosib nishonlash borasida turli ma’naviy-ma’rifiy va madaniy ishlar yo‘nalishida tadbirlar keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Ma’naviy tadbirlarda harbiy xizmatchilar ham “Xalq va armiya – bir tanu, bir jon!” shiori ostida o‘zlarining boy tajribalaridan foydalanib faol ishtirok etib kelmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishida “yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash”, “ochiq eshiklar kuni”, “Ma’naviy yuksalish va harbiy-vatanparvarlik kuni” doirasida harbiy xizmatchilarning toifalaridan kelib chiqqan holda tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar deganda, harbiy xizmatchilarda yuksak ma’naviy-axloqiy, jangovar va ruhiy sifatlarni shakllantirish maqsadida ularning ongi, tafakkuri va irodasiga ijobiy ta’sir etishga, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash maqsadida ma’naviy, ma’rifiy va madaniy ishlar yo‘nalishida maqsadli va tizimli ravishda amalga oshiriladigan faoliyat [3] tushuniladi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar doirasida tadbirlarni amalga oshirishda vatanparvarlik, xalollik, sadoqat, adolat va intizom tamoyillariga asoslanadi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar, yoshlarning ma’naviy qiyofasini shakllantirish borasida ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki harbiy xizmatchi-

lar asosiy ma’naviy-ma’rifiy bilimlarni ushbu mashg‘ulotlar jarayonida rivojlantirib boradi.

Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari orqali harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, vatanparvarlik va mamlakat taqdiriga daxldorlik hissini kamol toptirish, ularning ongi va qalbiga milliy g‘oya va mafkurani chuqur singdirish, sog‘lom dunyoqarash va faol hayotiy pozitsiyani hamda harbiy xizmat majburiyatlarini ongli ravishda, yuksak mas’uliyat bilan bajarish ko‘nikmalari shakllantirib boriladi.

Harbiy xizmatchilarning ma’naviy qiyofasi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar ma’naviyat soatlari doirasida hafta davomida ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlar orqali amalga oshirib kelinmoqda. Xozirda respublikamizning barcha hududlarida harbiy harbiy xizmatchilarimiz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida, targ‘ibot, harbiy-vatanparvarlik aksiyalari, festival va boshqa tadbirlarida faol qatnashib, milliy armiyamiz ko‘rkini yuqori marralarda ko‘rsatib xalqimizning munosib olqishlariga sazovob bo‘lib kelmoqda.

Ma’naviya qiyofa o‘z navbatida yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga va qay darajada tarbiya ko‘rganligiga hamda ong-tafakkuriga bog‘liq. Shu o‘rinda fikrimizni mutafakkirimiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir!”, – degan iborasi bejiz aytilmagan.

Ma’naviy qiyofaga ega yoshlarni tarbiyalash va ularda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

yoshlarning ma’naviy saviyasi, intellektual salohiyati va axloqiy fazilatlarni yuksaltirishda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an’analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirish;

yoshlarning ongu-tafakkuriga ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlarimizni asrash, milliy qadriyatlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usini chuqur singdirish;

yoshlarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini tizimli va izchil ravishda yetkazib borish;

yoshlar ongida dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan munosabat va faol hayotiy pozsiyani shakllantirish;

yoshlar orasida milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o‘rganish, Vatan ozodligi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ‘ib etish;

yoshlarga dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali

ezgulik va raxmdillik an'analarini singdirish orqali ularda insonparvarlik va mexr-oqibat munosabatlarini shakllantirish;

yoshlarni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va extirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash.

Yoshlar va harbiy xizmatchilarni ma'naviy qiyofasini shakllantirish borasida ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-madaniy va boshqa yo'nalishlarda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish va o'tkazish bevosita davlat va jamoat tashkilotlari, mahalliy boshqaruv organlari bilan hamkorlikda olib borilishi yaxshi natija va samara beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa sifatida aytish joizki, aslida insonning ma'naviyatli, axloq-odobli, intizomli va halol tarbiyalash chegarasiz yo'nalishdir. Har kim o'z ustida muntazam ishlagan, o'zini kamol topishi uchun takomillashtirib borgan shaxs qanchalik bilimsiz va ko'p narsadan behabar ekanligiga ishonch xosil qilib boraveradi. Shunday ekan, yoshlarning ma'naviy qiyofasini va ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish borasida hali qilishimiz zarur bo'lgan ishlarimiz ko'p. Bu jarayonda ustoz va murabbiylar yaqindan ishtirok etibgina qolmasdan bu borada atrofdagilarga ibrat bo'lishi lozim bo'ladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**


*1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son farmoni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" -T.: 2022 yil 28 yanvar. -386 b.*

*2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008. -178 b.*

*2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3898-son qarori "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" -T.: 2018 yil 4 avgust. -38 b.*

*3. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 202-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari faoliyatini tashkillashtirish bo'yicha Qo'llanma" -T.: MB. 2019 yil 12 mart. -98 б.*

*4. Begmatov E. O'zbek tilining izohli lug'ati. "A", "M", "O", "T", "Q"/ E.Begmatov, A.Madvaliyev va boshqalar. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -322 b.*

*5. Xajiyeva I.A. Yoshlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda mafkuraning o'rni/ I.Xajiyeva, A.Saparbayev. -Matn.// "Молодой ученый" jurnali. -2016. -12.4 (116.4)-son. -113-116 b. – URL: https://moluch.ru/archive/116/32161/ (murojaat sanasi: 30.06.2023 y).*

# O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING MA’NAVIY JIHATLARI

**Xudaynazar KUCHKAROV,**
*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti*
*kichik ilmiy xodimi,*
*Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

***Annotatsiya.*** *Maqolada O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining ma’naviy jihatlari, yoshlar manaviyatiga salbiy ta’sir qiluvchi omillar tadqiq etilgan.Mamlakatmizda va horijda yoshlarga oid davlat siyosatining o‘ziga hos jihatlari va uni yanada takomillashtirishga oid amaliy taklif-tavsiyalarlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *Yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati, ma’naviyat, transformatsiya yoshlar tarbiyasi, samaradolik,*

Jahondagi globallashuv jarayonlari barcha jabhalarda transformatsiyalashuvning tezlashishiga zamin yaratmoqda. Bu o‘zgarishlar jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi ijobiy tomonlari bilan birga, yoshlar ongida “faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intilish”, “o‘z maqsadi yo‘lida har qanday g‘oyaga ergashish”, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti, deb qarash kabi salbiy omillarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ham dunyoning aksariyat davlatlarida har bir mamlakat va millatning kelajagini belgilab beruvchi yoshlar masalasi, unga oid davlat siyosatini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda yoshlar ongida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarda daxldorlik fazilatlarini takomillashtirish, zamonaviy yoshlarning hayotiy pozitsiyalarini o‘rganish, yoshlarining ijobiy ideallari va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish kabi masalalar yuzasidan izlanishlar amalga oshirilayotganligi yoshlar ma’naviyatining transformatsiyalashuvi jarayonining manbalari va sabablarini chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy jihatdan tahlil qilish mezonlarni aniqlashga bo‘lgan ehtiyojning ortayotganligini ko‘rsatmoqda.

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatida chuqur transformatsiyalashuvni kuzatish mumkin. Jamiyatda global transformatsiyalashuv jarayonlarining kechishi natijasida unga nisbatan qat’iy tartibda yoshlardagi ijtimoiylashuv ham keskin o‘zgarib bormoqda.

Bu haqda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustu-

vor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda” [1]. deya ta’kidlaydi. Zero, bugungi tezkor rivojlanayotgan globallashuv sharoiti yoshlar siyosati masalasida alohida e’tibor qaratish vazifasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Hozirgi globallashuv davri va zamon talabi intellektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash borasida teran fikrlashni taqozo etmoqda. Shu sababdan yoshlarning ijtimoiy faolligini muvofiqlashtirish, ularning ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy – g‘oyaviy immunitetini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Bugungi tezkor globallashuv sharoitda** dunyoning rivojlangan davlatlarida yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini shakllantirish hamda ularni amalga oshirishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni ishlab chiqish borasidagi ilmiy tadqiqot va izlanishlar o‘zining dolzarbligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar siyosati borasida amalga oshiriladigan har qanday dasturning yakuniy natijasi yoshlarning ma’naviyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Yoshlar siyosati bo‘yicha milliy modellarning nafaqat mahalliy nuqtai nazardan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi balki ularning mazkur sohadagi xalqaro munosabatlarga integratsiyalashuvi ham yoshlar bilan ishlash samaradorligini belgilovchi muhim mezonlari sifatida asosiy e’tibor qaratilmoqda. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning o‘qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Zero, butun xalqimiz qatori yoshlar – Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlaridir!” [2], – degan so‘zlari zamirida naqadar katta ishonch mujassam ekanligini teran anglash mumkin.

Yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanishiga ular bilan bog‘liq muammolar jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, hududlardagi yoshlarga doir dolzarb masalalar, yoshlar o‘rtasida uchrayotgan iqtisodiy muammolar, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqadigan muammolar, Islom dini va diniy aqidalarga nisbatan yoshlarning munosabati, yosh oilalarda uchraydigan muammolar, jinoyatchilik va huquqbuzarlik kabi illatlar shular jumlasidandir.

“Yoshlar siyosati” tushunchasi davlat siyosatining rasmiy faoliyat turlaridan biriga aylangan vaqtdan boshlab, mazkur tushuncha ijtimoiy gumanitar fanlarda institutsionallasha boshladi. O‘tgan asrning 90 yillar boshlaridan boshlab mazkur tushunchaning bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan keng, tor va muassasaviy ma’nodagi talqinlari muhokama qilinib kelinmoqda[3].

Yoshlar ma’naviyati haqida so‘z ketar ekan, avvalo ma’naviyat tushunchasi, uning transformatsiyalashuv jarayonidagi o‘rnini anglab olmog‘imiz darkor. Ma’naviyat tushunchasiga hozirga qadar yagona va unikal ta’rif berilmagan. Uning ma’no-mazmuni va chegarasi shu darajada kengki, uni bitta

so‘z bilan ifoda etib bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsada, biz mazkur tadqiqotimiz davomida unga doir umumiy yondashuvlarni tahlil qilib chiqamiz.

Ma’naviyat bu insonning ruhiy va aqliy faoliyatini ifoda etuvchi tushunchadir. Ma’naviyat jamiyatning deyarli barcha sohalarini o‘z ichiga oladi. Uning tag zamirida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’naviyat insonning tashqi va ichki olamini aks ettiradi. Shu sababli bu tushuncha ma’rifat va madaniyat bilan bevosita bog‘liq. Ma’naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik ma’naviyatni belgilovchi asosiy omillardandir. Ma’naviyati yuksak bo‘lgan yoshlar kamol topgan jamiyatlarda shu jamiyatning yuzi, g‘ururi va obro‘-e’tibori yuqori hisoblanadi. Ma’naviyatli yoshlar sog‘lom fikrli, yaxshi xulq atvor egalari sifatida ertangi kunning ishonchli kuchi bo‘ladi. Davlatning kuch-qudrati bu yoshlar bo‘lsa, ularning asosiy qadriyati bu ma’naviyat asosiga qurilmog‘i lozimdir. Agar bunday tizim bo‘lmas ekan, hech qachon u joyda baxt-saodat va farovonlik bo‘lmaydi. Shu sababli ham yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, ularni ma’rifatli qilish davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilgan.

Aholining turli yosh guruhlarida sodir bo‘layotgan ma’naviy transformatsiyalashuv jarayonini o‘rganar ekanmiz, ba’zi tafsilotlarni ko‘rib o‘tishimiz lozim. Xususan, zamonaviylashuv sharoitida yosh avlodning kasb tanlashi mehnat motivatsiyasining o‘zgarishi bilan birga kechmoqda. Yoshlar o‘rtasida mehnat asta-sekin ma’naviy-axloqiy qadriyat xususiyatini yo‘qotmoqda.

U mehnat va biznes kare’rasining dastlabki bosqichida qiymat sifatida tanlanishi mumkin. Kelajakda pul qadriyat sifatida birinchi o‘ringa chiqadi va aynan ular zamonaviy yosh shaxsning keyingi yashash yo‘lini belgilaydi. Ayrim individual imtiyozlarning o‘zgarishi fonida jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarni ustuvor yo‘nalish sifatida tasdiqlash jarayoni sodir bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ular o‘z-o‘zidan muloqot, biznes hamkorligi, shu jumladan yoshlar o‘rtasida tartibga soluvchi bo‘la olmaydi. Zamonaviy jamiyatda foyda olish uchun emas, balki o‘z ishi bilan davlat va jamiyatga foyda keltirish uchun yashaydigan optimistik ruhdagi yoshlar ma’naviy qiyofasini shakllantirish tashviqoti etarli emas. Afsuski, zamonaviy bozor iqtisodiyotida bunday tasavvurlar yo‘q bo‘lib ketmoqda.

Shu munosabat bilan, yangi imijni – har qanday sharoitda bozor iqtisodiyoti talablari bilan birga ma’naviy qadriyatlarni uyg‘unlashtira olgan yosh avlodni shakllantirmoq lozim.

Yoshlar ma’naviyatida salbiy jarayonlarining ro‘y berishi – zamonaviy yosh o‘zini anglay oladigan jamoat tashkilotlarining yo‘qligi bilan ham bog‘liqdir.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma’lumki, har qanday xalq va millat hayotida yoshlarning tarbiyasiga juda ham nozik va jiddiy masala sifatida alohida e’tibor qaratilib kelinganligini kuzatish mumkin.

Yaponiyada yoshlar tarbiyasida ishlab chiqilgan o‘ziga xos tarbiya usullariga mavjud bo‘lib, Yaponiya aholisi yoshlarning tarbiyasiga o‘ta jiddiy e’tibor qaratishadi. Kunchiqar yurtda yoshlar tarbiyasida ishlab chiqilgan o‘ziga xos tarbiya uslubini amalga oshirishda yagona hudud – yagona millat konsepsiyasi ta’lim va boshqa tizimlarda keng joriy etilgan. Ayniqsa, yapon yoshlarida vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda tarixiy qahramonlar, afsonalarning millatga keng ko‘lamda tanitilishi ularning ichki ruhiyatini vatan ravnaqi uchun safarbar qilish mexanizmi joriy etilgan.

Yaponiyada “Millat, Vatan, Taqdir” tushunchalari uyg‘unlashtirilgan. Yapon maktablarida “Yapon hulq atvori” darsligi alohida fan sifatida o‘rganiladi. Mazkur darslik mamlakatda maktab o‘quvchi yoshlarini tarbiyalashning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy mohiyatini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida qayd etish joizki, Yaponiyada boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari va bog‘cha tarbiyachilari ma’naviy tarbiya bo‘yicha maxsus kursda qatnashishi va sertifikat olishi majburiy hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarga yapon millati ruhini singdirish ularning eng asosiy vazifasi etib belgilangan. Yapon yoshlari maktabdagi ertalabki darslarni madhiya aytishdan boshlashadi.

AQSHdagi erkinlik bola tarbiyasida ham o‘z aksini topgan. AQSHda yoshlarga “Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisan”, degan so‘zlarni har kuni eshitgan holda o‘sishadi. Bundan ko‘zlangan maqsad – mustaqil insonni tarbiyalash! Agarda bola xato qilsa, uni urushmay: “Yana bir marotaba harakat qilib ko‘r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo‘rsan!” deya qo‘llab-quvvatlanadi[4]. Albatta, bunday yondashuv kelgusida o‘zining mevasini beradi. Shu bilan birga, AQSHda “Prezident” va davlat bayrog‘iga sadoqat vatanparvarlik ramzi hisoblanadi. AQSHda bayroqqa qasamyod ta’lim muassasalaridan boshlab yoshlarga va keng jamoatchilikka turli kino, seriallar, multfilmlar orqali doimiy singdirib boriladi.

Bunday misollarni ko‘plab boshqa davlatlar tajribasini uchratishimiz mumkin. Ularning ijobiy jihatlarini o‘zimizga olgan holda amaliyotga tadbiq etish samarasini beradi. Mamlakatimizdagi jadal rivojlanib borayotgan siyosiy jarayonlarda yoshlarni faolligini oshirish tobora bugungi kun talabiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonda yoshlarga qaratilayotgan e’tiborni ya’ni, O‘zbekiston tajribasini boshqa davlatlarga ham alohida namuna sifatida ko‘rsatib o‘tish e’tirofga molikdir.

Shuningdek yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar borasidagi fikrlarni umumlashtirar ekanmiz, quyidagilar asosiy muammolar sifatida ko‘zga tashlanadi:

*Yoshlar bandligini ta’minlash.*

*Ta’lim sifatining talab darajasida emasligi.*

*Jiyonoyatchilikning ortib borishi.*

*Migratsiya.*

*Oilaviy ajrimlar.*

*Virtual olam va gadjetlarga qaramlik*.

Yuqorida keltirilgan muammoli masalalarni hal etish mamlakatimiz yoshlarining ma'naviy dunyoqarishini o'zgarishiga, uning ijobiy transformatsiyalashuviga erishishda muhim qadamlardan hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda davlat rahbarining mazkur ezgu g'oyasi O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo'ylab keng quloch yozmoqda.

Davlatimiz Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki davridan boshlab asosiy e'tibor qaratgan eng muhim faoliyat yo'nalishlaridan biri yoshlar masalasi hisoblanadi. Prezidentimizning yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qarashlari o'tgan davr davomida bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topdi. Albatta, strategik vazifa sifatida yoshlarga qaratilayotgan e'tibor mutaxassislar, olimlar va keng jamoatchilik tomonidan alohida e'tirof bilan kutib olindi.

O'tgan davr mobaynida bu borada amalga oshirilgan ishlar o'tgan yillar davomida to'planib qolgan muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish uchun zamin yaratishga qaratildi. Yoshlar masalasida o'tgan yillardan keskin farq qilgan bu davr borasida adolatli xulosaga kelish uchun albatta yoshlar hayotiga, ularning taqdiriga diqqat bilan nazar solish zarur.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**


*1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Тошкент, "Ўзбекистон", 2017. –Б-32.*

*2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston"нашриёти, 2021. –Б. 54.*

*3. Жўраев Н. Янгиланиш концепцияси: яратилиши, эволюцияси ва амалиёти. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 43.*

*4. Алексис де Токвиль, "Демократия в Америке" // http://studentdream.narod.ru/alexis2.htm*

# JAMIYATDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIKNI TA’MINLASHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI

**Berdimurod XOLBEKOV**,
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada globallashuv sharoitida jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etishi borasidagi fikrlar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *jamiyat, millatlaro totuvlik, diniy bag‘rikenglik, g‘oya, birdamlik, ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat, tafakkup, tinchlik, barqarorlik.*

Globallashuv sharoitida jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon geosiyosiy maydonidagi o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlarining tobora avj olishi tinchlik, barqarorlikni saqlashda dunyo afkor ommasidan ogohlik borasida jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda. Dunyo miqiyosida shiddat bilan kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Mana shunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, bu borada mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dunyo miqyosda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka tahdid solishga intilayotgan ekstremizm, terrorizm, aqidaparastlik kabi illatlar dunyo afkor ommasini doimo tashvishga solib kelayotir. Bu haqda, fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “**Barchangizga ma’lumki, hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda”[1]**, – deya ta’kidlagani bejiz emas. Binobarin, mazkur illatlar insoniyatdan muntazam ogoh, sezgir va xushyor bo‘lishni talab etmoqda. Mamlakatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, jamiyatda millat-

lararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida mazkur omillar, O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Ayniqsa, “2022-2026 yillapga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekictonning tapaqqiyot ctpategiyaci”[2] ning ustuvor yo‘nalishlaridan biri “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” asosiy vazifa etib belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirishda, **Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, m**illatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta’minlash, turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarini o‘rganish va tahlil etish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarimizning muhim ustuvor vazifalaridan biri har tomonla yetuk barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishni taqoza etmoqda. Aynan, bugungi kunda mamlakatimizda diniy-ma’rifiy ijtimoiy-siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqimizni mana shunday ezgu g‘oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglash mumkin. Mamlakatimizni **“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”** g‘oyasi asosida O‘zbekiston taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘ygani, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi islohotlar yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratmoqda. Yurtimizda ilm-fan, ta’lim-tarbiya va diniy-ma’rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida katta o‘zgarishlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

Bugun yurtimizda olib borilayotgan jadal islohotlar ko‘lami, shiddati hamda keng qamrovi bilan dunyo nigohini diyorimizga qaratmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar haqida so‘z ketganda jahon hamjamiyati tomonidan yurtimizga nisbatan “Yangi O‘zbekiston” degan iboraning tilga olinayotgani, albatta, mamlakatimizdagi o‘zgarishlarga berilayotgan munosib bahodir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevni ta’biri bilan aytganda, **“Yangi O‘zbekiston – bu “Xalq manfaati hamma narsadan ulug‘” degan ezgu g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan zamondir”[3]**. Albatta, yurtimizdagi keng ko‘lamli islohotlar va yangilanishlar mazkur insonparvar g‘oya asosida amalga oshirilmoqda. Yurtimizda bugungi kunda inson qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligini ta’minlash, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilgan. Bu esa **“Davlat – inson uchun”** tamoyilining amaldagi ifodasidir. Zero, inson va uning baxt-saodatiga, xalq manfaatlariga xizmat qilish insonparvarlikning asosiy mezoni sanaladi. Mamlakatimizda **“Inson qadri**

**uchun"** degan ezgu tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta’minlash, amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini e’lon qilishi jarayonlarida ham millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglikni ta’minlash orqali tinchlik va barqaror taraqqiyot asoslarini mustaxkamlashda barcha din vakillari orasida mojarolar bo‘lmaganligiga tarix guvoxdir. Bu haqda, fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "...**Bizning davlatimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an’analari muhim rol o‘ynamoqda**"[4], – degan so‘zlari zamirida naqadar katta ishonch mujassam ekanini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur holat, o‘z navbatida O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, konfessiyalararo hamjihatlik inoqlik va birdamlikning nodir timsoli sifatida namoyon bo‘lib, barcha din vakillariga nisbatan bag‘rikenglikning ijobiy namunasi ekanligidan dalolat beradi. Binobarin, ma’naviyatimizning o‘zviy qismi xalqimizga xos etnik madaniy va diniy bag‘rikenglikning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi, buni o‘zga din vakillari ham e’tirof etishadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"[5] Farmonida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e’tiqodidan qat’i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Dunyo taraqqiyotidan ma’lumki, jahondagi mavjud dinlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘zida ezgulik, tinchlik, yaxshilik, do‘stlik hamda bunyodkor g‘oyalarni mujassam etadi. Ayniqsa, din insonlarni halollik va poklikka, mehr-shafqat, birodarlik va bag‘rikenglikka da’vat etadi.

Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar o‘zaro inoq, totuvlikda yashab kelmoqda. Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. O‘z navbatida, mazkur konfessiyalarning o‘z faoliyatini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Davlat ta’lim muassasalarida o‘qitish 7 tilda olib borilyapti. O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan 12 tilda ko‘rsatuv va eshittirishlar tayyorlanmoqda. Yurtimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, do‘stlik va birdamlik muhitini xukm surishi o‘z navbatida tinchlik

va barqarorlikni ta’minlash orqali O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishni ta’kidlash lozim. Ayniqsa, respublikada xotirjamlik, tinchlik, barqarorlik hamda farovonlik muhitining xukm surishidan barcha din vakillari birdek manfaatdor. O‘z navbatida, davlat turli dinlarga e’tiqod qiluvchi va ularga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e’tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi, diniy va o‘zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi. Hozirgi nozik va ayni paytda, o‘ta murakkab sharoitda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlikni ta’minlashda ma’rifat bilan kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. Jaholatga griftor etuvchi ekstremizm, xalqaro terrorizm va mutaassiblikka qarshi kurashda ma’rifatni targ‘ib etish g‘oyasi bugungi kunda dunyo miqyosda bosh mavzuga aylanib ulgurdi. 2017 yil 19 sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida davlatimiz rahbari dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib borayotgani, ularga qarshi kuch ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotgani, bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinayotganini, xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishini alohida ta’kidlagan edi. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining ***“Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik”*** deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilar ekan: “Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat. Ushbu rezolyusiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan. ...Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlashdan iborat bo‘lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam, deb bilamiz” [7], deya alohida ta’kidlagan edi. Bugungi kunda dunyoning turli mintaqa va davlatlarida sodir bo‘layotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko‘p hollarda ayrim buzg‘unchi kuchlar qo‘lida turli soxta, zararli g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganligini ko‘rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yemirilishiga, zo‘ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlarni ildiz otishiga zamin yaratmoqda. Natijada, odamzot-

ning o‘z tarixiy, diniy, milliy-ma’naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur holat, jahondagi ko‘plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda davlatimiz raxbari Shavkat Mirziyoyev: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir[8],–deya bejiz ta’kidlamagan. Zero, xalqimiz ma’naviyatiga xos bo‘lgan millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik muhitini hukm surishi jamiyatda g‘oyaviy birdamlikni ta’minlanishi muhim o‘rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:**


*1.Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. http://www.uza.uz/oz/politics/millatlararo-d-stlik-va-amzhi-atlik-khal-imiz-tinchligi-va-f-24-01-2017*

*2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063#5844491*

*3. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”nashriyoti, 2021. – 27-b.*

*4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi. Adolat 2017-yil. № 24. B.1-2-3*

*5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni http://uza.uz/oz/documents/millatlararo-munosabatlar-va-khorizhiy-mamlakatlar-bilan-d-s-22-05-2017*

*6. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. Xalq so‘zi 2017-yil 25-yanvar. №18*

*7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017*

*8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. http://www.uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy-28-12-2018*

## V. IJTIMOIY AXLOQ MEZONLARI HAMDA YOSHLAR ONGIDAGI QADRIYATLAR TRANSFORMASIYASI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

# MA’RIFATLI SHAXS – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI

**Ibodulla ERGASHEV,**
*siyosiy fanlar doktori,*
*O‘zbekiston Milliy universiteti professori*
**Azamatjon XUDAYNAZAROV,**
*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi*

ZJV5401

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqola Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ma’rifatli shaxsning o‘rni, ma’rifatli shaxs va unga xos bo‘lgan xususiyatlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ma’rifatli shaxsni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti ma’rifatli shaxslarni tarbiyalash bilan bog‘liq ekanligi ochib berilgan. “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish ma’rifatli shaxslar tarbiyasiga qaratilishiga urg‘u berilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, ma’rifatli jamiyat, Ma’rifatli shaxs, ziyoli shaxs , insoniy barkamollik, axloqiy ongni rivojlantirish, ijtimoiy mas’uliyat, ijodkorlik, muloqot madaniyati.*

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma’rifatli shaxs masalasiga alohida e’tibor beriladi. Umuman har qanday taraqqiyotga ma’rifat orqali, ma’rifatli shaxslarni kamol toptirish orqali erishiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asarida “Ma’lumki, O‘zbekiston taraqqiyotining barcha bosqichlarida bunga alohida e’tibor berilmoqda. Ayni paytda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti bilan bog‘liq ma’rifatli shaxsga qo‘yilgan talablar qaysi jihatlari bilan oldingi bosqichlardan farq qilinishi aniq hisobga olinishi kerak. Ma’rifatli jamiyatni barpo etishning dolzarb masalalariga hozirjavob bo‘lish, bu boradagi ishlarda mas’uliyatni doimo chukur his qilib yashash bugungi davr talabi bo‘lib qoladi”[1] deb, ushbu masalaning dolzarbligini belgilab berdi. Yangi O‘zbekiston strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishi 71-maqsad doirasida belgilab olingan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat”[2] konsepsiyasini amalga oshirishga ma’rifatli shaxslarni tarbiyalash va ma’rifatni yangi bosqichga ko‘tarish orqali erishish mumkin.

Ma’rifatli shaxs qanday shaxs va unga xos bo‘lgan xususiyatlar nimalardan iborat? Ma’rifatli shaxsni ziyoli shaxs tushunchasi bilan qiyoslab tasavvur etish ham mavjud. Ma’rifatli shaxsni belgilovchi mezonlar va unga xos bo‘lgan xususiyatlarni quyidagi yo‘nalishlar orqali ko‘rish mumkin:

1. Ta’lim-tarbiya ma’rifatli shaxsni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

2. Ma’rifatli shaxs – shaxsga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan bevosita bog‘liq. Bunda ma’rifatga keng qarash va uni zamon talablariga mos holda amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

3. Ma’rifatli shaxs shunchaki savodxon, o‘qish va yozishni biladigan kishigina emas, aksincha, o‘zi yashaydigan mamlakati, Vatan taqdiri nuqtai nazaridan bugungi zamon ilmini egallagan nazariy va amaliy jihatdan o‘z sohasini chuqur tushungan va xorij tillarini o‘zlashtirgan, ona tiliga sadoqati kuchli bo‘lgan shaxs, deb qarash mumkin.

4. Ma’rifatli shaxs – Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti talablariga javob beradigan o‘z sohasining professonal egasi sifatida yangicha fikrlaydigan kreativ ong va tafakkurga ega bo‘lgan shaxsdir.

5. Ma’rifatli shaxs ong – tafakkuri va dunyoqarashi yangicha bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarini chuqur egallaganligi bilan ajralib turadi.

6. Ma’rifatli shaxs ma’rifatsizlikka qarshi tura oladigan va uni qo‘llab-quvvatlaydigan insonlar hayoti va uning taqdiriga befarq qaramaydigan o‘zining mustaqil pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxsdir.

7. Ma’rifatli shaxs O‘zbekiston jamiyati taraqqiyotiga befarq bo‘lmagan bu yo‘lda qonunlarga rioya etish va amal qilishni o‘zining hayotiy maqsadi qilib olgan bu yo‘ldagi ayrim kamchiliklarga befarq qaramaydigan fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxs sifatida ko‘rish mumkin.

8. Ma’rifatli shaxs orqali ma’rifatli jamiyatni qurish mumkin. Shuning uchun ham har bir inson ongi va tafakkuri haqiqiy ma’rifat talablariga mos ravishda transformatsiya bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

9. Ma’rifatli shaxsga xos belgilarga zid bo‘lgan befarqlik, loqaydlik, ko‘rib ko‘rmaslikka olish, jamiyatda uchraydigan ayrim qusurlarga nisbatan moslashuvchanlik, inson erki va ozodligi bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarni mensimaslik, insonni qadrlamaslik va qadriga yetmaslik kabi saqlanib qolayotgan ayrim kamchiliklardan Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida xalos bo‘lib borish orqali taraqqiyotni yangi bosqichga ko‘tarish va ma’rifatli shaxsga xos bo‘lgan fazilatlar qaror topishi mumkin.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv tug‘risida”, “Mukammal ta’lim haqida risola” kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy karashlari ifodalagan. Forobiy “maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya – insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi”, deb ta’kidlaydi. “Bunday inson, – deb yozgan edi Forobiy, – insoniy barkamollikning oliy sohibi va baxt saodat bo‘ladigan xatti-harakatni biladigan zotdir”. Bu qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ma’rifatli shaxs – ijtimoiy munosabatlarning subyekti bo‘lib, mamlakat taraqqiyoti va rivojini

jadallashtiruvchi hamda ijtimoiy hayot sohalarida ishtirok etuvchi ijtimoiy qatlamdir.

Ma'rifatli shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash. Ta'lim dasturlari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, ma'lumotlarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'z-o'zini tarbiyalash ma'rifatli shaxsni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega, chunki bu unga dunyoqarashini boyitish va bilimlarini chuqurlashtirishga imkon beradi.

Axloqiy ongni rivojlantirish. Ma'rifatli shaxsni tarbiyalash uning inson huquqlarini hurmat qilish, adolat, mas'uliyat va atrof-muhitga hurmat kabi yuksak axloqiy qadriyatlarni shakllantirishni o'z ichiga olishi kerak.

Ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish. Ma'rifatli shaxs jamiyat oldidagi mas'uliyatini tushunishi va uning farovonligiga intilishi kerak. Bunga jamiyat hayotida ishtirok etish, ijtimoiy faollik va muhtojlarga yordam berish kiradi.

Ijodkorlikni rivojlantirish. Ma'rifatli shaxs o'z ijodkorligini rivojlantirishi va o'ziga xosligini namoyon qilishi kerak. Bu unga o'z fikrlari va g'oyalarini ifoda etish hamda masalalarga kreativ yechimlarni topish imkonini beradi.

Muloqot madaniyatini rivojlantirish. Ma'rifatli shaxs insonlar bilan muloqot qila olishi, boshqalarning fikrlarini hurmat qilishi va konstruktiv munozaraga qodir bo'lishi kerak. Muloqot madaniyati o'z fikrlarini aniq-tiniq ifoda etish qobiliyatini, shuningdek, boshqa odamlarni tinglash va tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Bayon etilgan fikr-mulohazalar va qarashlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti ma'rifatli shaxslarni tarbiyalash bilan bog'liq.

Ma'rifatli shaxs ma'rifatli dunyoqarash, o'z sohasini nazariy va amaliy jihatdan chuqur anglagan, ijodiy fikrlash, mustaqil munosabat, fuqarolik pozitsiyasi kabi ma'lum fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

Ma'rifatli shaxsni tarbiyalash tanqidiy fikrlash, axloqiy ong, ijtimoiy mas'uliyat, ijodkorlik va muloqot madaniyatini rivojlantirishni o'z ichiga olishi kerak.

Ma'rifatli shaxs ijtimoiy munosabatlarning subyekti va ijtimoiy hayot sohalarida ishtirok etadigan mamlakat rivojlanishining muhim omilidir.

Ma'rifatli shaxslarni tarbiyalash Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasidagi asosiy vazifalardandir, chunki ular mamlakat taraqqiyoti va rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqadi.

Shunday qilib, ma'rifatli shaxslarni tarbiyalash Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi maqsadlariga erishish uchun zarur shart va umuman jamiyat uchun eng muhim vazifa, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2021. -B.303.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: https://lex.uz/docs/5841063*

## YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SIYOSIY TARBIYANING O‘RNI

**Sadulla ATAMURATOV**,
*falsafa fanlari doktori,*
*Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada siyosiy madaniyatni shakllantirishda siyosiy tarbiyaning axamiyati tahlil etilgan. Yoshlarni jamiyat xayotidagi muhim o‘rnini inobatga olib ularni siyosiy ongini o‘stirish, uning uchun ular ongida vatanparvarlik, mamlakat xavfsizligini ta’minlashda dahldorlik, demokratik qadriyatlarni o‘zlashtirish, mamlakatimiz siyosiy hayotida faol ishtrok qilish kabilarni shakllantirish vazifalarini o‘z ichiga qamrab olgan tarbiya tizimini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuning uchun yoshlarni demokratik qadriyatlar shakllantirish jarayonlarida faol ishtirok etishi ularning siyosiy madaniyatini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘zlar:*** *yoshlar, siyosiy tarbiya, siyosiy madaniyat, siyosiy ong, erkinlik, demokratik qadriyatlar.*

Tarbiya aniq maqsad va manfaatlardan kelib chiqqan holda turli yo‘nalishlarda olib boriladi. Jumladan, uning iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, umuminsoniy, g‘oyaviy, mafkuraviy, milliy, siyosiy va boshqa shakllari mavjud. Tarbiyaning bu shakllari olimlarimiz va mutaxassisilarimiz tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Ulardan ko‘zlangan maqsadlar, ularning mazmun, mohiyati, hali to‘la o‘rganilmagan jihatlari amalga oshirish uslublari, imkoniyatlari, tarbiyaviy ta’siri darajalari bugungi kungacha o‘rganilib kelinmoqda. Ularning nomlanishi va ko‘rinishi jihatdan sodda bo‘lsa-da, amalga oshirish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki, ular inson ongi, qalbi dunyoqarashi va tafakkuri bilan bog‘liq. Ular qancha inson bo‘lsa, shuncha shaklda hamda darajada shakllanadi va rivojlanadi. Shu ma’noda ham ularni tegishli maqsad va manfaatlarga yo‘naltirish murakkab kechadi. Ammo, ularga nisbatan bee’tiborlik bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadlarga erishib ham bo‘lmaydi. Ana shu jihatdan xam, belgilangan vazifalarning muvaffaqiyati bugungi avlodlarimizga qanday tarbiya bera olishimizga bog‘liq bo‘ladi.

Mana shu o‘ta muhim vazifadan kelib chiqadigan bo‘lsak, yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarni kengroq o‘rganish, uning imkoniyatlaridan to‘la foydalanish uchun ularning har bir shaklini, bugungi tez o‘zgarayotgan zamon ehtiyojlariga mos ravishda o‘rganib borish dolzarbligicha qolmoqda. Bu yerda ularning hammasi emas, balki mavzuimiz doirasida siyosiy tarbiya haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Siyosiy tarbiyaga turli qarashlar va fikrlar bildirilib kelinmoqda. Ularning birlarida uni siyosiy ongni shakllantirilishiga qaratilganligiga e’tibor berilgan bo‘lsa, ikkinchi birlari, siyosiy onglilikni tarbiyalashga qaratilganligi, uchinchi birlarida uning siyosiy ong va siyosiy madaniyatni shakllantirishga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, falsafa qomusiy lug‘atda “Siyosiy tarbiya – ijtimoiy tarbiyaning siyosiy ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan muhim shakllaridan biri”[1] – degan ta’rif berilgan. Ammo, bu tushunchaga O‘zbekistonda e’lon qilingan boshqa lug‘atlarda ta’rif berilmagan, shuningdek siyosatni o‘rganishga bag‘ishlangan monografiyalarda ham ilmiy ta’riflar uchramaydi. Xatto siyosat, siyosiy jarayonlar va keng ma’nodagi siyosatni o‘rganadigan “Politologiya” fanidan ham bu tushuncha tahlil etilmagan, uning davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlaridagi o‘rni ham e’tibordan  chetda qolganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda siyosiy ongning o‘sib borishi sharoitida, uning ko‘pchilik xolatlarda siyosiy madaniyat bilan muvozanada rivojlanmaganligi oqibatida ayrim mamlakatlarning siyosiy ziddiyatlar girdobiga uchrayotganligining sabablaridan biri ham siyosiy tarbiyaning ana shu jarayonlarning darajalaridan orqada qolayotganligi bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Siyosat, siyosiy jarayon, siyosiy ziddiyatlar, siyosiy maqsad va siyosiy manfaatlar bor ekan, demak siyosiy tarbiyaning olib borilishini ham taqazo etadi. Uning olib borilishi mamlakatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan siyosiy ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarning oldini olish imkonini beradi.

“Siyosiy tarbiya” tushunchasi mazmun mohiyatiga qaytib, shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, u chuqur taxlili etilishi lozim. Albatta, uni hajim jihatdan kichik risola doirasida to‘la tahlil etishning imkoniyati yo‘qligin hisobga olib, ayrim jihatlari haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

“Siyosiy tarbiya” jamiyat hayotida siyosiy ong va siyosiy madaniyatni rivojlantirish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Agar ular rivojlanmas ekan – qabul qilinadigan qonunlar quruq qog‘ozda qilib ketaveradi. Chunki siyosiy ong va siyosiy madaniyatning rivojlanib borishi qonunlarni real hayotga tadbiq qilish imkonini beradi. Ana shu jihatdan “siyosiy tarbiya” ni siyosiy ong va “siyosiy madaniyat” ni rivojlanishiga ta’sir o‘tkazuvchi omil deb qarash mumkin. Ikkinchi jihatdan ayni paytda uni siyosiy jarayonlardagi ana shu o‘ta murakkab omillarni muvozanatini yuzaga keltiruvchi tarbiya shakli deyish mumkin. Chunki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ana shu omillar o‘rtasidagi muvozanat barbod bo‘ladigan bo‘lsa, mamlakatda siyosiy be-

qarorlik yuzaga keladi. Siyosiy tarbiyaning yana bir jihati, shaxsning siyosiy mavjudod sifatida o‘zining “men”ligini angalb yetishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Har bir shaxs o‘zini siyosiy mavjudod sifatida “men”ligini anglashi, uning:

a) davlat fuqarosi, undan fahrlanish, g‘ururlanish ruhiyatiga ega bo‘lishini;

b) unda o‘z mamlakatida siyosiy va ijtimoiy barqarorlik bo‘lishiga moyillik ruhiyati kuchli bo‘ladi. O‘z mamlakati taqdiri bilan o‘z taqdirini uyg‘unligi his etish tuyg‘ulari mustahkam bo‘ladi;

c) siyosiy “men”likni anglash har bir fuqaroda siyosiy ma’suliyatini anglashning ma’suliyatini ham yuklaydi. Shaxsda davlat hokimiyati bilan bo‘ladigan munosabatlarda tiyib turish tamoyiliga amal qilish ruhiyatining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir o‘tkazadi.

Albatta, bu uning mamlakatda kechadigan siyosiy jarayonlardan qatnashmaslik, ulardan o‘zini uzoq turishiga olib keladi, – degan emas, balki ularning umummanfaatlar yo‘nalishiga rivojlanishiga o‘zining itroki, faoliyati bilan ta’sir o‘tkazishiga yordam beradi, – deganidir.

Shunday qilib, siyosiy tarbiya – deganda davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari institutlarining fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini muvozanatda rivojlantirish, ana shu institutlar bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarini umummanfaatlarga yo‘naltirish, shaxsning siyosiy mavjudod sifatidagi “men”ligini anglab yetishga qaratilgan siyosiy faoliyatini tushunish mumkin.

Har qanday tarbiya ma’lum institutlar tomonidan faoliyat orqali amalga oshirilishini nazarda tutgan xolda siyosiy tarbiya ham eng avvalo davlat tomonidan, siyosiy partiyalar va jamiyat tashkilotlarining faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Xususan, O‘zbekistonda yoshlar siyosatiga oid maxsus davlat dasturi mavjudligini hamda uning real hayotga tadbiq etilganligini misol tariqasida keltirish mumkin. 2014 yilning 6-fevralida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amlaga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Uning ko‘pgina bandlari yoshlarning siyosiy madaniyati va huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan.

Jumladan 3-bandda: O‘zbekiston Respublikasida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohatlarning mazmun-mohiyatini yoshlarga to‘laqonli tushuntirish, yosh avlodni ushbu jarayonlarga keng jalb etishga qaratilgan “Vatan kelajagi sening qo‘lingda!” Targ‘ibot loyihasini amalga oshirish; 9-bandi: Oliy ta’lim muassalari talabalarining siyosiy va huquqiy bilimlarini mustahkamlash maqsadida “tafakkur sinovlari” Respublika tanlovini o‘tkazish kabi vazifalar belgilangan. Albatta ularning real amalga oshishi yoshlarimizning siyosiy va xuquqiy madaniyatining yanada rivojlanib borishiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi.

Siyosiy tarbiyaning yana bir muhim yo‘nalishi yoshlarda qonunlarga itoatkorlik, har qanday siyosiy vaziyatda vazminlik, shaxsiy siyosiy manfaatlarni davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg‘un olib borish kabilar tashkil etadi. Siyosiy tarbiyaning bu yo‘nalishlari har biri mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, yoshlarning davlatimizning istiqboli uchun dahldorlik tuyg‘ularini shakllanishiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Ana shu vazifalar tizimidagi yoshlarda davlatda qabul qilingan qonunlarga itoatkorlik ruhiyatini shakllantirish olib ko‘raylik. Aslida har bir yoshning qonunlarga itoatda bo‘lishi shundoq ma’lum. Ammo, ayrim yoshlarning ana shu itoatkor bo‘lishlikni o‘zining huquqlari va erkinliklarini “cheklanishi” – deb qarash holatlarining mavjudligini ham ta’kidlash lozim bo‘ladi. Yoshlarning ana shu ayrimlari o‘zlari amal qilishi zarur bo‘lgan qonunlarni bila turib, unga amal qilmaydi. Unga amal qilsa xuddi o‘zining siyosiy “men”ligining “paymol” etilayotganligi nuqtai nazardan qaraydi. Qonunlarni bilish siyosiy ongning rivojlanganligini ko‘rsatuvchi daraja bo‘lsa, unga amal qilmaslik siyosiy madaniyatining sayozligini ko‘rsatuvchi daraja hisoblanadi.

Yuqoridagi Qonunlarga itoat qilishni huquq va erkinlikning “paymol” etilishi – deb qarash siyosiy tarbiya o‘z vaqtida talab darajasida olib borilmaganligining oqibatidir. Yoshlarning qonunlarga itoat qilish deganimizda gap ularni qonunlarni himoya qilish organlari tomonidan majburlash nazarda tutilayotgani yo‘q, balki qonunlarning xalqning irodasining, ko‘pchilik irodasi ekanligi uchun ham uni anglagan xolda ularga amal qilish nazarda tutiladi. Shuning uchun ham qonunlarga itoat etilishini shaxsning xalqning, ko‘pchilikning irodasiga bo‘ysunish – deb qaralganda to‘g‘ri bo‘ladi.

Endi “erkinlik” tushunchasiga to‘xtatilib, shuni ta’kidlash lozimki, unga juda ko‘plab ta’riflar berilgan, u bugun ham davom etib kelmoqda. Unga insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida unga turlicha qarab kelingan. Unga har doim fuqaro va davlat munosabatlarida kechadigan jarayon sifatida qaralgan. Fuqaroning cheklanmagan erkinlikka intilishi, davlatning esa fuqaroning erkinligi manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni “cheklash” ga bo‘lgan tabiiy funktsiyasi o‘rtasida kechadigan jarayonlar erkinlik mustaqil maqomini o‘zida ifoda ettiradi. Erkinlik – bu qonunlarda belgilangan huquqdir. Qonunlar bo‘lmagan joyda huquq ham bo‘lmaydi.

Huquq va erkinlik siyosiy ahloqning ajralmas qismini tashkil etadi. Shuning uchun ham erkinlikning qonun doirasidan chiqib ketishi – bu siyosiy ahloqliksizning ko‘rinishi hisoblanadi. Siyosiy ahloqsizlikning yuzaga kelishi fuqaro va davlat hokimiyati boshqaruvining siyosiy parokandalikka uchrashi deb qarash mumkin.

Siyosiy tarbiyadan ko‘zlangan maqsadlarning negizida ham yoshlarimiz ongi va qalbida siyosiy ahloqsizlikning shakllanishining oldini olishga xizmat qiladigan siyosiy madaniyatni izchillik bilan rivojlantirishdir. Siyosiy tarbiya siyosiy madaniyatning tarkibi qismlari bo‘lgan siyosiy immunitet, siyosiy

ogohlik, siyosiy barqarorlikka mas'ullik, munozarali masalalarni vazminlik bilan hal etish kabi mamlakat taraqqiyoti uchun o'ta muhim bo'lgan omillar shakllanishi va rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Siyosiy tarbiya yoshlarning siyosiy jarayonlarda mamlakat taraqqiyoti va umummanfaatlar yo'lida ongli ravishda qatnashishiga ham yordam beradi.

Mamlakatimizda demokratik qadriyatlari shakllantirilayotgan bugungi kunda yoshlarimizning bu jarayonlarda faol ishtrok etishga erishish ularning siyosiy madaniyatini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga molik vazifa hisoblanadi. Chunki, yoshlarimizning siyosiy madaniyatining rivojlanishi nafaqat ularning bu jarayonlarda faolligini, shuning bilan birga qonun bilan yashash, o'zining bugungi ertanggi kuni va istiqbolini ham unga ongli ravishda rioya qilish zarurligini anglab yetish salohiyatini mustahkamlash bo'lishiga olib keladi. Bunga erishishda yoshlarimiz o'rtasida siyosiy tarbiyani olib borish, unda davlat, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining faol ishtirok etishlari amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**


*1. Falsafa. Qomusiy lug'at. – Toshkent, Sharq, 2004.*

*2. Amanov B. Siyosiy modernizatsiyalash modellari va O'zbekiston tajribasi. – Toshkent, Fan va texnologiya, 2012.*

*3. Quchqorov V. Milliy o'zlikni anglash va barqaror taraqqiyot. – Toshkent, Akademiya, 2013.*

*4. Quronov M. Ezgu g'oyalar ro'yobi. – Toshkent, Ma'naviyat, 2011.*

*5. Otamuratov S. Globallashuv va millat (siyosiy-falsafiy tahlil). – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2008.*

*6. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi (siyosiy-falsafiy qirralari). – Toshkent, Akademiya, 2005.*

*7. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik (siyosiy-falsafiy tahlil). – Toshkent, O'zbekiston, 2013.*

*8. Oripov Sh. Yoshlar siyosati – Barqaror taraqqiyot kafolati. – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubhonasi, 2012.*

*9. Fayzullayev A. Inson, siyosat, boshqaruv. – Toshkent, O'zbekiston, 1995.*

*10. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari. (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). Toshkent. 2013-yil, 22-23-yanvar. – Toshkent, Ma'naviyat, 2013.*


ZJV5401

## MARIFATLI AYOL – MILLAT TAYANCHI

**Mukarram NURMATOVA,**
*O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori, professor.*

Insonni qadrlash, ilm-fanni yangi sifat darajasiga ko‘tarish, yoshlarni mukammal bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egalari qilib tarbiyalash borasidagi ishlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida 2023-yil mamlakatimizda **“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”**deb e’lon qilindi.

Shu munosabat bilan yurtimizda ilm-fanga bo‘lgan e’tibor yanada kuchayib, sifatli ta’limga erishish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar, yaratib berilayotgan sharoitlar va imkoniyatlarda bu yanada yaqqolroq ko‘rinadi.

Bugun donishmand xalqimizning **“Bir qizni o‘qitsang, butun oilani, millatni o‘qitgan bo‘lasan”** degan dono gaplari hayotga bevosita tatbiq etilmoqda. Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoi, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk mutafakkirlarimiz, ma’rifatpavar jadidlarimiz ham oilaning tinch, mustahkam va farovon bo‘lishida, farzandlar tarbiyasida, ularning ma’rifatli insonlar bo‘lib voyaga yetishida ayolning o‘rni va ta’siri beqiyos ekanligini alohida ta’kidlaganlar. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: **“Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”**.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning “Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e’zozlash,ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi”,-degan purma’no so‘zlari bugun hayotimizning barcha jabhalariga kirib borganligi, mamlakatimiz ayollarining har biri e’tibor va e’zozda ekanligida yorqin namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasida xotin-qizlarning qo‘llab quvvatlanayotganligi fikrimizning dalilidir.

Zero, insoniyatning umri ilm-fan bilan bog‘liq. Yangi ufqlarni ochish go‘yo erkaklar ishidek tuyuladi. Olimlar orasida erkaklar nufuzi salmoqli ta’sirga egaligi ham haqiqat. Ammo fan taraqqiyotida ayollar rolini e’tiborga olmaslik – adolatsizlikdan dalolat.

Jamiyatda ilm-fan taraqqiyotida ayollarning o‘rni haqida so‘z borar ekan, O‘zbekistonda tashabbuskor, yuksak ilmiy salohiyatli, mas’uliyatli va yurtimizda hayotga tatbiq etilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol

ishtirok etayotgan olimalarimiz salmog‘i yildan-yilga ortib bormoqda. Ular o‘zlarining yuksak iqtidorlari, ilmiy salohiyatlari bilan nafaqat yurtimizda faoliyat olib boryaptilar, balki mamlakatimiz dovrug‘ini butun dunyoga taratyaptilar.

Ilm-fan sohibalari, akademiklar Mashhura Mavloniy, Ra’no Ubaydullaeva, Sayyora Rashidova, Anna Glushenkova, Muhabbat Abidova, Malika Abdullaxodjaeva, Flyura Inoyatova, Tamara Aripova, Dilorom Yusupovalarning ilmiy salohiyatlaridan jahon hamjamiyati bahramand bo‘layotgan bo‘lsa, Aziza Shonazarova, Dilnoza Duturaeva, Dilfuza Egamberdieva, Tatyana Karasyova, Muxayyo Mirzaeva, Taxmina Turdialieva kabi yosh olima qizlarimizning ilmiy ishlari xalqaro miqyosda e’tirof etilganligi tahsinga loyiq. Aziza Shonazarova-Kolumbiya universitetining tenure track pozitsiyasi, ya’ni umrbod professorlik lavozimiga qabul qilingan ilk o‘zbek olimasi sifatida millatimiz iftixoridir.

Dilnoza Duturaeva tarix sohasida, Dilfuza Egamberdieva qishloq xo‘jaligi, biologiya sohasida, Tatyana Karasyova kimyo sohasida, Muxayyo Mirzayeva – ta’lim, san’at sohasida Germaniyaning nufuzli Alexandervan Ximbolt mukofoti, Taxmina Turdialieva arxitektura sohasida “Turkistan Architects Award” va “Better Together” xalqaro mukofotlar sovrindorlaridir.

Taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessansga erishish ekan, ushbu yo‘nalishda xotin-qizlarimizni ma’rifatli qilish eng asosiy vazifamiz bo‘lishi, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarimiz ham aynan shu maqsadlarga xizmat qilmog‘i lozim.

Zero, ma’rifatli ayol – jamiyat taraqqiyotining tayanchidir, chunki aynan u, farzandlarini tarbiyalaydi va ularning ongi, dunyoqarashi, bilim darajasini shakllantiradi. Ilm-ma’rifatli ayol eng avvalo, oilaning boyligi sog‘lom va o‘qimishli avlodda ekanini yaxshi anglagan holda, asosiy sarmoyani ularning farovon kelajagi uchun kiritadi.

Vaholanki, qiz bola oliy ma’lumotli bo‘lsa, qanchalik bilimli va salohiyat egasiga aylansa, buni kelgusida farzandlariga ham “yuqtiradi”, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas’uliyat bilan yondashadi. Yurtning kelajagi esa, mana shunday dunyoqarashga ega onalar tomonidan yaratiladi. O‘zbekistondagi ilmli, faol, o‘z o‘rnini va rolini biladigan mehnatkash ayollar eng kuchli ayollardir.

Shuning uchun ham, xotin-qizlarning ta’lim sohasi va ilm-fandagi o‘rnini kengaytirish, kelajakda ularni ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatga yanada keng jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 7-martdagi PF–87-sonli Farmoniga muvofiq, 2022/2023 o‘quv yilidan xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator imkoniyat va imtiyozlar yaratildi. Bu



ZJV5401

borada 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi ham amalga oshirilmoqda.

Xususan, – davlat OTMlarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari qoplab berilishi va bunga har yili kamida davlat budjetidan 200 milliard so‘m ajratilishi belgilandi.

Bu borada Vazirlar Mahkamasining “Davlat oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichida ta’lim olayotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lab berish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 15 avgustda 447-sonli qarori qabul qilindi hamda 2022-yilda 12 300 nafar xotin-qizning 68,298 mlrd so‘mdan ortiq kontrakt shartnoma pullari (o‘quv yilining birinchi yarmi uchun) to‘lab berildi.

– OTM, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta’limda o‘qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to‘lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish tizimi joriy etildi.

Ushbu yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 18 iyuldagi PQ-323-son Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt asosida ta’lim olishi uchun ta’lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 18-avgustdagi 457-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorlarga ko‘ra ta’lim kreditlari tijorat banklari tomonidan respublikadagi barcha oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida hamda qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha bakalavriatning kunduzgi, sirtqi va kechki ta’lim shaklida to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan talaba xotin-qizlarga berilishi belgilandi.

2022-yil 7-aprelda Moliya vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan mablag‘larni ajratish jadvali 12 ta tijorat banklari kesimida tasdiqlandi.

Shu asosda Respublikadagi barcha oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat ta’lim yo‘nalishida to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan 311 582 nafar talaba-qizlarga foizsiz ta’lim kreditlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi va 2022-yilda 84 640 nafar talabaga (o‘quv yilining birinchi yili uchun) 872,2 mlrd.so‘m imtiyozli ta’lim kreditlari ajratildi.

Ehtiyojmand oilalardan bo‘lgan xotin-qizlarni oliy ta’limga olishlari uchun yaratilgan imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishlarida ularga ko‘maklashish maqsadida 2020-yildan boshlab, kam ta’minlangan oilalardagi Qo‘mita tavsiyanomasiga ega bo‘lgan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlariga nisbatan qo‘shimcha to‘rt foizli davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari ajratildi.

Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o‘qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 402-son qarori qabul qilindi.

Shunga asosan, 2020/2021 o‘quv yilida xotin-qizlar uchun 940 ta davlat granti asosidagi qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari ajratilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22 iyundagi PQ-5157-son qaroriga muvofiq 2021/2022 o‘quv yilida ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan xotin-qizlar uchun davlat granti 2 baravarga oshirilib, 2040 nafar davlat granti qabul qilindi.

O‘tgan 2022-yilda Qo‘mita tavsiyanomasiga ega bo‘lgan va qo‘shimcha to‘rt foizli davlat granti asosida qabul ko‘rsatkichlari doirasida 1982 nafar xotin-qizlar davlat granti asosida o‘qishga qabul qilindi.

Shuningdek, ilk bora mutaxassisligi bo‘yicha kamida 5 yil mehnat stajiga, lekin oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan 500 nafar xotin-qiz har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat OTMlariga test sinovlari natijalariga muvofiq kontrakt asosida o‘qishga qabul qilinishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli Farmoni hamda davlat organlari va tashkilotlarda oliy ma’lumotli xotin-qizlar ulushini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini tasdiqlash haqida” 2022-yil 9-iyundagi 322-sonli qarori tasdiqlangan.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2022-yil 21-apreldagi 40-sonli buyrug‘i qabul qilinib, barcha tuman (shahar)larda oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

O‘tgan 2022-yilda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining Xotin-qizlar.uz platformasi orqali mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan, lekin oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan 29 ming 531 nafar xotin-qizlarning arizasi qabul qilinib, ularning 28 ming 664 nafariga tavsiyanoma berildi. Shundan test natijalariga ko‘ra 507 nafar xotin-qizlar oliy ta’lim muassasalariga davlat granti asosida talabalikka qabul qilindi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, xotin-qizlar ta’limiga berilgan imtiyozlar, yaratilgan sharoit va imkoniyatlar, qisqa davrda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi bo‘lib, uning natijasi bugungi kunda mamlakatimiz rivojida o‘zini namoyon qilmoqda. Bugungi islohotlar natijasi kelajakda amalga oshiriladigan ishlarimiz sari ruhlantiradi.

# YANGI O‘ZBEKISTONNI QURISHDA MA’NAVIY, IJTIMOIY-AXLOQIY QARASHLARNING O‘RNI

**Bekdavlat ALIYEV**,
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori*

***Annotatsiya:*** *Maqolada yangi taraqqiyot va milliy yuksalish yo‘limiz, ko‘pmillatli xalqimiz hayoti, dunyodagi rivojlangan davlatlarga xos hayot darajasiga erishishdagi sa’y-harakatlarimiz, adolatli, erkin va obod jamiyat qurishdek ulug‘vor maqsadlarlarimiz mushtarakligi yoritib berilgan. Taraqqiyotimizni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishda yoshlar va ular bilan uzluksiz ishlash, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, metodik dasturlarni hayotga keng joriy etish va ota-ona, maktab, mahalla hamkorligida azaliy umumbashariy qadriyatlarimizga xos tarbiyalash muhim ahamiyatga kasb etishi talqin etilgan.*

*Bundan tashqari, hozirgi zamon yoshlarining ijtimoiy-ahloqiy qiyofasini takomillashtirishga doir takliflar o‘rtaga tashlangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *yangi taraqqiyot, milliy yuksalish, ma’no, strategiya, hikmat, farovonlik, oila, mahalla, jamiyat, davlat, faollik, ma’naviyat.*

**Kirish** Ma’naviyatda inson va uning ichki olami, turmush tarzi va hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni aytmay sevish, botinan jo‘sh urib turadigan vatanparvarlik inson ma’naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Hushyor va ogoh yashash, harom va halolning farqiga borish, o‘z kelajagini oila va Vatan kelajagi deb bilish, buning uchun o‘qib-uqib to‘g‘ri yo‘lda og‘ishmay yurish, halol mehnat qilish va ilm olishga intilganlar ma’naviyatli odamlar hisoblanadi.

Shu bois davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” tamoyilini o‘zida aks ettirgan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi [10] 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan.

Xususan, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyilida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiri-ladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan. Bu esa, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiya-sining beshinchi bo‘limida o‘z aksini topib, unda milliy maqsadlar, asosiy ko‘rsatkichlar va chora-tadbirlar, uni amalga oshirish mexanizmlari va shakli, muddati aniq belgilab berilgani muhim ahamiyat kasb etadi.

“Hammamiz yaxshi tushunamiz, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy g‘oyalarni mujassam etadigan kuchli ma’naviyatga tayanamiz”[10].

Ta’kidlash o‘rinliki, 2022-yilda mazkur strategiyani amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarga 55 trln so‘m va 11,7 mlrd dollar ajratiladi. Bu miqdorlar esa, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning jamiyat madaniyati yuksalishida ne chog‘li o‘rni baland ekanini ko‘rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Aslida ma’naviyat va ijtimoiy axloqiy qarashlar – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng asosiy ma’naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya’ni yuksak ma’naviyat egasi bo‘la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko‘rmaymiz. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma’naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

A.Erkaevning fikricha, “Ma’naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir”. [8]

M.Imomnazarov dastlab “Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur…”, – deb yozgan bo‘lsa, keyinchalik “Ma’naviyat – inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta’rif darhaqiqat, so‘fiyona ramziy ta’rifdir, zotan boshqacha ta’rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yadi”,[9] – deb yozadi. T. Mahmudov “…Ma’naviyat – insoning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog‘ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir”, – degan ta’rifni beradi. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy sohalarida mavjud bo‘lgan muammolarni ma’naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin. Ma’naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda ma’naviyat yuksak darajada bo‘lsa, o‘sha joyda, o‘sha mamlakatda johillik, hasadgo‘ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo‘rlik, g‘iybat qilishlik, ko‘rolmaslik, yovuzlik, qo‘paruvchilik, o‘z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma’naviyatsizlik ko‘rinishlariga o‘rin qolmaydi. Shaxsning o‘z o‘zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, iymon-

lilik, halolik, e'tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to'g'rilik va boshqalar.

O'tmishda yashab ijod etgan allomalarimiz Farg'oniy, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Ulug'bek, Buxoriy, Termiziy, Marg'iloniy, Motrudiy, Zamaxshariy va boshqalar nafaqat ilm cho'qqilarini egallabgina qolmay, uni – ya'ni ma'rifatni keng targ'ib etganlar, o'rgatganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar. Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Is'hoqxon Ibrat, Ahmad Donish va boshqalar mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma'rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bildilar. Ma'rifatparvarlik harakatining yorqin siymolaridan biri Abdulla Avloniyning "Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir",[7] – degan g'oyasi ma'rifatparvarlik harakatinig dasturini tashkil etgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

"Ma'naviyat"ning mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlari sifatida ma'naviyat ko'p qirrali tushuncha ekani bo'yicha respublikamizda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. U inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko'zga tashlanuvchi zoxiriy va yashirin, ichki ruhiy – botiniy tomonlarini ham qamrab olganligidadir. Hozirgi kunda ham munozaralar davom etmoqda va matbuotda ushbu mavzuga bag'ishlab ko'plab maqola va mulohazalar e'lon qilinmoqda, kitoblar chop etilmoqda.

Ularda ma'naviyat va ijtimoiy-axloqiy qarashlar, uning ma'no-mazmuni, hayotimizdagi o'rni va ahamiyati haqida fikrlar bildirilmoqda. Unga ham bir tabiiy hol sifatida qaramoq lozim. Bu masala bo'yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir biridan farq qiladigan fikr-mulohazalarda, ta'riflarda har qaysi muallifning o'ziga xos dunyoqarashi, mushohida tarzi o'z ifodasini topgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, keyingi yillarda mazkur mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, risolalar, o'quv qo'llanmalar, lug'atlarda "Ma'naviyat" tushunchasi va uning tamoyillariga o'ziga xos izoh va ta'riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab "Ma'naviyat" tushunchasi[4] keng ma'noda jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etgan ijtimoiy-ma'naviy hodisa ekanligidir.

Aslida ma'naviyat va ijtimoiy-axloqiy qarashlar – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma'naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya'ni yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko'rmaymiz.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma'naviyatga inti-

lish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma’naviyat va ijtimoiy-axloqiy qarashlar odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Qadimgi xalqog‘zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarida Markazy Osiyo xalqlarining ma’naviy hayoti, urfo-datlari va axloqiy fazilatlari-ning yoritilishi(“Kitobi Jamshid”, “Erqo‘bbi” afsonasi, “Zarina va Medya Striotiya”, “To‘maris”, “Shiroq” afsonalari).

Markaziy Osiyodagi eng qadimgi dinlar va ularda ma’naviyat bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalar “Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobida talqin qilingan.[5]

Moniylik va Mazdakchilik ta’limotida ma’naviyat masalalari keng yoritilgan. O‘rxun-Yenisey yozma yodgorliklarida qadimgi turkiy xalqlarning o‘z vatanini sevish, o‘z xalqiga sadoqati, janglarda mardlik va jasorat ko‘rsatish kabi axloqiy fazilatlarning ifoda etilgan.

Qadimi qo‘lyozma va og‘zaki ijod manbalari ma’naviyat ildizlari va ularni o‘rganishning ma’naviy tiklanishda tutgan ahamiyati juda kattadir.

Islom va ma’naviyat haqida gapirganda Qur’oni Karim musulmonlarning muqaddas kitobi haqida so‘z boradi. Unda ma’naviya t tushunchasi va shaxsning ma’naviy qiyofasining mezonlari aks ettiriladi. Shariatda huquq va axloq me’yorlarining birligi sifatida halol va xarom, farz, sunnat, makruh, yaxshilik va yomonlik, savob va gunoh insoflilik, vijdonlilik, mehr va shafqatlilik, rostgo‘ylik, firibgarlik, zo‘ravonli, o‘g‘rilik, bosqinchilik, ta’magirlik va poraxo‘rlik tushunchalari ajaratib ko‘rsatiladi.

So‘nggi yillarda erkin fikrlaydigan, o‘z-o‘zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi qilib belgilab olindi. Uni amalga oshirish esa, eng avvalo tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy ma’naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqoza etadi.

Bizningcha, kishilik jamiyatida o‘zgalarning fikriga qo‘shilmaslik mumkin, ammo boshqalarning fikrlarini tinglash uchun ma’naviyat va ijtimoiy-axloqiy qarashlar zarur bo‘ladi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi**

Bugungi globallashuv davrida dunyo axborot ummonida ma’naviyati yuksak, ma’rifatli, imon-e’tiqodi mustahkam bo‘lmagan har qanday inson har on cho‘kishi muqarrar.

Chunki axborot asrida “to‘lqinlar girdobi” shu qadar shiddatli tus oldiki, imoni, e’tiqodi, ma’naviyati sust inson darhol tuzoqqa tushib qolishi turgan gap.

“Mening nazarimda, – deydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, – insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning

boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi”. [1, 267-b.]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori[10] ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash asosiy maqsadimizdir.

Mazkur qarorda uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog‘lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta’minlandi.

Xususan, ma’naviy va ijtimoiy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash, yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish lozim.

Bois ma’naviyat va ijtimoiy-axloqiy qarashlar borasida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yil – Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi borasida so‘z yuritilib, “Kimki ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat va ma’rifat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi deb o‘ylasa, xato qiladi”,[11] – deya ta’kidlagani fikrimiz dalilidir.

Darhaqiqat, iqtisodiy tazyiqni sezish mumkin, ammo mafkuraviy-ma’naviy tazyiqni ko‘rish, sezish oson emas. Bu ofat turli ko‘rinishlarda xalq, ayniqsa, yoshlar hayotiga, turmush tarziga, ongu shuuriga asta-sekin kirib keladi, fikru zikrini egallab oladi. Buzg‘unchi kuchlar, bir qarashda o‘ta beozor ko‘ringani bilan, ta’sir kuchi g‘oyat samarali vositalardan foydalanadi. Hayotiy tajribasi oz, suyagi qotmagan yoshlar atrofida turli “maslahatchi”lar, yo‘l ko‘rsatuvchi “jonkuyar” murabbiylar, har ishga qodir “homiy”lar paydo bo‘lib qoladi. Bu ko‘zga ko‘rinmas xavflardan ogoh bo‘lish, immunitetni mustahkamlab borish dolzarblik kasb etadi.

**Xulosa va takliflar**

Xulosa va takliflar shundan iboratki: yoshlarni kitobxonlikka qiziqtiruvchi, ularni kitobga yetaklovchi tadbirlarni faqat maktab, va oliy ta’lim

muassasalari bilan emmas, ushbu tadbirlarni ota-onalar hamkorligida oillalar o‘rtasida kitobxonlik kechalarini o‘tkazish zarur.

Beshta muhim tashabbus birgina 2019-yil uchun emas, mazkur dasturil amal uzoq istiqbolga mo‘ljallangan ulkan ma’naviy-ma’rifiy dastur bo‘lib. Uni har bitta oilada tashkil etish, otilalar ichiga kirib borish, ular bilan onlayin muloqotlar, bunda mahalla va maktab, oliy ta’lim muassaslari hamkorligini kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

Bizningcha, oilada ota-ona tarbiyasi, diniy va dunyoviy ta’lim tarbiya uyg‘unligi mavjud, shu o‘rinda aytish kerakki, zinhor diniy tarbiyaga ustuvorlik bermaslik lozim. Bular bilan birga, milliy va umumbashariy qadryatlarga ayrocha qaramaslik lozim.

– mamlakatdagi real jarayonlardan ajralmaslik ya’ni, uni vulgarlashtirmaslik zarur.

– Ma’naviyat va va ijtimoiy-axloqiy qarashlar bilan mafkurada fikrlar xilma xilligi bosh o‘rinda bo‘lmog‘i kerak, shular bilan birga, qonun ustuvorligiga bo‘yinsunish, aytmoqchimizki, liberal yo‘ldan borib qonun va iqtisodiyot ustuvorligini qabul qilishimiz zarur;

– Yangi O‘zbekistonda hozirgi mafkuraviy holatlarning sabablarini, modernizatsiya, vesterenizatsiya va gibridzatsiya qilishga diqqatimizni qaratmog‘imiz zarur;

– Davlat manfaatlarini ko‘zlaydigan ma’naviy-ma’rifiy qarashlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ijtimoiy-axloqiy mafkuradan yuz o‘gurgan holda, uning o‘rniga iste’molchi mafkurasi hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelganini tan olgan holda, uni mustahkamlab borishimiz zarur.

Shuningdek, XXI-asr boshida mafkura milliy g‘oya bilan almashtirildi. Bu esa, biz kutgan samarani bermadi. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan tub demokratik islohotlarda, yosh avlod kamoloti, inson qadri tamoyillari hayotimizga keng joriy etilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda Yangi O‘zbekiston mamlakat taraqqiyotini yanada rivojlantirish uchun “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Davlatimiz tomonidan yartilgan bu imkoniyatlar yosh avlodni aqlu zakovati, ruhiy dunyosini, vatan va kelajak haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa qarashlarini, tasavvurlarini boyitib boradi. Bu islohotlar ruhan va ma’nan tetik avlod o‘zligini teran anglashlarini ifodalaydi. Teran aql shakllangan va tafakkuri ma’naviyat va ijtimoiy-axloqiy qarashlarga uyg‘unlashgan jamiyatda ulkan bunyodkorliklar, o‘zgartiruvchiliklar va boshqaruvchilik, ixtirochilik, yo‘naltiruvchilik kabi xususiyatlar muvaffaqiyatli rivojlanadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. Ўзбекистон. 2021 й. -Б. 267.*

*2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги — Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисидаги ПҚ 3160 сонли қарори.*

*3. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни / Нажмидинова Каримахон Усмоновна. – Т.: “Адолат”, 2016. 224 б.*

*4. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Ғофур Ғулом. Т.: 2010. 292 б. 73*

*5. Аҳмедов Б.Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: —Ўқитувчи||. 2001 134 б.*

*6. Ислом Каримов Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент.Маънавият, 2008.б.19*

*7. Холиқов И. Собирова М . Машарипова Г. —Маънавият асослари|| фанини замонавий педагогик технологиялар асосида ўқитиш. –– Т.:Т-ДПУ, 2013.*

*8. Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. Тошкент. Маънавият, 1997. 23 б.*

*9. Имомназаров М. Маънавиятимизнинг такомил босқичлари.Тошкент: Шарқ, 1996.48 б.*

*10. lex.uz›docs/4320700*

*11.oyina.uz/posts/3437*

## O‘ZBEK MILLIY-ETNIK QADRIYATLARINING EVOLYUTSIYASI VA UNING YOSHLAR AXLOQIY-ESTETIK TAFAKKURDAGI TRANSFORMATSIYASI

**Aktamkul SAMADOV,**
*Samarqand davlat universteti*
*Falsafa va milliy g‘oya kafedrasi mudiri,*
*falsafa fanlari doktori(DSc) professor.*
**Aminjon AYMATOV,**
*Samarqand davlat universteti*
*Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani,*
*falsafa fanlari doktori(DSc) dotsent.*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o‘zbek milliy an’analari, etnik simbioz holatlari, jamiyatdagi qadriyatlar milliy yashovchanlik xususiyatini shakllan-*

*tirib kelayotganligi yoritilgan. An'ana tushunchasi yoshlar axloqiy va estetik tafakkurda qanday o'rin tutishi, millliy etnoestetik an'analarni evolyusiyasi, bayramlar, odatlar va marosimlarda in'ikos etishi yoritilgan. Milliy an'analar milliy axloqiy tafakkurda reglament sifatida, tatibot sifatida, odat sifatida, tamoyil sifatida gavdalanadi.*

***Kalit so'zlar.*** *axloq, estetika, ta'lim-tarbiya, qadriyatlar, tagakkur, jamiyat, transformasiya, axloqiy-estetik tafakkur, yoshlar ma'naviyati, qadriyatlar transformasiyasi.*

O'zbek xalqi asrlar davomida boy etnik muhitda shakllanib, milliy an'analarni avloddan-avlodga uzatib kelmoqda. Turli davrlarda turlicha ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar, mafkuraviy bosimga, turmush tarzining o'zgacha uslublarini singdirish borasidagi uzluksiz tazyiqlarga qaramay o'zbek xalqi o'zining bag'rikengligi, saxovatpeshaligi, mehmondo'stligi, sabr-bardoshliligi singari avlodlar an'analarini milliy identifikasiyasi sifatida saqlab kelgan. Milliy-etnik an'analar bir urug', qabila va xalq darajasidagi uzoq tarixiy shakllangan etnomadaniyatlar yig'indisi bo'lib, etnoslarning ijtimoiy, ma'naviy, moddiy, siyosiy ehtiyojlari asosida shakllanib, bir etnosni aqliy mehnati, ijodkorligi, yaratuvchanligi, xo'jalik amaliyoti, mehnat jarayonida atrof-muhitga munosabati natijasida paydo bo'lgan uzluksiz davom etuvchi dinamik jarayondir.

O'zbek milliy an'analari etnik simbioz holatlari, jamiyatdagi poleetnik muhitda rivojlanib, milliy yashovchanlik xususiyatini shakllantirib kelmoqda. An'ana tushunchasi axloqiy va estetik tafakkurda qanday ma'noda qo'llaniladi? An'ana faqat bayramlar, odatlar va marosimlarda in'ikos etadimi? Ushbu savollar tushunchani axloq va estetikada qanday o'rin egallashini belgilashga majbur qiladi. Milliy an'analar milliy axloqiy tafakkurda reglament sifatida, tatibot sifatida, odat sifatida, tamoyil sifatida gavdalanadi. "An'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi"[1,8].

Axloqiy-estetik tafakkurda amaldagi an'analar orqali yosh avlodni tarbiya qilish – xalq pedagogikasi shakllanishiga olib kelgan. Bir vaqtni o'zida yoshlarni o'zidan yoshi ulug'larga, o'tmishdagi allomalarga, o'z ota-onasiga bo'lgan munosabati belgilashda axloqiy-diniy reglament belgilari (*hurmat qilish, sizlab gapirish, doim xizmatda bo'lish, bo'y so'nish*) bilan birga xushxulq bo'lish, go'zal tabiatli bo'lish, ozoda-pokiza bo'lish, halollikka e'tiborligi bo'lish singari estetik belgilar birgalikda uchraydi.

"Milliy-etnik an'alar" tushunchasining axloqiy-estetik tafakkurdagi mazmuni o'rganilganda, etika va estetika sohalarining asosiy tamoyillari aynan an'analar bilan bog'liqligini ko'rish mumkin: 1) *ana'ana axloq tamoyil sifatida*: insoniy fazilatning ibtidosi va dinamikasi, ilk sabab va takrorlanishga asos, har qanday milliy axloqiy ong tarkibiy tuzilishi, axloqiy xatti-harakat,

xulq-atvor va axloqiy faoliyatning boshlang‘ich reglamenti; 2) *an’ana estetik voqelik sifatida*: davomiy marosimiy, odatlardagi go‘zallik me’yorlarini belgilab turadi, go‘zallik va xunuklik o‘rtasidagi chegarani belgilab turadi, kishilarni dam olish, rekrasion maromlarini estetik fazilatlar to‘ldirib boradi; 3) *an’ana jamiyatda boshqaruvchi va nazorat qiluvchi institut sifatida*: qadimgi davrdan hozirgacha kishilar ma’lum qadriyatlar ierarxiyasiga, belgilangan mezonlarga bo‘y so‘nadilar. Yer yuzidagi barcha kishilik jamiyatlarida boshqaruv va nazoratni institusonal ko‘rinishlari uchraydi. Oila va nikoh masalasida, o‘zaro muomala madaniyati, savdo-sotiq masalasida, umumaxloqiy masalada subordinasiyaga asoslangan bosqichma-bosqich bo‘y so‘nuvchi an’analar takomillashtirilgan; 4) *an’ana kishilik jamiyatida o‘ziga xos seteriotiplarni yaratuvchi, o‘ziga xos mentalitetni yuzaga keltiruvchi evolyusion tizim sifatida*: milliy-etnik seteriotiplarni shakllanishida dinamik kuch sifatida amal qiluvchi an’analar milliy qadriyatlar, xususan, axloqiy va estetik qadriyatlarni yaratuvchisi, etnik identifikasiyani shakllantiruvchi vosita sifatida maydonga chiqadi. Buning natijasi axoqiy va estetik tafakkur natijalari pand-nasihat va o‘gitlar kitobida, musiqiy asarlarda (*masalan, Cho‘li Iroq musiqasidagi mungli kuylar o‘zbek mentaliteti va etnik identifikasiyani namoyon qila oladi*), turmush estetikasida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek milliy an’analarining uzoq tarixga ega, evolyusion jarayon ekanini ko‘plab mualliflar o‘z ijodlarida keltirib o‘tishgan. Milliy an’nalar evolyusiyasini bosqichlari, alohida davrlarini tadqiq etish uchun o‘z davrida yaratilgan axloqiy-estetik asarlar, manbalar bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. O‘tmish xalqlardan qolgan og‘zaki va yozma ijodlarda ifodalangan axloqiy-estetik tafakkur mahsulini shartli ravishda milliy-etnik an’analar va milliy-axloqiy g‘oya bilan bog‘lanib kelgani va uning evolyusion ko‘rinishini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1) milliy jipslikka, birlikka, hamjihatlikka undovchi konstruktiv an’analar; 2) ogohlikka, tinch-totuvlikka, ichki barqarorlikka undovchi an’anaviy g‘oyalar; 3) vatanparvarlikka, el-yurt uchun fidoyilikka chorlovchi axloqiy an’anaviy g‘oyalar;

4) yurt, el-ulus manfaatlarini shaxsiy va guruhiy manfaatlardan ustun qo‘yishga undovchi axloqiy g‘oyalar; 5) tinch-totuvlikka, taraqqiyotga, bunyodkorlikka, kasb-hunar egallashga, mehnat qilishga chorlovchi axloqiy-estetik an’analar; 6) turmushda poklikka, xulq-atvorda go‘zallikka, ayol konseptiga nisbatan go‘zallik me’yorlariga rioya qilishga, sog‘lomlikka undovchi estetik an’analar.

Milliy an’analarning o‘zi milliy-etnik xarakterni tarkib toptiruvchi muhim ijtimoiy-ma’naviy asos hisoblanadi. “Milliy xarakter, – deb yozadi I.E.Xudayberdiyev, – mazkur xalqning madaniyati, dini, an’analari va urf-odatlari aks etadigan, boshqa xalqlarda takrorlanmaydigan milliy o‘ziga xos va ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy taraqqiyotda dialektik tarzda if-

odalangan murakkab va ziddiyatli jarayon sanaladi"[2,82]. Mehnat jarayoni turli mavsumiy an'analar va bayramlarni, odat va irim-sirimlarni yaratib kelgan. Dastlab mehnat qilish bu axloqiylik deb tushunilgan bo'lib bu Zardushtiylik kitobi "Avesto"da "...Atrof muhitga moslashish, tirik qolish, oziq-ovqat izlab topish, mehnat qurollari yasash, birgalikda mehnat qilish va tabiiy ofatlarga qarshi kurashning afzalligi va hakozolar salbiy illatlarning paydo bo'lishi va mavjud bo'lishini istisno"[5,58] qilishi holatida uchraydi. SHu bois axloqshunoslik ilmida mehnat etikasi degan ibora qo'llaniladi. Bu ibora mehnatning ijtimoiy funksiyasi ta'sirida uning ma'nosiga putur etish xavfi tug'ilganda alohida ahamiyat kasb etadi. Mehnatning axloqiy-estetik jihatini alohida ajratib ko'rsatish uni jamiyatda o'z qadrini topmaganda, ularni himoyalashda ishlatilishi mumkin. Lekin mehnat etikasi deganda albatta uning estetikasi ham nazarda tutiladi.

Milliy an'analardagi tarbiyalovchi, shakllantiruvchi, jamlovchi va barcha ijtimoiy ong shakllarini rivojlantiruvchi obrazlar, belgilar, ideallar zamonaviy ijtimoiy krizis davrida o'z ahamiyatini yo'qotadi. "Shaxsning ehtiyojlari, qadriyatlari, intilishlari va ularni amalga oshirish imkoniyatlari o'rtasida har xil tafovutlar yuzaga kelishi mumkin. Avvallari yosh yigit qizlar oilani himoya qilish, oilani qadriyatlari bilan birgalikda ijtimoiy institut sifatida asrash, saqlab qolishdek ulug'vor ishlarni qilishgan"[6,14]. Hozirgi kunda shaxsning qadriyatlari yo'nalishlari qarama-qarshi bo'lib qoldi va bu uning ongining pastki darajadagi surrogat qadriyatlarining kirib kelishi uchun qulay zamin yaratmoqda.

Yoshlarning axloqiy-estetik ongida vujudga kelgan ekzistensial ma'naviy bo'shliq milliy an'analarni ayrim jihatlarini rivojlantirishni dolzarbligini oshiradi. Yoshlarning axloqiy va estetik ongini ijtimoiylashtirish jarayoniga hissa qo'shadigan hayotiy an'anaviy qadriyatlarni shakllantirish uchun sharoit yaratish to'g'risida hukumat miqyosida qaror qabul qilishni talab qiladi. Tajriba va ijtimoiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday qadriyatlar xalq amaliy san'ati, etnik-madaniy an'analar, marosimlar, urf-odatlar va e'tiqodlar bo'lishi mumkin. Folklor alohida ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimida butun etnik madaniyatni yorqin, badiiy-majoziy shaklda jamlagan holda, axloqiy ongning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy hayot tarzi sifatida madaniy va ma'naviy qadriyatlarni hamda xalqning o'zini o'zi saqlab qolish instinkti imkoniyatini ta'minlaydigan badiiy va ijodiy jarayon eng dolzarb masaladir.

Umuman milliy-etnik an'analarimizning uzoq evolyusion davri va uning millat, xalq axloqiy-estetik tafakkurdagi in'ikosini tahlil quyidagi xulosalarni keltirib chiqaradi:

*birinchidan*, xalq og'zaki ijodi asosida shakllangan an'analar majmuasi (*ertak, rivoyat, dostonchilik, maqollar, aqliy va naqliy bilimlar, aforizmlar*) milliy-etnik axloqiy-estetik tafakkurning umumnazariy, rasional tamo-

yillarini, ontologik xususiyatlarini shallantirib, o‘ziga xos yashashning metodologik, praksiologik mohiyatini ochib bergan;

*ikkinchidan*, o‘zbek milliy estetik tafakkurining xilma-xilligi, ko‘p jabxaliligi, ko‘p yo‘lligi aks ettirgan musiqiy, turmush tarzi estetkasi, uy-ruzg‘or tutish odobi singari an’analar to‘plami (*musiqiy yo‘llar xilma-xilligi, xalq teatr san’ati, cholg‘u asboblarni o‘ziga xosligi, xalq dardini aks ettirgan nazm-navolar*) o‘zbek xalqini qiziqon, kulgisevar, bolajon tabiatini ochib berib, landshaft va xalq mentalitetini o‘ziga gavdalantirgan;

*uchinchidan*, o‘zbek milliy etnoetikasini asosini tashkil qilgan sub-ordinasiyaga asoslangan xulq-odob majmuasi, ierarxik oilaviy an’analar (*marosim, urf-odat*), diniy-axloqiy mazmundagi imon-maslak talablari, turli irim-sirimlar o‘zbek millatini etnoetik qiyofasini shakllantirgan bo‘lib, bular o‘zbekchilik, andishalilik, bag‘rikengalik, ochiyuzlilik, sovuqqonlik, vazminlikda namoyon bo‘lgan;

*to‘rtinchidan*, milliy etnografiyasining asosi bo‘lgan uy-ro‘zg‘or, turmush tarzi, hunarmandchilik, amaliy san’at namunalari jamlangan an’analarda ota-bola, kasb-kor, ustoz-shogirt munosabatlari, turmush-oilaviy munosabatlarda mehmondorchilik madaniyati (*o‘z nafsini tiyish, mehmonga borganda toza kiyinib, ovqatlanish odobiga rioya etish*), sovchilik singari ijtimoiy ahamiyatga molik an’analarda xalq donishmandligi namoyon bo‘lib kelgan;

*beshinchidan*, sog‘lom turmush estetikasini shakllantirgan gigienik tarbiya asoslari (ozadalik, badannni toza saqlash, o‘zini salomatligini tiklash), urfga asoslangan didli tarbiya (*ochiq-sochiq yurmaslik, o‘ziga yarashadigan kiyim kiyish, liboslarni toza tutish, ranglarga e’tibor berish*), ilm-ma’rifatga chorlaydigan tarbiya (*mutolaa madaniyati, tuli mushoiralarga ishtrok etish, g‘azalxonlik, hadislar muhokamasiga ishtrok etish*) asoslangan an’analar yig‘indisi o‘zbek millatini ma’rifatli shaxs va ziyoli qiyofasini yaratgan.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. Toshkent. Sharq, 2002. 8-bet.*

*2. Xudayberdiev I.E. Islom va o‘zbek xalqining milliy ongi hamda psixologiyasining shakllanishi. Fal.f.dok. diss. – Toshkent. 1997. 82– b.*

*3. Большой энциклопедический словарь.: философия, социология, религия, эзотеризм, политэкономия /Главн.-науч.ред. и сост. С.Ю.Солодовников.-Мн: МФЦП, 2002. -С. 848; Ўлмасов А. Абдураҳмонов Қ. Меҳнат //Ўзбекистон миллий энциклопедияси.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси “Давлат илмий нашриёти”, 2003. 5 том. -630 б..*

*4. Философский энциклопедический словарь.-М.: ИНФРА-М. 1999. – С.463.*

*5. Mahmudova G.T. S.M.Arifxanova. Zardushtiylik falsafasi. T.: Noshir. 2014, 58-bet.*

*6. Абрамова О.А. Нравственно-эстетические и ментальные ценности фольклора. Автореф.канд. философ. наук. Барнауль . 2006, С-14.*

## ПОЛИТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА ЛИЧНОСТИ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Бердикул ТУЙЧИЕВ,**
*доктор философских наук, профессор*
*Национальный университет Узбекистана*

***Аннотация.*** *Как известно, слово демократия означает власть народа. Участие граждан в управлении требует политической активности. Уровень политической активности зависит от уровня политической культуры. Поэтому повышение политической культуры человека в новом Узбекистане является важной основой развития демократии. В статье обсуждается эта тема.*

***Ключевые слова****. Политика, культура, развития, личность, противоречие, общество, разногласие, духовные силы, субъекты, миссия, демократия, свобода, гражданское общество, права личности.*

В условиях нестабильного развития общества одним из важнейших направлений реализуемой на практике Стратегии развития Узбекистана является “обеспечение безопасности межнационального согласия и религиозной толерантности, осуществление взвешенной, взаимовыгодной и конструктивной внешней политики”[1]. Формирование политической культуры личности направлено на выполнение этих задач.

Противоречивость политического развития личности – это взаимодействие гармонии и дисгармонии, отсутствие согласованности, проявление диспропорций, разногласий, антагонизмов, потеря равновесия, наличие пока еще недостаточно изученных механизмов. Прежние идеальные модели личностей, свободных от политических противоречий, теневых сторон, рассматривавшие формирование политической культуры как механический, внутренне непротиворечивый процесс, как своеобразную сумму мероприятий. Политическую культуру личности не понять, если учитывать только её подъем, если не обращать внимания на её теневые стороны, не проникать в причины её падения, распада, деградации.

Перед нашим обществом стоит задача воспитания разумного и

гуманного хозяина природы и общества, формирования его политической культуры, гражданственности, сохраняя вместе с тем уникальную неповторимость каждой отдельной личности. Главная миссия человека совершенствовать себя и окружающий мир. При этом справедливо встаёт вопрос о границах мер ответственности человека за свои поступки. Моральную ответственность человек несет только за совершенное. В сферу его ответственности входит и несовершенное им, то, что только мог бы совершить, чего не достиг. Анализ компонентов, обеспечивающих богатство мира человека, показывает, что они находятся в противоречивом единстве, которое порой может принимать парадоксальный характер. Жизнедеятельность человека охватывает не только противоречия, обязательно разрешаемые на каждой ступени развития, но и те общечеловеческие противоречия, которые в принципе не всегда разрешимы и требуют обновления, дающие в результате возможность личности совершенствоваться (например, непрерывное выдвижение идеала, конфликт между действительным и необходимым, спор тела и духа).

Отходя от плоско-морализаторского рассмотрения негативных моментов в сфере политической культуры личности нельзя отрицать роли бездуховности, равнодушия, редрассудков, культивируемых тенденциозными идеологами.

Ключевая роль в проблеме самосовершенствования свободы выбора целей и ценностей, выбора проекций в будущее как непременного условия подлинного самосовершенствования, в процессе политической культуры означает, что только в этом случае личность несет всю полноту ответственности за результаты активности, направленной на изменение самой себя. Никакая внешняя деструктивная сила не вправе отчуждать это качество. Разумеется, свободный выбор всегда реализуется в условиях тех наличных ценностей и целей, которые предполагаются личности данным обществом и часть которых уже усвоена ею в процессе социализации. Но это другой вопрос, другой план анализа проблемы самосовершенствования. Подчеркивая аспект свободы выбора, следует обратить внимание на необходимость всемерного развития, поощрения, самовоспитания, реформирования воспитательной работы, основанной на господстве внешних факторов (авторитарности, принуждении, наказании, назидании, поощрении, награде и т.п.). Большие изъяны воспитательной работы, проводимой официальными учреждениями, как раз и связаны с недооценкой роли самовоспитания. Без развитой способности самовоспитания, насущной внутренней потребности в нем подлинная личность немыслима. Самовоспитание есть органическая форма самосовершенствования. По этому поводу подчеркивает Президент

Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев: “Только просвещение ведет личность к совершенствованию, общество к развитию”[2].

Таким образом, непременным условием формирования подлинной политической культуры является творческое самополагание личности, конкретные акты которого обычно отчетливо рефлексируются. И здесь на первый план выступают такие внутренние детерминирующие факторы, как мировоззрение и мироощущение, идеалы, основные смысложизненные установки. Последние же, в свою очередь, корректируются, уточняются, обогащаются постигнутыми результатами самосовершенствования личности. Это означает, что самосовершенствование не может быт завершенным и что оно предполагает изменение проекций в будущее. Ориентирами самосовершенствования всегда служили высшие достижения человеческого духа, воплощенные в культуре, зафиксированные в социальной памяти. Подлинное самосовершенствование есть развертывание сущностных сил человека, выход за горизонт наличных ценностей, творчество новых стратегических смыслов и возможностей.

Саморазвитие политической культуры личности осуществимо только на основе адекватного самопознания, предполагающего настойчивое преодоление самообмана, выступающего в качестве типичной формы психологической самозащиты. Феномен самообмана свидетельствует о многомерности психической организации человека, фрагментарности, амбивалентности динамических структур субъективной реальности, о сложных взаимоотношениях сознательного и бессознательного, рефлексивного и арефлексивного, актуального и дислозиционального, рационального и иррационального, спонтанного и произвольного в человеческой психике. Отсюда заведомая несостоятельность тех линейных моделей организации политической жизни человека, которые еще бытуют как в социальнофилософской, так и в педагогической литературе. Без реалистичных моделей политического сознания развитой личности нельзя успешно решать практические проблемы воспитания, самовоспитания. А это требует пристального изучения феномена самообмана как на уровне коллективного, так и на уровне индивидуального субъекта. И здесь мы опять видим диалектическую взаимообусловленность общественного и индивидуального сознания, индивидуального и коллективного субъектов. Чем более справедливым, принципиальным становится отношение на уровне коллективного субъекта и общественного сознания и чем больше укрепляется воля к прогрессивным общественным изменениям, к совершенствованию тех или иных сторон общественной жизни, тем в большей мере становится действенное действие на уровне индивидуального субъекта, растет его потребность в самовоспитании, вера в реальность такого

саморазвития, которое могло бы возвысить духовные силы, мудрость, красоту и добродетельность человека, а тем самым и нашего общества.

Тем не менее, в политическом поведении индивида подсознательное нередко проявляется как разумное стремление, и некоторые направления политологии ставят своей задачей объяснить сущность политической культуры личности именно с этой точки зрения. Политическая культура – это не цель в себе, а механизм, который вырабатывается в политической практике общества и должен служить опорой права личности и гражданского общества на выбор собственной судьбы. Её назначением является посредничество между обществом и государством, помощь в обеспечении законных прав граждан, в ограничении своеволия государства, роль в разделении властей. Эти функции политической культуры в конечном итоге помогают формировать свободные индивидуальности на политической и моральной основе, создавая условия роста социальной активности людей, их более или менее высокой оценки в обществе, признания их достоинства. Новое демократическое общество в Узбекистане, состоящее из свободных индивидуальностей, защищает личность от любых, в том числе корпоративных, форм подавления.

Корпоративная культура – это специфические для данной организации ценности, отношения, поведенческие нормы. Основу корпоративной и организационной культуры составляют те идеи, взгляды, основополагающие ценности, которые разделяются членами организации. Они могут быть абсолютно разными, в том числе и в зависимости оттого, что лежит в основе: интересы организации в целом или интересы её отдельных членов. Это – ядро, определяющее все остальное. Из ценностей вытекает стиль поведения, общения и различных коммуникативных средств.

Политическая культура должна поддерживать формирование гражданского общества, освобождение индивида в правовом отношении от любых сословных, корпоративных, национальных ограничений, переход к принципу: “один человек – один голос”, “человек – государство – общество” сочетание плебисцитарной и представительной демократии, разделение властей, отказ от господства правления и опеки государства в частной жизни, предоставление экономической свободы гражданам. Иногда фактически исходят из того, что демократия не может ошибиться. Раскрепошение строя выводит на поверхность лучших, часто слишком энергичных и не ограничивающих своеволие людей. Наше общество настойчиво требует от предпринимателей исходить из норм морали, заботиться о нуждающихся в них инвалидах и сиротах, неимущих, лишившихся кормильца, одиноких и престарелых.



ZJV5401

Именно это имел в виду и Президент страны Ш.М. Мирзиёев, призывая к сотрудничеству государственных и общественных структур в создании достойных условий жизни всем гражданам страны. Государственные структуры в современном Узбекистане обладают возможностями для социализации плохо адаптированных членов общества. Народ Узбекистана сделал свой выбор в пользу демократического общества. Основой Стратегии развития Узбекистана является то, что будут обеспечены все гражданские права и свободы личности, мир и благосостояние, возможности для гармоничного развития и совершенствования, выступающие главными факторами в становлении демократического общества в Узбекистане.

Демократия – это объективный процесс, который нельзя экспортировать извне. Историческая практика показывает, что она достигается обществом в результате сложных длительных усилий, кропотливого труда в материальной и духовной сферах.

Поэтому совершенно необоснованно звучат обвинения в адрес развития демократии в нашей стране. Тактика реформирования государства строится на учете традиций, умелом использовании наряду с последовательными утверждениями новых начал с более спокойным течением реформ, ведущих к устойчивости общества.

Для формирования политической культуры личности актуально определение критериев научности, принципов демаркации научного знания (проблемность, предметность, обоснованность, интерсубъективная проверяемость и системность) от неудачного. Но ни один из критериев, ни все они вместе взятые в совокупности, не являются достаточными для четкого разграничения научных и ненаучных моментов гносеологической сущности политической культуры. Методологическая позиция исследования должна, по нашему мнению, обсуждать не критерии, которых можно выделить много, а стратегию их поиска. В конечном счете, для человека интереснее сам подход к обсуждению и решению вопроса о критериях научности собственных политических представлений.

Таким образом, можно выделить две подобные стратегии. Первая занимается поиском “инвариантов”, извлечением “наибольшего” из всего многообразия научного знания. Однако зачастую инвариант ищется в одной из наиболее развитых отраслей общественных наук, и идеал научности редуцируется к критериям, специфическим для этой отрасли. В редуцирующих программах следования политических наук отмечается, в частности, наличие различных и несовпадающих систем критериев и норм, типов научности, присущих указанным специфическим областям познания. Социально-гуманитарный стандарт ориентирован на получение социально значимых результатов,

согласующихся с целями, основными ценностными установками социально-исторического субъекта.

Исходя из вышеизложенного можно сформулировать следующие предложения и рекомендации:

во-первых, к проблемы формирования политической культуры необходимо подойти комплексно, с участием различных социальных институтов;

во-вторых, следует ввести специальные курсы по политической культуре для студентов по направлению “Политология”;

в-третьих, политическая культура личности проблема интегративная, следовательно, необходимо ввести научно-иследовательские работы с участием психологов, юристов и политологов;

в-четвёртых, политическая культура является основой политического сознания человека;

в-пятых, поличитеская культура личности и демократизация общества в Узбекистане тесно взаимосвязаны;

в-шестых, системный, структурно – функциональный анализ политической культуры личности имеет не только теоретическое, но и практическое значение.

**Литература:**

*1. Указ Президента Республики Узбекистан “О Стратегии Действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” 07.02.2017. Национальная база данных законодательства. https://lex.uz/docs/3107042*

*2. Послание Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева Олий Мажлису. 28.12.2018. Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. https://president.uz/ru/lists/view/2228*

# MA’RIFATLI SHAXS TAKOMILIDA KEKSALIK VA YOSHLIK NISBATI: HOLAT VA ISTIQBOLLAR: SHAXSIY HUQUQLARMI YOKI AXLOQ?

**Mirodiljon BARATOV,**
*yuridik fanlar doktori, professor*
*O‘zbekiston Fanlar akademiyasi*
*Davlat va huquq instituti bo‘lim boshlig‘i*

***Аннотация:*** *мазкур мақолада ma’rifatli shaxs takomilida keksalik va yoshlik nisbati: holat va istiqbollar: shaxsiy huquqlarmi yoki axloq масалалари очиб берилган.*

***Калит сўзи****: маърифатли шахс, комиллик, маънавият, маърифат, тарбия, ахлоқ, одоб, илм.*

Mavjud holat.

Ijtimoiy tarmoqlarimizdagi chiqishlarga e’tibor qaratamiz: “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona”, “Odobni odobsizdan o‘rgan”, “Qush inida ko‘rganini qiladi”, “Olmaning tagiga – olma, behining tagiga – behi tushadi”, “Qo‘yni ham, echkini ham o‘z oyog‘i bilan osib, so‘yadilar”, “keksalar e’zozlanmoqda”, “Keksalarni e’zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish – xalqimizga xos ezgu fazilat”, “Keksalar haftaligi”, “Keksalar maslahati” guruhlari, yurtimizdagi barcha mahallalarda nuroniylar, shu jumladan, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylarida istiqomat qilayotgan keksalar, yoshlar, u yoki bu soha vakillari ishtirokida madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tanlovlar, xayriya tadbirlari, jumladan, nuroniy va yoshlar uchrashuvlari o‘tkazildi... Sifatlashlarni yana davom ettiraverish mumkin. Biroq eng alam qilarlisi, bir qaynovi ichidagi gaplarda “hozirgi yoshlar aynib ketishdi, astag‘firulloh”ni ko‘p eshitamiz. Kitoblardan – kitoblarga ko‘chib yurgan haqiqatlarda aytilishicha, kattalar tomonidan 5000 yillar avval ham shu mazmunda gapirilgan ekan. Demak, shakl-shamoyil o‘zgargan, xolos.

Biroq faranglar aytmoqchi, voqealar rivojiga de yure/de facto rakursdan yondoshaylik-chi. Shakldan – mohiyatga, ommaviylikdan – xususiylikka kirib boraylik-chi. Manzara qanday: axir, O‘zbekiston bizning yurt! Uning yutug‘u-yutqizig‘i ham bizniki!

Gap oila va mahallalarda ma’naviy tarbiya uzviyligini ta’minlashning ijtimoiy-siyosiy asoslari xususida ketar ekan, 2022 yilgi Nobel mukofoti hakamlar hay’ati adabiyot bo‘yicha Nobel mukofotini Anni Erno (82 yosh)ga berishda Ernoning *“shaxsiy xotira ildizlari, begonalashuvi va jamoaviy cheklovlarini ochib beradigan jasorati va idroki”*ni ajratib ko‘rsatgani, nazarimizda, har qanday irodali inson uchun ta’sirli, ibratli bo‘ldi, namuna bo‘ldi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, aksar ko‘p hollarda ma’naviy tarbiyada tanaffuslar bo‘lmoqda, uzilishlar bo‘lmoqda. Jo‘shqinlikka limmo-lim bo‘li-

shi kerak va shart bo‘lgan oltin oraliq o‘rnini – osuda, mahzun oraliq egallamoqda. Ayniqsa, “men – bilaman” qabilidagi bugungi davr egalari (yoshlari) uchun keksalar, ayniqsa, “bort ortida” qoldirilmoqda.

Allomalar keksalik xususida
Yoshlik kam, qarilik ko‘p.
Xalqdagi bir qaynovi ichidagi gaplardan
Yoshlik bilan keksalik orasidagi muddat naqadar qisqa!

**Sh. Monteske**

Keksalik xuddi qorday to‘satdan bosadi, ertalab tursangiz – hammayoq oppoq.

**J. Renar**

Jasorat tugagan kuni qarilik boshlanadi.

**A. Morua**

Qariganda aqliy nuqsonlar tashqi qiyofadagi nuqsonlar kabi yaqqolrokq ko‘zga tashlana boshlaydi.

**F. Laroshfuko**

Keksayganini odam qachon sezadi? Buni orzu-umiddan voz kechib, faqat xotiralar bilan yashay boshlaganda his qiladi.

Yo‘lini bilgan odamga keksalik ham huzur-halovat og‘ushidir.

**Seneka**

Keksalik ahmoq uchun – og‘ir yuk, johil uchun – qish, ilm ahli uchun – ayni hosil davridir.

**F. Volter**

Qariganda ayniqsa yalqovlik va bekorchilikdan ehtiyot bo‘lish kerak.

**Sitseron**

Kuch va ko‘rk yoshlik bezagi, qarilikning bezagi esa zakovat va mulohazakorlikdir.

**Demokrit**

Qarilik baxt bo‘lolmaydi, “baxtli keksalik”, degan gapni johil odamlar o‘ylab chiqarishgan. Qarilik yo osoyishta, yoki g‘am-hasrat bilan o‘tish mumkin. Izzat-ikrom ko‘rgan qariyalar osoyishta kun kechiradilar. Unutilgan, yolg‘iz qolgan keksalarning esa kuni g‘am-hasrat bilan o‘tadi.

**V.A. Suxomlinskiy**

Beg‘amlik yoshlarning sho‘ri bo‘lganiday, ortiqcha kuyunchaklik keksalarning sho‘ridir.

**V. Shekspir**

Manbalarda qayd etilganidek, “Keksalik davri bolalik va yoshlik davridek hayotning bosqichlaridan biri sanaladi. Faqat farq shundaki, bolalik va yoshlik davri kuch-qudrat va energiyadan to‘la bo‘lsa, ammo keksalik davri esa jismoniy faoliyat mezonining kamayishi va kuch-qudratning zaiflanishi bilan yuzma-yuz bo‘ladi”.



ZJV5401

BMT Bosh assambleyasi 1982-yilda keksalarning Butunjahon kengashini tashkil etdi. 1990-yilda kengash oktabr oyining birinchi kunini keksalarni hurmat-ehtirom qilish va ularning mushkulotlarini hal etish yo‘lida harakat qilish uchun “Keksalar xalqaro kuni” deb e’lon qildi.

Mamlakatimizda keksalar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 27.09.2019-yildagi 816-son Qarori bilan 2019 yildan har yili oktabr oyining birinchi haftasida “Keksalar haftaligi” o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 sentabrdagi tegishli bayoniga asosan 2022 yilning 3-9 oktabr kunlari *“Keksalarni e’zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish – xalqimizga xos ezgu fazilat”* g‘oyasi bilan mamlakatimizning barcha hududlarida “Keksalar haftaligi” o‘tkazildi. Ushbu qaror bilan mamlakatimiz bo‘ylab “Keksalar maslahati” guruhlari tashkil etildi. Yurtimizdagi barcha mahallalarda nuroniylar, shu jumladan, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylarida istiqomat qilayotgan keksalar ishtirokida madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tanlovlar, xayriya tadbirlari, jumladan, nuroniy va yoshlar uchrashuvlari o‘tkazildi. “Mehnat faxriysi”, “Mo‘tabar ayol” va “Mahalla iftixori” ko‘krak nishonlari ta’sis etildi.

Islom dini keksalar haqida. Dinimiz keksalarni hurmat-ehtirom qilish va ularni muhofazat etishni jamiyatning har bir shaxsi uchun vojib etib ko‘rsatma beradi. Rasuli Akram salallohu alayhi va olihi va sallam shunday marhamat qiladilar: “Musulmon keksalarni hurmat-ehtirom qilish Alloh taologa ta’zim qilishdir”. Yoki boshqa bir joyda shunday buyuradilar: “Har bir kishi keksa yoshda bo‘lgan shaxsning maqomi va fazilatini yoshiga qarab bilsa va uni hurmat-ehtirom qilsa, Alloh taolo uni oxiratdan qo‘rqish va xavotirlanishdan amonda saqlaydi”. Yoshi ulug‘ insonlarni qadrlash va kichiklarga mehr-muhabbat ko‘rsatish islom dinining axloqiy dasturulamallaridan sanaladi va oila poydevorini musaffo aylab, mustahkamlaydi. Imom Sodiq alayhissalom bu haqda shunday marhamat etadilar: “Kichiklarga rahm-shafqat qilmagan va keksalarimizning qadrlarini bilmaganlar bizdan emas”.

Dinimiz yoshi ulug‘ kishilarga g‘amxo‘rlik qilishga buyuradi. Keksalik yoshi quyidagi tartibda bo‘ladi: yetuklik, mo‘ysafidlik, keksalik, qarilik yoki o‘ta keksalik.

Ushbu mualliflar xulosa qilib aytadilarkim, keksalarni e’zozlashda ushbu jihatlarga alohida e’tibor berish kerak:

– yoshi ulug‘ odam kirib kelganida hurmati uchun kichik yoshdagilar o‘rnidan turishi;

– majlislarda oldin yoshi katta odamga so‘z berilishi;

– yig‘ilishlarda yoshi ulug‘larning izni bilan gapirish;

– yoshi ulug‘ odamga kichik yoshdagi odamning salom berib, murojaat qilishi;

– yoshi ulug‘ odamni hurmat qilib, keksaligi uchun yig‘inlarda yuqoriga, to‘rga o‘tkazish;

– yoshi ulug‘lar bilan odob, xushmuomala va ehtirom bilan gaplashish;

– yoshi ulug‘larning oldini kesib o‘tmaslik;

– yoshi ulug‘larga biror narsani tushuntirishda ochiq gapirmasdan imo-ishora yoki qochirim bilan tushuntirish;

– keksalar oldida baland ovozda gapirmaslik;

– keksalarning oldida yoki ortidan bo‘lsa ham, kesatib, masxara qilib gapirmaslik;

– keksalar oldida odob bilan o‘tirish;

– muhim ishlarni keksalardan maslahat olib, so‘ng boshlash;

– keksalardan oldin taomga qo‘l uzatmaslik;

– suv yoki choy kabilarni uzatishni yoshi kattalardan boshlash.

Istiqboldagi muammolar (yo‘nalishlar, prognozlar)

Yaponiya.

Yaponiyada 65 yoshdan kattalar “keksa” deb hisoblanadi. 2021-yil sentabr oyi holatiga ularning soni 36,4 million nafarni tashkil etgan. Bu mamlakat aholisining 29,1 foizini tashkil etmoqda. Yaponiyaning gerontologik (gerontologiya – tirik organizmlarning qarishini o‘rganuvchi fan) jamiyati hozirgidagidek 65 yoshli kishilarni emas, balki 75 yoshdan oshganlarni rasman keksa odamlar deb hisoblashni taklif qildi.

Keksa deb ataluvchi odamlar biologik nuqtai nazardan hozirda taxminan 5-10 yilga yosharganlar. Yosh ishchilar soni kamayayotgan sharoitda, agar biz keksa deb hisoblanuvchi odamlar ongini o‘zgartirsak, bu jamiyatni qo‘llab-quvvatlaydi.

Yaponiyada tug‘ilish koeffitsienti 1,44 ni tashkil etmoqda. Demografiyaga ko‘ra, aholi kamayib ketmasligi uchun bir ayolga 2,2 nafar bola to‘g‘ri kelishi kerak, ammo aksariyat rivojlangan davlatlarda tug‘ilish koeffitsienti bu ko‘rsatkichdan tushib ketgan. AQShda tug‘ilish koeffitsienti – 1,76, Ispaniyada – 1,5, Bolgariya aholisi 1,46 ko‘rsatkich bilan rekord tezlikda kamayib bormoqda. Prognozlarga ko‘ra, 2050 yilga kelib Latviyada atigi 1,52 million aholi qoladi. Janubiy Koreyada esa 1,26. Singapur eng past tug‘ilish ko‘rsatkichiga ega (0,83), ammo hukumat bu muammoni immigratsiya yordamida hal qilishni rejalashtirmoqda.

Italiya.

Italiya dunyoda keksa yoshli aholi ulushi bo‘yicha Yaponiyadan keyingi o‘rinda turibdi. Bu mamlakatda keksalar aholining 23,6 foizini tashkil etadi.

Portugaliya.

Keksalar ulushi bo‘yicha uchinchi o‘rinda Portugaliya turibdi: 23,1 foiz.

Xorijiy mamlakatlar Konstitutsiyalarida – kun mavzusi

Xitoy

Asosiy qonunining 45-moddasida (2018) – “Xitoy Xalq Respublikasi

fuqarolari *keksalik,* kasallik yoki nogironlik holatida davlat va jamiyat tomonidan moddiy yordam olish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ushbu huquqdan foydalanishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy yordam va sog‘liqni saqlash xizmatlarini ishlab chiqadi”, deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Latviya

Davlatlarning “konstitutsiyaviy o‘zligi, o‘ziga xosligi”ni belgilash bobida Latviya Konstitutsiyasining muqaddimasida (2014) “Latviyaning Yevropa madaniy makonidagi o‘ziga xosligi latviyaliklar va livlar an’analari, Latviya turmush tarzi, Latviya tili, umuminsoniy va nasroniy qadriyatlari bilan belgilanadi. Latviyaga sodiqlik, yagona davlat tili sifatida Latviya tili, erkinlik, tenglik, birdamlik, adolat, halollik, ish axloqi va oila yaxlit jamiyatning asosidir. Har bir inson o‘ziga, yaqinlariga va jamiyatning umumiy manfaatlariga g‘amxo‘rlik qiladi, boshqalarga, kelajak avlodlarga, atrof-muhitga va tabiatga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘ladi”, deb belgilangan.

Vengriya

Vengriyaning yangi Asosiy qonuni kirish qismida “vengerlar uchun asosiy qadriyatlar oila va millat, shuningdek sadoqat, imon va muhabbat” ekanligi ta’kidlangan, ushbu davlatning konstitutsiyaviy tarixi, milliy tili, milliy madaniyati haqida ma’lumot mavjud. Shuningdek, Vengriya xristian qadriyatlariga asoslanishi ta’kidlangan va shu munosabat bilan, embrion hayotini xomila paytidan boshlab himoya qilish, odamlarni tanlashga qaratilgan yevgenik amaliyotlarni taqiqlash, inson tanasi yoki uning qismlaridan foyda manbai sifatida foydalanish, klonlash, oila institutini erkak va ayol o‘rtasidagi ixtiyoriy ravishda o‘rnatilgan nikoh munosabatlari, shuningdek, oilani millatni saqlab qolish uchun asos sifatida himoya qilish shartligi, ushbu davlatining milliy o‘ziga xosligini mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda

“Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi” (O‘zbekiston Konstitutsiyasi, 78-modda).

Xulosa. Modomiki, keksalik umrning shomi ekan, unga tayyor bo‘lib borishimiz lozim. “Qush inida ko‘rganini qiladi”, “Olmaning tagiga – olma, behining tagiga – behi tushadi”, “Qo‘yni ham, echkini ham o‘z oyog‘i bilan osib, so‘yadilar”, deganlaridek, ertamiz, istiqbolimiz oldindan kafolatlan-

magan holi hayotimizda ortimizdan munosib o‘rinbosarlarni qoldirish bu – har birimizning vazifamiz! Bu – butun jamiyatning vazifasi! Bas, unga befarqlik, mavjud, shakllangan hayotiy qadriyatlarni mensimaslik – kelajakka xiyonat! Millatga – xiyonat!

Bayon etilganlar va hayotiy kuzatuvlardan quyidagilarni aytish mumkin bo‘ldi.

*Birinchidan,* shaxsiy namunaga sazovor zamondosh va makondoshlarimizni e’zoz va namuna sifatida “hurmat taxtasi”da emas, amaliy, hayotiy e’tibor, izzat-ikromni har qachongidan kuchaytirish lozim. Bunda har bir otaning,har bir onaning shaxsiy namuna bo‘lishi zarur.

*Ikkinchidan,* Ota-onalar universitetini shakllantirish taklif etiladi.

*Uchinchidan,* mavjud “Oila maktablari” faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlash taklif etiladi. Uning dastur va qo‘llanmalarida ota-onada, Vatanda va millatda tanlov yo‘qligini mudom his qildirib borish.

*To‘rtinchidan,* “Tarbiya” darslariga mumkin qadar diniy ilmdor mutaxassislarni jalb qilish taklif etiladi.

*Beshinchidan,* sog‘lom turmush tarzini, sog‘lom ovqatlanish tarzini targ‘ib qiluvchi ko‘rgazmali teleradiochiqishlarni ko‘paytirish lozim.

Naqlda aytilganidek, “barcha – aqlga, aql – yillarga, yillar – tajribaga muhtojdir”. Ha, keksalik – qadriyat, keksalar – bizning boyligimiz. Ularni asrash, avaylash, umrini mazmunli o‘tkazish – bizlarga farz. Bir to‘g‘ram non, bir piyola choy, ammo mehr birlan, muhabbat birlan. Duolar birlan... Boshqasiga o‘rin ham yo‘q... Alarga e’tibor ertaga bizlarga qaytgusidir: ertangi kunimizga hamirturush, ertangi kunga katalizator, ertangi kunga ko‘zgudir.

## BA’ZI OSIYO MAMLAKATLARINING XALQONA ISLOHOTLARI

**Baxtiyor OMONOV**,
*O‘zbekiston milliy universiteti*
*professori, siyosiy fanlar doktori*

***Annotatsiya****: maqolada Xitoy, Malayziya, Singapur kabi davlatlarning milliy yuksalish hissa qo‘shgan islohotchilari haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *islohot, modernizatsiya, jamiyat, xalq, davlat, fenomen.*

1990-yillarda jahonda “iqtisodiy mo‘jiza”lar yaratgan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari (Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Janubiy Koreya – jami 11 davlat)ning boshqa davlatlar milliy taraqqiyot modeliga o‘xshamagan modeli modernizatsiyaga oid ko‘plab tadqiqotlarning obyektiga aylanib ulgurdi. “Osiyo yo‘lbarslari” rivojlanish yo‘lini Yaponiya tajribasiga yaqin “yumshoq avtoritarizm” modeli, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Bu si-

yosiy modelning xususiyati shundaki, bozor mexanizmining ruli "qattiq siyosiy qo'l" – davlatning o'zida saqlanadi.

Uzoq yillik tadqiqotimizga [1] asoslangan holda, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining o'ziga xos qadriyatlarini aniqlashga urinamiz:

– osiyoliklar jamiyat huquqini inson huquqidan ustun qo'yadilar;

– oilaning mustahkamligiga ko'proq ishonishadi;

– jamiyatga axloqiy qoidalarni joriy etilishiga hukumat ruxsat beradi;

– demokratik "g'oya"larga unchalik ishonishmaydi;

– qattiqqo'l ota-ona bo'lishadi;

– kapitalizm, bozor iqtisodi talablariga oson moslashadi;

– hukumatdan ijtimoiy ta'minot, farovonlikni kutmasdan, o'zlari harakat qilishadi;

– bolalikdan ta'limni yuksak qadrlashadi;

– iqtisodiy tejamkorlikni yoqtirishadi.

1981-2003-yillarda Malayziyaning bosh vaziri lavozimida ishlagan Maxatxir Muhammad qoloq agrar iqtisodiyotli mamlakatni "Osiyo yo'lbarslari" darajasiga yetkazgan kuchli arbob bo'lgan edi. U g'arbiy qadriyatlarga zid o'laroq, "osiyocha qadriyatlar"ning tashviqotchisi, xalqaro qo'shilmaslik harakati rahbari hisoblangan. "Hukumatning asosiy vazifasi avval boshdanoq, qonunlar ijrosini ta'minlash va tartibni saqlashdan iborat bo'ldi. Kishilarning to'kin va farovonligi asosan ularning tashabbuskorligiga bog'liqdir, – deydi u. – Davlat biznes bilan do'stona munosabatlar o'rnatish uchun ularning daromadini oshirish yo'lida yanada olg'a bosdi. Davlat tarafidan yaratilgan mana shunday yengilliklar va e'tibor tufayli, mahalliy va xorijiy investorlar o'zlarini qayta ishlash sanoatini barpo etishga urindi" [2].

M.Muhammadning fikricha, har bir davlatda yurtning rahbari modernizatsiyalashda asosiy va yetakchi rolni o'ynaydi. Uning mamlakat taraqqiyotini belgilay olish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga molik. Tahlilimizcha, yetakchi davlat ishiga jon-jahdi bilan yopishgan, o'z yo'lini hayotga tatbiq etish ishiga shaxsan rahbarlik qilgan, boshqaruv, siyosat, moliya va savdo sohalarida yuqori malakali shaxs bo'lmog'i lozim. M. Gandi, Sharl de Goll, F. Ruzvelt, Den Syaopin ana shunday kuchli shaxs edilar. Davlat rahbari ishni shaxsan o'zi bevosita kuzatib borishi, qiyinchilik va to'siqlarni bartaraf etishga intilishi, loyihaning to'g'ri amalga oshirilayotganiga shaxsan ishonch hosil qilishi shart.

Buyuk Xitoy tajribasi misolida fikrimizga javob topamiz. Mao Szedun (1893-1976) ajoyib harbiy qo'mondon edi, biroq mamlakatni boshqarish urush olib borishdan farq qiladi. U olg'a surgan kommunistik mafkura xalqni taraqqiyotga boshlamagani bois, mamlakat rivojlanishda ortda qola boshladi. Maoning vorisi Den Syaopin butunlay boshqa odam edi. U pragmatik bo'lib, Xitoyni rivojlanishini istar, "hamonki mushuk sichqonlarni ovlar ekan, uning qora yoki oqligi muhim emas" deb hisoblar edi. Natija

– bugungi biz ko‘rib turgan Xitoy bo‘ldi. Yigirma yil muqaddam u uchinchi dunyo mamlakati edi. Bugungi kunda esa Xitoy – jahonning ikkinchi iqtisodiyoti kuchli davlatidir.

Keyingi vaqtlarda “demografik darcha” iborasi ilmiy adabiyotlarda qo‘llaniladi. Demografik jarayonlar dinamikasi iqtisodiy o‘sish sur’atlari tezlashuvi, oilaning turmush farovonligi oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jahonning ko‘plab mamlakatlari, xususan, Malayziya, Singapur bunday imkoniyatdan keng foydalandi. Buning natijasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’ati tezlashdi, aholi turmush darajasi oshdi va kambag‘allik darajasi pasaydi [3, 16]. Iqtisodchilarning hisob-kitobicha, “iqtisodiy mo‘jiza” yaratgan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida “demografik dividendlar” aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar o‘sish ko‘rsatkichining uchdan biriga yaqinlashdi.

“Osiyo fenomeni”da diniy e’tiqod, milliy urf-odat va an’analar muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspertlarning ta’kidicha, “davlat – jamiyat – inson” konstruksiyasida “osiyocha konsepsiya” g‘arb tushunchasiga mos tushmaydi. Janubi-sharqiy Osiyo xalqlarining yutug‘i ularning tarixiy-madaniy, tarixiy-etnologik tajribasi tahlilida ham ko‘zga tashlanadi. Bu borada izlanish olib borgan yosh o‘zbek olimi B. To‘xtaboyevning Gonkong, Koreya Respublikasi, Singapur, Tayvan davlatlari taraqqiyotiga oid tadqiqot ishida [4, 26] yangi industrlashgan davlatlar (YAIM) islohotlari ilk bosqichida iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda avtoritar boshqaruv, o‘tish davrini muvofiqlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda davlatning roli yuqori darajaga ko‘tarilgani tahlil etiladi. Hozirda ham davlat bilan fuqaro o‘rtasida uyg‘unlik, ahillik saqlangan. Bu esa muvaffaqiyatning bosh kalitidir.

Chindan ham, o‘zbek olimlari va davlat arboblarining bu borada o‘rganadigan jihatlari juda ko‘p. Masalan, Malayziya hukumati qoshidagi Milliy komitetga yoshlarni globallashuvning halokatli ta’siridan himoya qilish yuklangan. Singapurda pora olishdan bosh tortgan chinovnik mukofotlanadi. Yaponiya davlat sektori xodimlarining vijdonliligi maxsus baholanadi. Biz korrupsiyaga qarshi bunday yangi usullarning ildizi, samarali mexanizmlarini chuqur o‘rganishimiz lozim.

Xulosa shuki, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarining jamiyatni modernizatsiyalashga oid boy tajribasi yirik olimlar tomonidan fenomen hodisa sifatida e’tirof etilgan. Jumladan, “konfutsiycha kapitalizm”, suxartocha siyosat, maxatxira (ruxu nigara) g‘oyalarining mazmun-mohiyati, malayziyaliklarning inson ichki quvvatini oshiruvchi “intellektual miya hujumi” usul va yangi zamonaviy texnologiyalari sir-sinoatini tadqiq etish siyosatshunos olimlar va tadqiqotchilarimiz uchun navbat kutib yotibdi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. Toshkent, Aloqachi, 2019. -208 bet.*

*2. Maxatxir M. “Malayziya mo‘jizasi” muallifi o‘z sirlarini ochdi. www. info-press.uz 2013-yil 19-iyun.*

*3. Narodonaseleniye mira v 2014 godu. YUNFPA, 2004. S.16-18*

*4. To‘xtaboyev B. Yangi industrlashgan davlatlar taraqqiyotining siyosiy omillari va muammolari. Siyos. fan. nom. dis. avtoref. –T.: 1999. – B. 26.*

## IJTIMOIY DAVLAT – IJTIMOIY TARAQQIYOT GAROVI

**Azamat MUXTAROV**
*Falsafa fanlari doktori, professor*
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada ijtimoiy davlat tushunchasining ta’rifi, belgilari, o‘ziga xos xususiyatlari, ijtioiy davlat qurish borasida xorij tajribalari hamda mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ijtimoiy davlat, inson qadri, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy himoya, ijtimoiy hamkorlik, tenglik, adolat, ijtimoiy kafolat.*

**Kirish** “Ijtimoiy davlat” tushunchasi “Inson qadri” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu g‘oyaning tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug‘lash, aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad yotadi. Ijtimoiy davlat tushunchasi har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish masalalarini qamrab oladi. Ijtimoiy davlat kishilar orasida yuzaga keladigan ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam ko‘rsatish hamda inson manfaatlarini ko‘zlovchi islohotlarni amalga oshiradigan va bu borada samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.

***“Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir!”***
**Shavkat Mirziyoyev**

Ijtimoiy davlat o‘z siyosatida ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib, faoliyat yuritadi. Asosiy maqsad – jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ma’naviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlashdan iboratdir. Bunda har bir fuqaroning maishiy turmush tarzi holatini sifat

jihatdan yuqori darajaga olib chiqish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishiga, ya'ni ular o'rtasidagi yashash uchun ketadigan sarf-xarajatlar bo'yicha farqlarning kattalashib ketishiga yo'l qo'ymaslik va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatiladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, maqsad yaratilgan ne'matlardan ijtimoiy kafolatlar orqali hamma bahramand bo'lishini ta'minlashdan iborat.

"Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir"[2].




**Ijtimoiy davlatning belgilari**

Ijtimoiy davlat tor ma'noda o'z faoliyatida aholiga nafaqalar to'lashni, jamiyatga xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi va uy-joy bilan ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Keng ma'noda nafaqat aholini bevosita qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sezilarli darajada ko'p sonli dasturlarni, balki iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shu jumladan, bandlik va u bilan bog'liq masalalarni hamda kompleks makroiqtisodiy boshqaruvni amalga oshiradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ***"ijtimoiy davlat"*** tushunchasi ilk bor 1850-yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo'llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o'rnatish, quyi va kam ta'minlangan tabaqalarni boylar va qudratlilar darajasiga ko'tarishdan iborat, deb hisoblagan [3].

Milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganganimizda ham ***"ijtimoiy davlat"*** tushunchasi shunga o'xshash nomlarda ko'plab uchrashiga guvoh bo'lamiz. Masalan, IX-X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan

“ijtimoiy davlat” tamoyilining mazmun-mohiyati hisoblanadi[4]. Shunga o‘xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin.

Nazarimizda, buyuk bobolarimiz orzu qilgan va o‘z asarlarida keltirgan “fozil shahar” ham aynan shu “ijtimoiy davlat” tushunchasida o‘z aksini topadi. Globallashuv jarayoni va bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan davrda olimlar ijtimoiy davlatning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud ekanini ta’kidlaydi va Lorens fon Shteyndan farqli ravishda ushbu jihatlarga quyidagilarni kiritadi:

- aholining daromadlari va boyliklarini yirik mulkdorlarga daxl qilmasdan qayta taqsimlash imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasi;
- ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti;
- ko‘p tarmoqli va aralash iqtisodiyot;
- fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish;
- davlatning har bir inson uchun munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta’minot va shaxs sifatida o‘zini o‘zi anglash yo‘lida teng boshlang‘ich sharoitlarni ta’minlash maqsadlarini tasdiqlash;
- fuqarolar oldidagi ijtimoiy javobgarlik;
- sug‘urta ijtimoiy to‘lovlarining rivojlangan tizimi va byudjetni tashkil etuvchi soliqlarning yuqori darajasi, ijtimoiy sohaga to‘lovlarning yuqori miqdori;
- aholining barcha guruhlari uchun xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy xizmatlarning rivojlangan tizimi;
- byudjet ijtimoiy to‘lovlarining mavjudligi;
- ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta’minot va bandlik davlat tizimlarining mavjudligi;
- jamiyatning barcha muhtoj a’zolarini istisnosiz ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjudligi;
- fuqarolarning farovonlik darajasi uchun javobgarlikni davlat o‘z zimmasiga olishi.

Hozirgi zamon tajribasiga ko‘ra, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy davlat g‘oyasi turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Xususan, Germaniyada uning ijtimoiy davlat ekani Konstitutsiya darajasida belgilangan. Shuningdek, ijtimoiy davlatning Skandinaviya va kontinental modellari ham mavjud bo‘lib, bunda davlatlar o‘z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish uchun mas’ul bo‘ladi.

Ijtimoiy davlatning o‘ziga xos funksiyalari mavjud bo‘lib, olimlarning aksariyati ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:

- ✓ aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash;
- ✓ korrupsiya, qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash;
- ✓ yosh tadbirkorlarga yordam;
- ✓ aholi bandligi va daromadlari doimiy o‘sishini ta’minlash;
- ✓ jamiyatning barcha a’zolarini ijtimoiy sug‘urta bilan ta’minlash;
- ✓ ta’lim, sog‘liqni saqlash va ma’naviy-madaniy rivojlanishning qulayligini ta’minlash;
- ✓ ehtiyojmand shaxslarni moddiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish;
- ✓ jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitlarini yaratish;
- ✓ ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish.

Umuman olganda, ijtimoiy davlatda mehnatga layoqatli har bir insonning bandligi ta’minlanadi. Uning munosib hayot kechirishi uchun yetarli miqdordagi ish haqi belgilanadi, ishchi uchun xavfsiz mehnat sharoitlari yaratiladi, ishsizlikdan himoyalanish, sifatli ta’lim, malakali tibbiy xizmat olish huquqlari real amalga oshiriladi. Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a’zolari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanadi. Mutaxassislar tomonidan xorijiy davlatlarning ijtimoiy siyosatining tahlili natijasida ijtimoiy davlatning uchta modeli Skandivaniya, Kontinental , Amerika-Buyuk Britaniya modellari ajratiladi.

**Birinchidan,** Shvesiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya davlatlari Skandinaviya modelini o‘zida namoyon qiladi. Bu mamlakatlarda davlat byudjetni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy xarajatlarning anchagina qismini o‘z bo‘yniga oladi. Bu davlatlar o‘z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish uchun mas’ul bo‘ladi. Bu faoliyat davlat byujeti va ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari tomonidan moliyalashtiriladi. Bu ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish asosan munitsipalitetlar, ya’ni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Ikkinchidan**, Germaniya, Avstriya, Belgiya va Fransiyada ijtimoiy davlatning kontinental modeli yuqori darajada rivojlangan. Bu davlatlarda davlat asosan aholining muhtoj qismiga ijtimoiy yordam pullarini berishga mas’ul hisoblanadi. Lekin aholiga davlat ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanmaydi. Ijtimoiy xarajatlar davlat va xususiy ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari tomonidan qoplanadi. Ya’ni ijtimoiy ta’minot byujetdan ajratiladigan mablag‘lar hamda ish beruvchi va xodimlarning sug‘urta badallaridan ta’minlanadi. Shunday qilib, Skandivaniya, Kontinental, Amerika-Britaniya modellari bo‘yicha ijtimoiy davlatlarda, liberal davlatlarda davlat tomonidan ijtimoiy xarajatlarga minimal mablag‘lar ajratiladi, bir vaqtning o‘zida ijtimoiy yordamga muhtojlar har tomonlama o‘rganiladi. Bajarilgan ish hamda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish natijasida olinadigan har tomon-

lama kafolatlangan daromad fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik turi Skandinaviya turiga mos keladi. Bu yerda moddiy ne'matlarni aholi orasida qayta taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojga zarur xarajatlarda davlatning ustunligi mavjud. Ushbu jarayon davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan kuchli jamoatchilik nazorati asosida kuzatiladi. Shuningdek, jarayonning borishi, samaradorlikni aniqlash, vujudga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va zarur qarorlar qabul qilish uchun tizimli monitoring va tahlil qilib borishning mustaqil tizimi yo'lga qo'yilgan. Ijtimoiy davlatchilik Osiyo davlatlarida – Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanda ham rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy davlatchilik bugungi kunda O'zbekistonda ham jadal sur'atlarda rivojlanib, o'ziga xos yutuqlari bilan fuqarolarimizning turmush tarzida namoyon bo'lib bormoqda. Eng quvonarli holat shundaki, endilikda ijtimoiy davlat tushunchasi Yangi O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida ham mustahkamlab qo'yildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati ijtimoiy sohaga yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Odamlarning farovon va hayotdan rozi bo'lib turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratish, bandlikni ta'minlash va daromadini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, turmush sharoiti va sifati jihatidan tabaqalanishga yo'l qo'ymaslik kabi masalalarga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta'lim berish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida. Davlat byudjetining asosiy qismi aynan shu kabi masalalarga yo'naltirilayotgani ham fikrimizning amaliy tasdig'idir. Alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalar, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun respublika miqyosida joriy etilgan "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Mahallabay" ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotiy ko'rinishini namoyon etmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot – strategiyasida belgilangan vazifalar ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Misol uchun, uning "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini

rivojlantirish” nomli to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida ijtimoiy davlat negizini tashkil etuvchi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, 43-maqsad bevosita har bir inson uchun munosib sharoit yaratish va turmush darajasini muntazam yaxshilab borishga yo‘naltirilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiy yo‘nalishdan keyingi eng yirik ijtimoiy yo‘nalish bo‘lib, davlat dasturining 154-235 bandlarini o‘zida qamrab olgan. Mazkur bandlarda Taraqqiyot strategiyasining 33 maqsadini hayotga izchil tatbiq etish va amalga oshirish nazarda tutilgan. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar “Inson qadri uchun” tamoyili asosida aholi turmush darajasini yaxshilash, ularning farovon hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoit hamda qulayliklarni yaratishga qaratilgan. Bu xayrli ishlar “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat”, degan ezgu g‘oyani ro‘yobga chiqarish, xalqimizni rozi qilish, erkin va farovon jamiyat barpo etishda muhim omil bo‘ladi.

Demak, ijtimoiy davlat–ijtimoiy sohaga juda katta e’tibor qaratadigan, fuqarolarning tengligi, ularning turli tabaqalarga ajralishiga yo‘l qo‘ymaydigan, umumfarovonlik ta’minlangan jamiyat yig‘indisidir. Shu bois yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida: **“O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”** deb belgilab qo‘yilishi mamlakatimizda inson qadriga bo‘lgan e’tiborning qonuniy mustahkamlab qo‘yilganligiga yaqqol misoldir[5].

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, bizning bosh maqsadimiz Vatanimizni erkinlik, imkoniyatlar tengligi, adolat, birdamlik, ijtimoiy himoya va mas’uliyat prinsiplari hukmronlik qiladigan, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi so‘zsiz ta’minlangan, insonlarning keskin tabaqalanishiga yo‘l qo‘yilmaydigan va barcha aholi qatlami uchun munosib hayot sharoiti yaratilgan, kuchli “huquqiy-ijtimoiy davlat” sifatida rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishi yo‘lida xizmat qilishdir.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ya’ni, gender tenglikni ta’minlash, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishdan iborat. Zero, hayot – hamisha harakatda. Uni bir zum to‘xtatib turish yoki tarix g‘ildiragini orqaga aylantirishning aslo iloji yo‘q. Jamiyat doimo oldinga intilaverar ekan, u bilan birga ong ham tinimsiz o‘zgarib, rivojlanib boraveradi. Har bir amalga oshirilayotgan islohotlar negizida esa inson manfaatlari yotadi. Shunday ekan, o‘zgarishlar mohiyati ham shaxs, uning manfaatlari bilan bevosita bog‘liq,

islohotlar mas'uliyati ham to'g'ridan-to'g'ri fuqaro zimmasiga tushadi. Demak, kuchli ijtimoiy himoya doimo mustaqil O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmog'i lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

*1. https://www.uzbekistan.org.ua/uz/konsullik-bo-lim*

*2. Янгиланаётган конституция 100 саволга 100 жавоб. – Т.: "Адолат" миллий ҳуқуқий ахборот маркази. 2023. –Б.8*

*3. https://bigenc.ru/c/shtein-lorents-fon-ff62a3*

*4. https://kitobxon.com/uz/kitob/fozil_odamlar_shahri-1*

*5. https://lex.uz/docs/6445145*

## YOSHLARNI TARBIYALASHDA QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Sarvar OTAMURATOV,**
*sotsiologiya fanlari doktori,*
*Toshkent Moliya instituti dotsenti*

***Annotatsiya.*** *Maqolada yoshlar tarbiyasining muhim ahamiyati, uning jamiyat rivojidagi o'rni haqida yozilgan. Shuningdek, maqolada yoshlar tarbiyasidagi muhim omillar tahlil etilgan va uni kuchaytirish bo'yicha takliflar bildirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *qadriyatlar, til, madaniy meros obyektlari, milliy urf-odat, an'ana, global muammolar.*

Yoshlar tarbiyasi har qachon jamiyat, davlat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida: "Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" [1], deb ta'kidlaydi.

Yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning alohida o'rni bor. Chunki, qadriyatlarni insoniyat shakllantiradi, o'z hayoti davomida takomillashtirib boradi va ulardan turmushida foydalanadi. Insoniyat hayotida shakllanadigan turli hodisa, jarayon, narsalarning hammasi ham qadriyat darajasiga ko'tarila olmaydi, ularning davr va insonlar ehtiyojiga javob bermagani iste'moldan chiqib ketadi. Qadriyatlarning eng muhim mezoni, uning insoniyatga barcha davrlarda ham xizmat qilishida o'z ifodasini topadi.

Qadriyatlar keng qamrovli bo‘lib, ularning millat ma’naviyati bilan bog‘liq omillari, uni asrashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ana shu omillardan biri – bu milliy til hisoblanadi. Millatning buguni va istiqbolida milliy tilning o‘rni to‘g‘risida ko‘p yozilgan.

Hozirda mavjud 7 ming tildan 2,5 mingtasida odamlar yaqin kelajakda mutlaqo so‘zlashmay qo‘yishlari mumkin. Bu tilning yo‘q bo‘lib ketishi va unda so‘zlashadigan millat va elatlar yo‘q bo‘lib, o‘zgalarga qo‘shilib ketadi – deganidir. Til faqat aloqa vositasi emas, shuning bilan birga millatning muhim belgilaridan biri, ayni paytda uni asrashning asosiy qo‘rg‘onlari hamdir. Milliy til har doim ulug‘lanib, onaga qiyoslanib, uni ona tilim – deb qadrlangan. U millatning ichki dunyosini, uning borligini yuzaga chiqaradigan ma’naviy quroldir. Shuning uchun ham millat fidoiylari milliy tilni asrash, rivojlantirish va uning sofligi zarurligini har doim ta’kidlab kelganlar.

Bugun jahonning shiddat bilan o‘zgarayotgan sharoitida, har bir millat va xalqlarning rivojlanishi ularning o‘z ona tili bilan birga xorijiy mamlakatlar bilan aloqa qilish uchun bitta emas, ikki, uch tillarning bilishlarini zamonnig o‘zi taqozo qilmoqda. Umuman, qancha ko‘p tilni bilgan, bir tomonda madaniyat, ma’rifat yuksaklik belgisi bo‘lsa, ikkinchi tomondan har bir inson uchun moddiy farovonligini ta’minlash imkoniyatini ham kengaytirib boraveradi, uchinchi tomondan esa millat vakillarini o‘z millatini dunyoga olib chiqishga, uning yutuqlarini namoyish etishga, ulani tanitishda amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Keltirilgan omillar o‘z navbatida millatlarni asrashga xizmat qiladi. Ammo, medalning ikkinchi tomoni bo‘lgani kabi, ona tiliga davlat maqomi berilganligiga qaramasdan uning nufuzi tushib borayotganligi ham bor gap. Xususan tilimizga davlat maqomi berilgan 80-yillarning oxiri va undan keyingi yillarda o‘zbek tilining maqomi amalda qanchalik yuksalgan bo‘lsa, 2000-yillardan boshlab, uning nufuzi shunchalik tusha boshladi. Bu ayniqsa, oliy o‘quv yurtiga kirayotgan abiturient test asosida o‘zbek tili va adabiyotidan imtihonlar topshirilishi yo‘lga qo‘yilishiga qaramasdan, talaba sifatida o‘qiy boshlaganlarida ma’lum bo‘lyapti, ularning ko‘p qismi o‘z ona tilida o‘rta daraja ham bilmaydilar.

Iqtisod, fan, texnika, zamonaviy texnologiya yutuqlarini qabul qilish taraqqiyotimiz uchun qanchalik zarur bo‘lsa, til, ma’naviyat, axloq sohasida ular erishgan “yutuq”larni o‘zimizga qabul qilish shunchalik mustaqil millat sifatida qolishimizga emas, aksincha, yo‘q bo‘lishimizga olib kelishini o‘ylashimiz kerak. Millatning o‘z tiliga nisbatan bee’tibor bo‘lishi muqarrar ravishda oxir-oqibatda halok bo‘lishga olib keladi. Ya’ni u o‘zgalarga singib, o‘zligidan mahrum bo‘ladi.

Afsuski, bugun ona tilimiz hisobiga boshqa xorijiy tilni o‘rganishni tavsiya etadiganlar paydo bo‘lmoqda. Bunday salbiy holatning ommaviylashuvi millatimizning o‘zligidan mahrum bo‘lib, o‘zgalarga qo‘shilib ketishiga

olib keladi. Buning oldini olishda millatimizning ziyolilari yetakchilik qilishlari kerak. Ammo, bu yerda yana yangi muammolar paydo bo‘layotganligini ham nazardan qochirmaslik kerak. U ham bo‘lsa, bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy manfaat va ma’naviyat o‘rtasidagi muvozanatning yo‘q bo‘lib ketayotgani bilan bog‘liq. Moddiy holat, boylikga ega bo‘lish ko‘p xollarda insonga baho berishda ustuvor ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Ziyolilar va ilmga intilganlar esa hali ham jamiyatda o‘zining mustahkam o‘rniga ega emaslar. Lekin milliy tilni saqlab qolishda va uni asrab avaylashda, avvalam bor, ziyolilarning o‘rni biqiyosdir. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin” [2], deb ta’kilaganlar.

Yoshlarni milliy ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim omili madaniy meros obyektlarini asrash, chuqur o‘zlashtirish, mamlakat ichida va tashqarisida keng targ‘ib hamda tashviqot qilishdir. Madaniy meros obyektlarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) madaniy moddiy meros obyektlari. Ular ajdodlarimizning qalb-quri, kuch-qudrati va intellektual salohiyati bilan qurilgan bino, masjid, madrasa va qal’alarni o‘z ichiga oladi; 2) madaniy nomoddiy (ma’naviy) meros obyektlari esa ajdodlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan kitoblar, ularda ilgari surilgan g‘oyalar va ular tomonidan tashkil etilgan ilmiy markazlar hamda ularda ishlab chiqilgan g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Bu borada mustaqillik yillarida katta ishlar amalga oshirildi va bugun ham bu sohada samarali faoliyat olib borilmoqda. Shuning bilan birga, bu yo‘nalishda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar ham yetarli. Chunonchi, ularni yoshlarimiz o‘rtasida va xorijiy mamlakatlarga targ‘ibot hamda tashviqot qilishni kuchaytirish, ayniqsa, ularni o‘z holatida asrab, o‘zimizdan keyingi avlodlarga yetkazish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish kabilardir.

Yoshlarmizni asrashning navbatdagi omili – Ma’lumki, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlar millat bilan milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarni tiklash hamda rivojlantirishdir. birga shakllanadi va rivojlanadi. Tabiiyki, ularning sayozlashuvi millatning o‘zligidan begonalashuvini ham bildiradi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaralganda, bugun milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarimiz rivojlanyaptimi yoki inqirozga yuz tutganmi, – degan savol qo‘yib. Unga javob izlashimiz lozim.

Mustaqillik yillarida asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan shakllantirilib, bizga meros qilib qoldirilgan, ammo, sobiq, Sho‘rolar hukmronligi davrida poymol etilgan ko‘pgina milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarimiz

tiklandi hamda ularga hayot baxsh etilib, xalqimiz bugun ulardan bahramand bo‘lib kelmoqda. Ular jumlasiga tilimizning davlat maqomi berilishi, Navro‘z bayramimizning ommaviy tarzda nishonlanishi, baxshi bobolarimiz asrlar davomida kuylagan “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Farhod va Shirin” dostonlari, xalq laparlari, tuy marosimlari, vafot etgan insonlarimizni oxirgi manzilga kuzatish bilan bog‘liq marosimlarimiz va boshqalar qayta tiklandi. Ajdodlarimizdan qoldirilgan ilmiy va diniy asarlar ona tilimizga tarjima qilinib xalqimizga qaytarildi. Umuman bu borada erishgan yutuqlarimizning salmog‘i juda katta, bu har bir o‘zbek farzandida g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Ammo, bu erishgan yutuqlarimiz bilan millatimizni inqiroziga sabab bo‘ladigan yangi milliy urf-odat, an’analar ham shakllanmoqda. Jumladan, azaldan xalqimizga xos bo‘lib kelgan vazminlik o‘rnini hissiyotlarga berilish, o‘zini o‘zgalardan yuqori qo‘yish, boylikni ko‘z-ko‘z qilishdagi manmanlik, ayollardagi sharm-hayo o‘rnini hayosizlik, fohishabozlik, hatto o‘z yaqinlarini pulga sotish kabi yangi “milliy” urf-odatlar hayotimizga kirib keldi.

Nazarimizda, millatimizni, shu jumladan, yoshlarimizni bu salbiy holatlardan asrashda: **birinchidan,** milliy ma’naviy tiklanishimizni ana shu kirib kelayotgan yangi salbiy urf-odat va an’anaga aylanayotgan holatlarga ehtiyoj qoldirmaslik xolatiga olib borish, buning uchun ta’lim va tarbiya masalalariga e’tiborni kuchaytirishimiz; **ikkinchidan,** jamoatchilik fikrini ularga qarshi shakllantirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish; **uchinchidan,** urf-odat, an’ana va qadriyatlarning doimo o‘sib, o‘zgarib borishini hisobga olib, ularni shakllantirishda jamoatchilikning faolligini oshirish, ularning zamonamiz taraqqiyoti va millatimiz mentalitetiga xos bo‘lgan jihatlaridan kelib chiqqan holda yangi urf-odat, an’analarni shakllantirishda yetakchilik qilishlariga erishish kabilardir.

Yangi shakllantiriladigan urf-odat, an’ana va qadriyatlarimizda milliy va umuminsoniy ruhiyat barq urib turishi lozim. Ular kimlaningdir fikri, qarashlaridan iborat bo‘lmasligi, balki millatimiz vakillaridan iborat jamoatchilikning “mahsuli” bo‘lishi ularning tez ommalashib borishiga xizmat qilishini ham nazarda tutmoq kerak. Bu vazifani azaldan amal qilib kelayotgan jamoaviylik tamoyilini va jamoa fikrining qolganlar uchun ham qonunlarda belgilanmagan, ammo, qadriyatimiz darajasiga ko‘tarilgan faoliyatini ishga tushirish amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Jamoaviylik nafaqat milliy qardiyatimizning ko‘rsatkichi, shu bilan birga, **demokratiyaning** ham belgisidir.

Ularning rolini oshirish borasidagi asosiy vazifalardan biri ularni o‘rganadigan, faoliyatlarini tahlil qiladigan, ilmiy asoslangan g‘oyalarni ishlab chiqadigan holda ularni real hayotga tatbiq qilishga ko‘maklashadigan davlat va nodavlat **Ilmiy tadqiqot markazlarni** vujudga keltirishdir.

Bugun milatimizni asrab avaylash oldimizda turgan global muammo-

lardan biriga aylanib borayotgan sharoitda zarur bo‘lgan mablag‘ni ayamasligimiz va ayni paytda uni umummilliy g‘oyamiz darajasiga olib chiqishga erishishimiz lozimdir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Shavkat Mirziyoyev: Yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan // https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyeev-yeshlar-tarbiyasi-eng-mu-im-masalalardan-16-06-2017.*

*2. 21 oktyabr` kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma’ruzasidan, manbaa: https://president.uz/uz.*

*3. Komilov T. Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. – O‘zR FA, Fan, 2000. – B. 20.*

*4. To‘lanov. J. Qadriyatlar falsafasi. – T. O‘zbekiston, 1998. – B. 333.*

*5. Temirova N.E. Qadriyatlar va yoshlar kamoloti. – T. Falsafa va huquq instituti, 2008. – B. 26.*

## SHAXS MA’NAVIYATI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Ilhom SUVANOV,**
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti Ilmiy kotibi, falsafa doktori(PhD)*

***Annotatsiya.*** *Bugungi globallashuv jarayonlarida shaxs, uning ma’naviyati va ongiga egalik qilish tendensiyalari kuchayib bormoqda. Mazkur maqolada shaxs ma’naviyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida mulohazalar keltirilgan. Xususan, shaxs tushunchasi va u haqidagi yurtimiz olimlarining qarashlari hamda shaxsiy mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Shaxs, shaxs ma’naviyati, ma’naviyat, ma’naviyatli shaxs, milliy ma’naviyat, milliy taraqqiyot.*

Mavzuimizdagi “shaxs ma’naviyati” haqida fikr yuritar ekanmiz, buning uchun eng avvalo “shaxs” kim va uning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi? – degan masalaga e’tibor qaratiladi.

“Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da, shaxs ma’naviyati – har bir kishining o‘zini insoniyat farzandi, muayyan millat vakili, davlat fuqarosi deb bilgan holda o‘z Vatani tuprog‘i, suvi, havosi – jamiki boyliklarini asrash, uning obodligi, ravnaqi, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish yo‘lida chin vijdon, iymon, e’tiqod, katta fidoyilik va aqliy

teranlik bilan faoliyat olib borishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olamining majmui [1;213-b.]dir, deb ta'rif berilgan.

Shuningdek, "shaxs" tushunchasiga ham turli adabiyotlar va lug'atlarda turlicha ta'riflar berib kelinmoqda. Jumladan, "Falsafa" qomusiy lug'atda "Shaxs – alohida kishi, ijtimoiy-ahloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ... Shaxs – biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy va estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir" [2;450-b.] – deb ta'rif berilgan bo'lsa, professor A.Choriyev shaxsni insoniylik mezoniga qarab shunday yozgan edi: "mustaqil shaxs – inson yuksak darajadagi biosotsial uyushma ekanligining ifodasidir, inson insoniyligining eng muhim tavsifidir" [3;43-b.] – A.Xolbekov, U.Idirovlar tomonidan "Shaxs – odamning ijtimoiy xususiyatlarining yaxlit majmui bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va individning faol hatti-harakati hamda muomalasi vositasida ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shilishning mahsuli hisoblanadi. Shaxs tushunchasi ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat subyekti sifatidagi individni ham ifodalaydi" [4;147-b.] – professor A.Muxtorov shaxs kamolotida ma'naviyatga e'tibor qaratib, "inson tom ma'nosi bilan shaxs atalmog'i uchun mustaqil ma'naviyatga, ya'ni o'z erkini belgilab olgan mustaqil kamolot yo'liga ega bo'lmog'i kerak" [5;35-b.] degan ta'riflar berilgan. Ularda o'zaro umumiy va o'ziga xos jihatlar mavjud. Biz bunday yondashuvlarni qo'llab-quvvatlaymiz, albatta. Chunki, shaxs juda murakkab mavjudod bo'lib, uni har bir inson, tadqiqotchi o'z qarashlaridan kelib chiqqan holda tushunadi.

Shu ma'noda ham keltirilgan fikrlarni e'tirof etgan holda, bizning fikrimizcha, shaxs – jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, xalqning maqsadlari va manfaatlarini chuqur anglagan, ularning erkinligi va xaq-huquqlari uchun kurashadigan, milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodi mustahkam bo'lgan, o'zligini anglagan insondir.

Shaxsning o'ziga xos jihati shundaki, u umumnazariy ong va tafakkurga egadir. U shaxs bo'lib, dunyoga kelmaydi, balki u jamiyatda shakllanadi. Ayni paytda, jamiyatda yuksak ma'naviy va intelektual salohiyatga ega bo'lgan shaxslar qancha ko'p bo'lsa, u taraqqiy qilib boradi. Ongi, dunyoqarashi va tafakkuri milliy g'oyadan bahra olib shakllangan inson, ma'naviyati yuksalgan, milliy o'zligini anglagan shaxs darajasiga ko'tariladi. Agar shaxsni millat vakili sifatidagi maqomida baho berilganda o'z millati, xalqi va Vatanining manfaatlariga bo'ladigan munosabatlaridan kelib chiqish o'ta muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Shu ma'noda bugungi insonlarning shaxs darajasiga ko'tarilishining asosiy mezoni o'z manfaatlarini milliy manfaatlar bilan uyg'unlashtirganligida namoyon bo'ladi. Bu fazilatlarga ega bo'lgan shaxs, o'zini u yoki millatning vakili ekanligini, uning buguni, ertangi kuni va istiqboli uchun mas'ul ekanligini his etadi. Unda o'z Vatani, xalqining manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatishni farzandlik burchi deb hisoblaydi,

uning boyliklarini ko‘z-qorachig‘iday asraydi. Shu tariqa, milliy g‘oya va milliy o‘zlikni moddiy kuchga aylanishi millatning vakili bo‘lgan shaxslar ma’naviyatida o‘z ifodasini topadi.

Yuksak ma’naviyatli shaxsda daxldorlikni his etish madaniyati yuqori bo‘ladi. Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi yuqori odam turli g‘arazli maqsadlarni o‘zida ifoda etgan yot g‘oyalarning jozibasiga uchib qolmaydi. Bizning fikrimizcha, fuqarolikni his etish mas’uliyati, Vatanni anglash, unga sodiqlik, milliy o‘zlikni anglash milliy-ma’naviy meros va umuminsoniy demokratik qadriyatlarga, qonunlarni hurmat qilishga, qonun ustuvorligiga, adolat tamoyillariga tayanish hamda insonni e’zozlash, unga eng oliy qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish madaniyati milliy g‘oyaga bo‘lgan daxldorlik hissini rivojlantiradi.

**Ma’naviyatli shaxs** – deganda qonun ustuvorligiga, adolat prinsiplariga amal qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga tayanadigan, insoniylikni qadrlaydigan, o‘zligini anglagan, inson qadr-qimmatini eng oliy qadriyat deb biladigan, qalban uyg‘oq, mustaqillik tafakkuriga, intelektual salohiyatga ega bo‘lgan insonni tushunish mumkin.

Shaxsning eng muhim belgilaridan biri, uning o‘zini u yoki bu millatga mansubligini va fuqaroligini anglab yetishidir. Ya’ni, uning o‘zini muayyan millatga mansubligini his etishi orqali milliy o‘zligini anglashi, millat manfaatlarini tushunib yetishidir. Ularning zaminida esa millat vakillarining ma’naviy-ahloqiy va intelektual salohiyati bilan shakllantirilgan milliy g‘oyasi turadi. Shu tariqa, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘oya va shaxs ma’naviyati o‘zaro milliy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi ma’naviy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ularning muhim jihati shundaki: birinchidan, insonlarning ijtimoiylashuviga shaxs tariqasida rivojlanishiga; ikkinchidan, shaxslarning ma’nan yuksalishiga; uchinchidan, o‘zaro jipslashgan insonlar jamiyatining shakllanishga xizmat qiladi.

Ma’naviyatli shaxslar davr bilan hamnafas hayot kechiradilar. F.Ergashev va I.Ergashevlar to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, “Shaxslar davr mazmuniga va uning o‘zgarishiga, jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishga bevosita ta’sir ko‘rsatadilar” [6;20-b.]. Shu ma’noda, bugun turli tahdidlar ta’sirida millatning o‘zligidan begonalashuvi kuchayayotgan sharoitda uning vakillarining shaxs darajasidagi muhim mezoni milliy – ma’naviyatini asrab qolishga qo‘shadigan hissasida o‘z ifodasini topadi. Milliy ma’naviyat durdonlaridan mahrum bo‘lgan, milliy o‘zligidan begonalashgan birorta inson to‘laqonli shaxs darajasiga ko‘tarila olmaydi. Shunday qilib, ana shu ikki omilni rivojlantirish davr nuqtai nazaridan shaxs ma’naviyatining mezoni sifatida milliy taraqqiyotdagi muhim vazifa sifatida tobora dolzarblashib bormoqda. Chunki, ular milliy taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichlari bo‘lib, millat vakillarini chinakam shaxs darajasiga ko‘tarilishidagi muhim omillar

hisoblanadi. Millat vakillarining hammasi ham millatning “shaxs”i darajasiga ko‘tarila olmaydi, faqat uning ma’naviy salohiyati o‘z millati zaminlari bilan uyg‘un ravishda rivojlangan qismigina ana shu maqomga erisha oladi. Milliy g‘oya, o‘zlikni anglash va yuksak ma’naviyatli shaxs tushunchalari o‘zaro dialektik bog‘liq holda milliy taraqqiyotni harakatga keltirib turadigan omil sifatida namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Қайта ишланган янги нашри. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр. 2016. – 446 б.*

*2. Фалсафа қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. -496 б.*

*3. Чориев А. Инсон фалсафаси. Иккинчи китоб. Мустақил шахс. – Тошкент: Chinor ENK, 2002. -270 б.*

*4. Холбеков А. Идиров У. Социология. (Изоҳли луғат маълумотнома). Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти. 1999. -168 б.*

*5. Мухторов А. Шахс тарбиясида миллий ғоя, эҳтиёж ва манфаатлар уйғунлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. -138 б.*

*6. Эргашев Ф. Эргашев И. Фидойилик – ҳаёт мазмуни. Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 48 б.*

## MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASIDA HIKMATLARNING O‘RNI

**Ishqobil XOLIQOV**
*Tarix fanlari doktori, professori,*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada hikmatli so‘zlar, maqolalar biz uchun asrlar sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamkorlik hissini uyg‘otuvchi chaqiriq, zamonlararo ko‘prikdir. Shuning uchun hikmatli so‘zlar va maqolalar ma’rifatli shaxs tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *tarbiya, ma’naviyat, vatan, maqol, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so‘z ibora, ta’bir, aforizm.*

***“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo momot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalalsidir”.***

**Abdulla Avloniy**

Biz ma’rifatli shaxs tarbiyasida hikmatlarning va maqollarning o‘rni mavzusidagi maqolamizda o‘sib kelayotgan yoshlarga xalqimizning boy ma’naviy meros bo‘lgan hikmatlarni bilish, mazmunini tushunish hayot-

ga tadbiq etish maqsadida shaxsdagi qaysi sifatlarni mukammallashtirish borasida ba'zi zarur nasihatlarni tavsiya qilmoqchimiz.

Hikmatlari so'zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu, zamonlararo ko'prikdir.

Hikmatli so'zlar – noma'lum shoirlarning yurak satrlari, xalq iste'dodining masofa bilmas shu'lalari, zulm, adovat, haqsizlik ko'ksiga sanchiluvchi adolat tig'idir.

Hikmatli so'zlar, maqollar – hech bir podsho e'lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir.

*Har kimki vafo qilsa va topg'usidir,*
*Har kimki jafo qilsa jafo topg'usidir,*
*Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,*
*Har kim yomon bo'lsa jazo topg'usidir.*

Hikmatlar... Har kuni har birimiz har kimdan eshitib, har kimga aytib yuradigan had-hisobsiz hikmatlar... Moziydan bizning zamonimizga asrlar osha, avlodlar va ajdodlar osha, ellar va elatlar osha, tillar va dillar osha yetib kelgan bu hikmatlar xalq tafakkurining, xalq hayotiy tajribasidan kelib chiqadigan xulosaviy fikrlarning ixcham va ko'rkam bir badiiy ifodasidir. Ularning har biriga butun-butun kitoblarga tatigulik keng va chuqur ma'no, his-tuyg'u jo bo'lgan. Shu bois xalq asrlar davomida yaratgan, sayqal bergan har bir hikmatlarni va maqollarni to'laqonli, yetuk bir baddiy asr desak, mubolag'a qilmagan qilmagan bo'lamiz [2].

Dono fikrni, o'tkir haqiqatni, teran, so'z xazinasining duru javoxirlarini o'zida mujassam etgan hikmatlar nutqimizning ekspressiya (ya'ni, ta'sir etuvchi, his-hayajon uyg'otuvchi) vositalari orasida eng ta'sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir. Ularning kishilik jamiyati va har bir inson hayoti uchun naqadar qimmatli ahamiyatga molik ekanligini jahon donishmandlari qadim-qadimdan e'tirof etib, qayta-qayta uqtirib kelganlar. Mana, shunday fikrlarning ayrimlari bilan tanishing: "Barcha kishining kuchi ovqatdandir, aqlning kuchi esa hikmatdandir" (Aristotel); "Agar aqlli bo'lishni istasang, hikmat o'rgangilki, aql bilan kamol topadi" (Kaykovus); "Xalq orasida ko'pchilik tildan qo'ymaydigan so'z aslo o'lmaydi" (Gesiod); "So'zlar – asrga, fikrlar – asrlarga tatiydi" (N. M. Karamzin); "Qisqa ifodalangan o'tkir fikrlar hayotni yaxshilashga ko'p xizmat qiladi" (Sitseron); "Men qadimgi donishmandlarning... bizga qoldirib ketgan aql durdonalarini ko'zdan kechiraman; agarki biz ulardan nimadir yaxshi bir narsaga duch kelsak, uni o'zlashtirib olamiz va juda katta foyda orttirgan bo'lamiz" (Suqrot) [4].

Qadrli zamondosh Vataningni sevishni, ardoqlashni har kuni, har soatda esingdan chiqarma. Vatan bu – ona yurting, tug'ilgan joying, ajdodlaring va avlodlaringning makonidir. Sen esa ularning munosib avlodlaridansan.

Buyuk yunon olimi, Sharqda “Birinchi muallim” deb ulug‘lanadigan Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi – degan so‘zlari bugungi kunda ham o‘z axamiyatini yo‘qotgani yo‘q”, – degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev [3].

Binobarin Islomiy hikmatlarda “Vatanni sevmoq iymondan” ekanligi ta’kidlanadi. Eng yuksak ma’naviy fazilatlaringdan biri ham Vataningga bo‘lgan sadoqatingdir. Xalq naqllarida “O‘zga yurtda shox bo‘lganingdan o‘z yurtingda gado bo‘l sen”, degan naql mavjud.

Hazrat Navoiy aytibdilar: Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g‘urbat havas aylama.

Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekistonningt strategiyasi” kitobning “Yoshlar Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlari” qismida: “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarning odob – axloqi, yurish – turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq” [3], degan edilar.

Axloq bu faqat tevarak-atrofdagi voqealarni ijobiy qabul qilishgina emas, bu mas’uliyat hamdir. Demak, sening axloqing – ma’naviy boyliklaringning bir qismidir. Axloq insonning turli hayotiy voqealarga, turmush tarziga u yoki bu tomondan bildiriladigan ma’naviy yondashuvlar yig‘indisidir.

Axloqingii namoyon qiladigan soha bu sening shirin so‘zingdir. Shirin so‘z bo‘l. Allomalardan biri:

*Yaxshi so‘zdan ko‘rasan, mehru vafo,*
*Nomunosib so‘zlasang, yetgay jafo.*

Vatanga muhabbatning eng zarur belgisi – mardlikdir. Chunki barcha hayot qiyinchiliklarini mardlik yengadi, hayotingni yengillashtiradi. U inson oilasiga, jamoasiga, mamlakatiga shon-sharaf keltiradi. Qo‘rqoqlik qilsang qoqilasan. Mardlik bu inson qalbidagi jasorat jarayoni va natijasi bilan uyg‘unlashgan faoliyatdir. Bu faoliyatni o‘zingda mujassamlashtir. O‘shanda sendan faxrlanadilar g‘ururlanadilar. Mardlik bu faqat jang maydonidagi jasurlik emas. Mardlik ko‘rsatishni har qadamda, umrning har lahzasida amalga oshirish mumkin.

Vatanparvarlikni tushunishda so‘zning qudrati katta ma’noga ega. Chunki hayotning lazzati so‘zlashish bilandir. So‘zlashish, Olloh tomonidan insonga berilgan ulug‘ ne’matdir. Tushungan, mulohaza yuritadigan inson uchun so‘zdan kuchliroq (kezi kelganda qilichdan ham o‘tkirroq) narsaning o‘zi yo‘q. Hazrat Alisher Navoiy aytadilarki:

*So‘zdirki, nishon berur o‘lukka jondin,*
*So‘zdirki, berar xabar jonga jonondin,*
*Insonni so‘z ayladi juda hayvondin,*
*Bilkim, guhari sharafroq yo‘q ondin.*

So‘zlashmasang o‘tgan kuning qorong‘u, hayoting esa mazmunsiz, qalbing yarimta bo‘ladi. Bas, shunday ekan, so‘zlashishni buyuk ne’mat bilib, uni qadrla.

Haqiqatga intilib yashash Vatanga muhabbatning ajralmas qismidir. Hayotga keldingmi, endi haqiqatga intilish uchun senda hamma imkon bor. Lekin unga osonlikcha erishaman, deb o‘ylama. Haqiqatga intilish – insonning o‘z faoliyatining to‘g‘riligini nazariy, amaliy dalillar asosida hayotda tasdiqlashga harakat qilishdir.

Jismonan va ruhan barhayot yashayman desang, haqiqatgo‘y bo‘l. Hayoting davrida o‘rtoqlaring, qavmu-qarindoshlaring oldida haqiqatchilik sinovidan o‘tgan bo‘lsang, haqiqat g‘alaba qozongan bo‘ladi, barhayot bo‘lasan, mangu yashashing uchun zamin yaratgansan.

Bilib qo‘yginki, senga halollik shuhrat keltiradi. Halollik bilan umr ko‘rganlar o‘z umrlariga achinmaydilar, ularni ko‘p insonlar hamisha yaxshi so‘z bilan eslaydilar. Halol kishilar tiriklikligidayoq o‘zlariga haykal qo‘yadilar.

O‘zingning shaxsiy halolliging boshqalar manfaati bilan uyg‘unlashsa qoqilmaysan. Donishmandlardan biri aytadiki: “Uzoq sharmandali umrdan ko‘ra, qisqa, halol umrni hamisha ko‘r”.

Halollik bozorda sotilmaydi. U inson tomonidan ma’naviy hislat sifatida yaratiladi, u ko‘zga ko‘rinmas his-tuyg‘udir.

*Olamni insonlar, tashkil qilarlar,*
*Turlicha yashashib, doim o‘tarlar.*
*Ularning barchasin, halol deyishlik,*
*Afsuski bilgilki, xatolar bo‘lar.*

Ma’lumki, inson bo‘lib shakllanish jarayonida do‘stlikning qudrati, insonlar qalbidagi xayrixohlik va bahtiyorli xislatlarini topa bilish do‘stlikning boshlanishidir. Do‘stlik insonlarni birlashtirish quroli hamdir. To‘g‘ri, do‘stlikni sifat, xususiyat va miqdorlari benihoya.

Do‘stlikni o‘zaro hurmat chiniqtiradi. Do‘sting bilan me’yoridan ortiq hazillashma, orangda ozroq masofa qolsin. Sababi mabodo ushbu sohada qalbing torlari uzilar ekan, u temir emaski, qaytadan payvandlab qo‘ysang uni tiklashga urinma, harakating behuda ketadi, bu iz yo‘qolmaydi. Yaxshisi qalb torlarini uzmaslikka intil.

Kaykovus bobomizning ushbu hikmatini dastur qil:

“Yangi do‘st orttirsang, eskisidan yuz o‘girma” yoki mavlono Abdurahmon Jomiy fikriga diqqatingni qarat:

*Yaqin do‘sting senga yomon istasa,*
*Undan yuz o‘gir yo bardoshla so‘zla,*



ZJV5401

*U bilan olishma, so‘kma tortishma,*
*Shunda yarashish yo‘lini izla.*

Do‘stlikning poydevori sadoqatlilikdir. Sadoqatlilik bu o‘zgalar turmush tarzini yaxshi bo‘lishiga mehr ko‘yib, ular mehriga sodiq qolish, ko‘maklashishdir.

Ta’kidlash lozimki, farzand insonlar va insoniyat uchun tarbiyalanmas ekan, uning xislati mahluq sifatidan uzoq emas. Farzanding tarbiyasida undagi keraksiz sifatlar yo‘q qilinib, o‘rniga insoniy xislatlar singdirilmasa, mehnat bekor ketganidan dalolat. Unutmagilki, farzanding qiyofasida kelajakdagi sarkarda, shoir yoki faylasuf, davlat arbobini aslo ko‘rma, unda birinchi navbatda haqiqiy yuksak ma’naviyatli insonni ko‘rgin.

Shuningdek yaxshi xulq, yaxshi odob, insonning yuksak fazilatlaridan biri hisoblanadi. Demak, o‘zni tuta bilish ham shunday xususiyatlardandir.

Insoniylik shiddatda emas, sokinlikda. Ishongilki, o‘zni tuta bilish yuqorida ta’kid etganimdek, vaziyatga bog‘liq. Vaziyatni fahmlay olishing aqlingga bog‘liq. Aqlingni o‘tkirligi, zehning borligi, seni mehnatingga bog‘liq, mehnat qilmasang bu xislatlaring jonsiz modda bo‘lib qolaveradi. Vaziyatni to‘g‘ri baholay olish donishmandlik belgisidir.

Fe’l-atvoring sokinligi buyuk aqliy kuching belgisidir. Bu belgiga amal qila olsang yutuqlaring bisyordir. Sokinlik ehtiyotkorlik bilan bog‘liq. Ehtiyotkorlik, sovuqqonlik, sokinlik – o‘zni tuta bilmaslikning dushmani.

“Tarbiyachining eng qudratli tayanchi ham, orobahsh yostig‘i ham uning pokiza vijdonidir”, degan edi mashhur O‘zbekistonlik pedagog Rahimjon Usmonov.

Munosib shaxs bo‘lib yetishishimizda shaxsiy manfaatni to‘g‘ri tushunish benihoya zarur hisoblanadi. Inson paydo bo‘libdiki, u shaxsiy manfaatsiz kun kechira olmaydi. Lekin birovlar shaxsiy manfaatni taqdirga bog‘lab, berganiga shukur qilsalar, birovlar harakat qilib shaxsiy manfaatlarini tezroq qondiradilar. Bu yo‘lda birovlar o‘g‘rilik qilsalar, birovlar to‘g‘rilik bilan manfaatdor bo‘ladilar. Sen o‘ylab ko‘rsang, shaxsiy manfaatning Ham qirralari behisob. Inson aqlini tanishi bilan yaxshi kiyingisi, barchaga namuna, go‘zal, chiroyli, baquvvat, bilimdon, dono, davlatmand, mansab egasi bo‘lgisi keladi, shuhrat topgisi, farzandlar, nabiralar, evara-chevaralar bilan uzoq umr ko‘rgisi va hokazolarga intiladi.

Ulug‘ Tojik xalqining mutafakkiri Abduraxmon Jomiy ta’kidlaganidek: “Hozir bir ish qilki undan elga yetsin manfaat, oxirida u ishing keltirsin rahmat”;

“Harki yaxshilik qilsang qilki yurt uchun, o‘zingdan ortiqroq o‘zgaga bermoq uchun” [1].

Umringizning boqiy bo‘lishi o‘zingizga bog‘liq. Barhayotlik insonning asrlar davomida insonlar qalbidan mustahkam o‘rin olishi hamdir. Barha-

yot insonlar har bir millat va elat, urug‘, qabila, jamoada topiladi. Ular o‘z vaqtida mehnatlari orqali turli sohalarni o‘zlarida mujassamlashtirib, ularni rivojlantirganlar, ma’lum sohalarda – fanda, san’atda, adabiyotda, dinda, davlat boshqaruvida, hunarmandchilikda, donolikda o‘zgarishlar kiritganlar, hayratda qoladigan ishlarni amalga oshirganlar va o‘z barhayotligini ta’minlaganlar.

Hayotda barhayot bo‘lishingda sen uchun albatta, o‘rin topiladi. Avvalo, mehribon inson bo‘l. Mehribonlikda juda ko‘p insoniy fazilatlar yashirinib yotadiki, sen ularga loqayd bo‘lmasang, yuksak ma’naviyat egasi sifatida barhayotlikning mustahkam poydevorini qo‘ygan bo‘lasan.

Namunali farzand tarbiyalasang, ota va onangni e’zozlasang, Vatan tuprog‘ini qadrlasang, ko‘plar uchun beg‘araz mehnat qilsang, ta’magir yoki poraxo‘r bo‘lmasang, mansabparastlik va shuhratparastlik illatlarini tushunsang, ma’lum bir sohaning haqikiy ustasi bo‘lsang, bo‘lar seni kelajakdagi barhayotligingni ta’minlaydi.

“Bo‘lak yaxshi nom istama, shul yetar -
Seni yaxshi odam desa el agar”, – degan edi Sa’diy.

Ma’rifatli shaxsni voyaga yetkazishda kitobning o‘rni beqiyosdir. Kitob bu – insonlar ongiga ta’sir etib, uni turli jihatdan rivojlantiradigan, aql va faoliyatni boyitadigan ma’naviy manbadir. Kitob to‘g‘risida o‘z fikrini bildirmagan ziyoli inson bo‘lmasa kerak.

O‘zbekiston Respublikasining qahramoni yirik adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganidek: “Ma’rifatli odam uchun o‘z xalqining kitobga jo qilgan ijod durdonalaridan ko‘ra qimmatliroq boylik bo‘lmaydi” [4].

Kitob ham oyog‘ing, ham qo‘ling, ham ko‘zing, ham qulog‘ingdir. Kitob bebaho xazinadir. Kitob ajdodlaring o‘tmishidir. O‘tmishni anglay olsang kelajagingni rejalashtirasan, u senga yorug‘ yulduz.

Unutmagilki, kitob allomalar fikricha, yolg‘izlikdan saqlaydi, kitobning o‘zi jonsiz bo‘lsa ham fikrlari jonlidir. U seni hayajonga soladi, tashvishlaringni yengil qiladi. Kitobni ko‘p o‘quvchilarga havas bilan qara, hasad qilma [2].

*Buyuk mutafakkir Abduraxmon Jomiy ta’kidlaganidek:*
*Kitobdan yaxshiroq do‘st yo‘q jahonda,*
*G‘amxo‘ring bo‘lg‘ay u g‘amli zamonda,*
*U bilan qol tanho, hech bermas ozor,*
*Joningga yuz rohat beradi takror.*
*Bilimdonlar so‘zi bordir bu bobda,*
*“Bilimdon go‘rda-yu, ilmi kitobda!”*
*Agar yolg‘iz ersang hamdam kitobdir,*
*Bilim subhidagi nur ham kitobdir.*

Inson uchun hayotingdagi eng noyob xususiyatlaringdan biri bu o‘z salomatligingdir. Unga e’tibor va extiyotkorliging senga bog‘liq. Sog‘ligingga

e’tibor nafaqat o‘zing uchun, balki oilang va davlating uchun ham zarur. Sog‘liq bu insonning tashqi va ichki ta’sirlardan jismoniy ham, ruhiy ham ezilmasdan, unga berilmasdan, o‘zini-o‘zi bir butun, yaxshi kayfiyat va jismonan tetik tutishga rioya qilishidir.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Sihat – salomatlik har bir inson, butun axolimiz uchun hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydigan buyuk ne’matdir. Faqat sog‘lom inson va sog‘lom xalq mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz” [3] – degan edilar.

Sog‘liq to‘g‘risida insonlar azaldan o‘lmas fikrlarni aytib kelganlar. Agar sen yoshlik yillaringda sog‘ligingni asrab avaylasang yoshing ulg‘ayganda haqiqiy baxtingni topasan. Sog‘liq barcha noz-ne’matlar ichida eng buyugidir. Odamlar sog‘liqni baxt deb ham atashadilar. Bu to‘g‘rida alloma sitseronda shunday fikrlar bor: “Kishining kuchdan qolishi yemiruvchi yillar emas, ko‘pincha yoshlikning asov g‘alayonlari oqibatidir. Bebosh va sayoq yoshlik keksalikka shalviragan tanani hadya etadi”.

Alloma nemis olimi Artur Shopengauerning so‘zlariga e’tiboringni qarat: “Sog‘lik hayotning shunday ne’matidirki, chindan ham betob podshodan sog‘lom gado ming karra baxtiyordir”.

Buyuk ajdodimiz Imom Motrudiy Hazratlarining “Tiriklik hikmatini sog‘liqda, deb bilish” [1] – degan chuqur ma’noli so‘zlari naqadar to‘g‘ri ekanini hayotning o‘zi bugun qayta-qayta isbotlamoqda.

Ma’rifatli shaxsning shakllanishida o‘zidan nom qoldirish ham eng muhim fazilatlardan hisoblanadi.

Insonlar nazarida ota-onang, qavmu-qarindoshlaringni hurmatini joyiga qo‘ysang, mahallangdagi to‘y-hasham, marosimlarda yolg‘on so‘zlardan yiroq bo‘lsang, birovlarga ovozingni ko‘tarib jahl bilan gapirmasang, birovlarning og‘ir musibatlarga duchor bo‘lganda ko‘nglini ko‘tarsang, qo‘lingdan kelgan oddiy, samimiy yaxshiliklarni o‘rnida qo‘ysang, (va xokazo) o‘ylayver, sen insonlar o‘rtasida yaxshi nom qoldirayapsan.

Sharq allomasi Sa’diyning: “Yomon ham o‘tar, yaxshi ham – yaxshi bil, seni yaxshi nom birla yod etsin el”, – degan fikrini o‘yla va unga amal qil, azizim.

Xulosa shundan iboratki bugungi kunda ma’rifatli shaxsni tarbiyalashda Xalq hikmatlari eng muhim hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2012. -131-bet.*

*2. Ziyodulla Davronov. Barkamolikka da’vat maktublari. –Toshkent: “TAMADDUN”, 2017.*

*3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. “O‘zbekiston” nashriyoti. -22021. -224-bet.*



ZJV5401

*4. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma. O‘zbek maqolalarining izohli lug‘ati. – O‘zbek Sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi. – Toshkent. -1990.*

## SHAXS MA’NAVIY KAMOLOTIDA AXLOQIY QADRIYATLAR VA DINIY E’TIQOD UYG‘UNLIGI

**Muhammadjon PARPIYEV,**
*Andijon davlat pedagogika instituti*
*Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar*
*bo‘yicha birinchi prorektori,*
*dotsent, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

***Annotatsiya****: Maqolada shaxs ma’naviy kamolotida axloqiy qadriyatlar va diniy e’tiqod uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi, din bir tomondan ilohiy kuchlarga ishonch ikkinchi tomondan axloqiy qadriyatlarning me’yoriga amal qilish vositasi sifatida jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlanishi, dunyoda global o‘zgarishlar yuz berayotgan, raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan jamiyatga o‘tish jarayonida shaxs ma’naviy axloqi o‘zgarishi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *yuksak axloqiylik, g‘oyaviy tahdidlar, jamoatchilik fikri, axloqiy normalar va me’yorlar, ijtimoiy axloq, jamoatchilik tuyg‘usi, axloqiy qadriyatlar va diniy e’tiqod uyg‘unligi, din va diniy qadriyatlar.*

Bugungi kunning o‘ziga xos xususiyati va vazifasi mustaqillik tamoyillarini hayotga keng joriy etish, shaxs ma’naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy taraqqiyotning qudratli omiliga aylantirishdan iborat. Jamiyatning siyosiy tuzumi, ijtimoiy hayoti shaxsning ma’naviy madaniyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir qiladi. Bu ta’sir natijasida inson yo yangi marralar sari mo‘ljal oladi yoki qadrsizlanish natijasida ruhiy tushkunlikka tushadi. Har ikki holat insonni o‘z-o‘zini anglashi uchun motivatsiya vazifasini bajaradi. Bizningcha inson ma’naviy kamolotining bosh omili bilim va mehnatga tayanadi. Insonning mohiyati ham shu sifatlarning mushtarak birligi asosida shakllanadi va kamol topib boradi. Ma’naviy kamolot jamiyat taraqqiyotining inson faoliyati, ongi bilan bog‘liq bo‘lgan subyektiv omillari tobora kengayib, chuqurlashib, rivojlanib borishini bildiradi.

Dunyoda global o‘zgarishlar yuz berayotgan, raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan jamiyatga o‘tish jarayonida shaxsning ma’naviy axloqi o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlar ijtimoiy hayotda qat’iy amal qilayotgan normalarga mos kelmaydi. Chunki tafakkur texnologiyalar ta’sirida doimiy yan-

gilanib boradi. Kattalar uchun axloqiy qadriyat hisoblangan qarashlar yosh avlod uchun qadriyat sifatida qabul qilinmaydi yoki qabul qilinmasligi mumkin. Bu axloqiy me'yorlarga kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, turli marosimlarga amal qilish kabilar kiradi. Ba'zi marosimlar yangi avlod vakillari tomonidan inkor qilinadi. Lekin bu, yangi avlod vakillari ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan barcha axloqiy qadriyatlarga tegishli degani emas. Bu jarayonda qadriyat va bid'atni bir biridan farqlamoq darkor.

Odob va axloq – ijtimoiy ongning maxsus shakllari va ijtimoiy munosabatlarning turlaridir. Ijtimoiy ong shakli sifatida odob-axloq shaxs yoki biror insonlar jamoasining yaxshilik va yomonlik, burch va vijdon, hayotdagi maqsadlar, manfaatlar va shu kabi tushunchalarni o'z ichiga olib, buni quyidagi fikrlarda ham ko'rish mumkin, ya'ni, Abdurauf Fitrat – "Axloq bashariyatning haqiqiy vazifalari haqida bizga ta'lim beradi" [1. B. 11.], boshqa fikrida esa "Axloq tarbiyasi insonni komil, chiroyli axloq egasi, jamiyatga foydasi tegadigan a'zo qilib shakllantirishdan iborat" [2. B. 197.], deb hisoblaydi.

Jamoadagi mehnatda, ijtimoiy faoliyatda, oilaviy munosabatlarda, dam olishda – hamma yerda inson boshqa odamlar bilan murakkab aloqa tizimiga duch keladi, binobarin bu muloqot davrida ongli ravishda u yoki bu tamoyillar, axloq normalarini qo'llaydi. Agar madaniyatning ongli munosabat natijasi ekani borasidagi ta'rifidan kelib chiqib yondashsak, axloqsiz madaniyat bo'lmaydi. Shu bilan birga, bu axloqning ijtimoiy o'rnini tushunishda eng asosiysidir va inson o'z axloqiy qarashlarini boshqa odamlarning ushbu jamiyatda hukmronlik qilayotgan axloqiy tamoyillar va me'yorlari bilan moslashtirishga majburdir. Darhaqiqat, agar har bir inson o'z bilganicha ish tutsa va o'z axloqiy me'yorlarini jamiyatda qaror topgan axloqiy normalarga moslashtirmasa jamiyatdan begonalashadi.

Axloqiy me'yorlar jamiyatni boshqarish usuli bilan bog'liq, bu inson va boshqa odamlar orasidagi, inson va jamiyat orasidagi munosabatlardir. Axloqning bosh vazifasi ham aynan shundadir. Bunday boshqaruv insonlarning jamiyat doirasida yashab ketishlarining zarur shartlaridan biridir. Jamiyatni boshqarishning ijtimoiy tartibga keltirish vazifasi ijtimoiy ongning boshqa shakllariga, avvalambor, huquqiy shaklga ham xosdir. Axloqiy me'yorlarni bu jihati G.Geffding ijodida o'ziga xos yoritilgan. Uning fikricha, "Shaxs axloqiy madaniyatining jamiyat madaniyatidan farqi shundan iboratki, madaniyatga zid, axloqsiz nuqtai nazarlar, xulq-atvorlar va xatti-harakatlar oldin alohida kishilarda uchrab, keyin butun jamiyatga yoyiladi" [3. B. 400.]. Darhaqiqat ko'plab odamlar yo salbiy yo'lga kirgan insonlar ta'siriga chalinib yoki turli ijtimoiy muhtojlik va nohaqlik natijasida noilojlikdan shunday noqobil, axloqsiz ishlarga qo'l uradilar.

Axloqiy madaniyat – jamiyatda amal qilib kelinayotgan mavjud axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish va rioya qilish darajasi tushuniladi. Shaxs axloqiy madaniyatining takomillashishida turmush-tarzi, yashayotgan milliy-

madaniy va diniy muhit, kasb-kori, tortilgan munosabatlarning xarakteri ham muhim rol o‘ynaydi. Axloqiy ongning yoshga xos xususiyatlari navqironlik davrida to‘la shakllanadi va butun umr davomida rivojlanib boradi, yosh o‘tgan sari kuchayib boradi va keksa kishilarda saqlanib qoladi. Axloqiy ongning yoshga xos xususiyatlari qisman universal bo‘lib turli madaniyatlarda namoyon bo‘ladi. Shu asnoda bir madaniyat doirasida bir jins bir nuqtai nazarga, boshqa jinsdagi shaxs boshqa nuqtai nazarga ega bo‘lishi o‘ta kam uchraydi. Bilim darajasi, daromad va boshqalar singari ijtimoiy omillar axloqiy ongni o‘ta bir ma’noda bo‘lmagan holda farqlaydi. Bular o‘rtasidagi aloqalar aniqlanmagan va o‘rganishni taqozo etadi. Keskin sharoitlarda axloqiy ongning qisqa vaqtli va uzoq vaqtli o‘zgarishlari yuz beradi. Bular qisman migrantlardagi, axloq tuzatish boshqarmalarida jazoni o‘tayotgan shaxslarda axloqni odob sifatida tushunishda ifodalanadi.

Shaxs ma’naviy madaniyatining shakllanishida axloqiy qadriyatlar tizimi alohida ahamiyatiga ega. Shaxsning axloqiyligi ijtimoiy axloqiylikning individual shakli bo‘lib, u yaxlit, nisbatan mustaqillikning individual ko‘rinishi, yaxlit mustaqil tuzilma, unda ijtimoiy talablar ham, yaxshilik va yomonlik haqidagi shaxsiy tasavvurlar ham, uning dunyoga shaxsiy munosabati ham – “bir qozonda qaynatilib”, yaxlit holga keltirilgan va bu inson hayotining o‘ziga xos sharoitlariga asoslangan. Individual va ijtimoiy axloq o‘zaro faqat ularning tashuvchilari bilan farq qilmaydi, birinchi holatda, bu – alohida shaxs, ikkinchisida – umuman jamiyat, balki o‘z hajmiga ko‘ra ham turlichadir. Bir tomondan, ijtimoiy axloq alohida insonning axloqiy ongidan ko‘ra kengroq va to‘laroq bo‘ladi. Boshqa tomondan esa, u shaxsiy axloqdan nimasi bilandir qashshoqroq, chunki o‘z ichiga takrorlanmas hayotiy tajribani, ma’naviy boylikning individualligini, inson tuyg‘ulari boyligini kirita olmaydi. Albatta, axloqni jamoaviy va shaxsiyga ajratish birmuncha shartlidir, chunki qanday bo‘lmasin axloqning mohiyati yagona – o‘ziga xos xususiyatlari bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdir.

Arastu o‘zining “Axloqi Kabir” asarida axloqning mazmun-mohiyati haqida quyidagilarni yozadi: “Gapning lo‘ndasini aytsak, axloq siyosatning tarkibiy qismidir. Chindan ham muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo‘lmagan, ya’ni munosib bo‘lmagan odam (taniqli jamoat arbobi sifatida) faoliyat ko‘rsatishi mumkin emas. Munosib odam bo‘lmoq – fazilatlar egasi – fozil bo‘lmoq, demakdir” [5. B. 130.]. Bu fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, axloq o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g‘urur, tarixiy xotira, ma’naviy barkamollik kabi tuyg‘u va tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Chunki, axloq aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo‘lagiga aylanadi. Ayni shu ma’noda, Arastu “Axloqiy fazilat lazzatlanish va azoblarda aks etadi, zero lazzatlanish uchun yomonlik qilsak, unda azoblanmaslik uchun go‘zal ishlardan bosh tortamiz” [6. B. 112.], – deb yozadi.



ZJV5401

Ijtimoiy dalillarga koʻra, odamlarning hayotiy qadriyatlari shkalasida jiddiy oʻzgarishlar yuz berdi. Avvalambor, insonlarning qadriyatlarga boʻlgan munosabatlarida ijtimoiy soha ahamiyati kamayib, oʻta individualistik qadriyatlar ahamiyati oshdi. Bunday jarayonni faqatgina salbiy hodisa deb taʼriflash unchalik toʻgʻri emas. Insonning oʻzini erkin, mustaqil shaxs sifatida anglashi kabi muhim maʼnaviy sifatning rivojlanishi bu jarayonning ijobiy tomonidir. Insonlarning barcha oʻz kuch va imkoniyatlarini namoyon qilishga intilishlari oʻsib boradi. Ammo insonlarning oʻz axloqiy yoʻnalishlarini oʻzgartirishlarining salbiy tomonlaridan ham koʻz yumishi mumkin emas: koʻpchilikda jamoatchilik tuygʻusi, insonlarga yordam berish, jamoat ahamiyatidagi ishdan zavq olish, davlatga, jamiyatga xizmat qilish, oʻz ustida ishlash, madaniy rivojlanish, mustahkam oila qurish va hokazolar eng oxirgi oʻrinlarga oʻtib qolmoqda yoki umuman yoʻqolib bormoqda. Buning oqibatida hayotiy koʻrsatmalarning deformatsiyasi, yaxshilik va yomonlik orasidagi chegaralarning yoʻqolib borishi kelib chiqmoqda.

Bunday madaniy-axloqiy oʻzgarish jarayonlari butun dunyo xalqlari hayotida sodir boʻlmoqda. Dunyo miqyosida madaniyatning ijtimoiy kod sifatida transformatsiyasi “zamonamizning etnik-madaniy paradoksi”ni vujudga keltirdi. Buning maʼnosi hayotning turli sohalarida etnik-madaniy omilning ahamiyati oshib borishi bilan Gʻarb dunyosi (gʻarbiylashtirish) “jilo”lari taʼsirida inson hayoti makonini birlashtirishga olib keladigan integratsion jarayonlarning birlashmasidir.

Umuman olganda, kishilarning ongi va xulq-atvori qarama-qarshiliklar va beqarorlik bilan xarakterlanmoqda. Bu yerda ozodlik va ijtimoiy tashabbuskorlik tomon boʻlayotgan pozitiv oʻzgarishlar tushkunlikka tushish, passivlik, oʻz kuchiga ishonmaslik, hayotdan norozilik tuygʻulari bilan qorishib ketgan. Va bu holat jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarga tegishlidir. Hozirgi jamiyat axloqiy xarakteristikasining muhim omili shuki, bunda isteʼmolchilik qadriyatlari birinchi oʻringa chiqib olmoqda. Bunda yaxshi kiyimga, oziq-ovqat, mebel, mashina va hokazolarga ega boʻlishdek tabiiy xohish emas, balki buyumga hayotdagi yagona maqsadga intilgandek intilish kuchayib bormoqda.

Shaxs maʼnaviy madaniyati takomilida axloqiy qadriyatlar va diniy eʼtiqod uygʻunligini taʼminlash muhim ahamiyatga ega. Din bir tomondan ilohiy kuchlarga ishonch ikkinchi tomondan axloqiy qadriyatlarning meʼyoriga amal qilish vositasi sifatida jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlangan. Shu sababli biz shaxs maʼnaviy madaniyatini din va diniy qadriyatlarning shakllanish jarayonlari va unga taʼsir koʻrsatuvchi omillarga eʼtibor qaratishimiz mantiqan toʻgʻri boʻladi. Bundan tashqari maʼnaviy madaniyatni harakatga keltiruvchi sogʻlom dunyoqarash, diniy-maʼrifiy bilimlarning ahamiyatini ham oʻrganishimiz lozim.

Islom dini oʻzbek xalqi maʼnaviy madaniyatining muhim tarkibiy qismi

sifatida insonlarning ma’naviy kamolotiga xizmat qilib keldi. Har jamiyatda dinning ma’naviy bunyodkor kuchidan foydalanish, ayniqsa yosh avlodni ma’nan va jismonan yetuk insonlar qilib voyaga yetkazishda eng muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

XX asr boshida aholining dinga e’tiqodi bilan uchinchi ming yillik odamlarining dinga e’tiqodi orasida farq bormi? Raqamli texnologiyalar rivoji shaxsning ma’naviy kamoloti omili bo‘lmish diniy e’tiqodga ta’sir qildimi? Agar ta’sir etgan bo‘lsa qaysi yo‘nalishda namoyon bo‘ladi? Fikrimizni izohlash uchun Qur’oni karim va Hadisi sharif matnlariga murojaat etamiz. Qur’oni karim va Hadislarda o‘z ifodasini topgan axloqiy qadriyatlar milliy va umuminsoniy mazmun-mohiyati va ahamiyati bilan XXI asr odamlariga, shakllanib kelayotgan avlod uchun ham qat’iy e’tiqod va imon, odob-axloq, ma’rifat va ma’naviyat mezoni ekanligini unutmasligimiz darkor. Har bir shaxs o‘z hayot faoliyatida ularga amal qilishi bugungi kun talablaridan biridir. Chunki muqaddas Islom dinimizdagi odob-axloq va xulq haqidagi qarashlar odamlarni eng oliyjanob maqsadlar yo‘lida hamjihatlik, birlashuv, totuvlik va tinchlik, bag‘rikenglik va osoyishtalikka yetaklaydi. Yurtimizda yashayotgan har bir shaxs dunyoqarashida asrlar davomida shakllangan axloqiy va diniy qadriyatlarimizdagi sof insoniylik xislatlarni shakllantirmog‘imiz lozim. Shaxs ma’naviyati yuksak takomilga yetmaguncha jamiyat va davlat taraqqiyotini jadallashtirib bo‘lmaydi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) men Alloh taolo tomonidan, “Go‘zal axloqlarni kamolga yetkazish uchun yuborildim. Sizlarning yaxshilaringiz – axloqli, yoqimli bo‘lganlaringizdir” [7. B. 40.] – deb qayd qilgan.

Bugun nafaqat sanoat tarmoqlari va faoliyat turlari, balki milliy davlatlar, ular bilan birgalikda madaniy an’analar ham aralashib ketishi hamda qandaydir bir umumiy standartlarga keltirilish jarayoni tezlashmoqda. Bunday o‘zgarishlar mavjud urf-odatlar, diniy e’tiqod, turmush tarzi va ijtimoiy stereotiplarga tahdid soladi. “Yopiq sivilizatsiyalarning taqdiri kutilayotgan global to‘qnashuvlar – bu ko‘p jihatdan etno-konfessional omillar, etnik va diniy sabablar tufayli siyosiy to‘qnashuvlar bilan bog‘liq bo‘ladi” [8. B. 33-48.]. Bunda millatning o‘zini boshqa jamiyatlar bilan taqqoslashga imkon beruvchi o‘z manfaatlari va maqsadlarini anglash muhim ahamiyatga ega. Uning mohiyati millatning an’anaviy qadriyatlari: milliylik, e’tiqodlilik, jamoaviylik, yuksak ma’naviy g‘oyalar, vatanparvarlik, mustahkam oila, ma’naviylikning moddiylikdan, muhabbat va adolatning kuchli kishining huquqidan ustunligi, burchning iste’molchilik va xudbinlikdan, umumiy maqsadlarga xizmat qilish, haqiqatga, muqaddas narsalarga sadoqat bilan chambarchas bog‘liq.

Biroq din niqobidagi g‘oyaviy tahdidlar tobora yangi qiyofaga kirmoqda, ana shu sababdan ham yurtimizda millat, jamiyat, davlatning birlashtiruvchi bayrog‘i bo‘lgan milliy g‘oya va mafkurani yanada shakllantirish

hamda xalqimiz ongiga singdirish yuzasidan faollik bilan ish olib borilmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, hozirgi kunda erishgan mustaqillik va erkinligimizga tahdid solayotgan ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turish uchun millatni millat, xalqni xalq qiladigan tarix sinovlaridan o‘tgan madaniyatimiz, qadriyatlarimizga asoslanishimiz lozim. “Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharafli burchimizdir. Islom – haqiqatni anglash demaqdir, u odamzodni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo‘lishni o‘rgatadi” [9. B. 29-30.].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, diniy tafakkur insonda sabr qanoatni, kechirimlilikni va jamiyatda qaror topgan axloqiy me’yorlarga amal qilib yashashni shakllantiradi. Insonparvarlik esa olamni barcha qadriyatlariga munosib bo‘lgan insonning cheksiz faolligini belgilaydi, erkin faoliyat uchun barchaga teng imkoniyatlar beradi va bu faoliyatning natijalari insonning namoyon etilishiga baho bo‘lib xizmat qiladi. Inson betakror aql sohibi. U har qanday vaziyatdan qulay imkon qidiradi va o‘z-o‘zini anglashda bilim, axloqiy me’yorlar va diniy e’tiqodga tayanadi. Insonparvarlik esa bilim kuchiga tayanadi. E’tiqod insonning qadriyatli maqsadlarini belgilab beruvchi shaxsiy zaruriy mexanizm sifatida inson ichki olamining zaruriy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ma’naviylik va isonparvarlikning uyg‘unligi inson hayotini yuksak bahoga munosib ko‘ruvchi imkoniyatlar, qadriyatlar va vazifalarning turli-tumanligida namoyon bo‘ladigan ma’naviyat hodisasining o‘zi insonparvar tabiatga ega ekanligi to‘g‘risidagi fikrimizni tasdiqlaydi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 5-jild. –Toshkent: Ma’naviyat, 2010.*

*2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 5-jild. –Toshkent: Ma’naviyat, 2010.*

*3. Geffding G. Etika, ili nauka o nravstvennosti: Izlojeniye eticheskix prinsipov i ix primeneniye k razlichnыm jiteyskim otnosheniyam. – Moskva: LKI, 2012.*

*4. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –Toshkent: Ma’naviyat, 2016.*

*5. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.*

*6. Axelis T. Etika. Istoriya etiki i kritika yeye sistem. Yavleniya nravstvennosti. Prinsipы nravstvennosti. –Moskva: Etika Librokom, 2011.*

*7. Axloq-odobga xos Hadis namunalari. –Toshkent: ISSO.*

*8. Xantington S. Stolknoveniye sivilizatsiy // Polis. 1994.*

*9. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018.*

# YANGI DAVR SERIALLARIDA IJTIMOIY AHLOQ MASALASI VA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI

**Omina AZIZOVA,**
*San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

***Annotasiya:*** *maqolada so'nggi o'n yil kesimida ekranga chiqayotgan milliy seriallarimiz, ularda ko'tarilayotgan mavzular, qahramonlarning sajiyalari haqida so'z boradi. Bugungi davlat va nodavlat telekanallarimiz efirga berayotgan, kun sayin sanog'i ortib borayotgan milliy seriallarimizda ahloq masalalarini e'tibordan chetda qolayotgani tahlillar orqali berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *serial, obraz, xarakter, ijtimoiy ahloq, transformatsiya, rejissyor, aktyor, ijro, sajiya.*

Azaldan halqimiz bir-biriga mehr-muruvvatli va oqibatli bo'lgan. Darhaqiqat, inson nafaqat o'zi haqida o'ylashi, balki o'zgalar dardi bilan ham hamnafas bo'lib yashashi lozim. Ayni jihatlar o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan va milliy qadriyatiga aylangan. Aytadilarki har bir xalqning milliy qadriyatlrini uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlari, a'nanalarimiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sababi qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuidir.

Bugun axborotlar, texnologiyalar asrida yashayapmiz. Ayni zamonda millatni ikki soha – adabiyot va san'at– dunyoga tanitadi. Demak, xalqimiz o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi bo'lgan milliy qadriyatimizni san'at namunalari, aniqroq aytganda seriallarimiz orqali targ'iboti qay darajada kechmoqda?

Bugungi kunda mamlakatimizda 12 ta davlat, 13 ta hududiy va 13 ta nodavlat telekanallari faoliyat olib bormoqda. Ularning har biri o'z auditoriyasi, o'z tarqalish hududiga ega. Ayrim holatlarda asosan nodavlat telekanallari orqali efirga uzatilayotgan milliy va xorijiy seriallarimizda qadriyatlarimizga begona mavzularga ham murojaat etilmoqda. Masalan, "Sevimli" telekanali orqali efir yuzini ko'rgan "Singlim" serialida opasi tirik bo'la turib pochchasiga turmushga chiqib olgan singil asosiy qahramon sifatida ko'rsatiladi. Serial voqealari bir-biriga kundosh bo'lgan ikki opa-singilning kechmishlari va ko'rmishlari haqida hikoya qiladi. Bu bilan muallif yoki rejissyor tomoshabinga nima demoqchi? Ayni savolga javob topilgan taqdirda ekran asarining g'oyasi ochiladi.

Kino san'ati boshqa san'at turlari kabi inson qalbiga ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega. B.Belash – "San'at tomoshabin didini rivojlantiradi. Nafis did

yanada yuksak san'atga intiladi va uning shakllanishiga sharoit yaratadi. Bu esa o'z o'rnida san'atni anglay oladigan odamlarni tarbiyalaydi"[1], – deya ta'kidlagandi. San'atga qo'yilgan ayni talabdan kelib chiqib "Singlim" kabi g'oyasi mujmal, aytmoqchi bo'lgan fikri noaniq ekran asarlarini telekanallar orqali namoyish etish maqbul emas, deb hisoblaymiz.

Darhaqiqat, insonlarning ma'naviy komillika etishi, estetik didining o'sishida kinoning xissasi ulkan. Hossatan seriallarning ham. Bugun milliy telekanallarimiz orqali efir yuzini ko'rayotgan seriallarimiz, ularda olib chiqilayotgan g'oya qadriyatlarimizga mos keladimi, tomoshabinga qahramon sifatida tanishtirilayotgan personajlar mentalitetimizga xos fazilatlarga egami... Shu kabi savollarga javob qidirish maqsadida qator seriallar tahlilga tortildi.

Odamzod borliqni qabul qilishida uning ko'rish qobiliyati ustunlik qilishi sir emas. "Tomoshabinga birinchi navbatda filmning ko'rimli jihati – tasviriy echimi ta'sir etadi. Shuning uchun ham tomoshabin "men film ko'rdim" deydi"[2]. Bundan kelib chiqadiki, tasvir kinematografiyada birlamchi vosita hisoblanada.

Abdurauf Fitrat o`zining "Oila" nomli asarida bolalarni "diqqatlari va zehnlari chuqur va jiddiy bo'lishiga o'rgating.... Ko'rganlari ustidan tez xulosa chiqarmasinlar", – deya ta'kidlab, farzand tarbiyasiga e'tibor berish lozimligini uqtiradi. Lekin bugungi nanotexnologiyalar asrida bolalarni ko'rganlari haqida to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatish ota-onalardan ancha mehnatni talab qilmoqda. Chunki xorij telekanallari qolib, o'zimiznikilar ham axboriy hujumga o'tgan bir paytda ularga qadriyatlarimiz haqida uqtirish ancha mushkul.

Odob-axloq milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismidir. Lekin "Milliy" telekanali orqali efirga uzatilgan "Baxt ovchisi" 1, 2 serialida asosiy qahramon sifatida birovlarning erini yo'ldan urib to'kin hayot kechirayotgan betayin ayol hikoyasi mavzu sifatida olingan. Achinarlisi, mazkur serialni katta audiyatoriya tomosha qildi va har kim voqealardan o'zicha xulosa oldi. Kimdur birovlar hayotini buzayotgan ayolni qoralasa, boshqachasi ayolga uddaburon sifatini berdi.

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xattiharakatlarni o'z ichiga oladi. Yuqorida nomlari keltirilgan seriallar va ularning qahramonlari obod, xulq me'yorlarini buzganlardir. Bunday beobodlarni 40, 50 qismli seriallarga qahramon sifatida tanlash naqadar to'g'ri ekanini o'ylab ko'rish lozim.

Shuningdek, kinoijodkorlar tomonidan ishlanayotgan yaxshi, tahlil uchun munosib, ko'rimli seriallar ham yo'q emas. Ular orasida "Sudya" ko'p qismli serialini misol tariqasida keltirish mumkin. Serial deyarli yosh

ijodkorlar jamoasi tomonidan suratga olingan. Ssenariy mualliflari kino sohasiga endigina qadam qo‘ygan yosh aka-uka Sardor hamda Bobur Hamroyevlar. Syujetga ko‘ra Sudya ayol va u bilan ish jarayonida sodir bo‘luvchi voqealar tizginidagi to‘qnashuvchi qiyinchiliklar va ularga Azizaning munosabatlari haqida hikoya qilinadi. Ssenariyga asos sifatida 17 ta fuqarolik ishlar olingan bo‘lib, ular meros, farzand bo‘lisholmay yuzaga kelgan mojarolardir. Postanovkachi rejissyor Dilmurod Masaidov filmni shiddatli dinamika bilan har bir epizodni turli intrigalarga boy tarzda suratga oldi.

“Sudya” o‘zbek ayolining davlat xizmatchisi sifatida xalq manfaatlari yo‘lida olib borayotgan kurashi, haqiqatparvarligini ko‘rsatuvchi ilk qadam edi. Film voqealari keskin, shiddatli va dramatik tarzda rivojlanib boradi. Zero, filmning janri ham drama. Unda Sudya asosiy qahramon sifatida voqealar leytmotivini boshqarib boradi. U har kuni ishga yo‘l olar ekan, to‘qnashuvchi masalalarni tomoshabin kutganidek hal etmaydi, echim biz kutgandek yakunlanmaydi. Rejissyor tomonidan to‘satdan qo‘shilgan intrigalar voqealar oqimini boshqa tomonga olib ketadi.

Avvalo filmning nomiga e’tibor qaratsak – “Sudya”. Filmda ushbu nomga yashara bosh qahramonning faolligi ta’minlangan. Sudya aktiv tarzda voqealar ishtirokchisi, munosabat bildiruvchisi va kuzatuvchisiga aylangan.

Filmdagi qator tasviriy yechimlar yo‘l manzaralarini tasvirlab, ularga ham ramziy ma’no yuklangan. Aziza bilan, usiz tasvirlanuvchi yo‘lga umr, vaqt ma’nolari yuklangan. Serialda Shodiya Abduqodirova tomonidan Sudya ayolning xarakteri temperament bilan ochib berilgan. Aktrisa Sudyaning ruhiy olami, ichki yevrilishlari, og‘riqlari, iztiroblari, oddiy o‘zbek ayoliga xos kechinmalarini tomoshabinga misqollab ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Shodiya Abduqodirova tomonidan qahramonining bir-ikki xotiralarining berilishi orqali asosiy syujetga qistirma, ya’ni fleshmob tarzida keltirilgan. Rejissyor mana shu usulni yanada rivojlantirib, qahramon xarakterini yanada to‘laqonli ochib berishi mumkin edi. Bu esa filmning muvaffaqiyatini orttirgan bo‘lardi.

Ssenariy mualliflari ham ancha mehnat qilgani, sud jarayonlari bilan bog‘liq voqealarni detallari bilan o‘rgangani, tanlangan personajlarning sajiyasini ishlashda uzoq izlangani sezilib turibdi. Shunga qaramay ish bor joyda kamchilik ham sezilganidek, yosh ijodkorlarga yana biroz tajriba yetmagandek... Bu nafaqat rejissyorga adabiy asosda etmay qolgan voqealar, topilmalar bilan bog‘liq...

Filmning yana bir yutuqlaridan unga tanlangan musiqa hamda aktyorlar jamoasidir. Dastavval aktyor jamoasi haqida... Dilmurod Masaidovning teatr aktyorlariga murojaati juda to‘g‘ri va asosli bo‘lgan. Zero, teatr aktyorlari doimiy ijodiy formada bo‘ladi va rejissyor bundan o‘z o‘rnida foydalana olgan. Xususan, O‘zbekiston xalq artisti Erkin Komilov, Muhabbat Abdullayeva, Shodiya Abduqodirova, Bobur Yo‘ldoshevlar ijro etdi.

“Sudya” bugungi o‘zbek seriallari tarixidagi munosib qadam bo‘ldi, deb o‘ylaymiz. Zero, “Sudya” mustaqillik yillarida suratga olingan va olinayotgan qator biryoqlama seriallardan keskin farqlanishi quvonarlidir.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha. Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Balash B. Кино. Становление и сущность нового искусства. – M.: Progress, 1968. – b. 3.*

*2. Abulqosimova X. Kino san`ati asoslari. Toshkent: Ozbekisyon Milliy Ensiklopediyasi, 2009. – 31 bet.*

## MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIKNI SAQLASH BORASIDA O‘ZBEKISTON SIYOSATI IJTIMOIY AXLOQNI SHAKLLANTIRISHNING MEZONI SIFATIDA

**Ulug‘bek SAIDOV**
*Falsafa fanlari nomzodi, ANIQUE WORLD (Yunesko-Gresiya) professori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada hozirgi globallashuv jarayonlarida yuzaga kelayotgan tahdidlar, O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni va diniy bag‘rikenglik bo‘yicha olib borilayotgan siyosat, mamlakatda barqarorlikni saqlashdagi millatlararo va konfessiyalararo totuvlik muhitini saqlashning ahamiyati va bu borada Yangi O‘zbekiston strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar****: globallashuv, siyosat, milliy siyosat, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, YuNESKO, Yangi O‘zbekiston strategiyasi.*

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davrida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samarasi, avvalambor, mamlakatdagi barqarorlik bilan belgilanadi. 130dan ortiq millat va elat, 16ta konfessiyaga mansub din vakillari yashaydigan O‘zbekistonda mazkur barqarorlik ko‘p jihatdan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini saqlashga bog‘liq. Qolaversa, sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlarning oqibatlaridan biri o‘laroq xalqlarning madaniy o‘ziga xosligi va madaniyatlararo muloqot

muammolariga bo‘lgan qiziqish o‘sib bormoqda. Bunga sabab – yaqin-yaqingacha ijtimoiy munosabatlarni belgilab kelgan qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar. Agar avval jamiyat hayoti ijtimoiy o‘xshashlik bilan bog‘liq qadriyatlar tizimi bilan belgilangan bo‘lsa, endi mazkur tizimning yo‘qolishi natijasida ko‘plab bazaviy qadriyatlar milliy-etnik munosabatlar sathiga ko‘chdi. Natijada so‘ngi vaqtlarda ko‘pgina xalq va etnik guruhlar o‘ziga xosligini o‘z madaniyati asosida belgilashga intilmoqdaki, jahon ijtimoiy-siyosiy hayotida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini ochish uchun global o‘zgarishlarni hamda zamonaviy madaniyat sohasidagi jarayonlarni ilmiy tahlil qilishga da’vat etadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev milliy taraqqiyotimizning istiqbollari haqida fikr yuritar ekan, jahondagi murakkab vaziyatga e’tiborni qaratib shunday dedi: “Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda”[1. 305-b.]

Bugungi kundagi globallashuv sharoitida, yuzaga kelayotgan yangidan yangi muammo va tahdidlar qarshisida xalqlar o‘rtasidagi dialog har qachongidan ham zarur bo‘lmoqda. Yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi globallashuv jarayonlarining tobora faollashuviga olib kelmoqda. Buning natijalaridan biri shu bo‘lmoqdaki, turli madaniyat vakillari o‘tasida fikr va g‘oyalar almashinmoqda, bu ularni bir-birlarini yaxshiroq bilishlariga olib kelmoqda, o‘zgacha yashash va fikrlash tarzlari bilan yaqindan tanisha boshlamoqdalar.

Shu bilan birga so‘ngi davrlarda dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar uning insoniyat sivilizatsiyasi uchun xavfli tendensiyalarini ham ayon etmoqdaki, globallashuv ochiqlik, bag‘rikenglik emas, o‘ziga o‘xshamaganlarni, o‘zga madaniyat, o‘zgacha qadriyat egalarini tushunmaslik, inkor etish kayfiyatiga tayangan milliy-madaniy mahdudlikni yuzaga keltirishi, xususan, turli xalqlarning milliy o‘zligini anglashidagi muhim omilni tashkil etgan din o‘zga e’tiqod egalarini tushunmaslik, ijtimoiy ixtilof va to‘qnashuvlar manbaiga aylanmoqda. Xalqaro munosabatlar tizimida millatlararo munosabatlar ayniqsa murakkab xarakter kasb etmoqda. Bu kontekstda vujudga kelayotgan ziddiyat va to‘qnashuvlar ko‘plab mamlakatlarning hududiy yaxlitligiga xavf solishi bilan bir qatorda, davlatlararo o‘tkir ziddiyatlarning vujudga kelishiga zamin hozirlamoqda. Yaqin Sharqda, Hindistonda, Arab mamlakatlarida, Isroilda va yana bir qator xududlarda sodir bo‘layotgan voqealar buning yorqin dalilidir.

Shuning uchun globalashuv sharoitida madaniyatlararo va dinlararo muloqotni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, hozirgi zamon madaniy siyosatning innovatsion strategiyalarini ishlab chiqish insoniyat tamaddunining hayot-mamot masalalaridan biriga aylangan.

Kelajakda madaniyatlararo va dinlararo muloqot modeli qanday bo‘lmog‘i kerakligi haqida yagona qarash, yagona g‘oya yo‘q. Ammo shuni

ishonch bilan aytish mumkinki, ayrim hudud, davlat va siyosiy kuchlarning ma'lum bo'lgan maqsad-muddaolariga erishish yo'lidagi rang-barang madaniyatlarni bir qolipga solishga bo'lgan intilishlariga qaramay, madaniy rang-barangliksiz kelajak yo'q. Ayni shu g'oya YuNESKO tashkilotining bir qator xujjatlari, jumladan, 2001-yil 2-noyabrda e'lon qilgan "YuNESKOning madaniy turli-tumanlik to'g'risidagi umumjahon dekloratsiyasi"ning [5] asosiy o'zak g'oyasini tashkil etadi.

Madaniyat tushunchasi "milliy-umuminsoniy", "an'anaviy-zamonaviy" juftliklari bilan chambaras bog'liqlikda idrok etiladi. Madaniy rang-barang-lik masalasi ayni shu juftliklar doirasida yondashuvni toqazo etadi. Bunday yondashuvning vujudga kelishi insoniyat taraqqiyotining turli jabhalari bilan bog'liq bir qator ijtimoiy, madaniy-tarixiy jarayonlar bilan bog'liq. Zero, jamiyat taraqqiyotining qaysi jabhasini olmang, bu ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-demografik soha bo'ladimi, bundan qat'iy nazar, barchasida milliy-madaniy unsur doimo ishtirok etadi (ularning tarkibiy qismini tashkil etadi). Boz ustiga, umuman tarix saboqlari, tarixiy tajriba bevosita va to'g'ridan-to'g'ri milliylik, umuminsoniylik o'rtasidagi aloqa va nisbat masalasi bilan bog'lanadi. Bugungi tamaddun taraqqiyotida ana shu juftlik o'ziga xos ziddiyat ifodasiga aylanmoqda. Taniqli siyosatshunos Arxun Appadurai so'zlari bilan aytganda: "Bugungi kundagi global munosabatlarning asosiy muammosi, – deb yozadi u, – madaniy gomogenizatsiya bilan madaniy geterogenizatsiya o'rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvidir" [6. 251]

Shuning uchun ham so'nggi paytlarda ko'plab siyosatchi va mutaxassislar bu masalaga alohida e'tibor qaratib, xalqlar, etnoslarning o'ziga xosligi va ularning milliy hamda etnik madaniyatlarini e'zozlash, saqlash va rivojlantirish haqida gapirar ekan, bu masalaga yuzaki qarash millatlararo, madaniyatlararo, dinlararo munosabatlarning o'ta keskin tus olishi, ixtiloflarni yuzaga keltirishi mumkinligidan ogoh etishmoqda.

Umumtamadduniy globallashuvning madaniyat sohasidagi ko'rinish va natijalari ham ko'pgina olimlarning diqqat markazida bo'lmoqda. Rus olimi V.M.Dianova hozirgi dunyoning xarakterli belgilaridan biri sifatida "nafaqat madaniyatlar o'rtasidagi faol dialog, balki diffuziya, konvergensiya, yaqinlashuv, assimilyatsiya, ijodiy o'zaro ta'sir va h.k. tushunchalar orqali ifodalash mumkin bo'lgan madaniyatlarning o'zaro bir-biriga kirishishi, singishi" [8. 93-s.] ni tilga oladi. Qolaversa, har qanday milliy madaniyat o'zga millat madaniyat bilan o'zaro aloqa va ta'sir asnosida faol rivojlanishi, taraqqiy etishi mumkin. Ammo bugungi kunda milliy madaniyatlardagi o'zgarish va jarayonlar texnologik inqilob, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotdagi globallashuv jarayonlari ta'sirida kechmoqdaki, shu jihatdan globallashuv aslini olganda, xalqlarni izchillik bilan mahalliy manfaat, milliy an'ana, qadriyat va axloqiy me'yorlardan uzoqlashtirish maqsadiga xizmat qilmoqda.

Bu bilan globallashuv milliy madaniyatlarning o'ziga xosligi yo'qolishi,

kam sonli xalqlarning o‘z tilini unutishi, hattoki, yo‘qolib ketishi holatlarini yuzaga keltiradi. Bir paytning o‘zida madaniyat libosini kiygan, aslida manqurtlik kasalligi ko‘rinishlaridan biri – “ommaviy madaniyat” umumjahon madaniyatiga aylanmoqda. Hozirgi kunda “madaniyat iqtisodiyoti”, “madaniyat industriyasi” kabi tushunchalar tez-tez qo‘llanmoqda.

Madaniyat ramzlari va madaniy axborotni ommaviy ishlab chiqarish “global madaniyat”ning shakllanishiga olib keladi. O‘z-o‘zidan ayonki, kuchli davlatlar o‘z hayotiy, avvalo, madaniy ramzlarini himoya qilish uchun barcha vositalarni ishga soladi, masalan, o‘z “yashash tarzlari” va madaniyatlarini boshqa hududlarga yoyish kabi. Boshqacha aytganda, madaniy ramzlar intervensiyasi orqali dunyoni o‘z ta’siri ostiga olishga harakat qiladi.

O‘z navbatida, madaniy unifikatsiyalash, madaniy rang-baranglikni inkor etishga bo‘lgan harakatlar madaniy identifikatsiyalash, ya’ni madaniy o‘ziga xoslikni saqlab qolishga intilishni yuzaga keltirmoqda.

Hozir xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning qator olim, mutaxassis, siyosatchilari tomonidan bildirilgan va so‘nggi davr tahdidlarini bartaraf etishga qaratilgan bir necha global g‘oyalar ilgari surilgan.

Shulardan biri – YUNESKO ilgari surgan tinchlik va demokratiya madaniyati g‘oyasi. Uning asosiy maqsadi – jahon hamjamiyatida siyosiy muammolarni kuch va harbiy usullarni ishlatmasdan hal etishning yangi usullarini ishlab chiqish. [5]

Dastlabki xulosa sifatida aytish lozimki, madaniyat faqat milliy shakl va mazmunda bo‘lishi mumkin, ammo muayyan darajada obyektiv tarixiy-ijtimoiy jarayonlar ta’sirida global madaniyatning shakllanib borayotganini ham inkor etib bo‘lmaydi. Madaniy globallashuv jarayonlarining ijobiy jihatlari ham mavjud. Xususan, turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy almashinuvning faollashishi, o‘zaro madaniy aloqalarning xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va hamkorlikning o‘sishi, madaniyatlar sintezi va h.k. Ammo global madaniyatning qaysi mezon va qoliplar asosida shakllanayotgani, ayrim unsurlarining milliy manfaatlarga doim ham javob bermasligini hamda jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqaruvchi omilga aylanishi mumkinligini ham unutmaslik lozim.

Globallashuv jarayoni bugungi kunda inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oldi. Uni xalqlar, mamlakatlar va hududlarni qamragan umumtamadduniy oqim deb atash mumkin. Bu oqimga ular o‘z betakror madaniyati, an’analari, tarixiy tajribasi, dunyoqarashi bilan kirib kelmoqda. Bu rang-baranglik asosidagi yaxlitlik insoniyat dunyosining boyligini ifodalaydi va murakkab, doimiy harakatda bo‘lgan tizim sifatida uning yashovchanligini belgilaydi. Alohida ta’kidlash joizki, jahonda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning keng ko‘lami qadriyatlar tizimida o‘z ifodasini topgani yo‘q, shuning uchun globallashuv ko‘plab ixtilof va ziddiyatlarga sabab bo‘lmoqda. Garchi dunyo hamjamiyati, BMT, YuNESKO kabi o‘nlab

xalqaro tashkilotlar tomonidan bu ziddiyatlarning oldini olish yoki hal etish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, lekin dunyoda barqarorlik ta’minlanmayapti. Xususan, bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivoji insoniyat taraqqiyotiga ulkan ta’sir etayotgan yangi hodisalarni maydonga keltirdi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlar tashqarisida taraqqiyotning to‘xtashi; rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy, moliyaviy va madaniy-ma’naviy inqirozi, rivojlangan davlatlar va boshqa davlatlar o‘rtasida ixtilofning kuchayishi hamda etnik, madaniy guruhlar o‘rtasidagi to‘qnashuvning avj olishi.

Albatta, jahon hamjamiyati xavfli oqibatlarning oldini olish, bartaraf etishga harakat qiladi. Buning uchun rahbarlar mazkur tendensiyalarni hisobga olishi, o‘z darajasi faoliyati doirasida ularning oldini olishga harakat qilishi lozim. Bugungi sharoitda, odamlarda, avvalambor yoshlarda madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish mamlakat va jahondagi barqarorlikni ta’minlashning eng asosiy shartlaridan bir bo‘lib qolmoqda. Millatlarning yakdilligi, xalqning bir yoqadan bosh chiqarishi, jamiyatning jipsligi milliy taraqqiyot va global tahdidlarga dosh berishning asosiy omili vazifasini o‘tashi mumkin. Bu jipslik va yakdillikning asosiy sharti esa, birinchidan, jamiyat madaniy-ma’naviy poydevorining mustahkamligidir. Shuning uchun jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish va mustahkamlash vazifasi ustuvor o‘rin egallashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, hozirgi dunyo globallashuv jarayonlari ta’sirida borgan sayin yaxlit, yagona xususiyat kasb etayotgan, odamlar migratsiyasi ko‘lami va sur’atlarioshib borayotgan bir sharoitda turli madaniyatlar o‘rtasidagi totuvlikni ta’minlash,barcha ko‘rinishlardagi murosasizlikni tartaraf etish, bag‘rikenglik g‘oyalari va qadriyatlarini ommalashtirish davlat va jamiyatlarning eng muhim vazifalari qatoridan o‘rin olmog‘i lozim. YUNESKO Bosh Konferensiyasining 1995-yili e’lon qilingan “Bag‘rikenglik tamoyillari dekloratsiyasi”da qayd etilganidek, “Bag‘rikenglik bo‘lmasa, tinchlik bo‘lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo‘lmaydi” [5] . Ko‘pqutbli dunyo qadriyatlarining mavjudligi jamiyatning tinimsiz takomillashib borishi, taraqqiyoti garovidir. Bu qadriyatlar tizimida esa bag‘rikenglik bilan bog‘liq qadriyatlar alohida o‘rin tutadi.

Madaniyatlararo muloqot – chegaralarini belgilash qiyin bo‘lgan va kompleks yondoshuvni talab etadigan muammodir. Boz ustiga, hozirgi davrdagi hayotda tez sur’atlar bilan kechayotgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda bu muammoning yangidan yangi qirralari namoyon bo‘lmoqda. Shunday ekan, uni hal etish uchun keng miqyosli, turli daraja va yo‘nalishlardagi ishlarni amalga oshirish va doimiy e’tibor talab etiladi.

Madaniyat sohasidagi so‘nggi yutuqlardan biri – 2019 yil noyabr oyida O‘zbekiston 2005-yilgi “Madaniy ifodalarning xilma -xilligini himoya qilish va targ‘ib qilish to‘g‘risida” konvensiyani ratifikatsiya qilishi bo‘ldi.

Aytish lozimki, O‘zbekistonda millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati izchil davom etmoqda. Bu borada O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida bir qator vazifalarni belgilab berdi. Xususan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, dini, e’tiqodidan qat’iy nazar, qonun oldidagi tengligini ta’minlashga qaratilgan ishlarni tizimli va izchillik bilan davom ettirish, millatlarar munosabatlar sohasida tizimli asosda ilmiy-ijtimoiy tadqiqotlar olib borish va h.k.

Xususan, madaniy rang-baranglikni targ‘ib etish va madaniyatlararo muloqot ko‘nimalarini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Shu o‘rinda qayd etish lozimki, aksariyat rivojlangan malakatlarda ta’lim dasturlariga “Madaniyatlararo muloqot” fani kiritilgan. Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya tizimida milliy-madaniy bag‘rikenglik ta’limini yanada chuqurlashtirish butun dunyodagi, xususan, O‘zbekistondagi barqarorlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir. Boshlang‘ich ta’limdan to oliy talimgacha bo‘lgan butun ta’lim tizimini o‘zga xalqlar, madaniyatlar, dinlarni o‘zganish va tushunishga yanada ko‘proq yo‘naltirish davr talabi bo‘lmoqda. Buning uchun esa maxsus ta’lim dasturlarini yaratish va ta’lim tizimiga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda unutmaslik lozimki, madaniyatlararo muloqot tafakkuri odamlarning ma’naviy salohiyati darajasiga bog‘liq.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Ўзбекистон Республикаси конституцияси. Т.: O‘zbekiston, 2019.*

*2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: O‘zbekiston, 2021.-464 б.*

*3. Многоликая глобализация. / Под. Ред. П.Бергера и С.Хантингтона. М.: Аспект Пресс, 2004. 371 с.*

*4. Ильинский И.М. Глобализация – фундаментальный вызов системе образования// Глобализация: проблемы международного сотрудничества и решение общечеловеческих задач. – Саратов, 2005. С. 58*

*5. ЮНЕСКО халқаро меъёрий хужжатлари. Т.:Адолат, 2004.*

*6. Appadurai A. Dsjuncture and difference in the global cultural economy.//Robertson R. White K.E. (Ed.) Globalisation.Critical concept in socilogi.Volume 1, London, 2003,*

*7. Бек. У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма – ответы на глобализацию. – М.: Прогресс-Традиция, 2001. С. 42.*

*8. Дианова В.М. Культурный плюрализм в условиях глобализации // Россия и Грузия: диалог и родство культур. Сборник материалов симпозиума. Вып. №1. – СПб, Санкт-Петербургское философское общество, 2003. С. 93.*

*9. Саидов У. Жамият маданий-маънавуий ҳаётига таъсир қилувчи омиллар ва барқарор тараққиёт. Т.:Akademiya, 2014. 186 б.*

*10. Ильинский И.М. Глобализация – фундаментальный вызов системе образования // Глобализация: проблемы международного сотрудничества и решение общечеловеческих задач. – Саратов, 2005. С. 58.*

*11. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. М.: Изд-во ВШЭ, 2000. С. 502-503.*

## YOSHLAR ONGIDA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA MILLIY ETNOGRAFIYA MUZEYINI TASHKIL ETISHNING ROLI

**Gulra'no ORIFJONOVA,**
*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 2-bosqich doktoranti (DSc), tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

***Annotatsiya****Mazkur maqolada yoshlar ongida milliy qadriyatlarni singdirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi etnografik muzeylarni ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston uchun butun dunyoda analogi bo'lmagan etnografiya muzeyi konsepsiyasi ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *muzey, muzey binosi, muzeyshunoslik, ekspozitsiya, interyer, eksteryer, muzey dizayni, innovatsion loyiha, etnografiya, etnografik muzey.*

Hozirgi kunga kelib butun jahon muzeylari oldida "XXI asr muzeyi qanday bo'lishi va tashrifchilarni qanday jalb qilishi kerak", – degan muammoli masala ko'ndalang turibdi. Muzey ashyolarini endilikda nafaqat moddiy jihatdan namoyish etish, balki ularni zamonaviy texnika yordamida turli uslublarda targ'ib etish imkoni tug'ildi. Hozirgi vaqtda muzey ishida zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati juda yuqori bo'lib bormoqda [1].

Bugungi kunda zamonaviy muzeyshunoslik oldida qator o'z yechimini topishi lozim bo'lgan masalalar ham mavjud. Hozirgi globallashuv sharoitida madaniy merosni saqlash muhim vazifalardan biriga aylanib borishi ham jahondagi har bir xalqning o'z tarixi va madaniyatini chuqurroq anglab yetayotganligidan darak beradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda Milliy maqomga ega bo'lgan Etnografiya muzeyini tashkil etish zamonaviy muzeyshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. O'zbekiston muzeylari fondining eng boy bo'limlaridan biri bu etnografiya bo'limlari hisoblanadi. Deyarli har bir muzeyda etnografiya bo'limi mavjud bo'lib, o'zida noyob va ko'p sonli ashyolarni saqlaydi. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarda etnografiyaga bag'ishlangan muzeylar mavjud. O'zbekistonda

ham Milliy maqomga ega Etnografiya muzeyining tashkil etilishi borasida ko‘plab mazkur soha mutaxassislari o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tganlar. Zamonaviy muzeyshunoslik va jahon muzeylari tajribalaridan kelib chiqqan holda Etnografiya muzeyini quyidagi tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Avvalambor, muzey uch katta bo‘limni o‘z ichiga olishi lozim:

1. Qadimgi davrlardan to bugungi kunga qadar O‘zbekiston hududida yashagan ajdodlarimiz turmush tarzi, uy-ro‘zg‘or buyumlarini, kiyim-kechak va taqinchoqlarini, marosim urf-odatlari va madaniyatini o‘zida jamlagan ekspozitsiyaga ega xronologik tarzdagi, davrlashtirilgan tarixiy bo‘limni tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur bo‘limda zamonaviy texnologiyalar yutuqlaridan foydalangan holda etnografiyaga oid ilmiy tadqiqotlardan kelib chiqib olimlar tomonidan tiklangan qadimgi xalqlarning qo‘shiqlari, turmush tarzi, marosimlari video tarzida namoyish etilishi ekspozitsiyaning ahamiyatini yanada oshiradi. Bu kabi ko‘rgazmalarga yangicha yondoshuv jahonning boshqa muzeylari amaliyotida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Fikrimizga dalil sifatida Leyden Etnologiya muzeyidagi qadimgi qabilalar va shamanlarning buyumlari, qabilaning marosim raqslari va qo‘shiqlari jonli tarzda video orqali namoyish etilishini keltirib o‘tsak bo‘ladi [2].

Muzeyning ikkinchi bo‘limi O‘zbekiston hududlari aholisining madaniyati, urf-odatlarini o‘ziga xosligiga bag‘ishlangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Asrlar davomida har bir hudud, voha va qishloqlarda o‘ziga xos bo‘lgan va faqat shu hudud va uning aholisigagina xos bo‘lgan madaniyat, san’at, urf-odat, turmush tarzi shakllangan. Bu biror bir hududda istiqomat qiluvchi aholining milliy kiyimlari, soch turmaklari, to‘y marosimlari, bezaklari bilan boshqa joylardan yaqqol ajralib turadi, san’atning biror bir turi aynan shu maskanda o‘zining yuqori darajasiga ko‘tarilgani bilan namoyon bo‘ladi. Masalan, Samarqand nonini faqat shu yerdagina tayyorlash imkoniyati borligi, Toshkent-Farg‘ona, Samarqand-Buxoro, Qashqadaryo-Surhondaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston milliy liboslari, raqslari, kuy va qo‘shiqlaridagi o‘ziga xos va farqli jihatlarni keng ommaga namoyish etish aynan mana shu bo‘limning vazifasi sifatida belgilanishi lozim.

Bundan tashqari Milliy Etnografiya muzeyi xalqimizning asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an’ana va milliy qadriyatlarini ham ko‘rgazma tarzida namoyish etishi darkor. Muzeyning bu kabi vazifasini mavzuli ekspozitsiya doirasida muvafaqqiyatli tarzda amalga oshirish mumkin. Jumladan, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan qadimiy, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va xalqimiz hamon undan yosh avlodni voyaga yetkazishda foydalanib kelayotgan jihoz – bu beshik sanaladi. Har bir o‘zbek xonadonida, albatta, beshikni uchratish mumkin. Beshik har bir hudud hunarmandlari tomonidan o‘ziga xos tarzda tayyor-

lanib, san’at asari darajasida bezatiladi. Mazkur muzeyda mavzuli ekspozitsiya doirasida beshikka bag‘ishlangan ko‘rgazma tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rgazmada beshikni paydo bo‘lish tarixi haqida batafsil ma’lumotlar, tarixiy manbalar asosida keltirib o‘tilishi lozim. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida beshikka berilgan batafsil ta’rifdan shuni ko‘rish mumkinki, beshik turkiy xalqlar tarixida ancha yillardan beri mavjud hamda muhim ahamiyatga ega buyum bo‘lgan. Beshik nafaqat yasalishi jihatidan, balki uning matolar yordamida bezatilishi bilan ham san’at asari darajasida yondoshilgan. Yozda o‘ziga xos matolardan, qishda esa iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda beshik anjomlari tayyorlanadi. Har bir hudud beshiklari o‘ziga xosligi bilan bir-biridan yaqqol ajralib turgan. Mazkur ko‘rgazma doirasida texnika imkoniyatlaridan foydalangan holda “Alla” qo‘shig‘i sadolari ham o‘rin olishi lozim. Maxsus lingofon jihozlari orqali tomoshabin o‘ziga xos “Alla” qo‘shiqlari namunalaridan ham bahramand bo‘lishi kerak. Mavzuli ko‘rgazma doirasida birgina beshik jihozi orqali xalqimizning turmush tarzi, mingyilliklar bilan o‘lchanadigan madaniyati, an’analarini ko‘rsatib berish zamonaviy Etnografiya muzeyi oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi.

Mavzuli ekspozitsiya haqida so‘z borar ekan, o‘zbek milliy taomi hisoblangan nonga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar tashkil etish lozim. Yurtimizda non tayyorlashga san’at asari darajasida yondoshiladi. Har bir hududda non tayyorlash jarayoni o‘ziga xosdir. Nonning bezatilishi va ta’mi ham tayyorlangan joyidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Birgina Toshkent shahri misolida oladigan bo‘lsak, bu yerda nonning o‘ndan ortiq turlari mavjud. Samarqand nonining esa boshqa yerda tayyorlab bo‘lmasligi uning o‘ziga xosligi, iqlim sharoitlariga bog‘liqligi bilan izohlanadi. Milliy Etnografiya muzeyi ekspozitsiyasi doirasida O‘zbekiston nonlarini o‘zida ifodalagan ko‘rgazmaning o‘rin olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Muzeyning uchinchi bo‘limi O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillarining etnografiyasini o‘zida aks ettirmog‘i darkor. Bu bo‘lim bevosita O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diasporlarning milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikda o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi lozim. 130 dan ortiq millat va elatlarning madaniyati, san’ati, turmush tarzidagi o‘ziga xosliklarni ko‘rsatib berish, milliy bayramlardan olingan lavhalar, suratlar, videolar orqali ekspozitsiya yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Muzeyda ushbu bo‘limning tashkil etilishi Etnografiya muzeyining jahonning boshqa etnografiya muzeylaridan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyati bo‘lib xizmat qilsa ajab emas. Bundan tashqari bu bo‘lim 130 dan ortiq millat va elatlarning madaniyati, san’ati, urf-odatlari bilan keng ommani tanishtiribgina qolmay, millatlar o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro hurmat tuyg‘ularini yanada kuchaytirishga xizmat qilib, muzeylarning tarbiyaviy funksiyasining ahamiyatini oshiradi.

XXI asr muzeylar uchun innovatsiyalar asri deb e'tirof etilgan. So'nggi yillar mobaynida muzeyshunoslar tomonidan ommaviy auditoriyani jalb etishdagi ko'plab dolzarb masalalar ko'rib chiqilmoqda. Shunday masalalardan biri imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan muzeylarda zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, ularni muzeylarga jalb qilish masalasidir. Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mo'ljallangan ko'rgazmalar tashkil etish, muzey ekspozitsiyasini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ularga moslashtirish va eksponatlar bilan yaqindan tanishish uchush zarur chora-tadbirlarni qo'llash joiz. Milliy Etnografiya muzeyini tashkil etish jarayonida muzey binosini loyihalashtirish va ekspozitsiyani shakllantirishda bu masala ham nazardan chetda qolmasligi lozim. Bu o'rinda jahon muzeylari tajribalariga murojaat etish, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mo'ljallangan maxsus muzeylarning dasturlari bilan tanishish hamda yangi innovatsion loyihalarni qo'llay bilish darkor.

Muzeylar keng omma uchun mo'ljallangan bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, muzey binosi ham muzey talablaridan, uning auditoriyasidan kelib chiqqan holda barpo etilishi lozim. Me'morlardan muzey binosini loyihalashda muzey ishini mukammal bilish talab qilinadi. Muzey faoliyatidan kelib chiqqan holda bu muzeyda saqlanadigan eksponatlarning turlarini hisobga olib muzey fondlarini loyihalash maqsadga muvofiqdir. Etnografiya muzeyida asosan xalq turmush tarzi bilan bog'liq ashyolar o'rin oladi. Eksponatlarga yorug'likni me'yorida tushishi, tashqi ta'sirlarning o'rnini ham hisobga olish joiz. Milliy maqomga ega Etnografiya muzeyida milliy, an'anaviy va zamonaviy me'morchilik uslublarini uyg'unlashtirgan holda muzey dizaynini yaratish lozim.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, moddiy va ma'naviy merosni saqlashda bugungi kundagi muzeylarning o'rni beqiyos bo'lib, ular o'zining bugungi faoliyati bilan avvalgi muzeylardan tubdan farq qiladi. Zamonaviy muzeylar madaniy merosni yangi qirralarini ochar ekan, millatlararo do'stlik va bag'rikenglik printsipiga alohida e'tibor bermog'i lozim. Chunki bu sa'y-harakatlar etnomadaniy kelishmovchiliklarni oldini olish va boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan hurmat hislarini uyg'otishda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy madaniy merosni saqlash, uni avlodlarga yetkazishda, shuningdek, milliy istiqlol g'oyalarini qaror toptirish hamda yoshlarimizni vatanparvarlik, tarixiy-madaniy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashda muzeylarning o'rnini alohida e'tirof etish joiz.

Bu o'rinda muzeylarning o'rni katta bo'lib, yurtimizda Milliy Etnografiya muzeyining tashkil etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari, an'ana, moddiy va ma'naviy merosini o'zida ifodalovchi Milliy maqomga ega Etnografiya muzeyini tashkil etish o'zbek muzeyshunosligi rivojida muhim hodisadir. Mazkur muzey jahonga O'zbekiston madaniyati va san'ati, bu yerda istiqomat qilayotgan

millatlar va elatlarning turmush tarzi, qadriyatlari va an'analarini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos muzeylardan biri bo'lishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

*1. Исмаилова Ж.Х. Мухамедова М.С. Замонавий жаҳон музейшунослиги. Ўқув қўлланма.Тошкент,-2013. Б. 4.*

*2. Қаюмова Ш. Музейлар ва замонавий технологиялар // Мозийдан садо. 2013. № 1 (57). – Б. 10.*

## QADRIYATLARNING PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA AKS ETISHI

**Umida KABULOVA**,
*filologiya fanlari nomzodi.*
*Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti*

***Annotatsiya:*** *Zamonlarning baland-past dovonlaridan o'tgan sari qadriyatlar insonlarni tinchlik-totuvlikka, mehr-oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorlaydigan katta ma'naviy kuchga aylana borgan. Bunday qadriyatlar millatning kundalik hayotida, madaniyati va ma'naviyatida, ongu shuurida, o'zaro madaniy muloqotida, boshqalarga bo'lgan munosabatida, qisqasi, har bir tashlagan qadamida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham mutafakkirlar qadriyatlar millat ma'naviyatining ko'zgusi deyishgan. Mazkur maqola ana shunga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:*** *paremiya, paremiologiya, ibora, qo'lyozma, aforizm, integral belgi, turg'un birikma, paradigma.*

Zamonlarning baland-past dovonlaridan o'tgan sari qadriyatlar insonlarni tinchlik-totuvlikka, mehr-oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorlaydigan katta ma'naviy kuchga aylana borgan. Bunday qadriyatlar millatning kundalik hayotida, madaniyati va ma'naviyatida, ongu shuurida, o'zaro madaniy muloqotida, boshqalarga bo'lgan munosabatida, qisqasi, har bir tashlagan qadamida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham mutafakkirlar qadriyatlar millat ma'naviyatining ko'zgusi deyishgan[1].

Paremiologiya qadimdan olimlarda qiziqish uyg'otib kelgan. Aristotel maqol va matallarni (paremiya) birinchi bo'lib tasnif qilgan va sistemalashtirgan[1]. Paremiologiyaning fan sifatida shakllanishi o'tgan asrning boshiga to'g'ri keladi va birinchi navbatda, A.Taylor nomi bilan bog'liq bo'lib, maqollar, ezgu so'zlar, iboralar va taqqoslashlar haqida juda ko'p nazariy manbalar beradi[2].

Rus tilshunosligida “paremiologiya” atamasi qo‘llanmasdan avval turg‘un birikmalarni obrazli ifodalar sifatida o‘rganishga bo‘lgan qiziqish juda qadimdan boshlangan.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari sifatida maqol va matallar juda ko‘p rus olimlarini qiziqtirib kelgan. Bu haqda XII asrga tegishli bo‘lgan qo‘lyozma asarlardan ham bilish mumkin.

Germaniyada paremiyalarni ilmiy-nazariy o‘rganish I.M.Zayler, F.Xarsderffer, Yu.Shottelius, K.K.Nopichlar va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. K.K.Nopichning “Maqollar badiiyligi” (“Literatur der Sprichwsrter, 1822-y.) nomli asari 1820-yilgacha bo‘lgan nemis tilining paremiyalar bibliografiyasiga bag‘ishlangan.

XII-XIV asrlarda paremiologiya Fransiyada rivojlangan edi. Maqol va matallar faqat semantik jihatdan o‘rganilardi.

Barcha tillarning paremiologiyasi – bu xalqlarning milliy madaniyatini, urf-odatlarini, an’analarini va tarixini aks ettiruvchi bebaho lingvistik merosdir.

Paremiologiya qadimdan olimlarda qiziqish uyg‘otib kelgan. Aristotel maqol va matallarni (paremiya) birinchi bo‘lib tasnif qilgan va sistemalashtirgan[1].

Ko‘rinadiki, paremiologik lug‘at mualliflari paremiologik birliklar qatoriga maqollar, matallar, aforizmni qo‘shadilar. Demak, bu mualliflar maqol, matal va aforizmlarni ma’lum integral belgi asosida bir sinfga, bir paradigmaga birlashgan va ayni paytda, muayyan differensial belgilar asosida farqlanuvchi alohida-alohida birliklar sifatida e’tirof etadilar.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarida o‘nlab hikmatli so‘zlarni, Ahmad Yassaviy she’rlarida, Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul Haqoyiq” dostonlarida, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asarlarida maqol va matallarni eslatuvchi parchalarni uchratishimiz mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi vakillari maqollar va matallarni o‘rganuvchi sohani paremiologiya deb atashadi. Paremiya – *yunoncha chuqur ma’noli gap, hikmatli so‘z, ibora, maqol, matal* ma’nosini beradi.

Maqollarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Maqollarning hajmi qisqa va cheklangan.

Maqollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma’noni ifodalaydi.

Xalq maqollari shaklan she’riy va nasriy bo‘ladi. Ammo nasriy maqollar ham she’riy misralarni eslatadi. Masalan: *Ko‘za kunda emas, kunida sinadi.*

Maqollarda hayotiy voqea-hodisa haqida qat’iy hukm ifodalanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi.

Maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtai nazardan umumlashtiradi.

Maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi

Xalq maqollarining mazmun ko‘lami inson hayotining turli sohalarini



ZJV5401

qamraydi. Inson hayotidagi voqea-hodisalarning cheki yo‘q ekan, maqollar mazmuni chegarasini ham o‘lchab bo‘lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e’tiborga arzimaydigandek ko‘rinuvchi lavhadan tortib chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o‘z aksini topgan.

Agar *“Uyga palos yarashur, xotinga libos”* maqoli maishiy hayotga taalluqli bo‘lsa, *“Yozda miyang qiynasa, qishda qozoning qaynar”* maqolida vaqtni bekor o‘tkazmaslik, aql bilan ish ko‘rish insonga hayot imkonini yaratishi qayd etiladi, *“Vaqting ketdi – baxting ketdi”* maqolida esa falsafiy mazmun ifodalangan bo‘lib, inson taqdirida Vaqt tushunchasining qanchalar muhim ekanligi ta’kidlangan.

Maqollarga eng yaqin bo‘lgan paremiologik birlik *matal* sanaladi. Maqol va matal bir-biriga shu qadar yaqinki, ko‘p adabiyotlarda *maqol* va *matal* nomlari alohida-alohida tilga olinsa ham, lekin ular ko‘p hollarda o‘zaro farqlanmaydi. Ba’zi adabiyotlarda esa farqlovchi belgi sifatida turlicha belgilar hisobga olinadi.

Turg‘un birikmalar (paremalar) paradigmasida maqol bilan aforizmlar ham bir-biriga yaqin turadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da aforizmlarga “Chuqur ma’noli, qisqa, ixcham ibora, hikmatli so‘z” degan ta’rif berilsa, H.Berdiyorov, R.Rasulovlar esa “Umumlashtirilgan fikrni ifodalovchi, lo‘nda hikmatli iboralar” aforizm hisoblanishini ta’kidlab, ularning ikki turli: nutqiy va til aforizmlari bo‘lishini, ma’lum bir shaklga oid aforizmlar nutqiy, ommaviylashgan, umumxalq mulkiga aylangani esa til aforizmlari hisoblanishini bayon qiladilar”.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, shakl jihatdan hozirgi zamonaviy maqol va matallar, asosan, murakkab gaplardir. Demakki, ularning faol bo‘g‘ini murakkab gaplardan iboratdir. Zamonaviy maqollar uchun eng keng tarqalgan murakkab jumla turi – bu olmoshli bo‘lak bilan qurilishidir:

*(Erta turganga, xudo rizq beradi) – Kim erta turadi – bu maktab o‘quvchisi;. Izlaganga tole yor*. – Izlagan kishi nimanidir biladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri izohli ergash gapli murakkab jumlalar kamroq uchraydi: *Bugungi ishni ertaga qoldirmang* – Bu hayotda qilishni istamagan ishni ertaga qoldirishdan foyda yo‘q.

Anti-maqollar orasida birlashmagan murakkab jumlalar ham juda keng tarqalgan. *“So‘z – kumush, sukunat – oltin”* – So‘z – kumush, sukunat – Jinoyatlarni yashirish; *Shoshiling– odamlarni kuldirasiz* – Do‘konga shoshiling – odamlarga yuqtirasiz;

Solishtirish yoki qarama-qarshilik ma’nosi bilan: *Yetti o‘lchab, bir kes. – Yetti marta uxlang – bir marta ovqatlaning; Yetti marta iching, bir marta ovqatlaning; Yetti marta tashvish, bir marta vahima; Eshikni bir marta qulflang – yetti marta tekshiring.*

Xalq og‘zaki ijodi matni sintaktik tuzilishiga xos xususiyat bo‘lgan bu konstruksiyalar maqollarda me’yor, janr namunasi rolini o‘ynaydi, chunki

jonli xalq nutqida bo‘lgani kabi xalqning konstruktiv-kommunikativ hamkorligini aks ettiruvchi uyushmagan rishtalar ham mavjud[3].

Qo‘shma gaplar ko‘pincha qiyosiy qarama-qarshiliklarni ifodalaydi:
*Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir. – Ko‘zlar qo‘rqadi, qo‘llarga esa yoqadi;*
Biz birlashtiruvchi sema bilan quyidagi transformatsiyani uchratdik:
*Do‘sting kimligini ayt, men senga sening kimligingni aytaman –*
*Menga kimligimni ayt, men senga kimligingni aytaman.*

Oddiy jumlalardan iborat bo‘lgan bir qancha zamonaviy maqollar mavjud. Buning ajablanarli joyi yo‘q, chunki oddiy jumlalar bog‘lgan oddiy paremiyalar nutqda boshqa turdagi jumlalarga qaraganda, tez-tez ishlatiladi[4]. Ko‘pgina sodda jumlalar to‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan ikki qismli jumlalardir:[3]

*Qog‘oz hamma narsaga chidaydi. – Planshet hamma narsaga chidaydi*; *Ishqdan nafratga bir qadam – Muhabbatdan nafratga bir yo‘l; Haftada yetti juma – haftada etti kun dam olish.*

Bir qismli gaplar asosan ikki tur bilan ifodalanadi: aniq shaxs:
*Birovning ishiga burningni tiqma. – Pichog‘ingni birovga suqma;*
*Bir asr yasha, bir asr o‘rgan – Bir asr yasha, bir asr o‘rgan.*

K.S.Kryukova o‘zgartirilgan maqollarning virtual makon janrlarida tarqalishini tahlil qiladi. Matnlarda eng ko‘p uchraydigan axborot va kommunikativ janrlar, ya’ni shaxslararo muloqot xalq maqollarining turli xil o‘zgarishlari uchun eng samarali muhit ekanligini ta’kidlaydi[5].

Yu.V.Butko, N.N.Fedorova, M.A.Stashkova kabi tilshunoslar maqol va matallarning tarkibiy o‘zgarishlarini tasniflashga bir necha bor urinishgan. Shu bilan birga, asosiy transformatsiya usullari komponent tarkibini kengaytirish, komponent(lar)ni almashtirish, maqollar, matallar va belgilarni o‘zgartirish uchun xos ekanligini aytadilar[6].

G.I.Galeyeva va M.V.Kononenkolar ta’kidlaganidek, “Til – millatning ruhi, uning tarixiy xotirasi. Xalq boshidan kechirgan barcha narsalar ularning so‘zlarida, maqollarida, topishmoqlarida va ertaklarida o‘z ifodasini topadi”, – deydi ular. Bunday qadriyatlar, albatta, abadiydir. Biz ana shu jihatlarni afzal ko‘ramiz[7].

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagida mo‘ysafid ota o‘z o‘g‘illarini qo‘rqmas, jasur qilib o‘stiradi. O‘z farzandlarini baxt topish safariga otlantirar ekan, ularga uchta maslahat beradi: *“To‘g‘ri bo‘ling, bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo‘lmang, baxtsiz bo‘lmaysiz”.* Bu pand mohiyatini tahlil qilsak, hayotga tayyorlanishi lozim insonning haqiqiy amal qilishi kerak hisoblangan fazilatlar aks etganiga ishonch hosil qilamiz. Xalqimizda *“Och qornim, tinch qulog‘im”* degan maqol bor.

Maqolda odam ba’zan nochor turmush kechirishi mumkin, lekin bezovta kechgan soniyadan ko‘ra och qorin bilan yashash afzal ekani ko‘rsatilm-

oqda. Ota nasihatining birinchisi ana shu vaziyatni izohlaydi. Ya'ni tinchlikdan ulug' ne'mat yo'qligi qayd etilmoqda. Bu falsafaning aniqligini o'zingiz hayotda sinagan bo'lsangiz, ajab emas. Xalqimizda *"Maqtanma g'oz, hunaring oz"* maqoli ham bor. Yo'q va amalga oshmagan ishlar qancha maqtalgani bilan amalga oshib qolmaydi. Maqtangan odam yuzi shuvit bo'ladi. Xalqimiz *"Mehnat – mehnatning tagi rohat"*, deydi. Ya'ni: *"Qimirlagan qir oshar"* deganlaridek har bir kimsa hayotga ishonishi, harakat qilishni, kanda qilmasligi lozim.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**


*1. Аристотель. Поэтика. – Л.: 1927. – Стр. 39.*

*2. Taylor, Archer The Proverb / Archer Taylor. – Cambridge: Harvard University Press,1931. –P. 214*

*3. Васильева К.Н.Паремия-трансформация в интернет коммуникациях: структура, семантика, тематические группы.Дисс.канд.фил. наук. –М. 2022. – Стр. 120.*

*4. Глазкова С.Н. Спиеева А.В. Синтаксис русских пословиц // Современный учёный, 2020. – Стр. 234-240.*

*5. Крюкова К.С. Функционирование модифицированных пословиц в интернет-пространстве: Жанровый аспект // Вестник КГУ. 2017. –№ 2. –Стр. 130-132// https://elibrary.ru/item.asp?id=29303702.*

*6. Федорова Н.Н. Изменение русских сотрвременных пословиц: дисс. ... филол. наук. – Великий Новгород, 2007. – Стр. 20.*


## JAMIYAT TRANSFORMATSIYASIDA – MILLIY MENTALITETDA RATSIONALLIK VA IRRATSIONALLIK UYG'UNLIGI


**Tohir QURBONOV,**
*Qarshi davlat universiteti (f.f.n. dots.)*



***Аннотация:****Maqolada milliy mentalitet millatni muayyan tarzda faoliyatga undab turgan ma'naviy-ruhiy manba, uning xulq-atvori determinanti, muayyan etnik birlik vakillari uchun umumiy bo'lgan, uning tarixiy tajribasi asosida shakllangan perseptiv (millatning ijtimoiy tasavvurlari, kayfiyati, xulq-atvori uchun namuna vazifasini o'tayotgan normalar), kognitiv (millatning tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan tajribalari, o'zlashtirgan bilimlari, tarixiy xotirasi), motivatsion (millatning ehtiyoj va manfaatlari, qadriyatlar, ideallari va milliy g'oyasi) xususiyatlar yig'indisi sifatida tavsiflanadi. O'zbek milliy mentalitetida ratsionallik va irratsionallik elpementlari o'zaro uyg'unlashib ketgani turli misollar yordamida asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *milliy mentalitet, ratsionallik, irratsionallik, ijtimoiy tasavvurlar, ijtimoiy kayfiyat, milliy xulq-atvor normalari, milliy tajribalar, milliy ehtiyojlar, milliy qadriyat va ideallar.*

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy zaminlari bunyod qi-linmoqda. “Biz, – deb yozadi davlat rahbari,– o‘z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo‘ydik”[1]. Ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun nafaqat jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy salohiyatdan oqilona foydalanish taqozo qilinadi, balki millatning ijtimoiy tasavvurlarini, kayfiyatini, tarixiy tajribalarini, ehtiyoj va manfaatlarini, qadriyat va ideallarini ham inobatga olish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, yuqoridagi xususiyatlarni o‘zida mujassam qilgan milliy mentalitetni o‘rganish muammosi ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb qilmoqda. Chunki aynan mentalitet millat vakillarining tarixiy xulq-atvori va faoliyatini shakllantiruvchi, uni yo‘naltiruvchi omil vazifasini o‘taydi.

Ma’lumki, milliy mentalitet deganda millatni muayyan tarzda faoliyatga undab turgan ma’naviy-ruhiy manba, uning xulq-atvori determinanti, muayyan etnik birlik vakillari uchun umumiy bo‘lgan, uning tarixiy tajribasi asosida shakllangan perseptiv (millatning ijtimoiy tasavvurlari, kayfiyati, xulq-atvori uchun namuna vazifasini o‘tayotgan normalar), kognitiv (millatning tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan tajribalari, o‘zlashtirgan bilimlari, tarixiy xotirasi), motivatsion (millatning ehtiyoj va manfaatlari, qadriyatlar, ideallari va milliy g‘oyasi) xususiyatlar yig‘indisi tushuniladi. Har qanday millatning mentaliteti turfa o‘ziga xos xusu-siyatlarga ega bo‘ladi. O‘zbek milliy mentaliteti ham bundan mustasno emas. Unda ratsionallik va irratsionallik, zamonaviylik va an’anaviylik, milliylik va umumbashariylik, diniylik va hurfikrlilik o‘zaro uyg‘unlashib, qorishib ketadi.

Darhaqiqat, o‘zbek xalqining ijtimoiy tasavvurlari, kayfiyati, xulq-atvor normalari, tajribalari, bilimlari, ehtiyojlari, qadriyatlari va ideallariga nazar soladigan bo‘lsak, ularning barchasi ratsional va irratsional elementlarni o‘zida jamlaganiga guvoh bo‘lamiz. Avvalo, “ratsionallik” va “irratsionallik” tushunchalarining mazmuni xususida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. “Ratsionallik” tushunchasi mazmuni va mohiyatiga bag‘ishlangan barcha ilmiy ishlarda u lotincha “ratio” – “zakovat” so‘zidan kelib chiqqani qayd qilinadi[2]. Ko‘rinadiki, millat vakillari tasavvurlari, xulq-atvori, dunyoqarashi, ehtiyoj va qadriyatlarining aql-zakovat, mantiq bilan bog‘liq qismi ratsionallik mag‘zini tashkil qiladi. Ammo yuqorida tilga olingan fenomenlarning aql-zakovatga bog‘liq bo‘lmagan, aqlning emas, hissiyotning sharofati o‘laroq vujudga kelgan qismi ham mavjud. Aynan ana shu qismni ifodalashda “irratsionallik” tushunchasidan foydalaniladi. O‘zbek tilidagi ilmiy-falsafiy

asarlarda mazkur tushunchalarning muqobili sifatida “oqilonalik” va “nooqilonalik” tushunchalari ham qo‘llaniladi[5].

O‘zbek milliy mentalitetida ratsionallik va irratsionallik o‘ziga xos tarzda o‘zaro qorishib, chambarchaslashib ketgan. Buni millatning ijtimoiy tasavvurlari va bilimlarida ham, ehtiyoj va manfaatlarida ham, qadriyat va ideallarida ham, xulq-atvor normalarida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, millat ijtimoiy tasavvurlari va bilimlarining katta qismi aql-zakovat mahsuli o‘laroq vujudga kelgan. Kishilar kundalik hayotda o‘zga shaxslar bilan turli aloqalarga kirishar ekanlar, uning davomida turli bilimlarni o‘zlashtirganlar, mantiqiy xulosalarga kelganlar. Bu bilim va xulosalar ularning dunyoqarashi mazmuni hamda xarakterini belgilab bergan. Ayni damda mazkur aloqalar davomida irratsional xarakterga ega bo‘lgan tasavvur va g‘oyalar ham shakllanib turadi. Masalan, o‘zbek kishisi xar qanday holatda ham ko‘pchilikning fikriga ergashish zarurligiga qat’iy ishonadi. U ko‘pchilik ma’qullagan fikrni haqiqat sifatida qabul qilishga odatlangan. Vaholanki, bunday xulosani isbotlovchi oqilona argumentlar mavjud emas. To‘g‘ri, aksariyat hollarda ko‘pchilik individning ayri holda yeta olmagan haqiqatidan boxabar bo‘lishi mumkin. Biroq bundan ko‘pchilik, jamoa hamisha ham haq bo‘laveradi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Tarixning guvohlik berishicha, ayrim davrlarda yakka shaxs voqif bo‘lgan haqiqatdan jamoa boxabar bo‘lmaydi. Galiley Quyosh Yer atrofida emas, Yer Quyosh atrofida aylanadi, degan xulosaga kelganida, yolg‘iz o‘zi haq edi. Mirzo Ulug‘bek yulduzlar harakatini kuzatar ekan, bir astronomik yil davomiyligi 365 kun 6 soat, 10 daqiqa, 8 soniyani tashkil etishini aniqlaganida (alloma bir necha soniyaga adashgan, xolos), ko‘pchilik bu haqiqatga yaqin ham kelmagandi. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Ularning barchasi millat ijtimoiy tasavvurlaridan joy olgan “ko‘pchilik haq, shu boisdan uning fikriga ergashish zarur”, degan xulosaning ratsional asoslari mavjud emasligidan dalolat beradi.

Ratsionallik va irratsionallik uyg‘unligi milliy ehtiyoj va manfaatlarda ham namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, milliy ehtiyojlar millat vakillari turmushida hosil bo‘lgan turli zaruriyatlardan kelib chiqadi. Etnik ehtiyojlar tabiatini maxsus tadqiq qilgan mutaxassislar siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarga doir milliy ehtiyojlar mavjudligini qayd qiladilar[4]. Xususan, siyosiy sohaga doir milliy ehtiyojlar turkumiga milliy davlatchilikni rivojlantirish, millat siyosiy-huquqiy maqomini oshirish bilan bog‘liq ehtiyojlar kiradi. Iqtisodiy sohaga doir milliy ehtiyojlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish zaruriyati bilan bog‘liq. Ma’naviy sohaga doir milliy ehtiyojlar deganda milliy ongni rivojlantirish zaruriyati nazarda tutiladi. Ularning barchasining shakllanishi ratsional zaminga ega: ajdodlar asrlar davomida umr-guzaronlik qilar ekanlar, o‘z milliy davlatchiligi va milliy iqtisodiyotini rivojlantirgan, milliy ongni yuksaltirgan xalqlar taraqqiyotga yuz tutganiga, ularga e’tiborsiz bo‘lgan etnoslar esa

tarix sahnidan yo‘q bo‘lib ketganiga guvoh bo‘lganlar hamda millat mavjudligi va rivoji yuqorida tilga olingan zaruriyatlarni qondirishga borib taqalishini anglab yetganlar. Biroq tarixning ayrim pallalarida mazkur zaruriyatlarni qondirishga qaratilgan sa’y-harakatlar gipertrofiyalangan, irratsional xarakterga ega bo‘lgan shakllar ham kasb qilib turadi.

Millat xulq-atvor normalarida ratsionallik va irratsionallikning namoyon bo‘lishini A.Erkayev yorqin ifodalab beradi. “Alpomishning bandilikdan qutulishda Kayqubod yordamidan voz kechishi oriyatning, irodaning ko‘rinishidir, – deb yozadi u.– Amaliy foydalilik nuqtai nazaridan (tezroq bandilikdan qutulib, dushmanlardan o‘ch olish, adolatni tiklash, Barchin visoliga yetish, o‘z yurtiga tezroq qaytish, u yo‘qligida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli xavf-xatarlarning oldini olish va hokazo), ya’ni oqilona ish tutish nuqtai nazaridan Alpomishning qarori unchalik to‘g‘ri emas. Ammo Alpomish obrazi ifodalaydigan ma’naviy tushunchalar, axloqiy ideallar o‘zgalarning yordamidan asosiy maqsadiga erishish uchun foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi. U boshqa sohalarda o‘zgalardan yordam olishi mumkin (Qayqubodning oziq-ovqatlarini rad qilmaydi), lekin dushmanlar bilan prinsipial kurashda alp sifatida o‘zligini to‘la-to‘kis namoyon etishi, o‘z kuchi bilan g‘alaba qozonishi lozim. Bunday ish tutish xalqning ma’naviy idealidir, lekin u ratsionalizm doirasiga sig‘maydi”[5].

Xullas, o‘zbek milliy mentalitetida zamonaviylik va an’anaviylik, milliylik va umumbashariylik, diniylik va hurfikrlilik kabi ratsionallik va irratsionallik ham o‘zaro uyg‘unlashib, qorishib ketadi. Binobarin, uning mazmuni va mohiyati, shakllanishi qonuniyatlarini aniqlanayotganda mazkur holat ham e’tibordan chetda qolmasligi, puxta tahlil qilinishi zarur. Faqat shunday yondashuvgina o‘zbek milliy mentalitetining asl tabiatini chuqur anglab olish va islohotlar strategiyasini ro‘yobga chiqarishda unga tayanish imkoniyatlarini yaratadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.– T.:O‘zbekiston, 2021.*

*2. Dolgix A.Y. Ratsionalnoye i ratsionalnost.// Vestnik Vyatskogo gosudarstvennogo universiteta, 2007, №17.*

*3. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. J.1.– T.:O‘zb.fayl. milliy jam. nashr. 2019.*

*4. Xalturin A.N. Etnicheskiye potrebnosti: sushnost i klassifikatsiya.// Manuskript, 2016, №10.*

*5. Erkayev A.E. Ma’naviyatshunoslik. J.1.– T.:Ma’naviyat, 2018.*



ZJV5401

# RADIKALLASHUV XAVFLI IJTIMOIY, MA'NAVIY VA MAFKURAVIY HODISA SIFATIDA

**Fazilat QO'YSINOVA,**
*Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent,*
*O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi*
*Harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi,*
*bo'lim bosh mutaxassisi-ilmiy xodim*

***Annotatsiya**: Maqolada radikallashuvning kelib chiqish tarixi, uning o'ziga xos bo'lgan turlari, xavflilik darajasi, siyosiy mohiyati, radikallashuvni keltirib chiqaruvchi omillar va ushbu omillar bilan ishlash prinsiplari tadqiq etilgan. Radikalizmning siyosiy, diniy, ijtimoiy, milliy, hududiy, etnik sohalarda namoyon bo'lishi yoritilib, radikalizm o'z davrida ijtimoiy o'zgarishlarning mafkuraviy va madaniy katalizatorlari sifatida maydonga chiqqanligi asoslantirilgan. Radikallizm ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy jarayon sifatida diniy yo'nalishda kuzatilayotganligi, islom olami diniy ekstremizm va terrorizm muammosiga duch kelganligi yoritilgan. Davlatlarda radikal g'oyalarning tarqatilish jarayoni, diniy ekstremizm va terrorizmga oid harakatlar va mamlakatlar hukumatlari tomonidan ushbu muammoni bartaraf etish choralarining amalga oshirilishi o'rganilgan. Radikal diniy guruhlar hamda diniy ekstremistik kuchlar faoliyati va tajovuzi ko'lami nafaqat milliy va mintaqa xavfsizligiga, balki global miqyosda ham tinchlik hamda barqarorlikka tahdidi yoritilgan. Diniy asoslar sababli buzg'unchi mafkuralar ta'siriga tushib qolgan shaxslarni ijtimoiy va diniy reabilitatsiya qilishning amaliyoti o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** radikallashuv, deradikalizatsiya, inqilob, reabilitatsiya, destruktiv g'oyalar, islohot, konservativ.*

Jadallashgan ommaviy iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy jarayonlar jamiyatning yuqori darajadagi inqiroziga qarshi moslashuvi sharoitida dinamik ijtimoiy barqarorlikning yangi turi yaralishiga imkon berdi.

Radikalizmning xuddi inqiloblar singari XVIII – XIX asrlarda vujudga kelishi Evropada boshlangan Uyg'onish davrining insonga, uning ongu-shuuriga, ijtimoiy mavjudligiga, sanoat taraqqiyotiga, individualizm g'oyalarining kengayishiga, monarxiya avtoritarizmiga qarshi kurashishga (radikalizmning vatani hisoblangan Angliya va Amerika singari mustamlakalardagi ozodlik harakatlariga) nisbatan yangi talablar ta'siri ostida ro'y berdi. Turli davrlarda o'z fikrini keskin ifoda etgan, jamiyatning ayrim qatlamlari manfaatlarini himoya qilgan jamoat arboblarini radikallar deb atashgan.

Ingliz radikalizmi I.Bentam va Dj.S.Mill singari nazariyotchilarning utilitarizm g'oyasi ta'siri ostida shakllanib unda Qirollik hokimiyatini cheklash,

sud islohotlari dasturlari, har qanday siyosiy faoliyatning fundamental umumiy farovonlikning bentam konsepsiyasi, xalqning siyosiy severenitetini va uning parlamentdagi vakilligini ta'minlashga qodir bo'lgan umumiy saylov huquqiga bo'lgan talablarda aniqlashtirilgan.

Fransiyada esa Lui-Filipp va Napoleon III ning "liberal imperiyasi" boshqaruvining restavratsiya davrida radikalizm harakati barcha haqiqiy respublikachilar tarafdorlarini, sobiq "yakobinchilarni" va jamiyatni demokratlashtirish, siyosiy tartibotni liberallashtirish uchun kurashgan siyosiy ta'qibning salohiyatli qurbonlarini o'z atrofida birlashtirgan edi.

Italiyada radikalizm A.Bertani boshchiligidagi respublichilar va milliy ozodlik g'oyalaridan ilxomlangan Dj.Madzini va K.Kattaneolar siyosiy qarashlari asosida vujudga keldi. Ular umumiy Evropa radikalizmi uchun siyosiy va ijtimoiy taraqqiyot kurashini (soliq islohotlari, hamma uchun teng umumiy boshlang'ich ta'lim, cherkovning siyosatga aralashuvini to'liq cheklash va xokazo) olib bordilar [1].

Tuzilishi va tashkiliy jihatdan zaifligiga qaramasdan, Evropa radikalizmi o'z davrida ijtimoiy o'zgarishlarning mafkuraviy va madaniy katalizatorlari sifatida maydonga chiqqan edi. Radikallarning sochilib ketgan guruhlari o'z mamlakatlarining taraqqiyparvar siyosiy madaniyatini belgilab bergan taniqli jamoatchilik faollari atrofida birlashdilar. Angliyada XIX asr boshlarida radikal-qarashlarga ega bo'lgan arboblarni o'ziga jalb qiladigan asosiy markaz – bu "Westminster review", 1816 yildan boshlab U.Kobbettning "Political Weekly" jurnallari bo'ldi. Faol islohotchi shaxslar sifatida Angliyada E.Chedvik, J.Proupp, F.Pleys, J.Xyum, J.F.Rebek, Fransiyada esa L.Gambetta, J.Klemanso, P.Pelleton, Sh.Floke va boshqalarni alohida qayd etish mumkin [2].

XIX asrning so'nggiga qadar radikallar hech bir mamlakatda birlasha olmadilar va ular tomonidan biror bir siyosiy partiyaga asos solinmadi. Ingliz radikallarining mamlakatdagi vigilar va torilar, liberallar va konservatorlar bilan hamkorligi o'tgan asrning boshlarida ularning leyboristlar bilan qo'shilishi bilan barham topdi. Fransiyada esa radikallar uchun vaziyat bir muncha engil amalga oshdi [3]. 1901 yilda fransuz radikallarining sochilib yotgan turli guruhlari Respublika radikal va radikal-sotsialistik partiyasiga birlashdilar va hattoki, bir necha bor XX asrning birinchi yarmida hukmron partiyaga ham aylandi [4]. Italiyada 1904 yilda radikallarning monarxiya partiyasi vujudga keldi [5]. Manbalar tahlilida shuni kuzatish mumkinki XIX-XX asrlardagi barcha ijtimoiy, madaniy va siyosiy o'zgarishlar asosan inqiloblar natijasida emas, balki radikal islohotchilarning zo'r berib qilgan harakatlari natijasida ro'y berdi.

Odatda, inqiloblar natijasida islohotlar ijobiy o'zgarish sifatida ko'rsatitiladi yoki ularning amalga oshishi uchun sharoit yaratiladi. Inqilobni reformatorlar (islohotchilar) ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda amalga oshiradilar. Bunga uzoq muddatli parlament kurashlari bo'lib o'tgan

Angliyadagi tub islohotlar, saylov huquqi islohotlari, ishchi tashkilotlarni ta'qiqlashning bekor qilinishi, ijtimoiy sog'liqni saqlash asoslarini yaratish, umumiy boshlang'ich ta'lim tizimi, mustamlaka siyosatining liberallashuvi, Dizraili yangi saylov islohotlari va boshqalarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Ushbu jarayonlar boshqa mamlakatlarda ham o'ziga xos tarzda ro'y berganligi kuzatiladi. Umuman olganda, XX asrda radikalizm siyosiy va ijtimoiy tafakkur tarixida juda katta iz qoldirgan sotsial-demokratik, sotsialistik va boshqa so'l, neoliberal, shuningdek, zamonaviy neokonservativ partiyalar va harakatlar ishida o'z aksini topgan mafkuraviy jarayon sifatida mavjud bo'ldi [6].

Bizning fikrimizcha, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda radikalizm turlari va tushunchalarning mohiyatiga oid aniq fikrlar to'liq shakllanmagan. Manbalarda radikalizm tushunchasi bir qancha ma'noda keltirilgan. Xususan:

– radikalizm siyosiy tendentsiya sifatida talqin qilishnib, unda ijtimoiy-siyosiy tizimga tanqidiy yondashib, radikal ijtimoiy o'zgarishlar va siyosiy islohotlar zarurligi ta'kidlanadi;

– keskin choralarni qo'llash orqali hal qiluvchi harakat deya ta'riflanib, bunda ijtimoiy faoliyat turidan qat'i nazar, radikalizm tegishli ijtimoiy subektlarning harakat usullari sifatida tushuniladi.

– radikalizm ijtimoiy va siyosiy xususiyatga ega faoliyat sanalib, u keskin, maksimal darajada tajovuzkor mafkuraga asoslanadi va mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimni tubdan o'zgartirishga qaratilgan faol harakatlar orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi faoliyatni anglatadi [7].

Radikalizmning o'ziga xos bo'lgan turi – inqilobiy (revolyusion) radikalizm har qanday to'siqni kuch ishlatish yo'li bilan, shuningdek, murosasiz va qurbon berish yo'li bilan bo'lsada, amalga oshirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunga kelib esa radikalizmning bu turi hokimiyat uchun, hududlarni qo'lga kiritish yoki g'oyalar, diniy va etnik g'oyalar uchun siyosiy va mafkuraviy kurash yo'lini tanlaganligi bilan ajralib turadi [8]. Siyosiy radikalizm har qanday murosadan to'la voz kechgan holda belgilangan maqsadlarga majburiy ravishda erishishni anglatadi. Diniy radikalizm – bu ma'lum bir e'tiqod tizimi tarafdorining maqsadli harakatlar bilan birga keladigan mafkuraviy qarashlar, g'oyalar tizimi hisoblanadi [9].

N.Kutuzovaning fikricha, diniy radikalizm mavjud diniy an'analar doirasida vujudga kelgan, asosiy dogmaga qarshi chiqish va tanqid qilish yo'li bilan rivojlanadigan mafkura deb e'tirof etiladi [10]. Manbalarda radikalizmning uch turini keltiriladi:

– diniy radikalizm

– diniy-etnik radikalizm;

– diniy-siyosiy radikalizm.

diniy radikalizm – diniy etakchi atrofida ma'lum bir ijtimoiy-diniy loyihalarni amalga oshirish uchun shakllanadi va esxatolorik elementlar bilan

to‘ldiriladi. Odatda, bunday radikalizm ijtimoiy larzalarga olib kelmaydi, ommaviy namoyishlarga va siyosiy aksiyalarga chaqirmaydi;

Diniy-etnik radikalizm etnik diniy uyg‘onish g‘oyalaridan jahon diniy faoliyat qurilishiga qarshi tarzda shakllanadi;

XX–XXI asrda radikalizm siyosiy, diniy, ijtimoiy, milliy, hududiy, etnik sohalarda namoyon bo‘lmoqda. Bu o‘z navbatida inson ongi va shuuriga murosasizlik, o‘zlariga tegishli bo‘lmagan har qanday g‘oya va qarashlardan norozilik kabi jarayonlarga sabab bo‘lmoqda.

Jamiyat va davlat hayotida radikalizmning shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo‘luvchi omillarni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

· bolalikdagi tarbiya, ya’ni oilalarda bolaga nisbatan turli bosimlar o‘tkazilishi, unga ruhiy ta’sir kuchaytirilishi, uning o‘ziga va kelajagiga bo‘lgan ishonchiga putur etkazilishi va xokazo holatlar;

· shakllanayotgan shaxsning o‘ziga past baho berishi, hayotda o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan ishonchi va ishtiyoqining pastligi va eng asosiysi, o‘ziga nisbatan qaysidir yo‘llar bilan “yupanch” topishga intilishi;

· hayotida ro‘y beradigan keskin yoki murakkab holatlarda biror bir ruhiy “zarba” olishi va undan chiqish uchun destruktiv yo‘llarni qidirishi;

· muayyan shaxsning xulq-atvorida o‘zgarishlar sodir bo‘lishi, ya’ni birovga bo‘ysinuvchanlik, tobelik va ularning izmiga tushgan holda, radikal qarashlarga ega bo‘lish.

Mutaxassislarning fikricha, shaxsda radikallashuv jarayonining sodir bo‘lishida quyidagilar asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi:

insonning shaxs sifatida shakllanayotgan “o‘smirlik yoshi”dagi tajribasizligi va his-hayajon shuningdek boshqa hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarning ustunligi;

shaxsning ishonuvchanligi;

tashqi ta’sirlarga o‘ta beriluvchanligi;

ichki va tashqi ruhiy holatining o‘zgaruvchanligi;

hayot qiyinchiliklariga va boshqa ruhiy zarbalarga nisbatan chidamsizligi;

o‘ta e’tibortalabligi, ammo o‘sha e’tiborni o‘zi kutgan odamlardan topa olmasligi;

atrofda bo‘layotgan voqeliklarga qiziquvchanlik;

har qanday axborotlarga tez ishonishi va ularni bosiqlik bilan tahlil qila olmasligi;

o‘zini qaysi yo‘l bilan bo‘lsada, “qahramon” shaxs sifatida ko‘rsatishga nisbatan oshiquvchanlik.

Radikalizm ijtimoiy hodisa sifatida qarashlar, g‘oyalar va tushunchalarni ifodalashning ekstremal shakli sifatida tavsiflanadi. Radikalizm uning ta’siriga tushgan shaxsning rivojlanganlik darajasiga va u joylashgan ijtimoiy muhittga qarab keskinlashadi. O‘tkir ijtimoiy inqirozlar davrida ra-

dikal dunyoqarash buzg‘unchilik qudratiga ega bo‘ladi. U shaxsni ijtimoiy hayotning mavjud modelini yo‘q qilish uchun faol harakatlarga undaydi. Bunday sharoitda radikal qarashlar tarafdorlari hokimiyatga da’vogar kuchlar tomonidan siyosiy maqsadlarga erishish vositasiga aylantiriladi. Bunday hollarda diniy radikalizmga siyosiy mazmun berilib, undan hokimiyat uchun kurash vositasi sifatida foydalaniladi.

Shunday qilib, radikallashuvning kuchayishiga turmush darajasining keskin yomonlashuviga olib keladigan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, shuningdek, tashqi ta’sir yordam berishi mumkin.

Radikalizm yoxud radikallashuvning eng xavfli ijtimoiy ta’siri shundaki, uning ta’siriga tushgan “shaxs” o‘z oila a’zolarini, yaqin qarindoshlarini, do‘stlarini, birga ishlaydigan xodimlarini (agar rahbar bo‘lsa, qo‘l ostidagilarini) ham mutaassib shaxsga aylantirishga harakat qiladi va bu jamiyatda beqarorlikka sabab bo‘ladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan integratsiyalashuvi natijasida, shuningdek, davlatda diniy, ma’naviy qadriyatlarni tiklash va musulmon mamlakatlari bilan aloqalarining tobora rivojlanib borishi sharoitida radikalizm muammosi ham vujudga kelayapti. Ma’lumki, O‘zbekistonda diniy sohadagi islohotlarning tobora jadal olib borilishi jaryonida shaxs yoki guruhning mavjud ijtimoiy, siyosiy va madaniy holatini tubdan va murosasiz o‘zgartirish istagi, xorijdagi destruktiv kuchlarning mafkuraviy bosimi ostiga tushib qolayotganlarning soni sezilarli darajada ko‘payib bormoqda. Aytish mumkinki, radikalizm ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy jarayon sifatida diniy yo‘nalishda kuzatilayotganligi va hattoki qamrovi ortayotganligi axborot sohasida (ijtimoiy tarmoqlarda va turli OAVlarda) ko‘zga tashlanmoqda. Eng murakkabi radikalizm tarmog‘iga, qopqoniga tushib qolayotgan “shaxs” o‘z diniy e’tiqodini haq deb bilayotganligi, o‘zga e’tiqodiy qarashlar va fikrlarga murosasizligi, sodir bo‘layotgan har qanday o‘zgarishlar va jarayonlarga nisbatan keskinlik asosida yondashayotganligi kuzatilmoqda. Umuman olganda, radikalizmning bugungi kundagi xavfli tomoni islomiy fundamental qarashlarni radikal yo‘llar bilan, kerak bo‘lsa, ekstremistik uslublar yordamida zo‘rlik yo‘llari bilan o‘zgartirish tarafdori bo‘layotganligidir.

O‘zbekiston azaldan Buyuk Ipak yo‘lida joylashganligi, aholining diniy qarashlar borasida anchayin tolerantligi, mintaqamizda savdo-sotiq va boshqa masalalarda ko‘plab savdogalar va sayyohlarning tashrif buyurishi natijasida noyob ko‘pkonfessional jamiyat shakllangan. Ammo, so‘nggi yillarda jamiyatda radikalizmga moyil shaxslar ongida, qarashlarida va ba’zan ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatlarda jamiyatda mavjud turli diniy konfessiyalarlarga keskinlik bilan yondashish, bir din doirasidagi o‘zga mazhab yoki qarashlarni murosasiz inkor etish hamda ularni raqib sifatida qabul qilish namoyon bo‘layotganligini bir

tomondan achinarli va bir tomondan xavfli tendansiya sifatida baholash mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, radikalizm – bugungi kunda yoshlar ongu-ruhiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan jarayon sifatida xavfli tendensiyaga aylanmoqda. Eng asosiysi, radikalizm davlat va jamiyatning tinchligi va barqarorligi uchun jiddiy xavotir o‘yg‘otadigan ijtimoiy, kerak bo‘lsa siyosiy voqelik sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aynan yoshlarning turli oqimlar ta’siriga tushib qolishi, diniy radikal kuchlarning “o‘ljasiga” aylanishining dastlabki qadami sifatida – ularda aqliy immunitetning etarli darajada hosil bo‘lmaganligi sharoitida turli diniy “ilm”larni egallashga bo‘lgan qiziqish va intilishini ortishi, ushbu ilmni egallashda turli axborotlarga ishonuvchanligi, katta muvaffaqiyatlarga birdaniga erishishga bo‘lgan intilishi kabi ma’naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko‘rsatish lozim. Shuningdek, radikalizm botqog‘iga botib qolishning yana bir omili – bu oiladagi moddiy etishmovchiliklar, ishsizlik, qiyinchilik va ular tufayli shaxsning jamiyatdan yoki hokimiyatdan norozi bo‘lishi, alamzadalikning chuqurlashib borishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy vaziyat ham shaxsning radikallashuvining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Murri R. Il partito radicale e il radicalismo italiano. Roma, 1913;*

*2. Maccoby G. English Radicalism. L. 1938;*

*3. Michaud F. Histoire du radicalism. P. 1951;*

*4. Nicolett S. Bibliographie du radicalisme. – “Cahiers de la Republique”, 1956, № 2;*

*5. Kaiser I. Les grandes batailles du radicalism (1820–1901). P. 1962;*

*6. Nicolett C. Le radicalism. P. 1967;*

*7. Yaxyaev M.Y. Prichini radikalizatsii islama v sovremennom mire // Islamovedenie. – 2012. – № 2. – S. 4-14.*

*8. Galante Qarrone F. I radicali in Italia (1948–52). Mil. 1973.*

*9. Prus R. Terrorism, Tyranny and Religious Extremism as Collective Activity: Beyond the Deviant, Psychological, and Power Mystiques // The American Sociologist. – 2005. -Vol. 36(1). – R. 47-74.*

*10. Кутузова Н.А. Религиозный радикализм и альтернативные социальные проекты // Религия и общество. Актуальные проблемы современного религиоведения: сб. науч. тр. – Могилев, 2008. – С. 164-167.*

*11. Qo‘ysinova F.O. Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasida xalqaro tashkilotlarning roli: //Obrazovanie i innovatsionnie issledovaniya mejdunarodniy nauchno-metodicheskiy jurnal. – 2022. – №. 12. – S. 42-48.*

## ALISHER NAVOIY ASARLARIDA NAQSHBANDIYA G‘OYALARI

**Marhabo PARDAYEVA,**
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi*
*Buxoro viloyati bo‘limi rahbari,*
*falsafa fanlari nomzodi, dosent*

Ma’lumki, biror bir davlatda O‘zbekistondagichalik ma’naviyatga e’tibor kuchli emas. Mamlakatimizda ma’naviyat va ma’rifat masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Shuningdek, davlatimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan barcha normativ huquqiy hujjatlar negizida inson ma’naviyatini yuksaltirish, ma’rifatli jamiyat qurish masalasi turadi. Ma’naviyatni yuksaltirish uchun, birinchi navbatda, insonning ruhiyati, qalbi, ichki dunyosi, irodasi, iymon-e’tiqodi, vijdonini tarbiyalash va ushbu dolzarb masalaga e’tiborni insonning yoshlik chog‘laridanoq boshlash zarur. Ta’kidlash joizki,bu masalalar islom dinidagi tasavvuf ta’limoti, xususan naqshbandiya g‘oyalaridan o‘rin olgan. Tasavvufning xususiyatlaridan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmasdan, balki tamoyillarini tariqatlar yo‘li orqali amaliy tatbiq etishdir. “Tasavvuf” deb atalgan bu ta’limot amaliy hayotda “tariqat” ham deyiladi.

Alisher Navoiy tasavvuf ta’limotining qonun-qoidalari, nazariy va amaliy jihatlariga e’tiqod qilgan. Ulug‘ shoir ustozi Abdurahmon Jomiyning taklifi bilan naqshbandiylik sulukiga kiradi. Savol tug‘ilishi mumkin: – Nima uchun Mir Alisher naqshbandiylik sulukini ixtiyor qildi? Birinchidan, ushbu tariqat o‘sha davrda nafaqat Movarounnahr va Xurosonda, balki Hindiston va boshqa O‘rta Sharq mamlakatlarida ham keng tarqalgan edi. Ikkinchidan, XV asrning zabardast shoir hamda tasavvuf vakillari Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy va Husayn Voiz Koshifiylar ushbu tariqatning nazariy va amaliy jihatlarini rivojlashtirishga, yangi mazmun bilan boyitishga katta hissa qo‘shdilar. Uchinchidan, naqshbandiylik sulukidagi ma’naviy-axloqiy va insonparvarlik g‘oyalari, xususan ixtiyoriy faqirlik, halol mehnat bilan kun ko‘rish, nafsni tiyish, tekinxo‘rlik, boylik, tamagirlik va ochko‘zlikni qoralash, beva-bechoralar va muhtojlarga xayr-saxovat ko‘rsatish kabi g‘oyalari, bizning nazarimizcha, Navoiyni o‘ziga jalb etdi.

Abdurahmon Jomiy o‘z asarlarida Bahouddin Naqshbandga xos bo‘lgan asosiy sifat bandalik ekanligi, ya’ni uning qalbida faqatgina Alloh naqshlanganligini ta’kidlaydi. Barcha ishlar uning rizoligi uchun xolisona amalga oshirilganini quyidagi misralarda e’tirof etadi:

*Xoja, ki basta zi sari bandagi,*
*Dar safi safvat kamari bandagi.*
Mazmuni:
*Xoja butun borlig‘i bilan bandalik maqomida edi,*

*Poklanish uchun bandalar safiga kamarbasta edi.*

Tariqatda Bahouddin Naqshbandga xos bo‘lgan kamolot darajalaridan biri tavajjuh bo‘lgan. Boshqacha qilib aytganda, tavajjuh Allohga yuzlanishdir. Bahouddin qayerda qaysi holatda bo‘lsa ham, qalbini xufiyona Allohga qaratib, mukammal xolisona mehnat qilgan. Bu sifatlarni Abdurahmon Jomiy o‘ziga xos uslubda quyidagicha bayon etgan:

*Vaqti tavajjuh shuda ham chun kamon,*
*Az chillai xilvatiyon barkanon.*
*Bin, ki chi son karda dusad qofila,*
*Saydi kamonevu kamon bechilla.*

Mazmuni:

*Tavajjuh vaqtida kamonday egilib,*
*Xilvatdagi chilla o‘tiruvchilardan uzilib.*
*Ko‘rgin qanday ikki yuz karvonni,*
*Manzilga tomon chillasiz etmoqda.*

Bu misralar orqali Abdurahmon Jomiy Bahouddin Naqshband yo‘lini “Dast ba koru, dil ba Yor” shiori asosida ekanligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga ular mehnatsevar va jamiyatga foyda keltiruvchi qatlam ekanligiga ishora qiladi. Jomiy Bahouddin Naqshband yo‘lidan borayotganlarni ikki yuzta karvon bilan tenglashtiradi. Ularning uzlat va chillasiz Haqqa yetishishida Bahouddin Naqshbandning xizmati borligini ta’kidlaydi.

Mutafakkir Abdurahmon Jomiy ta’riflab o‘tganidek, Naqshbandiya tariqatini “urvatu-l– vusqo” deb aytadilar. Bu kuchli tutqich ma’nosini bildiradi. Bahouddin Naqshband bu xususda shunday aytgan edilar: “Bizning tariqatimiz urvatu-l-vusqoning nodir ko‘rinishlaridandir, ya’ni panjani Muhammad Mustafo s.a.v. sunnatining tobelik etagiga urishdir hamda ulug‘ sahobalar, ularning barchasidan Alloh taolo rozi bo‘lsin, ularning izlaridan yurishdir. Bu yo‘lda bizni fazl eshigidan kiritganlar. Biz boshdan to oxirgacha o‘z amalimizni emas, uning fazlini mushohada qilamiz. Bu tariqatda garchi ozgina amal bo‘lsa ham fayzu futuh ko‘pdir. Ammo sunnatga rioya qilish ulug‘ ishdir”(1).

Shuningdek, Abdurahmon Jomiy Bahouddin Naqshbandning darajalarini o‘z tavsifida quyidagicha baholaydi:

*Toiri ro‘hash, ki az in kuhnadom,*
*Sidranisheman shudu to‘bomaqom.*
*Bod ba farxunda maqom mustaqir,*
*Inda Malikin Samadin Muqtadir. (2)*

Mazmuni:

*Uning ruhini qushi vujudidan parvoz etib,*
*Yettinchi qavat osmonidagi sidra va to‘bo nomli daraxtga qo‘nadi.*
*Uning qutlug‘ maqomi barqaror bo‘lib,*
*Malik, Samad, Muqtadir yonida qaror topgandir.*

Ushbu fikrlardan xulosa shuki, Abdurahmon Jomiyning Bahouddin Naqshbandga bergan tavsifi juda go‘zal uslubda ta’riflangan. Bunda, bir tomondan, Bahouddin Naqshband kamolot darajalarini ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u asoslagan Naqshbandiya yo‘lining afzalliklari va xususiyatlari ochib berilgan.

Ma’lumki, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy va Xoja Bahovuddin Naqshband (1318-1389) naqshbandiylik tariqatining 11 ta qoidasini ishlab chiqqanlar. Ulardan 4 tasi Hamadoniyga, yana 4 tasi G‘ijduvoniyga, qolgan 3 tasi Naqshbandiyga tegishlidir.

Xojagon tariqatining piri ustozi Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy (1103-1179) ustozi Xoja Yusuf Hamadoniy (1048-1140) ta’limotini1 har tomonlama boyitib, amaliyotga zikri xufiyani2 olib kiradi va Xojagonlik tariqatining sakkiz qonun-qoidasini shakllantirib beradi: Xush dar dam, Nazar bar qadam, Safar dar vatan, Xilvat dar anjuman, Yodkard, Bozgasht, Nigohdosht; Yoddosht; yana quyidagi uchta qoida ham tariqatga kiradi: Vuqufi adadiy, Vuqufi zamoniy, Vuqufi qalbiy (keyinchalik Hazrat Bahouddin Naqshband tomonidan ishlab chiqilgan).

Naqshbandning bir parcha yeri bo‘lib, ana shu yeridan olgan hosil evaziga kun kechirgan. Bundan tashqari, ul zot kimxob matolarga naqsh berish bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. U butun umr faqirlikda yashagan, ortib qolgan molini yetim-yesirlarga ulashgan. Muhammad Bokir Bin Muhammad Alining keltirishicha, “Xoja Bahovuddinning “Qasri Orifon”dagi Bog‘i Mozor yonida bir hujralari bo‘lib, ko‘pincha shu yerda sokin bo‘lardilar. Va ul hujralarida bir eski bo‘yra, siniq ko‘za bo‘lib, ajib bir ahvolda kun o‘tkazar, halol rizq talabida ko‘p ehtiyotkorlik etar, hatto zambarkashlik qilar va shu mehnatidan kelgan foydaga ham iltifotlari yo‘q erdi. Chun bu foydani yakka o‘zlariga ravo ko‘rmas va aytar edilarki, chekayotgan riyozatlaringizga ko‘p e’tiqod qilmang. Goho nafl ro‘zasini tutar edilar”(3).

Xojagonlar ta’limotini rivojlantirib, Bahouddin Naqshband qalb masalasiga alohida e’tibor bergan. Bahouddin Naqshband Naqshbandiya ta’limotiga “Vuqufi qalbiy“ – qalbdan ogoh bo‘lish tamoyilini kiritgan. Sayfiddin Sayfulloh o‘zlarining “Xojagon-naqshbandiya” kitoblariga: “Hazrat Naqshbandga ko‘ra, “Vuqufi qalbiy” jazaba ta’sirini o‘zida his qilish va bu ta’sirning qalbdan o‘rin olishi uchundir. Chunki zikrda nafyi (inkor) paytida esa, ilohiy jazabadan hosil bo‘lgan tasarruflar ta’siri yorqin his etiladi”, deb keltirgan. Bahouddin Naqshband “Vuqufi qalbiy” tushunchasini inson kamoloti uchun zaruriy tamoyil ekanligini, “Avrod” risolasi va Muhammad Porsoning “Risolai qudsiya” asarida aynan qalb insonning jismoniy va ruhiy olamini bir-biri bilan bog‘lab turgan markaz ekanligi, qalbda naqshlangan narsa xotirada muhrlanishi, qalb holati insonning butun holatini belgilashi va shuning uchun qalbni poklab turish, uni tashqi ta’sirlardan asrash, yomon hamsuhbatlar, yomon hissiyotlardan asrash lozimligini uqtirgan. Ba-

houddin Naqshband qalbdan mudom ogoh bo‘lib, uni barcha iflosliklardan tozalab, unda faqatgina Allohning muhabbatini joylash lozimligini ta’kidlash bilan “Dil ba Yor”lik mohiyatini ochib bergan. Qalb – ilohiy xilvat makonida faqat ilohiy ishq, ilohiy muhabbat, butun borliqqa ilohiy muhabbat, ezgu niyat, ezguliklar mujassam bo‘lishi lozim makon. Kibr, hasad, g‘azab, gina, nafrat, o‘zga bog‘lanishlar – dunyoparastlik, suratparastlik, zohirparastlik, molparastlik, mansabparastlik kabi illatlardan qalbni tozalab turish kerakligi aytilgan.

Xojagon ta’limotining “Dast ba koru, dil ba yor” shiorini Bahouddin Naqshband rivojlantirgan va “Dil ba yoru, dast ba kor“ sifatida qabul qilgan. Xojagon tariqatida, avval, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, keyin iymon bo‘ls a, Naqshbandiya ta’limotida, avval, iymon insonning asosiy sifati deb qabul qilingan. Iymonli insonda mehnati samarali va foydali ekanligi anglangan.

“Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy aytibdurlarki, xalqdin og‘irlikni ko‘tarmak kerak va bu muyassar bo‘lmas magar halol kasb bila. “Dast ba koru, dil ba yor” degan so‘z xo‘jagon tariqatlarida amri muqarrar (ya’ni bajarilishi shart ish) turur(4). “Dast ba koru, dil ba yor” insonlarni bunyodkorlikka da’vat etgan. “Qo‘lingni ishga, dilingni Allohga bag‘ishla” iborasi tariqat ahli uchun majburiy hisoblangan qoidadir. Ta’kidlash joizki, Abduxoliq G‘ijduvoniydan boshlangan bu jarayon – naqshbandiya ta’limotida asosiy hukm tusiga ega bo‘ldi.

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asarida “xilvat dar anjuman” rashhasi va u bilan bog‘liq masalalar xususida Bahovuddin Naqshbandning bergan javoblari keltiriladi. So‘z mulkining sultoni Navoiy shunday yozadi: “Yana alardin so‘radilarki, sizning tariqingizda zikr jahr va xilvat va samo‘ bo‘lur?” – “Dedilarki bo‘lmas” (5).

Abduxoliq G‘ijduvoniydan ruhiy tarbiya topgan Bahovuddin Naqshband bu javobi bilan zikrni, ya’ni Alloh nomini takror-takror tilga olish, “jahr” – baland ovoz bilan yolvorish, ibodat etish, “xilvat” – insonlardan xoli joyda yolg‘izlikda umr kechirishni aytadi. Shuningdek, darveshlikda Alloh bilan yakka qolish, “samo‘” – qo‘shiq qilib, musiqa orqali amalga oshirish mumkin emasligini ta’kidlaydi. Navoiy bunday holatlarni o‘zining tariqatida bo‘lmas, deya ifodalaydi.

“Yana so‘radilarki, sizning tariqatingiz binosi ne ishgadur? Dedilarki, “anjumanda xilvat: zohir yuzasidan xalq bilan va botin tarafidin Haq subhanollahu va taolo bilan”. Demak, bu fikrdan shunday xulosaki, majlisda odamlar birla suhbatda bo‘lsang ham, qalbingda doimo Allohni saqla.

Bu borada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida quyidagicha bayt keltiriladi:

*“Musofir bo‘l, ammo Vatan ichra bo‘l,*
*Tila xilvatu anjuman ichra bo‘l” (6).*

Bahouddin Naqshband tomonidan kiritilgan “Vuqufi zamoniy”, “Vuqufi adadiy” va “Vuqufi qalbiy” rashhalariga e’tiborni qaratamiz. “Vuqufi za-

moniy” – darvesh hamisha o‘z holidan xabardor bo‘lishi, vaqtidan unumli foydalanishi, shukr va tavba qilishi darkor. Bu shuni anglatadiki, naqshbandiya tariqati izdoshi bo‘lgan inson har doim o‘zining qay ahvolda, qay darajada ekanligini, qilgan xatolari va kamchiliklari, amallari nimadan iborat ekanligini bilishi darkor.

Sultonmurod Olim “Naqshband va Navoiy” asarida ta’kidlab o‘tganidek, “Naqshbandiya tariqati jahonning ana shunday eng muhim ijtimoiy muammosi – mehnatga va uning natijasida erishiladigan boylikka munosabat masalasiga nihoyatda jiddiy e’tibor berdi. “Dil – ba yor-u, dast – ba kor!” – shiori solihlarning mehnat qilib turib ham tasavvuf bilan mashg‘ul bo‘lishi mumkinligini isbotlaydi va shunga undaydigina emas, hatto, sufiyni o‘z mehnati, ya’ni qo‘l kuchi bilan tirikchilik qilishga ham da’vat etadi. Agar har kim o‘z mehnatining ketidan tirikchilik o‘tkazsa, boyliklarga faqat mehnati darajasida ega bo‘lishga intilsa, bu dunyoda nohaqlik yuz bermaydi, ijtimoiy adolat tantana qiladi. Bu naqshbandiya yo‘liga kirganlar uchun shunchaki bir g‘oyagina emas edi. Ular shu aqidalariga qat’iy amal qilib yashar edilar. Bu tariqat jahonning ana shu eng asosiy deyayotganimiz ijtimoiy muammosini har kimning o‘zi adolat bilan hal etishiga chorlar edi”(7).

Darhaqiqat, naqshbandiylik ta’limotining ahamiyatli jihatlaridan biri ta’limot izdoshi albatta, biron kasb-hunar egasi bo‘lmog‘i lozimligidir. Zeroki, “Vuqufi adadiy”ning talablaridan biri bo‘lgan vaqtidan unumli foydalanish aynan shu jihatdan ham muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, kasb-kori, mashg‘uloti bor inson vaqtidan juda unumli foydalanadi, hech qachon vaqtini zoye o‘tkazmaydi. Shu nuqtai – nazardan, ta’limotning “dil ba yoru, dast ba kor” shiori komillik uchun inson biror bir kasb egasi bo‘lishi lozimligini, doim til zikr bilan band bo‘lishini, insonning ham ish bilan band bo‘lganida, ham ishdan bo‘sh vaqtida shukr va tavba bilan mashg‘ul bo‘lishini talab etadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Vuqufi zamoniy”ning talablaridan kelib chiqqan holda, ta’limot izdoshlaridan ma’lum kasb egasi bo‘lishligi talab etiladi. Tariqat a’zolarining barchasi ushbu talablarga to‘liq rioya etib, namuna ko‘rsatganlar. Jumladan, Xoja Ali Romitaniy to‘quvchi, Amir Kulol kulol, Bahouddin Naqshbandiy naqqosh-to‘quvchi va chorvador, Amir Kulolning o‘g‘li Amir Hamza ovchi, Xoja Ubaydulloh Ahror chorvador va savdogar bo‘lishgan(8).

“Vuqufi qalbiy”da qalbning Haqdan xabardor bo‘lishi, ya’ni inson ko‘ngli Allohdan boshqa narsani o‘ylamasligi lozimligi talab etiladi. Bu, albatta, zikrning yuqori pog‘onasini bildiradi. “Dil ba yoru dast ba kor”ning asl mohiyati ham aynan ko‘ngil Alloh zikri bilan band bo‘lishi kerakligini anglatadi.

Bahouddin Naqshbandning xojagon tariqatiga kiritgan qo‘shimchalari Yusuf Xamadoniy va G‘ijduvoniy tomonidan yaratilgan qoidalarni izohlaydi. Shu bilan birgalikda, Naqshband ta’limoti ularda keltirilgan jihatlarni yanada kengroq va yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Masalan, Hamadoniyning

“Xilvat dar anjuman” – zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan bo‘lish qoidasi Naqshband tomonidan kiritilgan “Vuqufi qalbiy” qoidasi bilan yanada davom ettirildi. Agar “Xilvat dar anjuman” qoidasi bo‘yicha solih xalq orasida yurishi, bir lahza ham qalbida Allohni esdan chiqarmasligi lozim bo‘lsa, “Vuqufi qalbiy”da inson Allohdan boshqa narsani o‘ylamasligi lozim. Inson ish bilan band bo‘lganda ham, zikr va boshqa mashg‘ulotlar davomida ham Allohni yod etishi, Undan boshqa narsani o‘ylamasligi lozim. Buni G‘ijduvoniy tomonidan kiritilgan “Yod kard” qoidasida ham ko‘rishimiz mumkin.

Bahovuddin Naqshband o‘zining tasavvufiy qarashlarida tarkidunyochilikka qarshi chiqdi, soliklar orasida kasb-hunar egalab, mehnat qilishni targ‘ib etdi, dangasalik va tekinxo‘rlikni qoraladi, hayotda faol bo‘lishga undadi. Hazratning fikricha, har bir solikning dili Allohda, qo‘li esa, ishda bo‘lishi lozim. Mutasavvif kishilarni bunyodkorlikka, mo‘tadil hayot kechirishga, isrofgarchilik va ortiqchalikka yo‘l qo‘ymaslikka, sabr-qanoatli, bardoshli bo‘lishga chaqirdi.

Tasavvufda ham tanani inkor etib, chilla, uzlat o‘girish, tarkidunyo qilishni tavsiya etgan ta’limotlar bor. Biroq, ta’kidlash joizki, tana va ruhga me’yorda munosabatni talab etganlar ham bor. Shulardan tana va ruh masalasini me’yorda turib, hal qilgan ta’limot naqshbandiyadir. Chunki bu ta’limotdagi “Dast ba kor” (Qo‘l ishda) – talabi tananing zarurligini bildirsa, “Dil ba Yor” (Qalb Yor) – talabi Alloh bilan ruhning muhimligini anglatadi. “Dast ba koru, dil ba Yor” tana va ruhni o‘zaro aloqadorlikda ekanligini, tana kamoloti uchun ruh va ruh yuksalishi uchun tananing zarurligini ko‘rsatadi. Demakki, inson kamoloti uchun faqat tana èki faqat ruh emas, ikkoviga ham maxsus e’tibor berish zarur.

Xulosa qilib aytganda, Naqshbandiya mohiyatini tariqatning “Dil –ba yoru, dast – bakor!” shiori ochib beradi. Buning ma’nosi shundaki, ko‘ngil Xudoda bo‘lsin, qo‘l – ishda! Ya’ni, naqshbandiya tariqati o‘zidan oldingi tariqatlardan hayotga bevosita yaqinligi, ijtimoiy hayotda faollikni targ‘ib qilish bilan ajralib turadi. Chunki o‘n bir qoidaning hammasi ana shu bosh g‘oyadan kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, o‘n bir qoidaning mazmunini mazkur bosh g‘oya tashkil qiladi. So‘fiylar nafaqat zikrda, balki butun umri davomida amalda shu g‘oyaga asoslanishi lozim, demak. Aynan shu masalalar buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, bugungi kun yoshlari tarbiyasida iymon-e’tiqodli bo‘lishni targ‘ib qilish bilan bir qatorda sabr-toqatlilik, qanoatlilik, mehnatsevarlik singari xususiyatlarni shakllantirish – davr talabidir.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. Forsiydan tarjimon, so‘z boshi, izoh va lug‘at muallifi M. Hasaniy. Toshkent: 2019. “O‘zbekiston” NMIU, 2019. 120– bet.*

*2.Mavlono Abdurahmon Jomiy. Tuhfat ul-Ahror. Laknav: Nuvil Kishur, 1908. 26-bet.*

*3.Durdona. Mir Kulol va Shohi Naqshband maqomatlari. –Toshkent: Sharq, 1993. –B. 54*

*4.I.Sulton. Bahuddin Naqshband abadiyati. –T.: O'zR FA. Fan. 1994. –B.30-31*

*5 O'sha asar. –B.6*

*6. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Nasriy baèni bilan. T. Adabiyot va san'at. 1991. -B 721.*

*7. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. Toshkent: O'qituvchi, 1996 yil. 34-b.*

*8. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Hoja Bahouddin Balogardon–T.: 1993, 97 bet.*

## YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI TAFAKKURINI YUKSALTRISHDA MUTOLAA MADANIYATINING O'RNI BORASIDA IJTIMOIY-FALSAFIY FIKRLAR

**Abdulvohid ABDULAZIZOV,**
*Namangan davlat universiteti dotsenti,s.f.n.*

***Annotatsiya:*** *Maqolada bugungi kunda jamiyatda dolzarb hisoblangan mutolaa madaniyatini rivojlanirish muammolari borasida muallifning ijtimoiy – falsafiy nuqtai nazari bayon etilgan va Yangi O'zbekiston yoshlarda mutolaa madaniyati hodisasi jarayonlarining ahvolini obyektiv tahlil etishga harakat qilingan. O'zbekistonda mutolaaga e'tibor ajdodlarimizdan me'ros ekanligi ta'kidlangan holda, kitobxonlik hodisasi kam o'rganilgan sohalardan biri bo'lib, ayniqsa o'quvchi-yoshlarning mutolaa madaniyatini shakllantirish masalasi yaxlit tadqiqot obyekti sifatida kam o'rganilmaganligi haqida xulosa beriladi.*

***Kalit s`ozlar****: Mutolaaning nazariy jihatlari, umuminsoniy qadriyatlar, mutolaa hodisasi, mutolaaning umumiy nazariyasi, mutolaaning "kitob" toifasining kategoriyasi, kitobxonlik muammolari, gipoteza,yondashuvlarning uyg'unligi*

**Kirish.** Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun ekanida ham ramziy ma'no mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i navqiron insonlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy poziciyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq

bo‘lmagan, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli shaxslar sifatida tarbiyalash yangi O‘zbekistonni bunyod etishda hal qiluvchi kuchdir.

Yangi O‘zbekiston baxtiyor yoshlar mamlakatidir. Mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya’ni 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklashini ko‘z oldimizga keltirsak, juda katta e’tibor, g‘amxo‘rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko‘rsatiladigan e’tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham beradi. Chunki hozir O‘zbekiston mehnat resurslarining yarmidan ko‘pi yoshlardir. Kelgusida har uchinchi rahbar ham yoshlardan bo‘ladi. Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etib kelingan. Sharq Uyg‘onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, yer yuzi umumiy boyligining 66 foizi inson kapitaliga, ya’ni insonning ilm darajasiga to‘g‘ri kelmoqda. AQShda ushbu ko‘rsatkich milliy boylikning 77 foiziga teng. Kapital taraqqiyot tarbiya va ta’limdan boshlanadi. Yosh avlodga yo‘naltirilgan har qanday sarmoya ertaga – kun kelib ming-ming hissa bo‘lib qaytadi. Shu ma’noda, O‘zbekiston yoshlariga zo‘r havas qilishdan boshqa havas yo‘q. Umuman olganda, O‘zbekistonda inson kapitali uchun katta maqsadlar va mablag‘lar sarflanmoqda. O‘z navbatida, xalqimizda “Yangi O‘zbekiston orzusi” paydo bo‘ldi. Bu nima degani? Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston – barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi! Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o‘ziga xos tarzda aks etmoqda.

Ta’lim-tarbiyaning muhim jabhalaridan biri – yoshlarda mutolaa madaniyatini takomillashtirish ishlariga e’tibor yetarlimi, degan savol ochiq qolib kelmoqda. Vaholanki, mutolaa intensivligini oshirish bilimli, ma’rifatli insonlarni tarbiyalashning muhim sharti, bunga esa, mutolaa madaniyatini shakllantirmasdan erishib bo‘lmaydi. Bugungi kunda yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayonini tizimiy o‘rganish, mavjud holatni va uning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish, xorijiy tajribalarni qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqish va bunda milliy o‘ziga xosliklarni e’tiborga olish zarurligi ayon bo‘lib qoldi.

O‘zbekistonda barkamol shaxsni tarkib toptirishga mas’ul bo‘lgan muassasalar sifatidagi mavqeini munosib baholashga doir ijtimoiy-falsafiy zaruratning kuchayganligi va ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan shu kungi ta-

lablardan kelib chiqqan holda maqsadli faollashtirishni belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar va uslubiy tavsiyalarning yetarli darajada emasligi;

– mutolaa madaniyatini o'qish, o'qitish va anglash zamonaviy texnologiyalari,ta'lim subyektlari hamda mavjud ilmiy-ma'rifiy shart-sharoitlar bilan uyg'un jarayon sifatida shakllantirishning kun tartibiga zarur darajada chiqqanligi;

– mutolaa jarayonlariga milliy g'oya doirasida yoshlarni tarbiyalashning muhim bo'g'ini sifatida qarab,ularni tizimiy takomillashtirish yo'llarining nazariy asoslab berilmaganligi.

Mutolaani ma'naviy hayot hodisasi sifatida nazariy jihatdan tushunishga urinishlar qadimgi Xitoy va antik davr mutafakkirlari (Konfutsiy, Lao Szi, Chuang Tzu, Sokrat, Platon, Seneka) orasida ham uchraydi [1].N.A Stefanovskaya izlanishlarida amalga oshirilgan turli tarixiy davrlarda mutolaa tabiatini retrospektiv modellashtirish fikrimizni ta'kidlashga imkon beradiki, kitobxon faoliyatiga maqsadli ta'sir amalda qadim zamonlardan beri amalga oshirilgan, ammo mutolaa mazmunini maqsadli tartibga solishni nazariy tushunishning boshlanishi, bizning fikrimizcha, keyingi davrlarda paydo bo'la boshlagan. Shu bilan birga, zamonaviy davrda ommaning ijtimoiy va intellektual faolligini rag'batlantirish vositasi va shaxsni o'zgartirish, uning ko'p qirrali rivojlanishiga ta'sir qilish vositasi sifatida mutolaa tushunchasini shakllantirish kuzatilmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Kitobxonlik, uning afzalliklari, oilada mutolaa madaniyatini tarkib toptirish masalalari ulug' mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida yoritilgan.Xususan, XX asr boshlarida yashab ijod etgan ma'rifatparvar ziyoli Abdulla Avloniy,"...yoshlikdan boshlab zehn va idrokimizni quvvatlandurmak uchun aziz umrimizni o'yin-kulgi,safsata,molo ya'ni kabi behuda so'zlar bilan o'tkarmay,har xil kitob,gazeta va jurnallarni o'qub,fikrimizni ochmoq,zehnimizni quvvatlandurmak lozimdur"deydi [2].

**Natijalar**

O'zbekistonda kitob mutolaasining sotsiologik masalalari birinchi bo'lib A.A.Umarovning ilmiy ishlarida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganib chiqildi. B.I.G'anieva esa, mutolaa madaniyatini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini tadqiq etdi .Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekistonda kitobxonlik muammosi kam o'rganilgan sohalardan biri bo'lib, ayniqsa, o'rta ta'lim muassasalari o'quvchi-yoshlarining mutolaa madaniyatini shakllantirish masalasi yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. O'zbek kutubxonashunos-olimlaridan E.Yo'ldoshevning bolalar kutubxonalarida kitobxonlar o'qishiga rahbarlik qilish hamda yosh avlod vakillarida o'qish

madaniyatini tarkib toptirish yuzasidan chop etilgan ilmiy izlanishlari alohida e'tiborga molikdir.[3] Poeziyaga qiziqish uyg'otish, maktab o'quvchilari ma'naviy-ruhiy dunyosi haqidagi masalalar T.D.Polozova, Y.V.Klyatovskiy, L.A.Balashova, I.Prilish ilmiy maqolalarida o'z aksini topgan. Yuqori sinf o'quvchilarining o'qishiga rahbarlik qilishning shakl va usullari bo'yicha A.I.Lebedova va D.N.Tupelskaya va boshqa olimlarning ishlari mavjud. Shuningdek, dissertatsiya ishini yozish jarayonida keyingi yillarda Rossiya Federatsiyasida himoya qilingan A.P. Abramov, N.N.Kiselev , L.A.Menchikova, A.A.Savenkov, N.A.Seliverstova , N.D.Yumasheva va boshqalarning dissertatsion tadqiqotlari bilan tanishib chiqildi. [4]

**Muhokama**

1990-yillar va 2000-yillarning boshlarida mutolaa muammolari o'quvchilarning katta qismining "jiddiy" (rivojlanayotgan) mutolaadan madaniy va ijtimoiylashuvning asosi sifatida o'qishdan bosh tortishi atrofida to'plangan edi, bu esa mutolaa modasi tufayli edi. 20-asrning oxiridan hozirgi kungacha aholining bo'sh vaqtini o'tkazishda kitobxonlik ulushini kamayish muammosi hukmronlik qilmoqda.N.A. Stefanovskaya kuzatilgan muammolarning o'ziga xos va juda to'g'ri falsafiy talqinini taqdim etadi: "mutolaaning hukmron madaniyatdan individual submadaniyatlar va professional guruhlar doirasiga ko'chishi, ular bunga faol qarshilik ko'rsatadilar va mutolaaning haqiqiy qiymatini saqlab qolishga harakat qiladilar (bukkrossinglar harakati, kutubxonachilar, ijodkor ziyolilar vakillari, yozuvchilar)" [1].

Ma'lumki, mutolaa madaniyatini shakllantirish turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. Ulardan biri bolalar mutolaasini to'g'ri tashkil qilishdir. Bolalar mutolaasiga bag'ishlangan maxsus adabiyotlarda ularning turli ko'rinishlari beriladi. Bolalar mutolaasining taniqli tadqiqotchilaridan biri V.A.Nevskiy tomonidan bolalar o'qishini tasniflashdagi chalkashliklarni bartaraf etishga intilish kuzatiladi.U bolalar mutolaasining quyidagi ko'rinishlarni ajratadi va har biriga alohida ta'rif beradi:

- oilaviy mutolaa;
- uydagi mutolaa;
- sinfdagi mutolaa;
- sinfdan tashqari mutolaa.

O'zbekiston "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.Yoshlarda kitob o'qish ko'nikmasi shakllansa, kamoloti yo'lida qolgan barcha amallarni kitobning o'zi o'rgatadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Стефановская, Н.А. Чтение в современном обществе: проблемы и тенденции: монография / Н.А. Стефановская. – Тамбов: изд-во Першина Р.В. 2007. – 144 с.*

*2.Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ -Тошкент: Ўқитувчи, 1992;*

*3.Йўлдошев Э. Болалар китобхонлигини ўрганишнинг форма ва методлари. -Тошкент: 1986; Йўлдошев Э.Болалар кутубхонасида китобхонлар ўқишига раҳбарлик қилиш. -Тошкент: 1983; Йўлдошев Э. Кутубхонада болалар ўқиш маданиятини тарбиялаш. Ўкув қўлланма. -Тошкент: 1986, – Б.48.*

*4.Полозова Т.Д. Откръггае мира. -М.: Книга, 1979, – С.25.; Кветковский Е.В.Литературное произведение в нравственно-эстетическом воспитании учашихся // Сов.педагогика. – 1982, №1, – С.41-44.; Балашова Л.А. Формирование интереса к поэзии у старших подростков Сов.библиотековедение. – 1989, №1, – С. 50-56;*

*5.А.Умаров.Мутолаа маданияти:шахс, жамият тараққиёти. -Тошкент:Фан. 2004. 84-85 бет.*

## JAMIYAT HAYOTINING VIRTUALLASHUVI SHAROITIDA YOSHLARDA AXLOQIY QADRIYATLAR METAMARFOZASINI OLDINI OLISH ZARURATI

**Abror SANAQULOV,**
*falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),*
*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent*
*axborot texnologiyalari universiteti*
*Gumanitar fanlar kafedrasi dosenti v.b*

***Annotasiya.*** *Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda virtual reallik texnologiyalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari, virtual reallik o‘zgartiradigan ma’naviy-axloqiy masalalar, yoshlarni virtual tarmoq imkoniyatlaridan ilmiy, huquqiy, madaniy bilim olishga oqilona yo‘naltirish va yoshlar o‘rtasida axborot madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha innovasion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashning dolzarb masalalari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Virtual reallik, virtuallashuv, axborot madaniyati, virtual tarmoq, simulyasiya, virtual texnologiya, ta’lim, tarbiya, axloq, xulq-atvor, axborot madaniyati, qadriyat, dunyoqarash.*

Bugungi kunda jahon axborotlashgan jamiyat tizimida zamonaviy virtual reallik texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu mavzu allaqachon, virtual reallikni yuzaga

keltirgan – kibernetika sohasi chegarasidan tashqariga chiqib, ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimiga chuqur kirib bordi va ijtimoiy-falsafa, psixologiya va madaniyat falsafasi sohasidagi tadqiqotlarni asosiy o‘rganish obyektiga aylandi. Ayniqsa, bugungi kunda rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari va ilmiy tadqiqot markazlarida jamiyatda shakllanayotgan yangi virtual madaniyat va uning o‘ziga xos xususiyatlaridan tortib, to uning virtual reallikda mavjud bo‘lish oqibatlarini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ham axborotlashgan jamiyatda virtual reallikning namoyon bo‘lish indikatorlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan baholash strategik ma’no-mazmunga ega.

Virtual reallik – bu subyektning faoliyati kompьyuter texnologiyalari va ongga ta’sir qilish vositalari orqali vujudga keladigan voqelikning bir turi bo‘lib, u faqat uni yaratish jarayonida vujudga keladi va subyekt ongiga ta’sir qiladi. Virtual reallik – haqiqiy obyektlarning nusxalari bo‘lgan va haqiqiy voqelikda o‘xshashi bo‘lmagan simulyatorlar to‘plamidir. L.A.Tyagunova fikricha, virtual reallik ijtimoiy reallikning total xarakteristikasi hisoblanadi. Jamiyat virtuallashuvi mohiyati shundaki narsalar dunyosining obrazlar, illyuziyalar va timsollar bilan almashtirilayotganligi va total xarakater kasb etib borayotganligi bilan alohida ajralib turadi [1].

Virtual reallikda foydalanuvchilar o‘zlarining xohish-irodalari, xatti-harakatlarini loyihalashtiradilar. Virtual reallikda o‘zgartirishlar va reproduksiyalarni tanlash va yaratish butunlay foydalanuvchi xohishiga asoslanadi va ularning faoliyati real hayotda amaliy oqibatlarga olib keladi, bu esa o‘z navbatida turli axloqiy muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bunda shaxs ma’naviy javobgarligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayotining virtuallashuvi sharoitida virtual reallik o‘zgartiradigan ma’naviy-axloqiy masalalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, barcha yangi texnologiyalar singari, har qanday potensial axloqiy muammolar ham jamiyatning yanada rivojlanishi bilan yuzaga kelishi mumkinligini anglashimiz kerak.

Ikkinchidan, virtual reallik jamiyat hayotini yanada rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Bunday virtual texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, insonlarni barcha ehtiyojlarini qondiruvchi muhim vositaga aylantiradi. Biroq barcha yangi texnologiyalar singari, har qanday potensial axloqiy muammolar ham jamiyatning yanada rivojlanishi bilan yuzaga kelishi mumkinligini anglashimiz kerak.

Uchinchidan, virtual reallik insonlarning jamiyatdan ajratilishiga olib keladimi yoki yo‘qmi, degan savol ham ochib turibdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mavjud ijtimoiy media ko‘plab insonlarni yolg‘iz, aybdor va tushkunlikni his qilish darajasigacha olib bormoqda. Ko‘pincha virtual muhitga kirish ba’zi foydalanuvchilarning real hayotdan uzoqlashishiga ham olib kelmoqda.

To‘rtinchidan, virtual reallik texnologiyalari ba’zi foydalanuvchilarga jiddiy psixologik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu boisdan ham ba’zi olimlar yoshlarni o‘z tanalarini virtual avatar deb o‘ylashlariga olib keladigan insoniylikka to‘g‘ri kelmaydigan holatlarni ko‘proq tadqiq etish lozimligini ta’kidlamoqdalar.

Virtual reallik texnologiyasi simulyasiya va transsendensiya xususiyatlariga ega dunyoni haqiqiy kabi yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Amerikalik kompyuter texnologiyasi sohasi olimi J.Laniyer “The Seattle Times” gazetasiga bergan intervyusida virtual reallik xavfidan ogohlantirib, “Bu biz keyingi bir necha yil ichida sun’iy intellekt muammosidan kattaroq axloqiy muammolarga duch keladigan soha bo‘ladi”, deydi u. Chunki har bir yangi texnologiya potensial yangi xavf-xatarlarni ham yuzaga ketiradi.

Virtual reallik asosida yaratigan sahna va undagi barcha audio-vizual sezgi sozlamalarida “psixologik manipulyasiya” qilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Virtual reallik asosan video o‘yinlarga asoslangan bo‘lib, ular yoshlarda tajovuzkorlikni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday virtual texnologiyalar asosida yaratilgan o‘yinlar yoshlar ruhiyatiga turli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yoshlar virtual olamga kirish jarayonida ularda befarqlik kuchayib borishi mumkin. V.L.Silayeva virtual reallikni quyidagicha sifatlaydi – bu insonning alternativ olamni yaratishga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi asosida yaratilgan olam. U asosan belgi va timsollardan namoyon bo‘lib uning yo‘nalishlari ta’siri doirasidan ancha kengroqdir [2].

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ma’lum bo‘ladiki, virtual reallik texnologiyasi an’anaviy jamiyat bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarni yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Dyuk universiteti professori Ketrin Xeyls fikricha, virtual olamda axborotlarning “ajralib chiqishi” insonlarni post-insonlarga aylanishiga undamoqda. Bunday tipdagi insonlar virtual reallik sabab asta-sekin tanadan ajralib, ma’lumot to‘plamiga aylanib qolishi ehtimoli yuqori. Ya’ni, inson ongi kompyuter ma’lumotlari kabi “yuklab olinishi”, “saqlanishi” va hatto “o‘chirib tashlanishi” ham mumkin. Shu bilan birga, Ken Xillis ta’kidlaganidek, virtual reallik bizga tanamizni tark etib, kiberfazoda asl ma’lumotlar ko‘rinishida “bemalol” qolishimiz mumkinligini va’da qilmoqda.

Virtual olam ta’sirida o‘sgan avlodda ezgulik yoki yovuzlik borasida mulohaza qilish uchun ko‘plab savollar tug‘ilishi mumkin. Chunki, ular yosh navigatorlar bo‘lganligi sababli katta avlod tomonidan qabul qilingan an’anaviy qarashlarni ijobiy qabul qilishlari yoki ularni inkor etishlari ham mumkin.

Shuning uchun ham biz insonlarning xulq-atvorini o‘rganishda ularni ma’lumotlardan qaysi maqsadda foydalanayotganligiga e’tibor qaratishimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, virtual tarmoqdagi axborotlarni tahlil qilish insonning xatti-harakatlariga ta’sir qiladi. Hatto bunday tartibda olingan axborotlar inson xulq-atvorini yozuvi ham bo‘lishi mumkin. Ba’zi insonlar

bunday axborotlar hajmi va o‘lchami yetarlicha katta bo‘lgandagina haqiqiy dunyoni aks ettirish mumkin deb o‘ylashadi. To‘g‘ri, virtual tarmoqda mavjud axborotlar o‘zida real dunyo izlarini aks etirishi mumkin va real dunyodagi har bir elementdan ma’lumotlar dunyosida mos keladigan namunani topishi mumkin. Biroq bu ular aynan bir-biriga to‘liq mos keladi degan xulosaga olib kelmasligi kerak.

Virtual texnologiyalarining paydo bo‘lishi va yangilanishi bilan virtual tarmoq madaniyati ham yangi madaniyat sohasiga aylandi. Virtual tarmoq madaniyati internet, uyali aloqa vositalari va boshqa virtual tarmoq mahsulotlarini tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu tushuncha ma’lum bir til belgilariga, ovozli belgilarga va vizual belgilarga va hokazolarga asoslanib, g‘oyalar, madaniyat, xalq urf-odatlarini tarqatish, fikr va qarashlarni ifoda etish va hissiy ongni ifoda etish uchun rivojlangan va tezkor axborot uzatish tizimiga tayanadi. Mazkur jarayonda asosiy ommaviy axborot vositalari virtual tarmoqning ekologiyasidan to‘liq foydalanadi, bu milliy ma’naviy madaniyatning yanada rivojlanishiga katta yordam berishi mumkin. Bu holatni aloqa afzalliklaridan foydalanish va ommaviy axborot vositalarini bir nechta platformalarda ajoyib madaniy dasturlarni translyasiya qilish bilan bog‘lash muhim ahamiyatga ega. Chunki, virtual tarmoq milliy ma’naviy-madaniy qadriyatlarni saqlash va tarqatish funksiyasiga ega. Virtual tarmoq texnologiyasining yangi ishlab chiqarish vositasi sifatida paydo bo‘lishi an’anaviy madaniyatni ishlab chiqarish, aloqa va qabul qilishga ko‘proq ta’sir qiladi, shuningdek, tarmoq o‘zi noyob va boy madaniy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi.

Virtual texnologiyalarning tez va keng tarqalishidan to‘liq foydalanish va an’anaviy ommaviy axborot vositalarini juda ko‘p platformalarda ajoyib madaniy dasturlarni uzatish bilan bog‘lash an’anaviy madaniyatning yoshlar ongiga kirib borishining samarali usullaridan biridir. Internet butun dunyo bo‘ylab universal madaniy tashuvchidir. Internet texnologiyalarining doimiy yangilanishi bilan internet madaniyatining integrasiya funksiyalari rivojlanmoqda. Internetning asosiy platformalari va o‘z-o‘zini media platformalari hisobotning mazmunini kengaytirish uchun matn, rasmlar, fon havolalari va boshqalardan foydalanadi va sharhlarning barcha jihatlarini o‘z vaqtida o‘zlashtirishi va umumlashtirishi mumkin. Bu jarayonda multimediya integrasiyasi aslida uch o‘lchovli reportajni anglatadi. Bu tizimda milliy madaniy meros translyasiyasi uchun yoshlarning turli estetik ehtiyojlarini qondirish uchun qisqa metrajli videofilmlar, filmlar, mikro-filmlar, reportajlar sseriyyasi, badiiy filьmlar va boshqa platformalar ulanishi mumkin. Yirik onlayn platformalar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari bilan keng qamrovli hamkorlik qilish uchun virtual tarmoq platformasidan keng foydalanishi mumkin. Shu boisdan ham aksariyat ommaviy axborot vositalari yangi texnologiyalar, masalan, aqlli robotlar va

virtual texnologiyalaridan madaniy aloqalarni tashkil etish, interfaol suhbat, jamoatchilik fikrini ovozli eshittirishda va hokazolarda foydalanishni o‘tmoqdalar, bu esa o‘z navbatida yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalar asosida quyidagi xulosalarini ilgari surishimiz mumkin:

Birinchidan, jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotining virtuallashuvi sharoitida inson kapitalini yuksaltirishning muhim shartlaridan biri – “portlash effektini” vujudga keltirish va samaradorlik koeffisentini yanada oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, zamonaviy ta’lim olishning samarali mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirilgan holatlarda kutilgan natijalarni berishi mumkin;

ikkinchidan, insonning axborot texnologiyalariga moslashish hodisasi, uning takdirga tan berib yashash uchun kurashdan iborat passiv harakati natijasi emas, aksincha, axborot madaniyatini yuksaltirish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, o‘z ongi va qalbiga ta’sir etuvchi axborot muhitiga ongli, faol munosabati bilan xarakterlanadi;

uchinchidan, axborotlashgan jamiyat rivojlanishini belgilovchi bazis munosabatlari majmuasi, insonning mavjud axborotlarni o‘zlashtirish maqsadi yo‘lidagi uni o‘zgartirishdan iborat ijtimoiy faolliganing asosi hisoblanadi. Bunday holda, axborot bazisi insoniy munosabatlarning nisbatan mustaqilligi, faqatgina amaliy faoliyatining natijasi emas. Chunki, “jamiyatning virtuallashuvi va insonning axborot madaniyati” majmuasidagi amaliy munosabatlarda o‘z ifodasini topadi. Shunga ko‘ra, axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish sohasidagi amaliy munosabatlarni, yoshlarda axborot madaniyatining bevosita birlamchi mavjudlik sharti, deb qarash umuman metodologik jihatdan xatodir. Zero, axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy darajasi ijtimoiy-madaniy munosabatlarning passiv in’ikosi bo‘lmasdan, balki, shu munosabatlarni harakatlantiruvchi mexanizmi hisoblangan insonning axborot olishga bo‘lgan ehtiyojlarga borib taqaladi. Bunda virtual reallik fenomeni insonning axborot olishga bo‘lgan ma’naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishning “texnologik jarayonini” ifodalaydi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1.Tyagunova L.A. Virtualizasiya sosiuma: suщnost i tendensii: dis. … kand. filos. nauk. Saratov, 2007.*

*2. Silayeva V.L. Podmena realnosti kak sosiokulturniy mexanizm virtualizasii obshyestva: dis. … kand. filos. nauk. M. 2004. S.64-65.*

# O‘ZBEK XALQINING TARIXIY VA MILLIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI

**Nodira SULTONOVA,**
*Toshkent amaliy fanlar universiteti*
*“Tarix” kafedrasi f.f.d (PhD) dotsent.*

***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbek xalqining milliy va diniy urf-odatlari va qadriyatlarimiz oliy qadriyat ekanligi tahlil etilgan. Yosh avlodni ta’limga, ilmga, kitobga, mexr-muhabbati, qadriyat va an’analarga sodiqlik tuyg‘ularini shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir.*

***Tayanch so‘zlar:*** *axloq, kitob, inson, insonparvarlik, vatanparvarlik, odob-axloq, milliy qadriyatlar.*

Tarixan tarkib topgan milliy an’ana, urf-odat, rasm-rusum, taomil, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday omillardan biri turmush tarzidir. U yoki bu xalqning azaliy an’anasiga aylanib qolgan har bir marosim milliylik qobig‘idan chiqib, umuminsoniy qadriyatga aylanadi; tili, dini, turmush tarzi bir-biriga yaqin bo‘lgan qo‘shni xalqlarni birlashtiradi. Qardosh millatlar orasida bir-birini bog‘lovchi ko‘priklarni vujudga keltiradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, barcha xalq urf-odatlari, an’ana va marosimlari muayyan tarixiy davrning mahsuli bo‘lib, u moddiy turmush sharoitining ta’siri natijasida paydo bo‘lgan va vaqt o‘tgan sari ular tobora mustahkamlanib, ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib o‘tib kelgan. Xalqning “to‘y” atamasi bilan yuritiladigan barcha an’analari, urf-odat va udumlari shahar va qishloq aholisining kundalik turmushiga singib ketgan bo‘lib, xalqning ezgu istaklari hamda intilishlarini o‘zida aks ettiradi. O‘zbeklarning an’ana va marosimlari jumlasiga kirgan barcha ma’naviyatimiz shahobchalariga qaraganda biroz konservativ ko‘rinishga ega bo‘lib, uning barcha turdagi yo‘sinlari muqaddas sanalgan, shu bois ularning kishilar tomonidan o‘zgartirilishi mumkin emas, deb tushuntirilgan. Bu marosimlar asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga asosan o‘zgarmasdan o‘tib kelgan. Shu jihatdan ham alohida ta’kidlamoq joizki, urf-odat, an’ana, marosim va udumlar uzoq vaqt davom etgan tarixiy taraqqiyotning mahsulidir. Shuning uchun ham har bir xalqning turmushida uning o‘ziga xos belgi va xususiyatlari mavjud. Lekin bu narsalar uzoq davr mobaynida vujudga keladi, davr o‘tgan sari ularning ayrimlari turmush amaliyotidan tushib qoladi, ularning o‘rniga yangilari paydo bo‘lib kamol topib boradi. Insonlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishi bilan ularning safi va sifati o‘sib o‘zgarib boradi.

Xalqimiz orasida yashab kelayotgan urf-odatlar, marosimlar, udumlar va taomillar bor. Bu xalqimizning to‘y-tantanalarga o‘ta o‘chligidan, quv-

noq hazil-mutoyibalarga tashnaligidan va bunday yig‘inlar o‘tkazishda tadbirkorligidan dalolat beradi. Xalqimizning turmushida “to‘y” nomi bilan yuritiladigan anjumanlar o‘nlab-yuzlab topiladi. Bu anjumanlarning barchasi qarindosh-urug‘lar, tanish-bilishlar, yaqin qarindoshlar, yoru-do‘stlar, qo‘ni-qo‘shnilar, keng jamoatchilik hamkorligida o‘tkazilib kelingan va shunday davom ettirilmoqda. Zero, xalqimiz “Maslahatli to‘y tarqamas” deb bejiz aytmagan. O‘zbeklar orasida ayrim xushchaqchaq, shirin kayfiyat beradigan hodisa voqealarni ham, el boshiga kelgan og‘ir musibatli, rutubatli onlarni ham “elga kelgan to‘y” deb nomlaydilar.To‘y tushunchasi bilan odamlar boshiga tushgan voqealarni ham “to‘y” deb ataganlar. Shuningdek, uzoq umr ko‘rib, ulug‘ yoshga kirgan, el-yurt orasida katta obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan keksalar qazo qilsalar ham, bu kishining “to‘y”lari, deb qo‘yishadi. Shulardan ham ko‘rinib turibdiki, xalq juda ko‘plab yig‘in va anjumanlarlarni birgina “to‘y” atamasi bilan atab, uning keng jamoatchilikka mansubligini, unda barchaning qatnashuvi zarurligini bildirganlar.

O‘zbek xalqi tarixida juda ko‘plab to‘ylar borki, hamon ularning qanday kelib chiqqani, qachon bizning udumlarimiz orasiga kirgani, ularning nima sababdan turlicha o‘tkazilishi haqida o‘ylab ko‘rilgan emas. Ana shunday to‘ylar qatoriga: “Tug‘ish to‘yi”, “Beshik to‘yi”, “Tish to‘yi”, “Oyoq to‘yi”, “Sunnat to‘yi”, “Mo‘ylov to‘yi”, “Nikoh to‘yi”, “Kumush to‘yi”, “Oltin to‘yi”, “Hovli to‘yi”, “Uy to‘yi” singari to‘ylarni kiritish mumkin.

Jumhuriyatimizning barcha viloyat, tuman, shahar va qishloqlarida olib borilgan ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlar natijasida to‘plangan talay materiallar hamda yurtimizning turli joylarida bo‘lib, xalqning turmushi, urf-odatlari bilan qizg‘iqqan olimlar, sayyohlar, kuzatuvchilar va boshqa kishilar yozib qoldirgan dastxatlari, yodnomalari bizni qiziqtirgan ma’lumotlar u yoki bu fikrni aniqlashimizda yordam berdi. “Qarisi bor uyni parisi bor” deb bejiz aytishmagan. Qayerda qariyalar bo‘lsa, usha yerda xalq ma’naviyatining bilimdonlari, azaliy udumlar, taomil, an’ana va marosimlarning ma’lum darajada saqlanishi bilan birga, ularning amaliyotda ham qo‘llanib kelinayotganligi kishini quvontiradi. Bunday marosimlarni miriqib tomosha qilasan, ko‘ngil zavq-shavqqa to‘lib ketadi.

Hozirgi vaqtda turmushimizga tobora ko‘plab kirib kelayotgan yoki kiritilayotgan barcha yaxshi urf-odatlar, rasm-rusmlar, marosimlar, an’analar, udum va taomillar, to‘y-tantanalar jamiyat va turmush taqozosi bilan, shu kunning zarur ma’naviy-madaniy ehtiyoji sifatida hayotga singib bormoqda.

Ayni mahalda to‘y-tantanalarimizda hukm surib kelgan ayrim “hotamtoylik”, “dabdababozlik”, “kim o‘zarga to‘y qilish” kabi illatlar barham topib borishi kerak. Ko‘pchilik kishilar to‘ylarda va diniy marosimlarda isrofgarchilik qilinmasa, barcha rasm-rusmlar oila imkonidan tashqari chiqmasa degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydilar.

Ko‘pchilik milliy urf-odatlar bilan diniy marosimlar o‘rtasidagi farqni yaxshi idrok etmaydilar. Buni farqlashning o‘zi ham juda qiyinlashib ketgan. Zero, islom dini qabul etilganidan boshlab diyorimiz xalqlarining hayotida tubdan o‘zgarishlar ro‘y bera boshlagan. Jumladan, mahalliy milliy urf-odatlarni ham islom dini ko‘rsatmalariga moslashtirish jarayoni boshlangan, ya’ni shariatga zid bo‘lmagan urf-odatlar qoldirilgan va ular bilan bir qatorda diniy marosimlar ham ijro etila boshlagan. Shu bilan birga eski zamondan qolgan ko‘plab bid’at sifatida yuzaga kelgan marosimlarni ham diniylashtirish boshlangan. Chunonchi, dafn marosimi 7, 20, 40, yil, hayit, kabi marhumlarga atab o‘tkaziladigan tadbirlarda qur’on o‘qish, duo qilish orqali ularga diniy tus berila boshlagan. Shundan keyin ularni diniy marosim sifatida qabul qilib, go‘yo farz yoki sunnat amallari kabi bajaradigan bo‘lib ketishgan. Keyinchalik bunday marosimlarni to‘ylardagidek katta ziyofatlar bilan o‘tkazish urfga aylanib qoldi. “Tarki odat amri mahol” deganlaridek, bunday bid’at marosimlarni dinimiz buyurmagan, qilish shart emas, deb ming aytilgani, fatvolar chiqarilgani bilan hayotdan chetlatish juda qiyin kechmoqda.

Milliy qadriyatlarni shakllantiradigan asosiy mezonlar millatning tarixi, urf-odati, an’anasi, xayotiy kadriyatlari bilan birga ma’naviy merosi, madaniy boyliklari va ko‘hna tarixiy yodgorliklaridir. “Urf-odat – an’analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoyil”lar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, ularda o‘z ifodasini topadi. An’analar – qadimdan insoniyat hayoti, turmushi, mehnati va ibratli hayot saboqlari bo‘lib, avloddan-avlodga, o‘tmishdan kelajakka meros bo‘lib qoladigan, barcha tadbirlarda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Marosimlar esa an’analar va urf-odatlarning amaliy ko‘rinishidir. An’analar va urf-odatlar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy bo‘lib, milliy qadriyatlarning ajralmas qismidir. [ 2:416] Chunki har qanday urf-odat, udum, rasm-rusum, marosim va an’analar milliy qadriyatlar negizida shakllanadi va milliy vijdon, milliy ruh, milliy xulq, milliy odob-axloq mevasi sifatida uni yaratgan zukko xalq tarbiyasining asosini tashkil etadi. Jamiyatni boshqarishning ma’naviy omili sifatida yoshlar qalbida mehr-muhabbatli bo‘lish, oila va Vatanni sevish, ajdodlar merosidan bahra olish va hayotni qadrlash kabi tuygularni shakllantiradi.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning oltin merosi hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin qurbon va Ro‘za xayitlari, “Navro‘z” (bahorgi teng kunlik – yil boshi 21-22 mart), “Angom Hayit” (yozning eng uzun kuni to‘rt unsurning yana biri – Suv sayli), “Mehrjon” (kuzgi teng kunlik 22-sentabr), “Sada” (qishning eng uzun tuni, to‘rt unsurning biri – olov bayrami) kabi xalqona qadriyatlar tiklandi. Shuningdek, Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, Xotira va qadrlash kuni, O‘zbek tili bayrami kabilar istiqlol davrining an’anaviy qadriyatlariga aylandi. Mahalla tizimi-

ning boshqaruv sifatida yo‘lga qo‘yilishi, hasharlarning tiklanishi, odatlarga e’tibor kabilar qadimiy an’analarning bugungi kundagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Umar Hayyom o‘zining “Navro‘znoma” asarida urf-odatlarga alohida to‘xtalgan. Olim Quyosh taqvimi bo‘yicha Navro‘z kuni qanday belgilangani va bayramni qay tarzda o‘tkazganliklarini tarixiy dalillar bilan bayon qiladi. Allomaning fikricha, “Kimki Navro‘z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro‘zgacha xurram bo‘ladi va farog‘atda yashaydi” [ 3:41] .

Umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan Navro‘z bayramida muhtojlarga yordam ko‘rsatish, bemor va yetim-yesirlardan mehr-muruvvatni ayamaslik, keksalarni ziyorat qilib, o‘tganlarni xotirlash o‘zbekona urf-odatlarning muhim qismidir. Navro‘z ayyomida urushganlar yarashishgan, gunohlar kechirilgan. Gaplashmay, yuragida kin saqlab yurish gunoh sanalgan. “Ayni shu betakror va dilbar faslda barchamiz o‘zimizni yasharib ketgandek, vujudimizga yangi kuch-g‘ayrat, azmu shijoat kirgandek his etamiz. Necha yuz yillik an’ana va qadriyatlarimizni yangitdan kashf etamiz, qanday buyuk tarix, qanday buyuk madaniyat vorislari ekanimizni yana bir bor anglaymiz. Va bundan qalblarimiz g‘urur va iftixorga to‘ladi”.[ 3:44] Ayniqsa, Navro‘z taomi bo‘lgan Sumalak (bug‘doy ko‘katidan pishiriladigan taom)ni pishirish va tarqatish tartibiga doir urf-odatlar kishilarni hamjihatlikka, bir jamoa ekanligini his qilishga, bir-birini tushunishga undagan.

Faylasuf olim Karim Maxmudov aytganidek, sumalak tayyorlash bu bir marosim, qozon boshiga yoshu qari, erkagu ayol barcha to‘planadi, odamlar tuni bilan uxlamay, sumalak pishirish jarayonida mehr-muhabbatsiz xayot qanchalik rangsiz ekanligini anglaydilar. Zero, “Biz milliy qadriyatimiz bo‘lgan bunday tuyg‘ularni doimo asrab-avaylashimiz, aziz farzandlarimizni ham shunday ezgu fazilatlar sohibi etib tarbiyalashimiz kerak”.[4:88]

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Navruz umumxalq bayramiga bagishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi. 21 mart 2019, https://www. gazeta.uz/uz/2019/03/21/navro‘z-tabrik/*

*2. Falsafa qomusiy lug‘at. T. “Sharq”, 2004 yil. 416-bet.*

*3. Umar Hayyom Navro‘znoma. T. “Mehnat”. 1990. 41-bet.*

*4. Karim Maxmudov “O‘zbek xalqining urf-odatlari” 2005y. “O‘qituvchi” 88-bet.*

*5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Baxtiyor oila”, “Hilol nashr”, Toshkent 2019 yil, 4-bet.*

*6. O‘zbek oilalarida mehr tuyg‘usini shakllantirishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari // B.Karimov “Psixologiya” jurnali 2019 yil, 4 son.*

*7.http://www.biznes-daily.uz/ru/istemolchi/34285-milliy-qadriyatlar-va-oila*

# YOSHLAR ONGIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI MUAMMOLARI

**Avazbek SHERMATOV,**
*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqoladan bugungi kunda yoshlar ongida bo'layotgan o'zgarishlar, qadriyatlar va axloqiy-m'anaviy qarashlar transformatsiyasi haqida tanqidiy-tahliliy fikrlar o'rin olgan. Yoshlarning tarbiyasiga, dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilayotgan faktorlar atroflicha tahlil qilinadi va kerakli xulosalar qilinadi.*

**Kalit so'zlar**: *Yoshlar, qadriyatlar, dunyoqarash, ta'lim, mediasavodxonlik, axborot jamiyati, axloq, ma'naviy qashshoqlik, tanqidiy fikrlash, mobil qurilmalar, texnologik taraqqiyot.*

Yoshlar ongi va axloqiy qadriyatlarining o'zgarishi ummumbashariy ahamiyatga ega mavzu bo'lib, hozirda butun dunyoda keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Sababi, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan yuksak umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy qadriyat va tushunchalar ularga amal qilishi va kelajak avlodga yetkazishi lozim bo'lgan yosh avlod nazdida o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Yoshlarning bunday ma'naviy qashshoqlanishiga, an'anaviy qadriyat va tushunchalarga e'tiborsizlik ruhida shakllanishlariga bir qator faktorlar ta'sir ko'rsatmoqda. Ulardan asosiylari globalizatsiya jarayoni, internet butunjahon tarmog'iga cheklovlarsiz kirish imkoni, mediasavodxonlikning yetarli emasligi, telefon qurilmalarining ta'lim jarayoniga bo'lgan salbiy ta'siri, mustaqil fikrga ega emaslik, ta'lim jarayonining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi kabi faktorlardir.Globalizatsiya jarayoni uzluksiz davom etar ekan, hayotning barcha jabhalari, jamiyatning barcha vakillariga ta'sir o'tkazishdan to'xtamaydi. Ushbu global jarayon boshqa aholi qatlamlari kabi yoshlarga ham katta ta'sir o'tkazmoqda. Globalizatsiya jarayoni yoshlarga katta imkoniyatlar eshiklarini ochish, zamonaviy texnologiyalardan erkin foydalanish imkonini berish bilan birga ularning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari o'zgarishiga ham olib kelmoqda. Axborot erkinligi, zamonaviy kommunikatsiyalardan foydalanish imkoniyati keng bo'lgan bugungi zamonda afsuki, shaxs sifatida to'liq shakllanib ulgurmagan ko'plab yoshlarda axborot jamiyatida hamma narsa mumkin ekan degan yanglish tushuncha shakllana boshlaydi. Axloqni axloqsizlikdan ajratish qiyinlasha boradi. Shuning uchun ham yoshlarda yuksak axloqiy sifatlarni, vatanparvarlik tuyg'usini, yurt taqdiri uchun javobgarlik hissini tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Internet butunjahon tarmog‘iga kirish bugungi kunda yosh avloddan ortiqcha urinishni talab qilmaydi: bir necha harakat bilan elektron gadjetni internetga ulash kifoya. Yaxshi tomoni, internet yoshlarning doimiy aloqada bo‘lishiga va onlayn ta’lim platformalariga erkin kirishiga imkon yaratib bermoqda. Biroq, o‘rgimchak to‘ri kabi dunyoni qoplab olgan internet yosh avlodda virtual qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketish, videoo‘yinlarga berilish, onlayn o‘yinlar asiriga aylanish kabi turli zararli illatlar, ham jismoniy, ham ruhiy kasalliklar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. PewResearch Center tomonidan 2022-yilda AQSHda o‘tkazilgan so‘rovnomalardan ma’lum bo‘lishicha, yoshlarning 95 foizi smartfonlarga, 90 foizi kompyuter yoki noutbuklarga ega. Ayni paytda esa 97 foiz yoshlar kundalik ravishda internetdan foydalanishadi. Ishonch bilan aytishimiz mumkinki, dunyoning qolgan aksariyat qismlarida yoshlarning internetga kirish ko‘rsatkichi AQSHdagichalik bo‘lmasa ham yuqori darajada. Internetdan foydalanishda me’yorni bilmaslik aksar hollarda salbiy natijalarga olib kelishi bor gap. Virtual olamda ko‘p vaqt o‘tkazish yosh avlod ongiga jiiddiy ta’sir qilib, unda berilayotgan axborotni mutlaq haqiqat deb qabul qilishga, axloqsiz materiallarni ko‘rish normaga aylanishi, real hayotdan uzoqlashish, depressiyaga olib kelishi ayni haqiqatdir. Natijada, bugungi yoshlarimiz o‘rgimchak to‘rining domiga tushib, an’anaviy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatni tobora unutib, insoniy tuyg‘ulardan uzoqlashishgacha bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi saviyasiz, ko‘ngilochar sahifalar yoshlarimizning qimmatli vaqtini o‘g‘irlamoqda. Bunga qarshi kurashish, yoshlar orasida ma’rifat tarqatish bugun muhim vazifaga aylanib ulgurdi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda axborotni qisqa fursatda tahlil qilish, uning mohiyatini, maqsadini tushuna olish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnologik taraqqiyot davrida axborot jamiyat hayotining ustunlaridan biri, qolaversa ta’sir o‘tkazishning muhim quroli sifatida namoyon bo‘ladi. Har qanday axborot qandaydir maqsadni ko‘zlab tarqatiladi. Salbiy maqsadlarni ko‘zlab tarqatiluvchi axborot qurboniga aylanmaslik, uning mazmun-mohiyatini tahlil qila olish bugungi yoshlar uchun eng muhim sifatlardan biriga aylandi. Sababi, aksariyat hollarda yoshlar feyk(*soxta*) va provokatsion axborotlar qurboniga aylanib qolishmoqda. Tan olish kerak, bugun yoshlarimizning aksariyat qismi axborot savodxonligiga ega emas. Ular orasida tarqatilayotgan axborotni sinchiklab tekshirmasdan mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish avj olgan. Natijada, hech qanday asosga ega bo‘lmagan, haqiqatga mos kelmaydigan “hayp” xabarlar(*odam ko‘paytirish uchun tarqatiladigan*) yoshlar orasida keng tarqalib, ma’lum ta’sir kuchiga ega bo‘lmoqda. Birlamchi manbalardan ko‘ra qandaydir Telegram kanal yoki Instagram sahifa tarqatgan xabar yoshlar uchun ishonchli ko‘rinishi bugun reallikka aylandi. Bunga qarshi kurashish uchun yosh avlodni bolaligidanoq media savodxonlikka o‘rgatishimiz lozim bo‘la-

di. Bog‘cha va maktablarda axborotni saralay olish ko‘nikmasini egallagan yoshlar kelajakda axborot oqimining salbiy oqibatlaridan o‘zlarini butkul himoya qila oladigan yetuk shaxslarga aylanishadi.

Yurtimizda so‘nggi paytlarda yoshlarning media savodxonligi masalasiga e’tibor kuchayib bormoqda. Xususan, O‘zbekistonda 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab 10-11-sinf o‘quvchilarining “Tarbiya” darsligiga “Media savodxonlik” bo‘limi kiritildi. Respublikaning O‘zJOKU, TDShU, O‘zMU, O‘zDJTU, QDU, SamDChTI kabi oliygohlarining jurnalistika fakultet va yo‘nalishlarida media savodxonlik darslari o‘tila boshlandi. Biroq, bugungi kunda bu harakatlar yetarli emas va maktablarda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirishga ehtiyoj bor. Zero, yoshlarimizning axborot immunitetini shakllantirish allaqachon ularning tarbiyasidagi muhim jihatlardan biriga aylanib ulgurdi.

Yoshlarning tarbiyasiga, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashiga salbiy ta’sir qilayotgan faktorlardan biri ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mobil qurilmalardan foydalanishi tartibga solinmaganidir. Zamonaviy telefonlar ta’lim jarayonida o‘quvchi-yoshlarni chalg‘itish bilan birga, ular orasida salbiy axborotlarning, saviyasiz kontentlarning tarqalishiga va alaloqibat o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishi so‘nishiga, loqaydlik kayfiyati paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida yosh avlod qadriyatlarida ham o‘zgarishlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Telefondan bosh ko‘tarmayotgan bola unda ko‘rayotgan yengil-yelpi kontentlar tufayli hayotni ham oson deb o‘ylab, uni ermak sifatida qabul qilishni boshlaydi. Natijada, global tarmoqlarda tarqatilayotgan “kulrang” madaniyatni barcha uchun universal deb qabul qilish, milliy qadriyat va an’analarga hurmat hissiyo‘qolishi oddiy holga aylanib qolmoqda. Shuning uchun, yoshlarning telefonlardan foydalanishini nafaqat maktablarda, balki oilada ham jiddiy nazorat qilish katta ahamiyatga ega.

Bugungi yoshlarda qadriyatlarning va axloqiy qarashlarning o‘zgarishida ularning o‘z mustaqil fikriga ega emasligi, tanqidiy fikrlashning shakllanmaganligi ham muhim o‘ringa ega. Yoshligidan mustaqil fikrini aytishiga to‘siq qo‘yilishi, maktablarda esa faqat berilgan ma’lumotni o‘zlashtirishga o‘rgatiladigan yosh avlod kelajakda o‘zining mustaqil fikrini shakllantirishga, yot g‘oyalarga qarshi turishga qiynaladi. O‘zbekiston ta’lim tizimini tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘quvchilarga asosan ma’lumotlarni yodlash va o‘zlashtirish o‘rgatilishini ko‘ramiz. Bolaning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi darsliklar juda ham kam. Asosan yodlash va umumiy tushuncha hosil qilishga yo‘naltirilgan maktab ta’limi o‘quvchilarda tanqidiy tahlil, kreativlik kabi muhim ko‘nikmalarning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun bo‘ladigan imtihonlarda ham o‘quvchi yoshlarning haqiqiy bilimini emas, uning yodlash salohiyatini asosiy o‘ringa olib chiqadigan test sinovlari asosiy vosita hisoblanadi. O‘quvchining ijodiy

firkrlashini tekshiruvchi insholar esa oxirgi darajaga tushib qolgan. Ta'lim tizimidagi ushbu kamchiliklar yoshlarning to'g'ri ta'lim-tarbiya olishida bir qator kamchiliklarni keltirib chiqarishi turgan gap.

Yoshligidan boshlab faqat qabul qilishni o'rgangan bolada berilayotgan axborotga tanqidiy munosabat shakllanmaydi. Shunday ekan, mamlakatimiz ertangi kunining egalari bo'lgan yoshlarda taniqidiy fikrlash, axborotni saralash ko'nikmalarini erta yoshdan boshlab hosil qilib borish mamlakatimizning yoshlar siyosatida, ta'lim siyosatida asosiy e'tibor beriladigan masalalardan bo'lishi zarur.

Tanqidiy fikrlash yoshlarga ma'lumotni tahlil qilish, dalillarni baholash va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradigan muhim mahoratdir. Bu bugungi murakkab va tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun favqulodda zarur bo'lgan ko'nikmadir.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida tilga olingan muammolarning barchasi halokatli ko'ringani bilan aslida unday emas. Bu muammolar jamiyat va uning asosiy zaxirasi – yosh avlodni ma'naviy yuksaltirishga qaratilgan muayyan birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan bartaraf etilishi mumkin. Yosh avlodni qadriyat va ma'naviy tanazzul holatidan olib chiqish shubhasiz, bugungi kunning eng muhim va umumiy vazifalaridan biridir. Umuman olganda, jamiyat hayoti salbiy xususiyatlarining aksariyati yengib o'tish qiyin bo'lgan inqiroz – ma'naviy qadriyatlar inqirozining oqibatlari va ko'rinishidir. Shuning uchun ham yoshlar orasidagi qadriyatlar inqiroziga qarshi kurashish bugun har qachongidan ham muhim. Shuningdek, yosh avlod orasida milliy madaniyat va axloqiy an'analar, asosiy axloqiy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy voqeliklar o'rtasida muvozanatni topish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

*1. Teens, Social Media and Technology 2022, URL: https://www.pewresearch.org/internet/2022/08/10/teens-social-media-and-technology-2022/*

*2. A. Xolliyev MEDIA SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY NAZARIY TAHLILI // SAI. 2022. №A7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/media-savodxonlik-tushunchasi-va-uning-ilmiy-nazariy-tahlili*

*3. Могилев Александр Владимирович Мобильный телефон в классе: добро или зло? // Народное образование. 2014. №7 (1440). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mobilnyy-telefon-v-klasse-dobro-ili-zlo*

*4. Скоморовская Н. Б. Развитие критического мышления учащихся // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2013. №12-2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-kriticheskogo-myshleniya-uchaschihsya*

# BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA DINIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

**Shukrullo JO‘RAYEV**,
*Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bo‘lim boshlig‘i, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

***Annotasiya:*** *Maqolada diniy qadriyatlarning barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati, farzand tarbiyasida ota-onaning roli, farzandlarni komil inson bo‘lib ulg‘ayishiga ta’sir etuvchi omillar, yoshlar tarbiyasida go‘zal xulq va axloqning ahamiyati haqida atroflicha to‘talib o‘tilgan. Shuningdek, bugungi globallashuv jarayonida bola tarbiyalashda e’tibor qaratish kerak bo‘lgan jihatlar, xususan, yoshlarda diniy bag‘rikenglik an’analarini shakllantirish masalalari haqida ma’lumot berilgan. Bu borada Qur’oni karimda keltirilgan ibratli rivoyatlardan namunalar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *adab ilmi, axloq tarbiyasi, go‘zal xulq, diniy qadriyat, Qur’oni karim, hadisi sharif, “ommaviy madaniyat”, ko‘pkonfessiyalik jamiyat, sog‘lom e’tiqod.*

Istiqlol yillarida barcha sohada bo‘lgani kabi yoshlar va ularning ta’lim-tarbiyasida ham ulkan islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar eng avvalo, ajdodlarimizdan qolgan boy ma’naviy merosni, bunyodkorlik g‘oyalari va ezgu ta’limotlarni yoshlar ongiga singdirish va shu bilan birga ularni imon-e’tiqodli, Vatanga sadoqat, olijanoblik ruhida tarbiyalashda o‘z aksini topmoqda. Yosh avlodning ajdodlarimiz kabi dunyo tamadduni rivojiga xizmat qila oladigan bo‘lib kamol topishini ta’minlash bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridandir.

Yurtimizda azal-azaldan odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berilgan. Olimlar adab ilmini qadimdan chuqur o‘rganib, rivojlantirib kelganlar. Milliy ma’naviyatimizning tarkibiy qismi bo‘lgan diniy qadriyatlarimizda bolalar tarbiyasiga, ularning barkamol avlod bo‘lib kamol topishiga muhim vazifa sifatida qaralgan. Islom dini ta’limotidagi ko‘rsatmalarda bolaning faqatgina jismonan sog‘lom bo‘lishiga emas, balki uning ma’naviy kamolotiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Bunday targ‘ib, ayniqsa, Qur’oni karim oyatlari va hadisi shariflarda juda sodda va ta’sirli shaklda bayon etilgan [3:7].

Islomda bolaning tarbiyasiga hayot-mamot masalasi sifatida qaralgani bois diniy ta’limotlarda tarbiya jarayonini farzand tug‘ilishidan oldinroq boshlashga targ‘ib qilinadi. Chunki go‘zal tabiatli va xushxulq ota-onadan xushfe’l farzandlar dunyoga keladi.

Shu sababdan ham hadisi shariflarda turmush qurmoqchi bo‘lgan

shaxslarga bo‘lajak turmush o‘rtog‘ining chiroyi, boyligi, naslu nasabi kabi mezonlardan ko‘ra, uning ma’naviy dunyosi, dinu diyonati, ilmu ma’rifati kabi jihatlarga e’tibor berish afzal ekani uqtiriladi. Buning boisi, bolaning xulq-atvori, dunyoqarashi shakllanishida ota-ona axloqiy olami va tafakkur doirasining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Mana shu jihatlarga ishora qilgan Payg‘ambar (alayhissalom): *“Kelib chiqishi g‘urbatli ekanligi bilan mashhur bo‘lgan chiroyli ayollardan saqlaning”*, mazmunidagi hadislarida chiroyda tengsiz bo‘lgan, ammo xulqi buzuq ayoldan ko‘ra, ma’naviyati go‘zalini ixtiyor etish zarurligini marhamat qilganlar [3:8]. Yana bir hadisda esa, insonlarning yaxshisi go‘zal xulqli va chiroyli muomalali kishilar ekani ta’kidlanadi. Jumladan, hadisda “*Albatta, sizlarning eng yaxshilaringiz xulqi yaxshilaringizdir” (Imom Buxoriy va Muslim rivoyati)*, deyilib go‘zal axloq ulug‘langan [5:163].

Farzand bolalik chog‘ida qalbi o‘ta yumshoq va ta’sirga beriluvchan bo‘ladi. Shu bois diniy ta’limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o‘tkazishga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko‘ngli nozik bo‘lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko‘rsatishga chaqiriladi. Jumladan, hadisi sharifda: “*Biron kishi bozorga borib, o‘yinchoq sotib olib farzandlariga keltirsa, bu muhtoj kishilarga sadaqa qilgan bilan barobar va sovg‘a ulashishni qizlardan boshlashi lozim*”, deyiladi [2:65].

Diniy manbalarda bolani barkamol inson etib tarbiyalash, ularga chiroyli odob-axloq berib, musulmonchilikni o‘rgatish nafl ibodatdan ko‘ra afzal va savobli amallardan ekani ta’kidlanadi. Chunki farzandlarini solih inson qilib tarbiyalagan kishi bu dunyo va oxiratda rohat topadi. Yaxshi farzandning sadaqai joriyasi, savobli ishlari ota-onasining qabrini nurli, ruhlarini shod va masrur qiladi.

Insondagi go‘zal odob nafaqat dunyo hayotida, balki oxirat ne’matlariga ham yetkazuvchi asosiy vositalardan biridir. Qur’oni karimda ham, Rasulullоh (alayhissalom) hadislarida ham yoshlarning odob-axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Shu sababli farzand tarbiyasi hamma davrlarda insoniyatning muhim vazifalaridan bo‘lib kelgan. Ayniqsa, yoshlarni milliy va diniy qadriyatlarga hurmatsizlik ruhida ulg‘ayishiga sabab bo‘luvchi “ommaviy madaniyat” kabi illatlar keng tarqalayotgan bugungi kunda odob-axloq masalasining dolzarbligi yanada ortib bormoqda.

Shuningdek, turfa madaniyatlar tarqalayotgan va ko‘pkonfessiyalik jamiyatlar shakllangan bugungi kunda har bir farzandni bag‘rikeng qilib tarbiyalash, ularni o‘zgalardan ortda qolib ketmasligi uchun zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bahramand qilishning qadri yuksalib bormoqda. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): *“Farzandlaringizga ta’lim bering, chunki ular sizniki bo‘lmagan vaqt uchun tug‘ilganlar”*, deb har bir ota-onani bolaning o‘z zamonasi ilm-fani, ta’limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar. Shuning-

dek, yana bir hadisda*: "Birontangiz o'z farzandiga tarbiya (chiroyli odob) dan ko'ra yaxshi xayr-ehson berolmaydi"*, deyiladi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida bolaning o'zga millat va dinlarga nisbatan bag'rikeng bo'lishiga sabab bo'luvchi qadriyatlarni ham berib borish talab etiladi.

Hozirgi globallashuv asrida farzand tarbiyasidagi muhim bir nuqta – bu jamiyatlardagi multikonfessionallik sharoitida o'zga dinlarga nisbatan hurmat-ehtirom hissini go'daklikdanoq singdirib borishdir. Bolani turli dinlar va madaniyatlarga nisbatan bag'rikenglik tushunchasi bilan voyaga yetkazish unda kelajakda boshqa madaniyatlarga ro'baro' kelsa, o'z qobig'iga o'ralib qolmasdan, ular bilan hurmat asosida munosabatda bo'lishiga zamin yaratadi, noo'rin taassubga o'rin qoldirmaydi. Buning uchun esa muqaddas manbalarimizda kelgan ko'plab misollarni farzandlarimizga eslatib o'tishning o'zi kifoya. Masalan, Qur'onda keltirilgan Yusuf payg'ambar va Zulqarnayn (alayhimussalom) qissalari bag'rikenglikning eng go'zal ko'rinishlaridandir [6:149].

Yusuf payg'ambar o'z davrida o'zga din, o'zga madaniyat o'chog'i bo'lgan Misr jamiyatiga qanday borib qolgani va chekkan aziyatlari haqida Qur'on hikoya qiladi. Ammo bunday jamiyatda bo'lishiga qaramay, Yusuf (alayhissalom) shu yurtning ravnaqi uchun bor kuchi bilan xizmat qiladi hamda Allohdan berilgan iqtidorini ushbu diyor rivoji va farovonligi uchun sarflaydi. Zulqarnayn esa, Qur'on oyatida tasvirlanganidek, begona yurt, boshqa millat, turfa madaniyat vakillariga hech qanday evazsiz yordam beradi: ularning jonlari va yurtlarini dushmandan saqlash uchun to'siq qurib beradi, ular bilan hamkorlik qiladi. Bu ham albatta diniy bag'rikenglik va insonparvarlikning eng go'zal namunalaridir. Demak, inson qanday jamiyatda yashamasin, uning moddiy va ma'naviy ravnaqi, farovonligi va himoyasi uchun kamarbasta turishi lozimligi Qur'oni karim oyatlarida ham mujassam bo'lgan. Bunga hadisi shariflar, ulug' mutafakkirlar merosida ham dalillar ko'p.

Aynan diniy bag'rikenglik, ya'ni har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarash, sabr-bardosh va toqatli bo'lish o'z navbatida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ko'pgina ixtiloflarning oldini olishga xizmat qiladi. Zero, bag'rikenglik ruhida tarbiya topgan farzand ongida o'zga madaniyatlardan hurkib turish emas, balki ularga kengfe'llik bilan qarash va qadriyatlarga hurmat bilan yondashish, o'zaro tushunish instinkti shakllanadi.

Umuman olganda, bolani yoshligidan yaratuvchanlik va bunyodkorlik ruhida tarbiyalash, beg'ubor qalbini olijanoblik, xayru saxovat, mehr-oqibat kabi sof va pokiza tuyg'ular bilan to'ldirish, ezgu maqsadlarga safarbar etish, buzg'unchi, zo'ravon, xudbin, bag'ritosh va qahri qattiq bo'lib tarbiya topishining oldini olishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu maqsadga erishishda diniy qadriyatlarning o'rni beqiyos.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, murabbiylar va ota-onalar tomonidan bola tug'ilishidan to balog'at yoshiga yetgunicha uzluksiz olib boriladigan

diniy qadriyatlar asosidagi ma’naviy tarbiya farzandlar uchun hayotda barkamol inson bo‘lib kamol topishi hamda yoshlar qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalikdan shakllantirishda o‘ziga xos vosita vazifasini o‘taydi. Shunday ekan, ota-bobolarimiz tomonidan ming yillar davomida shakllantirilgan va asrlar osha sayqallanib kelayotgan ma’naviy merosimiz bo‘lgan diniy qadriyatlar yoshlar dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Farzandlarni dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg‘unligida tarbiyalash orqali amalda sog‘lom e’tiqod shakllanadi hamda har xil bid’at-xurofot amallarni farqlash, turli diniy oqim va yo‘nalishlar ta’siri hamda aqidasiga qarshi immunitet hosil qilish imkonini yaratadi.

**Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Al-Jomi’ as-sahih (Ishonarli to‘plam). 1–4 qism. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. 1991, 1992, 1995, 1996.*

*2. Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2019.*

*3. Islomda sog‘lom bola tarbiyasi / Mas’ul muharrir: I. Usmonov. – Toshkent: Movarounnahr, 2014*

*4. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2019.*

*5. Sayyid Ahmad Hoshimiy. Saralangan Nabaviy hadislar va Muhammadiya hikmatlari. – Toshkent: (nashriyoti ko‘rsatilmagan), 2016*

*6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. – T.: Hilol-nashr, 2008. J.3*

# MILLIY QADRIYATLARIMIZDA MEHR VA SAXOVAT TUSHUNCHALARINING AKS ETISHI VA ULARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

**Iqboloy UMAROVA,**
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Markazi*
*Jizzax viloyati bo‘limi rahbari*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada milliy qadriyatlarimiz mezonlaridan biri bo‘lgan milliy bayramlarimizda mehr-saxovat, muruvvat tushunchalarining aks etishi va ularning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni haqida fikr-mulohazalar o‘rin olgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *urf, odat, an’ana, qadriyat, marosim, bayram, navro‘z, sayl, hayit, saxovat, mehr, muruvvat, silai-rahm.*

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an’ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o‘rin tutadi. Ular kishilar turmush tarzining o‘ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi.

“An’ana”, “marosim”, “bayram” atamalari o‘zgarmas tushunchalar emas. Zamona taraqqiyoti va turmushdagi o‘zgarishlar ta’sirida tushunchalar mazmuni ham kengayib boradi.

Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar ta’sirida talabga javob bermay qolgan an’ana va bayramlar asta-sekin unutila boshlaydi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo‘lgan an’analar taraqqiy etadi. Masalan, Navro‘z, Qovun sayli, Oshqovoq sayli, Xirmon to‘yi va shunga o‘xshash bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun asrlar davomida yashab kelmoqda. Quyida bir qator bayramlar va ularning xususiyati to‘g‘risida fikr yuritamiz.

Navro‘z (forscha – yangi kun) – bahor bayrami hamda fors va turkiy xalqlarida yangi yilning birinchi kuni. „Navro‘z“ so‘zi forschadan tarjima qilinganda, „yangi kun“ ma’nosini beradi. Eron, shuningdek, Markaziy Osiyo va Kavkazda Navro‘z 21 mart kuni, Qozog‘istonda esa, 22 martda nishonlanadi.

Abu Rayxon Beruniy o‘zining “Al-Osor al-boqiya” tadqiqotida forslar, so‘g‘dlar va xorazmiylarning bayramlari haqida fikr yuritar ekan, ularni diniy va dunyoviy toifalariga bo‘ladi. “Dunyoviylari mukarram hayitlar va ulug‘ kunlar bo‘lib, podshohlar, raislar shu kunlarda marosimlar o‘tkazganlar va ular orqali nafslarini sevintirishga, ruhlarini shodlantirishga erishganlar hamda maqtov va madhga sazovor bo‘lganlar, (odamlarning muhabbatini jalb etganlar va duosini olganlar)”. Ko‘pgina dunyoviy bayramlar Movarounnahr va Xurosonda istifoda qilingan. Ayniqsa, yangi yil bayrami – Navro‘z, kuz bayrami – Mehrgon (Mehrjon), qish bayrami Sada keng ni-



ZJV5401

shonlangan *["Moziydan taralgan ziyo, "Sharq"nashriyot-matbaa konserni, 1998-yil"].*

Shuningdek, Beruniyning „Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to'g'risida so'zlab: "Bu oyning birinchi kuni Navro'zdir, – deydi. Navro'z yilning birinchi kuni bo'lib, uning forscha nomi ham shu ma'noni anglatarkan. Navro'z eronliklar „zij"lari bo'yicha o'tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo'ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, o'simlik unib chiqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun "Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan" deya izohlaydi.

Qadim-qadimdan Navro'z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. O'sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to'xtalgan, gina-kudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o'tishgan, juda katta xayriyalar qilingan.

Navro'z IX – XII asrlarda Xuroson va Movarounnahrda umumxalq bayrami sifatida yuksak qadrlangan. Bu to'g'rida aynan shu davrda yaratilgan yozma manbalar to'la guvohlik beradi. At-Tabariyning "Ta'rix", al-Mas'udiyning "Muruj az-zahab", Hakim Termiziyning "Solnoma", Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Abu Rayxon Beruniyning "al-Osor al-boqiya" va "Geodeziya", Abul Qosim Firdavsiyning "Shohnoma", Abul Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Ma'sudiy" asarlari shunday asarlar jumlasidandir. Beruniy Navro'z bayramida kishilar yerlarga suv sepgani, bir-birini sovg'alar bilan siylagani, asal va holva yegani, o'yin-kulgi, xursandchilik qilgani haqida yozadi *["Moziydan taralgan ziyo, "Sharq"nashriyot-matbaa konserni, 1998 yil"].*

Narshaxiy ma'lumotiga ko'ra, Varaxsha shahrida yil davomida har o'n besh kunda bir bozor, yilning oxirida surunkasiga 20 kun bozor bo'lgan, 21 kuni Navro'z bayrami nishonlangan ekan. Bayram "Navro'zni kishovarzon", ya'ni dehqonlar bayrami ham deyilarkan. "Buxoro dehqonlari 9 yil kunlari hisobini o'sha kundan boshlaydilar va bunga e'tibor beradilar. Otashparastlarning Navro'zi undan besh kun keyin keladi", – deb yozadi Narshahiy. Demak, Navro'zni ham islomga kirganlar, ham otashparastlar oldinma-keyin bo'lsa-da, bayram qilingan *["Moziydan taralgan ziyo, "Sharq"nashriyot-matbaa konserni, 1998 yil"].*

Yana bir tarixiy manbaga ko'ra Navro'zni bayram qilish Ahmoniylar davridan boshlangan va O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston xalqlarida eng katta bayramlardan biri hisoblangan. Navro'z bayramiga tayyorgarlik ishlari ancha oldinroq boshlangan, uy-joy, ko'cha va ariqlar tozalangan, ko'chat-

lar ekalgan, bemorlar, keksalar va beva-bechoralar holidan xabar olingan *[“Ma’naviyat” asosiy tushunchalar izohli lug‘ati, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, Toshkent 2016 yil].*

Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam“ (“Ajam shohlari tarixi“) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro‘z ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: “Jamshid “Chihil minor“ nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib… „bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqta e’tiqodli rabiyg‘a taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o‘ltirib, adolat sayt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunining otin navro‘z qo‘ydi“.

Darhaqiqat, Navro‘zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro‘zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya’ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qat’i nazar navro‘zni uyg‘onish bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo‘lgan. Bundan tashqari, Navro‘zning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda – ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o‘tganidan so‘ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi.

O‘rta Osiyoda 21 martdan – 3 maygacha barcha kunlarni Navro‘z oyi deb, bayram qilinadi. Bu kunlarda turli urf-odatlarni eslab, atrof-muhit tozalanadi, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari avj oladi, har xil mevali va mevasiz ixota ko‘chatlari o‘tqaziladi, gullar ekiladi, turli ko‘katlarni terib, vitaminli taomlar, bug‘doy undirib, sumalaklar pishiriladi. Qarindosh-urug‘larni yod olib ular holidan xabar olishga boriladi, ota-bobolarni, o‘tgan avlodlarni xotirlab, qabrlarini ziyorat qiladilar. Bemorlarni Navro‘z taomlari bilan yo‘qlab, ko‘ngil ko‘taradilar va shundan keyingi kunlardan dala ishlariga kirishib ketadilar.

Navro‘z haqida I.Karimov: “... yangilanish va ezgulik timsoli bo‘lgan Navro‘z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday umuminsoniy g‘oyalardan bahramand bo‘lib, ma’naviy kamol topganining yana bir tasdig‘idir, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi” – deya ta’kidlaydi.[“Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” I.Karimov]

Mutaxassislarning asoslangan fikrlariga ko‘ra, Quyosh ayni shu kuni hayotbaxsh nurlarini tik, ya’ni 90 daraja burchak hosil qilib, sayyoramizning qoq beliga – ekvatorga yo‘naltiradi. Shu daqiqalarda bahorgi kecha-kunduz tenglashadi va 22 martdan boshlab Quyoshning tik yo‘nalgan nuri shimoliy tropik chizig‘i tomon harakatlanadi. Bu Navro‘zning ilk va qutlug‘ qadami

bo‘lib, tabiatning jonlanishi bilan kishilarning xo‘jalik faoliyati o‘rtasida uyg‘unlik namoyon bo‘ladi.

Navro‘z – mehnat, mehr-oqibat, insonparvarlik bayramidir. Bu kun marhumlarning qabrlari ziyorat qilinadi. Keksa, nogiron, yolg‘iz qariyalar, ota-onalar yo‘qlanadi. Kishilar bir-birlariga sovg‘a-salomlar ulashib, shirinliklar hadya etishadi. Navro‘z – muhabbat, sevgi, sadoqat bayrami. Navro‘z munosabati bilan nikoh to‘ylari o‘tkazilgan. Yigit-qizlar bir-birlari bilan ahdu paymon qilishgan. Yangi tushgan kelin qo‘lidan choy ichish maqsadida “kelin ko‘rdi”ga borilgan. Navro‘z – do‘stlik, birodarlik bayramidir. Ushbu kunni nafaqat Sharq xalqlari, balki millati, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, barcha bayram qiladi. Navro‘z bayrami O‘zbekistonda dam olish kuni, rasmiy bayram kuni deb qabul qilingan. Uni hozirgacha ham yoshlardan tortib yoshi keksa kishilar ham tantali tarzda kutib olishadi.

Shuning uchun ushbu kunda, hatto eng chuqur dilxiraliklarni kechirish, janjal qilmaslik, kuchsiz va muhtojlarga yordam berish kabi xatti-harakatlar odat tusiga aylanib, ular insonlarga uyiga yaxshiliklar keltirishiga ishonishadi. Yana bir yaxshi xislat – muxtoj, xasta va ijtimoiy yordamga etiyoji bor insonlar holidan xabar olish ham bayramlar arafasida eng ulug‘ odatlarimizdan sanaladi.

**O‘rta asrlardan tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichi boshlandi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, ma’naviy-diniy hayotda, jumladan bayramlarni o‘tkazishda ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Chunki ayni paytda Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga islom dini bilan birga, unga xos bayramlar ham kirib keldi.**

**O‘rta asr bayramlari tarixida O‘rta Osiyoga islom dini bilan birga kirib kelgan bayramlar alohida o‘rin tutadi. Chunki bu bayramlar o‘rta asrlardan boshlab, ajdodlarimiz hayotiga juda kuchli ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy ta’sir ko‘rsatdi.**

**Ma’lumki, islomda asosan ikkita rasmiy diniy bayram mavjud bo‘lib, biri Qurbon hayiti (arabcha nomi – “iyd al kabir”, “iyd al-adho”) yetti kun, hozir uch kun va kichik bayram – Ro‘za hayiti (arabcha nomi “iyd as-sag‘ir”, “iyd al-fitr”) ham uch kun nishonlanadi.**

**Qurbon hayiti – xayr-ehson, saxovat, mehr-muruvvat bayrami bo‘lib, jamiyatda kishilar o‘rtasida tenglik, totuvlik kabi insoniy fazilatlar rivoj topishida xizmat diniy va milliy kundir. Hatto bir og‘iz shirin gap, ko‘ngilni ko‘taruvchi, ilhom berguvchi muomala ham tuhfadir.** Bir siniq ko‘ngilni ko‘tarish Ka’bani obod qilishga tenglashtirilgan. Bu haqida Alisher Navoiy: “Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay, Oncha borkim Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay” deya ta’kidlagan.

Musulmon ahliga xos mehr-muruvvat, bag‘rikenglik va saxovat ifodasi bo‘lib kelgan Qurbon hayiti bayrami zulhijja oyining o‘ninchi kunidan boshlanadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Diniy bayram – Qurbon hayitini dam olish kuni deb e’lon qilish haqida”gi 1991-yil 20-iyundagi PF-221-son Farmoni ijrosi o‘laroq mana 25 yildirki Qurbon hayitining birinchi kuni yurtimizda diniy bayram – dam olish kuni sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.

Mamlakatimiz rahbari tashabbuslari, fidoyiliklari bilan nafaqat milliy-diniy bayramlarimiz, balki dinu e’tiqodimizga yangidan hayot baxsh etildi, muqaddas dinimiz, urf-odatlarimiz, ulug‘ allomalarimizning bebaho merosini asrab-avaylash va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Odatda hayit kunida hamma bir-birini ulug‘ kun bilan samimiy muborakbod etadi. Hayit namozini ado etgandan so‘ng birinchi o‘rinda ota-onalar, ulardan keyin qarindosh-urug‘lar va yoru birodarlar, bemorlar borib ziyorat qilinadi. Ularni ko‘nglini ko‘tarishga harakat qilinadi.

Islomda qurbonlik qilish, Yaratgan bergan ne’matlarining shukronasini ado etish va nafsoniy illatlardan poklanish hamda bandaning Yaratuvchi amriga itoatini va taqvosini namoyon etadi.

Hayit bayramlari qadimdan mehr-muruvvat, bag‘rikenglik va saxovat ifodasi bo‘lib kelgan.

Bu ulug‘ bayram kunlari ko‘ngillar ravshan, kayfiyatlar chog‘, nigohlar muqaddas Ka’baga qaragan bo‘ladi. Yaratganning fazlu karamidan umidvor holda xayit namozini ado etillgandan so‘ng qurbonlik amalini bajarishga kirishiladi.

Rasulullоh (sollallohu alayhi va sallam) hadisi sharifda marhamat qilib: “Qurbonlik qilish chiroyli amallardandir. U bandani dunyoda balolardan va oxiratdagi ofatlardan ozod etadi. Hayit namozini o‘qib, qurbonlik so‘ygan mo‘minlar mening ummatimdandir”, deganlar (Imom Muslim rivoyati).

Islomda “Qurbon” so‘zi biror jonliq so‘yib, uni Ollohning yo‘liga bag‘ishlash ma’nosini bildiradi. Shu bois hajga borganlar va boy-badavlat musulmonlar zimmasiga Qurbon hayiti kunlari jonliq so‘yib qurbonlik qilishlari lozimligi belgilangan. “Qurbonlik go‘shtidan taom tayyorlagan kishi o‘zi, oila a’zolari va qarindosh-urug‘lari bilan yeyishi, so‘ng uni qo‘shnilariga ham berishi lozimdir”. *[A.Mansurov “Ro‘za va hayit nomozlari” “Fan”, 1991 yil]*

Hayit xursandchilik bayramidir. Ushbu bayramda ota-ona va farzandlarga sovg‘a ulashib, ularni quvontirish, keksalarni, zaif va betoblarni ziyorat qilish, ularga hadya berib qalblariga surur bag‘ishlash Islom dini targ‘ib qilgan amallardandir.

Qurbon hayiti – musulmonlarning shod-xurramlik, ko‘ngil olish, mehr-oqibat, xayr-saxovat ko‘rsatish, bir-birlari bilan diydorlashuv bayramlaridir. Uni shariat talablariga muvofiq, yig‘i-sig‘isiz, xursandchilik bilan, xush kayfiyatda o‘tkazish musulmonga yarashiqli va maqtalgan amallardandir.

Islom e'tiqodiga ko'ra ro'za kishilardagi sabr-toqatni, mehr-oqibatni, taqvoni sinovchi imtihondir.Bunda har bir imonli odam o'zini-o'zi yomon illatlardan: yolg'on gapirish, birovning kshnglini ranjitish. Zulm qilishdan tiyadi. Iydi-Ramazon arafasida kishilar bir-birlariga muloyimlik bilan munosabatda bo'lishlari lozim bo'ladi erta tongdanoq hamma sidqidildan shunday kunlarga yetkazgani uchun Yaratganga shukronalar aytadi. O'z yaqinlari, qarindosh-urug'lari, bemorlar va qariyalarni ziyorat qiladi.

Ramazon oylarida, ro'za oqshomlari yosh bolalar ezgu niyatlar bilan uyma-uy yurib ramazon ashulasini aytishadi, xonadon sohibi esa, ularga pul, shirinliklar ulashadi. Umuman, ro'za oyida musulmonlar odatdagidan ko'proq xayr-ehson qiladilar *[O.Bo'riyev "Murodbaxsh kunlar" "Fan" 1992-yil].*

Islomda keyinroq yana bir bayram – Mavlud (mavlud annabiy) – Muhammad payg'ambarning tavallud kuni (robbial-avval oyining 12 kuni) nishonlana boshlagan. Mavlud kuni duolar o'qilib, payg'ambar sha'niga madhiyalar aytiladi, diniy she'rlar o'qiladi, dindorlar yig'inlar uyushtiradi, sadaqalar beriladi.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, islom dini bayramlariga mahalliy xalqlarning odatlari qo'shilib, ularni boyitgan. Masalan, arafa kuni qo'shnilarga osh ulashish, "hayitlik" berish, yangi, toza liboslar kiyish, qo'ni-qo'shnilar, qarindoshlar, qariyalar, bemor, nochor, kambag'allar holidan xabar olish kabi odatlar islom bayramlarining tarkibiy qismlariga aylanib ketgan *[U.Qoraboyev "O'zbek xalqi bayramlari, "ShARQ" nashriyot-manbaa AK bosh tahririyati 2002-yil"]*.

Globallashuv jarayonida, qadriyatlar, insoniylik, ezgulik, sahiylik, mehr va saxovat madaniyati insonlar o'rtasida tobora taqchillashib borayotgan bir paytda xalqaro darajada nishonlanadigan umuminsoniy bayramlarga juda katta ehtiyoj sezilmoqda. Har bir millat va davlatning o'z bayramlari, o'ziga xos an'analari va marosimlari bo'ladi. Bayramlar xalq hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Sharqning buyuk olimi **Mahmud Koshg'ariy:** "Bayram – xalqning shodlik va xursandchilik kunidir", – deya ta'kidlagan. Darhaqiqat, bayramlar tufayli shodiyonalar, tantanali voqealar, muhim sanalar, ulkan yutuqlar nishonlanadi. Bayram bosib o'tilgan yo'lni chuqur anglash, qo'lga kiritilgan g'alabalardan ruhlanish, ertangi kunga ishonch bilan qarashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

*1. O.Bo'riev "Murodbaxsh kunlar" "Fan" 1992 yil.*

*2. U.Qoraboev "O'zbek xalqi bayramlari, "ShARQ" nashriyot-manbaa AK bosh tahririyati 2002 yil.*

*3. A.Mansurov "Ro'za va hayit nomozlari" "Fan", 1991 yil.*

*4. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" I.Karimov, Toshkent, Ma'naviyat, 2008 yil.*

*5. “Moziydan taralgan ziyo, “Sharq”nashriyot-matbaa konserni, 1998 yil.*
*6. “Ma’naviyat” asosiy tushunchalar izohli lug‘ati, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, Toshkent 2016 yil.*
*7. “Sharqiy Osiyo xalqlari qadimigi tarixi, diniy e’tiqodi va madaniyati”, 3-kitob. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent 2017 yil.*

## MA’NAVIY TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

**Komil AVAZOV,**
*Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi. Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi mudir, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori PhD*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada yoshlarni jamiyatda tarbiyalash muammolari, o‘spirin tarbiyasida milliy va ma’naviy qadriyatlar va ta’limning ahamiyati tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ma’naviyat, qadriyat, millat, milliylik, ta’lim-tarbiya, jamiyat.*

Ma’naviy yetuk va barkamol insonni tarbiyalashda xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, milliy an’analarimizning saqlanishi va mazmunan boyishi, shuningdek madaniyat va san’at, ilm-fan, ta’lim tarbiyaning har tomonlama rivojlanishi alohida kasb etadi. Ta’lim-tarbiya orqali mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so‘z bilan aytganda, barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilanadi.

Milliy ma’naviyatimiz an’analarida shaxs ma’naviyatining asosiy jixatlari – iymon, ilm,mas’uliyat, mehrning o‘zaro uyg‘unligi masalasi ustuvor yo‘nalish ekanligi ma’lum.[1]

Muayyan tarixiy sabablarga ko‘ra Yevropa axloq ilmida aynan shu o‘zaro mutanosiblikka yetarli e’tibor qaratilmadi. Natijada, bugungi kunga kelib, ushbu mintaqada ma’naviy-axloqiy sohada juda og‘ir muammolar kelib chiqmoqda.

“Axloq – ma’naviyatning o‘zagi” dean hikmatning mazmuni shundaki, insonning ma’naviy kamolot darajasi uning axloqida eng yorqin shaklda namoyon bo‘ladi. Ajdodlarimiz tomonidan ma’naviy kamolot yo‘li mukammal ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra, ma’naviyat iymondan boshlanadi, ilm bilan mukammallashadi. “Bizning ulug‘ ajdodlarimiz,– deb yozadi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov, – o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini zamonaviy til bilan aytganda sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o‘rinli deb bilaman”. [2]

Axloq inson hayotida o‘z-o‘zini idora qilish me’yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish madaniyati halol to‘g‘ri turmush kechirish mezonlarini belgilaydi. Aynan shu tufayli, ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi har bir shaxsda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamdir.

Mustaqillikning dastlabki yillarida diniy ekstremizm, terrorizm, buyuk davlatchilik shovinizmi kabi mafkuraviy tahdidlar yaqqol ko‘zga tashlangan bo‘lsa, bugungi kunda ular qatoriga “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi individualizm, kosmopolitizm, giyohvandlik, ahloqsizlik va boshqa shu kabi illatlarni o‘z ichiga qamrab olgan g‘oyalar ma’naviy-ahloqiy tahdidlar sifatida mamlakatimizga xavf tug‘dirmoqda, ya’ni “Yangi mafkuraviy hudud”ga egalik uchun kurash faol va ko‘p qirrali bo‘lib qolmoqda.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. G‘oyalar ham ushbu jarayon tufayli yer kurrasi bo‘ylab tez tarqaladi. Natijada ma’lum davlatlar, siyosiy, moliyaviy kuchlar manfaatlariga xizmat qiluvchi turli mafkuraviy markazlar ta’siri kuchli sezila boshlaydi. Bunday sharoitda mustaqil erkin fikrga, kuchli e’tiqodga ega bo‘lmagan inson ochiq yoki yashirin mafkuraviy tahdidlarga bardosh berolmaydi.

Bunday tahdidlardan yoshlarimizni, yurtdoshlarimizni himoya qilish, ularga qarshi kurashishda ma’naviy immunitetini yanada kuchaytirish muhim ahamiyatga egadir. Shu o‘rinda, avvalo ma’naviy-axloqiy immunitet tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak,uni quyidagicha ta’riflash mumkin:

”Ma’naviy-axloqiy immunitet – bu insonlarni turli xil ma’naviy, mafkuraviy illatlar, xavf-xatar va tahdidlardan himoya qilishga, ularni ana shunday illatlarga qarshi kurashishga qaratilgan yuksak axloqiy, ilmiy, siyosiy qadriyatlarni o‘zida ifoda etuvchi ijtimoiy-falsafiy tushunchadir”.

Ushbu ta’rifga e’tibor beradigan bo‘lsak, unda axloqiy, ilmiy va siyosiy qadriyatlar muhim element ekanligini guvohi bo‘lamiz. Yoshlarimiz qalbida vatanparvarlik, yaxshilik, ezgulik, iymon-e’tiqod, vijdon, adolat, mexnatsevarlik, insonparvarlik, oilaparvarlik, mehr-muhabbat, insof va diyonat, hayo va ibo kabi tuyg‘ularni chuqur ildiz otishi orqali insonga xos bo‘lmagan illatlarga, ”Ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdidlarga qarshi tura oladigan immunitet hosil qilishimiz mumkin.

Axloqiy mafkuraviy immunitetni xalqimizning boy tarixiy merosi, muqaddas dinimiz urf-odatlarimizga asoslanib shakllantirishni I.Karimov shunday ta’kidlaydi: ”Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta’bir joiz bo‘lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur”.[3]

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mafkura sohasida bushliq, degan narsaning o‘zi xech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qa-

chon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi. Demak, unga doimo ma’naviy ozik, kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniktirmasa, nima buladi, aytinglar? Bunday ozikni u asta-sekin boshqa joydan izlaydi. Shunga yo‘l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti! Buning uchun o‘zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma’naviyati, g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas’ul deb bilgan insonlar, bu – mahalla yoki diniy tashkilotlar bo‘ladimi, xuquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta’sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo‘ladimi, ularning barchasi ayniqsa faol bo‘lishlari lozim”. [4]

Shu ma’noda, bugun jamiyatning barcha sohalarida ma’naviyat bilan boglik, ishlarni yuqori darajaga ko‘tarish asosiy vazifalardan biri qilib belgilanganligining o‘zi ahloqiy-tarbiya ishlari va uni tashkil etish qanchalik zarurat ekanini ko‘rsatib beradi. Darhaqiqat, xalqimizning insonparvarlik va mehr-oqibatga yo‘g‘rilgan shunday qadriyatlari borki, u qadriyatlar bugun millat doirasidan chiqib, umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilib borayotganiga dunyo guvoh bo‘lmoqda. Ayni vaqtda ma’naviy-axloqiy tahdidlarni bartaraf etishda axloqiylik ilmiy salohiyat bilan uyg‘unlashganda yanada kuchliroq ta’sir kuchiga ega bo‘ladi.

Intellekt aql-zakovatning kuchi muayyan shaxsni bilimi, iqtidori, globallashuv jarayonida sivilizatsiyalararo ta’sir mohiyatini anglay olishda ko‘rinadi.

Hozirgi zamon globallashuvi sharoitida turli madaniy an’analarga ega xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi bir-biriga bog‘liq holda dolzarblik kasb etib,ikki muammoni hal etishni taqozo etadi:

birinchidan – har bir xalqning milliy o‘ziga xosligini muhofaza qilish va saqlab qolish yo‘nalishini izchil davom ettirish;

ikkinchidan– dunyoviy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarning ilg‘or jihatlarini o‘zlashtirib borish.

Bu masalalar jamiyatda shaxsning ma’naviy-axloqiy yetuklik muammosini to‘g‘ri hal qilib olish bilan bevosita bog‘liq.Har ikki tendensiya ham yangilanish va mukammallashish jihatidan o‘zaro uyg‘unlikka ega bo‘lib, zamonaviy rivojlanish jarayonlarini o‘zida mujassam etadi. Hozirda muammolarning eng asosiysi – jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitini takomillashtirish masalasi bo‘lib, ”ma’naviy muhit odamlarning ruhi va kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi”. [5]

Jamiyat ma’naviy-ahloqiy muhiti bir tomondan shaxsning axloqiy voyaga yetishida ijtimoiy makon xisoblanadi, ikkinchi tomondan shaxsning axloqiy faolligi natijasida takomillashib boradi.

“Jamiyatning ma’naviy-axloqiy muhiti odamlarning o‘zaro munosabatlari va o‘zaro hamkorligining natijasidir”.[6]

Shu nuqtai nazardan, har qanday muhit kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning majmui bo‘lib, bevosita xalqimizning axloqiy madani-

yatiga daxldor masaladir. Ma'naviy-axloqiy muhitning shakllanishida shaxs va maslakdosh shaxslarning ittifoqi, ahilligi muhim o'rin tutadi.Chunki jamiyat "shaxslarning uyushgan majmuidir".Shu ma'noda, ma'naviy-axloqiy muhitning shakllanishida shaxs komponenti muhim o'rin tutadi.Ayni paytda,ma'naviy-axloqiy muhit jamiyatning rivoji bilan uyg'un holda takomillashib boradi.Shaxs va jamiyat munosabatlari oralig'ida ma'naviy-axloqiy muhit bog'lovchi rolini o'ynaydi. Bu rol shaxsga ham, jamiyatga ham barobar ta'sir qilish qonuniyatiga ega.

O'zbekistonning strateik maqsadi yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalashdir.Ushbu maqsad salbiy, destruktiv omillarni bartaraf etib, ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish uchun zarur ijobiy, yaratuvchanlik omillarini ko'paytirishga undaydi. Chunki, "Inson aynan ijtimoiy muhitda o'z ehtiyojlarini qondirish va o'z imkoniyatlaridan foydalanish yo'lini topadi. U aynan shu yerda o'z his-tuyularini, tabiat ato qilgan samimiylik, do'stlik mehribonlik, bag'rikenglik va iztirob chekish fazilatlarini ko'rsatadi". [7]

Jamiyatda ijobiy va salbiy omillarning tarkib topishi yoki odamlarni ularning ta'siriga tushib qolishi muayyan muhitda ro'y beradi. Ularning mikro, makro va meo darajalari mavjud.

Oila muhiti ota-ona va farzandlarning aynan bir sharoitda yashab, o'zaro iqtisodiy, huquqiy, reproduktiv va ma'naviy-axloqiy munosabatlarga kirishishidan shakllanadigan muhitdir. Oila muhiti jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitining birlamchi neizidir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo, oilada shakllangan. Millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni beqiyos. Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari oilada shakllanadi.

Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy-axloqiy tushuncha, mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oilada qaror topadi. Bu muhitning o'z hududi, qonun-qoidasi bor. Bunda ko'plab mikro muhit an'analari, urf-odatlari, ma'naviy-axloqiy me'yorlar sayqal topadi.

Oilada, ya'ni muayyan mikro muhitdagi sog'lom turmush tarzi va ma'naviy axloqiy munosabatlar bilan birgalikda boshqarish, nazorat, yo'naltirish, jazolash kabi axloqiy vazifalar ham bajariladi.

Xullas, yosh avlodning axloqiy kamol topishida oilaning o'rni va roli benihoya katta.

Ikkinchisi, shaxsning kelajagini belgilovchi omillardan biri maktab muhitidir. Bu muhit oqil rahbar, axil o'quv jamoasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya,

o‘qituvchilarning odilligi, bilimdonligi, qat’iyligi, talabchanligi, mas’uliyatni teran his qilishi, maktabning an’analari, o‘quvchilarning tartib-intizomi, iqtidorli yoshlarning soni kabi mezonlarni o‘z ichiga oladi.O‘quvchi maktab muhitida shaxs sifatida voyaga yetadi. Agar oilada uning ma’naviy-axloqiy shakllanishiga poydevor qo‘yilsa, maktabda bu xususiyat yanada rivojlantiriladi. Shaxsning axloqiy tasavvurlari bilan xatti-xarakatlari uyg‘unlashadi. Respublikamizda maktab muhiti orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonini olib borish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ayni paytda, bu muhitda isloh qilinishi lozim bo‘lgan jarayonlar ham mavjud.

Ta’kidlash lozimki, milliy jamiyatning ma’naviy-axloqiy muhitini ta’sis etishda eng maqbul yo‘lni tanlash lozim bo‘ladi.Chunki milliy qadriyatlar o‘ta ustuvor darajada qabul qilinsa, jamiyat ma’naviy– axloqiy muhitida mahdudlik,xudbinlik va mutaassiblik illatlari paydo bo‘ladi.

Aksincha, umumbashariy odatlar keskin ustuvorlik qilsa, jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitida milliy qiyofasizlik,o‘zlikni yo‘qotish va havoyi ideallarga sodiqlik tarkib topadi. Bu muammoni hal qilishda bugungi ijtimoiy fanlar oldida muhim vazifalar turibdi.Biz jamiyatimiz ma’naviy-axloqiy muhitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘un tarkib topishi tarafdorimiz. Bunday qadriyatlarning eng foydali va insoniy ko‘rinishlari yashovchan bo‘lib qolishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Ананьев Б.Г.Человек как предмет познания.-Л.:Изд/ЛГУ,1978.-12 с.*

*2. Уткин А.И. Векторы глобальных перемен:анализ и оцнеки основных факторов // Полис.-М,2000 №1.-С.– 4.*

*3. Имомназаров М. “Маънавият асослари”.-Т.: Файласуфлар миллий жамияти,2006.-Б.35.*

*4. История в энциклопедии Дидро и Д.Аламбери.-М.:Наука,1978.-63 с.*

*5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.-Т.:Маънавият,2008.-Б.52*

*6. Мирзиёев Ш. 2017 йил 15 июнь куни Тошкент шахрида “Ижтимоий баркарорликни таъминлаш, мукаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусида утказилган анжумандаги нуткидан.*

*7. “Янгиланиш ва барқарор тараққиёт йўлидан изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш – асосий вазифамиздир”. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.Каримовнинг 2006 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2007 йилда иқтисодий Ислоҳотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устивор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. “Ўзбекситон овози” газетаси 13 февраль 2007 йил. 19 (27.664)-сони.*

# YOSHLAR ONGIDAGI QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASIGA “OMMAVIY MADANIYAT” VA “OVERTON TUYNIGI”NING SALBIY TA’SIRI

**Davlatjon MAMATKULOV**,
*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti dotsenti*

***Anontatsiya****. Mazkur maqolada globallashuv va axborot aylanishi jadallashgan bugungi sharoitida mafkuraviy tahdid turlaridan biri bo‘lgan “ommaviy madaniyat” hamda mana shunday tahdidlarni keng ko‘lamli ta’sir kuchiga aylanishida o‘ziga xos rol o‘ynovchi “overton tuynigi” kontseptsiyasi haqida so‘z boradi. Maqolada “ommaviy madaniyat” va “overton tuynigi” tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili va ularning mazmun-mohiyati tahlil etilgan. Shuningdek, “ommaviy madaniyat” va “overton tuynigi”ning namoyon bo‘lish shakli, turlari, bosqichlari hamda ularning o‘zaro aloqadorligi masalasi o‘ziga xos yondashuv asosida o‘rganilib, mazkur tahdidlarni oldini olishga oid taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *“ommaviy madaniyat”, “overton tuynigi”, kitch, vandalizm, nigilizm, starizm, xeppining, emo, got, beatnik, mod, “tabu”, g‘oya, mafkura*.

Ma’lumki, “yumshoq kuch – bu boshqalarni siz qo‘lga kiritmoqchi bo‘lgan natijalarni istashga majburlash” demakdir. Biroq bu “ta’sir ko‘rsatishning o‘zi emas... Yumshoq kuch – shunchaki ishontirish, ko‘ndirish yoki, garchi bular bari ushbu kuchning muhim elementlari bo‘lsa-da, dalil-isbotlar yordamida biron ishni qilishga undash qobiliyatidir. Yumshoq kuch, shuningdek, jalb etish qobiliyati hamdir, jalb etish esa, ko‘pincha o‘zaro tushinishga olib keladi. Oddiy qilib aytganda, xulq-atvor ma’nosida yumshoq kuch – jozibador kuch” [7] hisoblanadi. Bunday tahdidlar bir qarashda tahdidligi ham anglanmasdan, beziyon ko‘rinsada aslida xavflilik darajasi bo‘yicha bevosita tahdidlardan ham yuqorida turadi. “Ommaviy madaniyat” aynan mana shunday xarakterdagi tahdidlardan biri hisoblanadi.

Ommaviy madaniyat haqida gap borganda ijtimoiy hayot va ilmiy jamoatchilikda bu xususida ikki xil yondashuv mavjudligini ta’kidlash lozim. Ularning birinchisi “ommaviy madaniyat turli e’tiqodlar va amaliy faoliyat turlarini, shuningdek, aholi keng qatlamlari tomonidan foydalaniladigan madaniy obyektlarni o‘z ichiga oladi” [3] singari mazmunida bo‘lsa, ikkinchisi, muayyan millatni ming yillar davomida shakllangan milliy madaniyatiga zid keluvchi, unga muxolif bo‘lgan, aslida madaniyat mezonlariga tushmaydigan anti “madaniyat”ni nazarda tutuvchi yondashuvlar hisoblanadi.

Ikkinchi turdagi yondashuvlarga ko‘ra, “ommaviy madaniyat”, tub mohiyatiga ko‘ra, milliy madaniyatning kushandasi bo‘lib, u madaniy plyura-

lizmni xushlamaydi, uning asl maqsadi – bu olamni bir xil rangda ko‘rish” [4], “ommaviy madaniyat insonni barcha sohalarda, jumladan, madaniyat va dam olish, bo‘sh vaqtini tashkil qilish borasida ham individualligini yo‘qotgan iste’molchiga aylantirib qo‘yadi. Uning iste’mol qilayotgan ma’naviy-madaniy mahsulotlari, san’at asarlari esa standartlashgan, milliy qiyofasiz (“pop-art”) tovarga aylanadi. Musiqada va ashulachilikda rep, rok kabi janrlar, jangarilik, mistik-fantastik filmlar, trillerlar blokbasterlar fikrmizni tasdiqlaydi. Ommaviy madaniyat niqobi ostida vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladigan turli ijtimoiy harakatlar va guruhlar (xippilar, pranklar, rokerlar hamda geylar (besoqollar) harakati, antiglobalistlar va sh.k.), faxsh va zo‘rovonlikni, vampirlik va jodugarlikni targ‘ib qiluvchi filmlar, ochiqchasiga pornografik sahnalardan iborat kassetalar, disklar va boshqalar ta’siri esa inson shaxsini emirishga, jamiyatni degumanizatsiya qilishga olib keladi” [1] singari qarashlarni keltirish mumkin.

Ta’kidlash kerakki, “ommaviy madaniyat” yakka tushuncha sifatida qo‘llanilgani bilan u ko‘pdan-ko‘p shakllarda o‘zini nomoyon etadi. Jumladan, uning shakllari sifatida:

– kitch – badiiy-estetik qimmatga ega bo‘lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish;

– vandalizm – madaniy yodgorliklarni, qadriyatlarni vahshiylarcha vayron, oyoq osti qilish, yo‘qotish;

– nigilizm – jamiyatning ma’naviy norma va ustunlari, umume’tirof etilgan tarixiy va madaniy qadriyatlarning inkor etish, shuningdek, ularga nisbatan mutlaqo salbiy, o‘ta tanqidiy munosabatda bo‘lish;

– komiks – tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa – rasm mahsulotlari;

– starizm – subyektiv extiroslarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyor, sportchi va telediktorlarni ideallashtirish;

– xeppining – avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan keskin tomoshalar;

– tatuirovka tushirish – teri ostiga rang yuborib, turli xil shakl va naqshlar chizish;

– bir jinslilar nikohi – erkak va erkak yoki ayol va ayol o‘rtasida oila qurush harakati kabilarni keltirish mumkin.

“**Ommaviy madaniyat**” **amaliyotda yuqoridagi xarakat shakllaridan tashqari butun bir millatning milliy madaniyatiga qarama-qarshi bo‘lgan submadaniyatlarni ham hosil qila oladi. Submadaniyat deganda, muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta’sir qiluvchi ijtimoiy psixologik va g‘oyaviy belgilar (norma, qadriyat, steriotip, did) majmuasi tushuniladi. Submadaniyat – muayyan ijtimoiy guruhga xos bo‘ladi va u jamiyatdagi hukmron madaniyatdan til, kiyinish, odatlar va boshqa jihatlari bilan farqlanadi** [5].

**Maqolani tayyorlash jarayonida olib borilgan kichik ilmiy izlanishlarimiz xulosalariga tayangan xolda, submadaniyatning turlariga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:**

– **E**molar – submadaniyat koʻrinishlaridan biri boʻlib, shu nomli musiqa yoʻnalishi negizida yaralgan. Uning vakillari noodatiy bezak va kiyimlari bilan ajralib turishadi;

– Gotlar – XX asrning 70-yillarida post-pank talqini ostida paydo boʻlgan. Gotlarning oʻziga xos xususiyatlari: maxsus imij, got musiqasiga qiziqish, kiyimlari asosan qora rangda, koʻproq erkaklarga xos odatlar, tishlari uchli vampirsimon koʻrinishda boʻlishi bilan xarakterlanadi;

– Beatniklar – 1950 va 1960-yillarda amerikada shakllangan va dastlab ular amerikaliklarning mumtoz qadriyatlariga, giyohvand moddalar iste'moli, jinsiy erkinlik va anti-materializmga qarshi chiqishgan. Ularning odatiy kiyimi fransuz bereti, quyoshdan saqlovchi koʻzoynak va qora sviter hisoblanadi.

– Modlar – 1960-yillarda amerikada shakllangan. Kiyinishda erkaklar oʻziga xos italiyan kostyumidan, ayollar esa mini yubka va etiklardan foydalanishadi. Shuningdek, ular dubulgʻaga oʻxshash sochlari va mototsiklda yurishlari bilan ham ajralib turishadi;

– Hippilar – 1970-yillarda paydo boʻlishgan. Ular boshqa submadaniyatlardan uzun sochlari va rang-barang kiyimlari, sandal kiyishlari hamda ongni kengaytirish usuli sifatida giyohvand moddalar bilan tajriba oʻtkazishi bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda ular jamoat hayoti, jinsiy inqilob va erkin sevgi gʻoyalarini targʻib qiladilar;

– **Punklar – 1970-yillarning oʻrtalarida paydo boʻlishgan. Ular oʻz mafkurasida anarxiya (**hokimiyatsizlik, beboshlik**)ni targʻib qiladi. Koʻrinish jihatidan ular** Mohican soch turmagi (*boshning ikkala tomoni oldirilib, markazda sezilarli uzunroq soch yoʻlagi qoldiriladigan soch turmagi*)**, charm kurtka va qulflangan yoqa bilan boshqalardan ajralib turardi.**


Amaliyotda submadaniyatning yana rokchilar – rok-roll kabi musiqa fanatlari, metallistlar – metal nishonlarga ixlos qoʻyganlar, geymerlar – video oʻyin muxlislari, gotiklar – motam va oʻlimga talpinuvchi va targʻib etuvchilar kabi turlari ham uchraydi.

Submadaniyatlar "ommaviy madaniyat"ning hayotdagi amaliy koʻrinishi hisoblanadi. Ularning paydo boʻlishiga jamiyatdagi ichki: mafkurasizlik, jamoaviy ta'sirning yoʻqligi va qarshi kurashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini yaratilmagani sabab boʻlsa, tashqi tomondan "yumshoq kuch" ta'sir strategiyasiga asoslanuvchi konsepsiyalar sabab boʻladi. Mana shunday konsepsiyalarga misol qilib "Overton tuynigi"ni keltirish mumkin.

Ma'lumki, "Overton tuynigi" konsepsiyasi amerikalik olim va psixolog Jozef Overton (01.04.1960 – 30.06.2003) nomi bilan bogʻliq. U oʻz vaqtida insonni noinsoniylashtirish usulini oʻrgangan va qanday qilib qabul qilib

bo‘lmaydigan, jirkanch va sharmandali xolatni bosqichma-bosqich tarzda, oddiy, jamiyat va davlat tomonidan qabul qilingan xolatga olib kelish jarayonini tushuntirib bergan.

“Overton tuynigi” konsepsiyasida oltita bosqich mavjud. Ular (1-rasm):




**1-rasm. Yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasiga salbiy ta’sir etuvchi “Overton tuynugi” kontseptsiyasining ta’sir strategiyasi**

Birinchi bosqich – “Tabu” – jamiyatga butunlay yot bo‘lgan, jamiyat a’zolariga taqiqlangan, o‘ylab ham bo‘lmaydigan narsa;

Ikkinchi bosqich – “Tabu”ni muhokamaga olib chiqish va vaziyatni radikal (radikal – lotincha “radix” ildiz so‘zidan olingan bo‘lib, qat’iy va keskin choralar, harakatlar tarafdori) shaklga keltirish;

Uchinnchi bosqich – radikal vaziyatni maqbullashtirish, yumshatish. Masalan, an’anaviy atamalarning ma’nosini o‘zgartirish. Misol uchun bir jinslilar “nikoh”ini – “ixtiyoriylik, erkinlik tantanasi” atamasiga o‘zgartirish;

To‘rtinchi bosqich – qabul qilingan yangi normani “oqilona ish”ga aylantirish. Masalan, bir jinslilar “nikoh”ini ilmiy, tabiiy, tarixiy, biologik yoki boshqa sabablar bilan asoslash;

Beshinchi bosqich – “oqilona ish”ni mashhur qilish. Ya’ni, o‘tmish yoki hozirda ko‘plab taniqli shaxslar ushbu me’yorning tarafdorlari bo‘lganligini ko‘rsatish;

Oltinchi bosqich – ijtimoiy darajada ommabop bo‘lgan narsani qonuniy mustahkamlab qo‘yish. Masalan, bir jinslilar “nikoh”i tarafdorlarining huquqini himoyalash bo‘yicha qonun qabul qilish kabilar.

Ko‘rinib turibdiki, “Overton tuynigi” konsepsiyasida “tabu” – go‘yo imkonsiz narsa – joizga, joiz – ma’qulga, ma’qul – mantiqiyga, mantiqiy –mashhurga, mashhur – inkor etib bo‘lmas haqiqat (qonuniy)ga aylanadi.

Mazkur konsepsiya tom ma’noda “ommaviy madaniyat” singari mafkuraviy tahdidlarning ishlash prinsipini ko‘rsatib beradi.

Afsuski, jamiyatimizning bugungi g‘oyaviy-mafkuraviy manzara yurtimizda “Overton tuynigi” konsepsiyasi ishlayotgani va buning natijasida

yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasida salbiy o‘zgarishlar yuzaga kelayotganini ko‘rsatadi. Chunki hozirgi holat, ya’ni:

– “O‘zini ayollarga o‘xshatib, to‘yma-to‘y yuradiganlarga “parodist san’atkor” nomi berilib, hatto TV ga olib chiqilishi, ularning jirkanch ishlariga “san’at” deb nom berilishi;

– Ba’zi san’atkorlarning transgenderlar bilan iliq munosabatini ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoyish;

– Ikki mashhur ayol qo‘shiqchilarimizning bir-biri bilan o‘pishgudek darajada bir-biriga qarata sevgi haqidagi qo‘shig‘iga ishlangan klip;

– Turli shoumenlar tomonidan bachchavozlik haqidagi hazillarning nihoyatda ko‘payib, xalqqa oddiy holdek ko‘rsatilishi, natijada ko‘pchilik bunday hazillarni nafrat bilan emas, kulgi bilan qabul qila boshlagani;

– Ba’zi OAVlarning LGBTlarni himoyalovchi, ularga muxolif bo‘lganlarni qoloqlikda, mutaassiblikda ayblovchi maqolalarni tez-tez e’lon qilib turishi;

– Ba’zi populist blogerlar tomonidan LGBTlarni bevosita yoki bilvosita qo‘llab-quvvatlash, ularga nisbatan tolerant bo‘lishga da’vat qilishning avj olishi;

– Shunday blogerlar jamoasi tomonidan geylikni biologik taqozo, pedofillikni ham normal holat, deb baholaydigan kitobning tarjima qilinib, o‘zbek kitobxonlariga taqdim etilishi”[8] kabilarning mavjudligi shundan dalolat beradi.

Bizningcha, yuqoridagi masalalar “Overton tuynigi” konsepsiyasi bo‘yicha jamiyatimizga “ommaviy madaniyat” kabi mafkuraviy tahdidlar o‘z ta’sirini o‘tkazyotganligining amaliy isboti hisoblanadi. Chunki, yuqorida misol keltirilgan g‘oyaviy-mafkuraviy buzilishlar bundan ellik yoki etimish yil avval ham jamiyatimiz uchun “tabu” (taqiqlangan, o‘ylab ham bo‘lmaydigan narsa) darajasida bo‘lgan. Endilikda esa, bunday narsalarni o‘zaro muhokama qilinayotgani, ba’zilar tomonidan ularning huquqlari haqida qayg‘urilishi jamiyatimizni “Overton tuynigi”ning ayrim bosqichlarini bosib o‘tganidan dalolat beradi.

Maqoladagi tahlillar birinchi navbatda “ommaviy madaniyat” singari mafkuraviy tahdidlarni “Overton tuynigi”ning so‘ngi bosqichigacha etib borishlariga, ya’ni yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib, “mentalitetimizga zid bo‘lgan narsani qonuniy mustahkamlab qo‘yish”larigacha kutmasligimiz zarur, degan xulosaga kelishimizga undaydi.

Buning uchun, mafkura obyekti bo‘lgan inson, deb atalmish oliy mavjudotni, jumladan, bugungi kun yoshlarini qiziqishlari, orzu va maqsadlari, umuman olganda ularning hayotiy qadriyatlarini har tomonlama chuqur o‘rganishimiz lozim bo‘ladi. Binobarin, “inson, uning miyasi, aqli shu darajada ko‘p qirrali, xilma-xil, anglash qiyin bo‘lgan holat va bashorat qilish

mumkin bo‘lmagan xazina. O‘zida mujassam etgan beqiyos imkoniyatlari bilan noyob mo‘jiza. Bu muammo juda murakkab va balki, undan ham qiyin bo‘lgan hodisaki, uni fan hali-beri hal eta olmaydi” [6]. Inson mohiyati va uning potensial kuchini yo‘naltirish masalasida fan ojiz bo‘lsa, bu jarayon albatta mafkura tomonidan xal etilishi lozim bo‘ladi. Buning uchun esa, jamiyat jumladan, yoshlar hayotiga har tomonlama mos keladigan, zamon va makon uchun munosib mafkuraviy mexanizmlarni yaratish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Эркаев А. Маънавият. – Т.: Маънавият, 2011. 215-216 бетлар.*

*2. Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. – Т.: Ўзбекистон, 2012. –74 б.*

*3. Мукерджи Ч. Шадсон М. Новый взгляд на поп-культуру. № 3. С. 101.*

*4. Дворкин А.Л. Сектоведение. – Нижний Новгород, 2002. С. 66.*

*5. Субкультура // Энциклопедия сотсиологии / Сост. А.А.Гритсанов, В.Л.Абушенко, Г.М.Евелкин, Г.Н.Соколова, О.В.Терещенко. Минск: Книжный Дом, 2003. с. 1312 .*

*6. Константинов Ф. Современные проблемы философии и задачи философской общественности. “Вапросы философии” 1972, №1 с. 35.*

*7. Най Дж. Гибкая власт. Как добится успеха в мировой политике. Пер.с англ. – Новосибирск/Москва, 2006. – С. 30-32.*

**Muqimov** *Yo. Fitna nazariyasi chinga o‘xshaydi... https://azon.uz/content/views/fitna-nazariyasi-chinga-uhshaydi*


## QADRIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA


**Maftuna NAMOZOVA**,
*Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti*
*tayanch doktaranti*



***Annotatsiya****: Maqolada qadriyat va transformatsiya tushunchasi ochib berilgan, shuningdek qadriyatlarning transformatsiyalashuviga izoh berilgan, jamiyatdagi transformatsion o‘zgarishlar haqida va yoshlar qadriyatlarini shakllanishi va transformatsiyaga uchrashiga sabab bo‘luvchi omillar haqida fikr yuritilgan.*



***Kalit so‘z:*** *transformatsiya tushunchasi, yoshlar, qadriyat tushunchasi, qadriyatlarning transformatsiyalashuvi, qadriyatlar tizimi, begonalashuv, internet, mediamakon, “kitch-did”*


Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi tahlikali tus olayotgan, insoniyatga qaratilgan (mafkuraviy,iqtisodiy,siyosiy) tahdidlar, qadriyatlar

transformatsiyasi kuchaygan bir pallada mamlakatimiz aholisining asosiy qismini tashkil etayotgan yoshlar davlatimizning rivoji, ertangi kuni, kelajagi va dunyo hamjamiyati oldida O‘zbekiston nufuzini ko‘taruvchi innovatsion resurs hisoblanadi. Ammo turli xil yangi tahdid va xavflarning yoshlar orasida ijtimoiylashayotgani bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham dolzarbligi namoyon bo‘lmoqda. Shu o‘rinda turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy imunutetni shakllantirish va mediamakonda axborot iste’mol madaniyatini rivojlantirish lozim. Jamiyatdagi transformatsion o‘zgarishlar uning eng faol qatlami bo‘lgan yoshlarning qadriyatlar tizimida ham kuzatilmoqda. Hayotimizning bugungi kunida mamlakatimiz aholisini 55,6 foizini [1] tashkil etuvchi yoshlar o‘zlari uchun nimalarni qadriyat deb hisoblashmoqda, qadriyatlar qanday hollarda transformatsiyasi uchrayotgani haqida fikr bildirishdan oldin qadriyat va transformatsiyaning mazmun mohiyatini ochiqlab olsak.

Qadriyat tushunchasi azaldan inson, insoniyat va jamiyat hayotida muhim o‘rin egallaydigan masalalardan biri bo‘lib, ingliz tilida “value”, fransuz tilida – “valuer”, nemis tilida – “wert” amal qiladi va ular nafaqat “qadriyat”, balki “qiymat” [2] degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu tushuncha insoniyat o‘zini tanigan davrdan buyon mavjud bo‘lgan bo‘lsada, qadriyatlarni ilmiy o‘rganish XIX asr o‘rtalarida inson hayot faoliyatining umumiy falsafiy tahlili kontekstida mustaqil ijtimoiy-falsafiy tarmoq sifatida vujudga kelgan va nemis olimi E.Gertman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan muomalaga kiritilib, qadriyatlar muammosini o‘rganish mustaqil fan – aksiologiya (yunon. axios – qadriyat va logos – so‘z, tushuncha) vujudga kelishiga olib keldi. “Qadriyatlar o‘z – o‘zicha borliqqa ega emas, ularda faqat ahamiyat mavjud: ular irodaga, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadga qo‘yilgan talablardir”[3]. Ilmiy terminologiyada qadriyatlar tushunchasiga muqobil sifatida an’ana tushunchasi ham qo‘llaniladi. An’ana – o‘tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o‘tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy qadriyat hisoblanadi.

Qadriyat tushunchasi rus olimlari tomonidan yaratilgan falsafiy lug‘atlarda “Qadriyat – subyektning baholanayotgan obyekt qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi tasavvurlari va obyekt o‘rtasidagi munosabatda ifodalanadi. Agar obyekt unga qo‘yiladigan talablarga javob bersa (u shunday bo‘lishi kerak), u yaxshi yoki ijobiy qadrga ega bo‘ladi; talablarga javob bermaydigan obyekt yomon yoki salbiy qiymatli deb tasniflanadi; yaxshi ham, yomon ham bo‘lmagan obyektga befarq yoki qadriyatiy jihatdan betaraf deyiladi”[4] deb izohlanadi.

“Qomusiy sotsiologik lug‘at”da qadriyat “ijtimoiy ppedmetning ijtimoiy subyekt (inson, odamlar guruhi, jamiyat)ning muayyan ehtiyojlarini qondirish xossasi, shuningdek, voqelik muayyan hodisalarining jamiyat uchun

ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini va inson uchun shaxsiy mazmunini tavsiflaydigan tushunchadir" deb ta'riflanadi [5].

"Falsafiy lug'at"da "Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy sotsiologik va aksiologik tushuncha bo'lib, jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar hisoblanadi" [6]deb izohlanadi.

Q.Nazarov fikriga ko'ra muayyan voqelik, jamiyat va uning rivojlanish bosqichiga mos keladigan, obyekt yoki subyekt qadri va ahamiyatining inikosi bo'lgan, obyektiv ravishda tasavvur qilinadigan va bilish jarayonida anglab olinadigan turli qadriyat shakllarining o'ziga xos bog'lanishini va dialektik o'zaro aloqasini ifodalaydigan aksiologik tizimlar qadriyatlar sistemasi deyiladi"[7] Qadriyatlar tizimi muayyan ijtimoiy subyektlar (shaxs, millat, jamiyat va boshq.), biron bir davr, tarixiy bosqich yoki soha bilan bog'liq bo'lgan tizimni tashkil etuvchi elementlar – marosim, udum, urf-odat, an'ana, qadriyat shakllarining o'zaro aloqadorligi va chambarchas bog'liqligini ifodalaydigan tushunchadir.

Qadriyatlarning tiplari bo'yicha moddiy va ma'naviy qadriyatlar, xarakteriga ko'ra oilaviy, qabilaviy, etnik, milliy, hududiy, mintaqaviy, baynalmilal, umuminsoniy, tarixiy va demokratik, shakllariga ko'ra siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, falsafiy, ilmiy, diniy, demografik, ekologik va iqtisodiy qadriyatlarga bo'linadi.

Transformatsiya (lot. transformatio – qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish) (genetikada) – hujayraga yot DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o'zgarishidir[8]. Agar bu so'zni falsafiy jihatdan sodda qilib izohlaydigan bo'lsak transformatsiya bir tizimning azaldan mavjud bo'lgan qonun qoidalarini ijtimoiy hayotda o'zgarishlarni yaratish, qabul qilish va o'zgartirish jarayoni bo'lsa, "qadriyatlar transformatsiyasi" – xalq mentalitetida yashab kelayotgan necha ming yillik qadriyatlar, an'analar yi g'indisi o'rniga zamonaviy, badiiy-estetik qiymatga ega bo'lmagan "Ommaviy madaniyat", "demokratiya eksporti", "ommaviy qadriyatlar" ash'yo-ne'matlari bo'lib, bugungi yoshlar jamiyati ma'naviy qadriyatlarining shakllanishiga asos bo'lmoqda. Shuningdek, qadriyatlarning transformatsiyasi jamiyat taraqqiyotining bir bosqichdan rivojlangan yangi bosqichiga o'tishida an'anaviy qadriyatlar, avlodlarning turmush tarzi odat va an'analarining yangi jamiyatga vorisiylik holatida yoshlar tomonidan o'zlashtirish jarayonidagi islohi nazarda tutiladi.

Bugungi axbarotlashgan asrda yoshlarning axborotga bo'lgan talab va takliflarining yuqori suratlarda oshishi ma'naviy-madaniy qadriyatlarga


sadoqat, o‘zlikni anglash, qadriyatlar va milliy o‘zlikni saqlab qolish ikki hissa ortmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining beqiyos o‘sishi yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, ma’rifatining ortda qolishi tufayli ijtimoiy munosabatlarda qadriyatlarning qadrsizlanishi, odat va an’analarning o‘zgarishi bilan tarbiyaning samarasiga ijtimoiy muhitning salbiy ta’siri kuzatilmoqda. Moziyga qaytib ish ko‘rishning zaruriyati tarix saboqlari, milliy qadriyat va an’analarda jamiyat taraqqiyotining muhim elementlarini ko‘rishga imkon beradi[9].


Yoshlar qadriyatlarini shakllanishi va transformatsiyaga uchrashiga ichki va tashqi omillar, migratsiya, “demokratiya eksporti”, “ommaviy madaniyat”, axborot makonida internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish istalgan xabarni tahlilsiz qabul qilish va boshqa sabablar o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ilmiy hamjamiyatni tashvishga solayotgan muammolardan biri sifatida bugungi yoshlarni moddiy narsalarni hayotining asosiy mazmuni hisoblashi, ulardaki mol dunyoga “o‘chlik”, o‘zbek xalqini boy tarixiy, moddiy, ma’naviy merosi unutilib, o‘rniga badiiy estetik diddan yiroq kiyinish madaniyati, oilaviy munosabatlar va nikoh masalalarining nostandartlashuvi, soxta sa’nat asarlarining urfga chiqishi, adabiyot sohasida “sariq adabiyotga” ehtiyojning oshishi aksariyat holatlarda qadriyatlarni qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Bugungi axboratlashgan davrda yoshlarning mediamakonda istalgan turdagi ma’lumotni video-rolik, audiyo, yozma shaklida YouTube, Tik-Tok, Instagram, Telegram, Facebook, Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlarga joylanishi bilan shaxs daxlsizligi, inson, oila, jamiyat, davlat obro‘si, sha’ni va qadr-qimmatiga jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rish mumkin.

Sotsiologik so‘rovnomaga asosan yoshlarning 85% ularda qadriyatlarning o‘zgarishiga Internet va ijtimoiy tarmoqlar sabab bo‘layotganini ta’kidlashgan. Shuningdek, bunga do‘stlar va tanishlar (7%), oiladagi muhit (5%) va OAV (3%) (xorijiy kinofilmlar, seriallar va musiqiy kliplar) salbiy ta’sir ko‘rsatishi ma’lum qilingan. (1-diagramma)[10]

**Qadriyatlar transformatsiyasiga sabab bo‘luvchi omillar.**



Shuningdek yoshlar hayotida transformatsiyalashayotgan qadriyatlarni ustuvorligining ierarxiya shkalasi aniqlandi:




Turli xildagi ichki va tashqi omillar asosida yoshlarning maqsadi, xohish-istaklari va turmush tarzining transformatsiyalashuvi intolerantlik divedantlik muammosini ham keltirib chiqarmoqda. Ya’ni, yoshlarning hayot ne’matlarining tez sur’atda olish, tatib ko‘rish, his qilish, tushunish va iste’mol qilish kayfiyati shakllanishi orqali intolerantlik fe’l-atvori yuzaga keldi. Natijada, sabrsizlik, betoqatlik, qanoatsizlik, chidamaslik, murosasizlik, muvozanatsizlik, jizzakilik, qahr, g‘azab, nafrat, isyonkorlik, qo‘pollik, befarqlik, loqaydlik, tushunmaslik, begonalashuv kabi yoshlarda illatlarning rivojlanishi tolerantlik madaniyatiga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Shuningdek, yoshlar ma’naviyatida transformatsiya jarayonida internet va mobil aloqalarning yangi imkoniyatlari salbiy ta’sir etishi bilan birga jismoniy salbiy ta’siri ham aniqlandi. Axborot resurslaridagi “ommaviy qadriyatlar” – ijtimoiy tabaqa va qatlamning barchasiga mos past saviyali badiiy-estetik madaniyat namunalari, narsa va buyumlarga sun’iy andoza tusini berish jarayoni bo‘lib, ko‘p hollarda yoshlarimiz o‘zligining milliy qadriyatlardan mosuvo etib, yoshlarda vulgar modalashgan kiyinish, insonni kuchli emotsiyaga olib boruvchi jarayonlarga maylning ortishi hayot mazmuniga aylanishi tufayli bo‘sh vaqtning mazmunsizligi, nafis didni da g‘allashuvi ostida “kitch-did” – (nem. Kitsch – sifatsiz, arzon, yengil-yelpi, saviyasi past) nafosatsizlikka boshlovchi, arzon va jo‘n yaratilgan narsa va buyumlarga sun’iy joziba tusini berish jarayoni yoshlarning axloqida hosil bo‘lmoqda. Bu hol behayolik va zo‘ravonlik, notabiiylik, andozasizlik, madaniyatsizlik, ma’naviyatsizlik, millat va uning ma’naviy qadriyatlariga bepisandlik bilan ijtimoiy manfaatlarga daxl qiluvchi holatni tug‘diradi. Yoshlarda ijtimoiy-madaniy ornament – belgilarini transformatsiyasi ma’naviyat, qadriyatlariga nisbatan begonalashtirmoqda.

Begonalashuv – shaxsning ijtimoiy – iqtisodiy hayotini qulaylashtirishga

intilish natijasida o‘zini o‘zgalardan uzoqlashuvi, shaxsning o‘zini doirasida qolishi, atrofida bo‘layotgan voqea va hodisalarga loqaydlik, ayniqsa mol-parastlikka berilish, o‘zgalarga munosabatida ma’naviy qiymatning ruhiy begonalashuvi holati shaxsni axloqida xudbinlikka tortadi[11].

Xulosa qiladagigan bo‘lsak, qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlarini, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim. Shaxslar hayoti va faoliyati muayyan qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, qadriyatlar tizimida shakllanadi va rivojlanadi. Shaxslar hayotida qadriyatlar tizimi ularning ijtimoiy hayoti jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi. Transformatsiya jarayonida shaxslar qadriyatlarni o‘zi uchun qabul qilish, zarur va zarur bo‘lmagan, foydali va foydasiz tomonlarini farqlagan holda qadriyatlarga o‘zlarining qarashlarini bildirishlari lozim. Shuninfdek, qadriyatlar transformatsiyasi jamiyat taraqqiyotining bir bosqichdan rivojlangan yangi bosqichiga o‘tishida an’anaviy qadriyatlar, avlodlarning turmush tarzi odat va an’analarining yangi jamiyatga vorisiylik holatida yoshlar tomonidan o‘zlashtirish jarayonidagi islohi nazarda tutiladi. O‘z o‘rnida qadriyatlar tizimining o‘zgarishi uning transformatsiya jarayoni orqali amalga oshadi. Qadriyatlar tizimining transformatsiyasi esa bugungi globallashuv va modernizatsiya jarayonlari bilan bog‘liqdir. Globallashuv sharoitida axborot texnologiyalarining ijtimoiy madaniyat, ya’ni yoshlarning mediamadaniyat sifatida shakllanishi ta’lim va tarbiya sohasida axloqiy tarbiyaga e’tiborni talab etadi. Yoshlar o‘zaro bevosita munosabatida etika-estetika qanchalik muhim bo‘lsa, aloqalarning onlayn odob, axloq, fazilat shaklida yoshlarning ma’naviyatida tarbiyasini talab etmoqda. Bu masala onlayn qaramlik, onlayn qullikni (sindromi), onlayn manqurtlik oldini olish uchun onlayn fe’l-atvorda milliy an’ana, onlayn til kabi savodxonlik ma’rifatini shakllantirishga undaydi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-30-yoshgacha-bolgan-aholi-soni-qancha*

*1 Каган М.С. Философская теория ценности. – СП(б): 1997. – С.41.*

*2 Современная западная философия. Словарь. – Москва: Одиссей, 1991. – С.11-14.*

*Философия: Энциклопедический словарь. – М.: Гардарики. Под редакцией А.А. Ивина. 2004. / (мурожаат санаси: 04.10.2022)*

*Краткая философская энциклопедия. – Москва: 1994. – С.507.*

*Falsafa qomusiy lug‘ati. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” – T.: 2004. 276*

*1. Назаров Қ. Қадриятлар тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси. 09.00.11. – Ижтимоий фалсафа. ф.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 1996. 85 б.*

*2. Романова К.С. Трансформатsiя ценностей как индикатор изменения общества и личности // Научный ежегодник Института философии и права. Уральского отделения Российской академии наук. 2008. Выпуск 8, С. 166.*

*3. Мирзахмедов Х.А. Эмоционаллашаётган ёшлар. // Социологияни ўқитиш ва социал тадқиқотларни ташкил этишнинг долзар масалалари. Республика илмий – амалий конференцияси мақолалари тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 284-28*

*4. .Юнусов А. Ўзбекистон ёшларининг қадрият мўлжаллари. www.ziyonet.uz*

*5. Mirzaxmedov X. Yoshlar transformatsyalashuv obyekti sifatida. www.ziyonet.uz*

## DAVLAT XIZMATI SOHASIDA MODERNIZATSIYA TUSHUNCHASI VA UMUMIY TASNIFI: XORIJ TAJRIBASI

**Kuatbay MIRZABAYEV,**
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,*
*Ijtimoiy fanlar kafedrasi mustaqil izlanuvchisi (PhD)*

***Annotatsiya:*** *Mazkur ilmiy ishda davlat hokimiyatini nomarkazlashtirish mahalliy hokimliklarning vakolatlarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat xizmatini zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda modernizatsiyalash, uning huquqiy va ijtimoiy-siyosiy mohiyati, ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilishni, davlat boshqaruvi tizimida ma’muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirishni bщyicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish asosiy vazifa sifatida qaralgan. Shuningdek, “Modernizatsiya” tushunchasining tushunchasining huquqiy va ijtimoiy-siyosiy mohiyatini yoritishga bag‘ishlangan.*

***Kalit so‘zlar;*** *Yangi davlat menejmenti, Yangi davlat boshqaruvi, Elektron hukumat, davlat xizmati; davlat boshqaruvi tizimi, modernizatsiya*.

**Kirish (Introduction).** Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda o‘z xalqi va kelajagi uchun qayg‘uradigan har bir davlat yuksak mas’uliyatni anglagan holda o‘z taraqqiyot yo‘lini qat’iy belgilab oladi.

Eng asosiysi, Mustaqil O‘zbekistonda mazkur vazifani amalga oshirish yo‘lida jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada erkinlashtirish va isloh qilish jarayonlari izchil davom ettirildi. Qaysi soha yoki tarmoqda bo‘lma-

sin, dolzarb muammolar aholi bilan ochiq muhokama qilinib, ularning yechimini topishga erishildi. Barcha qarorlarni xalqning fikr-mulohazalari va murojaatlari asosida qabul qilish esa, islohotlarning tez va samarali amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Mamlakatda davlat xizmati sohasini izchillik bilan takomillashtirilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda, bu aholining hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash imkonini oshirmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Oldimizga qo'ygan maqsad-muddaolarga yetish uchun bu ishlarni o'zimiz qilmasak, boshqa hech kim bizga chetdan kelib qilib bermaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kadrlarning amaliy zahirasini shakllantirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim masalalarini o'z ichiga oladigan maqsadli dasturni ishlab chiqish vaqti keldi, deb o'ylayman"[1].

Tabiiyki, davlat boshqaruvini shu jumladan, davlat xizmatini isloh etish va modernizatsiyalash Konstitutsiyada va qonunlarda mustahkamlangan prinsiplar hamda talablar asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bu borada fuqarolarning yana bir muhim huquqiga e'tibor qaratish lozim. 2005 yilda Yevropa ittifoqiga tasdiqlash uchun taqdim etilgan Yevropa Konstitutsiyasi loyihasida inson va fuqarolarning ijobiy boshqaruvga bo'lgan huquqi nazarda tutilgan. Unga ko'ra, hokimiyat organlari fuqaroning murojaatlarini xolis va adolatli, paysalga solmay mohiyati bo'yicha ko'rib chiqishi, saylab qo'yilgan vakillar va ma'muriyat aholi manfaatlari yo'lida faoliyat yuritishi lozim[2].

Modernizatsiya jarayoni obyektiv xarakterga ega. Bu jamiyat ijtimoiy hayoti, qonunlardagi o'zgarishlar, yangilanishlar bilan bog'liq. Davlat va jamiyat qurilishi sohasining modernizatsiyalashishi rahbar va boshqaruv kadrlari tizimining ham yangilanishini taqozo etadi. Ya'ni, rahbar va boshqaruv kadrlar tizimidagi o'zgarishlar, yangi talablarga javob berishi davr talabiga aylanadi.

"Modernizatsiya" tushunchasi takomillashtirish, yangilash degan ma'noni anglatadi. Siyosiy sohada modernizatsiya demokratlashuv bilan tenglashtirilgan va bunda an'anaviy jamiyatning yashirin inersiyasi hisobga olinmagan hamda asosiy e'tibor tashqi, ekzogen omillarga qaratilgan [1].

Aksariyat olimlarning fikricha, modernizatsiya sivilizatsiyaviy, ijtimoiy-madaniy xususiyatga ham ega, boshqacha aytganda, u ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. B.S.Starostinning ta'kidlashicha, modernizatsiyaning asosiy maqsadi va ma'nosi faqat iqtisodiy o'sishdan emas, balki texnologik madaniyat, boshqaruv madaniyati, siyosiy va sivilizatsiyaviy madaniyatlarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy madaniyat taraqqiyotining ma'lum darajasiga erishishdan iborat[3].

O'zbekistonda davlat xizmati tizimining modernizatsiyalashish jaray-

onlari milliy davlatchilik negiziga tayanish bilan birga, dunyo davlatlarining davlat xizmati tizimi bilan bog‘liq tajribalarni ham hisobga olishni taqozo etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida davlat xizmatlariga zamonaviy usullarni joriy etish va foydalanish bosqichi o‘tgan asrning 80-90-yillarida faol rivojlandi. Bu jarayon davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi to‘lqini bilan bog‘liq bo‘lib, turli davlat tashkilotlari tomonidan xususiy sektor tizimiga samarali boshqaruv texnologiyalarni jalb etishga, shuningdek, ortib borayotgan ijtimoiy extiyojlarni qondirishga qaratilgan innovatsion yechimlar, xizmat sifatini yaxshilashga qaratilgan intilish deb baholandi.

1884 yildan e’tiboran Vudro Vilson va Maks Veber eski yoki an’anaviy davlat ma’murchiligi (Old Public Administration) modelini ishlab chiqishda jonbozlik ko‘rsatdilar[6]. Unga ko‘ra, davlat hokimiyati saylangan siyosiy shaxslarga xizmat qiladi va ularning oldida javobgar hisoblanadi. Uning nazariy asosini yuqoridan quyiga (byurokratiya) prinsipiga tayanish, ierarxiya, meritokratiya, mustaqillik va integratsiya qadriyatlari bilan ish ko‘rish hamda siyosatchi va fuqarolardan ajratilgan rasmiy shaxslarni nazarda tutuvchi elitaristik yondashuv tashkil etadi. Qayd etish joizki, elitaristik yondashuv 19-asr oxirida Britaniya va Prussiyada boshqaruv qarorlarining patronaj va favoritizm ta’sirida bo‘lgani va buni isloh qilish zarurati sifatida vujudga kelib, markazlashgan nazoratga, qoida va ko‘rsatmalarni joriy qilishga, siyosatni shakllantirish va amalga oshirishning bir-biridan ajratilishiga, ierarxik tashkiliy tuzilma faoliyatiga tayanadi. Bu yondashuvning bosh shiori – byudjet va inson resurslarini boshqarishda mahsuldorlik va samaradorlik, ya’ni kamxarjlilik edi[6]. Shuningdek, ushbu modelda buyruq va nazorat, belgilab qo‘yilgan aniq davlat sektori axloqi orqali ta’minlanuvchi tuzilmaviy va tashkiliy samaradorlikka jiddiy urg‘u beriladi.

Taniqli ingliz olimlari Martin Minogu va Villi MkKortlarning fikricha, bu modelning markaziy jihatlari – siyosat va saylangan siyosatchilarning ma’muriyat va tayinlangan amaldorlardan ajratilishi; ma’muriyatning uzluksizligi, oldindan ayta bilishligi va qoidalar bilan boshqarilishi; ma’muriy boshqaruvchilarning malaka asosida tayinlanishi, ya’ni malakali professionalligi; mehnatning funksional taqsimlanishi hamda topshiriq va odamlarning ierarxiyaviyligi; resurslarning tashkilotdagi odamlarga emas, balki tashkilotga tegishliligi; davlat xizmatchilari xususiy manfaatlarga emas, balki jamiyatga xizmat qilishi hisoblanadi[7].

Mazkur “buyruq-nazorat” yondashuviga muvofiq byurokratik tizimga tayangan davlat boshqaruvi dunyoning kolonial tizimlari va mustaqillikdan so‘nggi MDH davlatlarida amal qildi. Boshqa davlatlarda esa, avvalo Fransuz va Yapon tajribalarida bu modelning boshqa varianti – markazlashgan byurokratik model ostida siyosiy omillar ta’siridagi boshqaruv xususiyatlari

namoyon bo‘ldi. Bunday yondashuv ko‘plab mamlakatlarda, jumladan Singapurda ham yaxshi amal qildiki, bu yerda mustaqillikdan so‘nggi siyosiy yetakchilik tufayli yuqori sifatli va samarali davlat xizmatini shakllantirildi.

Byurokratiyaning, ya’ni davlat xizmatchilarining o‘lchovli (merit) tayinlash tizimi va kar’erasining barqarorligi iqtisodiy o‘sishga katta ta’sir etganini Jahon bankining 1997 yilgi Dunyo rivojlanish hisobotida aks etgan statistik tahlil ko‘rsatadi. Shuningdek, bu sohadagi yutuqlar sifatida: 1) iqtisodiy rivojlanish qat’iy intizom va aniq statistik tahlil ta’minlangan byurokratiya bilan birga kechganini; 2) amaldorlarning (patronaj emas) meritologik asosda qabul qilinishini; 3) davlat amaldorlarining kar’eraviy barqaror faoliyatining ta’minlanganini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ayni paytda, rivojlanayotgan mamlakatlardagi davlat xizmati islohotlarida mazkur modelning siyosat va siyosiy iqtisod dinamikasiga yetarlicha e’tiborning kamligi; davlatning tashkiliy strukturasi va amaliyotidagi kontekstual farqlarni anglamasdan boshqasiga almashtirishga urinish; sonni va xarajatni kamaytirishga haddan ziyod diqqat qilish kabi umumiy muammoli oqibatlari ko‘rsatiladi.

1980-yillardan boshlab dunyo miqyosida Yangi davlat menejmenti (New Public Management) modeli asosida davlat va jamiyat boshqaruvini tashkil etishga o‘tila boshlandi. Unda davlat boshqaruvi organlari, asosan moliyachilar oldida javobgar tarzda faoliyatni tashkil etgani bir qator adabiyotlarda qayd etiladi. Nazariy tayanchi sifatida keltiriladigan jamoatchilik tanlovi va prinsipial-agent konsepsiyasida ham xuddi shu ijtimoiy toifa jamoatchilikning asosiy subyekti, deb qaralar edi. Mazkur modelning tub sabablaridan biri shuki, u Iqtisodiy hamkorlik va tiklanish tashkilotiga a’zo davlatlarda raqobatli bozor iqtisodiyoti talablarini boshqaruvchi eski davlat ma’murchiligining kamchiliklariga javoban vujudga keldi. Mazkur yondashuv Birlashgan Qirollik, Yangi Zelandiya, AQSh va Skandinaviya mamlakatlarida 1980-yillarning o‘rtalarida paydo bo‘ldi.

Uning markaziy masalasini xarajatlar masalasi tashkil etib, unda raqobatchilik va xususiy sektor boshqaruvi prinsiplari amal qiladi. Rasmiy shaxslarning o‘z ichki qiziqish va xulq-atvorini majburiy nazorat qilishi orqali samarsizlik hamda korrupsiyaning oldini olishni ko‘zlovchi prinsipial-agent yondashuviga tayaniladi. Byurokratik xulq-atvorni nazorat qiluvchi mezonlarni raqobatchilik, delegatsiya, ijrochilik va sezuvchanlik tashkil etadi. Shu sababli ham uning eng muhim tayanch elementlari sifatida: xususiy sektor menejmentida o‘rnak olishga e’tibor, davlat xizmati tashkilotlarida tadbirkorlik yetakchiligiga diqqat qaratish, ichki va tashqi nazorat, auditning tashkil etilgani, davlat xizmatchilarining aksariyat bazaviy qismlari bilan sintezning yo‘qligi va o‘zlarining xarajatlari boshqaruviga katta e’tibor, davlat xizmati doirasida bozor, raqobat va shartnomalardan foydalanishning o‘sishi alohida ajralib turadi [6].

2000-yillardan e’tiboran yevropalik olimlar Osborn S.P. Denxartlarning ta’biricha, tadbirkorlar qatlamiga urg‘u beradigan, ana shu qatlam oldida javobgarlik va xizmat qilishni olg‘a suradigan Yangi davlat xizmati (New Public Service) modeli amal qila boshladi[8]. Demokratik nazariyaga tayanuvchi mazkur modelda mansabdor shaxslar tadbirkor fuqarolar oldidagi hisobdorligi, jamiyat ustidan hukmronlik qilish emas, aksincha fuqarolarga xizmat qilishini va ular oldidagi javobgarlikni nazarda tutuvchi tamoyillar ishlab chiqildi va amaliyoti yo‘lga qo‘yila boshlandi. Shuningdek, unda faoliyatga rag‘bat majburiyat yoki manfaatdan emas, balki fazilatdan kelib chiqadi. Diqqat e’tiborda asosan tadbirkor fuqarolar, jamoatchilik va fuqarolik jamiyati turadi.

Demokratik davlat boshqaruvining modellari shu bilan cheklanib qolmadi. Juda qisqa fursatda, ya’ni 2006-2010 yillardan boshlab taniqli ingliz olimi S.P.Osbornning qayd etishicha, endilikda fuqarolarga xizmat qiladigan, ular oldida javob beradigan Yangi davlat boshqaruvi (New Public Governance) yoxud amerikalik sotsiolog olim N. Koxenning fikricha, Post-yangi davlat menejmenti (Post-New Public Management) modeli kun tartibiga qo‘yildi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, davlat boshqaruv organlari saylangan rahbarlar tomonidan himoya qilinadigan ayrim shaxslarning manfaatlariga yoki biznes ustuvorligiga emas, aksincha fuqarolar hamda keng jamoatchilik manfaatlariga qaratilgan faoliyat olib boradi.

**Xulosa va takliflar (Sonclusion/Reccomendations).**

Davlat xizmatining muhim roli fuqarolarga jamiyatni yangi yo‘nalishlarda nazorat qilish yoki boshqarishga urinishdan ko‘ra ularning umumiy manfaatlarini shakllantirish va qondirishga yordam berishdan iboratdir deb baholanadi. Ushbu boshqaruv modeliga ko‘ra hukumat va uning fuqarolari o‘rtasidagi munosabatlar biznes va uning mijozlari o‘rtasidagi munosabatlardan farq qiladi. Davlat sektorida mijoz kim ekanligini aniqlash qiyin, chunki hukumat nafaqat bevosita mijozga xizmat qiladi, balki xizmatni kutayotgan kishilar va unga muhtoj bo‘lganlarga, hatto uni faol ravishda qidirmasada, kelajak avlodlar uchun ham xizmat qiladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Атамуратов М.У. “Ўзбекистонда раҳбар ва бошқарув кадрлар тизимининг модернизациялашиш жараёни”. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: ЎзМУ, 2018. – 77-бет.*

*2. Одилқориев Х.Т. “Давлат ҳокимятини демократлаштириш ва ҳуқуни амалга ошириш механизмини такомиллаштириш” – Т. “Адолат”, 2015, 264, 15-бет.*

*3. Старостин Б.С. Модернизация и национальная культура. – М. 1995, с.17.*

*4. Тожиева З. Номарказлаштириш – ислоҳотларни чуқурлаштириш омили. // Biznes Daily "Биржа" республика иқтисодий газетаси, -Т.: 2016. № 42 (2061) сон.*

*5. Султонов А.Ф. Давлат ҳокимиятида демократик бошқарув маданиятининг ривожланиш жараёнлари. – Тошкент: "O'zbekiston" НМИУ, 2016. – Б. 164-192.; Маликова Г. Маҳаллий бошқарув дунё тажрибасида // "Жамият ва бошқарув", 2002, №2. 65–66; Бегматов А. Бошқарув кадрлари тайёрлаш: хориж тажрибаси // "Жамият ва бошқарув", 2002, №3. 11–12; Холбеков А. Юсупов С. Хорижлик олим ҳайрати // "Жамият ва бошқарув", 2003, №4. 14–16; Абдухалилов А. Рационал бюрократия концепцияси // "Жамият ва бошқарув", 2009, №1. 105–106; Юсупов К. Бектемирова Н. Нурмухамедов А. Рахматуллаева Н. Французская национальная школа администрации – востребованная модель педагогической инженерии // "Жамият ва бошқарув", 2013, №2. 80–85; О механизме отбора при подготовке управленцев высшего звена // "Жамият ва бошқарув", 2013, №2. 110–114; Шадиева З. Индонезияда давлат бошқарув тизимини ислоҳ қилиш жараёнлари // "Жамият ва бошқарув", 2013, №4. 96–101; Давлат бошқаруви ходимларини ўқитиш ва қайта тайёрлаш жараёни: миллий ва хорижий тажриба. (Ҳисобот – консультант Т. Турсунмуратов, координатор М. Қаршиев). – Т.: Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Тараққиёт Дастури (БМТТД), 2015. – 31 б.*

*6. "НамДУ илмий ахборотномаси", 2020, №4. 200–201; Султонов А.Ф. Демократик давлат бошқаруви моделларининг ривожланиш тенденцияси. // Wilson W. The study of public administration. – 1886.; Weber M. Bureaucracy //Working in America. – Routledge, 2015. – С. 29-34.*

*7. Minogue, M. (2001) The Internationalization of New Public Management. In The Internationalization of Public Management: Reinventing the Third World State, W McCourt and M. Minogue, eds. Cheltenham: Edwin Elgar, pp. 1-19.; McCourt, W. (2013). Models of Public Service Reform: A Problem-Solving Approach. Policy Research Working Paper, No. 6428. Washington D.C: The World Bank.*

*8. Denhardt, R. B. and J. V. Denhardt (2000). The New Public Service: Serving Rather Than Steering. Public Administration Review, vol. 60, No. 6, pp. 549–559.; Denhardt, J. V. and R. B. Denhardt (2011). The New Public Service: Serving, Not Steering. 3rd Edition. Armonk, NY: M. E. Sharpe.*

ZJV5401

# AXBOROT MAFKURAVIY XAVFSIZLIK TIZIMINI TA'MINLASH MASALALARI

(xorijiy davlatlar misolida)

**Xayrulla UMAROV,**
*siyosiy fanlar nomzodi, dotsent*

***Annotatsiya:*** *mazkur maqola jamiyatda axborot xavfsizligigi tizimini ta'minlash masalalarini xorijiy davlatlar misolida tahlil qilingan.*

***Kalit so'zi:*** *axborot, mafkura, tahdid, manfaat, siyosat, qadriyat, jamiyat, globallashuv, davlat, islohot, mas'uliyat, yoshlar.*

Zamonaviy Axborot-mafkuraviy urushning asoslari XX asrning 60-yillaridan boshlab amaliyotga joriy etilib kelinmoqda. Axborot xuruji raqib sanalgan yoki geosiyosiy manfaatlar doirasida joylashgan davlatlar milliy manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatish, ichki siyosatida ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishda ham arzon, ham samarali amaliyot sanaladi.

Bugungi kunda ham davlatlar o'rtasida axborot mafkuraviy urush ko'lami kengayib, o'zga davlatlar ijtimoiy siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatishda ancha samarali kuchga ega bo'lmoqda. Axborot mafkuraviy urushning bosh maqsadi – maxsus saralangan va qayta ishlangan axborotni tarqatish orqali inson va jamiyat qadriyatlariga ta'sir ko'rsatish va bu orqali raqib sanalgan davlatning siyosiy, iqtisodiy, harbiy salohiyatini tushurish sanaladi.

Yurtimizda olib borilayotgan siyosiy islohotlar xalqaro munosabatlar tizimida yangi jahon tartibotining yuzaga kelayotgan bir davrga to'g'ri kelmoqda. Globallashuv jarayonining shiddat bilan kechishi natijasida jahon xalqaro munosabatlar tizimida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Uchinchi rennesans" davri nafaqat yoshlarda, balki har bir shaxs, har bir fuqaroda mas'uliyat hissini yuzaga keltirmay qolmaydi. Bu esa, o'z navbatida, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tizimini takomillashtirishni, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Istiqbolda mamlakatning bevosita iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotini belgilab berishda fuqarolar qalbi va ongiga milliy g'oya va mafkurani singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Milliy mafkura milliy manfaatlarning qobig'i bo'lib, uning vazifasi shaxs, jamiyat va davlat jipsligini ta'minlashdan iborat. Milliy mafkura har bir davlatda turli nom va qarashlar majmuini qamrab olgan bo'ladi. Masalan, AQShda liberalizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan "Amerika orzusi", Yaponiyada imperator va xalq yagona g'oyasini ifoda etuvchi "Yapon ruhi", XXRda konfutsianlik g'oyalarini ko'rish mumkin. Mafkura borasidagi

mag‘lubiyat, sobiq Ittifoq misolida, mamlakatning parchalanishiga olib keladi.

Xorijiy davlatlar o‘z milliy manfaatlarini huquqiy jihatdan ta’minlash maqsadida turli xil siyosiy doktrina, konsepsiyalarni ilgari suradilar. Xususan, **AQShda** 1947-yilda “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun [3], 1948 yilda Smit-Mundt (Axborot va ta’lim almashinuvi haqidagi) qonuni [5] hamda har bir AQSh prezidentining joriy siyosatga qaratilgan “Milliy xavfsizlik strategiyasi”; **XXRda** “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun (2015 yildagi yangi tahrir) [12], XXR kommunistik partiyasi se’zdlarida qabul qilinuvchi “XKP Davlat xavfsizligi g‘oyalari” kabi hujjatlar; **Rossiya Federatsiyasida** “Milliy xavfsizlik strategiyasi haqida” [11], “Axborot xavfsizligi doktrinasi” [8], “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” [9] kabi hujjatlar qabul qilingan.

Mazkur hujjatlarda axborot-mafkuraviy faoliyat davlat nazoratida ekanligi hamda davlatning ustivor/strategik vazifalari sifatida ifoda etiladi.

Shu bilan birga, AQShda siyosiy tadqiqotchilar tomonidan – “Amerika amerikaliklar uchun” (Monro doktrinasi), Marshall rejasi, “Xavfsizlik kompleksi” (Barri Byuzan konsepsiyasi), “Yumshoq kuch” (Djozef Nay nazariyasi), “Madaniyatlar to‘qnashuvi” (Samyuel Xantington konsepsiyasi) kabi ilmiy asoslangan konsepsiyalar ham ilgari suriladi

Axborot-mafkuraviy xavfsizlik tizimining samarali ishlashi davlatlar milliy manfaatlarining ta’minlanishiga, jahon siyosatida o‘z maqomi va pozitsiyalarini ushlab qolishiga ko‘mak beradi.

Ma’lumki, axborot-mafkuraviy urush siyosiy, iqtisodiy, harbiy yoki strategik darajadagi boshqa maqsadlarga erishish yo‘lida inson jamoalari o‘rtasida olib boriluvchi raqobat jarayonidir.

**AQSh tajribasi**

Axborot-mafkuraviy urush olib borishda AQSh katta tajribaga ega davlat sanaladi va XX asrning 60-yillaridan boshlab mazkur yo‘nalishda faoliyat yuritib keladi. Shu davrdan boshlab, AQSh “Amerika ovozi”, “Ozodlik” kabi radiomarkazlarni joriy etib, ular orqali o‘z mafkuraviy qarashlarini ilgari surib keladi. Boz ustiga, AQSh – Britaniya, Kanada, Avstraliya va Yangi Zellandiya kabi boshqa anglo-sakson davlatlari bilan uzviy ravishda hamkorlik olib boradi.

AQShda axborot-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash 1947-yilda qabul qilingan “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun asosida tartibga solinadi. Axborot-mafkuraviy urush olib borishda nazorat AQSh Xavfsizlik kengashiga yuklatilgan.

Kongress qaroriga binoan AQSh Axborot agentligi AQSh Davlat departamenti negizida joriy etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi ham mamlakat ichkarisida ham xalqaro maydonda “AQShga qarshi qaratilgan axborotning har qanday turiga qarshi faoliyat olib borish”dan iborat. 1948-yilda

qabul qilingan Smit-Mundt qonuni [5] AQSh axborot-targ‘ibot faoliyatining huquqiy asosini belgilab berdi. Unga binoan AQSh Davlat kotibi “zaruriyat yuzaga kelgan paytda AQSh, uning xalqi va siyosati haqidagi axborotni tayyorlash hamda ularni OAV, nashrlar, radio, kino va boshqa vositalar, shuningdek, xorijdagi axborot markazlari va instruktorlar orqali tarqatish faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirishi” belgilangan [5].

Shu bilan birga, Smit-Mundt qonuniga binoan AQShda Ijtimoiy diplomatiya bo‘yicha maslahatlashuv komissiyasi (IDMK, Advisory Commission on Public Diplomacy – ACPD) ham joriy etildi. Mazkur tashkilot oldiga turli xalqaro doiralarda AQSh haqida axborot tarqatish hamda jamoatchilik fikrini shakllantirish vazifasi qo‘yilgan.

Mazkur Komissiya oldiga, shuningdek, xorijiy jamoatchilik orasida mamlakat faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, xabardor qilish, rag‘batlantirish va ta’sir ko‘rsatish jarayonini baholash vazifasi ham yuklatilgan. IDMK AQSh prezidenti, Davlat kotibi va Kongressga bo‘ysunadi. Tashkililiy masalalarda Komissiya faoliyatini esa Davlat kotibining Ijtimoiy diplomatiya va jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha o‘rinborasi boshqaradi.

Bugungi kunda AQSh qadriyatlari, siyosati va hatti-harakati haqidagi ma’lumotlarni kengroq tarqatish vazifasi AQShdagi barcha davlat muassasalari – departament va agentliklari oldiga qo‘yilgan [6].

Smit-Mundt qonuniga [5] binoan dastlab ikki Komissiya – **Axborot bo‘yicha AQSh maslahatlashuv komissiyasi** va **Ta’lim va madaniyat masalalari bo‘yicha AQSh maslahatlashuv komissiyasi** (Mutual educational and cultural exchange program – Fulbright-Hays Act of 1961) [1] targ‘ibot yo‘nalishda faoliyat yurituvchi organ sifatida joriy etilgan. 1977 yilda ikkala Komissiya birlashtirilib **Ijtimoiy diplomatiya bo‘yicha AQSh maslahatlashuv komissiyasi** (IDMK) joriy etildi.

IDMK 7 nafar a’zodan iborat bo‘lib, ular AQSh prezidenti tomonidan 3 yil muddatga tayinlanadi va Senat tomonidan tasdiqlanadi. A’zolar bir partiyadan 3 nafardan ortiq kishi bo‘lmasligi kerak. Komissiya ijrochi direktori kundalik operatsiyalarni nazorat qiladi va butun dunyoda davlat diplomatiyasi faoliyatini yaxshilash borasida konstruktiv qarorlar ishlab chiqish maqsadida qonunchilik va ijroiya organlari, NNTlar hamjamiyati, bizness va ilmiy doiralar bilan faol ravishda ishlaydi [6].

**XXR tajribasi**

Xitoy Xalq Respublikasi kommunistik mafkura asosida tarkib topgan bo‘lsada, **milliy mafkura asosan xitoy madaniyati asosiga qurilgan**. Mazkur konsepsiya Den Syaopin tomonidan XX asrning 80-yillarida ilgari surilgan “Mushuk oqmi yo qora – farqi yo‘q, asosiysi sichqon tutsa bas” g‘oyasi yotadi. Ya’ni, kommunistik davlatlagi xitoylikmi, yoki xorijda istiqomat qiluvchi xitoylikmi, farqi yo‘q. Eng muhimi barcha xitoyliklar birlashishlari darkorligi g‘oyasi yotadi.

Mazkur g‘oyaning amalga oshirilishi va uning ustidan nazorat etilishi Xitoy kommunistik partiyasi Markaziy kengashi Axborot va targ‘ibot bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur bo‘lim asosiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqadi hamda barcha hududiy boshqarmalarga tegishli ko‘rsatmalar beradi [13].

Xususan, “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunning 2 bob 23 moddasida “davlat ... **xitoy millatining ilg‘or an’anaviy madaniyatini ilgari suradi**, sotsialistik madaniyatning muhim qadriyatlarini shakllantiradi va amalga oshiradi, **buzg‘unchi madaniyat ta’sirini bartaraf etadi va qarshi turadi, mafkura sohasida yetakchi o‘rinni egallaydi** va umummilliy madaniyatni rag‘batlantiradi” deb qayd etilgan [12]. Mazkur hujjatning 15 moddasida ushbu jarayonni nazorat etish davlat vakolatida ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Xitoyda mafkuraviy g‘oyalarning ilgari surilishida targ‘ibot vositalarining barcha turlaridan faol foydalaniladi. Tashqi reklamalarning barchasi xitoy madaniyati va konfutsianlik g‘oyalari bilan singdirilgan bo‘lishiga alohida e’tibor qaratiladi. Xitoy televideniesi va radiosi mafkuraviy g‘oyalarni ilgari surishda muhim vosita sifatida qaraladi.

XXR raisi Mao szedun ijtimoiy muammolarni hal etish borasida: “Biz ‘Sovet Ittifoqi tajribasi asosida o‘rganish’ shiorini ilgari surganmiz; biroq biz hech qachon uning qoloq tajribasi asosida o‘rganishni nazarda tutmaganmiz. Uning qoloq tajribasi bormi? Bor. Masalan, g‘ayri tafakkur egalariga qarshi kuch ishlatilgan. **Bizda esa, bu ish bilan tashkilot va maktablar shug‘ullanishgan. Biz barchani mazkur masalaga jalb etib, asosiy urg‘uni ijtimoiy xavfsizlik masalasiga qaratganmiz**”.

XXRda mafkuraviy targ‘ibot fuqarolarning yoshlik chog‘idan, ya’ni maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlanadi. Maktab hamda OO‘Ylarida targ‘ibot ishlariga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar ustidan nazorat XXR xavfsizlik xizmati vakolatiga kiritilgan va bu borada Xitoy milliy dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan bo‘lib, Google o‘rniga Baidu brauzeri, Telegram o‘rniga WeChat, QQ ijtimoiy tarmog‘i kabi dasturlardan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Boz ustiga Internet tarmog‘iga chiqish uchun har bir fuqaroning o‘z logini bo‘lib, kim, nima haqida yozayotgani nazorat qilib boriladi.

**Yaponiya tajribasi**

Ikkinchi jahon urushi natijalariga ko‘ra Yaponiya ichki va tashqi siyosati Vashington tomonidan nazorat qilinishiga olib keldi. Yaponiyada Imperator vakolatlarining cheklanishi, Parlament islohotlari, yapon armiyasining tugatilishi, aksilharbiy qonunlarning qabul qilinishi, siyosiy jarayonlarga nisbatan harbiy elita ta’sirining qirqilishi mamlakat ichki va tashqi siyosati mazmun mohiyatining tubdan o‘zgarishiga olib keldi.

Dastlabki davrda hokimiyatga kelgan siyosatshunoslar qatlami mag‘lu-

biyat sabablari va uning oqibatlarini tahlil qildilar va siyosiy va iqtisodiy jabhalarda tegishli o‘zgarishlarni amalga oshirdilar.

Bu borada dastlabki qadamni 1948-1954-yillarda Yaponiya Bosh Vaziri bo‘lgan Sigeru Yoshida (ǒ̃ī̃) tashlagan. U to‘rt banddan iborat “Yoshida Doktrina”si deb nom olgan Yaponiyaning urushdan keyingi tashqi siyosiy strategiyasini ilgari suradi: 1) iqtisodiy rivojlanish Yaponiyaning asosiy maqsadi bo‘lishi; 2) Yaponiyaning qurolli kuchlari cheklangan bo‘lishi hamda xalqaro nizolarga aralashmasligi zarur; 3) Yaponiya AQSh rasmiy hukumatiga ergashishi hamda AQShning harbiy himoyasi ostida bo‘lishi; 4) Yaponiya diplomatiyasi mafkuralardan holi bo‘lishi va asosiy e’tibor xalqaro hamkorlikka qaratilishi lozim [2; 7].

1951-yilda San-Fransissko tinchlik shartnomasining imzolanishi bilan “okkupatsiya rejimi” tugatildi va Yaponiyaga o‘z ichki va tashqi siyosiy faoliyatida mustaqillik berildi [4].

1990-yilda Yaponiya hukumati “Kay-fu Doktrinasi”ni (Tosiki Kayfu (海部 俊樹) 1989-1991-yillarda Yaponiya Bosh vaziri) ishlab chiqadi [15]. Unga binoan asosiy urg‘u Osiyo-Tinch okeani mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni saqlash, muloqot va hamkorlik asosida barqaror xalqaro munosabatlarni ta’minlash, **ozodlik va demokratiyani hurmat qilish, demokratik qadriyatlarni targ‘ib etish, jahonda ochiq bozor iqtisodiyoti sharoitida xavfsizlik va farovonlikni ta’minlash**, atrof muhitni muxofaza qilishga qaratilgan.

2013-yilda Yaponiya Milliy xavfsizlik kengashi qarori bilan “Milliy xavfsizlik strategiyasi haqida”gi hujjatni qabul qildi [14]. Ushbu hujjatning 4 band 1 bo‘limida “Milliy xavfsizlikka daxldor qarorlar qabul qilish maqsadida hukumat odamlar, ijtimoiy vaziyat ... kabi axborotni qo‘lga kiritishda barcha vositalarni qo‘llaydi”, deb ta’kidlanadi. Shuningdek, “axborotning barcha turlarini to‘plash, saralash va tahlil qilish orqali geosiyosiy axborotdan foydalanishni yo‘lga qo‘yish”ga alohida e’tibor qaratiladi. Axborot-mafkuraviy xavfsizlikning asosini, Strategiyaga ko‘ra, “hududiy yaxlitlikni saqlash, hayot xavfsizligini ta’minlash, boy madaniy va an’anaviy me’rosni saqlash, mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni o‘rnatish va uning mavjudligini ta’minlash” tashkil etadi. Mavjud holat borasidagi axborot muntazam ravishda Xavfsizlik kengashiga kiritib borilishi belgilangan.

Mamlakatda axborot siyosatini yuritish vazifasi **Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi huzuridagi Madaniyat ishlari bo‘yicha agentlik**ka (文化 庁) yuklatilgan. Mazkur Agentlik quyidagi bo‘limlardan iborat:

1. Siyosat bo‘limi – kadrlar masalasi, byudjet, rag‘batlantirish/mukofotlar tizimi, tadqiqot

2. Rejalashtirish va muvofiqlashtirish bo‘limi – munozarali masalalar, targ‘ibot, muzeylar va teatrlar, mustaqil tashkilotlar va NNTlar

3. Iqtisodiyot, madaniyat va xalqaro munosabatlar bo‘limi – iqtisodiy strategiya, xalqaro hamkorlik

4. Yapon tili bo‘limi – yapon tilini rivojlantirish, chet elliklar uchun ta’lim

5. Mualliflik huquqlari bo‘limi – mualliflik huquqlari, nashr ettirish huquqi, shartnomalar

6. Madaniy me’roslardan foydalanish bo‘limi – jahon madaniy me’rosi, nomoddiy madaniy me’ros, yapon madaniyati me’rosi

7. Din masalalari bo‘limi – sertifikatsiyalash, texnik rahbarlik va konsultatsiya

O‘z navbatida agentlik tomonidan Yaponiyada farzand tarbiyasida ishlab chiqilgan o‘ziga xos tarbiya usullarida yapon san’ati va madaniyatini targ‘ib qilish, madaniy tadbirlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, tilni milliy o‘zlik asosi sifatida takomillashtirish, mamlakat ichkarisida va xorijiy mamlakatlarda yapon tili o‘qituvchilarini tayyorlash va ularni qo‘llab-quvvatlash ishlarini amalga oshiradi. Yaponiya ta’lim siyosatini yuritar ekan Meydji davrida ilgari surilgan “Yapon ruhiyati – Xorijiy bilimlar” (vakon yosay 和魂洋才) g‘oyasi asosida olib boriladi.

Mamlakatda milliy g‘oya va mafkurani singdirishda farzand tarbiyasida ishlab chiqilgan o‘ziga xos tarbiya uslubini amalga oshirishda **yagona hudud – yagona millat** konsepsiyasi mamlakatda keng qo‘llaniladi.

**Xulosa o‘rnida**

Yevrosiyo makonida vaziyat va kuchlar nisbatining o‘zgarib borishi, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash masalasi yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar negizida muntazam ravishda kuzatib borish, bu borada yangicha yondoshuvlarni izlab topishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik tizimining shakllanish jarayoni yakuniga yetmaganligi, mintaqada turli ekstremistik guruhlarning bosh ko‘tarib chiqishlari ehtimolining mavjudligi, jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasini o‘z “ta’sir doiralari”ga tortishga intilishlari milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik masalalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Bugungi kunda o‘z geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlariga erishish, xalqaro maydonda yetakchilik uchun raqobat olib borayotgan kuchlar tarafidan yurtimizga nisbatan “axborot hujumi” uyushtirilayotganligini kuzatish mumkin. Bunday chiqishlar nafaqat xorijiy ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda, balki yurtimiz radio va teledasturlarida, reklama roliklarida ham bo‘lib turibdi.

Siyosatshunoslarining fikrlariga ko‘ra axborot urushining vazifalari quyidagilardan iborat: 1. Sof mafkuraviy ta’sir o‘tkazish. 2. Mamlakat aholisiga noto‘g‘ri ma’lumot berish (davlat va hukumat rahbarlariga ishonchsizlik uyg‘otish, davlat siyosatining ayrim yo‘nalishlariga norozilik kayfi-

yatlarini tug‘dirish, rasmiy targ‘ibot va axborot manbalari va kanallariga ishonchni yo‘qotish). 3. Fuqarolarga psixologik bosim o‘tkazishga urinish (mish-mishlarni tarqatish, nosog‘lom kayfiyat tug‘dirish, turli ijtimoiy guruhlar orasida dushmanona kayfiyatlarni – millatchilik, rasizm, diniy ekstremizm va fanatizmni yuzaga keltirish).

Shu bois, Davlatimiz rahbari ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizimning mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilmayotganligi, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi ta’kidlab o‘tadi.

Aynan shu sababli ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi voqealarni tobora shishirib ko‘rsatishga urinishlar orqali axborot xurujini muntazam olib borilishi kuzatiladi.

Bugungi voqelikni ilmiy tahlil qilish asosida quyidagi yo‘nalishlarda “axborot xuruji” olib borilayotganini ko‘rish mumkin:

Birinchi yo‘nalish, davlat rahbari, deputatlar, hukumat a’zolari sha’ni va faoliyatiga nisbatan xuruj.

Ikkinchi yo‘nalish, olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar mohiyatini tushirish, xalqning ishonchini yo‘qotishga qaratilgan intilish.

Uchinchi yo‘nalish, jamiyatni turli guruhlarga ajratish orqali defragmentatsiyalash, ularni bir-birlariga qarshi qo‘yish.

To‘rtinchi yo‘nalish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni barbod qilish, “ommaviy madaniyat”ga asoslangan soxta qadriyatlarni singdirish.

Beshinchi yo‘nalish, huquqni muxofaza etuvchi organlar – ichki ishlar, mudofaa, xavfsizlik idoralari faoliyatiga nisbatan salbiy kayfiyatni tug‘dirish.

Oltinchi yo‘nalish, kelgusida muayyan maqsadlarni amalga oshirishi mumkin bo‘lgan shaxslarni ommalashtirish, ularni “xalq qahramonlari”ga aylantirish.

Demak, axborot xurujini bartaraf etish maqsadida axborot xavfsizligini ta’minlash borasida huquqiy, tuzilmaviy va g‘oyaviy asoslarni o‘zida mujassam etgan yagona davlat siyosatini ishlab chiqishga ehtiyoj tug‘ilgan. Bu borada, axborot xavfsizligini ta’minlash, tashqi xurujlar manbalarini aniqlash, baholash va bashorat qilish, davlat hokimiyati organlari va axborot-matbuot xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, mamlakat milliy manfaatlarining axborot sohasidagi milliy manfaatlarini kafolatli ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

# O‘ZBEK XALQ TEATRI VA OG‘ZAKI DRAMALAR – IJTIMOIY, AXLOQIY MASALALARNI AKS ETTIRISH VOSITASI

**Baxtiyor MIRZARAXIMOV**
*Farg‘ona davlat universiteti*
*falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD).*
**Nodirabegim QOSIMJONOVA,**
*Farg‘ona Davlat universiteti*
*Tarix yo‘nalishi talabasi*

***Annotatsiya:*** *Qo‘g‘irchoqbozlarning o‘yinlarida hayot hodisalari, kishilarning o‘zaro munosabatlari yog‘och qo‘g‘irchoqlar timsoli orqali korfarmon tashabbusi bilan aks etadi. O‘zbek xalq og‘zaki dramasi g‘oyaviy, mavzu jihatdan xilma-xil, badiiy jihatdan pishiq asarlardir.*

***Kalit so‘zlar:*** *Masxaraboz, qiziqchi, Og‘zaki dramalar, aktyorlari-qiziqchi, axloqiy me’yorlar*

Masxaraboz, qiziqchi va qo‘g‘irchoqbozlar tomonidan yaratilgan ular ijrosida an’anaviy xalq teatri spektakllari sifatida avloddan avlodga og‘zaki ravishda o‘tib kelgan dramatik asarlar og‘zaki badiiy ijodning maxsus turini tashkil etadi. G‘oyaviy mavzu jihatdan satirik va yumoristik yo‘nalishda bo‘lishi, tuzilishi jihatdan diolog va monologlarga bo‘linishi, sahnada o‘ynash uchun mo‘ljallanganligi og‘zaki dramaning asosiy xususiyatlaridir. Og‘zaki dramalar an’anaviy xalq teatrining asosiy repertuari hisoblanadi, qiziqchi va masxarabozlar esa bu teatrning ijrochi va ijodkor aktyorlaridir. Og‘zaki dramalar qiziqchi va masxarabozlar tomonidan an’anaviy xalq teatrida ijro etiladi. Xalq teatri sinkretik xarakterga ega bo‘lib, badiiy so‘z, qiyofa hamda harakat yordamida sahnaviy xarakterlar va shu xarakterlar to‘qnashuvida spektakl yaratishi bilan ajralib turadi. Xalq teatrining aktyorlari-qiziqchi va masxarabozlarning aksariyati turmush sharoiti taqozosi bilan san’atning bir necha turidan yaxshigina xabardor bo‘lganlar.

Qo‘girchoqbozlik eng qadimgi davrdan boshlab xalq orasida keng tarqalgan dramatik shakl bo‘lib, unda turli timsollardagi yog‘och o‘yinchoqlar, uni o‘ynatuvchi va o‘rgatuvchi, o‘yin boshlovchi korfarmonlar ishtirok etadi. Qo‘g‘irchoq o‘yin garchi malakali qo‘g‘irchoqbozlar tomonidan ijro etilsada, u asosan bolalar, o‘smir yoshlar orasida namoyish etiladi. Hozirgi kungacha yetib kelgan “Kachal polvon”, “Sarkardalar” “Tegirmonchining uylanishi” kabi qo‘g‘irchoq o‘yinlardir[1]. Keksa qo‘girchoqbozlarning aytishicha, qo‘g‘irchoq o‘yinini tashkil etish ancha qiyin va murakkab bo‘lib, ko‘p mehnat talab qiladi. Har bir tomoshaning qiziqarli chiqishi qo‘g‘irchoqbozlarning mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Keksa qo‘g‘irchoqbozlarning aytishicha, qo‘g‘irchoq o‘yinini tashkil etish juda og‘ir va chidamli mehnat

talab qiladi. Bunda ular tayyor matnlardan foydalanmay, tomoshabinlarning didi va zavqiga qarab belgilaganlar. Tomoshaning muvaffaqiyatli chiqishi asosan korfarmon va qo‘g‘irchoq o‘ynatuvchi kishilarning mahoratiga bog‘liq bo‘lgan. O‘zbek xalq og‘zaki dramasi hayotiy voqelikning ayrim tomonlarini satirik yumoristik shaklda aks ettiradi. Undagi asarlar hajmi turlicha bo‘lgan komediyalardir. Ular asosan nasr shakliga ega. Ba’zan she’riy shaklda ham uchrab turgan. 1922-yilda G‘ulom Zafariy tomonidan yozib olingan og‘zaki komediyalar bunga misol bo‘la oladi.

Masxaraboz va qiziqchilar orasida o‘z san’atini puxta egallagan va uni xalqqa manzur qilgan mashhur ustalar bilan bir qatorda ushbu ishga onda-sonda aralashadigan havaskorlar ham bo‘lgan. Shunisi harakterliki, ularning har ikkisi ham, asosan dehqon, cho‘pon va boshqa kasb-hunar egalari orasidan yetishib chiqqan kishilardir. Qo‘qon qiziqchilaridan Zokir eshon – zargar, Mo‘min qishloqi – dehqon, Abdulhasan – tikuvchi, Usmon qiziqchi – etikdo‘z, Qashqadaryo vohasining mashhur masxarabozlaridan Mizrob va uning shogirdlari-cho‘pon, Halim tayyor attorlik qilgan.

Og‘zaki dramalarda ijtimoiy va axloqiy masalalar aks ettirilgan. Zolim va o‘zboshimcha amaldorlar, ko‘zbo‘yamachi va munofiq kishilar fosh qilingan. Sof muhabbat, beg‘araz do‘stlik, yorug‘ dunyo, erkinlik ulug‘langan. Xalq teatrida qishloq ko‘chasi, shahar bozori, hovli yuzasi gulxan atrofi, uy ichi “sahna” bo‘lsa, tabiat manzarasi – dala daraxtzor, sahro, oy, yulduzlar bu “sahna”ning bezaklari vazifasini bajargan. Xalq dramasining mana shu “sahna”da, to‘rt tomondan joy olgan tomoshabin davrasida o‘ynalishi ijrochilardan ma’lum uslub va tasviriy vositalar, badiiy mahorat talab qilgan. Bunda hamma narsa-diolog, ishora, harakat, kostyum, grim, dekoratsiya aniq va yorqin bo‘lmog‘i kerak. Qo‘g‘irchoqbozlarning o‘yinlarida hayot hodisalari, kishilarning o‘zaro munosabatlari yog‘och qo‘g‘irchoqlar timsoli orqali korfarmon tashabbusi bilan aks etadi. Shunday qilib, o‘zbek xalq og‘zaki dramasi g‘oyaviy, mavzu jihatdan xilma-xil, badiiy jihatdan pishiq asarlardir.

## YOSHLARDA MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHNI YUKSALTIRISHGA DOIR USTUVOR VAZIFALAR

**Sirojbek SULTANOV,**
*Tashkent davlat transport universiteti*
*“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola O‘zbekistonda yoshlarning ma’naviy-ahloqiy dunyoqarashini yuksaltirish yo‘lidagi islohotlar va bugungi kunda yoshlarda ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirishga doir dolzarb vazifalar ko‘rsatilgan hamda falsafiy tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Yoshlar, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy islohot, yoshlar siyosati, vatanparvarlik, qadriyat, oila.*

Keng ko‘lamli islohotlarda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy rolini kuchaytirish barcha xalqlarga xosdir. Buning sababi shundaki, yoshlarning yangi vaziyatlarga moslashish darajasi yoki yangilikka intilish darajasi yuqori bo‘lib, jamiyatdagi o‘zgarishlardan chetda qola olmaydi. Butun jamiyat taraqqiyoti, ertangi kunga ishonch bilan munosabatda bo‘lishni shakllantirish o‘sha jamiyatdagi yoshlarning ijtimoiy-madaniy konseptual tabiati bilan bevosita bog‘liqdir. Bu borada Sharq mamlakatlari keksa avlod tajribasiga tayansa, Shimoliy Amerika va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari yoshlarga katta umid bog‘laydi. Binobarin, yoshlar ongida “qadriyat” tushunchasini to‘g‘ri shakllantirish yurt kelajagini belgilovchi omillardan biridir. Insoniyat sivilizatsiyasining buguni va kelajagi ko‘p jihatdan yoshlarning ijtimoiy faolligiga bog‘liq ekani shubhasiz.

Shu sababli, yoshlar rivojlanishining sifat darajasi, yoshlarga nisbatan yangicha yondashuvni shakllantirish, shuningdek, uchta omil – yoshlar faolligi va yoshlar siyosatini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy old shartlari, uning madaniy burilishlar majmuasiga bog‘liqligi va zamonaviy yoshlar faoliyatining ma’naviy-axloqiy va siyosiy xususiyati bilan bog‘liq. Yoshlar faolligi ijtimoiy tuzum darajasiga, mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy islohotlarga, demokratik o‘zgarishlarga, madaniy qadriyatlarga, milliy an’analarga, ya’ni madaniy qadriyatlar asosini belgilashda har doim yoshlar faoliyatining qonuniyligiga bog‘liq. Shu bilan birga, yoshlar faolligi jamiyat va hukumat o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish, o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy muhitda o‘z huquqlarini himoya qilish istagi, yangi jamiyatda o‘z o‘rni va rolini shakllantirish istagidan kelib chiqadi. Yoshlar faoliyatidagi ana shunday tashqi va ichki ijtimoiy-madaniy yo‘nalish tufayli ular faolligining shakllanishi va unga nisbatan turlicha tasavvur va qarashlarning tarqalishi tabiiy hodisadir. Yoshlarning bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish sohasidagi ma’naviy-axloqiy va siyosiy bilimiga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillar mavjud. Xususan, ularning manfaatlari, muhiti, diniy e’tiqodi, xalqning urf-odatlari, davlat mavqei va boshqalar yosh avlodning madaniy yo‘nalishiga boshqacha ta’sir qiladi. Bugungi bozor sharoitida qadriyatlar tushunchalari va tendensiyalari ko‘pincha bir-biriga mos kelmaydi va bu bo‘shliq yoshlar orasida ma’lum darajada kamaydi. Buning asosiy sababi yoshlarning sivilizatsiya va madaniyat nuqtai nazaridan og‘ishidir. Shu bilan birga ona madaniyatimiz va qadriyatlarimiz asosini tashkil etuvchi tarmoqlarning zaiflashishi, antimilliy faoliyatning keng tarqalishiga yordam beradi. Shu bilan birga, mamlakatimizda millatlararo, konfessiyalararo barqarorlik va bag‘rikenglikni saqlash eng muhim masalalardan biridir.

Yoshlarning ma’naviy-axloqiy va siyosiy bilimini o‘z xalqining ma’naviy

madaniyatiga, mamlakatimizning tarixiy o‘tmishiga yo‘naltirish, jamiyatda totuvlik va tinchlikni mustahkamlash, yoshlarda Vatan uchun g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Vatanparvarlik, odob-axloq, mahorat, mas’uliyat kabi shaxsiy fazilatlarga intilish birinchi o‘rinda turishi kerak. Bizning fikrimizcha, keksa avlod vakillari yoshlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yo‘nalishini yo‘lga qo‘yishi kerak. Mamlakatimizda ro‘y berayotgan katta o‘zgarishlar aholining barcha qatlamlari, jumladan, yoshlarning faol ishtirokini taqozo etmoqda. Shu bilan birga, davlatning ichki siyosati tartibga soluvchi omil bo‘lishi kerak.

Yoshlarning ijtimoiylashuvi zamonaviy jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlardan tashqariga chiqa olmaydi. Bu jarayonni birlashtirish uchun yoshlarga oid yangi davlat siyosatini chuqurlashtirish zarur. Bu ijtimoiy islohotlar sharoitida yosh avlodning bozor munosabatlariga barvaqt moslashishiga xizmat qiladi. Shuning uchun jamiyatdagi yoshlar muammosi uning davlati muammolaridan ajralmasdir. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”[1] – deb ta’kidlagan edi.

Yoshlarga oid davlat siyosati mamlakat ijtimoiy-madaniy rivojlanishining asosidir. Yoshlarga oid siyosat, o‘z navbatida, har qanday davlatning asosiy ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Zero, yoshlar siyosatining o‘zi bu faol qatlamning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va ma’naviy mavqeini asrash va himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi, bu boradagi davlat va jamoat organlarining faoliyatini maqsadini tashkil etadi. Binobarin, mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, odob-axloq, bilimli va madaniyatli qilib tarbiyalash asosiy qadriyatlarimizdan biri bo‘lib qoladi. Bu borada yoshlarning qiziqish va moyilligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, uning yurtimiz uchun samarasini ko‘rsatish, yoshlarni vatanparvar, bilimli yetib tarbiyalash jamiyat oldidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Yoshlarning ta’lim va tarbiyasi ularning ma’naviy, milliy-axloqiy fazilatlari darajasiga bog‘liq. O‘zbek xalqi azaldan farzandlar tarbiyasiga, yosh avlodni to‘g‘ri shakllantirishga alohida e’tibor berib kelgan. Shuning uchun bolani “boshidan” tarbiyalash oqilona ishdir. Yoshlarni yurt kelajagi sifatida kuchli, mehribon, zukko, halol, adolatli va badiiy ijodkor etib tarbiyalash masalasi doimo alohida masala bo‘lib kelgan.

Jamiyatni shakllantirish, davlat sivilizatsiyasini yuksaltirish maqsadida

uning xalqi, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning faolligi qaysi yo'nalishda rivojlanishi kerakligi eng dolzarb masalalardan biri ekanligi shubhasiz.

Jamiyat tabiiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan yosh avlod orqali shakllangan. Yoshlar davlatning kelajagini ma'lum bir tizimda shakllantiradi, shuning uchun uning kayfiyati, xulq-atvori va holati jamiyatdagi umumiy siyosiy va ijtimoiy-psixologik vaziyatning o'lchov barometri sifatida e'tirof etiladi. Yoshlar uchun vatanparvarlik, odob-axloq, mahorat, mas'uliyat kabi shaxsiy fazilatlarga intilish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shunday qilib, har bir davlat uchun yoshlarga oid siyosatning resurslari, madaniyati va ilmiy bilimlarini, avlodlar soni va sifatini, turmush darajasini, ikkinchidan, xavfsizlik va milliy xavfsizlikni saqlash va rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi salbiy oqibatlarni cheklash muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham o'z mustaqilligiga ega bo'lgan mamlakatimizda milliy ong uyg'ondi, milliy g'oya umumiy obyektga aylandi. Siyosiy erkinlik ma'naviy yangilanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochdi. Mamlakatdagi millatlararo munosabatlar ijobiy qadriyatlarga asoslanadi va o'zining tarixiy uyg'unligini saqlab qolgan. O'zbekiston Respublikasida rivojlanishning innovatsion shakli jamoat va xususiy ongni tartibga solish uchun qulay bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muhitni shakllantirishning haqiqiy yo'nalishini belgiladi. Aholining rivojlanish qonuniyatlarida mamlakat hayotida, uning iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa sohalarida ro'y berayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar yanada aniqroq aks ettirildi.

O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Konstitutsiya va xalqaro shartnomalarda mustahkamlangan insonning asosiy huquq va erkinliklarini hurmat qilish;

irqi, tili, dini, jinsi, etnik va ijtimoiy kelib chiqishi va mulkiga ko'ra tasniflashga yo'l qo'yilmasligi;

Shaxs va davlat manfaatlarini muvofiqlashtirish, hokimiyatning barcha tarmoqlari, jamoat tashkilotlari va guruhlari ta'sirini mustahkamlash;

Xalqaro talablarni amalga oshirish, migratsiya jarayonlarini tartibga solishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy barqarorlik va millatlararo, dinlararo totuvlikni ta'minlashda milliy manfaatlar ustuvorligini hisobga olgan holda ish tutish muhim ahamiyatga ega.

Turli yoshdagi kishilarning hayotga qarashlari va hayotiy qadriyatlarni idrok etishlari bilan, hatto yosh farqlari nisbatan kichik bo'lgan guruhlarda ham farqlanadi. Masalan, bugungi kunda 25 yoshdan oshgan yoshlar va maktab yoshidagi yoshlarning dunyoqarashi, ona Vatanga bo'lgan e'tiqodi, qadriyatlarini targ'ib etish kabi xususiyatlar haqida turlicha qarashlari mavjud. Buning asosiy sababi – zamonaviy sivilizatsiya tushunchasi va qadriyatlarning global munosabatlarga nisbatan o'zgarishiga olib

keldi. Ya’ni aynan bugungi kun yoshlari o‘z davrlarining eng ommabop va qiziqarli g‘oyalarini o‘zlashtirishga harakat qilmoqdalar. Asosiy qadriyatlarning ustunligi tabiiy hodisadir. Mohiyatan ular ma’lum darajada ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy ehtiyojlar asosini shakllantirish omillari sifatida e’tirof etiladi. Yoshlarning bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirishda asosiy ma’naviy-axloqiy va siyosiy bilimlarining ahamiyatini atroflicha tahlil qilish ularning ijtimoiy ongida umuminsoniy qadriyatlar: salomatlik, moddiy ta’minot, avlodlar tobeligi va o‘ziga ishonch ustunlik qilishini ko‘rsatdi. Yakuniy qadriyat orientatsiyasi – bu o‘tish davridagi yoshlar uchun muhim bo‘lgan asosiy xususiyatlarning o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Oila va ota-ona oilasi qadriyatlari (ikkinchisi ustunlik qiladi) o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar yosh avlodning kichik ijtimoiy tajribasi, yosh avlodning yosh xususiyatlari, shuningdek, an’anaviy jihatlari umumiy qadriyatlarning ustunligi bilan izohlanadi. Yoshlarning ota-onalari oldida yetarlicha mas’uliyatli ekanini bilishi ularning ma’naviy-huquqiy sohada kelajagi buyuk ekanidan dalolat beradi. Bu salohiyatni ro‘yobga chiqarish darajasini hayot ko‘rsatadi. Moddiy ta’minot yo‘nalishi ma’lum darajada yoshlarning hayot rejalarini amalga oshirishni ta’minlaydi. Bu tanlov obyektiv ravishda shartlangan. Bugungi kunda xavfsizlik darajasi ko‘p jihatdan kasbiy darajaga, kasbning o‘rni va obro‘siga, butun ijtimoiy omillarga va boshqalarga bog‘liq.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, milliy ta’lim-tarbiya, qolaversa, ilg‘or yutuqlar asosidagi bilimlarni o‘zlashtirgan avlodgina millat taqdirini teran ko‘zdan kechira oladigan, kelajakni bashorat qila oladigan shaxsni shakllantirishi aniq. kelajak. Yoshlarning milliy va umuminsoniy manfaatlar nuqtai nazaridan faolligini shakllantirishda milliy mentalitet, vatanparvarlik tuyg‘ulari, dunyoqarashi, diniy ye’tiqodlari alohida o‘rin tutadi. Binobarin, bugungi yoshlarning milliy madaniyatga qo‘shayotgan hissasi juda katta. Chunki millatning kelajagi, o‘zbek xalqi an’analarining davom yetishi bevosita shu yoshlarning milliy ongiga, dunyoqarashiga bog‘liq. Zararli oqimlardan, salbiy targ‘ibotlardan sug‘urta qilgan ma’qul. O‘zbekiston uchun globallashuv davrida uning qiyofasi, ichki salohiyati va o‘ziga xos milliy o‘ziga xosligini avloddan-avlodga yetkazish uchun ijtimoiy hayotining ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini asrab-avaylash va qayta tiklash masalasi ustuvor vazifa bo‘lishi kerak. Yetmish yillik siyosiy mustamlakachilik natijasida ma’naviy-etnik “o‘zlik” jamiyat ongidan yo‘qola boshlagan bir davrda mustaqillikka erishgan o‘zbek xalqi bugungi kunda xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o‘rnatgan. Bu bosqichda ham ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni qayta tiklash yo‘llarini izlash masalasi kun tartibidan tushmasligi kerak. O‘zbekiston xalqi o‘zining ma’naviy merosini sovet hokimiyatigacha saqlab kelgan. Ma’lumki, u o‘zining axloqiy-axloqiy qadriyatlari, urf-odat va an’analarini islom va shariat me’yorlari asosida shakllantirgan. Binobarin, bugungi kunda

xalqimizning diniy-axloqiy qiyofasini asrab-avaylash uchun kelajak yoshlar boshqa xalqlar madaniyatiga taqlid qilmasdan, uning ko‘p asrlik diniy ongini, ichki kuch-qudratini tiklasa, ularning yo‘nalishi adashmaydi. ishon. Shunday qilib, Sharq va G‘arbning ezgu qadriyatlarini uyg‘unlashtira oladigan yoshlarning kelajagi porloq bo‘ladi. O‘ylaymizki, yoshlar o‘z ichki kuchini tiklashga bel bog‘lasa, kelajagi adashmaydi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

*1. Халқ билан ҳамнафас” Методик-библиографик қўлланма. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2017 – 21-б.*

*2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Ёшларга оид давлат сиёсатининг самападорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида” (05.06.2017 йил ПФ–5106).*

*3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 апрелдаги Ф–5465-сонли “Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида миллий ғояни ривожлантипиш консепсиясини ишлаб чиқишга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармойиши.*

*4. Бекмуродов М. Миллий менталитет ва раҳбар маънавияти. – Т.: Адолат, 2003. –Б 127.*

*5. Даминов. И. Ғоялар: эзгулик ва ёруғлик. –Т.: Маънавият, 2018. 7.-б.*

## YOSHLAR VA QADRIYATLAR TRANSFORMASIYASI: MILLIY YUKSALISH YO‘LIDAGI MUAMMOLARNI HAL QILISHNING ASOSIY BO‘G‘INI

**Nuriddin ERGASHEV**,
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi,*
*Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy*
*tahdidlarni o‘rganish bo‘limi bosh mutaxassisi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada bugungi kunda yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mafkuraviy tahdidlarni o‘rganishda yuzaga kelayotgan muammolar haqida fikr yuritilgan. Xususan, qadriyatlar transformatsiyasi jarayonida yoshlar o‘rtasida turli salbiy holatlar, tarbiyasidagi og‘ishlar (deviant xulq), milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bepisandlik ruhida amalga oshirayotgan xatti-harakatlari tahlil qilingan va fikr-mulohaza bildirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Qadriyat, yoshlar tarbiyasi, transformatsiya, vatanparvarlik, mafkuraviy xurujlar, milliy qadriyat, deviant xulq, urf-odatlar, ezgu g‘oya, vayronkorlar g‘oya.*

Bugun axborot-texnologiyalar, informatsion olamimizda ming yillik qadriyatlarimizga soya soladigan “urf-odatlar” ham kirib kelmoqda. Negaki, yangi zamonda insonlar ongiga qaratilayotgan g‘oyaviy hujumlarni chegara bilan to‘sib bo‘lmaydi.

Insoniylik, vatanparvarlik, ezgu g‘oyalarni inkor etadigan zamonaviy “urf-odat” lar millat kelajagini, sha’nini toptaydigan bo‘lsa, xalqnini inkirozga olib keladi. Milliy qadriyatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi. Rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta’sir qiladi.

Hozirgi davrda taraqqiyotimiz uchun xavfli bo‘lgan, yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir etuvchi, yoshlarni buzg‘inchi g‘oyalar ruhida tarbiyalashga, bu orqali butun bir millatning, xalqning birligiga rahna solishga urinadigan kuchlar yo‘q emas. Bunday vayronkor kuchlar esa yoshlar orasida keng foydalanilayotgan vositalarni “qurol”ga aylantirgandir. Bular orasida ayniqsa, internet tarmoqlari, hech bir insoniylik g‘oyasini tarannum etmaydigan “san’at asarlari”, turli xil ommaviy trendlar va boshqalar shiddat bilan yoshlar ongi tomon yo‘naltirilmoqda. Bunday tahdidlarning turlari, ularning xususiyatlari ba’zan oshkora va ba’zan o‘ta maxfiy, ichki, yashirin bo‘ladi, bu maqsadlarni bilish va o‘z vaqtida anglash hamda unga qarshi javob berish uchun, yoshlar yuksak ma’naviyatli, g‘oyaviy ongli, ma’naviy barkamol bo‘lishlari shart. Faqat shunday yoshlargina bunday ta’sirlardan himoyalanishga qodir bo‘ladi.

Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent A. Yunusov “Bugungi kunda, O‘zbekistonda yoshlar masalalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarga qaramay, yoshlar o‘rtasida turli salbiy holatlar – huquqbuzarlik va jinoyatlar, turli bezoriliklar, tarbiyasidagi og‘ishlar (deviant xulq), milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bepisandlik, ijtimoiy-siyosiy islohotlarga nisbatan loqaydlik va boshqalar hali hanuz kuzatilmoqda. Mazkur omillar yoshlar orasida ma’naviy muhit, qadriyatlar, oiladagi o‘zgarishlar va tashqi ta’sirlarni muntazam o‘rganib borishni taqozo etadi”, deydi. [1]

Mafkuraviy va ma’naviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o‘z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o‘z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlar insonni o‘z-o‘zini anglashi, milliy g‘ururga ega bo‘lishi, o‘z millati va uning tarixi bilan faxrlanuvchi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o‘tmish ajdodlar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o‘z taqdiri bilan bir, deb hisoblovchi shaxs bo‘lib yetishishi uchun xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o‘ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Ming yillar mobaynida shakllangan

milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shilib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo'lib hisoblanadi.

"Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob ahloq qoidalariga tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv sharoitida ma'naviyat va ma'rifatga, ahloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olishi, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat muhim vazifamizdir" deya ta'kidlaydi Prezidentimiz. [2] Yoshlar tarbiyasida doimo ogoh va sergak bo'lish, hamda milliy qadriyatlarimizni ularning ongiga singdirish barchamizning burchimizdir. Bolalarni go'dagligidan boshlab yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bugunning eng asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Yoshlar tarbiyasiga, ta'limiga e'tibor muhim masala ekanligini 100 yildan oldin yashagan jadid bobolarimiz ham ko'p bora ta'kidlagan. Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" nomli asarida bolalarni "diqqatlari va zehnlari chuqur va jiddiy bo'lishiga o'rgating. Ko'rganlari ustidan tez xulosa chiqarmasinlar", – deya ta'kidlab, farzand tarbiyasiga e'tibor berish lozimligini uqtiradi. [3]

Olima M.Farmonova "Insoniyat hozirgi kunda tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, bugunga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan, o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqda. XXI asrga kelib globallashuv o'z ta'sirini o'tkazmagan biror soha qolmadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Globallashuv dastlab davlatlarning iqtisodiy rivojlanishida aks etgan bo'lsa, hozirga kelib siyosat, axloq, milliy-ma'naviy hayot, insonlarning kundalik turmush kechirishigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'ziga qamrab olgan". [4] deya fikr bildirib o'tgan.

Olima M.Normuratova Zamon taraqqiyot sari odimlab borar ekan, bu jarayonga turtki va vosita bo'luvchi vositalar zamonaviy innovatsion texnologiyalar ham taraqqiy etmay qolmaydi. Bugungi kun axborot ummonida ma'lumotlar almashuvi axborotga egalik qilish va axborot xavfsizligi muhim bo'lsa, bu jarayonda qadriyatlararo kurash masalasi global ahamiyatga egadir. [5] Parsons ham, o'zining xulq-atvor haqidagi qarashlarini yoritganda, shaxsni harakatga keltiruvchi asosiy kuchlardan biri sifatida aynan qadriyatga qarab harakatlanishini ko'rsatib o'tgan edi. [6]

Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasida bilim va tarbiya berish, ularni yuksak ma'naviyatli, ongi har qanday salbiy ta'sirlarga nisbatan bardoshli qilib voyaga yetkazish hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – bugungi kun ta'lim muassasalarining asosiy vazifasidir, chunki faqat ana shunday insonlargina kelajakda odil jamiyat poydevorini yarata oladilar.

Olima D.Boyzoqova “Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.”, deya ta’kidlaydi. [7]

Xulosa qilib aytganda, milliy ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy hayotning va ma’naviy borlig‘imizning muhim va serqirra sohasi bo‘lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk bobolarimizning o‘lmas merosi bugungi yoshlarning ma’naviy tarbiyasida, ayniqsa, ularning milliy dunyoqarashi kengayishida bitmas – tuganmas xazinadir. Yoshlar ongiga buyuk bobokolonlarimizning g‘oyalarini ma’naviy qadriyat sifatida singdirish ularni ijodiy kamolot sari intilishiga turtki bo‘ladi va natijada ular ijtimoiy faol shaxs bo‘lishga intiladi, olimlik va komillik darajasiga erishishga havas qiladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2022 y. -B. 266.*

*https://yomi.uz/wpcontent/uploads/%D0%A2%D1%9E%D0%BF%D0%BB%D0%B0%D0%BC-10.03.2023_compressed.pdf*

*2. https://yomi.uz/wpcontent/uploads/%D0%A2%D1%9E%D0%BF%D0%BB%D0%B0%D0%BC-10.03.2023_compressed.pdf*

*3. Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma’naviyma’rifiy texnologiyalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari// O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi. – Toshkent, 2019.*

*4. M.Farmonova.Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi. Toshkent. Tasvir nashriyot uyi. 2019 y. -B. 9.*

*5. M.Normuratova. Harbiy xizmatchilarda axborot madaniyatini shakllantirish. “Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma’naviyma’rifiy texnologiyalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari// O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi. – Toshkent, 2019. – 24.*

*6.https://yomi.uz/wpcontent/uploads/%D0%A2%D1%9E%D0%BF%D0%BB%D0%B0%D0%BC-10.03.2023_compressed.pdf*

*7. D.Boyzoqova. Yoshlar tarbiyasida ma’naviyatning o‘rni. Patriotizm po amerikanskiy.[Elektron resurs].URL:https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_ab77d209b55f4577a0725ecc5edf689f.pdf?index=truye*

# ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAFKURAVIY ASOSLARI

**Avazbek INOMOV,**
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning mafkuraviy asoslari haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada globallashuv sharoitida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ichki ishlar organlari, ma’naviyat, ma’rifat, mafkura, globallashuv, davlat, jamoat, tahdid, tarbiya, jamiyat, mafkura, maqsad, manfaat.*

Globallashuv sharoitida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Binobarin, bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi taxdid va xatarlar tobora kupayib bormoqda. Bunday murakkab va taxlikali vaziyat ichki ishlar organlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baxolab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, mana shunday bir sharoitda mamlakatimizda ichki ishlar organlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni hozirgi g‘oyaviy va mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan taxlikali vaziyatda zamon talablari asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ma’naviyat masalasiga alohida e’tibor qaratilgani bejiz, emas, albatta. Bu xaqda Prezident Shavkat Mirziyoyev: “**Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat**”[1]. Zero, dunyo miqyosida shiddat bilan qechayotgan tahlikali jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar tizimini tubdan isloh etish tizimda ma'naviy-ma'rifiy sohani yangi bosqichga olib chiqish asosiy vazifa etib belgilandi. Ushbu vazifani amalga oshirishda ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy-ma'rifiy sohada dunyoqarashini yuksaltirish dolzarb vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Harakatlar strategiyasida "**Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak"**, degan tamoyil davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qabul qilingan PF-5005-sonli farmoni ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishning doktrinal va konseptual asosi bo'lib xizmat qilayapti. Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan mazkur farmon ichki ishlar organlari tizimida tub islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida yordam ko'rsatadigan, uning har bir xodimi **"Xalq manfaatlariga xizmat qilish"**ni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlashga e'tibor qaratilgan.

"2022-2026-yillapga mo'ljallangan Yangi O'zbekictonning tapaqqiyot ctpategiyaci"ning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish"[2] asosiy vazifa etib belgilangan. Xususan, mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha amaliy natijalarga erishilmoqda. **Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar xodimlarning zamonaviy qiyofasini yaratishga qaratilgan dasturiy hujjat 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining II yo'nalishi "mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" 17-maqsadi:** "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish", deb nomlanib, unda "Ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoya-

chisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo‘naltirish” vazifasi belgilangan. Zero, mazkur holatda bu xodimlarning o‘z vakolatlarini bajarish jarayonida faqatgina professionalizmning o‘zi yetarli emasligini, balki ma’naviy va ma’rifiy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Shu o‘rinda, ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviyati haqida fikr yuritganda eng avvalo, har bir xodim o‘zini xalq vakili sifatida ona Vatanini cheksiz sevadigan o‘z yurtiga fidoiy, fuqarolarning huquq va erkinliklarini vijdonan, imon-e’tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg‘arazlik bilan himoya qilishga qodir bo‘lgan jasoratli botir insonlar tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son Farmoniga 1-ilova “Ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ning II yo‘nalishida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar, xodimlarni uzluksiz tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarador mexanizmini joriy etish” 9 bandi – “Quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash belgilangan edi. Ya’ni: **“Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz”** konseptual g‘oyasi asosida xodimlarni tarbiyalashni takomillashtirish chora-tadbirlari, ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy maqsadi va vazifalari, har bir hududiy ichki ishlar organida jasorat va vatanparvarlik g‘oyalarini aks ettiruvchi ma’naviy-ma’rifiy burchaklarni (xonalarni) tashkil etish, mafkuraviy ishlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari, shu jumladan tarbiyaviy ishlar, targ‘ibot-tashviqot ishlari, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-huquqiy himoya va madaniy tadbirlar, ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish mexanizmlari” belgilangan edi.

Sir emaski, mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi davrda qaysi soha vakili bo‘lmasin, har bir inson, avvalo, o‘z salohiyati, ma’naviy dunyoqarashi, axloqiy fazilatlarini yuksaltirib borishi, yuzaga kelayotgan turli xatarlarga qarshi mustahkam immunitet hosil qilishi kerak[3].

Bugungi kunda yangi taraqqiyot sari dadil odimlayotgan mamlakatimizda ichki ishlar organlari tizimiga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgarib bormoqda. Bugun ichki ishlar organlari xodimi deganda xalqimiz ongida o‘z Vatanini jondan ortiq sevadigan, mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida jonini fido qiluvchi, xalq va millat manfaatlarini doim ustun quyadigan, odob-axloq qoidalari va huquqiy normalarga rioya etuvchi haqiqiy mard insonlar qiyofasi gavdalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-sonli qarorida ichki ishlar xodimlarni har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg‘unchi

g‘oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e’tiqodi va irodasi mustahkam, ma’naviyatli va fidoyi, ajdodlarimiz va mardlik ko‘rsatib halok bo‘lgan xodimlarning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ular qalbida davlat va xalqimizning xavfsizligini ta’minlashda shaxsiy daxldorlik va yuqori mas’uliyat hissini shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifasi sifatida belgilangan. Ushbu qarorga ko‘ra, Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi” tasdiqlandi[4].

Ushbu konsepsiyada ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning ma’naviy salohiyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash kabi ulug‘ maqsadlar o‘z aksini topgan.

Mazkur konsepsiya ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, sohadagi ishlarning ustuvor yo‘nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan. Konsepsiyada ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan barcha xodimlar va harbiy xizmatchilarning umumiy dunyoqarashi, siyosiy ongi, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, kasbiga nisbatan sadoqat va yuqori mas’uliyat hislarini oshirish bilan bog‘liq vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, knsepsiya milliy va xalqaro huquq normalari asosida ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning ma’naviy salohiyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg‘ularini mustahkamlash bilan bog‘liq faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.

Shuningdek, konsepsiyaning asosiy mazmuni sifatida xodimlarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish, faol hayotiy pozitsiyasi, intellektual salohiyatini, Ona Vatan taqdiriga bo‘lgan mas’uliyatini mustahkamlash, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetini kuchaytirish, ularni fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sadoqat va fidoyilik bilan vijdonan bajarishga yo‘naltirish bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishni ifodalaydi.

Konsepsiyada Konsepsiyaga ko‘ra, ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar ***“Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!”*** konseptual g‘oyasi asosida tashkil etilib, unda davlat mustaqilligini himoya qilish, huquq-tartibotni mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur g‘oyaning asosiy mazmun-mohiyati fuqarolarning tinchligi va mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlash uchun har qanday huquqbuzarlikka qarshi kurashishda o‘z jonini ayamaydigan, vatanparvarlik, fidoyilik, sadoqat va halollik fazilatlariga ega

xodimlarni shakllantirishdan iborat ekanligi belgilangan. Shu o‘rinda, ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning asosiy vazifalari sifatida konsepsiyada quyidagilar belgilangan. Jumladan, xodimlarni yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega, jismonan va ma’nan yetuk, bilimli, halol, vatanparvar, mard va jasur etib tarbiyalash, xodimlarning faol hayotiy pozitsiyasini mustahkamlash, intellektual salohiyatini yuksaltirish, ona Vatan taqdiriga bo‘lgan mas’uliyatini oshirish hamda g‘oyaviy va turli axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, xodimlarni fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sadoqat va fidoyilik bilan vijdonan bajarishga yo‘naltirish kabi vaziflar belgilangan. Shu bilan birga Konsepsiyada ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Ichki ishlar vazirligining normativ hujjatlariga muvofiq tashkil etilishi belgilangan[5].

Shu o‘rinda, konsepsiyani asosiy maqsadi xodimlarni har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e’tiqodi va irodasi mustahkam, ma’naviyatli va fidoyi, ajdodlarimiz va mardlik ko‘rsatib halok bo‘lgan xodimlarning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ular qalbida davlat va xalqimizning xavfsizligini ta’minlashda shaxsiy daxldorlik va yuqori mas’uliyat hissini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, quyidagilar Konsepsiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Ya’ni:

xodimlarning ma’naviyati va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an’analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan yagona tizimni yaratish;
xodimlarning ongu tafakkuriga Vatan va xalq manfaatlariga xizmat qilish sharafli va muqaddas burch ekanini anglatish, davlatimiz va ichki ishlar organlarining timsollari bilan faxrlanib, qasamyodiga sodiq bo‘lish hamda kasbiy burchini bajarishda qonuniylikka qat’iy rioya etish tuyg‘usini chuqur singdirish orqali xalqning ularga bo‘lgan ishonchi va hurmat hissini yuksaltirish;

xodimlarning ongi va qalbiga “Yangi O‘zbekiston – uchinchi Renessans sari!” g‘oyasining mazmun-mohiyatini singdirish asosida ularning Vatan va xalq taqdiriga, davlatimiz hamda islohotlar talablariga daxldorligini yanada oshirish; shaxsiy tarkibga mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini tizimli tushuntirish hamda dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularning ongli munosabati hamda faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish;

milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o‘rganish hamda tahlil qilish,

Vatanimiz ozodligi va tinchligi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ‘ib etish asosida xodimlarda xizmat burchini bajarish borasida qat’iy hayotiy e’tiqodni qaror toptirish;

xodimlarning estetik tarbiyasini kuchaytirish, ularning madaniyat va san’atning turli sohalariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ushbu maqsadda adabiyot, kino, teatr, tasviriy san’at imkoniyatlaridan keng foydalanishni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish;

xodimlarning ichki va tashqi ma’naviy tahdidlar hamda korrupsiyaga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ichki ishlar organlarining ijobiy imijini shakllantirish hamda shu maqsadda fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat[6].

Ayniqsa, bugungi kunda taraqqiyot sari dadil odimlayotgan yangi O‘zbekistonda xalqchil ichki ishlar organlari tizimini yaratish – ***bosh g‘oyaga***, “***Vatan va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz***” konseptual g‘oyasi ichki ishlar organlari xodimlarining harakat dasturiga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25-oktabrda Ichki ishlar xodimlarini kasb bayrami munosabati bilan bayram tabrigida so‘zlagan nutqida: “**Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo‘lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo‘ladi**” [7], – deya ta’kidlagani ayni haqiqatdir. Shu o‘rinda, Davlatimiz rahbari o‘z fikrini davom ettirar ekan, hayotning o‘zi oldimizga qo‘yayotgan ana shunday o‘tkir, kechiktirib bo‘lmas talablardan kelib chiqqan holda, ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun quyidagi vazifalarga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlab o‘tdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar organlarining faoliyati ochiq va oshkoralik yo‘sinida, fuqarolarning ularga ishonchi oshishini ta’minlaydigan tarzda tashkil etilmoqda. “**Odamlarni eshitish boshlandi. Ularning zarur muammolari, dardu tashvishlarini o‘rganish tizimi yaratildi**”[8]. Zero, bugungi kunda xalq bilan aniq maqsadni ko‘zlab o‘tkaziladigan tizimli muloqotlar boshlandi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yildi, aholining eng muhim muammolari hal etishga har tomonlama ko‘maklashish asosiy vazifa sifatida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalalari Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida eng muhim va ustuvor yo‘nalishi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda amal-

ga oshirilayotgan tub islohatlar ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatadigan, uning har bir xodimi **“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”**ni o‘z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga zamin yaratdi. Zero, bugungi zamon zamon shiddati inson uchun ma’naviyat naqadar najotkor kuch ekanligini namoyon etmoqda. Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: **“Odamlar ichki ishlar organining har bir xodimida o‘z himoyachisini ko‘rishi kerak”**. Zero, el-yurtimizni ishonchi va mehrini qozongan, tom ma’nodagi xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar zamirida mamlakatimiz tinchligi va barqarorligini ta’minlash va halqimizni osuda hayotni asrab avaylash har bir vatandoshimizni muqaddas burchi ekanligini teran anglashimiz lozim.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


*1. Shavkat Mirziyoyev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir https://uza.uz/uz/posts/shavkat-Mirziyoyev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-zhoni-va-ruhi-manaviyatdir_235451*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063*

*3. Qobilov Sh. Davlat va xalq tayanadigan asosiy ustun – qonun uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim esa ichki ishlar sohasi. https://yuz.uz/news/davlat-va-xalq-tayanadigan-asosiy-ustun--qonun-uning-kuchini-amalda-namoyon-etadigan-eng-samarali-tizim-esa-ichki-ishlar-sohasi*

*4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/5353841*

*5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/5353841*

*6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/5353841*

*7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-oktabr kuni ichki ishlar xodimlarini kasb bayrami munosabati bilan bayram tabrigi (2020-yil 25-oktabr). Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga. Yangi O‘zbekiston gazetasi. № 218 (740), 2022-yil 25-oktabr, seshanba*

*8.Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / M.Bekmurodov, Q.Quronboev, L.Tangriev. – T. 2017. – B. 25*

# MUNDARIJA


| № | Muallif, maqola mavzusi | Bet |
|---|---|---|
| | SO‘Z BOSHI. Qahramon Quronboyev | 3 |
| | **I. SHO‘BA. TA’LIM VA TARBIYA: MAKTABGACHA, MAKTAB VA OLIY TA’LIM TIZIMLARIDAGI YANGI IMKONIYATLAR** | |
| | MA’NAVIY YANGILANISH – BUNYODKOR XALQIMIZ QUDRATI, O‘ZARO BIRDAMLIK RUHIDAGI EZGU INTILISHLARIDA NAMOYON BO‘LMOQDA. Minhojiddin Mirzo | 7 |
| | MA’NAVIY TARBIYADA KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING AHAMIYATI. Olimjon Davlatov | 13 |
| | YOSHLAR TARBIYASI – III RENESSANS MA’RIFIY STRATEGIYASINING ASOSI. Mansur Bekmurodov | 20 |
| | IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA TA’LIM VA TARBIYANING O‘RNI. Xusniddin Axmedov | 25 |
| | GLOBALLASHUV KONTEKSTIDA TALABA YOSHLAR AKSIOLOGIK ORIYENTATSIYASINING XUSUSIYATLARI. Farida Yuldasheva | 29 |
| | YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASINING HUQUQIY ASOSLARI. Ruzimurat Choriyev | 33 |
| | ZAMONAVIY YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY TARBIYANING AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR Sarvarjon G‘AFUROV | 37 |
| | YOSHLARNI VATANPARVALIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY G‘OYANING AHAMIYATI. Mansur Musayev | 42 |
| | TA’LIM TIZIMLARI O‘RTASIDAGI INTEGRATSIYALASHUV – YANGI O‘ZBEKISTONDAGI USTUVOR QADRIYAT SIFATIDA. Baxtiyor Rasulov | 48 |
| | TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI TARBIYALASH: TA’LIM TIZIMIDA QADRIYATLARNI O‘ZGARTIRISH. Baxti Ochilova | 54 |
| | O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TA’LIM ISLOHOTLARI. Ulug‘bek Yazdonov | 59 |
| | YAXSHI FARZAND TARBIYALAMOQ HAM JASORATDIR. Arofat Ismanova | 64 |
| | TA’LIM VA TARBIYA RIVOJIDA MA’NAVIY JARAYONLARNING AHAMIYATI. Shavkat To‘rayev | 69 |
| | MA’RIFATLI JAMIYAT QURISH YO‘LIDA SIYOSIY MA’NAVIYATNI YUKSALTIRISHNING AHAMIYATI. Usmonjon Bo‘tayev | 73 |
| | TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA JAMOATCHILIK FIKRINING AHAMIYATI. Jamila Shermuhamedova | 77 |
| | OLIY TA’LIM VA MAKTAB HAMKORLIGI ASOSIDA TA’LIM SIFATINING NAZORAT-BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISh. Ilyosjon Siddiqov | 81 |
| | O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLAR TIZIMIDA YOSH HARBIY XIZMATCHILARNI TAYYORLASH VA O‘QITISHNING YANGI IJODIY IMKONIYATLARI. Mansur Sherov | 84 |
| | KONSTITUTSIYA – TA’LIM ISLOHOTLARINING POYDEVORI. G‘.Z.Ikmatullayev | 88 |
| | SIFATLI TA’LIM – UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI. Bo‘ri Qodirov, Zoirxo‘ja O‘lmasxo‘jayev | 92 |

| | | |
|---|---|---|
| | YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TIBBIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH. Shaxlo Djamaldinova | 96 |
| | MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASI: SHAXS AYBINI ISBOTLASH SUBYEKTLARI MISOLIDA. Shavkat Fayzullayev | 100 |
| | ZAMONAVIY TA’LIMDA INSONPARVARLIK VA INSONPARVARLASHTIRISH MASALASI. Nurjaxon Eshonkulova | 104 |
| | MA’RIFATLI SHAXS KAMOLOTIDA MA’NAVIY IDEALLAR ZARURATI. Xurshid Serobov | 107 |
| | TA’LIM – KELAJAK POYDEVORI (Ta’lim va tarbiya: maktabgacha, maktab va oliy ta’lim tizimidagi yangi imkoniyatlar) Dilfuza Turg‘unova | 112 |
| | YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY MAKONNI BARPO ETISHNING IMKONIYATLARI. Ilxom Fayzullayev | 116 |
| | **II.TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH METODIKASI HAMDA TARG‘IBOTNING YANGI TEXNOLOGIYALARI** | |
| | MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASIDA DUNYOVIY VA DINIY ILMLARNING UYG‘UNLIGI MASALASIGA DOIR. Abduhalil Mavrulov | 119 |
| | MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASIGA OID MULOHAZALAR. Jumaniyoz Ramatov | 126 |
| | GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION OMILLARI. Akbar Saitqosimov | 130 |
| | RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MA’RIFATLI SHAXSNI TARBIYALASH MASALALARI. Azizbek Egamberdiyev | 135 |
| | YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARDA MA’NAVIY YUKSALISH OMILLARI. Otabek Bazarov | 139 |
| | TA’LIM MUASSASASIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH METODIKASINING JORIY ETILISHI. Munira Kaxarova | 144 |
| | O‘QUV JARAYONI SIFATINI TA’MINLASHDA SINERGETIK METODOLOGIYANING O‘RNI. Shaxzoda Negmatova, Maxbuba Ergasheva | 150 |
| | TA’LIM SOHASIDAGI BOSHQARUV FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI: MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI. M.F.Hakimova, O.Sh. To‘qumbetov, M.U.Ne’matova | 154 |
| | TALABALARNING MA’NAVIY-MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI. Inomjon Asatulloyev | 157 |
| | TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA VOYAGA YETMAGANLARDA XULQ OG‘ISHINING OLDINI OLISHNING IJTIMOIY – PSIXOLOGIK JIHATLARI. Feruza Rajabova | 168 |
| | YOSHLAR MA’NAVIY QIYOFASINI MUSTAHKAMLASHDA IJTIMOIY FANLARNING TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISH OMILLARI. Asliddin Quldoshev | 173 |
| | KREATIVLIK VA KREATIV FIKRLASHNING MOHIYATI. Sherzod Yuvashov | 177 |
| | TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH METODIKASI HAMDA TARG‘IBOTNING YANGI TEXNOLOGIYALARI. Ilhomjon Ergashev | 181 |
| | TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZARARLI AXBOROTLARNING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TAHDIDI OLDINI OLISH ASOSLARI. Nigora Xusanova | 184 |
| | IJTIMOIY TARMOQLARDAN TA’LIM JARAYONLARIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Alisher Madraximov | 190 |
| | YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLAR VA MA’NAVIY MEROSNI TARG‘IB ETISHNING AHAMIYATI. Dilmurod Yaxyayev | 195 |
| | КЛАССИФИКАЦИЯ УГРОЗ И КОНФЛИКТОВ, СВЯЗАННЫХ СО СТАБИЛЬНОСТЬЮ И БЕЗОПАСНОСТЬЮ ОБЩЕСТВА. Отабек Рахматов | 200 |


ZJV5401

| | | |
|---|---|---|
| | YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI VA OMILLARI. Kamoliddin To‘rayev | 204 |
| | ABU NASR FOROBIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA UNING ILM-FAN RIVOJIDAGI AHAMIYATI. Jaloliddin Yusubov | 208 |
| | **III. TA’LIMNI TURLI BOSQICHLARIDA UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEZONLARI** | |
| | KONSTITUTSIYA, MILLIY MAFKURA VA MA’NAVIYAT: QAT’IY POZITSIYALAR ZARURATI. Sultonmurod Olim | 213 |
| | YOSHLARDA DAXLDORLIK FAZILATINI TARBIYALASHNING NAZARIY VA TEXNOLOGIK MOHIYATI TO‘G‘RISIDA. Muhammadjon Quronov | 237 |
| | SIFATLI TA’LIM VA GUMANITAR TARBIYA – MA’RIFATLI AVLODNI SHAKLLANTIRISH OMILI. Qiyom Nazarov | 242 |
| | OILALARDA O‘SMIR YOSHLARNI IJTIMOIY-MA’NAVIY HAYOTGA TAYYORLASH METODIKASI. Baxtiyor Xusanov | 248 |
| | OLIY TA’LIM MUASSASALARI VA OLIY MAKTAB PSIXOLOGIYASI. Shaxnoza Akramova | 253 |
| | TA’LIM TIZIMIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARDORLIGINI OSHIRISHDA “HALOLLIK VAKSINASI”NING O‘RNI. Farxod Nabiyev | 259 |
| | КРИТЕРИИ ОРГАНИЗАЦИИ И ОЦЕНКИ ПРОЦЕССА НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ. Дилрабо Амридинова | 263 |
| | UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI. Bobomurod Toshboyev | 268 |
| | YANGI O‘ZBEKISTON: TA’LIM TIZIMIGA YANGICHA YONDASHUV – YANGI IMKONIYATLAR. Elmurod Abdullayev | 273 |
| | MA’NAVIY-MA’RIFIY TARBIYA, JAMIYAT VA YOSHLAR. Javohir Yuldashev | 279 |
| | MILLIY TARBIYA TIZIMIDAGI YANGI ISLOHOTLAR. Xazrat Jabborov | 283 |
| | TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSIYA SUBYEKTINING ROLI. Faxriddin Choriyev | 288 |
| | BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA JARAYONIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Baxtiyorjon Baratov | 292 |
| | **IV. TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI** | |
| | YOSHLAR MUHITIDA AXBORIY-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH. Umarali Qodirov | 304 |
| | YOSHLARNI ZAMONAVIY TAHDID VA XATARLARDAN HIMOYA QILISH. Shuxrat G‘oyibnazarov | 309 |
| | TALABALAR TARBIYASI – DAVLATCHILIK ASOSIDA TURGAN FUNDAMENTAL QADRIYAT. Ziyoda Azimova, Yayraxon Umarova | 317 |
| | MA’NAVIYAT MAKTAB OSTONASIDAN BOSHLANADI. Muhammadjon To‘xtasinov | 322 |
| | MUSIQA MADANIYATINING O‘QUVCHILAR MA’NAVIYATI RIVOJLANISHIDA TUTGAN O‘RNI. Rustam Abdullaev | 326 |
| | ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА. Цой Марина Петровна | 329 |
| | TA’LIM VA TARBIYADA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA DOIR MASALALAR. Baxtiyor Tolipov | 332 |
| | YANA MA’RIFAT XUSUSIDA... Toji Norov | 335 |

| | | |
|---|---|---|
| | TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR. Usmonjon Bo‘tayev, Abdumutal Abdurahmanov | 343 |
| | СПОРЫ, РАЗНОГЛАСИЯ И КОНФЛИКТЫ КАК УГРОЗА СТАБИЛЬНОСТИ И БЕЗОПАСНОСТИ ОБЩЕСТВА. Одил Мусаев, Отабек Рахматов | 347 |
| | YOSHLARDA TOLERANTLIK G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODALOGIK ASOSLARI. Ravshonbek Saurov | 351 |
| | VATANPARVARLIK TARBIYASI VA UNING IJTIMOIY AHAMIYATI. Shahlo Ahrorova | 353 |
| | TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI USTUVOR VAZIFALARNI TA’MINLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Akbar O‘tamuradov | 359 |
| | GLOBALLASHUV SHAROITIDA SHAXS QADRIYATLARI TRANSFORMATSIYASINING ASOSIY JIHATLARI. Maxmud Majitov | 364 |
| | TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARINI MA’NAVIY SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH. Narimon Dexkanov, Mirjalol Rustamaliyev | 370 |
| | MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH. Abdusattar Abdug‘affarov | 374 |
| | YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSH OFITSER KADRLARNI TAYYORLASHDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNING O‘RNI VA ASOSIY YO‘LLARI. Uktam Urunov | 379 |
| | YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-AXLOQIY ONG MUAMMOSI. Kimyoxon Kamolova | 383 |
| | YOSHLARNING MA’NAVIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING O‘RNI. Asliddin Dusboyev | 387 |
| | O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING MA’NAVIY JIHATLARI. Xudaynazar Kuchkarov | 392 |
| | JAMIYATDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIKNI TA’MINLASHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI. Berdimurod Xolbekov | 397 |
| | **V. IJTIMOIY AXLOQ MEZONLARI HAMDA YOSHLAR ONGIDAGI QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR** | |
| | MA’RIFATLI SHAXS – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI. Ibodulla Ergashev, Azamatjon Xudaynazarov | 402 |
| | YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SIYOSIY TARBIYANING O‘RNI. Sadulla Atamuratov | 405 |
| | MARIFATLI AYoL – MILLAT TAYANCHI. Mukarram Nurmatova | 410 |
| | YANGI O‘ZBEKISTONNI QURISHDA MA’NAVIY, IJTIMOIY-AXLOQIY QARASHLARNING O‘RNI. Bekdavlat Aliyev | 414 |
| | O‘ZBEK MILLIY-ETNIK QADRIYATLARINING EVOLYUTSIYASI VA UNING YOSHLAR AXLOQIY-ESTETIK TAFAKKURDAGI TRANSFORMATSIYASI. Aktamkul Samadov, Aminjon Aymatov | 420 |
| | ПОЛИТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА ЛИЧНОСТИ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА. Бердикул Туйчиев | 425 |
| | MA’RIFATLI SHAXS TAKOMILIDA KEKSALIK VA YOSHLIK NISBATI: HOLAT VA ISTIQBOLLAR: SHAXSIY HUQUQLARMI YOKI AXLOQ. Mirodiljon Baratov | 431 |
| | BA’ZI OSIYO MAMLAKATLARINING XALQONA ISLOHOTLARI. Baxtiyor Omonov | 436 |
| | IJTIMOIY DAVLAT – IJTIMOIY TARAQQIYOT GAROVI. Azamat Muxtarov | 439 |
| | YOSHLARNI TARBIYALASHDA QADRIYATLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI. Sarvar Otamuratov | 445 |
| | SHAXS MA’NAVIYATI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR. Ilhom Suvanov | 449 |

| | | |
|---|---|---|
| | MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASIDA HIKMATLARNING O‘RNI. Ishqobil Xoliqov | 452 |
| | SHAXS MA’NAVIY KAMOLOTIDA AXLOQIY QADRIYATLAR VA DINIY E’TIQOD UYG‘UNLIGI. Muhammadjon Parpiyev | 459 |
| | YANGI DAVR SERIALLARIDA IJTIMOIY AXLOQ MASALASI VA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI. Omina Azizova | 465 |
| | MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIKNI SAQLASH BORASIDA O‘ZBEKISTON SIYOSATI IJTIMOIY AXLOQNI SHAKLLANTIRISHNING MEZONI SIFATIDA. Ulug‘bek Saidov | 468 |
| | YOSHLAR ONGIDA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA MILLIY ETNOGRAFIYA MUZEYINI TASHKIL ETISHNING ROLI. Gulra’no Orifjonova | 474 |
| | QADRIYATLARNING PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA AKS ETISHI. Umida Kabulova | 478 |
| | JAMIYAT TRANSFORMATSIYASIDA – MILLIY MENTALITETDA RATSIONALLIK VA IRRATSIONALLIK UYG‘UNLIGI. Tohir Qurbonov | 482 |
| | RADIKALLASHUV XAVFLI IJTIMOIY, MA’NAVIY VA MAFKURAVIY HODISA SIFATIDA. Fazilat Qo‘ysinova | 486 |
| | ALISHER NAVOIY ASARLARIDA NAQSHBANDIYA G‘OYALARI. Marhabo Pardayeva | 492 |
| | YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI TAFAKKURINI YUKSALTRISHDA MUTOLAA MADANIYATINING O‘RNI BORASIDA IJTIMOIY-FALSAFIY FIKRLAR. Abdulvohid Abdulazizov | 498 |
| | JAMIYAT HAYOTINING VIRTUALLASHUVI SHAROITIDA YOSHLARDA AXLOQIY QADRIYATLAR METAMARFOZASINI OLDINI OLISH ZARURATI. Abror Sanaqulov | 502 |
| | O‘ZBEK XALQINING TARIXIY VA MILLIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI. Nodira Sultonova | 507 |
| | YOSHLAR ONGIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI MUAMMOLARI. Avazbek Shermatov | 511 |
| | BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA DINIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI. Shukrullo Jo‘rayev | 515 |
| | MILLIY QADRIYATLARIMIZDA MEHR VA SAXOVAT TUSHUNCHALARINING AKS ETISHI VA ULARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI. Iqboloy Umarova | 519 |
| | MA’NAVIY TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI. Komil Avazov | 525 |
| | YOSHLAR ONGIDAGI QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASIGA “OMMAVIY MADANIYAT” VA “OVERTON TUYNIGI”NING SALBIY TA’SIRI. Davlatjon Mamatkulov | 530 |
| | QADRIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA. Maftuna Namozova | 535 |
| | DAVLAT XIZMATI SOHASIDA MODERNIZATSIYA TUSHUNCHASI VA UMUMIY TASNIFI: XORIJ TAJRIBASI. Kuatbay Mirzabayev | 541 |
| | AXBOROT MAFKURAVIY XAVFSIZLIK TIZIMINI TA’MINLASH MASALALARI. (xorijiy davlatlar misolida) Xayrulla Umarov | 547 |
| | O‘ZBEK XALQ TEATRI VA OG‘ZAKI DRAMALAR – IJTIMOIY, AXLOQIY MASALALARNI AKS ETTIRISH VOSITASI. Baxtiyor Mirzaraximov, Nodirabegim Qosimjonova | 554 |
| | YOSHLARDA MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHNI YUKSALTIRISHGA DOIR USTUVOR VAZIFALAR. Sirojbek Sultanov | 555 |
| | YOSHLAR VA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI: MILLIY YUKSALISH YO‘LIDAGI MUAMMOLARNI HAL QILISHNING ASOSIY BO‘G‘INI. Nuriddin Ergashev | 560 |
| | ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAFKURAVIY ASOSLARI. Avazbek Inomov | 564 |

# YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari

Nashriyot litsenziya raqami
AAN№ 0039 10-dekabr, 2019-yil.

«Ganjina» nashriyoti Toshkent, Yunusobod 11-2-14.
Telefon: (71) 225-82-99, +99 893-549-13-66

2023-yil 10-iyulda bosishga ruhsat etildi. Bichimi 70x100 1/16.
«Cambiria» garniturasi. 18 bosma taboq. Adadi 260 nusxa.